

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI AKADEMIYASI

O‘ZBEKISTONNING YANGI TARIXI MARKAZI

HAMDAM SODIQOV, NARZULLA JO‘RAYEV

O‘ZBEKISTON TARIXI

**Turkiston Chorizm
mustamlakachiligi davrida**

(birinchi kitob)

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2011
www.ziyouz.com kutubxonasi

УДК 94(575.1)
ББК. 63.3(59)64
J – 96

T a h r i r h a y ' a t i:

Anatoliy Sagdullayev, Najmiddin Komilov, Fatxulla Ergashev,
Nazira Abduazizova, Anvar Yaxshiyev

M a s ' u l m u h a r r i r:

Nazira ABDUAZIZOVA – Tarix fanlari doktori, professor.

T a q r i z c h i l a r:

N. Abdurahimova, A. Abdurasulov,
Sh. Vohidov, A. Ibrohimov.

J – 96 Jo'rayev, Narzulla.

O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob / Mas'ul muharrir N. Abduazizova. – T.: «Sharq», 2011. – 552 b.

УДК 94(575.1)

ББК. 63.3(59)64

ISBN 978-9943-00-637-9

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2011.

www.ziyouz.com kutubxonasi

**«O'ZBEKISTONNING YANGI TARIXI»
HAQIDA IKKI OG'IZ SO'Z**

«O'zbekistonning yangi tarixi» xalqimiz va mamlakatimizning ko'hna va boy tarixini chuqur o'rganish hamda haqqoniy tahlil qilish yo'lida qo'yilgan dastlabki qadamdir. Bu kitobning yozilishida Yurtboshimiz Islom Karimovning: «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»¹, – degan so'zlari dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Shuni alohida ta'kidlamoqchimizki, katta va ko'p yillik boy o'tmishimizni yangi davr tarixidan – chor Rossiyasi mustamlakachiligi, sho'rolar diktaturasi va milliy mustaqillikka erishganimiz (1991 yil 31 avgust) davri tarixidan boshladik. Bunda qadimgi davr va o'rta asrlar tariximiz yozilmasa kerak, degan xayolga bormaslik lozim. Hammasi tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan yoziladi, albatta. Chunki mamlakatimizning tarixi boy va ko'hna. U jahon sivilizasiyasi o'choqlaridan biridir. Hududimizda, manbalarning guvohlik berishi-cha, birinchi inson bir million yil avval paydo bo'lgan. Bu o'ziga xos tarixni o'rganmay bo'ladimi? O'zbekiston tarixini mukammal va yaxlit o'rganishga ikkita sabab bor. Birinchidan, tariximiz ilgari hukmron g'oya ta'sirida yozilgan; ikkinchidan, qadimiy manbalar ko'p hollarda xaspo'shlab o'tilgan, bo'lib o'tgan hodisa va voqealarga bir taraflama yondoshilgan. Shu sabablarga ko'ra, ko'p voqea va hodisalar sayoz yoritildi, hatto yoritilmay qoldi. Ko'rib turibsizki, qadimgi va o'rta asrlar tarixini yana bir bor sinchiklab o'rganib chiqish, o'rganganda ham o'sha zamonlarda yozilgan tarixiy asarlar va hujjatlar asosida tadqiq qilishga to'g'ri keladi

Yangi tarixni avvalroq o'rganish va yozishdan ko'zlangan maqsad butun tariximizni, qadimgi va o'rta asrlar tarixini ilmiy-ob'ektiv o'rganish va to'g'ri yoritishni boshlab beradi, degan umiddamiz.

¹ Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yuli. T.: O'zbekiston, 1992, 71-bet.

«O‘zbekistonning yangi tarixi» ilmiy-ommabop uslubda, Islom Karimov ta’limotiga asoslangan holda hamda tarixiy manbalar: asl hujjatlar, esdaliklar, qo‘lyozma asarlar va o‘sha davr tarixiga oid, shuningdek, mustaqillik davri adabiyotlari asosida yozildi.

Shu o‘rinda Prezident I.A.Karimov «Haqqoniy tariximizni barpo etish ishini nimadan boshlash lozim?» degan savol qo‘yib, unga javob berar ekan, «Avvalo, ko‘p ming yillik boy o‘tmishimizni tadqiq etishning yaxlit konsepsiyasini, ya’ni dasturini, ilmiy izlanishlarning uslubini»¹ aniqlashdan, tarixiylikni ta’minlashdan boshlash lozimligini uqtiradi. Demak, kitoblarni yozishda tarixiylik, vorisiylik va uzviylik tamoyillariga amal qilindi.

«O‘zbekistonning yangi tarixi» uch kitobdan iborat.

Birinchi kitobda Turkiston o‘lkasining chor Rossiyasi mustamlakasiga aylanishi, uning sabablari, mustamlakachilik tuzumining Turkiston xalqlari boshiga solgan zulmu bedodliklari atroficha yoritiladi. Bu borada, xususan, quyidagi to‘rt masalaga to‘xtalib o‘tiladi:

1. Chor Rossiyasi bosqini arafasida o‘zbek xonliklari (Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi)dagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

2. O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya tomonidan istilo etilishi.

3. Chor Rossiyasining Turkistonni iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy jihatdan to‘la mustamlakaga aylantirish uchun tutgan siyosati va uning ayanchli oqibatlari.

4. Turkiston o‘lkasida milliy davlatchilikni tiklash va istiqloлга erishish uchun olib borilgan kurashlar, xalq harakatlari, jadidchilikning dastlabki qadamlari.

«O‘zbekistonning yangi tarixi»ning ikkinchi kitobida mamlakatimizning sho‘rolar tuzumi (1917–1991) davri tarixi tarixiy manbalar va yangi tadqiqotlar asosida, xolisona bayon qilinadi. Kitobda asosan quyidagi masalalar tahlil qilinadi:

1. Bolsheviklarning mash‘um oktyabr (1917) to‘ntarishidan so‘ng Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik va istiqloлга uchun olib borgan kurashini bo‘g‘ib tashlashga qaratilgan siyosati hamda mustabid sho‘ro diktaturasi o‘rnatilgandan keyin soxta davlatchilik faoliyati; mulkdorlar sinfi va mulkga egalik qilish tuyg‘usini yo‘qotishga qaratilgan faoliyati; O‘zbekistonda amalga oshirgan

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Sharq», 1998, 30-bet.

qatag'onlik va sovet Rossiyasining Turkistonni paxta va umuman xom ashyo manbaiga aylantirishi.

2. Markazning O'zbekistonni umumbashariy qadriyatlardan chetlatishi, uning tabiiy va madaniy boyliklarini ayovsiz talashi, paxta yakkahokimligini kuchaytirib, mamlakatni og'ir ekologik ahvolga tushirib qo'yishi va buning oqibatlari.

3. Marksizm-leninizm ta'limoti va kommunistik mafkura tamoyillari, g'oyalari va bayrog'i ostida O'zbekistonda barpo etilgan «sossialistik jamiyat», uning manfaat hamda asl maqsadi. Shu bilan birga, sho'ro tuzumi davrida faoliyat ko'rsatgan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan va madaniyat namoyandalarining ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-adabiy faoliyati, ularning mamlakat va xalq oldidagi xizmatlari va shaxsiy fojialari.

4. SSSRning tanazzulga uchrashi mantiqan va tarixan qonuniy bir hol ekanligi hamda mash'um kommunistik ta'limotning O'zbekiston xalqlari uchun tamoman yot va begunaligi.

«O'zbekistonning yangi tarixi»ning uchinchi kitobi mustaqillik davri tarixini o'z ichiga oladi.

«O'zbekistonning yangi tarixi»ni yaratishda ijtimoiy fanlar vakillari, ayniqsa atoqli tarixshunos olimlar, jamoat arboblarning bildirgan fikr-mulohazalari va ko'maklari ham foydali bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining «O'zbekistonning yangi tarixi» markazi buning uchun ularga samimiy minnatdorchilik izhor qiladi.

MUALLIFLARDAN

Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur.

Islom Karimov

* * *

Rim tarixchisi Pompey Trog ta'biricha, tarixining qadimiyligi jihatidan ko'hna Misr bilan bellasha oluvchi umumjahon tamadduni-ning tarkibiy qismi, Turon, Movarounnahr, Chig'atoy ulusi, Turkiston deb turli asrlarda turfa nomlar bilan atalgan diyorumiz osmonini qora bulutlar qoplagan yillar ko'p bo'lgan. Bu o'lkaga hasad va tajovuz ko'zi bilan qaragan, mardona xalqini qul, tabiiy zahiralari o'ziniki qilishga jon-jahdi bilan intilgan bosqinchilar son-sanoqsiz edi.

Biroq, hamma zamonlarda ham yovga qarshi xalqimizning vatanparvar yo'lbo'shchilari, millat qahramonlari ozodlik yalovini baland ko'targanlar, or-nomus, o'zlikni saqlash uchun kurashganlar. Pirovard natijada, dushmanlar qoldirgan kultepalar ustida obod qishloqlar va shaharlar tiklaganlar.

«Avesto» vujudga kelgan zamonlardayoq o'z tarixiy davlat-chiligiga ega bo'lgan Turkistonni oq va qizil saltanatning 130 yil davom etgan hukmronligi istibdodga chulg'ab, mustamlaka va mute'ga aylantirgan edi.

Zo'ravonlik bilan ushlab turilgan qizil saltanat tuzumi chor Rossiyasi o'rnatgan mustamlakachilik siyosatining izchil davomi, milliy o'lkalarni ezish va talash, madaniyati va ma'naviyatini oyoq osti qilishning takomillashgan shakli ekanligini yurtimizning fidoyi davlat arboblari, olimlar, sho'ir va adiblar teran fahmlar edi.

Sobiq sho'ro saltanati yillarida eng qadimgi davrlardan to XIX asr ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan tariximiz soxtalashtirildi. Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda: «O'zbekistonning, o'zbek

xalqining bugun keng ommaga yetkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi – yo‘qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O‘zgalar yozib bergan tarixni o‘qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o‘ziga qaram bo‘lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g‘ayratlarini Turkistonning o‘tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo‘lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixidan judo bo‘lish – hayotdan judo bo‘lish demakdir»¹, – deb juda o‘rinli uqtirgan edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkistonda istibdodga va xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi. Mahalliy aholini xo‘rlash va qatag‘on etish oktyabr to‘ntarishi tufayli hokimiyatga kelgan sho‘ro saltanati davrida yanada kuchayib, eng yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Shu tariqa, Turkistonda mustaqil davlatchilikni poymol etgan, til, madaniyat, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni oyoq osti qilgan mustabidlik tuzumi 130 yil umr ko‘rdi.

Yaqin va o‘tmish tarix bugungi kun va kelajak uchun ibrat darsligidir. Darvoqe, «vatan, millat taqdiri hal bo‘ladigan qaltis vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olish uchun, avvalo, tarixni va hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak ekan. Tarix insonning ko‘zini ochar ekan. Shunda ko‘p xatolarning oldini olish mumkin bo‘lar ekan»².

Endiliqda, O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida kurrai zaminda qad rostlaganining o‘n to‘qqiz yilini kechirayotgan damlarda kechagi kunga nazar tashlash, so‘nggi mustamlakachilik asoratini o‘rganish ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, millatni asrash uchun uning haqiqiy tarixini o‘rganish, avaylab himoya qilish kerak bo‘ladi.

Chor Rossiyasi, shuningdek, mazlum xalqlarni ezish va xunrezlik qilishda uning davomchisi bo‘lgan sobiq sho‘ro saltanati yillarida mustamlaka respublikalar, xususan, O‘zbekiston ittifoqning xom ashyo manbaiga aylantirilgan edi. Mustaqillikning ilk qadamlaridanoq o‘lka boyliklarini bu yanglig‘ ommaviy talon qilish oqibatlariga chek qo‘yishga va umuman, qizil saltanat qoldirgan illatlardan qutilishga kirishildi. Xalqimiz o‘zligini teran angelayotgan, qadriyatlar tiklanayotgan, ozod, hur davlatni mustahkamlash uchun mashaqqatli

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «O‘zbekiston», 1999, 10-bet.

² Karimov I. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar. T.: O‘zbekiston, 1999, 4-bet.

bunyodkorlik, yaratuvchilik ishlari keng ko‘lamda olib borilayotgan shu kunlarda O‘zbekiston yangi tarixini yaratish zaruriyatini hayot taqozo etayotir. Zero, Prezident I.A. Karimov haqli ravishda O‘zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o‘lkaning tarixi, madaniyati, an‘analarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg‘urish ko‘p millatli o‘zbek jamiyatining muhim jisplashtiruvchi asosi deb ta’kidladi. Istiqlol yo‘lini tanlagan, murakkab davr va murakkab sharoitda bu yo‘ldan qat‘iyat bilan olg‘a borayotgan O‘zbekistonning yaqin kelajakda buyuk davlat bo‘lishi uchun uzoq davom etgan mustamlaka siyosati hosil etgan girdobdan chiqib olishi zarurligini bir necha bor uqtirgani bejiz emas. Buning uchun rus mustamlakachiligining tabiatini, uning uzoqni ko‘zlagan istibdodi mohiyatini, bir so‘z bilan aytganda, tarixini o‘rganish, xulosalarga kelish taqozo etiladi.

Aytish joizki, 130 yil davomida qattiqqo‘llik bilan hayotga tatbiq etilgan mustamlakachilikning mash‘um tamoyillari qoldirgan asoratni bugungi kunda O‘zbekistonning hamma jabhasida: iqtisodiyot va madaniyatda, ilm-fan va maorifda, qishloq xo‘jaligi va sanoatda kuzatish mumkin.

Biz yaqin kechmishdagi tarixiy haqiqatni u qanday bo‘lsa, shu holda tiklash va gavdalandirishdek ezgu va olijanob maqsadni o‘z oldimizga qo‘yganmiz. Tarixiy haqiqat shundaki, Rossiya imperiyasining sobiq mustamlakasi bo‘lgan, endilikda esa suveren davlatga aylangan O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federasiyasi bilan do‘stona teng, o‘zaro hurmat asosida davom etib kelayotgan aloqalarini mustahkamlashda u ikki tomonlama saboq va ibrat vazifasini o‘tashi lozim bo‘ladi.

G‘oyat murakkab kechgan istilo jarayonini tarixan xolis va ilmiy yoritishda asosan ikki manbaga: rus zobitlari va harbiy mundir kiygan olimlarining esdalik, xotira hamda ilmiy asarlariga, shuningdek, istilo davrida yashagan, shu voqealarga shohid bo‘lgan mahalliy muarrixlarning qo‘lyozma kitoblariga tayanildi.

Kitobda chor Rossiyasi istilosiga, uning mustamlaka zulmiga qarshi qalbdagi Vatan tuyg‘usi, qo‘lda qurol bilan hayot-mamot jangi olib borgan milliy qahramonlarimiz faoliyati yangicha talqin etilgan. O‘lkada asr boshlarida yuz bergan ozodlik kurashlari tarixini mukammal tahlil etish esa O‘zbekistonning 1991 yil 31 avgustda erishgan mustaqilligi shunchaki osonlik bilan amalga oshgan ne‘mat bo‘lmay, aksincha, chuqur tarixiy zaminga asoslanganligini

yaqqol ko'rsatib beradi. Qolaversa, chor Rossiyasi saltanatining mustamlakachilik tizimi va istibdodini tarixan ilmiy va xolis yoritish O'zbekistonda Mustaqillik milliy mafkurasini yaratishdek salmoqli vazifani bajarishda ham o'ziga xos o'rin tutishi tabiiy.

Respublika Prezidenti, O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi I.A.Karimov 1991 yildayoq SSSRning parchalanib ketishi va o'zbek xalqining mustaqillikni qo'lga kiritishi tasodifiy hodisa bo'lmasdan, uning chuqur tarixiy zaminga ega ekanligini asoslab berdi. Sho'ro saltanati halokati yuz bergan paytda O'zbekiston hukumati mustaqillik bayrog'ini dadil ko'targanida ana shu zaminga suyangani, xalqimiz 130 yildan beri chor Rossiyasi saltanatiga va sho'ro tuzumiga bo'lgan norozilikning poyoniga yetganini tushunganligi uchun milliy davlatchiligimizning qayta tiklanishi nisbatan yengil ko'chganligi ravshan.

Turkiston o'lkasining chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sho'ro hukmronligi davrida kechgan mazlumona hayoti tarixiy-ilmiy adabiyotlarda, qay nuqtai nazardan bo'lmasin, har holda, nisbatan to'laroq ifoda etilgan deyish mumkin. Bu adabiyotlarni mazmun va mohiyat e'tibori bilan to'rt davrga ajratish to'g'ri bo'ladi. **Birinchi davr** asosan 1917 yilgacha yozilgan tadqiqotlarni, **ikkinchi davr** 20-50-yillarda, **uchinchi davr** esa 50-yildan to 80-yillar birinchi yarmiga qadar yaratilgan asarlarni qamrab oladi. **To'rtinchi davrga** oid adabiyotlar tarixshunosliqda «qayta qurish» deb nom olgan 80-yillarning ikkinchi yarmidan to O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqillikka erishganiga qadar va mustaqillik yillarida vujudga kelgan asarlar majmuidan iboratdir.

Birinchi davrga mansub tarixiy-ilmiy kitoblarda chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatiga doir tanqidiy fikr-mulohazalar deyarli uchramaydi. Chunki ularning mualliflari asosan boshqa xalqlarni talashdan, ezishdan manfaatdor bo'lgan dvoryan-pomeshchiklar, zobitlar, savdo-sanoat korchalonlari, nufuzli amaldorlar bo'lishgan. Bu xil manbalarda ko'proq Rossiyaning Turkistonda qo'llay boshlagan iqtisodiy-siyosiy zug'umlarini oqlash, saltanat hukmron doiralarning manfaati nuqtai nazaridan o'lkani o'zlashtirish bo'yicha yana qanday tadbirlar ko'rish zaruriyati bahs etiladi. Bu asarlardagi bosh g'oya, yetakchi yo'nalish, qanday bo'lmasin, saltanatning Turkistondagi tajovuzi va mustabid tizimini g'oyaviy asoslashga, yangi «ikkinchi rus Turkistoni»ni barpo etish uchun zarur yo'nalishlarni belgilashga qaratilishi bilan bog'liq edi. Bu jihatdan general-leytenant M.A.Terentevning «O'rta Osiyoning bosib olinishi tarixi» (1906) asarini qayd etish mumkin.

Kitobda O'rta Osiyoning mustamlakaga aylantirilishi ahamiyati ko'rsatilib, birinchi fotih K.P. fon Kaufmanning «o'lkani o'zlash-tiruvchilik» faoliyatiga tahsinlar o'qiladi. Muallif rus dvoryanlari va kapitalistlarining manfaatlari himoyachisi sifatida qalam tebratadi.

Sankt-Peterburg zodagonlari vakili, o'lkashunos olim knyaz V.I.Masalskiy¹ esa diqqatini Turkistondagi yer-suv masalalariga qaratib, arzon paxta xom ashyosiga erishish uchun o'lkada paxta yakkahokimligini o'rnatish, ruslarni ko'paytirish choralarini ko'rish lozimligini uqtiradi. Podsho vaziri A.V.Krivoshein² ham xuddi shu haqda fikr yuritadi.

O'lka iqtisodiyotiga doir adabiyotlarda asosan hukmron davlat – Rossiya manfaatlari nuqtai nazaridan masalaga yondoshiladi, mustamlaka siyosatini mustahkamlash, shu orqali imkon qadar o'lka qonini zulukdek so'rishning chora va usullari bahs etiladi. Taas-sufki, ularda Rossiya istibdodi, milliy xo'rlash siyosatiga oid jiddiy tanqidiy fikr-mulohazalar o'z ifodasini topmagan.

Lekin, garchand axborot tarzida bo'lsa-da, bu adabiyotlarning qimmatini shundaki, mualliflar o'zlari tarafdor bo'lgan mustamlakachilikning haqiqiy basharasini, oshkor va pinhon niyatlarini takab-burlik ila namoyish etadilar. Bu esa, chor Rossiyasi mustamlakachiligining qabohati ingliz, ispan, fransuz va nemis mustamlakachiligiga qiyos etilganda, ulardan necha bor tahlkali tusda amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Birgina ruslarning temir yo'l, sanoat va harbiy sohadagi barcha malakali ishchilarni o'z tasarrufiga olishi mohiyatiga e'tibor beraylik. Bundan ko'zlangan pinhona va razilona maqsad Turkiston tub aholisining taraqqiyotiga g'ov qo'yish, ko'zga ko'rinmas to'rlar bilan uning oyoq-qo'lini chirmab tashlash, oxir-oqibatda, o'lkani Rossiyasiz mustaqil kun ko'rishdan mahrum etish edi. Bu maqsad yo'lida ular o'z madaniyatini, tili va adabiyotini, musiqa va, hatto me'morchiligini Turkiston aholisi didiga yaqinlashtirishga, shu orqali, ularning ich-ichiga kirib borishga intiladi. Tub joy kishilar bilan o'zlarini teng qilib ko'rsatish, shu tahlit ular hurmatini qozonish, birga o'tirib-turish, qon-qardosh bo'lib ketganligini pesh etish odatdagi holga aylanadi. Chor Rossiyasi mustamlakachiligining maxfiy dasturi fikr yuritilayotgan birinchi davr adabiyotida ochiq-oydin bayon qilingan.

¹ *Масальский В.М.* Хлопководство, орошение государственных земель и частная предприимчивость. СПб, 1908; Туркестанский край. СПб, 1913.

² *Кривошеин А.В.* Записка главноуправляющего земледелием и землеустройством о поездке в Туркестан. СПб, 1912, стр. 111.

Mustamlakachilar Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni asl tariximizdan judo qilishga bor kuch-g'ayratlarini sarflaganliklari bu davr adabiyotiga xosdir.

Ikkinchi davrga taalluqli adabiyotda Turkiston o'lkasidagi mustamlakachilik siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, shuningdek, istiqloq uchun olib borilgan kurashlar qamrab olinadi. Tabiiyki, bu mavzular shu davr adabiyotida, ayniqsa, 20-yillar tarixshunosligida bir qator mualliflarning asarlarida turli darajada, turlicha saviyada o'z aksini topdi. Muhimi shundaki, 20-yillarda qalam tebratgan mualliflar o'zlari tasvir etgan, fikr yuritgan ijtimoiy-siyosiy voqea va hodisalarning bevosita ishtirokchilari bo'lishgan. Shu boisdan bu asarlarda davrning murakkab, ziddiyatli va mahzun ruhi ufurib turadi. Chunonchi, mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati G.I.Safarov, P.G.Galuzo va A.Z.Validiy To'g'on tadqiqotlarida ilk dafa to'laroq aks etdi.

Jumladan, G.I.Safarov¹ keng qamrovli daliliy misollar asosida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida Turkistonda bor qudrati bilan ishga tushirilgan mustamlaka idorasi mashinasi kirdikorini va podshoh amaldorlarining o'lka boyliklarini ayovsiz talaganligini, xalqni asoratga solganligini dadil ko'rsatib bera olgan. Uning shahodat etishicha, rus sarmoyasining o'lkaga kirib kelishi, ya'ni Rossiya imperiyasining ramzi bo'lgan ikki boshli burgutning chovuti Turkiston xalqi turmushini ostin-ustun qilib yuborgan.

G.I.Safarovning bunday xulosalari uning xolis tadqiqotchilardan ekanligini ko'rsatadi. U Turkistonda o'troqlashgan Yevropa aholisining barcha qatlamini yalpisiga mustamlakachilar deb ataydi. Uning mustamlaka sharoitida avj olib borayotgan sinfiy va milliy tengsizlik haqidagi, avvalo rus ishchilariga berilgan imtiyozlar, ularning mahalliy ishchilarga nisbatan hukmron mavqei haqidagi mushohadalari ham adolatli xulosalar edi.

Chor Rossiyasining milliy o'lkada olib borayotgan ruslash-tirish siyosati, ko'chirib keltirilayotgan rus kelgindilariga yerli axolining eng unumdor, sara yerlarini olib berishi Turkistonda norozilik va milliy-ozodlik harakatlarini yuzaga keltirgan asosiy omillar bo'lganligini ko'rsatganda muallif haq edi. «Barcha ruslar, – deb yozgan edi u, – Turkistonning tub aholisi odam emas, balki urish, talash, zo'rlash mumkin bo'lgan ish hayvonlari degan aqida bilan yashagan va tarbiyalangan».

¹ Сафаров Г.И. Колоннальная революция (опыт Туркестана). М., 1921.

Shu kabi qarashlar P.G. Galuzo tadqiqotlariga¹ ham xosdir. U Rossiyaning mustamlakachilik tizimi va umuman, istibdod siyosatining barcha salbiy oqibatlarini qator misollar asosida fosh etadi.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishining salbiy oqibatlarini atroflicha yoritgan P. G. Galuzo o'lkadagi milliy-ozodlik harakatlari omillari haqida ham so'z yuritadi. U Rossiyaning Turkistondagi ayovsiz mustamlaka siyosati tufayli xalq harakatlari kelib chiqqanligini ko'plab ishonchli dalillar asosida yoritib beradi.

Umuman olganda, bu ikki tadqiqotchi o'z asarlarida Rossiya mustamlakachilik siyosatining barcha qirralarini chuqur yoritgani holda, Turkistondagi istiqloq kurashi xususida sinfiy yondoshuvda turishganini alohida ta'kidlab o'tamiz. Chunki ular Sho'ro hokimiyati mafkurasi nuqtai nazaridan fikr yuritib, sinfiylik mafkurasi doirasidan chetga chiqisha olmagan. Bu jihatdan Ahmad Zakiy Validiy To'g'on asarlari ulardan keskin farq qiladi. U 1924 yili Germaniyada yozgan «Turkiston masalasi» asarida chor Rossiyasi yuritib kelgan mustamlakachilik siyosatini fosh etibgina qolmay, sho'ro Rossiyasining xuddi shu siyosatni o'zgacha niqobda davom ettirayotganini ham isbotlab bergan. «Turkiston uchun istiqloq barcha ishlarning boshidir, – deb yozadi Validiy, – istiqloq bo'lmasa, Turkistonga faqat chetdangina olib kelish mumkin bo'lgan zamona-viy texnika asboblari yo'l yo'q. Chunki ruslar Turkistonga keltirilishini xohlamagan narsalarning ulardan bekitiqcha, boz ustiga bu o'lkaning taraqqiyotiga sabab bo'ladigan vositalarning kirib kelishiga albatta qarshilik ko'rsatadilar. Shuning uchun Turkiston Rossiyaning qaysi boshqaruv usulida yashamasin, yurtni o'zi istagandek idora eta olmaydi».

Validiy To'g'on 1924 yildayoq 1991 yili bo'ladigan voqealarni tadqiqotchiga xos aniq bashorat qilgani diqqatga loyiqdir: «Turkiston masalasida bolsheviklarning va boshqa ruslarning roli masalasi kelganda, biz uchun rus tuzumining hammasi birdir. Bunga Janubiy Turkistonning 50–60 va Shimoliy Turkistonning 200 yillik tarixi guvoh. Turkiston chor hukumatiga qarshi qanday isyon qilgan bo'lsa, bolsheviklarga qarshi ham xuddi shunday isyon etgandir. Demak, Turkiston uchun turkistonliklarga muvofiq keladigan hech bir rus hukumati bo'lmagan. Har ikkisida ham sharoit birdir. Bas, shunday ekan, har bir harakatimizda qo'llarimizni bog'lagan,

¹ *Галузо П.Г. Туркестан — колония. Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 года. М., 1929.*

taraqiyot va inkishof yo'liga to'siq bo'lib kelgan bu g'ovni ortiq kutmay oradan ko'tarmoq lozim. Bizning butun umidimiz kelajakda ham qo'shni bo'lajak Rossiyada Turkistonning mustaqillikka erishishiga imkon beradigan va u mustaqil bo'lgandan so'ng ruslarning taaddi va tajovuzlariga mone' bo'la oladigan bir vaziyatning vujudga kelishidir. Rossiyada qanday idora usuli bo'lishidan qat'iy nazar, mustaqilligimizni haqiqatda ham tanigan ruslarga qarshi bir yomon fikrimiz bo'lmasligi tabiiydir. Bizning bugungi tavajjuhimiz, avvalo, o'zimizga, so'ng boshqa g'ayri rus millatlarning bu yo'lda sobit va quvvatli bo'lmoqlariga qaratilgandir. Biz ular bilan birgamiz va mushtarak g'oyamizning amalga oshishida hamkorlarimiz bilan birgalikda kurashamiz»¹.

Xorijga ketishga majbur bo'lgan Ahmad Zakiy Validiy Rossiya siyosatini ro'y-rost va atroflicha tadqiq etadi: «Rusiya Osiyoda g'oyat uzoqni ko'zlovchi siyosat ketidan quvvuch va bu keng qamrovli harakatlari hech qanday chek-chegara bilmagan, hirs va ishtahasi esa kun sayin oshib boruvchi imperialistik davlatdir... Rus istilolari, yangi-yangi o'lkalarni zabt etmoq va u yerlardagi qavmlarni madaniy-iqtisodiy sharoitlar vositasida assimlyasiya qilib, ular hisobiga kengayib, ko'payib, kuchayib bormoq g'oyasini ko'zda tutadi»².

Ahmad Zakiy Validiy To'g'on rus podsholigi siyosatini mohiyat e'tibori bilan yanada yuqori pog'onaga ko'tarib davom ettirayotgan sho'ro Rossiyasi mustamlakachiligining asosiy yo'nalishlarini shunday belgilaydi:

1. Rus imperializmi bilan kommunizm biri ikkinchisining davomi bo'lib, ularni ikki asos – tamoyil sifatida birlashtirgan Rusiyaga tobe millatlarga va butun dunyoga ikkiyuzlama siyosat yuritmoq.

2. Rus millatining jahonga hokim bo'lish g'oyasini «muqaddas ideal» darajasiga ko'tarmoq va bu milliy g'oyani amalga oshirmoq yo'lida tayyor turuvchi mutaassib va jangovor millat tayyorlamoq.

3. Har qanday vositalar bilan bo'lsada, rus nufusini oshirmoq.

4. Ruslarni Osiyoning yangidan ishg'ol qilinajak yerlariga o'sha lahzadayoq jo'nab keta oladigan darajada harakatchan, ayni paytda, qo'nimsiz bo'lishini ta'min etmoq.

5. Istilo qat'iyatini ta'min etmoq uchun boshqaruvdagi oliy markaz va diktatorlik sistemasini mukammallashtirmoq.

¹ Bugun ham xuddi shu fikrlar alohida dolzarb ahamiyat kasb etib, tadqiqotchi bashoratinasi tasdiqlamoqda.

² *Validiy Ahmad Zakiy*. Turkiston masalasi. Berlin, 1924; Rus mustamlaka siyosatining mohiyati va maqsadi. Vena, 1929. Bugungi turk eli va Turkiston Yangi tarixi. Istanbul, 1981, 2-nashr, professor B. Qosimov tarjima qilgan.

Ahmad Zakiy Validiy fikrlari shu tariqa 20-yillar tarixshunosligidagi tadqiqotchilik saviyasi bo'yicha erishilgan to'laqonli ilmiy xulosa bo'ldi. Taniqli olim, ma'rifatparvar va jamoat arboblardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi o'zbek xalqining millatparvar fidorolarining 20-yillardagi matbuotda yoritilgan katta-kichik maqolalarida Turkistondagi eski va yangi mustamlakachilik hamda istiqlol kurashi tarixi yoritilgan va ular ham Turkiston tarixshunosligida o'z o'rnini topishi muqarrar. Munavvar qori Abdurashidxonovning 1927 yil O'zbekiston madaniyat xodimlari qurultoyida qilgan ma'ruzasi Turkistonda chorizm siyosatiga qarshi, istiqlol uchun olib borilgan kurash sahifalarini oydinlashtiruvchi nodir manbadir. Uning siyosiy idora talabi bilan yozilgan jadidchilik harakati tarixiga bag'ishlangan uch qismdan iborat xotiralari ham ana shunday qimmatli adabiyotlar sirasiga kiradi. Chorizمنىng mustamlaka istibdodi va unga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatlari jadidchi Fozilbek Otabek o'g'lining «Dukchi Eshon voqeasi» kitobida dalillar asosida o'zining yorqin ifodasini topdi. Bu asarda rus mustabidlarining ko'chiruvchilik siyosati va istibdod zulmi boy dalillar asosida yoritilgani e'tiborga loyiqdir. Fozilbek Otabek o'g'li XIX asr oxirlarida Turkistondagi vaziyatni o'sha davr shohidi sifatida ishonarli tasvirlagan¹. 20-yillar tarixshunosligida birinchi bo'lib, 1898 yilgi Andijon qo'zg'oloni rahbari Muhammad Ali eshon shaxsi va uning faoliyatini bevosita o'sha voqealar guvohi sifatida xolis baholab, o'z fikrlarini zamondoshlar guvohliklari asosida ishonarli tarzda isbotlab bergan².

20-yillarda shu tariqa chor Rossiyasining zulmiga qarshi qaratilgan inqilobiy va milliy-ozodlik harakatlari xususida turli qarashlar, bir-biriga zid g'oyalar o'rta tashlandiki, bu holat tarixiy tafakkurning rivojlanishi hamda tadqiqotchilik saviyasining ko'tarilishiga qulay zamin yaratdi. Bu davrda ham to'g'ri va xolisona fikrlar mavjud. Unda sho'ro tarixshunosligining otasi hisoblangan M.N. Pokrovskiy xizmatini alohida qayd etish kerak. Chor Rossiyasining istilochilik qabohatini bir qadar xolis va haqqoniy baholagan Pok-

¹ Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi. Samarqand – Toshkent, 1927.

² Bu mavzuga oid dastlabki ko'lyozma asarlar XX asr boshlaridayoq yuzaga kelgan edi. Bu o'rinda Qo'qon shahri qozisi Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin Toibning «Tuhfai Toib» (1905), Marg'ilon hokimi devoni kotibi Muhammad Aziz ibn Muhammad Rizo Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy» (1910) asarlarini ko'rsatish mumkin. Mazkur asarlarda 1898 yilgi Andijon qo'zg'oloni va uning rahbari Dukchi Eshon haqida ma'lumotlar keltirilgan edi.

rovskiy fikricha, «Moskva imperializmi» XVI asrdan e'tiboran hukm surib kelayotgan bir davrda Yevropadan Osiyogacha bo'lgan buyuk suv yo'lining Qozondan Ashtarxonga qadar bo'lgan janubiy intihosi zabt etilib, Boltiq dengiziga chiqish uchun uning shimoliy nihoyasiga ko'z tikish boshlangan edi.

M.N.Pokrovskiy rus imperializmining Kavkaz va O'rta Osiyoda amalga oshirgan tajovuzini **«jinoyatkorona mustamlakachilik urushlari»**, deb ataganda haqli edi. Darvoqe, uning fikricha, **«osiyoliklarning rus nomini eshitganda qaltirashga tushishi osonlikcha bo'lmagan va arzoniga tushmagan... Butun-butun qish-loqlar unga yaqin bir joydan topilgan rusning murdasi uchun tag-tugi bilan yondirib yuborilardi»¹**.

30-yillarda tarix fanida sosializm qurish bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshlangan munozaralarda xolislikdan sinfiylik mezoniga yondoshuvga o'tish kayfiyati kuchaydi. Turkistondagi sossialistik inqilobning qonuniy jarayon ekanligini asoslashga urinishdek soxta maddohlik avj oldi. Tarixan ilmiy halollik o'rnini mavjud hukmron mafkuraga xizmat qilish istagi egalladi. Tadqiqotchilik mohiyatini Turkistondagi iqtisodiy-ijtimoiy voqelikni sho'ro mafkurasi nuqtai nazaridan baholash egalladi. 1917 yilgi «Oktyabr inqilobi»ning tarixan muqarrar jarayon ekanligini isbotlash asosiy ilmiy mezon bo'lib hisoblanib qoldi. Tarixiy kechmish ham shu nuqtai nazardan tahlil qilindi. 20-yillar tarixshunosligida jiddiy asarlari bilan tanilgan V.Lavrentev Turkiston iqtisodiyotida mavjud kapitalistik munosabatlarga yengil-elpi, shunchaki yuzaki baho berdi. U hatto o'rtahol dehqonlar xo'jaligida ham «kapitalistik korxonalarini» ko'rdi. Lavrentev fikricha, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi mutlaq ijobiy voqea bo'lib, u Turkiston o'lkasida tubdan o'zgarish yasagan va u «Oktyabr inqilobi» uchun yetarli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy zamin yaratgan. V.Lavrentyev¹ g'oyasini L.Rezsov², F.Karpich³ va boshqalar ham tasdiqlab, chorizm mustamlakachilik siyosatini xaspo'shlab o'tishga harakat qildilar. Shu tariqa 30-yillardagi tarixiy adabiyotda bir toifa tadqiqotchilar «Oktyabr inqilobi»ning bosh sababchisi chorizmning milliy zulmi, mustamlaka istibdodi deb hisobladilar. Ikkinchi toifadagi tarixchilar esa buni inkor etib, ijtimoiy zulmni birinchi o'ringa chiqardilar. Yana

¹ *Лаврентьев В.* Капитализм в Туркестане. Ташкент, 1929.

² *Резцов Л.* Октябрь в Туркестане. Ташкент, 1929.

³ *Карпич Ф.* К истории завоевания Туркестана Российским капитализмом «Туркменоведение», № 8, 9,10,11, 1929.

bir guruh tadqiqotchilar esa inqilob uchun Turkistonda yetarli sharoit bo‘lmagan deb uqtirishdi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi sobiq Sovet Ittifoqidagi milliy respublikalarda vatanparvarlik to‘lqinini yuzaga chiqardi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda qardoshlik, jipslik tuyg‘usi ilm-fanda, shu jumladan, tarixga doir asarlarda ham aks eta boshladi. Yagona vatan tushunchasidan kelib chiqilgan holda, nisbatan xolis tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu yillarda chorizm mustamlakachilik zulmini ochib tashlash va milliy-ozodlik harakatlarini ro‘y-rost yoritish imkoniyati tug‘ildi. Natijada bir qator jiddiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

Shu tariqa ikkinchi davr adabiyotida chorizmning mustamlaka siyosati va istiqloq uchun kurash mavzusi ma‘lum darajada o‘z aksini topdi. Ammo 50-yillarda qayta boshlangan siyosiy qatag‘on bunday ijobiy jarayonni bo‘g‘ib tashladi.

Ko‘zda tutilayotgan uchinchi davr (50-yillardan 80-yillar birinchi yarmiga qadar) adabiyotida tarixni soxtalashtirish va buzib talqin etish sohasida o‘ziga xos poyga avj oldi. Binobarin, Turkiston o‘lkasida bo‘lib o‘tgan barcha milliy-ozodlik harakatlari haqida ijobiy fikr bildirish u yoqda tursin, bor haqiqatni yozish go‘yo rus xalqiga qaratilgan millatchilik harakati sifatida baholanar edi. Oqibatda ish shu darajaga borib yetdiki, XIX asr ikkinchi yarmidagi milliy-ozodlik kurashlariga munosabat bildirish «ulug‘ rus xalqi bilan bo‘lgan do‘stlikka rahna solish» sifatida siyosiy xatoga yo‘nildi. Masalaning bu tarzda gazaklashi «ulug‘ og‘a» vakillarining ayrim vijdonli, halol olimlarida xijolat tuyg‘usini uyg‘otmay qolmadi. 1954 yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tarixiga bag‘ishlangan ilmiy sessiyada A.I.Sidorov aytgan quyidagi gaplar diqqatga loyiqdir: «O‘rta Osiyoning o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik va boshqa xalqlarining turli shakldagi g‘alayonlari, bu xalqlarning mustamlaka istibdodiga qarshi kurashini ilg‘or harakat deb baholanmasligi – bu, demak, xalq ommasining tarixiy voqeliqdagi ijobiy xizmatini inkor qilinishidir. Unda tarixda nima ijobiy holat hisoblanadi? Millionlab xalq ommasini qonga botirgan podshohlikning mustamlaka idorasimi? Yoxud bu istibdodga qarshi kurashmi?»¹.

Biroq, adolat nuqtai nazaridan, tarixiy vaziyat va kommunistik mafkura tazyiqini hisobga olgan holda aytiladigan bo‘lsa, fikr yuritilayotgan davrning 70–80-yillari boshlarida bir qancha ilmiy-

¹ Материалы научной сессии, посвященной истории Средней Азии и Казахстана в дооктябрьский период. Ташкент, 1955, стр. 576.

tarixiy asarlar yaratildiki, ularning ilmiy ahamiyatini pasaytirish nojoizdir. Turgan gapki, bu xildagi tadqiqotlarda tarixga xolisona yondoshish bobida, birinchi galda, Rossiya saltanatining O'rtasiyodagi mustamlakachilik siyosatiga ilmiy baho berishdagi cheklanish o'sha davr ruhi bilan izohlanadigan asosiy qusurlar edi.

Sho'ro davlati o'zini nechog'lik qudratli hisoblamasin, u ichdan chirib tugayotgan edi. Ayniqsa, 80-yillar ikkinchi yarimlari jahon afkor ommasi oldida qizil saltanatning qadam-baqadam fosh bo'lish yillari sifatida tarixga kirdi. «Qayta qurish» siyosati tizgini tobora qo'ldan chiqib borayotgan saltanat otini qamchilashga behuda so'ngi urinish edi. 1985 yildan so'ng matbuotda, ilm-fanda oshkoralik to'ldini tufayli, tarixshunoslikda erkin fikrlash, xolis ilmiy xulosalarni o'rtaga tashlash imkoniyatini yaratdi. Mavzu tarixshunosligining to'rtinchi davri 80-yillar ikkinchi yarimlaridan to hozirgi kunlarga qadar bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Garchand bu davr tarixan juda qisqa muddatni qamrasa-da, vujudga kelgan adabiyotlar mohiyat va mundarija e'tibori bilan g'oyat salmoqli ekanligini ta'kidlashga to'g'ri keladi¹.

¹ Jalilov O. XIX–XX asr boshlaridagi Qoraqlpoq tarixidan. T., «Fan», 1986; Vekselmon M.I. O'rtasiy Rossiya monopoliyasi va xorijiy kapital (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) T., 1987; Sodiqov H. Rossiya xizmatidagi beklar. «Fan va turmush», 1988, № 11; История и историография национально-освободительных движений второй половины XIX–начало XX вв. Средней Азии и Казахстана, T., 1989; Sodiqov H. Turkiston uch inqilob davrida. «Fan va turmush», 1990, № 3; Бобобеков Х.Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки. T., 1990; Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио–Ташкент. 2010. Vamberi Xermon. Vuxoro yohud Movaraunnahr tarixi. T., 1990; Ginzburg A.I. Русское население в Туркестане. M., 1991; Гулямов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. T., «Fan», 1992; Qoismov V. Ismoilbek Gaspirali. T., 1992; Xanskiy M. Turkiston bosqini. T., «Nur», 1992; Tureev A.X. XIX asr oxiri – XX asr boshida Qoraqlpog'istondagi dehqonlar harakati. Nukus, 1991; Haydarov H. Jizzax tarixidan lavhalarayu T., «Mehnat», 1992; Shamsutdinov R. Jadidchilik: haqiqiy va uydirma. «Ma'naviyat», 1991, № 11–12; Azizxo'jaev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T., «Sharq», 1992; O'zbekiston tarixini o'rganish va o'qitishning dolzarb masalalari. T., «O'zbekiston», 1993; Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане. Дисс. на соиск. уч. ст. доктора ист. наук, 1994; Sodiqov H. XX asr boshlarida Turkistonda chorizmning mustamlakachilik siyosati va istiqloq uchun kurash. Doktorlik dissertatsiyasi. T., 1994; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. Andijon, «Meros», 1995; Исхаков Ф. Национальная политика чоризма в Туркестане (1867–1917. T., 1997; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., «Sharq», 1997; O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. T., 1998; Ahmadjonov H.

Mustaqillik, shubhasiz, olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy voqea bo'ldi. Ko'pgina qalam ahli, muarrixlar, olimlar va ijtimoiy fanlar sohiblari sodir bo'lgan voqea ahamiyatini teran anglab yetdilar, lekin bu buyuk o'zgarish mohiyatini daf'atan ilg'ab ololmagan tarixnavislar ham bo'ldi. Qolaversa, o'tmishni qo'msash vasvasasi ham bu yillarda yozilgan ayrim asarlar sahifalarida aks etmay qolmadi.

Shu tariqa, tarixshunoslikka doir asarlarning to'rtinchi davriga oid bu bosqichida uch holat, uch xil jarayon va qarashlar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Birinchidan sho'rolar Ittifoqi parchalanishidan, uning o'rnida yosh, mustaqil O'zbekiston kabi davlatlarning maydonga kelishidan norozi bo'lib, o'tmishni qo'msab, tarixiy jarayonlarga eskicha yondoshib, shovinistik siyosat va g'oyalar nuqtayi nazaridan ish ko'ruvchi siyosatdonlar, adiblar, tarixchi va jurnalistlar maydoncha chiqishdi. Ular zo'r berib chor Rossiyasi bosib olgan hududlar «Rossiya erlaridir, bu yerlar buyuk Rossiyaning kichik bir «uezdi» yoki «guberniyasi» bo'lishi kerak», degan qarash qarashlarni targ'ib kishini davom etdilar. Ular rus qo'shinlari tomonidan O'rta Osiyoning harbiy yo'l bilan istilo qilinganligini har jihatdan oqlab, bu

Markaziy Osiyoda Rossiya imperiyasi. T., 1995; Ziyoev X.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., 1998; O'zbekistonning yangi tarixi. Konseptual – metodologik muammolar. T., 1998; O'zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. T., 1999; Choriev Z. Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari. T., 1999; o'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiliga davrida. T., «Sharq», 2000; Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. T., «Sharq», 2001; Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T., «Ma'naviyat», 2002; milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T., «Ma'naviyat», 2004; Irgashev F., Abduraximova N. Mustamlakachilik siyosati va Turkistonni ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlari). T., «Akademiya», 2005; Xoliqova R. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixi. Doktorlik dissertatsiyasi. T., 2005; Гафаров Ш. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане. Докторская диссертация. T., 2003; Malla-boyev B. Chorizmning Turkistonda vaqf mulkchilik siyosati. Kand. diss. T., 2004; Ураков Д. Официальные отчеты Российской администрации в Туркестане как исторический источник (конец XIX – нач. XX вв.) Канд. дисс. T., 2005; Irgashev F., Abduraximova N., Sugralieva F. Turkistonda mustamlaka moliya-xo'jalik idoralari tizimi. T., «Akademiya», 2008; Abduazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi (ikki jildlik). T., «Sharq», 2008; Xudoyqulov T.D. XIX asrda Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tarix fan. nom. diss. T., 2009; Isaboeva G.S. XIX asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fanlari nomzodi ilm. dar. olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2010 va boshqalar.

mudhish ishni amalga oshirganlarni milliy qahramonlar darajasiga ko'tardilar.

Ikkinchidan ba'zi milliy tarixchilarimizning ayrim vakillari hamon o'sha qizil saltanat davrida shakllangan mezon, konsepsiya asosida ish ko'rib, «O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinganini», «O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishining xalqaro ahamiyatini» asoslashga urinib, sobiq mustamlakachilar olib borgan siyosatni soxtalashtirdilar.

Uchinchidan qayta qurish va mustaqillik yillarida o'tmish tariximizga yangicha yondoshib, undagi «oq» va «qora» dog'larni bartaraf qilish niyati bilan, tarixni qanday bo'lsa, shundayligicha, xolisona, bo'yoq va andozalarsiz yoritishga harakat qilayotgan olim va adiblarimiz ma'lum darajada ijobiy ishlar qilayotganliklarini ta'kidlash mumkin.

«O'zbek olimlarining kuch-g'ayratlari bilan, – deb yozgan edi I. Karimov, – tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni «oqlash» vazifalari umuman olganda bajarib bo'lindi; hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir»¹.

O'zbekiston 1991- yil 31- avgustda mustaqillikka erishgach, tarix-shunoslik fanida yangi sahifa ochildi. Ayniqsa, bu borada Prezident Islom Karimovning 1996- yil 18- sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to'g'risida»gi tarixiy Farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996- yil 16- dekabrdagi qarori g'oyat katta dasturulamal ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tarixiy hujjatlarda «O'zbekistonning yangi tarixi»ni tayyorlashdek g'oyat ulkan vazifa qo'yildi. Buni amalga oshirishda XIX asrning o'rtalaridan xozirgi kungacha xalqimiz hayotida sodir bo'lgan tarixiy bosqichlarni va o'zgarishlarni to'la qamrab olishga e'tibor berilishi alohida ta'kidlandi.

Shu o'rinda Prezident I. Karimovning tariximizni buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhida, xususan, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda yuritgan siyosatini talqin etuvchi mualliflarni ikki toifaga bo'lib, ularga bergan ta'rifini keltirish lozim. Birinchi toifa mualliflari Rossiya imperiyasi Turkistonda

¹ *Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997, 141-bet.*

mahalliy an'analar va asoslarni yo'q qilmagan va buzmagani holda o'lkani burjuacha tadrijiy rivojini rag'batlantirgan edi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, sho'ro Rossiyasi, bolsheviklar aksincha ish tutgan, shuning uchun O'rta Osiyo mintaqasida ziddiyatlar kelib chiqqan. Endilikda esa Rossiya Federatsiyasi mintaqada barqarorlashtiruvchi rolni o'ynashi mumkin emish. Ikkinchi toifa mualliflari fikricha esa, mustamlakachilik musulmon aholining ruhiyatiga mutlaqo yot unsurlarni olib kirgan. Shuning uchun vujudga kelgan ahvoldan qutulish yo'li sifatida o'lkani o'z tarixiy va milliy negizlariga qaytish taklif qilinadi. Bunga esa mintaqadagi davlatlar faqat qo'shni musulmon mamlakatlariga ergashgan, kelajakda ular bilan yanada yaqinroq integratsiyaga kirishgan taqdirdagina erishish mumkin emish¹. Bu ikki toifa qarashlaridan ko'zlangan asosiy maqsad nimaligini Prezident I. Karimov ravshan ifodalab bergan.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini yoritish borasida mualliflar ana shunday qarashlarga raddiya beruvchi o'z fikrlarini tarixiy dalillar bilan asoslaganlar.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori ham o'zbek tarixshunosligining bundan keyingi yo'nalishini belgilab olishda, o'zbek milliy davlatchiligi tarixini tadqiq etishda, umuman tariximizning yangicha konsepsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston yangi tarixining mazkur birinchi jildini tayyorlashda yuqorida zikr etilgan davlat hujjatlari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar uslubiy asos bo'lib xizmat qilganini alohida qayd etmoq zarur.

Islom Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy soha xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvda bildirgan fikr-g'oyalari, 1999 yil 2 fevralda «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblari, 16 fevralda Toshkentda ro'y bergan favqulodda mudhish hodisa munosabati bilan so'zlangan benihoya ta'sirchan nutqida ijtimoiy jarayonlarimizning dolzarb masalalari qatori tariximiz haqida ham ko'pdan-ko'p dasturulamal, konseptual, yangicha talqinlar ilgari surildiki, ular o'zbek tarixshunosligining hozirgi taraqqiyot bosqichini, eski holatdan yangi holatga o'tishi va bundan keyingi ustivor yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, 54–55-betlar.

Mualliflar ana shu mustaqillik ruhi bilan sugʻorilgan ustuvor uslubiy va ilmiy-nazariy yoʻl-yoʻriqlardan, uslubiy asoslardan kelib chiqqan holda mazkur birinchi kitobni imkon darajasida mukammalroq yaratishga harakat qildilar. Tadqiqot, shu tariqa, chor Rossiyasining Oʻrta Osiyoning bosib olishi va oʻlkada oʻrnatgan mustamlakachilik siyosati oqibatlarini xolisona yoritish boʻyicha dastlabki qadamlardan biri boʻlib, undan kuzatiladigan asosiy maqsad Rossiya va sobiq shoʻro davlatining Turkiston oʻlkasida 130 yil davomida olib borgan mustabidlik siyosati tub mohiyati va yurtni majruh etgan asorati sabablarini ochib berish hamda Turkiston istiqloli uchun muttasil davom etgan ozodlik kurashining xususiyatlari va qutlugʻ intihosini yoritishdan iborat.

Mazkur birinchi jildning tadqiqot doirasi quyidagi masalalarni oʻz ichiga oladi:

- bosqin arafasida oʻzbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat;

- Rossiya imperiyasining oʻzbek xonliklarini harbiy kuch vositasida istilo qilishi hamda Turkiston oʻlkasini mustamlakaga aylantirish borasidagi siyosati;

- chor Rossiyasining oʻlka xalqlarini boshqarish sohasida shafqatsizlikka asoslangan nayranglari;

- mustamlaka maʼmuriyatining oʻlkada ruslashtirish siyosatini amalga oshirishi va Turkistonda rus nufusini koʻpaytirishga intilishi;

- Rossiyaning Turkiston oʻlkasini xom ashyo manbaiga va rus sanoati mollari pullanadigan tobeʼ bozorga aylantirishi, yaʼni muttasil talonchiligi;

- xalq maorifida ruslarning istilochilik manfaatlariga xizmat qiladigan manqurtlik va jaholatni koʻzda tutadigan islohotlari, ularning asl mohiyati;

- oʻzbek hurfiylikliligi va matbuotini rivojlantirishda jadidlarning tarixiy xizmati va bosqinchilar hokimiyatining ularga qarshi olib borgan kurashi;

- fan va madaniyat, maʼnaviyat, din va eʼtiqod sohasida rus podshohliligi tutgan yoʻl va uning salbiy oqibatlari;

- Turkiston xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqaroviy huquqlarining hukmron davlat tomonidan poymol etilishi;

- Rossiya saltanatining Turkistonda joriy etgan soliq siyosatining ezish va talashga asoslanganligi;

- oʻlkadagi ozodlik harakatlari va ular haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash.

Tadqiqot mavzusi boʻyicha asosiy manbalar Oʻzbekiston Markaziy Davlat arxivida mujassamlashgan. Uning tarixiy jamgʻarma-

sida Turkiston o'lkasidagi barcha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy voqealarga oid katta va keng daliliy materiallar o'rin olgan.

Turkiston general-gubernatorligining mahkamasi jamg'armasi (TF-1)da o'lka hayotining barcha masalalariga oid materiallar mavjud. Rus mustamlaka siyosatining barcha ustamonliklari huddi shu jamg'armadagi hujjatlarda o'z aksini topgan. Ana shu mahkama jamg'armasida Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman (1867–1881), M.G. Chernyaev (1882–1884), N.O. Rozenbax (1884–1889), A.B. Vrevskiy (1889–1898), S. Duxovskoy (1898–1901), N.A. Ivanov (1901–1904), P.N. Tevyashov (1904–1905), D.I. Subbotich (1905–1906), N.I. Grodekov (1906–1908), P.I. Mishchenko (1908–1909), A. V. Samsonov (1909–1913) va boshqalarining imperatorga yuborgan hisobotlari va harbiy vazirlik bilan yozishmalaridan unumli foydalanildi. Ularda podsho hukumatining O'rta Osiyoda olib borgan mustamlaka siyosatining tub mohiyati o'z ifodasini topgan.

Kitob mavzusiga doir qator manbalar Turkiston viloyatlari harbiy gubernatorlari boshqarmalari jamg'armalaridan (5, 17, 18, 19, 276-jamg'armalar) olingan. Bu boshqarmalarda xo'jalik, moliya, narx-navolar, soliq-majburiyatlar kabi qator muhim masalalar bo'yicha hujjatlar borki, ularning tahlili o'lka tarixining muhim tomonlarini yoritishda bebaho manbalar vazifasini o'taydi. Toshkent shahar dumasini va boshqarmasi (718, 37), shahar boshlig'i (36), viloyatlar tumanlari boshqarmalari (20, 21, 22, 23, 24, 25, 300, 329), jabhalar pristavlari (172,298,319,327) jamg'armalari ham shular qatoriga kiradi.

Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari, istiqloq uchun kurash tarixi bo'yicha haligacha ilmiy muomalada bo'lmagan talay noyob hujjatlar rus siyosiy razvedkasi-Turkiston tuman muhofaza bo'limi (461), Toshkent shahri rus qismi va eski shahar polisiya boshqarmalari (462, 463), Jizzax shahar polisiya pristavi (531), Andijon, Skobelev shaharlari polisiya boshqarmalari (465, 590) jamg'armalaridan topildi. Toshkent okrug sud palatasi (129, 133), Turkiston o'lka okrug sudlari (128, 132, 278, 318, 350, 505), viloyatlar sudlari (127, 134, 353, 310, 322, 504, 592, 593) jamg'armalaridan ham zarur hujjatlar olindi.

Imperiyaning ijtimoiy va siyosiy boshqaruv faoliyatini fosh etuvchi qator noyob hujjatlarni ana shu arxivdan qo'lga kiritish mumkin bo'ldi.

O'zbekiston xalqlari tarixi Davlat muzeyi va Toshkent teplovoz-vagon ta'miri zavodi muzeyida saqlanayotgan 1905–1917 yillar voqealari ishtirokchilarining esdaliklari, hujjatlari (D. Ustaboev,

S. Qosimxo'jaev, O. Bobojonov, M. Mirxodiev va boshqalar) va Turkiston vaqtlı matbuoti nashrlaridan ham unumli foydalanildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda zo'rvonlik bilan amalga oshirilgan chor Rossiyasi istilosi va bu bosqinchilikning dahshatli oqibatlariga bag'ishlangan qo'lyozma manbalar – tarixiy asarlar, hujjatlar, manzumalar ham benazir ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tarixshunoslikda bu tajovuz tarixini hozirga qadar bir yoqlama, faqat rus manbalari asosida yoritilgan. Holbuki, mustabidlar to'kkan qonlar sovumay turib Toshkentda, Andijonda, Samarqandda, Buxoroda, Qo'qonda, Xivada, Namanganda, Qarshida, Jizzaxda va boshqa shaharlarimizda yozilgan asarlar – ular xoh tarixiy, xoh badiiy yoxud hujjat bo'lsin, tamomila unut bo'lib keldi.

Chor Rossiyasi istilosiga doir qo'lyozma manbalarni uch turkumga ajratish maqbuldir. Bu jihatdan, tarixiy asarlar birinchi turkumni tashkil etadi, deyish mumkin. Xususan, Muhammad Solih Toshkandiy, Mulla Muhammad Niyoz Ho'qandiy, Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy, Muhammad Aziz Marg'iloniy, Muhammad Sodiq Munshiy, Muhammad Abdulazim Somiy, Mirzo Olim Mushrif, Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Mirzo Olim Toshkandiy, Muhammad Fozilbek, Muhammad Hakimxon to'ra, Ishoqjon Jo'naydullaxoja Ibrat, Ahmad Zakiy Validiy asarlarini shular sirasiga kiritish mumkin bo'ladi.

Domullo Muhammad Solihning «Tarixi jadidai Toshkand» asari 1862 yilda yozila boshlanib, 1886–1887 yillarda tugallangan. Ikki jildidan iborat qilib tuzilgan bu asarning birinchi qismida islom va umuman, o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixi yoritilgan bo'lsa, ikkinchi jildda XIX asr Qo'qon xonligi kechmishi qalamga olinadi. Muarrif 3 bobdan iborat bu jildda faqat Qo'qon xonligida yuz bergan rus istilosi oqibatlarini keltirish bilan cheklanmay, Buxoro amir-ligi voqealariga ham keng to'xtaladi. Muallifning Toshkent, Marg'ilon, Namangan, Andijon, Samarqand kabi shaharlarning ruslar tomonidan zabt etilishi haqida o'zi guvoh bo'lgan voqealar asosida fikr yuritishi alohida qimmatga egadir.

Mirzo Muhammad Abdulazim Somiy Bo'stoniyning «Dorussaltana Buxoroyi sharif mang'it sultonlari tarixi» 1906 yilda yozilgan. Asar mamlakatda xukm surib kelayotgan parokandalik, o'zaro nizolar oxir-oqibatda yurtning mustamlakaga aylanib qolishida asosiy omil bo'lganligini anglashda muhim manba hisoblanadi. Ayni vaqtda asarda xalqning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi manzarasi ham yorqin aks ettiriladi.

Mullo Muhammad Niyoz Ho'qondiyning «Tarixi Shohruhiy», Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Ishoqxon Ibratning «Farg'ona tarixi», Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy», Hoji Muhammad Xakim Sayid Ma'sumxonning «Muntaxab ut-tavorix», Mirzo Muhammad Sodiq Munshiyning «Musannofoti Mirzo Sodiq Munshiy», Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqun» (Qo'qon xonligi tarixi), «Tarixi Manzum», Muhammad Aziz Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy» (Farg'ona chor mustamlakasi davrida), Ahmad Donishning «Tarjimat al-ahvol amironi Buxoroyi sharif», Hamid bin g'ozu Baqo Hojaning «Tanzil ul-misol zikr bayon al-ahvol», Muhammad Fozilbekning «Mukammal-i tarix-i Farg'ona» asarlarida ham rus istilosiga daxldor voqea-hodisalar batafsil bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (O'zRFASHI) jamg'armasida saqlanayotgan va yuqorida zikr etilgan tarixiy asarlardan tashqari mavzuni to'ldirishda asqotadigan «Tarixi jadidai Toshkand» (11072-raqamli), «Tarixi Alimquli amiri lashkar» (12136-raqamli), «Alimqul jangnomasi» (Xolbek ibn Mullo Andijoniy asari, 8816-raqamli), «Jangnomayi Xudoyorxoniy» (Mullo Shamsi asari, 599/1-raqamli), «Tazkirayi Sultoniy» (Mullo Vasiyon asari, 592-raqamli), «Xudoyorxonning so'nggi kunlari» (Ahmad Zakiy Validiy asari, 15743-raqamli), «Tazkirayi hazrati Majzub Namangoniy» (2662/11-raqamli), «Fathnomayi Sultoniy» (Mir Olim Buxoriy asari, 1838-raqamli), «Tajovuzi o'rus» (Qozi Abdulvohid Sadr-Sariri Balxiy asari, 2260/ IV-raqamli), «Tuhfayi Shohiy» (Mirzo Abdulazim Somiy asari, 2091-raqamli), «Zafarnomai Xudoyorxoniy» (Abdul G'ofur asari, 598-raqamli), «Tuhfat ul-xoniy» (Muhammad Vafo Karminagiy asari, 5359/11-raqamli), «Tarixi amir Haydar» (mullo Ibodullo Muhammad Sharif asari, 1836-raqamli), «Tarixchayi Turoniy» (Umiddiddin Marg'inoniy asari) singari qo'lyozma manbalarni ham istifoda doirasiga kiritish joiz hisoblanadi. Bu tarixiy manbalarning ayrimlarida uchraydigan cheklanishlar, xonlarning ayrim xatti-harakatlariga ortiqcha baho berish jihatlaridan qat'i nazar, yaqin o'tmishni oydinlashtirishda ular ahamiyati bo'lakchadir.

Ikkinchi turkum manbalar bevosita mahalliy hukmdorlar bilan rus armiyasi qo'mondonligi o'rtasidagi munosabatlarga doir hujjatlar, tarixiy shaxslarning xotiralarini qamraydi.

Chor Rossiyasi bosqinidan so'ng vujudga kelgan vaziyat, mustamlaka siyosatining o'rnatilishi, vassallik sitamlari, elchilik

bordi-keldilari ham qator hujjatlarda, esdaliklarda o'z ifodasini topadi. Komil Xorazmiy, Ahmad Donish va boshqa elchilarning, shuningdek, amir Abdulahadning Peterburgga qilgan safarlari haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir.

Qo'lyozma manbalarning uchinchi turkumi mundarijasini badiiy asarlar: she'rlar, manzumalar tashkil etadi. Rus istibdodidan so'ng u keltirgan «madaniyat va ma'rifat»ni ulug'lovchi asarlar maxsus buyurtmalar asosida yozilganligi ma'lum. Biroq, yurtning fidoyi shoirlari bosqinchilikni qoralab, uning mudhish oqibatlarini la'natlab she'rlar yaratganlar. Jumladan, 1912 yilda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida XVI asr shoiri Mushfiqiyning «Sadu yak band» to'plami chop etilgan. Muhimi shundaki, to'plamda XIX asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan qashqadaryolik shoir Hofiz Ro'ziboy Mashrab va Muhammad Amin Ho'qondiylarning chorizm istilosiga doir manzumalari qo'shib berilgan. «Hikmat» deb nomlangan va shu asar oxirida keltirilgan she'rlarda yassaviyona ruhda bosqinchilarning razil basharasi va xotin-qizlarga nisbatan qilgan qabixliklari fosh etiladi.

Chor Rossiyasi bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashib halok bo'lgan lashkarboshi Alimqul jasorati haqida 10 yil Sibir badarg'asida bo'lgan vatanparvar Mullo Holbek ibn Muso Andijoniy doston yaratgandir.

Kamina, Xayoliy, Nosir, Tarjimon singari shoirlarning asarlarida ham bosqin tufayli xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar ifoda etiladi. Buxoro amiri, Ojiz taxallusi bilan she'rlar yozgan amir Abdulahad she'rlarida ham ichki afsus-nadomat ruhi sezilib turadi. Shubhasiz, hozirga qadar e'lon qilinmagan, o'rganilmagan, ammo rus mustamlakachiligi haqida bor haqiqatni badiiy gavdalantirgan asarlar tarixiy voqelikni xolisona, bo'yoqlarsiz idrok etishda muhim manba bo'lib hisoblanishga loyikdir.

Ayniqsa, Turkistonda XIX asr ikkinchi yarmida faoliyat ko'rsatgan matbuot nashrlari, vatanparvar ziyolilar, muarrixlar, olimlar, shoirlarning yurt taqdiri haqida katta qalb bilan qayg'urib yozgan maqolalari, asarlari mustamlakachilikning qabih mohiyatini, istiqbol uchun olib borilgan tinimsiz kurashlarning qanchalik og'ir kechganligini bugungi avlod teran anglab yetishida bebaho manbalar bo'lib qolaveradi.

Bundan tashqari, yurtimiz tarixini ilmiy jihatdan to'laqonli yoritish maqsadida, xususan, O'zbekiston yangi tarixining uch jildini tayyorlash asnosida xolis manbalar – xorijiy adabiyotlardan, jumladan, xorijdagi vatandosh olimlarimiz asar va esdaliklaridan ham

foydalanildi. AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Saudiya Arabistoni va boshqa bir qator chet davlatlarda XIX asr oxirlaridan e'tiboran Turkistonda kechgan voqea-hodisalarga odilona munosabat bildirilib, chorizm tajovuzi, sho'ro saltanatining bu o'lkadagi qonli va qatag'on siyosati haqida rostgo'ylik, halollik bilan mushohada yuritilgan.

Kitobda tarix sohasida olib borilayotgan izlanishlar, xususan birinchi nashrdan (2000 y.) o'tgan o'n yil mobaynida yaratilgan kitoblar, yangi fikr, yangicha qarashlar o'z aksini topgan asarlar, ilmiy muomalaga kiritilgan yangi hujjatlar – tarixchi olimlarning eng so'nggi tadqiqotlari samalaridan ham keng foydalanildi. Yurtim deb, elim deb yonib yashagan, ozodlik va istiqlol uchun kurashda aziz jonlarini fido etgan, ammo nomlari va ishlari hanuzgacha o'z bahosini olmagan bobokalonlarimiz faoliyatini yoritishga holi qudrat harakat qilindi.

TURKISTONNING PARCHALANIB KETISHI VA UCH XONLIKDAGI IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYAT

«Nega jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII–XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay, chor Rossiyasining o'lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'lmaganmikan?»

Islom Karimov

Vatanimiz tarixi o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda kechmaganligi, uning silsilasida zafarli va inqirozli davrlar bo'lganligidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat bo'lganligi jahonga ma'lum. Amir Temur o'zidan qudratli davlatni, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashhur qo'llanma «Tuzuklar»ni qoldirgan edi. «...Farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri, – deb yozgan edi u o'zining tuzuklarida, – unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lg'ay»¹. Sohibqiron Amir Temur vorislariga «millatning dardiga darmon bo'lish», «zaiflar va yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamaslik»ni uqtirib «adolat va yaxshilik qilmoq dastingiz, rahbaringiz bo'lsin» deya vasiyat qilgan edi. Ammo uning dasturi va vasiyatlariga amal qilinmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o'zaro ixtilof va ichki kurashlar, jangu jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi.

XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomondan ko'chmanchi o'zbeklar davlati hukm-

¹ Temur tuzuklari. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 53-bet.

dori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500–1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Hisor viloyatini, 1504–1505 yillarda Urganchni, 1506–1507 yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Mashhad, Nishopur, Toshkent, Farg‘ona va Sirdaryo yerlarini zabt etdi. Qat‘iyatli sarkarda Shayboniyxon temuriy shahzodalar orasida o‘ziga munosib raqibni Zahiriddin Muhammad Bobur siyomosida uchratdi. Bu ikki o‘zbek sarkardasi, ikki shoir va ikki davlat arbobi ittifoqlashib, temuriylarning butun Sharq va G‘arbgga yoyilgan shuxratini barqaror etish, Sohibqiron Amir Temur asos solgan qudratli davlat shukuhini yanada tiklash o‘rniga, o‘zaro kurash, uni egallash bilan band bo‘lishdi. Natijada, Movarounnahr va Xuroson yagona davlat tarkibidan ajralib ketdi. Eronda kuchayib borayotgan safaviylar vaziyatdan foydalanib, bu ikki sarkarda kurashiga aralashdi. Mamlakatda parokandalik avjga minib, avvalgi qudratdan putur ketdi. Bobo yurtidan ajralgan, oxir-oqibatda Hindistonni zabt etgan Bobur va uning avlodlari uch asr mobaynida bu mamlakatni idora qildilar.

Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi. Qariyb, bir asrga yaqin davom etgan shayboniylar hukmronligi davrida ham tinchlik bo‘lmadi, qirg‘inborot urushlar, o‘zaro ichki kurashlar davom etdi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533–1539) taxtga ko‘tarilgach, Buxoroning mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ancha kuchaydi va Movarounnahrning siyosiy-ma‘muriy markaziga aylantirildi. Abdullaxon-II (1557–1598) davrida, 1557 yilda poytaxt rasman Samarqanddan Buxoroga ko‘chirildi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo‘lib kirdi.

1601 yildan e‘tiboran Buxoro xonligida xokimiyat ashtarxoniyalar (joniylar) sulolasi qo‘liga o‘tdi.

150 yilcha (1601–1756) hukmronlik qilgan ashtarxoniyalar sulolasi davrida ham Buxoro xonligida barqarorlik bo‘lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o‘z-boshimchaligi, markaziy hokimiyatdagi amaldorlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik, urug‘chilik, mavqe talashish mamlakat xalqi tinkasini quritdi. Shuning uchun ham XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligi va Xiva xonligi dastlab Rossiya va so‘ng Eron shohi Nodirshoh zarbiga uchradi. Ichki nizolar, mahalliychilik va o‘zaro kurashlar zaiflashtirgan bu ikki xonlik Nodirshohning ta‘sir doirasiga tushdi. Nodirshohni vasiy sifatida tan olgan Muhammad Rahim 1753 yilda o‘zini Buxoro amiri deb e‘lon qildi va 1920 yilgacha hukm surgan mang‘itlar sulolasiga asos soldi. Ammo u ichki

kurashlarga butkul barham berolmadi. Natijada, Buxoro xonligidan mustaqil yana bir davlat tashkil topdi va u tarixda «Qo‘qon xonligi» deb nom oldi.

Qo‘qon atrofida yashab turgan o‘zbek qabilalaridan biri minglar o‘z yetakchisi Shoxruhbiyni hokimiyat tepasiga ko‘tardilar. Qo‘qon shahri chetida joylashgan Tapaqo‘rg‘on Shoxruhbiyning qarorgo-higa aylantirildi.

XVII–XVIII asrlarda qoraqalpoqlar orollik o‘zbeklar bilan birgalikda Orol yerlarida o‘z davlatini tuzgan edi. Bu davlat birlashmasining aholisi – qoraqalpoqlar va o‘zbeklar qo‘shni xalqlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan. XVIII asrdagi qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotiga urug‘-qabilalarga bo‘linish an‘anasi xos bo‘lgan. Butun xalq ikki katta qavm (oris) ga – o‘n to‘rt urug‘ va qo‘ng‘irot qavmlariga bo‘lingan. O‘n to‘rt urug‘ qavmining asosiy guruhini Xitoy, qipchoq, Kenagas, Mang‘it urug‘lari tashkil etgan, qo‘ng‘irot qavmiga esa Shulluk va Javung‘ir urug‘ birlashmalari kirgan. Barcha guruhlarini urug‘ tabaqalari – biylar va botirlar boshqargan. Ular bilan musulmon ruhoniylari yaqindan aloqada bo‘lgan.

XVIII asrda jung‘or va qozoq xonlarining bosqinchilik hujumlari natijasida Sirdaryo bo‘ylarida yashayotgan qoraqalpoqlarning bir qismi Yangidaryo bo‘ylariga va Orol yerlariga ko‘chishga majbur bo‘lgan. Yangidaryo yerlarida o‘rnashgan qoraqalpoqlar uchun yuz yillar qarovsiz qolgan bepoyon maydonlarni o‘zlashtirish qozoq xonlari va sultonlari bilan doimiy to‘qnashuvlar natijasida juda og‘ir kechdi. Shuning uchun ham arxeologlar Yangidaryodagi sug‘orish inshootlari qoldiqlarini «qoraqalpoq ajdodlari mehnat jasoratining buyuk yodgorliklari» deb hisoblaydilar.

Qoraqalpoq (Orol) yerlari XVII–XIX asr boshida Quvondaryo va Yangidaryo havzasini to‘liq qamrab,

Amudaryo etaklarigacha cho‘zilgan edi. Lekin XIX asr boshida Xiva xonlari Orolbo‘yi aholisini bo‘ysundirishga qaratilgan harbiy harakatlarni boshlaydi va bu harakatlar 1810 yili Muhammad Rahimxon (1806–1825) davrida quyi Amudaryodan Yangidaryogacha bo‘lgan qoraqalpoq yerlarining Xiva xonligiga qo‘shib olinishi bilan tugaydi¹.

Shunday qilib, jahon sahnasida XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida buyuk Temur saltanatini uch tarqoq o‘zbek xonligi o‘zida gavdalandirdi.

¹ Q a r a n g: Kamolov S., Sariboev K. Qoraqalpoqlar. Risola qo‘lyozmasi. Nukus, 1999, 1–3-betlar.

1. BUYUK PETRNING MAXFIY REJASI

Kavkaz, Volgabo'yi, Sibir va O'rta Osiyo ustidan hukmronlik qilish rus podshohlarining azaliy orzusi edi. Rossiya podshohi Ivan Grozniy ana shu orzuni amalga oshirishni boshlab berdi. U XVI asr ikkinchi yarmida Qozon, Ashtarxon va Sibir xonliklarini bosib oldi.

Rus davlati endi afsonaviy boyliklar makoni deb shuhrat topgan O'rta Osiyo mintaqasiga ko'z olaytirib, bu yerdagi mavjud xonliklar haqida keng ko'lamda josuslik ma'lumotlarini to'play boshladi. Bu holat «Moskva savdo kompaniyasi» deb atalgan tashkilotning vakili Antoni Jenkinson boshchiligidagi elchilarning faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Antoni Jenkinson Richard va Robert Jonsonlar bilan birgalikda 1558 yilning aprelidan to 1559 yilning 2 sentyabrigacha Buxoroda bo'ldi, u yerda Abdullaxon II bilan uchrashdi. Shayboniylar sulolasining salohiyatli va mashhur vakillaridan hisoblangan Abdullaxon rus podshosining elchisi bilan bo'lgan suhbatda Rossiya, Angliya va Turkiya davlatlarining harbiy qudrati, qurol-aslahasi haqida ma'lumot olishga qiziqqan bo'lsa, Jenkinson va uning hamrohlari Buxoroning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy ahvoli va xalqaro aloqalari haqida imkon qadar ko'proq ma'lumot to'plashga intiladilar.

Rus davlati bundan keyin ham zo'r berib O'rta Osiyo xonliklari haqida ma'lumot yig'ishda davom etdi. 1620 yilda Ivan Xoxlov, 1669 yilda B. A. va S. I. Pazuxinlar, 1675 yili esa V. A. Daudov boshchiligidagi elchilarini O'rta Osiyo xonliklariga jo'natdi. Ular Buxoro, Xiva, Urganch va Balxda bo'lishib, o'zbek xonliklarining iqtisodiy-siyosiy va harbiy ahvoli bilan yaqindan tanishdilar. Manbalarda XVII asrda Buxoro va Xiva xonliklarida Rossiyaning 9 elchisi bo'lganligi qayd etilgan¹.

XVII asr boshlarida rus kazaklari Urganchga xurujlar uyush-tirganlar. Rus kazaklarining Urganchga hujum qilib katta o'ljalik bo'lishgani, mahalliy xalqning ularga qarshi kurashgani xususida tarixiy manbalarda ishonchli ma'lumotlar bor. Urganchning rus kazaklari tarafidan bosqin etilishi va Xorazm xalqining tajovuzkor-larga qarshi olib borgan kurashi mashhur tarixchi olim Abulg'ozixon-ning «Shajarayi turk» asarida yoritilgan. Jumladan, mazkur asarda shunday deyiladi: «Yoyiq teganda yurug'on o'rusning qozoqindin ming kishi saratonning avvalgi kuni g'ofil kelib, Urganchning qal'asiga kirdi. Shaharda ra'iyatdin o'zga kishi yo'q erdi. Xonning

¹ Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Вып. 3, Ленинград, 1932, стр. 255–495. Bundan keyin qisqacha MIUTT deb qisqartma qilinadi.

o'rdasi va sipoh xalqi Amu suvining labida erdilar. Xivaqda xonga kishi chopturdilar. Yetti kunda xon keldi. [Kazaklar] Urganchda ra'iyatdin ming kishini o'ltirdi va ming qiz bilan juvonnini oldi. Ming arobaga yaxshi mollardan yukladi.

Bo'z va buyog'li, palos va to'n, to'shak-yastuq mundog' nimar-salarni barchasini o'tga yoqdi. Bularni saranjom qilguncha yetti kun bo'ldi. Andin so'ng [kazaklar] Urganchdin chiqib daryo labiga yurudi. Arab Muhammadxon oldiga borib o'r qazdi va jang qildi. Ikki kun urushtilar, uchinchi kuni jibni zo'r qilib olib, taqi bosib o'tdi. O'rus piyoda, bizning xalq otlig' ikki farsang yer yuzunda yana o'r qazib jang qildilar. O'rus yuklagan suvini tamom qildi... o'rus qon icha boshladi. Beshinchi kuni qonni ham tavosutti. O'zbek har yerdan to'p-to'p bo'lib chopdi. O'rusni o'ldurib-o'ldurib qaytdi. Ul arobadan chiqib urushar erdi. Axir arobaning ichindan chiqa bilmadi. Ojiz bo'ldi. Yettilanchi kuni barcha ittifoq birlan choptilar. Arobaga kelgandan so'ng otdin tushib ko'ran ichiga kirib qilichni qo'ya berdilar. Xalq o'ljaga yuzburg'onda o'rus qochib daryo labiga borib Tuq qal'asining quyisida yag'ochdin qal'a solib baliq olib yedida o'lturdi. Arab Muhammadxon borib qabadi. Taqi o'n besh kunda oldi»¹.

Shunday qilib, rus kazaklarining dastlabki talonchilik qutqusi barbod bo'ldi. Keyinchalik Urganchga bostirib kirgan Ataman Nechaev kazaklarining taqdiri ham shunday bo'ldi. Abulg'ozixon yozadi: «Biz dunyoga kelgan yilning avval bahorinda (1603 yil) o'n yetti kishi o'rusg'a savdog'a ketar erdi. Qo'sh Yoyiq teganda ming qozoq o'rus bor ekandi. Yo'lda anga uchray qolur. Ikkisini o'lturur, saqlag'an kishilardin Urganchning xabarin so'rar. Aning birisi turkistonlik ekandur. Ul aytur, Urganchning shahrinda sipohdin bir kishi yo'q edi. Sipohning yaqin o'lturgani otlig'a bir kunlik yo'l. Shaharda tanho ra'iyat turur. Bir tarafi cho'l. Agar cho'l yo'lindin yuz ming lashkar borsa, shaharga kirganda ko'rar. Andin ilgari ko'rmas. Yot yurtli kishi ancha ko'lindan va tilindan kelgan sa'y birlan xushomadni qildi. O'rus muning so'zina firifta bo'lib turkistonlini boshchi qilib, ming kishi kelib Urganchning Mirzo darvozasindin kiribdi...

Otamiz [Arab Muhammadxon] o'rusdin bir kishi qo'ymay qirib ekandur»². XVIII asr boshida esa ana shunday harakat keng miqyos-

¹ *Abulg'oziy Bahodirxon*. Shajarai turk. Toshkent, «Cho'lpon», 1992, 158–159-betlar.

² O'sha asar, 167-bet.

da amalga oshdi. Bu xuruj Rossiyaning birinchi imperatori Pyotr I davrida boshlandi.

1713 yilda Ashtarxonga kelgan mang'ishloqlik turkman savdogari Xo'ja Nafas knyaz Mixail Samonov bilan uchrashadi. Ular tezda o'zaro til topishib ketishadi. Turkman savdogari undan katta va'dalar oladi, Eronning G'ilon viloyati hukmdori bo'lgan, lekin ayrim sabablarga ko'ra Rossiyaga qochib kelib nasroniy diniga o'tgan bu kimsa Xo'ja Nafasni Sankt-Peterburgga taklif qiladi. Xo'ja Nafas bu shaharda cho'qintirilgan yana bir musulmon-knyaz Bekovich-Cherkasskiy bilan tanishadi. Xo'ja Nafas unga Amudaryo sohili oltin qumlarga boyligi haqida gapiradi. U Rossiya uchun oltinning naqadar zarurligini yaxshi anglagani uchun bu haqda Pyotr I ga axborot beradi. Shuning uchun Pyotr I Xo'ja Nafasni shaxsan o'z huzuriga chaqirtiradi. Xo'ja Nafas u bilan qilgan suhbatida qadim zamonlarda Amudaryo Kaspiy dengiziga kelib quyilganini, ammo, keyinchalik mahalliy aholi daryoni to'g'on bilan to'sganini va qurigan o'zan ham oltinga boyligini aytadi. Xo'ja Nafasning ma'lumotlarini aynan shu vaqtda Sankt-Peterburgga kelgan Sibir gubernatori Matvey Gagarin ham tasdiqlaydi va Yorkent shahri yaqinida Sirdaryo sohilidan olib kelingan oltin namunalari unga ko'rsatadi. Pyotr I endi maxfiy reja tuzib, bu oltinlarga ega bo'lish uchun ikki ekspedisiya jo'natishga qaror qiladi. Kapitan Ivan Buxgols rahbarligidagi birinchi ekspedisiya Sibir orqali Tobolskdan Irtish daryosi bo'ylab Yorkentga borishi kerak edi. Bu guruh 1715 yilning boshlarida yo'lga chiqib, Yamishchev ko'liga yetib boradi va u yerda istehkom quradi. Ammo, bu yerlarda yashayotgan qalmoq qabilalari ajnabiylarning qal'asiga har tarafdin hujumlar uyushtiravergach, Buxgols orqaga chekinishga majbur bo'ladi¹. O'rta Osiyo orqali o'tishi kerak bo'lgan ikkinchi ekspedisiya esa Xiva xonligiga borishi, unga rus gvardiyasini taklif etishi hamda Amudaryoni eski oqimiga burish imkoniyatlarini aniqlashi, so'ng esa Buxoroga o'tib, xonning ham Rossiya panohi ostiga o'tishini ta'minlashi lozim edi².

Bu ekspedisiyaga podsho gvardiyasi Preobrajensk polki poruchigi Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy rahbar qilib tayinlandi.

¹ Гулямов Х. Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. Ташкент, 1992, стр. 40–44.

² O'sha joyda.

Mavzuga oid hujjat

Pyotr I ning Bekovich-Cherkasskiyga yo‘riqnomasi

1. Amudaryo bir vaqtlari Kaspiy dengiziga qo‘yilgan joyda 1000 chaqirimni qamraydigan harbiy istehkom qurilsin. Amudaryo oqimini va to‘g‘onlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, imkoni bo‘lsa eski yo‘lga burib yuborilsin. Suvni Orol dengiziga yo‘naltiradigan to‘g‘onlar buzilsin¹. Bu ishlarni bajarishga qancha kishi kerakligi aniqlansin.

2. Xiva xonligining rus davlati tobeligiga o‘tishiga erishilsin hamda bizning manfaatlarimizga xizmat qilish sharti bilan harbiy qism qoldirilsin. Agar xon rozi bo‘lsa va sharoiti ko‘tarsa, harbiy qismni o‘zi ta‘minlasin. Bordiyu, buni qila olmasa, harbiy qismni bir yil davomida ta‘minlash kafolati berilsin, keyingi yillardagi xarajatlari esa uning zimmasiga yuklatilsin.

3. Agar Xiva xoni rozilik bildirsa, u vaqtda xon kishilariga ikki rusni qo‘shsin va ular Sirdaryo suvi bo‘ylab oltin borligini aniqlash uchun Yorkentga jo‘natilsin. Shuningdek, xondan savdogarlarimizning Amudaryo bo‘ylab Hindistonga borishlari uchun kemalar berishi so‘ralsin. Savdogarlar ketayotganlarida quruqlik va suv yo‘llarini, daryo va ko‘llarni, ayniqsa Hindistonga boradigan yo‘lni yaxshi o‘rgansinlar va ma‘lumotlar to‘plasinlar. Agar savdogarlar Hindistonga Kaspiy dengizi orqali boradigan yo‘l mavjudligini eshitsalar, u vaqtda shu yo‘l bilan orqaga qaytsinlar va ko‘rganlarini qog‘ozga tushirsinlar.

4. Xiva xonidan Buxoro xonligining rus davlati tobeligiga o‘tishga xohishi bor-yo‘qligi aniqlansin. Bordiyu bunday istak bo‘lmasa, do‘stlik munosabatlari o‘rnatishga erishilsin.

5. Ko‘rsatilgan topshiriqlarni amalga oshirish uchun 4000 kishidan iborat muntazam qo‘shin va kerakli kemalar ajratilsin. Bundan tashqari, Yoyiq kazaklaridan 1500, eshkakchilardan 500 va otliqlardan 100 kishi berilsin. Ular savdo karvonlarini muhofaza qilish niqobi ostida Ashtarxondan harbiy qal‘a va shahar quriladigan joyga, ya‘ni Kaspiyning sharqiy qirg‘og‘igayuborilsin. Qo‘shin komandirlari barcha joylardagi tub aholiga nisbatan xushmuomalada bo‘lsinlar. Shaharni qurish uchun zarur bo‘lgan asbob va cho‘kichlar berilsin.

6. Dengiz ofiserlaridan poruchik Kojin va navigatorlardan 50

¹ Demak, Orol dengizini quritish g‘oyasi birinchi bo‘lib Petr birinchidan kelib chiqqan va uni Sovet tuzumi amalga oshirgan. Mualliflar izohi.

yoki ko'proq kishi harbiy qismga qo'shilsin. Kojin savdogar niqobida ish yuritishi, navigatorlar esa Yorkentga yuborilishi lozim¹.

Pyotr I ning harbiy istehkomlar qurish va shu yo'l bilan Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarida rus davlatining ta'sirini o'rnatish haqidagi ko'rsatmasini bajarish uchun Bekovich 69 kemada Kaspiy dengizi bo'ylab yo'lga chiqdi. Tikqaragan degan joydan Manqishloqqa kelib, bu yerda Avliyo Pyotr nomida harbiy istehkom qurdi. Ikkinchi qal'a Krasnovodskda barpo etildi.

1717 yil ko'klamida Bekovich-Cherkasskiy o'z qo'shinining bir qismini yo'l bo'yiga qo'yib, o'zi qolgan askarlari bilan kemada Kaspiy dengizi orqali, Gurevga keldi.

Qalmoqlar xoni Ayuka Bekovich-Cherkasskiyni Xivadagi vaziyatdan ogoh qiladi: «Mening Xiva xonligiga borib kelgan odamimning guvohligiga ko'ra, 2000 kishidan iborat xivaliklar, qoraqalpoqlar va qozoqlar birlashib, chegara joylarda turibdilar. Ular yo'llardagi quduqlarni ko'mganlar hamda jang qilish niyatidadir. Yo'llarda jazirama issiq oqibatida o't yo'qligidan rus askarlari og'ir ahvolga tushib qolmasinlar. Vaziyatni batafsil tushuntirish uchun 7 kishini yubormoqdaman»².

Bekovich-Cherkasskiy 3000 dan ortiq qo'shin bilan 1717 yil may oyining oxiri – iyunning boshlarida Gurevdan chiqib, Xiva tomon yurdi. Emba daryosi irmog'ini kechib o'tdi, ikki kundan keyin esa

Bagachat degan joyga kelib qo'ndi. So'ngra Dukchon, Mansulmas, Childop, San Durali va Yangisuv singari kuduqli manzillarni bosib o'tdi. Biroq, jazirama issiq va o'tlar qovjirab ketganligi sababli qo'shindagi ot va tuyalarni boqish g'oyatda og'ir kechadi. Bekovich-Cherkasskiy Yangisuvga kelgach, tinchlik va do'stlik elchisi sifatida borayotganligini ma'lum qilish uchun Sherg'ozixon huzuriga Mixail Karetovni jo'natdi. Shundan keyin qo'shin yo'lda davom etib, Shershik qudug'i va Qoraqumobod arig'i orqali Oqko'l arig'i bo'yiga keldi. Ko'p o'tmay uning huzuriga Xiva xoni Sherg'ozini nomidan ikki kishi va Karetovning bir odami keldi. Ular xon nomidan Bekovich-Cherkasskiyga ot, to'n va turli matolardan iborat sovg'a-salomlarni topshirdi.

O'z navbatida u ham Xiva elchilariga diplomatik mulozamatlar ko'rsatadi. So'ng qo'shini bilan Xivaga yurishini davom ettiradi.

¹ Rossiya Federasiyasi Markaziy Davlat harbiy-tarixiy arxivi, harbiy-ilmiy VUA-jamg'armasi, 35-ish, 57-varaq.

² Moskvadagi Qadim Aktlar Davlat Markaziy Arxivi (SGADA), «Buxarskie dela», kn. I, ch.P, 215–216-betlar.

Poytaxtgacha to'rt kunlik masofaga yetishganda Xiva qo'shini ekspedisiya bilan to'qnashadi. Uch kun davom etgan jang ruslarning harbiy ustunligini ko'rsatadi. Sherg'ozixon bosqinchilarni qurol kuchi bilan yengib bo'lmasligini anglaydi. Xiva hukmdori ruslar huzuriga o'z elchisini yuborib muzokaralar boshlaydi.

Bekovich-Cherkasskiy o'z navbatida Xiva xukmdoriga o'zining rus davlatining elchisi ekanligini va qoraqalpokdar hujumlaridan saklanish uchun qo'shin bilan kelganligini ma'lum qildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, rus elchilari xonning lashkarboshisi Qulunbek va Nazarxo'ja ismli kishi bilan birga keldilar. Qisqasi, har ikki tomon bir-birlariga hujum qilmaslikka axd qildilar. Sherg'ozixon Eshonxo'ja orqali Bekovich-Cherkasskiy o'z xuzuriga taklif etdi. Nihoyat bunga rozilik bildirgan Bekovich-Cherkasskiy knyaz Mixail Samonov, brigadir Grigoriy Volkov, 700 askar va boshqa kishilar bilan xon xuzuriga yo'l oladi. U Pyotr I yorlig'ini, qimmatli egar-jabduq o'ralgan ot, movut, har biri 5 gazdan bo'lgan turli gazlamalar, kallaqand, kumush idishlardan iborat sovg'alarni xonga topshirdi.

Sherg'ozixon do'stona suhbatlar va mehmondorchiliklar uyushtirib kapitan-poruchikni yaqindan tanish, maqsadini anglashga urinadi. Uning bu urinishidan quyidagi ma'lumotlar aniqlanadi. Asli Vatani Qabarda bo'lgan Iskandarbek knyaz Golininning qizi Mariyaga uylangach, nasroniy diniga o'tgan. Cho'qintirish marosimida Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy nomini olgan. Xorijga o'qishga yuborilgan. So'ng poruchik unvonida Preobrajensk leyb-gvardiya polkiga xizmatga tayinlangan. Podshoning yaqin va ishonchli mulozimiga aylangan. Xivaga yaqinlashganda rafiqasi Mariya va qizlarining Volgada cho'kib o'lgani haqida xabar olgach, dunyoqarashi o'zgargan. U Allohning qahriga uchraganini sezib, yana musulmonlikka qaytgan. Sherg'ozixon aniqlagan ma'lumotlar asosida Iskandarbekka aylangan Bekovichni qo'shinni besh qismga ajratishga ko'ndiradi. So'ng ularni qirib tashlaydi. Xiva xonining tadbirkorligi tufayli birinchi rus ekspedisiyasi barbod bo'ladi¹. Rossiyaning Xivaga elchilik niqobida qo'shin yuborgani bu vaqtda Buxoroda katta bezovtalik uyg'otgan edi. Shuning uchun Buxoro xoni Abulfayzxon 1716 yilda Xonquli to'pchiboshi boshliq 61 kishidan iborat elchilarini Peterburgga jo'natadi.

¹ Rus muarrixi M.Terentev Bekovich-Cherkasskiy o'zining 6 ming rus askar va zobitlarining halokati sababkori deb yozadi. Uni nasroniylikdan musulmonlikka qaytganini xiyonat deb hisoblaydi. Iskandarbek o'zi Xiva taxtiga o'tirmoqchi bulgani uchun Sherg'ozixon tomonidan o'ldirilgan degan taxmini ilgari suradi.

Elchilar 1716 yilning 22 fevralida Ashtarxonga yetib keldi va komendant M.Chirikovga o'zining ishonch qog'ozini va Abulfayzxonning maktubini topshirdi.

Ayni vaqt Prussiyada turgan Pyotr I ning Peterburgga qaytishini, keyin esa yo'llarning ochilishini kutgan Xonquli to'pchiboshi 1717 yilning may oyigacha Moskvada qoldi. Uni zodagonlar, amaldorlar va boy ayonlar ovuntirib turdilar, bazmlariga olib borishdi. Elchiga Rossiyaning boyligi va qudratini namoyish qilishga urinishdi. 1717 yilning 26 iyunida esa uni Peterburgga izzat-ikrom bilan kuzatib qo'yishdi.

Abulfayzxon Pyotr I ga yozgan maktubida ikki davlat orasida do'stlik munosabatlarini o'rnatish va o'zaro savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish istagini bildirgan edi. Buxoro xoni o'z maktubida Ashtarxonda ayrim musulmonlarning tuhmatga uchrab, begunoh hibsga olinganligini ta'kidlab, ularning ozod qilinishini iltimos qilgan.

1717 yilning 3 iyulida Rossiya xukumatining topshirig'iga ko'ra, Tashqi ishlar mahkamasi xodimi Pyotr Kurbatov Xonquli to'pchiboshining huzurida bo'ldi. Ammo, elchi Buxoro xonining yorliq va maktubini shaxsan Pyotr I ga topshirish lozimligini aytib, podshoning Rossiyaga qaytishini kutdi¹.

1717 yilning 10 oktyabrda Sankt-Peterburgga qaytgan Pyotr I Buxoro elchisini 26 oktyabrda qabul qildi. Shohlarga xos odat bo'yicha Pyotr I elchidan Buxoro xonining salomatligini surishtirdi. Shundan keyin Buxorodan keltirilgan sovg'a-salomlar topshirildi. Xonquli to'pchiboshi Abulfayzxonning ishonch yorlig'ini topshirgach, asir etilgan buxoroliklarning ozod etilishini iltimos qildi.

Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi halokatidan so'ng o'z rejasidan qaytmagan Pyotr I endi o'z nigohini Buxoroga qaratadi. Shuning uchun podsho va uning vazirlari, xususan, zobitlar elchiga zo'r qiziqish bilan qaradilar. Ular Xonquli to'pchiboshi qachonlardir Orenburg garnizoni kaprali Andrey Rodikov bo'lganini eshitishgan edi. Asir tushib qolgan bu zobit Xivada qul tariqasida sotilgani, Buxoro shahzodasi Abulfayz uni o'z xizmatiga olib, armiyada katta lavozimga qo'ygani tarixini ham bilishardi. Andrey Rodikov o'z darajasiga ko'ra, generaldan ham yuqori unvondagi Buxoro amaldori ekani ham bu qiziqishni oshirgan edi. Sobiq kapral endi Xonquli to'pchiboshi nomida qirq yildan so'ng o'z vatanida o'zga yurtning elchisi sifatida turardi². Pyotr I Buxoro elchisi bilan qilgan shaxsiy suhbatida uning butun tarixini bilib oldi va unga hurmati oshdi.

¹ SGADA, 109-jamg'arma, «Бухарские дела», 1-kitob, 2-qism.

² O'sha joyda, 177-varaq.

Xonquli to'pchiboshi Abulfayzxonning topshiriqlarini bajarib bo'lgach, Buxoroga qaytib ketishi oldidan xotini va qizi Peterburgda umrbod qolmoqchi ekanini podshoga aytganida Pyotr I elchining bu iltimosini qondirgani ham bejiz bo'lmagan. O'z burchiga sodiq bu rus zobitining Buxoro xoniga sadoqati podshoni ajablantirdi.

Pyotr I Rossiyaning Buxoro bilan yaxshi munosabatda bo'lishi siyosiy maqsadlarda qo'l kelishini yaxshi anglar edi. Shuning uchun u Abulfayzxonga yozgan javob maktubida o'zaro savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishdan mamnunligini bildirdi va bundan buyon Buxoro savdogarlaridan boj-xiroj olinmasligini xabar qildi.

Buxoro xonining Rossiyadagi asirlarni ozod qilish haqidagi iltimosi ham ijobat topdi: «O'ta xavfli jinoyat sodir etib, o'lim jazosiga loyiq bo'lgan» buxorolik ikki kishi umrbod surgun qilindi, boshqalari ozod etildilar¹. Pyotr I Abulfayzxonning Buxoroga «idrokli odam»ni elchi qilib yuborish to'g'risidagi iltimosiga alohida e'tibor bilan qaradi. Chunki Buxoro xoni Abulfayzning Pyotr I dan o'z elchisini yuborishni iltimos qilishi rus hukumatining manfaatlariga to'la mos kelar edi.

Buxoroga borishga hozirlik ko'rayotgan Florio Beneveni boshchiligidagi elchilik jamoasining taraddudi Abulfayzxon iltimosiga javob bo'ldi.

Rus podshosi Pyotr I huzurida yuqori lavozimda turgan F.Beneveni asli italiyalik bo'lib, «fors va turk tillarini yaxshi bilar, o'ziga topshirilgan elchilik vazifasini bajara oladigan darajada boy tajribaga ega» odam edi.

F. Beneveni boshliq elchilarni jo'natish bilan shaxsan Pyotr I hamda uning eng yaqin yordamchilari: kansler G.Golovkin va uning o'rinbosari P.Shafirovlar shug'ullanganligi uchun Buxoro xoni Abulfayzxon ham bu tashrifga o'ta qiziqish bilan qaradi.

Florio Beneveni elchiligidan maqsad va vazifalari 1718 yilning 13 iyulida imzolangan maxfiy yo'riqnomada ochiq-oydin ko'rsatib berilgan. Yetti moddadan iborat ushbu yo'riqnomada F. Beneveniga o'z safari chog'ida iqtisodiy va geografik ahamiyatga molik yerlarni buxoroliklarga sezdirmasdan eslab qolish, Kaspiyga quyiladigan katta-kichik daryolar va mavjud kemalar, shaharlar va istehkomlar haqida ma'lumot to'plash topshirilgan edi. Bu topshirikdar ichida uning ham Buxoroda Eron elchilariga ko'rsatiladigan darajada izzat-ikrom bilan kutib olinishiga erishish lozimligi alohida uqti-

¹ Яковлев П. Русский капрал Топчи баши Бухарского хана. Отеч. Зап. ч. II, СПб, 1822, стр. 366–370.

rilgan edi. Bundan tashqari, F. Beneveni Buxoro xonligining qal'alari va qo'shinlarining umumiy soni, armiyasining tuzilishi va ahvoli, boshqarish usuli, Buxoroning Eron, Xiva va Turkiya bilan munosabatlari haqida to'la ma'lumot to'plashi hamda Rossiya bilan Buxoro davlati o'rtasida savdo-sotiqni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarni aniklash bilan birga, O'rta Osiyo daryolaridagi oltin zahiralari haqida ma'lumotlar to'plashi ham lozim edi. F. Beneveniga Buxoro xoniga soqchilik uchun rus gvardiyasini taklif etish va bu ishning oson kechishi uchun Xonquli to'pchiboshining ko'nglini topishi alohida uqtirilgan.

Rus podshosi Pyotr I F. Benevenini jo'natib, xonlikning iqtisodiy, harbiy, fuqarolik va diplomatik ahvoli haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmoqchi edi. Chunki Rossiya uchun xavf qudratli Usmonli turk davlati tomonidan kutilgan bo'lib, Turkiyaning Eron hisobiga yanada kuchayishi va O'rta Osiyoga kirib borishi natijasida Rossiyani mushkul ahvolga solib qo'yishi e'tiborga olingan edi.

Rossiyaning Buxoro bilan «do'stona» munosabatda bo'lishga urinishi ayni paytda Xiva bilan bo'lgan munosabatlarining uzilishi bilan ham bog'liq edi. Ikkinchi tomondan, F. Beneveniga berilgan yo'riqnoma birmuncha vaqt oldin Eronga yuborilgan A. Volinskiyning vazifalariga juda o'xshar edi. Pyotr I Buxoro va Eronga o'z elchilarini yuborib, diqqatini Sharqqa qaratgan va bu yerlarda Turkiyaning ta'sirini sindirish payiga tushgan edi. Shu tariqa, kerakli ko'rsatmalar olgan F. Beneveni 1718 yilning 13 noyabrida Ashtarxonga yetib keldi va Buxoroga jo'nayotgan Xonquli to'pchiboshi bilan uchrashadi.

1721 yilning 6 noyabrida F. Beneveni va uning hamrohlari Buxoroga yetib keldilar. Rus elchilarining Buxoroga kelishi ayrim mahalliy zodagonlarga yoqmad, ular ruslar ta'sirining ortishi o'zlarining mavqelariga putur yetkazishidan xavfsirar edilar.

Shu paytda Buxoro xonligida o'zaro urush-talashlar avj olib, mamlakatning boshqaruv tizimi ancha zaiflashgan edi. Xonlikda oliy lavozim – otaliq mansabini talashib qilingan harakatlar tufayli amaldorlar ikki qarama-qarshi guruhga ajralib qolgan edi. Masalan, Rossiya elchilari Buxoroga kelgach, oradan bir oy o'tar-o'tmas, Farhodbiy otaliq o'ldiriladi va uning o'rnini Muhammad Hakimbiy egallaydi.

Buxorolik amaldorlarning ko'pchiligi Rossiyaga qaraganda Eron bilan yaqin munosabatda bo'lish tarafdori edilar. Shuning uchun ular xon tomonidan Buxoroga keyinroq kelgan Eron elchisini F. Benevenidan oldin qabul qilishiga erishmoqchi bo'ldilar. Ammo,

xalqaro nufuzda Eron Rossiya bilan tenglasha olmasligiga aqli yetgan Abulfayzxon F.Beneveni avval qabul qildi. Xon Rossiya salobatiga keragidan ortiq darajada hurmat bilan qarar ediki, buni su'istemol qilgan takabbur F.Beneveni muqaddas shaharda qabul qilingan odatni buzib yayov emas, otlıq kirdi, go'yo bu udumni bilib bilmaslikka oldi.

Rossiya elchisi Buxoroda 3 yildan ortiq turdi hamda Buxoro va Xiva davlatining ichki-tashqi siyosati, iqtisodiyot, tabiiy boyliklari haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Bu yumushlarning hammasini bajarish, tabiiyki, juda qiyin edi. Buning ustiga, amaldorlarning ko'pchiligi Beneveniga nisbatan yaxshi munosabatda emas edilar. Shuning uchun Beneveni o'ziga xayrixoh bo'lgan va hatto xonga ham ta'sir etishi mumkin bo'lgan xo'ja Ulfat yordamidan foydalandi.

F. Beneveni Abulfayzxon bilan yakkama-yakka uchrashib, Rossiyaning yordamini taklif etmoqchi edi. Ammo Rossiya elchisi bu niyatiga erisha olmadi. Rossiyaga juda katta umid bilan qarasa-da, xufyona uchrashuv saroy amaldorlarining shubhasiga sabab bo'lishi mumkinligidan cho'chigan Abulfayzxon Beneveni bilan doimo boshqalar ishtirokida suhbatlashgan. F.Beneveni pixini yorgan diplomat bo'lganidan, Abulfayzxon turli zodagon guruhlarining nog'orasiga o'ynaydigan qo'g'irchoq xon bo'lib qolganligini anglab yetgan edi. Ayni paytda Buxoro va Xiva xonlari o'rtasida ziddiyatlar avj olib borardi. Buxoro xoni Abulfayz o'zining siyosatidan norozi bo'lgan amirlarning Xiva xoni Sherg'ozixon bilan yashirincha til birlashtirib, Buxoro taxtiga tajovuz qilishni ko'zlagan siyosatidan xabardor edi. 1721 yilda Sherg'ozixon norozi bo'lgan bir guruh xivaliklar yordam so'rab Buxoroga keldilar va Abulfayzxon bir necha marta Urganchga yurish uyushtirdi. Ammo buxoroliklar har safar mag'lub bo'lib, chekindilar. Uch yil davomida xonlikda kechgan bu voqealar, tabiiyki, F. Benevenining nazaridan chetda qolmadi. U imkon topib bu haqda Pyotr I ga ma'lumot jo'natib, bunda asosiy aybdor deb Xiva xoni Sherg'ozixonni ko'rsatdi va mabodo rus qo'shinlari Xivaga kirgudek bo'lsa, Buxoro xoni bundan xursand bo'lishini ma'lum qildi.

Sherg'ozixon esa qalmoq va no'g'ay savdogarlaridan Rossiyaning janubga tomon yurishga hozirlik ko'rayotganini eshitgach, vahimaga tushdi va Buxoroga elchi jo'natib, Xivaga xavf solayotgan kulfat ertaga Buxoroning boshiga ham tushishi mumkinligi, shuning uchun o'rtadagi nizoni bartaraf etib, umumiy dushmanga qarshi birgalashib kurashishni taklif qildi. Ammo uning elchilari Abulfayzxonni o'z takliflariga ko'ndira olmadilar.

Xonlikdagi vaziyatni chuqur tahlil qilgan F. Beneveni Buxoro saltanatining beqarorligi va ayniqsa, ichki ixtiloflar uni bosib olishni osonlashtiradi, degan xulosaga keladi. U o'zining yana bir maxfiy vazifasi mamlakatning oltin zahiralari bilan ham qiziqib, kerakli ma'lumotlarni to'pladi.

Pyotr I Xonquli to'pchiboshining hikoyasi, Kantemirning «Tizim kitobi yoki Muhammad dinining ahvoli»¹ asari va Beneveni axborotlaridan islom dinining mohiyatini, ahamiyatini anglab oldi va undan imperiya manfaatlari yo'lida foydalanish uchun maxfiy reja tuzdi. Bu rejaga ko'ra, imperiya tarkibidagi musulmon o'lkalarida islom ulamolari nasroniy ruhoniylarga qaraganda katta huquq va imtiyozlarga ega bo'lishi lozim edi. Pyotr I ning uzoqni ko'zlab tuzilgan rejasida o'zbek xonliklarini tobe' qilish uchun qozoqlar dashtida ruslarning ta'sirini kuchaytirish alohida o'rin egalladi.

Bu vaqtda, ya'ni XVIII asming birinchi choragida, ko'chmanchi qozoqlar Yoyiq daryosi va Kaspiy dengizidan Xiva xonligi chegarasigacha bo'lgan ulkan hududda, Katta, O'rta va Kichik juzga bo'lingan holda, istiqomat qilar edilar. Qozoq sultonlari o'rtasidagi o'zaro urushlar ularni tobora zaiflashtirib bormoqda edi. Shu hududda yashagan qalmoqlar ham tez-tez qozoqlar ustiga yurishlar qilar, o'zaro qonli to'qnashuvlar bo'lib turardi.

Qozoqlarga 1723 yildagi ocharchilik juda qimmatga tushdi. Ular nochor bir ahvolda tashqaridan yordam kutdilar. Kichik juz oqsoqoli Abulxayrxon 1730 yilga kelib Rossiya davlatiga murojaat qilib, o'z juzining Rossiya panohiga olinishini so'radi. Kichik juz va boshqa juzlardagi ayrim zodagonlarning qarshiligiga qaramay, Kichik juz 1732 yilda Rossiya imperiyasi himoyasiga o'tdi va Abulxayrxon cho'l orqali O'rta Osiyoga o'tadigan va u yerdan qaytadigan rus savdo karvonlarini talonchilik hujumlaridan himoya qilishni o'z zimmasiga oldi. Keyinroq – 1739–1740 yillarda O'rta juz, 1747 yilda Katta juz ham Rossiya tobeligiga olindi. Kichik, O'rta va Katta juzning Rossiya tobeligiga o'tishi bilan rus hukumatining O'rta Osiyo tomon harakat qilishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi. Rus hukumati topshirig'iga binoan qozoq dashtlarida mustahkam o'rmashib olish va o'zbek xonliklarini bosib olishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida ko'plab harbiy qal'a va istehkomlar qurildi. Faqat XVIII asrda qozoq juzlari hududida 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbiy qal'a va istehkomlar qurildi va ularga harbiy qismlar joylashtirildi.

¹ *Mehmet Saray*. Rusisgali Devrinde Osmanli Devleti ile Turkistan Hanliklari Arasindaki siyasi Munasebetler. Istanbul, 1990, s-11.

Rossiya hukumati o'zining mustabidlik manfaatlari yo'lida o'zbek xonliklarining savdogarlari faoliyatini cheklab qo'yishdan ham toymagan. Bundan tashqari, Rossiya strategik xom ashyo hisoblangan metallarni (mis, qo'rg'oshin va boshqa), ulardan ishlangan buyumlarni O'rta Osiyoga chiqarishni ta'qiq qilgan edi. Bunday siyosatdan norozilik Buxoro va Xiva xonlarining Rossiyaga yuborgan elchiliklari faoliyatida katta o'rin egallagan. Ular rus savdogarlari o'zbek xonliklarida erkin savdo qilayotganlarini eslatib, shunday sharoit o'zbek savdogarlariga ham yaratilishi kerakligini Rossiya hukumati oldiga qo'yishgan. Shuni uqtirib o'tish lozimki o'zbek savdogarlari bunday cheklashlarga qaramay, tadbirkorlik bilan ish yuritib, Rossiyadan o'z mamlakati mudofaasi uchun zarur xom ashyo va buyumlarni olib kelishgan. Ernazar Maqsud o'g'li ana shunday tadbirkorlardan biri edi.

Mulohaza uchun axborot

Elchi savdogar

Tabiatan iqtidorli, madrasada tahsil olgan, yurt tanigan Ernazar Maqsud o'g'li ham sayohat, ham tijorat maqsadida Rossiya bilan yaqindan tanishadi.

Rossiya davlatining arxivlarida Buxoro xonligining ana shu fuqarosining shaxsi va faoliyatiga doir hujjatlar saqlanadi. Hukumat arkonlarining hujjatlarida u dastlab mulla, savdogar va diplomat sifatida tilga olinadi. Rossiya imperiyasi Davlat kengashi va hukumatiga tegishli hujjatlarda, xususan, uning o'limiga oid xabarda Ernazar Maqsud o'g'li «millatiga shon-sharaf keltirgan» shaxs sifatida ulug'lanadi. Uning 1745 yildan 1780 yilgacha Rossiya bilan bog'langan faoliyatiga nihoyatda yuqori baho beriladi¹.

Xo'sh, bundan 250 yil muqaddam Rossiyada shuhrat qozonib, uning podsholari e'tibori va hurmatini qozongan bu zot kim edi? Biz quyida tijoratni siyosat, shaxsiy foydani yurt manfaati bilan uzviy bog'lab ish yuritgan Ernazar Maqsud o'g'li faoliyatidan ayrim jihatlarinigina yoritayapmiz, xolos.

1754 yilda Rossiya imperatrisasi Yelizavetta o'z saroyida Sharq ellaridan kelgan bir guruh savdogarlarni qabul qildi.

Gvardiya zobitlari yordamida uyushtirilgan davlat to'ntarishi natijasida taxtni egallagan Elizaveta shijoatli va tadbirkor ayol edi. U

¹ Q a r a n g: X. Г. Гулямов. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в., стр. 81–95.

xuddi otasi Pyotr I singari Sharq bilan qiziqar, ayniqsa, nodir toshlar, qimmatbaho gavhar va duru javohirlar yig'ishga havasi baland edi.

Yelizaveta savdogarlar bilan suhbatlashib, ularning mollarini ko'zdan kechiradi. Uning diqqatini Buxoro savdogari Ernazar Maqsud o'g'li jalb etadi. U boshqa savdogarlarga nisbatan o'zining muomalasi, tavozeliligi, dadil harakatlari va rus tilida erkin so'zlashi bilan ajralib turardi.

Buxorolik savdogar Yelizavetadan po'lat va qo'rg'oshin sotib olishga ruxsat berilishini iltimos qiladi. Hamma savdogarlar birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlasa, u o'z mamlakatining mudofaasi uchun zarur narsalarni so'ramoqda edi. Yelizaveta o'zi tanlagan qimmatbaho toshlar uchun qancha to'lash lozimligini so'raganda, Ernazar Maqsud o'g'li hozirjavoblik bilan musulmon savdogarlari odati bo'yicha mollarning eng sarasi avvalo yurt hukmdoriga tuhfa etilishini bayon etib, barchani o'ziga maftun qiladi. O'shanda saroy mulozimlari ham uning tuhfaridan bahramand bo'lishdi.

Ernazar Maqsud o'g'liga imperatrissa uchun zarur mollar ro'yxatini berib, ularni kelasi yilgacha olib kelishini tayinlashadi. U shunday buyurtmalarni saroy amaldorlaridan ham olgan edi. Shundan keyin Ernazar Maqsud o'g'li oddiy savdogar emas, balki Rossiya hukumati a'zolarining shaxsiy ta'minotchisiga aylanadi. Uning o'zi va sheriklari uchun Rossiya bozori bilan birga barcha idoralarning eshiklari ham keng ochildi. U bunday keng vakolat va imkoniyatlardan faqat o'z foydasi uchungina emas va balki, eng avvalo, vatani manfaatlari yo'lida foydalandi. 1762 yili u Rossiya hukumatidan buxoroliklarning Makkaga haj qilishi uchun Eron orqali emas, balki Ashtarxon orqali o'tishiga ruxsat berilishini iltimos qildi.

Yelizavetaning o'limidan so'ng taxtga o'tirgan imperator Pyotr III Ernazar Maqsud o'g'li iltimosini qondirishga rozi bo'lib, bu haqdagi farmonga imzo chekadi. Shundan keyin musulmonlar uchun Makkaga borish yo'li qisqarib, qulay imkoniyatlar tug'ildi.

1774 yilda Ernazar Maqsud o'g'li Buxoroning rasmiy elchisi sifatida Ashtarxonga katta karvon bilan yetib keladi. Bojxona xodimlarining hisob-kitobiga qaraganda, u olib kelgan mollarning umumiy hajmi 40 tonnadan ziyod edi. Ernazar Maqsud o'g'li o'z yuklarini kemada keltirgan savdogar Pyotr Volnovoinovga yo'l haqi uchun 1300 rubl to'lagan. Ashtarxon portining bojxona taftishchilari hay'ati undan Rossiyaga keltirilgan mollari uchun 2 ming rubl boj to'lashni talab qiladi. Ammo Ernazar buni rad etib, Sankt-Peterburgdan maxsus vakolati borligiga ishora qiladi. U o'zining yaqin odamlarini imperatrissaga mo'ljallangan sovg'a-salomlar va buyurtma

mollar bilan zudlik ila poytaxtga jo'natadi. Ernazar bojxonadagi da'volarni va o'ziga bo'lgan munosabat haqida kansler N.Panin nomiga atalib yozilgan maktubni ham qo'shib yuboradi. Javob uni uzoq kuttirib qo'ymaydi. Sankt-Peterburgdan imperatrisaning Ernazar Maqsud o'g'lidan hech qanday boj olmaslik va uni zudlik bilan poytaxtga o'tkazib yuborish haqida farmoni keladi.

Buxoro elchisi 1775 yil 27 mart kuni Rossiya hukumati boshlig'i kansler N.Panin tomonidan qabul qilinadi. 5 aprelda esa uni Yekaterina II, valiaxd Pavel va xos kishilar hurmat bilan kutib olishadi.

Ernazar Maqsud o'g'li elchi sifatida Buxoro va Rossiya o'rtasidagi savdo-sotiqni kengaytirishga oid takliflarini bayon qiladi. U Buxoro savdogarlaridan Rossiyaning Ashtarxon, Orenburg kabi chegara shaharlarda olinadigan boj soliqlarini kamaytirish va Rossiyaning ichkarisidagi shaharlarda erkin savdo qilishga ijozat berilishini so'raydi.

1775 yil 25 iyunda Ernazar Maqsud o'g'lini vise-kansler Osterman qabul qilib, unga Rossiya hukumatining iltimoslarini bayon qiladi. Buxoro elchisi vise-kanslerning savdo-sotiq yo'llari, ichki va tashqi bozor imkoniyatlari haqidagi barcha savollariga javob beribgina qolmay, Buxoro – Rossiya aloqalarini kengaytirish, yanada rivojlantirishga oid qator takliflarni ham kiritdiki, ularning ayrimlari Davlat kengashi muhokamasiga kiritildi. Tashqi Ishlar hay'ati hujjatlarida Buxoro elchisi shaxsiga doir rus amaldorlari bergan yuksak baholar keltirilgan.

Ernazar Maqsud o'g'liga Rossiya hukumati katta sovg'a-salomlardan tashqari, Kaspiy dengizidagi bir kemani shaxsan tuhfa qilib, unga savdogar sifatida imperiya hududida besh yil davomida erkin savdo qilish va qiymati 10 ming rublgacha bo'lgan mollaridan boj olmaslik huquqini berdi. Unga 15 ming pud temir, 5 ming pud po'lat, 3 ming pud mis sotib olish va Buxoroga yuborishga ijozat berildi. Yana shuni ham aytish kerakki, farmonda ana shu strategik ahamiyatga molik mollardan boj olmaslik haqida ham alohida ko'rsatma bor edi.

Imperatrissa o'ziga ikki tonnadan ziyod atir-upa, dorivor giyohlar va turli-tuman attorlik mollari keltirgan Ernazarga minnatdorchilik sifatida Buxoroda o'z nomi bilan ataluvchi madrasa qurish uchun katta pul in'om qiladi¹.

¹ Ernazar yoki elchi madrasasi deb ataluvchi bu muhtasham bino Buxoroda qad rostlab, bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

Buxoro elchisiga ko'rsatilayotgan muruvvat va hurmat Rossiyadagi boshqa davlatlarning elchilarini ajablantiradi. Chunki ulardan hech biri imperator saroyida bunday e'tiborga ega emas edi. Xususan, Turkiya sultonining Rossiyadagi vakili shaxsan Ernazar Maqsud o'g'li bilan suhbatlashadi va bu haqda o'z hukmdoriga axborot beradi. Turk sultoni Buxoroga odam yuborib, Ernazarni o'z saroyiga buyuk elchi sifatida jo'natishni iltimos qiladi.

Ernazar Maqsud o'g'lining Rossiyadagi nufuzi Buxoro hukumatini undan yanada unumli foydalanish kerakligiga undaydi. 1779 yilda Buxoro hukumati Ernazar Maqsud o'g'lini o'zining Rossiya va Turkiyadagi buyuk elchisi qilib tayinlaydi. Unga g'oyat qaltis va murakkab vazifa topshiriladi. Bu Buxoroning taniqli savdogari, fozil ulamosi va diplomatining hayotidagi yangi vazifa edi.

Buxoroning Rossiya saltanati va Turkiya davlatidagi buyuk elchisi Ernazar Maqsud o'g'li zimmasidagi asosiy vazifa o'sha vaqtda musulmon dunyosidagi katta kuch-qudratga ega bo'lgan Turkiya bilan aloqani mustahkamlash bilan bog'liq edi. Shu bilan bir vaqtda, Rossiyada ham Buxoroning tayanch nuqtalarini barpo etish, nufuzli siyosiy-harbiy, savdo va sanoat doiralari bilan ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlashi zarur edi. Bu ishda Ernazar Maqsud o'g'lining 35 yillik tajribasi, Rossiya hukumat arboblari va shaxsan davlat boshlig'i imperatrissa Yekaterina II bilan shaxsiy munosabatlari muhim rol o'ynashi lozim edi.

1780 yil yanvarida Sankt-Peterburgga yetib kelgan Ernazar Maqsud o'g'lini rus amaldorlari zo'r xurmat-e'tibor bilan kutib olishadi. Yuksak lavozimdagi barcha amaldorlar elchining sovg'a-salomlaridan bahramand bo'lishadi. Shaxsan Yekaterina II unga o'ziga keltirgan Buxoro qovunlari uchun minnatdorchilik bildiradi. Tashqi ishlar kollegiyasi rahbarlari unga Buxoro savdogarlaridan olinadigan bojning kamaytirilganini hamda Makkaga haj qiluvchi musulmonlar uchun barcha qulayliklar va yo'l xavfsizligi ta'minlan-ganini ma'lum qilishadi.

Hukumat boshlig'i graf Nikita Panin Ernazar Maqsud o'g'lini rasman qabul qilib, yuksak martabali mehmon sifatida siylaydi va yaqin kunlarda uni imperatrissa qabul qilishini ma'lum qiladi. Ular Buxoro-Rossiya savdo-sotig'i masalasiga oid qator shartnomalar xususida suhbatlashadilar. Xususan, Ernazar Maqsud o'g'li hukumat boshlig'iga Buxoroda rus savdogarlari erkin yurgani va qator imtiyozlarga ega bo'lgani holda, Buxoro savdogarlari Rossiyada ko'p qiyinchiliklar, ta'qiq va cheklanishlarga duchor bo'layotganini aytib, tegishli choralar ko'rilishini iltimos qiladi.

Rus diplomatlari Buxoro elchisi taqdim etgan rasmiy yorliq va maktublarni chuqur o'rganib, Buxoro hukumatining Ernazar Maqsud o'g'liga berilgan katta vakolatlari bejiz emasligini angladilar.

Buxoro xonining maktubida, eng avvalo, Rossiya imperatrisasiga hurmat-ehtirom bildirilib, so'ng Turkiya sultonining ismi-sharifi yozilgan edi. Bundan, diplomatiya tilida aytilganda, biz uchun birinchi o'rinda Rossiya bilan munosabat masalalari turadi, degan ma'no anglashilardi. Turkiya bilan urush holatida bo'lgan Rossiya Buxoroning Turkiya ittifoqchisiga aylanishi qanday oqibatlarga olib kelishini yaxshi tushungan. Ernazar Maqsud o'g'li esa xuddi shu rus hududidan Turkiyaga o'tishi kerak. Bu Rossiya manfaatlariga mutlaqo zid bo'lgani holda, dini islom markaziga aylanib borayotgan Buxoro uchun g'oyat muhim va zarur edi.

Ernazar Maqsud o'g'li zimmasidagi vazifa ana shunday murakab va nozik edi.

Elchi o'zining ko'p yillik tanishlari va aloqalarini ishga soldi. 1780 yil aprelida Yekaterina II Buxoro elchisini rasman qabul qilib, unga va hamrohlariga iltifot ko'rsatdi. Elchi talablaridan ko'pining qabul qilinishi va shaxsiy iltimoslarining bajo keltirilishi ma'lum qilindi. Imperatrisa Buxoro fuqarolarining Rossiya orqali Makkaga haj safariga borishlari uchun sharoit yaratilishini va Buxoroga mis sotishga ruhsat berilishini ham aytdi. Yekaterina II Ernazar Maqsud o'g'lini Turkiyaga yetib borishi uchun faxriy soqchilar ajratilganini ham ta'kidladi. Shu tariqa Buxoro elchisiga nisbatan imperatrisaning hurmati Rossiya manfaatlaridan ustun keldi. Yana shu ham diqqatga sazovorki, Rossiya hukmdori Buxoroga yo'llagan javob maktubida Ernazar Maqsud o'g'li imperator saroyida o'z odami ekanligi bois, Buxoro xonining iltimoslari bajo keltirilajagini alohida ta'kidladi. Shu bilan Yekaterina II hukumati Buxoro elchisiga bo'lgan buyuk hurmat va e'tiborini oshkora namoyish qilgan edi.

Rossiya bunga qadar hech qanday davlat elchisiga bunday marhamat ko'rsatmagan edi. Rossiya tashqi siyosatini yurgizuvchi idoralarning hujjatlarida u «Rossiya bilan yaqinlashishni dildan istaydigan kishi» ekanligi, «aqli, ayyor va tadbirkor» savdogar hamda «juda tavozeli va bilimdon» ulamoligi ko'rsatiladi. Elchi panohida Makkaga ketayotgan ko'pgina musulmonlar ham rus soqchilari kuzatuvida Turkiya hududiga yetib olishadi. Turkiya sultoni Ernazar Maqsud o'g'lini hurmat bilan qarshi oladi. O'rtada Buxoro va Turkiya munosabatlariga oid suhbatlar bo'lib o'tadi. Suhbatlarning mazmuniga doir hujjatlar XVIII asrdagi musulmon olami, davlatlari va siyosati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Manbalarda Ernazar Maqsud o'g'li «Buxoro savdogari, karvonboshi, mulla va elchi», «millatiga sharaf keltirgan», uning ob-rusini chet ellarda ko'targan ajoyib inson sifatida ta'riflanadi¹.

Toshkent hokimligi

Markaziy Osiyoda muhim geosiyosiy o'rin egallagan Toshkent 1754 yilda jung'orlar hukmronligidan qutulib, mustaqil shahar maqomini oldi. Sebzor, Ko'kcha, Shayxontohur va Beshyog'och kabi to'rt dahaga bo'lingan shahar o'z hokimlariga ega bo'ldi.

Muhammad Yunusxo'ja binni Hidoyatxo'ja Toshkentning Shayxontohur dahasida yashovchi baobro' xo'jalardan biri bo'lgan. Uning odamohunligi, yuksak bilimdonligi va o'tkir aql-idroki daha aholisiga ma'lum edi. Shuning uchun ham uni xalq o'ziga hokim qilib saylaydi. 1758 yili Toshkent Jung'oriya davlati tarkibidan chiqib, mustaqilligini qo'lga kiritadi. Shahar tarixida chorak asr davom etgan «Chor hokimlik» davrida Toshkentni to'rt hokim boshqara boshlaydi. Bu hokimlar orasida Yunusxo'ja alohida ajralib turardi. Uning tadbirkorligi va odamlarga mehribonligi, xalqlarvar va adolatparvarligi unga shuhrat keltiradi. O'zaro janjal va beqarorlikdan charchagan xalq Yunusxo'jani Toshkentning yagona hokimi bo'lishga undaydi. 1784 yilda xalq saylagan hokim Yunusxo'ja mustaqil Toshkent davlatini barpo etishga kirishib xuddi Buxoro, Qo'qon, Xiva kabilar qatorida yashashga haqli ekanini jamoatchilikka ma'lum qiladi. U dastavval shahar devorlarini qayta tiklashga odamlarni safarbar qiladi. Shahar xo'jaligini rivojlantirishga e'tiborni qaratadi. Bir vaqtlar shahar bedarvoza deb hisoblab, Toshkentga tez-tez bosqinlar uyushtirib turuvchi qozoq sultonlari shaharda yagona siyosiy va barqaror hokimiyat o'rnatilganini o'zlarida sinab ko'rishdi.

Yunusxo'ja mustaqil davlatning chinakamiga mustaqil bo'lishi uchun baquvvat iqtisod, kuchli qo'shin va tashqi osoyishtalik zarurligini yaxshi angladi. U yana o'zi uchun qudratli ittifoqchi zarurligini ham tushundi. Doimo nifoqda, bir-biri bilan urishib turgan Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonlari ishonchli ittifoqchi – hamkor bo'la olmasligi ham unga ayon edi.

Nihoyat 1784 yilda Shayxontohur hokimi Muhammad Yunusxo'ja binni Hidoyatxo'ja uch dahani ham o'ziga bo'ysundirib yakka hokimligini o'rnatdi. U Toshkentni shahar maqomidan davlat darajasiga ko'tarish uchun kurash boshladi. Qisqa fursatda Toshkent

¹ Gulamov X. G. Ko'rsatilgan asar, 95-bet.

Qo'qon xonligiga qarashli hududlarni egallab, mustaqil davlat darajasiga ko'tarildi. Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklari qatoriga yana bir o'zbek davlati qo'shildi. Bu davlatning boshlig'i Yunusxo'ja usta siyosatchi, mohir diplomat va iste'dodli sarkarda sifatida dovrug' qozondi. Uning eng birinchi xalqaro miqyosdagi harakati Rossiya imperiyasi bilan yaqin aloqa o'rnatishdan boshlandi. 1792 yili u Sankt-Peterburgga Omsk orqali boradigan savdo karvoniga o'z elchilarini qo'shib jo'natdi.

Rossiya davlat arxivlarida bu elchilik bilan bog'liq hujjatlar saqlanib qolgan. Ularda Yunusxo'janing Buyuk Yekaterina IIga yo'llagan maktubi ham bor. Unda quyidagi so'zlar bitilgan ediki, ular muallifning zukko aqli va tafakkuridan dalolat.

«Ba'duxu yaxshi xotiralariga po'shida bo'lmasunkim tamomi aloshu Ulug' juz va Toshkent viloyati bizga qaradilar. Bir bosh va bir tan bo'lib do'stga-do'st, dushmanga-dushman bo'lib, bir og'izdan so'z chiqarib, bir yoqadan bosh chiqardilar. Emdu shu yaxshi vaqtda xatu muhr qilib, Muhammadxo'ja birla Azizxo'jani karvonboshi qilib topgan savdogarlarimizni qo'shib yubordik. Xudoi Taollo hohlab eson-omon yetib bizni eson omonligimizni aytsalar, chin bilib siz ham topgan savdogarlarni bizning viloyatga yuboring. Xudoi Taollo hoxlasa, otasi tegsa, o'g'liga kishi tegmas, o'g'li qilsa, otasiga tegmaslar. Orada barimtoy baham yegandir. Siz ham orada bir-birovga bejo tegmagudek so'z qilib savdogarlarni diljam qiling».

Bu maktub imperiya poytaxtida katta qiziqish uyg'otdi. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari qatoriga yana bir davlatning qo'shilishi va uning Rossiya bilan yaqin aloqa o'rnatishga harakat qilayotgani Sankt-Peterburg hukmdor doiralarida qiziqishni kuchaytirdi. Shuning uchun Omskka, Sibir liniyasi boshlig'i general Shtrandmanga Toshkent elchilariga izzat-ikrom ko'rsatish buyurilib, quyidagi mazmundagi farmoyish jo'natildi.

Rossiya hukumati Toshkent bilan aloqa o'rnatishga rozi. Shuning uchun imperatrissa Yekaterina II Peterburgda Yunusxo'ja elchilarini qabul qilishga ijobiy qaraydi.

Toshkent hokimi barcha masalada o'zining maslahat kengashi fikrlariga quloq tutgan. Ayniqsa, yurt kezgan savdogarlar va olimlarning gaplariga u diqqat qilar edi. Savdogarlar Buxoro amirligi qo'shinini zamonaviy qurollar bilan ta'minlagan ulamo, savdogar va diplomat Ernazar Maqsud o'g'lini tilga olishdi. Ernazar biy 30 yil Rossiya bilan savdo qilgan. U yerdan zarur xomashyo, ayniqsa qo'rg'oshin va qurol-yarog'lar keltirgan. Rossiya hukumati o'rtasida obro' qozongan. Rus imperatrisasi Yekaterina II Ernazar biyga katta

kema tuhfa qilgan, Buxoroda elchilik madrasasini qurish uchun katta mablag' bergan.

Yunusxo'ja tashqi ittifoqchi Rossiya ekanini ulardan eshitdi. O'ziga yaqin bo'lgan ikki amaldor bilan maslahat qilib, ularni ham savdo karvoni bilan Omskka jo'nab ketishga, Rossiya bilan savdo-iqtisod sohasida aloqa o'rnatishga harakat qilishlarini tayinladi. Bu ikki amaldorlarga shaxsiy maktubi va yorliqlarini ham berdi.

Yunusxo'ja o'zining asl niyatini ularga og'zaki bayon etadi va iloji boricha Rossiyadan konchilik bo'yicha Toshkentga mutaxassislar olib kelishni tayinlaydi. 1793 yilda Toshkent hokimining muxtor vakili Muhammadxo'ja Rahim o'g'li Omskka keladi. Uni Sibir liniyasi boshlig'i general Shtrandman qabul qilib uning hujjatlari bilan tanishadi. Elchi bilan uzoq suhbatlashadi.

Peterburgdagi hukmdor doiralar general Shtrandman hisobotiga qiziqib qaraydilar. Ayniqsa, Rossiya imperatrisasi Yekaterina II Toshkent bilan qiziqib uning elchilari qabul qilinishiga ruhsat beradi. Yunusxo'ja nomiga javob xati tayyorlashni va elchilarnig iltimoslariga e'tibor bilan qarashni buyuradi.

General Shtrandman Sankt-Peterburgdan yana bir mahfiy topshiriq oladi. Unda Toshkent haqida aniq ma'lumotlar to'plash uchun aqlli, kuzatuvchan va tadbirkor kishilarni Yunusxo'ja huzuriga yuborish kerakligi aytilgan edi. 1796 yili kazak qo'shini atamani podporuchik Dmitriy Telyatnikov, serjant Aleksey Beznosikov, kapral Yakov Bikov, Danila Saynikov, Andrey Jukovdan iborat Rossiya elchiligi Toshkentga yuboriladi. Ularning bari maxsus topshiriqlarni bajarishga tayyor «aqlli, kuzatuvchan va tadbirkor kishilar» edi.

1796 yili 29 avgustda Yunusxo'ja ularni qabul qilib, uzoq va davomli suhbat quradi. Ikki tomon o'rtasida qanday masalalar muhokama qilingani hujjatlarda qayd etilmagan. Ammo Rossiya elchilarining Toshkentda Yunusxo'ja hisobidan bir yil ish olib borishgani, podporuchik D.Telyatnikov Toshkent davlatining harbiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqida batafsil ma'lumot to'plagani, serjant A.Beznosikov esa Toshkent-Omsk yo'nalishi chizmasini tayyorlagani ma'lum.

1797 yil noyabr oyida Rossiya elchilari bilan birga Yunusxo'janing elchilari ham Sankt-Peterburgga jo'naydilar. Toshkent elchiligiga shaharning baobro' kishilaridan Mullajon oxun Mahsum va Ashurali Bahodir mingboshi boshchilik qiladi. Ular imperiya poytaxtida izzat-hurmat bilan kutib olinadi. Elchilarga Rossiya tashqi ishlar kollegiyasi amaldori emas, balki general-mayor darajasidagi

haqiqiy stas-maslahatchi S.Lashkaryov biriktiriladi. Imperiya hukumatining katta e'tibori shu faktning o'zidagina izohlanishi mumkin.

Toshkent elchilarini 1797 yilning 17 dekabrda Yekaterina II o'rniga taxtga o'tirgan Pavel I Qishki saroyda qabul qiladi. Yunusxo'janing nomasi, sovg'a-salomlarini qabul qiladi. Toshkent hukmdorining mahfiy topshiriqlari esa imperatorga yozma tarzda beriladi. Shundan so'ng ikki davlat o'rtasidagi muzokaralar imperiya hukumatining boshlig'i kansler A.Bezborodko qarorgohida boshlanadi. Bu muzokarlarda qanday masalalar muhokama qilindi, qanday qayd etilmagan. Lekin ular ikki oy davom etgani va bir bitimga kelgani ma'lum. Shunisi diqqatga sazovorki, imperator Pavel Toshkent bilan yaqin munosabatlardan o'zaro manfaatdorligini yashirmagan. Imperator elchilarni ikkinchi marta 1798 yil 28 fevralda qabul qiladi. Ularga Rossiya hukumatining Yunusxo'jaga javob xati va sovg'a-salomlari topshiriladi. Elchilar buyuk davlat vakillariga ko'rsatiladigan kuzatuv marosimida qatnashishdi. Toshkentliklarga eski hamrohlari – unvoni ko'tarilgan poruchik Telyatnikov, Beznosikov, Bikovlar hamroh bo'lib Omskkacha 99 kun davomida birga bo'lishgani ham diqqatga sazovordir. Elchilar yo'l-yo'lakay Rossiya shaharlari va qishloqlarini ko'rishdi. Ko'p joylarda turli toifa odamlari bilan suhbatlashishdi, diqqatga sazovor korxonalar va hatto harbiy qismlar qarorgohlarida ham bo'lishdi. Bu esa Rossiya hukumatining Toshkent davlati va uning elchilariga katta ishonch, hurmatidan darak berardi.

Elchilarni Omskda Sibir liniyasi boshlig'i qilib tayinlangan general Gorchakov kutib oldi. Bir necha kun davomida ular iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalar bo'yicha hamkorlik xususida muzokaralar yuritishdi. Toshkentliklar zimmalaridagi vazifalarini to'la ado etgan holda rus askarlari himoyasida eson-omon Toshkentga qaytishdi.

Oradan ko'p o'tmay Toshkentga Rossiyadan Pospelov boshliq bir guruh kon-tog' ishlari bo'yicha mutaxassislar kelishdi. Ular Toshkent davlati hududlarida keng ko'lamda tadqiqotlar o'tkaza boshlashdi. Hudud esa anchagina joylarni o'z ichiga olgan edi. Shunisi ma'lumki, Yunusxo'janing zafarli yurishlari natijasida Chimkent, Sayram, Oltintepa, Qorabuloq kabi o'nga yaqin shahar qishloqlar egallangan. Qozoqlarning katta juz urug'laridan Usun, Sanchiqli, Sara, Sergeli va boshqalar Toshkent hukmronligiga olinib Turkistondan Chu daryosigacha bo'lgan hudud ham Yunusxo'ja davlatiga qo'shilgan edi. Markaziy Osiyoni Rossiya bilan bog'lovchi karvon yo'llari ustida o'mashgan shahar, qishloqlarning va katta juz urug'larining Toshkentga qo'shib olinishi uning siyosiy va iqtisodiy

rivojlanishiga zo‘r turtki berdi. Toshkent davlati Qo‘qon va Buxoro xonliklarini Qozog‘iston, Orenburg va Sibir bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari nazoratini o‘z qo‘liga oldi. Bu hol Qo‘qon, Buxoro va Xiva xonliklarini bezovta qilib qo‘ydi. 1799 yili Xonxo‘ja boshliq Qo‘qon lashkari Toshkent davlati hududiga bostirib kirdi. Chirchiq yaqinidagi Qorasuv yonida ikki lashkar o‘rtasidagi jang toshkentliklarning harbiy-texnikaviy ustunligini ko‘rsatdi. Qo‘qon lashkari tor-mor qilinib, Xonxo‘ja qatori yuzga yaqin lashkarboshilar asir olindi. Bu voqea Toshkent davlatining iqtisodi rivojlangan va harbiy qudrati o‘sganligidan dalolat berardi.

Toshkentda ishlagan rus mutaxassislari va harbiylarining kuza-tuvlari va xotiralari XIX asrdagi Toshkent davlatining geografiyasi, iqtisodi, savdo-sotig‘i, hunarmandchiligi, qishloq xo‘jaligi va tabiiy boyliklari haqida keng tasavvur beradi.

1803 yili Toshkent o‘zinig navbatdagi elchilarini Rossiya-ga yuboradi. Unga Yunusxo‘ja hukumatining boshlig‘i – bosh vazir Mullajon oxun Mahsum boshchilik qilgan.

Yunusxo‘janing Rossiya imperatori Aleksandr I ga (1800–1825) yo‘llagan nomasi mazmuni diqqatga sazovordir:

– Oqpodshoh, so‘z bizdin bulkim, hazrati Umar raziallohu taollo anhunung avlodimiz, otimiz ba hazrati eshon Yunusxo‘jadir... ulug‘ Oqpodshohga hokimlar va bahodirlar, biylar va boylar anga hizmatkor erur, Jamshid salatanatlik, Shaddot hashamatlik, Fir‘avn da‘volik, Namro‘d lashkarlik, Hotam berishlik, Rustam urushlik, Afrosiyob turushlik. Siz, Oqpodshohga ul kim, alhamdulillah minnatixi, bizni ahvolot va axborotimiz Ollohi taolloning inoyati bag‘oyati birla yaxshilik va obro‘lik va xo‘blik va nusratlik va sihhatu va salomatlik darajasidadur. Emdi qolg‘on so‘z ulkim, shu yaxshi vaqtda xotiramiz tilaydur-kim, Xudoi taollo hohlasa, savdogar xalq bizni yurtimizdan Sizni yurtingizga borib, savdo qilib naf olsa, Sizni yurtingizdin bizni yurtimizga kelib, savdo qilib foyda ko‘rsa, o‘tar dunyoda so‘ngra bu kun to – davri qiyomatgacha ayni qolgusidek so‘z bo‘lsun deb xatu muhr qilib vaziri a‘zamimiz, elchimiz Mullajon domulla Mahsumga berib, til so‘zini har bobatida aytib, Siz Oqpodshohga yubordik. Eson-omon borib har nima so‘z aytsa, chin bilib qabul qilsinlar. Va digar so‘z ulkim Mullo Mahdi devonimizni, Said Ali oqsoqolimizni, Solihjon dovonbegimizni, iso Muhammad yasovulni, Qozoq bahodirni, Qozoq Chora og‘asini hammalarini vaziri ahzam Mullajon domulla Mahsumga xizmatkor qilib yuborduk.

So‘z tomom bo‘ldi. Sana 1217, it yili, rabi‘ ussoniyning olti kunda shul xat bitildi.

Chindan ham ko'rinib turibdiki, Yunusxo'ja Rossiya imperatori va uning doirasini yaxshi bilgan, ularga nima yoqish yoqmasligini tushunib shunga ko'ra xat bitgan. Bu elchilikka Toshkent hukumati-ning boshlig'i va dongdor amaldorlar, yirik savdogarlar tayinlagani ham uning favqulodda ahamiyatidan dalolat beradi.

Hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent Rossiya bilan munosabatlarda strategik maqsadni ya'ni uning yordamida harbiy sanoatni shakllantirish va zamonaviy qurol-yarog'larga ega bo'lishni ko'zlagan. Rossiya ham o'z navbatida Toshkent bilan yaqin aloqalaridan Markaziy Osiyodagi strategik maqsadni amalga oshirishda foydalanishni o'ylagan.

Yunusxo'ja vafotidan so'ng uning vorislari birinchi Toshkent hokimining ishini davom ettirishga layoqatlari yetmadi. Shuning uchun ham 1809 yilda Qo'qon xonligi Toshkent davlatiga barham berdi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi Rossiya-Turkiya urushi, Rossiya-Fransiya munosabatlarining keskinlashuvi va Napoleonning Rossiyaga yurishi Rossiya hukmron doiralarning e'tiborini O'rta Osiyodan biroz chalg'itdi. Taxtga Nikolay I (1825–1855) chiqqach, vaziyat o'zgardi.

Qo'qon xoni Muhammad Ali (1822–1842)ning Rossiya tarafidan uyushtirilayotgan ig'vogarliklardan jiddiy tashvishlanib, o'z elchilarini Rossiyaga yuborgani bejiz emas edi. 1825 yilda Toshkent qushbegisi xon nomidan Soatbek Sultonbekovni Sibirga elchi qilib jo'natadi. Elchi Omskda rus ma'murlari tomonidan qabul qilinadi va Qushbegi tomonidan Sibir general-gubernatori nomiga yozilgan maxsus xatni topshiradi. Xatda, jumladan, shunday deyiladi: «Qadim zamonlardan beri Irtish daryosining bu tomonini biz, narigi tomonini Rossiya nazorat qilar edi. Lekin hozir biz olgan ma'lumotlarga qaraganda, ruslar Irtishdan bu yoqqa o'tib, bizning dindoshlarimiz yerida qurilishlar olib bormoqdalar. Shu munosabat bilan bizning xonimiz siz janobi oliylariga ushbu xatni yozishni va bu qurilishlarning sababini so'rashni buyurdilar: Siz buni o'z ixtiyoringiz bilan qilayotirsizmi yoki oliy hazrat buyrug'iga muvofiq bajaryapsizmi? O'z hukmdorimga batafsil axborot berishim uchun meni shu to'g'rida xabardor qilishingizni so'rayman... Bundan tashqari, ma'lum qilamanki, ruslar bizning davlatimizda savdo ishlari bilan ba'zan ikki yillab qolib ketadi, lekin biz ularni dinimizga kirishga majbur qilmaymiz. Shunday ekan, sizlar nega bizning dindoshlarimizni o'z fuqaroligingizni qabul etishga majburlaysiz? Oldingizga biror kimsa iltimos bilan kelsa, fuqaroligingiz va dinigingizga kirishni shart

qilib qo‘yasiz? Biror kimsa ko‘chib borishga joy so‘rasa, yana shu shartni qo‘yasiz? Shu bois sizdan buning sababini menga ma‘lum qilishingizni so‘rayman, toki biz ham bularga qarshi kerakli chora ko‘raylik»¹.

Xatdan Rossiyaning tajovuzkorona siyosatiga ochiq norozilik bildirilgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

Omsk viloyat boshlig‘i polkov-nik Bronevskiy Sibir general-gubernatorining topshirig‘iga binoan Toshkent qushbegisiga javob xati yozib elchiga topshiradi. Mazkur javob xatida shunday deyiladi: «Ko‘p asrlardan beri ulug‘ Rossiya imperiyasi qirg‘iz-qozoq xalqlariga va shimol dengizidan to Qora dengizgacha bo‘lgan katta-kichik qabilalarga homiylik qilib keladi. Lekin qozoq cho‘li savdo bojidan tashqari, Qo‘qon hukmdorlariga soliq to‘lagani, unga bo‘y-sunganini hech kim bilmaydi va bu haqda ma‘lumot yo‘q»².

Yuqorida keltirilgan hujjat, o‘z mazmuniga ko‘ra, qozoq dashtlarida harbiy istehkomlar qurish bilan bog‘liq barcha ishlar Rossiya va mahalliy aholining «xohish-irodalariga» ko‘ra amalga oshirilayotgani, boshqalarning bunga aralashishga hakli emasligini asoslashga urinish ekanligini ko‘rsatadi.

Rossiya ma‘muriyatining ko‘rsatmasiga binoan Sibirda joylashtirilgan rus harbiy qismlari XIX asr 30-yillarida Qo‘qon xonligi tomonidan Sarisuv daryosi va Ulutovda qurilgan harbiy qo‘rg‘onlarni buzib tashladi, ustalik bilan Sharq tomondan Qo‘qon xonligi hududlariga suqulib kirishini esa davom ettiradi.

Shuningdek, Rossiyaning xonliklarga tazyiqi G‘arbdan – Orenburg tomondan ham kuchayib bordi. O‘rta Osiyoni qo‘lga kiritish uchun dastlab qozoq dashtlarini istilo qilish zarur degan Pyotr I ning vasiyatiga izchil amal qilgan Rossiya imperiyasi qozoq dashtlarida qurgan harbiy istehkom vositasida asta-sekin Xiva hududiga yaqinlashmoqda edi. Imperiya siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan Orenburg general-gubernatori Vasiliy Perovskiy Xiva xonligini tiz cho‘ktirishga kirishdi. U katta qo‘shin bilan 1839 yilda Xiva ustiga yurish boshladi. Xiva xoni Olloqulixon ham o‘zbek, qozoq va turkmanlardan iborat birlashgan lashkar bilan ruslarga qarshi otlandi. Oxir-oqibat, Perovskiy qo‘shini zarbaga uchrab, orqaga chekinishga majbur bo‘ldi. Bu g‘alaba Rossiyaga qarshi kurash bayrog‘ini ko‘targan qozoq istiqlolchilarini ham ruhlantirdi.

¹ *Ziyoev Hamid*. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. 82-bet.

² O‘sha joyda. 83-bet.

Uzoq yillardan beri qozoqlarning mustaqilligi uchun jang qilayotgan Kenesari Qosimov harakati keng quloch yoydi. Xiva xoni unga doimo madad berib turdi.

Kenesari Qosimov o'zaro nizolar oqibatida o'ldirilgach, uning 20.000 kishilik tarafdorlarining ko'pchiligi Qo'qonga, bir qismi Xiva xonligi hududiga o'tib ketgan edi. Bu qozoqlar endi Rossiya asoratida qolgan birodarlariga yordam berish uchun vaqti-vaqti bilan rus qo'shinlariga hujumlar uyushtirib turdi. Bu hujumlar asta-sekin bosqinchilarga qarshi partizanlik urushiga aylana boshladi. Sankt-Peterburgning hukmron doiralari uchun esa bunday harakat kelgusi rejalarini puchga chiqarish xavfini tug'dirardi. Xiva qozoqlar mustaqilligi qalqoniga aylandi. Chindan ham xonlik o'zbek va qozoq yigitlarining bosqinchilarga qarshi kurashini har taraflama quvvatladi. Shunday vaziyat vujudga keldiki, endilikda Xiva butun Osiyoda Rossiyaning jiddiy raqibi sifatida tanila boshlandi.

Rossiya podshosi Nikolay I Xiva xonligini bosib olish uchun katta tayyorgarlik ko'rish haqida farmon chiqardi. Bu haqda harbiy vazir graf Chernishev 1840 yil 30 yanvarda Orenburg general-gubernatori Perovskiyga maxsus ko'rsatma berdi. Perovskiy qayta hujumga tayyorgarlik ko'rishga kirishdi. Biroq yangi hujum katta mablag' va harbiy kuchlarni talab qilardi. Kiyim-kechak, oziq-ovqat, transport vositalari yetishmas edi. Shu boisdan, Nikolay I 1840 yil 19 mayda Xiva xonligiga yangi harbiy yurishni muayyan muddatga kechiktirish to'g'risida farmon berishga majbur bo'ldi. Biroq rus qo'shinlari chegaralarda harbiy istehkomlar qurishni kuchaytirdilar. 1845–1847 yillarda barpo etilgan To'rg'ay daryosi bo'yidagi Orenburg, Irgiz daryosi bo'yidagi Yoyiq, Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joydagi Rayim (Orol) qal'alari shular jumlasidandir.

2. XIX ASRDAGI O'ZBEK XONLIKLARIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA IJTIMOY HAYOT

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'ri, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqega ega edi.

XIX asrga kelib, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik Sharqda Pomir tog'laridan G'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi.

Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lar, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilardi. Aholining katta qismi amirlikning ser-suv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300–350 ming, Qashqadaryo vohasida – 500 ming, Surxondaryo vohasida – 200 ming, Sharqiy Buxoroda – 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari – Buxoroda – 60 ming, Samarqandda – 50 mingga yaqin nufus istiqomat qilardi.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm-urug'lardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'iroq, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilar edilar.

Aholining aksariyat qismi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bug'doy, sholi, jo'xori ekilib, bog' va poliz mahsulotlari ham yetishtirilgan. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l yetishtirish; hunarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, tegirmonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moy-juvozlilik, sovungarlik keng rivojlangan. Shu bilan birga amirlik iqtisodida qishloq xo'jaligi katta rol o'ynagan. Lekin aholining turmush darajasi yuqori bo'lmagan. Chunki yerga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelmoqda edi, ammo aholiga solinadigan soliq va jarimalar soni tobora oshib borgan. Shuning uchun aholining harid qobiliyati past edi, bu esa hunarmandchilikning rivojlanishiga xalal bergan. Ammo sabr-bardoshli hunarmandlar ozgina daromadga ham qanoat qilishgan.

Buxoro amirligi yakka xokimlik tizimidagi davlat edi. Amirlikda eng katta davlat lavozimi – qushbegi bosh vazir lavozimiga teng

amaldor edi. Bir soʻz bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qushbегining qoʻlida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qushbегi tavsiyasiga binoan tayinlangan. Qushbегi xon istiqomat qilib turgan arki oliyda yashagan.

Devonbегi xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalarning undirilishi ustidan nazoratni ham devonbегilar amalga oshirgan. Devonbегi idorasi arkdan pastda joylashgani uchun uni quyida qushbегi deb ham atashgan.

Mangʻitlar davrida shayboniylar, ayniqsa, ashtarxoniylar zamoni katta mavqe kasb etib kelgan otaliq asosan Samarqand va Buxoro, yaʼni amirlikning markaziy qismini sugʻorish ishlari, suv taqsimoti bilan bogʻliq tadbirlarga bosh-qosh boʻlgan.

Shuningdek, amirlikda parvonachi (oliy hukmdor yorliqlarini amaldorlar, umuman tegishli kishilarga yetkazuvchi), dodxoh (jabrlanuvchilar arzini amirga yetkazish va javobini olib berishga masʼul) kabi vazifalar bor edi. Ammo mazkur davlat lavozimlarining mavqei koʻproq shu mansabdagi shaxs nufuzi bilan oʻlchangan. Xuddi shunga oʻxshash holat inoq vazifasida ham oʻz aksini topgan. Inoq (bosh inoq) oʻz lavozimiga koʻra, oliy hukmdor buyruqlarini hukumatdagi oddiy xizmatchilarga etkazish, demak, buyruqni amalga oshirishni tashkil qilish va umuman hali davlat mansabini egallamagan, lekin hokimiyat xizmatida boʻlganlar bilan shugʻullangan. Bundan tashqari kichik inoq xizmati boʻlgani ham maʼlum.

Amir tugʻi sohibi boʻlgan toʻqsabo mansabi ham oliy maqomda edi. U oliy hukmdor – davlat bayroqdori xisoblansa-da, tantanali marosimlarda ishonchli shaxs sifatida hukmdor oldiga taom tortish kabi masʼuliyatli tadbirlarni ham bajargan. Shu bilan birga unga biron-bir tuman ham biriktirib qoʻyilgan. Boshqacha aytganda, daromad manbai shu tumandan boʻlgan. Ammo XIX asrga kelib mazkur lavozim egasi xuddi dodxoh kabi harbiy vakil darajasiga koʻtarilgan. Harbiy ishlar boʻyicha eng yuqori darajada esa harbiy vazir turgan. Uni koʻproq lashkar toʻpchiboshisi deb ataganlar. Aniqrogʻi, u toʻpchilar qismining qoʻmondoni hamda Buxoro garnizoni boshligʻi – lashkar boshligʻi sanalib, amalda harbiy vazir vazifasini oʻtagan. Toʻpchi qismlar boshligʻining bunday yuksak qadrlanishini shunday tushuntirish mumkin: bu vaqtga kelib harbiy sanʼat va urushda toʻpchilar, yaʼni eng zamonaviy qurol ustalarining oʻrni alohida boʻlgan.

Shuningdek boshqaruvda koʻkaldosh (mamlakat miqyosida xavfsizlik xizmati boshligʻi), bosh xoja (haram xodimlari boshligʻi), mehtar, kutvol (qurilish ishlariga masʼul), bakovulboshi, kichik

urog' (oliy hukmdor va amaldorlarning xizmatidagilarni nazorat qilib turuvchi xodim), eshikog'aboshi, mirohur, qo'rchiboshi (qurol-aslahaga mas'ul), qorovulbegi (shahar, yo'llar posboni), udaychi (urush paytida harbiylarni turiga qarab taqsimlovchi), shig'ovul (elchilar qabulini uyushtiruvchi) kabi qator lavozim va xizmatlar ham bo'lganki, ular o'zlarining to'g'ridan-to'g'ri vazifalaridan tashqari amirlik siyosiy hayotida tutgan shaxsiy mavqelari bilan ham qadrlanganlar. Shunga ko'ra o'z-o'zidan ular egallab turgan lavozimning qadr-qimmatini ham oshgan.

Amirlikning siyosiy-ma'naviy hayotida ulamolarning ta'siri ulkan edi. Dunyoviy va diniy hokimiyatni o'zida gavalantirgan shayxulislom amirdan keyingi ikkinchi shaxs darajasidagi mavqeda edi. U shariatpanoh bo'lib, unga barcha adliya tizimini boshqaruvchi qozikalon bo'ysungan.

Qozikalonning vakolatiga quyidagilar kirgan: ijtimoiy adolat bilan bog'liq masalalar, xususan, bozor, ko'cha-ko'ylardagi ahvol, madrasalardagi ta'lim, vaqf ishlari, yo'qolgan vaqf hujjatlarini tiklash, yetim va bevalar haq-huquqini himoya qilish, karvonsaroylardagi tartib va hokazo. Amir Shohmurod davrida qozilik tizimida qator o'zgarishlar bo'lgani ham ma'lum. Chunonchi, oliy mahkama ta'sis etilib, uning ishida 40 nafar faqih (qonunshunos) faoliyat ko'rsatgan. Qozilik sud jarayonida ayblanuvchi ham, jabrlanuvchi ham albatta ishtirok etishi kerak bo'lgan. Biron-bir tomon egallab turgan yuqori lavozimi orqasida javobgarlik, guvohlikdan bosh tortolmagan. Shuningdek, mazkur tizimda muftiy (rivoyat va fatvo bilan ta'minlovchi), rais (muxtasiib), sadr (vaqf mulklari hisob-kitobi va nazorati bilan shug'ullanuvchi) kabi xizmatlar ham bo'lgan.

Mulohaza uchun ma'lumot

Amiri ma'sum

Buxoro amirlari orasida o'zining xalqparvarligi, adolati va insoniy fazilatlarini bilan ajralib turuvchi Shohmurodni (1785–1800) xalq «amiri ma'sum» deb atagan.

Uning davrida zodagonlar o'zbo'shimchaligi, beklar beboshligiga chek qo'yilib, markaziy hokimiyat ancha mustahkamlangan va mamlakat iqtisodi birmuncha barqarorlashgan. Shohmurod otasi Doniyolbiy otaliq (1758–1785) davrida davlat idorasi tepasida turgan oliy lavozimdagi amaldorlarni Davlat qushbegi, Nizomiddin qozikalon va boshqa amaldorlarni xalqqa zulm o'tkazganlari va soliqlarni haddan tashqari oshirganliklari uchun qatl qilgan. Viloyat

beklari, qozilarni va mansabini suiste'mol qilgan hokimlarni lavozimlaridan tushirib, adolatparvar odamlarni o'rinlariga qo'ygan. U taxtga chiqqan yilidan boshlab yurt barqarorligiga rahna solib, mamlakatda boshbodoqlikni kuchaytirgan Karmana, Shahrisabz, Xo'jand, Mari hukmdorlari ustiga yurishlar qilib ularni markaziy hokimiyatga bo'ysindirgan. Tashqaridan xavf solayotgan Afg'oniston hukmdori Temurshoh qo'shinlarini tor-mor qilib yurt tinchligini ta'minladi. U ma'muriy, moliyaviy va adliya sohasida islohotlar o'tkazdi. Kumush tangalar zarb etdi. Bozorlardagi narxnavolarni tartibga soldi. Shariatga xilof yorg'u, boj, tushmal, yasok, oliq-soliq kabi soliqlardan ozod qildi. Eng muhimi, Buxoro fuqarolarini bepul ishlab berish majburiyatlarini bekor qildi.

Amir Shohmurod qonun ustivorligini qat'iy amalga oshirgan. Kimki, mansabi, lavozimi, martabasidan qat'iy nazar qonunga xilof tarzda ish qilsa, kim bo'lishiga qaramay jazoga tortilgan. Sud jarayonida amirning o'zi ham qatnashgan hollar ham bo'lgan. Shariat amrini bajarish fuqaroning turmush tarziga aylantirilgan. Shohmurod maishiy jihatdan ham barchaga o'rnak bo'lgan, hech bir amir undan oldin ham keyin ham qilmagan ishni qilgan. Uning kundalik harajati to'rt tangadan oshmagan. Eb-ichishi va kiyinishi oddiy bo'lgan, biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormagan, hech kimdan sovg'a-salom olmagan, o'z sharafiga turli dabdabali tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymagan¹.

* * *

Buxoro amirligi 27 beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo'y, Hisor, Ko'lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho'g'non, Ro'shon, Qo'rg'ontepa, Qobodiyon, Kalif, Qobog'li va Xorazm bekliklaridan iborat edi. Bekliklar mahalliy qabila boshliqlari, katta mulk egalari tomonidan boshqarilgan. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar – beklar idora qilgan. Hokim huzurida yuzlab mahalliy ma'murlar xizmat qilgan. Manbalar amirlikda mahalliy ma'murlar shtati 30 ming kishini tashkil etganligidan guvohlik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilganlar.

¹ *Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullaev O'. Vatan tarixi. T.: «Sharq», 2003, 78-bet.*

Amirlikning harbiy kuchlarini otlilar va sipohlar tashkil etgan. Qo'mondonlik lavozimlaridagi zobitlarning harbiy ilmi talab darajasida bo'lmagan. Harbiylar harbiy mashqlarga nisbatan ko'proq jismoniy mehnat bilan band bo'lganlar. Qo'shinda yuzboshi, mingboshi singari harbiy lavozimlar bo'lib, umumiy qo'mondonlikni lashkarboshi boshqargan. Amirlikning qo'shini muntazam bo'lmagani sababli, zaruriyat bo'lganda ularni to'plash qiyin kechgan.

Buxorodagi vaziyat ko'p jihatdan Xiva xonligiga ham xos bo'lgan. Xonlik janubda Eron, Sharqda Buxoro amirligi, G'arbda Kaspiy dengizi, Shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri 1598 yildan boshlab xonlikning poytaxti bo'lgan. Shahar ikki qism – Ichon qal'a (shaharning ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi) dan iborat edi. Ichon qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842 yilda Dishon qal'a qurilib, devor bilan o'rab olingan. Dishon qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.

Aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismda, kanal bo'ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to'rtinchi qismini) turkmanlar tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forscha so'zlashuvchi mahalliy xalqlar va o'zbeklar bilan qorishib ketgan edi.

Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg'uloti edi.

Muhammad Rahim I (1806–1825 yillar) davrida Xiva xonligidagi o'zaro urushlar biroz pasaydi, xonlikni birlashtirish nihoyasiga yetdi. Mamlakatda o'tkazilgan soliq islohoti, bojxonaning joriy etilishi, oltin pul chiqarilishi xo'jalik ishlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z vaqtida yig'ib olingan soliqlar xonlik xazinasi, daromadini oshirdi. Xonlikda eng nufuzli lavozim qushbegi (bosh vazir) bo'lib, u soliqlarni to'plash va xonning muhim topshiriqlarini bajarish bilan shug'ullangan.

Saroyda *otaliq, rais, qozikalon, shayxulislom, mirobboshi, mirshabboshi, to'pchiboshi, yasovulboshi* kabi mansabdorlar xon xizmatida bo'lgan. Devonbegi xonning oliy devonini idora qilgan. Xazinachi xonlikning kirim va chiqim hamda sarf-xarajatlarini yuritib, bu haqda xon yoki qushbegiga hisob berib turar edi.

Xonlikdagi eng katta mansab va unvonlar *inoq, o'taliq, biy* hisoblangan. Bunday lavozimga ko'tarilganlar xonga eng yaqin kishilar bo'lib, ular soliqlardan ham ozod qilinganlar. Bunday lavozimga tayinlanganlar xon farmoni orqali e'lon qilingan va ularning qo'lga yorliqlar berilgan.

Saroyda *mirzaboshi, munshiy, mahramboshi* kabi mansabdorlar ham bo'lgan.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna-Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz, Ambor-manoq, Urganch, Xo'jayli, Shumanoy, Qo'ng'iro't kabi beklilik yoki viloyatlarga bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyotqo'ng'iro't noibliklari ham bo'lgan. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar huzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p mansabdorlar bo'lgan.

Xiva shahri shaxsan xonning va qushbегining izmida bo'lgan. Shahar ichki tartiblari va osoyishtaligi mirshabboshi, jinoiy ishlarni ko'rish va jazo tayinlash shahar qozisi, poytaxtni tasodifiy hujumlardan himoyalash to'pchiboshi va Ichan-qal'a, Dishon-qal'a kutvoli zimmasida bo'lgan.

Xiva xonligida taxminan 40 ming otliqdan iborat qo'shin bor edi. Qo'shinga lashkarboshi qo'mondonlik qilgan. Askarlik xizmatida bo'lganlar soliqlardan ozod qilingan. Harbiy yurishlarda qatnashgan har bir suvoriy 5 oltin tanga olgan. O'zini ko'rsatgan harbiy mansabdorlarga oyiga 10, 20, 50, 100 va undan ham ko'proq miqdorda oltin tanga berilgan. Biylarga 50–100 tanga, yuzboshilarga 10-20 tanga maosh berilgan. Tinchlik paytlarda askarlar xo'jalik ishlari bilan shug'ullangan.

Xon qo'shinlari Buxoro qo'shinlari kabi, qilich, o'q-yoy, nayza bilan qurollangan. Bir qism askarlarda piltalarning ko'pligi bo'lgan, oz miqdorda to'plar ham bor edi.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik Sharqda Sharqiy Turkiston, G'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida huvullab yotgan Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yostanib yotgan. Xonlikning janubiy

chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan.

Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markazi Qo'qon, Marg'ilon, Uzgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg'ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyo-ota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi.

Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi o'zbeklar, shuningdek, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yaxudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar.

Qo'qon xonligida ikkinchi shaxs *Bosh vazir* hisoblanib, u muhim davlat ishlarini xon bilan kelishgan holda hal etgan. Markaziy davlat boshqaruvida *qushbegi, otaliq, devonbegi, mingboshi, shayxulislom, qozikalon, parvonachi, shig'ovul, sarkor, inoq, dasturxonchi, amin, yasovulboshi* kabi mansabdorlar xizmat qilganlar. Saroy qoshida maxsus kengash bo'lib, uning tarkibiga eng oliy mansabdor shaxslar kirgan.

Qo'qon xonligida qo'shinni, aslahaxonani, harbiy ishlarni mingboshi boshqargan. Qo'shinda *beshyuzboshi, yuzboshi va o'nboshi* harbiy lavozimlari bo'lgan. Qo'shinning bir qismi muntazam xizmatda bo'lib, markaziy hokimiyat ixtiyorida turgan.

Qo'qon xonligi 15 beklik, ya'ni harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig'i edi. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zlari moddiy jihatdan ta'minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da'vati bilan o'z qo'shinlari bilan belgilangan joyga yetib kelishi shart edi. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda, oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtacha sipohni yig'a olardi.

XIX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek xonliklaridagi vaziyatga baho berishda, shuni unutmaslik lozimki, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida taraqqiyot to'xtab qolmagan. O'zaro urushlar va parokandalikdan qat'i nazar yaratuvchilik faoliyati davom etgan. Xiva xonligida esa sun'iy sug'orish borasida oldingi asrlarga nisbatan ko'p ish qilin-

gan. Bunda eng avvalo xonlar va yirik amaldorlar tashabbus ko'rsatganlar. Arab Muhammadxon turk qal'asidan Kuygun tomon qazitgan kanal, Abulg'oziy Bahodirxon nomi bilan bog'liq G'ozibod kanalining ta'mir etilishi, Anushaxon zamonida qurilgan Shohobod (uzunligi 14 km, eni 30 metr, chuqurligi 3,5 metr), O'rmish (uzunligi 96 km, eni 17,5 metr) kanallari, Ali Sulton qurdirgan Toshli yormish kanali hamda Manqitarna (XVII), Eshim Yaragan, Omonquli, Ingichka, Ixlos, Qilich Niyozboy (1815), Yangiyop va Qorako'z (XIX), Shohmurod (1846), Rahmonberdiboy, Toshshaqo (1828), Ko'hna Urganch-Xonyop (1831), Qoraqalpoq, Xonobod (1847), Sipohiy, Muhammadamin (1850), XIX asr 50-yillaridagi Kaltaminor, Bog'yop, Amirobod, Saribiy kanallari va boshqa qator katta-kichik sun'iy sug'orish inshootlari bilan bog'liq tadbirlar shular jumlasidandir.

Qo'qon xonligida Erdona, Norbo'ta hukmronlik qilgan zamonlarda So'x daryosidan chiqarilgan kanallar, Olimxon buyrug'i bilan qazdirilgan oltita kanal (ariq), Umarxon davrida Sirdaryodan chiqarilgan O'zgandan boshlanib Andijon va Marg'ilon oralig'i-dagi Shahrixongacha boradigan kanal, Norin daryosidan boshlanadigan Yangiariq kanali (1819), Xon va Zurbak kanallari (1803) xonlik davridagi obodonchilikdan darak beradi. Xonlikda jamoaviy binolar qurilgan, 200 ga yaqin masjid va madrasa, qorixona va maktab barpo etilgan, shaharlarda savdo va hunarmandchilik rivojlangan¹.

Buxoro shahrining o'zida XIX asr o'rtalarida, ya'ni Rossiya bosqinidan oldin, 38 karvonsaroy, 9 savdo timi, 16 hammom, 45 bozor bo'lgani ma'lum. Shuningdek 200 dan ortiq masjid, 100 dan ortiq madrasa mavjudligi ham manbalarda yozilgan. Ular orasida Tursunjon (1796–1797), Ernazar elchi (1795), Xalifa Niyozqul (1807), Xalifa Xudoydod majmuasidagi madrasalar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Xiva xonligida ham qurilish ko'p bo'lgan. Arab Muhammadxon (1616), Hojamberdibiy (1688), Sherg'ozixon (1719–1728), Muhammad Amin inoq (1765), Qutli Murod inoq (1809), Olloqulixon (1832–1835), Arab Muhammadxon (1870), Musato'ra (1841), Saidboy (1842), Amirto'ra (1870), Muhammad Rahimxon (1871), Muhammadmurod devonbegi, Otajon to'ra, Qadam yasovulboshi, Ibrohimxoja, Yusuf yasovulboshi, Husayn Muhammadboy, Do'st

¹ *Isaboeva G.S.* XIX asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. Toshkent, 2010, 21-bet.

Olim, Qozi Muhammad Salim, Islomxoja, Isfandiyorxon madrasalari, Saidboy (1842), Oqmasjid (1875) masjidlari, Pahlavon Mahmud maqbarasi (1835), Ko'hna Ark, Toshhovli, Nurullaboy saroylari, Juma, Saidboy (1842), Ko'kminor (1852–1853), Islomxoja (1908) minoralari ana shunday bunyodkorlik ishlaridan guvohlik beradi.

Farg'ona vodiysida 1740 yili Eski O'rda o'rmiida hozirgi Qo'qon shahriga asos solinishi, xonlikning turli shaharlarida bunyod etilgan ko'plab o'rdalar, bozorlar, karvonsaroylar, masjidlar, xonaqohlar, qorixonalar, madrasalar, chunonchi, Mir (1798), Norbo'ta, Xonmirza Yodgor (1830), Hazrati Sohob (1861), Xudoyorxon (1850, 1870 yillari Qo'qonda, 1873 yili Namanganda, 1874–1875 yili Shohobodda, Chustda, Hakimoyim (1869), Olimbek (O'shda), Nasriddinbek (Andijonda), Toshkentda XIX asrda qurilgan Beklarbegi, Muiy Muborak, Eshonqul dodxoh, Yunusxon, Abulqosim madrasalari ham shular qatorida turadi.

Shunday rivoj holatini madaniyat sohasida ham ko'rish mumkin. To'g'ri, mamlakatning uchga bo'linib ketishi, siyosiy qarama-qarshiliklar va, ayniqsa, Rossiya bosqini tufayli siyosiy mustaqillikning qo'ldan ketishining umumiy manzarasida bu sohadagi ahvol ilgari, masalan, temuriylar zamonidagi kabi bo'lmagan. Ammo bir narsa aniqki, bu bosqichda fan va madaniyat har holda bir yerda to'xtab qolmagan. Yuqorida zikr etilgan qurilishlar, ayniqsa, madrasalar bunyodi shunga ishoradir. XVIII–XIX asrlarda o'zbek xalqining bu sohalardagi tarixini sovet davri tarixshunosligida iloji boricha bo'yab ko'rsatishga intilib, o'lkani madaniy qoloqlikda ayblab, bu bilan Rossiya bosqinining O'zbekiston uchun «progressiv ahamiyatini» isbotlashga atayin harakat qilingan.

O'tgan sulolalar kabi mang'itlar, qo'ng'irotlar, minglardan chiqqan namoyandalar ham o'z davri va doiralarning o'qimishli shaxslari bo'lganlar. Masalan, Ko'qon xoni Umarning «Amiriy», malika Mohlaroyimning «Nodira», «Komila», «Maknuna», Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning «Feruz», uning akasi Otajon To'ra Murodning «Murodiy» taxallusida she'r bitganlarini, Abdulg'oziy Bahodirxonning «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima» kabi o'zbek tilida yozgan asarlarini eslaylik. Fazliy, Mushrif, Qoziy, Afsus, Sodiq, Xijolat, Hoziq, Xotif, Mahmur, Gulxaniy kabi yetuk qalam sohiblari Farg'ona vodiysida yashab ijod qilganlar. Shuningdek «Afzal at-tavorix», «Tarixi Umarxon», «Risolayi askariya», «Muntaxab at-tavorix», «Tarixi Shohruhiy», «Tarixi jahonnamoy», «Xusolat al-axbor», «Tasnifi G'arib», «Tarixi jadidayi Toshkand» kabi boshqa ko'plab tarixiy asarlar ham xuddi shu davrda Qo'qon xonligi doira-

sida yozilgan. Buxoroda ham tarix yozishlik taraqqiyotdan to'xtamagan. Hech bo'lmasa, «Tuhfat al-xoniy», «Tarixi amir Haydar», «Fathnomayi sultoniy», «Mang'itlar xonadoni saltanati qisqacha tarixi», «O'zbek podshohlilari zikri», «Tarixi salotini mang'itiya, o'zbekiya va ashtarxoniya» kabilarni yodga olish mumkin.

Zikr qilingan «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima», Muni-sning «Firdavs al-iqbol», Ogahiyning «Riyozi ad-davla», «Zubdat at-tavorix», «Iqboli Feruziy», Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», «Xorazm tarixi», «Jome al-voqeati sultoniy», «Gulshan ad-davlat», «Iqboli Feruziy» asarlarining yozilganligi eng katta dalildir. Xivalik olimlar, tarixchilarning o'z davri uchun o'zbek tarixshunosligiga qo'shgan eng katta hissalaridan biri shundaki, ular tilga olingan manbalarni o'zbek tilida yozganlar. Bundan tashqari xivaliklar tarixshunoslikdagi tarjimachilik sohasida tahsinga loyiq ishlarni ro'yobga chiqarganliklarini aytib o'tish lozim. Chunonchi, Mirxondning «Ravzat as-safo», Yazdiyning «Zafarnoma», Xondamirning «Xabib as-siyar», Vosifiyning «Badoye ul-voqoe'», «Tarixi Tabariy», Rashiddinning mashhur «Jome at-tavorix» (Ali sulton (vafoti 1571–1572) buyrug'i bilan), Binoiyning «Shayboniynoma», shuningdek, «Tarixi Muqimxoniy», «Taqobati Akbarshohiy», Mahdihon Astrobodyning «Tarixi Nodiriy», «Zubdat al-hikoyot», «Miftoh al-tolibin», «Axloqi Muhsiniy», «Nasihatnomayi Kaykovus» (Qobusnoma), Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», «Salomon va Ibsol», «Yusuf va Zulayho», Nizomiyning «Haft paykar», Xisraviyning «Hasht behisht», Hiloliyning «Shoh va gado», Nosiriyning «Ravzat as-safoyi Nosiriy», Darvish Ahmadning «Sahoyir al-axbor», mashhur arab tarixchilari Mas'udiy, Ibn al-Asr asarlari arab va fors tillaridan o'zbekchaga o'girilgan.

Xullas, sun'iy sug'orish ishlari, qurilishdan tortib dehqonchilik, hunarmandchilik, fan va madaniyatgacha, ichki savdodan tashqi iqtisodiy aloqalargacha (Eron, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Rossiya va boshqalar) oid ma'lumotlar, umuman olganda, yurtimiz va ajdodlarimiz XVIII–XIX asrlarda dunyoning ko'pchilik xalqlari va mamlakatlaridan orqada bo'lmaganligini ko'rsatadi. Undan oldingi o'tmish madaniyatni nazarda tutsak, jahon taraqqiyotidagi fan va texnika asrida (XX) taraqqiyotning oldingi saflarida turishlari uchun mavjud imkoniyatlar bor edi¹. Ammo ulardan foydalanishga bir qator omillar yo'l qo'ymagan.

¹ *Azamat Ziyov*. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., «Sharq», 2000, 298–301-betlar.

Birinchidan, asrlar davomida bir butun bo‘lib kelgan mamlakatning, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalqning uchga bo‘linib ketishi, xonliklar o‘rtasidagi to‘xtovsiz urushlar, har bir xonlik ichidagi boshboshdoqlik va hokimiyat uchun o‘zaro tinimsiz davom etgan ichki nizo va urushlar butun mamlakatni xonavayron qildi. Bu jarayon guruhbozlikni keltirib chiqardi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir xalq bo‘lib qovushishiga, jipslashishiga xalaqit berdi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi.

Ikkinchidan, aholi xon va beklarning, turli lavozimdagi mansabdorlarning zo‘ravonligidan, o‘zboshimchaligidan, mansabini suiste‘mol qilishidan, g‘ayriqonuniy soliq va jarimalardan himoya qilinmadi.

Uchinchidan, asosiy boylik bo‘lgan yerga mulkchilikning eski usuli bir necha asrlardan beri o‘zgarmadi. Xonliklarda oliy hukmdor yerning birdan-bir egasi bo‘lib, yer ishlovchilarga – dehqonlarga ijara tarzida xatlab birlashtirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olinadigan hosilning egasi edi, xolos. Shu bois dehqon yerni asrab avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmadi.

To‘rtinchidan, xonliklarda sanoat rivojiga e‘tibor kuchaymadi. Oltinugurt, rangli metallar, marmar, toshko‘mir, neft kabi tabiiy boyliklarga serob konlar bo‘lsa-da, ularni qazib olish, tog‘-kon ishlarini rivojlantirish, kemasozlikni yo‘lga qo‘yish masalalari hal qilinmadi.

Beshinchidan, tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste‘mol va qo‘shin xarajatlarini zo‘rg‘a qoplar, kapitalga aylanmasdi. Pul, oltin-kumush xon va amaldorlarning xazina to‘plash manbai bo‘lib qolgan edi.

Oltinchidan, xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O‘rta Osiyo jahon bozorida ajralib qolgani ustiga bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmadi.

Ettinchidan va eng muhimi, XIX asr ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo hududidagi xonliklarda o‘z millati, xalqi va Vatani istiqboli uchun qayg‘uradigan, odamlarni bir g‘oya va bir ezgu maqsad yo‘lida birlashtira oladigan hamda ortidan ergashtira oladigan yo‘lboshchi – sardor bo‘lmadi. Buxoro amirligida ham, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ham shunday arbob tarix sahnasiga chiqmadi. Bosqinchilarga ko‘ksini qalqon qilib ko‘hna Turon jangovar shavkatini namoyish qila oladigan va Turkistonni bir umumiy uy deb bilgan yurtboshi topilmadi.

3. ROSSIYA VA ANGLIYANING MARKAZIY OSIYO UCHUN OLIB BORGAN O'ZARO KURASHI

XIX asr ikkinchi yarmi boshlarida Turkiston xonliklarini bo'y-sundirish maqsadida Rossiya olib borayotgan siyosat Buyuk Britaniyaning shu borada uzoqni ko'zlagan rejalariga jiddiy xavf solar edi. Shuning uchun Angliya turli yo'llar bilan O'rta Osiyodagi davlatlarni Rossiyaga qarshi otlantirish payiga tushadi.

1831–1833 yillarda Ost-Indiya kompaniyasi leytenanti Aleksandr Berns Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga sayyoh sifatida keladi. Bu «sayohat» natijasida yig'ilgan dalillar va shaxsiy kuzatuvlar «Buxoroga sayohat» deb nomlangan uch jildlik kitobga asos bo'ldi. Bu o'rinda A. Bernsning o'zbek xalqi xususida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir: «O'zbeklar muomalada kamtar va samimiy. Ular mening kim ekanimni bilmaganliklaridan, barcha narsalar xususida, hukmdorlari va siyosatdan tortib, bozordagi ahvol haqida ham tortinmay so'zlashdilar»¹.

Angliya o'z diplomatlari, sayyohlari hamda ayg'oqchilari vositasida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. Ular shu maqsadda fors va turk tillarini yaxshi bilgan Konolli, Berns, Archi Todd, Abbot va Shekspir kabi zobitlarni o'zbek xonliklariga yubordilar. Ayrim manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Konolli Xiva xoni bilan uchrashib, unga «O'zbek davlatlarining chet mamlakatlar tomonidan ishg'ol etilishidan asrovchi yagona yo'l bor. U ham bo'lsa, bir-birlaringiz bilan yaxshi munosabatda bo'lib, o'zaro yordamlashishdir», degan. Xiva xoni Olloqulixon esa ruslarning bahorda yana hujum qilmoqchi ekanliklaridan xabar topgach, Istanbulga va inglizlar huzuriga o'z elchilarini jo'natib, yordam so'radi. Turkiya davlatidan biror xabar ololmagan Xiva xoni xuzuriga ingliz zobitlari Abbot va Shekspir yetib kelishdi. Ular Xiva xoniga poytaxtdagi rus asirlarini ozod qilish va bu bilan bo'lajak to'qnashuvga bahona qoldirmaslik lozimligini uqtirdilar. Haqiqatdan, asirlarning ozod etilishi bilan yangi urush ochishga ortiq bahona qolmagach, Perovskiy yurishni kechiktirishga majbur bo'ldi. Xavfning bartaraf bo'lganini ko'rgan Olloqulixon Qutbiddinxo'ja ismli elchisini Istanbulga jo'natib, turklarni vaziyatdan ogoh qildi. Olloqulixon tinchlikni ta'minlashda bergan yordamlari uchun ingliz hukumatiga ham elchilar yo'llab, o'z minnatdorchiligini bildirgan edi.

¹ Бернс А. Путешествие в Бухару. М., 1850, стр. 221.

Angliya hukumati bu vaqtda polkovnik Stoddartni Buxoroga yuborgan edi. Stoddartning Buxoroga kelayotganini eshitgan Nasrulloxon unga shaharga kirishda otdan tushib, yayov yurishini va qurolini topshirishi zarurligini buyuradi. Ammo, Stoddart Osiyo tartib-qoidalarini unutib, Buxoro hukmdorining buyrug'ini mensimaydi. Nasrulloxon esa alamini ichiga yutib, Stoddartni qabul qilishga majbur bo'ladi. Amir uning asl maqsadi ayg'oqchilik emas, do'stona munosabat o'rnatish ekanligiga ishonmay, undan tegishli hujjat so'raydi. Polkovnik Stoddartda bunday hujjat yo'q bo'lgani uchun amir uni hibsga oladi. O'z elchilarining Buxoroda tutib qolinishi Angliya hukumatini ularni ozod etishga urinishga majbur etadi. Ingliz hukumati oldin Xiva xoni vositasida, keyin Turkiya hukumati orqali Buxoro amiriga ta'sir etishga urinadi. Ammo Buxoro amiri tomonidan talab qilingan hujjat kelavermagach, Stoddart zindonga tashlanadi. Bu xabarni eshitgan kapitan Konolli Buxoroga jo'naydi. Amir uni ham kerakli hujjati yo'qligi uchun hibsga oladi. Ikki ingliz zobiti Buxoro zindonida uchrashadilar. 1842 yilda ular josus sifatida qatl etiladilar.

Mavzuga doir ocherk

XIX asr ikkinchi yarmida Turonzaminning Rossiya tomonidan nisbatan osongina bosib olinishi sabablari xususida gap borganda, ko'p hollarda, o'lkadagi Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligi hukmfarmolari o'zaro ahil bo'lmagani masalasi ta'kidlanadi. Bu fikr muayyan darajada to'g'ri. Negaki, Rossiya bosqinidan oldingi davrlarda ham bu uch xonlik orasida turli nizolar chiqib, ular bir-birlarining yerlariga hujum qilgan, aholini talon-toroj etgan. Biroq Rossiya imperatorlari Markaziy Osiyoni bosib olish fikrini qatitlashtirganlaridan keyin muttasil ravishda xonliklarni bir-biriga gij-gijlash, ular orasida o'tib bo'lmas choh paydo qilish maqsadini amalga oshirishga intildilar. Arxiv materiallari ham buni tasdiqlaydi.

Gapni olis davrlardan boshlamay, XIX asrning birinchi va ikkinchi choragida yuz bergan voqealarga nazar tashlay qolaylik. Rossiya hukmron doiralari savdogar, sayyoh niqobida ketma-ket josuslar yo'llab, xonliklardagi haqiqiy ahvoldan puxta xabardor bo'lgach, ularning bosqinchilik rejalarida aldama-qaldama «diplomatiya» tobora ko'proq o'rin egallay boshlaydi. Jumladan, ular, bir tomondan, Rossiyaga yuborilgan Qo'qon, Buxoro va Xiva elchilaridan o'z yovuz maqsadlarini yashirib, xonliklarga yaqin hududlarda harbiy istehkomlar qurish, daryo portlarini kelajakdagi hujumlari uchun muvofiqlashtirish kabi nomatlub ishlarini go'yo xonliklar maifaatini ko'zlab qilinayotgandek ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Ikkinchi tomon-

dan, Turonzaminga bosqin onlari yaqinlashgani sari uch xon orasidagi nizoni ataylab kuchaytirishga qaratilgan manfur diplomatiyani imperator va uning eng yaqin a'yonlari ishtirokida amalga oshirishga erishadilar.

Bu siyosiy nayranglardan biri 1842 yil bahorida Qo'qon xonligi amir Nasrullo tomonidan bosib olinib, talon-toroj qilinib, ommaviy qatl o'tkazilib, bu ham yetmagandek, butun xonlik hududi Buxoro amirligining tarkibiy qismi, deya rasman e'lon etilishidan keyin Rossiya imperatori Nikolay birinchi tomonidan amirga yo'llangan maktub edi. Ikki xonlik o'rtasidagi bu adolatsiz urushning bosh sababchisi amir Nasrullo ekanligini yaxshi bilgan imperator amirning Qo'qondagi g'alabasidan mamnun ekanini bildirgan va unga go'yo iltifot ko'rsatayotgandek bunday deb yozgandi: «Qo'qondagi taxt uchun kurashlarni bartaraf qilish zarur. Shundan keyin Turkiston va Toshkent bilan Sirdaryo bo'yigacha, Jizzaxdan boshlab O'ratepa, Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon va Qoshg'ar chegarasigacha bo'lgan erlar siz hazrati oliylarining qo'llarida bo'lib, hukmronlik qilishingizni istaymiz».

Vaholanki, bu maktubdan atigi uch oy chamasi avval, 1842 yilning 25 fevralida xonlik elchisi Muhammad Xalil Sohibzoda orqali Muhammad Alixonga yo'llagan maktubida ayni shu Nikolay birinchining o'zi: «Sizning qudratli Rossiya davlati bilan muntazam ravishda do'stona aloqalarda bo'lish istagingizni bilish biz uchun g'oyat yoqimli bo'ldi. Sizning bu yaxshi niyatlaringizni o'z tomonimizdan kamoli ehtirom ila qabul etamiz. Ishonamizki, sizning o'zaro do'stona qo'shnichilik aloqalarini yo'lga qo'yish haqidagi samimiy g'amxo'rliğingiz kelgusida muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi. Sizga barcha ezguliklari tilab qolamiz» (O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi, 715-jamg'arma, 1-qayd, 4-ish, 16-sahifa), deb yozgan edi.

Ana subutsizligu, ana surbetlik! Rossiyadek olamga tanilgan, qudratli davlatning imperatori uch oygina avval dunyoning barcha yaxshiliklarini tilab qolgan Qo'qon xonligiga endi hech bir insof-adolatga to'g'ri kelmaydigan yomonliklarni ravo ko'rib o'tirsa-ya! Nikolay birinchi Qo'qon xonligining barcha hududlari amir Nasrullo tasarrufida bo'lishini aytib, go'yo unga katta iltifot ko'rsatgandek taassurot qoldiradi. Lekin oradan bir-muncha vaqt o'tib, xuddi shu hududlar Rossiya askarlarining oyog'i ostida toptaldi: Buxoro amirligi va Xiva xonligi imperatorlikning vassaliga aylantirilishidan tashqari, Qo'qon xonligining nomi jahon xaritasidan butunlay o'chirildi.

Amir Nasrullo tomonidan 1842 yili Qo‘qon xonligida amalga oshirilgan xunrezlikni mutlaqo oqlab bo‘lmaydi. Nega? Shuning uchunki, o‘sha vaqtdagi Qo‘qon hukmdori o‘z yurtining amirlik tomonidan shafqatsizlarcha bosib olinishi, o‘zi, ukasi, validasi, xotini, farzandlari va boshqa yaqinlari bilan olomon oldida vahshiylarcha qatl etishga arziydigan biror ish qilmagan edi.

O‘sha davrning haqgo‘y muarrixlari bu xususda bizga aniq ma‘lumotlar qoldirishgan. Ular bu mudhish bosqinni tuzatib bo‘lmas xato sifatida baholashgan. Tarixiy manbalardan ma‘lumki, amir Nasrullo o‘z bosqinchilik yurishini oqlash uchun go‘yo Muhammad Alixon otasi uylanmoqchi bo‘lgan kanizakni nikohiga olib, shariatga xilof ish tutdi, degan da‘vo bilan chiqqan. O‘sha davrning zukko muarrix Ishoqxon to‘ra Ibrat «Tarixi Farg‘ona» asarida amir Nasrulloning bu ishiga aslida nimalar sabab bo‘lgani xususida quyidagicha yozadi: «Muhammad Alixon enosini oldi degan so‘z rost bo‘lmay, buxoriylar qatllarini aybini satri uchun qilg‘an qabihalarini tavjig‘a chiqarilmish so‘zlari ekan. Asl muddao bo‘lak ekan. Chunosonchi, Umarxon «olaman» degan Poshshoxon oyimni husnini eshitub, g‘oyibona maftuni jamol bo‘lub, muni ancha sabab qilib kelgan ekan... Muhammad Alixonni xalqni ko‘ziga osiyu gunohkor ko‘rsatib, shariatni poymol qildi, tanbeh darkor, deb kelib, qancha xonzodau mazluma oyimlarni qatli bag‘ayri haq qilib, oxirulamr murod o‘shal oyim ekan, olub, muddaosig‘a yetib, Buxorog‘a olib ketdi».

Mirzoolim Mushrifniig «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin»ida esa, amir Nasrullo bosqinining boshqa bir sababiga urg‘u beriladi: «1252 sanada (milodiy 1836–1837 yil) Farg‘ona xoni Muhammad Alixon birla amir Nasrullo oralarida Bashog‘ir nom qal‘a ta‘miri xususida munozaat (nizo) bo‘ldi... Bashog‘ir qal‘asi munoze‘i va ham boshqa sabablar ila amir Nasrullo Bahodirxon qo‘shin jamlab, Farg‘ona o‘lkasiga yurush qilib, nizomiy askarlari birla osonlik ilam Bashog‘irg‘a istilo qilib, andin O‘ratepa va Ho‘jand shaharlarig‘a doxil bo‘lub, andin dorulmulki Farg‘ona bo‘lub turgai Ho‘qand ustiga kelib, qatl aylab Buxoroga jo‘nadi».

O‘sha davr muarrixlarining barchasi amir Nasrulloning Qo‘qonga qilgan bu bosqini sababini, avvalo, Muhammad Alixon Qo‘qon xonligi sarhadlari daxlsizligi uchun amirlikka chegaradosh Bashog‘ir qal‘asini mustahkamlaganida, qolaversa, Muhammad Alixon nikohiga olgan kanizak – Poshshoxonning husn-jamoli ta‘rifini eshitgan amir unga g‘oyibona «oshiq» bo‘lib qolganida ko‘radilar.

Amir Nasrulloning bu vahshiyliги va boshqa ko'pdan-ko'p nomatlub ishlari borasida gap borganda, o'sha davr tarixchilari xalq undan qattiq norozi bo'lib, amirni o'z ismi bilan emas, balki «Botir qassob» laqabi bilan atay boshlaganini qayd etadi. Aksar muarrixlar fikricha, amir Nasrullo a'yonlari ichida unga maslahat ko'rsatishga, haqiqiy ahvolni yuziga aytishga jur'at eta oladigan biror kishi bo'lmagan. Biroq o'sha davrda yaratilgan ayrim tarixiy asarlarda boshqacha ma'lumotlar ham uchraydi: amir Nasrullo qanchalar o'jar, kaltafahm va jalloddabiat bo'lmasin, uning atrofida amirni dahshatli ishlardan qaytarishga intilgan, hatto uning yuziga tik boqib, bu ishlar qanday mudhish oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ayta olgan jasorat egalari ham bo'lgan. Masalan, Ishoqxon Ibrat «Tarixi Farg'ona»da, Mulla Olim Maxdum «Tarixi Turkiston»da bunday ulkan jasorat, insof va aql egalaridan ikkitasi xususida alohida to'xtaladi. Ularning birinchisi – sarkarda Abdusamad noib, ikkinchisi asa, shoir Junaydullo Hoziqdir. Amir Nasrullo bosqiniga tob berolmay, ukasi Mahmudxon bilan birga qochgan Muhammad Alixonni uning huzuriga tutib keltirganlarida ro'y bergan voqeani Ibrat quyidagicha tasvirlaydi: «Amir darhol katlg'a xukm qilg'anda o'z vazirlaridan Abdusamad noib degan hushmand kishi amirga «Janobi oliylariga maloli xotir bo'lmasa, bir kalima so'z aytсам» deganda, amir «Nima so'z dur?» degan ekan. Aytibdurki, «Holo Ho'qand zabt o'ldi, Farg'ona katta mamlakatdur, qancha askaru, sipohu xazina sarf o'lub olindi, alholda Rusiyani kelmagi mahali xavfdur. Agarda xonni onti akid berib, tavba qildurub, Ho'qandg'a qo'yub, Buxorog'a tobe' qilinsa, bir mulk bo'lub, bizlarga kelgan dushmanlarga bir qalqon bo'lur erdi», deg'anda so'zi amirga maqul bo'lmay, og'zig'a kafsh bilan urdurg'on ekan».

Abdusamad noibning chinakam jasorat va tengsiz donolik namunasi bo'lgan bu so'zidagi ikki jihatga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Avvalo, Rossiya Oqmasjidni bosib olishidan o'n bir yil ilgari Abdusamad bu xavfni yaqqol idrok etib, daf' etish mushkul bo'lgan ana shu xavfdan amirni ogohlantirishga jur'at etgan. Ikkinchidan esa, bu gapni oddiy noib emas, balki harbiy sohada katta mutaxassis bo'lgan, o'zi inglizcha ta'limga berib, inglizcha qurollar bilan ta'minlangan 200 chamasi askari kuchga ega shaxs aytmoqda. Ammo johil va nodon amir o'ylamay-netmay aql-idrokda, bilimdonlikda, insof-adolatda ko'pchilikka namuna bo'ladigan Abdusamad noibni xaloyiq oldida qattiq beobro' qiladi va jazolaydi. Kekchi amirning bu jazosi hali xamir uchidan patir edi...

Amir bilan Abdusamad noib o'rtasidagi munosabatlar ana shu jazolash voqeasidan so'ng qanday tus olgani va noibning keyingi fojeali taqdiri borasida Mulla Olim Mahdum o'z kitobida keng ma'lumot beradi:

«1250 (milodiy 1834 yil) sanada Eroniston tarafidin Abdusamad Tabriziy nom zot Buxorog'a keldi. Ul odam dono va fozil va g'oyatda hunarmand va zakiy va sohibroy edi. Oning sa'yi va dalolati ila Buxoro mamlakatida bo'lgan Eron asirlarini sotib olib va boshqa vajhlar ilan olib, ikki yuzga yaqin jamlab, ingliz tartibida nizomlik askar tartib qilib va boshqa urush asboblarini xozirlab, otlarg'a ta'lim berib, adadi oz bo'lsa ham yaxshi muntazam askar ahdos qildi... Abdusamadg'a noiblik rutbasi berilib, amir Nasrullo nazdida maqbul, g'oyatda e'tiborlik bo'ldi. Bir necha zamonlardan keyin hassod va dushmanlari ko'payib, har xil makruh tadbirlik so'zlar ilan amir Nasrulloni oning xususidagi ixlos va muhabbatini qaytarib (noibning asosiy aybi Qo'qonda amirga maslahat ko'rsatishga jur'at etgani ekanligidan muallifning xabari yo'q chamasi), oxir to'pxona rayosatini bir nodon, johil sarkardag'a topshurub, Abdusamadni oning farmonig'a qo'ydi. Abdusamad bu ishdin g'oyatda oru nomus qilib, nihoyatda ko'ngli ranjib, oralarida kudurat paydo bo'lub, amirning yamon niyatidin xavfu taloshg'a tushub, Buxorodan qochmoq fikri ilan Shahrisabz hokimi ilan axdu paymon qilib, amir Nasrulloning Shahrisabz urushida Abdusamad o'z tabaqasi va to'plari ila amirdin ko'b ilgari ketganlikdin amir vahima qilib, to'xtamoqqa amr berib, kishi yuborsa ham quloq solmay ketib turg'omda, amir ketidin askar yuborub, Shaxrisabzg'a yaqin kelganda muhoraba qilib, olib qaytib, oni zindong'a solib, oxiri muni ham qatl qildi».

Amirga bir martagina to'g'ri maslahat berishga jur'at etgan, amirlik uchui suv va havodek zarur bo'lgan dono va zukko sarkardani qatl etish bilan amir Nasrullo aslo kechirilmas gunoh qilgani, uning bu azim gunohi amirlikka qanchalar qimmatga tushgani haqida keyinroq fikr yuritimiz.

Bo'lar-bo'lmasga hadiksirayveradigan, nodon, johil, kekchi amirning Qo'qon yurishidagi qilmishlari tarix oldida uning yuzini qaro qilajagini bashorat qilgan va bu haqdagi fikrini amir yuziga qaqshatgich bir bayt bilan aytgan mislsiz jasorat sohibi Hoziqning hayoti ham fojiali tugamasligi mumkin emas edi. Bu xususda «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin»da Mirzo Olim Mushrif quyidagicha ma'lumot beradi: «(Xo'qanddin) necha manzilu marohil tay aylab Buxorog'a yaqin borg'anda... amir Bahodirxon xursandlik qilib, Mirzo Junaydullo Maxdum Hoziq mulaqqabkim, shayxulislom Hirotiyning o'g'ullari erdi, amiri Buxorog'a kecha-kunduz hamnishin erdilar,

ziyoda gustoh ekanlar, amir farmoyish qildikim: «Bizni bu safardin bozafar kelganimizg'a bir fard bayt mashq qilib, bir nimarsa ayting», dedilar. Darhol bu baytni o'qudilarkim, nazmi Hoziq:

Buridi bar qadi xud az malomat,

Libose to ba domoni qiyomat.

(Tarjiması: O'z qaddingga yomonliklardan shunday bir libos bichtirib kiydingki, u ustingda qiyomatgacha qoladi.)

Amirning jahli kelib, rangida qatra qon qolmadi, to o'rdasig'a doxil bo'lg'uncha so'zlamadi. Maxdum Hoziq tavahhumg'a qoldilar va o'shal kecha otlanib, Shahrisabzg'a o'tib kettilar... Amiri Buxoro darg'azab bo'lub, necha muddatdin beri Dushaboy degan bir o'g'rini zindon qilib qo'yub erdi, ani chaqirib bir farmoyish qildikim: «Sen agar Maxdum Junaydni va eshon Shofeni boshlarini olib kelsang, banddin ozod qilaman», dedi. U ham qabul qilib Shahrisabzga keldi...

Qazoro bir kun Dushaboyni bir odam kasal suratida olib kelib, «Taqsir, bunga doru bering, kasal bo'lubdur», deb. Shul kecha yotib boshlarini olib, kechalab amiri Buxorog'a manzur qildi ersa, in'om-ehsoni bilo nihoyalar sarafroz ayladi».

Xullas, amir Nasrulloni ko'pdan-ko'p nojo'ya ishlarining mudhish oqibatlari borasida ogohlantirishga jur'at etgan saroy a'yonlari oz bo'lsa ham uchraydi. Ular o'z boshlarini qotil qilichi ostiga qo'yib bo'lsa-da, shunday fidoyilik ko'rsatganlar. Ammo johil amir o'zining mash'um gunohlari, ularniig fojeiy oqibatlari haqida o'ylab ko'rishni xayoliga ham keltirmagan.

Yuqorida biz Abdusamad noib amirni mudhish qotillikdan qaytarishga jur'at etgani xususida so'z yuritgan edik. Dono noib o'z mulohazasini Rossiya hujumi xavfi muqarrar bo'lib qolgani, bu xavf nihoyatda jiddiyligi bilan izohlab, uni bartaraf etish tadbirini ham ko'rsatgan edi. Biroq amirlikning harbiy kuch-qudratiga haddan tashqari yuqori baho bergan amir, bu maslahatni nazar-pisand qilmaganidan tashqari, noibni oshkora jazolab, aqli noqisligini yana bir marta namoyish etadi.

Boz ustiga, xuddi o'sha kezlari imperator Nikolay Birinchi amirning Qo'qon xonligida qilgan barcha yaramas ishlarini ma'qullab, hatto xonlik hududida amir hukmfarmolik qilishini istashini bildirib, elchi orqali rasmiy maktub yo'llagani amir Nasrulloning beboshligini yanada oshirib yuborgan va u endilikda Rossiya bosqinidan xavf-harosni yig'ishtirib, butkul beparvolikka, aysh-ishratga berilib ketgan edi.

Rossiya Turonzaminni bosib olishga qat'iy qaror qilganidan voqif bo'lgan Angliya hukumati o'z manfaatlaridan kelib chiqib, bunga yo'l qo'ymaslik rejalarini tuzgan edi. Bu rejaga ko'ra, Qo'-

qonda amir amalga oshirgan qonli voqealardan ilgariroq O'rtasiyodagi uch xonlikka o'zining ikki zobitini – polkovnik Stoddart bilan kapitan Konollini yuborgan edi. Stoddartga Buxoro amirligida, Konolliga esa Xiva xonligida hamda Qo'qon xonligida yurt hukmdorlari bilan uchrashib, ularni Rossiya bosqiniga qarshi birgalikda kurashishga tayyorlash, bu ishda ularga ingliz hukumatining amaliy yordami qanday bo'lishini tushuntirish vazifasi yuklangan edi.

Mashhur Ismoilbek G'aspirali «Tarjumon» gazetasining 1906 yilgi sonlarida e'lon qilingan «Tarixi jadidai Turkiston», Mulla Olim Maxdum esa, keyinroq, «Turkiston viloyatining gazetida chop etilgan «Tarixi Turkiston» asarlarida bu missiyaning bosh maqsadi nimalardan iborat bo'lgani xususida fikr bildiradilar.

«Stoddartning maslagi, – deb yozadi I.G'aspirali, – inglizlar tomonidan Buxoroga biror qasd yoki zarar keltirilmasligiga janobi amirni ishontirib, boshqa bir davlatning qasd va tajovuzidan mudofaa etish istaklari bayonidan iborat edi. Shuningdek, agar amir munosib ko'rsa, Buxoro askarini yangi va tezotar to'plar ila aslaxalantirmoq, askariy muallimlar bermoq va Rusiyaning yashirin harakat hamda maqsadidan Buxoro hukumatini xabardor qilmoq edi».

Missiyaning asosiy maqsadi borasida Mulla Olim Maxdum kitobida ham shunga o'xshash fikrlar bayon etiladi.

Muarrixlarning shohidlik berishlaricha, xuddi shu maqsadda Xiva hamda Qo'qonga borgan kapitan Konolli yurt hukmdorlari Olloqulixon va Muhammad Alixon bilan muzokaralar o'tkazib, Angliya qirolik hukumati takliflariga ularni ko'ndiradi. Ammo Buxoroga navbat kelganda, amirning tadbirsizligi va johilligi tufayli Rossiya bosqinidan omon qolishning tarix bergan birdan-bir imkoniyati butunlay barbod etiladi, har ikki elchi insof va adolatga zid ravishda qatl etiladi.

Voqea bunday bo'lgan edi: Rossiyaning Turonzaminni bosib olish rejasini amalga oshirish muddati tobora yaqinlashib kelayotganidan razvedka ma'lumotlari orqali xabardor bo'lgan Angliya hukumati o'z manfaatlariga zid keladigan bu bosqinning oldini olish payiga tushadi. Bu niyatini amalga oshirish uchun 1838 yili dastlab Buxoroga polkovnik Miralay Stoddart degan kishini maxsus topshiriq bilan yuboradi. Stoddartni ikki marta qabul qilib, u orqali ingliz hukumati niyatidan voqif bo'lgan amir elchi taklifiga hech qanday javob bermaydi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, elchi ot ustida Registondan o'tganini eshitgan haddidan oshgan amir Nasrullo o'ylamay-netmay Stoddartni zindonga tashlatadi. Elchidan dom-darak yo'qligidan tashvishga tushgan ingliz hukumati turli kanallar orqali Stoddartning ahvolidan xabar topib, Rossiya hukumatidan vositachilik ko'rsatishini,

elchini Buxorodan chiqarib, o'sha vaqtlarda Angliya hukmronlik qilayotgan Afg'oniston hududiga o'tkazib yuborilishiga erishishni so'raydi. Rossiya hukumati esa, xuddi o'sha davrda boshqa bir yumush bilan Buxoroga yuborilgan o'z elchisi Butakovga ikki yil chamasi zindonda azob berilib, so'ng bo'shatilgan, ammo Buxorodan ketishiga yo'l bermay ushlab turilgan Stoddart xususida amir bilan so'zlashib, Angliya hukumati iltimosini ado etishga ko'maklashish xususida ko'rsatma beradi. Biroq kibru havosi olamga sig'magan amir bu vaqtda Qo'qon xonligini bosib olish uchun jo'nayotgan bo'lib, Rossiya elchisi Butakovni ham Registonda ot ustida kekkayib o'tirgan holida «qabul» qiladi. Shunday bir vaziyatda Butakovning Stoddart borasidagi iltimosi amalga oshmagani o'z-o'zidan ma'lum.

Xullas, Stoddart masalasini hal etishni xohlamagan amir Qo'qon yurishiga o'tlanadi. Amir Nasrullo Qo'qonda, to'g'rirog'i, Mahramdagi o'z qarorgohida turgan chog'ida uning huzuriga Angliya tomonidan Xiva hamda Qo'qon xonliklariga xuddi Stoddartniki singari missiya bilan yuborilgan kapitan Konolli ilgariroq Xivaga borib, Olloqulixonni ingliz hukumati takliflariga ko'ndirgan, keyin aylanma yo'llar bilan Qo'qonga kelib, Qo'qon xoni Muhammad Alixonni bu takliflarga asosan unatgan edi. Biroq Konolli hali Qo'qondagi ishlarini saranjomlab ulgurmay, amir Nasrullo mo'ri malaxday qo'shini bilan xonlik hududlarini egallab olgan va o'zi Mahramda qaror topib, Konollini huzuriga chaqirtirgan edi. Endi Konolli oldida ikki yo'l turar, birinchi yo'l – Qo'qondan yashirincha qochib ketish, ikkinchisi esa, o'lim xavfidan qo'rqmay, amir Nasrullo qarorgohiga borib, unga o'z maqsadini tushuntirishdan iborat edi. Konolliga xayrixoh bo'lgan Qo'qon a'yonlari unga xonlik hududidan xufiya ravishda jo'nab ketishni maslahat beradilar. Biroq Konolli nima bo'lsa ham, amir Nasrullo huzuriga borib, u bilan gaplashishga qaror qiladi. Amir bilan birinchi uchrashuvdayoq uning ishi chappasidan ketadi. Elchining niyatidan voqif bo'lgan amir Nasrullo darhol uni sarbozlar qo'riqchiligida Buxoroga, hamyurti va hamkasbi Stoddart tashlangan zindonga jo'natadi.

Qo'qonda o'n kuncha turib shaharni qonga botirgan, yuzlab begunoh erkagu ayolni, yoshu qarini qatl etgan, xazinani ham, xususiy kishilar boyliklarini ham egallab olgan, uch yuzga yaqin go'zal ayolni cho'ri sifatida o'z yurtiga jo'natgan amir Nasrulloga xuddi o'sha kunlari Rossiya elchisi imperator Nikolay birinchining maxsus tabrik xatini olib kelib topshirgan edi. Rossiya imperatori tomonidan shishirilgan, aslida esa laqillatilgan amir Nasrullo Ko'qon xonligini Sheralixon egallab olguncha o'tgan ikki yarim oy chamasi vaqt ichida

yana ham pishqirib, bosar-tusarini bilmay qoladi, zulm-istibdodi har qachongidan oshib ketadi. Xuddi shunday bir sharoitda haq-nohaqni, yaxshi-yomonni, gunoh-savobni ajratishga sira ham qodir bo'lmay qolgan amir Nasrullo Angliyadek buyuk davlat tomonidan amirlikka hayot-mamot masalasida ko'mak berish taklifi bilan kelgan ikki elchi-zobitni o'z huzuriga chaqirtiradi.

Bu chaqirtirish voqeasi qanday fojia bilan tugagani xususida Mulla Olim Mahdum bunday xabar beradi: «Nasrulloxon Ho'qandni tor-mor qilib, ezib, Buxoroga qaytganda ingliz elchilariga dini islomni qabul qilmoqqa taklif qildi. Inglislar javobida: «Hukumatimiz tarafidan Movarounnahrga ma'muriyat ila kelduk, din tark qilmoqg'a yoki dinni qabul qilmoqg'a kelmaduk, umid qilamiz, shunga qarab muomala qilinsun», debdurlar. Bu rajolarig'a qarshi jallodg'a buyurub, elchilarni boshin kesmoq ila muomala qilindi. Inglisning xayrixohona muomalasig'a bu tariqa javob berildi».

Ismoilbek G'aspirali ham bu xususda alohida iztirob bilan yozadi: «Xiva, Buxoro va Xo'qand xonlarini ittifoq etdirib, zamonaviy askar va qurol tayyorlatib Rusiya tajovuziga bas keladigan holni keltirishni istagan Angliya hukumatining' elchilariga shu tariqa muomala qilindi».

Chindan ham, uch xonlikni Rossiya bosqiniga munosib zarba bera oladigan darajaga ko'tarishning, yurt mustaqilligini saqlab qolishning tarix bergan bir imkoniyati nodon hukmdorning johilligi va ahmoqona siyosati tufayli barbod etilgan edi.

Amir Nasrullo shaxsi masalasida kishini o'ylantiradigan yana bir jihat bor. Bu o'rinda gap Rossiyaning o'sha davrdagi eng yirik amaldorlari amirning takabburona va nodonlarcha siyosatidan mamnun bo'lganliklari, uning shaxsiga o'ta baland baho berganliklari haqida bormoqda. Orenburg korpusi qo'mondoni general-ad'yutant Bezak 1861 yil 10 yanvarda Rossiya harbiy vaziri Chernishevga yo'llagan malumotnomasida amir Nasrullo haqida quyidagi so'zlarni yozadi:

«Ajoyib aql egasi, eng uddaburon va mohir siyosatchilardan bo'lmish Nasrullo Buxoroda hukmronlik qilgan 34 yil davomida Turkistondagi barcha xalqlar ustidan alohida bir jozibali qudratga ega bo'ldi» (RMD arxivi, 715-jamg'arna, 1-qayd, 23-ish, 175-sahifa).

Chor amaldorlari amir Nasrulloga bunday baho berishi oqni qoradan, yaxshini yomondan, savobni gunohdan ajrata olmagan bu nodon hukmdor yurgizgan siyosat Rossiya hukumatining mustamlakachilik maqsadlariga muvofiq kelganligidan edi, deb hisoblash mumkin. Amirning bu siyosati qanday dahshatlarga

olib kelishi muqarrarligini tez orada yuz bergan voqealar yaqqol ko'rsatdi.

1842 yil bahorida Qo'qon xonligini qonga botirib, uning barcha hududlarini Buxoro amirligi mulki deya e'lon qilib, o'sha davr muarrirlari ta'biricha, «Ibrohim xayol degan taryokiy»ni xonlikka noib sifatida qoldirgan amir Nasrullo tez orada kattiq zarbaga uchraydi, Qo'qonda taxtni Qo'qon xonlari avlodidan bo'lgan SHERALIXON egallab oladi, Bundan darg'azab bo'lgan amir Nasrullo o'zining katta qo'shini bilan yana Qo'qon sari yo'l oladi. Lekin bu safar xonlikni qayta bo'ysundirishning iloji bo'lmaydi. Amir Qo'qon qal'asi devorlari yonida ikki oy chamasi shaharni qamal qilsa ham o'z maqsadiga erisha olmay turgan bir vaziyatda Olloqulixonning o'g'li RAHIMQULIXON boshchiligidagi qo'shinlar Buxoro amirligi hududlariga bostirib kirib, qal'a va istehkomlarni birin-ketin egallab olayotganlari haqida xabar keladi. Amir Nasrullo o'z qo'shinlari bilan orqaga qaytib, xivaliklarga qarshi urushishga majbur bo'ladi. Shu munosabat bilan muarrix Poyon Ravshanov bunday yozadi: «Amir xivaliklarga qarshi tirik jonning hammasini, qariyb yuz ming qora cherikni jam' qilgan bo'lsa-da, mag'lubiyat, minglab odamlarning asir qilib olib ketilishi uni aqlan majruh etib qo'yadi. Buxoro qora cherigining Xivaga qarshi javob yurishi qilib, Hazorasp yonida butkul tor-mor qilinishi, amirning o'zi qochib zo'rg'a jon saqlashi uning keyingi hayotida mash'um asoratlar qoldirdi... Amirning muttasil qahru g'azabda bo'lishi, aytadilarki, Xiva xoni talonidan so'ng qariyb to'rt yil davom etadi. Shu yillar ichida amir Nasrulloning biror marta kulganini, a'yonlari bilan ochilishib gaplashganini hech kim ko'rmagan va bilmagan» («Malika Kenagas oyim yohud amir Nasrulloning o'limi qissasi»).

Zolimligi, aqli noqisligi va bema'ni kibru havosi uchun amir Nasrulloning boshiga tushgan balo-ofatlar bugina emas. Hatto uning o'limiga ham ana shu yaramas fe'l-atvori va qilmishlari sabab bo'ladi. Amirning cheksiz zulmlaridan to'yib ketgan xotini Kenagasbegim xalq qasosi amalga oshuviga erishadi. «Nasrullo Bahodirxon 5 oktabr (1860)da Samarqanddan qaytishi bilanoq vafot etdi, – deb yozadi Orenburg korpusi qo'mondoni general Bezak 1861 yilning 10-yanvarida Rossiya harbiy vaziriga yo'llagan ma'lumotnomasida. -Uning xotini, o'z akasi maslahatiga ko'ra, Nasrulloning dorisiga zahar aralashtirganini chindan ham bo'yniga olgan. Buning uchun amir o'sha zahoti har ikki jinoyatchini hamda o'z tabibini o'limga hukm etgan».

Mahalliy muarrirlar asarlarida esa amir Nasrullo mast holda uxlab yotgan chog'ida Kenagasbegim ismli xotini qulog'iga simob quyib

o'ldirgani aytiladi. P.Ravshanov amir qulog'iga simob quyilganidan keyingi voqealarni o'z kitobida quyidagicha bayon etadi: «Chalajon Kenagas oyimni ikki bolasi jasadi bilan qo'shib, Ark yelkasidagi qadimiy Childuxtaron go'rqudug'iga tashlab yubordilar. Aytadilarki, bu quduq ichi pishiq g'ishtdan ishlab chiqilgan bo'lib, borho-boriga tig' qadab chiqilgan ekan.

Chuqurligi yigirma quloch bo'lgan quduqqa tashlangan inson tanasi to pastga yetguncha nimta-nimta bo'lib kesilib tusharkan».

Dunyoga faqat yomonlik uchun kelgan amir general Bezak ma'lumotnomasida bitilganidek, o'zi o'lim talvasasida yotgani holda ham tavba-tazarru' o'rniga xotini, qaynog'asi va shaxsiy tabibini o'ldirtirib, so'ngra jon berishi yoki P.Ravshanov kitobida yozilganidek, Kenagasbegimni ikki go'dak farzandi bilan ajal qudug'iga tashlatishi har qanday kishini yoqa ushlatmay qo'ymaydi. Katta yoshli muxoliflari chekkan azob-uqubatlari uchun amirdan o'ch olishgani balki to'g'ridir. Lekin amir Nasrulloning o'z pushti kamaridan bo'lgan ikki begunoh go'dak uning farmoniga ko'ra o'lim qudug'iga tashlanishiga qanday toqat qilish mumkin.

Amir Nasrulloniig barcha qilmishlari uning o'zi bilan qaro yerga ko'milib ketsa koshki edi. Lekin unday bo'lmadi. Buxoro xonligini Rossiya asoratidan saqlab qolish maqsadida polkovnik Stoddart va kapitan Konollini bu o'lkaga yo'llagan, lekin o'z elchilari amir tomonidan hech bir asossiz qatl etilganidan g'azabga kelgan Angliya hukumati tez orada Buxoro xonligiga munosabatini keskin o'zgartiradi. Bu haqda ilgariroq nomi aytilgan Bezakning 1861 yil 29 noyabrdagi qaydlarida quyidagicha yozilgan: «Angliya hukumati Buxoro xonligini butunlay kuchsizlantirishni mo'ljallamoqda. Angliya Afg'onistonni O'rta Osiyoning qudratli davlatiga aylantirishni ko'zda tutib, unga Buxoro, Xiva hamda Qo'qondan ba'zi viloyatlarni qo'shib olmoqchi.

Agar biz Toshkentda qaror topib, Qo'qon orqali Xitoy Turkistoni bilan aloqani ta'minlagunimizgacha inglizlar bunga ulgurishsa, ular O'rta Osiyoda to'la hukmron bo'lib oladilar, O'rta Osiyoning savdosi ham Xitoy Turkistoni savdosi bilan qaytmaydigan bo'lib ular qo'liga o'tadi».

Amir Nasrulloning qilmishlari, kasofati shular bilangina tugamadi. Amir vafotidan olti oycha keyin o'sha Bezak Rossiya harbiy vaziriga bunday deb yozadi: «Muzaffar bahorda yana Qo'qonga qarshi harbiy harakatlar boshlashga tayyorlanmoqdaki, shunday qilsa biz uchun g'oyat foydali bo'lardi, albatta». Bu ma'lumotnoma chor mustamlakachilarining O'rta Osiyodagi xonliklar orasiga nizo

solishdan iborat yovuz maqsadini yana bir bora ko'rsatadi. Amir Nasrullo siyosati esa, dushmanlarga qo'l kelgan edi. Bu siyosat yillar davomida uning avlodlariga ham, butun Buxoro amirligiga ham katta falokatlar keltirishda davom etdi.

«Amir Nasrulloning bu xato siyosatining natijasi yigirma besh yildan keyin o'g'li amir Muzaffarxonning asrida ham davom etib, Toshkand va Samarqand Rusiya tarafiga o'tgandan keyin jadal tamom bo'ldi», deb yozadi Mullo Olim Maxdum «Tarixi Turkiston»da.

Samarqand va Toshkentdan tashqari, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax kabi yirik viloyatlar Rossiya tomonidan bosib olinganidan cheksiz xavotirga tushgan amir Muzaffar bu kuchli dushmanga qarshi kurashishda o'z qo'shnilari – Qo'qon va Xiva xonlaridan madad so'rashga majbur bo'ladi. Biroq amir Nasrulloning zamon-zamonlarga yetgulik yovuzliklarini unuta olmagan xonlar bu iltimosni rad etadilar.

Endi Muzaffarxonning bir vaqtlar yordam berishni astoydil istagan, lekin elchilari amir Nasrullo tomonidan xiyonatkorona qatl etilgan Angliya hukumatidan yordam so'rashdan bo'lak chorasi qolmagan edi. Nihoyat, amir Muzaffar Buyuk Britaniyaning Xindistondagi oliy komissari lord Lourens huzuriga o'zining Abbosxoja ismli elchisini maxsus maktub bilan jo'natadi.

Amir tomonidan yo'llangan fors tilidagi bu iltijo-maktubda, jumladan, quyidagi so'zlar bitilgan edi: «...Bir guruh odamlar bu yerni (Buxoro amirligi hududlarini demoqchi) o'z tasarrufiga olishga kirishdi va ikki tomon o'rtasida jang boshlandi. Islom ahli urush mahoratining yetishmasligi tufayli bosqinchilarga qarshi chiqqa olmadi va natijada ayrim yerlarni ruslar bosib oldi. Taqdir taqozosi bilan u yerlar ruslar qo'li ostiga o'tib qoldi... Hozirgi vaqtda islom ahli ruslardan qutula oladi va xalq manfaati yo'lida yordam so'rab Sizga murojaat etadi. Hozirda har bir harakat qulay vaziyatga bog'liq. Siz bizning istaklarimizni qabul etish bilan xalqimizning manfaatlarini inobatga olgan bo'lasiz».

Ammo lord Lourens tomonidan Angliya hukumatiga yetkazilgan bu maktubga Londondan biror javob ham, ikki mamlakat munosabatlarida biror ijobiy o'zgarish ham bo'lmaydi. Oqibatda, vaziyat tobora keskinlashib, oradan uch yil chamasi vaqt o'tgach, Rossiya Buxoro amirligi hududini butunlay bosib olib, uni o'z vassaliga aylantiradi.

Amir Nasrullo o'z hukmronligining atigi bir yilida – 1842 yili yo'l qo'ygan ikki mudhish xato – avvalo, Qo'qon xonligini bosib olib, qatliom o'tkazishi; nihoyat, Angliya hukumati tomonidan

olijanob taklif bilan yuborilgan elchilar Stoddart va Konollini qatl ettirishining kasofati Buxoro xonligigagina emas, balki Qo‘qon hamda Xiva xonliklariga ham urib, butun Turonzamin Rossiya tomonidan osongina bosib olinishiga yo‘l ochib berdi.

Angliyada Stoddart va Konolli nomi bilan tashkil etilgan maxsus qo‘mita ikki zobit taqdirini aniqlash uchun o‘z odamlarini Buxoro, Xiva va Qo‘qonga yubordi. Ana shu qo‘mita nomidan 1844 yil 3 noyabrda olim, tadqiqotchi hamda sayohatchi sifatida tanilgan, ayyor josus Iosif Volf Istanbulga keldi. Angliyaning bu yerdagi elchisi S. Kening unga Buxoro safari uchun zarur hujjatlarni tayyorlab berdi. Turkiya sultonining Buxoro amiri, Xiva va Qo‘qon xonlariga yozilgan maktublari Volfning turk sultoni homiyligida ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar vazifasini o‘tashi lozim edi. Ana shu hujjat o‘sha vaqtda Turkiya Rossiya istilosiga qarshi Angliya bilan hamkorlikda o‘zbek xonliklarining ittifoqini vujudga keltirishga intilganidan dalolat beradi. 1844–1845 yillar davomida Buxoroda ish olib borgan I.Volf Londonga Qo‘qondagi voqealar, xonliklarning o‘zaro munosabatlari xususida diqqatga sazovor axborotlar yuborib turdi.

Angliya Turkiya bilan hamkorlikda O‘rta Osiyo davlatlarining harbiy ittifoqini vujudga keltirishga ko‘p urindi. Ayniqsa, Qrim urushida (1853–1856) Angliya O‘rta Osiyo xonliklariga, Afg‘oniston va Eronga o‘z odamlarini yuborib, bu mamlakatlarni Rossiyaga qarshi otlantirish harakatini kuchaytirdi. Ammo Turkiya ham, Angliya ham Rossiya xurujiga qarshi o‘zbek xonlari birligini vujudga keltirishni ta‘minlashning uddasidan chiqa olmadi. Chunki xonliklar o‘rtasida o‘zaro nifoq-nizolar kuchli bo‘lib, ularning ildizi chuqur ketgan edi. Buning ustiga, Rossiya diplomatiyasi Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarini bir-biriga qarshi gij-gijlab, o‘zining ig‘vogarona siyosatini izchillik bilan yuritar edi. Rossiya bu yo‘lda sobit turib, To‘rg‘ay viloyatini, 1846 yilning kuziga kelib, Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan yeridagi Qozolini ishg‘ol etdi va 1847 yilda Raim, 1848 yilda Kazalinsk istehkomlarini qurdi. Bu ahvol Xivani tashvishga soldi. Xon o‘z noroziligini bildirib, elchilarini Peterburgga jo‘natdi. Xiva elchilarini rus amaldorlari bu istehkomlar savdoni yo‘lga qo‘yish va cho‘lda tinchlik o‘rnatish uchun qurildi, deb aldadilar. Xiva xoni bu istehkomlarni yo‘q qilishga harakat qildi, lekin Sirdaryo va Orolbo‘yidagi qozoqlar rus istehkomlaridagi qo‘shinlarni yo‘qotish xususidagi Xiva hukumatining maslahatlariga quloq solmadilar.

Xivaning qozoqlarni o‘z ta‘siriga olish borasidagi urinishlari Rossiyani tashvishga solib, Orenburg general-gubernatorini faol

harakat qilishga undadi. U Orenburgning g'arbiy qismida yashovchi o'ziga tobe qozoq sultoni Boymuhammad Oychuvoqovga maxsus buyruq yuborib, Xiva xoni foydasiga tashviqot yuritayotgan qozoq biylariga qarshi keskin choralar ko'rishni talab qildi.

Rossiya hukumati 1841 yilda Xivaga yuborgan kapitan Nikiforov zimmasidagi asosiy vazifalardan biri Rossiya tobeligidagi qozoqlarga nisbatan Xiva ta'sirini qirqish ekanligi bejiz emas edi. Rossiya hukumati tashqi ishlar vazirligining kapitan Nikiforov zimmasiga yuklagan vazifasi Xiva xonini rus qo'shinlari tomonidan Sirdaryo-ning quyi qismini ishg'ol qilish masalasida betaraf turishga, Sirdaryoning shimolidagi yerlarni va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ini Rossiyaga tobe' deb e'tirof etishga, Rossiya qaramog'idagi qozoqlarga hujum qilmaslik hamda ularning ichki idora ishlariga aralashmaslikka ko'ndirishdan iborat edi. Xon kapitan Nikiforovga Rossiya bilan Angliya munosabatlariga doir jiddiy savollar bergani Xivaning rus-ingliz raqobatidan yaxshi xabardorligidan dalolat beradi. Xiva xoni rus elchisi talablarini rad etgani ham uning Angliya va Rossiyaning O'rta Osiyo masalasida o'zaro kurashidan foydalanishga uringanligini ko'rsatadi. Ko'p o'tmay, kapitan Nikiforovning uddalay olmagan ishini davom ettirish podpolkovnik G. Danilevskiy zimmasiga yuklatildi. Uning Tashqi ishlar vazirligidan olgan ko'rsatmasida xonni Rossiyaning Xivaga nisbatan beg'araz do'stligiga ishonirish birinchi darajali vazifa sifatida qo'yilgan edi.

O'zbek xonliklarida faol ish ko'rayotgan Angliyaning ta'sirini sindirish niyatida Rossiya Xiva xoni oddiga quyidagi ikki talabni qo'ydi:

1. Bundan keyin xoh maxfiy, xoh oshkora suratda Rossiyaga qarshi hech bir dushmanlik munosabatida bo'lmaslik.

2. Sahroda yohud Kaspiy dengizi atrofida talonchilik va bosqinchilik ishlarini olib bormaslik. Bordi-yu Xiva xonligiga tobe qabilalar tomonidan talonchilik ishlari sodir etilsa, aybdor kishilarga darhol jazo berib, talangan mollarni egalariga qaytarish.

1842 yil 27 dekabrda G. Danilevskiyning Xiva xoni bilan tuzgan shartnomasida «Rossiyaga tobe qochoq va isyonchilarni Xiva hududida yashirmasdan, ularni darhol rus chegara komissariga topshirish» masalasi alohida o'rin olgan edi.

Shunga qaramay, Rossiya Xivaga nisbatan g'arazli niyatlarini amalga oshirishga qaratilgan siyosatini izchillik bilan davom ettirdi. 1858 yilda polkovnik N. Ignatev boshchiligidagi diplomatik guruhga topshirilgan vazifalar bunga yaqqol misoldir. Bu guruhga berilgan yo'riqnomada saltanatning asl maqsadi ro'y-rost ifodalangan:

– Xiva, Buxoro va qozoq cho‘llari haqida mumkin qadar ko‘p-roq ma‘lumot yig‘ish;

– avval olingan xaritalarni tekshirib, tuzatib chiqish va safar vaqtida kundalik yuritish;

– Amudaryoning Kaspiy dengiziga qo‘yilgan eski o‘zani to‘g‘risida ma‘lumot to‘plash;

– turkmanlar va ularning harbiy kuchlari, qo‘shni davlatlar bilan aloqalari, bir xonlikdan ikkinchi xonlikka o‘tish yo‘llari haqida hamda O‘rta Osiyo xonliklari va ularga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarning harbiy qudrati haqida ma‘lumot to‘plash;

– Amudaryoni har taraflama o‘rganish.

Guruhning asl maqsadi josuslik qilish ekanligiga polkovnik Ignatevning o‘zi ham iqror bo‘lgan edi.

O‘zbek xonliklarini zabt etish uchun Rossiya avval o‘zining Kavkazda olib borayotgan istilochilik harakatlarini tugallashi kerak edi. Kavkazda esa tog‘liklarning sardori imom Shomil musulmon istiqolchilari bilan hamon ruslarga qarshi partizanlik urushini davom ettirmoqda edi. Sankt-Peterburg Kavkazdagi rus qo‘shinlari faolligini kuchaytirish uchun harbiy-siyosiy doiralardagi nufuzli rahbarlardan A.I. Baryatinskiyni bosh qo‘mondonlikka tayinladi. Jangariligi bilan tanilgan bu general podshohga yozgan maktublarida Rossiyaning O‘rta Osiyoda o‘z ta‘sir doirasini kengaytirish zarurligini alohida uqtirgan edi.

Rossiyaning urushqoq doiralari Orenburg va Sibir orasidagi yerlarning «himoyasini mustahkamlash uchun» Irg‘iz va To‘rg‘ay daryolarining bo‘yida istehkomlar qurishni jadallashtirdilar. Ular o‘zbek xonliklarini asta-sekin bosib olish uchun, birinchi navbatda, Qo‘qon xonligining muhim strategik nuqtalarini egallashga diqqatni qaratdi. Oqmachit qal‘asiga hujum shu tariqa boshlandi.

1852 yilning 16 aprelida shijoatli lashkarboshi Yoqubbek rahbarligidagi Oqmachit qal‘asi himoyachilari dushmanga qarshi qahramonona jang qilib, rus askarlarini Orenburgga chekinishga majbur etishdi. Shundan so‘ng o‘zbeklar bilan bo‘lgan janglarda katta tajriba to‘plagan Orenburg general-gubernatori graf V. Perovskiy 1853 yilda tashabbusni o‘z qo‘liga olib, yana hujumga tayyorlandi. Perovskiy Oqmachit himoyachilariga maktub yo‘llab, taslim bo‘lishni taklif qildi: «Garchand sizlar qal‘a ichida turgan bo‘lsalaringiz ham Oqmachit olingan deb hisoblayvering. Men shu erda turiboq barchangizni bitta qo‘ymay qirib tashlashim mumkin. Ammo, men bunday qilmayman, chunki, biz bu yerga bir yoki ikki kunga emas, balki abadul abad keldik, endi orqaga qaytmaymiz».

Qal'a mudofaachilari bu maktubga «biz bir tomchi qon va ko'chada bir dona kesak qolguncha, hamma qurollarimiz sinib bitguncha kurashaveramiz», – deb javob berishdi.

Yordamchi kuchlar olib kelish uchun ketgan Yoqubbekning kechikishidan foydalangan ruslar yigirma ikki kunlik qurshovdan so'ng mudofaa ahamiyati juda katta bo'lgan Oqmachit qal'asini zabt etdilar.

Oqmachit halokati haqida «Tarixi amiri lashkar Alimqul» kito-bida shunday ma'lumot keltiriladi: «Bu orada O'rusiya askaridin bir katta sardor birmuncha askar va to'b-to'bxona birlan kelib, Oqmachitda Abduvalini (qal'a hokimi) muhosara aylab... muxo-sarani qattig' qilib, qo'rg'on devorig'a naqb¹ kavlab, doru to'kub, o't qo'yib qo'rg'onni yiqib, rahnadin askar shaharg'a yugurib va Abduvali va necha tobe birla o'lub va yarador bo'lg'on. Rusiya askari qahr va g'alaba birla shaharg'a to'lub ketdi»².

Rossiya o'zbek xonliklari hududiga darvoza bo'lgan bu qal'ani «Perovskiy forti» deb qayta nomlaganida olisni ko'zlab ish tutgan edi. Bu voqea xonlik amaldorlariga tegishli saboq bo'lmadi. Shu xususda Muhammad Solih Toshkandiyning e'tiroflari diqqatga loyiqdir: «Qo'qonda Oqmachit voqeasini esdan chiqarib aysh-ishrat, kayfu safo, o'yin-kulgi va parvosizlikka berilib, mamlakat ishidan ko'z yumib, Qozog'istondagi xiroj, boj va zakotni g'ayridin millatlarga topshirib, hukmronlikni g'animat bilib, yomon odamlarni, o'g'rilarni va harom kishilarni to'plab amaldor qilib va voliy belgilab, har bir shaharga yubora boshladilar. Ayrim johil mullalar va nodon ulamolar so'ziga ishonib, aholi shariatdan uzoqlashib, ilmsiz johillarni mansabdor qilib, qozi, rais, hokim, voliy lavozimlariga o'tqazdilar. Poraxo'rlik va haromlik rivojlandi, ishni tekshirmay aytuvchilar so'ziga amal qililib, poraxo'rlar, xushomadgo'ylar va umuman nobop odamlar hokim va mansabdor bo'ldilar. Aksincha, dono, aqlli, fozil va bilimdon kishilar xo'rlandi va oyoqosti qilindi. Kengash va maslahat bilan ish yuritishga yo'l berilmadi».

Amaldorlarning beboshligi va ichki siyosatni yuritishdagi adolatsizliklar xonlikni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Voqealar rivojini diqqat bilan kuzatayotgan Rossiya bundan o'zi uchun tegishli xulosa chiqarib oldi. Old Sirdaryodagi qozoqlarni idora qiluvchi amaldorning Sirdaryo liniyasi qo'mondoniga 1858 yil 31 mayda

¹ Naqb – o'ra.

² Q a r a n g: *Mullo Yunusjon Munshiy*. Amiri lashkar Alimqul tarixi. Nashrga tayyorlovchilar R.Shamsutdinov, P.Ravshanov. T., 1997, 24-bet.

yo'llagan axboroti ana shu jihatdan diqqatga loyiqdir: «1858 yilning mart oyida Toshkent hokimi Mirzo Ahmad 3000 askar bilan Avliyoota istehkomiga kelib qozoq biylarini ham chorlab, faqat qo'ylardan emas, balki tuyalar, otlar va qoramollardan ham soliq to'lashni talab qildi. Ilgari faqat qo'ylardan soliq olinardi, xolos. Biylar o'z ovullariga borib mazkur talabni xalqqa ma'lum qilganlarida xalq uni bajarishdan bosh tortdi. Ularga qarshi 100 va 200 kishidan iborat alohida ikki harbiy qism yuborildi. Ular esa zulmni yanada kuchaytirib turmushga chiqadigan har bir kelindan bir tildan soliq olishni joriy etdilar. Ayni bir paytda ular odob-axloqsizlik ham qildilar. Zulm va adolatsizlikdan sabr kosasi to'lib-toshgan qozoqlar qo'zg'alon ko'tarib Toshkent hokimining ukasi Mirzobiy va boshqa amaldorlarni o'ldirdilar. Shundan keyin Olmaotadagi qozoqlar, jumladan, qanjig'aliklar, qo'qlanlar, qo'tinchinlar, dug'latlar, bistamchaliklar bosh ko'tarib qo'qonliklarni o'z istehkomlariga chekinishga majbur etdilar».

Mallaxon davrida (1858–1862) ham ichki nizolar va toju taxt uchun kurashlar to'xtamadi. Rossiya tajovuziga qarshi xonlikda yagona harakat tashkil qilish esa hech kimning qo'lidan kelmadi.

1860 yilning yozida polkovnik Simmerman boshchiligidagi rus askarlari To'qmoq va Pishpak qal'alarini bosib oldilar. Mahalliy muarrixlardan mulla Mirzo Olim Mushrif o'zining «Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin» asarida ruslarning Qo'qon qal'alarini bosib olganligi poytaxtda qanday aks-sado berganligi haqida, bu vaqtda ruslar Pishpakka hujum qilganliklari to'g'risida xabar olingandan keyin, bir masjid tarafiga borib yarog'-aslahalarning barcha turlari bo'yicha mashq o'tkazilganini yozgan: «Bir kuni Mallaxon to'pchilarga, sarbozlarga qahr-g'azab bilan mashq buyurib, to'pdan nishonga ottirdi. To'pchilar harchand jon-jaxdi bilan otsalar-da, nishonga urolmadilar. Shu onda Qovus dodxoh to'pchining boshini qilich bilan tanasidan judo qildilar. Bundan barcha xaloyiqning hushi ketib, jonlaridan umid uzdilar. Hamma qo'rquv va vahimaga tushdi. Mallaxon qahr-g'azabi pasaygandan keyin o'z qarargohiga ketdi va ertasi Marg'ilonga jo'nadi». Xonning amri bilan Shodmonxo'ja va Olimbek dodxoh rahbarligidagi qariyb 20 ming kishilik lashkar ruslarga qarshi yuborildi.

Mulla Olim Mahdumxo'ja «Turkiston tarixi» asarida bu lashkarning Pishpak atrofidagi Bekat degan manzilda ruslar bilan qilgan jangini quyidagicha tasvirlaydi: «Musulmonlar kofirlarni o'rab olib jangga shaylandilar. Bu vaqtda Olimbek va Qanoatshoh qo'shinlari

o'rtasida kim sardorlik qilishi masalasi xususida kelishmovchilik yuzaga kelib, Olimbek raqibiga zarba berish uchun qo'shini bilan o'zini chetga tortdi. Bu bilan u or-nomusi va jasoratini yo'qotdi. Toshkentliklar quramaliklar bilan birgalikda «taqdir» degan so'zni baralla jaranglatib o'zlarini dushman o'qlariga urdilar. Mazkur satrlarning muallifi kaminai faqir esa «ko'p xudoliklarni o'ldiringlar!», «Ey xudo, din himoyachilarini saqla!», degan xitob so'zlari bilan musulmonlarni ruhlantirib turdim. Musulmonlar o'zlarini kofirlarning o'qlar dengiziga tashlaganda dushman zambaraklaridan va miltiqlaridan shunday o'qlar o'tildiki, bamisoli osmonu falakdan chaqmoq va yashin yoqqandek bo'ldi. Hatto qiyomat-qoyim kuni kelganday bo'lib, to'plar va miltiqlardan otilgan o'qlarning ovozi farishtalarning karnaylari tovushiga o'xshab ketdi. Ko'p jasoratli va qahramon yigitlar misli ko'rilmagan azob-uqubatlar sharbatini ichib, o'zlarini olov bag'riga otdilar. Ayrim qahramonlar qilich bilan kofirlarning kallasini kesib tashladilar. Jang shu tarzda bir soat davom etdi. Pirovardida, tinimsiz davom etgan o'q yomg'irlarining dastidan qozoqlar va talonchi-ko'chmanchilar qochib tog'ning ichkari tomoniga bekindilar. Ammo qo'shinimiz kofirlardan yuzlarini o'girmay ertalabdan peshingacha urushdilar. Nihoyat, kofirlar musulmon o'qparidan zaiflashib tepaliklar orqasiga ketdilar. Musulmon qo'shinining ko'p qismi Qanoatshoh boshchiligida jang maydonidan 9 chaqirim nariga joylashdilar. Qo'shinning boshqa qismi kechqurungacha dushmanga o'q uzib uni Kastakkacha chekinishga majbur qildi. So'ngra ular ham Qanoatshoh qo'shiniga qo'shildilar»¹.

Bu jangdan so'ng Qo'qon sarkardasi Qanoatshoh buzib tashlangan Pishpak qal'asini qayta tikladi. Ammo ruslar xonlik hududiga yangi xurujlarni zimdan tayyorlashda davom etdilar. Rossiya josuslik xizmati vaziyatni o'rganish uchun harakatlarini kuchaytira boshladi. Endi Rossiya ayg'oqchilari O'rta Osiyoning ichkarisiga sayyoh, olim, savdogar va elchilar niqobi ostida kirib kela boshladilar. Rus razvedkasi tadqiqotchi, mutaxassis va olim qiyofasidagi kishilar orqali Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hududlarida samarali faoliyat ko'rsatdi.

1834 yilda tarixshunos X.D.Fren tomonidan «yuz qo'lyozma ro'yxati» tuzilib, unda Yaqin va O'rta Sharqda izlanishi lozim bo'lgan kitoblar ko'rsatildi. Ular tarix, geografiya, geologiya, tabiatshunoslik

¹ *Mulla Olim Mahdumxo'ja*. Turkiston tarixi. Toshkent, 1915, 90-bet.

bo'yicha zarur axborotlarni berar edi. Orenburg bo'xonasiga va harakatdagi harbiy qismlarga bunday kitoblarni topish bo'yicha maxsus qo'llanma ham tarqatilgan edi. A.P.Fedchenko, N.A.Seversov, I.V.Mushketov kabi tadqiqotchilar o'zbek xonliklari hududlarini o'rganish niqobi ostida razvedka ma'lumotlarini ham to'plaganlari sir emas. Ular orasida mashhur olimlardan biri P.P.Semyonov – Tyan-Shanskiy nomi alohida o'rin egallaydi. Rasman uning asosiy maqsadi: Yevropa faniga hali noma'lum bo'lgan Tyan-Shan (Xon-Tangri) tog'lari silsilasiga kiruvchi o'lkaning tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosini tekshirib, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. U Tyan-Shanga 1856-1857 yillar orasida ikki marta safar qildi va haqiqatan geografiya fani uchun qimmatli ma'lumotlar to'pladi.

Chor Rossiyasi qo'shinlari P.Semyonov izidan Tyan-Shan tog'lari sari kirib keldi. Chunki, uning birinchi sayohati vaqtida hali Issiqko'l atroflari, Tyan-Shanning asosiy qismi Rossiya qo'liga o'tmagan edi. Demak, ruslarga notanish bo'lgan bu joylar haqidagi, ayniqsa qaerda daryo boru, qay erda tog', qay bir go'sha dam olish uchun qulay, qay bir manzil xavfsiz ekanligi – bularning barchasi harbiy yurishlarga bebaho ma'lumot bo'lib xizmat qilardi.

Olim sayohati davomida kimlar bilan qaerda uchrashganligi haqida ham batafsil ma'lumot qoldirgan. Sibir bilan dasht chegarasini kesib o'tishdan avval u general-gubernator Gustav Gasfort bilan suhbatda bo'ladi. G.Gasfort qozoq-qirg'iz yerlarini bosib olish, xalqlarini ruslashtirish va o'lkani keng ko'lamda mustamlaka qilishning ashaddiy tarafdori va ishtirokchilaridan biri edi. Gasfort qozoq yerlariga tutash G'arbiy Sibir gubernatori bo'lsa-da, uning ko'zlari Turkistonga qadalgandi. U mahalliy xalqlarda Islom dinini yo'qotish va uning o'rniga yangi dinni kiritish loyihasini ishlab chiqib imperator diqqatiga havola qilgan. Olimning faoliyatini tadqiq qilgan tadqiqotchi J.Safoev bu haqda qimmatli ma'lumotlar keltirgan.

Gasfort o'zidan oldingi gubernatorlar ko'chmanchi qozoq-qirg'izlarni shomonlikni tark etib, musulmonlikka da'vat etish bilan katta xatoga yo'l qo'yishgan deb hisoblagan. Qozoqlarning islom dinini qabul qilishlari Rossiya manfaatlariga kuchli zarba deb u «payg'ambar» vazifasini bajarishga kirishadi. U yangi ta'limot uchun yahudiy dinini asos qilib oladi. General Gustav Gasfort Islom diniga ashaddiy dushmanligini sira yashirmay o'z mulohazalarini Semenov-Tyan-Shanskiyga ochiq bayon etadi va uning tahsiniga savor bo'ladi.

Keyinchalik, Rossiya imperiyasi Davlat Kengashi a'zosi, senator, imperatorlik geografiya jamiyati vise-prezidenti, ko'plab oliy ordenlar bilan taqdirlanadigan P.Semenov-Tyan-Shanskiy Gasfortning adyutanti, qozoq zodagonlaridan bo'lgan poruchik Cho'qon Valixonovdan unumli foydalanishni ko'zlab u bilan yaqindan tanishadi. Ilg'or fikrli bu yigitni Qashqarga yuborib, u erdagi vaziyatni o'rganishga yuborish fikrini generalga aytadi. Chindan ham tez orada Ch.Valixonov maxsus topshiriq bilan Qashqarga musulmon savdogar sifatida jo'naydi, bebaho axborotlar olib qaytadi. Rus razvedkasi uchun juda zarur ma'lumotlari uchun Cho'qon Valixonov unvoni ko'tariladi, shtabs-rotmistr yulduzlariga sazovor bo'ladi.

Rossiya imperiyasi hukmdor doiralarining o'zbek xonliklariga nisbatan tajovuzkor kayfiyatini o'zida ifoda etgan mashhur olim P.Semenov-Tyan-Shanskiy tadqiqotchilar orasida yagona emas edi¹.

¹ Bu haqida iste'dodli tadqiqotchi jurnalist J.Safoev fikrlari diqqatga sazovor.

O'RTA OSIYO XONLIKLARINING CHOR ROSSIIYASI TOMONIDAN ISTILO ETILISHI

Rossiya davlatining hukmron doiralarida XIX asr ikkinchi yarmiga kelib Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligiga nisbatan istilochilik ruhi avj olib, Aleksandr II (1855–1881) hukumatining tashqi siyosatida jangari generallar mavqei kuchaydi. General-ad'yutant graf D. Milyutinning harbiy vazir lavozimiga, graf N. Ignatevning esa Bosh shtab Osiyo bo'limi rahbarligiga tayinlanishi Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosatida keskin o'zgarishlar bo'lishidan darak berardi. Rossiya matbuotida esa Hindistonddek boy o'lkani mustamlakaga aylantirgan Angliyadan o'rnak olib, Osiyoda faol harakatga chorlovchi maqolalar paydo bo'la boshlaydi.

Imperiya harbiy vazirligida o'zbek xonliklarining iqtisodiy va siyosiy ahvoriga oid josuslik ma'lumotlari yetarlicha to'plangan edi. General unvoniga ko'tarilgan graf N. Ignatevning o'zbek xonliklarining haqiqiy ahvoli va ularni Rossiya nazoratiga olishni qay yo'sinda amalga oshirish haqidagi axborotlari bu ma'lumotlar orasida alohida ajralib turardi.

Graf Ignatev birinchi galdagi vazifa sifatida Qo'qon xonligiga qarshi bevosita harbiy harakatlar boshlashni taklif qilgan. Ana shu taklifga ko'ra, Rossiya 1860 yilda Qo'qon xonligiga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi.

1. E'LON QILINMAGAN URUSH... QO'QON

Qo'qon beklari joylardagi o'zbek, qipchoq, qirg'iz aholisi bilan ittifoq bo'lib, chet el bosqinchilariga qarshi hamjihatlikda harakat qilishga intilmadilar. Ularning beboshligi va zulmi mamlakat barqarorligiga putur yetkazibgina qolmay, dushmanning g'alabasiga imkon yaratib berdi. Ish shu darajaga borib yetdiki, qozoq biylari Rossiyaga o'z hukmdorlari zulmidan xalos qilishni so'rab, murojaat qilishdi. Ular hatto ruslarni Buxoro va Qo'qon xonlari birlashsa, istiloga jiddiy xavf tug'ilishidan ogohlantirishdi. Bu haqida zamondosh muarrixlar shunday yozishgan: «Qo'qon amaldorlarining zulmidan bezor bo'lgan va sabr kosasi to'lib-toshgan qozoq biylari ruslarga borib aytibdilarki, Movarounnahr xonlari, chunonchi, Buxoro va Qo'qon xonlari orasida adovat va xusumat paydo bo'lib,

Buxoro amiri Farg'ona mamlakatini taxti tasarrufiga kiritib olmoq muddao-siga tushgan. Agar Buxoro va Farg'ona bir mamlakat bo'lib qolsa, u holda Buxoro amiri ikki poytaxtni ihota qilib, to Tibat, Qandahor tog'laridan tortib lashkar jam qilgudek bo'lsa, ish og'irlashadur. Bu joyning aholisi arolarida nizo va beittifoqlik paydo bo'lib turgan holda ishni tezlik va osonlik bilan saranjom qiladursiz»¹. Eng dahshatlisi shundaki, Rossiya go'yo keng ommaning ko'z o'ngida bosqinchilik bilan emas, balki taklifga ko'ra kelgan ekan, degan tasavvurni hosil qilardi. Bunday holatni payqagan Qo'qon hukmdori Sulton Sayidxon va lashkarboshi Alimqul yurt barqarorligini ta'minlash uchun ayrim choralarni amalga oshirishga urinishdi. Bu jihatdan xonning qozoq biylariga yo'llagan murojaatnomasi diqqatga sazovordir. Unda xususan bunday deyilgan: «Xudoyi taologa shukrlar bo'lsinki, shariat qonunlari asosida tinch-farovon hayotga erishdik. Endilikda 92 qavm² birlashib bir xalqni tashkil etdi. Shu ravishda bizning sodiq fuqarolarimiz tinchlandi, tarafdorlarimiz uzoq-yaqin joylardan kelishib, bizning xursandchiligimiz va marhamatimizdan bahramand bo'lmoqdalar. Sizlar ham dinimiz va ona-yurt hurmati yuzasidan huzurimizga tashrif buyurishingizni hamda oliy iltifotimizga musharraf bo'lishingizni so'raymiz».

Alimqulning buyrug'iga ko'ra, Nurmuhammad qushbegi Avliyo otaga borib Talas daryosining yuqori oqimida istiqomat qilib turuvchi qirg'izlarning sardorlarini yig'ib ular bilan suhbatlashdi. U tashqi dushmanga qarshi kurashda ularni hamkor bo'lishga undab, Katta va O'rta juz qozoqlarini ham shu ittifoqqa tortish zarurligini uqtirdi. Alimqulning bunday siyosati rus amaldorlarini tashvishga soldi. Ular o'z tasarruflaridagi qirg'iz mulklari sardorlari bilan uchrashib, ularning Qo'qon xonligi tarafiga ko'chib o'tmasliklarini alohida buyurdilar.

Chor Rossiyasining zobitlari o'rtasida o'zining cho'rtkesarligi va o'ta jangariligi bilan dong'i chiqqan polkovnik Mixail Chernyaev 1864 yilda Avliyo ota shahri tomon yurish boshladi. U Sankt-Peterburgda o'qigan va Rossiyaning sharqdagi «madaniyatparvarligiga» ko'r-ko'rona ishongan qozoq zodagoni, ma'rifatparvar olim, shtabs-rotmistr Cho'qon Valixonovni o'ziga maslahatchi qilib olgan edi. Ruslarga astoydil ishongan bu ziyoli ana shu yurishda rus zobitlari va askarlarining nimalarga qodir ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rdi.

¹ *Mullo Olim Mahdumxo'ja*. Turkiston tarixi, 92-bet.

² O'zbek urug'lari.

Avliyo ota himoyachilari dushman bilan mardona olishdilar. Shahar hokimi Niyoz Ali dodxoh shaharni tashlab, Turkiston tarafga qochib ketib qolganiga qaramay, xalq o'z tashabbusi bilan shaharini mudofaa qildi.

Avliyoota aholisining bir jon, bir tan bo'lib bosqinchilarga qarshi ko'rsatgan qarshiligi, hatto bolalar va ayollargacha qo'lda qurol bilan ona tuproq himoyasida shahid bo'lgani qozoq ma'rifatparvari Cho'qon Valixonov qalbini larzaga keltirdi. Chernyaevning shaharning talon-toroj qilinishiga yo'l berib qilgan yovuzligi Cho'qon Valixonovning u bilan nizolashib qolishiga sabab bo'ldi. Shtabsrotmistr Valixonov iste'foga chiqib, rus armiyasi xizmatidan o'zini chetga oldi¹.

Polkovnik Chernyaev esa Avliyootada qo'lga kiritilgan g'alabadan so'ng general-mayor darajasiga ko'tarildi. Turkiston shahriga hujum qilgan polkovnik Veryovkin qo'shinlari ham xunrezlikda chernyaevchilardan qolishmadi. Ular hazrat Ahmad Yassaviy maqbarasini to'pga tutishdan ham tap tortmadilar...

Chimkentda rus askarlarining mag'lubiyati

Avliyoota va Turkiston kabi muqaddas shaharlarning ruslar tarafidan bosib olingani haqidagi xabar butun Qo'qon xonligini emas, balki butun musulmon olamini larzaga soldi. Qo'qon xoni Sulton Sayidxon va lashkarboshi Alimqul bor kuchlarini to'plab harbiy tayyorgarlikni kuchaytirishdi. To'p va miltiqlardan otish bo'yicha har kuni mashqlar o'tkazildi. Xon va uning sardorlari qo'shin bilan birga bo'lib ularni ruhlantirishga harakat qiddilar. Chimkent tomon yurish boshlanganda Sulton Sayidxon va lashkarboshi mulla Alimqul har bir mahalla va masjid oldida to'xtab, xalqdan va din peshvolaridan duo va fотиha olishdi. «Butun xalq qo'llarini duoga ochib, – deb yozgan edi o'sha davr tarixchisi, – mullalar va'zu nasihat qilib, hammani yig'latib g'azot urushiga da'vat etdilar»¹.

Yurt vatanparvarlari bilan chorizm qo'shinlarining Chimkent uchun bo'lgan hal qiluvchi jangi 1864 yil 14 iyul tongida boshlandi. Uch kun davom etgan urush haqida muarrix Muhammad Solih quyidagi ma'lumotlarni bergan. Mingboy qipchoq bahodir boshchiligi-

¹ Ahmad Zaki Validiy yozishicha, Ch.Valixonov (1830–1865) Avliyo otada bir qozoq ayolini rus askarlari nayzalarga sanchib ko'targanlarining guvohi bo'ladi. Shunda u g'azablanib, «Bu mamlakat otamning mamlakatidir, ortiq chiday olmayman» deya harbiy kiyimini yechib tashlagan.

² Q a r a n g: *Muhammad Solih*. Tarixi jadidai Toshkand. O'zFASHI, 11072-raqamli qo'lyozma, 448-bet.

dagi yurt fidoyilari jangni boshlab berishdi. Undan keyin Mirzo Davlat qo'mondonligida toshkentliklar, so'ngra Xo'jand hokimi Mirzo Ahmad qushbегining yigitlari maydonga otilib chikdilar. Birin- ketin Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, O'sh, Namangan yigitlari jangga kirdilar. Kalonxoja sudur, Mo'minxoja sudur, Mirbobo ponsadboshi, Avaz Muhammadbiy kabi lashkarboshilar bilan birga jang maydo- nida ulamolar, fozillar va boshqa nufuzli kishilar vatanparvarlarni ruhlantirib g'alabaga undadilar. Muarrix ana shu voqealar xususida hayajon bilan bunday deb yozadi: «O'rislarni pastqam yerda, chashma yonida mujohidlar to'rt tarafdin qamal qildilar. Bir kecha- kunduz to'plardan va miltiqlardan otishma bo'ldi. Shundan keyin ulamo va fozillar navkarlar, jangchilar va yigitlar orasida yurib, payg'ambar hadislaridan aytishib, jehod va g'azotga chaqirdilar, zafar va muvaffaqiyatlar tiladilar.

Lashkarboshi mulla Alimqul mujohidlarning har birining ko'ng- lini ko'tarib, hammani otdan tushib hujumga o'tishga buyurdi. Shu ravishda karnaylar sadosi ostida to'rt tomondan o'rislarga qarshi hujum qilindi. O'sha onda hozir bo'lgan kishilarning so'zlariga qaraganda, mujohidlar 2–3 ming qadamgacha oldinga siljidilar, ikki tomon o'rtasida taxminan bir yarim ming qadam qolganda o'rislar zambarak va miltiqlardan shunday qattiq o'q yog'dirdilarki, birdaniga 12 ming kishi jang maydonida o'ldirildi va jarohatlantirildi».

Bu jangdan so'ng shtabs-kapitan Meyer o'liklarni hamda yaradorlarni maydondan olib chiqishini bahona qilib, urushni to'xtatish haqida muzokara boshlaydi. Lekin ruslar nimagadir chekinishga qaror qilishadi, shtabs-kapitan Meyer va podpolkovnik Lерx boshchiligidagi qismlar Avliyoota va Turkiston tomon chekinishadi. Mahalliy muarrixlardan Avaz Muhammad Attor Ho'qondiy Chimkent ostonasidagi g'alabani shunday tasvirlaydi: «Vatan himoyachilari bor kuch-qudrati bilan dinimiz dushmanlariga qarshi urushaylik va zarba beraylik, shoyadki, kofirlarga kimligimizni ko'rsatsak, degan qarorga kelishdi... Mulla Alimqul eshik og'asi qo'liga zafar jilovini olib, iqbol ostonasiga qadam qo'ydi, sharafi osmon avjiga yetib, fathu zafarli askarlarga ishorat qildi... Ikki tomondan ham harb nog'orasi va urush nayi chalindi. Musulmonlar tantanasi fazoda aks-sado berardi. Dovul sadosi, yoshu qari faryodi arshdagi malak qulog'ini ham kar qildi. G'azabnok suvoriylar va shiddatkor yigitlar dushman tomon hamla qildilar. Omonlik tovusi oromini yo'qotib, zog'ga o'xshab bir chekkada turardi. Ajal lochini urush maydonida parvoz qilib, ruh qushini sayd etardi. Qatl olovi shunday yonib ketdiki, osmon toqiga yetardi. Urush shu'lasining ta'siri shunday ediki, uning nuri falakni

yoritardi. Dilovar askarlar o'z jonlaridan kechib, shirin hayotni unutib bahordagi chaqmoq qamishzorga urgandek, kurashga tashlandilar. Xususan, ahli islom kofirlarni qattiq jazoladilar, ularni jalo tig'i bilan urib, shijoat o'qini otib, boshlarini tanidan judo qilib tashladilar. Ko'p kushoyishlardan so'ng zafar nasimi Olloh inoyati ila musulmonlar tomoniga esdi, kofirlar boshiga badbaxtlik tuprog'ini hovuchlab sepdi va ularni sharmanda qildi. O'ruslar tez orada omonlik so'rab musulmonlar oldida tiz cho'kib bosh qo'ydilar»¹.

Chimkent ostonasidagi jangda yurt fidoyilari erishgan muvaffaqiyat va ruslarning lashkarboshi Alimqul huzuriga elchi jo'natishgani haqida mahalliy muarrixlarning asarlarida qarama-qarshi ma'lumotlar mavjud. Avaz Muhammad Attor Ho'qondiyning yozishicha, «Ko'p o'rus kofirlar boshyalang, quloklarini qo'lga olib, qo'rqib uzr so'rash uchun mulla Alimqul sardor huzuriga keldilar. Sovg'a-salomlarini tortiq etib, dushmanlik va adovat ruhidagi kalimalarni unutib, o'z maqsadlarini bayon qilishdi. Musulmonlar sulh vasiqasiga imzo chekib, o'rislardan ikki lak miqdorida Rossiya tillasida pul talab qilishdi. Bu esa Xo'qandi latifning 225 ming bir misqolli ashrafiysiga teng edi. Ular Turkiston viloyatini ham qaytarib berishga rozi bo'lishdi». Muhammad Solih Toshkandiyning yozishicha, «o'rislar tomonidan bir elchi jamoasi kelib ahdu paymonlar qilib, Sulton Sayidxon oldida o'z shartlarini izhor qilish maqsadida amiri lashkar mulla Alimqulga sovg'a sifatida to'n keltirdilar va javobga muntazir bo'lib turdilar»².

Lashkarboshilar kengashida toshkentliklar ruslar bilan muzokara yuritishga qarshi chiqdilar va bu fikr ko'pchilik tomonidan quvvatlandi. Amiri lashkar Alimqulning Vatan yo'lida jonini tikkanligi, uning har qarich zaminini muqaddas bilib, dushman qo'lida qoldirmaslik uchun o'tmishni, kelajakni o'ylab, buyuk davlat arbobiga xos, turkiy millat jipsligi manfaatlarini ko'zlash jihatidan ish ko'rganligini bir tarixiy dalil shahodat etadi. Muarrix, o'sha paytda shig'ovullik mansabida turgan mullo Yunusjon munshiy amiri lashkar Alimqulni ko'p bora rus harbiy qo'mondonligi bilan sulh tuzishga, yov taraf ham bosib olingan hududlarni (Turkiston va Chimkentni – muall.) qo'lda saqlab qolish sharti bilan, yarashishga rozi ekanligini bildirib, uni ko'ndirishga intilganligini aytadi.

¹ Avaz Muhammad Attor. Tarixi jahonnamoyi. «Sharq yulduzi», 1991 yil, 8-son, 123-bet.

² Muhammad Solih. Tarixi jadidai Toshkent, O'zFA ShI, 11072-qo'lyozma, 453-bet.

³ Yarashish, sulh.

Amiri lashkar Alimqul bu haqda ko'p o'ylab ko'rgandan keyin, o'z shig'ovuliga shunday deydi: «Bu musoleha³ nihoyat yaxshi va fisandidadur va mundin yaxshi maslahat yo'q, ammo bir nuqtamiz ani qabul qilmoqdin man' qiladur. Bu musolehani qilsak, Turkiston va Farg'ona xalqi «Amiri lashkar va shig'ovul degan ikki mal'un o'z osoyishi va aysh-ishratlarin ko'zlab, bu qadar musulmonlarni O'rusiyag'a tashlab sulh qildilar, agar bular g'ayrat va hamiyat qilsalar hammamiz g'azotga otlanib, bul taraf Urunburx, ul taraf Simfulod (Simferopol) va Shomg'acha olur erduk», deb tirik bormiz o'zimizg'a va o'lg'animizdan so'ngra farzand va nabiralarimizg'a la'nat va ta'na yuborsalar kerak... Endi bizga musoleha vajhidan so'z qilmang, toki savdom qo'zg'olib, safrom g'alaba qilmasun, dedilar»¹.

General Chernyaev, polkovnik Lerx va kapitan Meyer Chimkentdagi mag'lubiyat oqibatlaridan cho'chib, barcha kuchlarni Oqbuloqda jamladilar. Bu jang haqida rus manbalarida ma'lumotlar juda yuzaki. Muhammad Solih Toshkandiy asarida esa bu voqea shunday bayon qilinadi: «Mingboy bahodir birinchi fotihani olib qipchoq qabilasi yigitlari bilan o'ruslar yo'lini to'sib, urushga hozirlandi. Ikkinchi tarafdan toshkentlik jangchilar urush maydonida paydo bo'ldilar. Shu holda Mirzo Ahmadbek qushbegi boshchiligidagi Xo'jand navkarlari urushga kirishdilar. Xo'jandlik, marg'ilonlik, andijonlik va namangonlik sarbozlar amiri lashkar mulla Alimqul qo'mondonligida Jinon qabristonining bir tomonida jang qildilar. Bu yerda qilich va nayzabozlik bilan yoqalashishdi. Shunday qirg'in bo'ldiki, o'liklardan tepalar hosil bo'ldi. Jangda Mingboy qipchoq ot ustida qilich bilan u yoqdan bu yoqqa chopib dushmanlar boshini tanasidan judo qildi. Ammo uning o'zi ham dushman o'qidan halok bo'ldi. Xullas, kun botguncha to'xtovsiz urush bo'lib, o'ruslar oxiri chiday olmay orqaga qaytib, Avliyootaga chekindilar».

Avaz Muhammad Attor Xo'qondiy ham shunga hamohang yozadi: «Safar oyining chorshanba, yigirma ikkinchi kunida bir necha ming kofir o'z «go'rxona»laridan to'satdan chiqib, islom lashkarini pisand qilmasdan, ularga to'pu to'fangdan o'q otib, Chimkent qal'asi tomon yo'lga tushdilar. Kamozi talligacha yetib kelib, shu yerdan shahar qal'asini to'pga tutib, shunday urush qiddilarki, odamning vujudi vahimaga tushib, hayratdan gung va lol bo'ldi. Mulla Alimqul sardor janoblari har bir pahlavon guruhni joyiga tayinlab, Mingboy qushbegini orqasiga joylashtirdi. Mulla Alimqul eshik og'asining o'zi bir necha dushman bilan urushardi...

¹ *Mullo Yunusjon Munshiy*. Amiri lashkar Alimqul tarixi, 49–50-betlar.

Alqissa, ikki tomon ham shu xatarli hamda xavfli joyda matonat va sabot ila bir-birlari bilan qattiq olishdi. Farg'ona qo'shini ertadan kechgacha muharriba qildi... Oxiri zafar shamoli Farg'ona tomon esdi va kofirlar tor-mor bo'lib, qochishni ixtiyor qildilar».

Alimqul erishilgan bu yutuqni mustahkamlab, ruslar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun qo'shinni ko'paytirish harakatiga tushdi. Ana shunday taraddud qizigan kuz oyida Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligiga qarashli yerlarga bostirib kirgani haqida xabar olindi. Bu orqadan urilgan xanjardek xoinona ish edi. Alimqul shunday hal qiluvchi bir vaqtda Buxoro amirining yordam berib, Vatanni himoya qilish o'rniga, Qo'qonga qilgan hujumiga qarshi yurishga majbur bo'ldi. Bir tomondan, bosqinchi chor qo'shinlarining, ikkinchi tomondan, amir Muzaffarning zarbasiga uchragan Alimqul asosiy qo'shini bilan Qo'qon himoyasiga o'tlanishga majbur bo'ldi va inglizlarning Hindistondagi vakolatxonasiga hamda Turkiyaga yordam so'rab murojaat qildi.

Alimqul Xo'jand va O'ratepada amir Muzaffarning qo'shinlari bilan jang qilayotgan bir paytda, Chernyaev 1864 yilning 14 sentyabrida ikkinchi marta Chimkentga yurish boshladi.

Rossiyaning O'rol, Orenburg kazaklari, 3-rota muntazam piyodalari va to'pchilardan iborat guruhi Turkistondan, Chernyaev qo'mondonligida, polkovnik Lerx boshchiligidagi G'arbiy Sibir bataloni, 4-rota o'qchilar, kazaklar, piyoda tog' artilleriyasi vsvodlari va otliq o'qchilar esa Avliyootadan chiqib, Sayram ostonasida birlashdilar. 22 sentyabrdagi jangdan so'ng Chimkent istilo qilinadi. Chimkentning olinishi bilan istilochilarning uzoqni mo'ljallab tuzgan rejasi amalga oshib, Orenburg-Sibir liniyasidagi qo'shinlari birlashtirildi. Qo'shin boshlig'i qilib Chernyaev tayinlandi.

Xullas, Rossiya imperiyasining keng istilochilik faoliyatini davom ettirishi uchun juda qulay sharoit vujudga keldi. 1863 yilda Polsha, Litva, Belorusiya va o'ng qirg'oq Ukrainadagi qo'zg'alonlar bostirilganedi. 1864 yilda esa Kavkazdag'liklarning so'nggitayanchi, hozirgi Checheniston ham chorizm qo'shinlari tarafidan ishg'ol qilinib, uzoq yillar davomida chor Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi kurashga rahbarlik qilgan imom Shomil taslim bo'ldi. Bundan tashqari, imperiyadagi ichki ahvol O'rta Osiyoga qarshi hujumkorlik kayfiyatini kuchaytirdi. 1861-1862 yillardagi Shimoliy Amerikadagi fuqarolar urushi Rossiya sanoati uchun keltirilayotgan paxta oqimini to'xtatib, bu xom ashyoga ehtiyojni kuchaytirdi. 1864 yilda O'rta Osiyo paxtasining narxi Rossiyada 1860 yilga nisbatan besh marta ko'tarilib ketdi. Imperiya tashqi ishlar vazirligi harbiylar bilan birgalikda imperator nomiga tayyorlangan axborotnomada «Rossiyaning

Sharqqa doimiy nazari kuchli bo'lgani»ni eslatib, O'rta Osiyodagi «yarim yovvoyi qabilalar bilan tinchliksevar siyosat o'tkazishning iloji yo'qligi» uqtirildi hamda Qo'qon xonligidagi behisob tabiiy boyliklarga alohida urg'u berildi. Rus sanoatchilarining asl maqsadini matbuot ham oshkora qilib, hukumatni «cho'l qaroqchilari bilan pachakilashib o'tirmaslikka» chaqirdi. Moskvaning «Golos» jurnali ochiqdan-ochiq zo'rlik ishlatish va «yovvoyi kuchlarga kuch va terror bilan javob qaytarish zarurligi»ga undadi. General Katenin esa Toshkentni egallash Rossiyaning «O'rta Osiyo mulklariga ta'sirini benihoya oshirishiga» diqqatni qaratdi.

Bunday sharoit va kayfiyatning vujudga kelishi urushqoq rus generallarining mustaqil harakatiga keng yo'l ochdi.

General Chernyaevning Toshkent va Iqondagi mag'lubiyati

Amalda Qo'qonning chinakam hukmdoriga aylangan lashkarboshi Alimqul ichki siyosat bobidagi parokandalikka chek qo'yolmadi. Natijada, ruslarga qarshi ittifoqni mustahkamlay olmadi. Nufuzli amaldorlar va sarkardalar boshini qovushtirish amalda mumkin bo'lmadi. Ayniqsa obro'li qozoq biylaridan hisoblangan Boyzoqbiyning qatl etilishi xunuk oqibatlariga olib keldi. Qozoqlar sardori Boyzoqbiy Alimquldan hukmni o'zgartirishni iltimos qiladi. Bu haqda muarrix shunday deydi: «Amiri lashkar: «Sen ikki marra axd qilding, yana buzing» deb, jomadorga «Muni zambarakg'a solib otqil!», deb buyursa, bechora Boyzoq chol, qari kishi erkan, yoshi yuzdan o'tgan ekan, aytibdurki, «hoy, Amiri lashkar, meni bulay qilma, ko'zimni ko'r qilib, Ho'qandga jubor, men Rusiyaga daf bo'laman, meni xabarim bolalarim va biylarga yetsa, sanga yov bo'lurlar, Rusiyani senga boshlab kelurlar, har ish qilib, meni o'ldirma» desa, Amiri lashkar quloq solmay, «kafil xat berayin» desa ham qabul qilmay, oxiri yuz paysa doruni zambarakka solib, kichkina odam ekan, yoniga ikki bog' quruq beda tiqib otdurubdur na o'lugi va na suyagi ham ko'runmadi»¹.

Qozoqlarning 120 biy sardorlari otasi Boyzoqbiyning o'limi Alimqulga nisbatan obro'li qozoqlar ommasida kuchli adovat uyg'otdi. Ana shu adovat oqibatida ular chorizm armiyasi saflariga ko'ngilli askar-zobit bo'lib xizmatga kirishgan. Boyzoqbiy o'g'ilu qarindoshlari va yaqinlaridan 400 kishi general Chernyaev qo'shini safida Toshkent yurishida qatnashdilar. Chernyaev 1864 yilning 27 sentyabrida Toshkent tomon yurish qilganida o'ldirilgan Boyzoqbiyning o'g'li Oqmulla yuklar ortilgan tuyalarni boshqarib bor-

¹ *Ibrat*. Farg'ona tarixi. T. «Kamalak», 1991. 307-bet.

gan. Boyzoqbiyning boshqa o'g'illari esa yo'l boshlovchi bo'lib xizmat qilishdi. 1864 yilning 1 oktyabrida Chernyaev Toshkent shahrining sharqiy tomonidagi Darvishak qopqa degan joyga yetib keladi. Chor armiyasi harbiylari bu yerdan Anhor suvidan o'tib, Chinobod va Xoja Ahror vaqf yerlari, ya'ni Oqqo'rg'on orqali shaharga yaqinlashib, Qo'qon yo'liga joylashadilar. Dushman kelayotganidan xabardor bo'lgan shahar aholisi devor ustida jangga tayyor turgan edi. Qo'shfarmonchi qipchoq boshchiligidagi askarlar Qo'qon darvozasi, Mirza Ahmad qushbegi sarbozlari Qashqar darvozasi himoyasiga otlanganlar. To'pchilar esa bu ikki darvoza orasidagi devor ustiga o'rnavdilar. Mudofaaga barcha shahar aholisi o'tlanib «g'ariblar, fuqarolar, qariyalar, hatto ibodatu namozdan ko'ra, qo'limizdan kelgancha xizmat qilish yaxshi va savob, deyishib mujohidlarg va g'oziyarga suv hamda oziq-ovqat yetkazib turdilar»¹.

1864 yilning 2 oktyabrida ertalabdan boshlab har ikki tomon o'rtasida to'plardan o'qlar uzildi. Bu vaqtda Eshonquli dodxoh madrasasi mullavachchalari, xususan, eshon Sharifxo'ja Ofoqxo'ja o'g'li, eshon Hojixon Molihhoji yuzboshi o'g'li Sa'id Ahrorxo'ja Sotiboldixo'ja o'g'li, pichoqchi usta Sodiq Nazar, o'ratepalik Xidirnazar zargarning ukasi va boshqa ziyoli vakillari «g'azotni va bu sharaffi urushni Qur'on, tafsir va hadislardan olingan so'zlar bilan isbotlab, hammani g'azotga va urushga chorladi. Ularning o'zlari ham Qo'qon darvozasiga borib, to'pchilarga qo'shilib o'q joylashda va otishda qatnashdilar»².

Toshkent devori to'plardan o'qqa tutilgandan keyin podpolkovnik Obux 2 rota askari va 4 to'pi bilan hujumga o'tib, devorning bir qismini teshishga erishdi. Shundan keyin rus askarlari podpolkovniklar Obux va Lerx qo'mondonligida shu joydan shaharga bostirib kirish uchun zovurni kechib o'tishga harakat qilganlar. Muhammad Solihning guvohligiga ko'ra, «o'ruslar olg'a chopib zovurga o'zlarini otdilar; ularning ikkinchi guruhi yordamga kelmoqda edi. Shu onda devor ustidagi shertabiat va dovyuraklar o'zlarini pastga tashlab, zovur ichida o'ruslar bilan yoqama-yoqa ushlabib birbirlarini xanjar bilan o'ldira boshladilar. Hatto ba'zi kishilar qochib ketayotgan dushman orqasidan quvib va ushlab, xanjar va qilich bilan jang qildilar. Zovur ichidagi o'ruslardan urush va talash bilan 72 kishining boshi tanasidan kesilib, yarog'-aslahalari o'lja olinib, g'oziyarga bo'lib berildi».

¹ Tarixi jadidai Toshkand, 459-bet.

² O'sha asar, 462-bet.

Ana shu voqea haqida rus zobitlaridan K.K.Abaza o'zining «Turkiston istilosi» kitobida shunday deb yozgan: «Shahar devoriga 2 rota va 4 zambarakdan iborat harbiy qism podpolkovnik Obux qo'mondonligida hujum qildi. Ko'p o'tmay ular devorni teshishga erishdilar. Shundan keyin Obux podpolkovnik Lerx bilan hal qiluvchi hujumni boshlab yubordi. Ammo qo'qonliklar shu darajada qattiq o'qqa tutdilar, soldat devorga yetguncha barcha boshliqlaridan ayrildilar. Obux esa, o'lar holatda jarohatlandi. Chernyaev yordamga kelgan bo'lsa-da, lekin vaqt o'tgan edi, yo'lda o'liklar yotardi, yaradorlar jon bermoqda edi. Tiriklar esa, zovurda qalashib madorsiz yotishardi. 80 ga yaqin kishi o'z boshliqlarining «jasorati» uchun halok bo'ldilar. Chernyaev askarlari ashulasiz va xursandchiliksiz g'am-g'ussa bilan Chimkentga qaytdilar. Ammo ularning har biri qo'qonliklar g'alabadan quvonayotganliklarini yaxshi tushunardilar»¹.

Muarrix Avaz Muhammad Attor Xo'qondiy Qo'qon xoni Sulton Saidxonni «janobi sohibqiron» deya ulug'lab, bu g'alaba haqida shunday yozgan: «Kofirlar o'z joylariga qaytib ketdilar. Toshkentliklar bu fathu zafarni eshitib, janobi sohibqironga behisob lashkar bilan bir necha kofirning boshini hadya va sovg'a sifatida jo'natdilar. 19-jumadul avval, chahorshanba kunida² bu bashoratli xabar ul xosiyatsiz boshlar bilan birga Ho'qandi latifga keldi. Kabiru sag'ir, fuqarolar bir necha kun xursandchilik qildilar»³.

So'ngra ular Toshkentda g'oliblarni qanday qutlashgani haqida Muhammad Solih qori ham yozgan: «Sulton Saidxon va mulla Alimqul amiri lashkar ko'p askarlar bilan Chirchiqdan o'tganda shahar ahli, akobirlari, ulamolari, fozillari, sardorlar va shayxlar ularning qarshisiga chiqib ziyorat etib, yig'i-sig'i bilan ko'rishib va duoga qo'l ko'tarib, ularni shahardagi hukumat saroyiga olib keldilar. Ularga mujohidlar, g'oziylar va shahar aholisi qatnashuvida ziyofat berildi».

1864 yilning noyabr oyida Toshkentda Sulton Saidxondan fотиha olingandan keyin Alimqul sarbozlar va g'oziylar bilan Shayxontahurning katta ko'chasi bo'ylab Sag'bon ko'chasi va Sag'bon darvozasi orqali Sariog'och yo'liga chiqadi. Ular bu yergacha «har bir mahallada va masjidlar oldida to'xtab jamoa ahlidan duo va fотиha olib» keldilar.

¹ *Abaza K.K. Завоевание Туркестана. СПб, 1902, стр. 85.*

² 1864 yil 21 oktyabr.

³ Tarixi jahonnamoyi, 124-bet.

Qo'shinda Alimquldan tashqari mirza Davlat qushbegi, Qo'sh-farmonchi qipchoq, Yusufboy dodxoh, O'tambiy qushbegi qipchoq o'g'li va boshqa nufuzli kishilar bor edi. Avaz Muhammad Attor Xo'qondiy ularning navbatdagi yurishini shunday tasvirlagan: «Shunday qilib, qish ham kirdi. Kundan-kunga havo sovub, qoru yomg'ir yog'ib, yer yaxlab, qorning balandligi otu tuya ko'kragiga tegadigan bo'ldi. «Tuf», desangiz muzlaydigan havoda sohibqironning g'ayrati toshib, lashkar safidan 12 ming yosh yigitni tanlab, ularga mulla Alimqulini sardor qildi va Turkistondagi kofirlarga qarshi jangga borishlarini buyurdi. Shu vaqt havoning sovuqligidan his va harakat ruhi badandan soqit bo'lib, nafas tanadan xuddi po'st tashlaydigan ilonga o'xshab zo'rg'a chiqardi. Ayniqsa Toshkentdan chiqib Qayrog'och mavzesiga yetib kelgan kun tunda shunday shamol ko'tarildiki, Od qavmini yo'q qiladigan to'fonga o'xshardi. Musulmonlarning bir necha nafarining oyoq-qo'lini sovuq urdi, ba'zilarining yuzlari, ko'zlari muzladi, ba'zi kishilar esa aqldan ozib, safdan chiqdilar. Bir g'aroyib ahvol yuz berdi. Lashkar tez sur'atlar bilan harakat qilib Chulak mavzeiga keldi. Odamlar manzil qilgan shu joyda kofirlar ham kichik qo'rg'on bino etib, bir dasta sarbozlarni himoya uchun qoldirgan ekanlar. Shu qavmdan qariyb 50 kishini o'ldirib, xotiralarini toza va musaffo qilib Iqon qal'asi oldida qo'sh urdilar»¹.

Mag'lubiyatga uchratilgan dushman harbiy qismi yasovul (mayor) Serov boshchiligida Iqon qishlog'iga to'rt chaqirim qolgan joyda Alimqul qo'mondonligidagi lashkar tomonidan qurshab olingan edi. Yasovul Serovga yordam berish uchun Turkiston shahridan yetib kelgan ruslarning madad kuchi ham tor-mor qilindi. Muhammad Solihning yozishicha, yurt fidoyilari «Toshkent akobirlarining maslahatiga ko'ra, xashak, qamish va tikanni namatga o'rab va dehqonlarning «qora bo'yra»sini yasab orqasidan otliqlar hujumga o'tdilar. Natijada dushman askarlari yarog'-aslahalarini va boshqa narsalarini tashlab hamda ko'p kishisini yo'qotib Turkistonga qochishga ulgurdi»².

Iqon jangiga oid axborot Avaz Muhammad Attor Xo'qond asarida ham uchraydi: «Namozni asr va shom vaqti orasida ketma-ket shunday xabar keldikim, bir necha yuz o'rus kofirlari dabdaba bilan yaqinlashib kelmoqda edilar. Bu xabarni eshitib sohibqironning g'aflat uyqusi boshidan uchdi. Mardlik g'ayrati uning hamma payu

¹ Tarixi jahonnamoyi, 125-bet.

² Tarixi jadidai Toshkand, 477-bet.

suyaklarida harakatga kelib, ahli lashkarini qurollantirib, kofirlar yo'lini to'sish uchun jo'nadi. Sarbozlar dushman yo'lini hamma tomonlama bosib oldilar. Qoru muz otlarning ko'kragiga tegar, havo sovuqligi esa ifrot qaddiga yetardi. Shu kechani sarbozlar ot ustida o'tkazdilar, ularning ko'pchiligini sovuq urdi. Kofirlar esa o'zlari kavlagan xandaqlarga kirib, yuz ming ranju azob ila kechani kunduz qiddilar... Islom lashkarining g'oziyarlari to'rt tomondagi kofirlarga qarata o'q yomg'irini yog'dirdilar. Yosh pahlavon yigitlar otlariga minib, har tarafga chopib ketdilar, kofirlar esa vahimaga tushib, ularni o'zlariga yo'latmasdilar. Shunday qilib, kechgacha jang qilsalar-da, hech bir natijaga erisha olmadilar. Kofirlar tog'dek mustahkam edilar. Aqlli odamlar o'z rasmu oyinlariga qarab, maslahat qilib, hiyla yo'lini tutdilar. Ular bir kecha-kunduzdan keyin har xil narsalar – namat, daraxt shoxlari, qoru muzdan «qorabo'yra» yasab uni oldilariga qo'yib yumalatib, kofirlar mavzeiga yaqinlashdilar. Ularning orqasidan panalab kelgan navkarlar to'satdan dushmanga hujum qilib, kofirlarni parishon holda nobud etdilar. Battollardan o'ttiz-qirq kishi ot va tuyalarni minib, Turkiston sari qochishga tushdi. Mard sarbozlar bundan xabardor bo'lib, ularga yetib olib, aqlsiz kofirlarni miltiq bilan otib o'ldirishdi. Ming xil hiyla va nayrang bilan shu qavmdan 3-4 nafari qutulib, Turkiston qal'asiga yetib bordilar»¹.

Iqon jangida rus askarlari va zobitlaridan 57 nafari o'ldirilib, 43 nafari jarohatlangan edi.

Toshkent va Iqondagi bosqinchilarning mag'lubiyati mamlakat vatanparvarlarini ruhlantirib, kelgusi sinovlarga ma'naviy birdamlik bag'ishladi.

Toshkent mudofaasidagi jasorat va hiyonat

1865 yilning bahorida general Chernyaev Niyozbek qal'asini bosib oldi. Toshkentga dushmanning ikkinchi hujumi boshlandi. Chernyaev yurt xoinlaridan biri Abdurahmonbek Shodmon o'g'lining maslahati bilan Bo'zsuv to'g'onini buzib, uni Chirchiq soyiga burib yubordi. Abdurahmonbek aslida Toshkent shahrining Chuvalachi mahallasidan bo'lib, Chernyaevga muhim ma'lumotlarni yetkazib turgan ko'ngilli ravishda Rossiya xizmatiga o'tgan kishi edi. Dushmanga sotilgan xoinlardan yana biri shaharning eng katta boylaridan Muhammad Soatboy bo'lib, u Petropavlovsk, Troisk va Rossiyaning boshqa shaharlaridagi savdo-sotiq doiralari bilan yaqin aloqada bo'lgan. U Rossiyaga xayrixoh savdo ahlining sardori

¹ Tarixi jahonnamoyi, 125-bet.

sifatida Toshkentdagi iqtisodiy, siyosiy va harbiy vaziyat haqida general Chernyaevga muntazam ravishda ma'lumotlar yetkazib turgan. Keyinchalik Rossiya imperiyasi faxriy fuqarosi va «Avliyo Anna» oltin nishoni sohibi bo'lgan Sayidazim Muhammad o'g'li ham vatanfurush sotqinlar orasida alohida ajralib turadi.

Muarrix Muhammad Solihning so'zi bilan aytganda, ular o'z maslagi va vatanidan yuz o'g'irgan kishilar edilar.

Yurt fidoyilari bu vaqtda Toshkent mudofaasi uchun zarur bo'lgan barcha choralarni ko'rishgan. Ular

Oqmachit mahallasida istiqomat qiluvchi Eshon Boboxo'ja Aminni Rossiya bosqini haqidagi xabarni etkazish uchun Qo'qonga yuboradilar.

Voqealarning bevosita qatnashchisi va jonli guvohi bo'lgan Muhammad Solihning yozishicha, Mingo'rikda Toshkent ahli ishtirokida Sulton Sayidxon, Alimqul va sarbozlar sharafiga ziyofat beriladi. Ana shu anjumanda lashkarboshi Alimqul nutq so'zlab, Toshkent ahliga dushmanga qarshi ko'rsatgan jasorati va qahramonliklari uchun minnatdorchilik bildiradi. Dongdor sarkarda dushman bilan ularni «bir tomchi qoni qolguncha» kurashishga da'vat qiladi. Muhammad Solihning yana yozishicha, Alimqul Buxoro amirining xudbinlik bilan olib borayotgan siyosatini qoralab, qahrli ohangda amirga qarata tahdid ila otashin ma'ruza qiladi. Muhammad Solih shahar mudofaachisi hamda muarrix sifatida lashkarboshi Alimqulning Toshkent mudofaasi uchun ko'rgan chora-tadbirlari xususida zo'r ko'tarinkilik bilan qalam tebratadi. Toshkentga kelgan sarbozlar va g'oziyalar orasida qo'qonliklar, andijonliklar, namanganliklar, o'ratepaliklar va boshqa yurt fidoyilari ham bor edi.

O'sha jang arafasida bomdod namozi ado etilgandan keyin odamlar ruhlanib, dushman bilan olishuvga shay turishdi. Jangchilarga oddiy fuqarolar, mullavachchalar va boshqa g'oziyalar ham qo'shilib, Afrosiyob tepaligida marra egallashdi. Lashkarboshi Alimqulning o'ng qo'l sardori, tajribali sarkarda Sulton Sodiq Kenesarin boshchiligidagi sarbozlar dushman tarafga razvedkaga borishdi. Bu vaqtda dushman askarlari Sho'rtepadan chiqib Oltintepaga o'rnasha boshlagani ma'lum bo'ldi.

Bosh qo'mondon Alimqul dushmanga qarshi birinchi navbatda qora kiyimli sarbozlarni, keyin nimcha kiyganlarni va orqasidan jiba kiygan 2000 navkarni, 2000 kulohpo'shlarni, so'ngra miltiq bilan qurollangan otliqlarni yubordi. Ularning ketidan yana otliqlardan va ko'ngilli fidoyilardan iborat kuchlar boradi. Amiri lashkar Alimqulning o'zi o'tlanib sarbozlar va g'oziyalar orqasidan tezlik bilan Afrosiyobtepagaga chiqadi. Vaziyatni chamalab, shaharning Qo'qon

darvozasiga zambaraklarni shunday tartib bilan o'rnashtiradiki, har bir jangovor saf boshidan oxiriga qaraganda xuddi bir odam turgandek ko'rinardi. Saflar orasida 36 zambarak o'rnashtirildi. Ko'p o'tmay dushman to'plari gumbirlab o't ochadi.

Muhammad Solihning yozishicha, «o'ris askarlariga qarshi to'p va miltiqlardan o'qlar otildi. Shundan keyin jang maydoni to'p va miltiqlar tutunidan kishi bir-birini ko'ra olmaydigan darajaga yetdi». Bu vaqtda, Alimqul har bir jangchi oldiga borib, xususan bahodirlarga, sardorlarga va sarbozlarga shirin so'zlar bilan murojaat etib, din va vatan uchun jangga ruhlantirib turdi. Otliqlar uch tarafdin hujum qilib, dushman safini to'zitdi. Olchoq va Oltintepa mavzolari orqali Sho'rtepagacha ruslarni ta'qib qildilar. Chekingan rus qo'shini tepalikka chiqib jon sakdadi. Dastlabki to'qnashuv shu tariqa yurt mudofaachilari foydasiga hal bo'ldi. Ruslar ustidan qozonilgan bu dastlabki g'alaba dovrug'i xonlikning barcha joylariga tarqalib, mamlakat mudofaachilari ruhini ko'tardi. Qo'qon xoni bilan Alimqul hali dushman kuchlari butkul mag'lub bo'lmaganini yaxshi anglagan holda, kelgusi jang rejalarini muhokama qilish uchun harbiy kengash chaqirishdi. Kengashda Toshkent vakillari katta jasorat va g'ayrat bilan g'alabaga erishilganligini eslatishib, Sulton Sodiq va uning inisi Arslon Kenesari o'g'illari boshchiligida navkarlar va g'oziyalar bilan Turkiston, Oqmachit, To'qmoq va boshqa dushman egallagan joylarni ozod qilish uchun borish zarurligini aytishadi. Ammo kengashda xudbinlik holati ham ko'zga tashlanadi. Qo'qonlik Otabek sharbatdor qozoq sardorlari kuchayib ketishidan xavfsirab, Alimqulga shunday deydi: «Agar ularning bu rejalari ro'yobga chiqib qolsa, u vaqtda birisi xon, birisi vazirlikni xohlab, bizdan yuz o'girishi turgan gap»¹. Kengashda ana shu fikr ustunlik qilib, dastlab ichki nizolarni tugatish, so'ng ruslarga qarshi urushni davom ettirish lozimligiga kelishiladi. Harbiy kengashning dastlabki yutuqni mustahkamlab, jangni davom ettirish o'rniga, dushmanga nafas rostlashga imkon beruvchi bunday xatoning yuzaga kelishi xunuk oqibatlariga olib keldi.

Sho'rtepada turgan rus askarlari bilan to'qnashuv kengash xatosini ro'y-rost isbotladi. Sho'rtepa qal'asining narigi tomonida uch bo'linmadan iborat rus askarlari bilan jang nihoyat dahshatli bo'ldi. Qo'lga qurol olib jang qilgan Muhammad Solihning yozishicha, «To'plar va miltiqlar og'zidan dumaloq o't-olov chiqib, havoga parvoz etib, dushman ustiga yog'ar edi. Jasur va fidoyi sarbozlar va mujohidlar urush maydonida dushmanni yoqasidan tutib va mushtlab, qo'llaridagi tig', qilich va nayzalar bilan jang qildilar. Maydon-

¹ Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 157-bet.

da o'lgan va jarohatlanganlarning oh-vohlari va faryodlari har tomondan eshilib turardi»¹. Bosh qo'mondon Alimqul shaxsiy ibrat ko'rsatish uchun o'zini jang maydoniga otdi. Alimqulga duch kelgan har bir dushman chavandozi omon qolmagan. Jang avjiga chiqqan paytda bir o'q Alimqulning kindigi pastidan tegib, u qattiq jarohatlanadi. Guvohning yozishicha, Alimqul ot ustidan yiqilayotganda otning bo'ynidan mahkam tutib, o'zini yana ot ustiga oldi va shu holda to'pxona oldiga borib, farmon berdi: «Toshkent fuqarolari asta-sekin orqaga qaytib, o'zlarini shahar ichiga olsinlar, boshqa sarbozlar va mujohidlar esa urushni davom ettirsinlar».

Yana bir muarrix mulla Olim Mahmudhojaning hikoyasiga qo'ra, qipchoq va qirg'izlarning ba'zi boshliqlari nihoyatda xavf-xatarli va taqdirni hal etuvchi damlarda ochiqdan-ochiq jang qilishdan bosh tortgan: «Toshkentdan taxminan o'n ikki chaqirimlik Olchoq mavzeiga yaqinlashganda mulla Alimqul ko'ribdurlarkim, Rusiya qo'shini bir joyga jam bo'lib turubdur. Alarning muqobiliga mulla Alimqul otliq merganlarni piyoda qilib, to'pchi sarbozlarni yoniga qo'yib, to'plarni ro'baro' aylab, ikki taraf otishma boshlabdir. Har ikki tarafning to'p-tufang otishidan va changu g'ubordan urush ma'rakasi qorong'u bo'lib, bir-birlarini ko'rmaydug'on darajaga yetub, bu urushda Mulla Alimqul o'zi qo'shinga bosh bo'lib, goh bul taraf, goh ul tarafdagi askarlarning tepasiga borib, ko'ngil so'rab turgan. Aksar qipchoq-qirg'iziya sarkardalari qo'shinlar bilan urushga aralashmay mulla Alimqulga ko'rinish aylab, tepa ustidan urushni nazorat qilib turubdurlar. Mulla Alimqul Yunusjon shig'ovulni yuborib aytibdurlarkim: «Bu qanday ahvol... xusumat va adovatning vaqti emas, urush tamom bo'lgandan keyin har nima ko'ngillaringizda bo'lsa muddoan tab' joyiga yetkazurman. Hammamiz ittifoqlashib obro' olayluk, bo'lmasa mulku mamlakat, davlat qo'ldan ketadur. Bu so'zlarni Yunusjon shig'ovul yetkurgon holda alarning ichidan Po'lod qirg'iz nom dag'al odam qattiq va nodurust javob berib, Yunusjonni qaytardi. Shul urush asnosida mulla Alimqul suvora har qaysi qo'shin dastasida goh to'pchilar, goh piyoda mergan va otlug' askarlar oldiga borib, har qaysilariga o'zi amr berib turgan holda, biqinidan o'q tegib otdin yiqildi. Darhol uni ot o'za olib, qo'shinning nazariga sog' odamdek ko'rsatib, qo'shinga darhol to'p va to'pxonalar ilan askar Toshkent rafiga qaytsin, deb amr berildi».

Alimqulning yarador bo'lib, safdan chiqishi mudofaachilarga qattiq ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramay ular o'z kuch va irodalariga

¹ Tarixi jadidai Toshkand, 510-bet.

tayangan holda zambaraqdan dushmanga qarshi o't ochib, so'ng karnay sadolari ostida hujumga o'tishdi. Dushman bilan yuzmayuz jang qilgan fidoyilar tartib bilan Salor arig'i tomon chekinishdi. Ammo mudofaachilarning ayrim guruhlari birin-ketin jang maydonini tark eta boshladilar. Qipchoq-qirg'iz va andijonliklar qo'lga tushgan o'ljalarni olib Farg'ona tomonga qarab yo'l oldilar.

Mulohaza uchun dalolat

Jangchi muarrix

Muarrix Muhammad Solih quroldoshlari bilan daladagi ikki to'pni shahar ichiga joylashtirishga yordam berayotganda beliga oltin kamar bog'lagan, kumush g'ilofda qilich va oltin soplil oyboltasi bor sardorlardan biriga ko'zi tushadi. Muhammad Solih uni shahardan qochayotgani uchun xoinlikda ayblab, temir tayoq bilan yelkasiga tushiradi. Ruslarning to'pdan otgan snaryadlaridan biri to'pchilarni o'ldiradi, ba'zilarini esa jarohatlantiradi. Natijada to'p otuvchi kishi qolmaganidan Muhammad Solih hamrohlari bilan o'qni to'pga joylaydi. Shunda bir yosh yigit kelib, ismi Toshmuhammad ekanligini va Oqqo'rg'ondanligini ma'lum qilib, to'p otishga kirishadi. Bu yigitning otgan o'qlari xato ketmasdan mo'ljalga tegishi orqasida dushman zambaraklarining ovozi o'chadi. Bundan xursand bo'lgan Muhammad Solih unga shunday deydi: «Ey, jon o'g'lim, xizmatning sharofatidan musulmonlar katta foyda ko'rdilar. Qal'a kungirasidan qaraylikchi, o'qlar bekorga ketmaganmikan. Tezdan qarasak, ruslar Niyozbekni katta yo'li bo'ylab to'plarini pastlik yerga qo'yib, so'ngra asta-sekin Sho'rtepa tomonga yurdilar. Bularni ko'rib tarixchi Toshkandiy «Oxirating obod bo'lsin, zotu zurriyotingga rahmat!», – deb Toshmuhammadni duo qildi».

Muhammad Solih hamrohi Eshonxon hoji bilan masjidan chiqqanda, Chust hokimi Muhammad Ayyub ming kishilik otliq askari bilan shahardan ketayotganini ko'rdi. Ularga «qayoqqa ketayotirsizlar», deb savol berilganda, «ruslar Ko'kcha darvozasi tomon kelmoqchi, amiri lashkar mulla Alimqul o'sha yoqqa borishni buyurdilar», deb javob beradi. Shu paytda bir kishi Amiri lashkar o'ldilar, ular qochib ketayotir, degan. Chust hokimiga «Hukumat bergan tuzini» inobatga olib, dushmanga qarshi urushni davom ettirish lozimligini aytganda, hokim: «Bu mullavachcha nimalarni gapirayapti», – deb qilichi bilan uning boshiga tushirmoqchi bo'lgan. Muhammad Solih esa chaqqonlik bilan miltig'ining qo'ndog'i bilan hokim otining tumshug'iga va orqa tomoniga urganda gandraklab, orqaga ketayotgan otlarga borib urilgan.

Muhammad Solih yana bir voqeaning guvohi bo'lgan. U ko'chada ketayotganda choponi ichida qilichi bor ikki kishining yuk ortilgan ikki otni yetaklab ketayotganliklarini ko'radi. «Bizlar savdogarlarmiz, hukumat saroyiga borayotirmiz», – deyishadi ular. Ammo Muhammad Solihning shogirdlaridan biri u otliqlar Qo'qondan qori Shamsiddin tomonidan mulla Alimqulga urush xarajatlari uchun yuborilgan mablag'larni olib ketayotgan Hakimxo'ja va Yoqubboyvachcha nomli kishilar ekanligini ma'lum qiladi. Yuklar davlat xazinasiga tegishli mablag' ekanligini anglagan Muhammad Solih xazinani Musa Muhammadbiy degan kishining uyiga tushirtirgan va o'g'irlanishdan saqlab qolgan. Shundan keyin Muhammad Solih bu haqda ma'lumot berish uchun Sulton Sayidxon huzuriga boradi. U hamrohi Eshonxo'ja bilan Balx arig'i ko'prigidan o'tganda podshohlik anjomlarini va har xil narsalarning tepasida turgan To'raqul degan shaxsga duch kelgan. U kishi xazinaga tegishli nafis va qimmatli buyumlarni shahar ichiga oldirishda yordam berishni Muhammad Solihdan iltimos qilgan. Bu so'rov sarbozlar yordami bilan amalga oshirilgan. Keyin ma'lum bo'lishicha, xazina mollari qaergadir olib ketishga tayyorlab qo'yilgan ekan. Muhammad Solih Sulton Sayidxonning darvozaning shimolidagi Davlatboy degan kishining o'rikzorida turganini aniqlaydi. Muhammad Solih Sulton Sayidxonning: «Qaerdan kelayotirsizlar», – degan savoliga shunday javob beradi: «Mujohidlar va g'oziyalar jamoasiga Qo'qon darvozasini berkitdirib, parishonhol va har tomonga qochayotgan kishilarni o'z joylariga qaytarib va yaxshi so'zlar bilan ko'ngillarini ko'tarib, yuraklaridagi har turli vahima va xavfni chiqarib podshohlikka tegishli turli mollarni va mablag'larni talon-toroj etishdan xoli etib, ma'lumot berish uchun huzuringizga keldik». Shuningdek, u so'zining oxirida Toshkent shahrining «qurshovdagi qo'l-oyoqsiz va tashnalikda qolgan xalqini ozod etishning oxiri baxayr bo'lishligini», «yaxshi nom qoldirish va buni avlodlar qalbida abadul-abad saqlashini ta'kidlab o'tadi».

Muhammad Solihning chin yurakdan aytgan so'zlari Otabek sharbatdorning g'azabini qo'zg'atdi. U o'zini tutaolmay, navkarlarga Muhammad Solihni otib tashlashni buyurdi, Ammo, Muhammad Solih ko'chani o'rtasiga tushib ulardan oldin miltiqlari bilan ularning peshonasini nishonga oladi. Bu holni ko'rib turgan viloyat kattalaridan biri eshon Mansurxoja: «Otabek, hozir shunday vaqtki, fitna-fasodni va xalqning parishonligini daf etib va orqaga qaytib, mamlakatdorlik ishlari bilan mashg'ul bo'lish darkor. Ayni bir vaqtda podshohlik asbobu anjomlarini bir yerga to'plash lozimdir», – deya

uni vazminlikka chaqirdi. Shundan keyin yo'lga chiqishga o'tlanib turgan Sulton Sayidxon «darhol otining jilovini orqaga burib va qaytib» Muhammad Solihning oldiga kelib, o'zining Toshkentdan ketmasligini aytadi. Muhammad Solih shu tariqa o'zi shaxsan Toshkent mudofaasiga munosib hissasini qo'shadi.

Toshkent xoni

Sulton Sayidxondan yuz o'girib qochib ketgan qipchoqlar, qirg'izlar va ayrim qo'qonlik sardorlar Qo'qonga chekinib, taxtga yangi xonni o'tqazish harakatiga tushib qolgan bir paytda Toshkent xalqi Sulton Sayidxonga sodiq qolib, uni qayta xonlik taxtiga o'tqazishadi. Muarrixning yozishicha, mamlakat a'yonlari, ashroflar va mutasaddiylar, xususan, Sodiqlik to'ra va uning inisi Arslon to'ra, mulla Solih dodxoh, Bobojon ponsadboshi, mulla Sodiqlik va Otaqul mahram yasovul va boshqa sardorlar hozir bo'lishib ta'zim ila salom berishib, yuzlarini podsholarining mazallati tuprog'iga surtib, amal darajalari maqomiga yarasha o'tirishib, yakdillik bilan Sulton Sayidxonni to'rt burchakli oq kigizning ustiga o'tqazib, yuzini qibla tomonga qaratib qo'yidilar. To'rt jamoa va qabila boshliqlari kigizni bir burchagidan, ulamo va fozillar ikkinchi burchagidan, Sodiqlik to'ra va Arslon to'ra va boshqa elat boshliqlari uchinchi burchagidan, Qo'qon sardorlari to'rtinchi burchagidan, Toshkent a'yonlari, ashroflari va sarkardalari, jumladan, Sher Alibliy, hammalari birdaniga takbir aytib, salovot o'qib, yig'lashib uni podshohlikka ko'tarishdi hamda podshohlik to'jini uning boshiga kiygizishdi. Shu onda ular «Muborak bo'lsin!» deyishib, uni tabriklashdilar. Sulton Sayidxon sharafiga ziyofat berildi.

Sulton Sayidxon Muhammad Solihning xizmatlarini taqdirlab, unga shoyi to'n kiygizib shunday degan: «Eshoni domulla! Endi davlatga sherik bo'ldingiz, xabar olib tursunlar». Shu ravishda Toshkent o'z xoniga ega bo'lib, Qo'qondan mustaqilligini namoyish etadi. Ana shu voqea arafasida Muhammad Solihning amakivachchasi eshon Yusufxo'ja Inog'omxo'ja chitfurushning o'g'li xonadonidan mulla Alimqulning jasadi olib chiqilib, Shayxondtaxur qabristoniga qo'yilgan. Mulla Alimqulning jon berishi va dafn etilishini Avaz Muhammad Attor Ho'qondiy shunday bayon etgan: «Qirg'iz va qipchoqlar vafosizlik qilib, Ho'qandi latifga ketgan kunlarida sartiya aholisi zamon xoniga vafodorlik ko'rsatib, amiri lashkar bilan qoldilar. Qipchoq va qirg'izlar xiyonati amiri lashkarga ham ma'lum bo'ldi. Bundan dard chekib, Alimqulning kasalligi yana og'irlashdi va peshindan keyin uning ruh qushchasi tananing tor

qafasidan xalos bo'lib, jannat olamining fazosiga uchib ketdi. Jonni jon ato qilganga berib, shahodat darajasiga yetdi. Amir lashkarning farzandlari, xotinalari va tobelari bu ahvolni mushohada qilib majruh qalblari yana mahzun bo'ldi. Sabru qaror jabrini qo'ldan berib, g'am va qayg'u tariqasiga o'tdilar. Arkoni davlat, a'yoni shavkat sartiya mamlakatining akobiru ashroflari, Toshkentning kattayukichigi hamma qayg'uga tushib yig'ladilar. Ko'zlaridagi yoshlar durga o'xshab oqardi. Alqissa, ul jamoatning nolayu faryodi foyda qilmadi va bu dardi bedavoga iloj ham topilmadi. Nihoyat, Fohira dunyoning oriyat libosini amiri lashkar tanidan yechib, oxirat libosini kiyintirdilar. Arkoni davlat va a'yoni mamlakat mulla Alimqulning jasadini qaysi makonga qo'yaylik, deb mashvarat qilib bir qarorga kelolmadilar. Shu mahal amiri lashkarning bir necha ishonchli kishisi o'zaro maslahat qilib, ittifoqlikda jasadni fozillar quyoshi hazrat Shayxovandtahir mozorida dafn qildilar¹.

Sulton Sayidxon Rossiya tajovuziga qarshi kurashda yordam so'rab Turkiya sultoniga, Buxoro amiriga va Qo'qonga elchilar jo'natdi. Qo'qonga yuborilgan elchilar jang maydonidan qochib borayotgan Qo'shparvonachi qipchoq va Mirzo Ahmad qushbegi boshchiligidagi navkarlarni Pskent va Quramada uchratib, yordam berish to'g'risidagi xatni topshirishdi. Ammo ular orqaga qaytishga ko'nmay, Sulton Sayid va mufsid Otabek sharbatdor nomlariga xat yozib, qanday bo'lmasin Sulton Sayidni Qo'qonga olib ketishni, aks holda taxt begonalariga o'tib ketishini ma'lum qildilar. Ular Sirdaryo qirg'og'idagi Saroy degan joyda Shodibekning o'spirin o'g'li Xudoyqulni taxtga o'tqazish bilan xususiy manfaatlarini qondirmoqchi bo'ldilar. Ko'p o'tmay ushbu 12 yoshli yigitcha Saroyga olib kelindi, so'ng Qo'qonga yo'l olishdi. Bu yerda qipchoq va qirg'izlar hokimiyatni egallab, Xudoyqulni taxtga o'tqazdilar. Keyin esa xalqqa zulm qilib, yana soliqlar solishdi. «Kofirlarga qarshi g'azovot» uchun deb fuqarodan yuz ming tilla pulni yig'ib olishdi.

Muhammad Solihning yozishicha, Buxoroga sebzorlik eshon Hakimxo'ja qozikalon boshchiligida har dahadan to'rt oqsoqol yuboriladi. Buxoro amiri o'z maktubida Sulton Sayidxonning unga bo'ysunishi va shundan keyingina Toshkentga yordam berish mumkinligini yozadi. Amirning maktubi shaharning nufuzli kishilari tomonidan muhokama etiladi. «Tarixi jadidai Toshkand» asari muallifi Muhammad Solih bu kengashda, Buxoro amirining taklifini Qo'qonning oliy lavozimdagi amaldorlari, xususan, Otabek sharbatdor quvvatlab, Sulton Sayidxonni Buxoro amiri huzuriga

¹ Tarixi jahznamoyi, 126–127-betlar.

yuborish haqidagi amirning talabini quvvatlaganini, uning o'zi mazkur kengashda qatnashganini va xonga savol berganini eslaydi:

«Shahzoda, siz kimning farzandisiz?»

Javob berdilar: «Shahid Mallaxonning arzanda va aziz o'g'liman».

Men dedim: «Otasiga ham, o'g'liga ham rahmat. Birisi adolat nog'orasini chaldi, ikkinchisi esa, g'azot va jihod yo'lida xizmat ko'rsatib va yaxshi nom chiqarib, o'zga hukmdorlarni hayratga soldi. Shahzoda bamisoli xonlik xazinasidagi javhardir, uni bekordan-bekorga qo'ldan boy bermaslik lozim. Bu zotni etagidan tutish burchimizdir. Hali qo'lga kirmagan nasiyaga ishonib qo'ldagi naqdni berish yaramaydi. Davlatning tuzini ichgan har bir amaldor va sarkarda uning g'amini yemay, xizmat qilmay va o'z vazifasini ado etmay har tomonga qarab qochsa, fuqarolar dushmanning asiriga aylanishi turgan gap».

Muhammad Solihning bu otashin nutqi kengashda kuchli taassurot uyg'otdi. Otabek sharbatdor shayxondtahurlik mulla Gulmirzo oqsoqol o'g'lini Buxoroga elchi qilib yuborishni taklif qildi. Ammo Muhammad Solih bunga e'tiroz bildirdi. U general Chernyaev huzuriga aqlli va tadbirkor elchini yuborib, urushning to'xtatilishini va uning Chimkentga qaytishini taklif etib, bu reja amalga oshsa, harbiy tayyorgarlik ko'rish uchun vaqtdan yutish mumkin bo'lishini aytdi. Bu taklifga kengashdagi johil kimsalar qarshi chiqib, «Bizlar ruslarga bosh egib hech vaqt elchi yubormaymiz», – deya kalondimog'lik bilan majlisni tark qilishdi. Sulton Sayidxon esa muarrixning so'zlaridan ta'sirlanib, unga shoyi to'n kiygazdi. Buxorodan Iskandar boshliq elchilar kelib Sulton Sayidxonni rasman amir tomonidan Buxoroga taklif qilishganida va kengashdagi ko'pchilik unga qo'shilganda ham, Muhammad Solih qori o'g'li e'tiroz bildirib, shunday bashoratomuz so'zlarni aytdi: «Davlat tuzini ichgan amaldorlar va sardorlar qochsalar, qal'aning tuprog'ini yalab yotgan fuqaro, g'ariblar beva-bechoralarning qo'llari qiyomatgacha ularning yoqasiga yopishib, malomat va ta'na ostida qoladilar». Lekin unga quloq solmadilar. Qisqasi, tazyiq ostida Sulton Sayidxon 1865 yil 9 iyunda Mirhamid Mirhalim o'g'li boshchiligida 500 askar va bir to'p bilan Buxoroga yo'l oldi.

* * *

General Chernyaev esa shaharni to'pga tutishda davom etar edi. Uning zarbdor kuchlari Sirdaryo qirg'og'idagi Chinoz qal'asini egalladi. 1865 yil 14 iyundan 15 iyunga o'tar kechasi polkovnik Abramov, podpolkovnik Jemchujnikovlar qo'mondonligidagi 7 rota

va 8 zambarakdan tashkil topgan askarlar asta-sekin bog'lar orasidan Kamolon darvozasi tomonga qarab yurdilar. 15 iyun erta tongda rus askarlari to'satdan Toshkentning Kamolon darvozasi devoridan ichkariga bostirib kirdilar. Muhammad Solihning so'zlariga qaraganda, ruslar dastavval devorning bir kishi o'tadigan tor joyidan kirib olishgan. So'ngra darvoza va devor ustiga chiqishib, u yerdagi to'pni yerga uloqtirganlar hamda Muhammad Solih va uning atrofidagi kishilarga qarata miltiqlardan o'q otishgan. Shu paytda mullo Ismatillo degan bir kishi qo'ltig'idan to'rt bo'lak toshni chiqarib: «Biz ham chimkentliklarga o'xshab gunohkor bo'lib, harom o'laylikmi? Yaxshisi, bu zaminda g'oziy yoki shahid sifatida o'lganimiz afzal», – deb qichqirgan.

Rus askarlari Kamolon darvozasidan kirishi bilanoq Abramov 250 askar bilan devor yonidan o'ng tomonga ketgan ko'cha bo'ylab boradi. Yo'lda unga qarshi 200 sarboz 4 zambarak bilan hujum qiladi. Ammo dushman g'olib kelib zambaraklar jarga tashlanadi. Abramov askarlari uch joyda mudofaachilarning qarshiligini sindirib, bir necha to'pni o'z joylaridan ag'darib tashlab, to'g'ri Qorasaroy darvozasiga qarab yuradilar. U bu yerdan Eski jo'va bozori tomonga qarab harakat qilib, duch kelgan to'siqlardagi mudofaachilarni qirib tashlaydi. Podpolkovnik Abramov, mayor Delakra va podpolkovnik Jemchujnikovlarning askarlari Qo'qon darvozasini ochadilar. Shundan keyin Kraevskiyning harbiy qismi shahar ichiga kiradi.

Keyingi janglar Anhor atrofida davom etadi. Muhammad Solihning guvohlik berishicha, rus askarlari baland ovoz bilan «ur-ra», deb to'rt tomonga miltiq otishib, yo'llarida uchragan odamni oddindan va orqadan otib ketaverdilar. Mulla Muhammad Yusuf degan kishining taklifi bilan katta ko'chaning old tomonini aravalar bilan to'sishga kirishiladi. Muhammad Solih g'oziyalar va sarbozlar bilan Anhor ko'prigining g'arb tomonini aravalar bilan to'sib barrikadalar qurishga boshchilik qiladi. Ko'prikning har ikki tomonida do'konlar bor edi. Bir vaqt, «o'ruslar ikki tomondan «ur-ra» deb qichqirishib, birdaniga miltiqlardan o't ochadilar. G'oziyalar qo'rqmasdan domullo Fozil oxundga qarashli do'konlarning ikkinchi tomoniga va masjidga o'rmanib olib va miltiq otish uchun do'konlarning devorlarini teshib, jangga shay bo'lib turdilar. Ruslar to to'plarini joylashtirgunga qadar do'konlar ichidan ularga qarshi o'q yog'ildi».

Shahar ulamolari g'oziyalarni jangga otlantirishda jonbozlik ko'rsatdilar. Shayx Abu Hakim O'rda to'g'onining ustiga chiqib qo'lidagi tayog'ini yerga urib «kofirlarni o'ldiringlar!», deb baqirgan va Qo'qon darvozasi tomonga qarab chopgan. Dushmanning unga

miltiq o'qталishiga qaramay, tikka turib olgan va qattiq jarohatlangan. Shu holda u «ikki ko'zlaridan yosh oqizib va takbir, salovat o'qib, g'oziyalar va mujohidlarga: «Meni qo'yaveringlar, dushmani o'ldiringlar», – degan.

Yurt fidokorlarining qattiq qarshiligi tufayli dushman Qo'qon darvozasini tashlab chiqib, Shayx Shibliy arig'idan o'tadi. So'ng Qo'qon darvozasidan chiqib katta ko'cha bilan Imom Hasanxon va Sa'id Mahmudxon o'g'li Yusufxon masjidleri ichiga kirib o'r'nashadilar. Ular bu yerdan to'plardan har tomonga sochma o'klar otishadi. Oqibatda mahallalarda yong'in chiqib, odamlar boshqa joylarga ketishga majbur bo'ladi. Anhor suvi atrofidagi do'konlarga ham dushman tomonidan o't qo'yiladi.

Mavzuga doir axborot

Rus zobitining guvohligi

«Qorasaroy darvozasiga yetgach, Abramov Qoshg'ar va Qo'qon darvozalari o'rtasidagi belgilangan manzilga to'g'ri chiqish uchun shahar tomon chapga burildi. Lekin u shahar ko'chasiga o'tishi bilanoq g'oyat kuchli qarshilikka duch keldi – deyarli har bir qadamni jang bilan bosishga to'g'ri keldi. Sartlar daraxtlar orqasidagi uylarga, daraxtlarga, devorlar ortiga joylashib olgan, ko'chalarga to'siqlar o'rnatgan edilar. Ularni o't ochish va nayzalar bilan endi quvib chiqishgach, yana shunday qarshilikka duch kelishardi. Shahar markazida xalqni islom dini va o'z xonadonini himoya qilishga chaqirgan ruhoniylar ta'sirida shu darajada mutaas-siblashgan olomon askarlarimizga nafaqat nayza, balki oyboltalar bilan, balki qo'li bilan ham tashlanardilar va albatta, nayzadan omon qolmasdilar».

(Ю.Д. Южаков. Взятие Ташкента. СПб., 1881)

Solihbek dodxoh

Mahalliy va rus manbalarida Sulton Sayidxon ketganidan so'ng shahar mudofaasiga mudarris Muhammad Solihbek dodxoh boshchilik qildi, – degan ma'lumotlar keltiriladi.

Bosqinchilar qanchalik hiyla-nayrang ko'rsatib, yarashish xususida va'dalar bermasinlar, baribir, g'oziyalar jang qilishga tayyor edilar.

Toshkent vatanparvarlari tashqi yordamga ko'z tikkan holda urushni davom ettirishga qattiq bel bog'lagan edilar. «Ular, – deb ta'kidlaydi Muhammad Solih, – urushni hozirgidek davom ettirsak,

shoyadkim, Xorazm, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatiga tegishli atrof joylardan yordam kelib qolsa»¹, – degan umidda jang qilishdi. «Toshkentliklar, – deb yozgan edi Solihbek dodxoh, – ochlikka, suvsizlikka, tashnalikka hamda halokatga va talafotlarga qaramay, urushni davom ettirib, shaharni o'z qo'llarida saqlab turibdilar. Hozirda g'oziyalar, yetim-esirlar, ochlar va tashnalar nomidan yordam so'rab Kirovchi qal'asidan tortib Qurama, Chinoz, Xo'jand, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qo'qon va Farg'ona yerlariga xatlar yuborish zarur»². Bu taklif darhol ma'qullanib, ko'rsatilgan joylarning hukmdorlari nomiga xat tayyorlash munshiy Mirzo Yunusxon mullo Bobojon o'g'liga topshirildi. Shu tarzda 50 dan ortiq xat tayyorlangan edi.

Ammo, sotqinlik razolatli intihoga sabab bo'ladi, xoinlar o'q-dori omborini bosqinchilarga ko'rsatib berishdi. Bu maxfiy ombor O'rda ichida bo'lib, unga dushman otgan snaryadlar tushgach, dahshatli portlash yuz berdi.

Qirq ikki kunlik qamalda azob chekkan xalqning ruhiga juda yomon ta'sir etgan bu hol, Chernyaevga o'z yovuz maqsadiga erishishni osonlashtirdi. U endi Temur darvozadan, ya'ni shaharning janubidan hujum uyushtirib, Buxoro va Xorazmdan kelishi mumkin bo'lgan yordam yo'lini kesib qo'yadi.

Chor Rossiyasi tomonidan Toshkentning ishg'ol qilinishi xalqaro miqyosda yomon kayfiyat uyg'otib, Angliya, Turkiya, Eron, Xitoy va boshqa davlatlar tomonidan keskin norozilik bildirilishiga asos bo'lishini anglagan Chernyaev makkorlik yo'liga o'tadi. U Toshkentning «ixtiyoriy» ravishda topshirilganligi haqida soxta hujjat tayyorlamoqchi bo'ladi. Shuning uchun Chernyaev shaharning Hakimxoja qozikalon, Abulqosim eshon, domla Solihbek oxund singari nufuzli kishilari bilan muzokaralar boshlaydi.

General Chernyaev «avvalo Hakimxoja qozikalondan boshlab Abulqosimxon eshon, Muhammad Solih dodxoh va boshqa ulamo, fuzalo, akobir, savdogarlar va sardorlar bilan birma-bir, alohida qo'l berib ko'rishib, hol-ahvollarini surishtirib, bir-birlarining ismlarini aytib, so'ngra va'da-ahdu paymonni va yarashishni taklif qildi»³. Muhammad Solih mazkur ahdnoma besh nusxada tuzilib, biri general Chernyaevga topshirilgani, qolgan to'rttasi Shayxondtahir, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor dahalari vakillariga topshirilganini

¹ Ziyoev *Hamid*. Ko'rsatilgan asar, 177-bet.

² Tarixi jahonnamoyi, 127-bet.

³ Ziyoev *Hamid*. Ko'rsatilgan asar, 179-bet.

ma'lum qiladi. Muhammad Solih dodxoh muarrix Muhammad Solihni o'z huzuriga chaqirtirib: «Ahdnomani zehn va diqqat bilan o'qib, xotirangizda saqlangkim, biz dunyodan o'tgandan keyin balkim sizlarga kerak bo'lib qolishi mumkin»¹, degan.

Ahdnoma mazmuni quyidagicha edi: «Oq podsho va uning vakili general Iskandar Chernyaevning farmoni bo'yicha, Toshkent aholisiga shuni ma'lum qilamizki, ular Olloh taoloning xohishirodasiga muvofiq, Muhammad payg'ambar dinini qattiq ushlab, shariat qonunlaridan bir qarich ham orqaga chekinmasinlar. Ularning barchasi shu o'lkaning foydasi va manfaatlari uchun harakat qilsinlar. Besh vaqt namozni o'z vaqtida ado etsinlar, mullalar doimo maktablarga borishib, Muhammad payg'ambar dinini targ'ibot qilsinlar. O'quvchilarning biror soati ham bekorga ketmasin, mullalar bolalarni maktablarga jalb qilib, bekorchilikka yo'l qo'ymasinlar. Kerak bo'lsa, qattiq choralar ko'rib bolalar maktablarda o'qishga majbur etilsin. Bordi-yu, ota-onalar bolalarning o'qishlariga ahamiyat bermasalar, u holda rais yoki qozikalon huzuriga chaqirtirilib, shariat asosida qattiq jazolansinlar. Bu diyorning aholisi vaqtlarini behudaga o'tkazmay, o'z ishlari bilan shug'ullansinlar, savdogarlar esa savdosotig'ini davom ettirsinlar.

Islom dini bo'za va aroq ichishni, bema'ni o'yinlar bilan shug'ullanishni yoki axloqsiz bo'lishlikni man etadi. Shu bois shariatga zid har qanday bid'atlardan saqlanish lozim.

Toshkentdagi barcha boy va kambag'al tabaqalar yuqorida sharxlanganlarni so'zsiz bajarishlari shart. Shahardagi uylar, bog'lar, yaylovlar, suv tegirmonlari o'z egalari ixtiyorida qoldiriladi.

Rus askarlari aholidan hech narsa olmaydilar. Tub aholidan askarlik xizmatiga odam olinmaydi. Harbiy kishilar birorta xonadonga qo'yilmaydi, bordi-yu bunday hol yuz bersa, darhol xabar berilsin va aybdorlar jazolanadi. Oq podshoh bizga katta g'amxo'rlik ko'rsatdi, shuning uchun biz uning sog'ligini xudodan so'rab duo qilishimiz kerak.

Agar biror kimsa bir kishini o'ldirsa yoki savdogarlar molini tallas, u vaqtda aybdorlar rus qonunlari asosida javobgarlikka tortiladi. Agar bir odam o'zini-o'zi o'ldirsa, u vaqtda uning mol-mulki merosxo'riga beriladi va hech narsa olinmaydi.

Men, gubernator Iskandar Chernyaev, sizlarni bu yilgi soliqlardan ozod qilaman, keyingisi Buyuk Oq podshohimiz xohishlari

¹ O'sha asar, 180-bet.

bo'yicha belgilanadi. O'ylaymanki, sizlarga bundan ham ziyod g'amxo'rlik qilinadi»¹.

1865 yil 1 iyuldan kuchga kirgan mazkur ahdnomadagi shartlardan ko'rinib turibdiki, bosqinchilar qilar ishni qilib, mazlum xalqda mayl uyg'otish uchun ataydan yon berish yo'lini tutadilar. Birinchi navbatda, islom diniga qattiq rioya qilishga, shariat qoidalariga so'zsiz amal qilishga va maktablar faoliyatini susaytirmaslikka alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, xalqning mol-mulki va dini-e'tiqodi daxlsizligini saqlash muhim o'rin egallagan. Umuman olganda, ahdnomada milliy an'analar va urf-odatlar ochiq tahqir va ta'qiqdan holi, mahalliy aholi turmush tarzi muhofaza etilishiga va'da berilishi diqqatni jalb qilmay qolmasdi. General Chernyaev ahdnomani tuzishda shahar kattalarining talablariga yon berganida, shubhasiz, qanday bo'lmasin, urushni to'xtatishni va g'alabani qo'ldan boy bermaslikni o'ylab ish tutgan. Shuning uchun ham u aholini bir yil davomida soliqlardan ozod etgan. Bundan tashqari, u bir qancha rag'bat choralarini ham ko'radi. Chunonchi, u ahdnomaga imzo chekilgandan keyin Hakimxoja qozikalonga, Muhammad Solih dodxo'ga, to'rt dahaning oqsoqollariga zar yoqali chakmonlar kiygizadi. 1865 yil 12 iyulda, juma namozidan keyin, general Chernyaev «Hakimxoja qozikalonning uyiga borib, unga ko'p hadyalar berib, ko'nglini ovladi. So'ngra Registon rastasiga borib, odamlarga va gadoylarga tangalar sochdi, majruhlarga va jarohatlanganlarga tibbiy yordam berdi»². Toshkent rus askarlariga taslim bo'lishi bilan bog'liq voqealarning davomi Hakimxoja eshon tarjimai holiga oid asarda quyidagicha beriladi: «Xalq rahnamosiga aylangan bu donishmand qariya ko'pgina qozi va amaldorlarni yoniga olib, Chernyaev qarorgohiga bordi. U Toshkent shahrining taslim bo'lishi xususida Chernyaev bilan muzokara olib borib, hamma masalada o'z xalqi manfaatlari saqlangan holda amniyatnoma tuzilishiga muvaffaq bo'ldi».

Tarixiy asarlarda Toshkent tarafidan bu ishda bir necha kishi bosh bo'lgani aytilib, uch kishining, ya'ni Hakimxoja, domullo Solihbek oxund hamda Abulqosim eshonning nomlari alohida ta'kidlanadi. Bu uch ulug' zot aslida haq yo'lga o'zini tikkan, vatanparvar odamlar bo'lganliklari aytilgan. Chunonchi, domullo Solihbek oxund haqiqat uchun kurashda hatto o'limdan ham qo'rqqanligini chor qo'shinlari Toshkentni egallagach, general Chernyaev shahar kattalarini to'plab, go'yo oldingi musulmon hukmdorlaridan ko'p jabru-

¹ Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 181-bet.

² O'sha asar, 181-bet.

jafo ko'rganimiz sababli «o'ris askarlari va sardorlarini o'z ixtiyorimiz bilan olib kelib, ularga shaharni topshirdik», degan mazmunda jahon afkor ommasini chalg'itishga mo'ljallangan murojaatnoma tayyorlab va imzolab berishni talab etganida yaqqol namoyon bo'ladi. O'sha yig'inning ishtirokchisi bo'lgan «Tarixi jadidai Toshkand» asarining muallifi Chernyaevning bu hayosizlarcha talabiga domullo Solihbek oxund keskin javob berganligini aytadi. U bunday degan: «Biz voqe' bo'lgan hodisalarni tag'yir va tabdil qilmasdan, haqqoniy ravishda aytamizki, Turkiston zamini va Toshkandning Oqmachitdan G'ulja tarafig'acha bo'lg'on har bir qa'la va viloyatni nasroniylar va rusiyaliklar jangu taloshu muhoriba bilan o'z hukumatlariga tobe qildilar. Ularning aksari tunda to'satdan, bevaqt va betavaqquf va bemuomala va hech narsa va'da qilmasdan va bemuhlat holda jangu muhoriba qilmasdan, qattiq taloshu zo'r qotillik bilan olib borildi. Xususan, Toshkand shahri zulhijja oyining yarmidan safar oyining o'n ikkinchisiga qadar suvsiz va oziq-ovqatsiz qoldiriddi. Amiri lashkar mulla Alimqul shahid bo'lganidan keyin shahar etakchisiz va sultonsiz, qo'shunsiz – askarsiz qoldi. Buxoro amiri va Xorazmu Urganch, Farg'ona va boshqa shaharlardan, Muhammad ummatlaridan bo'lgan qabila va elatlardan beyordam va beko'mak va benajot, bequrolu va beyarog', bedoruyu va beqo'rg'oshin qoldirib, Toshkand fuqarosi va aholisi va unda turg'un bo'lib qolganlar dinlari uchun urush-talosh qilishdi. Kechasi sahar vaqtida rusiyalar va nasorolar Xiyobon darvozalaridan va tepaliklardan oshib, fuqarolar g'afatidan foydalandilar. Fuqaro ogoh bo'lgach, panjshanba kunigacha muttasil jang bo'lib, aksar imoratlar olov ichida qolib, tashna va madorsiz holda yiqilib-qo'pib, dushmanu do'st aralashib ketib, qattiq yelkama-elka jang bo'ldi. Va axiyri panjshanba kuni peshin namozidan keyin nasoro va rusiyaliklar va'da va ahdnomalar bilan sulhga talabgar bo'lib, yarashishga mayl ko'rguzdilar. Shundan keyin biz shartu sharoitlarga rozi bo'lib, sulh tuzdik»¹. Mislsiz iymon-e'tiqod bilan berilgan bu javob o'z boshiga qanday katta fojia keltirishini domullo Solihbek oxund yaxshi bilgan, albatta. Javobdan so'ng o'zigina emas, balki uning javobiga qo'shilgan yana olti kishi ham darhol Sibir surguniga jo'natiladi.

Hakimxoja qozikalon

Uning faoliyatiga doir ma'lumotlar qozikalon tarjimai holiga oid asarning ruscha nusxasida, «Turkiston viloyatining gazetasi» muharriri N. Ostroumovning nashr etilgan kitoblari va kundalik-

¹ Tarixi jadidai Toshkand, 2-jild, 12- 13-betlar.

larida, shuningdek, Muhiddinxoja qozidan bizgacha yetib kelgan ba'zi hujjatlarda saqlanib qolgan.

Ma'lum bo'lishicha, Toshkentni chor qo'shinlari egallaganidan keyin, oradan bir necha oy o'tgach, Turkistonning muvaqqat gubernatori general Romanovskiy bilan qozikalon o'rtasida qattiq to'qnashuv bo'lib o'tadi. Ana shu to'qnashuvda Hakimxoja eshonning ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Turkistonning yangi bosh xukmdori huzurida o'tgan katta bir yig'inda uning nomiga bitilgan va shaharning yirik amaldorlari muhri bosilgan tavsifnoma topshirilgan edi. Ushbu sharmandali hujjatda qozikalon muhri bosilmaganini ko'rgan Romanovskiy Rossiya imperiyasi qudratini ko'rsatib qo'yish uchun uni itoatkor odamlar oldida dag'dag'a bilan so'roqqa tutadi. «Bu qog'ozda mening muhrim bosilmagan bo'lsa, buning uzrli sabablari bor, – deb javob beradi Hakimxoja, – negaki bu tavsifnoma shariatga xilof ravishda bitilgan. Unda aytilgan maqtov so'zlarni birorta ham musulmon og'ziga olishi mumkin emas. Bu tavsifnomani bitgan va unga o'z muhrini bosganlar islom dinida emaslar, deb hisoblanishi lozim. Bizning dinimizga isnod keltirishga hech kim sizga haq-huquq bermagan, deb o'ylayman. Siz haddingizdan oshyapsiz. Mendan shu qog'ozga muhr bosishni talab etishga qanday jur'at qildingiz?» Romanovskiy bu so'zlardan darg'azab bo'lib, qutqu bilan gapira boshlagan. Biroq Hakimxoja bo'sh kelmay, Romanovskiyga: «Hammamizni yaratgan haq Taolo bor. Uning amri har bir inson uchun muqaddasdir. Binobarin, sizning amringizdan yuqori turadi. Agar u xohlasa, hammamizni va butun olamni yo'q qilib yuborishi mumkin. Shunga ko'ra avvalo Tangrining amrini vojib deb bilaman. Agar haq Taolo meni o'z panohida asrasa, sizgina emas, balki sizdan yuqorida turganlar ham hech narsa qila olmaysizlar. Agar haq Taolo menga jazo berishni xohlasa, unga qarshilik ko'rsatish befoyda va hech qanday kuch, hech kimning homiyligiyu mehribonligi uning jazosidan saqlab qola olmaydi. Muhtaram janob, siz meni qo'rqitish bilan shariat yo'lidan toydirishga majbur qilaman deb o'ylamang».

Qozikalonning bu muomalasidan keyin mustamlaka ma'murlari unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladilar va hamisha qo'yinlarida tosh saqlab yuradilar. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, 1867 yil boshida Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman Toshkentda o'z faoliyatini boshlaydi. O'lka bosh hokimining eng avval qilgan ishlaridan biri shu bo'ldiki, Hakimxoja eshonni uning Sebzor daha Qozi ko'chasidagi uyiga borib ziyorat qiladi va yurtni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelgan chog'la-

rida uning maslahatini olish uchun huzuriga kelib turishga ruhsat so'raydi. Bosh hokimning o'ta mug'ombirlik bilan qilgan xushmuomalasiga laqqa uchgan qozikalon bir necha oy mobaynida u bilan yaxshi munosabatda bo'lib, o'z lavozimini ado etib turadi. Biroq, yuqorida aytganimizdek, Hakimxoja eshonga qarshi qabih niyatda bo'lgan fon Kaufman uni qozikalonlik lavozimidan uzoqlashtirishning bir necha usullarini ishga soladi. Bu usullardan biri shahardagi to'rt daha qozilarini tugatib, barcha ishni oltmish besh yoshli, kasalmand qariya ustiga ortishdan iborat hiyla edi. Turgan gapki, qozikalonning yoshi ham, sog'lig'i ham mas'uliyati cheksiz bo'lgan bu vazifani o'zi istagandek halollik bilan ado etishiga aslo imkon bermasdi. Shu munosabat bilan o'z ahvolini tushuntirib, general-gubernatorga xat yo'llaydi va Kaufmandan «unday bo'lsa, qozikalonlik muhrini topshira qoling», degan mazmunda javob oladi. Qilingan barcha hiylagarliklar mag'zini chaqqan qozikalon o'zining cho'yan muhrini katta temir parchasi ustiga qo'yib, katta bolg'a bilan majaqlab, fon Kaufman nomiga yozilgan lavozimdan bo'shsh haqidagi arizaga o'rab jo'natib yuboradi.

Qozikalonlik lavozimi barham topganligi sababli, Hakimxoja eshonning farzandi Muhammad Muhiddinxojani Sebzor dahasi qoziligiga saylaydilar. Muhiddinxoja zamona zaylini yaxshi tushunadigan, fan va ma'rifatni, mumtoz merosni omma orasida targ'ib qilg'uvchi teran ma'lumotli kishi edi. Shu sababli ayrim rus olimlari ham, yangicha yo'nalishdagi o'zbek ma'rifatparvarlari ham hamisha u bilan hammaslak, hamfikir edilar. Masalan, yirik sharqshunos olim, akademik V. V. Bartold Muhiddinxoja qozining eski kitoblarini, ayniqsa, otasidan meros qolgan Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sining mukammal nusxasini, noyob «Tarixi Tabariy»ni va boshqa nodir qo'lyozmalarni g'oyat qadrlaganligi ma'lum.

Otasi singari Muhiddinxojani ham Toshkent hokimlari Putinsev, Kisilev, Lodijenskiy va boshqalar tinimsiz ta'qib etganliklari, unga qarshi turli ig'vo va bo'htonlar uyushtirganliklari haqidagi ma'lumotlar bir qator manbalarda saqlanib qolgan. Shu munosabat bilan N. Ostromovning «Konstantin Petrovich fon Kaufman – Turkiston o'lkasining bunyodkori» nomli kitobida (Toshkentda 1899 yilda rus tilida chop etilgan) keltirgan bir lavhasini eslash o'rinli bo'lur edi. Lavhada aytilishicha, 1877 yilda Eyler degan tergovchi kimlarningdir g'alamisligi bilan general gubernatordan ruhsat olib Muhiddinxojaning qozixonasinigina emas, balki u yashab turgan hovlini ham muhrlab ketadi. Bu haqda «Turkiston viloyatining gazetida» maxsus xabar ham bosilib chiqadi. Mustamlakachi ma'murlarning

beboshligidan tang ahvolga tushgan Muhiddinxoja qozi noiloj general-gubernatorga arz qiladi. Fon Kaufman general Abramovga qarab: «Siz bu qozining otasini bilasizmi?» deb soʻraydi. Undan «Bilaman», degan javobni eshitgan general-gubernator: «Yoʻq, bilmaysiz» desa, Abramov yana «Bilaman», deyishiga qaramay, fon Kaufman: «Yoʻq, siz uning otasini bilmaysiz» degan soʻzlarni takrorlagach, «U zot Xudodan boʻlak hech kimdan qoʻrqmagan ajoyib inson edi», deydi va oʻz buyrugʻini bekor qilib, Muhiddinxojaning qozixonasidan ham, hovli-joyidan ham muhrni olib tashlashga ruhsat beradi.

* * *

Sulhdan soʻng koʻp oʻtmay Chernyaev xalq qoʻlidagi qurollarni topshirishni buyuradi. U Eshonqul dodxoh madrasasiga kirib, mullavachchalarga oʻqishni davom ettirishlarini aytadi. Soʻngra amiri lashkar Mulla Alimqul qabrini borib koʻradi va koʻnglida shubha qolmaydi. Chernyaev Koʻkaldosh, Beklarbegi va boshqa madrasalarni ham aylanib chiqadi. U urushda shikastlangan yoki oʻt tushgan masjidlarni, hovlilar va doʻkonlarni tuzatish uchun Hakimxoja qozikalonga kumush tangalar bergan. Generalning Toshkent ahliga koʻrsatgan mehribonligi, gʻamxoʻrligi va insonparvarligi sunʼiy va soxta boʻlib, koʻzboʻyamachilik hamda nayrangbozlikdan iborat edi. U bu ishlarni shaharda oʻz mavqeini mustahkamlash va xalqni chalgʻitish uchun oʻylab topgan edi. Ilgʻor rus ziyolilari hovliq-ma – Rededyu deb atagan Mixail Chernyaev chindan ham shunday zot boʻlib, tullakilikda ham oʻz laqabini oqlagan. Chernyaevning nayrang bobidagi yana bir hunari Toshkent nomidan soxta hujjat tayyorlatganida koʻrinadi. «Rus podshohiga Toshkent ahli nomasi» deb nomlangan bu hujjatda shunday yozilgan:

«Bismillohir rohmanir rohiym! Bismilloh hayrul asmo!

Oq podshohi azim, shonli va biyuk darajali hazratlariga, oʻz koʻzlari oʻrniga boʻlgan ulugʻimiz gubernatur Turkiston viloyati jeneroli Churnoev hazratlariga.

Oq podshohi aʼzam tamom ulugʻ podshohlar ustiga hammasidan ulugʻ va gʻolib kelgan podshohimiz hazratlariga arzimiz shulkim, biz Toshkent qalʼasining ichidagi fuqarolaringiz, bizlar shuncha yil va shuncha zamondan beri necha bul yurt ulugʻlariga tobe boʻlib yurib zulm-sitam, jabru jafodan boʻlak hech yaxshilik yuzini bu jahonda koʻrmayin oʻtdik. Oxirilar shul umid bilan sizning hazratingizni ulugʻ podshoh va adolatlik anglab, oʻzimizni sizning panohingizga tashladik, alhamdulilloh davlatli boʻlib va ham omonda boʻlib, bul

tarafning zo'rli ulug' podshohlaridan salomat qoldik va ham sizdek ulug' podshohimiz himoyatlari birlan dinimiz, alhamdulillah, rivojli, ravnaqli bo'lib, shariatimiz kundan-kunga zohir va huvaydo bo'lib, kecha-kunduz ulug' podshohimiz hazratlarini umrlarini uzunlig'ini va davlatlarini ziyodalig'ini hazrat Xudoyimiz Jalla Jalol amma navala dargohidan va hazrat payg'ambarimiz va rasolat panohimiz va shafloatxohimiz Muhammad Rasululloh Sallolohu alayhi vasallamning hazratlarini shafe' etib o'tunib, besh vaqt namozimizda duoyi joningizni tilaymiz va sizdek kabi jenerol mayo'rsiz, emdi sizga o'tunamizki bizning bul suvratda tobe bo'lib tinchlikda va xotirjamlikda bo'lib, duoyi hazratlarina mashg'ul bo'lishimizni o'n ikki kalit shahrimiz birla ulug' azim podshohimiz hazratlariga yetkurasizkim, bul o'n ikki kalit biz fuqarolarni tobe bo'lib, itoat qilg'onimizg'a kafildir. Toshkent shahrimiz o'n ikki darvoza birlan tamomdur. Bu kalitlar shu darvoza kalitlari bo'lgay. Emdi biz fuqarolarni sizdek ulug' podshoh hazratlariga hazrat taolodin, hazrat Muhammad Rasululloh Sallolohu alayhi vasallamni shafe' etib besh vaqt namozimizda duoningizdin boshqa arzimiz qolmadi.

Domla Ahmad oxund Boboy o'g'li qo'lim qo'ydim,
Mirhomid qo'lim qo'ydim,
Do'stmuhammad boy qo'lim qo'ydim,
Muhammad Olim Sharifboy hoji o'g'li qo'lim qo'ydim,
Eshmuhammad boy Yodgor o'g'li qo'lim qo'ydim,
Muhammadrasul Musomuhammad hoji o'g'li qo'lim qo'ydim,
Mirzoxo'ja eshon qo'lim qo'ydim,
Sayidbek Bobobek o'g'li qo'lim qo'ydim,
Sodiqbek qo'lim qo'ydim».

O'zining mash'um niyatini amalga oshirishni shu tariqa niqoblab, «Turkistonga xalq talabi bilan keldik» deb «daliliy» ayyuhannos solishga muvaffaq bo'lgan Chernyaev bu maktubni Abu Sayid va Hodixo'ja ismli savdogarlarga berib, Peterburgga borib Oq podshohga topshirishni buyuradi. Bu maktub tufayli bosqinchilik siyosati oqibatida Angliyadek kuchli davlat bilan to'qnashishga majbur bo'lib qolishdan cho'chigan Rossiya hukumati xalqaro jamoatchilik ko'z o'ngida o'z hatti-harakatlarini oqlashi lozim edi. Shuning uchun, bu maktubdan nusxalar ko'chirilib, 1865 yilda Rossiyaning Turkiyadagi elchisi qilib tayinlangan N. Ignatev orqali Istanbul ko'chalariga qadar osib qo'yildi.

Darvoqe, Rossiya istibdodining O'rta Osiyo bo'ylab tobora kengroq yoyila boshlashi xavfi Angliyaning Sharqdagi manfaatlariga putur yetkazmay qolmasdi. Chunki, strategik jihatdan g'oyat muhim

ahamiyat kasb etuvchi Toshkentning olinishi sabab, Angliya qo'l ostidagi Hindiston bilan Rossiya chegaralarining juda yaqinlashib borayotganligi Buyuk Britaniyaning mashhur qirolichasi Viktoriyani tashvishga solishi tabiiy edi. Shuning uchun Angliya Tashqi ishlar vaziri lord Klarendon Peterburgdagi ingliz elchisiga rus qo'shinlarining Turkistonga kirishi O'rta Osiyo xonliklarining mustaqilligiga tahdid solishini va bu Rossiya Tashqi ishlar vaziri Gorchakovning 1864 yilning 3 dekabrda qilgan bayonotiga zid ekanligini aytib, Chor hukumatini ogohlantirishni topshiradi.

Muvaffaqiyatli istilolar orqasida bu vaqtga kelib, ancha kuchayib olgan Rossiya hukumati Angliyaning noroziligini e'tiborga olmadi, chunki Angliyaning o'zi ham Hindiston va Afg'onistonda bosqinchilik siyosatini yurgizayotgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Rossiya Tashqi ishlar vaziri Gorchakov inglizlarga bergan javobida Turkistondagi voqealar harbiy boshliqlarning qarori bilan amalga oshirilganligini, buning esa Angliyaga aloqasi yo'qligini eslatishni lozim topadi.

Toshkent chor qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilgach, Buxoro amiri Muzaffar Chernyaevga elchi jo'natib, shaharni bo'shatib qo'yishni talab qildi (to'ydan keyin nog'ora!). Ammo, Chernyaev buni rad etgach, boshqa yana bir nufuzli elchilar yuborib, Rossiya ishg'ol qilgan yerlar bilan Buxoro hududi orasida bo'sh joy (betaraf hudud) bo'lishi lozimligini uqtiradi. Chunki, amir Muzaffar ham chor qo'shinlarining o'z davlati chegaralariga yaqin kelayotganidan xavotirga tushgan edi.

Bosqinchilik hadisini olgan general Chernyaev Toshkentning xavfsizligini ta'minlash uchun uning atroflaridagi ba'zi yerlarni ham ishg'ol etmoqchiligini va bu yerlar Qo'qon xonligiga qarashli bo'lgani uchun Buxoroning aralashmasligi kerakligini ma'lum qiladi. O'zbek xonliklari ichida alohida mavqega ega bo'lgan Buxoro amirligining bu ishlarga aralashuvi Chernyaevga qimmatga tushishi mumkin edi. Shuning uchun u Buxoro amirini Toshkent aholisiga yordam berish fikridan qaytarib va qo'rqitib qo'yish uchun Toshkentdan Orenburggacha bo'lgan yerlardagi buxorolik savdogarlarni ta'qib etishga va ularning mollarini talashga buyruq beradi.

Rossiya bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etishdan umidini uzmagan Buxoro amiri 1865 yilning iyul oyi boshlarida Najmiddinxo'ja boshliq elchilarni Peterburgga jo'natdi. Ammo Chernyaevning xohishiga binoan elchilarning Orenburgda general-gubernator Krijanovskiy tomonidan tutib qolinishi Buxoro amiri Muzaffarning nafsoniyatiga tegadi va u ham Buxoroda turgan rus elchilarining Rossiyaga qaytishlarini ta'qiqlab qo'yadi.

Bir «yovvoyi osiyolik» o‘zi bilan bunday munosabatda bo‘lishidan jazavaga tushgan Chernyaev elchilarning zudlik bilan ozod etilishini talab qiladi. Bunga javoban Muzaffar «mening elchilarimning podshoh bilan uchrashishiga mone‘lik qildingiz. Buni men g‘ayri do‘stona munosabat deb bilaman.... Mening elchilarim podshoh bilan uchrashtirilgunlariga qadar sizning elchilaringizni ushlab turaman», deb javob beradi.

2. E‘LON QILINMAGAN URUSH... BUXORO

Turkiston viloyatining harbiy gubernatori qilib tayinlangan general Chernyaev 1866 yil yanvar oyida Buxoro amirligini bo‘ysundirish uchun unga qarshi e‘lon qilinmagan urush boshladi. Uning qo‘mondonligi ostida qo‘shinlar Jizzax tomon otlandilar. Bu xabarni eshitgan amir Muzaffar o‘zi taxtga qayta o‘tqizgan va ta‘sirida deb hisoblagan Qo‘qon xoni Xudoyorga chor qo‘shinlarining yo‘lini to‘shishni buyurdi. Xudoyorxon esa Rossiya bilan to‘qnashishdan qo‘rqib, amir Muzaffarning farmonini bajarmadi.

Chor Rossiyasi istilochilari Buxoro xonligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda – 1866 va 1868 yillarda o‘tkazadi. 1866 yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida xonlikning O‘ratepa, Jizzax va Yangiqo‘rg‘on singari hududlari Rossiya tarkibiga kiritiladi. Ikkinchi harbiy mavsumda – 1868 yil qirg‘inbarotida esa Samarqandning olinishi, amir qo‘shinlarining Zirabuloqda uzil-kesil tor-mor etilishi sodir bo‘ladi. O‘rta Osiyoning qadimiy poytaxtlaridan biri, Sohibqiron Amir Temur dovrug‘ini jahonga yoygan Samarqandning bosib olinishi, nafaqat xonlikda, shu bilan bir qatorda, dunyo afkor ommasi ko‘z o‘ngida, shimoldan kelgan «oq ayiq»ning yovuz maqsadlari chegara bilmasligini namoyon etgan edi. Amir Muzaffar talafotlar oldida qattiq esankirashga tushadi, chunki o‘z tasarrufidagi hududning qariyb teng yarmidan mahrum bo‘lgan edi.

Chor Rossiyasi harbiy kuchlarining jang maydonlaridagi g‘alabasini ta‘minlagan omil, shubhasiz, ularning qurol-yarog‘iga, raketa otuvchi qurilmalarga, tez harakat qiluvchi artilleriyaga, pistonli miltiqlarga ega ekanligiga bog‘liq edi. Shu sababli ham, bu harbu zarblarda son emas, qo‘rg‘oshin, porox, cho‘yan va temir, ya‘ni to‘plar, zambaraklar hal qiluvchi o‘rin tutadi. 1866 yilgi harbiy mavsum qatnashchisi, o‘rta bo‘g‘in zobitlaridan bo‘lgan M.Zinovevning bu jihatdan e‘tirofi e‘tiborni tortmay qolmaydi. Amir qo‘shinlari bilan O‘ratepa va Jizzaxda yuzma-yuz jang qilgan bu zobit, «Ularning

(ya'ni, amir sarbozlarining – muall.) o'qi, ayrim istisnoli hollarda bo'lmasa, deyarli qo'rg'oshin yalatilgan toshchalarga o'xshaydi. Qo'rg'oshinning qimmatligi yaxlit o'qlardan foydalanishga imkon bermaydi»¹, deb qayd etadi.

Amir Haydar hokimiyatining oxirroq'ida uning huzuriga kelgan rus elchilari safida Ye.K.Meyendorf ham bo'lgan. U o'zining keyinchalik yozgan «Orenburgdan Buxoroga sayohat» nomli asarida amir Haydar lashkarining qurollanish darajasi haqida fikr yuritadi. Elchilik tashrifining sanoqli kunlarida xonlik harbiy kuchlari haqida bu qadar to'liq ma'lumot jamlashga ulgurish kishini hayratga solmay qolmaydi. U, mana shunday yozadi: «Sipohiyar pilta miltiq, juda uzun nayza va eroniylarniki kabi yoysimon qilichlar bilan qurollangan. Ulardan ayrimlari kalta jibalar kiyishadi, temir dubulg'a va ho'kiz terisidan qilingan qalqon taqishadi. Artilleriya esa yigirmata eron zambaraklaridan iborat bo'lib, uchta yoki to'rttasi temir qoziqlari bo'lmagan lafetlar bilan jihozlangan, xolos. Lafetlar, garchi uchta g'ildirakka o'rnatilgan bo'lsada, shunga qaramay, ular katta qiyinchilik bilan harakatga keltiriladi»².

O'zbek xonlari, jumladan, Buxoro hukmdorlari ham qo'shin va qurol-yarog' bobida tamomila xotirjamlikka berilgan edi deyish to'g'ri bo'lmaydi. Rossiya bosqini xavfi sezila boshlaganda, hatto Xiva xoni Olloqulixon amir Nasrulloğa bu yo'lda ittifoqlashish taklifini ham oraga solgan edi. Amir Nasrullo harbiy sohada ma'lum islohotlarga qo'l uradi-da, ora yo'lda qolib ketadi. Buning ma'nosi shulki, u o'zining 34 yillik saltanati davomida xonlikdagi ichki nizolardan qutila olmadi. Butun harbiy kuchini itoatdan chiqqan viloyatlarni bo'ysundirishga sarf etdi. Yo'qsa, Buxoroda uzoq muddat yashagan, Zarafshon harbiy okrugini boshqargan, Turkistonning harbiy quvvatini sinchiklab o'rgangan G.A. Arandarenko aytganidek, «Nasrulloxon davrida dala to'plari sezilarli darajada yaxshilangan edi, ular uchun ingliz harbiy nizomidan chala-chulpa xabardor bo'lgan afg'on to'pchilari xizmatga olinadi. Og'ir qurolli otliqlar – falkonetli xasabdorlar soni ham oshiriladi, piyodalar ko'paytirilib, to'plar himoyasida jangga kirish va qal'alarga xujum qilish qo'llana boshlaydi»³.

¹ *Зиновьев М.* Осада Ура-Тюбе и Джизака. Воспоминания об осенней экспедиции 1866 г. в Туркестанской области. Военный сборник, 1868, № 3–4, стр. 331.

² *Мейендорф Е.К.* Путешествие из Оренбурга в Бухару. М., 1875, стр. 140.

³ *Арандаренко Г.Л.* Досуги в Туркестане. 1874–1889, СПб, 1889, стр. 543.

Amirlik qo'shinining asosini xasabdorlar va galabotirlar tashkil etar edi. 1868 yilga qadar bu ikki qo'shin turiga olinganlar bir umr xizmatda bo'lar edi. Piyoda sarbozlar, odatda, tinch sharoitda uylarda yashar, haftada to'rt kun (chorshanba va jumadan tashqari) erta tongda eshak bilan Buxoroga kelar va uch-to'rt soatlik mashqlarda qatnashib, yana qaytib ketardi. G.A. Arandarenko, shu vajdan, Buxoro «harbiy tizimida» qorovullik xizmati mavjud emas», deydi.

Amir Nasrullo davrida va undan keyin ham to'pchiboshi qo'shinining bosh qo'mondoni hisoblangan. Bu, harbiy ish muvozanatida otlq qismga nisbatan texnikaga ahamiyat berish ibtidosi bo'lganmi, har holda, aniq bir nima deyish mushkul. Erondan olib kelingan Abdusamad to'pchiboshi, muarrix Mullo Olim Mahdumning «Turkiston tarixi» kitobida aytilishicha, bilimli, zakovatli kishi bo'lgan. U, chamasi, to'p va to'pxonalarning dala sharoitidagi harakat imkoniyatini oshirishga erishadi. To'plar, ularni tortib yuruvchi otlar guruhlanadi va raqamlanadi. Ma'lumki, bungacha to'plarni ho'kizlar sudrashi taomilda bo'lib kelgan edi. Abdusamad to'pchiboshining qismati fojiviy yakun topadi, amir Nasrullo uni Shahrisabz beklari bilan til birlitirishda ayblab, qatl etadi. Yollanma lashkarboshilarga ruju qo'yishdan, baribir, qaytilmagan.

Shu paytgacha osonlikcha erishilgan g'alabalardan mag'rurlangan general Chernyaev urishqoq va harbiy mahorati baland qismlar bilan Jizzaxni tez fursat ichida egallashiga shubha qilmagan edi. Lekin o'z yurti, ona tuprog'i va muqaddas vatani ozodligi uchun hayot-mamot jangiga bel bog'lagan Jizzax mudofaachilari chor qo'shinlariga qaqshatqich zarba beradi. Ularning soni 8–9 ming kishidan oshiq bo'lmasa ham, Chernyaev qo'shinlariga qarshi mardona jang qilib, ularni mag'lub etadilar. Shu vaqtgacha chinakam mag'lubiyat alamini totmagan general Chernyaev uchun Jizzaxdagi jang juda qimmatga tushdi. Jizzax mudofaachilari yengilmas deb ovoza qilingan chor askarlarini ham yengish mumkinligini, buning uchun ularga qarshi bir jon, bir tan bo'lib, uyushgan holda jang qilish lozimligini namoyish qildi. Ular bu jangda rus askarlarini yengibgina qolmay, qattol general Chernyaev faoliyatiga ham chek qo'ydi. Sankt-Peterburg shu vaqtgacha g'olib bo'lib kelayotgan bosqinchilarning Jizzaxdagi mag'lubiyati Rossiyaning O'rta Osiyodagi mavqeiga jiddiy putur yetkazishidan xavfsirab, o'zboshimcha Chernyaevni mansabidan chetlatdi. Turkiston viloyati harbiy gubernatori va qo'mondoni qilib general Romanovskiy tayinlandi.

Shu tariqa, Rossiyaning hukmron doiralari, bu bilan o'z harakatlari xalqaro maydonda bosqinchilik sifatida qoralanishidan

choʻchib, uning bevosita ijrochisi deb general Chernyaevni asosiy aybdor sifatida jazolash bilan oʻzini chetga olmoqchi boʻldi. Lekin, Rossiyaning harbiy-siyosiy doiralari, boshqa tomondan, yeng uchida Romanovskiya qatʼiy harbiy harakatlar olib borishga ijozat berdi.

Chor Rossiyasining bosqinchilik siyosati mohiyatini anglay boshlagan Buxoro amiri muftiy xoja Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni, Afgʻoniston va Hindiston orqali, yordam soʻrab Istanbulga joʻnatdi. Xoja Muhammad Porso inglizlarning Hindistondagi vakili Jon Lourensga amir Muzaffarning maktubini topshirib, Angliya qirolichasiga ham bu iltimosini yetkazishni soʻradi. Jon Lourens Xoja Muhammad Porso bilan boʻlgan suhbatda Buxoro amirining 1842 yilda ingliz polkovnigi Stoddart va Konollining oʻldirilishiga moneʼlik qilmaganining sababini soʻraganda, Buxoro elchisi: «Boʻlib oʻtgan voqeadan juda afsuslanaman. Ammo, u vaqtda yosh edim va davlat xizmatida emasligimdan, bu narsaga taʼsir eta olmas edim. Hozirgi amir ham u vaqtda davlat ishlariga yaqinlashtirilmagan shahzoda edi», degan edi.

Oʻz fuqarolarining Buxoroda oʻldirilishini unutmagan ingliz hukumati Istanbulga kelib, u yerdagi Angliya elchisidan yordam soʻrab murojaat qilgan Xoja Muhammad Porsoga boshda oʻzlarining Hindistondagi vakili Jon Lourens, keyinroq esa Istanbuldagi elchilari Genri Ellab orqali oradagi masofa uzoqligini vaj qilib, rad javobini beradi.

Muarrix Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotini Mangʻitiya» asarida aytilishicha, bosqinchi qoʻshinlarning tobora ichkarilab kelishi amirlikning ilgʻor fikrli ziyolilari orasida qattiq nafrat uygʻotadi. Buxoroda madrasa talabalari junbushga kelib, chor bosqinchilariga qarshi gʻazot qilishni talab qilib chiqq boshlaydilar. Buxoro shahri raisi eshon Baqoxoja sadr amirni gʻazotga otlanishga daʼvat etadi. Ilojsiz qolgan amir, Abdulazim Somiy aytmoqchi, «beixtiyor bosqinchilarga qarshi yurishga qaror qildi. Muqaddas gʻazot uchun payshanba kuni beaded qoʻshin va behisob xayrixohlar bilan uzangiga oyoq qoʻydi va Buxoroyi sharifdan joʻnab ketdi»¹.

Amir chor qoʻshinlariga qarshi jiddiy harbiy tayyorgarlik koʻrmasdan, fuqarolarning qistovi bilan, oʻz qoʻshinini muqarrar halokat sari boshlab bordi. Voqealarning keyingi rivoji shunday xulosaga olib keladi.

Angliya va Turkiyadan yordam kutgan amir Muzaffar hatto oʻz homiyligidagi Qoʻqondan ham madad ololmaganidan tegishli

¹ *Mirzo Abdulazim Somiy*. Tarixi salotini Mangʻitiya. M., IVL, 1962, 61-bet.

xulosa chiqarmadi. Qo‘l ostidagi bor imkoniyatlardan foydalanib, barcha beklar va sardorlarning boshini qovushtirib, dushmanga qarshi birlashib hujum uyushtirishni ham o‘ylamadi. Bu hol bosh qo‘mondon Romanovskiyning qo‘shini Sirdaryo dashtiga chiqqani haqida xabar olgandan keyin amir Muzaffarning xatti-harakatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. U rus qo‘shinlarining yo‘lini to‘sh uchun 30 ming kishilik lashkarni Olloyor devonbegi qo‘mondonligida jangovar marrani egallashga buyuradi. Amir o‘z ixtiyoridagi lashkari bilan aprel oyining oxirlarida yo‘lga chiqadi va O‘ratepa yaqinidagi Rogun qishlog‘ida to‘xtaydi va amir Olloyor devonbegrining husni-jamolda tengi yo‘q qizini o‘z huzuriga keltirishni buyuradi. Yurt taqdiri uchun hayot-momot jangi oldida ham amir o‘zining huzur halovatini o‘ylaydi va haramiga keltirilgan 10 yoshli qiz, o‘z lashkarboshisining farzandi ekanligini ham unutib, ishratga beriladi. Olloyorbek devonbegrining sarbozi Parchayuz Abdurahmondan yozib olingan esdalikda aytilishicha, o‘sha tongda bu qizning so‘yilgan murdasini topishgan. Ko‘p o‘tmay, sevimli qizining mudhish o‘limi haqidagi xabar jangovor marrani egallab turgan Olloyorbek devonbegiga yetib keladi. U farzand dog‘ida kuyib, bir necha kun davomida chodirdan chiqmay yotadi. Olloyorbekka qilingan zulm uning qarindoshlari To‘xtamishbek va Fozil dodxohlarning amirga qarshi adovatini uyg‘otadi. Qo‘shni O‘ratepada ham norozilik kayfiyati kuchayadi. Amir Muzaffar esa qo‘shinning bunday holatidan bexabar holda, O‘ratepa bilan Jizzaxni birlashtiruvchi karvon yo‘li yoqasidagi katta bir tepalikda (u keyinchalik «Amir qochgan tepa» nomini olgan) o‘z qarorgohini o‘rnatadi. 1866 yil 8 mayda general Romanovskiy qo‘shinlarining ilg‘or qismi Erjarda ko‘rinishi bilan Olloyorbek va uning qarindoshlari To‘xtamishbek va Fozil dodxoh boshchiligidagi qo‘shin jang qilmay, Xovos tomon chekinadilar. Bu ish bilan ular begunoh halok etilgan qizchanning o‘limi uchun amirdan o‘ch oldik, deb o‘ylaydilar. Shaxsiy xusumat yurt manfaatidan ustun kelib, 30 ming kishilik lashkar jang maydonini bosqinchilarga bo‘shatib beradi. Natijada, chor qo‘shinlari amir ixtiyoridagi qo‘shinni bir hamla bilan to‘zg‘itib yuboradilar. Muzaffar jang maydonini sharmandalarcha tashlab qochadi.

Erjarda osonlikcha qozonilgan g‘alaba Romanovskiyni ruhlan-tiradi va chor qo‘shinlari 17 mayda Xo‘jand ostonalarida paydo bo‘ladi. Erksevarligi bilan tanilgan va bosqinchilarning ko‘p marta dodini bergan bu ko‘hna shahar bosqinchilarga qarshi mardimaydon yigitlarini jangga tashlaydi. «G‘arbiy qismlar, – deb yozgan edi Romanovskiy, – shaharga kirayotganlarida nihoyatda qattiq

qarshilikka duch keldilar. Shahar himoyachilari har bir qarich yer uchun jang qildilar». Xo'jand xalqining qahramonona kurashini Avaz Muhammad Attor Ho'qondiy shunday tasvirlaydi: «Xo'jandliklar g'ayrat kamarini bellariga bog'lab, ularni (rus askarlarini) orqaga qaytardilar... Shu payt xiyonatkorlar darvozani ochib berdilar. Shuning uchun Xo'jand qal'asini chor bosqinchilariga olish oson tushdi. Xo'jand fuqarosi ularning shaharga kirishlarini ko'rib g'ayrat va shijoat ila bosqinchilarning yo'lini to'sib, qat'iy harakatlar bilan jangga kirdilarki, yeru osmon, dono va nodon kishilar afsus barmoqlarini hayrat tishlari ila tishlab tahsin va ofarinlar aytdilar. Har ikki taraf to'pu to'fang, cho'pu tayoq ila bir-birlarini urib yakson qilardilar. Xususan, tub joy aholi ko'proq to'pu to'fang qurboni bo'lib, orqaga qaytib har biri ko'cha, mahalla va bog'lar ichidan qochib qoldilar. Bosqinchilar ham ular orqalaridan quvlab ketdilar, ko'cha, mahalla va bozorlarda odam qolmasdan, ayolu bola demasdan, ko'p kishilarni miltiq bilan otib shahid qildilar. Fayz osor shayx Muslihiddin hazratlarining mozorlarida panoj topgan g'aribu bekaslar, ko'ru cho'loqlar, gadoyu darvishlar, mayibu majruhlar – hammalari, kishi qolmasdan nobudlik olamiga ketdilar.

Madrasa va saroylar talon-toroj qililib, ko'p odamlar qatl etildilar. Ikki tomon ham tinchib, qiyomat asar mojoralari to'xtagandan so'ng, har bir toifa o'z o'liklarini topib, ularni sanash bilan mashg'ul bo'ldilar. Musulmonlardan 2600 kishi, erkagu ayol, kabiru sag'irdan shahodat darajasiga etib ekanlar; kuffordan esa 1200 kishi do'zax va jahannam dargohiga ketgan ekan. Shunday fojia ila Xo'jand fuqarolari bosqinchilarning zulm-sitamiga giriftor bo'ldilar. [Xo'jand] viloyatining mo'tamidlari ming ajzu dard ila janob xon (Xudoyorxon) valine'matga ketma-ket elchi bilan xat yuborib, islom ahlidan madad so'radilar. Janob xon uzoq muddat andisha dengiziga g'arq bo'lib, bosqinchilarga qarshi biron jur'at qilmadi».

Bosqinchilar bilan sakkiz kun davom etgan jangu jadallarda ana shunday mardiyon fidokorlardan besh ming kishi shahid bo'ladi. Dushman katta talafot evaziga Xo'jandni egallaydi. Shundan so'ng istilochilarning yovuz nigohi O'ratepaga qadaladi. Bosqinchilar 2 oktyabrda uning ostonasiga yaqinlashadilar. O'z eli, yurti, ozodligi uchun yonib kurashayotgan va shu yo'lga aziz jonini tikkan mardlar qatoriga keksa-yu yosh, va hatto, ayollar ham qo'shildi. Guvohlarning so'zlariga qaraganda, jangda O'ratepaning 30 ming himoyachisidan yarmi halok bo'ladi. Guvohlarning yozishicha, «jang shu darajada dahshatli bo'lganki, to'kilgan odam

qoni bamisoli ariq suviga o'xshab oqqan». O'ratepadagi janglar Avaz Muhammad Attor asarida batafsil bayon etilgan: «Abdulg'afforbek O'ratepa viloyatining hokimi edi. U bir qancha jasur va mard odamlarni yo'l qo'riqlashga yuborgan ekan. Yo'lda ikki guruh dushman bilan to'qnashdilar. Musulmonlar katta kuch bilan dushmanga shunday hamla qildilarki, tobu toqat va sabru sabot qolmadi va kelgan yo'llariga qaytib, ming nayrang ila qochib ketdilar. O'ktam yigitlar chaqqonlik bilan ularga yetib olib, po'latsimon nayzalar otib, yomg'irdek o'q yog'dirib, qo'shlarigacha quvib borib, qaytib keldilar. Musulmonlarning jur'ati ahli kufforga ma'lum bo'ldi. Beqaror yuraklarida sabru toqat qolmadi va ular payshanba kuni ertalab o'z joylaridan ko'chib, Ko'rvat mavzeiga keldilar. Vatandarparvar aholi bosqinchilarning yo'lini to'sib, sa'yu qo'shish ila yangi azim qildilar. Dushmanlarning harbiy qudrati zo'rliigi tufayli ahli tub joy aholi mag'lub bo'lib, urusha-urusha orqaga qaytdilar. Novkat mavzeiga kelib, otlarini to'xtatib, yana qattiq jangga kirishdilar. Har bir mavze' va qarorgoh uchun betinim jang qila-qila Moxovzor mavzeiga yaqinlashdilar». Bu jangda yurt himoyachilari dastlab dushmanni mag'lubiyatga uchratganlar. Rus manbalarida O'ratepadagi ularning mag'lubiyati haqida hech nima deyilmay, ko'proq Rossiya soldatlarining «jasorati»ga e'tibor beriladi¹. Muarrix Avaz Muhammad Attor Ho'qondiy asarida esa haqiqiy manzara tasvirlangan: «Ahli kuffor qal'ani egallash qasdi ila yo'lga chiqdi. Musulmonlar bir qancha musulmon merganlarni qal'a atrofiga joylab qo'ygan ekanlar. Merganlar battol dushmanni yaqinlashishlari bilanoq ularning atroflarini o'rab olib, to'pu to'fangni jo'shu xurujga keltirib, to'rt tomondan muqobatsiz otdilar. Ularda tob-toqat qolmadi va natijada katta zarar ko'rib, qattiq zarba yeb qaytdilar. Kundan-kunga jangu jadal kuchayib borardi. Yakshanba kechasi, jumodi uloxir oyining 4-si, yo 5-sida bosqinchilar uchta darvozaga odamlarni ta'yinlab va o'rmashtirib, Mug' darvozasining chuqur xandaqini xasxashak bilan to'ldirib, shunday keng joyni bir kechada tekis qilib, o'zlariga yo'l ochib, tongni kutib turdilar. Shu payt shahar aholisi g'ofil va o'z ahlu holiga mashg'ul bo'lib, olamdan bexabar uyquda yotar edilar. Biroz vaqt o'tgach, sahar paytida, shahar darvozalariga bir ming-ikki ming kishini qo'yib, Rusiyaning gubernatori va generali ko'p sonli to'da ila Mug' darvozasida hozir bo'ldi. To'satdan o'zlari tekislagan yo'ldan o'tib, shahar darvozasidan kirib tug' sanchig'ini Mug' qal'asiga o'rnatishni buyurdi. [Mug' qal'asi] shu

¹ Sodiqov H., Shamsutdshov R., Ravshanov P. Jasorat va xiyonat. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1998 yil, 27 fevral.

viloyat hokimining joyi edi. Dushman qo'shinining qolgan lashkari shaharga har bir darvozadan firqa-firqa, to'b-to'b, guruh-guruh bo'lib qichqirib, shovqin-suron ko'tarib kirdi va olamni to's-to'polonga ko'mib bozorga yaqinlashdilar. Tub joy aholisi hamiyatini dilga joylab Saddi Iskandardek turib jang qilardilar. Ular o'z yurtining hokimi Abdulg'afforbek bosqinchilar kelishi bilanoq juftakni rostlaganini eshitib, zaif va bemador bo'lib, qochishni mo'ljal qildilar. Odamlar xilvat joylarga yashirinib, dushman nazardan maxfiy bo'ldilar. Qishloq va sahrodan shaharga kelgan aholi jangga tushib o'ruslarning to'pu to'fanglari sochgan otash balosidan nobud bo'lib, shahodat darajasiga yetub, oxirat olamiga ketardilar. [O'ruslar] uch soatga yaqin viloyatni talon-toroj va aholini qatl qilib, zamona mardumiga omonlik berdilar. Shu dahshatli jang jarayonida bizning aholidan sakkiz mingdan ko'proq kishi dushmanning to'fang va shamshirlari tig'idan ajal topdi. Bosqinchilardan o'lganlarning soni besh mingdan oshib, do'zax otashiga sazovor bo'ldilar. [O'ruslar] kuch ila O'ratepa mamlakatini o'z qo'llariga oldilar».

Istiloachilar endi o'z oldiga Jizzaxni zabt etishni maqsad qilib qo'yadilar. Avvalgi mag'lubiyat alamini unutmagan bosqinchilar 11 oktyabrda uni qurshov ostiga oladilar. Mudofaachilar ruslarning birinchi hujumini muvaffaqiyatli qaytarishadi. Qamalning ikkinchi kunidagi to'qnashuv ham g'oyat dahshatli va beayov bo'lganligi haqida muarrix Mirzo Abdulazim Somiy yozib qoddigan.

Jizzaxdagi janglarda Iskandarbek boshchiligidagi afg'on harbiylari o'zlarini ko'rsatishdi. Ular to'p otishda mohirliklari bilan mudofaachilarga dalda berishdi. Chor Rossiyasi askarlari dastavval shaharga boradigan suvni berkitib, Samarqand va O'ratepa darvozalaridan hujum qilishga kirishdilar. 15 oktyabr kuni kechqurun kapitan Mixaylovskiy 4 piyoda rota, 6 to'p va 2 mortira bilan Samarqand darvozasi ostonasidan joy oladi. Polkovnik Voronsov-Dashkov qo'mondonligidagi 2 rota, 200 kazak va 4 to'p shaharning janubi-g'arbiy burchagiga o'rmashtiriladi. Shahar qal'asiga hujumda Mixaylovskiy, Grigorev, Voronsov-Dashkov va Pistolgars boshchiligidagi qismlar qatnashgan. Chor qo'shinlari hech qaerda bunday qattiq mudofaaga duch kelishmagan edi. Ularni Jizzaxda bir voqea hayrat va dahshatga solgan. Vatanparvarlardan bir qismi dushmanga asir tushishdan o'limni afzal ko'rib, o'zlarini portlatib yuborishadi. Rus tarixchilaridan biri ana shunday fidokorlik haqida hayratlanarlik bir ma'lumot keltiradi: «Shahar himoyachilarining qahramonligi va qattiq qarshilik ko'rsatishiga tan berish lozim. Hatto qal'adagi

bir qism kishilar urushni davom ettirishga iloj qolmaganidan keyin porox omboriga kirishib o'zlarini portlatib yubordilar. Bunday qilish uchun yuksak ma'naviyat, katta jasorat va matonat kerak bo'lgan».

Chor Rossiyasi qo'mondonligi soldatlarga Jizzaxni talon-toroj qilishga ijozat beradi. Rossiya matbuoti, xususan, «Russkiy vestnik» ro'znomasida shahardan talangan boyliklar haqida ko'p xabarlar chop etilgan.

Jizzaxda turli-tuman boyliklar shu darajada ko'p va bebaho bo'lganki, bunaqasini ruslar hali ko'rmagan edi. Ularning orasida har xil qimmatli kiyim-kechaklar, tilla va kumush bilan sayqallangan yarog'-aslaha, egar-jabduqlar va boshqa buyumlar ko'p edi. Kishini hayratga soladigan turkman otlarini ko'rish mumkin edi. Turk, kavkaz va rus qilichlari bor edi. Juda ko'p otlar qo'lga kiritilgan. Hatto bir soldat ming tilla tangasi bor xaltacha «topib olganligi» haqida ovozalari tarqalgan.

Orenburg general-gubernatori Krijanovskiyning Rossiya harbiy vaziri Milyutinga 19 oktyabrda yozgan telegrammasida aytilishicha, Buxoro amirining Sirdaryo vodiysidagi so'nggi tayanchi bo'lgan Jizzax besh kunlik qamaldan so'ng, 18 oktyabr kuni soat 12 da egallangan: «...26 bayroq, 53 ta qurol va juda ko'p boyliklar qo'lga tushirildi. Bizning yo'qotishimiz, Xudoning irodasi bilan, 100 kishidan kamroq bo'lib, 4 zobitimiz yaralandi». Shu o'rinda, Qo'qon hukmdori Xudoyorxonning o'z homiysi Buxoro amiriga nisbatan xoinona ish tutganini muarrixlar tarix sahifasiga muhrlab qoldirganligini aytilish lozim. Xudoyor hatto Xo'jand va Jizzaxda minglab vatanparvarlarning qonini to'kkan general Romanovskiyga tabrik telegrammasi yo'llagan. Unda, xususan, mana bu gaplar bor: «Oq podshoh bilan do'stlikni saqlab, turli bahonalar bilan Qo'qondan chiqmadim va o'z hududlarimni saqlash uchun 35 ming kishilik qo'shinni to'plab, Shaytonmuzgarda turdim. Shundan so'ng, Xo'jandda turgan amir o'z qo'shini va harbiy boshliqlarini olib, shaharni mutlaqo bo'sh qoldirganligini eshitdim. Bu xabarni eshitib, o'z qo'shinim va zambaraklarim bilan orqaga qaytdim. Agar men Oq podshoh bilan do'stlikni istamaganimda, qo'shinim bilan Shaytonmuzgardan qaytmasdan Xo'jandga kirar edim... Olloh yordamida Siz Xo'jandni zabt etdingiz. Buni eshitib, ilgarigi do'stlikni mustahkamlash uchun Sizni g'alaba bilan tabriklayman». O'shanda Xudoyorxon «Oq podsho bilan do'stlik» Farg'ona saltanatiga va, qolaversa, o'ziga qanday qimmatga tushishini xayoliga ham keltirmagan edi.

General Romanovskiyning e'tirof qilishiga ko'ra, Jizzax mudo-faachilaridan 6 ming kishi o'ldirilgan, 2 ming kishi asir olingan.

Orenburg general-gubernatori general Krijanovskiy Buxoro amirligi hududidagi bosqinchilik urushini bundan so‘ng qay yo‘sinda davom ettirish rejalarini tuzish uchun Peterburgga borib, kerakli ko‘rsatmalar olib qaytdi. Shundan keyin, u general Romanovskiyning Buxoro qo‘shinlari ustidan qozongan g‘alabasidan mamnunligini shunday izhor qiladi: «Sen amirni yengishga muvaffaq bo‘lganingdan keyin, uni iskanjaga olishda davom etib, nafas rostlashiga imkon bermasliging zarur. Qo‘qon xoni Xudoyorning esa bizga vassal bo‘lishdan boshqa iloji yo‘q. Bordi-yu, bizga qarshi harakat boshlasa, uning masalasini ham butunlay tugatar edik».

Rossiya hukumati yangidan bosib olingan yerlarni boshqarish va bu harakatni yana davom ettirishni muvofiqpashtirish uchun 1867 yilning 11 iyulida Turkiston general-gubernatorligini ta‘sis etdi va uning rahbarligiga podshoh Aleksandr II bilan yaqin aloqada bo‘lgan general K.P. Fon Kaufmanni tayinladi. Turkiston xalqi istehzo bilan «yarim podshoh» deb atagan K.P. Kaufman mustaqil ravishda urush e‘lon qilish, sulh tuzish va boshqa ko‘plab vakolatlarga ega bo‘ladi.

Buxoro amirining o‘sha vaqtdagi faoliyatini muarrix shunday tasvirlaydi: «Hukmdor muttasil qayg‘urib, – deb yozadi Mirzo Abdulazim Somiy, – chora-tadbirlar ko‘ra boshladi. Jizzaxdan omon etib kelgan kam sonli kishilarning ko‘pchiligi yarador va xasta, otsiz, quolsiz edi... Amir janobi oliylari Samarqanddan Karminaga kelib qaror topdi. Abdulmalik to‘ra (amir Muzaffarning to‘ng‘ich o‘g‘li, G‘uzor hokimi – muall.) bilan Histori shodmon hokimi Rahmonquli parvonachini Samarqandda qoldirdi. O‘rislar Jizzaxni egallagandan o‘n besh kun o‘tkazib beadam qo‘shin bilan Ilon o‘tti orqali Samarqandga ravona bo‘ldilar»¹.

General-gubernatorlik vazifasiga tayinlangan fon Kaufman 1868 yilning 1 yanvarida Toshkentga keldi. U ham Chernyaev kabi Turkiston zamindagi xunrezliklarni niqoblash maqsadida nayrangbozlik yo‘liga o‘tdi. U Rusiya davlati mavqeini mustahkamlash va Turkiston o‘lkasidagi fojialarni xaspo‘shlash maqsadida bir guruh tub aholi vakillarini, Markaziy hukumat bilan kelishgan holda, Peterburgga yuborishga qaror qildi. Bu vakillar asosan Rossiya davlatiga sodiq kishilardan iborat bo‘lishi kerak edi. Vakillar ro‘yxatiga shayxulislom Nosir mullo Isoq (Turkiston shahridan), Qozi Mirzo Talashpan (Chimkentdan), oqsoqol Amin so‘fi Shayxov (Iqon qishlog‘idan), dug‘lat qabilasining biyi mayor Xudoybergan (Avliyootadan), qoraqirg‘iz qabilasining biyi Boytiq

¹ Mirzo Abdulazim Somiy. Ko‘rsatilgan asar, 66-bet.

Kanap (Avliyootadan), Sayidazimboy Muhammadboev, Eshonxon Imomxonov (Toshkentdan), qozikalon Yusufxoja Abdullaxoja (Xo'janddan), oqsoqol Abdug'affor Sarimsoqov (Jizzaxdan) va boshqalar kiritilgan edilar. 1867 yil mart oyida Peterburgga yetib kelgan Turkiston vakillari dabdaba va izzat-ikrom bilan kutib olindi. Ular, tuzilgan rejaga asosan, hukumat vazirliklarida, Imperator saroyida, xalq kutubxonasida, muzeylarda, fanlar akademiyasida, hayvonot bog'ida, Petropavlovsk qal'asida, fabrika va zavodlarda, savdo birjasi va do'konlarda, teatr va sirkda, kasalxonalarda, Imperator bog'i (Sarskoe selo)da va Peterburgning boshqa diqqatga sazovor joylarida bo'ladilar. Bunday «mehmondo'stlik»ning asosiy maqsadi Rossiya davlatining qudratini namoyish qilish edi. Turkiston vakillarini, hatto, podshoh Aleksandr II ning o'zi qabul qiladi. Ular Turkiston aholisining Rossiya davlati tobeligiga olinganligidan baxtiyorligini, o'lkaning imperatorga abadiy sodiqligini izhor etuvchi maktubni topshirganlar. Bu maktubga Toshkent, Turkiston, Xo'jand, Chimkent va boshqa erlarning oqsoqollaridan 59 kishi imzo chekib, muhr bosganlar. Murtdalik va sotqinlikdan iborat «vazifa»ni ado etgan Turkiston «vakillari»ning aslida Vatan va xalq irodasini ifodalashga ma'naviy huquqlari yo'q edi.

Shu tariqa, chor ma'murlari Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi aholi go'yo o'z «ixtiyori va xohishi» bilan Rossiya davlati fuqaroligiga o'tganligini jahonga namoyish qilishga urindi.

Zamonaviy harbiy qurol-aslaha jihatidan ruslarga barobar ke-
lolmagan Buxoro amiri fon Kaufmanga elchi jo'natib, sulh shart-
nomasi tuzishni taklif qiladi. Ammo K.P. Kaufman Buxoro amiri
oldiga juda og'ir shartlar qo'ygach, bu shartnoma imzolanmadi.
Shundan keyin amir Muzaffar oxirgi umid bilan Turkiya hukumatiga,
Afg'oniston va turkmanlarga elchilar yuborib, shoshilinch yordam
ko'rsatishni so'radi. Turkistondagi so'nggi voqealar haqida yozilgan,
biri amir Muzaffarga, ikkinchisi qushbegi Muhammadshohga tegishli
ikki maktub 1868 yilning aprel oyida Makkadan – haj safaridan
Istanbulga qaytgan elchi Xoja Muhammad Porso qo'liga tegadi. U,
amir Muzaffarning 1868 yilning 7 fevralda yozilgan, jami 14 kishi
imzolagan forscha maktubini Turkiya hukumatiga topshiradi.

Mavzuga oid dalolat

Amir Muzaffarning Turkiya sultoniga murojaatnomasi

«Sizlarga so'nggi marotaba arz qilamizki, Rossiyaning istilo-
chi-lik faoliyati uning jur'atini yanada oshirdi. Ruslar bir necha
vaqtdan beri qarorgoh sifatida foydalanib kelishayotgan Oqmachit-

dan chiqib, Hazrati Sulton, Chimkent, Avliyoota va Toshkentni qo'lga kiritib, xalqning ko'pini shahid qildi hamda tub joy aholiga haddan ortiq adolatsizlik va zulm o'tkazdi.

Oradan bir yil o'tgach, Jizzax yaqiniga kelgan bo'lsalar-da, mag'lub bo'lib, Sirdaryo sohilidagi To'raqo'rg'on degan mustahkam bir joyda qishladilar. Janobi oliylari amir katta qo'shin bilan dushmanlar ustiga yurdi. Buxoro qo'shini kuchli va tartibli bo'lgan bosqinchilarning urushish usulini bilmaganligidan ortga qaytdi. Buning oqibatida dushmanning jasorati oshib, Xo'jandni oldilar va ancha aholini shahid etdilar. Rossiya qo'shini Xo'janddan chiqib, Yangiqo'rg'onni oldi va O'ratepaga yaqin keldi. O'ratepani olgan chor qo'shinlari ko'plab aholini o'ldirdilar. Jizzax sari yurib, bir hafta ichida Jizzax qo'rg'onini olgan ruslar bu yerda had-hisobsiz tub joy aholisini o'ldirdilar. Janobi oliylari bu xabarni eshitib, ko'p sonli qo'shinni Jizzaxga jo'natdi. Bu vaziyatda chor Rossiyasi sulh shartnomasi tuzmoqchi ekanliklarini aytib, Buxoro qo'shinini hiyla bilan orqaga qaytardilar. Qo'shinning orqaga qaytganidan keyin Yangiqo'rg'on va Jizzaxdan uch farsax uzoqlikdagi soy bo'yiga kelgani haqida xabar yetgach, juda ko'p askar va to'p bilan dushman ustiga yurildi. Ikki-uch marta kichik janglar bo'ldi. Orenburg hokimi Yangiqo'rg'onida turarkan, Buxoro amiriga bir maktub yuborib, sulh tuzish istagini bildirdi. Buxoro amiri dushmanga aldanib, qo'shinni orqaga qaytardi. Buni eshitgan Rossiya o'z qo'shinini Yangiqo'rg'onidan olmadi. Hodisaning vuqu' etishini arz qildik. Xalifa hazratlari dushman askarlarini tub joy aholidan uzoqlashtirsin, shu tariqa islom rivoj topsin va zaiflashmasin. Bu tarafda janobi oliylari to'pxona qurdirib, 10.000 kishilik askar dushman bilan qarama-qarshi turibdir. Agar Xalifa hazratlari (Turkiya sultoni) maktub yoki kishi yuborib Rossiya qo'shinlarini tub aholidan uzoqlashtirsa, davlatining rivojini va yaxshilikla eslanishining sababi bo'lajak chorasiz qolgan bu aholi Xalifaning bu sharofati bilan qutulsalar, amal daftariga buyuk savob yoziladi. Ojizlik va chorasizlik ichidagi aholining ahvoli Xalifa hazratlariga bildirilsin»¹.

* * *

Musulmonlar xalifasi – Turkiya sultoni Abdulaziz (1830–1876)
Buxoro amiriga yordam beradigan ahvolda emas edi. Chunki Ros-

¹ *Mert U.* Buxoro amirining elchisi Muhammad Porso afandining Istanbuldagi diplomatik faoliyatlari (1867–1869). «Turk kulturi arastirmalari», XU/1-2. 1976, 98–99 va 112–113-betlar.

siya ta'sirining Bolqon yarim orolida yoyilishi Turkiya davlatiga xavf-xatar tug'dirib turardi. Shuning uchun Fransiya imperatori Napoleon III taklifiga binoan Parijda ochilgan katta bir ko'rgazmani tomosha qilish bahonasi bilan 1867 yilda Fransiya ketib, qaytishda yo'l-yo'lakay Angliya qirolichasi Viktoriya, Belgiya qiroli Leopold II, Prussiya qiroli Vilgelm I, Avstriya imperatori va Vengriya qiroli Fransua Jozef I, Ruminiya shahzodasi Karl I lar bilan uchrashgan Abdulazizxon, nihoyat, Buxoro amirining maktubini muhokama qilishni lozim topadi. Ammo, Turkiya hukumatining Maxsus majlisi 1868 yilning may oyi boshlarida xatni muhokama qilishga kirishgan bir paytda, Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi urush yanada kuchayib, amir Muzaffarning chor hukumati bilan sulh tuzishdan o'zga chorasi qolmaganligi haqida xabar olinadi.

Shu o'rinda, Turkiston general-gubernatorining 1868 yil 22 aprelda Samarqand shahri aholisiga qilgan «Murojaatnoma»sini keltirib o'tish lozim. Unda, jumladan, shunday deyilgan: «Samarqand shahrining fuqarolari! Mana, men 6 oydan buyon hukmdorimning ruhsatiga binoan, sizlarga tinchlik va osoyishtalik baxsh etishga g'amxo'rlik qilmoqdaman. Oq podshoh urushishni istamaydi. Lekin Amir mening yaxshi niyatlarimni tushunmaydi, yoki tushunishni xohlamaydi. U foydali tinchlik sulhini tuzish o'rniga, qo'shini va xalqini Rossiya bilan urushishga tayyorlamoqda. Men urush orqasida xalqning qoni to'kilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralarni ko'raman. Men zarari tegmayotgan xalqqa emas, amirga qarshi borayotirman. Chunki Oq podshoh odamlarga yomonlik emas, yaxshilik istaydi. Agar sizlar tavsiya etilgan bitimning qabul qilinishiga meni ishontirsangiz, qon to'kilmaydi va qo'shin qaytarib olib ketiladi. Oq podshohning maqsadi – tinchlikni saqlash va urush qilmaslikdan iboratdir. Fursatni qo'ldan bermangiz!»¹.

Kaufman boshchiligidagi Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari javobni kutmasdan Samarqand bilan Jizzax o'rtasidagi Yangiqo'rg'on tomon yo'l oladi. Dushman yurishi haqida xabar olgan Samarqand begi Boboxoja amirga quyidagicha axborot yuboradi: «Taqsir, men olgan ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya askarlari Yangiqo'rg'onda turishibdi. Yaqin kunlarda Samarqandga yurishsa kerak. Bunga qarshi qanday chora ko'rishni buyurasiz? Sizning ko'rsatmangizga binoan, o'g'lingiz boshchiligidagi qo'shin Cho'ponota tepaligiga o'rmashtirildi. Aholining bir qismi qurollantirilib, askarlarga qo'shib qo'yildi. Fuqarolaringiz Sizning kelishingizni, erta tongda quyosh

¹ Очерки военных действий 1868 г. в Зарафшанской долине, стр. 189.

chiqishini poylagandek, kutmoqdalar. Sizning tashrif buyurishingiz jasoratli qo‘shiningizni ruhlantirishi mumkin». Ammo amir Muzaffar jur‘atsizlik qilib, Samarqandga faqat bir Mirzo Shamsiddinxo‘jani yubordi. Bu paytda Samarqand atrofida minglab yurt fidokorlari bosqinchilarga qarshi shaylanib turgan edi. Ularning safida ruslarga qarshi uzoq yillar davomida jang qilib boy harbiy tajriba to‘plagan Sulton Sodiq Kenesarin 2 mingdan ziyod qozoq vatanparvarlari bilan alohida zarbdor kuch sifatida turardi.

Amir Muzaffar tasarrufida bo‘lgan Samarqand shahrida bu paytda Sherali inoq hokim edi. Abdumalik to‘ra ham uning yonida o‘z lashkari bilan turardi. Tarixchi Abdulazim Somiyning achinish bilan yozishicha, Sherali inoq zulmidan Samarqand ahli dodu faryodga kelganligi tufayli, ular amir Muzaffarga arznoma yo‘llab, shunday shartni qo‘yadilar: «Tobakay, bizni Sherali inoq zulmidan qutqarib, yangi bir hokim qo‘ysalar, shunda barchamiz – ayollar, erkaklar, kattayu-kichik, to oxirgi kishimiz qolguncha dushmanga qarshi turgaymiz, zeroki, Buxoro lashkari parokanda bo‘lib, bosqinchilar bilan jang qilmoqqa biron-bir sa’y-harakat ko‘rsatmaydurlar»¹.

Taassufki, amir Muzaffar Sherali inoq qahridan ozurda va bezor bo‘lgan shahar xalqi talabini inobatga olmaydi. Aksincha, inoqqa qattiq ishonch bog‘laydi. Oqibatda, yanada havolangan Sherali inoq amirga murojaat qilganlardan ayovsiz o‘ch oldi. Bu ham kifoya qilmay, Abdumalik to‘raga ham shubha tug‘diradi. Go‘yo yosh to‘ra taxtni egallash ilinjida isyon qilmoqchi, degan tuhmat bilan uni G‘uzorga jo‘natib yuborishga harakat qiladi. Abdumalik to‘raning Samarqandda turishi uning (Sherali inoqning) erkin harakat qilishiga, bir darajada bo‘lsa-da, mone‘lik qilardi.

Sherali inoq faoliyatining yomon tarafga yo‘nalish olishi Samarqand aholisiga qattiq ta‘sir qiladi. Shahar oqsoqollari achchiq ustida gubernatorga maktub yo‘llab, ularni o‘z panohiga olishni so‘raydilar. Bu esa Kaufmanga juda qo‘l keladi.

K.P. fon Kaufman o‘zining bosqinchilik urushini oqlash maqsadida Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlariga quyidagi mazmunda murojaatnoma yo‘lladi: «Keyingi vaqtlarda Buxoro, Samarqandda Rossiyaga qarshi qo‘shin to‘planayotganligi haqida aniq ma‘lumotlar olinmoqda. Samarqandda ruslarga qarshi urushni targ‘ib qilayotgan va go‘yo din uchun kurashayotgan mutaassiblar yog‘ilib kelib, Sirdaryo viloyatining o‘troq aholisini g‘alayonga da‘vat etmoqdalar. Men yarim yil mobaynida muzokaralar vositasida

¹ Mirzo Abdulazim Somiy. Ko‘rsatilgan asar, 67-bet.

tinchlikka erishish uchun bor kuchimni sarfladim. Buxoroliklarning sulh shartnomasini uzil-kesil qabul qilishni atayin cho'zishga qaratilgan nayranglarini sezmaslikka intilib, Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi sulh bitimini tuzish zarurligiga amirni ishontirishga ko'p urindim. Men amir bir necha bor rus qo'shinlari bilan bo'lgan to'qnashuvlardan o'ziga saboq oladi, deb o'ylagan edim. Ammo amir qurol kuchi bilan o'zining O'rta Osiyodagi mavqeini tiklashga harakat qilmoqda. Agar Buxoro qo'shinlarining to'planishi Rossiyaga qarshi qaratilgan bo'lsa hamda bizning chegaralarimizda qurol ishlatmay, tinchlikni ta'minlashning iloji bo'lmasa, u vaqtda qo'lda qilich bilan tinchlikka erishish zaruriyati tug'iladi».

Voqealarga shohid bo'lgan kishilar va mahalliy tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, chor armiyasining qo'shinlari Yangiqo'rg'onni egallagach, zarbani qadimiy shahar Samarqandga qaratadi.

Cho'ponota tepaligida mudofaada turgan Buxoro qo'shini 12000 piyoda, 3000 otliq, 1500 to'pchidan iborat edi. Ularning yarmidan ko'pini ko'ngillilar tashkil etardi. Piyoda askarlarning bir qismi tepalik tagida, qolgan ko'proq qismi esa tepalik ustida joylashtirildi. Piyoda askarlarning o'rta va orqa tomonini otliq sarbozlar egallagan. Tepalikning oraliq qismiga 20, boshqa joylariga yana 20 to'p o'rnatilgan edi.

1868 yil 1 may kuni Buxoro qo'shinlari bilan dushman askarlari o'rtasida Cho'ponota tepaligida Samarqand uchun hal qiluvchi jang bo'ladi. Minglab yurt fidoyilarining qoni to'kilgan bu tepalikda istilochilar keyinchalik g'alaba tantanasi sifatida xochqubbali baland yodgorlik minorasini o'rnatdilar. Unga jangda ishtirok etgan Turkiston yo'nalishi (liniyasi) batalonlari, rotalari, Orenburg kazak polki bo'linmalari va ularning zobitlarining nomlari bitildi.

Harbiy axborotlarda Samarqand Cho'ponota tepaligidagi jangdan so'ng, 2 mayda jangsiz egallanganligi aytiladi. Ammo, uning haqiqiy tafsilotlari atay unutiladi. Ruslarning Samarqandni egallashida yordam bergan xoinlar tilga olinmaydi. Bu xususda mahalliy muarrixlarning guvohligi e'tiborga loyiqdir. Aytilishicha, 1868 yil 2 mayda Samarqand sotqinlaridan bir guruhi fon Kaufman huzuriga kelishadi. Ularni mamnuniyat bilan qabul qilgan general-gubernator bu xiyonatkorlarga Rossiya soldatlarini shahar darvozasida, ularning odatiga ko'ra, non-tuz bilan kutib olishni buyuradi. Shundan keyin Kaufman boshchiligidagi dushman qo'shini qozikalon, katta oqsoqol va boshqa amaldorlar kuzatuvida shaharga kirib keladilar.

General-gubernator g'alaba munosabati bilan Peterburgga tubandagicha axborot yuboradi: «Siz imperator oliy hazratlarini O'rta Osiyoning qadimiy va mashhur shahari, o'zining shon-shuhrati bilan

g'ururga sabab musulmonlarning markazi Samarqandning egallanishi bilan tabriklayman!» Rus rassomi va zobiti V.Vereshchagin yozadi: «Biz hammamiz, ya'ni Samarqandni zabt etuvchilar, general Kaufman izidan borib, amir saroyida joylashdik. Nihoyatda baland va keng xonalardan iborat asosiy binoni general, saroy atrofidagi uylarni biz – qarorgoh a'zolari egalladik. Mening qadrdomim, general Golovachev chekiga esa, amirning sobiq harami tushdiki, ilgari har qanday mard, jasur jangchining ham qadami bu yerga yetishi amri mahol edi. Tabiiyki, biz kelguncha qushchalar qafaslardan bo'shalib, uchib ketishga ulgurishgan ekan. General Kaufman xonalari bilan bizning xonalarimiz Temurlangning mashhur taxti turgan xonaga tutashib ketgandi. Muhtasham saroy aylanisini hashamatli yo'laklar tashkil etardi. Turli chiroyli bo'rtma naqshlar bilan zeb berilgan bu xonada katta oq marmar bo'lagi – ulug'vor taxt – ko'ktoshning ayni o'zi turardi. Bu saroyga butun Osiyo va Yevropaning ko'pgina joylaridan hukmdorlar hamda elchilar tashrif buyurishgan, ta'zim bajo keltirishgan, tobelik va sadoqat ramzi sifatida qimmatbaho sovg'a-salomlar keltirishgan. Temurlang bu taxtda viqor to'kib o'tirib, ko'p sonli vassallarini qabul qilardi. Men ko'pincha general Kaufman bilan hozir biz zabt etgan joylarning tarixi, bu yerga kelishga ulgurgan sayyohlar, kitoblar va hokazolar haqida fikr almashgan holda zalda aylanib yurardim».

K.P.Kaufman 1868 yil 3 mayda shaharning kattalari, din pesholari va, umuman, nufuzli kishilar ishtirokida qabul marosimi o'tkazadi. Bunda bir to'da sotqinlar shaharni Oq podshoh panohiga olganligi va rus qo'shinining «saxiyligi» uchun K.P. Kaufmanga minnatdorchilik bildirishib, xalqni Oq podshohga sodiq bo'lishga da'vat etishlarini va'da qildilar. K.P. Kaufman yaloqxo'rlarga to'nlar kiygizadi, ba'zilarini imperator nomidan kumush medallar bilan mukofotlaydi. Birinchi nishon shaharning «urushsiz taslim bo'lishini» izhor etgan to'da boshlig'i – qozikalonga berildi. Ammo qozikalon, meni xalq islomdan qaytgan kishi sifatida ko'rsatadi va ta'na qiladi, deb medalni olishdan bosh tortadi. Bunga javoban fon Kaufman shunday deydi: «Yaxshi, men medalni chakmoning ustiga taqmasligingga roziman. Lekin uni olib, buyuk Oq podshoh tasvirini yuragingda saqla. Ma'lumki, imperiya tarkibida ko'p millatli musulmonlar farog'atda yashab, ularga o'zlarining diniy e'tiqodlarida qolish xuquqlari berilgan. Yaqindagina Samarqandning Oq podshoh panohiga olinishini so'ragan sen emasmiding?» Shundan keyin qozikalon medalni olib, uni ko'kragiga taqib yurishini aytadi. Istilochilar mukofotiga «sazovor» bo'lgan boshqa sotqinlar ham yer o'pib o'z minnatdorchiliklarini izhor qilib, hamma vaqt nishonni taqqan

holda Kaufmanga ko'ringanlar. Qozikalon ham yuragining ustiga taqilgan medalni har gal harbiy okrug boshlig'i bilan uchrashganda namoyish qilib turgan.

1868 yil 4 mayda K.P.Kaufman Samarqand shahri va atrof aholisi nomiga murojaatnoma yozadi: «Ulug' rus podshohining panohida yashashni xohlovchi turli shahar va qishloqlar vakillarini qabul qilib, ma'lum qilamanki, hamma odamlar o'z uylarida va yerlarida yashab, mol-mulklaridan foydalanaversinlar. Katta shaharlarga keragicha muftiylar va a'lamlar qo'yiladi. Barcha kishilar tinch va bir-birlariga dushmanlik qilmasdan yashashlari uchun oqsoqollarga, qozilarga, maxdumi a'zamlarga hamda muftiylarga general-gubernatorning imzosi chekilib, muhri bosilgan yozma buyruqlar beriladi. O'zlaringizning kasblaringiz va savdo-sotiq'laringiz bilan shug'ullanaveringlar. Oq podshohning hukmi bo'yicha shariat eskicha o'z kuchida qolaveradi.

Har biringiz masjidlarda Oq podshoh va uning oilasining sog'lig'ini so'rab, duo qilinglar!

Sirdaryoning chap va o'ng qirg'oqlaridagi Rossiya tasarrufiga o'tgan yerlardan xazina foydasiga belgilangan tartibda xiroj va boshqa soliqlar olinadi. Agar amirning odamlari qishloqlarga kelishib, soliq to'plasalar, u vaqtda ular tutilsin va boshliqlarga topshirilsin. Sizlarning gubernatoringiz va boshlig'ingiz etib, general Golovachevni tayinladim».

Shu bilan birga general-gubernator Buxoro amiriga quyidagi sulh shartlarini yuboradi:

1. «A'lohazrat, Rossiya imperatori janoblari hukumatiga mansub bo'lgan yerlarga avvaldan ishg'ol etilgan, Koshg'ar, Dovon, Nurota tog'lari shimolidan tashqari, Oq podshoh tobeligiga o'tishni iltimos qilgan Samarqand shahri o'z muzofotlari bilan Rossiya tarkibiga kiradi. Janub tomondan bu o'lka Shahrisabz tog'lari bilan chegaralanib, Zarafshon vodiysi va Nurota tog'lari o'rtasidan o'tadi. Buxoro bilan bo'ladigan chegara esa, shu sulh bitimi amir janobi oliylari tomonidan taklif etilgan shartlar bilan qabul qilinib, ular o'z muhrlarini bosib qaytarganidan so'ng aniqlanadi. Shundan so'ng, chegara g'arb tomondan Nurota tog'larining eng baland joyidan va Buxoro hududida joylashgan Nurota qal'asidan o'tadi. Shu yerdan Qizilqum sahrosi o'rtasidan o'tib, Bo'kantog' orqali Yangidaryo quyilishigacha o'tadi.

2. Hamma rus fuqarolari, qaysi dinda bo'lishlaridan qat'i nazar, Buxoroga va uning boshqa joylariga borib, savdo qilish huquqiga ega bo'ladilar. Buxoro amirining fuqarolari ham ilgari gidek, Rossiya imperiyasi bilan savdo qilishlariga ijozat beriladi. Amir janobi

oliylari Rossiya fuqarolarini karvon va barcha mol-mulklari bilan himoya qilib, ularning o'z mulki hududida xavfsizligini nazorat qiladi.

3. Rossiya savdogarlari uchun Buxoro shaharlarida va ular xohlagan joylarda o'z mollarini saqlash uchun karvonsaroylar qurilishiga ijozat beriladi. Rossiya shaharlarida ham Buxoro savdo ahli uchun shunday huquq beriladi.

4. Savdo ishlarining to'g'ri borishi va qonuniy boj olinishini nazorat qilish uchun rus savdogarlari o'z ixtiyorlari bilan Buxoro amirligining har bir shaharida o'zlarining karvonboshilari bo'lishiga huquqlidirlar.

5. Rossiya hududidan, Buxoroga yoki Buxorodan Rossiyaga olib boriladigan tovarlardan Turkiston o'lkasida olinadigan hajmda, har holda, Buxoroning aholisi bilan bir xilda, ya'ni molning umumiy qiymatidan 2,5 foiz miqdorida boj olinadi»¹.

Fon Kaufman, ayni vaqtda, Buxorodan katta tovon olinishini eslatishni ham unutmagan.

Buxoro amiri Muzaffar Samarqand voqeasidan dahshatga tushib va jahl ustida ushbu shum xabarni keltirgan kishini osib o'ldirishga hukm qiladi. Amirning chorasiz va ilojsiz vasvasasi asta-sekin yig'iga aylandi. U «xudo meni Samarqanddan mahrum qilgandan ko'ra, jonimni olgani yaxshi edi!», deb nolayu fig'on chekdi. Darhaqiqat, bir vaqtlar ulug' poytaxt bo'lgan bu shaharni bosib olinishi katta musibat ediki, bu voqea butun dunyoda kuchli aksado beradi. Amir o'z lashkarboshilari bilan o'tkazgan kengashda birinchi bo'lib so'z olgan Usmonbek yig'ilganlarni faol harakat qilishga undaydi: «Xonlik xalqi urushni davom ettirishni talab etayotgan bir paytda, dushmanga tovon to'lagandan ko'ra, bir tomchi qon qolguncha kurashgan afzalroqdir»². Kengash qatnashchilari bu fikrni yakdillik bilan ma'qulladilar. Amir Muzaffar bor kuchini jamlab, Samarqandni qaytarib olishga kirishdi. Tez orada 15 ming otliq, 6 ming piyoda va 14 ta to'pga ega bo'lgan Buxoro qo'shini Zirabuloq tepaligiga kelib o'rtnashadi. Sarbozlarni ruhlantirish va g'alabaga chorlash niyatida amir Muzaffar ularga shunday murojaat qiladi: «Sodiq musulmon fuqarolar! Sizlar chekkan zahmatlaringiz uchun rahmat! Sizlarni ishontiramizki, g'alaba biz tomonda bo'lg'ay. Samarqand va Kattaqo'rg'onning qo'ldan ketishi biz uchun unchalik katta talafot emas. Biz temuriylar avlodimiz,

¹ Sulh shartnomasi 1868 yil 11 mayda yuborilgan. Q a r a n g: Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 267–268-betlar.

² O'sha joyda.

o'z yerimizni qanday qilib qaytarib olishni ko'rsatib qo'yamiz. Musulmonlar! Men dinimiz va Vatanimiz uchun musulmon ahlining qahramonona jang qilishini dushman ko'z o'ngida namoyon etishingizga umid qilaman. Xalq bizdan g'alaba kutayapti, u jangdan so'ng sizlarni qarshi olganda din va Vatan himoyasi uchun kurashgan va yerimizni bosqinchilardan tozalaganlar, deb aytsin. Zirabuloq jangi maydonida halok bo'lganlar sharafiga shonli yodgorlik o'rnatiladi. Musulmonlar! Turkiston general-gubernatori talab qilayotgan 125 ming tilla sovg'a sifatida sizlarga beriladi. Ishonchim komilki, sizlar mening umidlarimni ro'yobga chiqarib, samarqandliklarning choponidagi qora dog'ni yuvasizlar. Musulmonlar, sizlarga zafar yor bo'lsin!». Ushbu murojaat to'plarning gumbur-gumburi ostida o'qib eshittirildi. K.P. fon Kaufman qo'mondonligidagi chor qo'shinlari bilan himoyachilar o'rtasida jang boshlandi.

Urush taqdirini Zirabuloq jangi hal qiladi. Bu urushda ham boqinchilar xiyonat tufayli g'alaba qozonadilar. Tarixchi Mirzo Salimbekning yozishicha, millati rus bo'lib, keyin asirlikda islom dinini qabul qilgan va amir qo'shinida oliy martabaga erishgan Usmon to'qsabo hal qiluvchi daqiqada amirga xiyonat qiladi: «Turkiyalik sarkarda Hoji To'qqir so'l tarafdin o'rislarga hujum qilib, ularni tang ahvolga solib qo'ydi. Ular yengilay deganda Usmon to'qsabo chekinish karnayini chalib, o'z lashkarini orqaga qaytardi». Tarafning kuchlari va qurol-yarog'lari xususidagi ma'lumotlar tahlil qilinsa, rus qo'shini muvaffaqiyatining yana bir siri ochiladi. Buxoro qo'shinlari son jihatdan ortiq, ya'ni olti ming sarboz va 15 ming otliqdan iborat bo'lsa ham, ularning qurol-yarog'lari va harbiy anjomi ibtidoiy edi. Rossiya piyoda va otliq qo'shinlarining umumiy soni 2 mingdan oshmasa ham, ularning bari saralangan, kasbi-kori urush bo'lgan harbiylar edilar. Orenburg, Urol kazaklari, liniya batalonlari, to'pchilar brigadasi boy harbiy malakaga ega va urush ko'rgan, tajribali askarlar hamda zobitlar bo'lib, ularning ixtiyorida zamonaviy 14 to'p va 6 raketa moslamasi bo'lgan. Urush taqdirini qilich emas, harbiy texnika hal qiladi. Rossiya qo'shinlarining Zirabuloqdagi g'alabasi shu jihatdan tabiiy edi. Bu voqealardan ogoh bo'lgan qarshilik shoir Xayoliy:

*Kelubdur ahli kofir suyi islom qasdi qatl aylab,
Umud shuldir alar birlan ajoyib korzorim' bor.*

¹ Urush, jang.

² Ravshanov Olim. Ko'nglima ming turlik orim bor. «Yozuvchi», 1997 yil 5 noyabr.

*Agarchandi, yarog' u xiylai tadbirimiz yo'qtur,
Vale, o'zbek erurmiz, ko'ngluma ming turlik orim bor²,*

deb yozgan edi.

Bosqinchilarga nafrat, Vatanga muhabbat tuyg'ulari butun amirlik aholisini oyoqqa turg'izadi. Bu o'rinda Amir Temur vatani Shahrhisabz yigitlari ko'rsatgan jasorat tahsinga loyiqdir. Qoratepa qishlog'idagi chor Rossiyasi qo'shinlari bilan Shahrhisabz otiqlari o'rtasida bo'lgan jang buning yorqin namunasi.

Rassom Vereshchagin ana shu voqeaning shohidi bo'lgan, uning so'zlariga e'tibor bering: «Kavkazlik jasur zobit Pistalkars janubi-sharq tarafdin kelayotgan Shahrhisabz va kitoblik o'zbek askarlari to'dasini tig'ga tortish uchun yuborilgan edi. U avval shahrhisabzliklarni yengdi, ammo manziliga qarab yurishi bilanoq, ular yana birlashib shunday zarba berdilarki, ta'bir joiz bo'lsa, uning yelkasiga minib olib, Samarqandgacha quvib keldi. General Kaufman va biz qaytib kelayotgan otryadni kutib olish uchun otlandik. Shahardan tashqariga chiqishimiz bilan o'qqa tutishdi. Tevarakatdagi daraxtzorlar orasida shunday qizg'in otishma boshlandiki, qo'mondonning xavfsizligini ta'minlash uchun yonimizdagi barcha kazaklarni shu zahotiyog qarshi hujumga tashlashga to'g'ri keldi. Biz yaradorlarni olib shaharga qaytishga majbur bo'ldik. Oqibatda chekinish bilan yakunlangan boyagi g'alaba ko'pchilik zobitlar orasida norozilik uyg'otdi. Botir zobit Nazarov Samarqandga qarab qilingan keyingi harakat juftakni rostlashdan boshqa narsa emas, deb ochiqdan-ochiq gap tarqatgani uchun Kaufman tomonidan qamoqqa olingani va bo'lajak harakatlarda qatnashishdan mahrum qilinganligi haqida eshitdim. Mahalliy aholi buni chinakam g'alaba deb o'ylab, xursandchiligini yashirmadi»¹.

1868 yil 29 mayda Kattaqo'rg'on atrofida 30 ming kishidan iborat qo'shin va olomon chor Rossiyasi askarlariga qarshi jangga tashlandilar. Dushman bu urushda 30 to'p va 13156 dona miltiq o'qlarini ishlatib, 7000 kishining yostig'ini quritdi. Ammo bu katta talafotga qaramay, vatanparvarlar 31 mayda Kattaqo'rg'on istehkomidagi dushmanga hujum qildilar. Kattaqo'rg'ondagi janglar bosqinchilarga qarshi kurashning eng dahshatliylaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham Kattaqo'rg'onga Kaufmanning shaxsan o'zi borishi bejiz bo'lmagan.

Zirabuloqdagi mag'lubiyat va amirning Qizilqum tarafga qarab qochgani haqidagi xabar Samarqandda kuchli aks-sado berdi.

¹ Vereshchagin V. 1868 yilda Samarqand. Rassom xotiralari. O. Abdullaev tarjimasi. «Sharq yulduzi», 1991 yil, 4-son, 188-bet.

Shahar vatanparvarlari endi birgina o'z kuchlariga ishonib, ozodlik yo'lida jonbozlik ko'rsatdilar.

Abdumalik to'ra boshchiligida Qarshi va G'uzorda bosqinchilarga qarshi hujumga qizg'in tayyorgarlik ko'rilayotgan edi. Ular Hisor, Sherobod qo'ng'irotlariga, Qarshi atrofida istiqomat qilib turgan aholi hamda Ersari turkmanlariga xat yo'llab, Abdumalik to'raga sodiq bo'lishga da'vat etdilar, qasamyod qilib, dushmanga qarshi o'tlanishga chaqirdilar. Tez orada Abdumalik to'raga tarafdor bo'lgan, g'azot alangasida yongan kishilar to'da-to'da bo'lib G'uzorga yig'ila boshlaydilar. Hisor, Sherobod, Denov, Kulob beklklarida amir Muzaffar tomonidan qo'yilgan hokimlar ag'darilib, Abdumalik to'raga tarafdor kishilar tizinni qo'lga oladilar. Jumladan, Sherobodda qo'ng'irot qavmi amir qo'yan Karimqulbiyni bekor qilib, o'rniga Ostonaqulbiyni hokimlikka ko'taradilar.

Shahrisabz va Kitob beklklari esa amir Muzaffar taxtga chiqqanining ikkinchi yiliyoq amirlikka bo'ysunmay qo'yan edi. Voqealar kechayotgan davrda (1867–1868) Shahrisabzda Hakimbekbiy, Kitobda Jo'rabek hokim edi. Abdumalik to'ra va tarafdorlarining g'azotga da'vat qilgan sa'y-harakatlari boshqa beklklarda ham amirga tobe'likdan chiqish kayfiyatini kuchaytirib yubordi.

Amir Muzaffardan yuz o'g'irgan Hakimbek va Jo'rabeklar Abdumalik to'raga xat yozib, bosqinchilarga qarshi muqaddas jihod yo'lida u bilan birga bo'lishni, unga itoat etishlarini izhor etadilar. Vatan tuyg'usi amir bilan nizoda bo'lgan beklarni ruslarga qarshi jang hozirligini ko'rayotgan uning o'g'li bilan ittifoqda bo'lishni taqozo etadi.

Nihoyat, Abdumalik to'ra tarafdorlari yig'ilib, bir necha ming kishi jam bo'lgach, Hakimbek va Jo'rabeklarning birikuvi sabab, dushmanga qarshi yurish boshlanadi. Ular G'uzordan chiqib, Shahrisabz orqali Samarqandga yo'l oladilar. Hakimbek va Jo'rabek o'z kuchlari bilan Abdumalik to'raga qo'shiladilar.

1868 yilning 2 iyunida bo'lgan Zirabuloq jangi arafasida xon-likning sharqiy hududida bosqinchilarga qarshi kuchli harbiy ittifoq vujudga kelib, ular istilochilar tayanchi bo'lgan Samarqand garnizonini qamal qilishga ulgurgan edi.

«Zirabuloq mag'lubiyatidan so'ng, – deb yozadi D. N. Logofet, – go'yo qon to'kar urush xotima topgandek tuyular edi. Zeroki, qo'shinidan ajralgan amir bir to'da yaqin mulozimlari bilan qochib, jon saqlash payiga tushib qolgan edi. Biroq, jazavaga tushgan ruho-niylar qutqusi xalq ommasining kayfiyatini jo'nubushga keltirmay qolmaydi. Oqibatda, ular Buxoro taxtining valiahdi Katta to'ra Abdumalikxon atrofida jamlana boshladilar. Amirdan norozi bo'l-

gan barcha unsurlar tezlik bilan birlashib kuchli firqa tuzdilar. Ularga avvallari ham hech qachon amir hokimiyatini tan olmagan, mustaqil bo‘lib kelgan tog‘lik beklklari Shahrisabz va Hisor aholisi ham qo‘shildi»¹.

1868 yilning 2 iyunidagi Zirabuloq urushida qatnashgan amir lashkarlari, mahobat qilinganidek, «behisob», «son-sanoqsiz» bo‘lmay, nisbatan juda kam edi. Rossiya harbiy vazirligiga 1868 yilning 12 iyunida Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari qo‘mondoni Kaufman yozgan 215-ma‘lumotnomada (aytish joizki, bu ma‘lumotnoma ayni vaqtda g‘alaba hisoboti ham edi) qayd etilishicha, amirning piyoda sarbozlari adadi 6 mingdan ziyodroq, otliq askarlari 15 mingga yaqin, jami 20 ming nari-berisida bo‘lgan. Shuningdek, 14 ta yengil zambarak ham jangga shay turgan.

Bosqinchilar esa, 10 piyodalar rotasi, 6 to‘p va 300 kazak bilan ularga muqobila bo‘ladi. Urush bo‘ladigan 2 iyun kuni² ularga tag‘in yordamchi kuchlar qo‘shiladi, endi piyodalar rotasi soni 18 taga, to‘p-lar esa 14 taga yetkaziladi. Jangari kazaklar ham 600 taga ko‘paytiriladi. Ma‘lum bo‘ladiki, amir lashkarida qilichlar soni ko‘p bo‘lgani bilan og‘ir to‘plar, miltiqlar va raketa moslamasi bobida bosqinchilar katta ustunlikka ega edi. Buning ustiga Buxoro qo‘shini hamon zambaraklardan otish, mo‘ljalga olishda tajribasizlik darajasida qolib kelayotgan edi. Kaufmanning shahodaticha, «dushmaning Zirabuloq tepaliklaridan otgan to‘plari biron zarar yetkazmagan»³.

Istiloqchilar Zirabuloq muharribasiga butun kuchlarini safarbar etganlar, zero, bu jang har ikkala tomon uchun ham hal qiluvchi oqibatlar bo‘lag‘asi edi. Polkovnik Abramov guruhining shoshilinch harbiy maydoniga kiritilishi urush taqdirini, jumladan amirlikning mustaqil davlat sifatidagi qismatini o‘zgartirib yuboradi. Buxoroliklar to‘plarini sudrab qochishga tushadilar, piyodalar to‘plar quvvatlovidan mahrum bo‘lgach, noiloj, o‘qlarga yem bo‘lmaslik uchun Karmana tarafga qochishga tutunadi. Qochayotgan jangchilar orqasidan otilgan raketa moslamalari ularni yer tishlatadi.

«Dushmaning yo‘qotishlarini raqamlarda aniq aytolmayman, – deydi K.P. fon Kaufman, – biroq o‘zim ko‘rganim, aholining aytishlaridan chiqadigan xulosaga ko‘ra, uni yuzlar bilan emas, minglar bilan hisob qilish kerak bo‘ladi. So‘nggi ma‘lumotlarga

¹ *Логофет Д.Н.* Бухарское ханство под русским протекторатом. Том 1, СПб, 1911, стр. 28.

² Записки Кавказского отдела ..., стр. 186.

³ O‘sha asar, 187-bet.

ko'ra, qochib qutilgan piyodalardan Karmanada bori-yo'g'i 1000 kishi to'da bo'libdi»¹. Demak, Zirabuloq jangida Buxoro qo'shining deyarli hammasi qirib tashlangan.

Zirabuloq jangi davom etayotgan kunlarda Samarqanddagi dushman garnizoniga hujum qilgan Abdumalik to'ra, Jo'rabek, Bobobek (Hakimbek o'g'li - muall.) va boshqa o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qozoq qavmlari boshliqlarining 8 iyunga qadar urush harakatlarini davom ettirganliklarini alohida ta'kidlash lozim. Kaufman harbiy vazirga yo'llagan ma'lumotnomasida Samarqandni qamal qilgan shahrisabzliklarning 25 ming, Odil dodxoh boshliq xitoy-qipchoqlarning 15 ming, Husanbek, Abdul G'afforbek va Umarbek rahbarlik qilgan samarqandlik, urgutlik, panjikentlik, naymanlik, turkman, qoraqalpoqliklarning adadi 15 ming atrofida bo'lib, jami 50 ming kishini tashkil etganligini juda oshirib ko'rsatadi. Biroq u Turkistondagi zafarli yurishi tarixida ilk da'fa, «Samarqand garnizonidagi yo'qotish juda katta»², deb e'tirof etishga majbur bo'ladi.

Anglashiladiki, Vatan taqdiri hal bo'layotgan damlarda, amirdagi sustkashlik, irodasizlik xonlikning mard, jasur farzandlariga xush kelmagan. G.A. Arandarenko, nima sababdandir, o'zi guvoh bo'lgan bu qarshilik harakatidan ko'z yumadi. Holbuki, Qarshi, Shahrisabz va Kitob uchun istilochilar yana, kamida ikki yilga yaqin vaqt sarflab, zarbdor kuchlarini jangga tashlashga majbur bo'lgan edi. Buxoroda uzoq yillar yashagan, o'ta mustabidona qarashli D.N. Logofet, har holda, amir lashkari uzil-kesil tormor etilgandan so'ng ham, istilochilarga qarshi mardonavor bosh ko'targan, Vatan ozodligi yo'lida hayotini tikkan jasur, botir o'g'lonlar bo'lganligini istar-istamas, g'ijinib bo'lsa-da, tilga oladi.

O'zbeklarning, umuman, bosqinchilarga qarshi kurashgan Buxoro amirligi aholisining tabiatan bahodir, shijoatli bo'lganligini shubha ostiga olish, bu mamlakat tarixidan xabarsizlikdan yohud nopisandlikdan bo'lak narsa emas. Darvoqe, Abdumalik to'ra qo'shini zo'rlik va zug'um emas, xohish va talab bilan jam bo'lgan vatanparvarlar, birgina o'zbeklar emas, tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlardan ham tarkib topgan edi. Abdumalik to'raning Qarshida katta obro'-e'tiborga ega bo'lganligini o'sha paytda yaratilgan asarlar dalolat etadi. Qarshilik shoir Xayoliy devonida³,

¹ O'sha joyda.

² O'sha asar, 188-bet.

³ *Ravshanov Olim*. Ko'nglim ming turlik orim bor. «Yozuvchi», 1997 yil, 5 noyabr.

masalan, «Tarixi xazrat Shahzodai oliymaqom» degan she'r berilib, unda Katta to'ra – Abdumalikning Qarshiga tashrifi ko'tarinki ruh bilan talqin etiladi:

*Ne xush yil bo'ldi bul yil, Qarshi uzra komron kelmish,
Sayid hazrat Muzaffar o'g'li – shohbozi jahon kelmish.*

*Hayoliy valiahd Abdumalik to'raning Qarshiga kelishi tarixini:
Hayoliy omilig' birlan dedi ta'rix Shahzodin –
Ming ikki yuzu sakson uchga toju xisravon kelmish, –*

satrlarida ko'rsatadi.

1283 hijriy yil milodiy hisobda 1866/67 yilga to'g'ri keladi. Binobarin, Abdumalik to'ra atrofida jam bo'layotgan vatanparvarlar bosqinchilarga qarshi qariyb bir yarim – ikki yillik tayyorgarlik ko'rganlar.

Abdumalik to'raning lashkari yo'lga chiqqanda, Abdulazim Somiy aytganidek, «gubernator keragicha qo'shini bilan Kattaqo'rg'onda Buxoro lashkariga qarshi turgan edi. Samarqandda dushman qo'shinining uncha katta bo'lmagan qismi qolgan edi»¹.

G'uzor, Qarshi, Hisor, Shahrisabz, Kitob, Sherobod, xullas, Janubiy bekliklardan jam bo'lgan katta qo'shin bilan kelgan Abdumalik to'ra bosqinchilar turgan istehkomni qamal qiladi. Shu orada amirlikda katta nufuzga ega bo'lgan «Umarxon eshon Maxdumi A'zam katta guruh bilan to'raga yordamga» yetib keladi. Xitoy-qipchoq, qoraqalpog', tojik qavmlari ham Abdumalik to'ra bilan ittifoq bo'lib dushmanga qarshi o'tlanadi.

Muarrixning guvohlik berishicha, amir lashkari bilan chor qo'shini Kattaqo'rg'onda jang holatida turganida. Samarqand qamali xabari eshutiladi. Bu xabar bosqinchilardan ko'ra, amir Muzaffarni qattiq tashvishga soladi va Abdumalikni oradan ko'tarib tashlash payiga tushadi. Mirzo Abdulazim Somiy bu haqda iztirob bilan shunday yozadi: «Qachonki, to'ra Samarqandni egallaguday bo'lsa, g'oliblik yalovini ko'tarar, bundan shohlik qadri tushib, odamlar, shubhasiz, undan bo'lak hukmdorni xohlamagan bo'lardi, shu bois amir uning mag'lubiyati va halokatini istardi»².

Bosqinchilar amir uchun og'ir bo'lgan vaziyatda fursatni boy bermay, Buxoro qo'shini bilan jang qiladilar, Samarqandga qo'shimcha kuch yubormaslik ma'qul topiladi. Ikki o'rtada urush boshlanadi. Amir lashkari yengiladi. Bu jangda kuchlar nisbati

¹ Mirzo Abdulazim Somiy. Ko'rsatilgan asar, 85-bet.

² O'sha asar, 86-bet.

dushman foydasiga ortiq bo'lsa-da, Buxoro lashkaridan jon berib-jon olgan jasur sarbozlar ko'p edi. Dushman Kattaqo'rg'on urushida g'olib kelgan bo'lsalar-da, o'zlari ham katta zarba yegalarini his qiladilar. «Buxoro lashkari dushmanning ko'zini ochib, chekinishga majbur qildi»¹, deydi tarixchi.

Karmanada turgan amir Muzaffar ikki o't orasida qolgan edi. Bir tomondan, dushmanning qo'li baland kelib, tobora uning qarorgohiga yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, boshqa tarafdin, Abdulmalik to'raning e'tibori oshib, Samarqand bo'sag'asida ularga tahdid solayotgan, maboda zafar quchgudek bo'lsa, Buxoro taxti uning qo'liga o'tishi muqarrar edi. Mirzo Abdulazim Somiy bu haqda, «amir Xorazmga ketishga qat'iy qaror qildi»², deydi. Amirning hafsalasi pir bo'lib, umid va ishonchi qolmagan, Xorazmdan boshpana topishdan o'zga chora yo'q, deb hisoblagan paytida, esiga Shukurbiy inoq tushib qoladi. Shukurbiy inoqning amir oldida hurmati katta, umuman, arkoni davlat orasida nufuzi baland edi. Shukurbiy inoq ancha kundan beri hibsdan saqlanayotgandi. Shukurbiy inoqning hibsga olinishining sababi, Mirzo Abdulazim Somiyning ko'rsatishicha, bosqinchi qo'shinlar Jizzaxdan Samarqandga borish yo'lidagi Soy-bo'yi qal'asida turganlarida, Buxoro lashkari G'ishtko'prikda muqim edi. Amir Muzaffar ish ko'rgan, aqlli sardor Shukurbiy inoqni lashkar boshlig'i qilib tayinlaydi. Shu orada Shahrisabz va Kitob bekliliklaridan 2 mingta sarboz Shukurbiy inoqqa kelib qo'shiladi. Shahrisabz va Kitob hokimlari unga xat yozib, yurtga yov kelganda amir bilan bizning ixtilof qilib turishimiz to'g'ri bo'lmas, ittifoq bo'lib jang qilaylik, amir bilan bizni yarashtirib qo'ying, degan taklifni o'rtaga qo'yadilar. Shukurbiy inoq ularning gapini ma'qullaydi va kelgan lashkarga joy ko'rsatadi. Biroq, ayrim hasadgo'ylar buni amirga teskari tushuntiradilar: go'yo

Shukurbiy inoq kenagaslarga qo'shilib, ular bilan amirga qarshi fitnaga til biriktirgan emish. Soyasidan ham hadiksiraydigan bo'lib qolgan amir ig'voga ishonib, G'ishtko'prikka Abdulqodir devonbegini jo'natadi, Shahrisabz lashkariga javob berishni, Shukurbiy inoqni esa yaxshi gap bilan huzuriga olib kelishni topshiradi. Endi, amir ikki o't orasida qolgan, taxtu baxtidan ajralay deb turgan paytida siyosat yurgizishni yaxshi biladigan, mulohazali Shukurbiy inoqdan ham maslahat olish ortiqcha bo'lmas, deb hisoblaydi.

¹ O'sha joyda.

² O'sha asar, 87-bet.

Shukurbiy inoq garchand zindondan chiqib kelgan bo'lsa-da, gina-quduratni bir chetga qo'yib, amirga shunday maslahat beradi: «Xorazmga qochmoq yov qo'lga bandi bo'lmoqdan yuz karra yomondir, zero, hujum qilib kelayotgan qo'shından qochish jazoni oshirgani kabi, gunoh hamda sharmisorlik hisoblanadi. Bordiyu dushmanga asir bo'lmoq esa, olijanob va baxtli xotimotdir. Endi, Samarqandning qo'ldan ketganligi, yovning shijoat ko'rsatganligi bois qayg'uga botish, o'zni xor qilish o'rinsiz. Aksincha, xudoni dilga solib, qat'iyat bilan ish tutmoq lozim. Bu ko'hna olam bunday o'zgarishlarning qanchasiga guvoh bo'lgan, binobarin, Samarqandning qo'ldan ketishi Buxoro davlatining halokatiga sabab bo'lolmas. Nechunkim, burungi zamonlarda ham aksar vaqt u boshqa hukmdorlarga tobe bo'lib kelgan. Bordiyu amirning bezovtaligi yovning jasurligi tufayli bo'lsa, bundan ortiq xavfsirash to'g'ri bo'lmas. Negaki, gubernator imperatorning ko'pdan-ko'p boshliqlaridan biridir. Ruslarda mavjud bo'lgan odatga ko'ra, hukumatdin yana boshqa topshiriq bo'lmasa, uning hukmdor irodasidan o'zga harakat qilishi marg'ub tutilmas. Shu kunlarda Kaufman Samarqand qamali haqida xabar olgan ekan, shubhasiz, uni bartaraf etishni muhim deb bilur va sulhga moyillik bildirur. Davlat ravnaqi uchun, zudlik ila gubernator oldiga kimnidir yo'llash, yarashuv ahdini o'rtaga solish kerak. Siz esa baxt-saodat ila yo'lga chiqib, Buxoroga qutb misol kirib, davlatxona markazidan joy olmog'ingiz darkor»¹.

Amir Muzaffarga Shukurbiy inoq maslahati ma'qul tushib, Xorazmga qochish qaroridan qaytadi. Gubernator Kaufmanga elchi bilan maktub yo'llab, do'stlik va sulhni taklif etadi. Kaufmanning ham, Shukurbiy inoq aytganidek, yarashuvdan o'zga chorasi yo'q edi. Shunday qilib, Amirlik va Rossiya o'rtasida sulh qaror topadi. Shirinxotun mavzesidagi ko'prik oraliq chegara deb e'tirof etiladi. Bu sulhning vujudga kelishi va kuchga kirishi 1868 yilda yuz beradi.

Dushman bilan sulhga erishib, o'zini bir qadar tutib olgan amir Muzaffar bor kuch va imkoniyatini o'g'li Abdumalik to'ra va uning tarafdorlarini mahv etishga qaratadi. Mirzo Abdulazim Somiy ta'kidlaydiki, «hukmdor to'raning ishlari yurishib, g'alaba qilgudek bo'lsa, shak-shubhasiz, hokimiyat unga o'tib, podshohlikni da'vo qila boshlaydi, degan xavfda edi. Shu bois, to'raning obro'sini to'kish, o'jarligini jilovlab qo'yish tadbirlarini ko'ra boshladi»¹.

Amir Muzaffar bosqinchilarga qarshi amirlik hududida katta mavqe' va xalq ishonchiga sazovor bo'lib, kurash boshida turgan

¹ Mirzo Abdulazim Somiy. Ko'rsatilgan asar, 89-bet.

² O'sha joyda.

o'g'li Abdumalik to'raga qarshi azaliy sinalgan makr-xiylani ishga soladi. Bunda, yana o'sha Shukurbiy inoqning qo'li borligi ehtimoldan xoli emasdi.

Abdumalik to'raning muqaddas jihodga otlangan qo'shinida Qarshi bekligi lashkari ham bor edi. Lashkarboshilarning aksariyati mang'it qavmidan edi. Ular orasida Mo'minbek to'qsoba ismli ayyor, keskir kishi ham bo'lgan. Bir ishga kirishsa hal qilmay qo'ymaydigan bu kimsani Mo'min poki deb atardilar. Ana shu Mo'min pokiga kishi yuborilib va katta va'dalar berilib, unga qanday qilib bo'lmasin Abdumalik to'raning qo'shinini tarqatib yuborish vazifasi topshiriladi. Mo'min poki Abdumalik to'raning tarafdori bo'lgan, chor-atrofdan yig'ilib kelgan hokimlar, lashkar boshliqlari, e'tiborli bahodir va pahlavonlarga xat yozib, «O'ris bilan amir ahdnoma tuzib, yarashdi, endi ular birgalikda Shahrisabz ustiga Usmonga qo'shib o'ris askarlarini yuborayotir»¹, deb vahima soladilar. Xatlar qilg'iligini qiladi. Hokimlar, ayniqsa, Shahrisabz, Kitob beklari shashtidan qaytadilar.

Qamal qilingan Samarqand erda-erda Abdumalik to'ra qo'lga o'tay deb turganda, Mo'min pokining ig'vosi bilan lashkarlar birin-кетин orqaga qaytib, tarqala boshlaydilar. Abdumalik to'ra va bir qancha beklar qanchalik sa'y-harakat ko'rsatmasinlar, Buxoro va rus qo'shini birgalikda kelishi yolg'on ekanligini aytmasinlar, ruhi pasaygan g'azotchilarni ushlab turib bo'lmaydi.

Shu tariqa, bosqinchilarga qarshi Abdumalik to'ra uyushtirgan so'nggi hamla ham so'ndi. Bu xiyonat yov asoratiga tushishdan ko'ra, toju taxtdan ajrab qolish vahmi bilan bog'liq edi. Vatan manfaatidan taxt va shaxsiy mavqening afzal ko'rilishi oqibatlari nimalarga olib kelganligini bugungi avlod yaxshi bilib olishi zarur.

1868 yilda Kaufman bilan sulhga erishgan, bir qadar nafasini rostlab olgan amir Muzaffar Abdumalik to'rani, uni qo'llab-quvvatlagan Qarshi va G'uzor xalqini jazolash uchun qo'shin tortadi. Xoja Muborakka kelib tushiboq, Yo'ldosh Eshikog'oboshi mang'it va Tog'aymurod eshikog'oboshiga to'rani tutib kelishni buyuradi. Qarshi hokimi Nuriddinxon to'raga ham shunday topshiriq berilgan edi.

Amirning o'g'liga, xususan, yovning bosib kelishiga qarshi nafrat bilan yongan xalqqa, vatanparvar beklarga qarshi harakatlari natija bermadi. Jo'rabek, Bobobek kabi hokimlar amir fitnasining mohiya-tini anglab, yana Abdumalik to'rani qo'llab-quvvatlay

¹ Mirzo Abdulazim Somiy. Ko'rsatilgan asar, 90-bet.

boshladilar. Amir Muzaffar to‘rani topshirishni talab qilganda, beklar muloyimlik bilan shunday javob beradilar: «To‘ra, janobi oliylarining to‘ng‘ich o‘g‘li va hukmdorimiz farzandlaridir. U bu ishlarni amirimizga xayrixoh bo‘lgan, davlat zavoriga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, din bayrog‘ini ko‘tarishga bel bog‘lagan ba‘zi olijanob kishilar da‘vati bilan qilmoqda. Maboda, ishlar yurishib ketgudek bo‘lsa, bu janobi oliylarining obro‘-e‘tiborlarini oshirg‘usidir. Taassufki, ayrim g‘arazli kimsalar to‘raning bu intilishini isyon, shijoatini g‘alayon deb, siz janob oliylarining ra‘yini qaytarishga, oraga adovat solishga harakat qilmoqda... Endi to‘ra o‘zini qutqarish uchun bizning hududda maqom topibdur. Odamiylik va oriyatni saqlash vajhidan mehmonning oyoq-qo‘lini bog‘lab muxolifga topshirish yaramaydir»¹.

Abdumalik to‘ra ham, baribir, tez orada mavqeini tiklab oladi. Amirning Samarqandda uyushtirgan ig‘vosi mohiyati ko‘pchilikka oshkor bo‘ladi. Qarshida to‘ra mustaqillik yalovini ko‘taradi, endi uning atrofida avvalgidan ham ko‘proq odam jam bo‘ladi. Yana bekliklardan uning hokimiyatini tan oluvchi inoyatnomalar kela boshlaydi. Amir Muzaffarning Abdurahmonxoja sadr, Karimqulbiy inoq, Abdulazizbiy va boshqa bir necha hokimlari unga asir tushadi. Muhimi shundaki, Buxorodan, amir saroyidagi nufuzli amaldorlar va harbiy boshliqlardan ham unga itoat qilish haqidagi maktublar, tuhfarlar kela boshlaydi. Muarrif o‘sha paytdagi vaziyatni shunday ifodalaydi: «Ish shu bilan yakun topdiki, ul janobi oliylari (amir Muzaffar – muall.) yonida muqaddas va butun olam Ollohidan o‘zga hech kim qolmadi, zero, hamma yurak-yurakdan to‘raga talpinayotgan edi»².

Amirning Bahodirbek parvonachi bahrin degan eng yaqin, ko‘p yillardan buyon xizmat qilgan begi ham undan yuz o‘girib, to‘ra huzuriga keladi. Hatto, to‘rani tutib keltirishga yuborilgan Yo‘ldosh eshik og‘oboshi ham uning tomoniga o‘tib ketadi. Amir juda og‘ir ahvolda qolib, yana Shukurbiy inoq va Ya‘qub qushbegini maslahatga chaqiradi. Ular, «to‘raga qarshi kurash – davlatning qulashiga va sharmandalikka sabab bo‘ladi. Chunki to‘raning isyoni o‘z vaqtida dushmanga qarshi qaratilgan edi, hozir ham ular yovga qarshi kurashga qizg‘in tayyorgarlik ko‘ryapti. Amir janoblari esa, chor Rossiyasi bilan ittifoqda, shunday ekan, isyonkorlar aslida gubernatorning dushmanlari bo‘lib, ular bosqinchilarni qirib tash-

¹ O‘sha asar, 93-bet.

² *Mirzo Abdulazim Somiy*. Ko‘rsatilgan asar, 96- bet.

³ O‘sha asar, 97-bet.

lash niyatidadirlar, hozir ham ularni bartaraf etishga tayyor turib-dirlar. Bas, ularning qarshiligini sindirish bizdan ko'ra, ko'proq guber-natorga zarurroqdir»³, degan fikrga keladilar.

Amir Muzaffar shundan keyin gubernatorga quyidagi mazmunda xat yozadi: «To'ra atrofida bo'layotgan urug'-qavmlar g'alayoni, norozilik to'liqini, ul yuksak davlatga bo'layotgan ishonchsizlik aslida bosqinchilarning kelishi tufaylidir. Shu bois, Buxoro va Rossiya davlati o'rtasida do'stlik va tinchlik o'rnatilgandan keyin norozilik to'liqini kuchayib ketdi... Siz tarafingizdan to'ra va qavmlarning g'alayoni asoslarini yo'q qilib tashlash uchun zambarak va aslahalar bilan qurollangan qo'shin guruhini yubormoq vojibdir»¹.

Abdumalik to'ra rahbarligidagi qarshilik harakati, nafaqat taslimchi amir Muzaffar hokimiyatiga, balki, eng avvalo Turkistonga chovut solib, uni mazlum etayotgan yovni haydab yuborishga qaratilgan edi. «Abdumalikxon rahnamoligida, – deb ta'kidlagan edi D.N.Logofet, – Qarshida yangi qo'shinlar yig'ilayotganligi yana urush xavfini sola boshlagan edi. Shu sababli g'alayonchilar jam' bo'lgan Qarshi shahriga maxsus otryad yuborishga qaror qilindi»².

Kaufman jazavaga tushib, general Abramov boshchiligida eng saralangan, jangari askarlarni tish-tirnog'iga qadar qurollantirib, xonlikning asosiy shaharlaridan bo'lgan Qarshi ustiga jo'natadi. 1868 yilning 28 iyunida Samarqanddan Jom yo'li orqali yetib kelgan, amir Muzaffar kuchlari bilan birlashgan general Abramovning 6 rotasi, 8 to'p guruhi va 200 kishilik raketa qurilmalari batareyasi Qarshi tomon yuradi. Chor Rossiyasi qo'shinlari qo'mondonligi, shaxsan Kaufmanning buyrug'i bilan ko'p o'tmay, janglarda sinalgan, Jizzaxni qonga botirgan jangari qo'shinni tish-tirnog'igacha qurollantirib Qarshiga yo'llaydi. Amirning ham 10 ming sarbozi³ ot o'ynatib, Abdumalik to'ra va uning tarafdorlariga qarshi yurishga chiqadi. Rus qo'shini Qo'ng'irtov tomonidan, amir lashkari Koson tarafdin yopirilib kela boshlaydi. O'rtada qattiq jang boshlanadi – Yo'ldosh Eshik og'oboshi 2 ming kishilik otliq jangchisi bilan yovlar safini buzib, jasorat ko'rsatadi. Zambaraklar, miltiqlar oldida qilich, nayza ish bermay qoladi. Gumbirlab otilayotgan zambaraklar mudofaachilar safini siyraklashtirib, maydonni minglab jasad bilan to'ldirib tashlaydi. Ular Qarshini amir Muzaffar xohisha bilan beayov to'pga tutib, g'olib bo'ladilar. So'ngra Chortoqqa yetib, qal'ani vayron qilishga kirishadilar. Mirzo Abdulazim Somiy bu

¹ O'sha asar, 98-bet.

² Logofet D.N. Ko'rsatilgan asar, 29-bet.

³ Mirzo Abdulazim Somiy. Ko'rsatilgan asar, 98-bet

jang tafsilotini hikoya qilar ekan, «Qarshi qo'rg'onida ko'p odam halok bo'ldi, tirik qolganlarning qochishdan bo'lak chorasi qolmadi. Ular qo'rg'on devorlari ortiga, bog'-rog'lar ichiga qochib jon saqladilar»¹, deydi achinish bilan. Muarrix Qarshining chor Rossiyasi tomonidan istilo etilish yilini 4 satrlik tarixda («Fathi Qarshi va Nasaf») keltirib, bu voqeaning 1288 hijriyda (1871/72 m.y.) sodir² bo'lganligini ta'kidlaydi. «Maxfiy qolmasinki, – deb uqtiradi tarixchi, – dushmanlar Qarshini olganlaridan so'ng uni beomon talab, shaharni Buxorodan kelgan lashkar boshliqlariga topshirib, katga o'lja bilan qaytdilar».

Qarshi shahrining qadimiy qal'asi vayron etiladi, aholi qirg'in-barotga duchor qilinadi. Shaharni qilichlar soni bilan emas, balki o'sha vaqtda eng ommaviy qirg'in vositalari bo'lmish artilleriya va raketa moslamalari ustunligi tufayli qo'lga kiritgan dushmanlar uni yana amir Muzaffar tasarrufiga beradilar. «Abdumalikxon lashkarini tor-mor qilib, rus qurolining kuchi bilan zabt etilgan Qarshi shahrining, Buxoro xonligidagi ikkinchi poytaxtning Buxoro amiriga qaytadan topshirilganligidan buxoroliklarning o'zlari hayratga tushgan edi. Rus otryadi esa Samarqandga qaytib ketadi»³, – deb yozadi keyinchalik alam bilan D.N. Logofet.

Rus qurolining quchi bilan qonga botirilib, istilo etilgan Qarshining amir Muzaffarga qayta in'om etilishi besabab bo'lmagan. Zotan, chor qo'shinlari Turkistonni bosib olishga kirishganlaridan buyon bu xildagi «olijanoblik» misli ko'rilmagan ish bo'lgan edi. Yana shu D.N.Logofet istilochilarning bu xildagi «qo'li ochiqligi» sabablarini shunday izohlaydi: «Turkistonda rus qo'shinlarining kam sonli ekanligi va Angliyadan hadiksirash, ishning umumiy mohiyatiga unchalik muvofiq tushmaydigan shunday qarorga kelishga undagan edi»⁴.

Buxoro xonligining Rossiya tarkibiga so'zsiz, to'la kiritilishiga ashaddiy tarafdor bo'lgan D.N.Logofetning bu xulosasida jon bor, albatta. Gap shundaki, Abdumalik to'ra, oxir-oqibatda, dushmanga qarshi kurash yo'lida o'ziga ittifoqchi izlay-izlay, oxiri inglizlarga tobe' bo'lgan Hind mulklaridan qo'nim topdi. Abdumalikxonni inglizlar quvvatlab turishi, qolaversa, xonlikning sharqiy hududida hali chor Rossiyasining qadami yetmagan, ammo qarshilik alangasi burqsib turgan beklıklar, o'ch olish qasdida yongan kuchlar yo'q

¹ O'sha asar, 99-bet.

² Muarrix keltirgan sanada tafovut bor - muallif izoni.

³ *Logofet D.N.* Ko'rsatilgan asar, 29-bet.

⁴ O'sha joyda.

emas edi. Bundan tashqari, Qarshining geografik joylashuvi ularning bu shaharga alohida yo'lak hosil qilishlariga mone'lik qilardi. Chunki, Jom orqali, Taxti qoracha dovoni orqali o'tadigan yo'l va hududlar harbiy quvvati baland Shahrisabz bekligiga qarar edi. Rossiya qo'shinlari shahrisabzliklar qilichining zarbini, ikki yil oldin, Samarqand bo'sag'alarida yelkalarida sinab ko'rgan edi. Shu jihatlar, chamasi, Qarshining amir tasarrufida qoldirilishiga sabab bo'lgan ko'rinadi.

Amir qattol dushmanni mukofotlashda zo'r himmat ko'rsatadi. Abdumalik to'ra yonida qolgan 400 kishi bilan Toshqo'rg'onga chiqib ketadi, Qarshida uning xotin-xalaji asir olinadi. Qarshiga amir Muzaffar uchinchi o'g'li Abdulmo'min to'rani hokim qilib qo'yadi.

Samarqand qo'zg'aloni. Shahar fojiasi

1868 yil 1 iyunda Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'alon haqida Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanning esdaliklari diqqatga sazovordir: 1 iyun kechasi Samarqand oqsoqollari mening tarafimdan qoldirilgan komendant mayor baron fon Shtempelning uyiga kelib murojaat qildilarki, go'yo shahrisabzliklarning shaharga kirish maqsadida qiladigan hujumining oldini olish uchun Xo'ja Ahror darvozasi tomonga bir bo'linma yuborishini so'rashgan. Shu maqsadda jo'natilgan guruh darvoza yaqinida dushman yo'qligiga amin bo'lgan. Ammo Cho'pon-ota tepaligida sanoqsiz otliq to'dalarga ko'zlari tushgan. 2 iyun kuni tongda mazkur oqsoqollar yana shikoyat bilan keldilar. Mayor fon Shtempel ikki to'p va ikki rota askar bilan darvozaga keldi va chekinayotgan kichik bir to'da bilan to'qnash kelib, otishma boshlandi. Shu o'rtada ba'zilar Samarqand xalqining tinch turganiga ishora qilib, darvozadan o'ng tarafga qarab o'q otmaslikni so'raydi. Lekin tezda ma'lum bo'ldiki, dushman Xo'ja Ahror darvozasidan o'ngga – Buxoro darvozasi tarafga o'tayotgan ekan. Shunda mayor o'sha tomonga hujum qilib, dushman to'dalarini tarqatib yubordi va qal'a istehkomiga qaytdi. Oradan biron soat o'tgandan keyin butun shahar aholisining bizga qarshi qo'zg'olgan ma'lum bo'ldi. Dushman to'dalari aholi hamroxligida har tomovdan istehkomga yaqinlasha boshladi. Askarlarimiz hujum qilinishi taxmin qilingan joylarni oldindan ishg'ol qildilar. Shahrisabzliklar va Samarqand xalqi o'sha joylarga qattiq hujum uyushtirdilar. Lekin ularning hujumlari qaytarildi. Tun bo'yi otishmalar to'xtamadi. Ba'zi o'rinlarda garnizon askarlarining holi juda og'ir bo'ldi. Askarlar faqat toqat va jasorat tufayli o'zlarning charchaganliklarini his qilishga yo'l bermadilar.

Keyingi jang, 3 iyun kungi hujum, kechagidan ham qattiqroq bo'ldi. Lekin shahrisabzliklar soat 3 larda Urgut yo'lidan chekina boshladilar. Qamal qiluvchilar ham istehkom atrofini tashlab ketdilar. Kunduz soat 5 larda dushman bog'lardan chiqib kelib, yangidan hujum qildi. Orom olish uzoqqa cho'zilmadi. Otishma boshlandi. Ikki kun mobaynida birinchi marta odamlarimizdan yuz ellik nafari safdan chiqdi. Shu tariqa, talafot davom etaversa, ikki kunda istehkomning barcha devorlarini muhofaza qilish imkonidan ajralamiz. Biz shunday fikr bilan o'zimizni ovutdik, dushman istehkomga kirib oladigan bo'lsa, biz amir saroyida jam bo'lib, oxirigacha mudofaa qilamiz, ammo bu yoqqa ham kiradigan bo'lsa, dorixona va to'p o'klarini portlatib, nobud qilajakmiz. Baxtga qarshi oxirgi kunlarda dushmanning tazyiqi ancha susaydi. Ular uyushtirayotgan hujumlarni garnizon osonlik bilan qaytara oladigan bo'lib qoldi. Shunda ham muhoraba shiddat bilan davom etardi. 8 iyun kuni, ilg'or qismlarimizning yordamga yetib kelgunicha, garnizon ahvoli juda yomon edi».

General Kaufman garnizon zobitlari va askarlarini orden va medallar bilan taqdirlab, ular sha'niga maqtovlar bitilgan buyruq chiqaradi. Mukofotlanganlar orasida keyinchalik o'z asarlari bilan tanilgan rassom-praporshchik V.Vereshchagin ham bor edi. Xuddi ana shu zobit-rassom o'z mo'yqalami bilan chizgan rasmlari va yozgan xotiralarida Samarqandda bo'lgan qirg'inni oshkora takabburlik bilan ro'y-rost aks ettirdi. 1868 yil 8 iyunda fon Kaufman buyrug'i bilan shuhrati olamga ketgan sohibqiron Amir Temur davlatining poytaxti birvarakayiga to'pga tutiladi. Shaharni batamom yoqib yuborish haqida buyruq olgan askarlar va zobitlar qirg'in boshlaydilar. 9 iyunda minglab kishining yostig'ini quritgan Samarqand fojiasi boshlanadi. Qatli om uch kun davom etadi. Yuzlab odamlar hech qanday tergovsiz, so'roqsiz otib tashlandilar. Vereshchagin o'z xotiralarida o'lkamizda qonli va dahshatli iz qoldirgan polkovnik Nazarovning qilmishlari to'g'risida yashirmay, haqqoniy hikoya qilgan. Uchiga chiqqan maishatboz, aroqxo'r zobit begunoh kishilarni qirish, ko'hna masjidlarni, buyuk obidalarni yondirib, yer bilan yakson qilishda ayniqsa jonbozlik ko'rsatadi. Butun vujudini mahalliy xalqqa nisbatan nafrat va yovuzlik egallagan bu zobit o'ljaga olingan bayroqni askarlariga paytava qilib ulashadi. U «Samarqandning yondiruvchisi» bo'lib tarixga kirish, «nom qozonishdek» manfurlikdan o'zini tiya olmaydi. V.Vereshchagin bu manzaralarni shunday tasvirlaydi: «Qaerdan o'tgan bo'lsak, orqamizdan qora tutun burqsib ko'tarilardi». V.Vereshchagin mahalliy aholini qirg'in qilish, unga azob berish, qiynash manzarasini

tasvirlar ekan, mustamlakachilarning g'alabalaridan mag'rurlanadi. «Men, osilgan, endi tanasi chiriy boshlagan jasadlarni chizganman, men bir mullavachchani minoradan uloqtirganman», – deb maqtanadi jallod musavvir.

V.Vereshchagin, agar Samarqand bundan oldinroq yondirilgan-da edi, xavfsizlik ta'minlanib, mazlum aholi bosh ko'tarolmasligi haqida shunday deydi: «Bu shunchaki xavfsizlik uchun zarur bo'lgan yong'inni bosh qo'mondon (Kaufman) ancha ilgari amalga oshirishi kerak edi. Tabiiyki, u azbaroyi oqko'ngilligi tufayli hamda aholiga ortiqcha zarar yetkazmaslikni o'ylab bunday qilmagan. Oqibatda ancha odamimiz o'ldirildi. Buning ustiga qal'adan ajralishimizga sal qoldi, mabodo engilganimizda, butun O'rta Osiyo xalqi qo'z-g'alib ketgan bo'lardi».

Vereshchagin «oqko'ngil» deb atagan Kaufmanning zolimligini rassomning keyingi so'zlari ham tasdiqlaydi: «Olijanob Kaufman keskin choralar zarurligini mutlaqo anglagan holda, ataylab Samarqanddan bir necha chaqirim uzoqda tunagan. Bu bilan ko'psonli aholi, ayniqsa, ayollar va bolalar qochib ketishiga imkon bergan. Endi bo'lsa, shaharni rosmanasiga vayron qilish, hech kimni va hech narsani ayab o'tirmaslik to'g'risida shafqatsizlarcha buyruq berdi. O'z ixtiyori bilan jazolovchilar to'dasiga qo'yilgan harbiy ta'minotchi ma'murlardan biri menga mana bularni so'zlab berdi: «Bir qancha askar bilan bir uyga bostirib kirdik. Qariyb, qoq suyak bo'lib ketgan kampir bizni «Omon, omon!», deb qarshiladi. O'tirgan bo'yrasining ostidan bir narsa qimirladi, qarasaq, 16 yoshlardagi yigitcha yashiringan ekan. Sudrab chiqdik va albatta, buvi-siga qo'shib nayzaga tortdik».

Kaufman xalqning mol-mulkini talashga ham ruhsat berganini Vereshchagin shunday tasdiqlaydi: «Askarlarga do'konlarni talashga ruhsat berilganida, u yoqdan nimalarni olib chiqishmadi, deysiz! Ular tuzem aholining bir-biridan chiroyli va nafis kiyimlarini kiyib, taqinchoqlarini taqib, shunday g'alati holatga tushishgandiki, ko'rgan kishi kulgidan o'zini sira tiyolmas edi. Bu yerda arzimagan bir-ikki rublga etnograf uchun butun boshli xazinaga arziydigan buyumlarni sotib olish mumkin edi.

Yong'in paytida ko'hna yodgorliklar, o'ymakor darvozalar, ustunlar yonib ketdiki, buning o'zi dahshat!.. Nazarov 8 kunlik qamal chog'ida besaranjomlik keltirgan ko'hna shahar bilan ana shu tarzda hisob-kitob qilib, taskin topayotgan edi. Ayniqsa, u shahar minorasidan turib yaradorlarimiz va zambaraklarimizga qarab o'q otilgan Sherdor madrasasiga butun qahru g'azabini sochgandi. «La'nati masjiddagilarning hammasini nayzaga sanchdim», – deb

maqtangan edi keyin u. Mana shu masjidida men taniydigan mulla xizmat qilardi, garchi bizga qarata mash'um o'q uzilgan paytda u ham ishtirok etgan, deb zimdan gumon qilsam-da, uning taqdiriga befarq qarayolmadim. Nazarov bilan qirg'inda qatnashgan zobitlarning biridan masjidida odam ko'p edimi? – deb so'radim. «Yo'q, ko'p emasdi», – deb javob berdi u. «La`natilar qochib ketishibdi». Yengil nafas oldim. «Faqat bir keksa mullaga duch keldik. Ishonasizmi, u xuddi mushukka o'xshab qochib, minoraning uchiga chiqib oldi».

– Keyin-chi?

– Keyinmi? Albatta, nayza sanchib yuborishdi.

– Uff !!

General Kaufman ko'z o'ngimda aniq jonlanib turibdi, shuncha alg'ov-dalg'ovdan keyin u yonida qurol topilgani uchun ushlangan, yoki boshqa noxush ishlarda gumonsirab qo'lga olingan odamlarni saroyda sudlab, jazoga hukm qilardi. Zobitlar qurshovida safar o'rindig'iga yastanib olgan olijanob Konstantin Petrovich Kaufman to'xtovsiz papiros chekar va mutlaqo shafqatsiz ohangda: «Otib tashlansin, otib tashlansin, otib tashlansin!» degan gapni takrorlardi, xolos».

Podshoh armiyasining qonxo'r zobiti V.Vereshchagin Samarqandda ko'rsatgan «mardligi va jasurligi uchun» o'z zamonasining oliy mukofotlaridan biri – «Georgiy xochi» bilan taqdirlanadi. Yana bir zobit Samarqand fojiasini shunday baholaydi: «Samarqandliklarni sotqinliklari uchun jazolash va boshqa osiyolik xalqlar uchun o'rnak bo'lsin deb general Samarqandni askarlariga uch kunga talon-toroj va o'ch olish uchun topshirib qo'ydi. Bosqin va qonli jazolashning bu og'ir kunlari satrlar qatida umrbod saqlanib qoldi».

Haqiqatda ham, o'ldirilgan 400 bosqinchi uchun 49 ming farzandidan ajralgan Samarqand tarixida bu fojia ayanchli o'rin tutadi.

Amirzoda Abdumalik va beklar kurashi

«Chor Rusiyasini urushda yengsam, oq otda Peterburgga kirib boraman!» deb maqtangan amir Muzaffar 1868 yil 23 iyunda Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan sulh tuzib, Rossiyaning vassaliga aylanadi. Bu sulhga ko'ra, Buxoro amirligi o'z mustaqilligini yo'qotibgina qolmay, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ham ajraladi. Amir tovon sifatida 500 ming rubl miqdorida oltin hisobida tovon to'lashga, xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqa o'rnatmaslik majburiyatini olishga va rus savdogarlariga amirlik hududida erkin savdo qilishlariga, karvonsaroylar hamda do'konlar qurishga rozi

bo'ladi. Amirning taslimchilik siyosati islom dini tayanchi Buxoroi Sharif vatanparvarlarining kuchli noroziligiga sabab bo'ladi. Ular dushman bilan kurashni davom ettirish, millatning shon-shuhrati bo'lmish Samarqandni ozod qilish ishtiyoqida Muzaffarning to'ng'ich o'g'li amirzoda Abdumalik to'ra (1848–1909) va erksevar beklar Jo'rabek, Bobobek hamda Kenesari Qosimovning o'g'li Sulton Sodiq bilan birikdilar. Birlashgan vatanparvar kuchlar Amir Temurning Oqsaroyida tantanali tarzda Katta to'ra nomi bilan mashhur bo'lgan amirzoda Abdumalikni amir deb e'lon qildilar. Muzaffarning mulo-zimlaridan Xudoyor, Abdulla, Ibrohim to'qsabolar va ko'pchilik ulamolar bu qarorni ma'qullab, Muzaffarning taxtdan tushirilganini tan oldilar. Vatanparvar kuchlar Shahrisabzdan so'ng Qarshini egallaydilar. Karmana, Chiroqchi ham tez orada ularning qo'lga o'tdi. Kurashlarda chiniqqan qozoq xalqining sodiq farzandi Sulton Sodiqni amirzoda Karmana viloyati hokimi qilib tayinladi. Amirga teskari kayfiyatda bo'lgan Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobek kabi lashkarboshilar Abdumalik e'lon qilgan g'azot yo'lida barcha elparvar kuchlarni jamlashga urindilar. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman voqealar rivojini tashvish bilan kuzatmokda edi. U, sulhga ko'ra, Buxoroning ichki ishlariga aralasha olmas, shuning uchun qulay fursat va bahona izlar edi. 1868 yilning kuzida amir Muzaffarning amirlikning butun sharqiy qismini egallagan qo'zg'alongchilarga qarshi kurash uchun yordam so'rab qilgan murojaati fon Kaufman uchun ayni muddao bo'ldi. Buxoroning bosib olingan hududlari hisobiga tashkil etilgan Zarafshon okrugi boshlig'i general Abramovga amirga yordam berish uchun barcha choralarni ko'rish topshirildi. General Abramov 6 oktyabrda Buxoro ishlariga aralashishiga qonuniy tus berish uchun maxsus xitobnoma tayyorlatdi. Unda xususan bunday deyilgan edi: «Buxoro xukmdori bo'lish maqsadida Abdumalik Tangrini va o'zining buyuk payg'ambarini ham unutdi. Sotqinlarcha o'z otasi buyuk amirga qarshi qo'l ko'tarib kelmoqda». Ana shunday riyokorlik bilan navbatdagi bosqinni niqoblagan Abramov katta qo'shin bilan harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Qarshi ostonasida Buxoro vatanparvarlari son va qurol-yarog' jihatidan ustun bo'lgan dushmanga qarshi qattiq jang qildilar. Jo'rabek, Bobobek va Sulton Sodiq general Abramov qo'shini bilan janglarda o'zlarining mohir sarkarda ekanligini namoyish qildilar. Ammo kuchlar teng emasligi darhol bilindi. Abdumalik to'ra Shahrisabz tomon chekindi. Dushman bilan birga amir Muzaffar sarbozlari vatanparvarlar egallagan hududlarni birin-ketin egallay boshladilar. Abdumalik to'ra bilan Sulton Sodiq Xiva xonligi tomon qochishga majbur bo'ldilar. 1868

yil 22 dekabrda Xiva xonining mulozimlari Muhammad Niyoz devonbegi va shoir Ogahiy amirzoda Abdumalikni tantanali ravishda kutib olishdi. Xon esa uni mehmonnavozlik ila qarshilab, amirzodaga katta mulk va 1500 tilla maosh tayinladi. Muhammad Rahimxon II uning qiyofasida bosqinchilarga qarshi kurashgan elparvar hukmdorni ko'rar edi. Ammo unga bevosita harbiy yordam ko'rsatishga o'jiz edi. Shuning uchun ham Abdumalik Xivada ko'p turolmay, Afg'oniston tomon yo'l oldi. Kobulda ham unga izzat-ikrom ko'rsatildi. Afg'on amiri Sheralixon amirzodaga xayrixoh bo'lsa ham, Angliya bilan yaqinlashib kelayotgan urushda Rossiyaning madadiga suyanishni maqsad qilib turgani uchun unga harbiy yordam bera olmas edi. Amirzoda so'nggi umidini Qo'qonga bog'lab, Xudoyorxon huzuriga bordi. Bu yerda ham u maqsadiga erisholmadi. Xudoyorxon o'z manfaatini ko'zlab, yov bilan o'chakishishni istamadi. Abdumalik to'ra o'sha vaqtda dong'i ketgan o'zbek sarkardasi Yoqubbek huzuriga Koshg'arga borishga ahd qildi. Qo'qon xonining sobiq lashkarboshisi Yoqubbek 1853 yildan beri bosqinchilarga qarshi kurashib, Oqmachit, Chimkent va Toshkent mudofaalarida o'zini ko'rsatgan sarkarda edi. U 1865 yilda Koshg'arni egallab, tarixga «Etti shahar davlati» nomi bilan kirgan mustaqil davlatni barpo qilgan zabardast hukmdor edi.

Turkiston vatanparvarlari umid ko'zi bilan qaragan Yetti shahar hukmdori undan panohtab kelganlarga doimo marhamat ko'rsatgan. Bosqinchilarga qarshi kurash yalovini bir muddat baland ko'targan Abdumalik to'ra ham Qoshg'arda shunday izzat-hurmat ko'radi.

Yoqubbek huzuriga kelgan Abdumalikka o'z qarindoshidek munosabatda bo'ladi. Yetti shahar hukmdori unga amir sifatida hurmat ko'rsatib, Yangi hisor qal'asini uning ixtiyoriga topshirdi. U Yoqubbekning yordamida Turkiya hukumati bilan aloqa bog'ladi.

Koshg'arga kelgan Angliya elchilari bilan ham uchrashdi. Amirzoda qudratli Buyuk Britaniya imperiyasidan yordam olib, Buxoroni ozod qilish uchun uzoq yillar davomida harakat qildi. Hindistonning Kalkutta shahrida, so'ng Peshovarda istiqomat qildi. Abdumalik to'ra 1885 yilda otasining betobligini eshitib, Buxoro taxtini egallashga urinib ko'rdi.

Amirzoda Abdumalikka Afg'oniston amiri Abdurahmonxon va Angliya yordam berishga va'da qilishgan bo'lsa ham, turli sabablarga ko'ra, uning niyatlari amalga oshmadi.

Abdumalik to'ra haqida batafsil ma'lumot beruvchi yozma manbalar asosan Buxoro amirligi hududida yaratilgan bo'lib bular orasida Abdul Azim Mirzo Somiy (1838–1914 yillar)ning «Tuhfai

shohiy» va «Ta'rixii salotini mang'itiya» asarlari ma'lumotlarning mufassalligi, voqealarning xolisona yoritilishi bilan ajralib turadi. Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo (1867–1931 yillar)ning shartli nom bilan ataluvchi «Ta'rix» asarida ham Abdumalik to'ra faoliyatiga doir muhim ma'lumotlar berilgan. Bunday ma'lumotlarni Xiva xonligida yaratilgan manba – zabardast shoir va muarrix Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874 yillar) qalamiga mansub «Shohid-ul-iqbol» asarida ham ko'plab uchratish mumkin. Ogahiy bu ma'lumotlarni bir necha oy davomida o'zi bilan birga bo'lgan Abdumalik to'ra va sarbozlarining hikoyalari asosida bayon qilgan.

Mazkur asarlarda inqilobdan keyingi davr adabiyotlaridan farqli o'laroq, Abdumalikning hayot yo'li mufassal va beg'araz yoritilgan.

Mavzuga doir axborot

Chor Rossiyasi qo'shinlari Toshkentni ishg'ol etgach, Buxoro amirligi yerlariga yurish boshladi va 1866 yil davomida birin-ketin Xo'jand, O'ratepa, Jizzax qal'alarini bosib oldi. Jizzax ostonalarida katta talofot bergan chor qo'shini Kattaqo'rg'onga hujum qilishdan oldin uzoq vaqt harbiy tayyorgarlik ko'rishga majbur bo'ldi.

Bu vaqtga kelib amirlikda ichki ziddiyatlar nihoyatda keskinlashgan edi. Samarqand hokimi Sher Ali-inoq zulmidan azob chekayotgan shahar aholisi amirga xat yozib, uning o'rniga boshqa hokim tayinlansa, istilochilarga qarshi oxirgi tomchi qonlari qol-guncha kurashajklarini ma'lum qildilar. Biroq amir xalqning bu iltimosini inobatga olmay, Sher Ali-inoqni o'z o'rnida qoldirdi. O'g'li Abdumalik hamda Hisor begi Rahmonqul parvonachini Samarqand garnizoniga bosh qilib tayinladi va o'zi Karmanaga jo'nab ketdi. Amir ketgach, Sher Ali isyonkor shahar aholisidan o'ch ola boshladi va shaharning bir necha mo'tabar kishilarini qatl ettirdi. Amir Muzaffarning saroy tarixchisi Mirzo Somiyning fikriga qaraganda: «...unga (Abdumalikka) xalqning itoat etishi va bo'ysunishini ko'rolmaganligi bois» Sher Ali-inoq amirga Abdumalik to'ra Samarqanddagi g'alayonlarning sababchisi, degan uydirmani yetkazdi. Bu gapga ishongan hamda o'g'lining xalq orasida obro'si oshib ketishidan cho'chigan amir valiahd Abdumalikni Samarqanddan chetlashtirib, G'uzorga hokim qilib yuboradi.

Abdumalik G'uzorda bo'lgan vaqtda chor qo'shinlari Samarqandga hujum qilib, 1868 yil 2 may kuni uni bosib oldilar. 18 mayda esa Kattaqo'rg'on taslim bo'ldi. Samarqand va Kattaqo'rg'on qo'ldan ketganligi va otasining tobe bo'lib, sulh tuzish niyatida gubernatorga elchi yuborganligidan xabar topgan Abdumalik

kurashni davom ettirishga ahd qiladi. To'raning lashkarboshilari Hisor qabilalari, Sherobod qo'ng'irotlari, Qarshi o'zbeklari, ersori turkmanlariga maktublar yo'llab, ularni jihodga chorladilar. Barcha viloyatlardan g'azot talab odamlar kelib, G'uzorga to'plandi. Qisqa fursat ichida bir necha to'p yasab, harbiy jihazlar hozir qildilar. Amirlikning Sharqiy Buxoro hududi butunlay Abdumalik qo'l ostiga o'tdi. Bu viloyatlardan tashqari Amudaryo bo'ylaridan turkmanlar, Farg'onadan qora qirg'izlar, Marv hududidan jangovar tekinlar va hatto Hirot atroflaridan afg'onlar ham yetib kelib, Abdumalik qo'shinining saflarini to'ldirdilar.

Qurol-yarog' hozirlagach, Abdumalik to'raning lashkari G'uzordan chiqib, Shahrisabz orqali Samarqandga otlandi. Shahrisabz begi Bobobekto'raga peshvoz chiqib, jamiki qo'shini bilan unga qo'shildi. Abdumalik bayrog'i ostida to'plangan ulkan qo'shin 1868 yilning 31 mayidan 1 iyuniga o'tar kechasi Samarqand devorlari atrofiga yaqinlashib keldilar. Bu yerda ularga eshon Umarxon Maxdum boshchiligidagi ruslarga dushmanona kayfiyatda bo'lgan mahalliy kuchlar ham kelib qo'shildi. Qo'zg'alonchilarning birlashgan qo'shni hech bir qarshiliksiz shaharga kirib, Samarqandni egallashga muvaffaq bo'ldi. Shahar aholisi ham ularga qo'shildi. Ozchilikni tashkil etgan dushman garnizoni qo'rg'onga kirib yashirindi. Qo'zg'alonchilar qo'rg'onni qamal qilishga kirishdilar. Shu qo'rg'on ichida qolgan rassom V.Vereshnagin ma'lumoti bo'yicha, ularning garnizonida 500 ta askar bo'lgan, mujohidlar esa 20000 kishini tashkil etgan. Bu vaqtda Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman (1867–1881 yillar) asosiy kuchlarini Chag'noqda to'plab, Zirabuloq jangiga hozirlik ko'rayotgan edi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan Katta To'ra qo'shini bosqinchilarga tinimsiz zarba berib, qal'a devorlarini bir necha joyidan teshib o'tdi va bir qancha rus askarlarini asir oldi. Ammo, ming afsus bilan ta'kidlash joizki, chor qo'shinlarining harbiy texnika jihatidan ustunligi tufayli, qal'a atrofida minglab Vatan himoyachilari dushman to'plaridan yer tishladilar. Shunga qaramay, isyonchilar g'alabaga ishonch bilan kurashni davom ettirdilar. Samarqand qo'zg'aloni haqidagi xabar Kaufmanga etib bordi. U Zirabuloq yaqinida amir qo'shinini tormor keltirib, tezlik bilan Samarqandga qaytdi. Kaufman 8 iyunda Samarqandni to'plardan yoppasiga o'qqa tutish va yoqib yuborishni buyurdi. Dushmanning kuchli zarbasiga dosh berolmagan musulmon lashkari chekinishga majbur bo'ldi. Abdumalik to'ra shahardan chiqib, qolgan-qutgan qo'shini bilan Shahrisabzga jo'namoqdan o'zga chora topa olmadi.

Qo'zg'alon bostirilgach, 9 iyun kuni Samarqandda qirg'in boshlandi. Yuzlab odamlar otib tashlandi. Shaharni talon-toroj etish uchun uch kun askarlar qo'liga topshirildi, so'ngra o't quyib yuborildi.

Samarqandda bo'layotgan bu voqealar bilan bir vaqtning o'zida Buxoroda ham 3000 kishidan iborat ulamolar, shayxlar va madrasa toliblari dushmanlarga qarshi kurashga otlandilar. Karmanaga kelib ular amirga shunday so'zlar bilan murojaat etganlar: «Bizlarga bosh bo'lib, yovga qarshi yur, tokim, biz sening oldingda jang qila turib qurbon bo'laylik; agar istamasang, bizlarga o'z qo'shiningning otlari va quollarini ber; biz o'zimiz ular bilan jang qilishga boramiz, sen esa shu yerda qol, hordiq chiqarib, ko'ngilxushlik qil». Muhammad Rizo Ogahiyning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, ularning bu so'zlaridan nihoyatda g'azablangan amir Muzaffar mullalarning hammasini qirib tashlamoqchi bo'ladi. Lekin u o'zini tutib: «Sizlar saflariigizni buzmay Samarqandga boraveringiz, men harbiy tayyorgarliklarni tugallab ikki-uch kundan keyin yo'lga chiqaman»,– deb javob beradi. G'azovotchi mullalar yo'lga tushgach, amir yashirin ravishda Samarqand hokimi va u yerda turgan dushman qo'shini qo'mondoniga xabar yetkazib, ularni shaharga kiritmasdan, qirib tashlashni maslahat beradi. Ular huddi aytilganday yo'l tutib, mullalarga kutilmaganda hujum qiladilar va ularni qirib tashlaydilar. Amirning xoinligi tufayli yana minglab Vatan himoyachilari erk va ozodlik yo'lida shahid bo'ldilar.

Abdumalik Samarqandni tashlab G'uzorga chekingach, amir 1868 yil 28 iyunda Rusiya bilan sulh tuzdi va Karmanadan Buxoroga qaytdi. Poytaxtga qaytgach, amir o'g'liga maktub yo'llab, Rusiya bilan sulh imzolanganligini ma'lum qiladi va unga har qanday yovuz xatti-harakatlardan o'zini tiyishni buyuradi. Abdumalik ota-sining bunday nojo'ya harakatidan qat'iy norozi bo'ladi. U G'uzorda viloyat a'yonlarini to'plab, ularga otasining kirdikorlaridan shikoyat qiladi. Hozir bo'lganlar yakkilik bilan bunday hatti-harakatlari uchun amir taxtdan tushirilishini va bir tomchi qon qolguncha shariatni himoya qilish lozimligini ma'qullaydilar.

Shu o'rinda Abdumalik to'raning asl maqsadi haqida bir-ikki og'iz so'z yuritmoqchimiz. Abdumalik mamlakat og'ir vaziyatda qolg'anidan foydalanib, taxt uchun kurashmadi. Aksincha, amirlikning Sirdaryodan Samarqandgacha bo'lgan hududlari dushman qo'liga o'tganidan, otasining Buxoro amirligi uchun o'ta adolatsiz hisoblangan sulh tuzib, murossozlik siyosatini yuritganidan ranjigan valiahd ham otasiga, ham chor Rusiyasi qo'shiniga qarshi kurashga bel bog'ladi. Ogahiyning keltirgan ma'lumotlari bu

fikrning nechog‘li haqiqat ekanligini tasdiqlaydi: «Abdumalik to‘raga otasining o‘rus bilan musolaha qilib, mutobaat ko‘rguzgani ma‘qul tushmay, xizmatdagi ahli sipohning umarosin va hamul atrofdaagi jami‘ elat va bilodning‘ akobir va kadxudosin (oila boshliqlarini) xizmatiga undab, otasining har oyda o‘n ikki ming tillo mohona muqarrar qilib, askar ahli ilmni qatli om etib, kofirg‘a tobe bo‘lg‘onini shikoyat tariqasi bila bayon etti. Hamma ittifoq bilan Abdumalik to‘raga dedilarkim, bizlar ham otangizdan bezormiz... Endi siz bizlarga bosh bo‘lub oldimizg‘a tushing, to avval borib otangiz bila urushali... Buxoro shahrini musaxxar qilsak, ondin so‘ng sizni podshoh qilib, o‘rus kufforining qasdig‘a yurush qilurmiz...» Mirzo Somiy ham butun mamlakat aholisi Abdumalik to‘rani qo‘llab-quvvatlaganligini quyidagicha bayon etgan: «Ish shu bilan tugadiki, janobi oliylarining Olloh taolodan bo‘lak hech kimi qolmadi, chunki barcha jon-dili bilan to‘rani derdi».

Shunisi e‘tiborga sazovorki, Abdumalik to‘raning ham otasi, ham chor bosqiniga qarshi kurashganligini o‘sha davr muarrixlari bilan bir qatorda jang harakatlarida bevosita ishtirok etgan chor zobitlarining o‘zlari ham e‘tirof etadilar. Jumladan, uzoq yillar O‘rta Osiyoda yashagan chor Rusiyasi polkovnigi D.N.Logofet uni shunday ataydi: «O‘z vaqtida ham Buxoro amiri, ham ruslarga qarshi isyon bayrog‘ini ko‘targan va o‘zining Buxoro taxtiga bo‘lgan huquqlaridan voz kechishni istamagan Buxoro taxtining valiahdi Abdul-Malixon...». Buxoro-Rusiya urushida ishtirok etgan, ko‘plab voqealarning guvohi bo‘lgan zobit M.A.Terentev ham Abdumalikning ruslarga nafrat bilan qaraganligini yashirib o‘tirmagan: «Uning isyon bayrog‘ini ko‘targan to‘ng‘ich o‘g‘li Katta To‘ra o‘zining bosqinchilarga bo‘lgan nafrati tufayli katta shuhrat qozongan va ba‘zi joylarda amir deb e‘lon qilingan edi».

Darhaqiqat, Abdumalik to‘raning keyingi sa‘y-harakatlari ham birinchi navbatda Buxoro davlatining ozodligi uchun kurashga qaratilgan edi. Bu gal Abdumalik atrofiga avvalgidan ham ko‘p odam yig‘ildi. Hatto amirning lashkarboshilari va yirik amaldorlari ham To‘ra xizmatiga kirib, kurash yo‘lini tanladilar. Abdumalik mujohidlarga bosh bo‘lib, Buxoroga qarab yurmoqchi bo‘lib turgan bir vaqtda, amir ham «beboshlarni» jazolamoq uchun Buxorodan Qarshiga qo‘shin tortdi. Amir G‘uzorga kelgach, Abdumalikka qarshi Tug‘aymurod-biy va Yo‘ldosh-biy boshchiligida qo‘shin jo‘natdi. Buxoro lashkari va Abdumalik qo‘shini o‘rtasida Foniytepada bo‘lgan jang natijasiz tugadi. Bobobek qo‘shini bilan birlashmoq viyatida Abdumalik keyingi kun Shahrisabzga qarab yurdi. Amir Abdumalikni tutib berishni so‘rab, Bobobek va Jo‘rabekka

iltimosnoma yubordi. Beklar kelishib amirga o'g'lining aybidan o'tishini so'rab maktub bitdilar. Maktubni o'qib g'azabga mingan amir qo'shinga jangga kirishga buyruq berdi. Ikki qo'shin o'rtasida uch kun davom etgan to'qnashuvda Abdumalikning qo'li otasidan ustun keladi.

Bu vaqtda amirlikning shimoliy tumanlarida ham xalqning noroziligi kuchayib, qarshilik harakatlari va g'alayonlar kundankunga avj olmoqda edi. General Terentevning guvohlik berishicha: «16 avgustda Siddiq (Sulton Sodiq Kenesarinni shunday atashgan) amirning yo'qligidan foydalanib, Nurota qal'asini egalladi va Karmanaga qarab yurdi. Valiahd uni Karmanaga bek etib tayinladi». Abdumalikning safdoshi bo'lmish Siddiqqa qarshi amir 13 ming kishilik qo'shin yubordi. Karmana shahri ostonasida amirning bu qo'shini tor-mor etildi. Amir yuborgan ikkinchi qo'shin esa jang qilmay turib, Siddiq to'ra tarafiga o'tdi. Bu g'alabadan keyin Karmana aholisi Siddiq to'rani shaharga kiritib, uni hukmdor deb e'lon qildi. Amir Karmanadagi tang vaziyatni hisobga olib, poytaxt muhofazasini ta'minlash maqsadida jangning uchinchi kuni Shahrisabzni tark etdi. U Chiroqchida 1500 qo'shin qoldirib, qolgan barcha lashkari bilan Siddiq to'raga qarshi yurdi. Amir Shahrisabzni tark etishi bilanoq, Abdumalik qo'shini avval Chiroqchi, so'ngra Qarshini egalladi.

Saltanat tizgini qo'lidan ketishiga ko'zi yetib, sarosimaga tushgan amir Muzaffar Kaufmanga maktub bitib, undan yordam so'radi. Mirzo Somiyning xabar berishicha: «Gubernator rozilik barmog'ini ko'ziga surtib, 10 ming sinalgan, jang ko'rgan askarlarini 10 ta momoqaldiroq ovozli, yashin sochuvchi zambaraklar bilan ajratib, ularni to'raga qarshi yubordi».

Chor hukumatining rahbarlari uchun Said Muzaffardek kishining amirlikni boshqarishi aym muddao edi. Ular buni o'z asarlarida ochiq-oydin bayon etganlar. «...hech kim yoqtirmaydigan, xalqqa manzur bo'lmagan va qat'iyatsiz Said Muzaffar biz uchun serg'ayrat va mashhur fidoyi Katta To'raga qaraganda qulayroq edi». – deb yozadi general Terentev.

Xullas, general Abramov boshchiligida ajratilgan qo'shin Jomga kelib o'mashdi. «Bizning Kitobga yurishimiz, – deb hikoya qiladi Terentev, – Shahrisabz beklarini Qarshidan 4 ming qo'shinni artilleriyasi bilan chaqirib olishga majbur qildi. Shu tariqa, Katta To'raning faoliyati birmuncha vaqt to'xtatib qo'yildi». Bu vaqt ichida amir Shahrisabz beklari va Abdumalik yordamidan ajralib, yakkalanib qolgan Siddiq to'ra qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi.

Xatirchi va Nurotada o'z beklarini tayinlab, 1868 yilning oxirlarida Abdumalikning 8 ming kishilik qo'shiniga qarshi yurdi.

Buxorodan amir qo'shinlari, Kitobdan rus askarlari Qarshiga qarab yo'lga chiqdilar. Buning xabarini eshitgan To'ra va uning lashkarboshilari xalqni muqaddas jangta chorlab, umumiy harbiy safarbarlik e'lon qildilar.

Qarshidan 9 chaqirim narida joylashgan Qo'ng'ir tepaligida Abdumalik lashkari chor qo'shini bilan to'qnashdi. Jang avjiga chiqan bir pallada Koson tomonidan Buxoro qo'shini ham yetib keldi. Chor askarlari va amir qo'shini to'p va miltiqlardan tinmay o'q yog'dirib, istehkomlarni vayron qildilar. Chor Rusiyasi qo'shinining harbiy texnika jihatidan ustunligi tufayli minglab kishilarning qirilib ketganligini Somiy alam bilan qayd etadi: «Muntazam nasoro qo'shini jangda to'p kullalariyu, miltiq o'qlaridan boshqa qurolni ishga solmaganini, o'zbeklar esa maydoni harbda (yuzma-yuz) jang qilish va mardonavor kurashga odatlanganligi hamda bunday g'irrom urush to'g'risida hech bir tushunchasi yo'qligi sababli bularning jasurligiyu mardligi oqibatda o'lim va shikastlanishdan bo'lak samara bermadi va ular chekindilar». 23 sentyabrda Qarshi chor qo'shinlari tomonidan egallandi. Rastalar va hovlilar talon-toroj etildi.

Shahar obdon talangach, general Abramov mahalliy aholiga g'alati chaqiriqnomalar tarqatgan. Unda Abdumalikka quyidagi ayblar qo'yilgan: «Buxoroga podshohlik qilish istagiga berilib, xudo va buyuk payg'ambari Muhammadni esidan chiqardi va hali-hanuz o'zining jinoyatkor qo'lini o'z hukmdori va otasiga qarshi ko'tarmoqda». So'ngra u aholiga murojaat etib unga: «o'zini ayashni va musulmon qoni to'kilishiga olib bormaslikni» ta'kidlagan. Bosqinchilik qilib birovning yurtini vayronaga aylantirgan, shu yurt tuprog'ini minglab musulmonlar qoni bilan yuvgan generalning bu fikrini qanday izohlash mumkin?

1868 yilning oxirlarida kapitan Grebenka boshchiligidagi chor qo'shinlari ikkinchi to'qnashuvda Abdumalik lashkari ustidan uzilkesil g'alaba qozondi. Abdumalik jangda 4 ming yigitidan ajralib, Shahrisabzga chekindi.

Ogahiyning hikoya qilishicha, Rusiya askarlari Samarqandga qaytgach, u yerdan Shahrisabzga: «To'rani yo ularga yoki amirg'a topshirishlarini, aks holda shaharga ikki tomondan hujum uyushtirilib, biror kishi ham tirik qolmasligi» to'g'risida tahdidli talabnoma yuborganlar.

Janglarda holdan toygan, ko'p talofot ko'rib, saflari siyraklashgan qo'shin va ibtidoiy harbiy texnika bilan chor qo'shinini yengib

bo'lmaslikni tushungan hamda begunoh xalqning qirilib ketishini istamagan Bobobek bilan Jo'rabek Abdumalikka quyidagi mazmunda maktub bitganlar: «...umidimiz shulki, siz Shahrisabzga kelib, yurtimizga balo selining kelish yulini ochmaysiz, ham taqdir o'z qo'li ila parda ortidan biron nimani namoyon etmaguncha bir oz fursat tog'lar orasinda o'rinishgaysiz» Maktub mazmuni bilan tanishgach, To'ra «baxtsizlik uzangasiga oyog'ini, umidsizlik siynasiga boshini qo'yib» Xorazm sari ravona bo'ldi. Ketayotib, Xatirchiga yetganda, uning hokimi, yovning asosiy tarafdorlaridan biri Rahmatchi-biyni qatl ettirdi. U 1868 yilning 22 dekabrda 400 suvoriysi bilan Xorazm xonligi hududiga yetib keldi. Abdumalikning kelganini eshitgan Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon (1865–1910) otaliq Muhammad Rizo Ogahiy bilan devonbegi Muhammad Niyoz Munisni uni kutib olish uchun yuboradi. Ertasi kuni xon Abdumalikni qabul qilib, unga benihoyat muruvvat ko'rsatadi. To'raga har oyida 1500, hamrohlariga esa 500 tilla tanga miqdorida moyana belgilaydi. «Xon unga shunchalik ko'p iltifot ko'rsatdiki, – deb yozgan edi bu voqealarning shohidi bo'lgan Ogahiy,– biror bir o'g'il o'z otasidan buning mingdan birini ham ko'rmagan». Ammo vatani dushman qo'lida turganda unga bu mulozimatu iltifotlar tatimas edi. Nihoyat, Abdumalik asl niyatini xonga ma'lum qilib, undan harbiy madad suraydi. Xon unga voqealarning borishini kutib, Xorazmda qolishini yoki uzrxohlik bilan otasining oldiga borishini maslahat beradi. Ko'zlagan maqsadiga erisholmagan Abdumalik afg'onlar yordamiga umid bog'lab, Afg'oniston sari otlandi. Biroq, o'sha vaqtda afg'on amirlari bilan Buxoro amiri o'rtasida do'stlik munosabatlari mavjudligi tufayli Abdumalik Afg'onistonda xayrixohlik bilan kutib olinmadi. Bu uni Hisorga qaytishga majbur etdi. Abdumalik Hisor beklarining yordami bilan qaytadan qo'shin to'plamoqchi bo'ldi. Afsuski, ular ham to'rani qo'llab-quvvatlamadilar. So'ngra u Qorategin orqali o'tib Qoshg'arga – Yoqubbek (1820–1877) huzuriga yo'l oldi. 1873–1877 yillar davomida u Yoqubbek saroyida yashadi. Yoqubbek vafot etgach, Qoshg'ar Xitoy tomonidan bosib olindi. Abdumalik esa inglizlardan himoya va madad istab, Hindistonga o'tib ketdi. Inglizlar Abdumalikni kurashni davom ettirishga undadilar. 1886 yilda Kalkuttada ingliz qirolligi vakillari, Abdumalik va Afg'oniston amiri Abdurahmon ishtirokida kengash bo'ldi. Inglizlar Abdumalikka harbiy yordam berishni va'da qildilar. Biroq Hindistonda milliy ozodlik harakatining kuchayishi inglizlarning Abdumalikka Afg'oniston orqali harbiy yordam berish imkoniyatini cheklab qo'ydi. 1887 yil Rossiya bilan Angliya o'rtasida Afg'oniston chegarasini belgilash

yuzasidan bitim tuzilganidan so'ng inglizlar O'rta Osiyo masalasiga aralashishdan o'zlarini tiydilar. Shundan keyin Abdumalik umrining oxiriga qadar (1909) Peshovarda istiqomat qildi.

Abdumalik uzoq yillar davomida Turkiston tuprog'ida va Xurosonda turib, mustaqillik uchun chor Rusiyasi bosqinchilariga qarshi kurash olib bordi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan bugungi kunda, uning nomi ham milliy istiqolol, erk va ozodlik yo'lida jonini fido qilgan o'nlab vatanparvarlar qatorida hurmat va e'zoz bilan esga olinishga va ardoqlanishga loyiq¹.

* * *

Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobek esa vatanparvarlik kurashini davom ettirib, Buxoro amiri Muzaffar va uning homiysi bosqinchilarga tahdid solib turdilar.

Buxoro amiri Muzaffar butun amirlikdagi vatanparvar kuchlarning darg'alari bo'lib qolgan Kitob va Shahrisabz hokimlari Jo'rabek va Bobobekka qarshi kurashda yordam so'rab 1870 yilda fon Kaufmanga murojaat qilgan edi. Amir unga o'z elchisi orqali yana bir muhim sirni ham oshkor qildi. Afg'oniston amiri Sheralixon bilan Jo'rabek o'rtasida tuzilgan ittifoqni ma'lum qildi. Turkiston general-gubernatori bu xabarga favqulodda e'tibor qaratdi. Fon Kaufman 1869 yilda Toshkentga Afg'onistondan qochib kelgan Sheralixonning jiyani sardor Abdurahmonxonni uzoqni ko'zlab o'z panohiga olgan va unga nafaqa tayinlagan edi. Kitob hokimi Jo'rabekning bosqinchilarga qarshi Afg'oniston amiri bilan birga bitim tuzgani uni g'oyat tashvishga soldi. General-gubernator imperiya tashqi ishlar vazirligi Osiyo departamenti direktori N.Stremouxovga 1870 yil 16 avgustda yo'llagan maktubida o'z tashvishini bayon qildi. Imperiya hukmron doiralari fon Kaufmanga zudlik bilan tegishli choralar ko'rishni tavsiya qildilar. Turkiston harbiy okrugi qo'mondonligi isyonkor beklarga qarshi qaratilgan maxfiy operasiya tayyorlashga kirishadi. Bu operasiya rejasining ijrosi Zarafshon okrugi bosh-lig'i general Abramovga topshirildi. Unga yordamga polkovnik Sokovnin boshchiligidagi diviziya ham beriladi. General Abramov boshchiligidagi asosiy kuchlar to'plar bilan ta'minlangan edi.

1870 yilning erta bahorida talvasaga tushgan general Abramov 6 rota, 200 kazak, otliqlar batareyasi va raketa moslamasi divizioni bilan Zarafshonning istilochilarga qarshi ko'tarilayotgan yuqori oqimidagi aholini jazolash uchun yo'lga chiqadi va Iskandarko'l

¹ Sh.Esonova. «Buxoro valiahdi». «Guliston» jurnali. 1996, 1-son.

degan joyga yetib keladi. Podpolkovnik Dennet qo'mondon bo'lgan ikkinchi guruh esa Matchoh daryosi yuqori qismiga tashlanadi. Zarafshon yuqori qismida xunrezliklarni 25 iyunda nihoyalagan dushman, bu joylarning Rusiya podshohi taxti tassarufiga o'tganligini e'lon qilib, Ko'likalon mavze'ida shahrisabzliklar lashkari bilan jangga kirishadi. Shahrisabzliklar jangda katta matonat ko'rsatgan bo'lishiga qaramay, qurollar nisbatidagi ustunlik bosqinchilar qo'lining baland kelishiga sabab bo'ladi. Shahrisabz lashkari tartib bilan chekinadi.

Shahrisabzliklar xavfini bartaraf etish zarurati harbiy harakatlarni davom ettirishni taqozo etadi va general Abramov otryadi tog' dovonidan oshib o'tib, beklikning vodiy qismiga tushadi. Shahrisabz va Kitobni olish uchun amalga oshirilgan bosqinchilik urushi kundaligi bundan ancha muqaddam general-mayor Abramov tomonidan bitilgan edi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, Shahrisabz va Kitobni istilo etish Turkiston general-gubernatori Kaufmanning muntazam nazoratida bo'lib, qo'mondon Abramov uni harbiy harakat rejasi, tatbiq etilish natijalari bilan batafsil tanishtirib borgan. Buning sababi shunda ediki, 1868 yil yozida Shahrisabz va Kitobning 25 ming kishilik lashkari Jo'rabek hamda Bobobek boshchiligida Samarqanddagi Rusiya garnizonini 8 iyunga qadar zir titratgan edi. Kaufmanning 1868 yil 12 iyunda harbiy vazirga yozgan 215-sonli ma'lumotnomasida, jumladan, shunday e'tirof mavjud: «Qal'ani (Samarqand – muall.) qamal qilgan dushman to'dasi Jo'rabek va Bobobek (bular tog'lik odamlar bo'lib, favqulodda jasur va benihoya mergan hisoblanadilar) yetakchiligida kelgan shahrisabzliklardan iborat edi»¹.

«Favqulodda jasur va benihoya mergan» shahrisabzlik va kitoblik vatanparvarlar ustiga tish-tirnog'iga qadar qurollangan qo'shin bilan borar ekan, qo'mondon Abramov har bir qilgan xatti-harakatini eng mayda tafsilotlariga qadar Kaufmanga yozma ravishda ma'lum qilib turadi.

Shahrisabzliklardan hadiksirash, shubhasiz, katta doirada bo'lib, bu yurishga alohida sinchkovlik bilan e'tibor berilganligini tasavvur qilish mushkul emas.

Endi, general-mayor Abramovning Turkiston harbiy okrugi qo'mondoniga 1870 yilning 31 avgustda yozgan ma'lumotnomasidan ayrim o'rirlarni keltirib o'tamiz. Zero, bosqinchilikning nechog'lik andishasizlik bilan amalga oshirilishi haqida bevosita shu qonli

¹ Записки Кавказского отдела императорского русского географического общества. Кн. XI. Выпуск первый. Тифлис, 1880, стр. 197.

ish ijrochisining o'z so'zlarini mushohada etish aniq xulosalarga kelishda beqiyos ahamiyat kasb etadi:

1) 3 avgust kunida.

7-kuni ertalab barvaqt yurishni boshlayman¹. Bosh guruh quyidagi tarkibda bo'ladi: 3-liniya bataloni to'laligicha, 3-batareyaning 6 to'pi, 2-engil qurollangan otlq divizion, 6 raketa moslamasi va 200 kazak.

Bu guruh 8-kuni Jomga yetib keladi. 9-kuni Jomdan chiqib, Qashqadaryo vodiysiga tushib, Shar (Shahrisabz – *muall.*) ko'rinadigan joyda tunni o'tkazadi. 11-kuni mo'ljalga olish va shaharlarni zabt etish bilan bog'liq zarur topshiriqlarni bajarish bilan band bo'lishadi. 12-kuni, agar biror-bir jiddiy qarshiliklar chiqib qolmasa, shaharlarni egallash.

Podpolkovnik Sokovnin boshchiligidagi 9-batalonning 3 rotasi, 2 tog' qurol-yarog'i, 2 raketa moslamasi va 150 kazakdan iborat yordamchi otryad 9-kuni yo'lga chiqadi va Qoratepada yotib, 10-kuni dovon oshadi.

Ikki otryad ham 10 kunlik oziq-ovqat, har bir miltiqqa 200 tadan o'q, 1,5 jamlanmadan (tog' vzvodi 1 jamlanma) to'p o'qlari bilan ta'minlanadi.

2) 1870 yil 7 avgust kunida.

Shu kuni otryad Samarqanddan chiqib Jom sari, Sizga, janobi oliylari oxirgi xatimda aytilgan tarkibda yurishni boshladi. Men tarafdin faqat bir o'zgartish – 2 yengil qurol-yarog' o'miga, divizionni butunlay jalb etish kiritildi.

Oldimizda turgan harakat bilan bog'liq vaziyatdan kelib chiqib, Jomda zaxira sifatida 2 rota piyodalarni qoldirishni zarur deb topdim. Bu rotalar 8-kuni yo'lga chiqadi va 6-batalonga birlashtiriladi.

...Otryadim juda qoniqtirarli (1300 kishi) tarkibda va juda yaxshi ta'minlangan. Umid qilamanki, Jomda turadigan zaxiradagi 2 rotaga ham zarurat bo'lmaydi.

Podpolkovnik Sokovnin, oldindin belgilab qo'ilganidek, 9-kuni yo'lga chiqadi, unda 600 ga yaqin odam bor.

3) 12 avgust kunida.

9-avgust kuni Jomdan chiqib, tog' yo'lidan yaxshi o'tdik. Vodiya yetib, men oldin o'ylaganimdek, Sharga emas, to'g'ri Kitobga – Shahrisabz tog'ining janubiy yonboshidagi yo'ldan ketdim. Otryad yo'nalishidagi o'zgarish men tomondan ko'pgina sabablarga ko'ra amalga oshirildi, ulardan eng asosiysi Shahrisabzga olib boradigan

¹ Извлечение из донесений генерал-майора Абрамова об экспедиции в Шахрисабз в 1870 г.: «Записки Кавказского отдела...», стр. 207.

adir yo'lining noqulayligi edi. 11-kuni men Kitobga yaqinlashib keldim va O'rus qishloqda, Qoratepaga olib boradigan to'g'ri yo'l bo'yida to'xtadim. Bu joy Kitob muqobilasidagi shahar devoridan 2,5 chaqirim (Kitob va Shar bir umumiy devor bilan o'ralgan) keladi».

Shahrisabz va Kitobni bosib olish tafsiloti general-mayor Abramovning Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni Kaufmanga 1870 yil 31 avgustda yozgan 591-raqamli bildirish-nomasida¹ o'z aksini topgan deyish mumkin: «Siz janobi oliylarining buyrug'ingizga muvofiq, Shahrisabz beklariga qarshi harakat qilish uchun Zarafshon okrugi qo'shinlaridan «Shahrisabz» degan umumiy nom ostida guruh (otryad) shakllantirildi. Shahrisabzga qarshi harakatda va Zarafshon vodiysidan Shahrisabz vodiysiga yurishda umumiy qulay bo'lish uchun harakatdagi guruhni ikki qismga (kolonna) ajratdim, ulardan birini Jom va Jomtog'i orqali o'tadigan aylanma yo'lga, boshqasini esa to'g'ri Qoratepa tog'iga tomon yo'naltirdim, har ikkala guruh Shahrisabz vodiysiga bir vaqtda yetib keladi.

Shahrisabz guruhi tarkibiga: Z-Turkiston liniya batalonining hammasi, 9-batalonning 4 ta rotasi, 3-otliq divizioni, 2 tog' to'pi, raketa batareyasi, Orenburg kazaklar polkining 200, Sibir kazak polkining 150 jangchisi kiritildi. Guruh o'zi bilan 10 kunlik oziq-ovqat zaxirasi va 1,5 hajmda o'q-dori majmuasi va artilleriya snaryadlari olgan edi. Jom orqali o'tuvchi guruh aravalarda, so'ldan Qoratepa tog' yo'lidan yuruvchilar esa tuyalarda edi.

Buning ustiga, Samarqanddan o'ng guruhga zaxira sifatida, Jomga 6-batalonning ikki rotasi yuborildi. Ular harakatdagi guruhning Jomdagi zaxira oziq-ovqatlar omborini qo'riqlab turdilar.

Z-Turkiston liniya batalonining besh rotasi, otliq divizionning 6 to'p batareyasi, 6 raketa qurilmasi, Orenburg kazak qo'shinining 6, 15-yuzliklaridan iborat o'ng guruh o't otuvchi batareya komandiri polkovnik Kobilinskiy qo'mondonligida Samarqanddan 7-avgustda yo'lga chiqdi va ikki manzil (65 chaqirim) yurib, Jomga yetdi. 8 avgustda Jomga kelishim bilan, Zarafshon okrugi qo'shinlari bo'yicha buyruqqa ko'ra, Shahrisabz guruhi qo'mondonligini o'z zimmamga oldim, shu bilan birga, Siz janobi oliylarining farmoyishingiz bilan Samarqandga kelishgan Bosh shtab polkovnigi Troiskiyini safar shtabining boshlig'i, polkovnik Mixaylovskiyini Jom o'ng guruhining boshlig'i, podpolkovnik Sokovninni Qoratepa chap guruhining boshlig'i etib tayinladim. 9 va 10 avgust kunlari

¹ Записки Кавказского отдела..., стр. 208–217.

o'ng guruh Jom tog'i bo'ylab yurdi, ikki kunda u 34 chaqirim yo'l bosdi va 11 avgustda ertalab soat 9 larda Shahrizabz vodiysiga, Makrit qishlog'iga chiqdilar. Jom tog'i bo'ylab harakat qilish qo'shin va to'plar uchun aytarli qiyinchiliklar tug'dirmadi.

11 kuni peshindan so'ng, soat 5 larda guruh Shahrizabz tashqi devoridan 2,5 chaqirim narida bo'lgan O'rus qishloq bog'lariga yetib keldi. Shu kuni kech soat 10 larda O'rus qishloqda belgilangan joyga Qoratepa tog'i orqali o'tgan chap guruh ham yetib keldi. Shunday qilib, Shahrizabz guruhlarini to'la ravishda jam bo'ldi.

Jom orqali yurayotgan o'ng guruh toqqa, ya'ni Qalqama qishlog'iga yetguniga qadar, yo'lda uchragan qishloqlar aholisi o'z joyida bo'lib, yumushlari bilan band edilar. Qalqama qishlog'idan keyingi yo'lda guruhga kishilar uchramadi, qachonki, guruh Shahrizabz vodiysiga qadam bosgach, Makrit qishlog'idan O'rus qishloqqa yetguncha Kitob tarafdin dushman pistirmalari qorasi ko'rina boshladi.

Ularning ayrimlari ilg'orni va asosiy lashkarning bosh qismini harakatga keltirib, guruhning aravalar va ar'ergard bo'lgan orqa qismiga yaqinlashib kela boshladi va miltiqlardan o't ochdi. Guruh qo'mondoni Mixaylovskiy shunda o'ng halqaga miltikdardan otishni buyurdi. Dushman pistirmasidagilar so'qmoqlar orqali chekindilar, ular izidan to'daga qarab otilgan raketalar hammasini yer tishlatdi.

Chap guruh O'rus qishloqda belgilangan marrada Jom guruhi bilan birlashgunga qadar Samarqanddan uch manzil yo'l yurdi. U 9-batalonning 4-rotasi (1, 2 va 4-o'qchilar), tog' vzvodi, 2 raketa qurilmasi va 150-Sibir qo'shinlari kazaklaridan iborat edi. Bu guruh Samarqanddan ikki kun so'ng, ya'ni 9 avgustda chiqqan edi. 10-kuni guruh dovonga ko'tarildi va shu yerda buyrug'imni kutib turdi. 11-kuni ertalab podpolkovnik Sokovninga tog'dan oshib o'tishni va O'rus qishloq sari, Jom guruhi bilan birlashish uchun yurishni taklif etdim va u o'z vaqtida bajarildi.

Shahrizabzning butun kuchlari joylashgan O'rus qishloq marrasi quyidagicha: uning markazida uchta qo'rg'on bor, ulardan o'rtadagisi nisbatan katta va balandroq. Bu qo'rg'onidan butun tevarak-atrof va uzoq masofa ko'rinib turadi. Yuqorida aytilganidek, qo'rg'onlardan qal'aga qadar 2,5 chaqirim bo'lib, durbindan istehkom devorlari va shinaklar bor bo'yicha aniq-tiniq ko'rinib turardi. Qo'rg'onlarning chap tarafidan, bir necha qadam nariroqdan Kitobga yo'l o'tardi va marraning orqasida bir chaqirimchalik masofada u ikkiga ajralardi, biri Makritga, unisi esa Qaynar orqali Qoratepa dovoniga olib borardi.

Marra oldida, undan yarim chaqirim narida tushgan yo'l O'rus qishloqdan chorak chaqirimcha masofadan so'ng ko'z ilg'ar ochiq joyda oqib yotgan Qashqadaryo o'zanidan o'tib, istehkom qal'asi orqali bog'lar, shahar va Kitob qal'asiga tutashardi.

O'ng tomondan, marraga O'rus qishloq bog'lari va o'ngirlari taqalib kelar, orqada ishlov berilgan ochiq dalalar ko'rinib turardi.

12-kuni ertalabdan marra oldida, o'ng tarafdin bosimroq bo'lgan holda dushman to'dalari paydo bo'la boshladi va asta-sekin marra sari yaqinlashib, o't ochishga kirishdi. O'qchilar guruhini ularga qarshi yo'llashga buyruq berdim va ular shu zahotiy oq dushman to'dasini ancha masofaga uloqtirib tashladi.

12-kuni soat 9 da guruhdan piyodalar rotasi, 20 kazak va 2 raketa qurilmasini oldimda, istehkom mudofaasini mo'ljal qilishga otlandim. Shtab boshlig'i polkovnik Troiskiy, Bosh shtab zobitlari – kapitanlar Sobolev, Frids va shtabs-rotmistr Aminovlardan tashqari, mening ixtiyorimda bo'lgan kishilar, ikki guruh boshliqlari, polkovnik Mixaylovskiy, podpolkovnik Sokovnin va guruhning muhandislik qismi boshlig'i podpolkovnik Bogaevskiylar mo'ljalga olish paytimizda men bilan birga edi.

Mo'ljalga olish ishlari marradan to'g'ri Kitobga qarab ketuvchi va istehkom devoridan 300 qadamcha nariroqdagi baland qo'rg'onda amalga oshirildi. Qo'rg'ondan istehkomning o'ng tarafini shaxsan ko'zdan kechirib, Mixaylovskiy guruhining hujum qilish joyini tanlab va ko'rsatib, polkovnik Mixaylovskiy, podpolkovnik Sokovnin va Bogaevskiylarga qo'rg'ondan chapga yurib, istehkom devorining u tomonini qarab chiqishni va podpolkovnik Sokovnin guruhi uchun joy tanlashni buyurdim. Shu bilan bir vaqtda, bosh shtab kapitani Sobolevni qo'rg'ondan to'g'ri polkovnik Mixaylovskiy batareyasi uchun mo'ljallangan joyni sinchiklab kuzatish uchun yubordim. Sokovnin guruhi uchun joyni tanlab va kuzatib bo'lgach, men lagerga qaytdim, polkovnik Mixaylovskiy va podpolkovnik Sokovninlar esa piyoda rotasi bilan istehkom devorlari va to'siqlarni yanada sinchiklab kuzatish, qolaversa, tevarak-atrofnini o'qqa tutish uchun lagerdan keltirishni buyurganim ikkita to'p uchun qulay joy tanlash uchun qolishdilar.

Mo'ljalga oluvchi guruh O'rus qishloq bog'laridan chiqishi va mening qo'rg'onga kelib to'xtashimdan boshlab, butun mo'ljalga olish ishlari davomida, dushman guruhga istehkom devori hamda to'pxonalardan uzluksiz o'q va zambarak otib turdi. Polkovnik Mixaylovskiy, podpolkovnik Sokovnin va Bogaevskiylarga esa qal'ani chap tomondan o'rab turgan bog'lardan otliqlar to'dasi

xujum qilib, miltiqlardan o'q uzdilar. To'dalarga qarab otilgan bir qancha raketa ularni tum-taraqay qilib yubordi.

Joyni mufassal ko'zdan kechirib, istehkom to'pxonalarini dastlab, mo'ljalga oluvchi guruh turgan qo'rg'onidan so'ng, qo'rg'on o'ng tarafidagi mayda tepalikdan o'qqa tutib, polkovnik Mixaylovskiy va podpolkovnik Sokovnin

rota va to'pchilar vzvodini o'zlari bilan birga olib qaytdilar.

Shu kechasi batareyani tanlangan joyga o'rmashtirish masalasini hal etib, hujumda asqotadigan narvonlar hozirlashni buyurdim. Ikki rotani O'rus qishloqqa arqon va kerakli narsalar keltirish uchun yubordim.

Kitobga hujum qilish va unga ikki yoklama kirishni ko'zda tutib, shu maqsadda qo'shinni ikki guruhga ajratdim: o'ng guruh polkovnik Mixaylovskiy qo'mondonligi ostida, 3 rota (1,2 va 3-o'qchi batalon jangchilari), to'pchilar va otliqlar batareyalarining 1 tadan vzvodlari 2 raketa qurilmasi va 10 kazakdan iborat tarkibida; chap guruh podpolkovnik Sokovnin qo'mondonligi ostida, 9-batalonning 3-rotasi (1-2-rotalar va o'qchilar), to'pchilar va otliqlar batareyalarining 1 tadan vzvodlari, tog' zambarakchilari vzvodi va 20 kazak tarkibida.

Qo'rg'on oldi, oralig'i va orqasida hujum uchun qo'yilgan qo'shinga zaxira tariqasida 3-batalonning 4-rotasini, bir to'pni va 250 kazakni qoldirdim. Zaxira yasovul Prins komandasi ostida edi. Marradagi lagerda butun ashyolar, aslahalar 3-batalonning 2-rotasi, 9-batalonning 4-rotasi va 20 kazak qo'riqlorida turardi. Lagerni idora etish rota komandirlarining martabasi ulug'i, poruchik Gamzinga topshirilgan edi.

Polkovnik Mixaylovskiy guruhida unga yordamchi qilib mayor Poltoraskiy, artilleriya boshlig'i podpolkovnik Kobilinskiy va muhandislik ishlari rahbari podpolkovnik Bogaevskiylar tayinlandi hamda uning ixtiyoriga Bosh shtab kapitani Frids berildi. Podpolkovnik Sokovnin guruhida unga yordamchi, podpolkovnik Raevskiy, artilleriya boshlig'i yasovul Topornin, muhandislik ishlari rahbari shtabs-kapitan Nepokunniy tayinlandi hamda uning ixtiyoriga Bosh shtab kapitani Sobolev birlashtirildi.

12 avgust kechqurun, qorong'u tushishi bilan hujumga shay turgan qo'shin piyodalari batareyalar egallashi lozim bo'lgan marraga tomon yurish buyrug'ini berdim. Ikkala guruh qo'shin O'rus qishloqdan o'ta turib, u yerda tayyorlab va aravalarga yuklab qo'yilgan narvon, arqon va zarur aslahalarni o'zlari bilan oldilar. Tun qorong'uligi va sokinligida amalga oshirilgan harakat dushman tomonidan sezilmadi, ikkala guruh qo'shin belgilangan yerga yetib,

shu zahotiy oq batareyalarni joylashtirishga kirishdi va bu ishlar deyarli bir o'q otilmay uddalandi. Mixaylovskiy batareyasi qo'rg'ondan 220, Sokovnin batareyasi esa 78 qadamlik masofada o'rnatildi.

13-kuni tongda ishlar nihoyasiga yetkazildi. Batareyalarga artilleriya yetib kelgan zahotiy oq, uning bir qismi dushman to'p-xonalariidagi (barbet) zambaraklarga, yana bir qismi esa, istehkom devorining o'yish mo'ljallangan joylariga qarab o't ochdi. Dushman biz tomondan uzilgan o'qlarga to'p va zambaraklardan shiddatli o't ochish bilan javob qaytarardi, bu ayniqsa, Sokovnin batareyasi tarafda kuchli bo'ldi. Ertalab, soat 5-da batareyalarga o't ochishni kuchaytirish haqida buyruq berdim va, izma-iz, yonimdagi kishilar va 6-raketa qurilmasi bilan Sokovnin batareyasiga jo'nadim. Bu yerda vaziyatni quyidagicha baholadim: Bu batareyaga qarshi dushmanning uch batareyasi harakat qilgan edi: biri to'g'ri qarshi tomondan 5 to'p bilan, boshqasi batareyaning o'ng tarafidan 4 zambarak bilan, uchinchisi chapdan 2 to'p bilan zarba bergan edi. Dushmanning butun o'q otish chizig'i batareyaning o'ng va so'l tarafiga qadar o'qchilar tomonidan ishg'ol etilgandi. Shu sababli, artilleriya hamda miltiq o'ti nihoyatda kuchli¹ edi. Dushman artilleriyasining harakatini sal-pal bo'lsa-da, so'ndirish maqsadida men shu lahzada o'qchilarni batareyadan chap tarafdagi bog'ning cheti va batareyadan biroz naridagi mayda o'ngir bo'ylab tarqalishga buyruq berdim.

Aftidan, Shahrisabz beklarining mudofaa vositalari soat sayin kuchayib borayotganligi sababli, hujumda har qanday sustkashlik faqat ishni qiyinlashtirar va murakkablashtirardi, shu boisdan shahar devorini Sokovnin batareyasi o'yishini kutib o'tirmasdan, xayollamay hujum uyushtirishga qaror qildim.

Yasovul Prinsga zudlik bilan barcha kazaklar bilan Ravatoq darvozasiga yopirilib, uni darhol majaqlash va egallab olish buyrug'ini jo'natdim. Yasovul Prins hech narsaga, hatto to'plardan o'q uzish bilan qarshi olinganiga qaramay, ushbu buyruqni tez va toza bajardi. O'n daqiqadan so'ng men darvoza ag'darilganini va egallab olingani xabarini oldim.

Soat 8-00 larda (13 avgustdan 14 avgust tongi) hammasi tugadi, bu paytda men qal'aga shaxsan yetib kelgan edim. Kitob qal'asi hech qanday harbiy ahamiyatga ega emas. Bu bekning ancha mahobatli, pokiza va aytarli darajada boy bo'lgan turar joyi, xolos. Kitobning

¹ Sokovnin batareyasiga qarshi istehkom devorining darvozasidan boshlab Jo'rabek, Mixaylovskiyga qarshi esa Bobobek lashkarlari kurashayotgan edi.

olinishi Sharning (Shahrisabz) o'z-o'zidan qo'limizga o'tishi bo'lgan edi. Shu kuni qo'shin charchab qolgani uchun Sharga o'tolmadim va bu ishni ertangi kunga qoldirdim.

Asirga olinganlarning ko'rsatmalari bo'yicha, qurollangan mudofaachilar 8 mingga yaqin bo'lgan. Hozirgi Shahrisabz beklari (Buxoro) menga aytishdiki, Jo'rabiy va Bobobiy 13 mingga qadar qurollangan kishilarni qo'yishi mumkin edi, zero, oldinlari ular Buxoro amirlariga qarshi shuncha qo'shin jam qilar ekanlar. Endi bo'lsa, bizning kelishimiz ular uchun kutilmagan bo'lib, zarur tayyorgarlik ko'rishga ulgurilmay qolgandilar.

Dushman nihoyatda katta talafot ko'rdi. Asirlar, hujum boshlangan kun 600 ga yaqin kishi o'ldirilgan edi, deb hisoblaydilar. Bizning yo'qotishlarimiz ham sezilarli darajada, ya'ni: 1 ober-ofiser (praporshik Kozlovskiy), quyi unvonlilardan 18 ta o'ldirildi. 1 general (otryad boshlig'i, ya'ni Abramovning o'zi) yengil, 4 shtab zobitlari (Mixaylovskiy – yengil, Sokovnin – og'ir, podpolkovnik Raevskiy – yengil, mayor baron Miller-Zakomelskiy – yengil), ober-ofiserlardan 2 ta – praporshik Mamin va kornet Morozov yengil yaralandi. Quyi unvonlilardan 59 ta og'ir, 42 ta yengil yarador bo'ldi. 29 ta to'p va zambarak, qilich, miltiq, artilleriyaning ko'p o'q-dorisi qo'lga tushirildi.

Kitobni zabt etgach, ertasi kuni (15 avgust), men Sharga bordim. Aholi shahardan 3 chaqirimcha berida meni non-tuz bilan qarshi oldi. Ularga janobi oliylarining Shahrisabz mulklarini uning qonuniy egasi, Buxoro amiriga berish haqida azmi qarorini e'lon qildim va barchasiga o'z joylariga qaytishni, amir tomonidan tayinlanadigan yangi beklar kelishini kutishlarini topshirdim. Ertasi kuni (16 avgust) mening ijozatimga ko'ra, Chiroqchidan To'xtamishbiy 1500 suvoriysi bilan shaharlarning (Shahrisabz, Kitob) garnizonlarini dastlabki kunlarda idora qilish uchun keldi.

Shaharlarni tayin etilgan beklarga topshirib va bu haqda amirga xabar berib, Samarqandga qaytish taraddudida turganimda, yangi beklardan, go'yo Jo'rabiy va Bobobiy Mog'iyonda 3 ming chog'li qo'shin to'plab, yov ketishi bilanoq Shahrisabzga hujum qilmoqchiligi xabarini oldim...».

Shahrisabz va Kitobning istilo etilishida amir Muzaffarning tajovuzona harakatlari ham ahamiyat tutmay qolmagan. Mang'itiy amirlarning kenagas biylariga nisbatan adovati azaliy bo'lib, amir Muzaffarning otasi amir Nasrullo 1858 yilda Shahrisabzni quch bilan tobe' etgan edi. U nechanchi bor qayta bo'ysundirilgan Shahrisabz va Kitobga o'z mang'itlaridan hokimlar tayin qilgan, bu yerda hukm surib kelgan vallamiylar sulolasini qatag'on etgan. Doniyor

otaliqning (1840 yilda vafot etgan) qizi, Dahyak hokimi Yoqubbekning xotinini (Kenagas oyimni) ikki bolasi bilan tortib olib, nikohiga zoʻrluk bilan kiritgan edi. Oʻsha vaqtda Shahrisabzda hokim boʻlib turgan Doniyor otaliqning oʻgʻli Iskandarbekni Qorakoʻl tumaniga hokim nomi ostida badargʻa etgan edi.

Amir Muzaffar otasi amir Nasrulloning Shahrisabz malikasi Kenagas oyim tomonidan qulogʻiga zahar quyib oʻldirilganligini¹ unutilmas edi, albatta. Toshkent Rossiya qoʻshinlari tomonidan egallangach, Iskandarbek u yoqqa joʻnatiladi. Iskandarbek zimmasidagi vazifani uddalay olmagan kishi sifatida amir Muzaffar tomonidan oʻldirilib yuboriladi.

D.N.Logofetning «General Abramovning chor qoʻshinlari otryadi Shahrisabz oʻlkasiga kirganda, Buxoro qoʻshini shaharga gʻarb tomondan yaqinlashib keldi. Uch tomonlama qamal qilingan (Mixaylovskiy, Sokovnin, Buxoro lashkari) Shahrisabz, Kitob va Yakkabogʻ olingandan soʻng Shahrisabz beklari Koʻqonga qochdi», degan soʻzlari zahirida asrlar boʻyi davom etib kelayotgan shaxsiy adovat, ichki nizolarning vatan, el-ulus manfaatidan ustun kelishidek qabohat pinhon yotadi. Amir Muzaffar Rossiyaga boʻlgan vassallik har ikkala tomon uchun ham manfaatli boʻlganligi sababli, undan hayollamay foydalanib qolgan.

Shu tariqa, ikki yoqlama bosqin girdobida qolgan qadimiy shaharlar – Qarshi, Shahrisabz va Kitob, bunday aytganda, Qashqa vohasi dushman tomonidan istilo etiladi. Amir Muzaffar bu oʻlkaning bosib olinishida vosita hamda faol qatnashchi boʻladi. D.N.Logofet bu haqda, «Rus qurolining kuchi va koʻlob boʻlib toʻkilgan rus qoni evaziga olingan Shahrisabz va Kitobdek ulkan beklilik Buxoro amiriga berildi. Shunday qilib, tarix bilan hisoblashilmadi yoxud Shahrisabz va Hisor oʻlkalarining koʻpdan beri Buxoro hokimiyatini tan olmay, mustaqil bekliliklar ittifoqini tashkil etib, oʻziga xos hayot kechirayotganligi ham eʼtiborga olinmadi», deydi nadomat bilan.

D. N. Logofetning alamini tushunsa boʻladi. U, rus quroli va qoni hisobiga zabt etilgan bekliliklar Rossiya tarkibiga kiritilmaganidan taajjub qilib, achinadi. Biroq, oʻn minglab qurbon boʻlgan shahrisabzliklar qoni uning xayoliga ham kelmaydi. Qonlar daryo boʻlib toʻkilishi haqida gap borgudek boʻlsa, oʻlgan bitga askarini ham hisobga olib borgan dushman mahalliy aholini qirgʻin qilar ekan, ularni toʻplariga yem qilganligi, oʻliklardan maydonlar, dashtu dala-

¹ *Xoroshvin A.P.* Turkiston oʻlkasiga oid maqolalar toʻplami. SPb, 1876, 518-bet.

lar, hatto bog'lar to'lib ketganligini aytishni unutadilar. Boshqacha aytilsa, mazlum nufus uning ko'ziga, aqalli, chumchuqcha ham ko'rinmaydi.

Shahrisabz va Kitob beklklarining Buxoro amiri ixtiyoriga berilishi, Qarshi bo'ysundirilishi va uning ham amir Muzaffarga topshirilishi bobidagi ichki – tashqi sabablar ta'siri katta edi, deyish mumkin. Abdumalik to'rani hamon qo'llab-quvvatlab turgan inglizlardan hadiksirash, Turkistonda harbiy kuchlarning ozligi istilochilarni shunday, o'z bosqinchilik niyatlariga xilof yo'l tutishga majbur qilgan omillar bo'lgan. Bunda, D.N.Logofet afsusnadamat bilan ta'kidlagan – tarixni unutish, ya'ni Shahrisabz beklarining Buxoro itoatidan bo'yin tovlab, mustaqil bo'lib kelganligini hisobga olmaslik ham uning amirga topshirilishida asosiy sabablardan biri bo'lmay qolmagan. Arqonni uzun tashlaydigan bosqinchilar sopni o'zidan chiqarishda ustasi farang edi. Ular Buxorodan norozi Shahrisabz va Kitob tez orada o'z tashabbusi bilan Rossiya tarkibiga kirishga istak bildiradi yohud amirlik ichida ixtilof vujudga kelib, butun xonlikni bir hamlada bosib olish imkoniyati tug'iladi, deb arqonni uzun tashlagan edi.

Mulohaza uchun axborot

Bobon to'qsabo

Bobon Kattaqo'rg'onning Mingbozor qishlog'ida, rivoyatlarga ko'ra esa, Ishtixonda tug'iladi. Otasi vafotidan keyin, onasi Nurobodning Qora-qursoq qishlog'ida yashovchi Aliboy ismli dehqonga turmushga chiqadi. Bobon juda gavdali, pahlavon yigit bo'lganidan uni harbiy xizmatga oladilar. Va u tez orada dovyurakligi, tadbirkorligi bilan bosqinchilarga qarshi janglarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun oliy harbiy unvon – to'qsabolik darajasiga sazovor bo'ladi. Biroq, elsevar to'qsabo amir Muzaffarning jasoratsizligi va bosqinchilarga qarshi durustroq mudofaa choralarini ko'rmaganligidan g'azablanadi. Darhaqiqat, amir Zirabuloq tepaliklaridagi so'nggi jangda mag'lubiyatga uchrab aziz yurtimizni Rossiya mustamlakasiga aylantirib qo'ydi, urush xarajatlarini qoplash uchun xalqqa og'ir soliqlar solib, qashshoqlikda yashayotgan kambag'al dehqonlarni xonavayron qildi. Natijada, Bobon Ziyovuddin, Norpoy, Xatirchi tumanlarini o'z ichiga olgan mustaqil milliy davlat tuzishga qaror qiladi. U amir xizmatini tark etishdan oldin, mavqeidan foydalanib yetarli darajada qurol-yarog', o'q-dori to'playdi. So'ngra, o'ziga yaqin kishilardan kichik bir guruh tuzadi. Guruh

a'zolari 1869 yilning oktyabrida 18 kishidan iborat bo'lsa, oradan ikki oy o'tmay besh yuz kishidan oshib ketadi. Bu davrda Bobon o'zini amirlikka ham, bosqinchilarga ham bo'ysunmaydigan mustaqil davlat boshlig'i, xalq ta'biri bilan aytganda, «yarim podsho», deb e'lon qiladi. U o'z davlatida insof-adolat, tartib-intizom o'rnatish maqsadida faqat shariatda ko'rsatilgan soliqlarnigina qoldirib, boshqalarni bekor qiladi. Kattaqo'rg'on va Ziyovuddin chegaralarida harbiy istehkomlar, bojxonalar bino ettirib, chegaradan o'tgan savdogarlardan boj oladi. Boshqa amaldorlarga o'rnak bo'lsin deb, Xatirchi amlodori (soliqchisi) poraxo'r Rahimboyning mol-mulkini musodara qilib, kambag'allarga bo'lib beradi. Xalqqa zulm o'tkazgan Ziyovuddin begi Muhammad Yusufboy dodxohning esa boyligini muhtojlarga taqsimlab, xovlisini yondirib yuboradi.

Amir Bobon harakatini bostirish uchun bir necha marta qo'shin yo'llaydi, biroq har gal mag'lubiyatga uchrab qaytadi. Amir mushkul ahvoldan qutilish uchun Turkiston mustamlakachi ma'muriyatining Zarafshon okrugidan yordam so'raydi. Kattaqo'rg'on uezdi boshlig'i Bozenkov qo'zg'alonchilarga qarshi jazo guruhi yuboradi. Norpoy – Kattaqo'rg'on chegarasidagi jangda jazo guruhi katta talafot ko'rib chekinadi. Guruh mag'lubiyatidan g'azablangan Turkiston general-gubernatori Kaufman Kattaqo'rg'onga shtabs-rotmistr Skobelev boshchiligida otliq jazo guruhini yuboradi. Guruh Kattaqo'rg'onda 25 chaqirim uzoqlikdagi Chorshanba qishlog'idagi jangda mag'lubiyatga uchrab, qochishga majbur bo'ladi. Kaufman Skobelevni podsho obro'yiga putur yetkazishda ayblab uning ishini harbiy tribunalga topshiradi. Shundan so'ng, Kattaqo'rg'onga 500 kishilik kazak jazo guruhi yuboriladi. Guruh savdo karvoni niqobida aravalarda bekinib keladi va to'satdan hujumga o'tib, bojxona xodimlari va bir necha soqchini o'qqa tutadi. Biroq pistirmalardan otilgan o'q yomg'iri ostida qolib, juda ko'p o'ligu yaradorlarini qoldirib orqaga qochadi. Ketma-ket mag'lubiyatlardan tutaqqan Kaufman 1869 yil dekabr oxirida, polkovnik Korganov boshchiligida son jihatidan juda katta, yaxshi qurollangan jazo guruhi yo'llaydi.

Korganovning jazo guruhi ikkinchi marta 1870 yilning 14 yanvarida Qoraqursoq qishlog'ida jangga kiradi. Jazo guruhi bu safar ham ularni tor-mor keltira olmaydi... Nihoyat, chor hukumatining iskovchi, sobiq afg'on guruhining jangchisi, Kattaqo'rg'on uezd boshlig'ining kichik yordamchisi Saidxon Karimxonov o'zidek bir xoin yordamida qo'zg'alonchilar manzilini aniqlab, jazo guruhiga xabar beradi. 1870 yilning sentyabrida Kattaqo'rg'onning To'rtko'l

qishlog'ida oxirgi – hayot-mamot jangi bo'ladi. Qo'zg'alonchilar qahramonona jang qilib, deyarli barchasi halok bo'ladilar. Jarohatlangan Bobon bir uyga kirib olib, jangni davom ettiradi. Uyga o't qo'yadilar. Bobon jo'xorizorga kirib bekinadi. Jo'xorini har tomonidan o'rishga kirishadilar. Shunda Bobon «xom jo'xorini o'rmanglar», deb chiqib, taslim bo'ladi. Biroq amir Bobonni so'rab oladi va unga: «avvalgidek sadoqat bilan xizmat qilsang, omon qolasan», deydi. Bobon ko'nmaydi va quoldosh do'stlari oldidagi qasamyodiga sodiq bo'lib qolajagini aytadi. Amir uni o'limga hukm qiladi va «tila endi tilagingni», deydi. Bobon minoradan tashlashlarini so'raydi. Minora ustida ham uni amir xizmatiga da'vat etadilar. U bosh chayqab, jallodning itarib yuborishini kutib o'tirmay, o'zini minoradan tashlab yuboradi.

Bobon kishilar ongida Vatanga mehru sadoqat bilan xizmat qilish timsoli sifatida chuqur iz qoldirdi¹.

1904–1907 yillarda Samarqand viloyatida mustamlakachilarga qarshi bosh ko'tarib nomi xalq o'rtasida doston bo'lgan Namoz Primqul o'g'li ana shu qahramon Bobonni o'ziga ustoz va namuna deb bilganki, u haqida alohida to'xtalamiz.

3. E'LON QILINMAGAN URUSH... XIVA

Rossiyaning hukmron doiralari Turkiston general-gubernatorligini o'zining O'rta Osiyodagi harbiy rejalarini amalga oshirish uchun tayanch markaziga aylantirib, bu safar istilo tig'ini Xiva xonligiga qarshi qaratdilar. Ular Pyotr I vasiyatini sira unutmagan edilar. 1717 yilgi Bekovich-Cherkasskiy qo'shinining halokati va 1839 yilda Perovski yurishining barbod bo'lganligi rus generallarining xotirasidan chiqmagan edi. Pyotr I ning bosqinchilik rejasini to'la amalga oshirish uchun tayyorgarlik ishlarini poyoniga yetkazishgach, istilochilar Xiva xonligiga ko'z tika boshladilar.

Xiva xonligi mustaqilligi bilan mustamlakachilarga jiddiy xavf solib turar edi. U ming yillardan buyon davom etib kelayotgan qadim Xorazm davlati timsoli sifatida ham Rossiya uchun xavfli ko'rindi. Rossiya imperiyasi o'z tasarrufidagi qozoqlarni ozodlik kurashiga rag'batlantirib turgan Xiva ekanligini ham yaxshi bilardi. Qozoqlarning milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qilgan Kenesari Qosimov Xivadan doimo madad olib, o'n yil davomida Rossiyani bezovta qilib kelayotganligini ham unutmadilar. Masalaning siyosiy

¹ *Muhammad Mahmud*. Bobon to'qsabo. «Jamiyat va boshqaruv», 1998 yil, 3-son, 40–41-betlar.

tomonidan tashqari, Sankt-Peterburg butun Turkiston o'lkasida tijorat ishlarini ham batamom o'z qo'liga olishni maqsad qilib qo'ygan edi. Kaspiy dengizining sharqiy sohillaridan Turkiston shaharlariga olib boruvchi barcha savdo yo'llari esa Xiva xonligi hududlaridan o'tar edi.

1872 yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podshoh noibi ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. Generallar rejasiga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligiga qarashli kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibliği ixtiyoridagi harbiy kuchlar esa g'arbdan va shimoli-g'arbdan Xiva ustiga yurishlari kerak edi.

Rossiyaning tajovuzkorona niyati Xiva xoni va uning oliy mansabdorlariga sir emas edi. Sayid Muhammad Rahimxon II (1865–1910) 1872 yilda Hindiston vise-qiroli huzuriga elchi jo'natib, Rossiya tahdidiga qarshi Angliyadan madad so'ragan edi. Xonning elchisi Aminboy Muhammad o'g'li Kalkutta shahrida lord Norsbruk bilan muzokaralar olib bordi. Angliyaning xukmron doiralari Xiva mustaqilligini saqlab qolishdan manfaatdor bo'lsalar ham, Rossiya bilan ochiq to'qnashuvdan xavfsirar edilar. London o'zining boy mustamlakasi Hindistonga Rossiya tahdid solishidan va Afg'onistondagi mavqeiga Rossiyaning jiddiy xatar yetkazishini hisobga olib, Xivaga yordam ko'rsatmaslik yo'lini tutdi. Hindiston vise-qiroli Norsbruk shu sababli elchiga iloji boricha ruslar bilan aloqani yaxshilash vositalarini ishga solishni hamda qo'shni musulmon davlatlari ittifoqini vujudga keltirishni maslahat berdi. Lord Norsbruk, agar chor Rossiyasi bilan urush bo'lib qolsa, Angliya yordamiga umid qilmaslikni ham ochiq izhor qildi.

Xiva endi o'z kuchi va imkoniyatiga qarab ish ko'rishi lozim edi. Xonlik qo'shinida hammasi bo'lib 27 eski zambarak, 2 ming otliq askar, 4 ming navkardan iborat qo'shin bo'lib, ular ham asosan poytaxtda jamlangan edi. Xiva istilosiga otlangan Rossiya qo'shini ham son, ham sifat jihatdan, shuningdek harbiy texnika imkoniyati. qurol-yarog'lari bilan ham Xiva xonligi qo'shinidan ustun edi. Mazkur harbiy operasiyaga rahbarlik qiluvchi zobitlar va generallar amaliy tajribasi ham xivalik lashkarboshilardan ko'p darajada yuqori edi. Turkiston qo'shinlariga (22 rota, 1800 kazak va 18 to'p) general Kaufman, Orenburg otryadiga general Vervovkin (15 rota, 600 kazak, 8 to'p), Mangqishloq otryadiga polkovnik Lomakin (12 rota, 800 kazak, 8 to'p) qo'mondon bo'lib, Orol flotiliyasi ham ular ixtiyoriga berilgan edi.

Istiloçhilar qo‘shini, shu yo‘sinda, uch yo‘nalish bo‘yicha Xiva xonligi ustiga bostirib kirdi. Chor qo‘shinlari general-leytenant fon Kaufman va general-mayor Golovachyov qo‘mondonligi ostida Toshkent tarafdin, ikkinchi yo‘nalishdagilar general Veryovkin va uchinchi yo‘nalishdagi polkovnik Lomakin qo‘mondonligida Kaspiy dengizi tarafdin Xiva tomon kirib keldi. Imperator Aleksandr II Xiva yurishiga katta e‘tibor beradi. Hatto, aytish joizki, imperator oilasining a‘zolari – buyuk knyazlar Xiva sari yurishda bevosita qatnashadilar. Nikolay, Konstantin, Yevgeniy Romanovlar va Gersog Leytenbergskiy kabi oliy zotlarning harbiy qismlarga qo‘mondon qilib tayinlangani ham Rossiyaning Xiva istilosiga katta e‘tibor berganini ko‘rsatadi.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman yurish oldidan Xivani siyosiy tarafdin ham yakkalab qo‘yish choralarini ko‘radi. U Buxoro amiri va Qo‘qon xoniga tahdidli maktublar yo‘llab, ularni Xivaga yordam bermaslikka chaqiradi. Masalan, uning 1873 yil 4 martda Qo‘qon xoni Xudoyorxoniga yo‘llagan xatida shunday deyilgan edi: «O‘zimga ishonib topshirilgan qo‘shinlar bilan Jizzax ustidan, Buxoroning shimoliy hududlari orqali o‘taman. Sizning dono harakatlaringizdan o‘rnak olmay, Rossiya bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatilishiga qarshi turgan Xiva xonini jazolash uchun yo‘lga tushmoqdaman».

Buxoro amiri Muzaffarning Kaufmanga yozgan javob xatida ruslarga sodiqlik ruhi o‘rmlab turadi: «Elchingiz, stats-maslahatchi Struve Rossiyaning Xiva bilan aloqasini batafsil gapirdi. Men bunday do‘stlikni ifodalovchi xabarning ma‘lum qilinishidan nihoyatda xursand bo‘ldim. Albatta, o‘rtamizdagi do‘stona munosabatlar sizning do‘stingiz – bizning do‘stimiz, va sizning dushmaningiz-bizning dushmanimiz bo‘lishini taqozo qiladi. Men yaxshi tushunamanki, agar Xiva Rossiya bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lmasa, u vaqtda unga qarshi qurol ishlatishga to‘g‘ri keladi. Bunday hol yuz bersa, men imkoni boricha o‘z yordamimni amalda ko‘rsatishga tayyorman.

Sizning elchingiz bizga shuni tushuntirdiki, Oq podshohning yerlaridan Xivaga uch tarafdin yo‘l boradi: ulardan biri Kaspiy dengizidan, ikkinchisi – Qozolidan, uchinchisi – Oq podshohning ixtiyoridagi bizning yerimiz Amudaryodan o‘tadi. Sizga batafsil javobni stats-maslahatchi Struve orqali yuborayotirman. Sodiq do‘st va qo‘shni sifatida sizdan iltimos qilamanki, menga o‘z fikringiz va harbiy yurish vaqtini oldinroq ma‘lum qilingki, fuqarolarimni xotirjam qilish va sizga ishonchli kishilarimni yuborish imkoni tug‘ilsin».

Shunga qaramay, harbiy ta'lim olgan, bosh shtab akademiya-sini bitirib, boy nazariy va jangovor malaka hosil qilgan rus general-lari va zobitlari ixtiyorida eng zamonaviy to'p, raketa otuvchi moslamalar, pulemyotlar bo'lsa ham, ular erksevar va ikki bor Rossiya bosqinchi qo'shinlarini mag'lub qilgan Xivadan, bari-bir, hayiqishgan.

Xiva xonining masalani tinch yo'l bilan hal qilishga urinishlari behuda ketgach, harbiy kengash chaqirib, mudofaa rejalarini tuzadi va istilochilarga qarshi o'zining lashkarboshilarini safarbar qiladi. Matmurod devonbegi, Mahmud yasovulboshi, Yoqubbek qalmoq, Eltuzar inoq va Bobo mehtar rahbarligidagi o'zbek va turkman (yovmit) yigitlari chor qo'shinlari hujumini qaytarish uchun ikki guruhga bo'linib yo'lga tushadilar.

General Veryovkin qo'mondonligidagi Orenburg otryadi Qo'ng'irotga yaqinlashganida shahar hokimlari tezlik bilan dushman to'dalarining paydo bo'lganligi to'g'risida Xivaga chopar yo'lladilar va vaqtdan yutish maqsadida ruslar huzuriga ham elchi jo'natishdi. General Veryovkin qo'ng'irotlarning vakili bilan uchrashib, uning takliflarini eshitdi. Muzokaralar olib borib, masalani tinch yo'l bilan hal qilishni istamadi va shaharga hujum boshlash haqida buyruq berdi.

Qo'ng'irot xalqi Sayidbiy, Tojimumrodbiy va boshqa biylar rahbarligida shahar qo'ldan ketganda ham kurashni davom ettirishga qaror qildilar. Shahar tashqarisidagi yo'llarda dushmanga hujumlar uyushtirib, ularni o'qqa tutdilar. Veryovkin qo'shini esa talafotlar berib, Xo'jayli va Mang'it qal'alarini ishg'ol qildi. Ayni bir paytda general Golovachyov boshchiligidagi Turkiston qo'shini Toshsoqa yaqinida daryodan kechib o'tib, mudofaachilar bilan to'qnashdi. Xiva xonining asosiy zarbdor kuchi bo'lgan Matniyoz devonbegi lashkari Karvon qishlog'idagi pistirmadan dushmanga to'satdan hujum qiddi. 9 rota, otliq askarlar, 8 to'p bilan qurollangan o'qchilar va sapyorlar rotalaridan iborat Golovachyov qo'shini boshda bu hujumdan esankirab qoldi. To'qnashuv shiddatli va ayovsiz bo'lib, har ikki tomondan ko'p qurbonlar berildi. Matniyoz devonbegi kuchlar nisbatini to'g'ri baholab, Xazorasp tomon chekindi. Qurol-yarog' va harbiy texnika jihatidan ustun bo'lgan Turkiston qo'shini Xorazmning qo'hna qal'asi Xazoraspni egalladi. Bu qal'ani bosh qo'mondon fon Kaufman o'ziga qarorgoh qilib, ichkari siljish uchun tayanch markaziga aylantirdi.

Istilochilar yo'lda uchragan har bir shahar va qishloqni talab, uylarga o't qo'yib, qirg'inbarot uyushtirdilar. Ularning ketida esa

kultepalar va jasadlar qoldi. Ammo, Xorazm vatanparvarlari bo'sh kelmay, o'zlariga qulay joylardan dushmanga hujumlar qilishdi. Jangovar turkman urug'lari: yovmutlar, imralilar, chovdirlar va ko'kalanglarga mansub navkarlar dushman ketidan izma-iz borib, unga talafotlar yetkazishdi.

1873 yil 29 may kuni ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldilar. Xiva xoni ortiqcha qon to'kilishini istamay, muzokaralar boshlash haqida o'z vakillarini fon Kaufman huzuriga jo'natdi. Ammo urushqoq general xonning taklifini oqibatsiz qoldirib, hujumga kirishdi.

Xiva mudofaasi yo'lboshchilarining nomlari tarix sahifalariga umrbod yozilib qoldi. Zero, 1873 yilda Xivani mudofaa qilgan kishilarning ism-shariflari istiqloq tarixidan munosib joy olishi farzdir. Urganch darvozasiga Muhammad Rizo to'ra, Toshoyoq darvozasiga Abduqodir to'ra, Bog'ishamol darvozasiga Rahimberdibek Oллоhberdi to'ra Mag'fur, Shayx darvozasiga Oллоhberganbek ibn Xudoyberganbek to'ra o'g'li tayin etildi. Shahar tashqarisida esa bosqinchilarga qarshi jang maydoniga chiqqan Xudoyor qushbegi, Rahmatulla yasovulboshi, Abdulla mahram, Mahmud yasovulboshilarning navkarlari fidokorona jang qildilar.

Xiva shahri va uning atrofidagi janglarda qilichu pilta miltiq bilan qurollangan mudofaachilarga qarshi bosqinchilar 692 granata, 133 raketa va 78605 o'q otishgan. Harbiy hisobotga ko'ra, Turkiston otryadi 62 granata, 5245 dona o'q va 28 raketa; Orenburg otryadi 537 granata, 38060 dona o'q, 52 raketa; Mangqishloq otryadi esa 93 granata, 35300 dona o'q va 58 raketa otgan.

Xiva xoni, sulh haqidagi navbatdagi taklifi rad etilgach, qo'shimcha kuch to'plash uchun shahardan chiqib, turkman yovmut aholining o'tovlari sari yo'l oldi. Afsuski, shunday qaltis bir paytda, xonning oilasi va yaqin qarindoshlari dushmanga qarshi yakdil bo'lish o'rniga, sulolaviy nizolarga berilib ketdilar. O'zbek xonliklari tarixidagi odatdagi fojia-bosqinchilarga qarshi kurash uchun birlashib harakat qilish o'rniga bo'linish yana mudhish tarzda qayta takrorlandi. Xonning inisi va uning yaqinlari dushmanga qarshi birlashib kurashish o'rniga u bilan kelishish yo'liga o'tib oldilar.

1873 yil 29 mayda Rossiya imperatori Pyotr I ning mash'um vasiyati amalga oshirilib, Xorazm saltanati poytaxti – Xiva ishg'ol etildi. Shaharga g'olibona kirib kelgan Turkiston, Orenburg, Kavkaz qo'shinlari talon-toroj qilishga kirishdilar.

Xon saroyida oliy hukmdorlarning taxti, bebaho oltin-kumush buyumlari, turli-tuman qimmatli matolar va nodir qo'lyozma asarlar

Peterburgga, podshoh saroyiga o'lja sifatida olib ketildi. O'lja olingan behisob boyliklar generallar, zobitlar va askarlar o'rtasida taqsimlab olindi. Bosqinchilar avvaldan puxta ishlab chiqilgan reja bo'yicha Xorazmning moddiy va madaniy boyliklarini talon-toroj qilishga kirishdilar.

General-gubernator fon Kaufman ruslarga qarshi kurashga qodir va barchani o'z atrofiga birlashtirishga layoqatli bo'lgan Xiva xonini zararsizlantirish chorasini ko'rib, o'nga maktub yo'lladi. Muhammad Rahimxon II taxtni saqlab qolish ilinjida, o'zi taklif etilgan Gandimiyon bog'iga yetib keladi.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan Xiva xoni o'rtasida muzokaralar boshlanadi.

General Xivani idora qilishga oid yangi nizomni xon diqqatiga havola etadi. Rossiya davlatchiligi rasm-rusumlarini joriy etishga qaratilgan bu hujjatga binoan xonlikda boshqaruv tizimi bo'lgan devon tuzish lozim edi. Devon a'zoliciga Xiva xoni tomonidan dushmanga xayrixoh amaldorlardan Matniyoz devonbegi, Eltuzar inoq va mehtar Abdullabiy, ikkinchi tarafidan esa bosh shtab podpolkovnigi Pojarov, artilleriya podpolkovnigi Ivanov, podpolkovnik Xoroshxin va savdogar Oltinboev tayinlanishi lozim edi. Istilochilarga qarshi janglarda shijoati va vatanparvarligi bilan tanilgan Muhammad Murodbegi va Rahmatulla yasovulboshilar esa Xivadan surgun qilinishi lozimligi ko'zda tutilgan edi.

General fon Kaufman muzokaralar bilan bir vaqtda, erksevar turkmanlarni jazolash uchun general Golovachyov qo'mondonligidagi katta kuchni safarbar qiladi. Piyodalar, otliqlar, to'p va raketalar bilan qurollangan Golovachyov jazo korpusining «Bekovich xuni uchun» deya qilgan vahshiyliklari rus harbiy idoralari hujjatlari va mahalliy muarrixlar bitiklarida saqlanib qolgan.

* * *

«Xotunlar ham chap qo'lida bolasi va o'ng qo'lida tig' bilan Rusiya otliqlariga hamla qilur edilar. Bir miqdor urush bo'lgandan so'ng, Rusiya askari g'olib kelib, ularning ham hammalarini tig'u to'fong bila qirib tamom etdilar. Ba'zi zahmdorlar o'luklarning oralarida o'zlarini o'lukdek etib yotmish erdilar. Rusiya askari ularni ko'rib, miltiq o'qi bilan ularni urub qatl etdilar. Ul holda to'rt kazak otli bir yavmutning izidan yetib, o'rtag'a olib har tarafdin tig' urmoq boshladilar. U yavmutning qo'lida hech yarog' yo'q erdi. Onga ko'p zahm urdilar. Qo'llaridan va tamomi badanidan qon oqib borur erdi. Yavmut ko'rdi, bular oni o'lturmoqchidurlar, g'ayratga kirib bir hamla qilib, ul kazaklarning biridan qilichini qontirib, qo'lidan olib,

ul qilich bila hamul to'rt kazak otliqni qatl etdi. Chun zahmlaridan qon ko'p oqib erdi, behol bo'lub yiqilib qoldi. Ul holda ikki kazak otli bu ahvolda ko'rub kelib, otib va tig' bilan shahid etdilar».

(Muhammad Yusuf Bayoniynig «Shajarai Xorazmshohiy» asaridan).

«Xiva xonining talablarimizni so'zsiz bajarishga hamda xonlikda osoyishtalik istagi turkmanlarga jarima solish fikrini uyg'otdi. Yovmut urug'i oqsoqollariga 300 ming rubl pul yig'ishni ma'lum qilib otryad bilan general Golovachyovni ular ustiga yubordim. Yovmutlar esa oilalari, xo'jalik narsalari bilan turkmanlarning boshqa urug'lari yashayotgan yerlarga qochibdi. Endilikda Ilonli qal'asi bilan Qiziltaqir oralig'ida Yemralilar manzilida 150 mingga yaqin turkman yig'ilgan. Ularga 15 iyul erta tongda to'satdan hujum uyushtirildi. Berilgan kuchli zarba natijasida jangda 500 ga yaqin turkman o'ldirildi».

*(General fon Kaufmannig harbiy vazirga
1873 yil 25 iyulda yo'llagan axborotnomasidan).*

Mavzuga oid axborot

Chor Rossiyasi Turkistonga XIX asr ikkinchi yarmi boshlarida hujum qilishdan necha o'n yillar muqaddam, bu o'lkani ham eniga, ham bo'yiga pinhona tadqiq etishga kirishadi. Xuddi shunday nomatlub, josusona yo'l tutish inglizlar tomonidan ham olib borilganligi ma'lum. Ikki mustamlakachi davlat manfaatlari goh Xiva, gohida Buxoro amirligi siyosiy chorrahalarida to'qnash kelgan hollar ko'p bo'lgan. Akademik V.V.Bartold, garchi, «Turkiston chor istilosiga qadar ilmiy tadqiqotlar uchun deyarli yopiq edi», degan bo'lsa-da, elchi libosidagi harbiylar, turkiy tilni, islomni yaxshi bilgan josuslar – sayyohlar xonliklarda bo'lganlarida o'z ma'murlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni to'plaganlar.

Ilmiy josuslik xizmati, turgan gapki, mazlum etiladigan o'lkaning harbiy quvvati, nufusi, tabiiy boyliklari, iqtisodiyoti, madaniyati, xullas, hamma jabhani qamrab olishni taqozo etardi. Shunga ko'ra, rus muarrixlari keyinchalik e'tirof etganlaridek, asosiy diqqat qo'lyozma manbalarga qaratiladi¹. Qo'lyozma manbalar yurtni bosib olish, idora etish va boyliklarni tasarruf etishda beqiyos omil ekanligini bosqinchilar yaxshi bilganlar.

¹ Mufassal ma'lumot uchun qarang: P.Ravshanov, R.O'roqov. «Ajddodlarimiz qadri». T., «Sharq» 1999, 265–282-betlar.

Xonlar, amirlar bu xildagi qora niyatlardan g'ofil, kelgan elchilarga mulozamat ko'rsatib, noyob qo'lyozmalarni ham tuhfa etganlar. Masalan, 1820 yilda Negri boshli rus elchilariga Muhammad Yusuf Munshiyning «Muqimxoniyalar tarixi» tortiq qilinadi. Buxoroda bo'lgan N.Xanikov jami 166 nodir asarni Sankt-Peterburgga o'zarib ketadi. Bu kitoblar orasida, jumladan, Aziz ibn Muhammad Nasafiyning «Al-Maqsad al-aqso» (1411 yil), «Badoyi' al-lug'at» (1705), «Lug'ati Navoiyya» (1815), «Devoni Xoqoniy» (XVII asr), «Vaqfiya» (1815), «Dastur al-vuzaro» (1566), «Tuzuki Temur» (1847), «Fathnomayi Sultoni» (1847), «Zichi Ulug'bek (XVI asr), «Risola dar ilmi hisob» (1835), «Daftari Chingiznoma» (XIX asr), «Iskandarnoma» (1523), «Abushqa» (1560), «Ahsan al-qisas» (1850), «Majmuai doston» (XVII asr), Husayn Boyqaro devoni (1868) qo'lyozmalari bo'lgan. Bu bebaho xazina javohirlari hozirgi paytda «Xanikov yig'masi» nomi ostida Sankt-Peterburgdagi Davlat ommaviy kutubxonasida saqlanayapti.

1858 yilda elchilar guruhida yurtimizga kelgan P.I.Lerx Imperator Fanlar akademiyasining Osiyo muzeyi uchun «Hudud ul-olam» (X asr), «Kitob al-ansob» (XII asr), «Tarixi Rashidiy» (XVI asr) asarlarini olib ketadi. Tilmoch Yu.K. Kazbekov ham qo'lyozmalarni g'orat qilish ishidan chetda qolmaydi. U, Xoja Ahror va Abdurahmon Jomiy asarlarining asl nusxalarini, To'ra Xoja Andijoniyning «Me'roj al-futuh», Avaz Muhammad Attorning «Tarixi Shohruhiy», Fariduddin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» singari asarlarini olib ketadi.

G.A.Arandarenko (Samarqand viloyati harbiy gubernatori) Qarshi, Shahrisabz beklilari mazlum etilgan paytlarda 2 ta «Shohnoma», «Haft iqlim», «Zahirai Xorazmshohiy», «Kitob tibt», «Iskandar tarixi» singari qulyozmalarni qo'lga kiritadi.

Turkistonda uzoq muddat yashagan V.L.Vyatkin, I.A.Kastane, P.Nalivkinlar ham butun imkoniyatni ishga solib, qo'lyozma asarlarini jamg'arish payida bo'lganlar. V.L.Vyatkin yiqqan asarlar 190 jildni tashkil etgan.Ular orasida «Fathnoma», «Zubdat ul-osor», «Miftoh al-tolibin», «Kitob tuhfat al-nasab», «Nizom ut-tavorix», «Tuhfat al-Xoniy», «Tarixi Muqimxoniy», «Temurnoma» «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi Roqim», «Akbnoma», «Murod ul-orifin», «Mahbub ul-qulub», «Xamsa», «Tazkirat ush-shuaro» kabi ilmiy-tarixiy qimmatli beqiyos kitoblar asosiy ko'pchilikni tashkil etgan.

Graf N.Ya.Rostovsev («Muntaxab ut-tavorix», «Ravzat us-safo», «Xulosat ul-axbor», «Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn», «Ziji

Ko'ragoniy»), N.Malliskiy¹ («Zafarnoma», «Ravzat ul-ahbob») kabi lavozim sohiblari ham Sharq qo'lyozmalarini to'plashga ruju qo'ygan edilar. Istilo va undan keyingi mustamlakachilik yillarida Freytag, Akimushkin, Ivanov, Smirnov, Gluxovskiy, Stroganov, Kostigov, Erdman, Dorn, Folkman, Simonich, Dolgorukiy, Tamaev, Uillin, Kartovov, Geyns, Pozalyan, Dyakonov, Trigorov, Golik, Revel, Kas, Danzas singari olim-u korchalonlar Turkistondan o'margan qo'lyozmalarni Sankt-Peterburg kutubxonalariga topshiradilar. Shub-hasiz, tekinga emas. Birgina Volochinskiy yurtimizdan olib ketgan 24 asarni imperator kutubxonasiga katta mukofot evaziga taqdim etadi.

Achinarli joyi shundaki, Buxoro amirlarining boy va ko'p qamrovli kutubxonalari butkul talon-toroj etilgan. Amir Nasrullo davridan boshlangan g'orat amirlikning vassallik yillarida avj nuqtaga ko'tariladi. Amir kutubxonasi mundarijasidagi «Muraqqa'» (1197 h.), «Misbah» (991h.), «Yusuf va Zulayho» (930 h.), «Tuzuki Temuriy», «Xamsa» (986 h.), «Devon» (1111 h.), «Ravzat as-safo» (1009 h.), «Shohnoma» (1007 h.), «Ajoyib al-maxluqot va g'aroyib al-mavjudot» (910 h.) kabi asarlar Sankt-Peterburgdan joy oldi.

Ma'naviy xazinamizni talon etish va tashib ketishda general-gubernator K.P.Kaufmannning qo'li uzun, imkoniyati cheklanmagan edi. Sankt-Peterburgdagi Davlat ommaviy kutubxonasida «Kaufman yig'masi» nomli ostida saqlanayotgan 150 jilddan oshiq qo'lyozmalar mundarijasi diqqatni tortmay qolmaydi. Turkistonni qonga botirgan jallod, ayni vaqtda, Sharq qo'lyozmalarining qimmatini yaxshi tushunib, uni kutubxonaga «tortiq» qilishni ham esdan chiqarmagan. Uning Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklari shahar-qishloqlaridan, taniqli fuzalo va arboblardan turli yo'llar bilan qo'lga kiritgan asarlari sirasida «Tarixi qipchoqiy» (XVIII), «Tazkirat ush-shuaro» (XVII asr), «Tasavvuf», «Temurnoma», «Haft avrang» (XVIII asr), «Kimyoi saodat», «Lubbi lo'bob», «Latoyif at-tavoif», «Masnaviyi ma'naviy», «Majma al-g'aroyib», «Maxzan at-ta'arruf» (XIX asr), «Me'roj an-nubuvvat» (XVII asr), «Riyoz al-vosilin» (XIII asr), «Shavohid an-nubuvvat» (XVII asr), «Kulliyoti Jomiy», «Kulliyoti Xoja» (XV asr), «Kulliyoti Soib» (XIX asr), «Kulliyoti Qosim Anvar», «Hamsa», «Zahirat al-mulk», «Rashohati ayn al-hayot», «Ravzat al-ahbob» (XVIII asr), «Ravzat as-safo» (XV asr) kabi noyob qo'lyozmalar

¹ Toshkent shahar Dumasiga 1907 yildan 1917 yilgacha boshchilik qilib mustamlaka siyosatini o'tkazgan N.G.Malliskiy mustabid Sovet davrida ham ma'sul lavozimlarda ishlab uzoq yillar olim va pedagog sifatida ulug'langan. Muallif izohi.

mavjud. 1916 yilda M.F.Gavrilov ma'naviy talonchilikni davom ettirib, «Zafaromayi Xudoyorxoniy», «Haft iqlim», «Ravzat ussafo», «Shayboniynoma», «Subhonqulinoma», «Tavorix anbiya va muluk», «Tarixi kabir» asarlarini olib ketgan edi.

1868 yili Samarqand egallangach, musulmon dunyosiga mashhur halifa Usmon Qur'oni general Abramov tomonidan o'lja qilinib, Sankt-Peterburgga jo'natildi. Xuddi shu general Abramov Shahrisabz va Kitob beklklarini egallagach, yuzga yaqin nodir qo'lyozmalarni ham musodara qilgan edi.

General fon Kaufman topshirig'iga ko'ra sharqshunos A.L. Kun Xiva saroyidan 300 qo'lyozma, 18 qur'on, 50 darslik kitoblarini musodara qilgan. 140 jildli bu nodir qo'lyozmalardan 129 tasi tarixiy asarlar edi. Sharq shoirlarining 30 jildli asarlari, 50 jildli fikh ilmiga doir kitoblar Peterburgdagi Xalq kutubxonasiga yuborildi. Kun va uning yordamchilari Xiva xonlari tanga zarb etish uchun ishlatgan 200 muhr va yuzlab tangalar, nodir bezak-buyumlarni olib ketdilar. Ular orasida xivalik ustalar kandakorlik san'atining eng yuksak namunasi – Qo'ng'iroq sulolasi xonlari taxti bebaho o'lja bo'ldi. 1874 yili bu Xiva xonlari taxti qurol-aslaha Palatasiga topshirildi.

Qo'lyozma manbalarning Sankt-Peterburgga muttasil tashib ketilishi oqibatida XX asr boshlariga kelib, qadimiy qo'lyozmalarni topish amalda mumkin bo'lmay qoladi. 1902 yilda V.V.Bartold Turkistonga navbatdagi safarga kelganida, tan olib, «Hozirgi vaqtda Qo'qonda biron-bir qo'lyozmalar yig'masi qolgan emas. Hatto, Xudoyorxon kutubxonasining 1897 yilda K.G.Zeleman (Osiyo muzeyi direktori) shu kutubxona kitobdori Sarimsoq xojada ko'rgan eng oxirgi nusxalari ham yuqolibdi», deyishga majbur bo'lgan edi¹.

4. VILOYATGA AYLANTIRILGAN SALTANAT

Rossiya davlati Buxoro va Xiva xonliklariga qarshi bosqinchilik urushi olib borayotgan yillarda Qo'qon xonligi o'z boshidan chuqur siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy bo'xronni kechirayotgan edi. Bu vaqtga kelib xonlikning hozirgi Qirg'iziston, Qozog'iston xududlaridagi Oqmachit, Turkiston, Sayram, Chimkent, Avliyoota, Pishpak, Almati kabi viloyatlari, ya'ni saltanatning deyarli yarmi Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Qo'qon xonligining hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib qolgandi.

¹ Bu fikrga e'tiroz bildirib, shuni qo'shimcha qilish lozimki, mustabid Sovet tuzumi davridan 1917 yildan 1991 yilga qadar O'zbekistondan olib ketilgan yoki «sovg'a qilingan» ma'naviy boyliklar hisobi yo'q. Muallif izohi.

Qo'qon xonligining Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa shaharlarini bosib olgan chor istilochilari bu xududlarni Rossiya tasarrufiga kiritib oldilar va rasmiy «qonunlashtirib» ham qo'ydilar. 1868 yil 13 fevral kuni Turkiston general-gubernatorligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida shartnoma imzolandi. Bu kelishuv, o'z mohiyati bilan, Qo'qon xonligi uchun nihoyatda og'ir, sharmandali shartnoma edi. Mazkur shartnomaga ko'ra, rus savdogarlari Qo'qon xonligidagi barcha shaharlar va qishloqlarda istagan karvonsaroyga ega bo'lish va savdo agentliklarini tuzish huquqiga ega bo'ldilar. Qo'qon xonligi savdogarlari esa faqat Turkiston general-gubernatorligi hududidagi shahar va qishloqlardagina, ya'ni o'z yurtidagina shunday imtiyozga ega bo'ldilar, xolos. Bu hol mahalliy savdogarlar tabaqasi o'rtasida kuchli norozilik uyg'otdi. Rossiya hukumati tazyiqi ostida, Rossiyaning manfaatlarini ko'zlab tuzilgan bu shartnomadan xonlikning butun xalqi qoniqmadi. O'sha paytda xalq orasida xon va uning gumashtalari Qo'qon xonligini chor Rossiyasiga sotmoqchi, degan fikrlar ham keng tarqalgan edi.

Rossiya Qo'qon xonligini butunlay o'z tarkibiga kiritib olish uchun astoydil harakat boshlab yubordi. Xususan, Qo'qon xonligini josuslik yo'li bilan o'rganishni atroflicha kuchaytirdi. Polkovnik Shaufus Qo'qonga ham elchi, ham josus bo'lib tayinlandi. U, o'zi to'plagan ma'lumotlari asosida, Xudoyorxon mustamlakachilar tarafida ekanini, biroq unga qarshi turgan ikkinchi guruh mavjudligi va bu guruh Sherali dodxoh bilan Abdurahmon Oftobachi tomonidan boshqarilayotganini ma'muriyatiga etkazdi.

Bu davrda xonlik hududi ancha qisqarib ketgan, xazinaga tushadigan daromad kamaygan edi. Xazinani to'ldirish uchun esa og'ir va xilma-xil soliq va majburiyatlar joriy etiladi.

Bu o'rinda rus tarixchilaridan N. Raevskiyning e'tirofini keltirish maqsadga muvofiqdir: «O'lkani dushman egallagandan keyin aholining ahvoli kundan-kunga og'irlashib bordi. Aholidan biz ko'p narsani talab etmoqdamiz. Ulardan soliq yig'ishda esa haddan ziyod avjga chiqayotirmiz. Lekin xalqqa nima berdik? Toshkentda va turli komissiyalarda chiroyli aytilgan iboralardan tashqari, xalq xo'jaligi uchun biz hech narsa qilmadik».

Qo'qon xoni Xudoyorxon mustamlakachilarga o'zini yaxshi ko'rsatishga zo'r berardi. Shu bois, u chor ma'murlariga o'z sadoqatini va har qanday xizmatga tayyorligini izhor etuvchi bir qancha xatlar yozib turdi. Bu xususda Xudoyorxonning 1869 yil 18 aprelda Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan bir maktubi diqqatga loyiqdir. «Sizlar tomonga qochib o'tgan sarboz Tursunqulov bi-

lan, – deb yozgan edi u, – yuborgan samimiy xatingizni oldim. Sizga nisbatan bo‘lgan do‘stlik tufayli mazqur sarbozni kechirib, sarpo kiygizdik va xursand qildik. Chunki u begona davlatga emas, balki Qo‘qon bilan bir davlat – Rossiyaga, ya‘ni bir mamlakatga qochgan». Xudoyorxon o‘z vaqtida yurti va xalqiga xoinlik qilib, munofiqlik, pastkashlik, diyonatsizlik bilan dushman tarafiga o‘tgan kishini afv etganida Rossiyaga nisbatan sadoqatini oshkora namoyish qilmoqchi bo‘lgan, albatta. Uning «bir davlat» haqidagi gaplari dushmanga tiz bukkan davlatining itoatkor xizmatkor bo‘lishga hozirlik e‘tirofi edi. Bu kabi subutsizlik, taslimchilik ruhidagi xatlari evaziga Xudoyorxon vaqtinchalik Turkiston general-gubernatorligi ma‘muriyatining tahsiniga sazovor ham bo‘lgan edi.

Muarrix Ishoqxon Junaydullaxoja Ibrat Xudoyorxonning salbiy fazilatlarini umumlashtirib, «Rusiyadan xotirjam bo‘lub, vaqtini o‘yin-kulki bilan o‘tkazub, qush solmoq va ko‘ksaburi chopmoq yo‘llarida bo‘lub, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabru zulm tarafiga o‘tub turganida, raiyatu xalq [undan] yuz o‘girdi»¹, – deb yozgan edi.

Uning zamondoshlarining guvohlik berishicha, Xudoyorxon so‘nggi o‘n yillik (1865–1875) xukmdorligida o‘z xalqini mislsiz taladi, bu davr o‘g‘rilik va qotillikga to‘la edi.

U Buxorodan panohtopib yurgan kezarida o‘zining o‘tmish qilmishlaridan tavba qilib, endi saltanatga kelsam adolatli ish tutaman degan xayolga ham borganligi ma‘lum.

«Yana taxtga o‘tirsam hammaga teng podsho bo‘laman, birini biridan farq etmayman» deb parvardigorga shart va va‘da qilgan ekan»², – deb yozadi Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Xudoyorxonning ayshu-ishratga mukkasidan ketib, xalq, Vatan manfaatini chet el bosqinchisi oyog‘i ostiga tashlaganini esa shunday tasvirlaydi: «O‘rusiya bilan urushmayman. Boji xiroj berib turishni xohlayman. Pulni ko‘paytirsam bo‘lar ekan. Boshqa tomondan keladigan yov yo‘q. Boxuzur ayshu ishrat qilib yotaman», deb muqarrar qilibdi³.

Taniqli muarrix Ahmad Zakiy Validiy o‘zining «Xudoyorxonning so‘nggi kunlari» asarida xonni «mislsiz ochko‘z, dunyoparast, o‘ta zulmkor, shafqatsiz, ma‘naviy qashshoq» shaxs sifatida ta‘riflaydi. «Xudoyorxon, – deb yozadi u, – ko‘p badavlat bo‘lib, xotinlarni

¹ Ibrat. Farg‘ona tarixi. T.: «Meros», 1991, 310-bet.

² Marg‘shoniy Muhammad Aziz. Tarixi Aziziy (Farg‘ona chor mustamlakasi davrida). Nashrga tayyorlovchilar: Shodmon Vohidov, Dilorom Sangirova. T., «Ma‘naviyat», 1999, 104-bet.

³ O‘sha joyda.

ko'paytirishga hirs qo'ygan. Kayfu safoni, rohatni va tinchlikni yaxshi ko'rgan. Xalqning foydasiga ish yuritmagan... Mamlakatning turli tomonlarida bir nechta bog'larida gullar orasida kayfu safo qilib yotgan: bedana, kaklik va xo'roz urishtirish bilan shug'ullangan. Masxarabozlar va hofizlar hamda ma'nosiz o'yinlar bilan umr o'tkazgan.

Molu dunyoga haddan ziyoda hirs qo'ygan va xazinasini boyitish uchun ko'p soliqlar solgan. Xudoyorxonning mana shunday ishlari va razil axloqi xalq, beklar, sipohiylar, boylar va ulamolarning noroziligini keltirib chiqargan»¹.

Xudoyorxonning majburiy yo'llar bilan soliq to'plab, katta boy-lik orttirgani, hatto, o'lkani istilo qilgan rus mustamlakachilarining asarlarida ham o'z aksini topgan: «Soliqqa tortiladigan mollarning turlari juda ko'p bo'lib, ular imkoni boricha barcha narsalardan olinib, xalq tom ma'noda shilingan. Hatto kambag'allar keltirib sotadigan qamish shox-shibba, yantoq va shunga o'xshash narsalardan ham soliq undirilgan. Keyingi vaqtlarda tog'lardan ariqlar orqali oqib keladigan suvga ham soliq solingan. Faqat nafas olinayotgan havodan soliq olinmagan, xolos. Bu hol xonga qarshi norozilikning asosiy omillaridan biri bo'lgan edi»². Oqibatda mamlakatda g'alayonlar boshlandi. G'alayonlar qay tariqa boshlangani xususida muarrixlardan mullo Mirzo Olim Toshkandiy asarida ma'lumot bor. «Abdurahmon Oftobachini qo'shub, ko'p askar birla buyurdi. Bular borib urushub qirg'izlarni qochurdilar. Qirg'izlar parishon bo'lub ketdilar. Bir necha biylar, chunonchi, Umarbek, Abdurahmon shayton, Qoraqushbiy va Sulaymon o'g'ri va bir necha qirg'iz biylar birla qo'lga tushti, ko'p obro' birla kelib xonni ko'rub, muloqot qilib, duo ayladilar. Filjumla, xotirjam bo'ldilar. Ersa Musulmonqul degan qirg'iz qipchoq urushdan qochub, bir necha qirg'izlar maslahat aylab xonzoda topmoq uchun Buxoro tarafiga borib, Po'latxon valadi Murodxonni oldiga borib vasvasa qilib ekan. Urganjg'a, Muhammad Alixon o'g'li Muzaffarxonning oldiga borib, necha kun turub vasvasa qildikim, xon qilib, ota taxtiga o'lturmoqqa fotiha o'qubmiz, sizga buyurdilar, hamma xaloyiq sizga muntazir turubdirlar, debdi. Muzaffarxon aytdikim: «Sizga qirg'iz xalqini e'tiborlaring yo'q turur. Qalandarxon akamni ham olib borib,

¹ Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 133-bet. Xudoyorxonning ijobiy tomonlari va bunyodkorlik ishlari ham bo'lganini o'zbek olimlari R.Nabiev (Iz istorii Kokandskogo xanstva. T., 1972) va Sh. Yusupov (Xufiya qatlamlar. T., 1999) ko'rsatishganini eslatib o'tamiz. – Mualliflar.

O'sha asar, 334-bet.

Murg'zor qishloqda o'ldurub qo'ydinglar. Alhamdulillah yovhat bahuzur» deb qabul qilmadi. Musulmonqul noiloj qaytib, Toshkentg'a keldi, ersa Muhsinboyning o'g'li mullo Abdulmo'minning hovlisiga qo'nub erdi. Anda bir mulla Ishoq degan qirg'iz bala Mazang degan mavze'da nosfurushlik qilur ekan. Azbaroyi nos olmoqqa kelgan ekan. Abdulmo'min mazkur aytdikim; «Ey ahmoq qirg'iz, shul qirg'iz balani Po'ladxon deb olib borg'il. Ish saranjom topganda, bir xon topilur», dedi ersa ma'qul bo'lub, o'shal qirg'iz balani olib Obliq ustidin oshib Chust ustig'a kelib, qo'shung'a qo'shuldi. Qirg'izlar hursand bo'lub, shodiyona qo'ydilar, oq kigizga solib xon ko'tardilar»¹.

Tarixchining so'zlariga qaraganda, mullo Ishoq mullo Hasan o'g'lini Qo'qon xoni Olimxonning nabirasi deb Chustda xon ko'tardi.

Mullo Ishoq Marg'ilon shahriga yaqin Uhna degan qishloqda istiqomat qiluvchi Bo'ston qabilasiga mansub oilada tug'ilgan va otasi Marg'ilondagi Oqmadrasada mudarrislik qilgan. Mullo Ishoq dastlabki ma'lumotni Tunqotar madrasasida, so'ngra otasi huzurida olgan. 1867 yili o'qishni tashlab Farg'onadagi So'xga keladi va bu yerdagi ko'chmanchi qirg'izlar orasida ikki yil yashab, so'ng Uhna-dagi masjidda, keyin esa Andijondagi masjidning birida imomlik qiladi. Ayni paytda savdogarlik bilan ham shug'ullanadi.

Mullo Ishoq xonlikning nufuzli kishilaridan biri, quramalik Abdulmo'min dodxoh bilan do'stlashib, ikkalalari Toshkentga keladilar. Xonlikning siyosiy kurashlarida faol qatnashgan va ko'pni ko'rgan Abdulmo'min qo'p voqealarni unga gapirib berib, mullo Ishoqning siyosiy ongi o'sishida muhim ahamiyat tutgan. Soxta Po'latxon bo'lish taklifini u shu yerda qabul qiladi.

Chin Po'latxonning taqdiri esa bunday bo'lgan edi: 1810 yili Qo'qon xoni Olimxon o'ldirilgandan keyin uning xotini Otaliqton ismli o'g'li bilan Qorateginga qochadi. Qorategin hokimi Sho o'z qizini Otaliqxonga nikohlab beradi va ularni Buxoro amiriga xizmat qilish uchun Samarqandga jo'natadi.

Bir qancha vaqtdan keyin Otaliqxon ota taxtini qo'lga kiritish maqsadida Qo'qonga jo'naydi. Ammo u yo'lda o'ldiriladi. Uning xotini, o'g'li Po'latbek va qizi (Po'latbekning opasi) qiyin ahvolga tushib qoladilar. Onalari vafot etgandan keyin Buxoro amirining maslahati bilan Po'latbekning opasi Xoja Ahror masjidi mutavallisi-

¹ *Mirzo Olim Mushrif*. Qo'qon xonligi tarixi (Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin). T.: 1995, 80–81-betlar.

ning o'g'liga turmushga chiqadi. Po'latbek shu masjidida istiqomat qiladi.

General Abramovning so'ziga qaraganda, Po'latbekning ko'zi g'ilay bo'lib, o'zi 35 yoshlardagi kishiga o'xshar edi. Tashqi ko'rinishidan uning g'aribona hayot kechirishi sezilib turar, ammo fikri juda ham teran bo'lgan¹.

Xudoyorxonning Samarqandda istiqomat qilib turgan jiyani Nosirxon 1876 yil yanvar oyining boshlarida tasodifan Po'latbekni ko'rib, tanib qoladi va Zarafshon bo'limining boshlig'i general A. Abramovga bu hakda xabar beradi. Shundan keyingina ruslarga Qo'qondagi Po'latxonning soxta ekanligi ayon bo'ladi. Ammo rus qo'mondonligi ham buni sir tutadi. Chunki ular shuncha vaqt aldanib yurganliklarining oshkora bo'lishini istamas edilar².

Sobiq hukmdor Olimxonning nevarasi sifatida siyosiy kurashga otlangan mullo Ishaq Po'latbek, xalqning Xudoyorxon zulmi va Rossiyaga qarshiligini yaxshi anglab Namangan tumanining shimoliy qismidagi, ya'ni Koson va Nanay oralig'idagi Qutlug' Sayid qabilasining yordami bilan atrofiga 500 kishini to'plashga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa Po'latbek boshchiligidagi qo'zg'alon boshlanib ketadi. Bu vaqtgacha ham Mamur Mergan o'g'li boshchiligida Andijon tumanida va Ma'mun Shoumurzoq o'g'li rahbarligida Chotqolda qo'zg'alon ko'tarilgan edi. Ammo ular xon askarlari tomonidan bostirildi. Po'latbek boshchiligidagi xalq harakati o'sha qo'zg'alonlarning bevosita davomi bo'ldi.

Po'latxon o'z atrofiga qirg'iz-qipchoqlardan askar to'playdi. Xudoyorxonning boobro' amaldorlaridan Iso Avliyo, Abdurahmon Oftobachi kabilar, hatto xonning inisi, Marg'ilon hokimi Sulton Murodbek, o'g'illari Nasriddinbek (Andijon hokimi), Muhammad Aminbek, shuningdek musulmon ruhoniylari ham o'sha soxta Po'latxon tomoniga o'tib ketadilar. Xudoyorxon soxta Po'latxonga qarshi qo'shin yuborishga majbur bo'ladi. Har ikki taraf qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Unda qirg'iz-qipchoqlar mag'lub bo'ladilar va Po'latxon bilan qochadilar³. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, qirg'izlar Kosonga kelib, qipchoqlar bilan uchrashib, birgalikda kurash olib borishga kelishadilar.

Muarrixning yozishicha, «Xudoyorxon voqif bo'lub, Abdurahmon Oftobachini va mulla Iso Avliyoni bosh qilib, tamoman

¹ Bobobekov H. Po'latxon qo'zg'oloni. T., 1996, 9-bet.

² O'sha asar, 9-bet.

³ O'sha asar, 10-bet.

kalonshavandalarni farmonladi, ersa, jamoat bo'lib, daryodan o'tib, Namanganga dohil bo'ldilar. Namangan O'rmonbekg'a nomzod bo'lub erdi. Mulla Turdiquli boturboshi, Umarali xoja-mirzaboshi erdi. Bir-ikki kun turub, qo'shinni orqasini yetkurib, jamoat bo'lub o'tlanib, lashkar tortib, favj-favj, to'p-to'p, baydoq-baydoq, alam-alam bo'lub Koson ustig'a bostilar. Shukuh birla borib muqobil bo'lub saf torttilar ersa, qipchoq xalqi urushqa ancha rag'batlari yo'q erdi, charokim kechasi xat va odam kelib, qipchoq kattalarig'a so'zlashib ekan. Nazirqul boturboshi Shahrixon askari birla «Ollohu Akbar», deb ot qo'ydi. O'ng tarafdin Kiyikboy boturboshi qipchoq, Mahram to'pi ot qo'ydi. Mahramlar otib, chopib, o'ldurub, zahmdor qilib, yovni qochirdilar. Behad va beadam bandi tushti»¹.

Po'latxon bir guruh kishilari bilan Chotqol tog'lariga qochadi. Ko'p o'tmay u Laylak qishlog'ida paydo bo'ladi va kuch to'playdi. 1875 yili Po'latxon O'zgandagi qo'zg'alonga boshchilik qiladi. Xonlikka katta xavf solgan bu qo'zg'alonni daf etish uchun Xudoyorxon Iso Avliyo, Abdurahmon Oftobachi va Sarimsoq eshik og'asi boshchiligida 4 ming kishilik askar yubo-radi. Ammo bu qo'shin 1875 yil 17 iyulda qo'zg'alonchilar tomoniga o'tib ketadi. Yana buning ustiga Andijon hokimi Nasriddinbek ham 18 iyulda besh ming kishilik qo'shini bilan Po'latxon boshliq qo'zg'alonchilar safiga qo'shiladi. Bundan oldin Xudoyorxonning ukasi Sulton Murodbek ham shunday ish tutgan edi. Xonlikning asosiy harbiy qismlari va lashkarboshilarning qo'zg'alonchilar tarafiga o'tib ketishi Xudoyorxonning keyingi taqdirini hal etgan muhim sabablardan biri bo'lgan edi.

Bu orada O'sh, Namangan, Andijon, Asaka shaharlari qo'zg'alonchilar tomonidan ishg'ol etiladi. Ular Marg'ilonni ham egallab, Oltiariqqa yaqinlashadilar. Qo'zg'alonning bu tarzda rivojlanishi uning mohiyatan ruslarga qarshi qaratilganligini ko'rsatib turardi. Shu bois, Rossiya hukumati sarosimaga tushib, polkovnik M.D.Skobelevni qo'zg'alonni bostirish uchun Turkiston o'lkasiga yuboradi. Xudoyorxon esa o'z saltanatini saqlab qolish uchun fon Kaufmanga yordam so'rab murojaat qiladi.

Shu tariqa Xudoyorxon uzil-kesil o'zini ham, butun xonlikni ham Rossiya ixtiyoriga topshirib qo'yadi.

1875 yil 20 iyulda u Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanga xat yozadi: «... Bu qiyin va mash'um vaqtda men sodiq va ishonchli deb bilgan odamlar, jumladan, Mulla Iso Avliyo, Abdu-

¹ *Mirzo Olim Mushrif*. Ko'rsatilgan asar, 80–81-betlar.

rahmon Parvonachi va Haqnazar Parvonachilar o'z qo'shinlari bilan mening dushmanlarim bo'lmish qirg'iz qo'zg'alonghilari tomonga o'tib ketdilar va ular bilan birlashib, menga qarshi urush olib bordilar. Men Siz saodati oliylaridan ko'pgina do'stona moyillik kutdim. Shunday bo'lgach, bu gal ham siz meni haqiqiy amaliy yordamsiz qoldirmaysiz va qo'llab-quvvatlagaysiz, deb umid qilaman. O'zimni va Qo'qon xonligini qudratli imperator hazrati oliylari himoyasiga topshiraman va Sizga qo'zg'alonghilarining niyati amalga oshmasdan Ko'qon shahriga artilleriyani, chor qo'shinlarini imkoni boricha tezlik bilan yuborishga buyruq berishingizni do'stona izzat-ikrom, iltimos bilan murojaat qilaman. Siz mening iltimosimni bajarish uchun lutf aylagaysiz, deb umidvorman»¹.

Ammo Xudoyorxon Rossiyadan madad kutib, g'oyatda katta xatoga yo'l qo'ydi. Chunki bu vaqtda chor Rossiyasi O'rta Osiyodagi uchchala xonlikning hammasini bosib olish, o'z hududiga qo'shib olish harakatida edi. Biroq rus xukmdorlari o'zlarining bu yovuz niyatlarini ustamonlik bilan yashirib, siyosiy o'yin qilishdi.

Rossiya Xudoyorxon bilan siyosiy diplomatik o'yin olib borib, unga nisbatan makkorlik qiladi. General fon Kaufmanga kelgan maktublarda go'yoki chor Rossiyasi Qo'qon xonligiga xayrixoh va saltanat Xudoyorxon qo'lida saqlanib qolishidan manfaatdorligi qayd etilgan. Qalbaki ma'lumotlar shaxsan Xudoyorxonga yetkazib turilgan. 1868 yil 29 yanvarda Toshkentdan Qo'qonga kelgan o'shanday maktublardan birida shunday deyilgan: «Ulug' rus podshohi bizga chegaradosh davlatlarda xonlar bilan fuqarolar o'rtasida nifoqlar chiqishiga hech qachon yo'l qo'ymaydi»².

Peterburgdan Toshkentga muntazam ravishda yuborib turiladigan maxfiy yo'l-yo'riqlar tabiati boshqacha edi. 1874 yil 31 may quni fon Kaufman Xudoyorxonga yozgan maktubida: «Agar o'z fuqarolaringizni boshqarish usullarini o'zgartirmas ekansiz, u holda takdiringiz yomon tugashini oldindan aytib qo'ymoqchiman», deya tahdid qiladi. O'sha yilning 13 sentyabrida imperator imzosi bilan Turkiston general-gubernatoriga yo'llangan rasmiy qo'llanmada esa, Qo'qon xonligida ichki boshboshdoqlik va g'alayonlar boshlanib ketganidan foydalanib: «Xon taxtdan batamom qulatilgan taqdirda qo'li baland kelgan guruh bilan durust munosabatni o'rnatish» eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlangan³.

¹ Bobobekov H. Qo'qon tarixi. T., «Fan», 1996, 70-bet.

² Yusupov Sharif. Xudoyorxon va Furqat. T.: «Sharq», 1995, 10-bet.

³ Yusupov Sharif. O'sha asar, 10–11-betlar.

Xudoyorxon poytaxtni tark etishni 22 iyulga belgilaydi, tayyorgarlik ko'radi, xazinasini, ko'p sonli oilasi va boshqalarni yig'ishtirish bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tayyorgarlik va poytaxtni tark etishdan aholi va qo'zg'alonchilar bexabar bo'lishlari lozimligini M. D. Skobelev va A. A. Veynbergga ma'lum qiladi¹.

20 iyul kuni Qo'qon shahrida turgan xon qo'shinidan 4 ming piyoda askar Xudoyorxonning ikkinchi o'g'li Muhammad Aminbek boshchiligida qo'zg'alonchilar bilan birlashish uchun poytaxtni tark etadi. Shu kuni Abdurahmon Oftobachi qo'shinining ilg'or qismi Qo'qon shahridan 3 tosh naridagi Qorovultepa mavzeiga yetib kelgan edi. 22 iyul kuni ertalab piyodalar, sarbozlar va artilleriyadan iborat xon qo'shinlari poytaxtni qo'zg'alonchilardan himoya qilish bahonasida shaharning tashqarisiga yuboriladi.

Xon qo'shini shahar ko'chalarining o'rtasidan o'tayotganida shaharliklarning o'zlari turli qurollar: so'yillar, toshlarni qo'llarida olib, ularni kuzatib turar edi. Xon o'rdasining oldidagi maydonda qo'shin va xalq to'planib, siljishga ham imkoniyat yo'q edi. Rus elchilarining maydonga chiqqanlaridan yarim soat o'tgach, Xudoyorxon, Otabek noib, Mirza Hakim parvonachi, mulla Ma'ruf va boshqalar ham kelishadi. Xudoyorxonning ko'rinishi xavotirsiz edi. U chorak soat O'rda darvozasi oldida turib, so'nggi buyrug'ini berib, keyin rus elchilariga qo'li bilan «oldinga qarab yuringlar» degan ishora qiladi. Lekin Xudoyorxon Mahram yo'liga chiqadigan Katta G'oziyog'lik darvozasi tomonga borishdan qo'rqadi, chunki omma xonning qochayotganini sezib qolib, to'sqinlik qilishi mumkin edi. Shuning uchun u Mo'ymuborak darvozasi tomon yo'l oladi. Xon isyonchilardan shaharni himoya qilish uchun ketmoqda, deb o'ylovchilar ham bor edi. A.A.Veynberg, M.D.Skobelev va ularning hamrohlari O'rmon ostidagi butazor Govxona oldida to'xtashadi. Qo'qon xonining qolgan qo'shini 4000 piyoda, 2000 sarbozlardan va 68 ta turli xil to'plardan iborat edi². Ular chamasi bir yarim soatcha o'sha yerda turganlaridan keyin Mirza Hakim kelib, xonning Beshariq tomon yo'l olganini aytadi. Rus elchilari ham xavotirga tushib, aravalarni hozirlasha boshlaydilar. Shu payt xonning 100 qadam narida turgan sarbozlari to'planishib, nimalarnidir maslahatlashadi-da, tug' va bayroqlarini yirtib, so'ng o'tlanishib shahar tomon ketishadi. Zambarakchilar to'plarini tashlab, ularning qilgan ishlaridan o'rnatiladilar, piyoda askarlar esa bog'lar tomon tarqalib,

¹ Bobobekov H. Qo'qon tarixi, 71–72-betlar.

² Bobobekov H. Qo'qon tarixi, 74-bet.

qochib ketishadi. Aftidan, ularga Xudoyorxonning qochishi haqidagi niyati ma'lum bo'lib qolgan.

AA.Veynberg, M.D.Skobelev va boshqalar Xudoyorxonning oldiga borishadi. U shu paytda bir katta daraxtning tagida qizil tug' ostida isyonchilardan o'zini himoya qilib, otishma qilib turgan edi. Rus elchilari, Xudoyorxon bilan birgalikda otishmalar qilib Xo'jand tomon qocha boshlaydilar. Qo'zg'alongchilar ularni ta'qib qilib boradilar...¹ To'qnashuvlar bo'lib, unda xon askarlaridan 8 kishi o'lib, 9 kishi yarador bo'ladi, rus elchixonasidagilardan 2 kishi o'ladi. Xon arxivi shu yerda yo'qoladi. Qo'zg'alongchilar xonga tegishli 30 aravani qo'lga tushiradilar.

Xudoyorxon Xo'jandga kelib, bu yerda 10 kun istiqomat qiladi. 1875 yil avgustda uni Turkiston general-gubernatori Toshkentga chaqirtiradi. Bu hakda «Туркестанские ведомости»ning 1875 yil 5 avgustdagi 31-sonida shunday yozilgan: «31 iyulda Mulla Abdulkarim boshliq Qo'qon elchilari Toshkentga kelishdi. Ular Xudoyorxonga qarshi g'azabnok bo'lgan qipchoqlar guruhi tomonidan Qo'qonda saylangan yangi xondan maktub olib kelishgan. Yangi xon Xudoyorning katta o'g'li Nasriddinbek bo'lib, otasi davrida Andijon bekligini boshqargan. Nasriddin 28 iyulda xon qilib saylangan va o'sha zahotiyiq bu haqda general-gubernatorga maktub bilan ma'lum qilgan... Sobiq Qo'qon xoniga Xo'janddan Toshkentga ko'chib kelish taklif etildi»².

Xudoyorxon 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga Turkiston general-gubernatori fon Kaufman huzuriga panoh izlab keladi.

Kaufman 40 aravadagi boyligni musodara qilib, Xudoyorxonning o'zini Orenburgga surgun qiladi. Mirza Olim Toshkandiy yozadi: «Maxfiy va mastur qolmag'aykim, 1292 sana – bir ikki yuz to'qson ikki tarixinda firqai Rusiya huruj aylab Farg'ona mamlakatlarini taxti tasarrufiga oldi. Xudoyorxon saodatnishinni ahli avlodi birlan asir aylab, o'n bir odami birlan O'runburun viloyatiga yuborib, anda saqladi». Keyinchalik xon Orenburg tutqunligidan qochib, Makkai Mukarramaga haj amallarini ado etgani boradi.

Shu tarzda Xudoyorxonning taqdiri zulmga ruju qo'yishi va ona-yurt taqdiriga befarq qaraganligi tufayli, ayanchli yakun topadi.

¹ Bobobekov Haydarbek. Po'latxon qo'zg'oloni, 12-bet.

² Yusupov Sharif. Xudoyorxon va Furqat, 12-bet.

Xudoyorxon Qo'qondan chiqib ketishdan oldinoq yuqori tabaqa vakillari tomonidan Nasriddinbek Qo'qon taxtiga xon etib o'tqazildi. Bunda Abdurahmon O'ftobachi boshchiligidagi guruhning xizmati katta bo'ldi.

«Tarixi Farg'ona» kitobida shunday yozilgan: «Marg'ilonda Sulton Murodbekni Ho'qandga xon qilmoqchi bo'lib ahdu paymon qilib turganda Nasriddinxonni borub O'ftobachiga ellik ming tillaga shart qilib, Nasriddinxonni xon qilmoq muddaosida bo'lub, zohiri g'azot, botini fasod Nasriddinxonni Ho'qandga o'rduga o'tkazub, xon qilib qo'ydi». Shu tariqa Abdurahmon O'ftobachi boshchiligidagi guruh taxtga Nasriddinbekni o'tkazishga muvaffaq bo'ldilar. Mirza Olim Toshkandiy ham Nasriddinbek Abdurahmon O'ftobachi yordamida xon etib saylanganini aytadi. Yangi xon esa Turkiston general-gubernatorligi bilan go'yo yaxshi aloqalarni o'rnatish maqsadida fon Kaufman nomiga maktub yo'llagan. Unda o'zining taxtga o'tirganligini ma'lum qiladi va do'stona aloqada bo'lish istagini izhor etadi. Muhimi, u amalda Rossiya hukumatining bosqiniga qarshi kuch to'plashga kirishadi. Shu maqsadda Nasriddinbek Buxoro amiriga ham maktub bilan murojaat qiladi. Unda xususan shunday deyilgan: «Otam o'rniga taxtga o'tirgan men sizga ma'lum qilamanki, hozirda din himoyasi uchun kurashga otlangan shahar va dasht aholisi katta kuch-g'ayrat bilan bosh ko'tardi. Ona-Vatanga muhabbat va sodiqlik hamda din uchun kurash shuncha ko'p odamlarni bir joyga jamladiki, son-sanog'i Xudodan boshqa hech kimga ma'lum emas. Meni Andijondan keltirib, yovga qarshi kurashishni zimmamga yukladilar. Biz taxtga ega bo'ldik, shahar va dasht aholisi bizni xonlik libosi bilan ziynatladi. Hozirda dushman o'tadigan har bir yo'lga harbiy qismlar yubordik. Shaxsan mening o'zim ham istilochilarga qarshi kurashish maqsadida behisob qo'shin bilan yo'lga chiqdim.

Oliy hazrat! Sizni otam o'rnida va islomning yirik hukmdorlaridan biri sifatida ko'rib, o'zimizning ishlarimiz va ezgu maqsadlarimizni izhor etmoqdaman!»¹.

Mazkur maktubni Sayidalixoja Abdusattor Mahzum o'g'li amiriga topshiradi. O'z navbatida o'sha Abdurahmon O'ftobachi va Iso Avliyolar ham Buxoro amiriga xatlar yo'llab, undan Turkiston general-gubernatoriga qarshi urush olib borishda yordam berishni so'rashgan edi. Yuqoridagi mazmundagi murojaat va xatlar Toshkentdagi nufuzli kishilariga, jumladan, Saidazimboyga ham jo'natilgan edi.

¹ Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 339-bet.

Maktublarda ruslar Xo'jand, Toshkent, O'ratepa, Samarqand va boshqa joylarni zo'ravonlik bilan bosib olganliklari, dini islomga tajovuz qilinayotgani, shu bois barcha musulmon ahli ularga qarshi urushni muqaddas burch bilib qo'zg'alonga tayyor ekanligi ma'lum qilingan edi.

Sobiq xon Xudoyorxonning Oq podshohga sajda qila-qila, oxiri, rasvo bo'lib, yurtni tark etgani ham zikr etilgandi. «Shundan keyin, – deyilgandi murojaatda, – barcha ruhoniylar va xizmatchilarning vakillari, hamma katta-kichik odamlar bir yoqadan bosh chiqarib, kelishmovchiliklarni bartaraf etib, xonning katta o'g'li Sayid Muhammad Nasriddinni taxtga o'tqazdilar. Davlatimizdan 3 lak, ya'ni 300.000 kishi chiqadi va bu bilan biz katta kuchga egamiz. Biz katta-kichik hammamiz hamda har bir kishi alohida kurashishni muqaddas burch, deb bilib, bir kishi qolgunga qadar jang qilamiz va Xudoning marhamati ila g'alabaga ishonamiz.

Agarda hozir sizlar bu xatni olganingizdan keyin musulmon dinini himoyasi uchun muqaddas urushni xohlasangizlar, u vaqtda bir joyga to'planib urushga tayyor turinglar»¹.

Ammo Buxoro amiri ham, Sayidazimboy ham o'sha maktublarni Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanga ikki qo'llab topshirib, o'zlarining Oq podshoh hukumatiga sodiqligini namoyish etdilar.

Shunday qilib, ozodlik kurashchilarining tashqaridan yordam olishiga qilgan umid va sa'y-harakatlari puchga chiqdi. Nasridinbekning 1875 yil 28 iyulda Turkiston general-gubernatoriga yozgan xatiga K.P.Kaufman tomonidan 4 avgustda bunday javob xati yuborildi: «Rajab oyining 8-kuni yozgan xatingizda xalqingiz ulamoyu fuzalo Sizni Qo'qon taxtiga saylangani haqida xabar beribsiz. Sizga ma'lumdirki, dadangiz bilan uzoq yillar davomida do'st bo'lishimga qaramay, men hech qachon uning xatti-harakatini ma'qullagan emasdim. Hozir men Sizning xonligingizni tan olishim mumkin, ammo Siz quyidagi shartlarimni bajarsangiz, birinchidan, Xudoyorxon bilan men 1868 yili imzolagan bitimni tan olishingiz; bu barcha hukumatlar orasida odatdir, shuningdek, oxirgi voqealar tufayli uzilgan savdogarlarimizning kreditlarini to'la-to'kis tiklaysiz; ikkinchidan, Xudoyorxonga qarshi ko'tarilgan qo'zg'alonlar tomonidan bizning elchilarimizning tortib olingan mulklarini qidirib, qaytarasiz. Chunki Govxona mavzeidan ketilayotganda xon bizning zobitlarimizdan uch chaqirim oldinda edi. Shuning uchun isyonchilarning to'plaridan otilgan o'qlar bizlarga qarshi qaratilgan edi. Basharti, bu mulkni qidirib topa olmasangiz, siz talon-toroj etil-

¹ Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar. 340-bet.

gan buyum va narsalar o'rniga pul to'lashingiz lozim, pulning miqdorini keyin aytaman, chunki hozirgi barcha yo'qolgan mulkning miqdori aniqlangan emas; uchinchidan, bizning elchilarimiz ixtiyoridagi ikki halok bo'lgan yigitlarimiz xuni uchun tovon to'lashingizni talab qilaman; to'rtinchidan, Siz otangiz Xudoyorxon uchun nafaqa to'lashingiz lozim, pul miqdorini men keyin xabar beraman. Men avvallari ham Sizga moil ekanligimni isbotlagan edim va Siz bunga shubhalanishingiz mumkin emas; shuning uchun ham xonlikka Siz saylanganingizdan men xursandman, ammo mening talablarim qat'iy va ularni aniq bajarishingiz shart, faqat shundagina, Sizdan rasman rozilik olganimdan so'ng, olampanoh imperator nomidan Sizni xon deb tan olishim mumkin. Shuning uchun Sizdan tez fursatda javob yuborishingizni so'rayman»¹.

Keskin talabdan iborat xatga Qo'qon xoni Nasriddinxondan javob xatini kutib o'tirmasdan, general-gubernator K.P.Kaufman Rossiya harbiy vaziriga 1875 yil 6 avgustda xabar berib, undan agar Qo'qon hukumati Rossiya bilan do'stlik aloqalarini o'rnatolmasa, xonlikni bosib olib, imperiya tarkibiga qo'shib olishlikka ruhsat so'raydi.

Xonlikdagi borgan sari kuchayib borayotgan xalq harakatlari va xonning mamlakatni tashlab qochishi, podsho Rossiyasi uchun bu mamlakatni bosib olishda qulay imkoniyat yaratdi. Bu vaziyatni qo'ldan bermaslik uchun Yettisuvda turgan Kaufman zudlik bilan Toshkentga qaytib keladi va xonlikni bosib olishga kirishadi.

Milliy-ozodlik kurashchilari, birinchi navbatda, Qurama tumanini istilochilardan ozod qilishga urindilar. 1875 yil 6 avgustda 2 ming qurollangan vatan himoyachilari Toshkent tomon yurish boshladilar. Ulardan 1000 nafari Ohangaron daryosidagi Obliq qishlog'iga, 500 tasi Bo'kaga, qolgan 500 nafari Qaroqchiga keladi. Bundan tashqari, qurollangan katta-kichik otryadlar Oqcha qishlog'ini egallab, Parkentga o'tishga harakat qildilar. Ko'shrabotning yuqorisida esa qurollangan navkarlar jangga kirish uchun shay bo'lib turishdi.

7 avgust kuni kech soat 5 da Golovachyovga kunduzi soat 3 da Obliqqa 1000 kishilik va 2 to'p bilan Qo'qondan otryad kelganligi haqida xabar berishadi. Qishloq oqsoqoli Golovachyovga qo'qonliklarning soni taxminan 10 mingga yaqin deb aytadi.

General endilikda vaziyat murakkab tus olganini payqab, zudlik bilan bosh qo'mondon fon Kaufmanga operatsiyaga keng miqyosda

¹ Bobobekov Haydarbek. Po'latxon qo'zg'oloni, 15-bet.

yondoshish zarurligini uqtirdi. General-gubernator fon Kaufman uning fikrini quvvatlab, Peterburgga shoshilinch xabar yo‘llaydi. Bu xabarda Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari qo‘mondoni Rossiya imperiyasi hukumati harbiy vaziridan Qo‘qon xonligiga qarshi chinakamiga urush ochishga to‘g‘ri kelayotganini bildirib, bu urushni moddiy va siyosiy jihatdan ta‘minlashni so‘radi.

Imperator Aleksandr II vazir axborotini ko‘rib, bu urushga roziligini bildiradi va 100 000 rublni ana shu tadbirga ajratadi.

Shunday qilib, 1875 yil 9 avgustda Kaufmanning buyrug‘i bilan urush boshlanib ketdi. Birinchi harbiy to‘qnashuv O‘rg‘ozi darasida yuz beradi. Bu yerda turgan 800 qo‘zg‘alochiga qarshi polkovnik Yegashin yaxshi qurollangan askarlari bilan hujum qiladi.

1875 yil 13 avgustda K.P.Kaufman qo‘qonliklarga qat‘iy ultimatum ruhidagi murojaatnoma yubordi. «Sizlarning boshliqlaringizdan biri, – deyiladi o‘sha murojaatnomada, – ruslarga qarshi urush boshladi. Bu urushdan nima chiqishini bilasizlar. Aslida, men sizlarni jazolashim kerak. Lekin, agarda siz qo‘qonliklar qipchoq va qirg‘iz xalqining dushmani bo‘lmish buzg‘unchi Oftobachini tutib menga topshirsalaring gunohlaringdan o‘taman. Faqat shundagina men sizlarga to‘la «omonlik» e‘lon qilaman»¹.

Qo‘qonliklar Sarimovich qo‘mondonligidagi otryad bilan 14 avgust kuni 9 soat davomida jang qildilar. Bu og‘ir kechgan jangda qo‘zg‘alochilar mag‘lubiyatga uchradilar.

Fon Kaufman 1875 yil 13 avgustda Toshkentdan chiqib 18 avgust kuni Xo‘jandga yetib boradi. Bundan avval polkovnik Yefimovich boshchiligida 200 kazak artilleriya divizioni bilan Samarqanddan Xo‘jandga yetib kelgan edi. Turkiston general-gubernatorligiga qarashli harbiy kuchlar Qo‘qonga hujum qilish uchun Xo‘jandda to‘planadi. Xo‘jandda 16 rota piyoda askar, shu jumladan, bitta sapyor rotasi, 20 to‘p, 900 otliq askar va 8 raketa moslamasi jangga shay bo‘lib turardi.

Qo‘shin shaxsan fon Kaufmanning umumiy qo‘mondonligi os-tida 1875 yil 20 avgust kuni Xo‘janddan Qo‘qon yo‘li bo‘ylab yurish boshladi. 40 chaqirim yo‘l bosilgach, Mahram qal‘asi yoniga kelishadi va shu erda 22 avgustda qattiq jang bo‘ladi. Mahram qal‘asi shimoldan Sirdaryoga, janubdan ayrim joylari bog‘lar bilan tutashib ketgan edi. Qal‘aning jang olib borish mumkin bo‘lgan g‘arb tomoni suv to‘ldirilgan zovur bilan o‘ralgan. Umuman, qal‘a mustahkam istehkomga aylantirilgan edi. Bu yerda 15 ming vatan himoyachilari jangga shay bo‘lib turardilar.

¹ Bobobekov Haydarbek. Po‘latxon qo‘zg‘oloni, 16–17-betlar.

Mahram qal'asi va uning atrofi jangu jadal maydoniga aylanadi. Birinchi bo'lib shaxsan Kaufmanning o'zi qo'shini bilan Mahramning orqa tomonidan hujum boshlaydi. Vatan himoyachilari esa bunga javoban dushmanni ham orqadan, ham chap tomondan qurshab oladi. Bosqinchilar to'plardan tinimsiz o'q yog'dirib turdilar. Bu hol qo'zg'alonchilarga dushmanga yakinlashishga imkon bermadi. Shunday bir holatda bosqinchilar astoydil hujumga o'tdilar. O'z navbatida vatan himoyachilari ham dushmanga qarshi 10 ta to'pdan o'q uzib turdilar. Dushmanda esa 12 ta to'p bor edi. Har ikki tomondan jang borayotgan bir paytda Kaufman general Golovachyovga artilleriya yordamida hujumga o'tish haqida buyruq berdi. Qirg'inbarot bag'oyat avjiga chiqadi. General Golovachyov boshchiligidagi qo'shinlar Mahram darvozasini buzib, ichkariga bostirib kirishga muvaffaq bo'ldilar. Dushman 16 to'p, ko'p yarog'-aslaha, o'q-dori va oziq-ovqatni o'lja qilib qo'lga tushiradi. Vatan himoyachilari Daryo tarafga chekinishga majbur bo'ldilar. Shundan so'ng polkovnik Skobelev 500 nafar askarlari bilan Mahram bog'larida pistirmada turgan qo'zg'alonchilarga hujum boshlaydi.

Har bir qo'qonlik istilochilarga zarba berish uchun jehod, ozodlik bayrog'i ostida mustahkam jipslashib chinakam kahramonlik, vatanparvarlik namunalari ko'rsatdilar. Ular jonlarini ayamay dushman bilan olishdilar. Lekin, muarrix Mirzo Olim Toshkandiyning so'zlariga qaraganda, bu urushda har ikki tomondan ham ko'p odam nobud bo'lgan. U bunday hikoya qiladi: «Abdurahmon Oftobachi Mahramga borib tushti. Ersa yakbora o'rus Xo'janddin chiqib Mahram ustiga kelib, tolibi jang bo'lub turub erdi, ersa Ho'qand kulli boturlari taxti dil birla urushga bel bog'lab omoda bo'ldilar. Chunon to'p va miltiq ottilarki, jang, go'yo qiyomati sug'ro bo'ldi, ota o'g'uldin bexabar bo'ldi. Kofirlardin ko'b nobud bo'ldi, musulmonlardin ham ko'b shahid bo'ldi. Shul vaqtda Oftobachi majnun urushmay, jamoasi birla tog' ustiga chiqib ketti, ersa qirg'izlar bahona tobmay, noiloj turub erdilar, hol-ahvollari buzulub ketti.

Yakbora O'rusiya lashkari bosturdi, ko'b musulmonlar shahid bo'ldilar. Musulmonlar mutafarriqa bo'lub kettilar. O'shal kuni Oftobachi Mo'yi Muborakka kelib tushub, qipchoq xalqi Oftobachini o'rtaga olib, ko'b sarzanish va ta'na qildilar»¹.

Mirzo Olim Mushrif bu voqeani shunday talqin etgan: «Bir kun xon birla arkoni davlat o'tlanib O'rdaga kelib, xazinalarni ko'rib,

¹ *Mirza Olim Toshkandiy. Ansob us-salotin va tavorix al-havoqin. O'zR-FASHl qo'lyozmalar jamg'armasi, inv. № 3758.*

maslahat qilib Toshkentg'a maktubi benazokat birla elchi yubordilar. Va yana bir necha kundan so'ng pushaymon bo'lub, Oftobachi bir necha sarkardani Xo'jand ustig'a buyurdi va necha sarkardani garovchi ustig'a buyurdi. O'zi jami askari bilan Mahram bormoq bo'ldi. Xon birla mulla Iso mingboshini o'rdag'a qo'yub, to'p va to'pxona birla otlanib fotiha olib ravona bo'ldi. Xonning xazinasini qirg'iz, qipchoqlarg'a dondek sohib, bir necha manzil tay qilib, Mahramga borib tushti ersa, yakborsa o'ris Xo'janddin chiqib, Mahram ustig'a kelib, tolibi jang bo'lib to'p qo'ydi ersa.

«Mahram atrofida, – deb yozgan rus solnomachilaridan biri, – dushman qancha talafot ko'rganini aniq aytilish qiyin. To'siqlar orqasida va Mahram qal'asi ichida 100 dan ortiq murda topilib, dafn etildi. Mahram orqasidagi maydonda kazaklarning qilichi bilan chopilgan 1000 dan ortiq murdani otryaddagi yigitlar yig'ishtirib olishib, ko'mishdi; general fon Kaufmanning qo'riqchi bo'linmasi daryo yoqalab qochayotganlarni quvib, 100 kishini qilichdan o'tkazdi. Tog'dan tushib kelib otryadlarimizga hujum qilgan chavandozlar ham ko'p qurbon berishdi. Ulardan qanchasi o'lib, qanchasi yarador bo'lgani noma'lum. Juda ko'p qo'qonliklar Sirdaryoga cho'kib ketdilar. Ochig'ini aytganda, shafqatsiz qirg'in ro'y berdi, chegaramizni buzishga jur'at etib, yerlarimizga bostirib kirishgani va bizga tobe odamlarning osoyishtaligini buzgani uchun munosib intiqom olindi»¹.

Skobelevning ma'lumotnomasiga ko'ra, jang maydonidan 2000 salla yig'ib olingan².

«Biz, – deb aytiladi yana bir axborotda, – 39 zambarak (daryoga tushib ketgan to'p bu hisobga kirmaydi), 1500 miltiq, behisob nayza, qilich, cho'qmor, 50 dan ortiq tug', bayroq, nishonlarni o'lja qilib oldik. Qal'ada o'q-dori, snaryadlar va qo'rg'oshin hamda 1910 pud un, 834 pud guruch, 320 pud jo'xori saqlanayotgan katta omborxonalar topildi, 224 ta ot qo'lga olindi.

Jangdan keyin Kaufman Toshkent orqali imperator nomiga qo'lga tushgan o'ljalalar va qurbonlar soni ma'lum qilingan quyidagi telegrammani yubordi: «...dushman to'la mag'lub etildi; uning xonlik aholisiga ta'siri nihoyatda katta bo'ldi. Ammo Mahram jangining oqibatlari haqida oldindan bir nima deyish qiyin. Xo'janddan kutilayotgan qo'shimcha ulov kelishi bilan Qo'qon sari harakatni

¹ *Серебрянников А. К истории Кокандского похода. Военный сборник. 1876, № 2, стр. 194–195.*

² *Skobelev M.D. SPb, 1894, 17-bet.*

davom ettiraman. Sizga tobe ulug' imperator qo'shinlari o'z shuhratiga munosib mardona jang qildi. Vazifa a'lo darajada bajarildi»¹.

23 avgustda Rossiya imperatoriga yuborgan telegrammasida fon Kaufman Mahram jangini batafsilroq yoritadi: «Xo'janddan ikki kunlik masofa bosib o'tilgandan so'ng bizning qo'shinlarimiz 7 mingga yaqin dushman kavaleriyasiga duch keldi. Ularda falkonetlar ham bor edi. Siz imperator oliy hazratlarining fligel-adyutantingiz polkovnik Skobelev qo'mondonligida sakkizta yuzlik otryad, to'rtta otliq to'plar va raketa batareyasi bilan dushmanga qarshi jang qildi. Biz tomondan talafot bo'lmadi. Yigirma ikkinchi avgust kuni esa Xudoning yordamida bizning qurollarimiz, mening shaxsiy boshchiligimda qo'shinlar 30 mingga yaqin qo'qonliklar to'dasi ustidan to'liq g'alaba qozondi. Dushman Mahram qal'asiga tutashgan himoyaga moslashgan joyni egallagan edi. Bu joy atrofi chuqurlik bo'lib suv bilan to'ldirilgan va artilleriya bilan qurollangan edi. Bu joyga general-leytenant Golovachyov bir qism piyoda va artilleriya bilan hujum qilib, jang bilan egalladi. Kavaleriya boshlig'i Siz Oliy hazratlarining fligel-adyutantingiz polkovnik Skobelev qo'qonliklar mag'lubiyatini nihoyasiga yetkazdi, ularni otliqlarimiz o'n besh chaqirim masofagacha quvib Sirdaryoga siqib qo'ydi, ularning ko'pchiligi chopib tashlandi va daryoda cho'ktirildi. Siz Oliy hazratlarining mulozim general-mayori Troiskiyning kechagi va bugungi shonli yurishlari jang davomida menga yordam berdi. Siz imperator Oliy hazratlarining ko'shinlari o'zlarini munosib qahramonlarcha tutdilar. Ish toza bajarildi»².

«Mahram qal'asini olish chog'ida general Kaufman o'zini juda xotirjam tutgan. Rus qarorgohi yaqiniga o'qlar uchib kelib, to'p o'qlari yorilib, bir askar va bir yigit yarador bo'lgan. Shundan keyingina Kaufman general Golovachyovga qal'ani to'pga tutishni buyurgan. Ikki zambarak qulay marrani egallab, yaqin masofada qal'ani yakson qilishga kirishdi. O'n minutdan keyin qal'a vayron bo'ldi va rus askarlari hujumga o'tdi. Tuzemeslarning juda ko'pi o'ldirildi, qo'rquvdan o'zini daryoga tashlab g'arq bo'lganlarning son-sanog'i yo'q edi. Hujum tamom bo'lib, hammayoq tinchigandan keyin nihoyatda dimog'i chog' Kaufman Raimxo'janing oldiga kelib: «Rus askarlari qanday urushar ekan?» – deb so'radi. «Yaxshi urushdilar, saodati oliy», deya javob qildi Raimxo'ja. General Kaufman bunga

¹ Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. СПб, 1906, 2-том, стр. 358.

² Bobobekov Haydarbek. Po'latxon qo'zg'oloni, 19-bet.

javoban: «Xudo xohlasa, butun Farg'onani mana shunday jangovar hara-katlar bilan bo'ysundiramiz va qo'shib olamiz»¹.

Mahram qal'asida 60 ming atrofida sarboz bor edi. Qal'a devori pishiq, mustahkam ekanligiga qaramay, u bor-yo'g'i chorak soatda taslim bo'ladi. Qochganlarni ayovsiz ta'qib qilib qirib borishgan.

K.P.Kaufman Rossiya harbiy vaziri D.A.Milyutinga Mahram ostonasidagi qirg'in Qo'qon xonligi taqdirini hal qildi, deb xabar bergan.

Mahramdagi mag'lubiyat Qo'qon xoni Nasriddinbek va uning atrofidagilarni sarosimaga soldi. Xon Kaufmanga Fozil Ahmad Mahdumi A'zam va mulla Muhammad Iso Avliyoni elchi qilib yubordi. Xonning Kaufmanga yozgan maktubi gubernatorga yalib-yolvorishdan, tiz cho'kib uzr so'rash ruhida yozilgan edi. Maktub qanchalik taslimchilik ruhida yozilgan bo'lmasin, baribir uni Kaufman inobatga olmadi. «Janobi oliylari! – deyilgan edi, masalan, o'sha maktubda. – Bizning otamiz bilan tinch va do'stona ravishda yashab, har ikki tomon xalqi xotirjam edi. Mening padari buzrukvorim shariatga qarshi yangi tartiblar qo'llab, xalqni har tomonlama ezdi va uni shu darajada yondirdiki, burnidan tutun chiqardi. Bularning hammasi qo'zg'alon ko'tarilishiga va otamning taxtdan mahrum etilishiga olib keldi. Siz yaxshi bilasizki, mulla Abdulkarim miroxur orqali sizga yuborgan xatga uzoq vaqt javob olmadik. Biz yo'llar xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli joylarga qo'shin yuborgan edik. Sizing mulla Abdulkarim miroxur orqali yuborgan xatingizdan xayrixohligingiz va shartlar inobatga olingan taqdirda xonligimizni tan olishingizni bildik. Do'stligingiz va yaxshi niyatlaringizga ishongan holda shartlaringizning hammasini qabul qilib, xat yozmoqchi bo'lib turganimizda Qoraxitoyda (Tilovda) ikki qo'shin o'rtasida to'qnashuv bo'lib, ulardan birida [qo'qonliklar] chekinishga majbur bo'lganlar. Biz darhol Mullahoji Mirzo Karim orqali sizga o'zimizning do'stligimiz va isyonlar to'xtatilganligi haqidagi xatni yozishni buyurgan edik. Ammo kecha Mahramda, Xudoning xohishiga ko'ra, sodir bo'lgan voqeani eshitdik. Biz isyonni bostirishga ko'p harakat qildik, lekin uddalay olmadik. Shuning uchun ham mullo Abdulkarim bilan yuboriladigan xatni jo'natishning iloji bo'lmadi. Sizing barcha shartlaringizga roziligimizni va qipchoq isyonchilarning qilgan ishlariga uzrimni o'z ichiga olgan xatimni Fozil Ahmad Mahdumi A'zam orqali

¹ *Остроумов Н.П.* Личные воспоминания. Константин Петрович фон Кауфман – устроитель Туркестанского края (1867–1881). Т., 1899, стр. 211.

yasatilgan ikki ot va ikki bo'qchadagi sovg'alar bilan yubormoqdamiz»¹. O'shanda 18 rus asiri ham elchi orqali Kaufman huzuriga jo'natildi. Ammo Nasriddinxonning bu iltimoslarini Kaufman atayin qabul qilmadi. Uning asl maqsadi Qo'qon xonligini saqlab qolish bo'lmay, aksincha, uni tamomila tugatishdek qabih xulosadan iborat edi. Shu bois ham Kaufman xonning sovg'alarini olmadi va xonning o'zi kelib bo'ysunishi lozimligini elchiga ma'lum qildi. Chunki bu vaqtda rus hukumati nazarida nomigagina taxtda o'tirgan Nasriddinxon bilan yuqori darajada aloqa o'rnatishning hojati qolmagan edi. Ayniqsa, Mahramdagi g'alabadan keyin Kaufmanning xonlikning tamomila tor-mor etilishiga ko'zi yetib qolgandi. 31 avgustda Abdurahmon Oftobachi ham Kaufmanga xat yozib, undan «omonlik» va «tinchlik» so'radi. Gubernator esa undan o'zi kelib taslim bo'li-shini talab qildi. Ammo bu talabga Abdurahmon Oftobachi rozi bo'lmadi.

1875 yil 26 avgustda K.P.Kaufman o'z qo'shinlari bilan Mahramdan chiqib, Qo'qon tomon yurdi. Yo'lda uni Nasriddinxonning elchilari xat va tortiqlar bilan kutib oldilar.

Qo'qonning Sarimozor darvozasida turib K.P.Kaufman imperatorga telegraf orqali mana bu xabarni yo'lladi: «Xonlik poytaxti, Siz imperator hazratlarining oyoq ostingizda. Xon shahardan chiqib bizni kutib oldi. U bilan birga men shahardan uch chaqirim naridagi o'zimizning lagerimizga qaytdim. Mahramdan Qo'qongacha yurishimiz tantanali namoyishga o'xshadi. Har joyda aholi meni nonu tuz bilan kutib olib, itoat qilishlarini izhor etdilar. Qo'qondan o'ttiz besh chaqirim berida meni poytaxt savdogarlarining vakillari kutib oldilar. Ular bilan birga xonzoda qo'shib yuborgan bizning barcha qo'lga tushgan asirlarimiz ham bor ekan. Xonlikning qolgan qismida ahvol tinch emas.

Agarda Siz Oliy Hazratlariga xonlikni qo'shib olish ma'qul bo'lmasa, uch yoki to'rt batalon, sakkiz yuz kishilik askar va ikki batareya bilan Sirdaryo va Norinning o'ng qirg'og'i tomonini egalash bilan cheklanib, hududlarimizni shular bilan belgilasak»².

Fon Kaufman imperatorga yo'llagan telegramlaridan yana birida butun Namangan bekligini, Sirdaryoning o'ng qirg'og'i bilan Rossiyaga qo'shishga ruhsat so'ralganida, imperator agar bu tadbir kelajakda chegara xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilsa, uni amalga oshirish zarur deb javob bergan edi.

¹ Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 344–345-betlar.

² Bobobekov Paydarbek. Po'latxon qo'zg'oloni, 20-bet.

Fon Kaufman Ko'qon shahri bo'ylab qo'shinni dag'dag'a bilan olib o'tadi. Qo'qon atrofidagi harbiy lagerga borishida unga Nasriddinxonning o'zi hamroh bo'ladi. Kaufman vaziyat taqozosiga ko'ra, Nasriddinxon bilan vaqtinchalik murosaga borib, Mahram qal'asini unga qaytarib ham beradi. Kaufman, Marg'ilon, Andijon, O'sh va Namanganga xat yo'llab, nufuzli kishilarning Qo'qonga kelishlarini so'raydi. Unga javoban joylardan Rossiyaga bo'ysunish borasida mahalliy kiborlarning muhrlari bosilgan rozilik xatlari olinadi. Biroq bu kishilardan birontasi ham Qo'qonga, gubernator huzuriga kelmay, amalda bu taklifni rad etadilar. Zero, millatning boobro' zotlari bosqinchilarga nafrat bilan qarardilar.

Gubernator 1875 yil 5 sentyabrda Marg'ilon sari yo'l oladi. Bu vaqtda Marg'ilon himoyachilari orasida Abdurahmon Oftobachi ham bor edi. U, dushmanga qarshi turishning foydasi yo'kligini ang'laydi va Marg'ilonni tashlab chiqib ketadi. Kaufman 8 sentyabrda Marg'ilonga yetib keladi. Yuqori tabaqa vakillari vatan himoyachilaridan qolgan 9 to'pni «o'zlarining itoat etganliklari» belgisi sifatida Kaufmanga topshiradilar. Kaufman polkovnik Skobelev boshchiligidagi 600 kazak, 1 raketa batareyasi, 2 to'p va 2 rota piyoda askardan iborat qo'shinni Abdurahmon Oftobachining orqasidan jo'natadi.

Chor qo'shini Abdurahmon Oftobachi boshliq vatan himoyachilarining izidan borib, Mingtepaga yaqinlashadilar. Bu vaqtda ular tarqalib, tog'larga qochishga ulgurgan edilar. Dushman askarlari vatan himoyachilarining ketishga ulgurnagan oxirgi qismlari bilan to'qnashadilar.

Qo'zg'alonchilar xavfi biroz tugashi bilan Kaufman Nasriddinxon bilan sulh tuzishga kirishadi va sulh loyahasini unga taqdim etadi. Sulh loyahasiga ko'ra, Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi hamda Nasriddinxon harbiy xarajatlarni qoplash uchun rus hukumatiga 600 ming tanga tovon to'lashi lozimligi ko'rsatilgan edi. 1875 yil 23 sentyabrda Nasriddinxon Kaufmanga navbatdagi maktubini topshiradi. Unda, jumladan, bunday deyilgan edi: «Yarim podshoh! Sizga quyidagi so'rovlarni ma'lum qilaman: voqealar (qo'zg'alonlar) boshlangan vaqtlarda men Oftobachining qistovi tufayli ixtiyorimsiz xon bo'lganman. Oftobachi qo'l ostida yomon odamlarning ko'pligi tufayli hech narsa qila olmaganman. Oftobachi o'zboshimchalik bilan harbiy yurish qilib, Mahramdan qochgandan keyin men mulla Abdulkarim orqali yuborilgan (sizning) xatingizni olishim bilanoq, mamnuniyat bilan roziligim va sodiqligim haqidagi xatimni sovg'alar bilan, eshon Fozil Ahmad Mahdumi A'zam va Iso Avliyo orqali

yuborganman. Siz bu tomonga yurganingizda va to'xtagan har bir joyingizda imkoni boricha o'z xizmatimni ado etdim. Men Siz bilan uchrashganimdan keyin sizning dono so'zlaringizni tushundim va tamomila tinchlandim hamda sizga bo'lgan umidim kundan-kunga ortib bordi. Men sizning va'dalaringiz va e'tiboringizni barchaga targ'ibot etganimda xalq qanoat hosil qildi».

Ushbu xat Nasriddinxonning naqadar og'ir ahvolga tushib qolgani oqibatida xonlik taqdirini tamomila Rossiyaning ixtiyoriga topshirishdan boshqa iloji qolmaganligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Xazinani Xudoyorxon olib ketganligi tufayli, hukumat xazinasining bo'm-bo'shligi va tovonni tamom qashshoklashgan xalqdan to'plashning hech iloji bo'lmaganini Nasriddinxon emas, hatto Kaufmanning o'zi ham bilardi.

Nasriddinbek bilan Kaufman o'rtasida olib borilgan muzokaralardan so'ng 1875 yil 22 sentyabrda tahqirli va sharmandali bitim imzolanadi. Bitimga ko'ra, Qo'qon xoni o'zini Rossiya saltanatining xizmatkori deb tan oladi, qo'shni xonliklar bilan hech qanday aloqalar va munosabatlar o'rnatmaslikka va'da beradi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi barcha yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tadi. Qo'qon xonligiga qarshi olib borilgan urushda rus armiyasi ko'rgan olti yuz ming rubl hajmidagi zararni to'lash Qo'qon xonligi zimmasiga yuklatiladi. Ayni paytda shartnomada 1876 yil 1 noyabrdan boshlab Qo'qon xonligi Rossiya xazinasiga har yili 500 ming rubldan to'lab turishi shart qilib qo'yildi. Qo'zg'alonning asosiy «aybdori» Abdurahmon Oftobachini qo'llab-quvvatlaganliklari uchun marg'ilonliklarga 125 ming tillo hajmida tovon to'lash majburiyati belgilandi. Xalqning og'ir ahvolda yashayotganligini e'tiborga olib, 60 ming tilloni 1875 yil 21 oktyabrgacha, qolgan 65 mingini esa 1876 yil 21 oktyabrgacha to'lashga ijozat berildi¹.

Qo'qon xoni Xudoyorxonning qochishi, Nasriddinbek bilan Kaufman o'rtasida tuzilgan tengsiz va haqoratli bitim xalq ommasining katta kuch bilan qaytadan qo'zg'alon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Bu galgi qo'zg'alon markazi Andijon bo'ldi. O'sha kunlari Po'latxon o'z tarafdorlari bilan Andijonga keldi. Biroq 27 sentyabrda shaharni tark etdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u bilan birga Abdurahmon Oftobachi ham bo'lgan. Shu munosabat bilan general-mayor Troiskiy Andijonga jazo otryadini jo'natmoqchi bo'ldi. U tahdid

¹ Bitimning to'la matni O'zR MDA 715-jamg'arma, 1-ro'yxat, 63-ishda, Rossiya Markaziy Davlat harbiy arxivi, 1393-jamg'arma,]-ro'yxat, 81-ishda saqlanmoqda. Bu hujjatning o'zbekcha matni H.Bobobekovning «Po'latxon qo'zg'oloni» (1996) kitobida (23-26-betlar) to'la keltirilgan.

bilan shahar hokimiga yozdi: «...mabodo dasturxon yuborishsa qabul qilmayman... [shaharni] yoqib tashlash uchun har qancha granatalarni uloqtirishni taklif etaman. Ahmadbekka, Kun va Perovlarga qarshi qo'zg'alon ko'targan Ko'r qora ko'z aminni ushlab menga topshirishni Darvish Ali va'da qildi. Andijonda uni dorga osish foydali bo'ladi, deb o'ylayman»¹.

1875 yil 26 sentyabrda Namanganga kelgan Kaufmanga Andijon shahrida va unga yaqin bo'lgan joylarda Po'latxon va Abdurahmon Oftobachi boshchiligida katta qo'shin to'planganligi haqidagi xabar yetib boradi: «Andijonliklar shaharning o'n ikkita katta ko'chasida turli narsalardan to'siklar o'rnatganlar. Andijon himoyasi uchun shaharliklardan tashqari, qishloqlarning aholisi ham kelgan. Shahar himoyachilarining soni 60–70 ming kishidan iborat bo'lib, ularga Abdurahmon Oftobachi boshchilik qilgan. Po'latxon esa 15 ming qirg'iz bilan ruslarga orqa tarafdin zarba berish maqsadida shahar chekkasiga o'rnatilgan».

Aslida esa Po'latxon o'z atrofiga nafaqat qirg'izlarni, balki yengilib qochgan Ko'qon askarlarini, qipchoqlarni ham yiqqan edi. Uning atrofida qirg'iz va qipchoqlarning eng obro'li kishilari to'plangan. Ular Nasriddinxondan nafratlanib, Andijonning Bo'taqora qishlog'ida Po'latxonni xon qilib ko'tardilar.

Shunday qilib, xonlikda o'rnatilgan hokimiyat ikki shaxs – Po'latxon va Abdurahmon Oftobachi qo'liga o'tdi. Bu ikki shaxs hokimiyati xonlikdagi kuchli qabilalar – qipchoq va qoraqirg'izlarga tayanib, faoliyat ko'rsatayotgan edi.

Abdurahmon Oftobachining yozma taklifiga ko'ra, O'sh, Shahrixon, Buloqboshi, Asaka, Aravon, Marg'ilon va Qo'qondan kelgan o'zbeklar, qirg'izlar va qipchoqlar Andijonda yig'iladilar va bu erda oxirgi tomchi qonlari qolguncha shaharni tashlab ketmasdan kurashishlari haqida qasamyod qiladilar. Andijondagi qo'zg'alonning yetakchisi Abdurahmon Oftobachi edi. Unga barcha mahalla oqsoqollari yordam berishgan edi.

Qo'zg'alon boshchilaridan yana biri Xotamboyni ponsod bo'ldi. U taniqli va hurmatli kishi sifatida qo'zg'alonda fidoyilik va jasurlik namunalari ko'rsatadi.

Qurbonbekxo'ja va Dali ponsodlar Abdurahmon Oftobachi maslahati bilan ko'chalarda mudofaa to'siqlari qurishadi. Tayyorlanayotgan qo'zg'alondan xavfsiragan Kaufman zuddik bilan general Troiskiy boshchiligidagi 1400 kishilik qo'shinni 4 raketa otuv

¹ Bobobekov Haydarbek. Po'latxon qo'zg'olon. 28-bet.

moslamalari va 8 ta to'p bilan Andijonga yubordi. Istilochilar 29 sentyabrda yuqori shaharga yaqin joyga kelib o'rnatildilar. 1875 yil 1 oktyabrda general Troiskiy Andijonga hujum qilish haqida buyruq berdi. Istilochilar shaharga yaqinlashganlarida Po'latxonning otliqlari hujumga o'tdilar. Biroq dushman qo'li baland kelib, vatan himoyachilarining hujumi qaytarildi. Bosqinchilar ertalab soat 8 da shaharga kirib kelishadi. Ular O'rda maydoniga ikki yo'l bilan bordilar. Birinchi kolonnaga polkovnik Skobelev, ikkinchisiga baron Miller-Zakomelskiylar boshchilik qildilar.

Vatan himoyachilari birinchi bo'lib Skobelevning kolonnasi bilan to'qnashadi. Mudofaachilar dushmanni shahar devori ortidan miltiq otib, qarshi oladi. Shaharga nayzali miltiqlari bilan kazaklar kirib keladilar va bozor tarafga qarab siljiy boshlaydilar. Har ikki o'rtada kuchli janglar bo'lib, bosqinchilar birinchi, ikkinchi va uchinchi to'siqlardan o'tib shahar ichkarisiga kiradilar. Polkovnik baron Aminovning kazaklar kolonnasi ham juda qattiq janglar bilan shahar ko'chalaridan markazga qarab siljib boradi. Qo'zg'olonchilar har bir bog', uy, masjidni mardonavor jang qilib, himoya qiladilar. 2 soat davom etgan kuchli ko'cha janglaridan so'ng dushman shahar markaziga joylashgan O'rdani qurshovga olib, hokim saroyini bosib oladi.

Istilochilar shaharni egallaganlaridan keyin, Troiskiyning buyrug'iga ko'ra, hamma qo'shinlar bitta kolonna bo'lib shahar boshqarmasiga chiqadi. Kolonna boshida Skobelev, oxirida Miller-Zakomelskiy boradi. Janglar shahardan chiqishda ham davom etdi. Shu tariqa chekinish chog'ida bosqinchilar orqada nima uchrasa barchasini yondirib bordilar. Shahar himoyachilari ularga qarshi tinimsiz hujum qilib turdilar. Har bir to'siqdan jang bilan o'tildi. Ular shahardan chiqqanlarida Po'latxonning otliq otryadi bilan to'qnashdilar. Kunduz soat 2 larda chor qo'shinlarining hammasi shahardan tashqaridagi belgilangan joyga yig'ildilar. Soat 4 da Troiskiy Andijon shahrini to'pga tutish haqida buyruq berdi. Ikki soat davomida shahar uzra to'p va miltiqlardan o'q otilib turdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 1–2 oktyabr kunlari birgina Andijon shahrining o'ziga to'plardan 200 dan ziyod snaryad otilgan. Bu hujumda chor qo'shinlari 2821 kishidan iborat edi. Ulardan 1674 piyoda, 814 tasi otliq va 333 tasi to'pchi edi.

Andijon mudofaachilari istilochi qo'shinlar shahardan chiqib ketgandan so'ng to'planib yuzaga kelgan vaziyatni muhokama qiladilar. Yig'ilish ahli shahar chekkasidagi Afg'on bog'da turgan Po'latxonni shaharga taklif qilib, u bilan birlashishni taklif qilmoqchi

bo'ldilar. Ammo shu maslahat asnosida majlis bo'layotgan uyga dushman to'plaridan otilgan o'q tushib, majlis ahlidan 14 kishi halok va yarador bo'ladi. Natijada, kengash ishtirokchilari Mir Po'stin, Ho'qand, Bobo Sodiq kabi qishloqlarga qochib ketadilar, ayrimlari chekka mahallalarga yashirinadilar.

Ayni shu paytda Qo'qon shahrida ham qo'zg'alon tayyorlangan edi. Bundan voqif bo'lgan K.P.Kaufman Nasriddinxonga maktub yo'llab, qo'zg'alon boshliqlaridan savdogar Mirolim, xazinachi Mirzaolim, mullo Abdulkarim va Mahmudxon udaychilarni hibsga olishni, mumkin bo'lsa qatl etish zarurligini talab qiladi. Shunga muvofiq, Mirolim va mulla Abdulkarim shig'ovul hibsga olinadi, Mahmudxon to'ra va uning akasi Muhammad Sayidxon esa Kaufman huzuriga jo'natiladi. Nasriddinxon gubernatorga yo'llagan maktubida ularni «xohlasangiz Sibirga surgun qiling, xohlasangiz qatl qiling» deb yozgan edi. Xonning bu yovuz qilmishi nafaqat shahar, balki butun xonlik aholisini g'azabga keltirdi. Abdurahmon Oftobachi va Po'latxon, barcha shahar va qishloqlarga xatlar yuborib, xalqni dushmanga qarshi birlashishga, Nasriddinxonni taxtdan tushirishga chaqiradilar. Xullas, 9 oktyabrda Qo'qon shahrida qo'zg'alon boshlanib ketdi. Qo'zg'alonchilar O'rdaga hujum qiladilar. Xonning eng yaqin kishilari ham qo'zg'alonchilar tomoniga o'tib ketadilar. Hatto, ular qo'zg'alonchilarga O'rdada darvozasini ochib berdilar. Buni ko'rib turgan Nasriddinxon orqa darvozadan chiqib qochadi va uni qo'zg'alonchilar Sirdaryogacha quvib boradilar. Xon daryo kechuvidan o'tib, jonini saqlab qoladi.

Qo'zg'alon shahar atrofidagi qishloq aholisini ham o'z girdobiga tortdi. Sotqinlik qilib, yovga yordam qilgan Mirzo Hakim parvonachining uyi talon-toroj qilinib, yoqib yuboriladi. Sulton Murodbek asir olinadi, Otabek noib o'ldiriladi¹.

Endi Po'latxon xonlikda yagona hokim bo'lib qoladi. U xonlik bilan Turkiston general-gubernatorligi o'rtasidagi nizolarni imkon boricha tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qildi. Ammo niyati buzuq Kaufman buni xohlamas, xonlik va gubernatorlik xalqlarining janjallashib, bir-birlarini talashlarini istardi. Chunki bu chor ma'muriyatiga qulay bo'lib, hujum qilish, bosib olish, jazo otryadlari yuborish uchun bahona bo'lardi.

1875 yil 19 oktyabrda general-mayor unvoniga sazovor bo'lgan M.D.Skobeev mug'ombirlik qilib, o'zbek, tojik, qirg'iz va qipchoqlar o'rtasida milliy nizo chiqarishga urinib ko'rdi. Shu maqsadda u

¹ Bobobekov Haydarbek. Qo'qon tarixi, 92-bet.

Namanganda kichik bir garnizon qoldirib, barcha qo`shinlari bilan shahardan chiqib To`raqo`rg`on tomon yo`l oldi. Shu paytda shaharda qo`zg`alon ko`tarildi. Lekin u 23 oktyabrda to`satdan, Baliqchi va To`raqo`rg`onga hujum qiladi. Mudofaachilarning ko`pchiligi halok bo`ladi.

1875 yil 26 oktyabrda Skobelev Namangan ostonalariga qaytib kelib. 27 oktyabrda 26 ta to`p bilan shaharni o`qqa tutadi. Qo`zg`alonchilar tor-mor etiladilar. Rasmiy ma`lumotlarga qaraganda, ulardan 3800 kishi halok bo`ladi. Ruslardan esa 6 kishi o`lib, 38 tasi yarador bo`ladi. Aslida halok bo`lgan qo`zg`alonchilar bundan ham ko`p edi. Skobelev 1875 yil 30 noyabrda Sirdaryoning chap sohilidagi To`ytepa qishlog`ida turgan 1500 qo`zg`alonchiga qarshi xujum qilib, qishloqni yoqib yuboradi. 2 dekabrda esa Botir to`ra-ning otliq otryadini Norindan nariga chekinishga majbur qilib. O`ljaboy qishlog`ida joylashgan qo`zg`alonchilarning bir batalon keladigan odamlarini qirib tashlaydi.

Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmanga 1876 yil 16 yanvarda imperiya harbiy vaziri D.Milyutindan o`ta maxfiy xat keladi. Unda mana bular yozilgan edi: «Qimmatli saodati oliylari Konstantin Petrovich! Siz saodati oliyning bizga yo`llagan, Qo`qon xonligiga nisbatan bizning kelajakdagi xatti-harakatimiz bayon etilgan taqdimnoma mazmunini men davlatpanoh imperatorga etkazdim. Oliy hazratlari Siz keltirgan dalillarni, ya`ni Sirdaryo viloyati chegarasida qat`iy tadbirlar bilan tinchlikni va osoyishtalik o`rnatish va bizning kuchimizni O`rta Osiyoda mavqeini saqlab qolish uchun Qo`qon xonligining qolgan qismini ham Siz hazrati oliylari qulay va lozim topganingizda egallay olishingizga ruhsat beradilar»¹.

Shu tariqa, imperator Qo`qon xonligini to`la ravishda o`z tarkibiga qo`shib olishga fatvo berdi. Kaufman bu ko`rsatmani sir saqladi va xonlikni uzil-kesil bosib olishning osonroq rejasini haqida bosh qotira boshladi. Ayni shu vaqtda general Skobelev xonlikni tugatishga qaratilgan «Ikki suv orasi operatsiyasi» rejasini ishlab chiqib, uni amalga oshirish uchun Turkiston general-gubernatori vazifasini vaqtincha bajarib turgan Kolpakovskiydan ruhsat oladi. Bosqinchilarning bu rejasidan ozodlik kurashchilari rahbarlari ham xabar topib, dushmanga qarshi zarba berish choralarini ko`ra boshlaydilar.

Mudofaachi kuchlarning asosiy qismi Botir to`ra qo`mondonligida Marg`ilon shahrida turardi. Sirdaryo sohilida ham qo`zg`a-

¹ O`zr MDA, 715-jamg`arma. 1-ro`yxat, 66-ish. 125-varaq.

lonchilarning bir qismi jangga shay bo'lib turardi. Andijon shahri esa bosqinchilarga qarshi kurashning mustahkam istehkomiga aylangan edi. Qo'zg'alonchilar Andijonda dushmanni mag'lubiyatga uchratib, undan so'ng Namanganga borib, u yerdagi kuchlar bilan birlashishlari kerak edi.

Po'latxonga qarshi jo'natilgan Kaufman otryadi Andijon ostona-sida mag'lubiyatga uchradi. 1875 yil 7 oktyabrda esa qo'zg'alonchilar xon qo'shinini tor-mor keltirib, Qo'qonni egallaydilar. Ammo 11 noyabrda Skobelev qo'mondonligidagi askarlar qo'zg'alonchilarni Baliqchi yaqinida zarbaga uchratdilar. Bu haqda M. A. Terentev shunday yozadi: «...Baliqchi shahriga yerib kirib dushman lageri va ko'chalarini egalladilar. Tong otgandan keyin artilleriya kechuvdan o'tib shaharga o'q ota boshladi. Shu zahoti Skobelev 2-yondosh batalonga qarashli 2-rota va ellikta kazak otliq o'qchilar bilan hujumga o'tdi, dushmanning chekinishiga yo'l qo'ymaslik uchun butun otliq askarlarni zambaraklar bilan shaharning orqa tomoniga yubordi. Jangga kirgan bo'linmalar uchta istehkomni majaqlagandan keyin bozorni ishg'ol qildilar va shu yerda tor ko'chadan kelayotgan qipchoqlarning katta otliq olomoniga duch kelib qoldilar. Dahshatli ur-yiqit ichida merganlarimiz do'ldek yog'dirilayotgan o'qiga uchgan qipchoqlar bor-yo'g'i 20 qadam narida to'da-to'da bo'lib yiqilar, ko'cha yuzi ularning o'ligiga to'lib ketgan edi. Bu dahshatli jahannamdan bir amallab qutilib chiqqanlar narigi yonboshda poylab turgan kazaklarning changaliga tushar edi. Ularni ikki chaqirim joygacha quvib borib, hech qanday rahm-shafqat qilmay qilichdan o'tkazishdi.

Biz tomondan bir quyi amaldagi kishi o'lib, 8 ta yarador, shundan uchtasi kontuziya olgan edi. Skobelev dushmanning talafotini 2000 kishi deb hisoblaydi»¹. Skobelev yo'l-yo'lakay barcha qishloqlarga shafqatsizlarcha o't qo'yib, yer bilan yakson qilib, oldinga siljib bordi. Ayniqsa u Andijon shahrining ko'lini ko'kka sovurdi. Uni beomon to'pga tutib, bombardimon qildirdi. Terentev bunday deb yozadi: «Skobelev yo'lda kelar ekan, Kolpakovskiyni vaqt-soatini ko'rsatmay telegramma jo'natdi. Telegramma 7 fevralda egasiga kelib tegdi. Unda Andijonda hamma narsa joyida ekanligini, aniq ma'lumotlarga qaraganda, shahar to'pga tutilgan paytda xarobalar orasida 20000 kishi halok bo'lganligi aytilgan edi»². «Andijonliklar

¹ Terentev M. A. Ko'rsatilgan asar, 451-bet.

² Karimov Sh., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. Andijon. «Meros», 1995, 39-bet.

qattiq qarshilik ko'rsatdilar: ular har bir to'siqdan foydalanar edilar. tomlar ustidan turib o'q otishar, ko'chalar, hovlilar, uylar, masjidlar ichida yuzma-yuz olishardilar. Ularning qarshilik ko'rsatishlari oldinda hujum qilib borayotganlarni g'azablantirar, tobora junbo'shga keltirardi. Bozor maydonida Skobelev kolonnasi yirik yog'ochlardan qilingan to'siqqa duch kelib qoldi. Zambaraklarimiz oldinga o'tkazildi va bir necha o'q uzilgandan keyin dushman tumtaraqay bo'lib qochdi. Turkistonliklar beshta istehkomdan tashqari, mustahkam qo'rg'onchaga aylangan uylarni ham jang bilan qo'lga kiritdilar. Nihoyat, har uchala kolonna o'rdaga yetib keldi va saroyini isyonchilardan tozaladi. Qisqa muddatli hordiqdan so'ng manzilgohga qaytildi. Darvoqe, yo'l yoqasidagi imoratlarning hammasiga o't qo'yib borildi. Old qismlar qaerda ketayotganini yong'inga qarab bilib olish mumkin edi. Otishmalar hali tinmagan, andijonliklarning «Ur!», «Ur!» sadolari eshitilib turardi. Andijonni butunlay vayron qilish uchun general Troiskiy Skobelevga oltita zambarak berib, shaharni to'pga tutishga, bozor va yong'in bo'layotgan tomonlarni nishonga olishga buyruq berdi»¹.

General Skobelev Andijonning kulini ko'kka sovurish bilan kifoyalanmay, andijonliklarni tovon to'lashga majbur etib, 33 ming rubl undirib ham oladi.

Andijonda sodir bo'lgan qo'zg'alonchilar halokati va andijonliklarning mislsiz qahramonliklari faqat Qo'qon xonligini emas, balki butun O'rta Osiyoni larzaga soldi. Bu tarixiy jangda ozodlik kurashchilarining moddiy va ma'naviy kuchiga juda katta talafot yetkazildi.

M.D.Skobelev Andijonni zabt etgani haqida Turkiston harbiy okrugining muvaqqat qo'mondoni Kolpakovskiyga xabar berib, endi Asaka va Marg'ilonga harbiy yurish qilish uchun ruhsat so'raydi. Kolpakovskiydan «agarda dushman kuchi ko'p to'plangan bo'lsa, Asakaga yurish bilan cheklanilsin» degan telegramma olinadi.

Skobelev Asakani qo'lga kiritish uchun uni har tomonlama o'rganadi. Chor qo'shinlari 2 rota piyoda askar, 240 otliq, 500 kazak, raketa batareyasi va 4 to'p bilan Asakaga hujum boshlaydi va uning markazini to'pga tutadilar. Asaka tepaligida turgan himoyachilarga qarshi soldatlar hujumga o'tib, ularni chekintirishadi. 20 yanvar kuni Abdurahmon Oftobachi rus qo'mondoniga elchi yuboradi. 24 yanvarda u o'zining 12 safdoshi, shu jumladan, Botir to'ra, Isfandiyor, Xoliq parvonachi, Normuhammad dodxoh va 700 yigiti bilan Sko-

¹ Воспоминания М.Д. Скобелева. Ташкент, 1907, стр. 15.

belevga taslim bo'ladi. Po'latxon bundan xabar topib haqiqiy Po'latxonning aka-ukalari va kelinini o'ldirtiradi. Shuningdek, u shtabskapitan Svyatopol-Mirskiy, unter-ofiser F.Danilov va 8 asirni o'limga hukm qiladi.

Abdurahmon Oftobachi taslim bo'lgach, Nasriddinxon 1876 yilning 21 yanvarida Qo'qon taxtini qaytadan egallash uchun Mahramdan yo'lga chiqadi. Naymancha qishlog'iga kelganida unga Po'latxon tarafdorlaridan Qo'qon hokimi o'rnida turgan Abdullobek o'z askarlari bilan hujum qiladi. Xon urushda 200 kishisini yo'qotib, Mahramga chekinadi. Ammo 28 yanvarda xon tarafdorlari Abdullobekni engib, Nasriddinxonni Qo'qonga taklif etadilar va 29 yanvarda uni taxtga o'tqizadilar.

General Skobelev Miller-Zakomelskiyga 600 kazak, raketa batareyasi, 2 rota piyoda askar va 4 to'p berib Marg'ilonga, Po'latxonga qarshi yuboradi, o'zi esa Namanganga jo'naydi.

Bu vaqtda general Troiskiy Namanganga yaqin joyda Po'latxon lashkari bilan jang olib borardi. Qo'zg'alonchilar mag'lubiyatga uchrab Po'latxon qochib ketayotganda otdan yiqilib, oyog'i sinadi. Shunga qaramay, kurashni davom ettirib. Asakaga kelib bo'lajak janglarga hozirlik ko'radi. Bu vaqtda uning qo'l ostida 12 ming lashkar to'plangan edi. Bu qo'shin birin-ketin bir necha g'alabaga erishadi. O'sh, Andijon va Marg'ilonni egallaydi. Bundan sarosimaga tushgan Nasriddinbek Marg'ilonning sobiq begi Sulton Murodbek boshchiligida Po'latxonga qarshi askar yuboradi. Ammo hujum qilishdan cho'chigan Sulton Murodbek Fayzobod qishlog'iga o'rnashib olib qirg'iz qo'zg'alonchilarning ayrim guruhlari ustidan g'alaba qiladi. Shu janglarda asir tushgan 30 nafar qirg'iz Qo'qonda xon tomonidan dorga osiladi. Shu vaqtda Po'latxon tarafidan Marg'ilon begi lavozimiga tayinlangan Valixon 20 ming kishi bilan Fayzobodga hujum qilib, Sulton Murodni tor-mor keltiradi.

1875 yil 16 oktyabrda Kaufman general Skobelev boshchiligida 14 rota, 500 kazak, 4 raketa moslamasi, 16 to'pdan iborat qo'shinni Namanganga qo'yib, o'zi Xo'jandga ketadi. Skobelevni esa Namangan bo'limining boshlig'i etib tayinlaydi.

Chor qo'shini Po'latxonning izidan borib, 1876 yilning 28 yanvarida Uchqo'rg'onni qurshab oladi. «Devordan birinchi bo'lib, – deyiladi bir rus manbasida, – kapitan Kuropatkin kirdi. O'rdada Po'latxonni qutqarish uchun jonini tikkanlar bilan qo'l jangi bo'ldi. Bu paytda 300 soldat va 4 to'p bilan yetib kelib, darhol jangga tashlandi. Po'latxonning kuchlari sochilib ketdi. Bu jangda 5 mis to'p, ko'p qurol-aslaha va Po'latxonning mol-mulki, xazinasi o'lja

olindi». Shundan keyin Po'latxon bir guruh ishonchli kishilari bilan Chavay degan joyga qochadi va shu yerda rus hukumati vakillariga topshiriladi. Bunda uning ashaddiy dushmanlaridan biri Mirzoqulning «xizmati»katta bo'ldi.

Po'latxon qo'zg'olonining bostirilishi imperiya poytaxti Peterburgda, xususan, imperator tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olindi.

1876 yil 1 mart kuni Marg'ilon shahrida vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon olib, jon bergan xalq qahramoni, istiqloq jangchisi va yetakchisi Mullo Ishoq (Po'latxon) dorga osib o'ldirildi. U bilan birga erk, ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan 33 nafar yaqin safdoshlari ham o'ldirildi. Ruslar bu bilan cheklanmay, bosqinchilikka sarflangan xarajatlarni aholidan undirib olishgacha borib yetdilar. Faqat birgina Marg'ilon bekligiga Kaufman tomonidan Po'latxonning yonini olganliklari uchun 500 ming rubl tovon solig'i solindi.

Rossiya imperiyasining asl va tub maqsadi Qo'qon xonligini – mustaqil davlatni qurol kuchi bilan bartaraf qilib, Rossiyaning guberniyalaridan biriga aylantirishdan iborat edi.

1876 yil 30 yanvarda Nasriddinbekning Qo'qon shahriga kelishi va bu yerda uning rasman xon deb e'lon qilinishi chor ma'muriyatini sarosimaga solib qo'ydi. General Skobelev zudlik bilan Qo'qon xonligini to'liq bosib olish, hech bo'lmaganda bosqinchilarga so'zsiz bo'ysunadigan hokimiyat o'rnatishni Turkiston general-gubernatoriga taklif etdi. Ayni paytda Sankt-Peterburgda turgan K.P.Kaufman 2 fevral kuni Toshkentga, uning vakolatini bajarib turuvchi general-mayor Kolpakovskiyga telegramma yo'llab, unda to'g'ridan-to'g'ri, ochiq-oshkora tarzida: «butun Qo'qon xalqining Rossiya fuqaroligini qabul qilish istaklarini qondirish uchun va xalqni boshqa yo'l bilan tinchlantirish imkoniyati bo'lmaganligi sababli imperator hazratlarining farmonlariga binoan shu zahotiyoyq butun xonlikni Oliy hazratlari tasarrufiga olishni shaxsan Sizga topshiraman...», – deydi.

Kolpakovskiy 4 fevralda K.P.Kaufmandan yana telegramma oladi: «Nasriddin taxtga o'tirgani bilan Qo'qonni tinchlantirishga u kafolat bo'la olmaydi, shuning uchun kechagi ko'rsatmani o'zgartirishning hojati yo'q». Bu ko'rsatmaga amal qilib Kolpakovskiy o'sha kuni general Skobelevga shunday buyruq yo'llaydi: «Oliy farmon bilan menga Qo'qon xonligini bosib olish yuklatildi, undan Farg'ona viloyati ta'sis etildi, viloyatni boshqarish Siz saodati oliylariga yuklatiladi...»

Rus qo'shinlariga Qo'qon xonligini to'la bosib olish haqidagi buyruq shaxsan imperator Aleksandr II tomonidan berilgan.

Xullas, chor qo'shinlari Qo'qon xonligiga yalpi hujum qilib, 1876 yil 7 fevralda Yakkamulla qishlog'iga etib keldilar. Nasriddinbek hech qanday qarshilik ko'rsata olmay, taslim bo'ldi. 8 fevral kuni dushman Ko'qon shahriga kirib keldi.

19 fevralda harbiy vazir D.Milyutin Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rnida Farg'ona viloyati harbiy gubernatorligi tashkil qilinganligini e'lon qildi. Xalq qonini misoli daryo qilib oqizgan, yo'lida uchragan barcha shahar va qishloqlarning kulini ko'kka sovurgan, bola demay, ayol demay, qari demay barcha tirik jonni qilichdan o'tkazgan general M.D.Skobelev 1876 yilning 19 fevralida imperator Aleksandr II farmoni bilan yangidan tashkil etilgan Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori etib tayinlandi.

Rossiya uchun milliy qahramon sanalgan general Skobelev shu tariqa o'zining yuksak martabalariga birma-bir ko'tarila boshladi. Bu general minglab farg'onaliklarning ozodlik uchun to'kilgan qonlari singgan zaminda rus qurolining shavkatini ko'targan shaxs sifatida ulug'landi.

1876 yil fevral oyidan Rossiya imperiyasi guberniyalari qatoriga viloyat sifatida qo'shib olingan Qo'qon xonligining chinakam hukmdori sifatida rasman e'lon qilingan general Skobelev minglab rus zobitlari uchun jasorat ramziga aylandi. Farg'ona viloyat harbiy gubernatori M. D. Skobelevning nomi yangi Marg'ilon shahriga berildi. Bu shahar uzoq vaqt Skobelev, mahalliy tilda «Iskobil» deb yuritildi.

Farg'onani «Farg'ona viloyati» nomi ostida Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi chorizmga qaramligi 1917 yilgacha davom etdi.

Mustamlakachilar xonlikni tugatgani bilan bosqinchilikka qarshi ko'tarilgan xalq harakatlariga barham bera olmadi. Vatan ozodligi uchun bo'lgan bu kurash «Oloy malikasi» nomi bilan shuhrat topgan qirg'iz ayoli Qurbonjon do'xoh va uning o'g'illari tomonidan 1876 yil oxirlarigacha davom ettirildi.

Mavzuga doir chizgi

Oloy malikasiga to'n yopgan general

«Malika boshini quyi solgancha shamdek qotib turar edi. Skobelev uning yoniga kelib qo'lini uzatdi. Malika kutilmagan salomdan do'virab qoldi, lekin tezda o'zini qo'lga olib, qirgizchalab nimalarnidir dedi. Skobelev esa tilmochga qarab dedi:

– Dodxohga ayting. Men uni sihat-salomat ko'rganimdan xursandman. Men uning dono hokimligi haqida ko'p eshitganman. Qo'shni xonlar hurmat-e'tibori kattaligini ham bilaman. Aminmanki, u dushmanga qarshilik ko'rsatish bafoyda ekanligini yaxshi tushunadi va Oloyning ko'chmanchi aholisini tinchlikka unday oladi. Unga yana shuni ham aytingki, u ona sifatida o'z o'g'illari bilan faxrlanishi mumkin. U yana shuni bilsinki, ruslar jasur dushmanlarini hurmat qiladilar. Agar u o'z o'g'illarini Oloyga qaytishga ko'ndirsa, men ularni botirlar sifatida mukofotlayman. Endi esa men dodxohni dasturxonimga taklif qilaman.

Generalning buyrug'i bilan uning oldiga noz-ne'matlar tog'dek uyulgan katta patnis keltirildi. Ziyofatdan so'ng esa Skobelev o'z qo'li bilan malikaning yelkasiga zarrin to'n yopdi».

(«Turkiston istilosi (harbiy tarixdan hikoyalar)».

Tuzuvchi K.K.Abaza, Sankt-Peterburg. 1902 yil, 245–251-betlar)

Tarixda shunday ulug' bobo va ajdodlar borki, ular o'z faoliyati bilan milliy qahramonlarga aylangan. To'maris, Shiroq, Spitamen, Alpomish, Manas, Go'ro'g'li va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbek, qirg'iz, tojik, qozoq, turkman kabi O'rta Osiyo xalqlari o'z ozodliklari yo'lida kurashgan jasur farzandlarini qo'shiq-o'lanlarda, dostonu rivoyatlarda kuylab, nomlarini ulug'lab abadiyatga daxldor qilganlar. «Oloy malikasi» nomi ostida dovrug' qozongan Qurbonjon Mamat qizi ham ana shunday qahramon siymolardan biridir. O'zbek va qirg'iz xalqlarining milliy-ozodlik kurashi tarixiga porloq sahifalar bitgan bu ayol ikki qon-qardosh elning farzandidir.

1811 yili O'sh shahrining kunchiqar tarafida joylashgan Modi qishlog'ida cho'pon oilasida dunyoga kelgan Qurbonjon go'zal va oqila qiz bo'lgan. Yoshligidanoq mustaqil fikri, metin irodasi va tadbirkorligi bilan hamqishloqparini hayratga solgan. Qurbonjon keyinchalik Andijon hokimi Olimbekning nazariga tushadi va uning rafiqasi bo'ladi. 1833 yili Olimbek uni Qo'qon saroyiga olib kelib, malika Nodirabegimga tanishtiradi. Qo'qon lashkarining zarbdor kuchi bo'lmish Farg'ona navkarlarining taniqli sarkardasi Olimbek saroyda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgani uchun uning rafiqasiga ham katta izzat-ikrom ko'rsatiladi. U Qo'qon xoni, uning amaldorlari, saroy hayoti bilan yaqindan tanishadi. Mashhur o'zbek shoiralari Nodirabegim, Uvaysiy va boshqalarning ta'sirida uning dunyoqarashi shakllanadi.

Bu qirg'iz ayoli eri Olimbek kabi ot chopish, o'q otish, qilich-bozlik sohasida yigitlarni hayratda qoldirar edi. Qurbonjon Andijonni idora etish ishlarida eriga yaqin ko'makdosh bo'ladi.

Olimbek rafiqasining aql-zakovatiga tan berib ko'p masalalarda u bilan kengashadigan, ko'pincha esa uning izmi bilan ish tutadigan bo'lib qoladi. Qurbonjon to'rt o'g'ilning onasi bo'ladi.

Andijon hukmdori go'zal, oqila va jasur xotiniga doimo hurmat bilan qarashi sababli u viloyatni o'z holicha tasarruf etar, xonlar esa uning ishlariga aralashishdan hayqiqishardi. Qo'qon xoni Mallaxon so'nggi vaqtlarda Andijon begiga o'chakishib qoladi. Buni sezgan Olimbek hamfikrlari bilan til biriktirib, 1862 yilda O'rdaga bostirib kiradi va o'z qo'li bilan Mallaxonni bo'g'izlab tashlaydi, taxtga esa Shomurodni o'tqazib, Andijonga qaytadi. «Uch kun xon bo'lsam bu dunyodan bearmon ketardim», deb orzu qilgan Shomurodxon maqsadiga erishdi. Uch kun emas, balki yetti kun podshohlik qildi.

1863 yili Olimbek ham g'animlar fitnasining qurboni bo'ladi.

Tul qolgan Qurbonjon eri o'rnida hokim bo'lib qoladi. Lekin ko'p o'tmay fitnayu fasod, fisqu fujur uyasi bo'lgan kiborlar dunyosidan ko'ngli qolgan bu ayol farzandlarini olib ona yurtiga ketib qoladi va «Oloy malikasi» deb dovrug' chiqaradi. Yettisuvdan, hatto Xitoy chegarasidan ham qirg'izlar uning oldiga kelib maslahat so'raydigan bo'lib qoladilar. Buxoro amiri Muzaffar Kurbonjon oyim aqliga, dilbarligiga qoyil qolgan edi. Muhimi, Qurbonjondagi sarkardadek mardlik va dadillikni, siyosatchiga xos ehtiyotkorlikni u bilan O'shda uchrashganida tan olgan edi. U Oloy malikasini o'ziga ittifoqchi qilish payiga tushadi.

– Biz sizga dodxoh yorlig'ini tuhfa eturmiz,– deydi amir suhbat oxirida, – inshoolloh, sizdek jasur musulima muzaffar islom bayrog'ini dadil ko'taradi.

Saroy amaldorlari, shayxulislom, qozikalon va boshqa ulamolar hayrat ila yoqa ushlashdi. Zaifaga dodxoh martabasini berish mumkinmi? Shariatda bormi shunga o'xshash voqea? Dini islom markazi Buxoro hukmdorining o'zi nahot bu ishga imzo chekdi?

Qo'qon taxtini egallagan Xudoyorxon esa butun Oloy vodiysiga Qurbonjon dodxoh – hokim qilib tayinlangani haqidagi farmonga muhr bosdi. Shunday qilib, 1865 yilda Buxoro amiri bilan Qo'qon xoni tarixda birinchi marta ayol kishiga sarkarda unvonini berdilar.

Qo'qon xoni zulmi va behisob og'ir soliqlaridan bezor bo'lgan xalq 1873 yili qo'zg'alon ko'taradi, Qurbonjon dodxohning farzandlari Abdullabek, Mahmudbek, Hasan va Botir ham qo'zg'alonchilar tarafida bo'ldilar. Xudoyorxon qo'zg'alonchilardan yengilib, tang ahvolga tushib general Kaufmandan yordam so'raydi. Buxoro, Xiva xonliklarini o'ziga bo'ysundirib, endi Farg'onaga ko'z tikkan Kauf-

man bundan foydalanib Qo'qonni zabt etish uchun M.D.Skobelevni yuboradi. Qurbonjon dodxoh va uning to'ng'ich o'g'li Abdullabek qo'zg'alonchilar tarafida turib, jasorat ko'rsatadi. O'shanda o'zbek, qirg'iz yigitlari ular boshchiligida bosqinchilarga ko'p talafot yetkazishadi. Bu haqda fon Kaufman shunday yozgan edi: «Ruslar hali O'rta Osiyoda hech qachon bunday uzoq va qattiq qarshilikka duch kelmagan edilar. Biz birinchi marta matonatli jangchilar bilan to'qnashdik va mahalliy xonliklar hukmdorlariga nisbatan aholiga qarshi kurashish naqadar mushkul ekanligini his etdik». Ish shu darajaga borib yetdiki, mashhur general Skobelev oloyliklar qarshiligini yenga olmasligiga ko'zi yetib shaxsan Qurbonjon dodxoh bilan muzokara olib borishga majbur bo'ldi. O'zaro qonli urushni to'xtatish haqidagi muzokaralardan so'ng Skobelev, yuqorida aytilganidek, o'z qo'li bilan Qurbonjon dodxohning yelkasiga zarbof to'n yopdi. Rus qo'mondonligi uni general sifatida tan oldi.

O'zbek va qirg'iz yigitlarining jangovarligiga qoyil qolgan rus zobiti, o'lkashunos K.Abaza shunday yozgan edi: «Biz, deyishadi qirg'izlar, – Chingizxon bilan dunyoning yarmisini egallaganlar avlodimiz. Bizlarga past nazarda bo'lmanglar. Chingizxon qonunlari va odatlari bizda amalda. Xullas, biz o'zbeklarmiz. Bundan ortiq nima kerak?».

Mavzuni to'ldiruvchi axborot

O'zbek xonining qirg'iz sardori

Qurbonjon dodxohning to'ng'ich o'g'li Abdullabek yigitlari bilan kurashni davom ettirdi. Bosqinchilar qo'lida qatl etilgan do'sti, 32 yoshida dorga osilgan Po'latxon uchun Skobelevdan qasos olishni o'yladi.

Oloyliklar orasida janglarda chiniqib boy harbiy tajriba ortirgan yigitlar to'plangan edi. Ular ham Abdullabek singari bosqinchilarga qarshi so'nggi tomchi qonlari qolguncha kurashishga ahd qilgan fidoiy insonlar edi.

Skobelev strateg sifatida o'zbek, qirg'iz, qipchoq, tojik, turkman birlashsalar dahshatli kuchga aylanishini yaxshi bilgan. Shuning uchun ularning o'rtasida «nifoq» solish, urug'chilik, maxalliychilikni kuchaytirish siyosatini tutdi.

U Abdullabekka qarshi Oloy ichiga yurish qilganda mahalliy sotqinlardan iborat 25 kishini oldinga yuboradi. Ammo ular hammasi vatanparvarlar o'qidan yer tishlaydi. Skobelev shunda ruslarga ixtiyoriy xizmatga o'tgan qozoq sardori Shabdonni 40 yigiti bi-

lan razvedkaga yuboradi. Ular bir necha guruhlarga bo'linib, qo'zg'alonchilarni qidirishadi. Yo'l-yo'lakay ular ovullarni talab, ancha-muncha yilqi, qo'ylarni o'lja qilishadi. Skobelev aholidan talab olingan mollaru-mulklarni bo'lib olishni taklif qiladi. Bu bilan u qozoqlar qirg'izlarni taladi, degan ovoza tarqatish va ikki xalq o'rtasiga adovat urug'ini sochmoqchi edi. Ammo Shabdan «Men ruslarga xizmat qilgani kelganman, talagani emas» deydi. Shunda qirg'iz qipchoqlardan ruslarga xizmatga o'tgan Bekjon va Tursunqul guruhlari ham Abdullabekka qarshi yuboriladi. Ular O'shdan chiqib Terakdavonga kelishadi va Dorboz dasida Abdullabek bilan to'qnashadi. Ular tor-mor qilinib, ko'pchiligi asir olinadi. Yana bir guruh Uchqo'rg'on yaqinidagi darada qo'zg'alonchilar tomonidan qirib tashlanadi.

General Skobelev endi o'zi shaxsan saralangan, tog' urushiga ixtisoslashgan qo'shin bilan jangga otlanadi. Abdullabek, Umarbek, Sulaymon udaychi, Tunako'lponsod rahbarligidagi o'zbek, qirg'iz, qozoq yigitlari uni Yangiariq dasida yo'lini to'sadi. Ikki o'rtadagi olishuvda qo'zg'alonchilar son va sifat jihatdan ustun dushmanga bas kelolmay, orqaga chekinadi. Abdullabek qo'zg'alonchilarni birlashtirish maqsadida Hudoyorxon avlodi Abdukarimbekni xon deb e'lon qiladi va uning nomidan chaqiriqnomalar yuboradi. Abdullabek xonning birinchi amaldori-mingboshi sifatida tilga olingan xitobnoma chaqiriqlar o'z kuchini ko'rsatdi. Farg'ona gubernatori bu ishda eng ta'sirchan Abdullabek ekanini yaxshi bilgan va shu tufayli uni yo'qotish uchun barcha choralarini ko'rdi. Gvardiya ofiseri Spolatbog rahbarligida kuchli otryadni Abdullabekka qarshi yubordi. Ammo bu otryad mag'lubiyatga uchrab, orqaga chekindi. Kapitan Spolatbogdek gvardiya ofiseri o'z pog'onasiga ko'ra armiya polkovnigiga teng harbiyning hech qanday nazariy va amaliy harbiy ma'lumotga ega bo'lmagan Abdullabekdan yengilishi general Skobelevni sarosimaga soldi. U Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoniga yo'llagan axborotida 80 soldat va ofiserlarga bosh Spolatbog amalga kelganda butun dabdabasini yo'qotib sharmanda bo'lganini yozadi. Raqibni mensimay gerdaygan boshqa ofiserlarning boshiga shunday savdo tushishi mumkinligidan ogohlantiradi. 1876 yil 6 iyulda general endi kapitan emas, undan yuqoriroq lavozimdagi podpolkovnik Krujanovskiye ga 350 soldat berib, ularni Uchqo'rg'onga yubordi. Chimboy garnizonidan ikki yuz piyoda askarni vodiye ga yubordi. 18 iyulda o'zi ham sara lashkarlari bilan yo'lga chiqdi. Ammo bunday katta kuch ham qo'zg'alonchilarni cho'chitmadi. Ular dushmanga turli tomonlardan hujumlar uyushtirib, ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Nochor holga tushgan Skobelev Abdullabekka maktub yoʻllab undan kurashni toʻxtatishini soʻradi. Bunga javoban Abdullabek dodxoh yuborgan javobi ham diqqatga sazovordir. Unda bek ruslarning nayrangbozligi va subutsizligini ochiq yozib, ularga ishonmasligi sabablarini koʻrsatdi.

– Sizlar oʻz vaʼdangizni buzasiz.

Masalan, yarimpodshoh Qoʻqon xonligini Nasriddinxon ihtiyoriga topshiradi, soʻng koʻp oʻtmay uni

bekor qilib, Sibirga joʻnatdi. Siz esa general Skobelev, huddi shu tariqa Abdurahmon oftobachini

Qoʻqonda qoldirishga vaʼda berib, soʻng bizning bir necha biylarimiz qatori Sibirga joʻnatdingiz.

Siz oʻzingizning katta va yengilmas qoʻshinlaringiz bilan fahrlanasiz. Biz esa kichik odamlarmiz. Biz faqat Allohga ishonamiz va yolgʻiz unga tayanamiz.

Agar siz oʻz vaʼdangizda sobit turganingizda biz shundayin qilmas edik. Shuning uchun biz tanamizda jonimiz boricha kurashamiz.

Agar siz chindan ham tinchlik istasangiz, bu ishni Shabdan botirga topshiring. Uni Oʻsh uezdida qoldirsangiz u biz bilan oʻrtamizda vositachi boʻladi va biz unga ishonamiz.

Abdullabekning maktubi u nafaqat sarkarda va balki usta siyosatchi ekanligini ham koʻrsatadi. U ruslarga koʻngilli xizmat qilayotgan Shabdan Jontoevni xoin emas, balki botir deb atadi. Unga ishonishini bildirdi. Bu esa qirgʻiz, qozoq va oʻzbek oʻrtasiga nifoq soluvchi general Skobelevga yoqmas edi. Shuning uchun ham u Abdullabek shartlariga rozi boʻlmadi. U aholiga murojaatnoma tarqatib, Abdullabek, Umarbek, Abdukarimbek kabi qoʻzgʻalon boshliqlarini tutib berishni talab qildi. Ammo xalq oʻz qahramonlariga hiyonat qilmadi. Skobelev endi poʻpisadan zoʻravonlikka oʻtdi. U urush havosini olgan polkovnik knyaz Vitgenshteyn, kapitan Serpiskiy, yasovul (mayor) Baytakov, praporshik Groshevskiy boshchiligidagi kazaklardan iborat jazo qoʻshinlarini Abdullabekni qoʻlga tushirishga yubordi. Abdullabek, Yormuhammad, Xudoynazar, Muhammad biy rahbarligidagi mingga yaqin oʻzbek, qirgʻiz, qipchoq, qozoq vatanparvarlari dushmani kuchli otishma bilan qarshiladilar. Bosqinchilar oʻz maqsadlariga yeta olmadilar. Mustamlakachilarga qarshi xalq harakati toʻxtamay kuchayib bordi.

Fargʻona viloyati harbiy gubernatori Skobelev 1877 yil 7 yanvarda Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanga yoʻllangan taqdimnomasida Fargʻonadagi siyosiy-harbiy vaziyatni tahlil etib, noxush xulosaga keladi. U qoʻzgʻalon tugamaganligi, aksincha yanada

xatarli tus olayotganini uqtirib o'tadi. U Abdullabekni qozoq xalqini milliy qahramoni Sulton Sodiq Kenesarin bilan aloqa o'rnatganidan tashvishini yashirolmadi.

Qozoq xalqi ozodligi uchun kurashda qurbon bo'lgan Kenesari Qosimovning kenja o'g'li Sulton Sodiq mustamlakachilarga qarshi otasi ishini davom ettirgan. U o'zbek birodarlari bilan birgalikda 1864 yilda Chimkent, Avliyoota, Turkiston. 1865 yilda Toshkentni, 1866 yilda Erjar, 1868 yilda Samarqand, 1870 yilda Kitob, Shahrisabzni, 1873 yilda Xiva xonligini bosqinchilardan himoya qilgan fidoiy inson edi. U endilikda o'zbek amiri Yoqubbek lashkarboshisi sifatida xizmat qilardi.

Skobelev Oloy vodiysidagi qo'zg'alonchilar Buxoro amiri o'g'li Abdumalik to'ra bilan ham aloqa o'rnatishganini aniqlagan. Abdumalik to'ra ruslarga tobe otasiga Qarshida qo'zg'alon ko'targan, mag'lubiyatdan so'ng xorijga ketishga majbur bo'lgan istiqlolchi shahzodaligini, uni inglizlar qo'llab-quvvatlashi, Peshavorda yashashi, lekin hamon istiqlol uchun kurashdan charchamayotganini bilardi.

General Skobelev vodiya yetimxonlar harakati – Qo'qon xonligini tiklash uchun kurashayotgan zodagonlar ham qo'zg'alonchilarni qo'llab-quvvatlashayotganini rahbariyatiga ta'kidlab o'tgan. Uning bu axborotidan so'ng Abdullabek va uning safdoshlariga katta «ov» uyushtirildi. Shundan so'ng Abdullabek Afg'onistonga ketishga majbur bo'ldi. Makkaga xaj yo'lida noma'lum kasallikdan vafot etdi. Ammo uning o'limi vodiya istiqlol harakatini to'xtata olmadi.

1878 yilda Mingtepada yetimxonlar qo'zg'aloni boshlandi. 1880 yildan esa Darvishxonto'ra, Mo'minbay boshchiligidagi g'alayonlar ko'tarildi. Farg'ona va Oloydagi xalq harakatlarida Po'latxon va Abdullabek tarafdorlari va safdoshlari faol rol o'ynadi. Bu harakatlarni tinimsiz davom etib, 1898 yilda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. O'lka mustamlakachilarini larzaga solgan mashhur Dukchi eshon – Andijon qo'zg'alonida o'zining yuksak cho'qqisiga yetdi.

Qurbonjon dodxohning nabiralari 1898 yilgi milliy-ozodlik qo'zg'alonida ham faol qatnashganlar. Rus amaldorlari doimo Oloy malikasidan hayiqishgan. Shuning uchun gubernatorlar uning oldiga tez-tez kelib turishgan. 1901 yilda Rossiya imperiyasi harbiy vaziri general Kuropatkin O'shga kelib Qurbonjonga imperatrisaning sovg'asini shaxsan topshirgan. Kurbonjon 31 nevara, 57 chevara va 6 evara ko'rib, 1907 yilda O'shda vafot etadi.

Xullas, Qo'qon xonligi Rossiya guberniyalaridan biriga – Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyatiga aylantirildi.

Endi Rossiya Markaziy Osiyodagi soʻnggi mustaqil Yoqubbek davlatini tugatish fikriga tushdi. Chunki Ettishahar davlati (1865–1877) mustamlakachilarga qarshi kurashda Qoʻqon, Buxoro, Xivadagi vatanparvarlarga doimo yordam berib turardi. Xitoy hukumatining Rossiyadan «Sharqiy Turkistonda tartib oʻrnatish uchun rus qoʻshinidan foydalanish» haqidagi iltimosi ayni muddao boʻldi. 1877 yil 22 iyunda rus qoʻshini Gʻuljaga bostirib kirdi.

Ikkinchi tomondan Szo Szun Tan boshchiligidagi Xitoy qoʻshini Urumchi darasiga yaqinlashdi. Amir Yoqubbekning toʻsatdan vafot etishi Yettishahar davlati qoʻshinining magʻlubiyatga uchrashiga sabab boʻldi. Qoʻqonga yondosh bu davlatning halokatiga Rossiya asosiy aybdor ekanini bosh shtab polkovnigi D.V. Putyata ochiq tan olgan. Yoqubbek hukmronligi davrida «uning dono boshqaruvi natijasida Sharqiy Turkiston uzoq vaqtdan beri hali koʻrmagan osoyishtalikka erishdi»¹ deya Rossiya siyosatini qoralagan edi.

5. KOʻKTEPA MUDOFAASI

Qoʻqon xonligi tugatilib, davlat viloyatga aylantirilgach, Fargʻonadan xotirjam boʻlgan urushqoq rus generallarining nigohi Kaspiy ortiga qaratildi. 1877 yili Axaltaka vohasidagi yirik manzilgoh Qizil Arvat chor qoʻshinlari tomonidan egallandi. 1879 yili esa general Lazarev qoʻmondonligidagi qismlar Koʻktepaga hujum qildilar. Ammo mard va erksevar turkmanlar bosqinchilarga shiddatli zarba berdilar. Dushman katta talafot koʻrib, orqaga chekinishga majbur boʻldi. General Lazarev ekspeditsiyasining magʻlubiyati bosqinchilarga qarshi kurashayotgan xalqning ruhim koʻtardi. Rus qoʻmondonligi esa bu magʻlubiyat sabablarini qoʻshinlar taʼminotini yaxshilash uchun zarur boʻlgan temir yoʻl yoʻkligidan koʻrdilar. Shu bahonada, Rossiya bu yerda temir yoʻl qurishga qaror qildi. «Sahrodagi moʻjiza» deb nom olgan Kaspiyorti temir yoʻli qurilishiga general Annenkov rahbarlik qildi. Harbiy-strategik maqsadda boshlangan bu temir yoʻl qisqa muddatda qurib bitirilishi va Marv vohasini egallash uchun tayyorlanayotgan yangi ekspeditsiyani oʻqdori, askar va oziq-ovqat bilan taʼminlashga xizmat qilishi kerak edi.

Bosqinchilarning yangi kuchlariga 1877–1878 yillardagi Rossiya-Turkiya urushida «Milliy qahramon», «Bolgariya xaloskori» deb ulugʻlangan general-leytenant M.D.Skobelev boshliq qilib tayinlandi. Fargʻonada istiqlochlilar, Shipka dovonida turklar qonini

¹ Putyata D.V. Kitay. SPb. 1895, 227-bet.

beayov to'kkan bu general o'zining kasbdoshi general N.I.Grodekov singari turkmanlarni «er yuzidagi qora dog'» deb hisobladi.

General Skobelev ekspeditsiyasi bilan turkmanlar o'rtasida 1881 yil yanvar oyida hal qiluvchi jang bo'ldi. Rusiya qo'shinlari hech qachon Ko'ktepa ostonasidek keskin qarshilikka duch kelishmagan edilar. Buni voqealarning guvohlari hamda muarrixlar tan olishadi. Turkman vatanparvarlariga jasur Tiqma sardor boshchilik qilgan.

Bosqinchilar boylik, martaba va shon-shuhrat uchun, turkmanlar esa o'z ona tuproqlari, erk va ozodliklari uchun jang qilishadi. Taniqli muarrix akademik V.V.Bartold bu tarixiy voqeani haqqoniy yoritadi: «Chor qo'shini 8000 kishidan iborat bo'lib, ularning ixtiyorida 70 dan ortiq zambarak bor edi. Yigirma kunlik qamaldan so'ng, 1881 yilning 12 (24) yanvarida Ko'ktepa qal'asi shturm bilan ishg'ol qilindi, so'ng talon-toroj qilish uchun askarlar ixtiyoriga to'rt kun muhlat berildi. Qal'ani qamal qilish va zabt etish chog'ida 6000–8000 kishi halok bo'ldi. Buni O'rta Osiyodagi boshqa janglarga qiyoslasak, chor qo'shinlari katta qurbonlar evaziga g'alaba qozonganini ko'ramiz. Ular o'lgan va yaradorlarni birga hisoblaganda, 10000 dan ortiq odamini yo'qotdi. Bundan tashqari, Ko'ktepa jangida Turkistonda birinchi marta istilochilarning bayrog'i va zambaragi o'lja olindi»¹.

Axaltakada bo'lgan urushning bevosita qatnashchisi, rus zobiti K. Geyns Ko'ktepadagi dahshatli manzarani ko'z o'ngimizda yanada yorqinroq gavdalantiradi: «Qirg'in boshlandi. Charchash nimaligini bilmaydigan dragunlar birinchi uzun hovlini turkmanlar qoniga g'arq qildilar. Olishuv uzoqqa cho'zilmadi. Dushman qattiq kurashsada, oxiri dosh berolmadi: qarama-qarshi tomonga, baland devor yoqalab Ichki qal'aga qarab chekindi. Ammo fursat boy berilgandi. Otryadimizda mardligi bilan nom chiqargan knyaz Golisinning kazaklari va poruchik Naxichevanskiyning 1-eskadroni dragunlari jarlikdan chiqib, ularning yo'lini to'sdilar. Chorasiz ahvolda qolganlarini sezgan taka-turkmanlar qo'llaridagi yatog'onlarini o'ynatib... raqibi ustiga tashlandilar. Ammo devor orqasidan deyarli yonma-yon turib otilayotgan miltiq o'qiga uchrab, ketma-ket qulay boshladilar. Qal'a bilan paxsa devor orasi murdaga to'lib ketdi»².

Rad etib bo'lmaydigan dalil va hujjatlar general Skobelevning turkman qardoshlarimizning jallodi bo'lganligini yana bir marta isbotlaydi. General Skobelevning yaqin xeshlaridan bo'lgan Adam Julett Lamber «General Skobelev» kitobida quyidagicha hikoya

¹ *Бартольд В. Геок-тепе. Изб. произв. в 9-томах. М., 1995, 3-том, стр. 399.*

² *Военный сборник. СПб. 1882, № 6, стр. 27.*

qiladi: «Janob Marvin bilan suhbat chogʻida general Skobelev Oʻrta Osiyoni boʻysundirish haqida oʻz qarashlarini ochiqdan-ochiq quyidagicha ifodaladi: «Gap shunday, janob Marvin. Faqat bularni gazetangizda bosib chiqara koʻrmang. Jahon jamoasi nazarida gʻirt yovvoyiga aylanib qolishni istamayman. Mening aqidam shunday: Osiyoda osoyishtalik oʻrnatish masalasi toʻgʻridan-toʻgʻri odamlarning qancha koʻp qirilishiga bogʻliq. Zarba qanchalik kuchli boʻlsa, dushman shunchalik tez boʻysunadi. Biz Koʻktepada 20000 turkmanni oʻldirdik. Tirik qolganlar bu saboqni bir umr unutmaydigan boʻladi». Soʻng ikki oʻrtada boshqacha suhbat boʻldi. Marvin: «Umid qilamanki, bu aqidalaringizning bosib chiqarilishiga ruhsat berasiz. Rasmiy axborotingizda Siz hujum va taʼqib paytida har ikki jinsga mansub 8000 dushman oʻldirildi, deb yozgansiz. Shu toʻgʻrimi?»

General Skobelev: «Toʻppa-toʻgʻri. Ularni sanashganda roppa-rosa 8000 odam chiqdi».

Marvin: «Bu maʼlumot Angliyada juda koʻp shov-shuvga sabab boʻldi, sababi, Sizning askarlaringiz erkaklar bilan bir qatorda ayollarni ham oʻldirishgan ekan».

General Skobelev: «Bu ham mutlaqo toʻgʻri, oʻlganlar orasida koʻplab ayollar bor edi. Yolgʻon gapirish tabiatimga toʻgʻri kelmaydi. Shuning uchun axborotimda har ikki jinsga mansub deb ochiq yozganman».

Marvin soʻzida davom etib mana bularni yozadi: «Bu xusudasi shuni aytishim lozimki, Skobelev men bilan suhbat chogʻida «Koʻplab ayollar oʻldirildi. Askarlar duch kelgan odamni qilich bilan chopib tashlayverishdi», deb tan olgan edi. Boshqa diviziyadagilar hech kimga shafqat qilishmadi: askarlar xuddi mashinadek ishlab, xalqni qilich bilan rosa burdalashdi». Kapitani Maslov: «Axaltakaning boʻysundirilishi» nomli asarida hujum boʻladigan kuni erta tongda hech kimni asir olmaslik haqida buyruq boʻlgan edi», deb guvohlik beradi. U chor askarlarining yovuzliklarini oʻta «maydalashtirib» koʻrsatadi». Ular qarshilik koʻrsatayotgan yoki jonini asrash uchun qochib ketayotganlarning qovurgʻasiga, qorniga nayza sanchdilar, tikkasiga otishar, yo boshiga qoʻndoq bilan tushirishar... hatto koʻpchilik miltiqlarning qoʻndogʻi yorilib ketgan edi...»

General Skobelev dahshatli qirgʻin boʻlishini oldindan yaxshi bilgan va bunga puxta tayyorgarlik koʻrgandi. U yurishga otlanishdan avval imperator huzurida boʻladi va Aleksandr II dan: «Bironta ham jurnalist safarda qatnashmasligi kerak», – deb qattiq iltimos qilgan-

di. Aleksandr II «Ha, mayli, shunday bo'lsin» deb general Skobelev iltimosini ma'qullagan¹.

A.N.Kuropatkin yozadi: «Qal'a ichiga nazar tashlash dahshatli edi. Behisob o'liklar bir necha kundan beri uyilib yotardi. Ba'zi kul-balar murdalarga to'lib ketgandi». Turkman xalqini «Er yuzidagi qora dog'» deb hisoblagan kalondimog' zobit N.I. Grodekov qo'shimcha qiladi: «Dushman qamal paytida miltiq va zambarak o'kdaridan qay darajada dahshatli talafot ko'rganini qal'ani egal-laganimizdan keyin bildik. Qal'a ichidagi ba'zi uylarda hatto o'n beshtagacha o'lik yotar edi...»².

Jang arafasida Skobelev: «To'kilgan har tomchi rus qoni uchun dushman qonini daryodek oqizaman», – deb maqtangan edi. U Ko'ktepada jon berayotgan mullaning «8000 begunoh odamni o'ldirganing uchun vijdon azobida qolmaysanmi?!» – deb bergan savoliga yuzsizlik bilan, «Yo'q! 80000 bo'lmaganiga achinaman!» – deb javob bergan edi. U hatto shunday gaplarni ham aytgan edi: «Ochig'ini aytsam, urushni yaxshi ko'raman. Har bir millat o'z hududini tabiiy chegaralargacha kengaytirish huquqiga ega va bu qonuniydir. Biz slavyanlar, albatta. Bosfor va Dardanelni egallashimiz zarur, aks holda har qanday «tarixiy ahamiyatimizni» yo'qotamiz. Agar qo'limiz bu bo'g'ozlargacha yetmasa, yerlarimiz qanchalik cheksizligiga qaramay, biz halok bo'lamiz».

«...Men buni ko'rib, his qilib turibman. Bashorat qilib aytaman-ki, slavyanlar bir kuni Germaniyani ham eydi»³.

General Skobelev o'taketgan shovinist odam edi. Mana uning orzulari: «Nemislarga aslo toqat qila olmayman», «Buyruq bo'lsa, xuddi taka-turkmanlarni qanday o'ldirgan bo'lsam, ryazanlik mujiklarni ham shunday xotirjamlik bilan otib tashlayveraman».

«Rossiya bosqini toshqin daryodek oqib, quturib, hamma yoqni toptab bormoqda. Asriy saltanatlar emirilmoqda: bir tomonda Eron, bir tomonda Turkiya qaltirab turibdi. Bu qudratli bosqinni to'xtata oladigan mo'jizaviy bir kuch olamda bormikan?»

Mana, oradan bir asrdan ziyod vaqt o'tdi. Ammo «karomatgo'y» general Skobelevning bu «orzulari» amalga oshmadi. Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindistonni bosib olishga chor Rossiyasining «qudratli» kuchi yetmadi. Aksincha, uning iflos kirdikorlari jahon afkor

¹ Kostin V. Skobelev. 1843–1882. M., «Patriot», 1990, 153-bet.

² Q a r a n g: Karimov Sh., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida, 42–43-betlar.

³ «Sharq yulduzi», 1992 yil, 6-son, 148–149-betlar.

ommasi orasida sharmanda bo'ldi. Qilich va zambarak bilan o'rnatilgan yovuzlik imperiyasi chok-chokidan so'kilib ketdi. Slavyanlar Germaniyani ham «eb» yubora olmadi. Bugungi kunda hatto nemis kuxarkalari ham qudratli Rossiyaning vorislariga – Moskva qashshoqlariga xayru sadaqa ulashmoqdalar. Har bir narsaning o'z ibtidosi va intihosi bor...

1884 yilda chor qo'shinlari Marv vohasida o'z hukmronligini o'rnatdilar va shu bilan amalda Turkiston hududining Rossiya tomonidan bosib olinishi asosan yakunlandi. Biroq rus qo'shinlari 1895 yilga qadar Turkistonning janubiy hududlarida bosqinchilik urushlarini olib bordilar. Bir necha bor Afg'oniston qo'shinlari bilan chegara to'qnashuvlari bo'lib o'tdi. Faqat 1895 yilda tuzilgan bitimlardan so'nggina mojarolarga chek qo'yildi. Tojiklar yashaydigan hududlarning Panj daryosining o'ng qirg'og'igacha bo'lgan qismi, Turkmanistonning Kushka daryosigacha, Pende vohasidagi Kushka, Murg'ob va Tajanning quyi oqimidagi yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tdi. Shunday qilib, Rossiyaning 1864–1885 yillarda Turkiston hududida yigirma yildan ziyod vaqt mobaynida olib borgan dahshatli, qirg'in-barot urushlari natijasida Vatanimiz xalqlari o'z gardanlariga og'ir, sharmandali mustamlakachilik bo'yinturug'ini ilishga majbur bo'ldilar. Bu urushlar oqibatida Rossiya 1583255 kvadrat kilometrdan iborat, yoki Fransiya, Germaniya, Avstro-Vengriya hududlarini birga qo'shib hisoblaganda teng keladigan yerlarni egallab oldi. O'lkada chorizmning musibatli va dahshatli mustamlakachilik siyosati davri boshlandi.

6. ISTILO QIYOFASI IJODKORLAR NAZDIDA

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi so-biq sho'ro tarixnavisligida bir yoqlama talqin etilib, go'yo ziyolilar, shoirlar, olimlar bu istiloga xayrixoh bo'lgan sifatida ko'rsatildi. Mustamlakachilarning zo'ravonligi, ommaviy qirg'in siyosati xas-po'shlanib, general-gubernatorlikning ko'rsatmasi asosida yozilgan va ma'rifat, savdo, san'at sohasidagi o'zgarishlar ruslar kelishiga bog'lab madh etilgan she'rlar darsliklarga kiritildi.

Bugina emas, chor Rossiyasining Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston tarixini o'rganishga safarbar etilgan bir guruh tarixnavislari ilmiy xolislik yo'lidan chekinib, mustabidlar ra'yini ifodaladilar. Taniqli olim V.V.Bartold, masalan, O'rta Osiyo xalqlari XVII asrda birgina Maxtumqulini bilar edilar, deydi. Bu, tariximizni, binobarin, qadimiy madaniyatimizni, ilm-fan va mumtoz adabiyotimizni

soxtalashtirishga, mustamlakachilik manfaatiga xizmat qildirishga intilish oqibati edi. Holbuki, o'sha XVII asrning o'zida Boborahim Mashrab, Turdi Farog'iy, Saido Nasafiy, Andalib singari ko'pgina shoirlar ijod qilgan edi. Shoir Turdi Farog'iy Turkistonning uch xonlikka bo'linib qolishiga urug'chilik va bosh-boshdoqlik asosiy sabab deb aytgan edi. Keyingi asrlarda yashab, ijod etgan shoirlar yurtning yaxlitligini orzu qildilar. Umuman, o'zbek mumtoz adabiyotida markazlashgan davlat g'oyasi barqaror mavzu bo'lib, hamma asrlarda ham ilg'or fikrdagi ijodkorlarning diqqat markazida bo'lib kelgan edi.

Darhaqiqat, chor Rossiyasi bosqini xalqimiz uchun juda og'ir, ayanchli kechdi. Podshoh askarlarining rahm-shafqatni bilmasligi, ajdahodek ajal olovini purkovchi to'plar va multiqlar dahshati qishloq va shahar aholisini sarosimaga solgan edi. Eng yomoni, rus kelgindilari bosib olingan joylarda xalqning or-nomusini poymol etuvchi, tahqirlovchi ishlarga haddan ziyod ruju qiladi.

Istilo yillarida xalqimiz ko'rgan jabr-sitam ko'lamini asliga monand tarixiy-badiiy jonlantirishda badiiy adabiyot benazir manba bo'ldi. Shu jihatdan, bu voqealarga guvoh bo'lgan fozil kishilar, shoirlar yaratgan asarlar tarixiy qimmatini beqiyosdir. Qayd etilgani singari, vaqtida rus madaniyatparvarligini ulug'lovchi she'rlar keng targ'ib etilishi baravarida mazlum xalqning dardini, ko'rguliklarini aks ettiruvchi, rus qabohatini ifoda etadigan asarlar yo'q qilindi.

Bunday shoirlar va asarlar bor edi. Ular xalq boshidan tegir-mon toshi yuritilganda ham mehnatdan, ijoddan to'xtamaganlar. Chorizm senzurasini nechog'lik mone'lik qilmasin, baribir, vatanparvar noshirlar ozodlik g'oyasi bilan sug'orilgan asarlarni pand-nasihat kitoblari orasida, diniy risolalar qatida berib, xalqqa yetkizdilar. Bunday kitoblarning bir qismi shu kunlarga qadar saqlanib qolgan. Vatanparvarlik, ozodlik, milliy g'urur ruhi bilan sug'orilgan bunday asarlar haqida alohida kitob yozish lozim bo'ladi.

XIX asr ikkinchi yarmi boshlarida ijod etgan, bevosita Rossiya istilosiga guvoh bo'lgan shoirlardan biri Mavlono Xayoliydir. Shoirning nomi ham, salmoqli she'rlar devoni ham hozirga qadar unutilib kelindi. Qarshi shahrida yashagan, amir Muzaffar va uning o'g'li Katta To'ra – Abdumalikning chor bosqinchilariga qarshi kurashini butun vujudi bilan qo'llab-quvvatlagan shoir chinakam vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan she'rlar yaratadi. U, jumladan, bir she'rida:

*Kelibdur ahli kofir suyi islom qasdi qatl aylab,
Umid shuldir, alar birlan ajoyib korzorim bor,*

*Agarchandi, yarog'u hiylai tadbirimiz yo'qtur.
Vale, o'zbek erurmiz, ko'ngluma ming turlik orim bor.*

– deydi iftixor bilan.

Shoir dastlabki paytlar, istilochilar Toshkent va Jizzaxni bosib olgan kezlarda ularga qarshi qo'shin tortgan amir Muzaffarga katta umid bog'laydi. Lekin, amir qo'shinlarining ketma-ket mag'lubiyati, ayniqsa Kattaqo'rg'on fathidan keyin yuz bergan tahqirli sulh voqeasi Xayoliyning amirga bo'lgan ishonchini chippakka chiqaradi. Amir Muzaffar katta tovon evaziga hudud va nufusning bir qismidan ayrilib, toju taxtni saqlab qoladi. Oriyatli vatanparvarlar shu boisdan taslimchi amir emas, uning shijoatli o'g'li Abdumalik to'ra atrofida jiplashdilar. Kitob va Shahrisabz beklari Abdumalik to'rani qo'llab-quvvatlaydilar. Shoir Xayoliy ozodlik va erk kurashchilarining o'sha paytdagi kayfiyatini shunday tasvir etadi:

*Umidim bor, shoyad xuruji kofir yo'qolg'ay deb.
To'ramni jabhasig'a ikki davlat tavomon kelmish.
Muborak maqdami Qarshig'a yetti, bo'ldi jannatdek.
Xudo lutf ayladi, bizlarga go'yo Xumo kelmish.
Xudoyo, kofir elatni poymoli To'rajon qilg'il.
Sabab nedur, bu Dizax mulkiga ul badnamo kelmish'.*

Shoir Xayoliy Abdumalik to'raning Qarshiga kelishini «Ming ikki yuzu sakson uchga toji Xisravon kelmish», degan satrda ko'rsatadi. Bu milodiy 1866 yilga to'g'ri keladi. Dushman g'alabasidan umidsizlikka tushmagan shoir, «Do'stlar, ayb etmangiz, kofir ahli g'olib o'ldi deb, inshoolloh, nusrati haq bo'lg'ay islom ustina», deydi qat'iyat bilan. Bosqinchilar to'kkan qonlar sovumay turib yozilgan bu satrlarning ahamiyati beqiyosdir.

Ijod ahli orasida bevosita bosqinchilarga qarshi kurashda ishtirok etgan va qalam tebratganlarning yana biri mullo Xolbek ibn Muso Andijoniydir. U amiri lashkar Alimqul boshchiligida bosqinchilarga qarshi olib borilgan janglarda qatnashadi va bosqinchilar Qo'qonni o'z tasarrufiga olgach, 10 yilga badarg'a etiladi. Mullo Xolbek yozadi;

*Eshit, ey jam'iyati ahli rasolar,
Faqiru boy, miskin, porsolar,
Asirman Rusiya kuffor elinda,
Ovoxtada, uy miskini, sallot qo'linda.*

¹ Olim Ravshanov. Ko'nglima ming turlik orim bor. «Yozuvchi», 1997 yil 5 noyabr.

*Bu tashvishlar ilon yilning qishinda,
Sana ming ikki yuz to'qson' beshinda.
Badarg'a ayladi islom yerimdin,
Bo'lub hokim biza Rusiya bedin...
Rusiya yurtig'a o'n yil subhi shom,
Qo'yg'on erdi mahkum etib bul shohi urus.
Muddati o'n yil tamom bekami kust,
Istiqomat ayladim g'urbat bilan,
Qo'shulub Ma'murga,² bul ig'vo qilani.
Deb badarg'a ayladi, buldur sabab,
G'urbat ichra bo'ldi daftar qancha ko'b.*

Binobarin, Mullo Xolbekning «Alimqul jangnomasi» deb atalgan dostoni va o'z ahvolidan bayon etuvchi bu asar O'zR FA Sharqshunoslik instituti jamg'armasida 8816 raqami ostida saqlanayotir. «Alimqul jangnomasi» tarixiy jangnoma asardir. Dostonda amiri lashkar Alimqulning harbiy iste'dodi jang voqealari orqali ochib beriladi.

Mustamlakachilarning o'lkada zo'ravonlikka, talonchilikka, milliy kamsitishga, mahalliy aholini xo'rlashga asoslangan siyosati bois, noroziliklar, ozodlik, or-nomus uchun bo'lgan intilishlar, kurashlar ham kuchaya bordi. Xususan, Dukchi eshonning podshohlikni tahlikaga solgan milliy-ozodlik harakati istibdod va zulmga qarshi qaratilgan edi.

Shu bois, o'zlarini kiborlar, madaniyatli kishilar deb faraz qilgan podshoh Rossiyasining Turkiston general-gubernatorligi Muhammad Ali eshon va uning isyonini shafqatsizlik bilan bostiribgina qolmay, O'rta Osiyo xalqlarini ma'naviy yakson etishga ham harakat qildi.

Avvalo, ahli qalamga, matbuotga Dukchi Eshon shaxsini tahqirlovchi, isyonini la'natlovchi asarlar yaratish buyurildi. Oqibatda, Sankt-Peterburgni dahshatga solgan isyon va uning yo'l boshchisi, milliy-ozodlik yalovini ko'targan, istiqloq uchun hayot-momot jangiga kirgan Muhammad Alini masxara etuvchi talay she'rlar, manzumalar yaratildi.

Mahalliy boshqaruv vakillarining, zobitlarning zulmi muttasil tarzda amalga oshirila borganligiga qaramay, avval boshdanoq xalqning dardu hasratini, qora kunlarini ifoda etgan shoirlar bunday ta'sirga tushmadilar. Aksincha, o'rnatilgan qattiq nazorat-senzurani

¹ 1872 yil.

² Ma'mur Mergan, qo'zg'olon boshlig'i.

chalg'itish, qanday qilib bo'lsa-da, bosqinchilarning kirdikorini, mudhish jinoyatlarini elu xalqqa she'riy satrlarda oshkor etish yo'lidan bordilar.

1911 yilda Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida «Sadu yak bandi Mushfiqiy» degan kitob nashr etiladi. XVI asr voqealari bilan boshlanuvchi bu asar mundarijasidan Rusiya istilosiga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi she'rlar ham o'rin olgan. Matbaachilar senzurani chalg'itib, vatanparvarlik ruhidagi asarlarni ham chop etishga muyassar bo'ladilar. Masalan, kitobda Muhammad Amin Ho'qondiy va Hofiz Ro'ziboy Mashrab manzumalari beriladiki, ularda istilochilarning mudhish qiyofasi fosh etiladi. Jumladan:

*Nasoralar¹ olib bu shaharni shohi jahon bo'ldi,
Raiyatlariga zulmi haddin oshib, ko'p yamon bo'ldi.
Necha beboku behuda bu yurtlarga kalon bo'ldi.
Fasodu fitnalarkim qo'zg'olib, oxir zamon bo'ldi.
Chiqolmay ko'cha-ko'yga bir necha yaxshi musulmonlar,
Zamona fitnasidin qo'rqibon bo'ldi parishonlar.
Yotolmay uylarida, boydur deb oti chiqqanlar,
Birovlar hovlisinda yotibon xonavayronlar.
Hamisha xavf birlan ranglari chun za'faron bo'ldi.*

Bu she'rda Muhammad Amin Ho'qondiy Qo'qonning olinishi, beayov talanishi voqealarini haqqoniy aks ettiradi. Rus soldatlari boylarning mol-mulkini, xarislik bilan yiqqan oltinlarini tortib oladi, ularga katta jarimalar soladi. Ayon bo'lishicha, shulardan biri Abdurahmonboyga ham 1500 rubl miqdorida tovon solinadi. Bunday torojdan nafaqat oddiy fuqaro, balki boylar ham xonavayron bo'lgan, uy-joyidan ayrilgan edi. Yuqorida keltirilgan satrlarda aytilgani kabi, jon hovuchlab, yashirilib yurgan boylar mustamlakachi – qaroqchilar azmi irodasini bajarmay qo'lga tushsa, otib tashlangan.

Istilodan so'ng ham Qo'qonda kechgan bedodliklarning cheki bo'lmagan. Shu asarga kiritilgan, «Hikmat» deb nomlangan ikki she'rda bosqinchilarning ayanchli, tahqirli qilmishi nadomat bilan ta'rif etiladi:

*Do'stlarim, oxir zamon bo'ldi, ko'ring,
Bedin kofirlar olamg'a to'ldi, ko'ring.
Mo'minlarning o'g'il-qizin qildi halok,
Asir qilib, farzand dog'in soldi, ko'ring.*

¹ Xristianlar, ya'ni ruslar nazarda tutiladi.

Sharqona qadriyatlar, islomiy axloq ruhida tarbiyalangan xalqimiz uchun bundan ortiq haqorat bo'lishi mumkin emasdi. Shu bois, qasoskorlik harakatlari shakllana boradi. «Hikmat»larning noma'lum muallifi aytgani kabi, «bu kofirlarning barisini qirish» muddoasi qaror topa beradi. Afsuski, harbiy kuchlar teng emas edi.

Kurashchilar, shu jumladan, xalqimizning zukko, solih farzandlari armonli faryodlarini, qonli ko'z yoshlarini yashira olmadilar. Ilojsizlik sabablarini qidirish, bu yanglig' mash'um holga tushib qolishni badiiy idrok etish namoyon bo'la boshladi.

Buxoro amirligida tarixiy vaziyat, rus bosqini ko'lankasi uning sarhadlariga yaqinlab kelayotgan yillardagi holat ham adabiy asarlar sahifalarida o'z aksini topa boradi.

Qo'qon xoni Xudoyor taqdiriga befarq bo'lmagan, uni ikki-uch bor taxtga qayta o'tqazgan amir Muzaffar chor bosqini ko'lami xavfini hali to'la darajada anglab yetganmi yo'qmi, aytish qiyin.

Otasi o'rniga Buxoro taxtiga o'ltirgan amir Abdulahad podshohlik Rossiyasi bilan tinch-totuv yashash ahdigga erishgan bo'lsa-da, siyosiy jihatdan oyoq-qo'li bog'lanib qolganligini anglagan, albatta. Bu, uning badiiy mushohadalarida ham aks etadi. Amir Abdulahad «Ojiz» taxallusi bilan she'rlar yozgan. Bu jihatdan, uning:

*Do'stlar, aylang duo bu diydai xunbor uchun,
Ayribman xonumonimdin, biling, dildor uchun.*

singari ramziy ifoda etilgan misralari diqqatni o'ziga tortmay qolmaydi.

Amirlikda, shubhasiz, yon berishdan norozi bo'lgan, ilm-ma'rifat, taraqqiyot tarafdori bo'lgan kuchlar bor edi. Ayniqsa, ilg'or ziyolilar Yevropaning, shu jumladan, Rossiyaning harbiy qudratini ilmfan, madaniyat yuksalishida deb hisoblaganlar. Haqiqatda, XIX asr oxirlarida harbiy texnika, o'q otish qurollari Yevropada Sharqdagidan bir necha barobar ustun ekanligini ta'kidlashga zarurat yo'qdir. Buning ustiga podshohlik Rossiyasining urush tajribasi xalqaro yo'sunda me'yoriga yetgan, shu asr davomida bir necha davlatlar bilan janglar qilgan edi.

Ziyolilar millatni g'aflatda qolgan, jaholat va qoloqlik taraqqiyotga g'ov bo'lgan, deb hisoblar edilar. Amir Abdulahad saroyida ruslarga tilmochlik qilgan, «Tarjimon» taxallusi bilan ijod etgan shoir, masalan:

*Sen, ey millat, uyon, ko'p yotma, tur uyqu kanorindin,
Ochib ko'z, bir yo'la boq, qoldimu donish bahorindin,
Xazon bo'lmish yashil yaprog'lar nodonni norindin,*

*Xayolga keltir o'tmish asrlar atvori korindin,
Nega chiqmassan, ey millat, turib g'aflatni korindin,*

– deydi achinish bilan.

Yurt bog'larining xazonga yuz tutishi, tabiiyki, haqqoniy xulosa edi. Taassufki, Turkiston birligini qalamga olish, ittifoq bo'lgan holda umumiy yovga qarshi kurash g'oyasini kuylash xonlarga ham, amirga ham, muhimi, mustabidlarga ham maqbul tushmagan. Shu sababdan, bosqinchilarga, ularning yovuz tajovuziga qarshi ruhda bo'lgan shoirlar unutildi, ularning she'rlari qo'lyozma holida qolib ketdi, ko'plari yo'qotildi. Faqatgina vatanparvar noshirlarning sa'y-harakati bilan XX asr boshlarida ayrimlarining ijod namunalarini muxtasar tarzda xalqqa yetkazish imkoni bo'ldi.

Qashqa vohasining Qamashi qishlog'ida voyaga yetgan, katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan Hofiz Ro'ziboy oxund Mashrabi Soniy (XIX asrning boshlarida tug'ilib, oxirgi yillarida vafot etgan) istilochilarning o'lkamizni bosib olishi haqida mushohada yuritar ekan, achchiq haqiqatni qalamga oladi:

*Xasta dilman, ahli ma'nilar fano bo'ldi, darig',
Hosili taxtim vafo jabru jafo bo'ldi, darig'.
Gandalar bosh bo'ldi, xo'blar taxtpo bo'ldi, darig',
Boda no'sh o'ldi necha bema'ni va bebodalar.
Qo'ydilar elni izzaga necha bor zang'ar chiqib,
Yil xususan qishg'a tortib, jabhaga kofir chiqib.
Bul ajab, har hafta mo"mindan olur hindu hiroj,
Dafnovozi lo'li va qarsakchilar sohib rivoj,
Oni uchun avvali keldi urus, oxirda soch,
Tavba qilmay, xalq poymol, balo bo'ldi darig'.*

Anglashiladiki, o'lkada boshbodoqlikning avjga chiqishi, elga bosh bo'lganlarning nodonligi, aysh-ishratga cho'mganliklari, ichkilik, oxir-oqibatda, yurtni kelgindilarning egallashiga sabab bo'ladi.

Abdurahmon Oftobachi fitnasi yuz bermaganda, o'zaro hokimiyat talashish, taxt olish poygasi bo'lmaganda, vodiydagi kuchlar jam bo'lib, yovga qarshi otlanganda Qo'qon xonligi vassal tariqasida saqlanib qolishi mumkin edi. Amal talashish, tangnazarlik, ibtidoiy urug'chilik sarqitlari xonlikning nufuzli kishilari ittifoqlashishiga mone'lik qildi. Bu o'ta bachkana kayfiyat hatto Vatan tuyg'usidan ham ustun keldi. Rossiya o'zining tahqirlovchi, ezuvchi hokimiyatini Qo'qon xonligi bo'ylab o'rnatar ekan, eng avvalo, ana shunday, kechagina bir-birini sotgan, xoinlik qilgan, amal desa or-nomusdan ham voz kechishga tayyor kimsalarga tayandi.

Qo‘qonning Shahrisabz mahallasida yashab ijod etgan, Qiyali-
soy ko‘chasida kosib oilasida tug‘ilgan G‘ofurjon qori mullo
A‘zamjon hoji o‘g‘li Kamina (1922 yilda vafot etgan) shuni nazarda
tutib:

*Ey oqsoqollar kaltasi, nafsi kolon g‘or oqsoqol,
Olamdagi bor oqsoqol sendan etar or, oqsoqol.
Hokimg‘a ta‘zim aylagay nogoh yo‘liqsa to‘nqayib,
Erga boshin yetkurmasa ta‘zimi bekor, oqsoqol.
Manga garodnushdin xabar keldi bugun jandarm o‘tar.*

Suv sep debon ahli guzar boshida barqaror, oqsoqol, – deb yoz-
gan edi.

«Ansob as-salotin va tavorixi al-havoqin» muallifi, Qo‘qon
xonligida XIX asrning oxirlarida kechgan voqealarning jonli sho-
hidi mullo Mirzo Olim ibn mirzo Rahim Toshkandiy Rossiyaning
talonchilik siyosati va uni amalga oshirgan mahalliy malaylar haqida
koyinish bilan gapiradi.

Rus ma‘murlari jamiki mirzolari to‘plab yerlarni o‘lchab,
hisobga olishni buyuradi. Muqimiyning «Tanobchilar» she‘rida
to‘g‘ri tasvir etilganidek, ular bu ishda ham g‘arazni, manfaatni
hamma narsadan ustun qo‘yadi.

Achinarli joyi shundaki, mullo Mirzo Olim o‘z kitobida ayt-
ganidek, mustamlaka hokimiyati har tanob erga 70 tiyin, yana
qo‘shimchalari 35 tiyin hisoblanib, jami 1 rublu 5 tiyindan soliq
belgilaydilar.

Inoqlar va mingboshilarning soliq yig‘uvchilari sobiq xon-
likning qishloqlaridan bir yo‘la 4 yillik soliqni to‘plaganlar.
Mirzo Olim bosqinda xonavayron bo‘lgan, bor-budidan ayrilgan
qishloqlar aholisidan 4 yil uchun olingan xiroj solig‘ining 90
foizini mustamlakachilarning malaylari bo‘lmish soliq yig‘uvchi-
lar o‘zlashtirib olganligini ta‘kidlab o‘tadi.

«Ansob as-salotin va tavorixi al-havoqin» da ruslar xizmatiga
kirgan, ularga yaloqxo‘r bo‘lgan bunday malaylarni xalq kinoya
bilan «bo‘zcha»lar deb ataganligi tilga olinadi.

Qanchalik og‘ir bo‘lmasin xalq ziyolilarida, vatanparvar, mil-
latparvar shoirlarda, olimlarda, noshirlarda istiqbolga va istiqloqga
bo‘lgan ishonch tuyg‘usi barqaror edi.

7. TURKISTONDA IMPERIYASI DAVLATCHILIGINING JORIY ETILISHI

O'rta Osiyo istilosidan so'ng, Rossiya, Pyotr I vasiyatini bajarib, jahonning eng yirik imperiyalaridan biriga aylandi. Yevropaning ilg'or jamoatchiligi XIX asr oxirida Rossiyani «beadad miqdordagi mulk o'g'risi», deb ta'riflab, «hisob-kitob vaqti kelganda, u bu mulklarni o'z egalariga qaytarishga majbur bo'ladi», deb bashorat qilgan edi.

Rossiya imperiyasi jahonning qudratli davlatlari Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya imperiyalari qatori katta mustamlakachi davlat bo'lib qoldi. Boltiq bo'ylaridan Kavkaz tog'larigacha, Ukraina dashtlaridan Uzoq Sharq va O'rta Osiyo hududlarigacha cho'zilgan yerlarda imperiyaning ikki boshli burgut tasviri tushirilgan oq-yashil bayrog'i o'rnatilib, Rossiya Polsha, Finlyandiya, Boltiqbo'yi mamlakatlari, Kavkaz o'lkasi, Boshqirdiston, Sibir va qalmoqlar yurti uning taxti tasarrufiga muhrlandi. O'z mustamlakalari hududi jihatidan endi Rossiya Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyani orqada qoldirib ketdi. Angliya mustamlakalari 13 million kvadrat kilometr, Fransiyani 11 million kvadrat kilometrni tashkil qilsa, Rossiyaning birgina Sibir mustamlakasi hududi 13 million kvadrat kilometrni tashkil qilardi. Rossiyaning Turkiston general-gubernatorligi hududi esa kengligi jihatidan Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya imperiyalari maydoniga teng bo'ldi.

Turkiston ma'muriyati imperiyaning boshqa o'lkalari boshqaruvidan o'zining keskin harbiylashgani bilan alohida ajralib turgan. Rossiya hukumatining Turkiston uchun 1865–1916 yillar davomida ishlab chiqqan va amalga tatbiq etilgan o'nta qonun loyihasi (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916)ga va uning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgartirishlarda ana shu holat o'z aksini topgan. Turkiston o'lkasi siyosiy tizimida Sankt-Peterburg oliy harbiy-siyosiy doiralarning niqoblangan va jahon afkor ommasini chalg'itishga qaratilgan nayranglari ham ro'y-rost gavdalangan. Harbiy vazirlikning Bosh shtabi Osiyo bo'limi, Ichki ishlar vazirligi polisiya departamenti, «imperator hazrati oliylarining o'z mahkamasi», Vazirlar qo'mitasi va Vazirlar Kengashining Turkiston idorasiga oid hujjatlarida Rossiya hukumati Turkiston xalqlarining «xohish-irodasi va roziligiga qarab qolmasligi» hamda «o'z faoliyatida to'la erkin bo'lishlari zarurligi» alohida uqtirilgani bejiz emas. Ana shu hujjatlarda aholi «amaldorlarga to'lanadigan maoshni o'zlari berayotga-

nidan voqif bo'lmaliklari hamda bu ishni hukumat marhamati» deb tushunishlari uchun zarur choralar ko'rish ham ta'kidlangan.

O'ika boshqaruvi zo'ravonlikka asoslangan va u doimiy usul sifatida saqlanib kelgan. Oqsuyak rus zodagonlaridan biri baron A.B.Vrevskiy ham shu zaylda fikr yuritib, «Turkiston xalklari o'zlarini boshqaruvchi va sud qiluvchi yagona hokimiyatga ko'nikkan», deya o'lkada qattiqqo'l mustabid idora zarurligiga ishora qilgani ham tasodifiy emas.

Turkistonda imperiyachilik boshqaruvining mustamlakachilik tamoyili rasman Turkistonning birinchi general-gubernatori fon Kaufmanning 1868 yil 22 yanvarda Toshkent shahri aholisi bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlagan dasturiy nutqida o'zining yaqqol ifodasini topgan edi. U mazkur nutqida ruslarni O'rta Osiyo xalklarining katta og'asi deb atab, Turkistonda bu hokimiyatning qat'iy va doimiy o'rtnashganligini alohida uqtirgandi.

Fon Kaufmanning Turkiston general-gubernatori etib tayinlanishi tasodifiy emas edi. Romanovlar sulolasi podshohlikning ishonchli xizmatkorlarini tanlashda hamma vaqt xorijdan yollanganlarga katta e'tibor bergan. Birinchi navbatda, nemis dvoryanlariga bo'lgan ishonch kuchli edi. Fon Kaufman shunday ishonchni qozongan, sinalgan, hamma lavozimlarda podshoh siyosatini ko'ngildagidek amalga oshirganlardan biri edi. Shuning uchun ham unga kuchli va qudratli hokimiyat podshoh Aleksandr II tomonidan oltin yorliq tarzida (vakolat yorlig'ining muqovasi oltindan bo'lgani uchun yorliq shunday atalgan) in'om etilgan edi.

Kaufmanning cheklanmagan ko'lamda faoliyat ko'rsatish strategiyasi 1868–1876 yillardagi harbiy yurishlarda amalga oshirildi. Bu yurishlar uning nomini Rossiyada Turkiston o'lkasining omadli generali va istilochisi sifatida mashhur qildi.

Kaufman hukmronligi davrida Turkistonda general-gubernatorlik boshqaruvi uning jilovlanmagan istibdodi asosida amalga oshirilgan. Maxfiy maslahatchi F. Girs qayd etganidek, «general-gubernatorning hokimiyati qonun bo'yicha ish yuritilishini taqoza etgan bo'lsa-da, amalda, o'zi xohlaganicha ish tutdi. General-gubernator o'ika hokimiyatining yagona boshqaruvchisiga aylangan edi. Hokimiyatni bir yo'la markazlashtirish oqibatida barcha ish qonun asosida emas, aksincha, general-gubernatorning ko'rsatmasi asosida amalga oshirildi.

Toshkent shahri qo'lga olinganidan (1865) keyin, mustamlaka sharoitidan kelib chiqqan holda, Sirdaryo hududi hamda 1864 va 1865 yillarda bosib olingan yerlar hisobiga, Orenburg general-

gubernatoriga bo'ysundirilgan Turkiston viloyati tashkil etildi. Turkiston viloyatini boshqarish uchun 1865 yil 6 avgustda «Muvaqqat nizom» e'lon qilindi. Uning asosiy maqsadi, Rusiyaning yangi bosib olingan erlarda, boshqaruvning umumiy asoslarini belgilash orqali, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'lgan. Joylarda butun hoki-miyat harbiy boshliqning qo'lida bo'lgan, ma'muriy organlarga esa mahalliy xalq ustidan nazoratni o'rnatish vazifasi yuklatilgan.

1865 yilda imperator Aleksandr II ning azmi qaroriga ko'ra, Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorligi hamda Turkiston viloyati aholisining turmushi va umumiy ahvolini o'rganish uchun «Dasht komissiyasi» tuziladi.

Dasht hay'ati tomonidan ishlab chiqilgan «Ettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqidagi qoidalar loyihasi» bo'yicha Vazirlar mahkamasi qabul qilgan qarorda quyidagilar qayd etiladi:

1. Loyihada ko'rsatilgan hududlarda Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari tarkibida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilsin.

2. General-gubernatorga o'lkani boshqarish uchun loyihada nazarda tutilgan shtatlardan kelib chiqqan holda, boshqarish uchun amaldorlar olishga imkoniyat berilsin.

3. General-gubernatorga loyihada ko'rsatilgan yerlarda, o'lkadagi mahalliy sharoit, tuzem xalqlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, so'nggi marta qonuniy tartibda ko'rib chiqish va qabul qilish uchun uning qismlari bo'yicha va yaxlit holda o'zining xulosasini berish topshirilsin. Ungacha, loyihada ko'rsatilgan holatlarni asos sifatida qabul qilib, o'lkatuzilishi uchun favqulodda muhim va foydali deb hisoblangan hamma choralarni ko'rish topshirilsin».

1873 yil boshida Turkiston o'lkasidagi viloyatlarning barcha boshliqlari ishtirokida loyihadagi qoidalar qayta ko'rib chiqilgan-dan keyin qonun loyihasi harbiy vazirlikka yuboriladi.

Fon Kaufman loyahasining tahrir etilgan nusxasida Rossiyaning boshqa o'lkalaridagi general-gubernatorlaridan farqli o'laroq, Turkiston general-gubernatorining huquq va imtiyozlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Jumladan, u Turkiston o'lkasida harbiy vazirlikka bevosita bo'ysundirilgan barcha vazirliklar organlarini ta'sis etishni taklif etgan edi.

1878 yil o'rtalarida harbiy vazirlik Turkiston general-gubernatoriga vazirliklarning taklif va mulohazalarini, shuningdek, Farg'ona viloyati va Amudaryo bo'limini hisobga olgan holda, loyihani to'ldirish va qayta ishlashni taklif etdi.

1881 yilda harbiy vazirlikda Turkiston general-gubernatorligi sarf-xarajat smetasi ko'rib chiqilayotganda boshqarish bo'yicha

xarajatlarni qisqartirish va uning daromaddarini oshirish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Turkiston general-gubernatori etib tayinlangan general-leytenant M.G.Chernyaev (1882–1884) taklifi bilan 1882 yil 8 mayda imperatorning Turkiston general-gubernatorligini taftish qilish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Taftish ishlarini olib borishga rahbar etib Ichki ishlar vazirligi kengashi a'zosi, Dasht komissiyasining sobiq raisi, maxfiy maslahatchi F.K.Girs tayinlandi. Girs 1883 yilda taftish ishlarini tugallab, imperatorga general-gubernatorlik va unga qarashli tashkilotlarning ahvoli to'g'risidagi hisobotni, «O'lkani boshqarish to'g'risidagi nizom loyihasi»ni tushuntirish xati bilan birga taqdim etdi. 1884 yil 21 yanvarda imperator Aleksandr III ning ko'rsatmasi bilan Davlat Kengashi a'zosi, general-ad'yutant, graf N.Ignatev raisligida «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom»ning qayta ishlangan so'nggi loyihagini ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Graf Ignatev komissiyasi tarkibiga Girs boshchiligidagi hay'at a'zolari, 1881 yilgi loyihani tuzganlar, Osiyo departamenti maxfiy maslahatchisi Kobeko, Bosh shtabning Osiyo bo'limi boshlig'i polkovnik Ivanov, general-mayor A.N. Kuropatkin (bo'lajak harbiy vazir) va boshqa yuqori martabali shaxslar a'zo bo'ldilar. Komissiya kengashida general-leytenant Chernyaev o'rniga tayinlangan Turkiston general-gubernatori, general-ad'yutant N.O. Rozenbax (1884–1889) ham ishtirok etadi.

Chorizmning oliy doiralari tomonidan tuzilgan komissiyaning asosiy vazifasi «O'lkani Rossiyaga qat'iy qaram qilib qo'yish maqsadlari va uni boshqarishda xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni esa oshirishga, shuning bilan birga, fuqarolarni boshqarish talablariga va joylarning shart-sharoitlariga to'g'ri keladigan nizom» tuzilishini amalga oshirishdan iborat edi.

Komissiya o'z ishiga Girs tomonidan ishlab chiqilgan Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi va general-leytenant Kolpakovskiy rahbarligidagi Toshkent komissiyasiga takdim etilgan 1881 yilgi nizom loyihagini hamda Turkiston ma'muriyatining oldingi barcha loyihalarining xulosalarini asos sifatida qabul qiladi.

Graf Ignatev komissiyasining «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom loyihasi» o'lkani boshqarish bo'yicha tuzilgan oltinchi loyiha edi.

Imperator tomonidan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom» 1886 yil 12 iyunda tasdiqlangandan keyin ham ma'muriy qurilish bo'yicha e'tirozlar davom etdi. Ammo imperator

Turkiston o'lkasida sobiq general-gubernatorlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda unga ba'zi o'zgartishlar kiritdi.

«Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom» bo'yicha Turkistonning viloyatlarga bo'linishi, harbiy vazir fikricha, aholining etnografik, maishiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganish asosida emas, balki o'lkani bosib olish jarayoni bilan bog'liq holda amalga oshirildi. Uezdlarga bo'linish esa aholining Rossiya bosqiniga bo'lgan markazlarida tashkil etilgan edi. «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom»da ko'rsatilganidek, sud hokimiyatini ma'muriyatdan to'liq ajratish tamoyili Turkiston general-gubernatori baron Vrevskiyning fikricha, «Yangi Yevropa qonunchiligining natijasi bo'lib, uni Rossiya aholisiga ham, shuningdek o'z hukumatining qullik zulmidan xoli bo'lgan O'rta Osiyo xalqlariga ham tadbiiq etib bo'lmaydi».

Shunday qilib, Turkiston o'lkasida Rossiya hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to'ldirilib, o'zgartirilib turildi. Buning siri juda oddiy edi. Chor Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruvi tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi. Imperiya asoschisi Pyotr I ning armonini qondirgan holda o'zbek xonliklaridagi ming yillik davlatchilik zaminlarini qo'porishni ko'zlagan edi. Asosiy maqsad butun jahonga tanilgan Amir Temur saltanati vorislarini tobe qullarga aylantirish, xalqlarini esa sekin-asta ruslashtirish jarayoniga tortib, ko'hna Turon zaminni imperiyaning chekka guberniyalaridan biriga aylantirish edi. Imperiyachilar qachonlardir, aniqrog'i XIV asr oxirida sohibqiron Amir Temur rus knyazliklarini o'ziga tobe qilib, Moskva ostonasida barchaga dahshat solganini sira unutishmagan. Rus solnomalarida muhrlangan bu dahshat ularda adovat cho'g'ini alangalatgan.

Qo'sh boshli burgut ramzi tushirilgan Rossiya imperiyasi tug'i Amir Temur vatani zaminiga qadalgach, imperiyachilar asriy orzularini amalga oshirishga qatibyan kirishdilar.


Sankt-Peterburgning siyosiy doiralari harbiy-mirshablik tartiblarini o'lkada qo'llashlari zaruratligini quyidagicha izohlaganlar: «Turkiston tuzem aholisi hali juda quyi aqliy taraqqiyot bosqichidadir. Ular xuquq, ma'muriyat, qonun nimaligini bilishmaydi. Jamiyat qonun tomonidan beriladigan huquqdan foydalanishni bilmaydi, bu huquq uning zarariga xizmat qiladi». Ana shunday kalondimog'lik va mensimaslik nuqtai nazaridan kelib chiqilgan holda Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimi yuzaga kelgan edi. O'lka

idorasi markaziy, viloyat, tuman (uezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi.


Binobarin, Markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernator, uning kengashi va mahkamasidan iborat bo'lgan.

Quyida chorizmning Turkistonda amalga oshirgan hukmronlik boshqaruv tizimi maxsus jadvallarda berildi. Ular tadqiqot materiallari tahlili asosida tuzilgan bo'lib, mualliflarning ilmiy xulosalari natijasidir:


I. Markaziy boshqaruv



II. Viloyat boshqaruvi




III. Tuman boshqaruvi




IV. Shahar boshqaruvi


a) tuman shaharlari idorasi




b) Toshkent shahri idorasi



V. Qishloq boshqaruvi




VI. Shariat qozisi («xalq sudi»)




VII. Mirshablik boshqaruvi

a) *Mustabid idora usulining mirshablik amaliyoti*




**b) Rus imperiyasi Ichki ishlar vazirligi polisiya departamenti
organi – Turkiston tuman muhofaza bo'limi
(maxfiy siyosiy polisiya – oxranka) – TRMB**


I. Shaxsiy tarkib



**2. Turkiston o'lkasi TRMBga bo'ysunuvchi polisiya-jandarm
Boshqarmasi bo'limi**



VIII. Aleksandr II tomonidan 1864 yilda sud nizomlarining joriy etilishidan so‘nggi umumsaltanat sudi (XX asr boshlari)



Jadvallardan ko‘rinib turganidek, Turkiston general-gubernatori o‘z qo‘lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning o‘zida u podsho noibi, harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni, Ettisuv kazak qo‘shinlari atamani, bosh mirshab, bosh prokuror vazifasini ham o‘tagan. Unga Buxoro amiri va Xiva xoni ham bo‘ysungan. General-gubernator vassallari bo‘lmish Buxoro amirini Rossiya imperator agentligi (1885–1917), Xiva xonini esa Amudaryo bo‘limi (1873–1918) boshligi orqali nazorat qilgan. 1882–1884 yillarda Turkiston o‘lkasidagi boshqaruvni atroflicha taftish qilgan markaz vakili – imperatorning maxfiy maslahatchisi F. Girs general-gubernatorning Rossiyadagi kasbdoshlaridan farqli o‘laroq, Turkistonda mustabid hokim ekanligi, imperiya qonunchiligiga mutlaqo rioya qilmay, o‘zicha qonunlar chiqargani va o‘z maylicha hukm yuritganini e‘tirof qilgan edi. Xarbiy gubernatorlar, sud palatasi raisi, prokuror, okrug shtabi boshlig‘i, general-gubernator yordamchisi, general-gubernerator Kengashi o‘lka boshqaruvining muhim masalalarini o‘zlaricha hal qilgan.

Markaziy boshqaruvda general-gubernator mahkamasining ham ahamiyati beqiyos katta bo'lgan. Bosh boshqarmaning ijroiya organi bo'lgan general-gubernator mahkamasi dastlab to'rt bo'limdan iborat edi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat ishlarini boshqargan. Ikkinchisi bosh boshqarmaning moliyaviy-xo'jalik ishlariga qaragan. Uchinchi bo'lim esa soliqlar, shaharlar mablag'lari hamda boshqaruvga doir nizomlar loyihalarini tayyorlash bilan shug'ullangan. To'rtinchi bo'lim maxsus bo'lim bo'lib, uning faoliyat doirasi g'oyat keng va serqirra bo'lgan. 1886 yilgacha mustaqil ish ko'rgan bu bo'lim harbiy va adliya vazirlari ko'rsatmalariga xilof ravishda sud qarorlarini ham qayta ko'rish bilan shug'ullangan.

Rossiya imperiyasi guberniyalaridagi biron-ta tashkilot general-gubernator mahkamasidek cheklanmagan vakolatlarga ega bo'lmagan. Maxfiy maslahatchi Girsning so'zlariga qaraganda, Kaufmaning mahkamasi imperiya qonunlarini ham cheklovchi o'z qonunlarini chiqargan.

General-gubernatorning o'zi Afg'oniston va Koshg'ar masalalari bo'yicha shug'ullanuvchi elchilik bo'linmasini ham 1899 yilgacha boshqarib turgan. 1899 yildan esa bu vazifani bajarish uchun general-gubernator huzurida diplomatik ishlar bo'yicha maxsus lavozim joriy qilinadi. Turkiston ommaviy kutubxonasi, Toshkent muzeyi, markaziy arxiv, «Turkestanskije vedomosti» gazetasi va bosmaxonasi ham mazkur mahkama ixtiyoriga berilgan edi.

General-gubernator bepoyon o'lka hayoti bilan asosan mahkama boshqaruvi orqali tanishib borgan. Shuning uchun ham bu idora o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Mahkama o'lka hokimi uchun axborotnoma, ma'ruza va ma'lumotnomalar tayyorlagan, general-gubernatorning shaxsiy manfaatlarini ko'zlab ish yuritgan. Shuning uchun ham mahkama boshqaruvchisi general-gubernatorlikdagi eng nufuzli amaldorlar qatori yuksak mavqeda turgan.

Turkiston o'lkasi Markaziy Bosh boshqarmasi tarkibida general-gubernatorga bo'ysunmaydigan markaz vakillari – adliya, moliya, ziroat va davlat mulklari vazirliklari idoralari ham bo'lgan.

Turkiston general-gubernatorligi XX asr boshlariga kelib besh viloyatga bo'lindi: Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari. Ularni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshohning o'zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan. Ular harbiy va fuqaro hokimiyatini o'z qo'lida tutishgan. Harbiy sohada ular viloyatlardagi qo'shinlar (diviziya yoki korpus) qo'mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo'lishgan.

Barcha ma'muriy, polisiya va sud hokimiyati ham ularning izmida bo'lgan.

Harbiy gubernatorlar qoshida viloyat boshqarmalari bo'lib, ular guberniya boshqarmasi huquqlariga ega bo'lishgan. Viloyat ijtimoiy hayotining barcha masalalari shu boshqarmalarda ko'rilgan. Viloyatlar o'z navbatida tumanlarga (uezdlarga) bo'linib, ularni tumanboshilar idora etishgan. Tumanlar Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy tuzilmasining asosini tashkil etgan. Ular aholining turmushi, hududning xususiyatlari, millatlari yo elatlaridan qat'i nazar, rus amaldorlari xohishicha o'zboshimchalik bilan tuzilavergan. Podsho hukumati milliy, elat va tarixiy xususiyatlardan kelib chiqmagan holda, mustamlakachilik nuqtai nazaridan bu masalaga yondoshgan.

O'lkaning tub viloyatlari hisoblangan Sirdaryo, Farg'ona, Samarqanddan tashqari Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari ham shu asosda tumanlarga bo'linib idora qilingan.

Sirdaryo viloyati quyidagi tumanlarga bo'lingan: Toshkent, Avliyoota, Qozoli, Perovsk, Chimkent. Amudaryo tumani ham shu viloyatga bo'ysungan. Farg'ona viloyatiga Marg'ilon, Andijon, Qo'qon, Namangan, O'sh tumanlari qaragan. Samarqandga Jizzax, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, Samarqand tumanlari; Ettisuvga Verniy, Jarkent, Kopal, Lepsinek, Pishpak, Prjevalsk; Kaspiyorti viloyatiga Ashxobod, Krasnovodsk, Mang'ishloq, Marv va Tajan tumanlari kirgan.

Har bir tuman o'z tarkibidagi shahar va qishloqlari bilan tuman hokimi – tumanboshiga bo'ysungan. Tumanboshi Rossiyadagi ispravnik, zemstvo boshlig'i, polismeyster, shahar boshqarmasi boshlig'i huquqlariga teng bo'lgan. Tumanboshi viloyat harbiy gubernatori tavsiyasi bilan bevosita gubernator tomonidan tayinlangan.

Turkiston o'lkasidagi tumanboshilarning Rossiyadagi hamkasblaridan farqli tomonlari shunda ediki, ular ma'muriy, polisiya va harbiy hokimiyatni o'zlarida birlashtirganlar. Tumanboshilarning juda keng vakolatlari va o'ta mustaqil hamda zo'ravonlarcha ish yuritishlarini yuksak lavozimda turgan rus amaldorlari e'tirof etishgani diqqatga sazovordir. Senator graf K.K. Palen Turkiston tumanboshilarini o'zbek xonliklaridagi «beklarning huddi o'zginalaridir», deb atagani bejiz emas. Ular qo'l ostidagi aholidan istagan kishiga jarima solishlari va 7 kungacha qamab qo'yishlari mumkin bo'lgan.

Tumanboshilar rus armiyasi katta zobitlaridan, asosan mayor, rotmistrdan to polkovnik unvonigacha bo'lganlardan tayinlangan. Xalq ularni «hokim to'ra» deb atagan.

Tumanlar bir necha jabha (uchastka)larga bo'linib idora qilingan. Jabhalarni kichik unvondagi (poruchik, shtabs-kapitan) harbiy zobitlar boshqarishgan. Ular jabha pristavlari nomi ostida «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom»da tilga olinadi. Imperator tomonidan 1886 yilda tasdiqlangan bu «Nizom»da jabha pristavlariga mahalliy aholidan istalgan odamga jarima solish (5 rubldan 10 rublgacha) va 3 kungacha hibsdan saqlab turish huquqi berilgan edi. Jabha pristavlari «harbiy – xalq boshqaruvi»dagi harbiy bo'g'inning eng quyisi bo'lib, ularga «mahalliy o'z-o'zini boshqaruv», ya'ni «xalq boshqaruvi» amaldorlari – volost boshqaruvchilari, qishloq oqsoqollari, yuzboshi hamda ellikboshilar bo'ysunishgan.

Turkiston o'lkasida podsho ma'muriyati qishloq boshqaruvini «erli» (tuzemnoe) va «rus» kabi ikki toifaga ajratgan. Rus amaldorlari «erlilar» (tuzemes) atamasi bilan Turkistondagi barcha o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, qoraqalpoq, arab, uyg'ur va dunganlarni tushungan. Turmush tarziga ko'ra esa, rus amaldorlari barcha aholini ikkiga: «qirg'izlar» va «sartlar»ga bo'lishgan. Qirg'izlar deganda ko'chmanchi, sartlar deganda o'troq aholi nazarda tutilgan.

Chor hukumati siyosiy nuqtai nazardan kelib chiqib, qishloq, uning boshqaruvini mahalliy va rus boshqaruvi sifatida ajratib, uni asta-sekin umumimperiya turidagi ruscha idoraga o'tkazishni ko'zladi. Shu maqsadda O'rta Osiyoga mutlaq yot bo'lgan geografik islohn boshlab, volost, qishloq yig'ini kabilarni joriy qildi. 1867 yildagi «Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarini boshqarish haqidagi Vaqtli Nizom loyihasi» deb atalgan qonunlar majmuasiga ko'ra, ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqolliklar) boshqaruv tarzi joriy qilindi.

Volost asosini mingdan ikki ming xonadongacha, ovul jamoalarini esa yuz o'tovdan ikki yuz o'tovgacha aholi tashkil etgan. Chorizm shu bilan ko'chmanchi aholining urug'chilik asosidagi tarixiy bo'linishiga xotima bermoqchi bo'ldi.

Rus amaldorlaridan iborat hay'at uzoq vaqt davomida qishloq ma'muriyatini tashkil qilish harakatida Turkiston aholisining birinchi umumiy ro'yxatini oldi. Natijada soliqlar miqdori oshdi, aholi tumanlar, jabhalar, volostlarga taqsimlanib, ilk bor saylovlar asosida mahalliy ma'muriyat saylandi.

Volost boshqaruvchisi – mingboshi, qishloq oqsoqoli, ovul starshinasi aholi tomonidan uch yilga saylanar, ularning nomzodlari esa rus ma'muriyati tomonidan tasdiqdan o'tardi.

Saylovchilar yig'inida har o'n xonadon, yo o'n o'tovdan vakil ishtirok etib, ular o'nboshi sifatida qishloq oqsoqoli yoki

ovul starshinasi va ularning muovinlarini saylashgan. Volost boshqaruvchisi – mingboshini esa har 50 xonadon yoki 50 o'tovdan tayinlangan vakillar – ellikboshilar yig'ini saylagan. Bu tartibga 1886 yilda bir necha o'zgarishlar kiritildi. 1886 yilda kuchga kirgan yangi qonunlar majmuasi – «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» o'troq aholining bir bosqichli boshqaruvini ikki bosqichliga aylantirib, oqsoqolliklarni volostlarga birlashtirdi. Ovul jamoalari va oqsoqolliklar vakillari yig'ini umum saylovchilar yig'ilishi bilan almashtirildi. Ellikboshilarning volost yig'iniga har 50 xonadondan vakil qilib yuborilishi butun qishloq yo ovul yig'inidan har 50 xonadondan vakillar saylash bilan o'zgartirildi. Rus ma'muriyatiga, harbiy gubernator va general-gubernatorga saylov bekor qilinganda qishloq ma'muriyati vakillarini bevosita tayinlash huquqi berildi. 1886 yilgi «Nizom» avvalgidek aholini «qirg'izlar va sartlar» sifatida emas, balki «o'troq va ko'chmanchi» degan atama bilan ajratdi.

Volost boshqaruvchisini saylovchilar vakillarining qurultoyi saylagan. Qurultoy vaqtini va o'tkaziladigan joyini tumanboshi belgilagan. Saylov arafasida tumanboshi yoki uning yordamchisi ro'yxat bo'yicha ellikboshilar sonini aniqlangan, chunki qurultoyda saylovchi vakillarning uchdan ikki qismi ishtirok etmasa, u kuchga kirmagan hisoblangan.

Saylov yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilib, ovozlari qutiga tashlangan soqqalar vositasida aniqlangan. Ellikboshilar birma-bir tumanboshi oldida turgan usti yopiq quti oldiga kelib, o'zlari istagan nomzodning ismi-sharifini aytishgan va qo'llaridagi taqsimchadagi soqqani qutiga tashlashgan. Bu marosim barchaning ko'z oldida ochiq o'tgan va uning yakunida kim ko'p ovoz olgani e'lon qilingan. Ovoz berish natijalari qog'ozda barcha ellikboshilarning muhri va imzosi bilan muhrlangan va tumanboshi yoki uning yordamchisi tomonidan tasdiqlangan.

Volost qurultoyi ikki nomzodni saylagan, biri volost boshqaruvchisi, ikkinchisi unga nomzod bo'lgan. Harbiy gubernator qurultoydagi saylov natijasini ko'rib chiqib, nomzodlarni tasdiklagan. U tasdiqlamagan taqdirda, qurultoy qayta chaqirilgan yoki lavozimga to'g'ridan-to'g'ri gubernator tanlagan shaxs qo'yilgan. Shu yo'sinda mahalliy boshqaruv tizimi rus ma'muriyati qo'lida saqlangan. Volost qurultoyi volost boshqaruvchisiga maosh belgilagan. Uning miqdori odatda 300 rubldan 500 rublgacha bo'lgan.

Qishloq oqsoqollari, nomzodlari va oqsoqol yordamchilari qishloq jamoasi tomonidan bevosita volost boshqaruvchisi ishtirokida saylangan. Ularni lavozimga tumanboshi tasdiklagan. Qishloq

jamoasi yig'ini ularga yiliga 200 rubldan maosh belgilagan. Yig'in ariqlarga qarovchi miroblarni ham saylab, ularga maosh tayinlagan. Katta ariqlarni to'g'ridan-to'g'ri harbiy gubernator tomonidan tayinlanadigan ariq oqsoqollari boshqarib, ular irrigasiya mudiriga itoat qilishgan.

Rus ma'muriyatining aholiga «o'z-o'zini boshqarish» va «saylov huquqini berishi» g'irt siyosiy lo'ttibozliqdan iborat bo'lib, aslida ishning tizgini ularning qo'lida qolgan. Xuddi shunday usul shaharlar boshqaruvida ham o'z aksini topgan.

Turkiston o'lkasida viloyat va tuman boshqarmalari shaharlarda joylashgan. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan va Ashxobod o'lkaning asosiy shaharlari hisoblangan. Ana shu qadimiy shaharlardan tashqari, Chimkent, Jizzax, Termiz va Kattaqo'rg'on kabi shaharlar ham mavqe tuta boshlagan edi. Bundan tashqari, chor qo'shinlarining istilochilik yurishlari natijasida vujudga kelgan shaharlarni ham aytish lozim. Rus zobitlari kazarmalar torligidan qo'shin manzilgohi atrofida o'zlari uchun uy qurib olishgan. Ko'chganda ularni yangi kelganlarga sotib ketishgan. Iste'foga chiqqan katta-kichik zobitlar, quyi unvondagi harbiy xizmatchilar ma'lum mulkka ega bo'lib, o'sha joylarda qolaverishgan. Bu hol mustamlaka ma'muriyati xodimlari o'rtasida ham ro'y bergan. Ular xizmat joyida muqim qolib ketishgan. Huddi shunday kishilar, o'lkada qolgan birinchi ruslar asosan harbiy xizmatchilar edilar. Qo'shinlar ortidan yurgan savdo ahli ham doimiy manzilgohlarda qolib faoliyat ko'rsatganlar. Qozoli, Perovsk, Petro-Aleksandrovsk kabi shaharlar shu tariqa vujudga kelgan edi.

Bosib olingan shaharlarda ruslar uchun maxsus ajratilgan dahalar paydo bo'ladi. Shaharlar tuzilishi va ularni ruslashtirishga podsho hukumati katta ahamiyat qaratgan edi. Ana shu maqsadda, dastlab, Ettisuv viloyatidagi Seriopol va Kopal shaharlariga maxsus imtiyozlar berildi. Bu shaharlardagi xunarmandchilik korxonalari va fabrikalar ochgan kishilar barcha soliqlar hamda harbiy majburiyatlardan ozod etildi. Savdo-sotiq, sanoat, hunarmandchilik uchun imtiyozlar yaratildi. Bunday mavqega Sirdaryo viloyatining Toshkent, Xo'jand, Jizzax, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Perovsk, Qozoli kabi shaharlari ham erishdi. Bu imtiyozlar shaharlarning barcha aholisiga emas, balki faqat ruslarigagina berildi. Oliy harbiy-siyosiy doiralar «musulmon aholisini kuchaytirib yubormaslik uchun ularni imtiyozlardan maxrum etish o'rinli bo'ladi», deb ochiqdan-ochiq aytishgan.

Turkiston shaharlari ichida general-gubernatorlikning siyosiy, ma'muriy va madaniy markazi Toshkent boshqaruvida mustamlaka

ma'muriyati alohida e'tibor berdi. Shahar bosib olingandan (1865) keyin general-mayor Romanovskiy zobitlar va amaldorlar uchun uning sharqiy qismidan joy tanladi. «Rus Toshkenti»ni barpo etish uchun maxsus qo'mita tuzildi. Qo'mitaning ikki yillik faoliyati (1866–1868) davomida mahalliy aholining yuzlab uy-joylari buzib tashlandi, musodara qilingan hududda zobitlar hamda ularning oilalari uchun turar joylar, ko'chalar va oromgohlar barpo etildi. Shu tarzda ko'hna Toshkent bag'ri ikkiga bo'lib tashlandi. Ruslar istiqomat qiluvchi qism yangi shahar, o'zbeklar yashaydigan qism «Eski shahar», deb atala boshlandi. Eski shahar aholisiga yangi shaharga o'tish qat'iy man etildi.

Yangi shaharda qator zamonaviy binolar, istirohat bog'lari va boshqa katta obodonchilik ishlari olib borildi, lekin yuz ming aholisi bo'lgan eski shahar o'sha xonlik zamonida qanday bo'lsa, shundayligicha qolaverdi. Uning obodonligi uchun hech qanday mablag' ajratilmadi. XIX asrning 70-yillarida Toshkent boshqaruvini o'zgartirish haqida Turkiston ma'muriyati harakat boshladi. Chunki birgina shahar boshlig'i – hokim idorasi rivojlanib va kengayib borayotgan shahar xo'jaligini boshqarishga qodir bo'lmay qoldi.

1872 yilda Sirdaryo viloyat boshqarmasining umumiy rayosati Toshkentda «Shahar nizomini qo'llash» masalasini ko'tarib chiqdi. Rossiya ichki gubernalarida 1870 yildan qo'llana boshlagan «Shahar nizomi»ni mustamlaka ma'muriyati manfaatlariga mos ravishda o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish asosida Toshkentda joriy etilishiga doir loyiha tayyorlandi. Polkovnik Fridriks boshchiligidagi maxsus komissiya uni atroficha muhokama qildi.

Toshkent shahrida Nizomni joriy etish masalasi byurokratik rus apparatida uzoq sarsonlikdan keyin besh yil o'tib, Sankt-Peterburg mahkamalarining «ruhsati oliysi» olingandan keyin hal bo'ldi. Shahar nizomini qo'llash bo'yicha Vaqtli komissiya tuzilib, u 1877 yildan ish boshladi. Mustamlakachi oliy amaldorlardan tashkil topgan komissiya saylovchilar ro'yxatini tuzib ularni tabaqalarga bo'ldi. Mulk miqdoriga qarab, saylovchilar uch tabaqaga ajratildi. 3000 rubldan ortiq qo'zg'almas mulkka ega bo'lganlar birinchi, 1000 rubldan ortiqlari ikkinchi, 500 rubldan ziyod mulk egalari uchinchi toifaga kiritildi. Mustamlakachilik nuqtai nazaridan yangi shahar qismida mulk senzi mulk qiymatining bir foizi sifatida belgilandi. Shahar ziyolilari, ishchilar va hunarmandlarning qo'zg'almas mulkka ega bo'lmaganlari saylov huquqidan mahrum etildi. Har bir toifa shahar boshlig'i – hokim to'ra raisligida saylov yig'inini tuzdi. 2400 saylovchi ishtirokida o'tgan yig'inda shahar dumasi va boshqarmasi

saylandi. Shaharni boshqaradigan noiblar (glasniy) sonini belgilashda ham eski shaharga nisbatan adolatsizlik qilindi. Ozchilikni tashkil qilgan ruslardan esa noiblarning uchdan ikki qismi saylanganligi dalili buni yaqqol ko'rsatadi.

Shahar dumasii farmoyish beruvchi, noiblardan (glasniy) saylanuvchi boshqarma (uprava) esa ijroiya hokimiyatga ega bo'ldi. Mustamlakachilar o'zlaricha imperiyada amal qiluvchi Nizomga o'zgartirishlar kiritishib, shaharning «o'z-o'zini boshqaruvi» ustidan nazorat qiluvchi «Shahar ishlari bo'yicha viloyat idorasi (prisutstvie)» tuzishib, raisligiga Sirdaryo harbiy gubernatorini tayinlashdi. Sankt-Peterburg «sartlar hali o'z-o'zini boshqarishga tayyor emas», degan fikrda ish ko'rdi. Toshkent shahar dumasidagi «qoidalar va o'zgartirishlar» shuning uchun ham qizg'in qo'llab-quvvatlanib, imperator Aleksandr III tomonidan 1888 yilda rasman tasdiqlandi. Shahar o'z-o'zini boshqaruvi timsoli bo'lgan

Toshkent dumasii faoliyati ustidan podsho hukumati shaxsan general-gubernatorning o'zi nazorat qilishini buyurdi. Sankt-Peterburgning oliy hukmron doiralari shahar nizomida belgilangan ichki ishlar vaziri huquqini Turkistonda qo'llashni harbiy vazir zimmasiga yukladi. Toshkent dumasii oqsoqoli (golova) bevosita markaz tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Shahar boshqarmasi a'zolarining uchdan ikki qismi ruslardan, bir qismi esa rus tilini biluvchi «tuzemes»-lardan bo'lishi shart qilib qo'yilganligini ta'kidlash joizdir.

Toshkent shahar dumasining oqsoqoli vazifasini 1877 yildan 1907 yilgacha shahar boshlig'i – hokim to'raning o'zi boshqargani ham mustamlaka ma'muriyatining qiyofasini ko'rsatib turibdi. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori 1885 yil 15 sentyabrda podshoga yo'llagan maktubida yana ham kengroq huquq berilishini so'rab yozadi: «Shaharning ma'muriy – polisiya hokimiyatiga... to'la itoatkorligini hisobga olib, ana shu itoatkorlik qonunlashtirib qo'yilsa, ya'ni shahar oqsoqoli lavozimi shahar boshlig'i lavozimi bilan qo'shib yuborilsa...». Amalda shunday bo'lganini ziyrak zamondoshlardan biri bunday e'tirof etgan: «Saylanadigan shahar oqsoqoli tuzemeslar ko'z o'ngida doimo boy, savdogar qiyofasida gavalansa, shahar boshlig'i esa hokim to'radir».

Rossiya imperiyasida amalda bo'lgan shaharga oid ikkita nizom (1870, 1892 yilgi) Turkistonda faqat Toshkent va Yettisuvdagi Verniy (hozirgi Almati) shaharlarida qo'llanilib, boshqa shaharlarda joriy etilmadi. Rus ma'muriyati Toshkent tajribasi «bu chorani Turkiston o'lkasidagi boshqa shaharlarga qo'llashning foydasi haqida fikr yuritishga erta» degan tahqiromuz xulosaga kelgan edi.

Chorizmni, rus xalqlarvarlari, «mirshablik podshohligi» deb atagani bejiz emas. Ana shu polisiya tuzumiga suyangan podshoh hukumati Turkiston o'lkasi idorasini eng quyi bo'g'inidan oliy bo'g'inigacha o'z qo'lida tutgan. General-gubernatorning o'zi bosh mirshab vazifasini o'tagan. Hokimi mutlaq general-gubernator o'lkadagi istagan odamini, xoh o'zbek, xoh rus bo'lishidan qat'i nazar, imperiyaning chekkalariga 5 yil muddatgacha surgun qilishi huquqi qonunan mustahkamlangan edi. U harbiy bo'lmagan fuqarolar ustidan harbiy sudlar hukmini tasdiqlashdek ichki ishlar vaziri vakolatlarini ham o'z qo'lida jamlagan. Viloyatlarning harbiy gubernatorlari, tumanboshilar, qasaba pristavlari ham polisiya generallari va zobitlari vakolatlariga ega bo'lganlar. Bundan tashqari, o'lkada ichki ishlar vazirligining idoralari, uning vakillari ham shunga muqobil tarzda ish ko'rishgan.

Turkiston shaharlarida polismeyster lavozimi joriy etilib, ularning huquqlari tumanboshilar huquqlari bilan barobarlashtirildi.

Toshkentda yangi va eski shahar polismeysterlari ish olib borgan. Ularga polisiya pristavlari bo'ysungan. Mahalliy ma'muriyat – volost boshqaruvchilari va oqsoqollar ham quyi mirshablik zobitlari vakolatlariga ega bo'lib, ularga yollangan mirshablar xizmat qilgan.

Turkistondagi adliya boshqaruvida ham o'ziga xos mustamlakacha mezonida ish tutildi.

1867–1886 yillar mobaynida o'lkada umumsaltanat rus sudlari va xalq sudlari, ya'ni shariat asosida ish ko'ruvchi qozi sudlari faoliyat ko'rsatar edi. Rus sudlariga tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, mirovoy sudyalari qurultoylari, harbiy sud komissiyalari kirgan. Tuman sudyalari mulkdan mahrum etishga daxldor bo'lmagan jinoiy ishlar, davlat xazinasi manfaatlariga oid bo'lmagan 2000 rublgacha mikdorda bo'lgan da'volarni ko'rishgan. Viloyatlar boshqarmalari esa tuman sudlari hukmlaridan shikoyatlar, qayta qurish kabi masalalarni hal qilgan. Davlat vazifalarini bajarishdagi jinoyatlar, hokimiyatga qarshilik ko'rsatish, qaroqchilik, davlat mulkini o'g'irlash, soxta pul yasovchilarning ishlari kabi tuman sudlari vakolatlariga kirmagan ishlarni ham ko'rishgan. Marg'ilon, Samarqand, O'sh kabi shaharlarda faoliyat ko'rsatgan harbiy sud komissiyalari esa harbiy jinoyat ustaviga asoslanib, davlatga xiyonat, hokimiyatga qarshilik, pochta, telegrafga hujum, nasroniylarni o'ldirish, mansabdor shaxslarga nisbatan qotillik qilish, o'zga dindagilarni nasroniylikka o'tgani uchun ularni o'ldirishga oid ishlar, rus millatiga mansub kishilarning jinoyatlarini ko'rish bilan shug'ullangan.

Rasman «xalq sudlari» deb atalgan qoziyu quzzotlar shariat qonunlari asosida mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining fuqarolik va jinoiy ishlarini ko'rishgan. Lekin davlat ahamiyati kasb etadigan, shuningdek, siyosiy ishlar ularning vakolat doirasiga kirmagan.

1886 yilda tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» mavjud sud tartibini saqlab qolgan holda unga ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Tuman sudlari bekor qilinib, ularning o'rniga murosa (mirovoy) sudlari joriy etildi. O'lkada viloyat sudlari tashkil qilinib, ularga murosa sudyalar vazifalari yuklandi. Viloyat sudi avvalgi viloyat boshqarmalari ixtiyorida bo'lgan vakolatlarni oldi va murosa sudlari hal etuvchi masalalarni ko'rish huquqiga ham ega bo'ldi.

Viloyat prokurori va uning o'rindoshi, sud tergovchisi lavozimlari joriy qilindi. «Nizom» rasmiy ravishda sudning hokimiyatdan mustaqil bo'lishini qonunlashtirgan bo'lsa ham, amalda u bir butun hokimiyatni o'z qo'llarida tutgan harbiy ma'muriyatning kuchli ta'sirida qolaverdi.

Imperiya sudlarida rus hokimiyatiga bevosita va bilvosita qarshi qaratilgan mahalliy aholi vakillari ishlari ko'rilgan. Ruslarga qarshi jinoyat qilgan o'zbeklar yoki ruslar bilan birga noqonuniy ishga qo'l urgan o'zbeklarni shu sudlar jazolagan. Rus qishlog'i, shahar qismi va umuman ruslar istiqomat qilib turgan yerlarda jinoyat qilgan o'zbeklar imperiya sudida javobgarlikka tortilgan. Turli millatlarga mansub kishilarning jinoyatlari ham rus sudida ko'rilgan. Shu tariqa tub aholining rus yoki qozi sudida sudlanishi 1886 yilgi Nizomga qo'ra quyidagicha belgilangan:

1. Ayblanuvchining u yoki bu millat, yo elatga mansubligiga qarab;

2. Sodir etilgan jinoyat turiga ko'ra;

3. Jinoyat sodir bo'lgan hududga ko'ra;

4. Jinoyat kimga va nimaga qarshi qaratilganiga ko'ra.

Huddi ana shu belgilarga ko'ra jazo belgilangan va jinoyat rasman shariat asosidami yo Rossiya imperiyasi jinoiy qonunlariga ko'ra belgilanishi aniqlangan.

Turkiston o'lkasidagi qonunchilik bo'yicha yana bir yangilik 1898 yilda sodir bo'ldi. Chor hukumati 1864 yilgi sud islohotini 33 yildan keyingina mustamlaka Turkistonda amalga oshirishga kirishdi. 1864 yil 20 noyabrda Rossiyada joriy etilgan sud islohoti sudni qonunchilik, ijroiya hokimiyatdan ajratish, ko'riladigan ishlardagi oshkoralik va maslahatchilar ishtiroki kabi bir qator ilg'or burjuacha tartiblarni amalga oshirgan bo'lib, buning natijasida

ikki sud tizimi dunyoga keldi. Ulardan birinchisi saylanib qo'yiladigan sudyalari sudlar, mirovoy sudya va mirovoy sudlar qurultoyi; ikkinchisi esa tayinlanadigan sudyalari sudlar – okrug sudlari va sud palatalari edi. 1864 yilgi sud islohoti boshqa qonunlar kabi Turkistonda mustamlaka qolipiga tushirib anchagina o'zgartirishlar bilan qo'llandi. Rus amaldorlari «mahalliy xalqlarning madaniyati past ekanligi»ni ta'kidlab, mirovoy sudyalarni saylash o'rniga hukumat tomonidan tayinlab, mirovoy sudlar qurultoyi vazifasini okrug sudlariga, mirovoy sudlarga taalluqli shikoyat ishlarini sud palatasiga yuklashga qaror qilindi.

Rus sudlariga ishonchsizlik mahalliy aholi o'rtasida kuchli bo'lgani uchun ham sud organlariga shikoyatlar kam tushgan. Bu holatni ma'murlar noto'g'ri talqin qilishgan. Sankt-Peterburgdan kelgan general-ad'yutant graf Ignatev boshchiligidagi komissiya fikri bunga yorqin misol bo'ladi: «Tekshirishlar shunday ajib bir holatni ko'rsatdiki, mahalliy aholining shikoyat-ariza idorasi bo'limiga ehtiyoji kam ekan. Buning aniq dalili sifatida Farg'ona viloyatida sudya qarorlaridan 3 foiz, Sirdaryoda 4,5 foiz shikoyat tushganini ko'rsatish mumkin. Bu, masalan, Sankt-Peterburg mirovoy okrugidagidan ancha kam demak». Lekin o'lka xalqlari turmushida rus sudlari emas, balki mahalliy shariat sudlari salmoqli o'rin tutgan. O'troq aholining qozi-sudlari va ko'chmanchilarning biy sudlari mahalliy sudlarni tashkil etgan. Shunga alohida e'tibor qilish kerakki, chor hukumatining siyosiy bo'lmagan barcha fuqarolik ishlarini qozi va biy sudlariga topshirishida g'arazli maqsad yotgan. Mustamlakachilar shariat qonun-qoidalaridan o'z istibdod tuzumlarini mustahkamlashda foydalanmoqchi bo'lganlar. Oliy harbiy arboblardan biri imperatorga yozgan axborotida Rossiyaning millionlab musulmonlari bilan imperiya doimo hisoblashib kelgani sababini o'zicha sharhlab va imperiyaning musulmonlar ustidan 350 yildan beri hukmronligiga to'xtalib, islom dini bilan muomalada dinga e'tiborni susaytirmaslikni uqtiradi. Ana o'sha arbob – infanteriya generali S. M. Duxovskoy islom o'z qiyofasida «nufuzli bir kuchdirki, u bilan biz uzoq davrlargacha muqarrar ravishda hisoblashib turishga majburmiz», deb e'tirof qilganida chuqur ma'no bor edi.

Xullas, Turkiston o'lkasida uch turdagi «xalq sudlari» mavjud bo'lgan. Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Yettisuv viloyatlarining o'troq aholisi uchun shariat, ko'chmanchilar uchun odat, ya'ni biy sudlari va Kaspiyorti viloyati uchun ulardan farqli maxsus «xalq» sudlari faoliyat ko'rsatgan.

Mustamlaka markazi Sankt-Peterburg Turkiston xalqlari hayotida katta ahamiyatga molik mahalliy sudlar – shariat va odat bo'yicha sudlarning faoliyatini puxta o'rganish uchun Bosh shtab zobiti shtabs-kapitan Davletshinni Turkistonga yuborgan. Uning hisobotini shaxsan harbiy vazir Kuropatkin va podshoh Nikolay II o'qib, unda bildirilgan fikr-mulohazalarga o'z munosabatlarini qayd etishgan. Bu xujjatlar chorizmning mustamlaka siyosatining mahalliy ichki boshqaruvidagi asosiy yo'nalishlarini o'zida yaqqol gavdalandirgan.

Davletshin o'lkadagi qozi va biy sudlari rus ma'muriyati xohish-irodasiga ko'ra ish olib borganligini bayon etib, Kaspiyorti viloyatida rus ma'muriyati «xalq sudi»ni o'z qo'lida mahkam tutishda haddidan oshib ketganini, Turkistonning boshqa viloyatlarida esa podshoh amaldorlari bo'lar-bo'lmas ishlarga hadeb aralashaverib mahalliy qozi va biylarni obrusizlantirayotganini ta'kidlagan. Davletshin hisobotini o'qigan harbiy vazir Kuropatkin Kaspiyorti viloyatida xalq o'rtasida shariatning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik haqida maxsus qayd bitgan. «Eng muhimi, – deb yozgan edi harbiy vazir, – shariatni joriy etmay, odatga rioya etishni qo'llab-quvvatlash zarur».

Imperator Nikolay II 1898 yilda Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining mahalliy sudlarning bevosita rus ma'muriyatiga bo'ysundirilishi lozimligi to'g'risida yozgan hisoboti bo'yicha harbiy vazirdan fikr so'ragani va bu masalada oliy harbiy-siyosiy doiralarning mulohazalari ham mustamlaka siyosatining nozik qirralarini ko'rsatadi.

Qariyb o'n yilcha (1890–1898) Kaspiyorti viloyatini boshqargan, 1875–1876 yillarda Skobelev diviziyasida shtab boshlig'i lavozimida O'rta Osiyoni istilo qilish harbiy-zarblarida qatnashgan harbiy vazir A. N. Kuropatkin (1898–1903) Turkiston o'lkasini o'rganish borasidagi o'z tajribalaridan kelib chiqib, qozi va biy sudlarini rus adliya ma'muriyatiga bo'ysundirishga qarshi chiqdi. Kuropatkin bu chora katta xarajatlardan tashqari, mahalliy odatlar va shariatni yaxshi bilishni talab qilishi, bunga rus amaldorlari sira ham qodir emasligini alohida ta'kidladi. Turkiston general-gubernatori uning fikriga qo'shilib, «xalq sudini tubdan isloh qilmay, balki uning vakolat doirasini toraytirib borishni va kelgusida barcha sud ishlarini rus sudiga yuklash uchun puxta tayyorgarlik ko'rish lozimligi»ni bayon etdi. Harbiy vazir imperatorga xuddi shu xususda o'z xulosasini berdi, unda qozi va biy sudlari vakolatlari cheklanib, kelgusida ularni tamoman yo'qotishning uslublari o'z ifodasini topdi

va ular imperator tomonidan ma'qullandi. Mustamlakachilar mahalliy boshqaruv idoralariga mas'ul shaxslar tayinlanishida nihoyat hushyor ish tutib, basharti ilg'or, taraqqiyparvar va millatparvar kishilar volost boshqaruvchisi, oqsoqol, yuzboshi yoki qozi sifatida saylanib qolsa, ularni lavozimga tasdiqlamaslik uchun turli hiylanayranglarni ishlatdi. «Turkiston o'lkasini boshqaruv haqidagi nizom» esa ularga bu borada keng faoliyat keyin esa «ma'muriy-politsiya boshqaruvi» deb atalgan bo'lsa ham, maydonini yaratib bergan edi.

Turkistondagi mustamlaka idorasi 1898 yilgacha «harbiy-xalq boshqaruvi», undan uning mohiyati mazmunan o'zgarmadi. Barcha vakolatlar rus ma'muriyati qo'lida jamlanib, mustamlaka istibdodi yil sayin kuchayib bordi.

Turkistondagi siyosiy idora tizimi tub aholi o'rtasida har qanday norozilikni tag-tugi bilan yulib tashlash va shafqatsizlik bilan bostirish, biron-bir dushmanlik holati sezilsa darhol uning kuchayishiga yo'l qo'ymay bo'g'ib tashlash va ruslarning kuch-qudratini ko'rsatib qo'yish uchun har qanday chora-tadbir ko'rish ruhi bilan sug'orilgan edi. Chorizmning ma'muriy siyosati o'lkani iqtisodiy jihatdan qonini so'rish, ma'naviy-ruhiy ezish bilan omuxta ravishda olib borilib, pirovard natijada, uning mazmun-mohiyati O'rta Osiyo xalqlarini ruslashtirishga qaratilgan edi.

Bu siyosat tig'i imperiya vasiyligidagi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga ham qaratildi. Imperiyaning ana shu siyosatini Buxoroda Rossiya imperator siyosiy Agentligi (1885–1917), Xivada esa Amudaryo bo'limi (1873–1917) olib bordi. Siyosiy agent Buxoro amiri ustidan nazorat olib borib, uning Peterburg bilan aloqa qilishida vositachi bo'lgan. Said Abdulahadxon (1885–1910) va Said Olimxon (1910–1920) Rossiya imperatori marhamati va iltifotiga erishish yo'lida barcha vositalarni ishga solishgan. «Zoti oliylari» (svetlost), so'ng «hazrati oliylari» (visochestvo) maqomiga ko'tarilgan, imperator mulozim generali (general-ad'yutant), eng oliy generallik unvoniga (general-ot kavalerii) erishgan Abdulahadxon imperiyaning birinchi ordeni (Andrey Pervozvannny) kavaleri bo'lgan. U Rossiya imperatori Aleksandr III (1881–1894) sharafiga sof oltindan «Iskandar» ordenini ta'sis etib uni rus podshohiga taqdim etgan. Buxoro amiri Peterburg kibarlari doirasida o'zining sovg'a-salomlari va quyuq ziyofatlari bilan katta e'tibor qozongan. Amirning qimmatbaho hadyalarini imperator Nikolay II (1894–1917), harbiy vazir general A. N. Kuropatkin (1898–1903) va hatto reviziya komissiyasi raisi graf, senator K. K. Palen (1908–1910) ham mamnuniyat bilan qabul qilgan. Amir shuning uchun ham Rossiya

panohida o'zini xotirjam sezib xalqqa behad og'ir soliq-majburiyatlar yuklab rohatda yashagan. Unga qarshi ko'tarilgan qo'zg'alonlar esa rus miltiqlari yordamida bostirilgan. 1888 yilda Ko'lob bekligida dehqonlar qo'zg'aloni keng quloch yoyganda Pamir chegara qo'shini amirga yordam ko'rsatib qo'zg'alonni bostirgan. 1889 yilda esa Kelif aholisi hokim zulmidan bezor bo'lib ko'tarilganda bekni rus qo'shini o'z himoyasiga olgan.

1910 yilda Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'alon ham chor qo'shini vositasida bostirilgan. 1914 yilda esa Toshko'prik, Shahrisabz, Kitob, Qarshi va Hisordagi xalq g'alayonlari ham rus harbiy kuchlari yordamida bartaraf etilgan¹.

Amirning ruslarga muteligi ziyolilar, savdo-sanoat ahli va taraqqiyparvar ulamolarning kuchli noroziligini uyg'otgan. Shuning uchun ham 1910 yilda Buxoroning 56 ulamosi maxsus xat bilan Turkiya va Afg'oniston xukmdorlariga murojaat qilib Rossiya vasiyligidan xalos qilishlarini so'rashgan². Buxoro ulamolari 1915 yilda Turkiya Rossiyaga qarshi urush e'lon qilganda turklarga yordam jamg'armasi tuzishgan. 1916 yilda esa ular milliy-ozodlik qo'zg'aloniga ko'tarilgan Jizzax aholisiga yordam ko'rsatishga Buxoro xalqini undashgan edilar³.

Rossiya imperiyasining mustamlaka zulmi va amir istibdodi yil sayin kuchayib borgani ularga qarshi muxolif harakatning rivojlanishiga olib kelgan. Peterburg tazyiqi bilan o'tkazilgan boj va pul islohoti Buxoroni imperiya iqtisodiga zanjirband etib xalq ahvolini tobora og'ir ahvolga soldi. Amir esa, «eng itoatgo'y tuman boshlig'i»⁴ sifatida bunga qarshi hech qanday chora ko'rmagan. Said Abdulahadxon ham, o'g'li Said Olimxon ham rus vasiyligidan xalos bo'lishga intilmadi. Buxoro amirlarining itoatgo'yligi Peterburg doiralari yoqsa ham lekin Buxoro va Xivani butkul imperiyaga gubernator sifatida qo'shib olish niyati ularni tark etmagan.

Xiva xonligida esa siyosiy nazorat gubernator vakolatiga ega bo'lgan Amudaryo bo'limi boshlig'i tomonidan amalga oshirilgan. Muhammad Rahimxon II (1865–1910) amirdan farqli o'laroq mustaqil bo'lishga intilgan. Zukko davlat arbobi va ma'rifatparvar inson bo'lgan, xalq o'rtasida Feruz shoir sifatida shuhrat qozongan Muhammad Rahimxon II Afg'oniston amiri, Turkiya va Angliya

¹ O'zR MDA, 3-jamg'arma, 2-ro'yxat, 178-ish, 15-varaq.

² O'zR MDA, 3-jamg'arma, 2-ro'yxat, 66-ish, 78-varaq.

³ O'zR MDA, 3-jamg'arma, 2-ro'yxat, 66-ish, 80-varaq.

⁴ Turkiston general-gubernatori fon Kaufman Buxoro amiriga shunday nom bergan.

vakillarini yashirin qabul qilgani hamda qandaydir muzokaralar olib borgani haqida Turkiston general-gubernatori mahkamasi maxsus bo'limi, okrug shtabi kontrrazvedkasi axborotlari diqqatga loyiq.

Xivada o'tkazilgan boj islohoti (1885) xonlikni rus mollari bozoriga aylantirgani, pul islohoti esa (1900–1907) iqtisodni mushkul ahvolga solgani xonni ana shunday harakatlarga undagan edi. Rossiya xonlikning ichki mustaqilligiga ham rahna solib tanga zarb etishni man etgani Muhammad Rahimxonni jiddiy tashvishga solgan edi.

XX asr boshlarida imperiya hukmron doiralarida Buxoro va Xivaning ichki mustaqilligini yo'qotib ularni butunlay Rossiyaga qo'shib olish masalasi 1909 yildagi ikki kengashda, 1910 yil 28 yanvarda Bosh vazir P.Stolipin boshchiligidagi Vazirlar Kengashi Maxsus majlisida, 1916 yilda imperator huzuridagi maxfiy kengashda atroflicha muhokama etildi. Peterburgning oliy rahbarligi iqtisodiy jihatdan bu tadbir zararli ekaniga to'xtalib, amir va xon amaldorlari vositasida mustamlaka siyosatini davom ettirishning siyosiy afzalliklariga urg'u berishdi. Ular yaqin kelajakda Buxoro va Xivani rus guberniyasiga aylanishi uchun tegishli zaminlarni yaratish lozimligi xususida bir qarorga kelishdi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda o'zbek davlatchiligining barcha ko'rinishlarini tag-tubi bilan yo'qotish va ruscha idora uslubini qat'iy joriy etish bo'yicha izchil yo'nalishda ish olib bordi. Ma'muriy-boshqaruv tizimi ana shu maqsadga qaratilib, Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya guberniyalariga aylanishi uchun barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy choralar ko'rilgan edi.

TURKISTONDA CHOR IMPERIYASI SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

1. TURKISTONDA INSON HUQUQLARINING POYMOL ETILISHI

Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini istilo qilganidan keyin mahalliy xalqlarni mustamlaka istibdodiga soluvchi qonun – «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ni joriy etdi. Nizom o'lkada mahalliy aholining insoniy va siyosiy huquqlarining rasman poymol etilishiga olib keldi. Nizomga ko'ra, kichik mansabdorlar, pristavdan tortib genral-gubernatorgacha mahalliy aholiga nisbatan cheklanmagan jazo choralari qo'llashi mumkin bo'lgan. Shahardagi rus aholisiga berilgan imtiyozlar musulmonlarga tegishli bo'lmagan. «Musulmon aholini kuchaytirmaslik uchun ularni imtiyozlardan mahrum etish o'rinlidir», – deyilgan edi bir rasmiy hujjatda.

Turkiston tarixi tadqiqotchilaridan G. Safarov o'lkadagi Yevropa aholisining barcha qatlamini «umumiy mustamlakachilar» deb atagani bejiz emas. U mustamlaka sharoitidagi sinfiy va milliy tengsizlik hamda rus ishchilarining imtiyozlari va ularning mahalliy millatlar ishchilaridan keskin farqlanuvchi hukmron mavqei haqida adolatli fikr yuritib, chorizmning ruslashtirish siyosati va rus kelgindilariga tub joy aholi yerlarining bo'lib berilishi Turkistondagi milliy-ozodlik harakatini yuzaga keltirgan asosiy sabab bo'lganligini yozgan. «Barcha ruslar, – deb aytgan edi G. Safarov, – Turkistonning tub aholisi odamlar emas, balki ursa, talasa, zo'rlasa mumkin bo'lgan ish hayvonlaridir, degan ruhda yashagan va tarbiyalangan»¹.

Chorizm mahalliy xalqning urf-odatlarini, islom dinini ham toptashdan toymadi. Zamondoshlarning yozishicha: «Tarixi milodiyning 1895 yillarida chor hukumatining generallari Turkiston o'lkasiga qo'yilg'on «missioner», ya'ni din buzuvchi Ostroumovlarning takliflari bo'yicha, Turkiston o'lkasining xalqini ko'r kabi istibdod qorong'usida qoldirmoqning maslahatida «russkiy-tuzemniy» maktablar ochmoqqa kirishdilar. Madrasa vaqflarini boni, vaqf qilg'uvchi vaqflarning avlodlariga buyurib berib, sotib

¹ Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркестана). Москва, 1921, стр. 34.

yemoqlariga farmoyish qilib musulmonlarning juma nomozlarida podshohning nomini [xutbaga] qo'yib o'qimoq, «Qur'on»ning «val-mushrikin» degan joylaridan «mushrik» iboratlarini chiqarmoq kabi behuda ishlarni amr qildilar. Shahar hokimlari, qozi va amaldorlar ham maktabdorlarni chaqirib, oq podshohning nomini jami odamlarga bildirib, masjidlarda, nomozlarda duo qildirish, hatto maktablardagi yosh bolalar o'qiydigan Eshon So'fi (So'fi Olloyor)ning «Chahor kitobi» degan savob kitoblardagi «azobi qabr kofirlargadir, chin – ko'rar go'ring azobin ba'zi mo'min»dek bo'lg'on baytlarini va «kofir, mushrik» degan iboralarini yo'qotib yangi bosiladig'on kitob va «Qur'on»lardan yuqorida aytilgan kalimalarni chiqarishdek farmoyishlar qildilar. Musulmonlarni nihoyat ezib, qisib, hatto ko'chadan pristuf o'tib qolsa, yo beixtiyor ko'rmay qolg'on va o'rnidan turmagan musulmonlar bo'lsa, qaytib kelib urib, qamar edilar. Andijonda bir necha mo'tabar odamlarni ko'chada, xalq qoshida «manga salom qilmading» deb haqorat qilib qamab qo'yadigan bo'ldi¹.

1898 yilgi Andijon qo'zg'alonidan keyin mustamlakachilar o'lkani ruscha o'zlashtirish siyosatida har qanday niqobdan voz kechib ochiqchasiga zo'ravonlik yo'liga o'tdilar. Musulmonlarni ruslarga majburiy ravishda sajda qildirish odatini rasm qildilar. Buning isboti, jumladan, andijonliklardan Fozilbek Otabek o'g'lining yuqorida parcha keltirilgan kitobida mujassamdir.

Qator adabiyotlar va arxiv materiallari ham Rossiya imperiyasi hukmron doiralari Turkiston xalqlarining diniy haq-huquqlarini qanday tarzda poymol etganidan yaqqol dalolat beradi.

Rus generali M. G. Chernyaev 1864 yilda Turkiston shahrini istilo qilganda, buyuk alloma Ahmad Yassaviy maqbarasini, uning yonidagi masjid binosi ichidagi muqaddas ashyolarni, devorlardagi quyma oltin shakllarni o'lja qilib talagani yetmagandek, musulmonlarning bu muqaddas qadamjosida nasroniycha ibodat ham qilgan. Ko'p o'tmay, mustamlakachilar ana o'sha maqbara qarshisida qad rostlab turgan Robiya Sultonbegim² maqbarasini buzib, g'ishtlaridan o'zlariga uy va kazarma qurishgani ham ma'lum.

O'zlarini xolis olim sifatida ko'rsatuvchi Moskva va Sankt-Peterburg ilmiy doiralari esa Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijdu-

¹ *Fozilbek Otabek o'g'li*. Dukchi eshon voqeasi. Samarqand-Toshkent, 1927, 21-bet.

² *Mirzo Ulug'bekning qizi*, Dashti qipchoq xoni Abulxayrxon (1428–1468)ning rafiqasi, Ko'chkinchixon (1510–1530)ning onasi.

voniy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirgʻoniy, az-Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Ubaydullo Xoʻja Axror valiy, Soʻfi Olloyor va boshqa allomalarning jahon fan-madaniyati rivojiga qoʻshgan xizmatlarini inkor etishga urinishdi va ularning asarlarini bir yoqlama soxta tadqiq etishdi. Sankt-Peterburg Turkiston oʻlkasida islom dinining jahonshumul umuminsoniy mavqeini sindirish uchun rus pravoslav ibodatxonalari tarmogʻini kengaytirdi.

Rus mustamlakachilari oʻzlari ishlab chiqqan «Turkiston oʻlkasini boshqarish haqida Nizom»da shariat qozilarini saylash masalasiga alohida eʼtibor berdilar. Xonlar zamonida savodxon va nihoyat bilimdon odamlar qozilikka tayinlangan boʻlsa, rus maʼmurlarining qonuniga koʻra, savodsiz kishilar ham bu lavozimga saylanishi mumkin boʻldi. Mingboshi, oqsoqol, qozi saylovlari jarayonida noroziliklar yuz berdi. Xalq oʻz fikrini bildirishga urindi. Rus mustamlakachilik tartiblari, idora uslubi va ruslashtirish siyosatidan norozilik quyi maʼmuriyat saylovlarida ochiqdan-ochiq siyosiy chiqishlar shaklida namoyon boʻldi.

Rus mustamlakachilarining Turkistondagi hukmronligi uchun tahlikali vaziyat vujudga keldi. Turkiyaning Yunoniston bilan urushda erishgan gʻalabasi butun musulmon olamida Turkiya sultoni-ning obroʻsini koʻtarishi barobarida yevropaliklar zulmi ostida ezilgan mazlum Sharqda milliy gʻurur uygʻotib, ozodlik kurashiga havas qoʻzgʻadi. Ana shunday kayfiyat Turkistonda ham kuchayganligini rus siyosiy razvedkasi payqadi. Rus maxfiy polisiyasi, okrug shtabi kontrrazvedkasi doimo turklardan muntazam xavfsirar, ularning Turkistondagi taʼsiridan qoʻrqar edi. Shuning uchun mustamlakachilar Turkiya bilan Turkistonni birlashtiruvchi qardoshlik rishtalarini uzishga harakat qildilar.

Ozodlik kurashining bu davri Yevropa mustamlakachilari zulmiga qarshi Sharq xalqlari koʻtargan milliy-ozodlik qoʻzgʻolonlarining tarkibiy qismi deb qaralmogʻi lozim. Sharqiy Sudan xalqlarining Muhammad Ahmad (1848–1885) boshchiligidagi ingliz bosqinchilariga qarshi qoʻzgʻaloni hamda fransuz mustamlakachilariga qarshi Jazoirda Abdulqodir boshlagan qoʻzgʻalon (1808–1883) alangalari lovillab turgan bir paytda Andijonda Muhammad Ali eshon (1846–1898) rahbarligida rus mustamlakachilariga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻalon tarixan tasodifiy boʻlmagan. Ana shu bogʻliqlik, yaʼni Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining butun musulmon Sharqidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan uzviy bogʻliqligi masalasi hanuzgacha oʻrganilmagan va oʻz tadqiqotchilarini kutmoqda. Holbuki, oʻsha vaqtdayoq rus mustamlakachilari bunday aloqadorlikning

sabablarini juda yaxshi tushungan va unga qarshi keskin choralar ko'rgan. Xususan, 1898 yilda oliy lavozimdagi podshoh amaldori va publisist Vladimir Cherevanskiy Sudan va Jazoir ko'zg'oloni haqida shunday degan edi: «Musulmonlar o'rtasidagi tenglikni tiklash hamda musulmon mamlakatlaridagi o'zgaralar hukmronligiga chek qo'yishga chaqirilganini e'lon qilgan Mahdi (Muhammad Ahmad) faol harakat boshladi. Shu tariqa Sudan ko'zg'oloni boshlanib ketdi va u hanuzgacha davom etmoqda. Bu alanga Qohiraga ham o'tib, Aleksandriyada yevropaliklarni qirish boshlandi. Qohiraning o'n ikki maydonida o'n ikki darvish Muhammad bayrog'ini ko'tarish va yevropaliklarni yo'qotish haqida va'z o'qishardi. Sudan ko'zg'oloni davomida Maxdi ikki yuz minglik qo'shinga ega bo'ldi va uning g'azotga da'vati butun musulmon dunyosiga yoyildi. Misr qo'shinlari ketma-ket mag'lubiyatga uchradi. Ilg'or artilleriya va boshqa xil yarog'-aslahalar bilan qurollangan Mahdi qo'shini Xartum ostonasiga yaqinlashdi. Nihoyat Xartum ham egallanib, uning mudofaasiga rahbarlik qilgan ingliz generali Gordon o'ldirildi. Inglizlar chekindilar. Yana bir Mahdiy paydo bo'ldi. Bu imomning islom dini sofligi uchun kurash haqidagi chaqirig'i jami musulmon mamlakatlarida kuchli aks-sado berdi. Hindistonda Yer kurrasidagi musulmonlarni birlashtirishga qaratilgan ittifoq tashkil topdi. Ittifoq a'zolari o'z ishini ingliz noibini o'ldirish va savdogarlarini talashdan boshladilar. Sunniylar va shialar o'rtasidagi muxoliflik yo'qola bordi. O'rta Osiyoda darvishlar jazavaga tushib, bozorlar va maydonlarda o'zlarining mistik madhiyalarini kuylashga tushdilar. Bu tahlikali vaziyatda oldinda kutilishi mumkin bo'lgan fanatik portlashdan cho'chib, Turkiston general-gubernatori Sudan islohotchisini soxta Maxdiy deb e'lon qilishni talab qildi»¹. Bu xavfsirashda jon borligini aytqochilik xabarlarini ham tasdiqladi.

Turkiston o'lkasining turli hududlarida xalq harakatlari davom etayotgani va ruslarga qarshi kayfiyat kuchayib borayotgani haqidagi xabarlarda, jumladan, shunday ma'lumotlar bor edi: «So'nggi vaqtlarda o'lkada ma'lum maqsadi va tegishli hujjatlari bo'lmagan turk fuqarolari paydo bo'lmoqda. Xalq o'rtasida esa Turkiya-Yunoniston urushida turklar erishayotgan zafarlarni madh etuvchi Istanbulda nashr qilingan kitoblar tarqalgan. Turk sultoni Muhammad Aliga o'z yelkasidagi to'nni va g'azovot e'lon qilishga chorlovchi farmonni yuborgani haqida ovozarlar yuribdi. Afg'oniston amiri

¹ *Череванский В. Две волны. Историческая хроника. Часть 2, СПб, 1898, стр. 347–348.*

bo'lsa o'zini shariatpanoh deb e'lon qilib, muqaddas urush jamg'ar-
masi uchun oltin tanga zarb qilaboshladi. Amir o'zining tahriri
ostida Kobulda muqaddas urush – jihad haqida kitob chiqargan.
Yaqinda Panjakent uchastkasida qandaydir afg'on fuqarosi
qo'lga olingan va u o'lkaga kelish sabablarini ataylab yashirgan.
Avliyootada esa qirg'izlar hech qanday asossiz ruslarning ikki nafar
quyi darajadagi zobitiga gap otib, janjal chiqarganlar. Buxoroda esa
bir mulla temir yo'l qorovuli – rus fuqarosini g'azovot yo'lida o'ldir-
gan. U yana boshqa bir rusni o'ldirmoqchi bo'lganida qo'lga olingan
va aybiga to'la iqror bo'lgan. O'limi oldidan xalqqa qarata dini
islom uchun shahid ketayotganini aytib, u odamlarni g'azovotga
chorlovchi otashin nutq so'zlagan. Toshkentda esa yerli aholi ruslarni
ko'rganda yerga tuflab, o'z nafratini izhor qilmoqdalar»¹.

Ana shunday sharoitda obro'li va e'tiborli shaxs – Muhammad
Ali eshonning paydo bo'lishi tasodifiy emas edi. Muhammad Ali
eshonning dunyoqarashi, obro'si va uddaburonligi hisobga olinsa,
u boshlagan qo'zg'alonning puxta tayyorlanmaganligi va bemavrid
ko'tarilgani tadqiqotchilarda asosli shubha uyg'otdi va bu narsa
ig'vogarlik bobida ustasi farang rus siyosiy polisiyasining ishi
ekanligi, deyishga asos bo'ladi. Mustamlakachilarga xalqni qo'r-
qitish va qatag'on boshlash uchun zo'r bir dastak kerak edi. Bir
necha rus askarini qurbon berish evaziga minglarni qirish hamda
ularning yerlarini rus kelgindilariga bo'lib berish imkoniyati tug'ilar
edi. Amalda shunday bo'ldi. Fozilbek Otabek o'g'lining yozishicha,
«kimligidan qat'i nazar, oq do'ppi kiygan bo'lsa, rus soldatlari:
«Seniki eshon» deb tutib urar edilar... Shuning uchun shahar
mehnatkashlari va fuqaro salla o'rab bozorga chiqolmay qoldi. Oq
do'ppi degan narsaning urug'i qolmadi. Kimda bo'lsa, kuydirib
yo'qotdi. Mingboshilarning dunyoparastligi qo'zg'alib, shaharda
kimning joyi bo'lsa, kechasi chaqirib borib: «Seni tutib beraman,
eshonning hovlisiga borgan eding», deb siyosat qilib, bor-yo'g'ini
shilib oldilar. Poraxo'rlik amaddorlar ichida nihoyatda avj oldi»².
Rus amaldorlari ham odamlarni talashda mingboshilardan qolish-
madi. «Bir kishini eshonga qarashli deb qamab qo'ysalar, – deb
yozadi Fozilbek Otabek o'g'li, – yuqoriga raporti chiqqanda, eshon
hodisasi zulmga katta bahona bo'lgani ko'runib, ko'b yillar Sibirga
haydalar edi. Bechorani ajratib olmoq payiga tushgan qavm-
qarindoshlari tamom bor-yo'g'ini sarflab, hatto yer va mulklarni

¹ O'zR MDA. 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 91-ish, 10-varaq.

² Fozilbek Otabek o'g'li. Ko'rsatilgan asar, 30-bet.

sotib, tergovchilarga pora deb bersalar, natijada yana o'zlarini osish, yo Sibirga yuborishga qaror bo'lar edi»¹. Bu faktni o'lkaning nufuzli amaddori V. P. Nalivkin ham tasdiqlaydi: «...1902 yilda javobgarlikka tortilgan bir necha amaldor ishi ommaviy tus olgan qabixliklar yashiringan pardani qiya ochdi, xolos. Ma'muriy beboshlik hech qaerda 90-yillar oxiri va 1900 yillarda Andijon nohiyasidagidek keng avj olmagan»².

Bu beboshliklarga o'lka boshlig'i infanteriya generali S.M. Duxovskoyning o'zi bosh bo'lgan edi. U Andijonga kelganida Eski shahar aholisi uni qanday kutib olgani va u xalq bilan qanday muomalada bo'lganining jonli guvohi sifatida shunday hikoya qiladi: «Yarim podshoh keladilar, deb hamma ko'chalarga bayroq tutib, shaharni necha kunlar ziynat berib, hamma maktab bolalarini vokzalga olib chiqib, qator qilindi. U vaqtlarda kamina ham tuzemnoy shkolda o'qur edim. Fuqarolar kumush taboqda non, tuz tutub turg'on edilar. Uezd hokimi fuqarolarga xitob qilib, yarim podshoh kelib vagondan tushgan hamon hammalaringiz ta'lim olg'onlaringizdek barobar engashib, yerga qarab turasizlar! Boshlaringizni ko'taringlar, desam ham ko'tarmay turinglar!» deb o'rgatdi. Istansaga chiqqan xalq 2 soat ko'broq intizorlik tortdi. Shundan so'ng birdan poezd ko'runib qoldi va vagonlari nihoyat ziynatlangan holda kelib to'xtadi va soldatlar tushub, qator bo'lgandan so'ng yarim podshoh... qattiq g'azab bilan vagondan chiqib, pastga tushgan zamon bechora xalq va maktab bolalari hammasi engashib, ruku' qilib turdi... Yarim podshoh hokimdan: «Nima uchun xalq bunday engashib turadir», deb so'radi. «Janob imperatori a'zamga yurtimizdan chiqqan bir eshon jinni bo'lib bilmasdan osiylik qilgani uchun biz xijolat bo'lub, ulug' va baland darajali bosh hokimimizning yuzlariga qaysi betimiz bilan qaraymiz, bizlarni marhamat etib, avf qilib podshohi a'zamdandan gunohimizni so'rab olmasalar, muborak betlariga kamoli xijolatdan qaray olmaymiz, deydilar», deb javob qaytardi. Yarim podshoh: «Gunohni qilib qo'yib, emdigi xijolat nimadir? Farg'ona muzofotidan Andijondek bir shaharning tuprog'ini osmonga sovurub yubormoq bilan podshohi a'zam mamlakatlariga hech nuqs yetmaydir!». Keyin fuqaroga qarab: «Sizlar hali osiy va gunohkorsizlar. Sizlarning non-tuzingizni qabul qilib bo'lmaydir!» dedi va bir to'p hind va yahudiylar ham non-tuz ushlab turgan edilar, shularning oldiga borib, non-tuzlarini

¹ *Fozilbek Otabek o'g'li*. Ko'rsatilgan asar, 59-bet.

² *Наливкин В.* Туземцы раньше и теперь. Ташкент, 1913, стр. 138.

qabul qilib: «Sizlar hozirda manga sartlardan ko'ra yaxshiroqsizlar», deb askarlar tomon yurdi. Biz tuzemnoy shkol talabalari rus domla bilan 150 ga yaqin bolalar turg'on edik; bizlarning yonimizga to'xtab, «Sizlar yaxshi o'qib turunglar», deb cho'ntagidan bir rubl oldida, domla qo'lga berib, «Yong'oq olib bo'lub bering, o'ynasunlar va podshoh hazratlarini duo qilsinlar» deb askarlar oldiga o'tib ketdi... Xalq bechora mayus bo'lub, qo'rqub tarqalib ketdi.

Yarim podshohdan o'rnak olgan katta-kichik rus mustamlakachilari ham «har kun Eski shahar bozoriga tushub, savlat ko'rsatib aylanib yurar edilar. Ko'cha va rastalardagi xalqni o'zlariga salom qildirmoq balosiga muhtalo edilar. Kim salom qilmasa yoki do'kondan pastga tushib qo'l qovushtirib turmasa, darhol ustiga borib: «...Eshon!» deb qo'lidagi tayoq bilan boshiga solar edi. Mazlum xalq bu xorlik va razolatni ko'rib: «Tavba qildim, to'ra, man ko'rmay qolibman», der edi. Ko'broq tavba qilib, iltijo qilg'onida rahm qilsa, qo'yar edi, bo'lmasa, paliska chaqirib, turmaga – qamoqqa yuborur edilar»¹.

Bunday shafqatsizlik va haddidan oshgan zo'ravonlikdan maqsad Farg'ona aholisining jangovarligini sindirib, butun o'lkani qo'rquvga solish edi. Marg'ilon tumanboshisi polkovnik Bryanovning ta'biricha, «Farg'onada doimo g'azovot g'oyasi yo'lida o'zini jasorat bilan o'lim bag'riga otuvchi mardi-maydonlar qaerdandir paydo bo'lib turardi. Aholiga ruslar ta'sirini o'tkazishda Farg'ona viloyati doimo orqada yuradi, shuning uchun ham temir yo'lni o'tkazib biz yerli aholi o'rtasida qamalga tushib qolishdan xavfsiraymiz»².

Chorizm Turkiston o'lkasida tatbiq etgan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» o'lka xalqlari insoniy va siyosiy huquqlarini rasman poymol etuvchi qonunlar majmuasi edi. Unda mustamlakachilik tamoyillari yaqqol aks etgan bo'lib, uning moddalari 50 yil davom etgan imperiya hukmronligi davrida metropoliya manfaatlariga moslab o'zgartirib turildi.

Shuni ham aytish kerakki, rus ma'muriyati qonunlarni o'zi istagancha o'zgartirib, mahalliy aholining iqtisodiy, ijtimoiy, diniy va siyosiy erkinliklarini naq 50 yil davomida poymol etib keldi. Buning yorqin bir dalili sifatida Sirdaryo viloyati Avliyoota tumani jabha pristavi, shtabs-kapitan Strelbiskiyning o'zboshimchaligini keltirish mumkin. Nizomning 64-moddasi unga, pristavga mahalliy

¹ *Fozilbek Otabek o'g'li*. Ko'rsatilgan asar, 30-bet.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 91-ish, 24-varaq.

aholidan istagan odamni 3 kungacha qamab qo'yish, yoxud muhofaza holatidagi joyda 2 haftaga qadar hibsdan saqlash huquqini bergan edi. Pristavga bu kamlik qilganday, u musulmonlarning ro'za hayitini 1903 yil 29 dekabrga belgilanishini buyurib, agar qozi buyruqni bajarmasa 9 kunga qamalishini aytdi. Pristav xotini va iti bilan machit hovlisiga kirib namozxonlarga shunday degan: «Agar kimningdir podasida kasal qo'y bo'lsa, uni davolashadi, u tuzalmasa so'yishadi. Sizlar ham mening qo'ylarimsiz, oralaringizda tirraqilar ham bor. Ularni o'zim davolayman, tuzalishmasa so'yiladi»¹.

Boshqa bir pristav – Andijon tumani Bozorqo'rg'on jabhasi pristavi kapitan Brjeziskiy esa undan ham o'tib tushdi, ya'ni «Nizom»da belgilangan mingboshi – volost boshqaruvchilari va qishloq oqsoqollarining huquqlarini bekor qildi. Oqsoqol mulla Farmon To'raqulovning e'tiroziga javoban uning yuziga shapaloq tortdi. Brjeziskiy o'z boshlig'iga yo'llagan raportida oqsoqolni urganini tan olib, bunday deb yozgan: «Agar urmasang, demak, sen hokimiyat emassan, demak, sen qo'rqinchli emassan, demak, men boshimni dangal ko'tarib bahslashishim, baqirib-chaqirishim mumkin, huquqimni talab qilib chiqishim mumkin. Tuzemeslarning mantiqi shunaqa. Ular muruvvatingdan taltayib ketishadi. Bizning ko'ngilchanligimizda ular kuch-qudratni emas, balki zaiflikni ko'rishadi. Boshqaruvdagi qattiqqo'llik Yevropaning madaniy dunyo tajribasi asosida tanqid qilinayotgan bo'lsa, bizning yarim yovvoyi Osiyodagi mulkimizda qattiqqo'llik aksincha kerakdir. Umumdavlat manfaati yo'lida bu zarurdir. Mening ma'muriyatdagi xizmatim davomida chiqargan xulosam shudir. Qishloq oqsoqoli To'raqulovni haqoratlaganim masalasiga kelsak men bu tuzemesning surbetligi tufayli urganimni tan olaman»².

Rus ma'muriyatining eng quyi bo'g'ini jabha pristavlari ana shunday beboshlik qilganini qayd etgan holda, ularning boshliqlari-tumanboshilar va gubernatorlarning xalqqa nisbatan qanday zo'rvonlik qilgani haqida gapirmasa ham bo'ladi. Bu holatni yuksak lavozimdagi rus amaldorlari e'tirof etishgani diqqatga sazovordir. Senator graf K.K.Palen Turkiston tumanboshilarini o'zbek xonliklaridagi «beklarning xuddi o'zginalaridir»³, deb atagani bejiz emas. Ular qo'l ostidagi xalqdan istagan kishiga jarima solishlari va 7 kungacha qamab qo'yishlari mumkin bo'lgan.

¹ Sodiqov H. Ko'rsatilgan dissertasiya, 152-bet.

² O'sha asar, 153-bet.

³ Palen K.K. Taqdimnoma, 7-bet.

Rus ma'muriyati mustamlakachilik nuqtai nazaridan kelib chiqib, sud maslahatchilari ishtirokidan ataylab voz kechdilar. Bundan tashqari, «mirovoy sudya» va uning yordamchilariga sud tergovchilari vazifalari ham yuklandi. Bu yo'sindagi sud islohotini Turkistonda qo'llash tub joy millat haq-huquqlarini oyoq osti qilib, g'ururini poymol etishni imperiya adliya vaziri riyokorona tarzda shunday ifodalaydi: «Yon bosish tarzida emas, balki davlat foydasining zarur ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ayrim cheklanishlar va o'zgarishlarga yo'l qo'yildi». Vazir oshkora tarzda Turkistondagi sud islohoti imperiyada rad etilgan loyihaning 4-tahriridan olinganini va u «polisiya – sud ustavi», deb atalganini tan olgan.

General Kaufman o'ziga o'xshash beshafqat mansabdor imperiya harbiy vaziri graf Milyutinning yaqin maslaqdoshi va sirdoshi edi. U 1876 yili Milyutinga yo'llagan axborotida ochiqchasiga mustamlaka istibdodini quchaytirish sababini yozgan. Kaufman Rossiya va Angliya kabi nasroniy davlatlarning Osiyodagi maqsadi mushtarak ekanligini alohida ta'kidlab, «bu joyda bizning umumiy dushmanlarimiz – musulmonlik va yovvoyilikdir», degani va harbiy vazirdan qattiqqo'l siyosat o'tkazishda keng vakolatlar so'ragani ham tasodif emas. Xuddi shunday siyosatni podshohning yaqin mulozimi, maxfiy maslahatchi F. Girs Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida tuzgan qonun loyihasida ham aks ettirgan edi. Maxfiy maslahatchi aslzoda rus zodagonlari, harbiylari va mustamlaka apparatida ishlab boy tajriba orttirgan amaldorlardan iborat Dasht komissiyasiga (1865–1867) rahbarlik qilib, Turkiston o'lkasida qanday mustamlaka tuzumini o'rnatish haqida imperatorga o'z mulohazalari bitilgan loyihani yo'llagan va rus imperatori Aleksandr II (1856–1881) bu loyihani «O'rta Osiyodagi mulklarni o'zlashtirish bo'yicha maxsus Qo'mita» diqqatiga havola qilgan edi.

Maxsus qo'mitadagi mo'tabar zotlar Dasht komissiyasining Turkiston xalqlariga bergan ta'rifiga to'la-to'kis qo'shilib, uni qizg'in qo'llab-quvvatladilar. Dasht komissiyasi jahonga Xorazmiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy, Yassaviy, Buxoriy, Termiziy, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi jahon tan olgan buyuk siymolarni bergan ahli Turkistonni «juda quyi aqliy taraqqiyot bosqichida», bu xalqlar «huquq, ma'muriyat, qonun nimaligini bilmaydi, uning zarariga xizmat qiladi»¹, degan xulosaga kelgan edilar.

Birinchi rus inqilobi (1905–1907) natijasida Rossiyada ilk bor parlament – Davlat Dumasining tashkil topgani va unga Turkistondan

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 25-ro'yxat, 89-ish, 156-varaq.

noiblar saylash zarurati tug'ilganda ham siyosiy huquqlar poymol qilindi. Imperiya qonun chiqaruvchi organida Turkistondan ishtirok etuvchilar aholining qanday tabaqalaridan, xususan, rus va musulmon qismidan qay tartibda saylanishi masalasini hal qilish uchun «maxsus saylov» idorasi ta'sis etildi.

Saylovlarda rus elementini musulmonlar soni bosib ketmasligi choralari ko'rildi. Toshkent shahar dumasida noiblari imperatorga yo'llagan petisiyalarida ana shunday g'oya ilgari surilgan edi. Ular Davlat Dumasida Turkistonning rus va tub yerli aholisidan alohida ayrim vakillar saylanishini so'rashgan. «Agar saylov asosiga saylovchilarning soni olinganday bo'lsa, o'lkani o'zlashtirib madaniylashtirayotgan rus aholisi vakilsiz qoladi, – deb yozishgan edi noiblar 1905 yil 28 iyulda yo'llagan petisiyasida, – chunki yerli aholi o'z sonining ustunligi bilan uni bosib ketadi. Holbuki, o'lka rus kapita-listlari tufayli boyimoqda, bu yerga rus aholisi ilm va texnika samalarini olib kelmoqda, o'lkaga rus kolonizasiyasi to'lqini yo'naltirilmogda, hokimiyat va madaniyat vakillari ham erli aholiga mansub emas. Shuning uchun ham adolat va taraqqiyot nuqtai nazaridan Davlat Dumasiga Turkiston aholisidan vakillik ayrim holda yerlilardan, ba'zi hollarda rus aholisidan bo'lishi kerak»¹.

1905 yil 11 dekabrda saylov qonuniga ko'ra, barcha xotin-qizlar, ikki million ishchi, harbiy xizmatchi, o'quvchilar, 25 yoshdan kichiklar saylov huquqidan mahrum qilindi. «Turkistondagi saylov qoidalari loyihasi» mulkdor tabaqalar va mahalliy ma'muriyat manfaatlarini o'zida mujassam etgan edi.

Turkistondagi saylovlarda rus va umuman mahalliy aholi bo'lmaganlar, saylovchilar sonidan qat'i nazar, har besh viloyatdan bittadan, Toshkentdan va Yettisuvdagi kazak qo'shinidan, hammasi bo'lib 7 deputatni, tub yerli aholi esa har viloyatdan va Toshkentdan – jami 6 noib yuboradigan bo'ldi. Har bir rus noibiga o'rtacha 46 ming, o'zbek noibiga esa 96 ming saylovchi to'g'ri keldi. Shu tariqa mahalliy aholi rus elementini bosib ketmasligi uchun mahalliy aholining Dumadagi vakilligi ruslarga qaraganda bir necha barobar kam bo'ldi.

Imperatorning 1907 yil 3 iyundagi II Davlat Dumasini tarqatib yuborish haqidagi farmoni ham buyuk rus shovinizmini kuchaytirishga turtki berdi. Stolipin tarafidan yozilgan farmonda «Davlat Dumasida ruhan rus bo'lishi, boshqalar esa sof rus masalalarini hal qilishda zinhor hakam bo'lmasliklari» alohida uqtirib o'tildi. Turkiston o'lkasini atroficha o'rganib, ruslashtirish siyosatini ku-

¹ O'zR MDA, 17-jamg'arma, 1-ro'yxat, 22654-ish, 12–16-varaqlar.

chaytirish maqsadida o'lkaga yuborilgan graf K.K.Palenga ana shunday vazifa yuklatilib, Turkiston o'lkasi uchun yangi qonun nizomi uchun zarur materiallar to'plash buyurilgani ham bejiz emas edi. Yuqorida aytib o'tilganidek, chorizm 1908 yilning yozida Turkistonga yo'llagan alohida jandarmlar korpusi qo'mondoni, general-mayor baron Taube milliy-ozodlik harakati va inqilobiy voqealar ishtirokchilariga nisbatan nihoyatda shafqatsiz bo'lishni ta'kidlab, sudlardan ularga faqat o'lim jazosini berishni talab qildi. Baron Taube «Turkistonda dor qurish uchun xazinadan hech qanday sarf-xarajatlar bo'lmasligini» uqtirib, dor o'rnini «qayrag'ochlar bajaradi»¹, degan. Mirshablarga jangovar o'klarni osmonga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri olomonga qarata otish huquqidan foydalalanishga rasman ijozat qilindi.

Turkiston ma'muriyatiga mahalliy aholiga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari rus ishchi-dehqonlariga ham qo'llash huquqi berildi. Davlat nazoratchisi, stats-sekretar (maxfiy kotib) P.A. Xaritonov raisligida o'tgan va Turkiston o'lka boshqaruvini o'zga asoslarda tubdan qayta qurishga bag'ishlangan oliy amaldorlar kengashida (1911) Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov general-gubernator hokimiyatini «imperator hazrati oliylarining Kavkazdagi noibi hokimiyati kabi asosga yaqinlashtirishni talab qildi. Bu talabni Turkiston o'lkasini 1908–1910 yillar davomida atroflicha taftish qilib, o'lkaning yangi nizomi uchun boy materiallar to'plab qaytgan senator graf K. K. Palen ham qo'llab-quvvatladi. Uning taftish materiallari va imperator hukmiga havola etgan taqdimnomasida chorizm idorasini mustahkamlash, «Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy-polisiya amaldorlariga o'zlariga qarashli aholiga uncha ahamiyatli bo'lmagan xatti-harakatlari uchun qo'llanadigan jazo berish huquqlarini yanada kengaytirish»² taklif qilingan edi. Palenning fikricha, bu chora «mahalliy turmushni to'g'ri yo'lga solish uchun zarurdir». Senator Turkiston shaharlarida mustaqil polisiya boshqarmalari, Toshkentda ober-polismeyster lavozimini joriy etish va o'lkadagi mirshab-polisiya xizmatchilari sonini ko'paytirishni ham taklif qildi. U Turkistonda inqilobiy harakatga rahna solish uchun va «Evropa Rossiyasidan yopirilib kelayotgan proletariat va agrar g'alayonlar yuz bergan gubernalardan ko'chib kelayotgan dehqonlarning zararli ta'sirini» kesish uchun Turkiston general-gubernatorligida tuman polisiyasi mahkamasini tuzish g'oyasini ilgari surdi³. Graf Palenning fikrlari imperiya

¹ O'zR MDA, 1-jang'arma, 31-ro'yxat, 567-ish, 36-varaq.

² Palen K. K. Taqdimnoma, 42-bet.

³ Palen K. K. Takdimnoma, 39-bet.

Vazirlar Kengashida tinglanib, Turkiston o'lkasi boshqaruv idorasini tubdan o'zgartirish bo'yicha Vazirlar Kengashi a'zosi, Davlat nazoratchisi P. Xaritonov raisligidagi maxsus Kengashda muhokama etildi. Kengash ishiga Turkiston general-gubernatori Samsonovning imperatorga 1909 yil bo'yicha yo'llagan axborotnomasi va senator Palenning taftishi yakunlari asos qilib olindi¹. Kengash Turkiston general-gubernatorining barcha talablarini asosli deb topdi. Turkistonga oid barcha tadbirlar uning roziligisiz amalga oshirilmasligi kerakligini tasdiqladi. Imperator saroyi, moliya, adliya sohasidan tashqari, barcha vazirliklar idoralarini boshqarishda unga imperiya vaziri vakolatlari berildi. Metropoliya hukumati o'z siyosatini faqat shu birgina shaxs – Turkiston general-gubernatori orqali amalga oshiradigan bo'ldi. General-gubernatorga ikkinchi yordamchi lavozimi ham berildi. Kengash ishlab chiqqan Turkiston o'lkasi idorasiga oid takliflar 1912 yil 20 noyabrda Vazirlar Kengashida muhokama etilib, ma'qullandi².

Imperiya hukmdor doiralari Turkiston o'lkasining rus va tub joy aholisi uchun maxsus siyosat dasturini ishlab chiqdi. Rus aholisi o'rtasida inqilobiy harakatni to'xtatish va Turkiston xalqlari o'rtasida milliy-ozodlik harakatining barcha ko'rinishlarini bo'g'ib tashlashga oid bir qator tavsiyalar berildi.

Harbiy vazirlikning Bosh shtabi Osiyo bo'limi Turkiston general-gubernatoriga Ryazan guberniyasi ahvoli haqidagi hisobotni berib, unga imperatorning fikri mavjudligiga e'tiborni qaratdi. Ryazan gubernatori unda inqilobiy kuchlar tag-tomiri bilan yo'qotilmagani, nisbiy osoyishtalik aldamchi bo'lib, inqilob uchqunlari istalgan vaqtda alanga olinishi mumkinligini unutmagan holda «Toj-taxtning sodiq xizmatchilariga doimo ko'z-quloq bo'lib turish lozimligini» uqtirgan va hujjatga Nikolay II o'z qo'li bilan «Mutlaqo to'g'ri» degan dastxat yozgan edi³.

Turkiston general-gubernatori markazdan ana shunday andoza-dasturlar olib va keng vakolatlarga ega bo'lib, o'lkada mirshablik holatini kuchaytirdi. Mustamlakach ma'murlar joylarda josuslik nazoratini keng yo'lga qo'ydilar.

Toshkent temir yo'li jandarm-polisiya boshqarmasi boshlig'i, alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi Babkin joylardagi xodimlariga 1910 yil 19 iyunda yuborgan ko'rsatmasida 1905–1907

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 1674-ish, 105-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 1674-ish, 110-varaq.

³ O'zR MDA, 468-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 78-varaq.

yillar inqilobida va ish tashlashlarda qatnashgan barcha shaxslar haqida ma'lumot to'plashni buyurdi. «Hech qanday tashviqotga yo'l qo'yilmasin, -- deb yozgan edi u, -- aqlar bezovtaligiga zudlik bilan chora ko'rsin, ish tashlashdan alohida ogoh bo'linsin»¹. General-gubernatorning «Ishchilar o'rtasida jinoiy adabiyotlar tarqalishiga zinhor yo'l qo'yilmasin»², degan buyrug'iga benuqson rioya etish buyurildi.

Siyosiy polisiya tomonidan joylarga maxsus so'rov-anketa yuborildi. Unda quyidagi savollar bor edi: «1905-1906 yillarda ish tashlashlar qancha bo'lgan? Ish tashlash maqsadi va xususiyati qanday? 1907 yili qancha inqilobiy chiqishlar va terror aktlari sodir bo'lgan? Sosial-demokratlar va sosial-inqilobchilar tashkilotlarida qancha xodimlaringiz bor?»³. Anketada inqilobiy chiqishlar salmog'i har bir joyda qanday bo'lgani va uning yondosh aholiga ta'sirini aniq tasvirlash zarurligi ko'rsatilib, jandarm-polisiya bo'limlari o'z hududlarida yashirin ig'vogarlik bilan shug'ullanuvchi xodimlarga ega bo'lishlari majburiy ekanligi jiddiy tarzda uqtirilgan⁴.

Imperiya ichki ishlar vazirligi polisiya departamenti Maxsus bo'limi yuborgan mutlaqo maxfiy yo'llanmasida polisiya-jandarm-eriya bo'limlari boshliqlariga aholi o'rtasida agentura tarmog'iga ega bo'lish ishiga shaxsan javobgar ekanliklari ta'kidlanib, ular ishchi tashkilotlari, inqilobiy firqalarda o'z josuslarini orttirishlari juda muhimligi alohida ko'rsatildi. Bu tadbir, maxsus bo'limning fikricha, «o'tgan 1905 yildagiga o'xshash voqealarning oldini oladi»⁵.

TRMB va maxsus bo'lim tavsiyalari asosida o'lkadagi barcha amaldorlarga general-gubernator tomonidan hukumatga qarshi yo'nalishdagi harakatlar to'g'risida arziyas ko'rinishda bo'lsa ham, xabar qilish, ayniqsa, uyushgan harakat, yo ish tashlash hollariga alohida e'tibor qaratish topshirildi. «Ana shunday hollarni sinchiklab o'rganish juda zarur va maqsadga muvofiq ekanligini tajriba ko'rsatdi, -- deb yozgan edi o'z ko'rsatmasida general-gubernator. Ba'zan arziyas, samarasiz va befoyda ko'ringan bir kunlik ish tashlash, yo boshqa hollar ma'lum muhitning, ayrim shaxslarning ichki intizomi, qobiliyati, tashkilotchiligi va faol chiqishga layoqatini ko'rsatish uchun sinov vazifasini o'taydi. Bunday hollarni tad-

¹ O'zR MDA, 468-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 99-varaq.

² O'zR MDA, 468-jamg'arma, 1-ro'yxat, 424-ish, 4-varaq.

³ O'zR MDA, 468-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 78-varaq.

⁴ O'zR MDA, 468-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 79-varaq.

⁵ O'zR MDA, 468-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 161-varaq.

qiq etish orqali dastlab filial bo'limlar, keyin esa bunday tashkilotlarning markaziy idoralari aniqlashga muvaffaq bo'lingan»¹.

Alohida jandarmlar korpusi shtabi boshlig'i general shtab general-leytenant Gerselman esa temir yo'l ishchilari ustidan nazoratni kuchaytirish bilan bir qatorda ularning atrofidagi yerlarda paydo bo'luvchi har qanday shaxslarni nazoratga olish to'g'risida maxfiy ko'rsatma yo'lladi. Bunday o'rgimchak to'rlari bilan qurshab olingan Turkistonda markaz ko'rsatmalari qanday amalga oshirilgani haqida jumladan 1912 yil Toshkentda bo'lgan voqeani sosial-demokrat (bolshevik) P.F.Saxarova (1890–1969) o'z esdaliklarida shunday bayon qilgan: «Nuqul o'zbeklar istiqomat qiluvchi guvalla uylardan iborat eski shaharning yangi shaharga yaqin joyidagi uylardan birida joylashdik. Biz temir yo'lchilar bilan aloqa o'rnatishga intildik. Shunda o'ylab qoldik. O'zbeklar o'rtasida inqilobiy ruhdagi tashkilotlar bormikan? Nahotki, Turkiston noibi yaratgan qullik istibdodiga qarshi ular safida inqilobiy tashkilot bo'lmasa?». Saxarova shu maqsadda o'zbeklar bilan bir-ikki bor suhbatlashganida Kamolov degan odam o'zbeklarda ham taraqqiyparvar kishilar borligini, er-xotin Saxarovlarni ular bilan tanishtirishini aytgan. Shundan so'ng, ko'p o'tmay, ular qamoqqa olindi. Kamolov TRMB ayg'oqchisi ekan². Shu faktning o'zi ham rus maxfiy polisiyasi va razvedkasi musulmon aholisi o'rtasida ham keng josuslik tarmog'ini yoyganidan dalolat beradi.

Peterburgda ishlangan dastur bo'yicha chor mustamlakachilarning maxfiy siyosiy idoralari izchil ishlab, Turkiston musulmonlari ongida jiddiy to'ntarish yuz berganini va milliy-ozodlik kurashi ko'rtak yozib bu holat jadidlar siymosida gavdalanganini yaxshi payqashgan. Ular general-gubernatorning maxsus so'rov anketasi bo'yicha mahalliy aholi kayfiyati, dunyoqarashi, rus hokimiyatiga va tuzumiga munosabati, milliy mustaqillikka intilishi hollarini chuqur o'rganishgan. TRMB o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik yoshlarining dunyoqarashi va xatti-harakatlaridan xabardor bo'lish uchun ularning safida o'z odamlariga ega bo'lgani hujjatlardan ma'lum.

Chorizm 1892 yil 18 iyundan kuchga kirgan «Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqidagi qoidalar»ni Turkiston o'lkasida tatbiq etdi. Bu rus mustamlakachilari uchun turli vakolatlar darvozalarini keng ochdi. «Kuchli muhofazada» deb e'lon qilingan

¹ O'zR MDA, 22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1199-ish, 2-varaq.

² «Voprosn istorii», 1977, №11, 125-bet.

joyda Turkiston general-gubernatori majlis-yig'inlarni tarqatib yuborish, savdo-sanoat korxonalarini yopish, matbuot organlarini taqiqlash, istagan odamini surgun qilish, jarimaga tortish va boshqa huquqlarni olgan. «Favqulodda muhofaza» deb e'lon qilingan joyda esa butun xokimiyat general-gubernator yoki u tayinlagan bosh noib qo'liga o'tgan. 1892 yil 18 iyundagi «Qoidalar» esa harbiy holatni o'rnatib, fuqarolar ishini ham harbiylar qo'liga topshirdi. Turkistonda har ikki mirshablik qonunlari (1887 yilgi Nizom va 1892 yilgi qoida) qisqa uzilishlar bilan 1892 yildan 1917 yilga qadar muntazam amal qildi.

Turkistondagi mustamlakachilar markazdan olingan keng vakolatlari yetmaganday, endi o'lkada xuddi mustabid xonlar zamonasiga taqlidona, o'lim jazosini oshkora ijro etishga ruhsat olishdi.

General-gubernator harbiy vazirga yo'llagan maktubida yozgan: «Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu o'lkada oshkora qatl ijrosigina mahalliy aholiga yaxshi ta'sir ko'rsata oladi. Sizdan, Rossiya xududida o'lim xukmini oshkora ijro etmaslik haqidagi qonunni Turkiston o'lkasiga tatbiq etmaslik uchun zoti Oliyarlari ijozatlarini olib bersangiz, deb iltimos qilaman»¹.

Chor amaldorlari Turkiston xalqlari huquqlarini cheklash sababini shunday izohladilar: «Turkiston o'lkasining yerli aholisi hali juda past rivojlanish bosqichida turibdi. Ular o'z ma'muriyati va sudini o'zlari saylash xuquqini tushinishi va qadriga yetishi uchun hali juda g'o'r va nodondir. Mazkur jamiyat qonun tomonidan o'ziga berilgan haq-huquqlardan foydalanishni bilmaydi. Bu xuquq uning faqat zarariga xizmat qiladi»².

Rusiya shovinistlari xalqning ko'tarilishi sababini esa quyidagicha izohlashgan: «O'lkani bir hovuch chor qo'shini bilan istilo qilishda misli ko'rilmagan jangovar matonat ko'rsatgan rus kishisi erlilar o'rtasida afsonaviy bahodir timsoliga aylangan edi. Kelgindilarning temir irodasi oddidagi qo'rquv esa yerli aholida musulmonchilik tarbiyalangan g'ayridinlarga nafratini ular qalbining eng tubiga yashirgan edi. Ana shuning uchun ham dastlab Rossiya hokimiyati ularni osongina boshqarib keldi. Ammo endilikda yerli omma ilk istilochilar qiyofasini unuta boshladi»³.

Andijon tumanboshisi polkovnik I. Brjeziskiy bu fikrni yanada oydinlashtiradi: «O'lkadagi 27 yillik xizmatimdan kelib chiqib

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 4-ro'yxat, 117-ish, 10-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 25-ro'yxat, 989-ish, 156-varaq.

³ O'zR MDA, 276-jamg'arma, 1-ro'yxat, 909-ish, 297-varaq.

shunday qat'iy xulosaga keldim: bizning yovvoyi yerlilarga inson-parvarlik mutlaqo to'g'ri kelmaydi»¹.

Knyaz Mansurov Davlat Dumasining yopiq majlisida Rossiyada yashirin tarzda hukm surib, 1861 yilda bekor qilingan qullik (krespostnoylik) tuzumi aslida Turkistonda benuqson amalga oshirilganini tan olishining zamirida tarixiy haqiqat yotardi.

Rossiya parlamenti – Davlat Dumasida noib knyaz Mansurov Turkistonda krespostnoy huquq amalda ekanligi haqida gapirganda hech qanday mubolag'a bo'lmagan.

2. SOLIQ VA MAJBURIYATLAR. MEHNATKASH XALQ AHVOLINING OG'IRLASHA BORISHI

Rossiya hukmron doiralari Turkiston o'lkasiga mo'may daromad manbai va arzon xom ashyo makoni sifatida qarab, xalqqa solinadigan soliq va majburiyatlarni ko'paytirish siyosatini qo'llab keldi.

O'lkada soliqlar miqdori tinimsiz oshib bordi. 1889 yildan 1896 yilgacha mustamlaka ma'muriyati soliqlarni 40 foizga oshirdi. General-gubernator imperatorga 1895–1897 yillar bo'yicha bergan hisobotida soliqlarni yanada ko'paytirib, o'lkadan olinadigan daromadni oshirish uchun aholidan yangi harbiy soliq undirishni taklif qildi. «Erli aholi rus harbiy kuchi panohida barcha rus fuqarolari huquqlaridan teng foydalangan holda o'z farovonligini oshirmoqda, – deb yozgan edi general-gubernator, – shu bilan birga u hech qanday asossiz rus fuqaroligi beradigan katta imtiyozlardan ham foydalanmoqda. Shuning uchun ham bunday soliqning joriy etilishi xalqqa og'ir botmagan holda davlat xazinasiga yiliga yarim million rubl daromad keltiradi»². Mustamlakachilar sardori paxta yakka hokimligining tobora kuchayib borayotganini qayd etib: «1887 yilda 200.000 pudni tashkil qilgan Amerika navli paxta yetishtirish 1895 yilga kelib 500.000 pudga yetgan, ya'ni Rossiya sanoati iste'mol qiladigan tolaning uchdan bir qismini tashkil qilgan»³, – deb yozadi.

Mustamlakachilar bu boy o'lkani ruschasiga o'zlashtirishga ahamiyatni kuchaytirishga intildilar.

Imperiyaning Davlat mulklari va zirotchilik vaziri Krivoshein rus podshosiga yo'llagan taqdimnomasida bu haqda shunday deb

O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1968-ish, 65-varaq.

O'zR MDA, 1-jamg'arma, 5-ro'yxat, 939-ish, 12-varaq.

O'zR MDA, 1-jamg'arma, 5-ro'yxat, 939-ish, 6-varaq.

yoʻzgan edi: «Rus xalqining siyosiy ustivorligiga erishish uning xoʻjalik sohasidagi quvvati bilan mustahkamlanmogʻi lozim... Oʻziga toʻq musulmon aholisi oʻrtasida kelgindilar xoʻjaligi kambagʻal va xarob holda boʻlmasligi kerak. Kelgindi rus xoʻjayinning yerida ishlovchi sartni koʻrish maroqli hol boʻlishiga shubha yoʻq. Bilʻaks, uning sart qoʻlida batrak boʻlishi juda nohush va qoʻngilsiz voqea ekanligi bizga ayon boʻlmogʻi kerak»¹. Shuning uchun ham «oʻzga millatlarning rus elementini bosib ketmasligi uchun» general-gubernatorga keng huquqlar berildi. Mustamlakachilar rus qishloqlarini oʻzbek, qirgʻiz, tojik qishloqlaridan ajratib, mustaqil boʻlishini taʼminlash bilan birga zarur xollarda rus va mahalliy qishloqlarni birlashtirib rus volost starshinasini uning rahbarligiga qoʻyganlar»².

Mustamlaka maʼmuriyatining kelgusi faoliyat dasturida ham oʻlkani ruslashtirish gʻoyasi asosiy oʻrinni egalladi. Oliy harbiy-siyosiy doiralar fikrini bayon etgan knyaz Masalskiy 1913 yilda bu haqda loʻnda fikr aytgan: «Turkistonda qariyb yarim asrlik hukmronligimizga yakun yasaganimizda beixtiyor shunday savol tugʻiladi: Bu mamlakatdagi kelgusi faoliyatimiz dasturi qanday boʻlishi lozim? Yaqin orada qanday vazifalarni amalga oshiramiz? Maqsadimiz nimalardan iborat va nimalarga intilishimiz lozim? Turkistonda navbatda hal etilishi lozim boʻlgan muhim masalalardan biri – oʻlkani rus aholisi bilan mustamlaka qilishdir. Rossiyaga qoʻshib olinganiga yarim asrcha vaqt oʻtganiga qaramay, oʻlkada bu aholi mahalliy musulmon nufusiga nisbatan juda ozchilikdir... Paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish va yaxshilashga biz doim intilishimiz, bu borada sarf-xarajatlarni ayamashimiz lozim. Chunki yaqin kelajakda sanoatimizni oʻz xom ashyomiz bilan taʼminlash masalasi muhim hayot-mamot masalasiga aylanadi»³.

Rusiya kapitali uchun oʻlka darvozasini keng ochib bergan temir yoʻl shaxobchalari oʻrgimchak toʻri misol har yoqqa ildiz otib, Kaspiyorti temir yoʻlining uzunligi 1748 chaqirimga yetdi. Mustamlaka xom ashyo manbalarini metropoliya sanoatiga yaqinlashtirishning navbatdagi vazifasi – Turkiston-Sibir temir yoʻlini qurish kun tartibiga qoʻyildi. «Juda muhim iqtisodiy, mustamlakachilik va strategik ahamiyatga ega boʻlgan bu temir yoʻl liniyasini zudlik

¹ OʻzR MDA, 1-jamgʻarma, 27-roʻyxat, 63-ish, 2-varaq.

² Palen K. K. Taqdimnoma, 51-bet.

³ Туркестанский край. Т. XIX, составитель князь В. И. Масальский. СПб, 1913, стр. 558.

bilan qurish zarurati barchaga ayon»¹, – deb yozgan edi knyaz Masalskiy.

Temir yo'l o'lkada ruslashtirish jarayonini tezlatishda katta xizmat ko'rsatdi. Rusiya kapitali bilan birga rus mujiklari, lo'ttibozlar, turli-tuman tovlamachilar, xonavayron bo'lgan tijorat ahli – «janob toshkentliklar» oqimi kuchaydi. Metropoliyadagi xususiy kapital endiliqda o'lka tabiiy boyliklarini arzon va qulay yo'l bilan tashib ketish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1895 yilning o'zidayoq birgina Farg'onadan Rossiyaga 3 million 399 ming 371 pud paxta, 451 ming 740 rubllik teri, 192 ming rubllik pilla tashib ketildi. O'lkaning gavhari – Farg'ona viloyatiga minglab kelgindi mujiklar joylashtirildi. O'sha voqealar shohidining yozishicha, 90-yillarda «Tog'u sahralarda... kambag'al qoraqirg'izlarning tog'lardagi mulklarini tortib olib va ichkari Rusiyadan bir necha ming rus dehqonlarini ko'chirib keltirib, bo'lib berib, oxirda qirg'izlarni o'z mol-mulklariga ham ega qilmay, bechoralarni Farg'onaning keng tog'lariga tirqiratib yubordi. Shahar xalqi zolim hokimlar zulmidan bezor bo'lib ko'chaga chiqolmay qolganlaridek, shuncha keng tog'lardagi qirg'izlar ham o'zlarining ota-bobolaridan buyon yoqib kelgan qurigan o'tinlaridan yoqolmay qoldilar, balki tikoni qolmadi. Ot, mol, qo'y, echkilarni bermalol boqolmay, bir tarafdand, cho'b, og'iz puli deb jarima solib, pullarini olsa, ikkinchi tarafdand, «to'yog' puli» deb qo'ylarini hisoblab oldilar. Uchinchi tarafdand, o'ris mujiklari, «menim ekinimga kirdi» deb mollarini «shtraf» qilib olib qo'yardi. Ariza berilsa, kimga berilar edi? Yana shu zolimlarga berulur edi. Bular bo'lsa hech vaqt kambag'allarning arz-dodiga quloq solishmas edilar. Mana shunday qattqlik kunlarga qolgandan keyin xalq orasida zolimlarga qarshi qo'zg'alonchilik ruhi paydo bo'lib qoldi»².

Mustamlakachilarning Farg'onada «doimo g'azovot g'oyasi ko'lanka tashlab turadi» degan xavotirlarida jon bor edi, albatta. Chunki xuddi shu viloyat yer-suv munosabatlaridagi ziddiyatlar g'oyat kuchaygan rayonlardan edi. Alohida jandarmlar korpusi generallaridan Batyanovning fikricha, bunday joylardagi idora sof mirshab tartibini taqozo qilgan. «Hukumat va xalq davlat tarkibida doimo o'zaro mahdud holda yashaydi, – deyilgan edi bir jandarm hujjatida. Zotan, xalq doimo hukumatga tahdid solib turadi. Shuning uchun ham har qanday xalq harakatida xavf-xatar mujassam. Hukumat xalqqa nisbatan doimo urush holatida bo'lmog'i darkor»³.

¹ O'sha asar. 559-bet.

² *Fozilbek Otabek o'g'li*. Dukchi eshon voqecasi. Toshkent, 1992, 27-bet.

³ *Sodiqov H.* Ko'rsatilgan dissertasiya, 30-bet.

General-gubernator o'z xatlaridan birida shunday yozgan: «Xon hukmronligi ta'siridan chiqmagan, arzimas bir o'g'rilik uchun qo'li kesilgan, sal jiddiyrog'i o'lim bilan jazolangan davrni unutmagan erlilar uchun bunday tuzumdan bizning muruvvatli tuzumimizga o'tish juda tub o'zgarish bo'ldi»¹.

General-gubernator harbiy vazirga o'lkadagi ahvolni tanishtirib, keyingi yillarda «mehnatsevar erli aholi farovonligining oshgani» haqida yozadi. Farg'ona viloyati harbiy gubernatori 1889 yilda podshohga yuborgan hisobotida bu farovonlik sabablariga to'xtalib: «Viloyatda paxtachilikning va boshqa sohalarning rivoji fabrika, zavod sanoati unumdorligi amerika paxta navining keng tarqalgani ta'sirida ro'y berib, foyda shu yilning o'zida 2.317.900 rubl miqdorida ifodalandi»², deb yozgani bejiz emas edi.

XX asr boshlarida paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, don – 37 foiz, chorvachilik – 15,8 foiz, bog'dorchilik – 3 foiz, uzumchilik – 3 foiz, boshqa sohalar esa – 1,2 foizni tashkil qilgan. Paxtachilik imperiyaning chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini tejashga imkon bergani ham to'qimachilik, gazlama sanoati gurkirab o'sishiga turtki berdi. Ammo keng dehqon ommasi tobora qashshoklashib ishchilar sinfi safini to'ldirdi. «Qishloq proletariatining iqtisodiy ahvoli, – deb yozgan edi «Russkiy Turkestan» gazetasi, – yildan-yilga yomonlashib bormoqda, chunki yildan-yilga ochdan o'lish xavfi kuchaymoqda. Dehqonlarning kambag'al qismi to'la xonavayronlik darajasiga yetib, tez o'sib borayotgan yerli proletariat qiyofasiga kirmoqda»³.

Hunarmandlar ham shunday ahvolga tushib ishchilar armiyasi safini to'ldira boshladilar. O'sha davr tadqiqotchilaridan biri Turkistonning dehqon va hunarmandlari ahvoli haqida shunday yoza-di: «Iqtisodiy tanglik va moddiy qashshoqlik, og'ir mehnat natijasida to'plangan boyliklarning barchasi uncha ko'p bo'lmagan ekspluatatorlar qo'lga topshirilishi yaqin kelajakda juda jiddiy oqibatlar keltirishi mumkin... Bunday tanglik o'zining so'nggi poyoniga yetganda nimalar bo'lishi va qanday oqibatlar yuzaga kelishini oldindan sira tasavvur qila olmaymiz»⁴.

¹ Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. Istibod. «Qishloq hayoti», 1999 yil 3 sentyabr.

² O'zR MDA, 1-jamg'ama, 4-ro'yxat, 241-ish, 4-varaq.

³ «Русский Туркестан», 1906 г. 11 августа.

⁴ Слущкий И.М. Хлопководство в Туркестане. Туркестанское сельское хозяйство, 1911, № 4, стр. 352.

Rossiya imperatori Siyosiy agentining 1905 yil noyabrda yoʻl-lagan maktubida ham ruslar orasidagi inqilobiy harakat oʻzbeklarni ham aynitayotgani, paxta tozalash zavodlarida ish toʻxtatilgani maʼlum qilingan. Samarqand Eski shaharidagi oʻzbeklardan choy qadoqlash korxonalarida ish tashlash jiddiy tus olgani va bunda ruschani biladigan bolshevik va eser tashviqotchilari bilan bogʻlangan Doʻstmuhammad Ustaboevning roli katta boʻlgani polisiya hujjatlarida oʻz aksini topgan.

Samarqand viloyati harbiy gubernatori general shtab general-mayori Gesketning 1905 yil 21 dekabrda tumanboshilarga yuborgan koʻrsatmasida Samarqandning oʻzbeklar yashaydigan qismida «ay-rim kimsalar xalqni soliqlarni toʻlamaslikka chaqirayotganlari» maʼlum qilingan. General-gubernator idorasi hujjatlarida ham 1905 yil noyabr-dekabrda rus inqilobchilari mahalliy aholini soliqlarni toʻlamaslik, majburiyatlarni bajarmaslikka daʼvat etayotgani, oʻz-beklarni «rus hukumatiga qarshi qoʻzgʻatishga urinishayotgani» alohida uqtirilgan¹.

Xuddi shunday urinishlar haqidagi maʼlumotlar Sirdaryo, Kas-piyorti viloyatlari gubernatorlaridan ham olingan.

Samarqand viloyagi harbiy gubernatori 1907 yil 24 fevraldagi maʼlumotnomasida «Xoʻjanddagi yangi soliq solinganidan keyin paydo boʻlgan boqimandalar, asosan, baqiroqlarning hukumatga qarshi gaplarining aholiga yetib borganligi oqibatidandir» deganida chuqur maʼno bor edi. Gubernator rus inqilobchilari va mahalliy aholi oʻrtasida vositachi sifatida «Kavkazdan kelgan arman, gruzin, fors, lezgin va boshqalar» ekanligini aytib, ular inqilobiy faoliyatni keng quloch yoydirish uchun juda qulay material» deb baholaydi va kelgindilar «shu kungacha sodiq va tinch yerli aholini ham yoʻldan urayotganini» taʼkidlab oʻtadi. Fargʻona viloyati harbiy gubernatori esa 1907 yil 1 martda general-gubernatorga yoʻllangan maxfiy axborotda inqilobiy harakat qishloqqa ham koʻchgani va bu joylarda oʻziga xos usulda namoyon boʻlayotganini shunday taʼriflaydi: «Hozirgi kundagi siyosiy jinoyatlar olomonning toʻpoloni, gʻalayoni, talonchiligi, qotilligi kabi holatlar bilan uzviy bogʻlangan»².

Turkiston oʻlkasi aholisining 90 foizini tashkil etgan dehqon va chorvadorlarning ahvoli tobora mushkullashib bordi. Turkistondagi yer soligʻi 1914 yilda 6859021 rubl boʻlgan boʻlsa, 1916 yilda bu raqam 14311771 rublni, yaʼni ikki barobarni tashkil qildi. 1915

¹ Oʻsha joyda, 111-bet.

² Oʻsha joyda, 120-bet.

yilda esa maxsus harbiy soliq solinib, u paxtakorlar uchun har pud paxtadan 2 rubl 50 tiyinni tashkil qildi. O'sha 1915 yildagi soliqlar miqdori 38329000 rubldan iborat bo'ldi. Mustamlakachilar imperiya to'qimachilik sanoati manfaatlarini himoya qilib paxtaga bozor iqtisodiyoti qonunlariga xilof ravishda qat'iy narx – pudiga 24 rubl belgiladi. Natijada paxtakorlar bir yil ichida 60 million rubl yo'qotdilar. Agar 1913 yilda paxta narxi 50 foiz oshirilgan bo'lsa, boshqa zarur mollar narxi 400–500 foizga ko'tarildi. Non narxi esa 6 barobar oshdi. Chayqovchilik avj oldi¹.

Jandarmeriya xizmati Qo'qon bo'limi boshlig'ining 1915 yil 18 noyabrdagi maxfiy hisobotida «olib sotarlar har yuz yilda bir marta, hozirgidek, urush yillarida boyib ketishi mumkin», deb yozgan edi. Paxta xarid narxining ana shunday sharoitda yana 20 foizga tushirilishi faqat mahalliy paxtakorlar emas, balki paxta yetishtirishga ixtisoslashgan rus mujiklarining ham keskin noroziligiga sabab bo'ldi. 1916 yil 4-6 martda Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati uyushtirgan yig'inda paxtachilik bilimdoni S. Ponyatovskiy bunday siyosat juda xunuk oqibatlariga olib kelishini aytib, «Moskva bizning O'rta Osiyo tolasiga nihoyatda katta e'tibor berayotganini ko'rib turibmiz va favqulodda e'tibor ulkan falokat debochasidir», deganida chuqur haqiqat bor edi. Urush bahonasida turli-tuman qo'shimcha majburiyatlar va yangi soliqlar undirilishi ham xalq ahvolini og'irlashtirgani va bu hol xunuk oqibatlariga olib kelishini siyosiy polisiya agentlari xabar qilgan edilar.

TRMB agentlari g'alla zaxiralarini yashirayotgan, kundalik xarid mollari narxini ko'tarish payida uni sotayotgan savdogarlar haqida qator axborotlar yo'llagan. TRMBning tajribali josusi Avgustovskiy aholining tobora oshib borayotgan qimmatchilik va bo'hrondan noroziligi haqida yozib, bu hol kelgusida katta to'polonlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirgan. «Aholi o'rtasida, – deb yozgan edi josus, – mahalliy ma'muriyat savdosotiqni tartibga sololmas ekan va aksincha u oziq-ovqatni yashirayotgan chayqovchilarni o'z panohiga olayotgan ekan, demak, odamlarning o'zlari chayqovchilarning tanobini tortib qo'yishlari kerakligi haqidagi gaplar kuchayib bormoqda»². Avgustovskiy bunday sharoitda chetdan tashviqotchilar kelsa, ular o'zlari uchun qulay zaminni shu o'lkadan topishlari mumkinligidan ham boshliqlarini ogoh qilgan.

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 21-ish, 140-varaq.

² O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2120-ish, 140-varaq.

Toshkentda ancha vaqt ishlagan quruvchi muhandis fon Fegezakning o'sha 1916 yildagi fikri ham diqqatga sazovor: «Mening fikrimcha, Rossiya o'zining iflosligi va tartibsizligidan halokatga uchraydi. O'shanda ruslar uyg'onib adolat, halollik va tozalik hukmron bo'lgandagina davlat yashashi mumkinligiga ishonch hosil qilishadi»¹.

Mustamlakachilar Turkistondan urush yillari 59 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketishgan. Frontga aholidan 70 ming ot, 12 ming tuya, 38 ming kvadrat metr gilam-namatlar, 2400 ming rubl yig'ib olingan. Xuddi shu davrda guruch, go'sht, qand, poyafzal va gazlamaning narxi bir necha marta ko'tarilib, dehqon bilan hunarmand hamda ishchi ro'zg'orini mushkul holga soldi. «Andijon tumanida, – deb yozadi Darxon mahallalik Sodiq hoji, – armiya ehtiyojlari uchun 200 ming rubl yig'ildi. Bu pulni ma'muriyat harbiy xizmatni o'tamaslik evaziga soliq sifatida yig'di. 8 iyul kuni ertalab esa, yuqoridan bo'lgan buyruqqa asosan, shahar Jome' masjidida quyi mahalliy ma'muriyat vakillaridan 200–300 kishi yig'ilishdi. Tuman boshlig'i polkovnik Brjeziskiy odamlar kam to'plangan deb, bozordagi barcha aholini haydab kelishni buyurdi. 10 mingga yaqin kishi to'plandi. Ro'za oyi bo'lgani uchun xaloyiq asabiy, toliqqan ahvolda ancha turib qoldi. Tuman boshlig'idan chaqiriq yoshiga etganlarni askarlik xizmatidan ozod qilishni so'rashdi. Podshoh nomidan chaqiriqdan ozod qilinganlik haqida qog'oz berishni iltimos qilib yig'lab-siqtaganlar ham bo'ldi. Brjeziskiy indamay jo'nab ketdi va bir soatdan so'ng ikki vzvod askar bilan qaytib keldi. Tinch muloqot sekin-asta otishmaga aylandi»².

Aholi tomonidan advokat Ubaydulla Asadullaxo'jaev nomiga yozilgan ariza ham diqqatga sazovor. Unda quyidagilarni o'qiyimiz: «Hozirgi Andijon tumani boshlig'i Brjeziskiy davrida avvallari ham mavjud bo'lgan poraxo'rlik, tovlamachilik va zo'ravonlik nihoyatda kuchayib ketdi. Qonun-qoidaga aylangan bu tizimning xususiyatlari quyidagicha: 1) Aholidan o'lpon olish va poraxo'rlikka mahalliy amaldorlar: ellikboshi, mingboshilar va hozirgi bosh oqsoqol Shermat Alimqulov (qo'qonlik amiri lashkar Alimqulning o'g'li Shermuhammad) kabi ma'muriyat vakillarini jalb etishgan; 2) Soliq-o'lpon undirish va pora olish ma'muriyat vakillari tomonidan bevo-

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat. 190-a ish. 16-varaq.

² O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat. 2113-ish, 42-varaq.

sita emas, balki bilvosita vositachilar orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, nohiya boshlig'ining tilmochi Yusufjon hoji hamda pristavlarning tarjimonlari vositachilik qilishadi. Bu usul shunday ustalik va izchillik bilan olib boriladiki, natijada aholi amaldorlarning qonunga xilof ishlari yuzasidan qilgan shikoyatlari hech qachon adolatli hal bo'lmashligiga ko'nikib ketishgan»¹.

TRMB agenturasi xabarlarida sosial-demokrat A.Kazakov «ishchilar o'rtasida urushga qarshi so'zlayotgani, urush xalq uchun bafoyda ekani, ishchilar ahvoli og'irlashgani, hukumat va tijorat-chilar esa urushdan manfaatdor ekanliklarini tushuntirayotgani to'g'risida»² ma'lumotlar olingan.

Boshqa bir axborotda TRMB agenti Toshkent tramvayi ishchilarining «qurolni hukumatga qarshi qaratish kerak» va umuman o'lka ishchilari o'rtasida «eski tuzum saklanib qololmaydi, inqilob muqarrar» degan g'oya keng quloq otganini xabar qiladi. Bunday holat mustamlakachilar o'rtasida, chorizm kutganidek, yaqdollik yo'qligini ko'rsatdi, qolaversa, rus ishchilari, o'zlariga yaratilgan imtiyozlar va hukmron mavqeidan qat'i nazar, mavjud tuzum tayanchlari emasligini bildirib qo'ydilar.

Mahalliy millatlardan iborat ishchilar sinfi o'rtasida ham mavjud tuzum va tartiblardan norozilik uchqunlari asta-sekin alanga olmoqda edi. Temir yo'l ishchilari safida tub joy millatiga mansub ishchilar 4,5–5 ming kishini tashkil qilgan. Xuddi shu temir yo'ldagi qora ishda, qurilishlarda va malakali kasblarda ishlovchilar ozodlik g'oyalari ta'siri ostida o'z haq-huquqlarini tanib, milliy o'zligini anglay boshlagan edilar.

3. XALQ TURMUSHI: HUNARMANDCHILIK, SHIRKATLAR, SANOAT VA TIJORAT

Turkiston aholisining Rossiya bosqinidan keyingi nufuzi va umumiy soni haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Imperator Aleksandr III ning topshirig'iga ko'ra Turkiston o'lkasini taftish qilgan (1882–1884) F.Girsning aniqlashicha, Turkistonda hammasi (erkak va ayol) bo'lib 2406000 kishi istiqomat qilgan va shundan erkaklar soni taxminan 1200000 kishini tashkil etgan. Manbalarining guvohlik berishicha, XX asr boshida o'lkada 7464100 kishi, Buxoro amirligida 2236437, Xiva xonligida esa 640 mingdan ko'proq kishi yashagan³.

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1631-ish, 10-varaq.

² O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1462-ish, 92-varaq.

³ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 25-ro'yxat, 26-ish, 18-varaq.

Turkiston Xazina Palatasi tomonidan soliq to'lovchilarning soni va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tuzilgan ijtimoiy xo'jalik boshqarmasi hujjatlarida ko'rsatilishicha, 1884 yilda Qo'qon shahrida 7711 hovli bo'lib, ularda 60 ming o'zbek, 2400 tojik, 420 qirg'iz, 410 lo'li, 302 rus, 72 dungan, 21 hind, 17 afg'on istiqomat qilgan. Qo'qon shahri aholisining umumiy soni 63642 kishiga yetgan. «Umuman olganda, – deb yozgan edi Girs, – Turkiston o'lkasining aholisi imperiyaning boshqa qismlarida istiqomat qiluvchi musulmon aholi singari rus hukumatiga nisbatan yaxshi munosabatda emasligini payqamaslikning iloji yo'q. Shubha yo'qki, o'zining siyosiy mustaqilligini yo'qotib qo'ygan xalqda o'tmishini eslash uning g'olibga nisbatan bo'lgan munosabatida yoqimsiz ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Biroq hukumatimiz bu tuyg'uni yumshatish uchun mag'lub xalqning iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasida ko'p ishlarni amalga oshirdi!»¹. Imperiya Davlat kengashida Turkiston aholisining ruslar bilan birga ta'lim olishlariga yo'l qo'yish masalasi muhokama etilganda, Rossiya imperiyasi harbiy vaziri general-ad'yutant graf D. Milyutin ham, xalq maorifi vaziri, haqiqiy maxfiy maslahatchi graf D. Tolstoy ham Girsning yuqoridagi gaplariga hamohang fikrlar bildirishgan edi. Har ikki vazir ham mahalliy aholi, xususan, o'zbeklardan tashkil topgan va savdo va dehqonchilik bilan shug'ullanayotgan muloyim tabiati bilan ajralib turgan musulmon aholini yoppasiga mutaassib deb atash adolatdan bo'lmasligini qayd etishgan. Vazirlar «ularning ruslar bilan birga ta'lim olishlariga ruhsat berish» mumkinligini e'tirof etishgan.

XIX asr oxirlarida o'lkada sanoat ishlab chiqarishi asosan aholining maishiy ehtiyojlariga xizmat ko'rsatuvchi mayda hunarmandchilikdan iborat edi. Sanoat ibtidoiy bosqichda edi.

Ko'chmanchi aholi orasida hunarmandchilik: kigiz tayyorlash, uy jihozlari ishlab chiqarish, oila ehtiyoji uchun teri va mo'yna ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu yerda kigiz (namat) tayyorlash ancha rivoj topgan, chunki unga talab hamma vaqt katta bo'lgan. Umuman, Turkistonda bo'z, atlas, shoyi to'qish, do'ppido'zlik, temirchilik, zargarlik keng rivoj topgan. Qandolatchilik, shirmonpazlik, novvoylik ham taraqqiy etgan.

Uy-ro'zg'or ishlarida, xo'jalikda kerak bo'ladigan barcha jihozlar: egar-jabduq, sandiq, mis idishlar, xalatlar, charm buyumlar, sopol, yog'och, kumush, oltin buyumlar, ketmon, pichoq, maxsi, kalish va shu kabi ko'pgina narsalar ishlab chiqarilgan.

¹O'zR MDA, 1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 923-ish, 8-varaq.

Mintaqa iqtisodiyotini o'rganish uchun Toshkentda ochilgan O'rta Osiyo sanoat va qishloq xo'jaligiga doir birinchi (1886) va ikkinchi (1890) Turkiston ko'rgazmalarida mahalliy hunarmandlar hamda sanoat korxonalarini ishlab chiqargan buyumlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari namoyish qilinganda gilam to'quvchilar, qurolsozlar, zargarlar va to'quvchilarning tayyorlagan buyumlari ko'rgazma ishtirokchilarining diqqat-e'tiborini qozongan edi.

Shuni ham aytish kerakki, shahar hunarmandlari XIX asrning ikkinchi yarmida paxta yigirish uchun charx, qo'lbola to'quv dastgohini ishlab chiqardilar. Bu buyumlar ancha oddiy bo'lib, undan foydalanishni o'rganish uchun ko'p vaqt talab qilinmas, maxsus malakaga ega bo'lishning ham hojati yo'q edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyadan sanoat mahsulotlarining keltirilishi ortib borgan sari mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi inqirozga uchray boshladi. To'quvchi qo'l dastgohida 17–18 soatdan ishlab bor-yo'g'i 4–8 arshin (1 arshin 72.12 smga teng) mato ishlab chiqarar, lekin oladigan maoshi arzimagan miqdorda edi. Xonavayron bo'lgan hunarmand-kosiblarning soni ortib bordi.

Xonliklar Rossiya tarafidan bosib olinishiga qadar ularda fabrika va manufaktura ishlab chiqarishi bo'lmasa-da, ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, «uyda ishlaydigan dehqon hunarmandchiligiga asoslangan markazlashgan, shuningdek asosan tarqoq holdagi manufakturalarning ko'rtaklari mavjud bo'lgan». Samarqand, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, Buxoro shaharlari o'lkaning xunarmandchilik markazlari hisoblanar edi. Buxoroda 1841 yilda 6 ta cho'yan quyish sexi bo'lib, ularda qishloq xo'jalik qurollari, to'plar uchun yadro ishlab chiqarilgan. Xuddi shunday korxonalar boshqa xonliklarda ham mavjud edi. Birgina Toshkent shahrining o'zida 1870 yilda 775 ga yaqin to'quvchilik ustaxonasi faoliyat ko'rsatib turgan. Turkiston o'lkasida rus kapitaliga xizmat ko'rsatuvchi katta-kichik korxonalar soni ham asta-sekin ortib borgan. Bu xususda general-gubernator fon Kaufmanga Toshkent shahrining ruslar yashaydigan qismidagi fabrika va zavodlar haqida berilgan ma'lumotlar diqqatga munosibdir¹.

Ko'rinib turibdiki, to'quvchilik ustun darajada rivojlangan bo'lib, ular aholiga ham turli matolar etkazib bergan. Fabrikalarda to'qilgan gazlamalar o'lkaga ommaviy tusda keltirilishi munosabati

¹ Bu ma'lumotlar tadqiqotchi A.Tojiboev tomonidan ishlangan. Turkiston sanoati, temir yo'l ishchilari haqidagi axborotlar ham shu tadqiqotdan olingan.

Toshkent shahridagi fabrika va zavodlar soni

| Korxonalar | 1872 yil | 1873 yil |
|---------------------------|----------|----------|
| Zavodlar: | | |
| Sovun ishlab chiqaruvchi | 17 | 17 |
| Ko'n ishlab chiqaruvchi | 90 | 91 |
| G'isht ishlab chiqaruvchi | 35 | 34 |
| Vino ishlab chiqaruvchi | 5 | 6 |
| Pivo ishlab chiqaruvchi | 1 | 2 |
| Fabrikalar: | | |
| Pillakashlik | 3 | 3 |
| To'quvchilik | 430 | 420 |
| Bo'yash | 14 | 14 |

bilan yarim kustar korxonalar soni kamayib borgan. Bu jarayon haqida quyidagi ma'lumotlar aniq tasavvur beradi:

1890–1913 yillarda Turkistondagi hunarmandchilik-to'quvchilik ishlab chiqarishi

| Ko'rsatkichlar | Farg'ona viloyati | | Sirdaryo viloyati | |
|----------------------|-------------------|----------|-------------------|----------|
| | 1890 yil | 3913 yil | 1890 yil | 1913 yil |
| Korxonalar soni | 869 | 754 | 230 | 20 |
| Ishchilar soni | 934 | 817 | 246 | 36 |
| Mahsulot (ming rubl) | 200.6 | 149.4 | 49.8 | 18.8 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ana shu yillar orasida korxonalar soni 43 marta, ularda ishlab turgan ishchilar soni deyarli 26 barobar, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 10,7 barobar qisqargan. Xuddi shunday ahvolni boshqa viloyatlar va hunarmandchilik korxonalarida ham ko'rish mumkin.

O'lka zabt etilgandan so'ng mahalliy sanoatning rivojlanishi paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lib qoldi. Paxta tozalash, yog', sovun pishirish korxonalari tarmog'i kengaydi. Turkistondagi

birinchi paxta tozalash zavodi 1874 yilda Toshkentda qurildi. 1880 yilda Olimxo‘ja Muhammadjonov Andijonda paxta tozalash zavodi qurdi, sanoatchi L.Yugovich 1881 yilda Kattaqo‘rg‘onda shunday zavod barpo etdi. 1890 yilda esa Andijon tumanining Bo‘taqora qishlog‘ida paxta zavodi ishga tushirildi. U ko‘p tarmoqli agrosanoat korxonasi bo‘lgan «Andreev xutori» nomli savdo-sanoat shirkati tarkibiga kirdi. Zavod bir kecha-kunduzda taxminan 1800 pud paxtani chigitdan tozalagan. Mavsum mobaynida 200 ming pudgacha (3200 t) paxtani tozalash imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Xullas, 1880–1914 yillar orasida qariyb 220 ta paxta tozalash zavodi qurildi. Bunday zavodlar Buxoro amirligida va Xiva xonligida ham barpo etildi. Masalan, Buxoro amirligida 1905 yilda 9 ta, 1913 yilda esa 26 ta paxta zavodi ishlab turgan. 1890 yilda Xiva xonligida 81 ta sanoat korxonasi bo‘lib, ulardan 27 tasi nisbatan yirik korxonalar edi. 1917 yilgi fevral inqilobi arafasida Xiva xonligida 36 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta yog‘ va sovun ishlab chiqarish zavodlari ishlab turgan. Paxta tozalash zavodlarining egalari savdogarlar va yirik yer egalari bo‘lib ular orasida aka-uka Vadyaevlar, Fuzalovlar, Yusufboevlarning salmog‘i katta bo‘lgan.

Dastlabki yog‘ ishlab chiqarish zavodlari 1884 yilda Qo‘qon va Toshkentda paydo bo‘ldi. 1897 yilda Kattaqo‘rg‘onda ham yog‘ zavodining qurilishi o‘lkada yirik yog‘ ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo‘lishiga asos yaratdi. 1915 yilda bu yog‘ zavodi qariyb 2 mln. pud yog‘, 5 mln. puddan ko‘proq kunjara, 5 mln. pudga yaqin shulixa ishlab chiqargan. Yog‘ ishlab chiqaruvchi korxonalarining anchagina qismi Farg‘onada joylashgan. Bu yerda tayyorlangan o‘simlik yog‘ining talay qismi Rossiyaga, kunjara Germaniya va Angliyaga olib ketilgan.

Paxta sanoatchilarining yirik monopol birlashmalari ham vujudga keldi. 1915 yilning iyulida 5 ta yirik firmani birlashtirgan «Beshbosh» savdo-sanoat shirkati tashkil etildi. 1892 yildan 1915 yilgacha o‘lkada Davlat banklarining 10 ga yaqin bo‘limlari va xususiy tijorat banklarining 40 ta bo‘limi ochildi. Bank-moliya kapitali O‘rta Osiyo iqtisodiyotining barcha sohasiga kirib bordi. Dastlabki monopoliyalar paxtachilikda va u bilan bog‘liq bo‘lgan yog‘ ishlab chiqarish sohasida vujudga keldi. Lekin ular ichki jamg‘armalar hisobiga emas, balki Rossiya moliya kapitali tomonidan tashkil etildi. Turkiston o‘lkasiga xorijiy firmalar va ularning kapitallari ham kirib keldi. Ular orasida jahonga mashhur «Zinger» firmasi alohida o‘rin tutadi. Rossiyani o‘lka bilan bog‘lagan temir

yo'llar ishga tushirilgach, rus va chet el kapitalining Turkistonga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi.

XIX asrning 90-yillarida Davlat banki va banklari shaxobchalari Samarqandda (1890), Qo'qonda (1893), Buxoroda (1894) ochildi. 1915 yilga kelib Turkistonda Davlat bankining 10 ta, Rossiya tijorat banklarining 40 ta bo'linmasi ochildi¹.

Temir yo'llarning qurilishi, harakat tartibining o'sib borishi va tashiladigan yuklar hajmining ko'payishi joylarda qudratli ta'mirlash bazasini vujudga keltirishni talab qilardi. Temir yo'llar yoqasida ularga xizmat ko'rsatadigan ustaxona va depolar qurila boshlandi. 1882 yilda Qizil Arvot vagon-ta'mirlash, 1900 yilda Toshkent va Krasnovodsk ustaxonalari ishga tushirildi².

O'lkada 1895 yildan 1914 yilgacha 11 ta urug' zavodi, o'nlab ko'n, g'isht, ohak qizdirish, mis eritish, jun yuvish sexlari, vino, pivo, farmasevtika, oziq-ovqat korxonalari ishga tushirildi. Elektrlash-tirish hali boshlang'ich holatda edi. Faqat bir nechta yirik korxonalarda elektr apparatlari mavjud edi, xolos. «Chimyon» hissadorlik jamiyatining neft haydash zavodi o'zining dizel elektr stansiyasidan quvvat olgan. Qovunchi qand zavodi esa xususiy GES iga ega bo'lgan. Turkiston o'lkasida elektr quvvatining ishlatilishi hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa, G'arbiy Evropa mamlakatlari 30–50 yil oldin bu yo'lni bosib o'tishgan. Agar 1913 yilda Rossiyada aholi jon boshiga faqat 14 kv. soat elektr quvvati to'g'ri kelgan bo'lsa, Turkistondagi aholi jon boshiga 1 kv. soat elektr quvvati ishlab chiqarilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, XX asr boshlarida o'lkaning sanoat jihatidan rivojlanishi Rossiyaga qaraganda ancha pastroq darajada edi. 1908 yilgi sanoat korxonalari ro'yxati ma'lumotlariga qaraganda, bu yerda 378 ta sanoat korxonasi mavjud bo'lib, u butun Rossiya imperiyasidagi barcha sanoat korxonalarining 2%ini tashkil etgan. Viloyatlarda sanoat bir xilda rivojlanmagan. 1880 yildan 1914 yilgacha Farg'ona viloyatida 224 ta, Samarqand viloyatida 163 ta, Yettisuv viloyatida 107 ta korxonalar buni yaratilgan. Sanoat korxonalarining 60 foizi o'lkaning yirik shaharlarida joylashgan.

Yana shuni ham aytish kerakki, o'lkadagi ishchilarning asosiy qismini (70%ini) mavsumiy ishchilar tashkil etgan. Bu hol paxta yetishtirishga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining ustuvorligi bilan

¹ *Eragshv F., Abdurahimova N., Suguralieva F.* Turkistonda mustamlaka moliya-xo'jalik idoralari tizmi. Toshkent, «Akademiya», 2008, 50-bet.

² Bu mavzu bo'yicha 5-paragrafda alohida hikoya qilinadiyu mualliflar izohi.

belgilandi. Paxta tozalash, jun, yog‘ sanoatida mavsumiy mehnat ommalashgan edi. Korxonalar hajmining kichikligi, texnika ta‘minotining zaifligi doimiy ishchi kadrlar paydo bo‘lishini sekinlashedirdi. Doimiy ishchi kadrlar avvalo kon qazish sanoatida va temir yo‘l qurilishida ko‘proq vujudga keldi. 1912 yilda Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida jami ishchilar 1904 kishini tashkil qildi.

O‘lka sanoat korxonalarida mehnat sharoiti nihoyatda og‘ir bo‘lib, mehnatni muhofaza qilishga mutlaqo e‘tibor berilmagan. Fabrika mexaniklaridan birining xabariga ko‘ra, 1907 yilning iyulida «Katta Yaroslavl manufakturası» shirkati zavodlarida o‘zbek ishchilaridan 18 kishi shikastlangan. Ulardan 12 kishi mutlaqo ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan. 1906 yilda «Chimyon» neft konlarida 53 kishi mayib bo‘lgan. Shikast topganlarning ko‘plari mahalliy millat vakillari edi. Birgina 1911 yilning o‘zida O‘rta Osiyo temir yo‘lida 2938 baxtsiz hodisa ro‘y bergan. Ishchilarni sug‘o‘rta qilish esa korxonalarining ayrimlaridagina mavjud edi, xolos. Zavod, fabrika va shaxtalarning egalari ko‘p hollarda baxtsiz hollar ro‘y berganligini yashirishar yoki ularning sonini ataylab kamaytirib ko‘rsatishgan.

Ishchilar safida xotin-qizlar ham bo‘lgani haqida ma‘lumotlar bor. O‘zbek ayollaridan asosan sanoatning pilla quritish va qurt urug‘i olish tarmoqlarida foydalanilgan. Pilla quritish fabrikalarida ayollar 56,5 foizni tashkil qilgan. Xullas, 1914 yilda o‘lkaning fabrika-zavod sanoatida 3672 ayol, shu jumladan, 2417 o‘zbek ayoli ishlagan.

Kapitalistlar qurilish ishlarida arzon ishchi kuchiga ehtiyoj sezgan. Shuning uchun ham podshoh ma‘muriyati o‘lkaga chet el fuqarolarining ish izlab kelishiga to‘sqinlik qilmagan. Farg‘ona vodiysiga faqat Koshg‘ardan 1904 yili 14556 kishi, 1905 yili 13337 kishi, 1907 yili 25056 kishi, 1909 yili 12725 kishi, 1911 yili 26463 kishi, 1912 yili 27174 kishi ishlash uchun kelgan¹. Afg‘oniston, Eron, Sharqiy Turkistondan ish qidirib kelgan kishilar pasportsiz yashab amalda huquqsiz bo‘lib qolgan edilar. Ular qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida, konlar va shaxtalarda, qurilishlarda va temir yo‘lda qora ishchi bo‘lib ishlar edilar.

Shunday qilib, o‘lka hududida mahalliy va rus ishchilari bilan bir qatorda qo‘shni mamlakatlardan ish qidirib kelgan kishilar ham bo‘lib, ular ishchi malakasiga ega bo‘lishmagan.

1914 yilda o‘tkazilgan taftish natijasiga ko‘ra, sanoat ishchilari-ning umumiy soni 49,5 ming kishi bo‘lib, ulardan 25,5 ming kishi,

¹ Юферов В.И. Труд хлопковых хозяйств Туркестана. СПб, 1914, стр. 22–23.

ya'ni 51 foizi sanoatda, qolgan 24,4 ming kishi esa (49 foiz) temir yo'lda va temir yo'l ustaxonalarida ishlagan. Rossiya mustamlakachilik siyosatining asosini avvalambor rus kapitalizmining iqtisodiy manfaatlarini himoyalash va ehtiyojlarini qondirish muammolarini hal qilish tashkil qilgan.

Yuqorida aytilganidek, Rossiya kapitalizmi uchun Turkiston arzon xom ashyo manbai sifatida muhim ahamiyatga ega edi. Turkiston bilan Rossiya o'rtasida temir yo'l aloqasining o'rnatilishi dehqon xo'jaligining Umumrossiya bozori tasarrufiga tortilishini tezlashtirdi. XIX asrning oxirgi choragidan o'lka qishloq xo'jaligida sanoat uchun paxta yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan katta o'zgarishlar davri boshlandi. Paxtachilikning dastlabki ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'ldi. Birinchisi, paxta maydonlari bug'doy ekiladigan, sug'oriladigan yerlar hisobiga kengaytirildi. Ikkinchisi, avval asosan o'z xo'jaligining ehtiyojini qondirish uchun paxta ekadigan dehqon so'ngra bozor uchun mahsulot yetishtirish bilan shug'ullana boshladi. Chunki mavjud sharoitda paxtaga ixtisoslashish, uni bozorga sotish iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo'lib qoldi. Turkistonda dehqon xo'jaligining bozor munosabatlariga moslashish sur'atlari G'arbiy Yevropaga nisbatan nihoyatda kam vaqtni talab qildi.

Paxtachilikning yil sayin kengayishi natijasida XX asrning birinchi o'n yilligida Turkiston qishloq xo'jaligi bozor munosabatlari ustivorligi sharoitida dastlabki iqtisodiy tanglikka uchradi. Uning kelib chiqish sababi asosan mayda dehqonchilik xo'jaligining moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishida edi.

Evropada dehqon xo'jaligining bozor munosabatlaridagi ishtiroki yer maydonining yiriklashuvi bilan kengayib bordi. Turkistonda esa, bozorga chiqariladigan mahsulot mayda dehqon xo'jaligida umumiy maxsulotning 95 foizini, o'rta xo'jalikda 80 foizini, yirik xo'jaliklarda 61,1 foizini tashkil qilgan. Oilasining ehtiyojlarini qoplash bosh maqsad bo'lgan mayda dehqon xo'jaligi mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan mehnat evaziga umumiy daromadni oshirishga intilardi. Paxta yetishtiriladigan xo'jaliklarda mavsum davomida tirikchilik o'tkazish uchun mablag' zarur edi. Oddiy dehqon son-sanoqsiz banklar va firmalar xizmatidan foydalana olmasdi, chunki uning olinadigan qarz uchun garovga qo'yadigan mol-mulki yo'q edi. G'arbiy Yevropada dehqon xo'jaligi, buni erni garovga qo'yish bilan hal qilgan bo'lsa, Turkistonda yerni garovga qo'yish shariat qoidalariga to'g'ri kelmas edi. Bu hol, bir tomondan, yerning qo'ldan-qo'lga o'tishini ma'lum darajada chegaralagan bo'lsa-da,

ikkinchi tomondan, dehqon xo'jaligini rivojlantirish uchun uzoq muddatli kredit olishdan maxrum qilingan. Paxtachilikdan katta foyda oladigan firmalar dehqonlar bilan bevosita munosabatlardan voz kechib, ularga kafolat beruvchi vositachilar va dallollar xizmatidan foydalanishni afzal ko'rdilar. Shu tariqa Turkistonda bunoq tizimi shakllanib, mahsulot yetkazish bilan bog'liq bo'lgan sudxo'rlik yuzaga keldi. Banklar va firmalar bilan dehqonlar o'rtasidagi vositachilik misli ko'rilmagan foyda ko'rish sohasiga aylandi. Vositachilar 10 foiz atrofidagi badalga olingan mablag'ni dehqonlarga 40–60 foiz ustama bilan yetkazadigan bo'lishdi.

Nihoyatda katta foizlar hisobiga qarz oladigan dehqon hosil yaxshi bitsa qarzini uza olar, aks holda, u tobora ko'payib borar edi. Bu hol paxtachilikning, umuman qishloq xo'jaligining rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Vujudga kelgan sharoitda dehqonni imtiyozli kredit bilan ta'minlash podsho hukumati tomonidan yagona yo'l deb topildi va Turkistonda kredit kooperasiyasini joriy etishga qaror qilindi.

Podsho xukumati uzoq vaqt kooperativ xarakterdagi tashkilotlarni tuzish uchun aholining umumiy huquqiy rivojlanishi yetarli darajada emas, degan uydirma asosida qarz beruvchi shirkatlarni tuzishga ruhsat bermadi.

Chor hukumati bozor munosabatlari sharoitida shakllangan, o'z-o'zini iqtisodiy himoya qilish asosidagi kooperasiya tizimini o'lkada o'z manfaatlarini himoyalash ta'siridagina tadbiq qilgan. Lekin insoniyat taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy faoliyatning kooperativ shakli o'lkamizda azaldan mavjud bo'lgan. Xususan, olimlar sharqdagi suv inshootlarini o'rganar ekanlar, bu yerda qadim zamonlardayoq oddiy kooperasiya shakllanganini asoslashgan. Masalan, shariat sheriklikning to'rt turini huquqiy tomondan asoslab bergan. Birinchisi, «muvafoz», ya'ni topshirishda sheriklik; ikkinchisi – «shirkati aynan» – ishni sherikchilik asosida yuritish; uchinchisi – «shirkati tahabbul» – bir turli hunarni birga qo'shib bajarish; to'rtinchisi – «shirkati vujuh» – sherik bo'lib mol olib sotish.

Turkistonda kooperasiya harakatining paydo bo'lishi to'g'risida manbalarda turlicha sanalar keltiriladi. Rasmiy ravishda imperiya ro'yxatidan o'tgan birinchi kredit shirkati o'z faoliyatini 1907 yil 6 mayda Qo'qonda boshlagan, Turkistonda esa kredit kooperasiyasining tarixini 1909 yildan boshlangan deb hisoblash mumkin¹.

¹ Bu mavzuga oid ma'lumotlar tadqiqotchi J. Mirzaev tomonidan tayyorlangan.

Kooperasiya tamoyillari asosida ish yuritadigan mayda kredit tashkilotlari tuzish masalasi esa Turkistonda asr boshidayoq ko'tarilgan edi. Lekin bu masala bilan chor hukumati 1907–1908 yillarda paxta hosilining kamayishi natijasidagina keng ko'lamda shug'ullana boshladi. 1909 yilda Davlat bankining mayda kredit boshqarmasi vakili V.V.Krainskiy o'lka bilan tanishish uchun Peterburgdan Turkistonga keldi. Rossiyaning biron joyida Turkistonning Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridek, aholining tashabbusiga tayangan holda, shirkatlar tuzish uchun sharoit yo'q, degan xulosaga keldi. Shundan keyin Davlat bankining Toshkent, Samarqand, Ashxobod bo'limlarida maxsus inspektorlar tayinlandi. Mahalliy tillarni va urf-odatlarni biladigan bunday inspektorlar aholiga kredit shirkatlarining tuzilishi va ularning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatdilar.

Rossiyada kooperativ tashkilotlarning faoliyatini tuzuvchilar mayda Kredit boshqarmasiga murojaatnoma yuborishar, boshqarma ruhsat bergach, gubernatorlar qoshidagi qo'mitalar va mayda kredit (boshqarma) inspektori nazoratida tashkiliy ishlar boshlanar edi. Odatda, shirkatning ochilishi quyidagicha amalga oshirilgan: ruhsat olingach, inspektor kooperativni ta'sis etuvchilarni to'plab, bo'lajak ishlarga umumiy javobgarlik to'g'risidagi ahdnomaga qo'l qo'ydirgan. Umumiy yig'ilishda rais, odatda, inspektor, shirkat boshqarmasining maxsus nazorati yig'inining uch a'zosi ham saylangan. Yig'ilish boshqarmaga ajratiladigan mablag' va shirkat tomonidan beriladigan qarzning foizini belgilagan. Shundan so'ng boshqarma va maxsus yig'inning qo'shma majlisi rais o'rinbosari, soqchi, pul tarqatuvchini tayinlagan. Davlat bankasidan qarz olingan kun shirkat faoliyati boshlangan kun hisoblanar edi. Qarz maxsus ro'yxat bo'yicha faqat xo'jalik yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga 6-9 oy muddat bilan berilgan. Boshqarma a'zolarining mablag'dan qanday foydalanayotganligi kuzatib borilgan, buning uchun ular inspeksiya oldida javob bergan. Boshqarma maxsus yig'inining oylik majlislarida, kundalik umumiy yig'ilishlarida shirkat hayotining muhim masalalari hal qilingan.

Daslabki paytlarda shirkatlarda foydasini darhol tushunib olgan o'ziga to'q aholi ko'pchilikni tashkil qildi. Qashshoq, hokimiyat va boylar ta'siridagi dehqon ham qanday qilib bo'lsa-da, shirkatga a'zo bo'lish va tezroq qarz olishga intilar edi. Shuning uchun shirkatni boshqarish ishlari rahbariyatga topshirib qo'yildi. Mablag' birinchi navbatda rahbarlarga, ularning qarindosh-urug'iga va yaqinlariga berildi. Ba'zi shirkatlarda ota-bolalar, xo'jayin va uning xizmatchilari

a'zo bo'lish hollari uchradi. Mazkur kamchiliklarga qaramasdan, shirkatlarga a'zo bo'lish dehqon uchun foydali edi. Chunki sudxo'rdan 40-100 foizli qarz olgandan ko'ra, shirkatdan 12 foizli qarz olish qulay edi. Turkiston shirkatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular asosan davlat mablag'lariga tayanar edilar. 1913 yilda butun Imperiya bo'yicha har bir shirkatchiga 80 rubl berilgan bo'lsa, shundan davlat tarafidan Rossiyada 17 rubl, Turkistonda 64 rubl kredit ajratilgan. Buning sababi, birinchidan, aholining kambag'alligi, ikkinchidan, ortiqcha mablag'i bo'lganlar pulni shirkatga a'zo bo'lmagan dehqonlarga berib, buning evaziga katta foyda ko'rar edilar.

Shirkat ish boshlagan qishloqda so'dxo'rlardan qarz olish shartlari ham o'zgargan. Masalan, Qo'qon tumanidagi Novhat shirkati tashkil topgan (1912 yil) paytda qishloqda 1000 ruldand 3000 rublgacha bo'lgan mablag'i bo'lgan 20 sudxo'r mavjud edi. Bir yildan keyin ular 5 kishiga kamaygan bo'lsa, 1915 yilda birorta ham sudxo'r qolmagan. Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tumanidagi Payshanba qishlog'ida shirkat tuzilmasdan oldin sudxo'r 40-50 foiz foyda bilan qarz bersa, keyinchalik bu 15-25 foiz bilan cheklanadigan bo'ldi.

Shirkatlarda kambag'allar soni asta-sekin oshib bordi. 1913 yilda Farg'ona viloyat Skobelev tumanidagi 26 shirkatda o'tkazilgan tekshirishga ko'ra, 7704 dehqon 92683 tanob, o'rtacha 12 tanobdan erga ega edi. Tadqiqotlarga ko'ra, Turkistonning Samarqanddan tashqari barcha viloyatlarida shirkat a'zolarining yeri unga aloqasi bo'lmagan dehqonlar yeriga nisbatan kam bo'lgan. Buning ustiga shirkatlardan boylarni quvish hollari ham bo'lgan. Masalan, Samarqand viloyatida 1917 yilda 38 shirkatdan 310 kishi boy sifatida chetlatilgan.

Sho'rolar davrida amalga oshirilgan ayrim tadqiqotlarda shirkat a'zolarining asosiy qismini Rossiyadan ko'chib keluvchilar tashkil qilgan, degan noto'g'ri ma'lumot berilgan. 1914 yilda Turkistonda faoliyat ko'rsatgan 517 shirkatdan 70 tasining milliy tarkibi ruslardan yoki aralash aholidan iborat bo'lgan. Shulardan 35 tasi Yettisuv, 14 tasi Sirdaryo viloyatining Chernyaev tumanida joylashgan edi.

Samarqand viloyati bo'yicha to'liq saqlanib qolgan ma'lumotlarga ko'ra, 1917 yilga kelib, hududdagi 151 shirkatning 43048 a'zodan 3 shirkatda 300 rus millatiga mansub a'zo bo'lgan.

1913 yildan shirkatlar vositachilik faoliyatini boshladi. Masalan, shu yili Samarqand viloyatidagi «Sherqo'rg'on» kredit shirkati o'zining a'zolari uchun Moskvada 2700 pud chigitni (har pudini 65 tiyindan) sotib oldi. Mahalliy bozorlarda esa bir pud chigit odatda 90 tiyin - 1 rubl atrofidagi narxda sotilar edi. Turkistondagi vositachilik

shirkatlari o'z a'zolarini urug', mehnat qurollari, kundalik ehtiyoj mollari bilan ta'minlashdan to yetishtirilgan mahsulotni jamoa asosida sotishgacha bo'lgan ishlarni o'z zimmasiga oldi. Kredit kooperasiyasining yutug'i sifatida ba'zi shirkatlarning paxta zavodlarini ijaraga olib, paxta tozalash bilan ham shug'ullanganligini aytib o'tish kerak. Keyinchalik kredit kooperasiyasi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yo'lga qo'yib, matlubot kooperasiyasi vazifasini ham bajargan.

Shirkatlar Toshkentda hunarmandlarni, Qo'qon, Andijon, Skobelev (Farg'ona) shaharlarida izvoshchilarni birlashtirdi. Xususan, 1917 yilga kelib, Toshkentning eski shahar qismida Beshyog'och shirkati 257 kishini, Qo'shtut shirkati – 223 kishini, Ko'kmachit shirkati – 259 kishini, Chorsu shirkati – 129 kishini, Rovot shirkati – 84 kishini, Sebzor shirkati – 265 kishini, Hasanboy shirkati – 96 kishini o'ziga birlashtirdi. Barcha shirkatlar shahar hunarmandlariga tegishli edi.

Shirkatlarning tez ko'payib borishi kadrlar tayyorlash zaruratini paydo qildi. 1913 yildan ishchilar uchun kuz va qish oylarida hisobchilar tayyorlovchi kurslar ochilib, mahalliy tillarda birinchi qo'llanmalar paydo bo'ldi. Dastlabki kurslarni Samarqandda 185 kishi, Toshkentda – 52 kishi, Farg'ona vodiysida – 100 kishi bitirdi. Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, kurslarda o'qishni xohlovchilar talabalardan ko'proq bo'ldi. Andijonda barcha shirkatlar o'z hisoblaridan kurslarda foydalanish uchun kinoapparat sotib olishga 3–8 rubldan pul yig'ishgan.

1910 yilda Turkistonda 46 shirkatning 5288 a'zosi 178800 rublni, 1914 yilda 512 shirkatning 129910 a'zosi 9.780551 rublni, 1917 yilda 846 shirkatning 231405 a'zosi 43.655531 rublni o'zlashtirdi. 1910–1917 yillarda shirkatlar soni 18 marta, a'zolar soni 43 marta, mablag'lar hajmi 243 marta ko'paydi.

1910–1917 yillar mobaynida shirkatlar soni 18 barobar (46 dan 846 ga), a'zolar soni 43 barobar (5288 dan 231405 ga), moliyaviy hissasi 243 barobar (178800 rubddan 43.655531 rublgacha) o'sdi.

Shunday qilib xo'jalik yuritishning kooperativ shakli shaxsiy, jamoa va ijtimoiy manfaatlarni birga qo'shishning mukammal uslubi sifatida XX asr boshida Turkistondagi iqtisodiy munosabatlarning muhim qismiga aylandi. Mayda dehqon xo'jaligining an'anaviy faoliyati saqlangan holda, bozor munosabatlari keltirib chiqargan muammolar kooperasiya orqali hal qilindi. Bozor munosabati taraqqiyoti darajasi bilan kooperativ tashkilotlar faoliyatining xususiyatlari o'rtasida chambarchas bog'liqlik namoyon bo'ldi.

Rus kapitalistlari sanoat mahsulotlarini sotish bozori hamda xom ashyo manbai bo'lgan Turkistondagi ishlab chiqarish jarayoniga boshda faol ishtirok etishdan o'zlarini chetga oldilar. Yirik sanoat firmalaridan bir yilga vekselsifatida qarz olgan rus ulgurji savdogarlari ushbu firmalarning mahsulotlarini Turkistonda Rossiyadagi narxidan bir necha barobar qimmatiga sotardilar. Mahalliy savdogarlar har kungi savdodan tushgan mablag'ni rus savdogarlariga berar, qarzining qolgan qismi uchun esa ustama haq to'lar edilar. Rus ulgurji savdogarlari Turkistonda sotilgan mahsulotlarining puliga ipak, teri, paxta, quruq meva sotib olar va ularni Rossiyaga jo'natar edilar.

Rossiyaning yirik savdo ko'rgazmalarida tuzilgan savdo bitimlari O'rta Osiyoning Rossiya bilan iqtisodiy munosabatlarida alohida o'rin tutar edi. Bunda Nijegorod yarmarkasining roli katta bo'lgan. Mahalliy sarmoya rus kapitali tomonidan tamomila siqib qo'yilgan. Sanoat mahsulotlari va paxtadan boshqa xom ashyolarni chetga chiqarishda esa mahalliy kapital sezilarli o'rin tutgan. Mamlakat ichida chakana savdo qilish jabhasi to'la mahalliy savdogarlar qo'lida edi. Rossiyaning savdo-sotiq sohasidagi siyosati savdo markazlaridan biri bo'lgan Qo'qon misolida to'la namoyon bo'ladi. Farg'ona viloyat boshqarmasi 1876 yilning 7 martida viloyatning hamma shahar va tumanlari uchun umumiy zakot to'lash tartibini o'rnatdi. Viloyatdagi hamma mahalliy savdogarlar yillik savdo-sotiq muomalasida bo'lgan kapitallarining 2,2% miqdorida zakot berishi va zakot boshqarmasini o'zlarining boyliklari hamda savdo xususidagi ishlari haqida muntazam xabardor qilib turishlari shart edi. Mazkur qonunni buzuvchilar esa o'zlariga qarashli umumiy boylikning 1/10 miqdorida jarima to'laganlar.

1877 yilning 1 iyunida Farg'ona viloyatida «Savdo-sotiq va boj haqida»gi qonunga amal qilina boshlandi. Bu qonunni ishlab chiqishda «Savdo-sotiq bilan shug'ullanish huquqi» haqidagi 1865 yil 9 fevralda qabul qilingan Umumrossiya qonuni asos qilib olingan bo'lib, u Farg'ona shaharlarining savdo-sotiq sohasidagi faoliyatida katta voqea bo'lgan edi.

Qo'qon shahar boshqarmasining 1877 yil 18 fevralda viloyat boshqarmasiga bergan hisobotida shaharda 517 davlat, 1817 xususiy do'kon borligi qayd etilgan¹. Ushbu xujjatda ta'kidlanishicha, 1877 yilning yanvarigacha chorva bilan savdo-sotiq qilishdan tushgan boj 1164 rubl, choydan – 29126, ijaradagi davlat do'konlaridan – 4393, ipakdan – 7370, bug'doydan – 4203, boshqa mahsulotlardan – 18971

¹ O'zR MDA, 19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 10472-ish, 17-varaq.

rubldan iborat bo'lgan. Shahardagi hamma do'konlar soni 2006 taga yetgan, tuman qishloqlaridan – 218 ta, davlat do'konlaridan – 891 ta, savdo rastalari va 6 ta karvonsaroydan tushgan boj 11350 rublni tashkil qilgan¹. Tuman boshlig'ining hisobotida 1876 yilda chetdan keltirilgan mollardan 27945 rubl, chetga chiqariladigan mollardan 27945 rubl yig'ib olingani ko'rsatilgan².

Tumanning Beshariq, Konibodom, Oltiariq, Rishton, Buvayda, Isfara, Yaypan, Kudash va Ultarma kabi qishloqlaridagi mustaqil bozorlardan 6745 rubl miqdorida boj undirilgan. 1876 yilning 1 apreldan 1877 yilning 1 yanvarigacha Qo'qondan umumiy miqdori 5517555 rubl 94 tiyinlik mol chetga chiqarilgan va boshqa shaharlardan 139039 rubl 80 tiyinlik mol keltirilgan³. Odatda, Qo'qondan boshqa shaharlarga pilla, ipak, gazmol, mato, teri, paxta va qog'oz mahsulotlari, jun, tamaki, etik, chopon kabi 62 xil mol chiqarilgan bo'lsa, oyna, ip, billur, choy, bo'yoq, qand, gugurt, temir, po'lat kabi 77 turdagi mol chetdan keltirilgan. Chetdan keltiriladigan mollar orasida Eron, Xitoy, Hindiston va Evropa mamlakatlari-ning mahsulotlari kam uchrab, bu asosan Rossiya mollari-ndan iborat bo'lgan. Qo'qon savdogarlari xonlikning boshqa shaharlari va Rossiyaga, odatda, Sharqqa xos mollar jo'natishgan. 1877 yilda Qo'qonning yillik savdo muomalasida chetdan keltirilgan mollar 2194683 rubldan iborat bo'lgan bo'lsa, chetga jo'natilgan mollar miqdori 1540179 rublni tashkil etgan. Shu yili chetdan keltirilgan mollardan 411639 rubl, chetga sotilganlaridan esa 322938 rubl miqdorida boj undirilgan⁴. Qo'qonning Buxoro, Samarqand, Toshkent, O'ratepa va Xo'jand bilan bo'lgan savdo-sotiq ishlarida chetdan keltirilgan ko'k choy, trikotaj, chit, nil, temir buyumlar, teri va boshqa mollar xaridorgirligi bilan ajralib turgan. Bunday mollar bilan savdo qilishda Avliyoxo'ja Muhammad va Zokir Qurbonboyev kabi qo'qonlik savdogarlar katta o'rin tutganlar.

Shu yillarda Qo'qondan Turkiston o'lkasining boshqa shaharlariga ipak va ip matolar, jun, tamaki kabi chakana mollar chiqarilgan. 1881 yilning 19 dekabrda Turkiston general-gubernatori tomonidan Turkiya, Eron va Yevropadan keltirilayotgan mollar miqdorini va ulardan olinadigan boj miqdorini chegaralovchi va oshiruvchi 22 banddan iborat qaror qabul qilindi. Choy, non, bo'yoq bundan

¹ O'zR MDA, 19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 22615-ish, 52-varaq.

² O'zR MDA, 276-jamg'arma, 1-ro'yxat, 123-ish, 53-varaq.

³ O'zR MDA, 19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 22532-ish, 3-varaq.

⁴ O'zR MDA, 19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 22600-ish, 39-varaq.

mustasnodir. Bu qaror rus mollarning sotilishini osonlashtirish maqsadida chiqarilgan edi.

Turkiston o'lkasiga keltirilayotgan mollarning 25%i Qo'qonga, 14% i Samarqandga, 3%i Marg'ilonga keltirilgan. 1882 yilga kelib, Qo'qon chetga mol sotish bo'yicha Turkiston shaharlari orasida birinchi o'rinni egalladi. Bu 4920937 rublni tashkil etdi. Qo'qonga Rossiyadan, asosan, turli bo'yoqlar, jun, dori-darmon, kitoblar, tangalar, qand, temir, po'lat va ulardan tayyorlangan buyumlar keltirilib, paxta, pilla, chorvachilik va turli hunarmandchilik mahsulotlari olib ketilgan. Qo'qon shahrining ichki va tashqi savdo muomalasining nafaqat viloyatda, balki o'lkada ham yetakchi o'rinlardan birini egallashi Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining 1883 yil mayda Turkiston general-gubernatoriga bergan hisobotida ham ta'kidlab o'tilgan. Qo'qon qo'shni shaharlar va mamlakatlardan tashqari, Moskva, Nijegorod yarmarkasi bilan ham savdo muomalasi olib borgan va uning yillik savdo muomalasi 10 mln rubldan oshiq edi.

Savdoning rivojlanishi natijasida savdogarlarni doimiy kapital va veksell bilan ta'minlash maqsadida Qo'qonda Davlat bankining bo'limini ochish masalasi ko'tarildi. 1884 yilda Moskvadagi O'rta Osiyo tijorat bankining qaroriga ko'ra, Qo'qon savdo xodimlari uchun butun shart-sharoitlarni yaratish va O'rta Osiyodan keltirilgan mollarni sotish hamda kerakli rus tovarlarini Turkiston o'lkasiga jo'natish bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan savdo agentligi tashkil etildi. Asli qo'qonlik bo'lgan Muhammad Nosir Toirov ushbu savdo agentligining vakili qilib tayinlandi va unga bir yilga 1800 rubl maosh belgilandi¹.

1886 yilning 1 yanvarida butun Turkiston o'lkasida, shu jumladan, Farg'ona viloyati shaharlarida ham, ichki bojlar bekor qilinib, rus va mahalliy mollardan yagona boj olish haqidagi qonun kuchga kirdi.

1889 yil davomida «Katta Yaroslavl yarmarkasi» Qo'qonga 24648 rubl 75 tiyinlik mollar keltirib, evaziga 66600 pud paxta (431850 rubllik) jo'natdi. O'sha yili Qo'qondan chetga chiqarilgan mollarning umumiy qiymati 10711277 rubldan iborat bo'ldi². Farg'ona viloyati boshqaruvining Turkiston general-gubernatoriga 1890 yil 4 sentyabrda bergan ma'lumotida o'lkaning savdo masalalarida Qo'qon shahrining o'rni alohida ta'kidlanib, bu yerda Osiyo mam-

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2599-ish, 2-varaq.

² O'zR MDA, 19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 24118-ish, 12-varaq.

lakatlari, Rossiya va Sibir shaharlari bilan doimiy savdo munosabatlarida bo'lgan juda ko'p savdogarlar va hunarmandlar borligi aytiladi. Transport idoralarining ma'lumotlariga ko'ra, 1892 yilda Qo'qon tumaniga olib kelingan va chiqarib ketilgan mollar qiymati 21 mln. rubldan oshiq bo'lib, buning 3/4 qismi shaharning hissasi bo'ldi.

XIX asrning 90-yillarida savdoning rivojlanishi tufayli Qo'qonda ichki va tashqi savdoda asosiy rolni o'ynovchi yirik mablag'ga ega bo'lgan mahalliy savdogarlar guruhi ajralib chiqqan bordi. Yillik savdo muomalasida 50 mingdan 100 minggaacha puli bo'lgan va doimiy mablag'i 500 ming rublni tashkil etuvchi Sion Pinxasov, 250 ming mablag'ining 200 mingga savdo muomalasida bo'lgan «Islom Xoimov va K», 500 ming mablag'ining 300 ming rubli savdo muomalasida bo'lgan «Yumoev va K» kabilar shular jumlasidandir. Pinxas Ribakovning savdo muomalasida 200 ming rubli bor edi. Farg'ona viloyatida bunday yirik savdogarlar ko'p edi. 123 yahudiy savdogarlarning 44 tasi Qo'qonda savdo qilar, ulardan 19 tasining savdo muomalasida 800000 rubl, 23 tasida o'rtacha 2000 rubldan bo'lgan.

Kaspiyorti temir yo'lining Andijongacha uzaytirilishi masalasining hal etilishi Qo'qonning ichki va tashqi savdosida katta rol o'ynadi. Bu narsa ayniqsa choy bilan savdo qiluvchilarga qo'l keldi. Shuning uchun ular Xitoy choyini Botumi orqali ko'proq olib kelish uchun u yerda mustaqil bojxona tuzish masalasini ko'tarib chiqdilar. Savdogarlarning talabiga ko'ra, 1898 yilning noyabr oyida bojxona boshqarmasi Marg'ilondan Qo'qonga ko'chirildi. 1900 yilda 669753 rubllik 20345 pud choydan bojxona 226.647 rubl 77 tiyin daromad ko'rgan. Choy bilan bo'ladigan savdo 4 ta firma ixtiyorida edi. 1900 yilda Shvesov firmasida 7651, Sinisinda 4477, Sabirov firmasida 8603 pud, hammasi bo'lib 20731 pud 77 funt choy bor edi. Oxirgi o'n yilda choy bilan savdo qilish 2 barobar o'sdi.

Qo'qondagi ichki savdoda davlatga qarashli «katta bozor» va shaxsiy savdo rastalari asosiy o'rin egallar edi. Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, bozorda 5000 ga yaqin savdo do'konlari bo'lgan. Qo'qon bozori o'zining joylashishiga ko'ra, nafaqat yaqin tumanlarning, balki butun O'rta Osiyo shaharlarining savdo markazlaridan biri hisoblangan. Bu yerda savdo keng ko'lamda olib borilgan, savdo do'konlari mahalliy boy-savdogarlarga ijaraga berilishi bilan birga, rus savdogarlari bilan ham savdo munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Markaziy bozordan tashqari, tumanning katta qishloqlarida haftaning ayrim kunlari bozor uyushtirilgan.

Qo‘qon atroflarida bu davrda 20 ga yaqin shunday bozorlar mavjud edi.

Mutaxassis tadqiqotchilarning ko‘rsatishlaricha, ichki bozor aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, oziq-ovqat, manufaktura, arzon atir-upa, ishlab chiqarish qurollariga hamda choy, qand, oyoq kiyimi, gilam, ipak, teri, paxta va quruq mevalarga bo‘lgan ehtiyojini qondira olgan.

1909 yilda 44 taga yetgan karvonsaroylar ichki bozorda katta O‘rin tutgan¹. Savdo do‘konlari xususiy shaxslar ixtiyorida edi. Shuning uchun ham mahalliy hokimiyat yangi savdo shaxobchalari qurish, bozorlarni kengaytirish va u yerdagi shart-sharoitni yaxshilash haqida qayg‘urmas edi.

Shahar bozorlari asosan Markaziy Rossiya sanoati uchun zarur bo‘lgan mahalliy xom ashyo sotib olish va olib kelingan rus mollarini sotishda vositachilik rolini bajarar edi.

1890 yilda ixtisoslashtirilgan transport idoralari Qo‘qon tumanidan 557555 pud Amerika va 242546 pud mahalliy navli paxtani olib ketgan. XIX asrning 90-yillaridan o‘lkaga Rossiyadan qishloq xo‘jaligi va sanoat mashinalari, temir ko‘plab keltirila boshlandi. Rossiyadan keltirilayotgan mollar 8 marotaba, Rossiyaga chiqarilayotgani esa 7 marotabaga o‘sd².

Keltirilgan raqamlar shuni ko‘rsatadiki, Rossiya ishbilarmonlari o‘zlari keltirgan sanoat mahsulotlarini sotishdan ham, xom ashyo sotib olishdan ham katta foyda ko‘rganlar. Ular olib kelayotgan mollarning miqdori va sifati o‘zgarib, bu mollar ichida tikuv mashinalari, unga ehtiyot qismlar, shisha, uy-ro‘zg‘or buyumlari, musiqa asboblari va boshqalarni uchratish mumkin edi. Shu tariqa XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkiston rayonlari o‘zaro savdo aloqalariga kengroq jalb etila bordi. Xuddi shu davrda Turkistonda yagona ichki bozorning shakllanishi boshlandi. Bu ja-rayon Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi, O‘rta Osiyo temir yo‘lining qurilishi va Amudaryoda kema qatnovining rivojlanishini ancha tezlashtirdi.

4. AGRAR SIYOSAT

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko‘zlangan bosh maqsadi va asosiy yo‘nalishlarini Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V.Krivoshein shunday ifodalagan: «Bu

¹ O‘zR MDA, 300-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 60-ish, 49-varaq.

² O‘zR MDA, 19-jamg‘arma, 24149-ish, 50-varaq.

markaziy masalada uch ko‘rinish mavjud. Agar birinchisida yarqirat turgan yozuv «Paxta» bo‘lsa, ikkinchisida «Sug‘orish» va nihoyat uchinchisida uncha ko‘zga tashlanib turmagan bo‘lsa ham, aslida hammasidan muhimi – «ruslarni ko‘chirib keltirib o‘rmashtirish» yozuvi turibdi»¹. Podshohning vaziri markazning Turkistondagi mustamlaka siyosatining asosiy yo‘nalishlarini juda lo‘nda, muxtasar tarzda, ya‘ni «paxta», «sug‘orish», «ruslarni ko‘chirib keltirish» kabi uch so‘zda ifodaladi. A.V.Krivoshein o‘z fikrlarini aniq dalillashga urinib, masalaning dastlab iqtisodiy tomoniga urg‘u beradi. «Bizning ichki bozorimizga, so‘nggi 20 yil ichida Amerika paxtasi uchun faqat boj tariqasida 700 million rubl to‘lashga to‘g‘ri keldi. 1900 yildan esa yiliga 40 million rubldan to‘lab kelmoqdami»².

Turkistonning Rossiya saltanati uchun bebaho tabiiy boyliklar makoni ekanligi masalasiga, ya‘ni mavzuning sof iqtisodiy tomoniga Sankt-Peterburg alohida e‘tibor qaratgan edi.

Oliy lavozimli yana bir arbob M.Brodovskiy Turkiston o‘lkasining Rossiya manfaati bobidagi o‘rni va ahamiyatini yanada ixchamroq qilib ifodalaydi. «Imperiyaga qo‘shib olingan bu hududga, – deb yozgan edi u, – imperiya bilan chambarchas bog‘langan mustamlaka sifatida qaralishi lozim... Bu joy Yevropa Rossiyasi manufaktura sanoati ehtiyoj sezayotgan janubiy iqlim mahsulotlarini yetishtirishga qodir. Qisman ko‘chmanchi chorvador va qisman o‘troq, asosan dehqon aholi yashaydigan bu mustamlakada manufaktura sanoati juda past rivojlangan. Shuning uchun ham u tabiiy ravishda Yevropa Rossiyasi manufaktura mahsulotlari chaqqon sotiladigan bozorga aylanadi»³.

Podshoh amaldori Turkistonning mustamlaka sifatidagi ahamiyatini davom ettirib «istilo etilgan bu yerlardagi bo‘sh yerlarga hukumat xo‘jayin ekanligini hisobga olsak, O‘rta Osiyodagi mulklarimiz ichki guberniyalardagi ortiqcha aholini ko‘chirib keltirishga imkon beruvchi mustamlaka ahamiyatini kasb etadi»⁴, degan xulosaga keladi.

1886 yilgi «Nizom» o‘lkaga rus aholisini ko‘chirib keltirish yo‘li bilan o‘lkani ruslashtirish harakatini qonunan mustahkamlab,

¹ *Кривошеин А.В.* Записка главноуправляющего земледелием и землеустройством о поездке в Туркестан. СПб, 1912, стр. 111.

² O‘sha asar, 72-bet.

³ *Бродовский М.* Колониальное значение наших среднеазиатских владений для внутренних губерний. Москва, 1891, стр. 4.

⁴ O‘sha joyda.

unga siyosiy tus berdi. Ko'chib keluvchilarga 10 tanobdan kam bo'lman yer ajratish belgilandi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Turkistonga kelib o'rnamashish va yer-mulkka ega bo'lish huquqi faqat nasroniy dinining pravoslav mazhabidagilargagina berildi. 1886 yilgi qonunga ko'ra o'lkaga ko'chib keluvchilarni tanlash va joylashtirish tartiblari belgilandi. «Bo'sh davlat yerlari»ga birinchi navbatda xizmatdan bo'shagan zaxiradagi zobit, quyi unvondagi harbiy xizmatchilar joylashtirilishi alohida ko'rsatildi. Ammo qonunda «Bo'sh davlat yeri» atamasida qanday yerlar nazarda tutilganligiga izoh berilmagan. Holbuki, ana shu masala o'lkadagi yer-suv munosabatlariga bevosita aloqador bo'lib, u keyinchalik o'tkir muammoga aylandi.

Er-suv munosabatlarida chorizm ikki maqsadni ko'zlab ish tutgan. U O'rta Osiyoda o'z hukmronligini mustahkamlash va uning iqtisodiy imkoniyatlaridan mustabid Rossiyaning hukmron tabaqalari manfaatlari yo'lida foydalanishga intilgan. Shu maqsadlar uchun mahalliy hukmron doiralarning qarshiligini sindirish, o'lkada amalda bo'lgan qadimiy munosabatlarni saqlab qolish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga imkon bermaslik kerak edi.

Uzoqni ko'zlagan maqsaddan kelib chiqqan holda Rossiya Turkistonda olib borgan yer-suv munosabatlarida quyidagi siyosatni o'gkazdi:

1. O'lkadagi barcha yerlar davlat xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. O'troq mahalliy aholiga yer merosiy yakka jamoa egaligi tariqasida, ko'chmanchi aholiga esa muddati cheklanmagan tarzda jamoa bo'lib foydalanish uchun topshirildi.

2. O'troq joylarda yer undan amalda foydalanayotganlarga birlashtirildi. Bu tartibga binoan sud organlariga yer-suvga oid munozarali masalalarni hal etishda qozilar tomonidan berilgan yerga egalik qilish haqidagi hujjatlariga – vasiqalarga tayanmay, aksincha, yerdan kim amalda foydalanayotganiga qarabish tutish lozimligi haqida ko'rsatma berildi. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingunga qadar katta yer egalari dehqonlarga ijaraga bergan yerlar endilikda ijarachilarga merosiy tarzda foydalanishga topshirildi. Chorizمنىng yer-suv sohasidagi bunday «tantiligi»ning sababi, birinchidan, Rossiyaning dastlabki yillarda qo'chirish ehtiyojlari uchun zarur yer jamg'armasiga muhtoj bo'lmagani, ikkinchidan, bu sohada o'ziga raqib bo'lgan mahalliy zodagonlar bilan kurashda keng mehnatkashlar ommasini betaraf qilib qo'yish edi.

3. Ko'p hollarda vaqflar avvalgi tarzida qoldirildi, ammo ayrim hollarda vaqf yerlarini davlat ixtiyoriga olish ham mumkinligi belgilandi.

4. Sobiq imtiyozli shaxsiy mulk yerlariga boshqalar qatori soliq solindi. Ular endi xususiy mulk emas, balki davlat yerlari deb ataldi va dehqonlarga merosiy ravishda egalik qilish va foydalanishga topshirilgani ma'lum qilindi.

5. Shahar tashqarisida rus aholisiga yer ajratish ham taqiqlandi.

6. Evropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholiga qarashli yerlarni sotib olish mutlaq man etildi. Bu ta'qiq 90-yillar oxiriga qadar o'z kuchini saqlagan.

1886 yilgi «Nizom»da mahalliy aholining yerga egalik qilishi «odat bo'yicha» deb belgilangani holda, uning yerga qonunan xo'jayin, yo xo'jayin emasligiga doir aniq ta'rif kiritilmadi. Rus qonunlari podshohlik yerlariga nisbatan xonliklar davridagi huquqni rasmiylashtirdi, lekin ular tub aholi ko'pchiligining yerlarini ularga shaxsiy mulk sifatida biriktirmadi. Chorizmning 1867–1916 yillar davomida yer-suvga egalik masalasidagi hujjatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, rus amaldorlari o'rtasida Turkistondagi yerlarga egalik masalasida ikki xil nuqtai nazar hukmronlik qilgan. Birinchisi, Turkiston o'lkasini rus mustamlakasi sifatida o'zlashtirishda dvoryan-pomeshchiklarning fikri. Rus dvoryanlari Turkiston dehqonlarini 1861 yil islohotiga qadar davlat dehqonlari, ya'ni huquqsiz dehqonlar sifatida ishlagan rus krepostnoylari ahvoriga tushirishni istashgan. Ikkinchisi, Rossiya burjuaziyasining fikri. Ular Turkiston dehqonlarini erkin yer egalari deb e'lon qilishni, ularning o'z yerlaridan shaxsiy mulk sifatida foydalanishlarini istab, shu yo'l bilan Turkiston qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarga keng yo'l ochishni ko'zlagan.

Rus amaldorlari tuzgan va joriy etgan qonunlarda ana shu ikki qudratli sinflar manfaatlari to'qnashuvi o'z aksini topdi. Rossiya Turkiston uchun chiqargan qonunlarida rus mustamlaka qulligi makkorona niqoblanib, ularning moddalari bir-birlaridan battar beburd va beqaror bo'lgan. Aslida, Turkistonni ezish hamda talashda rus dvoryanlari va burjuaziyasi yakdil bo'lgan. Lekin uning yo'llari, shakl va uslublari o'rtasida kuchli ixtiloflar bor edi.

1882–1884 yillarda o'lkada taftish o'tkazgan imperatorning haqiqiy maxfiy maslahatchisi Girs o'z hisoboti va podshohga taqdim etgan qonun loyihasida rus burjuaziyasi manfaatlarini ifodalagan edi. U Turkiston dehqonlari o'z yerlarining to'la xo'jayinlari bo'lgan holda imperiya sanoatiga xom ashyo yetishtirish uchun shart-sharoitga ega bo'lishlarini yoklab chiqdi. Girs tayyorlagan qonun loyihasida barcha yerlar, yaylovlar dehqonlarga, qishloq ahliga

mavjud «odat bo'yicha har biriga alohida ravishda va to'la xususiy mulk sifatida birlashtirilishi zarur»¹ ekanligini ta'kidladi.

Maxfiy maslahatchi Girs o'zining taftish yakunlarini ifodalagan taqdimnomasida yer-suv munosabatlariga to'xtalib shunday deb yozgan: «Turkiston o'lkasidagi har bir qishloq uchastkalariga bo'linadi, ularning egalari undan odat va meros yoki hujjatlarga ko'ra to'la xo'jayin sifatida foydalanadilar. Ana shu yerga egalik shaklidan xalq mamnun ekan, bu shaklni saqlab, uni qonun tasdiqlash kerak»².

Ammo dvoryan-pomeshchiklar, burjuaziya fikriga qarama-qarshi o'laroq Turkiston yerlarini talon-toroj qilishni istaganlar. Bu esa rus burjuaziyasi uchun xom ashyo manbalarini kamaytirar va oqibatda rus mollari bozori doirasini cheklashga olib kelgan. Dvoryanlar va burjuaziya fikrlaridagi qarama-qarshilik Sankt-Peterburgning hukmdor tabaqalari doirasida o'z ifodasini topib, ular ham qonun loyihalarida ham bir-biriga zid moddalarni o'ylab topganlar. Podsholik Rossiyasi bu ikki qutbni o'zaro yaqinlashtirish va murosaga keltirishga uringan. Ammo, ko'pincha imperator hukumati, Davlat Kengashi va Vazirlar qo'mitasi dvoryanlarga yon bosgan.

Podsho hukumati Turkiston o'lkasidagi o'troq aholining yerlarini qishloq jamoalari va qishloqlarga berkitib soliq yig'ishda «doiraviy javobgarlik»ni joriy etdi. Bunda soliq birligi sifatida avvalgidek yakka hovli – xo'jalik emas, balki butun qishloq, yo jamoa olindi. Rus amaldorlari kambag'allar uchun ularning boy qarindoshlari yoki hamqishloqlari uning solig'ini to'lab yuborishlarini bilib, shu odatni qonunlashtirdilar. Ko'pincha soliq yig'uvchilarning o'zlari kambag'allarning solig'ini to'lab, keyin uni ortig'i bilan undirib olishgan. Sankt-Peterburg kibarlar doirasi vakili, Turkiston o'lkasini 1908-1910 yillarda taftish qilgan senator graf K.K.Palen ana shu odat haqida o'z fikrini shunday ifodalagan: «Rus ma'muriy organlari butun omma bilan emas, balki uning manaplari, sultonlari va boylari bilan muomalada bo'lishni afzal ko'radilar, xuddi shular turmushning bir maromda tinch o'tishi va hukumat farmoyishlari bajari-lishini bekamu-ko'st ta'minlashga qodirlar»³.

Soliq yig'ishda odamlarning qanday yo'l tutganligini tuman-boshilar yig'inida (1898) Kattaqo'rg'on vakili shunday ifodalagan edi: «Soliqlar kambag'allarga ko'p, boylarga esa kam tushadi»⁴.

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 923-ish, 63-varaq.

² O'sha hujjat, 64-varaq.

³ Palen K.K. Taqdimnoma, 47-bet.

⁴ O'zR MDA, 18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 761-ish, 107-varaq.

Chorizmning bunday siyosati mahalliy dehqonchilikning kapitalistik asosda rivojlanishiga xalal bergan. Eski munosabatlarning saqlanib qolishiga imkon beruvchi tartib-qoidalari esa o'lkada qishloqlarida sudxo'rlikning keng ildiz otib, qishloq xo'jaligining taraqqiyot yo'lini bo'g'ib qo'ygan.

Turkistonda qonun kuchini olgan 1886 yilgi «Nizom»da tilga olingan «bo'sh davlat yerlari» atamasi ruslar tomonidan mahalliy dehqonlarning yerlarini tortib olishda dastak bo'ldi. Imperiyaning qora tuproqli markaziy hududlaridan yer taqchilligidan qutulish siyosati oqibatida mustamlaka Turkistonda boyish uchun rus mujiklari beto'xtov oqib kelaboshladi. Ular ma'muriyatning ijzatisiz ham o'lkaga kelib o'zboshimchalik bilan tub aholiga qarashli yerlarni egallay boshlashdi. 15 yil davomida (1875–1890) Turkistonga 1300 oila ko'chib kelib joylashib, 19 ta rus qishlog'i tashkil topdi. Ayniqsa, 1891–1892 yillarda Rossiyada ocharchilik boshlanganda Turkistonga ko'chib keluvchilar nihoyatda ko'payib ketdi. Ana shu ikki yil davomida 25 ta yangi rus qishlog'i (posyolkasi) paydo bo'lib, rus dehqonlari soni ikki barobarga ko'paydi. Mahalliy aholi bilan rus dehqonlari o'rtasida yer-suv masalasida, sug'orish inshootlaridan foydalanish xususida o'zaro to'qnashuvlar kuchaydi. Bu to'qnashuvlarda rus ma'muriyati rus dehqonlari tarafida bo'ldi. Masalani odilona tinch yo'l bilan bartaraf qilishga uringan ayrim amaldorlar quvg'inga uchradi. Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig'i soldatchasiga 1882 yilda shunday deb yozgan: «Baribir, ochiqchasini gaplashadigan va tan oladigan payt keladiku, axir! Bizning ishimiz avvalo ruslarniki, milliy rus ishi... qirg'izlar joylashgan yer ularniki emas, balki davlatnikidir. O'troq rus nufusi ularni o'lkadan siqib chiqarishi yoki butkul qirib tashlashi darkor»¹. Xuddi ana shunday ruhda ishlab chiqilgan 1889 yil 13 iyuddagi qonun ko'chib kelgan ruslarga imtiyozlar va moddiy yordam berishni belgilab berdi.

Turkistonni ruslashtirish siyosatida keskin burilish 1892 yilda boshlandi. Xuddi shu yili Rossiyadan o'zboshimcha ko'chib kelgan minglab «kelgindilar» ma'muriyat nazorati bilan kelganlar qatori ularga berilgan huquqlardan foydalanishlari mumkinligi joriy qilindi.

O'z yerlaridan dehqonlarning chekka o'lkalarga ketib qolishiga qarshilik qilgan rus pomeschiklari ham mamlakatda kuchayib borayotgan dehqonlar harakatidan xavotirlanib, «to'polonchi unsurlar»ning Turkistonga ketishiga xayrixohlik ko'rsata boshladi. Mustamlaka o'lkasiga ruslarni ko'chirish masalasi bilan shug'ul-

¹ O'zR MDA. 1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 2257-ish, 91–92-varaqlar.

lanuvchi maxsus idora – «Ko‘chirib keltirish boshqarmasi» tashkil qilindi. Chor hukumati 90-yillar oxiridan rus dehqonlaridan kam yerli va yersizlarga «Osiyo Rossiyasida bo‘sh yotgan erkin yerlardan» foydalanishga keng imkoniyat yaratdi. Shunday qilib, podsho hukumati Rossiya dvoryan-pomeshchiklari manfaatini ko‘zlab, ularni «ichki balo» bo‘lmish kambag‘al dehqonlar xurujidan saqlash niyatida, Turkiston yerlarini ularga ehson qildi. Ichki norozilikni esa mustamlaka xalqini ezish, ularni yanada kambag‘al va nochor ahvolga tushirish hisobidan bosishga urindi.

Chorizm joriy etgan qonunlar majmuasi bo‘lmish 1886 yilgi «Nizom»da o‘troq mahalliy aholiga yerga egalik qilishda «yarim mulkchilik» o‘rnatilgani dvoryanlarni qoniqtirmagan edi. Bu qonunning 270-moddasiga ko‘ra, o‘troq aholiga yer avloddan-avlodga meros tarzida foydalanishga, azaliy udum bo‘yicha taqsimlanishga berilgan, ko‘chmanchi aholiga tegishli yerlari esa davlatniki deb e‘lon qilinib, ular ko‘chmanchilarga foydalanishga berilishi qayd qilingan edi. Imperiyadagi katta yer egalari – pomeshchiklar hukmron dvoryanlar sinfi vakillari sifatida Nizomdagi bu moddaga qarshi chiqdilar. Ularning talabi bilan Davlat Kengashida bir qancha oliy amaldorlardan iborat komissiyalar ish ko‘rishdi. Ammo burjuaziya vakillari ham qarab turmay, o‘z manfaatlarini himoya qildilar. Rossiyaning savdo-sanoat doiralari Turkiston paxtakori va pillakori kerak edi. Shuning uchun ham 1886 yilgi «Nizom»ning 270-moddasini qayta ko‘rib chiqqan maxfiy maslahatchi Kobeko raisligidagi oliy vakolatli komissiya dvoryanlar talabini e‘tiborsiz qoldirib, bu moddaga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritishni rad qildi. 1896 yili shu tariqa Turkiston yerlari taqdiri masalasida rus burjuaziyasining qo‘li baland keldi. Pomeshchiklar 1910 yildagina o‘z niyatlariga etdilar.

To‘qimachilik sanoati uchun Turkiston paxtasining hal qiluvchi roli haqida podshoh vazirlaridan Krivoshein imperatorga yo‘llagan axborotida lo‘nda qilib shunday degan: «Turkistonning har bir pud g‘allasi rus va Sibir g‘allasiga raqobatbardordir. Turkiston paxtasi esa Amerika paxtasiga raqobatbardordir. Shuning uchun o‘lkaga qimmatga tushsa ham, g‘alla keltirib berish lozim»¹. Paxta yakka-hokimligini o‘rnatish haqidagi bunday g‘oyani Turkiston general-gubernatori qo‘llab-quvvatlab, bu tadbir hukumatga yiliga 70 million oltin rublni tejashga imkoniyat yaratishini uqtiradi. Uning fikricha, «ko‘p millionli vatan paxta tolasini qayta ishlash sanoatini

¹ *Krivoshein A.V.* Taqdimnoma, 113-bet.

xonavayron bo'lishdan saqlovchi kafolat rolini o'ynashi – mana shu Turkistonning Rossiyaga ko'rsatadigan buyuk iqtisodiy xizmatidir»¹.

Paxta yakka-hokimligini o'rnatish maqsadida Turkistondan Rossiyaga yuboriladigan paxtadan butunlay boj olinmaydigan bo'ldi. 1879 yildan esa boj yig'imi har pud paxtadan 40–50 tiyin miqdorida belgilandi. Soliq olishda ham paxtakorlarga ayrim imtiyozlar berildi. Moliya vazirligi rus burjuaziyasining Turkiston paxtachiligini rivojlantirishdagi harakatlarini faol quvvatlab turdi.

Rus shovinistlari qarashini o'zida ifodalagan Rossiya matbuoti ana shu sohada fikr bildirib, «Turkiston amaldori doimo qirg'iz va sartning tarafini olib, ruslarga qarshi boradi, chunki qo'ymijoz tuzemeslar ularning aldashiga laqqa tushadi. Ruslarni esa bunday laqillatib bo'lmaydi, shuning uchun «yo'qolsin ruslar, yashasin tuzemeslar!» deb xitob qilishmoqda»², degan xulosaga kelgan edi.

Mustabid saltanat markazi talabi bilan 1905 yilda ziroat va dav-lat mulklari vazirligi tarkibida «Ko'chiruvchilik boshqarmasi» tuzildi. Turkistonda esa 1906 yilda «Sirdaryo ko'chiruvchilik rayoni» tashkil etilib, mahalliy aholi yerlarini rus mujiklari uchun tortib olib berish rejali tus oldi.

Turkistondagi mustamlaka ma'muriyati bundan avval bu sohada o'z holicha ish tutgan bo'lsa, endilikda mahalliy aholi yerlarini tortib olish bevosita markaz tomonidan boshqariladigan va izchil amalga oshiriladigan bo'ldi. Natijada XX asr boshida rus kelgindilarining soni 175 mingdan oshib ketdi. Turkiston aholisining atigi 5 foizini tashkil etuvchi rus mustamlakachilari qo'liga ekin ekiladigan hosildor yerlarning 60 foizi berib qo'yilgan edi³.

5. TURKISTONNI RUSLASHTIRISH SIYOSATI

Rossiyaning Turkistondagi mustamlaka siyosati asosida o'lkani ruslashtirish g'oyasi turgani uchun rus nufusini Turkistonda muntazam ko'chirib keltirish mustabid hokimiyatning doimiy e'tiborida bo'ldi. XIX asrning oxirlarida o'lkada 116 rus posyolkasi qurilib, ularda 70745 kishi istiqomat qilgan. XX asr boshiga kelib Turkistondagi rus aholisining soni 197420 kishiga yetib, ularning aksariyati hozirgi Qozog'iston va Qirg'iziston hududida joylashgan

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 5-ro'xat, 939-ish, 5-varaq.

² *Дмитриев И.И.* В Туркестане гонят русских. Газета «Земщина», 1910 г. 7 октября.

³ *Исакаев Б.* 20-летие восстания в Киргизии. «Революция и национальности». М., 1936, № 9, стр. 32.

edi. Birgina Pishpak tumani (uezdi)dagi rus posyolkalariga oid jadval bu hakda yaqqol tasavvur beradi.

1-jadval¹

| Qishloqlar | Tashkil etilgan vaqti | Hovli soni | Aholi miqdori | Erlari (tanob) |
|----------------|-----------------------|------------|---------------|----------------|
| To'qmoq | 1866 | 510 | 4037 | 11435 |
| Lebedinskoe | 1868 | 278 | 2150 | 4895 |
| Novotroiskoe | 1868 | 155 | 1508 | 4329 |
| Belovodskoe | 1868 | 437 | 4218 | 5 |
| Pokrovskoe | 1870 | 115 | 941 | 4148 |
| Mixaylovskoe | 1871 | 49 | 352 | 1918 |
| Issiq-ota | 1882 | 48 | 450 | 1160 |
| Georgievskaya | 1893 | 181 | 1621 | 6357 |
| Ivanovskoe | 1893 | 201 | 1149 | 7110 |
| Petrovskoe | 1902 | 324 | 2462 | 6500 |
| Arxangelskoe | 1907 | 200 | 1466 | 5799 |
| Novopokrovskoe | 1907 | 260 | 2403 | 7185 |
| Pavlovskoe | 1907 | 151 | 954 | 3761 |
| Voznesenskoe | 1907 | 136 | 823 | 2973 |
| J a m i | – | 3044 | 24531 | 260 |

Tadqiqotchilar tomonidan tuzilgan yana bir jadvalda Rossiya-dan Yettisuv va Sirdaryo viloyatlariga 1896–1914 yillar davomida ko'chib kelganlar va yana o'z yurtlariga qaytib ketganlar haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Bu ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkistonga ko'chib kelgan rusiyabon aholining mutlaq ko'pchiligi o'lkada muqim qolib ketishgan. Buning asosiy sababi chorizmning ular uchun bu yerda qulay shart-sharoitlar yaratib berganligi edi.

¹ *Фомченко А.П.* Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX — нач. XX вв. Ташкент, 1993, стр. 75.

| Yillar | Kelganlar | | | Ketganlar | | | |
|-----------|-----------|------------|---------|-----------|------|------------|------|
| | | | | Ettisuvda | | Sirdaryoda | |
| | Ettisuvda | Sirdaryoda | hammasi | hammasi | foiz | hammasi | foiz |
| 1896–1909 | 17911 | 9824 | 27735 | 2284 | 12,8 | 1859 | 18,9 |
| 1910 | 6575 | 1559 | 8134 | 906 | 13,8 | 491 | 31,5 |
| 1911 | 4842 | 7995 | 5837 | 1535 | 31,8 | | 42,2 |
| 1912 | 11298 | 1166 | 12464 | 834 | 7,4 | | 36,5 |
| 1913 | 14321 | 2454 | 16775 | 1233 | 8,7 | | 15,3 |
| 1914 | 10574 | 1345 | 11919 | 763 | 7,2 | 127 | 9,4 |
| 1910–1914 | 47610 | 7519 | 58129 | 5275 | 11,1 | 1841 | 24,5 |
| Jami | 65521 | 17343 | 82864 | 7559 | 11,5 | 3700 | 21,3 |

O'lkaga ko'chib kelganlar xo'jaliklarida 1916 yilda mavjud mol va chorvalar miqdorini ko'rsatuvchi jadval ham ularning tub aholiga qaraganda mulkiy ustivorligidan dalolat beradi.

| Viloyatlar | Otlar | Yirik qoramollar | Qo'y-echkilar |
|------------|--------|------------------|---------------|
| Ettisuv | 128045 | 273120 | 330867 |
| Sirdaryo | 35743 | 82810 | 93755 |
| Samarqand | 3711 | 8155 | 2630 |
| Farg'ona | 7914 | 11652 | 299 |
| Kaspiyorti | 1692 | 6816 | 19862 |

Rus amaddorlaridan biri ko'chib kelgan rus dehqonlarining ahvoli tub yerlilarnikidan yuqori bo'lgani sabablarini e'tirof etgan holda shunday deb yozgan: «Turkiston o'lkasining barcha rus posyolkalarida ko'chib kelganlar qirg'izlar hisobiga va ular mehnati bilan kun kechirishadi».

¹ Турчанинов Н., Домрачев А. Итоги переселенческого движения за время с 1910 по 1914 г. Петроград, 1916, стр. 50–51.

² Fomchenko A.P. Ko'rsatilgan asar, 85-bet.

1906 yidda O'sh uezdi Pokrovskoe qishlog'ida o'ziga to'q rus kishilari yaylov va jamoa ixtiyoridagi o'tloqni mahalliy aholidan tortib olgan. Andijon tumani Ko'gart volostida esa kelgindilar tub joy aholining yerlarini zo'rlik bilan egallaydi. Aholi ular ustidan shikoyat qilganda esa Ko'chiruv mahkamasi amaldorlari rus dehqonlari tomonida turib, ularning manfaatini himoya qilishadi. Zo'ravonlik shu qadar kuchayib ketdiki, hatto Turkiston general-gubernatori Grodekov, uning yordamchisi general Kondratovich, Yetgisuv viloyati harbiy gubernatori general-mayor Ionovlar Ko'chiruv mahkamasi boshlig'i Veleskiyning o'zboshimcha harakatlari chek qo'yishni talab qilib, Peterburgga telegramma yuborishadi¹. Ammo markaz teskari ish tutib, avvalo general Ionovni iste'foga chiqardi, so'ng Grodekov va Kondratovichlarni lavozimlaridan chetlatib, Peterburgga chaqirtirib oldi. Yangi general-gubernator Mishchenko, Ziroat va davlat mulklari boshqarmasi boshlig'i Lazarevskiy Ko'chiruv mahkamasi faoliyatiga chek qo'yishga intilishganda ular ham vazifalaridan chetlatildi. Birgina Ko'chiruv mahkamasi boshlig'i kollej maslahatchisi Veleskiy uchun Peterburgning oliy doiralari undan bir necha barobar yuqori martabali to'rt general va 2 stats-maslahatchining bahridan o'tdi. Ana shu dalilning o'zi ham chorizm birinchi navbatda rus dvoryanlari manfaatini qanchalik yuqori qo'yanligidan dalolat beradi.

Davlat rag'bati bilan o'lkada rus mujiklari salmog'i nechog'lik ortib borgani haqida quyidagi jadval guvohlik beradi:

4-jadval²

XX asr boshida Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida rus nufusi joylashuvi
(1915 yildagi yakunlar)

| Yillar | Joylashtirilgan erkaklar soni | | | O'sish miqdori |
|--------|-------------------------------|----------|-------|----------------|
| | Etgisuv | Sirdaryo | Jami | Foiz hisobida |
| 1907 | 332 | | 2332 | 100 |
| 1908 | 650 | 2400 | 3050 | 130 |
| 1909 | 4755 | 1053 | 5808 | 249 |
| 1910 | 11005 | 107 | 11112 | 476 |
| 1911 | 13732 | 1542 | 15274 | 655 |
| 1913 | 7729 | 5818 | 13547 | 580 |
| 1914 | 8629 | 2931 | 11560 | 495 |
| 1915 | 5977 | 1635 | 7612 | 326 |

¹ O'zr MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'xat, 670-ish, 4-varaq.

² Гагузо П.Г. Аграрные отношения на юге Казахстана в 1867–1914 гг. Алма-Ата, 1965, стр. 226.

Ko‘rinib turibdiki, ayniqsa Yettisuv viloyatida rus kelgindilari salmog‘i kuchli edi. Bu viloyatda mahalliy aholining 4193,5 ming tanob yeri musodara qililib, undan 667,2 ming tanob yer kazak qo‘shinlari ixtiyoriga berilgan edi. 1912 yilga kelib Turkiston o‘lkasida foydalanishga yaroqli 17,6 million tanob yerning 11,7 million tanobi davlat o‘rmon xo‘jaligi ixtiyoriga berildi. Turkiston o‘lkasida eng yirik zamindor rus imperatori Nikolay II ning oilasi edi. Mari viloyatining Bayram Ali tumanida 104 ming desyatina eng yaxshi sug‘oriladigan yerdan Murg‘ob davlat imeniyesi tashkil etildi. Rus kelgindilari o‘zlariga berilgan yerlarning to‘la xo‘jayinlari bo‘lib olib, bu yerlarni meros tariqasida qoldirishlari mumkin bo‘lib qoldi. Mahalliy aholiga tegishli yerlar esa davlat mulki deb hisoblendi.

Turkistonda rus nufusini ko‘paytirishga markaz katta e‘tibor berib, bunga mablag‘ni ayamadi. 1908–1910 yillarda o‘lkani taftish qilgan markaz vakili senator graf K.K.Palen Turkistondagi rus xukmronligining asosiy vositasi o‘lkada o‘ziga to‘q rus dehqonlarini ko‘paytirish deb hisobladi. Senatorning fikricha, ana shunday mujiklar imperiya bilan mustamlakani o‘zaro bog‘lovchi va yaqinlashtiruvchi «ishonchli» unsur bo‘lib qoldi. 1906–1915 yillarda Sirdaryo-Farg‘ona ko‘chiruv hududi bo‘yicha rus mujiklari uchun mahalliy aholiga qarashli 744,9 ming tanob yer musodara qilindi. Mustabid hokimiyatning bunday talonchilik siyosati haqida Rossiya parlamenti – Davlat Dumasida knyaz Mansurov gapirib, Turkistonda ma‘muriyat yerli aholi ustidan «krepostnoy huquqni amalda qo‘llayotganini» alohida uqtirib o‘tgani bejiz emas edi. Davlat Dumasining 1910 yil 7 apreldagi majlisida Qozon guberniyasidan kelgan noib ana shu ko‘chiruv boshqarmasining faoliyatini tanqid qilib, podshohlik agrar siyosatini shunday so‘zlar bilan fosh qildi: «Turkiston ruslar uchun! Bu shior qisqa, lekin tushunarsiz. Buni qabul qilish do‘stlarni dushmanlarga aylantirish demakdir. Turkistonni saylov huquqidan, o‘z-o‘zini boshqarish huquqidan maxrum qilganingizda ham o‘lka xotirjamlikni saqlar deb o‘ylang. Mayli, balki siz uni tushunmaydi, deb hisoblang. Ammo siz uning erlarini tortib ola boshlasangiz, bu holda shu vaqtgacha osoyishta bo‘lib kelayotgan o‘lka harakatga kelib qo‘zg‘olishi mumkin»¹. Ammo podshoh hukumati parlament minbarida turib qilingan bunday ogohlantirishlarga quloq solmadi. 1912 yili Ziroat va davlat mulklari vaziri Krivoshein Turkiston safari haqida imperatorga

¹ Государственная Дума. Стенографический отчет. Созыв IV, сессия V, закрытое заседание 15 декабря 1916 г. стр. 130–131.

yo'llagan hisobotida o'lkadagi 3 million tanob sug'oriladigan yerlarni rus xo'jaliklari foydasiga musodara qilish taklifini ilgari surdi. Ana shu yerlar 300 ming to'q rus xo'jaliklari ixtiyoriga berilishi lozim edi. 3 million tanob yerning bir millioni g'o'za maydonlariga aylanishi kerak edi.

«Musulmonlarga!» deb atalgan bir xitobnomada imperiyadagi 1905–1907 yillardagi siyosiy voqealarga sharh berilib, podshohlik Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik va ruslashtirish siyosati fosh qilingan. Xitobnomada o'qiyimiz: «Zolim hukumat zulmi ostida necha yillar ezilib yotgan rus ishchilari va dehqonlari so'nggi yillarda baxt-saodatga erishish uchun hukumatga yon bosish emas, aksincha unga qarshi kurashish zarurligini tushundilar. Ikki yil muqaddam barcha xalqlar tomonidan teng asosda vakillar saylanib, podshoh Nikolayga xalq ahvolini bayon qilishga kirishildi. Amaldorlar va boylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan podshoh Nikolayga bu yoqmadi. Ammo xalq talabidan qo'rqib, xalq vakillari yig'inini chaqirishga majbur bo'ldi. Xalqning tang bo'lgani va qashshoqligining bosh sababi podshoh eng yaxshi yerlarni o'zining yaqin amaldorlari va knyazlarga bo'lib berib, butun Rossiya xalqlarini soliqlar yuki ostida ezib tashlaganidan edi. Aynan shu xalq yerdan ham, huquqdan ham mahrum bo'lgani uchun xalq vakillari yig'ilishib, uni asoratdan va ochlikdan xalos qilish uchun yerni o'z mulki deb hisoblagan amaldorlar va knyazlardan uni tortib olib, haqiqiy xo'jayin bo'lgan xalqqa bo'lib berishni talab qildilar... Xalqning bunday adolatlil talabi podsho Nikolayga yoqmadi va u Dumani tarqatib yubordi. Ammo Duma tarqatilgan bo'lsa ham xalq tinchimadi va o'z maqsadiga erishish uchun kurashni davom ettirdi. Shunda podsho Nikolay noiloj ikkinchi Dumani chaqirishga majbur bo'ldi. Ikkinchi Duma deputatlari ham huquqsiz va yersiz xalqqa yer va erk talab qildi. Nikolay nima qilishini bilmay xalq vakillariga vaziri Stolipin orqali quyidagi javobni yo'lladi: «Agar kambag'al va yersiz dehqonlarga yer kerak bo'lsa men ularga shunday yerni, pomeschchik va katta boylarnikidan tashqari, topib beraman. Mana, Turkiston o'lkasida yerlar ko'p, yerga muhtoj mujiklar o'sha yerga ko'chib boraverishsin, men esa o'z tarafimdan bu ziroatchilarga yordam ko'rsataman». Vazirning so'zlarini eshitgan Turkiston vakillari o'rinlaridan turib e'tiroz bildirdilar: «Ey, vatandosh birodarlar! Vazirning so'zlari to'g'ri emas, chunki Turkiston yerlariga jon ato qilishga butun kuch-quvvatlarini bag'ishlagan qirg'izlar va sartlarga ham yer yetishmaydi». Shunda Dumada ishtirok qilayotgan rus va boshqa deputatlar «bechora turkistonliklarning yerlarini tortib olish, o'zla-

riga ham yetishmayotgan yerdan mahrum qilish yaxshi ish emas», degan fikrga kelishdi. «Bizga pomeshchiklar qo‘l ostidagi o‘zimizning yerlar kerak. Shuning uchun jazirama Turkistonga qo‘chib bormay shu joydagi o‘z yerlarimizni olamiz», deyishdi. Deputatlarning bunday bayonotini eshitgan podshoh Nikolay jahli chiqib yana deputatlarni haydab yubordi. Rus mujiklari esa Turkiston deputatlarining so‘zlarini eshitib, pomeshchiklarning yerlarini tortib olishga jiddiy kirishdilar.

Podsho endi uchinchi Dumani chaqirib, unga turkistonlik vakillarni kirish huquqidan mahrum qildi. Endi ular Rossiyaga o‘z ahvolini bildirish imkoniyatini yo‘qotdilar... Podshoh Nikolay Turkistonda er kam, qirg‘iz va sartlarga ham yetishmasligini bilgani holda, buni rus deputatlari ham bilishini istamadi. Zolim podshoh yersiz dehqonlarni aldab, Turkistonda yer ko‘p demoqda va ularni bu yerga joylashtirmoqda, uning amaldorlari zo‘rlik bilan qirg‘iz va sartlardan yerini tortib olib mujiklarga bermoqda... Hozirgi kunda bu yerga ko‘chib kelayotgan mujiklar zolim podshoh va uning amaldorlarining puch so‘zlariga ishonib, Turkistonning chinakam ahvolini bilmay, qirg‘iz yerlariga joylashmoqda. Natijada ular bilan qirg‘izlar o‘rtasida qonli to‘qnashuvlar sodir bo‘lmoqda. Podshohning bu to‘qnashuvlar haqida xabari bor, lekin bu hol uni tashvishlantirayotgani yo‘q, chunki bu to‘qnashuvlar unga ham, pomeshchiklarga ham foydalidir. Chunki bechora sartlar va qirg‘izlar bilan ersiz, huquqsiz va qashshoq mujiklar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar ular o‘rtasiga dushmanlik soladi, o‘zaro kurashda hukumatga qarshi kurash uchun zarur kuchlar zaiflashadi. Podshoh Nikolay mujiklarni Turkistonga ko‘chirishda xuddi shu maqsadni ko‘zlaydi. Ular bilan yerli xalq o‘rtasida qonli to‘qnashuvlar bo‘lishini istaydi... Musulmonlar, agar Sizlar peshona teringiz bilan ishlanadigan erlaringizni qo‘ldan berishni istamasangiz, pomeshchiklarning yerlarini tortib olish uchun kurashayotgan rus dehqonlari va ishchilariga yordamga keling, bo‘lmasa Nikolay podshoh o‘z amaldorlari orqali barcha yerlaringizni tortib olib, mujiklarga taqsimlab beradi. Shunda so‘nggi pushaymonlaringiz o‘zlaringizga dushman bo‘lib, sizlarga hech kim yordam berolmaydi. Shuning uchun sizlar boshqa millatlar bilan birgalashib podshoh hukumatiga qarshi kurashmog‘ingiz kerak. Bu kurashga zarur mablag‘ va vositalarni tayyorlang»¹. Turkistondagi eserlar partiyasi 1908 yilda chiqargan bu xitobnomada tarixiy haqiqat o‘z aksini topgan. Turkiston xalqlarining ota meros erlari rus

¹ O‘zR MDA, 461-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1988-ish, 141–143-varaqlar.

kelgindilariga zo'rvonlik bilan taqsimlab berilayotgani aniq dalillar asosida ko'rsatilgan.

Chorizm turli yo'llar va vositalar bilan mahalliy xalqning yerlarini rus mujiklari foydasiga musodara qilishga urindi. Yerga soliqlar miqdorini haddan tashqari oshirib yuborish ana shunday vositalardan biri bo'ldi. Natijada aholi o'z yerlarini sotishga yoki undan butkul voz kechishga majbur bo'ldi. Birgina Marg'ilon tumanida shu tariqa o'zbeklarning 11,5 ming tanob yeri musodara qilindi. Jalolquduq volostida esa solig'ini to'lolmay eridan voz kechgan o'zbek dehqonlariga qarashli joyda 3 rus posyolkasi, Andijon tumanida 2, O'shda esa 1 posyolka barpo etildi. Shu tariqa 1906-1913 yillar mobaynida Turkistonda 116 rus posyolkasi qurildi. «Har bir rus posyolkasi, – deb yozgan edi Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N. Grodekov, – rus qo'shinlarining bir bataloniga teng harbiy salohiyatga egadir»¹. 1912 yilga kelib, o'zbek tuprog'ida barpo etilgan rus posyolkalari ikki kun davomida rus qo'shinlari safiga 31 ming qurolli askar hozirlab berishga tayyor edi.

Podshohlik agrar siyosati 1916 yilgi milliy-ozodlik qo'zg'alo-nidan so'ng ochiqdan-ochiq zo'rvonlik tusini oldi. General-gubernator A.N. Kuropatkinning buyrug'i bilan birgina Jizzax tumanida o'zbek dehqonlarining 1810 tanob yeri rus mujiklari foydasiga tortib olindi. Sankt-Peterburgning hukmdor doiralari Turkistonda «siyosiy nuqtai nazardan» ruslardan katta yer egalari – plantatorlar, fermerlar xo'jaliklarini tashkil etishni, nihoyat, «zarur ehtiyoj» deb hisoblagan holda o'lkada rus xususiy mulk egaligining ustivor bo'lishiga doir barcha chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. «Ikkinchi rus Turkistoni»ni yaratish g'oyasi podshohlik agrar siyosatining tugal maqsadiga aylandi. Paxta yakka hokimligini Turkiston qishloq xo'jaligida o'rnatish, Sankt-Peterburg hukmron doiralari fikricha, bu siyosat asosini tashkil qilishi kerak edi. O'lkaga qimmatga tushsa ham, Rossiyadan g'alla keltirish va o'lka xalqining rus doniga mutelik ehtiyojining doimiy tus olishini ta'minlash, shuningdek, Turkiston dehqonlarini dalalarda nuqul g'o'za o'stirishga majbur etish – bu sohada ta'sirchan vositaligini Peterburg alohida uqtirdi va shu yo'nalishda izchil faoliyat ko'rsatdi.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash lozimki, podsho hukumatining agrar siyosati va uning o'tkir tig'i bo'lgan ko'chiruvchilik tadbirlari oxir-oqibatda o'lkada ruslarni ko'paytirishga olib keldi,

¹ Галузо П.Г. Вооружение русских переселенцев в Средней Азии. М., 1926, стр. 5.

ularning iqtisodiy mavqeini kuchaytirib, mahalliy xalqqa nisbatan kalondimog'ligini yanada oshirdi. Bu esa buyuk rus shovinizmining ijtimoiy-iqtisodiy zaminini yaratdi.

3. O'LVKANING XOMASHYO BAZASIGA AYLANTIRILISH

O'rta Osiyoning arzon xom ashyo manbai va rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozor bo'lishini 1826 yildayoq general-mayor Verigin imperator Nikolay I (1825–1856) ga yo'llagan taqdimnomasida bayon qilgan edi. Verigin Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mollar mamlakat ichkarisida ham zo'r-bazo'r sotilayotgani va sifati past bo'lgani uchun Yevropa bozorlarida sira raqobatga dosh berolmasligini ko'rsatib, O'rta Osiyo bu jihatdan rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozorga aylanishi mumkinligini bayon qilgan edi. Bu fikrni senator graf K.K.Palen rivojlantirib shunday degan edi: «Turkistonni istilo qilishning siyosiy sabablarini hisobga olmagan taqdirda ham bu o'lka Rossiya tarafidan bosib olinishining dastlabki kunlaridanoq Rossiya uchun ikki jihatdan qiziqish uyg'otgan edi: 1. Moliyaviy siyosat jihatidan davlat daromadi manbai va ichki ishlab chiqarish mahsulotlari uchun yangi bozor. 2. Mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan markaziy guberniyalardagi ortiqcha aholini ko'chirish uchun yangi hudud sifatida diqqatga loyiq edi»¹.

Imperiya yuqori siyosiy doiralarning nufuzli vakili senator graf K.K.Palen o'lvkaning metropoliyaga to'laydigan soliqlari miqdorini aniq bilgani holda ularni yanada oshirish rejasini ham ishlab chiqqan edi. Bu reja izchillik bilan amalga oshirilgan. Agar XIX asr oxirida yer solig'i 4 million rublni tashkil qilgan bo'lsa, 1914 yilga kelib u 75 foizga ko'paydi. Rossiyaning Turkistondan oladigan daromadi 300 foizga oshdi va 1916 yilga kelib 38.329 ming rublni tashkil qildi.

Imperiyaning Turkiston xom ashyosidan oladigan foydasining aniq miqdorini hech kim bilmagan va u faqat metropoliya burjuaziyasigagina ma'lum edi. Rossiya to'qimachilik sanoati mahsulotlari qimmatini 1900 yildan 1913 yilga qadar 150 foiz oshganidan kelgan foyda ham shu rus kapitalistlarining cho'ntagiga tushgan va uning hisobini ham hech kim bilmaydi.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o'z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi. Agar 1885 yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo'lsa, 1915 yilga kelib u 541,9 ming tanobga yetdi, ya'ni 13 barobarga o'sdi. O'lka Rossiyaning asosiy

¹ Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. ч. 1. отд. 4, СПб, 1911, стр. 111.

paxta bazasiga aylandi. Bu haqda Turkiston jadidlari etakchilaridan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev 1917 yil iyul oyida Qozonda o‘tgan 2-Butunrossiya musulmonlar qurultoyida shunday degan edi: «Shu kungacha Turkiston rus kapitalistlari uchun govmish sigir bo‘lib kelmoqda. Bugunda Turkiston Rossiyaga paxta yetkazuvchidir. Hanuzgacha to‘xtamayotgan urush tufayli paxtaga ehtiyoj tobora ortib bormoqda, chunki u porox tayyorlashda kerakdir. Agar urushgacha bo‘lgan davrda Amerika paxtasining 1 pudi Rossiyaga 18 rubldan tushgan bo‘lsa, hozirda barcha mollarga narx-navo 3 barobar oshganda, 1 pud Turkiston paxtasi Rossiya tomonidan 7 rubldan 10 rublgacha sotib olinmoqda, holbuki, 1 pudning bahosi hozirda 20 rublni tashkil qilishi lozim. Demak, Turkiston paxtakorlari har pud paxtadan 10–12 rubl zarar ko‘rishmoqda. Bundan shunday xulosa chiqadiki, agar Turkistonda yiliga 10–12 million pud paxta yetishtirilsa, u holda bizning paxtakorlar tomonidan ishlab topilgan 100 million rubl har yili rus kapitalistlari cho‘ntagiga tushmoqda»¹.

Metropoliyaning iqtisodiy siyosati Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, uni rus mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarini markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Bu siyosatdan dvoryan-pomeshchiklar sinfidan tashqari, tobora rivojlanib va kuchga kirib borayotgan rus burjuaziyasi, ayniqsa to‘qimachilik sanoatining egalari manfaatdor edilar. Turkiston mo‘may daromad manbai sifatida ham chor Rossiyasining xazinasini boyitib borayotgan edi. Bu daromadlar 1867–1896 yillarda 4 barobarga ko‘paydi, aholidan olinadigan soliqlar 1889–1893 yillarda 40 foizga oshdi. 1869–1896 yillar davomida imperiya xazinasini o‘lkadan 158 million rubl daromad oldi².

Metropoliyadagi kapitalistik munosabatlarning rivoji mustamlakalarni ham o‘z domiga tortdi. Turkiston o‘lkasi ham bu jarayonga jalb etilib, unda ham markaz manfaatlariga mos kelgan kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. O‘lkaning birgina Farg‘ona viloyatida XX asr boshida 157 paxta tozalash zavodi bo‘lib, ular mahalliy, rus va chet el kapitalistlariga qarashli edi. Turkistonning Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona kabi uch viloyatida 1867–1900 yillar mobaynida 170 sanoat korxonasi ochilgan bo‘lsa, 10 yil davomida (1900–1910) yana 220, 4 yil ichida (1910–1914) esa 180 korxonalar ishga tushirilgan³.

¹ «Hurriyat» gazetasi, 1917 yil 15 avgust.

² *Стеткевич А.* Убыточен ли Туркестан для России? СПб, 1899, стр. 7.

³ O‘zR MDA, 36-jamg‘arma. 1-ro‘yxat, 3298-ish, 42-varaq.

O'lkada fabrika-zavod sanoatining asosini ham xuddi shu paxta tozalash korxonalari tashkil etgani tasodifiy emas, albatta. Chunki metropoliyaning sanoat sohasidagi siyosatini rus burjuaziyasi belgilar, unga esa o'lkaning paxtasi birinchi navbatda zarur edi. Knyaz Masalskiyning ta'biricha, paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish rus to'qimachilik sanoati uchun «yaqin kelajakda hayotmamot masalasiga aylanadi»¹. General-gubernatorning yozishicha, Turkistonning imperiyaga ko'rsatadigan buyuk iqtisodiy xizmati ham ana shunda edi. Rus to'qimachilik sanoati Turkiston paxtachiligining rivoji tufayli jahon bozorida mustahkam marrani egaladi. 1900 yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizini tashkil qilib, bu raqam yil sayin oshib bordi va birinchi jahon urushi arafasida 50 foizga yetdi. Imperiya gazlama sanoatining gurkirab o'sishi ana shu paxta tufayli edi. 1889–1916 yillar orasida amerika navi ekiladigan Turkiston o'lkasi paxta maydonlari 7 barobar kengayganining boisi ham shunda edi². Birgina Qo'qonning o'zidagina 1900 yilda 22 ta paxta tozalash zavodi ishlagan. Arzon xom ashyo asosida ishlovchi yog', vino, pivo, kolbasa zavodlari, o'lkada yer osti boyliklarini o'zlashtiruvchi tog'-kon korxonalari paxta tozalovchi zavodlardan keyingi o'rinda turgan.

1884 yildan rus sanoatchilari «Amerika» navli paxtani o'lkada katta maydonlarda ektirishlaridan so'ng imperiya to'qimachilik sanoati korchalonlarining ishtahasi ochilib ketgan edi. 1889 yilda bunday nav 50 ming, 1895 yilda 100 ming tanob maydonga ekildi. 1901 yilga kelib esa o'lkada 186326 tanob yerni egallagan paxtadan 174026 tanobi rus sanoati ehtiyoji uchun mo'ljallangan amerika naviga tegishli paxta edi. Rus ishbilarmonlari va chet el firmalarining maxsus paxta plantasiyalari ham shitob bilan o'z maydonini kengaytirib bordi. G.Belyakov, N.Raevskiy, S.Tarsin kabi plantatorlar amerika navli paxtani Turkistonda keng tarqatish ishining tashabbuskorlari va boshlovchilari bo'lishdi. Eng katta plantasiya Katta Yaroslavl manufakturasiga tegishli edi (2750), keyingisi esa rus kelgindilarining Andreev xutori (Andijon uezdi) bo'lib, u 700 tanob maydonni egallagandi.

XX asr boshlarida paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, don – 37 foiz, boshqa ekinlar esa 1,2 foizni tashkil qilgan. Paxtachilik imperiyaning chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini te-

¹ Туркестанской край. Т. XIX, СПб, 1913, стр. 559.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 5-ro'yxat, 939-ish, 6-varaq.

jashda yordam bergani ham to'qimachilik, gazlama sanoati gurkirab o'sishiga turtki berdi.

Turkiston o'lkasidan 1906 yilda 566878, 1909 yilda – 1102876, 1913 yilda – 2115119, 1915 yilda esa 2426298 pud paxta Rossiya to'qimachilik sanoatiga yetkazib berildi. Shunga qaramay, paxtaning narxi nihoyatda past edi. 1913 yilda paxta narxi 50 foiz oshirilganda mustamlaka ma'muriyati ataylab eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bahosini 400-500 foizga oshirdi. Nonning narxini 6 martaga ko'tarib, paxta narxini esa 20 foizga kamaytirdi¹.

Rus mustamlakachilari Turkistondan 1914–1916 yillar mobaynida 59 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketdilar.

Turkiston o'lkasi imperiyaning xom ashyo manbai bo'lishidan tashqari u Rossiyaning Yevropa bozorlarida raqobatga dosh bera olmaydigan o'tmas matohlarining sotiladigan qulay bozoriga ham aylantirildi. XX asr boshlarida Turkistonga keltirilayotgan temir, mis, chinni idishlar, gazlama va boshqa mahsulotlar miqdori 8 marta ko'paygan². Xususan, birgina Farg'onaga Moskvadan – 605412, Irbitdan – 5000, Nijniy Novgoroddan – 71233, Orenburgdan – 23910, Louzdan – 33600 rubllik mollar keltirilgan³.

1895 yilning bir o'zida Rossiyadan Turkiston o'lkasining Farg'ona viloyatiga 6010005 rubllik rus mollari keltirilgan. Metropoliyadan 1914 yilga kelib bir yilning o'zidagina Turkistonga 243,6 million rubllik mol keltirilib sotilgani ham o'lkaning rus tovarlari uchun qulay bozorga aylanganini yaqqol ko'rsatadi. Mutaxassislarining hisob-kitobiga ko'ra, Rossiyadan keladigan mollarning 40 foizini gazlama, 15 foizini oziq-ovqat, 11 foizini metallni qayta ishlash, 7 foizini yog'ichni qayta ishlovchi, 6 foizini kimyo sanoati mahsulotlari tashkil qilgan⁴.

Rus firmalari va shirkatlari mollarning turlari bo'yicha Turkiston bozorida o'z monopoliyalarini o'rnatib olishgan edi. Xususan, choy savdosini Shvesov, Sinisin, Lushnikov firmalari egallab olgan edilar. Bu firmalar 1902 yilda 26222 pud, 1903 yilda esa 26327 pud choyni sotishgan. Chinni buyumlar savdosi esa Kuznesov va Gardner shirkati monopoliyasida edi. «Vladimir Alekseev», «Bratya Kamenskie», «Baron A.Knop», «Bratya Shlyusberg» kabi

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1676-ish, 2-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2599-ish, 2-varaq.

³ O'zR MDA, 19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 24156-ish, 33-varaq.

savdo uylari, «Ships, Stuken i K^o», «Yaroslavl katta manufaktura» shirkatlari, Moskva savdo-sanoat shirkati ham Turkiston bozorida hukmron mavqeni egallagan edilar.

Rus kapitalistlari o'z manfaatlarini o'ylab qayta ishlash sanoatini o'stirishni istamaganlar va asosiy kapitallarini savdo-sotiq muomalasi doirasiga sarfladilar. 1913 yildan 1915 yilgacha Moskva va Sankt-Peterburgning firma va shirkatlari o'lka xo'jaligiga sarflagan 313 million rubl mablag'ning 60 foizi kredit tarmog'iga to'g'ri kelgan. Turkistondagi xususiy tijorat banklari ikki katta korchalon guruhni: Moskva va Peterburg banklarini tashkil qilib, o'lka iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynagan. Muntazam o'tkazib kelingan iqtisodiy zo'ravonlikning oqibatlaridan rasmiy idoralar tashvishga tushgani haqida ma'lumotlar ko'p. Xususan, taniqli mutaxassislardan N.P.Verxovskiy chorizmning Turkistonni xonavayron qiluvchi iqtisodiy siyosatini tanqid qilib, 1909 yilda bunday deb yozgan edi: «Bunday ijtimoiy-iqtisodiy evolyusiyaning borishi o'lkani butkul xonavayron qilibgina qolmay, barcha ruslardan yotsirashga olib keladi. Xonavayron bo'lgan aholining iqtisodiy noroziligini kuchaytirib, hukumatga va ruslarga qarshi tashviqot uchun qulay zamin yaratadigan nufusini vujudga keltiradi»¹.

1916 yil 4–6 mart kunlarida bo'lib o'tgan Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati majlisida paxtachilik bilimdoni hisoblangan S.Ponyatovskiy Rossiyadan keltiriladigan gazlama, temir, mis buyumlar, choy va don mahsulotlariga hech qanday cheklanishsiz narx-navo qo'yilgani holda, masalan, birgina yog'ning narxi 1913–1916 yillar davomida 20 barobar ko'tarilgani holda paxtaga narx qat'iy normada saqlanib qolayotganiga diqqatni qaratadi. «Moskva, – degan edi u, – bizning O'rta Osiyo paxta tolasiga nihoyat katta e'tibor berayotganini ko'rib turibmiz va bu e'tibor kelgusida ulkan falokatga olib keladi»².

Paxta yakka hokimligi Turkiston sanoatiga tamoman mustamlaka tusini berib, uni metropoliya burjuaziyasiga raqobatchi emas, balki unga xizmat ko'rsatuvchi sohaga aylantirgan edi. Rus burjuaziyasi va shakllanib borayotgan Turkiston burjuaziyasi o'rtasidagi munosabatda ham shu holat o'z aksini topdi.

Markazdagi kapitalistlar, chet el firmalari bilan hamkorlikda Turkiston boyliklarini o'zlashtirish ishida mahalliy burjuaziyani o'ziga vositachi qilib olgan edi. Rus burjuaziyasi Turkiston sanoati,

¹ Туркестанское сельское хозяйство. 1909, № 22, стр. 839.

² O'sha hujjat, 1916. № 5.

qishloq xo'jaligi va yer osti boyliklarini o'zlashtirish ishiga nisbatan, kapitalistik munosabatlardan kelib chiqqan holda siyosat o'tkazar va ana shu masalada dvoryan-pomeshchiklar bilan to'q-nashar edi. Rus podshohining saroyi, Davlat Kengashi va Ministrlar Qo'mitasida asosiy o'rinlarni egallagan dvoryan-pomeshchiklar esa Turkistonga nisbatan harbiy-feodal siyosat yuritib, ochiqdan-ochiq uning boyliklarini talash, yer-suvlarini tortib olish tarafdorlari edi. Har ikki sinf manfaatlarini muvofiqlashtirishga uringan podshohlik shuning uchun ham mustamlakalarda «Harbiy-feodal imperializmi» siyosatini o'tkazib kelardi. Aleksandr II (1856–1881), Aleksandr III (1881–1894) va Nikolay II (1894–1917) hukumatlari tarkibiga kirgan dvoryan-pomeshchiklarning hal qiluvchi mavqei rus burjuaziyasining noroziligini uyg'otardi. Burjuaziya mustamlaka siyosatini o'tkazishni monopolistik kapitalizmga xos bo'lgan yangi usullarda: kapital chiqarish, qarz berish, konsessiyalar olish, xom ashyo manbalarini qo'lga kiritish kabi vositalar yordamida amalga oshirishni istasa, dvoryan-pomeshchiklar esa o'lka yerlarini tortib olib, rus pomeshchiklariga bo'lib berish, iqtisodiy xarakterga ega bo'lmagan vositalarni harbiy kuch va zo'ravonlik bilan patriarxal-feodal muno-sabatlarni saqlab qolish tarafdorlari edilar. Boshqa sohalardagi kabi xuddi shu mustamlaka siyosatini o'tkazishda dvoryanlarning ustivorligi rus burjuaziyasini podshoh hukumatiga qarshi qayrardi.

Mahalliy mulkdorlar toifasining shakllanishi va ularning mafkurasi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi savdosotiq markazlarida mahalliy sarmoyador-mulkdorlar toifasi shakllana boshladi. Qishloqlarda esa o'rta sarmoyali mulkdorlar soni ko'paya boshladi.

Eng so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, XX asr boshlarida Turkiston qishloqlarida paxtachilik rivojlangani va o'ta xarid qobiliyati yangi ijtimoiy qatlam, o'rta mulkdorlarni vujudga keltirdi: 1,5 tanobgacha (desyatina) yerga ega kambag'allar qishloq aholisining 45,6 %, 1,5 dan 5 tanobgacha yer egalari – o'rta mulkdorlar 38,9 %, o'ziga to'q o'rta hollar: (5–10 tanobli) 10,6 %, boylar (10 tanobdan

¹ *H. Махкамova. Средние собственники в колониальном Туркестане в начале XX века. Тенденции развития и социальная роль в обществе. Материалы международной конференции «Социальная жизнь народов Центральной Азии в первой четверти XX века: традиции и инновации» (Ташкент, 12–13 сентября, 2008 г.). Ташкент, 2009, стр. 53–56.*

ortiq) 4,9 %ni tashkil etdi. Shu tariqa Turkiston qishloqlarida o'rtta mulkdorlar dehqon xo'jaliklarining 50 %ni qamrab oldi'. Ular xususiy mulkdorlar o'zagi va baquvvat qatlami bo'lib fermer xo'jaliklari shakli tomon rivojlanmoqda edilar.

Sanoat ishlab chiqarishda o'rtta mulkdorlar toifasini asosan kosiblar va hunarmandlar tashkil qilgan. 1897 yilda Toshkentda 1699 kosibchilik korxonalari va ularda ishlovchi 3.300 xodim ro'yxatga olingan. Ulardan har birining yillik unumdorligi 1–3 ming rublni tashkil qilgan.

Savdo-sotiq doirasida ham o'rtta mulkdorlar salmoqli o'rinni egallashgan. Toshkentda 1878 yilda berilgan savdo guvohnomalaridan 224 tasi yirik mulkdorlarga, qolgan 3689 tasi o'rtta sarmoyali savdogarlarga berilgan. 1904 yilda Farg'ona viloyatida 26512 savdo guvohnomalaridan 48 tasi ko'tara savdoga oid bo'lsa, 747 tasi chakana, 25717 tasi kichik savdoga tegishli bo'lgan.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi savdo-sotiq doiralarning paxtaga katta ehtiyoji, to'qimachilik sanoati korchalonlarining Turkiston paxtasiga qo'ygan yuqori narxlari dehqon xo'jaliklarini paxtachilikni rivojlantirishga katta turtki berdi.

Qishloqlarda va shaharlarda o'rtta mulkdorlar toifasini shakllantirdi. Huddi shu toifa Turkiston iqtisodida barqarorlikni saqlab turuvchi asosiy omil edi.

Yirik mulkdorlar soni ham, kapitalistik sarmoyasi ham ko'payib bordi. Mashhur o'zbek davlat arbobi

Fayzulla Xo'jaevning otasi Ubaydulla Xo'jayev Buxoro amiri Said Abdulahadxon bilan jahon qorako'l teri savdosida yetakchi o'rinni egallagan. Ko'p millionli sarmoyalari chet el banklari operatsiyalarida ishtirok qilgan.

Farg'ona vodiysida esa shunday yirik sarmoyadorlar qatorida Temirbek hoji va Mirkomil Mirmo'minboyev birinchi o'rinda turishgan.

Rus va chet el kapitalistlari bilan hamkorliqdagi faoliyat davomida tijorat ilmini o'zlashtirgan bu mulkdorlar jahon bozoriga chiqishga ham urina boshlagandi. Andijonlik Mirkomil Mirmo'minboy hoji o'g'li (1860–1919) ana shunday yirik o'zbek mulkdorlarining yorqin namoyandasi edi. XX asr boshlarida uning shaxsiy boyligi 15 millionga yaqin bo'lgan va u «Aka-uka Shlyusberg», «Knop», «Aka-uka Stensum» firmalari, Moskva hisob banki, Rus – Xitoy banki, Rus – Osiyo banki va boshqa savdo-sotiq firmalari hamda banklari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata boshladi. Mirkomilboyning 5 ta paxta tozalash zavodi, 5 ming tanob yeri, 300 dan ortiq do'konlari, 4 ta katta bog'uzumzori. 6 milliondan ortiq

naqd puli, qimmatbaho qog'oz, aksiyalari bo'lgan¹. Rus kapitalistlarining vositachi xizmatkori bo'lib o'z xalqini talashda qatnashgan, sudxo'rlik qilgan va har xil yo'llar bilan boylik orttirgan boshqa tijoratchilardan farqli o'laroq, u rus va chet el kapitalistlari bilan muvaffaqiyatli raqobat qila olgan, tadbirkor va ma'rifatparvarligi bilan ham o'z birodarlaridan keskin ajralib turgan. Rus mustamlakachilari uni yomon ko'rishsa ham u bilan hisoblashishga majbur bo'lishgan. Shu bois unga qarshi doimiy, beto'xtov tazyiq, ta'qib olib borilgan, har bir qadami, xatti-harakati chor ma'murlari kuza-tuvida bo'lgan.

1911 yildayoq Turkiston rayon muhofaza bo'limi o'zining maxsus ishlar bo'yicha hisob-ro'yhatiga Mirkomilboy Mirmo'minboevni ham tirkab qo'ygan. Unga olingan anketada Mirkomilboyning 52 yoshdaligi, mashhur millioner, paxta tozalash zavodlari egasi, musulmon, Andijon shahridanligi ko'rsatilgan. Anketaning orqa betiga Andijon uezdi boshlig'i vazifasini bajaruvchi podpolkovnik Ivanovning 1911 yil 3 mayda o'zining Farg'ona viloyati harbiy gubernatori nomiga yo'llagan 133-sonli xatini ilova qilib, Turkiston rayon muhofaza bo'limi boshlig'iga yo'llagan 136-sonli xati yuborilgani qayd etilgan. Unda 1898 yilgi qo'zg'alon yomon qurollangan yerlilar tomonidan amalga oshirilgani mahalliy aholi orasida qo'zg'aloning mag'lubiyatga uchrashining asosiy sababi qo'zg'alonchilarni yomon qurollanganligidan bo'ldi degan ishonch tug'dirdi deyilgan. G'azovotdan so'ng o'z qismatidan qo'rqish natijasida mutaassiblar boshchiligidagi aholi kelajakda qo'zg'alonni tayyorlash uchun tug'ilayotgan har erkak bola hisobidan 5 rubldan pul to'plashga kelishib olingani, bu ishning tepasida Andijon uездida yerlilardan iborat maxsus tashkilot turgani, to'planayotgan mablag' bo'yicha alohida hisob-kitob o'rnatilgani. bu mablag'ga qurol sotib olish boshlangani, bu tashkilot tarkibiga Andijon uezdi sartlaridan 1. Mirkomil Mirmo'minboev – tashkilot boshchisi: 2. Yaqinda Andijon shahar katta oqsoqoli lavozimidan kasalligi uchun bo'shatilgan Said To'ra; Z.Pedaoxun; 4. To'xta Kal; 5. Abdurahmonlar kirgani, ularning hammasi Andijon shahridanligi; 6. Yorboshi volosti, Ekin-tikin qishlog'idan Xolbotir, hazinachi Alimqul bo'lgani, uning o'limidan so'ng bu lavozimni Mirkomil qabul qilgani aytilgan.

Arxiv hujjatlarida Mirkomilboy faoliyati va hayotining ko'plab qirralari aks ettirilgan. Ana shular haqida biroz to'xtab o'tishni joiz bildik.

¹ O'zR MDA. 19-jamg'arma, 4-ro'yxat, 178-ish, 97-varaq.

1910 yilda sotib olingan qurol turli joylarda saqlangani, shaharda Oftobachi madrasasida, shu madrasa qarshisida yerto'lada. qabr yodgorligi oldida, Ekin-tikin qishlog'ida Xolbotir va Mirkomilning uylaridan birida saqlanayotgani xatda keltirilgan. Bu ma'lumotlar kuni kecha olingani, shu bois uni tekshirish imkoni bo'lmagani, yashirin so'roq va tintuv qilish tashkil etilmagani, bu xatni hech kimga bermasdan sir saqlash lozimligini, bu ishni tekshirib chiqish uchun rayon muhofaza bo'limidagi ofiserlardan Andijonga yuborilishini Ivanov so'ragan.

O'sha kuni Andijon shahrining Olayliq dahasida yashovchi mahalliy boy Mirkomilda ishonchli kishi bo'lib xizmat qilgan Abdullahakim mahsum Yoqubboevni men so'roq qildim. Bundan ikki oy oldin savdo ishlari bo'yicha uni xo'jayni bilan oralarida tushunmovchilik bo'lgan, shundan so'ng Mirkomildagi xizmatni tark etgan. U Mirkomilda xizmat qilgan vaqtida xo'jayini Turkiya yoki uning emissarlari bilan qandaydir aloqasi borligi haqida hech narsani sezmagani.

1913 yil mayning oxirida Mirkomil andijonlik boy Ibaydulla Orifxo'jaev va Qo'qon boylaridan Yoqub hoji Jahonov va uning Abdulhakim ismli sherigi bilan birga Moskvada bir hafta bo'lishgan, keyin Abdulhakim uyga qaytib kelgan, qolganlar esa davolanish uchun chet elga Karlsbadga borishgan, bir oyda ular ham qaytib kelishgan. 1914 yil 1 avgustda soqchilik tartibida, guvoh sifatida so'roq qilingan Orenburglik meshchan, tul ayol Mariya Eduardovna Ugryumovashundayko'rsatmabergan: «Qishdabizlar Ilinko'chasiidagi kvartirada Masalixovda yashaganmiz, shunda erim bizga dala xovlisi kerakligini bilib shahardan 5–6 chaqirim joydagi dala xovlisini taqdim qilgan va biz bundan foydalanganmiz va 30 aprel kuni bolalar bilan ko'chib kelganmiz. 16 may kuni 8 bola bilan beva qoldim, biroq dala hovli bolalar uchun yaxshi bo'lgani va yashash arzon bo'lgani tufayli men butun yoz bo'yi o'sha joyda qoldim, 1 avgustgacha qolmoqchi edim. Ammo 20-ndidan 21-inchiga o'tar kechasi ikki ishchining o'zbek tilida «Mana endi ruslardan qutulish va ularni o'ldirish payti keldi, endi rus askarlari oz, hammasi ketib qoldi, o'zbeklarga esa qirg'izlar ham qo'shilmoqda, barcha qishloqlarda xalq to'planib kim qanchagacha qodir bo'lsa, shuncha pul hadya etmoqda» deb gaplashgani qulog'imga chalindi. Ular Andijonning boyi, o'z banki va paxta tozalash zavodiga ega bo'lgan Mirkomilni esladilar, ular tayyorlanayotgan qo'zg'alon to'g'risida bevosita gaplar aytilayotgan chog'da u haqda gapirdilar. Shu bois menda bu ishga Mirkomilning ham aloqasi bordek fikr tug'ildi, men u bilan shaxsan tanish emasman,

ammo uni Andijonda yashayotganimda, erim Moskva Savdo bankida xizmat qilayotganda ko'rganman».

Bu Ugryumova bilan o'tkazilgan so'roq bayonnomasining bir nusxasi rayon muhofaza bo'limidagi Mirkomilga ochilgan ish haqidagi ma'lumotni qo'shib, 1914 yil 5 avgustda polisiya departamenti direktoriga va Turkiston general-gubernator kanselyariya boshqaruvchisiga taqdim etiladi.

1915 yil 10 yanvarda kelgan agentura ma'lumotida Mirkomil ruslarga nisbatan juda ham dushmanlik kayfiyatidaligi qayd etilgan.

Uch yil muqaddam tergov bo'limi Mirkomilning uyida tintuv o'tkazadi. Ish uchun zarur bo'lgan hujjatlar sandiqda saqlangan, uning kaliti Mirkomilning aytishicha, yo'qolib qolgan sandiq muhrlanib uning uyida qoldirilgan, biroq ertasi kuni sandiq ochilganida unda hech narsa topilmagan.

1915 yil 4 noyabrda Toshkent shahrida Turkiston general-gubernatorligi Mirkomil Mirmo'minboevni davlat jinoyatchisiga daxldorligi haqidagi ma'lumotni olib, uni davlatni himoya qilish to'g'risidagi 1881 yil 14 avgustdagi Nizomiga asoslanib Toshkent viloyat turmasidagi alohida xonaga qamashga qaror qilinadi va bu qaror bilan shaxsan Mirkomil Mirmo'minboevni tanishtirish kerakligi ko'rsatiladi.

Bu haqda Turkiston rayon muhofaza bo'limi boshlig'i podpolkovnik Volkov xabar qilgan.

1915 yil maydagi agentura ma'lumotida podpolkovnik Prigara paxta operasialari bilan shug'ullanib ketma-ket o'zining ishlari bo'yicha Farg'ona viloyatlari qishloqlariga kelib ketayotgani, mahalliy kishilarni Germaniya musulmonlarning haqiqiy himoyachisi ekaniga ishontirib, shu bois musulmonlar o'zlarining asriy dushmani ruslarga qarshi qo'zg'alon qilishlari kerakligi, oqibatda ularning zulmidan xalos bo'lishlari mumkinligini targ'ib-tashviq qilgani qayd etilgan.

Fon-Kegel mahalliy tilni yaxshi bilgan va mahalliy boy kishilarga ta'siri bo'lgani ham hujjatda ko'rsatilgan.

Andijon uezdi boshlig'ining bu xatiga 16 mayda Turkiston rayon muhofaza bo'limi javob qiladi. Unda xatdagi hech qanday faktik material bilan tasdiqlanmagan dastlabki ma'lumotlarni tekshirish uchun bo'lim ofiserini yuborishning imkoniyati yo'q, bu ish yuzasidan hozirgi vaqtda hech qanday tergov harakatlari olib borish mumkin emas. Uezd boshlig'i qo'lidagi dastlabki ma'lumotlar yashirin yo'l bilan batafsil tekshirib chiqilgandan so'ng bu ishda aniqlik topilsa, u haqda bo'limga xabar qilinsa, shunda rayon muhofaza bo'limidan

zarur miqdordagi xodimlar Andijonga yuborilishi mumkinligi aytiladi.

Turkiston general-gubernatori mahkamasi boshqaruvchisi 1911 yil 26 maydagi 633 sonli xatida hamda Buxorodagi Rossiya imperatorligi Siyosiy Agentligining o'sha yili 20 maydagi 122-sonli xatida polisiya amaldori Volmak tomonidan eski Buxoroda tintuv, keyin tergov o'tkazilganida Buxoroda va Turkiston o'lkasida islomchilik va turkchilikni targ'ibot qilishni maqsad qilib olgan bir qator komitetlar tashkil etilgani, bunday tashkilotlar Qo'qon, Samarqand, Andijon va boshqa shaharlarda faoliyat olib borayotgani, Andijon komitetining rahbari Mirkomilboyli, uning bir ko'zi ko'rmasligi qayd etilgan.

Agenturaning yana bir axboroti ham qiziq. «Mirkomil aqlli odam, epchil, chapdast, uddaburon, ayyor, ruslarga nisbatan juda ham dushmanlik kayfiyatida, buni yashirib bo'lmaydi, buni undagi rus xizmatchilar (misol uchun Timofeev) ham isbotlaydi, uni tekin malay va ablah ruslardan deb aytgan.

Mirkomil Andijonga tramvay keltirish uchun ruhsat olish orqasidan yuribdi, tramvay sotib olish uchun chet elda Abdulla Maxsum bo'ldi. Natijasi ma'lum emas. Gubernatorga yaqin turgan mahalliy ma'muriyat amaldori uni himoyasiga olmoqda. Mirkomil ochiqdan-ochiq musulmon boylari orasida o'z hukmronligi bilan maqtanadi, hatto uezd boshlig'i podpolkovnik Ivanovni joyidan haydab yuborgani, bu uning shaxsiyati uchun ko'ngilsizlik bo'lgan edi.

Barcha tuzemlar har doim ma'muriyat sudlov ishlar bo'yicha o'z tilmochlari orqali pulga yashirin spravka (ma'lumotnoma) yozib berayotganliklaridan boxabar. Bundaylar Sulaymon Kelginboev va Yusufjon Chorishevlaridir. Mirkomilda Abdulhokim Maxsumning tovlamachilikda ayblangani haqidagi xalq sudining hukmi bor va u bu qarorni Maxsumga zarurat qolmaydigan vaqtgacha saqlab va doimiy ravishda uni sud hukmini ijro etish bilan qo'rqitib turmoqda.

Mirkomil Andijondagi yerlilar orasidagi nufuzli odam, 1912 yilda bo'lsa kerak, u to'y qilgan, unda bir necha ruslar ham ishtirok etishgan va bu joyda ularni mazah qilgan. To'ydan keyin yashirin uylardan birida ichib mast bo'ladi. atrofiga buzuq ayollarni to'plab oladi va ular bilan ko'chaga chiqib dod-voy soladi va janjal-to'polon ko'taradi. O'tib ketayotgan pristav Bajenov so'z orqali haqoratlanganidan so'ng Mirkomilni qamoqqa oladi. Bundan Andijon uezdi boshlig'i yordamchisi, hozirda Skobelevda uezd boshlig'i yordamchisi Lebedev shahardagi nufuzli va boy bo'lgani uchun

telefon orqali zudlik bilan Mirkomilni ozod qilishni buyurgan. Chunki Lebedev Namangandagi ko'chmas mulk hisobidan Mirkomildan garovga 5000 rubl olgan edi. Bundan notarius voqif bo'lgan. Bundan xabar topgan uezd boshlig'i podpolkovnik Ivanov 64-modda bo'yicha Mirkomilni 14 kunga hibsga olishga buyruq bergan. Biroq Mirkomil Lebedevning ko'magi bilan yashiringan, tergov qabulxonasiga berkinib olgan, uning yordamchisi Sulaymon yordami bilan tunda otlarda Asaka stansiyasiga ketadi va u yerdan poezd bilan Skobelevga, gubernatorga kelgan. Otlarni Sulaymon va Lebedev topganlar.

Mirkomil gubernator Gippiusga podpolkovnik Ivanov undan pora sifatida 5000 rubl talab qilganini aytgan, lekin u bu mablag'ni bermagan, natijada qamoqqa olinib tergov, tekshirish va tintuv qilish belgilangan. Podpolkovnik buyrug'i bekor qilinadi. Mirkomilga berilgan 14 kunlik qamoqni gubernator hukumati uch kunga qisqartiradi, podpolkovnik Ivanovga xayfsan bergan, shunda unga nisbatan ta'ziy boshlangan, tez orada amali pasaytirilib Xo'jandga ishga o'tkazilgan.

Mirkomilning ma'muriyatga ta'siri tufayli musulmonlar uchun nafratli va ziyonli kishi podpolkovnik Ivanovni Andijondan olib tashlangani bilan maqtangan.

Mirkomilda bir necha bor tintuv o'tkazilgan, bu tintuvlar tilmochlar orqali oldindan xabar qilib turilgan, prokuror nazorati ishtirokida ham tintuvlar o'tkazilgan. Yonmaydigan seyfdan veksel va yasama hujjatlarni olib qo'yish maqsadida o'tkazilgan ana shunday tintuvlardan birida xo'jayinning o'zi bo'lmaganligidan tintuv qiluvchilar tarkibi tintuv o'tkazilayotgan xonada mehmon bo'lishni xohlamay ma'lum vaqtga tashqariga chiqadilar. Shu vaqtda uyidagi sobiq xizmatchisida seyf kaliti bo'lgan, hukumatdagilar yashirin holda seyfdan ayblov hujjatlarini olib, ularni hovlining bir joyiga yashirib qo'yadi. Xo'jayin kelishi bilan tintuv natijasiz bo'lib chiqadi.

Andijon uezdi sobiq boshlig'i podpolkovnik Ivanov Mirkomilning ko'chadagi no'maqulchiliklari uchun ikki haftaga qamoqqa olishga topshiriq beradi, biroq Mirkomil qamoqqa olingunga qadar yashirib olib, arz bilan Farg'ona harbiy gubernatori huzuriga keladi. Bu ish bo'yicha tintuv o'tkazish maxsus topshiriqlar bo'yicha chinovnik Kroshkovga topshiriladi. U o'sha vaqtda Namangan shahrida uezd boshligi edi va u vakolatli shaxs. Mirkomildan 5000 rubl pul olgan va ishni unga ma'qul bo'ladigan darajada bajargan. Podpolkovnik Ivanovning Mirkomilni qamoqqa olish to'g'risidagi qarori bekor qilinadi. Podpolkovnik Ivanov o'zi lavozimni tark

etishga majbur bo'ladi. Uning o'rniga uezd boshlig'i etib polkovnik Yu.A.Brjeziskiy tayinlanadi. Mirkomilboy u bilan til topisha olgan edi¹.

Mirkomilboyga o'xshash tadbirkor, vatanparvar va keng dunyoqarashli yirik mulkdorlar Qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlarda ham bo'lgan.

Mirzo Abdullaboy Isamuhammad o'g'li, Yusuf boyvochcha, Said Azimboy, Boqijon Dadajonov kabi yirik mulkdorlar shular jumlasidandir. «Turkiston viloyati gazetisi» 1887 yil 14 avgust sonida Mirzo Abdullaboy xususidagi maqola diqqatga sazovor. U qay tariqa savodini chiqargani, fors va rus tillarini egallagani hamda tijorat bobidagi muvafaqqiyatlari haqida hikoya qilinadi. Mirzo Abdullaboyning Shayxovandtohur dahasi Tarnovboshi mahallasidagi uyi savdogarlar, olim va shoirlar to'planadigan markaz ekanligi ta'kidlanadi. Gazetaning 1914 yil 20 noyabrdagi sonida «Toshkentlik Mulla Yusufning Rossiyaga sayohati», Tojimuhammad Tujjorning 1900 yilda e'lon qilingan «Sayohatnoma»si ham o'zbek savdogarlari dunyoqarashi va mafkurasi haqida keng tasavvur beradi².

Mulohaza uchun ma'lumot

Asr mulkdori

Tojimuhammad Isamuhammad o'g'li savdogarlar orasida birinchi bo'lib Germaniya, Fransiya, Angliya kabi rivojlangan mamlakatlarga borib, ulardagi tijorat ishlarini o'rgangan, birinchi bo'lib Moskvada o'z tijorat firmasini, Xelsinkida, Parijda, Peterburgda, Xarkovda va boshqa yirik shaharlarda shu firmaning bir necha do'konini ochib, o'zbek savdogari sha'ni yurtimizdan uzoq-uzoqlarda ham ardoqlanishiga munosib hissa qo'shgan.

Tojimuhammad Isamuhammad o'g'lining 1900 yilda Parijda tashkil etilgan xalqaro ko'rgazma va yarmarkaga borishi, bu safar chog'ida Moskva, Peterburg kabi rus shaharlaridan tashqari Berlin, London, Parijdan olgan olam-olam taassurotларini «Turkiston viloyatining gazetisi»ning besh sonida e'lon qildirishi o'zbek savdogarlari va ma'rifatparvarlari hayotida hali uchramagan ajoyib voqea edi.

¹ *Rustambek Shamsiddinov, Qosimjon Bozorov.* «Mirkomilboy hayotiga chizgilar». Andijon tarixidan lavhalar. Andijon, 2008, 112–117-betlar.

² *Юлдашев Р.* Формирование национальной буржуазии в Туркестане. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент, 1993, стр. 70–75.

Avvalo, shuni aytish kerakki, muallif o'z sayohati sanasi, yo'nalishi va boshqa tafsilotlari xususida keyingi avlodlar uchun g'oyat muhim bo'lgan aniq ma'lumotlar qoldiradi: «1900 inchi yilda 10 inchi mortda kamina Tojiddin Parij vistavkasiga bormoqqa iroda aylab, Toshkand shahridan vagon bilan jo'nab, 11 inchi mortda Samarqand va 12 inchi mortda Buxoroi sharif shaharlaridini o'tub, Krasnovodg'a kelib, andin 15 inchi mortda otash kema birlan yurib, 16 soatda Boku shahrig'a chiqtim...».

«Sayohatnoma» muallifi yo'l davomida tug'ilgan taassurotlarini bayon qila boshlar ekan, faqat savdogar sifatida emas, balki o'z xalqining istiqbolini o'ylagan yetuk ziyoli sifatida ham fikr yuritadi. «Qo'ldan kelgan odamlarga kerak va lozim ekankim, – deb gapni boshlaydi Tojimuhammad Isamuhammad o'g'li, – yurub, sayr va sayyohat aylab, har qaysi obod va ulug' shaharlarni ko'rub, har ilm va hunarni maoniyi fahm aylab, ibrat ko'zlarini ochar edilar. Ushbu tarafdin hunarlari va shaharlarini obod bo'lmog'i barchasi ilm ta'lim olgonlaridan ekan».

Muallif Moskva haqida mulohaza yuritgan o'rinlarda, avvalo, elshunoslikdan, jug'rofiya va iqtisod ilmlaridan puxta xabardor mutaxassis sifatida gavdalanadi. Mana uning sinchkovlik bilan olib borgan ba'zi kuzatishlari: «Moskva shahrida bir million ikki yuz ming turg'on odam bordur, deb aytadilar. Har kuni 120 martaba otasharoba kelib-ketar ekan. Konka, ya'ni ot birlan yuradurg'on temir yo'l va elektrichestvo birlan yuradurg'on yo'llar ko'chalarda tayyor, muhayyodir. Mundin boshqa 20 mingdan ko'proq izvoshiq aroba bor. Moshina aroba va velosiped minib yurgan odamlarni va yaxshi magazinlarni hisobi yo'q. Bular hammasi ilm va hunar ta'limlarini o'qug'ondindur».

Asl kasbi savdogarlik bo'lgan muallifni, tabiiyki, tijorat ishlari, katta do'kondorlar faoliyati ham nihoyatda qiziqtirgan. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Moskvadan boshlab, Peterburg, Berlin, London, Parij shaharlari tasvirida masalaning bu jihatlariga alohida e'tibor beradi, ovro'palik savdogarlar faoliyatini o'z hamyurtlariniki bilan qiyoslab, o'quvchini o'ylashga, yangi rejalar tuzishga majbur qiladi.

7. O'RTA OSIYO TEMIR YO'LI. UNING IMPERIYA VA O'LKA IQTISODIDA TUTGAN O'RNI

Rossiya imperiyasining hukmdor doiralari XVIII asrning birinchi yarmidayoq o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq aloqalarini yanada kengaytirish ustida izchil faoliyat ko'rsatishgan. Petr I Buxoro va Xivaga yuborgan Florpo Beneveni elchiligi buning yorqin

dalilidir. Elchilik o'zbek xonliklari hududlaridagi tabiiy boyliklarni aniqlash va bozorlardagi savdo-sotiq ko'lami xususida boy materiallar to'plagan edi.

Rossiyaning tashqi xavfsizlik idoralari bu materiallarni o'rganish asosida o'z fikr-mulohazalarini ishlab chiqishdi. 1826 yilda general Verevkin imperator Nikolay I (1825–1856) nomiga yuborgan taqdimnomasida o'zbek xonliklari rus mollari uchun juda qulay bozorga aylanishi mumkinligiga alohida urg'u bergan edi.

Lekin Turkiston o'lkasini Rossiyaning markaziy hududlari bilan bog'lab turuvchi qulay va arzon transport aloqalarining rivojlanmaganligi ko'zlangan siyosatni amalga oshirishga to'sqinlik qilar edi. Bu haqida rus matbuoti tashvish bilan quyidagilarni yozgan edi: «Turkiston Xiva va Buxoro Rossiyaning markaziy bozorlari bilan savdo aloqalari Kazalinsk – Orenburg, qisman Troisk yo'nalishida qatnaydigan yagona karvon yo'li orqali amalga oshirilmoqda. Bu yo'l nihoyatda mashaqqatli, xizmat ko'rsatish darajasi past va qimmat. Samarqanddan Orenburgga yukni yarim yilda, shoshilinch yurganda 2–3 oyda yetkazish mumkin. Har bir pud yukni tashishga 2 rubl sarflanmoqda».

Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasida tovar almashinuvining kuchayishi, aniqsa rus kapitalist-fabrikalarining paxtaga bo'lgan «ishtaxa»sining oshishi, o'lkamizning iqtisodiy jihatdan tezroq zabt etilishi va rus mollari sotiladigan bozor sifatida tushib turish siyosatini amalga oshirish uchun metropoliya bilan mustamlaka o'rtasidagi transport aloqalarni kengaytirish lozimligini tushungan mustamlakachilar «Rossiyaning Osiyo yerlaridagi sivilizadiya tarqatuvchilik missiyasi»ni keng targ'ib eta boshladilar. Ayrimlar kema qatnaydigan suv yo'llari bilan Qora dengiz, Azov, Kaspiy va Orol dengizlarini birlashtirishga, «rus tovarlarining O'rta Osiyoga borishini osonlashtirish»ga chaqirsalar, boshqalar Kaspiy dengizida harbiy faoliyatni kuchaytirishni, Orol dengizga yo'l ochish va Sirdaryo bo'ylab kemachilikni rivojlantirishni taklif etishar¹, uchinchi yo'nalish tarafdorlari esa tezroq temir yo'l qurilishini boshlashni talab qilar edi². Ular bu haqda oshkora bahslashar, O'rta Osiyoga go'yoki «o'z qonuniy mulki» dek qarab, uning boyliklarini hisob-kitob qilish yuzasidan tadqiqotlar olib borishdan charchamasdilar.

¹ Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarixi shohidligi va saboqlari. (1865–1990 yillar). Toshkent.: «Sharq», 2000, 13-bet.

² Железные дороги в Среднюю Азию. Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. С.- Петербург, 1874, стр. 3.

Ana shunday tadqiqotlardan biri A.Stetkevichning «Turkiston Rossiya uchun zararlimi?» («Убыточен ли Туркестан для России?») nomli tadqiqoti bo‘lib, o‘lkaning «katta daromad manbai ekanligi»ni aniq faktlar bilan isbotlab, uning «zararli emas»ligini kelajakda «bu daromadlarni yanada ko‘paytirish uchun nihoyatda boy salohiyatli o‘lkaga eng qisqa temir yo‘lni tezroq olib kelish va uni «markaz bilan bog‘lashni» tavsiya etgan¹.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Turkiston o‘lkasini Rossiya-ning markaziy hududlari bilan temir yo‘l orqali bog‘lash masalasi XIX asrning 60 yil o‘rtalarida ko‘tarilgan edi. Ilk bor 1854 yil 12 yanvar kuni zahiradagi general-mayor Malsev Xarkov – Perekop yo‘nalishi bo‘ylab temir yo‘l qurish, uni Kzlyar orqali Orol dengizgacha davom ettirishga mo‘ljallangan rasmiy taqdimnoma bilan Rossiya temir yo‘l aloqasi vazirligi Bosh boshqarmasining Maxsus mahkamasiga murojaat qildi. Lekin taklif etilgan mazkur temir yo‘l yo‘nalishining Orol dengizgacha bo‘lgan qismi faqatgina tilga olinib, atroficha urganilib tadqiq etilmaganligi hamda nazariy jihatdan asoslanmaganligi tufayli Maxsus mahkama tomonidan 1855 yil 13 mai kuni rad etildi.

Kavkazdagi rus qo‘shinlarining harbiy boshlig‘i, general-ad‘yutant, knyaz A.I.Baryatinskiy 1856 yil 19 iyul kuni Rossiya imperatori Aleksandr II ga Ust-yurt hududlari bo‘ylab temir yo‘l qurish va bu orkali Kaspiy va Orol dengizlarini bog‘lashga mo‘ljallangan loyihani taqdim etdi. Mazkur loyihada Rossiyaning Sharqda ta’sir doirasini kengaytirish zarurligi alohida uqtirilib, taklif qilinayotgan «mazkur yo‘l mashaqatli aylanma karvon yo‘llarini» qulay va arzon transport aloqalari bilan almashtirdi, «qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro savdo-sotiqni qo‘l ostimizda birlashtirib, uzoq o‘lkalarda tovarlarimizni sotishga katta imkoniyatlar yaratiladi, qisqa va qulay tranzitdan foyda ko‘riladi, shu bilan bir qatorda hech qanday sheriklarsiz, chetdan aralashuvdan xoli sof ma’noda ruslaniki bo‘ladi»² deb ta’kidlangan edi. I.A.Baryatinskiyning fikricha, mazkur yo‘lning ahamiyati nafaqat savdo-sotiq bilan kifoyalanadi, «siyosiy jihatdan olganda u bizning (Rossiyaning) olis Sharqdagi ma’naviy ustuvorligimizga zamin yaratadi, harbiy jihatdan esa zarur bo‘lgan qisqamuddatda Qurolli kuchlarimizni Kaspiy dengizidan Orol dengizi va uning irmoqlari tomon safarbar etishga imkoniyatlar

¹ *Стеткевич А. Убыточен ли Туркестан для России. С.-Петербург, 1899, стр. 16.*

² *Железные дороги в Среднюю Азию. Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. С.- Петербург, 1874, стр. 4.*

yaratadi. Shunday qilib, Rossiya tabiatning o'zi in'om etgan pozision ustunlikdan foydalanib, hech qanday to'siqlarsiz boshqa Yevropa davlatlari ko'llari yetmaydigan joylarda o'z ta'sirini mustahkamlash imkoniyatlarini qo'lga kiritadi»¹.

Imperator Aleksandr II knyaz A.I.Baryatinskiy tomonidan taqdim etilgan loyiha Rossiya uchun o'ta muhim va foydali ekanligini e'tirof etib, temir yo'l aloqasi vaziri, general-ad'yutant Chekkinga mazur loyihani harbiy va tashqi ishlar vazirlari bilan hamkorlikda o'rganib muhokama qilish va umumiy xulosalar ishlab chiqish haqida farmon berdi. Farmonda 1839 yili Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishga rahbarlik qilgan sobiq Orenburg general-gubernatori, general-ad'yutant, graf V.A.Perovskiy hamda Ust-yurt hududlarini maxsus o'rganib chiqqan general-mayor Gelmersenlarning loyiha xususida xulosalari zarur ekanligi alohida uqtirildi².

V.A.Perovskiy 1857 yil 14 yanvarda Rossiya temir yo'l aloqasi vaziri Chevkinga yuborgan yozma taqdimnomasida Baryatinskiy taklif qilgan loyihani atroficha tahlil qilib, ayrim masalalar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bayon etadi. Uning fikricha «Orol dengizi kemalar qatnovi uchun ancha qulay», lekin Sirdaryo va Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab kema qatnoviga to'g'anoq bo'ladigan «tabiiy va siyosiy to'siqlar mavjudki, ularni bartaraf etish o'ta mushkuldir». Shundan so'ng u o'ta andishasizlik bilan quyidagilarni qayd qiladi: «Mazkur daryolarning yuqori va o'rta oqimi shunday davlatlar tasarrufidaki, ular bilan kema qatnovini amalga oshirish masalasini tinchlik yo'li bilan hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun Sirdaryo va Amudaryo bo'ylab kema qatnovini yo'lga qo'yishdan avval Qo'qon va Xiva xonliklarini istilo qilinmog'i zarurdir»³.

Rossiyaning maraziy hududlarini O'rta Osiyo bilan temir yo'l orqali bog'lash masalasi 25 yildan ortiqroh muhokama qilinib, 1854 yildan 1880 yilgacha bo'lgan davrda 40 dan ortiq loyihalar Rossiya hukumatiga taqdim etildi⁴. Mazkur loyihalarning aksariyati Orenburg – Qorato'g'oy – Toshkent, Uralsk – Orol dengizi – Toshkent yo'nalishida temir yo'l qurish orqali Rossiyaning markaziy hududlarini O'rta Osiyo bilan bog'lash, qisman Petropavlovsk – Oqmala – Turkiston – Chimkent – Toshkent, Omsk – Qarqa-

¹ O'sha joyda. 4–5 betlar joyda, 7–8 betlar.

² O'sha joyda. 7–8 betlar.

³ Железные дороги в Среднюю Азию. Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. С.- Петербург, 1874, стр. 8–9.

⁴ «Туркестанские ведомости». Туркестанская железная дорога. 9 февраля, 1882, № 6.

ro – Avliyoota – Toshkent yo‘nalishida O‘rta Osiyoni Sibir magistrali bilan ulashga mo‘ljallangan edi¹. Shu bilan bir qatorda ayrim horijiy muhandislar va kompaniyalar tomonidan ham Orenburg – Toshkent – Peshovor yo‘nalishi orqali rus va anglo-hind temir yo‘lini o‘zaro bog‘lashga mo‘ljallangan loyihalar taklif qilingan edi.

XIX asrning 60-yillari oxirlarida Ferdinand Lesseps tomonidan taklif etilgan dastlabki loyihaga ko‘ra Orenburg – Toshkent-Peshovor yo‘nalishi orqali rus va anglo-hind temir yo‘lini bog‘lash mo‘ljallandi. Ferdinand Lessepsning yozgan xatida loyihalashtirilgan temir yo‘lining kelajakda Rossiya iqtisodiyoti uchun qanday ahamiyatga ega bo‘lishini quyidagicha ta‘riflagan edi. «Bu yo‘l... Rossiya uchun yangi bozorlarni ochib beradi, uning uchun bitmas-tuganmas boyliklar manbaiga aylantiradi»².

F.Lesseps tomonidan ishlab chiqilgan loyihani o‘rganish maqsadida 1874 yili Imperator Rus Geografik jamiyatining Orenburg bo‘limi huzurida Maxsus qo‘mita tashkil etiladi³. Maxsus qo‘mitaning topshirig‘i bilan Yaksa – Bikovskiy rahbarligidagi ekspeditsiya ikki yil mobaynida taklif etgan temir yo‘l yo‘nalishining Turkiston qismida olib borgan faoliyati natijasida joylarning topografik tasvirlari olindi. Amudaryo va uning atrofidagi katta hududdar to‘g‘risida tadqiqot ma‘lumotlar to‘plandi. Mazkur ma‘lumotlar asosida «Amudaryo vohasining iqlimi toza, aholisi zich, tuprog‘i unumdor, turli xil minerallarga serob»⁴ shuning uchun F Lesseps tomonidan ishlab chiqilgan loyihani amalga oshirish maqsadga muvofiqdir deb xulosaga kelindi.

Taklif qilingan loyihalarni atroflicha o‘rganish maqsadida 1874 yili Imperator Rus Geografik jamiyatning Orenburg bo‘limi huzurida Maxsus komissiya tashkil etilib⁵, quyidagi vazifalar yuklatildi, xususan:

¹ O‘zbekiston MDA. I-I fond, 11-ro‘yxat, 1308-ish. О проведении железной дороги от Оренбурга до Ташкента через Чимкент и север, до Великой Сибирской железной дороги, стр. 5.

² «Туркестанские ведомости». По вопросу о Средне-Азиатской железной дороге. 8 января, 1874, № 2.

³ Путеводитель по Ташкентской железной дороге с очерком Ферганской нефти. Составлен по официальным данным под редакцией А.И. Дмитриева-Мамонова. С.-Петербург, 1907, стр. 2.

⁴ «Туркестанские ведомости». По вопросу о Средне-Азиатской железной дороге. 8 января, 1874, № 2.

⁵ Путеводитель по Ташкентской железной дороге с очерком Ферганской нефти. Составлен по официальным данным под редакцией А.И. Дмитриева-Мамонова. С.-Петербург, 1907, стр. 1.

birinchidan, taklif qilingan temir yo'l loyihalarning Rossiya uchun ahamiyatini aniqlash;

ikkinchidan, Orenburg o'lkasidagi joylarning topografik ma'lumotlarni o'rganish asosida eng qulay temir yo'l yo'nalishini aniqlash va belgilash;

uchinchidan, temir yo'l qurilishi va uni ekspulatasiya qilishning eng arzon usullari xususida ma'lumotlar to'plash;

to'rtinchidan, temir yo'l qurilishining Turkiston o'lkasiga keltiradigan foydasini aniqlash;

beshinchidan, Rossiyaning markaziy hududlari bilan Turkiston o'rtasida yuk tashish, shu bilan bir qatorda o'zaro savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirish xususida ma'lumotlar to'plash¹.

Maxsus komissiya tashkil etilgandan so'ng joylarning topografik ma'lumotlari asosida eng qulay temir yo'l yo'nalishlarini aniqlash, uni qurish va ekspulatasiya qilishning eng arzon usullarini tanlash masalalari atroflicha tadqiq etish amalga oshirila boshlandi.

Chunki bosib olingan ulkan hududlarda chegara yo'nalishlari bo'ylab yangi mustahkam tayanch postlar, mudofaa inshootlari qurish zarurligi kun tartibiga qo'yilgan edi. Shu bilan birga ehtiyoj tug'ilganda zuddik bilan jangovar kuchlarni o'lkaga keltirish, ularni zarur o'q-dori va harbiy zahiralarni bilan ta'minlash vazifalari ko'ndalang bo'lib, buning uchun chegaraga yaqin hududlarda temir yo'l qurilishi nihoyatda zarur edi.

1873 yili Xiva xonligiga uyushtirilgan harbiy yurish vaqtida rus qo'shinlari Qizilqumni kesib o'tish vaqtida katta talofat ko'rgan edilar, ularga yordamga otlangan qo'shinlar ham o'z maqsadlariga erisha olmay Krasnovodska qaytishga majbur bo'lishgan edi. 1879 yili general Lazerev qo'mondonligidagi xarbiy qo'shinlar Ko'ktepa ostonasida turkman qo'shinlari tomonidan to'xtatilib, katta talofatlar bilan orqaga chekinishgan edi. 1880 yilda harbiy ekspeditsiya bosh qo'mondoni qilib tayinlangan M.D.Skobelev rus qo'shinlarining mag'lubiyatlaridan tegishli saboq olgan holda imperatorga yozgan xatida general Lazerev harbiy qo'shinlarning mag'lubiyati sabablari-ni tahlil qilib, harbiy qismlar ta'minotini yaxshilash uchun temir yo'l zarurligini alohida uqtirgan edi. Turkiston o'lkasining chegara

¹ Железные дороги в Среднюю Азию. Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. Журнал комиссии, учрежденной из членов Оренбургского Отдела Императорского Русского Географического общества для обсуждения вопроса о постройке дороги в Среднюю Азию от 29 марта, 1874 г., стр. 1.

hududlari bo'ylab temir yo'l qurish navbatdagi vazifa ekanligini asoslab bergan edi.

1880 yilda general M.Skobelev qo'mondonligidagi ekspedisiya natijasida Kaspiy dengizidan Qizil Arbotgacha temir yo'l yotqizildi. 1885 yilda esa afg'on masalasida boshlangan Angliya-Rossiya to'qnashuvidan kelib chiqqan siyosiy tanglik bu yo'lni Chorjo'y va Samarqandgacha yetkazish zaruratini kun tartibiga qo'ydi. 1888 yilda tugallangan bu yo'l harbiy strategik jihatdangina emas va balki sof iqtisodiy tomondan ham katta foyda keltirdi. Agar 1883 yilda Rossiyaga 600000 pud paxta chiqarilgan bo'lsa, endilikda temir yo'l tufayli imperiya sanoati uchun 1896–1898 yillarda 4–5 million pud paxta chiqarilib, Rossiyaning chet eldan sotib olish uchun paxta sarflanadigan mablag'idan yiliga 45 million rubl tejab qolindi. Rossiya manufakturasini Turkistonga chiqarish ham kengayib 1.000000 pudga yetib, har yilgi tovar almashinuvi 12.000.000 pudga yetdi. Kaspiyorti temir yo'li daromadlari ham yil sayin ortib bordi. 1898 yilda kirim 6.694.306 rublni tashkil etib, sof foyda 2.172633 rublga yetdi. 1900 yilga kelib esa yalpi daromad 11122564 rublni tashkil qildi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo (1880–1898 yillar), Toshkent-Orenburg (1901–1906 y.) temir yo'llari davlat mablag'i hisobiga qurilgan bo'lsa, Farg'ona (1911–1916 y.), Buxoro (1914–1916 y.), Yettisuv (1912–1917 y.) temir yo'llari xususiy kapital-hissadorlik jamiyatlari hisobiga qurildi. Temir yo'llari yoqasida ularga xizmat ko'rsatadigan ustaxona va depolar qurila boshlandi. 1882 yilda Qizil Arbot vagon ta'mirlash, 1900 yilda Toshkent va Krasnovodsk ustaxonalari ishga tushirildi.

Imperiyaning savdo-sanoat doiralari Turkistonda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda temir yo'lning ulkan ahamiyatini yaxshi tushunishgan. Buni chorizmning tayanch kuchi bo'lgan dvoryan-pomeshchiklar ham anglashgan. Ko'p masalalarda rus burjuaziyasi dvoryanlar bilan to'qnashib, bir-birlariga tosh otsalar ham bu masalada ya'ni temir yo'l masalasida o'zaro yakdil bo'lishdi. Shuning uchun ham Rossiya kapitali oqimi uchun keng yo'l ochgan, keyinchalik O'rta Osiyo temir yo'li deb qayta nomlangan Kaspiyorti harbiy temir yo'li shitob ila kengaya boshladi.

1881 yil 20 sentyabrda ishga tushirilgan Qizil Arbotgacha yo'li 1886 yili Marvgacha yetdi. 1888 yili esa Samarqand ham temir yo'l bilan bog'landi. Kaspiyorti temir yo'li uzunligi 1.708 chaqirim (verst) masofani qamrab oldi. Unga xazinadan 79.721.000 rubl sarflandi. O'rta Osiyo temir yo'li Krasnovodsk qo'ltig'idan Toshkentgacha 1747 verstni tashkil qildi. Kushka, Andijon, Marg'ilongacha shahobchalari

bilan 2354 verstga choʻzildi. Bu temir yoʻlni 1899 yilgacha harbiy vazirlik boshqardi. Soʻng aloqa yoʻllari vazirligiga oʻtdi.

Oʻrta Osiyo temir yoʻli markaziy boshqaruvi 1885 yilgacha Qizil Arbotda, Marv, Chorjoʻyda joylashib 1890 yildan Ashxabodga koʻchdi. Yoʻlni boshqarish Kaspiyorti viloyat boshligʻi va qurolli kuchlar qoʻmondoni zimmasiga yuklangan. Bevosita boshqaruv esa yoʻl boshligʻi tomonidan amalga oshirilgan.

Oʻrta Osiyo temir yoʻlining birinchi boshligʻi knyaz M.I.Xilkov boʻlib u 1881 yildan 1883 yilgacha

ishladi. Undan soʻng yoʻlni bosh shtab polkovnigi A.G.Sherbanov (1884–1885), general-mayor Basov (1886–1888), general-leytnant M.S.Annenkov (1888–1891), muhandis-polkovnik V.D.Kannabix, N.V.Borisov boshqardi. Yoʻl boshligʻi lavozimi brigada komandiriga tenglashtirilib general maqomiga ega boʻlgan. 1899 yildan yoʻl Aloqa yoʻllari vazirligi ixtiyoriga oʻtkazilgach bu lavozimga harbiy boʻlmagan arboblardan ham tayinlanadigan boʻldi.

Oʻrta Osiyo temir yoʻli oliy va oʻrta boshqaruvidagi masʼul lavozimlar asosan ofiserlar va ular maqomiga teng fuqarolik xizmatidagi amaldorlardan tayinlangan. Qolgan lavozimlar yollanma xizmatchilar tomonidan toʻldirilgan. Temir yoʻl xizmatlari boshliqlari polk komandirlari, distansiya, stansiya, depo boshliqlari esa rota komandiri vakolatlariga ega boʻlishgan.

1890 yilda yoʻl xizmatchilari va ishchilari soni shtat boʻyicha 5.520 kishi boʻlib ulardan ikki mingga yaqini harbiy xizmatchilar: ofiser va soldatlarni tashkil qilgan. Yoʻl boshqarmasi mahalliy aholidan unumli foydalangani uchun temir yoʻlda ishlovchi oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, turkmanlar soni mingdan oshgan holda ruslar soni 1760 kishini tashkil qildi.

1890 yilda Kaspiyorti viloyati boshligʻi va qurolli kuchlar qoʻmondoni lavozimiga Oʻrta Osiyo istilosida faol qatnashgan, general M.D.Skobelev diviziyasi shtabi boshligʻi boʻlgan general Kuropatkin tayinlangach ahvol butkul oʻzgardi. Kuropatkin temir yoʻlda ishlovchi mahalliy aholi uning tili bilan aytganda «tuzemeslar» sonining koʻpayishi siyosiy jihatdan xatarli deb hisoblab, ularning sonini keskin qisqartishi va iloji boricha temir yoʻlni ruslashtirish siyosatini boshladi. U «tuzemeslar» oʻrinlarini toʻldirish uchun Rossiyaning ichki gubernalaridan odamlarni yollash, ularga imtiyozlar berish, ishsiz yurgan rus dehqon, ishchilarini Turkistonga turli yoʻllar bilan chaqirib keltirish uchun barcha tegishli chora-tadbirlarni qoʻlladi.

General Kuropatkin mahalliy aholidan temir yoʻlga ommaviy kirishni cheklash maqsadida maxsus tartib-qoidalar joriy etdi.

Xususan, nasroniy dinida bo'lmagan mahalliy odamlar bosh temir yo'l ustaxonasida yoki depoda mashinist, konduktor, chilangar kabi malakali kasblarda ishlashi qat'iy taqiqlangan. Mahalliy aholi vakillari faqat qora ishlarga mavsumiy tarzda ishga olingan.

1895 yilda temir yo'lda ishlovchi ruslar 2803 kishini tashkil etgan bo'lsa, general Kuropatkinning g'ayrati bilan ularning soni to'rt yil ichida ikki barobar ko'payib 4280 kishiga yetdi. 1895 yilda temir yo'lda 174 o'zbek ishlagan bo'lsa, 1895 yilda ularning soni 8 barobar qisqarib, bor-yo'g'i 25 kishi qoldi xolos.

Temir yo'lda xalq ommasi tomonidan, xususan taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan qanday baholanganini ham eslatib o'tish darkor. Xalq poezdni «otash arava» deb atab g'oyat hayratlangan. Ziyolilarning fikrini esa shoir Cho'lpon o'zining «Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar» maqolasida yaqqol ifoda etgan. Cho'lpon temir yo'lining Turkiston hayoti va iqtisodida o'ynagan rolini yaxshi his etadi, ayni chog'da temir yo'l qurilishi bahonasida hosildor yerlar, bog'rog'lar, machit-madrasalar payxon va vayron bo'layotganini alam bilan eslatadi. Albatta, temir yo'l band etgan yerlarga pul to'langan, aslida 100 rubl turadigan joylar ming rubldan sotilgan. Temir yo'l Turkistonga obodlik, madaniyat olib keldi, shu bilan barobar unda xizmat qiladigan minglab ruslar ko'chib keldi. Cho'lpon chorizmning ko'chiruvchilik ya'ni Rossiyadagi mujiklarni Turkistonga Temir yo'l orqali ko'chib kelishi oqibatlariga to'xtaladi: «Ovruponing mo'dasidan (modasidan), shishasidan (arog'idan), buzuq axloqidan namuna olmasdan va bularga bu jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, san'at o'xshashlik madaniyatidan namuna olub, bu jihatdan taqlid qimog'imiz lozimdir. Ovrupaning mo'dasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bewatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaning!». Cho'lpon temir yo'l munosabati bilan stansiyalar, vokzallar, ko'plab binolar qurilayotganini, lekin ularni rus, arman egallab olayotganini katta tashvish bilan yozadi va o'zbek sarmoyadorlaridan birining tashabbusini qizg'in qo'llab-quvvatlaydi: «Mana shul Farg'ona temir yo'lida bir suyunodirgan ish bordurkim: 700 tanobcha yer istansa, vokzal va iskat qilmoq ishini (pudratini) Namangandan turib, asli Toshkandlik muhtaram Mulla Abdulla afandi Hamidullayuf olmishdur. Vokzalni tomosha qilmoqchi bo'lub borganimizda Mulla Ablullani afandi ukosi Abdulaziz afandi ila ko'rishkonimizda, Abdulaziz taassuf qilib dediki: – Shundoq katta muassasalarning foydasini Ovrupoliklar ko'rub, onlarning qo'llariga o'tayotganiga ochushur. Namangan istansasini bino qilmoqg'a ham olgon edim. Mana Andijon katta istansasini ham oldik, – deydur. Vogunlab

sementlar kelub turmoqdadir, sementdan g'ishtlar qo'yub tururlar. Birinchi boshlab istansalarga armani va ruslar kelub o'tirmoqdadir. Bechora musulmonlar bo'lsa, yerlarni oylik qilib bermoqdadurlar. Hozirdan ijaraga bermasalar, bora-bora oz pul bilan sotub ham qo'yorlar. Vokzalga yaqin yerlarda istonsa atrofida endi g'ayri millat ko'rinmoqda boshladi, deydur. Mana shundoq gaplarni Abdulaziz afandi bilan so'zlashib o'lturdik. Qarindoshlar, diqqat lozim. So'ng pushaymon bo'lmog'idan foyda yo'qligi hammamizga ma'lumdir. Hech bo'lmasa, Abdulla afandidek namuna ko'rsatuvchi fidokor savdogarlarimizdan ibrat olub, Vatanimiz boyligini tijoratimizning foydalarini chetlab, cho'ntagiga solmasdan va bermasdan o'z cho'ntagimizda olib yurmog'imiz kerakdur. Bizga shundoq ishlarga kirishmoqqa vaqt... Biz ham insonmiz, insondek yoshayluk. Mantat to'lqini bilan urushaylik! Qarindoshlar... Vaqt g'animatdur»¹.

Turkistonni imperiyaning ajralmas qismiga aylantirish, aholisini ruslashtirish, o'lka iqtisodini umumimperiya doirasiga tortish, uni metropoliya mollari sotiladigan bozor va imperiya sanoatining xomashyo makoniga aylantirish siyosatida O'rta Osiyo temir yo'li beqiyos xizmat ko'rsatdi. Buni 1898 yilda Kaspiyorti stansiyasidan Yevropa Rossiyasi, Kavkazga chiqariladigan mollar va u yerlardan keltiriladigan mollar statistikasi ham yaqqol isbotlaydi.

Metropoliya sanoati ehtiyojlari uchun Turkistondan 400 ming pud paxta 241 ming pud quruq meva, 315 ming pud teri, 58 ming pud jun chiqarilgan bo'lsa, Rossiyadan 87 ming pud manufaktura, 115 ming pud neft, 398 ming pud qand, 115 ming pud temir buyumlar, 352 ming pud yog'och materiallar, 135 ming pud g'alla keltirilgan.

O'rta Osiyo temir yo'li Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari, Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi tovar almashinuviga katta xizmat ko'rsatdi. 1898 yilda tovar-mol almashinuvi 8.343.000 pudga yetdi. Shundan 3.246.000 pud Rossiyadan keltiriladigan mollar bo'lsa, 5.097.000 pudi Rossiyaga chiqariladigan tovarlar edi.

Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonliklaridan chiqariladigan asosiy mollardan paxta 4.000.000 pud, quruq mevalar 500.000 pudni tashkil qildi. Rossiyadan keltirilgan mollar qatorida eng ko'pi manufaktura 747.000 pud (23%), qand 400.000 pud (12%), kerosin 400.000 pud(12%), choy 217.000 pud (7%), yog'och

¹ «Sadoi Farg'ona», 1914, 6 iyun, 26-son.

materiallari 320.000 (10%), temir buyumlar 300.000 pud (10%0 bo'lgan.

Rossiya sanoati uchun chiqariladigan paxta eksporti xususida Krasnovodsk orqali yuborilgan paxta miqdori yaqqol tasavvur beradi:

1896 yilda – 3.679.000 pud.

1897 yilda – 5.127.000 pud.

1898 yilda – 4.981.000 pud.

Statistikaga ko'ra 1895-1898 yil mavsumida chiqarilgan paxta miqdori shunday:

1895/96 yillar – 3.475.000 pud.

1896/97 yillar – 4.294.000 pud.

1897/98 yillar – 4.782.000 pud.

Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, temir yo'l orqali yildan-yilga oshib borayotgan paxta eksporti Rossiya sanoati uchun Turkiston nafaqat qulay bozor, shu bilan bir qatorda arzon xom ashyo makoni vazifasini ham o'tay boshlagan. Turkiston general-gubernatori general baron A.Vrevskiy 1896 yilda Rossiya imperatoriga yo'llagan hisobotida Turkiston imperiyaga ulkan iqtisodiy xizmat ko'rsatayotganiga alohida urg'u bergani bejiz emas.

Temir yo'l o'lka hayotida ham katta o'zgarishlar yasadi. Turkistonga Rossiya va chet ellardan katta kapital kirib kela boshladi. O'lka tabiiy boyliklarini o'zlashtirish jarayoni kuchaydi, savdo-sotiq rivojlanib yangicha iqtisodiy va ijtimoiy manosabatlar shakllandi. Sanoat va savdo-sotiqning yangicha tarmoqlari vujudga keldi. Ashxobod, Marv, Chorjo'y, Rus Buxorosi va boshqa yangi shaharlar paydo bo'ldi.

Temir yo'l mahalliy aholining yangi tabaqasi – mulkdorlarning faoliyat doirasini kengaytirib jahon bozoriga chiqishga imkoniyat yaratdi. Turkistonni umumimperiya taraqqiyoti orbitasiga qo'shishiga turtki berdi!

Xulosa tariqasida shuni aytish lozimki, O'rta Osiyo temir yo'li harbiy strategik maqsadlarda qurilib imperiya mustamlaka siyosatini o'tkazishga xizmat qilgan bo'lsa ham xolisona ob'ektiv tarzda Turkiston o'lkasini iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida ijobiy rol o'ynadi. Bu holatni inkor etish – tarixiy haqiqatga ziddir.

Ushbu paragrafdagi fakt-raqamlar va zarur ma'lumotlar tarix fanlari nomzodi B.Yo'ldoshevning O'zbekiston temir yo'llari tarixi va bugungi rivojiga bag'ishlangan doktorlik dissertasiyasi qo'lyozmasidan olindi. Mualliflar izohi.

Ma'naviyat va ma'rifatdagi mustamlakachilik

Rus mustamlakachilarini Turkistondagi keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari: maktablar va madrasalar g'oyat ajablantirgan edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilik tadriji uchun o'sha maktab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanligini payqadilar.

Chorizm ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan boshlash kerakligini anglab, o'z dasturini ishlab chiqishga kirishdi. Turkistonning birinchi general-gubernatori, ustamon diplomat va pixini yorgan siyosatchi K. P. fon Kaufman bu sohada ayniqsa jon kuydirib faoliyat ko'rsatdi. Uning bu sohadagi ishlari behuda ketmadi. 1880 yilda Imperiya Davlat Kengashida Turkistondagi mahalliy aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rilganda Turkiston aholisining «savdo-sotiq, dehqonchilikda suyagi qotganligi va yuvosh tabiati» ta'kidlanib, ularning «imperiyadagi boshqa musulmonlardan keskin ajralib turishlari» qayd qilindi¹.

Imperiya Davlat Kengashining 1880 yil fevral oyidagi qarori Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi va ruslashtirish siyosatining yangi bir jabhasi xalq maorifiga qaratildi. Kaufman «ruslar va tuzemeslarning bolalarini birgalikda tarbiyalash» masalasini ko'tardi. U «musulmon va rus maktablarining ajralib turishi» iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi². Bu g'oyani Kaufmanning izdoshi general-leytenant N. O. Rozenbax (1884–1889) davom ettirib, ibtidoiy turdagi boshlang'ich maktablar – «rus-tuzem» maktablari tarmog'ini yaratish loyihasi ishlab chiqdi. 1884 yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochilib, ularning soni XIX asr oxirida yuzdan oshib ketdi. Bunday maktablarda o'quv kuni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda ikki soatlik mashg'ulotni rus o'qituvchisi (o'quv, yozuv, hisob bo'yicha), ikkinchi qismda esa saboqni o'zbek muallimi olib borgan.

Farg'ona harbiy gubernatori general-leytenant N.I. Korolkov 1898 yilda imperatorga yo'llagan hisobotida podsho ma'muriyatining o'lkani ruslashtirish bobidagi dasturini bayon etib, «tuzemeslarning» o'z bolalarini ixtiyoriy ravishda rus-tuzem maktablariga berishiga erishish muhimligiga e'tiborni qaratgan. Buning uchun u mahalliy ma'muriyat amaldorlariga yaqin besh yil ichida ish yuritishni rus tiliga ko'chirtirish lozimligini uqtiradi. Korolkov bu tadbir «tuzemeslarni» mansabga qiziqib, farzandlarini

¹ Журнал Государственного Совета, 5/1 – 29/I, 1880 г., №13.

² O'zR MDA, 47-jamg'arma, 1-ro'yaxat, 1004-ish, 32-varaq.

rus-tuzem maktablariga berishga bo'lgan istagini uyg'otadi, deb hisoblagan. Podsho generallari «rus-tuzem maktablari va shahar bilim yurtlarini muvaffaqiyatli tugallagan tub yerli aholining bolalariga jiddiy imtiyozlar berilsin»¹, degan fikrni ilgari surdilar. O'zbek tilini mukammal bilgan, sakkiz yil davomida rafiqasi bilan Nanay qishlog'ida yashab, o'zbek xalqi ruhiyatini puxta o'rgangan, ruslashtirish siyosatining «madaniy» uslubi tarafdorlaridan bo'lgan sobiq zobit, Turkiston maorifi rahbarlaridan biri V.P.Nalivkin (1857–1918) maslakdoshlari o'rtasida shunday g'oyani ilgari surgan edi: «O'lkada rus ta'sirini mustahkamlash uchun ikki tomonlama ish olib borish kerak. Aholining ikki asosiy guruhi o'zaro bir-birlariga yaqinlashsin. Rus tilini mahalliy aholi o'rtasida keng tarqatish bilan birga ruslar, ayniqsa, xizmatdagi amaldorlarga mahalliy og'zaki nutqni o'rgatish kerak»². Turkistonda qariyb 40 yil xizmat qilib, kichik zobitlikdan general-leytenant unvoniga, shahar hokimi yordamchisi, eski shahar polimeysteri lavozimidan viloyat harbiy gubernatoriga qadar mansab pillapoyalaridan ko'tarilgan N.S.Likoshin ana shu g'oyaga amal qilgan amaldorlardan biri edi. U uch yil ichida o'zbekchani o'rganib, shu tilda yozadigan, ruschadan o'zbekchaga, o'zbekchadan ruschaga bimalol va erkin tarjima qiladigan darajaga erishadi. N.S.Likoshin ruslashtirish siyosatining nozik uslubini yoklab, Turkistonda xizmat qiluvchi har bir rus mansabdori mahalliy tilni bilishi shart deb hisobladi. Likoshin mahalliy aholidan tushayotgan ariza-shikoyatlarni tekshirish vositachilar orqali emas, balki pristavlar tomonidan bevosita o'tkazilishi lozimligini uqtirgan. Bu esa pristavlardan mahalliy tilni bilishni talab qilardi. Likoshin rus zobitlarini o'zbek tilinigina emas, o'zbek yozuvini ham o'rganishga chaqirgan. Mahalliy ma'muriyat vakillari, aholining nufuzli qatlami, ulamo va ziyolilarni bilish, nazorat qilish, xalq kayfiyatidan vaqtida xabardor bo'lib turish uchun eng yaxshi vosita ekanligini ta'kidlagan. Mustamlakachi amaldorlar bunday taklifni boshda ijro uchun qabul qilib, Turkiston xalqlari tillarini o'rganishga oid tadbirlarni yo'lga qo'yish bilan shug'ullanuvchi komissiya tashkil qildilar. Komissiya o'zbek, tojik, qirg'iz tillarini o'rgangan rus amaldorlariga mukofot berishga qaror qildi. Hindistonda ingliz amaldorlari mahalliy tilni o'rganganlari uchun 600 rupiya mukofot olishlarini eslatib, rus xizmatchilarini mahalliy tillarni o'rganishga rag'batlantirish zarurligini ko'rsatdi.

¹ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924). Москва, 1960, стр. 67–70.

² Бендриков К.Е. Ko'rsatilgan asar, 73-bet.

1886 yilda V.P.Nalivkin tomonidan rus zobitlari uchun o'zbek tilini o'rganish kurslari ochildi. U ikki yil davomida 50 ga yaqin zobitni o'z atrofiga to'pladi. Nalivkin o'zbek tilini o'rganishga oid qo'llanmalar, lug'atlar va boshqa asarlarni yozib nashr ettirdi¹. Birinchi rus-tuzem maktabiga rahbarlik qilgan V.P.Nalivkin mukofotlanganlardan biri bo'lgani tasodifiy emas.

Shaharlarda ochilgan bilim yurtlari ham ruslashtirishning muhim o'chog'i bo'lib xizmat qildi. Ular rus-tuzem maktablaridan internatlari bilan ajralib turgan. Internatda o'zbek, qirg'iz, qozoq bolalarining rus tengdoshlari bilan birga yashab, rus tilini yaxshi o'zlashtirishlari mustamlakachilarga ayon bo'ldi. Shuning uchun ham Turkiston general-gubernatori M.G. Chernyaev (1882–1884) Chimkent shahar bilim yurtini kengaytirish uchun 100 ming rubl ajratgani va ana shu bilim yurtida o'qishni istagan xotin-qizlar uchun pul mukofoti ta'sis etgani bejiz emas, albatta. O'sha Chernyaev shveysariyalik Genrix Mozer bilan suhbatda uning turkistonliklarni «ruslashtirishni qachon oxiriga etkazasiz?» degan savoliga sipohlarga xos jangarilik bilan «mahalliy aholi rus arog'i va tamakisiga o'rganib bo'lgandan keyin», deya javob bergan.

Toshkentning Eski shaharida uzoq yillar davomida polisiya boshlig'i lavozimida ishlagan N.S.Likoshinning o'zbek bolalarining bilimga chanqoqligi va tabiiy qobiliyatlariga baho bergani diqqatga sazovordir. U Sodiq degan bolaning rus tilini o'rganish uchun uning uyida ma'lum vaqt yashagani va shu vaqt ichida kunt va sabot bilan rus tilini mutolaa qilganini hikoya qiladi. Sodiq Likoshinning qizlari bilan birgaliqda dars qilib, og'zaki so'zlashuvni ham yaxshilab o'rganib oladi. «Men, – deb yozgan edi N.S.Likoshin, – rus-tuzem maktabida o'qimay, eski maktabni bitirib to'g'ri shahar bilim yurtiga kelgan bolalarni ko'rganman. Ruslar orasida yurgan bu bolalar tezda o'z tengdoshlari bilan chiqishib, ruscha biyron gaplashadigan bo'lib ketishdiki, hatto rus-tuzem maktabidagi tengqurlarini ham bu borada ortda qoldirib ketdilar. Buning asosiy sababi mahalliy bolalarning rus bolalari bilan birga bo'lishidadir. O'yinlarda va bolalik mashg'ulotlarida og'zaki nutq tez rivojlanadi»². Likoshin rus tilini o'zbek bolalari maktab doirasidagina emas, balki rus tengdoshlari bilan o'zaro suhbatda va muloqotda o'rganishi samarali bo'lishini alohida ta'kidlagan. Oliy lavozimdagi mustamlaka ma'murlari ruslashtirish siyosatida Turkiston yoshlariga e'tiborni kuchaytirgani

¹ Bendrikov K.E. Ko'rsatilgan asar, 79-bet.

² Ликозин Н.С. Полжизни в Туркестане. Петроград, 1916, стр. 78.

bejiz emas, albatta. Ular mahalliy xalqni idora qilish kelajagini yoshlar orasidan tarbiyalanadigan sodiq qullarda ko'rdi va shu maqsadda ularning imperiya markaziy shaharlariga sayohatini uyushtirdilar. 1898-1899 yillarda shaxsan general-gubernator tashabbusi va faol ishtiroki bilan dastlab katta yoshdagi turkistonliklarni, so'ng o'quvchilarni Yevropa Rossiyasiga sayohatga yuborishdi. Kuzatilgan maqsad haqida Turkiston o'lka bilim yurtlari bosh inspektori F.Kerenskiy shunday fikr bildirgan: «Sartlar va qirg'izlarning bolalari Rossiya ulug'vorligini, qudrati va boyligini ko'rib, aholisining mashg'ulotlari, mehnat unumi, sanoati va savdo-sotig'i bilan tanishib, bu haqda uzoq eslab, boshqalarga gapirib yurishadi. Ular buyuk oq podshohning qudratli panohida faqat ruslarga emas, boshqa o'zga elatlar ham osoyishta kun ko'rayotganiga guvoh bo'lishadi».

Birinchi sayohatchilarni 1899 yilda harbiy vazirning shaxsan o'zi qabul qilib, ularni «aziz mehmonlar» deb atadi va muloyim tarzda suhbatlashdi. Vazir ularga sovg'a tariqasida 300 rubl berdi. Sarskoe seloga tomoshaga yuborib, ularga yo'l boshlovchi qilib general shtab polkovnigini tayinladi. Bu joyda imperator Nikolay II harbiy bilim yurti yunkerlari ko'rigini o'tkazmoqda edi. Ziyoratchilar Sarskoe seloda ko'rikni kuzatishayotgan paytda ularning oldiga general shtab boshlig'i, imperatorning amakisi buyuk knyaz kelib ko'rinish berdi. Ko'rikdan so'ng Rossiya imperatori Nikolay II va uning rafiqasi Mariya Fedorovna ular bilan suhbatlashdi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon kabi yirik Turkiston savdo-sanoat shaharlaridan kelgan, 14-18 yoshlardagi 15 o'zbek, 2 qozoq, 1 tojik o'quvchi «davlatpanoh imperator» oq podshohning iltifotiga sazovor bo'lishdi. Turkiston yoshlari ikki oy davomida Sankt-Peterburg, Moskva va Rossiyaning boshqa yirik shaharlarini tomosha qilishdi. Keyingi ikki ekskursiya ham shunday dabdabali tarzda yakun topdi¹.

Rus amaldorlariga ruschani yaxshi bilgan va xalq ko'zini ochib, g'aflat uyqusidan uyg'otadigan ziyolilar kerak emas edi. Mustamlaka ma'muriyati Turkiston ziyolilari katta mansabga erishsa, o'z xalqi uchun xizmat qilishlari va mustamlaka tartiblariga qarshi chiqishlari mumkinligidan xavfsirashgan. Ana shunday nuqtai nazardan kelib chiqib, mustamlaka ma'muriyati o'lka aholisi rus tilini tabiiy ravishda va ixtiyoriy tarzda o'rganadi deyish xomxayoldir, buning uchun ham zo'rlik, ham ustamonlik darkor, degan xulosaga keldi. Bu o'rinda Toshkentdagi erkaklar gimnaziyasida 1899 yil fevral oyida shahar jamoatchiligi bilan bo'lgan bir yig'indagi voqea

¹ Bendrikov K.E. Ko'rsatilgan asar, 217-bet.

xarakterlidir. Turkiston general-gubernatori yordamchisi general-leytenant N.Ivanov shahar boshliqlari, mingboshi, qozi va boshqa mansabdorlar, mudarrislar uchun tarixda birinchi marta tashkil etilgan ilmiy-ommabop ma'ruza kechasida madrasalarda rus tilini alohida predmet sifatida joriy etishni taklif qildi. Rus mustamlakachilarining sardori ana shu ishda ham «sopini o'zidan chiqarish» qabilida ish tutib, ilg'or o'zbek ziyolilaridan foydalanishga harakat qildi. Rus tili Turkiston xalklari uchun Yevropa va jahon madaniyatini yaqindan bilishga vosita bo'lishini yaxshi tushungan ziyolilardan taniqli ulamo, jurnalist Muhiddinxo'ja qozi general-gubernatorning madrasalarda rus tilini o'qitish fikrini quvvatladi, lekin uning Osiyo madaniyatini yerga urishi va madrasalarning ahamiyatini kamsitganiga qarshi chiqib, Yevropaning Osiyo madaniyatidan o'rgansa arziydigan ijobiy tomonlari ham borligini uqtirib o'tdi¹. Muhiddinxo'janing millatparvarlik g'ururi unga qimmatga tushdi. Bu gaplari uchun u o'sha yili o'tgan saylovlarda g'olib chiqqan bo'lsa ham, nomzodi tasdiqlanmadi. U ellikboshilardan 62 ovozni, raqibi podshoh amaldorlari ko'targan nomzod Rahmatxo'ja 12 ovozni oldi. Ammo viloyat harbiy gubernatori, taraqqiyparvar o'zbek ziyolilarini o'lgudek yomon ko'ruvchi general N.Korolkov o'z huquqidan foydalanib, saylov natijasini bekor qildi. Qo'shimcha yangi saylov o'tkazishni, nomzodlar safiga Muhiddinxo'jani kiritmaslikni buyurdi. Bu taraqqiyparvar o'zbek ulamosiga qilingan birinchi adolatsizlik emas edi. Muhiddinxo'ja 1899 yil 22 iyulda general-gubernatorga yo'llagan arizasida o'z xizmati davomida kechirgan uqubatlarini tilga olishga majbur bo'ldi: «Ustimizda turg'on shahar hokimimiz bizni shaharga kelgonidin beri manga nazarlari chap bo'lub, yomon ko'rub turadur. Shundog' yomon ko'rushning sababini, o'z tarafimdin biror ayb sodir bo'lmaganligi ma'lum emasligi yuzidin, muayyan bayon qilmoqg'a jur'at qilolmayman, xizmatimni go'yo mukofotiga bu shahar hokimidin har bir jamiyatda behurmatlik ko'rub, haqoratga oid bo'ladurg'on so'zlar eshitganim vajhidin qo'rqinch ostida bo'lub... ushbu ahvolotlarimni janobingizga ariza qilmoqni lozim bildim»².

General Korolkovning imperatorga taqdim etgan yerli aholi turmushiga ma'naviy-ruhiy tazyiq o'tkazish dasturida o'lka xotin-qizlarini va bolalarni ruscha hayot tarziga o'rgatish alohida o'rin egallagani bejiz emas. «Turkiston o'lkasida tarixan oliy missiya o'tkazishga chaqirilgan rus xalqining shifokor ayollari», uning fikri-

¹ «Туркестанские ведомости», 1899, № 5.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 27-ruyxat, 1610-ish, 9-varaq.

cha, o'zbek xotin-qizlarining «erksiz, ziyosiz va huquqsiz turmush tarziga o'zga tushunchalar olib kiradi va boshqacha intilishlar uyg'otadi»¹. «Tuzemkaning, – deb davom etadi general Turkiston xotin-qizlarini tahqirli bir nomda atab, – o'zi bir joyda nasroniy ayol bilan yashashi, u bilan doimiy va yaqin aloqasi unda o'z hayot tarzini rus ayollariniki yanglig' yaxshilash fikrini asta-sekin uyg'otadi, nasroniy tasavvurlarni singdirib boradi va bu hol uning farzandlarini tarbiyalash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bunday ayolning o'g'il-qizlari musulmon bo'lmaganlarga murosasiz va dushman bo'lmaydi»². Shunday ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun Korolkov o'lkada xotin-qizlar ambulatoriyalarini ko'paytirishni taklif qiladi. Bunga yana qo'shimcha tarzda u Rossiyadagi ayollar monastirlarini Turkiston ayollariga «pravoslav rus qarashlarini singdirish uchun» xizmatga jalb etish zaruratini ham alohida ta'kidlab o'tadi³. Yana bir rus amaldori Koshg'arda majburan xitoylar xotin-qizlarning yuzini ochganiga to'xtalib, Turkistonda ham xotin-qizlarni «paranji zulmidan xalos etish zarurligini» uqtiradi va mahalliy xotin-qizlar ruslarning yaxshi ittifoqchisi bo'lishi mumkinligiga diqqatni qaratadi. «Rus kishisining fikri» deb nomlangan sarlavha ostida 1899 yilda Toshkentda nashr etilgan kitobda noma'lum muallif xuddi shunga hamohang fikrlar bildirgan. «O'lkani ruslashtirish, – deb yozgan edi u, – qonunan asoslangan qatag'on dahshati ostida aholini tutib turishga qodir kuchlarni ko'paytirish yo'li bilangina amalga oshiriladi, degan gap emas. Tarixning o'zi rus kishisining mustamlakachilik bobida zo'r salohiyatini ko'rsatgan. Ana shu layoqatni to'la namoyon qilib, tinch yo'l bilan mehnatkash dehqonlar va yarim jangovar kazak kuchlarining o'zaro hamkorlikda ish ko'rishi hamda rus elementini asta-sekin ko'paytirish orqali Turkiston o'lkasini ruslashtirishga zamin hozirlanadi»⁴.

Shunday fikrlarni hisobga olgan holda general-gubernator S.M.Duxovskoy, general Korolkov ishlab chiqqan dasturni to'ldirgan holda, imperiya hukumati harbiy vaziriga 1898 yil 6 sentyabrda yuborgan axborotida rus hukumatining Turkiston o'lkasida amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlari haqida o'z mulohazalarini bildirdi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1. Xalqning ma'naviy-ruhiy holatiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi barcha musulmon muassasalari, ayniqsa madrasa ishlariga faol darajada aralashish.

¹ O'zR MDA. 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 91-ish, 17-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 91-ish, 16-varaq.

³ O'zR MDA. 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 91-ish, 17-varaq.

⁴ Мысли русского человека. Ташкент, 1899, стр. 10.

2. Barcha mahalliy musulmonlarni birlashtirishga qodir organ sifatida musulmon diniy boshqaruvi idorasiga yo'l qo'ymaslik.

3. Barcha tuzem maktablarni ma'muriyat ixtiyoriga o'tkazish va barcha mahalliy musulmon o'quv yurtlari va diniy muassasalarni to'la ro'yxatdan o'tkazish.

4. Turkistondagi barcha musulmonlarga yahudiylarga nisbatan o'rnatilganiga o'xshash munosabatlarni joriy qilish; shuning uchun barcha tuzem musulmon maktablariga 1893 yil 1 mart qonunini qo'llash; shu qonunga ko'ra musulmon maktablari o'qituvchilari har yili alohida guvohnomalar olishlari va ular uchun haq to'lashlari lozim.

5. Siyosiy jihatdan zararli deb topilgan mahalliy musulmon muassasalarini yopish huquqini general-gubernatorga berish, oila va nikoh ishlarini hal qilish huquqini rus ma'muriyatiga qaytarib berish.

General-gubernator bu takliflarning umumiy asosini belgilab, «nodon va ehtirosli osiyoliklar uchun islom hamon kuchli ta'sir qilishini»¹ uqtirib, bu ta'sir hali uzoq davom etishini ta'kidlab o'tdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda milliy muxolifatning yuzaga kelishi va uning shakllari

XIX asr oxiridagi siyosiy vaziyatni o'sha davr zamondoshlaridan biri – general-gubernator rafiqasi V.Duxovskaya o'z kundaligida juda lo'nda va aniq tarzda shunday ifodalagan. «Pinxona g'alayon tobora kuchayib bormoqda. Bu yerda biz qaynoq vulqonda yashayotgandaymiz. Xuddi momaqaldiraq oldidagi mudhish sukunat xavotirligimizni yanada kuchaytirmoqda»². Imperiya oliy harbiy-siyosiy doiralari vakilining bu iqrori chuqur asosga ega edi. Shu davrda o'lkada mustamlaka tuzumiga qarshi jiddiy muxolifat yuzaga kelgan edi.

Milliy muxolifatning g'oyaviy, ma'naviy va nazariy asosini esa XIX asrning oxirlarida Rossiyaning qaram musulmon o'lkalarida ko'tarila boshlagan ma'rifatchilik harakati tashkil qildi. Bu harakatning rahnamosi mashhur Qrim ma'rifatparvari Ismoilbek Gasprinskiy edi.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi Turkistonda milliy muxolifatni yuzaga kelishida Ismoilbek Gasprin-

¹ Всеподданнейший доклад Туркестанского генерал-губернатора генерала от инфантерии Духовского. Ислам в Туркестане, 1899, стр. 6.

² Варвара Духовская Туркестанские-воспоминания. СПб, 1913, стр. 37.

skiyning xizmati kattadir. Uning 1881 yilda nashr qilingan «Rossiya musulmonligi» kitobi bu sohada qo'yilgan birinchi qadam edi.

Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) o'z davrining yetuk ziyolisi, Sharq va G'arb olamini kezgan va bilgan inson sifatida musulmon xalqlari istiqloli uchun kurashgan va bu yo'lda butun umrini sarflagan. U ziyolilar o'rtasida birinchi bo'lib Fridrix Engelsning Rossiyani Sharqdagi siyosatiga doir fikriga qarshi chiqqan. F.Engels Rossiya Sharqqa nisbatan madaniylashtiruvchi rol o'ynaydi, deb yozgan va uning xulosasini markschilardan tortib buyuk rus shovinistlari ham qo'llab-quvvatlashgan va hatto qator adabiyotlarda shior sifatida ko'tarilgan.

– So'nggi yillarda, – deb yozadi I.Gasprinskiy shu kitobida. – Rossiyaning Sharqdagi buyuk madaniylashtiruvchilik xizmati haqida tez-tez o'qishga va eshitishga to'g'ri kelmoqda. Xo'sh, bu xizmat nimada namoyon bo'lishi kerak? Nahotki, uning ma'nosi qozini uezd boshlig'iga, noibni pristavga, bekligni oblastu guberniyaga, ushrni tan solig'i-yu yana boshka «ber-ber»larga ipak to'nu beshmetni dvoryanlik yoqasiga almashtirib qo'yishdan iborat bo'lib, boshqa qilinadigan ish qolmagan bo'lsa?»² Gasprinskiy «Rossiyaning Sharqdagi madaniylashtiruvchilik roli»ga mana shunday tanqidiy qaraydi va bu savolga salbiy javob beradi. Rossiyani aksincha, Sharq xalqlarini atayin ilm-ma'rifatdan uzoqda saqlab kelayotganlikda, musulmonlarning tilini, dinini turmush tarzini buzishda ayblaydi.

Gasprinskiy Rossiya imperiyasi hukmdor doiralarining o'zlariga tobe musulmon mamlakatlariga nisbatan tutgan mustamlakachilik siyosatini tahlil qilib uning ikki asosiy yo'nalishini ko'rsatadi. Ulardan birinchisi ruslashtirish, ya'ni assimilyasiya, ikkinchisi esa hamkorlik. Birinchi yo'nalishda mustamlaka xalqlari milliy taraqqiyotiga hech qanday yo'l berilmaydi, ular to'la ruslashtirib bo'lingach, vakillari mamlakat idora ishlariga jalb qilinadi. Ikkinchi yo'nalishda milliy taraqqiyotga yo'l qo'yiladi va u tegishli darajaga ko'tarilgach hukumat ishlariga tortiladi².

Gasprinskiy Rossiya o'z mustamlakalariga nisbatan har ikki

¹ *Begali Qosimov, Sharif Yusupov; Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizaev, Sunnat Ahmedov. Milliy Uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2006, 225-bet.*

² 1917 yil oktyabr to'ntarishidan so'ng birinchi tuzilgan Turkiston xukumatida birona ham mahalliy millatlar vakillari bo'lmaganini bolsheviklar shunday tarzda tushuntirishgan. Ular mahalliy kadrlar yetishgachgina ular idora ishlariga jalb qilinishini ochiq-oydin aytishgan. Mualliflar izohi.

yo'nalishdan foydalanayotganini aytib, Polshada birinchi Finlyandiya ikkinchi yo'nalish ustuvorligini ko'rsatadi va imperiya Turkiston general-gubernatorligida kanday yo'nalish yetakchi ekani xususida o'z mulohazalarini bildiradi. Rossiya birinchi yo'lni istaydi, lekin bu qiyin va samarasiz. Negaki Turkiy xalqlarning juda qadimiy madaniyati bor va uni dillardan siqib chiqarish amri mahol. Ma'kuli, ikkinchi yo'nalish, chunki u imperiyachilarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Turkiy xalqlar ozgina turtki bilan o'tgan muddatda yo'qotgan zehniyatlarini tiklab ola oladilar. Ular turtki yordamga ham ehtiyoj sezmaydilar. Masalan, bu xalqlar an'anaviy xayriya yo'li bilan ham maktab-madrasalarini tiklay oladi. Faqat uni zamonaviy talablarga javob beradigan darajaga ko'tarish lozim. Birinchi navbatda, dunyoviy fanlarga zo'r berish kerak. Gasprinskiy shu zaylda fikr yuritib o'rtaga shunday savol tashlaydi. X–XV asr Turkistonining qomusiy olimlarini mana shu madrasalar yetkazib bermadimi? Ko'hna Sharqning universitetlari madrasalar emasmi? Yevropa universitetlari arablar hukmronligidagi ispan Andaluziyasi (VIII–XV asrlar) madrasalaridan andoza olib ko'rilmadimi? Ana shulardan kelib chiqqan holda Gasprinskiy Rossiya musulmonlari milliy maoriflarini o'z milliy vositalari asosida ko'rmoqlari lozimligini uqtiradi. Boshlang'ich ta'lim va tarbiya mutlaqo ona tillarida bo'lmog'i kerakligini alohida uqtirib o'tadi.

«Rossiya musulmonligi» kitobida ilgari surilgan bosh g'oya – musulmonlarning maktab maorifini milliy asoslarda qurishlari lozimligi, milliy, diniy qadriyatlarni saqlab qolishlariga da'vat Rossiya jamoatchiligi o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi. Mustamlaka siyosatini o'zlarida ifodalagan shovinistlar kitobga qattiq e'tirozlar bildirishdi. Turkiston maorifi rahbarlari N.Ostroumov, M.Miropiev va N.Ilminskiy kabi arboblardan kitobdagi g'oyalar va fikrlar o'lka ziyolilari uchun yaxshi dastur bo'lishi va ma'naviy muxolifat uchun nazariy asosga aylanishini payqab unga qarshi chiqishdi. Bu o'rinda N.Ilminskiyning Peterburgga Muqaddas Sinod ober-prokurori, ashaddiy shovinist K.Pobedonossevgaga 1885 yilda yo'llagan maktabdagi fikrlar diqqatga sazovordir. U Turkistonda chorizm uchun qanday kadrlar zarurligi xususida shunday yozgan edi:

– Bizga ruscha gapirganda tutilib-tutilib qizaradigan, ruscha xatni chala-savodlarga yozadigan, faqat gubernatordangina emas, balki har qanday amaldardan hayiqib qo'l qovushtiradigan kishilar ma'qul.

Ilminskiy vaziyat taqozo etganda ham xristian bo'lmagan mahalliy ziyolilar garchand ular ruschani suvdek bilsalar ham mas'ul

lavozimlarga tayinlanmasliklarini alohida uqtiradi¹. Adolat nuqtai nazaridan shuni ham eslatib o'tish lozimki, Gasprinskiy g'oyalari o'xshash fikrlarni ilg'or rus ziyolilari, xususan professor N.I.Veslovskiy ham ilgari surgan edi. U 1885 yilda Turkistondagi vaziyatni o'rganish asosida shunday yozgan: «Biz madaniyat olib keldik deb o'ylaymiz. Bo'ysundirilgan osiyoliklarga tinchlik va osoyishtalik berdik deb o'zimizni ovutamiz. Ammo bulardan ham yuksak bir oliy tuyg'u borki, bu – millat va uning milliy iftixoridir. Musulmonlar holini tushunishimiz kerak. Siyosiy o'lim og'ir, milliy o'lim esa undan ham og'irroq. Bizning hukmronligimizda esa ular shunday holga tushdilar. Bas, shunday ekan, xukmronligimizga qarshi galayonlar ro'y bersa, ajablanishga o'rin yo'q. Shunday milliy manfaatlar borki, ular xalq och yoki to'qligidan qat'i nazar, bir kunmas bir kun o'zini namoyon etajak»².

N.Veslovskiy ham o'zi bilib-bilmay, balki sezib-sezmay Gasprinskiy fikrini tasdiqlab, Rossiyaning «madaniylashtiruvchi rol»ini iikor etadi. Bunday inkorni akademik V.V.Bartold Rossiya armiyasi general-mayori Jo'rabek Qalandarovdan xam eshitgan. Jo'rabek Rossiyaning Turkistondagi hukmronligini XIII asrdagi mo'g'ul istibdodiga o'xshatganidan ajablangani yashirmagan³.

I.Gasprinskiyning yana bir asari Turkistondagi Rossiyaga muxolifat kuchlarga dasturi amal bo'lganini ta'kidlash joiz. Gap uning 1885 yilda Istambulda nashr qilingan «Evropa madaniyatiga betarafona bir nazar» risolasi ustida bormoqda. Shunisi qiziqki, Yevropa turmush tarzi dunyoning barcha mamlakatlarida o'rnak va timsol tutilgan bir paytda Gasprinskiy uni axloqsizlikda ayblab Rim saltanatiga qiyos kildi. Zamonaviy Yevropa ham, Rim saltanati ham Sharq nuqtai nazaridan axloqsiz. Muallif o'z kitobida fan va texnikasi bilan jahonni hayratga solgan Yevropani ham, tobora kuchga kirib borayotgan marksizm keng tarqalayotgan sosialistik Yevropani ham Osiyo uchun rad qiladi. Uning fikricha qadimga Rim imperiyasi madaniy-axloqiy chiriganligi uchun barbod bo'lgan. «Rumoliklar asir etlari bilan, – yozadi Gasprinskiy, – hovuzlarda boqilgan baliqlarga to'ymasdan qanday qulagan bo'lsalar,

¹ N.Ilminskiy fikrlarini amalda podsho xukumatidan ham o'tkazib yuborgan mustabid Sovet tuzumi siyosatini eslab o'tish maqsadga muvofiqdir. O'zbekistonga markaz qanday odamlarni rahbarlikka qo'ygani barchaga ma'lum haqiqatdir.

² Bu parchani tarix fanlari doktori B.V.Lunin Sankt-Peterburgdagi adabiyot arxividan (SGALI) topib ilmiy muomalaga kiritgan.

³ V.Bartold o'zining «Turkiston madaniy hayoti tarixi» (История культурной жизни Туркестана) kitobida bu haqida batafsil ma'lumot beradi.

ularning farzandlari bo'lgan ovrupoliklar ham butun dunyoning mevalariga to'yamaydilar»¹.

Muallif fikricha, XIX asr Yevropa madaniyati bilan qadim Rim madaniyati mohiyatan bir xil. Qurollar, usullar, o'rnaklar o'zgargan xolos, natija va samara eskicha. Kitobda qadim Rim ota, zamonaviy Evropa esa uning bolalariga o'xshatiladi. Shuning uchun ham rimliklarning XIX asrdagi farzandlari – evropaliklar butun dunyo mevalariga to'yamaydilar. Ota-bolalarning adolat haqidagi tushunchalari ham adolatsizliklarga to'la, ular madaniyatining asosiy nuqsoni shundaki, ularda haqqoniyat yo'q.

Gasprinskiy Yevropani Rim vorisi sifatida baholashida katta ma'no yashiringan edi. O'quvchi XVI asrda rus podshosi Ivan Grozniyning «Moskva ikkinchi Rim, uchinchisining bo'lishi mumkin emas» degan iborasini eshlari turgan gap edi. Rus shovinistlari buni yaxshi anglab, Gasprinskiyni yomon ko'rib qolishdi. Ularni Ismoilbek Gasprinskiyning yana bir kitobi – 1892 yilda nashr qilingan «Madaniyati islomiya» kitobi ham tanqid tig'iga olishdi. Bu kitob ham mustamlakachilarga muxolifat tarzida yozilgan bo'lib, Rossiya musulmonlari o'rtasida keng ommalashib ketib, taraqqiyparvar ziyolilarning sevimli kitobiga aylandi. Ularda milliy ruh, ong, o'zlikni anglash kayfiyatini ko'tardi. Gasprinskiy unda Yevropa ilm-fani bilan islom axloqi xamkorligida yangi umuminsoniy madaniyat masalasini ilgari surgan edi. Muallif Yevropa va Sharq madaniyati – islom madaniyatiga ta'rif beradi, uning zamini va rivojini tahlil qiladi. Gap shundaki, madaniyat hech qachon yolg'iz bir millatga yoxud mamlakatga tegishli emas. Turli sabab va sharoitga ko'ra birida ozroq, ikkinchisida ko'proq yoxud birida bir, ikkinchisida boshqa jihati nisbatan farqli rivojlanishi mumkin. Bir vaqtlar Yevropa undan bebahra qolgan edi, endilikda uning Osiyodan o'zib ketganligi barchaga ayon. Hozirda osiyolik ot-eshak, qayiq bilan o'n kunda yuradigan yo'lni Yevropa temir yo'l yo paraxodda bir kunda bosib o'tadi. Bu madaniyat darajasining samarasidir. Muallif fikricha, ayni paytda bu samara butun insoniyatnikidir. Kimki, bu yo'lda xizmat kilsa, insoniyatga xizmat kilgan bo'ladi. Shu jihatdan musulmon olami insoniyatga nima bergani va qanday xizmat qilgani xususida Gasprinskiy boshqa olim, siyosatchilarga qarama-qarshi fikr yuritadi va bu xususda mustaqil mulohazalar bildiradi. U islom madaniyati xususida to'xtalib u birgina arab

¹ Iqtibos «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» xaftaligida bosilgan matndan (1996 yil 26 yanvar soni) keltirildi.

madaniyatidan iborat emasligini, arab madaniyati deb cheklashlariga qarshi chiqadi. Shunday bo'lganda, deb uqtiradi muallif, fransuz, ingliz, nemis ziyolilari bunyod etgan ilm-fanni «lotin madaniyati» deyish kerak, chunki ular shu tilda yozilgan. Biz unday demaymiz va to'g'ri qilamiz. Islom madaniyatini ham yolg'iz arablar yaratmadilar. Unda turk, fors, hind va boshqa qavmlarning ham ulushi bor.

Gasprinskiy fikrini davom ettirib, islom madaniyatining antik va zamonaviy Yevropa madaniyati bilan o'zaro munosabati masalasiga ham oydinlik kiritadi. Insoniyatning eng qadim madaniyati Misr, Turon va yunon madaniyatidir. Zamonaviy madaniyat esa Yevropa madaniyati bo'lib turibdi.

Gasprinskiy shunday savolni o'rta tashlaydi. Xo'sh, islom madaniyatining o'rmi qaerda? Yevropa olimlarining ko'pchiligi bugungi Yevropa madaniyati qadim Yunon-Misr madaniyatining davomchisi deyishadi. Ammo Yevropa madaniyatni to'g'ri yunondan olgan bo'lsa, nima uchun ming yil uni olmasdan kutib o'tirdi? Shunday savolni o'rta tashlagan muallif yunon madaniyati Yevropadan oldin islom dunyosiga yoyilgani, musulmonlar uni taraqqiy qildirib, nuqsonlarini kamaytirib Evropaga topshirganlarini asoslaydi. Aristotel, Platon kabi mashhur yunon olimlari asarlarini Evropaga tanitgan musulmon allomalari ekaniga urg'u beradi¹.

U islom olamidani uzoq yunon madaniyati musulmonlar olamiga qanday kirib kelganiga doir aniq fakt-misol keltiradi. Gasprinskiy yunon madaniyati musulmon dunyosiga VIII asrda xalifa Abu Ja'far Abdulloh al-mansur xukmronligi davrida kirib kelganini yozib, xalifa Xorun ar-Rashid (785–809 yil) Fransiya kiroli, Mukaddas Rim imperiyasi imperatori Buyuk Karl (742–814)ga yuborgan sovg'alar orasida zang chaladigan soat bo'lgani va u barchani hayratga solganini uqtirib o'tadi.

Gasprinskiy turkiy xalqlarning o'tmish, madaniyatini, ruhiyatini teran anglash, uning keyingi asrlarda taqdir taqozosi bilan tushib qolgan tutqun va turg'un turmushini teran idrok etish unga yo'l izlash g'oyasini 1900 yilda Bokuda bosilgan «Turkiston ulamosi» kitobida rivojlantirdi. Gasprinskiy zamondoshlarini ko'hna Turonning yuzdan

¹ Amerikalik olim Draber «Evropa aqliy taraqqiyoti tarixi» kitobida «Evropaning bugungi ulug' ziyosi musulmonlar yoqqan sham va chiroqlarning yog'dusidan maydonga kelgandir» deb mardona e'tirofi e'tiborga loyiqdir. Abu Nasr Forobiyni «Ikkinchi Arastu» deb tan olishgan. U Aristotelning tushunarsiz «metafizika» kitobiga kalit-sharhlar yozgani va uning ahamiyatini Ibn Sino o'z esdaliklarida yozib qoldirgan.

ortiq sahni keng gulshandan saralab olingan bir dasta gul sifatida taqdim etadi, o'lkaning nodir iste'dodlarga benihoya boyligini ta'kidlaydi. Ismoilbek fikricha, hozirgi Turkistonda jaholat va qullikni tugatish uchun uch muhim narsa kerak: Milliy fikr, milliy til, milliy maorif. Milliy fikr, birinchi navbatda millat birligi fikridir. Til yagona adabiy til masalasidir. Milliy maorif esa ona tildagi ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Til millatning jonli, harakatdagi tarixidir. Uning kechmishi ham, hoziri ham tilda ifoda etiladi. Millatning barhayotligiga eng muhim guvoh tildir. Til millat uchun hayot-mamot masalasidir. Yagona adabiy til milliy adabiyot bilan birga maydonga keladi. Lekin uni shakllantirish uchun birgina adabiyot ahlining emas, butun millatning, birinchi navbatda ziyolilarning g'ayrat va rag'bat kerak. Bu yerda ham ishni maorifdan boshlamoq kerak. Bolaning ilk savodi, mayli shevada chiqsin, lekin ikkinchi-uchinchi yildanoq o'qishlar umumiy yagona tilda ketmog'i kerak. Bu degani dunyoning tashvishlarini ko'zda tutgan, lekin o'z ona tilimizda milliy ruhimizda bo'lgan o'rta va oliy maktablar ilmiy-madaniy muassasalar turli-tuman mutaxassislar, xullas «Tarjimon» gazetasida bosilgan o'tkir siyosiy maqolalar va Gasprinskiyning asarlari Turkiston o'lkasidagi ma'rifatparvarlar Munavvar qori Abdurashidxonovning «Bizning jaholat – jahli murakkab» maqolasida ana shu ruhiyat ko'zga tashlanadi. Unda ilgari surilgan g'oya – maorifni milliy til va milliy odatlardan kelib chiqish talabi edi. Muallif maktab va madrasalarning qoloqligi, muallimlar zamonaviy ta'lim va tarbiya usullaridan bexabarligini tanqid qiladi. U maorif ravnaqi uchun jon kuydiruvchi kuchlar mavjudligini eslatib, shu bilan birga maorifga bee'tibor qarayotgan kishilarni hushyorlikka chorlaydi: – Va lekin, – deb uqtiradi muallif, – dunyoga nima uchun kelganini bilmay ilm va maorifga aslo rag'bat qilmay jonidan shirin bolalarini ko'cha bakucha kezdurub bechora ma'sumni aziz umrini jaholat otashina yondiruvchi beahamiyat va bedunyodat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko'p dindoshlarimizni ko'ramizki, o'z farzandlarini aslo maktabga bermay orqalaridan ergashtirib ruslar eshigida o'zlari kabi xizmatchilikka o'rgatub, dunyo va oxiratni saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qilmoqdin hech bir ibo qilmaslar¹.

Taraqqiyparvarlar yetakchilaridan biri Munavvar qorining jaholatga qarshi qaratilgan bu da'vati o'sha davrda ham keyinda ham dolzarb yangrashi tadqiqotchilarni o'ylantirib ko'yadi. «...bu jaholat

¹ «Taraqqiy», 1906 yil., 1-son, 1-bet.

natijasida, – deb fikrini davom ettiradi muallif, – o‘zimiz yerlik musulmonlardan o‘ldug‘umiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o‘lduk. Va bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonini qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni o‘ylaridan chiqarib iste‘dod va g‘ayratlarini choyxona va pivaxonalarig‘a sarf etmaktadurlar»¹. Muallif bu jaholatning aybdori kimligini ham aytishga o‘zida jur‘at topadi. Bu jaholat aybdori bolasini o‘qitilmagan ota ham emas, chunki uning bolani o‘qitish uchun iqtisodiy tomondan qurbi etmaydi. Aybdorlar maktab va madrasa o‘qituvchilari ham emas. Buning aybdori hukmronlikni o‘z qo‘liga kiritgan va mustamlakachilik tarixida deyarli uchramagan bir odat – millatni asoratga tushirish uchun uning milliy odatlari va milliy ma‘naviyati dini, tilini o‘rganishni cheklab qo‘yayotgan bosqinchilik tuzumi va shu tuzumning yurt, millatga keltirayotgan hamda keltirajak ofatlarini ko‘ra bilaturib o‘zining halovatini o‘ylagan sotqin va xoin mahalliy hukmdorlardir. Gazeta «madrasalarga oid» mavzusidagi maqolada ana shu fikrni davom ettirib xon va beklar zamonida ko‘p e‘zozlanib, diqqat-e‘tiborda turgan madrasalar va maktablarning ayanchli ahvoli sabablariga to‘xtaladi. Ularni isloh qilish vazifasi bo‘lgan amaldorlar, ulamo va qozilar bu yo‘lda aslo jon koyitmayotganini, millatning taraqqiyotdan keyin ketishi ularni o‘ylantirmayotganini tanqid qiladi².

Gazeta til masalasiga alohida e‘tiborni qaratadi. «Umumiy o‘qituv» maqolasida umumiy o‘qitish har bir millatning o‘z ona tilida bo‘lishi lozimligi dalillanadi. Millat uchun eng mushkul masala til masalasi bo‘lib qolganini, uni hal qilishda hokimiyat odillik bilan ish yuritishi zarurligini ta‘kidlash bilan birga har bir millat o‘z ona tilida ish yuritishga haqli ekanligini, bu huquqni kattiq turib himoya qilmoq lozimligini ta‘kidlaydi³.

Ismoilbek 1905 yilda yozgan maqolalaridan birida shunday g‘oyani o‘rtaga tashlagan edi. Millatning o‘zligini ko‘rsatadigan xususiyatlaridan biri til va maorifdir. Bu ikkisi bo‘lmasa millat mustaqil bo‘la olmaydi. Millatning o‘zligini yo‘qotish uchun shularning bittasi buzilishi kifoyadir⁴.

¹ O‘sha joyda.

² «Taraqqiy», 1906 yid, 9-son, 3-bet.

³ «Taraqqiy», 1906 yid, 9-son, 3-bet.

⁴ Shu o‘rinda mualliflar O‘zbekiston rahbari Islom Karimovning mustaqillik uchun kurashning tamal toshini o‘zbek tiliga davlat maqomi (1989 y.) berishdan boshlaganining chuqur tarixiy zaminga asoslanganiga e‘tiborni qaratishadi. Bu qaror O‘zbekistonda milliy o‘zlik, milliy ong va milliy g‘urur ko‘tarilishiga turki bo‘lgan edi.

Ismoilbek taraqqiyparvarlik g'oyalarini faqat o'z asarlaridagina emas va balki o'zi yaratgan matbuot nashri «Tarjimon» gazetasida 1883 yildan to umrining oxirigacha (1914) keng targ'ib va tashviq qildi. U gazeta ommaviy targ'ibotchigina emas va balki ommaviy tashkilotchi ekanini ham yaxshi bilgan¹.

Gasprinskiy fikricha Insonning oti bo'lmasa, o'zi ham yo'q demakdir, shuningdek tili bo'lmagan inson ham soqovdir. Til birligi masalasi hayot-mamot masalasidir. Til millatning jonli, harakatdagi tarixidir. Uning kechmishi ham, hoziri ham tilda ifodalanadi. Ismoilbek «Til masalasi – eng muhim masala» deb nomlangan maqolasida shunday fikrlarni o'rtaga tashlagan edi.

U turkiy xalqlarning mushtarak tili bo'lishi zarurligiga alohida diqqatni qaratgan edi. Ismoilbek «til va mas'uliyat» maqolasida bildirgan fikrlar taraqqiyparvar uchun kurash strategiyasining bir jabhasini tashkil qildi. Uning yozishicha, Rossiyaning turli joylarida istiqomat qiluvchi turkiy xalqlarning tillari, to'g'rirog'i, shevalari bir-biridan farq kiladi. Xo'sh, bu farq ruslarda yo'qmi? Vyatka mujiklarining tili Yaroslavev hunarmandlarinikidan, Tulaliklarniki Kursk, Smolenskliklardan qanchalik farq qiladi? Arablar-chi? Goho ular orasidagi farqlar bir-birlarini tushunmaslik darajasiga boradi-ku? Turgenev kabi adiblar, mutafakkirlar yagona adabiy til uchun umr bo'yicha kurashdilar?! Nima uchun arabning ko'zga ko'ringan olim-fozili borki, til birligini tildan qo'ymaydi?! Nemislar nega umumiy til ustida bu kadar jon kuydiradilar? To'g'ri, yagona adabiy til milliy adabiyot bilan birga maydonga keladi. Lekin uni shakllantirish uchun birgina adabiyot ahlining emas, butun millatning birinchi navbatda ziyolilarning g'ayrat va rag'bat kerak².

Gasprinskiy fikricha, bu yerda ham ishni maorifdan boshlamoq zarur.

– Bugundan boshlab, – deb yozadi muallif, – umumiy til ustida kurasha boshlamoq maktablar uchun darsliklar, o'quv kitoblari, lug'atlar tayyorlamoq kerak³.

¹ Mualliflar bolsheviklar firqasi asoschisi V.I.Lenin o'z dasturini amalga oshirish va Rossiyada davlat to'ntarishini tayyorlash uchun eng avvalo ishni umumrus siyosiy gazetasini (Iskra) tashkil etishida Gasprinskiy tutgan yo'ldan foydalangani ehtimoldan uzoq emasligini taxmin qilishadi. Ma'lumki, «Iskra» gazetasi va undan keyin «Pravda» gazetasi bolsheviklar g'oyasini ommaga singdirishda katta xizmat qilgani hech kimga sir emas.

² Bu mavzu dolzarbligini mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'rta turk tili haqidagi munozara ham ko'rsatadi.

³ «Tarjimon», 1907 yil, 42-son.

Sankt-Peterburg desanti rahbari graf K.Palen ana shu sohada tarakkiyparvarlar olib borgan ishlarni tahlil qilib asosiy e'tiborini ular tashkil etgan yangi usul maktablariga qaratdi.

Taftish komissiyasi materiallari bunday maktablar, ularning o'qituvchilari, darsliklar va qo'llanmalar xususida keng ma'lumotlar beradi. Yangi usul (usuli savtiya) maktablari tashkil etish g'oyasi Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan ilgari surilgan. U 1893 yilda Buxoroga kelganida amir Abdulahadxon bilan uchrashib undan yangi usul maktablari ochishga ruhsat so'raydi. Amir bilan avvallari Qrimda uchrashib u bilan yaxshi munosabatlar o'rnatgani uchun uning iltimosi yerda qolmaydi. Buxoroda shu tariqa birinchi jadid maktabiga asos solinadi. Bu ish butun Turkiston o'lkasida shunday yangi usul maktablari tashkil etilishicha turtki beradi. 1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochadi. To'qmoqda ham yangi usul maktabi mahalliy taraqqiyparvarlar tashabbusi bilan tashkil topadi. 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori ham shunday maktablar ochishadi. 1900 yili Buxoroda tomonidan shunday maktab tashkil topadi. 1904 yilda Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonovning hovlisida ochilgan «Namuna» maktabi katta dovruq qozonadi. Unda bir necha yuz bolalar o'qib ularga taraqqiyparvar ziyolilar saboq berishgan.

Bu taraqqiyparvarlarning mehnatlari zoe ketmaganligini keyingi voqealar ham ko'rsatdi. Yangi usul maktablarini tugatgan yoshlar orasidan mashhur ijodkorlar Oybek, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mannon Uyg'ur, Qayum Ramazon kabilar yetishib chiqdi.

Taftish komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Turkiston o'lkasida 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta yangi usul maktablari mavjud bo'lgan. 1904 yilda Toshkentda Mirobod mavzeida Abdulla Avloniyning uyida ochilgan maktab ham keng e'tibor qozondi. Toshkent taraqqiyparvarlari darg'alaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy (1878–1934) shoir, muallim va olim sifatida o'zi ochgan maktab uchun 4 qismdan iborat «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston» yoxud axloq kabi darsliklar yozgan. Munavvarqori Abdurashidxonov yaratgan «Adibi avval», «Adibi soniy», Jug'rofiya darsliklari, Mahmudxo'ja Behbudiyning «Qisqa umumiy geografiya», «Bolalar maktubi», «Islomning qisqacha tarixi», «Amaliyoti islom», «Aholi geografiyasiga kirish». «Rusiyaning qisqacha geografiyasi» kabi darslik kitoblar yangi usul maktablarida o'qitilgan.

«Turkiston viloyatining gazetisi»¹ ma'muriyat organi sifatida taraqqiyparvarlar tashkil etgan «usuli savtiya», «jadid» deb atalgan yangi usul maktablarining faoliyatiga tan bergan holda shunday yozgan edi.

– Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsaq ham to'g'ridir¹.

Taftish komissiyasi ish boshlagan kunlarda Ismoilbek Gasprinskiyning Buxoroga kelishi ham tasodifiy emas edi. Bu hol mustamlaka ma'muriyatini tashvishga soldi. Ismoilbek amir bilan uchrashib yangi bir maktabni ochishga ruhsat oladi. Bu yangi usuldagi maktab «Muzaffariya» deb nomlandi.

Sankt-Peterburgning oliy siyosiy doiralari vakillaridan iborat taftish komissiyasi yangi usuldagi maktablar, ularning darsliklari va o'quv dasturlari bilan yaqindan tanishish uchun joylarga so'rovnomalar yubordi. Unda quyidagi savollar o'rin olgan edi: maktab qachon va kimning ruhsati bilan ochilgan? Aynan qaysi fanlar va qaysi tilda dars o'tiladi? Qaysi darsliklar qabul qilingan? Nomi, muallifi, nashr vaqti? O'qituvchilarning shaxsiy tarkibi, ma'lumoti va bilim saviyasi? Qanday o'quv dasturlari bor? O'qituvchilar soni? Mahalliy hokimiyatga bu maktablar va ularning o'qituvchilari xususida shikoyatlar tushganmi?

Jadidlarning maorifdagi mustamlakachilikka qarshi faoliyati

Shunday qilib Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va «Tarjimon» jaridasi (1883 yildan Qrimda chiqqan) tashkilotchisi Ismoil Gasprinskiyning nomi butun Sharqqa mashhur bo'lib ketdi. U Bog'chasaroyda eski maktablarining murakkab o'qish usuliga nisbatan yengil qiroat usuliga asoslangan yangi maktab ochib, unda o'zi dars bergan, darsliklar yozgan, chorizmning Sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi o'tkir asarlari bilan Turkiston jadidlari yetakchilari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Tavallo, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalarning dunyoqarashiga katta ta'sir o'tkazgan. Yangi usul maktablarining vujudga kelishida turtki, ya'ni namuna bo'lgan.

¹ «Turkiston viloyatining gazetisi», 1900 yil, 21-son.

Munavvar qori so'nggi 3 asr davomida vujudga kelgan, rus istibdodi tufayli yanada chuqurlashgan madaniyat tanazzuli hosilasi bo'lmish milliy jaholat va g'aflatni yo'qotish uchun birinchi navbatda maorifni qayta tashkil etish ishiga kirishdi. Munavvar qori Abdurashidxonov 1901–1904 yillarda qrimlik do'sti rais Kishod yordamida Toshkentda o'z hovlisida «usuli savtiya» maktabini ochadi. Bunday maktablar tarmog'ini keng quloch yoydirishda qaldirg'och bo'lgan uning «Namuna» maktabi katta shuhrat qozondiki, mustamlaka ma'muriyati ham undan tashvishga tushdi. Chunki yangi usul maktablari ruslashtirish siyosatining tomiriga bolta urardi. Imperiya ichki ishlar vazirligining 1900 yil 31 dekabrda Toshkentdagi maxfiy senzori N.P.Ostroumovga yuborgan ko'rsatmasidan ana shunday taxlika seziladi. Ichki ishlar vazirligi polisiya departamenti Turkiston o'lkasida mahalliy xalqlar o'rtasida yangi usuldagi maktablar ochish harakati boshlanib, matbuotda bu hakda turli maqolalar e'lon qilinayotgani, shu vajxdan Turkiston bo'yicha maqola yozish, maktab ochish va dars berish ishida qatnashayotgan barcha shaxslar haqida mukammal material to'plab shaxsan Ichki ishlar vaziriga ma'lum qilish uchun zudlik bilan polisiya departamentiga yuborish vazifasi Ostroumov zimmasiga yuklatilganligini ma'lum qilgani bejiz emas edi, albatta. Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflantiruvchi o'zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida ayni shu XX asr boshida tarix sahnasiga chiqqan boshladilar.

Jadidlar Turkistonda XIX asrning oxirida paydo bo'lgan ilg'or usullarni yoqlagan ma'rifatparvarlargina bo'lib qolmay, ayni chog'da, turkiyislomiy huquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi, hurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqloq uchun ham kurashni maqsad qilib qo'ygan edi.

Jadidchilikning vujudga kelishida O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bobiylilik va bahoiylik singari falsafiy-diniy oqimlar, shuningdek, Turkiyadagi «Ittihad va taraqqiy» («Yosh turklar» harakati)ning ta'siri katta bo'ldi.

Bobiylilik va bahoiylik XX asrning boshlariga kelib Kavkazda, so'ngra esa Toshkent, Ashxabod va Turkistonning boshqa shaharlarida keng tarqala boshlagan va xalqning madaniy-ma'rifiy darajasini ko'tarishda katta ta'sir ko'rsatgan. O'z davriga nisbatan ancha yuqori saviyali bir necha majallalar, jaridalar chiqarildi. Xususan, o'sha davrda nafaqat Turkistonda, balki boshqa qardosh o'lkalarda ham mashhur bo'lgan «Al-Isloh» majallasi diqqatga sazovordir. 1915–1917 yillarda mazkur majalla sahifalarida islom, shariat masalalari, falsafiy

muammolar, tarjimalar, Turkiston hayotiga oid bahs-munozaralar berib borilgan. Majalla bobiyalar «boniysi» (Abdulla Avloniy iborasi) Abdurahmon as-Sayyoh at-Toshkandiy muharririligida, uning majalla yoritishni koʻzda tutayotgan mavzulari, gʻoyalari, maqsadlari va vazifalari toʻgʻrisida mufassal soʻzboshisi bilan nashr etila boshlangan. Majallaning 2–5 hamda 6–10-sonlarida bosilgan «Din va dunyoning bir-biriga taalluqi» va «Tasavvuf»ga bagʻishlangan maqolalar turkumi bagʻoyat asosli va zamonaga hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

Birgina Toshkentning oʻzida bobiyalar va bahoiylar tarafidan «Turkiston», «Islom», «Osiyo» va boshqa kutubxonalar, qiroatxonalar tashkil etilgan boʻlib, ular xalqimizning turli qatlamlari vakillari oʻrtasida maʼrifat tarqatish, xalqning madaniy saviyasini oʻstirish, siyosiy va milliy ongini uygʻotishda katta rol oʻynadi.

Jadidchilik harakatining katta ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida Turkistonning oʻzida ham asosiy omil boʻlib xizmat qilgan zamin va sharoit yetilgan edi¹.

Evropa XVIII–XIX asrlarda texnika taraqqiyotiga yoʻl berib, XX asr madaniyati va turmush tarzi uchun mustahkam poydevor yaratgan edi. Osiyo, jumladan, Turkiston, ilm-fan amaliyoti va texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketgandi. Oʻzbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Koʻqon) oʻrtasida muntazam davom etib kelgan nizolar oxir-oqibatda ularni zaiflashtirib, Rossiyaning bu xonliklarni bosib olib, jaholat va iqtisodiy-madaniy tanazzulni yanada chuqurlashtirib yubordi.

Qoloqlik va jaholat, oʻlka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizasiyasidan orqada qolib ketishi, Islom va shariatning oyoq-osti qilinishi va bunday ogʻir fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida oʻz zamonasining ilgʻor ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo boʻla boshladi. Jaholat uyqusidan uygʻonish tarixiy zaruriyatga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlanishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy-siyosiy oqim, harakat edi. Oʻlkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali ogʻir qismatini oʻz qalbi va vujudidan oʻtkazib, oʻzining butun borligʻini, aql-zakovatini, ongli

¹ Jadidchilik mohiyatining yangicha talqini B.Qosimov, O.Sharafiddinov, A. Ahmedov, A. Aliev, H. Ziyoev, N. Karimov, D. Alimova, Sh. Turdiev, H. Sodiqov, M. Hasanov, X. Boltaboev, S. Aʼzamxoʻjaev, S. Xolboev, S. Ahmedov, Sh. Rizaev, R. Shamsutdinov kabi olimlarning qator asar va maqolalarida oʻz aksini topgan.

hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllangan edi.

Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli turk saltanatidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g'oya va harakatlarning ham ta'siri kuchli bo'ldi. Ayniqsa, Turkiya sultoni Abdulhamid II (1876–1909) davrida mamlakatni qoloqlikdan olib chiqishga qaratilgan qator qonunlar va ularning hayotga tadbiiq etilishi Turkiston xalqlari uchun ham ahamiyatli edi. Turkiyadagi ilg'or islohotlar Yevropa madaniyati va turmush tarzining mamlakatda keng ommalashuviga olib keldi. Bu ijobiy yo'nalish Turkistonga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Bu vaqtda Turkiston, Xiva xonligidan, Buxoro amirligidan Turkiyaga borib tahsil ko'rayotgan ko'plab ziyolilarda o'sha mamlakatda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar, ilg'or Yevropa turmush tarzi, texnika taraqqiyoti, madaniyati, ma'rifatidan ta'sirlanish, unga havas bilan qarash, o'z vatanlarida ham shu kabi o'zgarishlar bo'lishini qo'msash his-tuyg'ulari uyg'ona boshladi.

1889 yilda «Ittihad va taraqqiy» degan hurriyatparvar oqim butun Turkiya bo'ylab yoyildi. Bu davrda Turkiyada tahsil ko'rgan turkistonlik ziyolilar o'z vatanlariga qaytib, ona yurtlarida ham o'shanday jamiyatlarni tashkil etdilar.

Sobiq Ittifoq Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi SSSR tashqi siyosat arxivida, O'zbekiston milliy xavfsizlik xizmati hujjatgohida Turkiston «Ittihad va taraqqiyot»chilari haqida ko'plab manbalar saqlanib qolgan. Jadidchilik harakati faollaridan biri, keyinchalik sho'rolarga aldangan va rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan, 30-yillar boshida qatag'on bo'lgan Akbar Boytursunovich O'rozaliev 1925 yil 6 iyulda Moskvadan Xitoyga diplomatik xizmatga ketish oldidan shaxsiy varaqasidagi «O'tmishda qanday partiyaga mansub edingiz?» degan savoliga shunday javob yozgan: «1914 yildan 1917 yilgacha yosh o'zbeklarning «Ittihad va taraqqiyot» yashirin tashkiloti a'zosi bo'lganman»¹.

Turkiyadagi «Ittihad va taraqqiy»chilardan Turkistondagi «ittihad va taraqqiy»chilarning afzallik tomonlari bor edi. Ularda kosmopolitik g'oya deyarli yo'q bo'lib, rus imperializmiga va uning mustamlakachilik tizimiga qarshi kurash g'oyasi kuchli edi. Holbuki, 1905 yilgi rus va 1908 yilgi Turkiya inqilobiy harakatlarida imperialism va mustamlakachilikka qarshi kurash g'oyasi bo'lmagan.

¹ Shamsutdinov R. T. Tarixiy merosimizga bir nazar. Andijon, «Meros», 1994, 47-bet.

Bunga qarama-qarshi o'laroq, Turkiston jadidchilik harakatida imperializm va uning mustamlakachiligiga qarshi kurash olib borish birinchi o'ringa ko'tarila olgan.

Jadidlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida xon va amirni ham o'z g'oya va maslaklariga tortishga harakat qildilar. Buxoro jadidlari 1900 yil boshida amirdan yangi usuldagi maktablar ochishga ruhsat olishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo bunday yangi usul maktablari-ning ochilishi Rossiya manfaatiga zid edi. Shu bois Rossiyaning amirga bo'lgan tahdidi ortib ketdi va amir jadidlarga tazyiq o'tkazishga majbur bo'ldi. Butun O'rta Osiyo bo'ylab ochilgan yangi usul maktablariga qarshi Rossiya mustamlakachilari o't ochadilar, bu maktablarni «islomga qarshi», «g'ayridin maktablari» degan tashviqot yurgizdilar, josuslik idoralarini ishga soldilar. Ahvol shu darajaga borib yetadiki, bu borada ko'plab qurbonlar berildi. Rus mamluklari bu paytga kelib islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yubordilar. Hatto, 1903 yili podshoh Turkiston aholisi uchun muborak Haj qilishni ham maxsus farmon bilan man etdi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg'otdi.

1905 yilgi to'ntarish harakatidan so'ng Rossiya hududidagi turkiy xalqlar va ularning Turkiya mamlakati bilan qardoshlik aloqasi kuchaydi. O'z davrida Turk dunyosi markazlaridan biri bo'lgan Qrim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonda ham keng yoyila boshladi.

Istanbulda tashkil topgan «Jamiyati xayriya», «Nashriyot» shirkatlari kabi ijtimoiy tashkilotlar Buxoro va Xivada ham maydonga keldi. Bu jamiyatlar bilan uzviy holda kamol topgan jadidchilik harakati o'sib, 1908 yilgi Turkiya inqilobi tufayli yuzaga kelgan «Yosh turklar» harakatiga muqobil holda Xivada «Yosh xivaliklar», Buxoroda «Yosh buxoroliklar» jamiyatlarini yuzaga keltirdi. Bu jamiyatlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oldilar. Jadidchilik harakatining bunday siyosiy tashkilotlari, jamiyatlari qisqa vaqt ichida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Andijon kabi O'rta Osiyoning yirik shaharlarida kuchli, nufuzli tashkilotlarga aylandi.

Ma'rifatparvarlar, jadidlar so'ng taraqqiyparvarlar deb atalgan ularning ijtimoiy-siyosiy bo'linmalari Turkistondagina emas, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham faoliyat ko'rsatgan. Toshkentda «o'sh sartlar», «padarkushchilar», Buxoroda «yosh buxoroliklar», Xivada «yosh xivaliklar», Andijonda «Taraqqiyparvarlar» atamalari ostida mashhur bo'lishgan. Turkiston general-gubernatori mahkamasining «ichki va tashqi razvedka» komissiyasi fikriga ko'ra,

bu bo‘linmalar siyosiy partiya sifatida shakllanmagan bo‘lsa ham. ammo shu yo‘nalishda rivojlanib kuchga kirmoqda. Ularning ta’siri sosial-demokrat, socialist-revolyusioner, konstitution-demokratik partiyalarnikidan kuchliroqdir. Siyosiy izquvarlik bobida ustasi farang mutaxassislardan iborat ichki va tashqi razvedka komissiyasi xulosasi haqiqatdan yiroq emas edi. Buni chetdan kelgan xorijiy izquvar, fransuz mayori Lyakost hisobotidagi xulosalar ham tasdiqladi. 1906–1908 yillar mobaynida Turkiston o‘lkasi shaharlari va qishloqlarida bo‘lib ichki va tashqi vaziyat bilan yaqindan tanishgan mayor Lyakost o‘lkadagi vaziyatga doir o‘z kuzatuvlarini qog‘ozga tushirib Fransiya matbuotida e’lon qildi. «Komitet Asiya Fransays» jurnalidagi bu hisobot-maqola Yevropa jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otdi. Ular o‘sha kunga qadar Rossiya imperiyasining chekka o‘lkasi Turkiston general-gubernatorligida siyosat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar orasida mahalliy aholiga mansub «Yosh sartlar» faol ish olib borishayotgani va aniq dasturga ega ekanliklaridan voqif bo‘lishdi.

Evropa jamoatchiligini maqoladagi yana bir fikr o‘ziga jalb qildi. Taraqqiyparvarlar – yosh sartlar mavjud tuzumga qarshi o‘zining milliy kurash dasturiga ega ekanligi va u Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi tizimiga jiddiy zarba berish mumkin. Fransuz razvedkachisi bo‘lgan mayor Lyakostning maqolasidagi kuzatuvchi tahlili va xulosalari Sankt-Peterburgda jiddiy tashvish uyg‘otdi. Turkistondagi har qanday ozodlik harakatlariga «panturkizm», «panislomizm», «g‘azovot» va «fanatizm» yorliqlarini yopishtirishga o‘rganib kolgan metropoliya markazi talvasaga tushib keskin choralar ko‘rishga kirishdi. Turkiston general-gubernatori general D.Subbotich vazifasidan bo‘shatildi. O‘rta Osiyo temiryo‘l polisiya-jandarmeriya boshqarmasi boshligi general Malixin iste’foga chiqarildi. O‘lkadagi vaziyatni atroflicha o‘rganish uchun Turkistonga maxsus desant guruh tajribali izquvarlardan iborat mutaxassislar yuborildi. Desant guruhga alohida jandarmlar Korpusi podpolkovnigi N.Vasilev, saroy maslahatchisi L.Kvisinskiy boshchilik qilishdi. Turkiston o‘lkasi general-gubernatori qilib o‘zbek xonliklarini istilo kilishda faol qatnashgan general N.Grodekov tayinlandi. Turkiston musulmonlarini qonga botirgan va turkmanlarni «er yuzidagi qora dog‘» deb atagan infanteriya generali N.Grodekovni o‘lka bosh hokimi va Turkiston okrugi ko‘shinlari qo‘mondoni etib tayinlanishi tasodifiy emas edi. Rossiya imperiyasidagi rus-yapon urushidan so‘ng ro‘y bergan harbiy-siyosiy inqiroz, ishchi, soldat, dehqonlarning norozilik harakatlari, Turkiya, Eron, Jazoir va Misrdagi inqiloblar mustamlaka

Turkistonda ham o'z aksini topgani bu o'lkada qattiqqo'l hokimiyat zarurligini taqozo qilari edi.

Sankt-Peterburgning oliy harbiy-siyosiy doiralari tomonidan jo'natilgan mahfiy desantning asosiy vazifasi taraqqiyparvarlarning yashirin dasturi va kurash strategiyasini aniqlash, so'ng ularni zararsizlantirish rejasini tuzish edi. Ularning yana bir muhim vazifasi taraqqiyparvarlarning rasmiy va mahfiy rahbarlarining rasmiy va maxfiy rahbarlarining ro'yxatlarini tuzish, dunyoqarashlari va mafkuralarini aniqlash hamda ularga ta'sir ko'rsatgan omillarni topish edi.

Desant vakillari mahalliy aholi qatlamlari o'rtasiga keng josuslik-agenturasini o'rmashtirish va «buzg'unchi, xoinlikka moyil» shaxslari topib, ulardan unumli foydalanishlari ham zarur edi. Markaz tomonidan ishlab chikilgan so'rovnomalarga javoblarning aniq va xolis bo'lishiga javobgarlik ham zimmalariga yuklangan edi. Asosiy maqsad Turkistonni imperiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatidagi holatini saqlab qolish.

Podpolkovnik Nikolay Vasilev va saroy maslahatchisi Leonid Kvisinskiy markazning maxfiy ko'rsatmalari asosida o'lka xalqlarining mustamlaka tuzumiga qarshi milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qilishga qodir, mayor Lyakost yozgan «Yosh sartlar» taraqqiyparvarlar va ularning xukumatga karshilik ko'rsatuvchi «milliy dasturlari» nimalardan iborat ekanligiga asosiy diqqatlarini qarashdi.

Mahalliy xalqlarga munosabat masalasida rus inqilobiy firqalarining tutgan siyosatini o'rganishga ham e'tibor qaratiladi. Sosial-demokratlarning tutgan yo'li eserlardan tubdan farq qilishi ham ular nazaridan qochmadi. Siyosiy izquvarlar Turkiston o'lkasida marksizm va inqilobiy g'oyalarni targ'ib etuvchi firqalarning tashkil topishi va faoliyati bo'yicha juda keng manzara yaratishdiki, Turkiston general-gubernatori Grodekov imperiya ichki ishlar vaziriga bu haqda 1907 yil 18 aprelida yo'llagan maxfiy nomasida shunday yozgan: «Saroy maslahatchisi (nadvorniy sovetnik) Kvisinskiyning o'lkaga komandirovka qilish tajribasi shuni yaqqol ko'rsatdiki, bu ishdagi (siyosiy qidiruv) eng katta kamchilik mahalliy hokimiyat ko'lida u yoki bu yo'llar vositasida olinadigan axborotni jamlaydigan, barcha uzuq-yuluq ma'lumotlarni yetuk ilmiy va malakali asosda tartibga solib umumlashuvchi organning yo'qligidadir. Janob Kvisinskiy shaxsan o'zi hech qanday ma'lumot to'plamagan bo'lsa ham bu sohadagi omilkorligi va ulkan tajribasi turli qo'llardagi chalakamchatti axborotdan mohirona tahlil asosida o'lkadagi inqilobiy

tashkilotlarning umumiy manzarasini yarata oldi. Janob Kvisinskiy tufayli o'lkadagi inqilobiy tashkilotlar tarkibi va faoliyatining aniq manzarasini yarata oldik». General-gubernator ichki ishlar vaziriga yo'llagan maktubida kuyidagicha goyani ilgari suradi: «Ushbu tajriba shunday muvaffaqiyatli samara berdiki, u o'lkada ana shunday kuzatuv organini doimiy bo'lishi zarur degan fikrga tabiiy ravishda olib keladi». Grodekovning bunday goyasi imperiya ichki ishlar vaziri va bosh vazir P.A.Stolipin tomonidan g'oyat qizg'in quvvatlandi. 1907 yil noyabrda podpolkovnik Vasilev va saroy maslahatchisi Kvisinskiy yaratgan maxfiy josuslik tarmog'i asosida bevosita markaz – Peterburgga xizmat kiluvchi rus mahfiy siyosiy polisiyasi – Turkiston rayon muhofaza bo'linmasi (TRMB) tashkil qilindi. Peterburgning «qo'z-qulog'i» bo'lmish TRMBni ruslar «oxranka», o'zbeklar esa «siyosiy idora» deb atashdi. Rus siyosiy razvedkasi va kontrrazvedkasi vazifasini ham ado etuvchi mahfiy polisiya Turkistondagi barcha taraqqiyparvar kuchlarni aniqlash, ularning safiga ig'vogarlar yuborish, xalqlar, millat-elatlar o'rtasidagi nifoqlarni kuchaytirish va illiy-ozodlik harakati ko'rinishlarining barcha turlarini zudlik bilan aniqlab rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, eng asosiysi esa o'lkani ruslashtirishga monelik qiluvchi barcha kuchlarni zimdan, pinhon yo oshkora yo'q kilish uchun xizmat qilishi lozim edi. Ana shunday idoraga rahbarlik izquvarlik ustasi, tajribali mansabdor Leonid Kvisinskiyga topshirildi.

Podpolkovnik Vasilev esa general-gubernator mahkamasidagi barcha siyosiy yozishmalarning mutasaddisi – maxsus bo'lim boshlig'i vazifasini bajara boshladi.

Kvisinskiy va Vasilev hamkorligida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatini bo'g'ib tashlash, istiqlol uchun kurashga qodir shaxslarni «zararsizlantirish» rejasi ishlab chiqildi. Shu rejani amalga oshirishga barcha mustamlaka ma'murlari jalb etildi. Maxsus ko'rsatmaga binoan barcha viloyatlar ma'murlari Vasilevning buyrug'iga bo'ysunishga majbur etildi.

General gubernatorning buyrug'i bilan barcha viloyatlar, tumanlarga quyidagicha ko'rsatnoma yuborildi: «Aholi o'zining avvalgi mustaqilligini qanday eslaydi? O'sha o'tmishda yo'qotilgan ozodlik qo'msaladimi? Aholi rus ma'muriyatiga umuman qanday qaraydi: o'tgan davrga nisbatan behurmatlik, norozilik payqaladimi? Mahalliy aholining yosh avlodi o'rtasida taraqqiyparvarlik yo'nalishi bormi? Ehtimollik nazariyasi bo'yicha mana shu yerli yosh avloddan kelajakda nima kutish mumkin? Bosmaxona uskunalari va gektograflar bormi? Bo'lsa ular xalqqa axborot, yo xitobnoma

chiqarishga xizmat qiladimi?»¹. Mahalliy aholining kayfiyati, fikriy darajasini o'rganish bo'yicha ma'lumotlarni to'plashga mo'ljallangan bu ko'rsatma umuman 19 savoldan iborat bo'lib, ularga tumanboshilar batafsil javob yuborishlari majbur edi. General gubernatorning ko'rsatmasi bo'yicha tumanboshilar, jabha (uchastka) pristavleri «o'zlariga bo'ysundirilgan mahalliy aholi ustidan doimiy nazoratni susaytirmasliklari» hamda siyosiy razvdeka bo'yicha ma'lumot yig'ishda uning asl maqsadini «bildirmasliklari, bu ishni ehtiyotkorlik bilan, mulohaza-idrok bilan va, eng yaxshisi, shaxsan amalga oshirishlari lozim»², deya, alohida ularning josuslikda gumon qilishlariga aslo yo'l qo'ymaslik uqtirilgan edi.

Alohida jandarmlar korpusi podpolkovniki N.A.Vasilev va polisiya maslahatchisi A.K.visinский o'z faoliyatlarini keng kuloch yoydirdilar. TRMB agenturasi o'lkadagi sosial-demokratik tashkilotlarni tor-mor qilib, ko'plab odamlarni qamoqqa oldi. 1908 yilda Toshkent turmasining bir o'zida 500, Skobelevda 300 siyosiy mahbus saqlangan. Samarqand turmasida esa mahbuslar ko'pligi, sharoit yomonligidan tif epidemiyasi tarqalgan. Siyosiy jihatdan ishonchsiz hisoblangan 400 ishchi O'rta Osiyo temir yo'lidan bo'shatilib, 700 ga yaqin ishchi «qora daftar»ga tirkalgan. Mirshablarga tintuvga kelishganda eshik bir daqiqada ochilmasa uni buzish huquqi berildi.

Qisqasi polisiya shtatlari kengaytirilib, ochiq va yashirin agenturaga ajratiladigan mablag'lar ko'paytirildi. Masalan, imperiya ichki ishlar vazirligi agentura harajatlari uchun Kaspiyorti viloyatiga 2000, Farg'onaga 1900, Samarqandga 1200, Yettisuvga 1000 rubl ajratdi.

O'lkadagi shaharlar va qishloqlardan turli yo'nalishdagi axbotlar endi desant qarorgohi TRMBda to'plana boshladi.

Samarqand viloyati harbiy gubernatorining 1907 yil 24 fevraldagi bayonnomasida «Xo'janddagi yangi soliq solinganidan keyin paydo bo'lgan boqimandalar hukumatga qarshi gap aytganlar va hayqiriqlarning aholiga yetib borganligi oqibatidandir», – deganida chuqur ma'no bor edi. Gubernator rus inqilobchilari va mahalliy aholi o'rtasidagi vositachilar «Kavkazdan kelgan arman, gruzin, fors, lezgin va boshqalar»³ ekanligini yozgani holda, ularni inqilobiy faoliyatni juda keng quloch yoydirish uchun juda qulay manba» deb baholaydi hamda kelgindilar «shu kungacha sodiq va osoyishta yerli aholini ham yo'ldan urayotganini» ta'kidlab o'tadi. Farg'ona

¹ O'R MDA, 1-TF, 1-ro'yxat, 12-ish, 16-varaq.

² Shu arxiv, 1367-ish, 14-varaq.

³ O'R MDA, 1-TF, 1-ro'yxat, 567-ish, 36-varaq.

viloyati harbiy gubernatori esa 1907 yil 1 martda general-gubernatorga yoʻllagan maxfiy axborotida inqilobiy ozodlik uchun kurash qishloqqa ham koʻchgani va u bu joylarda oʻziga xos usulda namoyon boʻlayotganini shunday taʼriflaydi: «Hozirgi kundagi siyosiy jinoyatlar olomonning toʻpoloni, gʻalayoni, talonchiligi, kotilligi kabi holatlar bilan uzviy bogʻlangan»¹.

Ruslarning ish tashlash harakati mahalliy millat aholisini ham «yoʻldan urgani» haqida roʻznomalar xabar berib turishgan. «Umumiy ish tashlash Andijonga xam yoyilib ishchilari nuqul sartlardan tashkil topgan paxta tozalash zavodlarini ham toʻxtatib qoʻydi»².

Maxfiy siyosiy polisiya boshligʻi Vasilevning Samarqanddagi 1905 yil 19 oktyabr kuni boʻlgan mitingi qabul qilgan rezolyusiya-dagi bir band oʻziga jalb qildi. Unda oʻzbeklarni «shafqatsiz ekspluatatsiya qiluvchi firmalarga dashnom berish zarur», – deb yozilgan edi. Oʻsha mitingda oʻzbeklar ham qatnashib, oʻz talablarini qoʻygan edi. Bunday ruslarga koʻshilgan oʻzbek ishchi, ziyoli va hunarmandlaridan Doʻst Muhammad Ustaboev, Barot Ikromov, Otamurod Shermuxammedov, mulla Malik Abdukarim Ashurov nomlari maʼmuriyatga maʼlum edi.

Buxorodagi Rossiya imperatori Siyosiy agentining 1905 yil noyabrda yoʻllagan maktubida ham ruslar koʻtargan stachka oʻzbeklarni ham buzgani, paxta tozalash zavodlarida ish toʻxtalgani maʼlum qilingan. Buxorodagi paxta tozalash zavodlarida ish tashlash temir yoʻlchilarning ish tashlashi bilan bir kunda – 17 noyabrda boshlanib, 5 dekabr gacha davom etgan.

Samarqand eski shahrida barcha oʻzbeklardan iborat boʻlgan choy qadoqlash korxonalaridagi ish tashlash jiddiy tus olib, bunda ruschani biladigan, bolshevik va eser tashviqotchilar bilan bogʻlangan Doʻst Muhammad Ustaboevning roli katta boʻlgan.

Rus mustamlakachilari oʻlkaning mahalliy tub aholisi 1905–1907 yillardagi voqealardan oʻziga xos usulda foydalanib, mustamlaka tuzumiga qarshi kayfiyatda boʻlganliklarini payqadilar. Samarqand viloyati harbiy gubernatorining 1907 yil fevral oyida oʻlkada jandarm nazoratini oʻrnatish haqida qilgan axborotnomasida shu fikr yaqqol koʻzga tashlandi.

Samarqand viloyati harbiy gubernatori, Bosh shtab general mayori Gesketning tumanboshilarga 1905 yil 21 dekabrda yuborgan koʻrsatmasida Samarqandning oʻzbeklar yashaydigan qismida

¹ OʻR MDA, 1-TF, 31-roʻyxat, 367-ish, 13-varaq.

² «Туркестанские ведомости», 1905, 12 ноября.

«bitta-yarimta kimsalar xalqni soliqlarni to‘lamaslikka chaqirayotganlari» ma‘lum qilingan. General-gubernator idoralarida saqlangan xujjatlarda ham 1905 yil noyabr-dekabr oylarida podshohga qarshi kayfiyatdagi ruslarning maqalliy aholini soliq to‘lamaslikka, majburiyatlarni bajarmaslikka da‘vat etib, ularni rus hukumatiga qarshi qo‘zg‘atishga urinayotgani aloqida uqtirilgan¹.

Huddi shunday urinishlar haqidagi xabarlar Sirdaryo, Kaspiy-orti viloyatlari gubernatorlaridan ham tushgan. Bu xildagi tashvishli xabarlar mustabid hukumatni g‘oyatda tashvishga solib, xatto Vazirlar Kengashi raisi S.Yu.Vitteni Turkiston general-gubernatorini maxsus ogohlantirib qo‘yishga undagan. Graf Vitte, jumladan o‘l-kada ish tashlashlarga keskin barham berish va harbiy holat joriy etishni taklif qilgan. Aks xolda, rus hukumati Turkistonning «erli aholisi o‘rtasida obro‘sini yo‘qotadi».

O‘lka viloyatlarining harbiy gubernatorlari ham favqulodda, harbiy va mirshablik holatlarini joriy etish takliflarini general-gubernator oldiga qo‘yishgan edi. Podshohlik saltanatining hukmdor doiralari bilan mustamlaka ma‘muriyatining aynan shu masaladagi yaqdilligi markazning o‘lka siyosiy hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganidan qattiq tashvishga tushishning oqibati edi. Turkistonning mazlum xalqi XX asr boshlarida tobora avj olayotgan siyosiy ixtiloflar va sinfiy mojarolar oqibatida Romanovlar saltanati ichidan zil ketib borayotganligini payqamasligi mumkin emasdi. Turkiston 1905 yildanoq umumrus inkilobiy harakati doirasiga tortildi. Endilikda aholini milliy-ozodlik harakati sari yetaklab kelayotgan siyosiy kurashda saqlab qolishning boshqa iloji qolmagan. Rossiyada davlat to‘ntarishi natijasida birinchi parlament – Davlat Dumasining tashkil topishi va unga mustamlakalar qatori Turkistondan ham noiblar saylash zarurati ma‘muriyatni qiyin ahvolga solib qo‘ydi. Imperiya qonun chiqaruvchi organida Turkiston vakillari aholining qanday tabaqalaridan, rus va musulmon qismidan qay tartibda saylanishi masalasini hal qilish lozim ekanligi uchun «saylov bo‘yicha maxsus ishlab chiqarish» idorasi ta‘sis etilib, unda rus unsuriga nisbatan musulmonlar ko‘pchilik bo‘lmasligi uchun ehtiyot choralar ko‘rildi. Toshkent shahar dumasida noiblarining imperatorga yo‘llagan petisiyalarida ana shu fikr ilgari surilgan edi. Ular Davlat Dumasida Turkistonning rus va yerli aholisidan alohida, shunda ham, ayrim vakillar saylanishini so‘rashgan: «Agar saylov asosiga, – deb yozishgan edi noiblar 1905 yil 28 iyul petisiyasida

O‘R MDA 17-TF, 1-ro‘yxat, 22655-ish, 341-varaq.

– saylovchilar miqdori olinsa, o‘lkani o‘zlashtirib, madaniylashtirayotgan rus nufuzi vakilsiz qoladi, chunki yerli aholi son jihatdan ustunligi bilan uni bosib ketadi. Holbuki, o‘lka rus kapitalistlari tufayli boyimoqda, bu yerga mustamlakachilik to‘lqini yo‘naltirilmogda, hokimiyat va madaniyat vakillari ham yerli aholiga mansub emas. Shuning uchun ham adolat va taraqqiyot nuktai nazaridan Davlat Dumasida Turkiston aholisidan vakillik ba‘zi holda yerlilar-dan, ba‘zi hollarda esa rus aholisidan bo‘lishi kerak»¹.

Ana shularni hisobga olgan xolda 1906 yil 27 aprelda Sankt-Peterburgdan imperatorning saylov tartiblari xususidagi farmoni yetib keldi. «Yettisuv, Kaspiyorti, Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida Davlat Dumasiga saylovlar haqidagi holatni va unga qo‘shimcha qonun-qoidalarni qo‘llash haqidagi» farmonga ko‘ra turar-joy aholisi bo‘lmagan rusiyzabon millatlar vakillari umumiy saylovchilar sonidan qat‘i nazar har besh viloyatdan bittadan, Toshkentdan va Yettisuvdan kazak qo‘shinlaridan bittadan, ja‘mi bo‘lib 7 deputatni, mahalliy tub joy aholisi esa umumiy aholi sonidan qat‘i nazar viloyatlar va Toshkentdan ja‘mi bo‘lib 6 deputatni saylashi kerak edi. Ana shu tariqa rus deputati uchun o‘rtacha 46 ming, tub millat deputati uchun esa 896 ming saylovchi ovoz berishi kerak edi. Bu bilan imperiya qonunchiligi mahalliy xalqlarning saylov va saylanish huquqi kelgindi rus millati vakillariga qaraganda, 20 barobar kamsitildi.

Sankt-Peterburg desanti II Davlat Dumasiga saylov jarayonini shaxsan kuzatdi va nazorat qildi. Desant qo‘lida deputatlar saylovchilari xususida barcha ma‘lumotlar to‘plandi. Davlat Dumasiga saylovlar natijalari desantchilarni chinakamiga cho‘chitib yubordi. Hukumatga maqbul biron nomzod etarli ovoz olmay mag‘lub bo‘ldi. «Taraqqiyparvar saylovchilar guruhi» porloq g‘alaba qozondi. Toshkentdan Duma a‘zoligiga o‘zbeklar o‘rtasida obro‘li va «Jahongir domla» sifatida mashhur o‘lkashunos olim, demokrat V.P.Nalivkin saylandi. U ruslarni o‘zbek tiliga o‘rgatuvchi kurs rahbari sifatida uzoq yillar ishlagan, rafiqasi bilan Nanay qishlog‘ida yashab, mahalliy urf-odatlar haqida kitoblar yozgan shaxs edi. Tub aholi o‘rtasidan Toshkentdan ulamo Abduvohid qori Abduvohid Qoriev, Samarqanddan tijoratchi Toshpo‘lat Abduxoliqov, Yettisuvdan muhandis Muhammadjon Tinishboev va boshqa deputatlarning barchasi taraqqiyparvarlar guruhidan bo‘lgani ham markaz vakillarida jiddiy bezovtalik uyg‘otdi. Toshkent shahar dumasiga saylovlarda

¹ O‘sha joyda.

ham taraqqiyparvarlar nomzodlari saylangani ham bu tashvishni kuchaytirdi. O'lkada birinchi marta Toshkent dumasi oqsoqoli vazifasi ofiserlardan emas, balki mahalliy ziyolilardan olim N.G.Malliskiy saylanishi ham mustamlakachilarni tahlikaga soldi. O'lkada chindan ham oqibati noma'lum jarayon boshlangani aniq edi.

Desantchilarning Turkistondagi saylovlarda rus jamiyatidagi yangi siyosiy kuchlardan tashqari, tub aholi o'rtasida salmog'i kuchayib borayotgan o'zbek burjuaziyasi va ziyolilarining amaliy nufuziga munosib baho berishdan boshqa chorasi qolmagan edi. Binobarin, ular o'z e'tiborini Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatining kuchayishiga ta'sir ko'rsatayotgan rus inqilobiy firqalaridan qay birlarining xavfli ekaniga qaratishdi. Shu jihatdan, ularga RSDRPning Turkiston tashkilotlari konferensiyalari hujjatlari boy dalilini manba bo'ldi.

1906 yilning fevralida RSDRP Turkiston tashkilotlarining birinchi konferensiyasi bo'lib, unda Toshkent, Samarqand, Marg'ilon, Ashxobod, Qizil-Arvat, Chorjo'y tashkilotlarining vakillari qatnashdilar. Ta'sis yo'nalishiga ega bo'lgan ushbu konferensiyada bir necha tashkiliy masalalar ko'rildi. Jumladan, mahalliy firqa guruhlarini tashkilotlarga aylantirilib, «RSDRP Turkiston tashkilotlari ittifoqi»ga birlashtirildi. Konferensiyada RSDRP Toshkent guruhi tarkibidan «Ittifoq qo'mitasi» saylanib, unga adabiyotlar nashr etish, tashkilotlarga tashviqotchi kuchlar bilan yordam berish, ishlarni uyg'unlashtirish, markaziy tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish masalalariga rahbarlik qilish vazifasi yuklatildi. Konferensiya RSDRP Toshkent guruhi gazetasi «Rabochiy»ni RSDRP Turkiston tashkilotlari ittifoqi organiga, «Soldatskiy listok – Pravda» gazetasini esa Turkiston o'lkasining barcha harbiy inqilobiy tashkilotlarining organiga aylantirdi. «1-Turkiston konferensiyasi haqida Bildirish» deb nomlangan nashrda konferensiya joylardagi barcha o'rtoqlarga mahalliy aholiga alohida e'tibor berish, ular o'rtasida keng yo'sinda sosial-demokratik tashvikot olib borish taklif qilinadi», bu tashviqot og'zaki ham, yozma – varaqa shaklida ham, shart-sharoitga kezib amalga oshirilsin», deyilgan.

Siyosiy polisiya agentlari sosial-demokratlarning bu qarori qog'ozda qolib ketganini va ularning Turkiston musulmon aholisi va ishchilaridan tashqari, hunarmandlar, ayniqsa, ko'pchilikni

¹ Пясковский А.В. Революция 1905–1907 гг. в Узбекистане. Ташкент, 1957, стр. 177–178.

tashkil etgan dehqonlar o'rtasida deyarli hech qanday tashviqot yuritilmaganiga ishonch hosil qilishdi. Ular sosial-demokratlar organi bo'lgan «Soldatskiy listok – Pravda»da bosilgan «Ishchilar nima istaydi?» deb nomlangan maqolada qo'yilgan masalaga alohida diqqat bilan qarashadi. Zotan, bu maqolada sosial-demokratlar milliy masalada millatlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilashlari, milliy davlat tuzib, Rossiyadan mustaqil bo'lishlariga kafolat berishni yoqlaganlari holda, bu erkinlikning faqat Ovrupo millatlariga oid ekanligini uqdirganlar. Xususan, unda polyak, litva, fin, yaxudiylar eslatilib, Turkiston xalqlari esa mutlaqo tilga olinmagan. «Rus xalqini talagan va ezgan holda, – deya yozilgan edi o'sha dasturiy maqolada, – hukumat polyaklar, litvaliklar, finlar, yahudiylar, gruzinlar, armanlar va boshqa rus bo'lmagan millatlarni juda qattiq ezmoqda... Barcha millatlar ishchilarining manfaatlari bir xil: rus, fin, polyak, hamda yahudiy ishchilari o'z manfaatlariga ko'ra, bir-birlari bilan rus ishchisi va rus kapitalistlariga qaraganda yaqinroqdir». Turkiston sosial-demokratlari o'lkada yashovchi fin, polyak va boshqa millatlarga nisbatan ham qattiq ezilgan o'zbek, qirg'iz, turkmanlarni tilga olmaganliklari ularning hech qachon o'lka tub aholisi manfaatini o'ylab, jiddiy ish tutmaganligidan, aniqrog'i, hokimiyat talab bu firqaning ham mustamlakachilikdan voz kechgisi yo'qligidan dalolat berar edi.

Aftidan, mahalliy aholi podshohdan hokimiyatni tortib olishda yordamchi – qora kuch bo'lishini ko'zda tutmagan edi. Shunga ko'ra, Vasilev va Kvisinskiy eserlarning uzoqni ko'zlab, mahalliy millatlar o'rtasida keng ko'lamda ish boshlaganliklaridan voqif bo'ldilar va aynan shu firqaga nisbatan keskin choralar ko'ra boshladilar.

1906 yildagi voqealar tadrijida eserlarning nufuzi sosial-demokratlikidan qolishmagan. Ular 1-may munosabati bilan bir necha varaqa va xitobnomalar chiqardilar. Toshkent Bosh temir yo'l ustaxonasidagi ish tashlash va uning g'alaba bilan tugashida, shubhasiz, shu firqalarning roli katta bo'lgan. Polisiya, kazaklar, harbiy qismlar tazyiqi temiryo'lchilar irodasini buka olmagan, ma'muriyatning ularga to'la yon berishi butun o'lkada Toshkent temir yo'l ustaxonasining obro'sini ko'tarib uni «Ishchilar qal'asi» nomi bilan mashxur qildi. Usha yili ommaviy ish tashlashlar boshqa sanoat korxonalarini ham keng tus oldi. 1906 yil 29 iyunda Toshkent temir yo'lchilari ishchi noiblari kengashini tashkil qildilar. Ularning endigina shakllanib kelayotgan mahalliy ishchilar sinfining jipslashishiga ta'siri katta bo'ldi. Masalan, Toshkentdagi Dyurshmidt ichak-tozalash zavodida bir ishchining bo'shatilishiga

qarshi norozilik tariqasida 13 o'zbek ishchisi ish tashlagani ana shundan dalolat beradi. Eserlar 1906 yil 3 iyulda Toshkentdagi saperlar qo'zg'alonida va ularga qo'shilgan Turkiston va Kaspiyorti temir yo'l batalonlari isyonida asosiy rol o'ynadilar. O'lkada paydo bo'lgan kasaba uyushmalarida esa sosial-demokratlar ta'siri salmoqli bo'ldi. Maxsus bo'lim ularni «Yangi ishchi noiblari sho'rosi»¹ deb atadi.

Ichki ishlar vazirligi Polisiya departamentining siyosiy bo'limi boshlig'i Vasilevga shu ishlar yuzasidan maxfiy tergov o'tkazishni buyurgani bejiz emas edi. Markaz Turkiston general-gubernatori D.I.Subbotich (1852–1920)dan noroziligini yashirmay, uni Peterburgga chaqirib olgani Vasilevga ayon edi. Subbotich podshoh generallari o'rtasida jangovar o'tmishi bilangina emas, balki ilg'or fikrlari va tabiatan yumshoq ko'ngilligi bilan ham ajralib turar edi. U lavozimiga tayinlangan kundan e'tiboran ish tashlagan ishchilar, murosayu-madora bilan hal etish muzokaralar olib borib, ishni tinchlik, murosayu-madora bilan hal etish siyosatini yuritgan edi.

Sosial-demokratlar ta'siridagi «Russkiy Turkestan» gazetasi bu hakda shunday yozgan: «General Subbotich porox hidiga to'yingan mundir kiygan. Ablah tuhmatchilarga bu kamlik qildi. Ular general Subbotich o'z mundirini xalq qoni bilan bo'yashini istagan edilar».

Agar biror ona uning nomini la'nat bilan tilga olmasa, agar u bironta ham dor qurmagan bo'lsa, qo'llari esa manfur inqilobchilarning qoni bilan bo'yalmagan bo'lsa, u qanday qilib general-gubernator bo'lib qoladi»².

Viloyat harbiy gubernatorlarining takliflari inobatga olinib, o'lkada harbiy mirshablik holati joriy etildi. Yangi general-gubernatorning buyrug'iga muvofiq, O'rta Osiyo temir yo'li tarmog'i unga yondosh shaharlar bilan 3 hududga bo'linib, ularga vaqtli general-gubernatorlar tayinlandi. Birinchi hududga Kaspiyorti viloyati boshlig'i, general-leytenant Grekov, uchinchisiga esa 1-Turkiston armiya korpusi qo'mondoni, general-leytenant Shpisberg vaqtli general-gubernator qilib tayinlandi. Markaz Turkiston o'lkasini ruslashtirish jarayonini yanada kuchaytirish borasida keskin o'zgarish yasashni lozim topadi. Bosh vazir va Ichki ishlar vaziri P.A.Stolipinning buyrug'iga muvofiq, rus mujiklarini ommaviy ravishda Turkistonga ko'chirish uchun «Sirdaryo ko'chiruv tumani boshqarmasi» tashkil qilindi.

¹ O'R MDA, 461-TF, 1-ro'yxat, 984-ish, 1-varaq.

² O'R MDA, 461-TF, 1-ro'yxat, 984-ish, 1-varaq.

Bu davrda mahalliy aholiga tegishli yerlarni zo'rlik bilan tortib olish va ko'chirib keltirilgan rus dehqonlariga taqsimlab berish jarayoni kuchaydi.

To'qqiz yil ichida Sirdaryo, Farg'ona ko'chiruvchilik rayoni bo'yicha mahalliy xalqning 744, 9 ming desyatina yeri tortib olinib, ruslarga taqsimlab berildi. Podshohning ziroatchilik bo'yicha vaziri Krivoshein imperatorning diqqatiga Turkistondagi rus kolonizatsiyasi istiqboli haqidagi dasturini havola qilib, o'lkada 300 ming baquvvat rus xo'jaligini barpo etish uchun 3 million desyatiga sug'oriladigan yerni musodara qilishni taklif qildi. Imperiya oliy doiralari ana shu maqsadni amalga oshirish uchun Turkistonda shafqatsiz ish ko'ruvchi «kuchli va baquvvat» hokimiyat bo'lishga mayl bildirdi. Peterburg Turkiston general-gubernatori va viloyat harbiy gubernatorlarining huddi shu xususdagi barcha talablarini qondirdi.

Ichki ishlar vazirligi general-gubernatorga «agentura harajatlari uchun» 3 ming rubl ajratdi. Samarqand harbiy gubernatori general-mayor Gesketning viloyatlarda jinoiy-siyosiy qidiruv idoralari tashkil etish va ularni gubernatorlarga bo'ysundirish taklifi ham amalga oshirildi. Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarida shunday idoralar ta'sis etildi¹. Viloyat harbiy gubernatorlariga harbiy dala sudlari joriy etildi, mirshablarga esa «tartibsizliklar sodir bo'lganda» osmonga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri olomonga qarata otish huquqidan foydalanishga ijozat berildi. Shuningdek, Turkiston ma'muriyatiga mahalliy aholiga nisbatan ko'llaniladigan jazo choralari rus ishchi-dehqonlariga ham qo'llash xukuki berildi.

Desantchilar agenturasi yuborayotgan axborotlarda o'lkadagi harbiy xizmatchilar o'rtasida inqilobiy kayfiyat haqida ma'lumotlar tashvishli edi. «Samarqand ko'chasida general Ivanovning uyida istiqomat qiluvchi shtabs-kapitan Aleksey Alekseevich Xlebnikov huzurida ikki yig'ilish o'tkazildi. Bu yig'ilishlarda zahiradagi batareya shtabs-kapitani Karpovich, Toshkent rezerv bataloni shtabs-kapitani (famiyasi noaniq), qal'adagi siyosiy mahbuslarni ko'chirishda yordam bergan zobit, avval 2-Turkiston o'qchi bataloni komandiri, polkovnik, so'ng unvoni pasaytirilgan poruchik Nikolay Nikolaevich Solodyagin qatnashdi. Harbiy tashkilot haqida samarqandlik savdogar Subenikov qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lgan.

¹ O'R MDA, 461-TF, 1-ro'yxat, 1990-ish, 16-varaq.

Uning bog'ida nomlari eslatilgan zobitlar ko'p bor bo'lishgan va shu joyda bosmaxona ham bo'lgan»¹.

Siyosiy izquvarlar Turkiston eserlarining Peterburgdagi eserlar bilan yaqin aloqasini ham aniqlashdi. 1908 yilning iyul oyida Peterburg eserlari Toshkentga doktor Moisey Slonim nomiga Rus-Xitoy banki orqali 5 ming rubl yuborganlar².

Turkiston o'lkasida faol ish ko'rayotgan eserlarning jangovar guruhi haqidagi tergov materiallari 7 jildni tashkil etib, bevosita Peterburgning diqqatini o'ziga tortdi. Eserlar safida musulmonlar ham borligi va ular nufuz jihatidan ham katta mavqe'ga egaligi Vasilevni bezovta qildi. Niyozboev – Karimov ishi shular jumlasidandir. Toshkentda Starogospital ko'chasi 52-uyda yashovchi savdogar Sobirjon Solixovich Abdullin aslida eserlarning rahbarlaridan biri bo'lib chiqdi. «Spokoyniy» laqabidagi 27 yoshli musulmon yigit «Kum», «Master», «Bogachka» lakabli eserlar bilan aloqada bo'lgan. U «Bogachka» laqabli yigitning bileti bilan Orenburgga jo'naganida, orqasidan kuzatuv borligini payqab, yashirinadi. Jandarmilar uni Ufada qo'lga tushirishganda o'zini Gumar Husainovich Karimov deb atagan. Karimov aslida Niyozboev bo'lib, taniqli eser, Qozon va Orenburgdagi ishlarda qatnashgan. Jandarm tergovini uni Orenburgda Gabdurrauf Hakimboevich Niyozboev nomi ostida yashagani, kasbi o'qituvchiligi, doimiy manzilgohi Toshkent ekanligini aniqladi. U eserlar firqasi Markaziy Qo'mitasida «Qozonlik», «Yahudiy» kabi laqabda alohida hisobda turgan. Podpolkovnik Vasilev «Toshkent va Chimkentdagi eserlar guruhlari» deb nomlagan maxsus ishda quyidagi ma'lumotlarni aniklagan. 1906 yilda Qozonda eserlar firqasi guruhi tashkil etilib, qo'mita a'zolariga Gabdurrauf Niyozboev, G'iyos Ishoqov, Ishoq Bikchurin, Shokir Muhammadyorov, Fuad To'xtarov saylanadi. Ular yashirin bosmaxona tashkil qilib, 3 marta xitobnoma chiqarishgan. Ufada yashagan Faisxon Usmonov tatar bosmaxonasini Karimov-Niyozboevga topshirgan. Ashxobod harbiy-inqilobiy tashkilot a'zosi Ilya Petrovich Andreev – (firqaviy laqabi «O'rtoq Foma»). «Polkovnik» bilan aloqada bo'lib, Toshkentdan pul olib turgan. Yashirin bosmaxonada eserlarning «Za narod» va «Molot» degan gazetalari chop etilgan. Niyozboev-Karimov ikki marta Kishinyov shahriga borib, Turkiston eserlari uchun qurol-yarog' sotib olgan va bu hakda Toshkentga telegrammalar jo'natgan. Niyozboev qurol-yarog' transporti bilan Orenburgdan o'tayotib,

¹ O'R MDA, 461-TF, 1-ro'yxat, 2027-ish, 52-varaq.

² Shu arxiv, 1990-ish, 16-varaq.

Toshkentga davlat xuzuridagi advokat yordamchisi Charkovski nomiga shartli telegramma yuborgan. Podpolkovnik Vasilev nomi tilga olingan Charkovskiyning o'zbek jadidlari bilan yaqin aloqasidan xabardor bo'lib, uni alohida xavfli shaxslar qatoriga qo'shdi¹.

1908 yilning 10 yanvarda tintuv vaqtida Toshkentda istiqomat qiluvchi eserlardan Petr Gordeev va Timofey Nikitinning uylaridan inqilobiy ruhdagi adabiyotlar bilan birga gektografda bosilgan «Musulmonlarga!» deb nomlangan xitobnomaning 58 nusxasi chiqqani ham Vasilevni tashvishga soldi. Bu dalil eserlarning mahalliy aholi o'rtasida qandaydir aniq ish yuritayotganidan darak berardi. TRMB boshlig'i Kvisinskiy esa unga eserlar firqasi Turkiston viloyat qo'mitasining taniqli arbobi Viktor Cherniyning aslida Qozon dorilfununining talabasi Abbosali Qadimov bo'lib chiqqani haqidagi xabari ham tashvish uchun asos edi².

Musulmonlarning inqilobiy firqalardagi ishtiroki Peterburgni g'oyat tashvishga solayotgani siyosiy idoraga ma'lum edi. Peterburgda izquvarlarga yordamga kelgan. Alohida jandarmlar korpusi rotmistri Korobchakov 1908 yil 26 iyulda Abbosali Qadimovning iziga tushganini yozib, bu eser uch sherigi bilan tijorat idorasi xodimlariga Samarqandda hujum uyushtirib 4150 rubl pul, oltin buyumlar va hujjatlarini tortib olgani, polisiya ulardan ikkitasini qo'lga tushirganini ma'lum qilgan. 1908 yilning iyulida imperiya Ichki Ishlar vazirligi Polisiya departamenti TRMB boshlig'iga mutlaqo maxfiy axborot yo'lladi. Unda eserlar firqasi Markaziy Qo'mitasi topshirig'i bidan Odessa viloyat qo'mitasi vakili «Sergey» Toshkentda allaqanday vazifani bajarib, Odessaga qaytgani xabar qilinib, eserlar Toshkentda qandaydir muhim tadbirni amalga oshirmoqchi ekanliklari to'g'risida taxmin bildirgan. 22 iyulda «Sergey» Peterburgga borgan va Markaziy Qo'mitadagi maslahatga ko'ra imperatorning joniga suiqasd qilish rejasini tuzgan. Buning uchun u Toshkentdagi davlat xazinasini talab 700 ming rublni qo'lga kiritmoqchi, agar bu ish amalga oshmasa, biron xususiy bank, yo pochmani talab, yuz ming rublga yaqin pul jamg'armoqchi bo'lgan, Mablag' Peterburgda podshohni o'ldirish ishida asqotishi kerak bo'lgan. Aka-uka Valiskiylar pul transportidan 300 ming rublni o'g'irlab eserlar firqasi Turkiston viloyati ko'mitasiga topshirgan. Qo'qon bankidan Timofey Niasov yuz ming rubl olib shu qo'mitaga bergan³.

¹ O'RMDA.461-TF. 1-ro'yxat. 1488-ish, 12-varaq.

² Shu arxiv. 125-ish, 11-varaq.

³ O'R MDA. 461-TF. 1-ro'yxat. 2007-ish, 13-varaq.

Podpolkovnik Vasilev, rotmistr Korobchakov va TRMB boshlig'i Kvisinskiylar birgalikda ishlashi, hamkorlikda izlanishi natijasida Turkiston eserlari yetakchisi Sergey Ososkov hibsga olingan. Ososkov ishi bo'yicha eserlar jangovar drujinasidan 100 kishi javobgarlikka tortildi. Sud xukmi bilan Sergey Ososkov 29 iyulga o'tar kechasi qatl qilindi. Bu tadbir esa butun o'lkani oyoqqa turg'izgan voqealarga turtki berdi. 1908 yil 22 sentyabrda o'quv mashqlarida 1-Kaspiyorti batalonining 4-rotasi askarlaridan Lavrentiy Kuzmenko, Anisim Xripchenko, Nikifor Malsev va Petr Koltun general gubernator va uning mulozimlariga qaratib o'q uzishgan. General-gubernator Mishchenko va uning soqchi ofiseri yaralandi. Bu voqea «TurkVO qo'mondoni joniga suiqasd haqida» deb atalgan tergov materiallarida batafsil bayon etilgan¹. TRMB boshlig'i general-ad'yutant Mishchenkoning yarador qilinishi inqilobchilarning Ososkov qatliga birinchi javobi ekanligini qayd qilib, «bu sohadagi dahshatli ishlarning birinchi yirik ko'rinishi» ekanligini ta'kidlagan. «Turkiston inqilobchilari, – deb yozgan edi Kvisinskiy 1908 yil 17 dekabrda Peterburgga yuborgan axborotida, – o'lkaning bosh hokimini hech qachon kechirishmaydi va General gubernator Mishchenkoning o'limi allaqachon hal qilingan»². Mazkur axborotda maxfiy siyosiy polisiya boshligi o'zining eserlar terroridan qo'rquvini ham yashirmagan: «Xuddi shu tarzda mening taqdirim ham hal qilingan. Bu masalada inqilobchilar kuzatuvini yaxshi yo'lga ko'yilgan. Mening yordamchim rotmistr Kellerning Ashxobodga yashirin borgani ham ularning nazaridan qochmadi»³. TRMB maxfiy agent «Gorniy»ning axboroti ham Kvisinskiy gumonini tasdiqlagan: «Toshkent turmasidagi maxbus Chernishev muhim ko'rsatma berish bahonasida o'zini Turkiston rayon muhofaza bo'limiga olib borilishini, u yerga borgach bo'lim boshlig'i Kvisinskiy bilan uchrashganda esa uni o'ldirishini aytdi»⁴.

Vasilev va Kvisinskiyning mahkamalari Toshkent, Chimkent va Kaspiy ortidagi eserlar tashkilotlarini aniqlab eserlarning mashhur-lari ustidan «55 lar jarayoni» deb atalgan sudni uyushtirgan bo'lsalar ham, inqilobiy varaqa, xitobnomalar va amaldorlarga suiqasd uyushtirish hamda terror davom etdi. 1909 yil 21 fevralda Toshkent bosh temir yo'l ustaxonalarida «O'rta Osiyo temir yo'li Toshkent rayon qo'mitasi» xitobnomalari paydo bo'ldi. Ular ishchilarni kurashga

¹ Shu arxiv, 1-TF, 1-ro'yxat, 567-ish, 40-varaq.

² O'R MDA, 461-TF, 1-ro'yxat, 567-ish, 40-varaq.

³ O'R MDA, 461-TF, 1-ro'yxat, 2007-ish, 40-varaq.

⁴ O'R MDA, 1-TF, 1-ro'yxat, 2032-ish, 34-varaq.

chorlab, «jandarmlar, qo'riqchilar va ig'vogarlar bilan o'rab tashlangan og'ir sharoitga qarshi» ko'tarilish zarurligini uqtirgan. Huddi shu tashkilotda ish ko'rayotgan rus inqilobchilari faoliyati haqida general-gubernator 1909 yil 3 oktyabrda imperiya harbiy vaziriga shunday deb yozgan: «Inqilobiy tashviqot «Butunrossiya temir yo'l ittifoqi O'rta Osiyo bo'limi» deb nomlangan temir yo'l xizmatchilarning jinoiy tashkiloti a'zolari o'rtasida yuqori cho'qqisiga chiqdi. Huddi shular orasida ko'pdan-ko'p terroristik aktlar, talonchiliklar, faol chiqishlar sodir bo'ldiki, temir yo'l jandarmeriyasi va polisiya mazkur ittifoq oldida ojiz bo'lib qoldi»¹. General-gubernator shu ittifoq a'zolaridan 200 kishini o'lkadan chiqarib yuborgan bo'lsa ham, tinchlik bo'lmayotganini qo'shimcha qilgan.

«Shuni komil ishonch bilan aytish mumkinki, – deb yozgan edi general-gubernator Peterburgga, – o'lkada qattiq va kuchli hokimiyat bo'lib tursa va eng muhimi rus aholisi katta tartibsizliklarni keltirib chiqarmasa, tuzem aholining osoyishta turishiga kafolat bersa bo'ladi»². O'lkaning bosh hokimi sanoat va tijorat ishiga omilkor, amaliy foyda keltiruvchi har qanday yangiliklarni tez ilg'ab oluvchi tuzem aholi imperiyada ro'y berayotgan voqealarga g'oyat sezgirlik bilan qarashini uqtiradi³. Turkiston general-gubernatori o'lkadagi rus aholisida «ozodlik harakati» temir yo'l qurilgandan so'ng o'lkaga oqib kelgan ishchilar paydo bo'lgan davrdan boshlangan»⁴ deb yozadi. O'lkaning bosh hokimi mahalliy aholi o'rtasida inqilobiy tashviqot hali-beri ildiz otolmaydi» degan xulosaga kelgan holda buning sabablariga to'xtaladi.

Imperator noibi shu fikrini asoslab, mahalliy aholiga inqilobiy tashviqot tarqalmasligi uchun «juda katta to'siq» borligini yozadi⁵. Shu bilan bir qatorda u rus inqilobiy firqalari «hali nima qilayotganlarini o'zlari ham bilmaydilar, tuzem aholi ularning maqsadlari bilan hech qachon mushtarak bo'la olmaydilar»⁶ deya, agar mahalliy aholi inqilob ishiga tortilib qolsa, ularning harakati «barcha ruslarga qarshi qaratiladi yoki xuddi Kavkazdagiga o'xshab keng «qaroqchilik» tusini oladi»⁷ deb bashorat qiladi.

¹ O'R MDA, 1-TF, 31-ro'yxat, 567-ish, 5-varaq.

² O'RMDA, 1-TF, 31-ro'yxat, 367-ish, 21-bet.

³ O'RMDA, 1-TF, 25-ro'yxat, 89-ish, 156-bet.

⁴ O'RMDA, 1-TF, 31-ro'yxat, 367-ish, 21-bet.

⁵ O'RMDA, 1-TF, 25-ro'yxat, 89-ish, 156-bet.

⁶ O'sha joyda.

⁷ O'sha joyda.

Peterburg desantchilari ham shu zaylda fikr yuritib, o'lkada tub aholisi inqilobiy voqealarga tortilsa, ularda milliy ong uyg'onib, ozodlik kurashi kuchayishi mumkinligi xususida o'z mulohazalarini bildirishdi. Qarshi chora sifatida ular xukumatga moyil tabaqalar o'rtasida tashviqotni kuchaytirish choralari ko'rishayotganini bildirishgan. Xususan, ular tashabbusi bilan «davlatpanoh imperator»ga bag'ishlangan duo matni tayyorlanib, joylarga yuborildi. Xususan, Samarqand viloyatidagi masjid va madrasalardagi imomlar uchun mo'ljallangan 190 duo matni harbiy gubernatorga jo'natilib, mahalliy aholi o'rtasida tegishli tashviqot yuritishda musulmon ruhoniylaridan unumli foydalanishga ko'rsatma berilgani shu maqsadga qaratilgan edi¹.

Desantchilar Rossiyadan yangrayotgan hukumatga qarshi xitoblar Turkistonda kuchli aks-sado berayotgani, natijada mavjud tuzumga aholiga yetib borayotganligini yozadi². Ularning xulosasiga ko'ra, rus inqilobchilari va mahalliy aholi o'rtasida vositachi sifatida «Kavkazdan kelgan arman, gruzin, fors, lezgin va boshqalardir»³.

Turkiston general-gubernatori mahkamasining maxsus bo'limi imperiya ichkarisidan surgun qilingan kishilar «shu kungacha sodiq va osoyishta tuzem aholini ham yo'ldan urayotganini»⁴ qayd qilgan.

Maxsus bo'lim general-gubernatorga yo'llagan maxfiy axborotida inqilobiy harakat o'lkaning barcha qishloqlariga ham ko'chgani va bu joylarda o'ziga xos usulda namoyon bo'layotganini shunday ta'riflaydi: «Hozirgi kundagi siyosiy jinoyatlar olomonning to'p-oloni, g'alayoni, talonchiligi, qotilligi kabi holatlar bilan uzviy bog'langan»⁵.

Sankt-Peterburg desantchilari 1906–1908 yillarda sosial-inqilobchilar (eserlar) bilan mahalliy taraqqiyparvarlar o'rtasidagi ittifoqni parchalash uchun astoydil urinishdi. Eserlarning yashirin matbuotidagi maqolalarda yozilgan fikrlar xavfli edi. «Hammaga ma'lum, – deb yozgan edi eserlarning «Molot» gazetasi, – xususiy tashabbusga yo'l ochilgach, tuzemeslarning ziyoli kuchlari o'z bilimlari bilan ona yurtlariga xizmat qilmoqchi bo'ldilar, jo'shqin inqilob tufayli uyg'ongan rus jamiyati boshidan kechirayotgan jarayonga ularni jalb qilmoqchi bo'lishdi, ammo ularning bu istagi boshidanoq

¹ O'RMDA.461-TF, 1-ro'yxat, 1988-ish, 140-bet.

² O'RMDA, 1-TF, 31-ro'yxat, 367-ish, 12-bet.

³ O'sha joyda.

⁴ O'RMDA, 1-TF, 31-ro'yxat, 367-ish, 12-bet.

⁵ O'sha hujjat, 13-bet.

bo'g'ib tashlandi. Hokimi mutlaq zolimning bir dastxati bilan tuzemeslarning taraqqiyparvar madaniy gazetolari «Taraqqiy», «Xurshid», «Osiyo» yopib qo'yildi. Hozirgi kunda, har bir davlatning istiqboli uning madaniyati darajasiga bog'liq bo'lgan yigirmanchi asrda, o'z xududida o'nlab G'arbiy Ovrupo davlatlari bemalol sig'adigan besh viloyatdan iborat Turkistonda, mahalliy aholi 90 foizni tashkil etuvchi o'lkada mahalliy tilda chiquvchi bironta ham xususiy gazeta yo'q, aholi ataylab zo'rlik ila jaholatda saqlanmoqda, chunki rus gazetolari ularga yetib bormaydi. Rus vatikani umuman ma'rifatni yoqtirmaydi va har bir ilg'or organda o'zining ashaddiy dushmanini ko'radi. Atigi ikki yil davomida podsho gumashtalari tomon «Russkiy Turkestan», «Turkestan», «Vperiyod», «Fergana», «Samarqand», «Noviy Samarkand», «Rabotnik», «Tashkentskiy kurer», «Turkestanskaya jizn» gazetalarining yopilgani buning yaqqol dalilidir¹. Bu maqolada nomlari eslatilgan «Taraqqiy», «Xurshid», «Osiyo» kabi gazetalar desantchilarni g'oyat qiziqtirdi.

Toshkent eski shahar polimeysteri podpolkovnik N.N.Karaulshchikov «Tuzem aholi o'rtasidagi ozodlik harakati» mavzusida yozgan ma'ruzanomasida so'nggi vaqtlarda yerli aholi ancha dadillashib ijtimoiy hayotga uyg'onganliklari va bu sohada ilg'or ziyolilar minbariga aylangan «Taraqqiy» gazetasi salmoqli ta'sir ko'rsatishini alohida uqtirib o'tgani bejiz emas. Shuning uchun ham desant rahbari alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi Vasilev o'zining dastlabki faoliyatini o'zbek ziyolilari – tarakqiyparvarlarning rus inqilobiy firqalari bilan aloqasini aniqlashdan boshladi. U Toshkent shahar hokimidan jadidlar yetakchilari va ularning matbuot nashrlari haqida ma'lumot talab qildi. «Menga shuni xabar qilishingizni iltimos qilamanki, – deb yozgan edi Vasilev, – 1907 yilda Toshkentda sarta tilida «Xurshid» sarlavhasi ostida gazeta chiqqanmi? Kim uning maharriri bo'lgan, qachon chiqa boshlagan, qanday sabablarga ko'ra to'xtatilgan, uning yo'nalishi qanday bo'lgan, qanday bosmaxonada chiqqan, necha nusxada tarqatilgan?» Toshkent shahar boshlig'i tezkorlik bilan unga javob yo'llagan: «Xurshid» gazetasi sarta tilida 1907 yilda chiqqan.

Muharriri Shayxovandtahir dahasining Darxon mahallasida istiqomat qiluvchi Munavvarqori Abdurashidxonov, yordamchisi Fansurollohbek Xudoyorxonov va kotibi «Padarkush» mahallasida yashovchi sarta mulla Muhammad Rahimhoji Muhiddinxo'jaev.

¹ Turkistonda rus davlatchiligini o'rnatishning qisqacha ocherki. «Molot» gazetasi, 1908 yil 25 dekabr soni.

Gazeta 6–7 oy mobaynida chiqib, xukumatga qarshi maqolalari hamda xalqqa qaratilgan xitobnomalari uchun yopilgan. Gazeta juda so‘l yo‘nalishda bo‘lib, obunachilari soni 300 dan ziyod edi»¹.

Podpolkovnik N.Vasilev taraqqiyparvarlar chiqargan gazetalar xususida barcha ma‘lumotlarni to‘plagach, ularda bosilgan maqolalar mavzulari va mazmunlari xususida Turkiston general-gubernatori mahkamasi qoshidagi ichki va tashqi razvedka komissiyasi, maxsus bo‘lim va TRMB mutaxassislaridan batafsil axborot to‘pladi. Ularni chuqur tahlil qilgan holda bu gazetalar ommaviy targ‘ibotchi va tashviqotchi bo‘lishidan tashqari ommaviy tashkilotchi xizmatlarini bajarganini aniqladi. Bu gazetalar o‘lkada yashirin ish ko‘ruvchi taraqqiyparvarlar firqasini shakllantirmoqda. Ulardagi materiallar esa bu firqaning strategiyasi va taktikasini aniqlashda o‘ziga xos ko‘zgu vazifasini o‘taydi.

Maxfiy polisiya va siyosiy razvedka birgalikda umumxulosaga kelishdi. Turkiston o‘lkasi mahalliy aholisining fikrlovchi qatlami Rossiyadagi siyosiy voqealarga befarq emas, aksincha sergaklik bilan qarab ulardan tegishli xulosalar chiqarmoqda. Tarakkiyparvarlarning yetakchilaridan biri – iste‘fodagi genenal-mayor Jo‘rabek Qalandarov maslaqdoshlari bilan 1906 yil 28 yanvardagi majlisida ochiqdan-ochiq Rossiyadagi inqilobiy voqealar va imperiyadagi mushkul vaziyatdan

Turkiston mustaqilligi yo‘lida foydalanish zarurligini aytgani bejiz emas. Rossiyadagi ayrim siyosiy kuchlar metropoliyadagi ta‘sir-larini kuchaytirish uchun Turkistonda tartibsizliklarni chiqarib xukumatning asosiy kuchlarini chalg‘itish niyatida ish ko‘rishmoqda. Ular ma‘muriyatga qarshi Turkistondagi harakat nafaqat amaldorlarga va balki butun ruslarga qarshi harakatga aylanib ketishini bilmaydilar.

Turkistondagi taraqqiyparvarlarning mayor Lyakost yozganidek «milliy dasturi» nimalarni o‘z ichiga olgani va qanday g‘oyalarni o‘zi ilgari surgani xususida agentura axborotlarida uzuq-yuluq ma‘lumotlar uchrar edi.

Podpolkovnik N.Vasilev va saroy maslahatchisi L.Kvisinskiy ularni umumlashtirib o‘z fikrlarini Sankt-Peterburgga yo‘llashdi. Turkiston general-gubernatori, kavaleriya generali A.Samsonov ham imperatorga o‘z taqdimnomasini yubordi.

Sankt-Peterburg doiralarida ular jiddiy tashvish uyg‘otdi. Chunki desantchilar bilan general-gubernator fikrlari juda o‘xshash bo‘lib ikkisida ham Turkiston aholisi ongida katta to‘ntarilish yuz bergani va uning oqibatlari imperiya birligi uchun xatarli ekani uqtirilgan edi.

¹ O‘RMDA, 1-TF, 31-ro‘yxat, 567-ish, 34-bet.

Taraqqiyparvarlar kurash strategiyasining g'oyaviy-nazariy asoslari

1908 yili Turkistonga Rossiya imperatorining yaqin mulozimi, senator, graf K.K.Palen boshchiligida katta komissiya yuborilishi mustamlakachilarning o'lkadagi vaziyatdan qanday cho'chiganlaridan darak berardi. Komissiyaning asosiy maqsadi Turkistondagi har qanday ozodlik harakatlarini tag-tomiri bilan yo'qotish, o'lkani doimiy mustamlaka asoratida saqlab turish va «yosh sartlar» sifatida faoliyat yuritayotgan taraqqiyparvarlar faoliyatini nazoratda ushlab turish uchun qanday choralar ko'rish edi.

Sankt-Peterburgning Turkistonga tashlagan bu ikkinchi desantida maxfiy polisiya, siyosiy razvedka xodimlaridan tashqari iqtisod, adliya, maorif va madaniyat sohasidagi bilimdon mutaxassislar ham bo'lib ular ikki yil 1908–1910 yillar davomida o'lkani atroficha taftish qilishdi. Ular to'plagan ulkan materiallar tahlil qilinib hisobot tarzida bir tizimga keltirildi. Senator gofmeystr graf Palen ana shu hisobotlardagi muhim yakuniy xulosalarni o'rganib, ulardagi eng muhim g'oyalar, takliflar va mulohazalar umumlashtirilgan taqdimnomani Rossiya imperatori Nikolay P diqqatiga havola qildi. Bu taqdimnoma Senat bosmaxonasida alohida kitob holda chop etildi¹.

Taqdimnoma Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgan kunidan boshlab (1867 yil) 1910 yilgacha bo'lib o'tgan barcha katta-kichik voqealarning keng manzarasini chizib beradi. O'lkani boshqargan general-gubernatorlar viloyatlar, uezdlarni boshqargan amaldorlar faoliyatini tahlil qiladi. Mahalliy hokimiyat shaxsiy tarkibini baholaydi. Polisiya, sud organlariga ta'rif beradi. O'lkani siyosiy tuzumining barcha jabhalari faoliyatiga imperiya hukmron doiralari manfaatlarini nuqtai nazaridan baho beradi.

Taqdimnomada Turkiston xalqlari maorifi, madaniyati va aholining barcha tabaqalari o'rtasidagi kayfiyat, mavjud tuzumga munosabat va yoshlarning dunyoqarashiga alohida e'tibor beriladi. Shu o'rinda komissiya talabi bilan yozilgan Toshkent eski shahar polisiya boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik N.N.Karaulshchikovning «Tuzem aholi o'rtasida ozodlik harakati» deb nomlangan axborot diqqatga sazovor. Podpolkovnik N.Karaulshchikov taraqqiypar-

¹ Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчета, произведенной сенатором гофмейстром графом К.К.Паленом ревизии Туркестанского края в 1908–1910 гг., Сенатская типография, СПб, 1910.

varlarning kurash strategiyasiga oid qiziq mulohazalar yuritadi. Uning fikricha, Rossiyadagi inqilobiy harakat ta'sirida mahalliy xalq ongidagi «kemmak» to'zib ketgan. Bu o'rinda «Taraqqiy» gazetasi-ning roli katta bo'lgan. Gazetada bosilgan maqola va xabarlarining mazmuni va ilgari surgan g'oyalari xususida fikr yuritgan jandarm ofiseri taraqqiyparvar ilg'or g'oyalarni keng xalq o'rtasida tarqatish, dini islomning mustamlakachilar tomonidan kamsitilayotganiga qarshi kurashish, milliy mustaqillikka erishish yo'llarini izlashni o'z oldilariga qo'yishganini ta'kidlaydi. Taraqqiyparvarlar strategiyasi maorifni isloh qilishga qaratilganini uqtiradi.

Bu so'rovnomalarga javoblar yangi usul maktablari tarixi bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar beradi. Farg'onadan kelgan javobda bunday maktablar dastlab ruhsatsiz va yashirin suratda ochilgani ma'lum qilinadi. Shu bilan birga bu maktablar mabodo yopilsa mahalliy aholi orasida keskin norozilik kelib chiqishi mumkinligi bildiriladi. Farg'ona viloyat xalq o'quv yurtlari nozirining fikricha, yangi usul maktablarini yopishga qonuniy asos bo'lmaganligi sababli ular uchun alohida dastur va qonun ishlab chiqishni taklif qiladi. Ko'p maktablar 10-12 yil avval mahalliy hokimiyatlar tomonidan va qozilar roziligi bilan ochilgan. Mahalliy tilda yozish, o'qish, arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik, ilohiy fanlaridan dars berilgan. Maktablarda mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan darsliklar o'qitilgan. Yangi usul maktablaridagi o'qituvchilarning ko'pchiligi madrasani bitirganlardir. Darslar o'quv jadvali asosida, senzura ko'rigidan o'tgan darsliklar bo'yicha olib borilgan. O'quvchilar soni 50 nafardan 145 nafargacha yetgan.

Yangi usul maktablari o'qituvchilari orasida tatar millatiga mansublar faol ish olib borishadi. Holbuki, qoidaga ko'ra muallimlar asosan tub joy aholisi vakillari bo'lishi lozim.

Agentura ma'lumotlariga ko'ra Ismoilbek Gasprinskiy millatiga mansub ziyolilar mahalliy yoshlarni o'z mafkurasiga tortish yo'lida samarali faoliyat ko'rsatmokeda.

Agentura axborotlarida andijonlik millioner Mirkomil Mirmo'minboev ham o'z hisobidan yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborayotgani xabar qilingani ham diqqatga sazovordir.

Desantchilar taraqqiyparvarlar dasturida ilg'or yo'nalishdagi gazetalar chiqarish va ularni omma o'rtasida tarqatishda jonkuyarlik ko'rsatayotgan shaxslar xususida keng ma'lumotlar to'plashdi.

Graf K.K.Palening taftish komissiyasi, maxfiy polisiya va siyosiy razvedka o'lkadagi mavjud tuzum uchun sosial-demokratlar, kadetlar va eserlar emas, balki mayor Lyakost yozgan tarakqiyparvar-

lar ekanligiga to'la ishonch hosil qilishdi. Ularni zararsizlantirish choralari ko'ra boshlashdi.

Senator K.K.Palen komissiyasining dastlabki taklif-tavsiyalari Sankt-Peterburgdagi oliy amaldorlar kengashida (1911 y.) ko'rib chiqildi. Uning taftish materiallari va imperator hukmiga havola etgan takdimnomasida chorizm idorasini mustahkamlash, «Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy-polisiya amaldorlariga o'zlariga qarashli aholiga uncha ahamiyatli bo'lmagan xatti-harakatlari uchun qo'llanadigan jazo berish xuquqlarini yanada kengaytirish»¹ taklifi muhokama qilindi. Senator Turkiston shaharlarida mustaqil polisiya boshqarmalari, Toshkentda ober-polismeyster lavozimini joriy etish va o'lkadagi mirshab-polisiya xizmatchilari sonini ko'paytirishni ham taklif qildi. U Turkistonda inqilobiy harakatga rahna solish uchun va «Ovrupo Rossiyasidan yopirilib kelayotgan proletariat va agrar g'alayonlar yuz bergan gubernalardan ko'chib kelayotgan dehqonlarning zararli ta'sirini» kesish uchun Turkiston general-gubernatorligida tuman polisiyasi mahkamasini tuzish g'oyasini ilgari surdi². Graf Palenning fikrlari imperiya Vazirlar Kengashida Turkiston o'lkasi boshqaruv idorasini tubdan o'zgartirish bo'yicha Vazirlar Kengashi a'zosi, Davlat nazoratchisi P.Xaritonov raisligidagi maxsus Kengashda ham muhokama etildi. Kengash ishiga Turkiston general-gubernatori Samsonovning imperatorga 1909 yil bo'yicha yo'llagan axborotnomasi va senator Palenning taftishi yakunlari asos qilib olindi³. Kengash Turkiston general-gubernatorining barcha talablarini asosli deb topdi. Turkistonga oid barcha tadbirlar uning roziligisiz amalga oshirilmasligi kerakligini tasdiqladi. Imperator saroyi, moliya, adliya sohasidan tashqari, barcha vazirliklar idoralari boshqarishda unga imperiya vaziri vakolatlari berildi. Metropoliya hukumati o'z siyosatini faqat shu birgina shaxs Turkiston general-gubernatori orqali amalga oshiradigan bo'ldi. General-gubernatorga ikkinchi yordamchi lavozimi ham berildi. Kengash ishlab chiqqan Turkiston o'lkasi idorasiga oid takliflar 1912 yil 20 noyabrda Vazirlar Kengashida muhokama etilib, ma'qullandi⁴.

Imperiya hukmdor doiralari Turkiston o'lkasining rus va tub joy aholisi uchun maxsus siyosat dasturini ishlab chiqdi. Rus aholisi o'rtasida inqilob harakatni to'xtatish va Turkiston xalqlari o'rtasida

¹ *Palen K.K.* Taqdimnoma, 42-bet.

² *Palen K.K.* Taqdimnoma, 39-bet.

³ O'RMDA, 1-TF, 12-ro'yxat, 1674-ish, 105-varaq.

⁴ O'RMDA, 1-TF, 12-ro'yxat, 1674-ish. PO-varaq.

milliy-ozodlik harakatining barcha ko'inishlarini bo'g'ib tashlashga oid bir qator tavsiyalar berildi.

Alohida jandarmlar korpusi shtabi boshlig'i general shtab general-leytenant Gerselman esa temir yo'l ishchilari ustidan nazoratni kuchaytirish bilan bir qatorda ularning atrofidagi yerlarda paydo bo'luvchi har qanday shaxslarni nazoratiga olish to'g'risida maxfiy ko'rsatma yo'lladi. Bunday o'rgimchak to'rlari bilan qurshab olingan Turkistonda markaz ko'rsatmalari qanday amalga oshirilgani haqida jumladan 1912 yil Toshkentda bo'lgan voqeani sosial-demokrat P.F.Saxarova (1890–1969) o'z esdaliklarida shunday bayon qilgan: «Nuqul o'zbeklar istiqomat qiluvchi guvala uylardan iborat eski shaharning yangi shaharga yaqin joyidagi uylardan birida joylashdik. Biz temir yo'lchilar bilan aloqa o'rnatishga intildik. Shunda o'ylab qoldik. O'zbeklar o'rtasida inqilobiy ruhdagi tashkilotlar bormikan? Nahotki Turkiston noibi yaratgan qullik istibdodiga qarshi ular safida inqilobiy tashkilot bo'lmasa?». Saxarova shu maqsadda o'zbeklar bilan bir-ikki bor suhbatlashganida Kamolov degan odam o'zbeklarda ham taraqqiyparvar kishilar borligini, er-xotin Saxarovlarni ular bilan tanishtirishini aytgan. Shundan so'ng, ko'p o'tmay, ular qamoqqa olindi. Kamolov TRMB ayg'oqchisi ekan¹. Shu faktning o'zi ham rus maxfiy polisiyasi va razvedkasi musulmon aholisi o'rtasida ham keng josuslik tarmog'ini yoyganidan dalolat beradi.

Peterburgda ishlangan dastur bo'yicha rus mustamlakachilari-ning maxfiy siyosiy idoralari izchil ishlab, Turkiston musulmonlari ongida jiddiy to'ntarish yuz berganini va milliy-ozodlik kurashi kurtak yozib bu holat jadidlar siymosida gavalanganini yaxshi payqashgan. Ular general-gubernatorning maxsus so'rov anketasi bo'yicha mahalliy aholi kayfiyati dunyoqarashi, rus hokimiyatiga va tuzumiga munosabati, milliy mustaqillikka intilishi hollarini chuqur o'rganishgan. TRMB o'zbek, qozoq, qirgiz, turkman, tojik yoshlari-ning dunyoqarashi va xatti-harakatlaridan xabardor bo'lish uchun ularning safida o'z odamlariga ega bo'lgani hujjatlardan ma'lum².

Mustamlakachilar va taraqqiyparvarlarning o'zaro kurashi bi-rinchi jahon urushi yillarida keskin tus oldi.

¹ Вопросы истории. 1977, № 1, стр. 125.

² H.To'ychieva. «XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining milliy o'zligini anglash va istiqol uchun kurashga tayyorlashda o'lka taraqqiyparvarlarining roli». Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertasiya. Toshkent, 2010, 70–75-betlar.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, XX asr boshlaridayoq milliy-ozodlik bayrog'ini baland ko'tarib, milliy kuchlar birligini ta'minlash borasida salmoqli faoliyat ko'rsata boshlagan Turkiston jadidlari jahon jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb qildi. 1906 yilning bahorida Fransiya Respublikasi bosh shtabi ikkinchi byurosi (harbiy razvedka) topshirig'i bilan mayor Lyakost ikki yil davomida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan yaqindan tanishdi. U o'zining kuzatishlarini hisobot tarzida «Komita de Asiya Fransays» nomli jurnalda chop etadi. Maqola Evropada katta qiziqish uyg'otdi. Bu maqolada Turkiston general-gubernatorligi hududidagi ijtimoiy-siyosiy kuchlar va partiyalar faoliyati sharhlab berilgan edi. E'tiborli tomoni shundaki, fransuz razvedkachisining o'tkir nigohi bilan Turkistonda qaysi partiya, qaysi siyosiy oqim kuchli ekani shunday aniqlab berildiki, bu hol rus siyosiy polisiyasini g'oyat jiddiy tashvishga soldi.

Mayor Lyakost Turkiston o'lkasidagi eng e'tiborli va kelajagi porloq tashkilot sifatida sosial-demokratlar (bolshevik va mensheviklar), yoki socialist-inqilobchilar (so'l va o'ng eserlar), yo kadet va liberallar emas, balki yosh sartlar¹ degan xulosaga kelgan edi. Razvedkachi Turkistonda jadidlar ta'siri kuchli bo'lgan o'z firqasiga ega ekani va u 1906 yilning yanvarida Sankt-Peterburgga, Umumrusiya musulmonlarining qurultoyiga vakil yuborganini ta'kidlab, bu firqa huddi Qozon tatarlari kabi o'zining milliy dasturiga egaligi va rus istibdodiga jiddiy zarba berishi mumkinligiga ishora qilgan edi.

Rossiyaning Turkistondagi maxfiy polisiya idorasi ham jadidlarni o'zbek savdo-sanoat ahli qo'llab-quvvatlashi va ular shakllanayotgan yosh avlodga yomon ta'sir ko'rsatayotganidan ogoxlantirib, markazni jadidlar bilan jiddiy hisoblashishga chaqirgan edi. 1916 yilgi milliy-ozodlik qo'zg'aloni va 1917 yilgi Rossiya fevral inqilobining o'lkadagi jadidchilik harakatining yanada keng avj olishida va jadidlar faoliyatida keskin sifat o'zgarishi yuz berishida o'rni va roli katta bo'ldi. Jadidlarning ma'rifiy-mafkuraviy jabhadagi kurashi aniq ifodalangan siyosiy kurash tusini oldi va bu harakat sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi².

Jadidchilik harakatining asosiy qanoti sifatida jadid adabiyoti ham yuzaga kelib, mukammal g'oyaviy tusga kiradi. Bu bilan ham nasrda, ham nazmda ruhan yangilanish, qoloqlik va jaholatdan

¹ Rasmiy idoralar jadidlarni yosh turklarga qiyoslab «Yosh sartlar» deb atashgan.

² Bu haqda ikkinchi kitobda batafsil hikoya qilinadi.

qutulish g'oyasini kuylash, rus istilosiga qarshi kurash, ma'rifat va hurriyatga erishish, istiqloolni qo'lga kiritish kayfiyati bilan sug'orilgan yangi bir adabiy oqim vujudga keldi. Buxoroda Ahmadjon maxdum, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Abdulvohid Rafiy mahdum «Tarbiyayi atfol» nomli yashirin jamiyatni asosladilar. Bu jamiyat imperializmga, mustamlakachilikka, jaholatga qarshi kurash boshladi.

«Tarbiyayi atfol» jamiyati Turkiyada tahsil ko'rayotgan talabalarga ko'mak-yordam ko'rsatish maqsadida Istanbulda sho'ba tashkil etdi. Uning rahbariyati Sodiq Ashur o'g'li, Abdurahmon va Abdurauf Fitratlar edilar.

Buxoro jadidlarining yana bir tarmog'i «Turon nashri maorif» jamiyati edi. Uning tashkilotchilari A. Fitrat, Muqim Boyjon, Abdulaziz, Ahmadjon mahdum, Olimjon Idrislar bo'lishgan. Bu jamiyat qisqa vaqt ichida Turkiyaga talabalar jo'natdilar. Ular tez orada ahli ilm bo'lib yetishdilar. Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshkentda Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Qo'qonda Ashurali, Orenburgda Ahmad Boytursun, Miryoqub Dulat, Andijonda Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari edilar. Asriy qoloqlik va jaholatga qarshi qaratilgan kurash adabiyotda ham o'z ifodasini topgan edi.

Xullas, butun bir jadid adabiyotchiligi yuzaga keldi. XX asrdagi Turkiston milliy adabiyotida Rossiya zulmi, istilosi va unga qarshi kurash juda ajoyib va o'ziga xos tarzda ifodalandi. Birinchi jahon urushi yillaridagi jadid adabiyotida turkchilik va uning g'oyasi asosiy mavzu va mafkura bo'lib qoldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin shu adabiy oqimning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan edilar.

Sadriddin Ayniyning jaholatga qarshi kurash olib borishga da'vat qilingan she'rlari mahalliy aholi orasida keng tarqaldi:

*Maktabsizlik qildi bizni qip-yalang'och,
Maktabsizlik bizni etdi talon-toroj,
Maktabsizlik Turon elin o'ldirdi och,
Ko'zingni och, bu xo'rlikdan maktabga qoch.
Bilim qochdi qo'limizdan besh yuz yildir,
Unutmagil Ulug'beklar bizning eldir,
Turon eli, o'zbek tili bizning tildir,
Turon o'g'li, ekaningni tezroq bildir!*

Jadid shoir va adiblar mahalliy gazeta va jurnallarda istiqlol g'oyasi bilan sug'orilgan she'r va hikoyalarni muntazam e'lon qilib bordilar.

Turkiston jadidlarining sardori Mahmudxuja Behbudiy tashkil etgan va o'zi muharrirlik qilgan «Oyina» jurnali o'lka xalqiga istiqloq ruhini singdirishda muhim o'rin tutdi.

Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Andijondagi jadid tashkilotlari, bir tomondan, istiqloq harakatlarini olib bordilar, ikkinchi tomondan esa minglarcha jildlik asarlarga ega bo'lgan kutubxonalar tashkil etdilar.

Turkistonning buyuk shoiri, Andijonda jadidchilikka asos solgan Cho'lpon o'z yurtida «Turon kutubxonasi»ni tashkil qilgan. Cho'lponning ochiq ifodalangan, go'zal turkcha, toza uslub bilan bitilgan da'vatkor, isyonkor she'rlarida Rossiya mustamlakachiligini qoralovchi, Turkiston istiqloqini madh etuvchi she'rlari o'lka aholisining milliy his-tuyg'usini, milliy o'zligini uyg'otgan:

*Ey, sen meni haqir ko'rgan, tuban ko'rgan afandi,
Ey, ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan,
Ey, bo'ynimga kishan solib halokatga sudragan,
Ko'zlarimni zaharlatib o'ynamagil, bas endi...
Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzilur,
Tomirimda qo'zg'olishning vahshiy qoni ko'pirdi.
Eski fikr, an'analar endi butkul uzildi.
Yo bitarman, yoki sening saltanating buzilur.
Ey, sen meni qul o'rnida ishlatuvchi afandi,
Titra, qo'rqqim bog'liq qo'lin bosh ko'targan kuch indi.*

Mulohaza uchun axborot

«Azizim Ozodjon!

Cho'lpon akaning Andijonda inqilobga dovur ko'rsatgan ijtimoiy, siyosiy faoliyati haqidagi materialni iltimosingizga ko'ra, Sizga yubordim. Bu tarixiy, haqqoniy material mening qo'limga yaqinda tushdi va meni qattiq hayratga va hayajonga soldi.

Bu tarixiy hujjat menga Cho'lpon aka bilan mening qarindoshlarim va yaqinlarim o'rtalarida bo'lgan mustahkam, uzilmas do'stlik rishtalarining siru asrorini ochib berdi. Andijonda chorizmga qarshi yashirin siyosiy jamiyat «gap» bo'lib, uning faol tashkilotchilaridan biri Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon) ekan. Tazkirada nomi shariflari zikr etilgan taraqqiyparvar zotlardan boshqa bu «gap» degan nom bilan ish ko'rgan jamiyatga yana bir qancha ziyolilar, chunonchi: mening qarindoshlarim – pochchalarim Muhammadxon hoji, Hakimjon (Mavruf Hoshimovning otasi), Olimjon, Ya'qub Sarkarovlar va ularning birgalikda rusko-tuzem maktabida o'qigan

qadr don do'stlari Salohiddin Ashuraliev... Qalandar Devonaboev... Rahmatilla Sultonov (Cho'lpon bu kishi vafot etganda unga bag'ishlab marsiya yozgan edi)...

Demak, shoir Cho'lpon faqat zulmga qarshi she'r yozish bilan cheklanmagan, kishanlarni, baland dorlarni, sovuq va uzoq Sibir azoblarini ham pisand qilmagan mard, fidokor shoir ekan. Bino-barin, Cho'lpon aka haqidagi kitobingizga uning yigitlik chog'ida Andijonda ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga 4–5 sahifa bag'ishlasangiz g'oyatda zo'r savob ish qilgan bo'larmidingiz... yana o'zingiz bilasiz...

Fikr-mulohazangizni aytursiz, degan umiddaman.

Kamoli ehtirom bilan:
Sizning Komil Yashin».

Mazkur maktubni o'qib chiqqan har bir adabiyot ixlosmandi hayajonga tushmasdan qolmaydi. Chunki unda biz uchun g'oyatda qimmatli, g'oyatda muhim ma'lumotlar bor – buni qarangki, Cho'lpon 1914–1915 yillardayoq, ya'ni 17–18 yasharligidan boshlab mustabid chorizm zulmiga qarshi kurashga qo'shilgan, uning tevaragida esa o'sha davrdagi Andijondagi yetuk ziyolilardan bir qanchasi bo'lgan ekan¹.

«... Turkistonda tanishgan shaxslar orasida Nazir To'raqulov bilan Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon) menga alohida yaqin do'st bo'ldilar... keyinroq o'zbeklarning eng buyuk shoiriga aylangan Cho'lpon o'sha vaqtda 15 yoshlarda bo'lgan bo'lsa kerak. Menga, tarix kitobimni o'qib, ilhomlanganligi va fikrdoshlik qilishimni aytib, xat yozdi. Andijonga, uylariga mehmonga taklif qildi... Buyuk o'zbek shoirining o'zi bilan ham, uning mehmondo'st otasi bilan ham tanishib oldik... Sulaymon aka bilan xayrlashdik, u kishining menga qilgan sovg'alarini onamga olib bordim...»².

Cho'lpon 1914 yildan Qo'qonda «Sadoi Farg'ona» nomi bilan chiqayotgan jadid gazetasining Andijondagi obunachi va e'lon qabul qiladigan vakili bo'lganligi gazeta sahifalarida qayd etilgan. Cho'lpon bilan birmuncha vaqt birga ishlashgan Ahmad Zakiy Validiyning guvohlik berishicha, bo'lgusi shoir 1913 yildayoq Turk tarixiga doir asarlarni o'qib chiqqan, so'ngra «Turk yurdi» va «Sayra» kabi turkchilik nashrlarini kuzatar ekan»³.

¹ Q a r a n g: Ozod Sharafuddinov. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1999 yil, 25 iyun. № 26 (3513).

² *Zakiy Validiy To'g'on*. Xotiralar. «Sharq yulduzi», 1993 yil, 5–6-sonlari.

³ O'sha joyda.

O'zbek ma'rifatchiligining to'ng'ich bo'g'iniga mansub mashhur murabbiy va jurnalist Mo'minjon Muhammadjonov 1916 yilda Cho'lpon bilan ilk bor uchrashgani xususida shunday yozgan: «Abdulhamid har kuni xususiy ravishda ruscha o'qir edi. Tatariston, Ozarbayjon, Hindistonda chiqadigan hamma gazet va jurnallarga mushitariy bo'lib, ruscha gazetalarni ham o'qib turar edi»¹.

Andijondagi «Taraqqiyparvarlar», «Padarkushchilar», «Gap»-chilar nomi ostida faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy jamiyatga mansub yoshlar safida Usmonxon Eshonxo'ja o'g'li, Fozilbek Otabek qozi o'g'li, Akbar O'rozalievlar ham bo'lgan:

Usmonxon Eshonxo'ja o'g'li (1899–1937) Andijonning yangi shahridagi rus-tuzem maktabini, oliy boshlang'ich bilim yurtini, erlar gimnaziyasini bitirgan, muallimlik qilgan, «Turkestanskiy golos» gazetasida ishlagan. «Bu gazeta, – deb yozgan Usmonxon keyinchalik, – butun Turkistonda o'zining inqilobiy yo'nalishi jihatidan yagona gazeta edi. Uning muharriri Turkistonda tanilgan socialist-revolyusioner Vadim Chaykin edi»².

Fozilbek Otabek qozi o'g'li (1886–1938). Madrasani, rus-tuzem maktabini bitirgan, faol jadidchi. «Rossiya telegraf agentligi» (ROSTA) Turkiston bo'limi, Andijon sho'basasi mudiri bo'lib xizmat qilgan. O'zbek, ital'yan, fors tillarini bilgan, mohir publisist, tarjimon, olim.

Akbar O'rozaliev (1890–1937) faol taraqqiyparvarlardan. U 1917 yil 24 fevralda Turkiston general-gubernatori A. N. Kuropatkinga yozgan arizasida shunday satrlar bor: «...1914 yilning 6 iyulida Andijon shahrida mahalliy havaskor sart yoshlari tomonidan ko'ngilochar kecha tashkil qilindi. Unda sart tilida Mahmudxo'ja Behbudiy yozgan «Padarkush» nomli p'esa ham qo'yilgan. P'esa o'z mazmuniga ko'ra chuqur ibratli edi. Hozirgi zamon sartlari jamiyatining ma'naviy tushkunligini ochib bergan. Shu kechada to'plangan mablag'ning bir qismi Andijondagi erkaklar progimnaziyasi foydasiga, bir qismi hozirgi urushda halok bo'lganlar foydasiga, qolgan qismi esa ko'ngilochar boshqa muassasalar foydasiga sarflangan. Bu kechani o'tkazish uchun mahalliy rus hukumatining roziligi olingan. Pyesani sevib, uni o'ynaganlardan biri men edim...»³.

¹ Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. Bugungi turk Eli (Turkiston) va yaqin tarixi. 1-jild. Sharqiy va ?arbiy Turkiston. 2-jild. Istanbul, 1981; Quronov Dilmurod. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. T., «O'qituvchi», 1997, 3–5-betlar.

² Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. T., 1964, 130-bet.

³ Shamsutdinov R. Usmonxon Eshonxo'ja o'g'li-istiqlol kurashchisi. «Andijonoma», 1999 yil, 22 iyun.

Jadid maktablari. Taraqqiyparvar o'zbek ziyolilari keng xalq ommasini savodli qilishga, ularni jaholat uyqusidan uyg'otishga intilib, maktablar ochdilar. Birinchi bo'lib (Husaynov mablag'i hisobiga) 1893 yili Samarqandda, 1898 yili Qo'qonda Salohiddin domla tomonidan, o'sha yili To'qmoqda, 1899 yili eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi¹. 1900 yili Buxoroda Jo'raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi. 1903 yili M. Behbudiy o'z mablag'i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Abdul Qodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. 1908 yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911 yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo'lib, ularda 4106 bola o'qigan. Toshkentning o'zida 24 ta bunday maktablarda 1740 bola o'qigan. 1917 yil boshlarida o'lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o'quvchi bo'lgan.

Jadidlarning maktablari istiqlochlilar yetishtiruvchi maskan ekanligini rus ma'muriyati yaxshi angladi. Xususan, mustamlaka ma'muriyati bu harakatga qarshi kuchli raqobatchilik usulini ishga solib rus-tuzem maktablari faoliyatini kuchaytirishga qaror qildi. Bu qaltis vazifaga ishonchli odamni topish o'lka maorifi rahbarlaridan biri S.M. Grameniskiyga topshirildi. U 1-rus-tuzem maktabi o'zbekcha sinflar muallimi, shu maktabni bitirgan, Shayxovandtahir dahasining Baland machit mahallasida istiqomat qiluvchi Saidrasul Saidazizovni rus amaldorlariga maqbul shaxs deb topdi. Taniqli rus olimlari V.V.Bartold va A.N.Samoylovichlar bilan yaqin aloqada bo'lgan, ruschani yaxshi tushunib diplomatik qobiliyati kuchli bo'lgan Saidrasul domla Toshkentning yetuk ziyolilaridan biri edi. Uning uyiga ruslardan tashqari, chet ellik sharqshunoslar ham kelib-ketib turgani hamda uning bilimi va zakovatiga tan berganlari mustamlakachi amaldorlarga ma'lum edi. Saidrasul domla rus-tuzem maktablari uchun tayyorlagan darslikda ko'pgina rus mualliflari asarlaridan tarjimalar kiritgani general-gubernatorga ma'qul bo'ldi va kitob nashrga tavsiya qilindi. Yangi usul maktablaridan namuna olgan tarzda qiroat usuli qo'llanilgan «Ustodi avval» darsligi shu tariqa 1902 yilda dunyo yuzini ko'rди va keyin bir necha bor qayta nashr etildi. Saidrasul Saidazizov taniqli jurnalist, shoir ham edi.

¹ *Temur Xo'ja Usmonjon o'g'li.* Turkistonda jadid maktablari. – «Hur Turkiston uchun». Anqara, 1976 yil, 15 may.

Akademik Bartold uni Turkiston o'lkasidagi «o'quv-tarbiya ishlariga isloh kirita olgan ilg'or ziyoliy» deb atagan. U Rossiyaga sayohat qilib, «Turkiston viloyati gazetida»da «Mahalliy olimning 1910 yilda Moskva va Peterburgga qilgan ma'rifiy safari» sarlavhasi ostida turkum maqolalarni e'lon qilgan.

Mustamlaka ma'muriyati rus tilini o'rganishni targ'ib qilsa ham ana shu tilni yaxshi o'zlashtirgan va ruslar bilan yaqin aloqada bo'lgan mahalliy millat vakillariga shubha hamda hadik bilan qaragan. Shunday odamlardan biri o'zbek ziyolilari o'rtasida boobro' va e'tiborli sobiq Kitob begi Jo'rabek Qalandar qori o'g'li edi. 1868 yilgacha ruslar bilan jang qilgan, xiyonat tufayli asir olinganidan so'ng esa rus armiyasiga xizmatga o'tishga majbur bo'lgan Jo'rabekka 1901 yili general-mayor unvoni berilgan. Millat fojiasining guvohi, mustamlaka istibdodining barcha qabohatlarini qariyb 30 yil general-gubernator mahkamasidagi tarjimonlikda ko'rgan-bilgan Jo'rabek iste'foga chiqqanidan keyin mavjud tuzum muxoliflari rahnamalaridan biriga aylangan. 1902 yili akademik V.V.Bartold uning uyida bo'lganida iste'fodagi rus armiyasi generali Jo'rabek taniqli olimga o'zining Sharq qo'lyozmalari majmu-ini ko'rsatib, uni lol qoldirgan edi¹.

O'zbek jadidlari Turkiston xalq maorifiga jiddiy e'tibor berganlar. Bu sohada taniqli mudarris va ma'rifatparvar Munavvar qori Abdurashidxonovning xizmati kattadir. Munavvar qori 1909 yilda maslakdosh do'stlari Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadulaxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov va boshqalar bilan hamkorlikda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya»ni tashkil qildi. Munavvar qori va safdoshlari jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilar, o'quvchilarga yordam ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shug'ullanadi. Munavvar qori guruhiga mansub keksa san'atkor Abdurahmon Akbarov o'z xotirasida shunday voqeani eslaydi: «Guruhdagi jadidlarning bosh rahbari bo'lgan Munavvar qori bir kuni to'daning majlisiga kelib: «Ziyoli yoshlardan bir nechtasini Germaniyaga yuborib o'qitish kerak», deb uzoq nutq so'zladı. Shundan keyin to'daning rahbarlaridan 7–8 kishi Orifxo'jaboyning yangi shahardagi hovlisida shu haqda

¹ Akademik V. V. Bartold «Jo'rabekka tegishli qo'lyozmalar yig'indisi» nomli asar yaratgan. Undagi «Jome' ut-tavorix» asarini «O'rta asrda na Osiyodagi, va Yevropadagi biror xalqda uchramaydigan ulkan tarix qomusi» deb baholagan. Q a r a n g: Bartold V.V. «Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya». Soch. Tom.1. M.. 1968, 24-bet.

birinchi marta majlis o'tkazdilar. Oradan chamasi 15 kunlar keyin Kattaxo'ja Xo'jaevning uyida ikkinchi marta katta yig'in bo'ldi. Bu majlisda Toshkentning eng mashhur boyonlari yig'ildilar. Jumladan, Orifxo'jaboy, Saidkarimboy, Komiljonboy choyfurush, Asil oqsoqol, Boqijonboy va boshqalar. Bu yerda to'planganlarning soni 50–60 taga yetardi. Buni tashkil qilishda ko'proq tashabbus ko'rsatgan Munavvar qori bilan Ilhom samovarchi va Murodxo'ja Solixo'ja o'g'illari edi. Hamma yig'ilib bo'lgandan keyin majlis ochilib, birinchi bo'lib Munavvar qori so'zga chiqdi. Munavvar qori: «O'zbek ziyoliy bolalarini Germaniyaga yuborib o'qitishga juda muhtojmiz. Bolalar o'qub, ilm tahsil olib kelsalar, millatiga katta xizmat qilaoladilar», degan so'zlar bilan uzoq nutq so'zladı. Uning ketidan, Munavvar qorining so'zini quvvatlab, Samig' qori chiqib so'zladı. Oxirda savollar tushdi: kim, necha kishini yuboramiz, deb Samig' qori «boradigan kishilarning ro'yxati bor», deb domla Murodxo'ja Solixo'ja o'g'lidani ro'yxatni o'qib berishni so'radi... Germaniyaga o'qib kelish uchun boruvchilar shular ekan:

1. Shayxovandtahir dahasidan Abdulvahob Murodiy. Besh-yog'och dahasidan ham ikki kishi: 1-si Chaqar mahallalik Muhammadjonov, 2-si Yalanqiri mahallalik A'zam soatsoz o'g'li, jami 4 kishi ekan. Munavvar qori yana o'rmdan turib «Jamoat, mana bu yosh, o'smir bolalarimizning Germaniyaga borib o'qib kelishlari faqat siz boyonlarimizning yordami ostida vujudga chiqadi», – deyishi bilan o'tirgan boylarning biri Munavvar qorining qo'liga anchagina pul berdi... Pul to'planib sanalib bo'lingandan keyin Munavvar qori o'rmdan turib: «Millatimizning kelajakdagi baxtu saodati uchun shunday katta himmatlaringizga ko'pchilik tomondan rahmatlar aytaman», deb tashakkur bildirdi»¹.

Bu dalil qaddini rostlab borayotgan o'zbek burjuaziyasining milliy birlikka va o'z-o'zini anglash jarayoniga xayrixoh bo'lganini ko'rsatadi. Andijonlik Mirkomil Mirmo'minboev kabi boylarning xayriya ishlariga katta mablag' ajratgani, yoshlarni Germaniya va Turkiyaga o'qishga jo'natgani ana shundan dalolat beradi. Mo'minboevga rus siyosiy polisiyasi shunday ta'rif bergan: «U juda aqlli, ayyor, uddaburon kishi. E'tiqodi bo'yicha panisломchi va ruslarga qarshi... Andijon shahar tijoratchilar partiyasi boshlig'i. Ushbu partiya a'zolarining hammasi unga moddiy jihatdan bog'langan»².

¹ *Sirojiddin Ahmad*. Munavvar qori. «Sharq yulduzi», 1992, 5-son, 107-bet.

² O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1902-ish, 64-varaq.

Andijonda tashkil topib butun o'lkada o'z tashkilotlariga ega bo'lgan «Taraqqiyparvarlar» firqasi ham Turkiston milliy burjuaziyasi yordamiga tayangan¹.

Turkiyaga borib ta'lim olgan yoshlardan biri, keyinchalik mashhur shoir, adib va olim Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat edi. Afg'onistonlik mashhur mutafakkir Jamolidin Afg'oniy, misrlik Muhammad Abduh, qrimlik Ismoilbek G'aspirinskiyning siyosiy qarashlari, hur fikrlari, Turkiyadagi turk yoshlarining «Turk o'chog'i», «Ittihad va taraqqiy» tashkilotlari va boshqa siyosiy harakatlarning istiqloq xususidagi maqsad va maslagi ingliz va rus mustamlakachilari zanjirini uzib, butun musulmon mamlakatlariga tarqalgan edi. Ayniqsa, Ismoil G'aspiralining «Dorulrohat musulmonlari» asarining Buxoro va Turkistonda yoyilishi ziyolilar ongida inqilob uyg'otadi. Ana shu ilg'or shaxsning ta'siri bilan Buxoroda «Tarbiyayi atfol» (Bolalar tarbiyasi), Toshkentda «Turon» jamiyatlari vujudga keldi. Atoqli olim Ahmad Zakiy Validiy To'g'on «Bugungi turk eli: Turkiston va uning yaqin tarixi» kitobining «Erli turklarda siyosiy tashkilot» bobida shunday yozgan: «1910 yili Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, mirzo Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Ahmadjon mahdum, Usmonxo'ja² va Mukammaliddin mahdum kabilar «Tarbiyayi atfol» jamiyati qurdilar. Bu jamiyat Istanbulda bir sho'ba ocharoq, 1911 yili o'n besh, 1912 yili 30 talaba yubordi. Bu sho'ba Buxoroda «Ta'lim maorif jamiyati» otila rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1910 yili Eron yo'li-la Istanbulga kelgan shoir Fitrat ila Muqimiddin va Rusiya yo'li-la kelgan Usmonxo'ja, g'uljalik Abdulaziz, Sodiq Ashur o'g'li bu jamiyatning quruvchilaridan edilar. Fitrat Istanbulda forscha «Munozara», «Sayyohi hindi» otli tanqidiy va hajviy asarlarini bostirdi».

Fitrat 1909–1913 yillarda Istanbulda tahsil olib qaytish chog'ida Hindiston va Afg'onistonda bo'ladi. U Istanbuldan mutlaqo yangi tug'ilgan odamday bo'lib qaytadi. Shu bois o'ziga «Fitrat» – «Tug'ilish» deb taxallus oladi. Bu o'rinda Andijondagi «Taraqqiyparvarlar»ning tahsinga sazovor tashabbuslaridan birini eslash ham joizdir. 1917 yilning 19 fevralida shahardagi mahalliy jamoat arboblari, ma'rifatparvar tashkilotlar vakillari, jadidlarning

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 35-varaq.

² Usmonxo'ja Po'latxo'jaev Buxoro jadidlari yetakchilaridan, 1920–1921 yillarda Buxoro Xalq Sho'ro Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi bo'lib xizmat qilgan, Afg'onistonga o'tib ketgan, 1968 yili Turkiyada qazo qilgan. Q a r a n g: Shamsutdinov R. Usmonxo'ja Vatan xoim emasdi. «Xalq so'zi», 1991 yil 15 sentyabr.

Farg'ona vodiysida zamonaviy institut ochishga bag'ishlangan yig'ilishi bo'ldi. Yig'ilish kechqurun soat yetti yarimda boshlanib tungi 3 gacha davom etdi. P. M. Turneev, P. N. Sheremetevskiy, V. A. Chaykin va boshqa ko'plab notiqlar o'z so'zlarida Farg'ona oliy texnika maktabi ochish zarurligini har jihatdan asoslab berdilar. Soat 11 ga borib jamoat tashkilotlari va ayrim shaxslardan institut ochish uchun 40000 rubllik xayriya jamg'armasi tashkil bo'ldi. Bu jamg'armaga tarkibida ko'plab taraqqiyparvarlar bo'lgan ma'rifat havaskorlari jamiyati 5000 rubl, millioner boy, jadid Ahmadbek hoji Temirbekov 25 000 rubl hadya etdilar. «Sahovatli boy, o'zbek milliy sarmoyadorlarining tipik vakili Ahmadbek hoji keyin yana ko'p mablag' ajratishga va'da qildi... Yig'ilishda institut ochishni hal etish uchun 15 nafar a'zodan iborat tashkiliy qo'mita saylandi.... Xuddi shunday tashkiliy qo'mitalar, institut ochish xayriya fondlari vodiyning Qo'qon, Namangan, O'sh, Skobelev shaharlarida ham tashkil etilib, ularning jamiyatlarida jadidlar xizmati katta bo'ldi...»¹.

O'zbek ma'rifatparvarlarining qudratli guruhining faoliyati haqida rus maxfiy polisiyasi TRMB katta ma'lumot to'plagan edi. U Turkiston yoshlarining Turkiya bilan aloqasidan cho'chigan va yosh turklar ta'sirini yo'qotish choralari izlagan. TRMB arxivida Mirza Ahmad Qushbegievning «Taraqqiyparvarlar jamiyati g'oyalari ocherki» deb nomlangan ma'lumotnomasi bu jihatdan diqqatga sazovordir. «Taraqqiyparvarlar jamiyatining bosh g'oyasi, – deb yozgan A. Qushbegiev, – yosh turklar taraqqiyotiga taqlid etishdir. Ularning rejasi xalqqa siyosiy va ichki erkinlik berish, aholi o'rtasida ular o'z e'tiborlarini siyosat va din zaminidagi harakatlari bilan amalga oshirishni rejalashtirishgan. Ular o'zlarini xalqni rus va mahalliy ma'muriyat zulmidan xalos etishga qaratilgan siyosatni olib boruvchilar qilib ko'rsatishga intilishadi, rus tili va ma'lumotini egallagan va rus elementlari doirasida yuruvchi yoshlarning ko'pchiligi ularga xayrixoh va g'oyalari tarqatishda yaqindan yordamlashadi»².

TRMB turklarga xayrixoh yoshlar safidan eng xavfli deb Munavvar qoridan so'ng uning do'sti Ubaydulla Asadullaxo'jaevni bilgan va uni tezda ro'yxatga olgan. U, maxfiy ayg'oqchi ta'rificha, «rus tili va ma'lumotini egallagan yoshlardan» edi. Toshkent eski shaharining «Qoryog'di» mahallasida bog'bon Asadulla mahsum oilasida dunyoga kelgan Ubaydullaxo'ja rus-tuzem maktabini

¹ «Туркестанский голос», февраль, 1917 г.

² O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1968-ish, 13-varaq.

bitirgach, kelishtiruvchi sudya idorasida tilmoch sifatida faoliyatini boshlagan. Uning uquvliligi, aql-idroki va bilimga chanqokligi sudya e'tiborini o'ziga jalb qildi. Saratov shahriga jo'nashga to'g'ri kelganda Ubaydullani ham o'zi bilan olib ketib, unga ustoz bo'lishining sababi ham shu edi. Saratovda u adliya bo'yicha mutaxassislikni o'rganib, ham nazariy, ham amaliy bilimlarni egalladi. O'sha yillarda u rus inqilobiy g'oyalariga qiziqib, eserlar bilan yaqinlashdi. Ubaydullaxo'ja 1909 yilda Lev Tolstoyga xat yozgani va uning ta'limoti haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirgani diqqatga sazovor. Buyuk adibning yosh o'zbek yigiti maktubiga javob yozib, Saratovga yo'llagani ham Ubaydullaning aql-zakovati ulug' yozuvchi e'tiborini jalb qilganidan dalolat beradi. U sosial-demokrat, eserlar dasturi bilan tanishadi va o'z dunyoqarashini shakllantirishda ularning tajribasidan foydalanadi.

Mulohaza uchun ma'lumot

Ubaydulla Asadullaxo'ja o'g'lining 1909 yil 29 mayda rus yozuvchisi L.N.Tolstoyga yo'llagan maktubi

Hurmatli Lev Nikolaevich!

Men Sizni bezovta qilishni xohlamasamda, ushbu maktubim orqali o'zim uchun shubhali tuyulgan «yovuzlikka yovuzlik qilmaslik» haqidagi savolga javob olish uchun murojaat qilishga jazm etdim. «Yovuzlikka yovuzlik qilmaslik» haqidagi gap so'zsiz haqiqat ekanligini e'tirof etsamda, quyida keltirilayotgan voqeadan keyin qanday harakat qilish lozimligini bilmayman. «Yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslik» nafaqat men amal qiladigan Islom dini va dunyoqarashiga, balki Injil va Tavrot talablariga ham to'liq mos keladi. Menimcha, «yovuzlikka yovuzlik qilmaslik»ning asosida «agar biror kishi qandaydir yovuzlik qilsa, bu bilan bitta yovuzlik sodir etiladi, agar men o'sha yovuzlikka qarshilik qilсам va qasos olsam, tabiiyki, buning oqibatida bitta yovuzlik o'rniga ikkita yovuzlik sodir etilgan bo'ladi. Agar men qarshilik qilmasam, bitta yovuzlik ko'paymaydi, bittaligicha qoladi», degan haqiqat yotadi. Shunday qilib, qarshilik qilmaslik va boshqa yo'llar bilan yovuzlikni iloji boricha kamaytirish kerak degan xulosa chiqadi. Faraz qilaylikki, men qandaydir bir kishining butun bir uyni, shaharni yoqib yuborish yoki poezd yo'paroxodni halokatga uchratib, so'zsiz o'nlab, yuzlab va minglab kishilarning halok bo'lishiga olib kelishi kerak bo'lgan katta yovuzlik qilmoqchiligidan xabardorman. Insoniylik nuqtai nazaridan qaraganda, men tayyorlanayotgan yovuzlikdan ogohlantiruvchi choralар ko'rishim lozim. Ammo

buning uchun mening balki o'sha yovuzlik qilmoqchi bo'lgan kishini o'zining qabih niyatini amalga oshirmasdan yo'q qilmaslikdan boshqa chora bo'lmas.

Mening u yovuzni yo'qotish bilan qilgan yovuzligim o'nlab, yuzlab va minglab kishining qutqarilishi tufayli oldi olingan juda katta yovuzlik oldida hech narsa emas. Men o'zimning harakatimni yovuzlik deb emas, undan ham katta yovuzlikning oldini olishning yagona yo'li degan bo'lar edim.

Mening fikrim shunday, ammo uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilmayman, shuning uchun ham Sizga uzoq ikkilanishlardan so'ng, tushuntirib berishingizni so'rab, murojaat qilishga jazm etdim.

Agar meni juda qiziqtirgan savolga o'zingizning sharhingizni ravo ko'rsangiz, abadul abad Sizdan minnatdor bo'lar edim.

Mening turar joyim: Saratov shahri, Yurenkov passaj uyi, huquqshunoslik bo'limi, Xo'jaev Ubaydulla Asadullayevichga,

Sizga sidqidildan sodiq musulmon

Ub. A. Xo'jaev.

1909 yil 28 may.

Saratov sh.

L. N. Tolstoyning javob maktubi

Yasnaya Polyana. 1909 yil 5 iyun.

Ubaydulla Asadullayevich!

Siz mendan so'rabsizki, bir kimsaning ko'p odamlarga yovuzlik qilish niyati ma'lum bo'lsa, u taqdirda qarshilik ko'rsatmaslik haqidagi ta'limotni tan olgan kishi nima qilishi kerak? Ko'pchilik halokatining oldini olish uchun, o'sha bir kishiga nisbatan qo'llash ma'qul emasmi?

Avf etasiz, savolingiz, ko'plarning shu xildagi savollari singari haqiqatni bilish istagidan emas, aksincha, haqiqat deb hisoblagan narsani ado etmaslikni oqlash istagidan kelib chiqqan. Insonga mehr-muhabbat haqidagi ta'limot qarshilik ko'rsatmaslik tushunchasini ham o'z ichiga olib, u inson intiladigan idealni bildiradi. Idealni taomilning oddiy qoidasi deb bilish esa katta xato yoki o'z-o'zini aldashdir. Bu hayotda hech qachon to'la erishib bo'lmaydigan yetuk kamolotni talab etuvchi idealgina ideal bo'la oladi. Lekin u hayotga rahnamo sifatida zarurdir, hayotda erishib bo'lmaydigan ana shu kamolotdan darak bergandagina zarurdir. Mehr-muhabbat ideali haqida ham shuni aytish mumkin. Qarshilik ko'rsatmaslik tushunchasini ham o'z ichiga oladigan mehr-muhabbatni talab

etish – hech vaqt to‘la ado etib bo‘lmaydigan narsadir. Shuning uchun uni ado etishga intilish ham kerak emas degan mulohaza menga kompas tutgan shunday bir odamni eslatadi: yo‘lda manzilingga tikka bor deb uning qo‘liga kompas tutqazganlar, u bo‘lsa kompas ko‘rsatgan to‘g‘ri yo‘ldan o‘tib bo‘lmaydigan to‘siqlar: tog‘lar, daryolar va hokazolar bor, shu sababli ham men mumkin qadar mutlaqo to‘g‘ri yo‘lga tushib olish uchun kompasga rioya qilib o‘tirmay, boshim oqqancha chetga qarab ketaverishim mumkin, deb turib oladi. Qarshilik ko‘rsatmaslikni ham o‘z ichiga oladigan mexr-muhabbat masalasida esa kompas doimo nima qilish kerakligini (sayyohga yo‘nalishni) ko‘rsatadigan axloqiy-diniy tuyg‘udir. Odamning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan oqibatlar esa hech qachon unga ayon bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, sayyoh uchun kompas ko‘rsatgan mutlaq to‘g‘ri yo‘nalishga mumkin qadar yaqinroq yurish birdan-bir rahnamo bo‘lganidek, axloqiy idealga mumkin qadar yaqin bo‘lishga intilish – inson uchun birdan-bir rahnamo bo‘lishi kerak.

Savolingizga bergan javobim Sizni qanoatlantira olsa g‘oyat xursand bo‘lur edim.

*Lev Tolstoy.
Yasnaya Polyana.
1909 yil 5 iyun¹.*

Mahalliy teatr. Saratovlik eserlar tavsiyasi bilan Ubaydullani eser, Toshkent sudi ishonchli vakili (davlat xizmatidagi advokat) Ivan Charkovskiy o‘z idorasiga ishga oladi. Qisqa muddat ichida oliy ma‘lumotli Ubaydulla mustaqil ravishda advokatlik ishini yurita boshladi. Biyron ruscha nutqi adliya ishining nozik nuqtadoni, Rossiya imperiyasi qonunlari majmuasining bilimdoni sifatida mijozlari ishini muvaffaqiyat bilan yakunlagani, bir necha katta sud jarayonida g‘alaba qozongani unga obro‘-e‘tibor keltiradi.

TRMB boshlig‘i polkovnik M. Volkov uni 1913 yildan qaydga olib muntazam kuzatuvda tutgani sababini shunday izohlagan: «Ubaydulla Asadullaxo‘jaev. Toshkent sartlaridan. Xususiy ishonchli vakil. Xo‘jaev Saratovdan Toshkentga qaytib, qisman advokatlik va qisman targ‘ibotchilik qila boshlagan, 1913 yildan TRMBga e‘tiqodli panisломchi sifatida ma‘lum. U «Umid» deb atalgan ilg‘or musulmon guruhiga yetakchilik qila boshlagan»².

¹ «Туркестанский голос», 1916 yil, № 136. O‘zbek tilida bu maktublar «Guliston» jurnalining 1971 yil 11-sonida e‘lon qilingan.

² O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 31-ro‘yxat, 1144-ish, 6-varaq.

Ubaydullaxo'ja do'sti Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Rahim Inog'omov, Komilbek Norbekov, To'lagan Xo'jamiyorov (Tavallo), Muhammad Poshshaxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov va boshqalar bilan birgalikda «Turon» jamiyatini tuzadi. Bu jamiyat nizomida quyidagilar yozilgan: «Xalq orasida jadidiy va sahna ishiga hamda xayriyaga muhabbat uyg'otish; xalq uchun spektakl qo'yib, sog'lom tomosha ko'rsatish; Turkiston o'lkasi xududida yashovchi muhtoj musulmonlarga moddiy yordam berib, ma'naviy va moddiy jihatini yaxshilash». 1913 yil iyun-iyul oylarida «Turon» truppassi o'zining norasmiy spektaklini ko'rsatadi. Munavvar qorining ma'lumotiga qaraganda, undan 600 rubl foyda ko'rilgan. 1914 yil 27 fevralda esa Toshkentdagi Kolizey teatri binosida, taniqli tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy Valeev ta'biri bilan aytganda, «milliy dramaturgiya, milliy til, milliy artistlar bilan tayyorlangan» o'zbek milliy teatrlarining birinchi mavsumi rasmiy ochildi. Spektaklni ochish sharafi Munavvar qoriga, unga rejissyor bo'lish Ubaydullaxo'jaga nasib qiladi. Tantanali marosimda Munavvar qori tarixiy so'zlarni aytadi: «Turkiston tilida hanuz bir teatr o'ynalmag'onligi barchangizga ma'lumdir. Shul sababli ba'zi kishilarimiz teatrg'a, ehtimolki o'yinbozlik yoki masxarabozlik ko'zlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning asl ma'nosi «ibratxon», yoki «ulug'lar maktabi» degan so'zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qiling'on bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsam, o'zining husn va qabihligini, ayb va nuqsonini ko'rib ibrat olur... Teatr sahnasiga chiqib, yuziga un surtib, bir masxaraboz shakliga kirgan zotlar go'yoki tabibi hoziq misolidadir»¹. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pesasi katta muvaffaqiyat qozonib, el og'ziga tushdi. Bu shunchaki bir madaniy tadbir bo'lmay, balki milliy o'zligini anglashdek siyosiy dastur ekanligini TRMB boshlig'i qayd qilgani bejiz emas. Abdulla Avloniy bu haqda shunday yozgan: «1913 yildan boshlab xalqni ko'zin ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq uchun teatru ishlariga kirishub Toshkentda bir necha marotaba teatru o'ynag'ondan so'ng butun Farg'onani aylanub, har bir shaharlarda bir necha martabadan teatru o'ynab qaytdik. Bu vaqtlarda bizning maqsadimiz zohirda teatru bo'lsa ham, botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi»².

¹ Sirojiddin Ahmad. Munavvar qori. «Sharq yulduzi», 1992 yil, 5-son.

² A. Avloniy. Burungi o'zbek vaqtlari matbuotining tarixi. «Turkiston», 1924 yil 24 iyun; Sh. Rizaev. Jadid dramasi. T., «Sharq», 1997.

Tadqiqotchilarning ma'lumotiga qaraganda, «Padarkush» pesasidan keyin 1917 yilgacha o'zbek dramalarining soni 40 ga yetgan. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon shaharlarida turli truppalar vujudga kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pesasi ta'siri o'laroq, butun bir siyosiy oqim muxoliflar tomonidan «Padarkushchilar» deb atalishiga sabab bo'ladi. Jadidlarni shunday nomlash johil ulamolar va bid'atchi unsurlar orasida rasm bo'lib ketdiki, uni keyinchalik rus mustamlakachilari va sho'ro tadqiqotchilari ham mafkuraviy nuqta nazardan ishlatdilar.

«Turon» jamiyatining obro'si va tarixiy xizmati haqida Munavvar qori bunday deb yozgan edi: «Toshkent jamiyatining ismini unutmagan, yoki hech bir jamiyat degan so'zni eshitmagan Toshkent musulmonlarining yetti yasharidan yetmish yasharigacha jamiyatning vujudidan xabardor bo'ldi. Rus, yahudiy va armanlar foydalanib yurgan o'rinlardan foydalanmoq musulmonlarga ham mumkin ekanligi ochiq bilindi. Bu esa Toshkent musulmonlarining xiyl ruhlarini ko'tarilmog'iga va jamiyatga muhabbat ila qaramoqlariga sabab bo'ldi»¹.

Munavvar qori xalq maorifi ahvoli haqidagi bosh maqolasida «Butun dunyodagi madaniy millatlarning qayg'u va hasratlarina ishtirok etmagan va bu shodlik masarratlaridan bahra olmagan bir qavm va bir millat zor esa ul ham Turkiston turklaridirmiz», degan. Munavvar qori boshlang'ich va o'rta maktablar faoliyatidan qoniqmasligini ochiq aytish bilan birga, madrasa va mudarrislarining ham zaif ekanini oshkor qiladi: «Madrasalarga imtihon joriy bo'lsa, ko'p shogirdlarning va bir necha mudarrislarining madrasadan chiqarmoqlari lozim kelur». Har bir xalqning millat sifatidagi shakllanishining birinchi belgisi mazkur xalqning o'zligini tanishi va o'zini himoya qilish tuyg'usining uyg'onishi, milliy qadriyatlarini saqlash va taraqqiy ettirish, bu yo'lda turli-tuman jamiyat va uyushmalarni vujudga keltirishidir. Buni Munavvar qori quyidagicha sharhlaydi: «Madaniy millatlarning butun taraqqiyoti diniya va ehtiyojot mayllari uchun eng ishonchli suyanchiq va mutlaqo ettehoz o'linmish va ularda madaniyat narvonining birinchi bosqichi maktab, ikkinchisi jamiyat ekan»². Ana shuning uchun ham rus mustamlakachilari Turkiston xalqlari o'rtasidagi ma'rifatparvarlikning har qanday qo'rinishiga barham berishga intildilar. Kaspiyorti viloyati boshlig'ining 1908 yil 14 avgustda o'lka bilim yurtlari

¹ *Sirojiddin Ahmad*. Ko'rsatilgan maqola.

² O'sha joyda.

bosh noziriga yo'llagan xatida aytilgan fikr bunga yorqin dalildir. Rus generali o'qituvchilar seminariyasini tugallab yurtiga qaytgan turkmanlarga o'qituvchilik joylarini bermaganini asoslab shunday yozgan: «Mavjud tuzemeslar maktabi va 8-rus-tuzem maktablari turkmanlar ehtiyojini to'la qondiradi. Rossiyada o'zimiz tomonimizdan yaratilgan o'choqlarimizda davlatga qarshi har xil tashviqot yurgizilayotgani etarliki, endilikda turkman aholisi o'rtasida yana bir o'choq yaratish mutlaq ehtiyotsizlik bo'ladi. Men turkmanlar bizga sodiqmas demoqchi emasman. Ammo hozir ular ham biz, ruslar avvalgidek ahil va kuchli emasligimizni ko'rishmoqda. Shuning uchun ham turkmanlarning dunyoqarashida Rossiya qudratiga ishonch mustahkam emas va bo'lmaydi ham»¹.

Viloyat boshlig'i xuddi shu qirg'iz dashtlarida ruslarga qarshi g'alayonlar avj olayotganidek inqilobchilar faoliyati tufayli turkmanlarda ham qarshi harakat uchqunlari paydo bo'layotganidan tashvishini yashirmaydi. Tajan tumanboshisi podpolkovnik N. Lomakin boshlig'iga yuborgan axborotida o'z tumanida Gamzabek Sulaymonov degan ziyoliy paydo bo'lgani va xalqni hukumatga qarshi qayrayotganini aytib, Gamzabekka murojaat qilayotgan har bir kishini bir oy muhlatga qamayotganini ma'lum qilgani ham diqqatga sazovordir².

Mustamlaka ma'muriyati mahalliy millatlar o'rtasidagi milliy-ozodlik va inqilobiy harakatning har bir ko'rinishini zudlik bilan, rivoj topmasidan oldin, bo'g'ib tashlashga asosiy diqqatini qaratdi. Siyosiy razvedka faoliyatining diqqati ham shu masalaga qaratildi.

Rus mustamlakachilari o'lka tub joy aholisi 1905–1907 yillardagi inqilobiy voqealardan xulosa chiqarib, mustamlaka tuzumiga qarshi kayfiyatda ish ko'ra boshlaganini payqadilar. Samarqand viloyati harbiy gubernatori 1907 yil fevral oyida o'lkada jandarm nazoratini o'rnatish haqidagi ma'lumotnomasida shu fikr mujassamdir. Rus hokimiyati «O'rta Osiyodagi inqilobiy tashkilotlarning mahalliy aholiga ta'sirini yo'qotish uchun zarur miqdorda mablag' va yaxshi vositalarga ega bo'lishi kerak»³, deya o'lka viloyatlarida jinoiy-siyosiy qidiruv xizmatini keng miqyosda tashkil etishni taklif qiladi. Bu xizmat, gubernatorning fikricha, «tuzem aholini inqilobiy tashviqotchilardan saqlashda» muhim rol o'ynashi kerak. Uning mulohazalarini Farg'ona viloyati harbiy gubernatori ham ma'qullab,

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 433-ish, 233-varaq.

² O'sha joyda.

³ O'sha joyda.

bugunda siyosiy jinoyatchilar soni yerli aholi vakillari hisobiga ko'payganini ham qo'shib qo'yadi. Ma'lumotnomaga Yangi Marg'ilon okrug sudida G'ofirjon Islomjonov, Toshmahsum Mullaxo'jashev kabi o'zbeklar ishini ilova qiladi. «Tayyor va keng tarmoq otgan tashkilot va idoralarga ega bo'lgan ma'muriyat va polisiya, – uqtiradi u, – keng aholi bilan har kuni muttasil to'qnashib turadi va uni nazorat qilishga ajoyib imkoniyatga ega»¹. Viloyat gubernatorlari fikrini general-gubernator N. I. Grodekov qizg'in qo'llab-quvvatlab, harbiy vazirlikka shu xususda taklifnomalar jo'natdi. Sankt-Peterburgning harbiy-siyosiy doiralari bu takliflarni g'oyat jiddiy va qiziqish bilan o'rgandi. Imperiya hukumati Turkistondagi mustamlaka tuzumiga tahdid soluvchi jiddiy kuch oz sonli rus sosial-demokratlari, sosial-inqilobchilari emas, balki o'lkada uyg'onib kelayotgan milliy ong ekanligini yaxshi angladi. Shaxsan imperator Nikolay II ning amri bilan hukmron Senat o'lkaga senator gofmeyster graf K. K. Palen rahbarligida barcha sohalar mutaxassislaridan iborat katta taftish komissiyasini yubordi. Ichki ishlar vaziri ayni shu maqsadda milliy-ozodlik g'oyasi va aholi kayfiyatini o'rganish va zudlik bilan qarshi choralar ko'rish uchun Toshkentga siyosiy ig'ovogarliklar ustasi izquvar zobit, Alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi N.A.Vasilevni katta vakolatlar bilan jo'natdi. Podpolkovnik Vasilev siyosiy izquvar sifatida ma'rifatchilik g'oyasini ko'tarib, yangi usuldagi maktablar, gazetalar ochgan jadidlarning tub maqsadi rus mustamlaka tuzumini ag'darish ekanligini yaxshi tushungan. Munavvar qorining o'zi ham bu haqda shunday degan: «Chor hukumatini yo'qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo'lishi yashirin emas. Nainki biz jadid maktabi ochish bilan savdo xizmatchilari, boshqa ta'bir bilan aytganda, do'konda o'ltirib nasiya yozadurg'on xodimlar yetkazsak. Shu ishga aqlli odam shu bahoni berishda u yoq bu yoqni mulohaza qilsin»².

Taniqli ma'rifatchi Abdulla Avloniy o'z tarjimai holida mazkur masalaga oydinlik kiritadi: «1904 yilda rus-yapon urushi chiqib, bu urush butun Rossiya ishchilarining ko'zini ochg'ondek bizning ham ko'zimiz ochildi. 1905 yildagi Rossiyada boshlangan inqilob to'liqini bizga ham ta'sir qildi. Bizning tashkilotimiz siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartmoq va ko'zni ochmoq chorasiga kirishdi. Bu maqsadga erishmoq uchun gazit chiqarmoqni munosib ko'rub, uyushmaning harakati bilan o'zbek tilida gazetalar

¹ O'sha joyda.

² *Sirojiddin Ahmad*. Ko'rsatilgan maqola.

chiqarildi. 1906 yilda «Taraqqiy», «Xurshid» gazetolari chiqub, eski hukumat tomonidan to'xtatilg'ondan so'ng, 1907 yilda men o'z muharrirligim bilan hamda temir yo'l ishchilarining sosial-demokrat firqasining aloqa va yordami bilan «Shuhrat» nomindagi gazitni Sapyorni ko'chada chiqardim»¹.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash lozimki, XX asr boshlarida Turkiston xalq maorifi rivojida yangi usul maktablari muhim o'rin tutgan edi. Jadidlarning yangi usul maktablari Turkiston xalq maorifi tizimida tub burilish yasadi. Eski maktablar va madrasalarda o'quv sifatini yaxshilash va zamon talablariga mos ish tutishga zo'r turtki berdi. Bu sohada matbuotning mavqei katta bo'ldi.

Kitob san'ati. Mustamlaka Turkistonda bosmaxonalar tashkil topishi va ularda gazetalar, jurnallar va kitoblarning chiqishi tasviriy san'at rivojiga ta'sir qildi, mahalliy tillarda kitob, gazeta, ilmiy to'plam va taqvimlar nashr etila boshlandi. Bu nashrlarda tasviriy san'atning ilk namunalari yuzaga kela boshladi. Bu asarlar o'ziga xos, sodda va ko'p hollarda harf va handasaviy shakllar rang-barangligi, milliy naqshlarni yangi davrga moslab ishlangan ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ldi. Asta-sekin nashr qilinayotgan kitoblarga tasvir-bezaklar kiritish rivojlana bordi. Bu ishlarga mahalliy rassomlar ham keng jalb etildi. 1908 yili Toshkentda nashr qilingan «Shohnoma», «Farhod va Shirin» kabi qator kitoblar suratlar bilan bezatilib chiqarildi. Firdavsiyning «Shohnoma» dostoni rasmlarini Rahmatulla va Rahmatullabek, mulla Abdushukur, Sa'diyning «Guliston» hamda «Go'r o'g'li» dostoniga Sirojiddin mahdum Siddiqiy bezaklar ishlagan. Ularda rassomlar mahalliy miniatyura san'ati an'analari bilan birga Yevropa realistik san'ati an'alaridan ham foydalanishga intilishgan. «Go'r o'g'li» dostoniga ishlangan miniatyuralarda S. Siddiqiy o'z qahramonlari qiyofasini haqqoniy talqin etishga harakat qilgan. Rassomlar ba'zi kitoblar uchun esa xorijiy mamlakatlarda chiqqan kitob illyustrasiyalaridan nusxa olishgan. Kitob grafikasi, uning muqovasini ishlashda milliy an'anaviy shakllar bilan birga sekin-asta rus va Yevropa kitob san'ati an'analari ham keng yoyila boshlandi. Shu o'rinda rus yozuvchisi G.A.Pankratevning rus tilida nashr etilgan «Istoricheskie pamyatniki goroda Samarkanda» (1910) kitobi muqovasini eslash kifoya. Muqovaga peshtoqning old ko'rinishini eslatuvchi shakl ishlatilib, uning ichida kitob nomi, muallifning ismi-sharifi kiritilgan. Natijada rus kitob grafikasi uslubi o'zbek naqsh san'ati bilan boyib, mahalliy

¹A. Avloniy: Burungi o'zbek vaqtlı matbuotining tarixi. «Turkiston», 1924 yil 24 iyun.

mazmun va ko'rishga ega bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu davrda O'zbekiston hududida nashr qilingan kitoblar, jumladan, ilmiy yo'nalishdagi kitoblarni chop etishda ularni tasvir-illyustrasiyalar bilan to'ldirish hollari ham keng tus ola boshlagan. Bu suratlar o'z xarakteri jihatidan real bo'lib, gravyura texnikasida bajarilgan. Turkiston o'lkasining hayvonot olami, shuningdek, bu hududdagi turli millat va elat kishilarining qiyofalari shu kitoblarning ilyustrasiyalarida o'z aksini topgan. Turli masjid va madrasalar, Turkistonning ajoyib tabiati ko'rinishlari ham shu davrda nashr etilgan kitoblardan keng o'rin olgan. Jumladan, I.I.Geyerning «Turkiston yo'l ko'rsatkichi»da (1901) tabiat ko'rinishlari, tarixiy obidalardan tashqari, xalq hayotidan olingan lavhalar ham o'rin olgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi hududdagi badiiy hayot birmuncha rivoj topib, bu yerda Rossiya kitobot san'ati uslublari o'zining yangi qirralarini namoyon eta boshladi.

Milliy san'at uslublari Yevropa san'ati uslublari bilan uyg'unlasha boshladi. Bu davrda yaratilgan ko'pgina san'at asarlari, jumladan, kitobot san'atida yaratilgan asarlar, eng avvalo rus mafkurasi va madaniyatining istilo qilingan yerlardagi san'ati edi. Ammo, shu bilan birga, bu asarlar bevosita O'zbekiston hududida yaratilgan va milliy ziyolilar hayotida muhim rol o'ynagan. Mahalliy ziyolilar «ilg'or madaniyat»dan ortda qolmaslikka intildilar, davrning eng yangi va so'nggi kashfiyot va jarayonlaridan boxabar bo'lib bordilar. Ularning ichida san'at bilan shug'ullanadigan va milliy san'atga yangiliklar kiritishga harakat qila boshlagan ijodkorlar safi kengaya bordi. Bu davrda badiiy hayotda Rossiyaning turli mintaqalaridan kelgan rassom va boshqa ijodkorlar etakchilik qildilar. XX asr boshlariga qadar bu yerga 40 dan ortiq san'atkor kelib ijod qilgan. Ularning ko'pchiligi keyinchalik shu yerda o'troq bo'lib, o'zlarining butun faoliyatini o'lkaga bag'ishladilar. Rossiya markazida sodir bo'layotgan jarayonlar tezlik bilan Turkiston zaminiga ham kirib kelaboshladi. Kitob muqovasi va uning ichki bezak hamda ilyustrasiyalarida XX asr Yevropa san'atida keng tarqala boshlangan «modern» uslubi o'z aksini topa borgan. «O'rta Osiyo almanaxi» shunday nashrlardan bo'lib, unda geometrik shakl va chiziqlar, ularning murakkab birlashma va hosilalari yaratilgan. XIX asr oxirida hattotlik, qo'lyozmalar tayyorlash, aniqrog'i bosmaxonalar yordamisiz kitob yaratish jarayoni juda qisqarib ketdi. Bu so'zsiz hattotlik san'atiga bo'lgan talabni ham kamaytirib yubordi. Bosma harf va tasvir klishesi-tasvirni qog'ozga tushurish uchun mo'ljallangan maxsus ishlanmaga bo'lgan talabning yuzaga kelishi esa shunga monand mutaxassis-

larning paydo bo'lishini ta'minladi. Bosma uslubda kitob tayyorlash va uni ko'p nusxada chiqarish imkoniyati ma'rifiy-madaniy ishlarining jonlanishiga, kitobxonlar safining kengayishiga olib keldi. Grafika san'atining rivojlanishi va turlarining kengayishini ta'minladi. Plakatning turli ko'rinishlari, afisha, reklama, e'lon varaqalari, amaliy grafika borasidagi asarlar bu davrdagi Turkiston badiiy muhitida yetakchi o'rinni egallab, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etdi.

Tasviriy san'at. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasi badiiy hayotida qalamtasvir va ayniqsa rangtasvir san'ati yetakchi o'rinni egallab, bu san'at turlarida, asosan, rus rassomlik maktabining vakillari hamda rus saltanatining turli hududlaridan kelgan ijodkorlar yetakchi o'rin egalladilar. Agar haykaltaroshlik va grafika san'atida oz bo'lsa ham mahalliy ijodkorlarning vakillarini uchratsak, aksincha, hali bu turlarda biror-bir mahalliy ijodkor yetishmagan edi. Bu soha ijodkorlarining yaratib qoldirgan asarlari davrning muhim hujjati sifatida qimmatlidir. Bu san'at turlarida turli millat vakillari va turli e'tiqod sohiblarining kasb mahorati turlicha bo'lgan san'atkorlar ishtirok etgan. Bunday rassomlar ichida V. Vereshchagin, N.Karazin, olim va rassom Dmitriy-Kavkazskiy, V.Veleje, O.Fedchenko va boshqalarni ko'rish mumkin. Keyinroq esa taniqli rassomlar P.Kuznesov, K.S.Petrov-Vodkin, G.Nyurengberg va boshqa ijodkorlar o'z asarlarining bir qismini O'rta Osiyo hayoti, tabiati manzaralari, odamlarining turmush tarzini tasvirlashga bag'ishladilar.

Bu rassomlar orasida rus quroli, rus shuhratini ko'klarga ko'targan, ashaddiy shovinist V. Vereshchagin alohida ajralib turadi. U 1865 yili yurtimizga harbiylar bilan birga kirib keldi, shahar va qishloqlarni vayron qilishda qatnashib, rus qo'shinlari g'alabasini ko'klarga ko'tarib maqtadi. Maxsus kundalik tutib, bo'layotgan voqealarni qog'ozga tushirdi. U o'z kundaliklarida «bir tuzemesni minoradan uloqtirib yuborganman», «biz o'tgan shahar-qishloqlarda tutun burqsirab qolar edi», «o'lim talvasasida jon berayotgan dordagi murdaning rasmini ishlaganman» deb maqtanadi. Vereshchagin Turkistonga kelganida rus tasviriy san'atida tanila boshlagan rassomlardan edi. O'lkaning ko'p yerlarida bo'ldi. Bu yerda u rangda va qalamda rasmlar chizdi. To'plangan rasmlar asosida keyinchalik o'zining mashhur «Turkiston» asarlar turkumini yaratdi. Vereshchaginning «Turkiston» deb nomlangan asarlar turkumini to'rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga rassomning ishlagan qalam-chizgi va rangchizgilari, etnografik xarakterdagi portret va kompozitsiyalarini

kiritish mumkin. Rassomning bu turkumdagi asarlarida o'lkaning ajoyib me'morlik obidalari, xalq amaliy bezak san'ati tasvir etilgan. Shuningdek, bu guruhga kirgan rasmlarda turli millat vakillarining etnik qiyofalarini yuksak mahorat bilan ishlagan muallif ularning ruhiy holatlarini ham ochib berishga harakat qilgan.

Turkumning ikkinchi guruhiga kiruvchi asarlar maishiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda rassom o'lkadagi mustamlaka sharoitidagi xalqning og'ir qismati, darvish va tilanchilar qiyofasini tasvirlaydi. Uning «Zindonda», «Ko'knorixo'rlar», «Qul savdosi», «Bolani sotish», «Tilanchi darvishlar» kabi asarlari atayin o'lka hayotining ayanchli taraflarini ko'rsatadi.

Turkumning uchinchi va to'rtinchi guruhi urush mavzusiga bag'ishlangan. Bu asarlarda rassom urushning naqadar shafqatsiz ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rassom bu mavzuga ulug' rus shovinizmi, eng avvalo, Rossiya saltanati mafkurasi nuqtai nazaridan yondoshadi. Chor jangchilarining O'rta Osiyoni bosib olishda qo'rsatgan jasoratlarini bo'rttirib tasvirlaydi. Kimsasiz sahroda qora qarg'alarga yem bo'lib yotgan rus jangchisini achinish bilan ko'rsatadi. Uning Turkiston himoyachilarini aks ettirgan asarlari esa nafrat tuyg'ulari bilan to'lib-toshib, unda yurt himoyachilari go'yo vahshiy bosqinchilardек tasvirlanadi. Asarlarining nomi ham shunga monand tanlangan. «Vahshiylar», «Tantana qilishmoqda», «O'ljani ko'rsatishmoqda» va boshqalar shular jumlasidandir.

Bu tasvirlardan birida turkistonliklar qopdan rus jangchilarining boshlarini o'z amirlari oyog'i ostiga to'kayotgan payti tasvirlanadi. Boshqa bir asarda rus jangchilarining boshlari yog'och qoziqqa ilinib, Registon maydonida odamlarga ko'rsatilayotganligi tasvirlanadi. Vereshchaginning ishlari ichida «Jang tantanasi» asari ham mashhur. Odam bosh suyagidan qad ko'targan minora va uning tevarak-atrofida qora qarg'alar uchib yurishida fojiali va dahshatli urush tantanasi o'z aksini topgan. Bu asarning yog'och hoshiyasiga «o'tgan, o'tayotgan va keladigan buyuk bosqinchi sarkardalarga bag'ishlanadi», deb yozib qo'yilgan. XIX asr oxirlaridan boshlab boshqa xalqlar va davlatlarning vakillari ham Turkistonga kelib ketdilar va o'lka bilan yaqindan tanishdilar. Unga atab asarlar yozdilar. Bular orasida shved olimi Sven Gedin, amerikaning taniqli yozuvchisi Teodor Drayzer, ukrain rassomi Sergey Svetoslavskiy, gruzin rassomi G. Gabashvili va boshqalarni uchratamiz.

Ukrain rassomi Sergey Svetoslavskiy (1857–1931) Samarqandga atab ko'pgina rasmlar chizgan. Uning «Samarqand oqshomi», «Samarqand bozori», «O'rta Osiyo manzarasi» kabi asarlari ma'lum. «Bibixonim oldidagi bozor» (1910) asari uning xalqchil an'analarga

sodiq ekanligini va voqelikni tanqidiy idrok etish hamda tasvirlash qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Rassom o'lkaning boy o'tmishini ulug'vor, lekin vayrona bo'lib borayotgan Bibixonim masjidi misolida o'lkaning mustamlaka istibdodi davridagi ahvolini shu ulug' yodgorlik va uning ostonasidagi bozor ko'rinishi, loy yo'laklar, yiqilib ketay deb turgan kulbalar orqali tasvirlaydi. Tabiat manzarasi – bulutga burkangan osmon, barglari to'kilib borayotgan daraxt mazmunga yanada munгли ohang va iztirob bag'ishlaydi.

Turkistonda XIX asr oxirida bo'lgan Georgiy Gabashvili Tbilisi Badiiy akademiasining tashkilotchisi va professorlaridan biri bo'lib, u Samarqand va Buxoroda qator asarlar, qalamsuratlar ishlagan. Ularda O'rta Osiyoning mahobatli me'morchilik yodgorliklari o'z ifodasini topgan.

Yana bir rassom Sergey Yudin (1858–1933) manzara janrida katta polotnolar yaratib, toshkentlik san'at muxlisleri orasida shuhrat qozongan edi. «Tog'dagi choyxona» asari rassomning voqelikni nihoyatda tabiiy ishlashdagi yuksak mahoratini namoyish etadi. S. Yudin 1889 yildan 1923 yilgacha Turkiston o'lkasi badiiy maktabida ustozlik qildi. O'zbekistonning taniqli rassomi N. Qoraxon, taniqli rus rassomlari S. Chuykov, Malenina, N. Kupriyanovlar, haykaltaroshlar Shvas, Slonim shu dargohda o'qigan kezlarda S. Yudinning ta'limini oldilar.

XIX asr oxirlaridan e'tiboran Turkiston o'lkasida tug'ilib o'sgan ijodkorlar ham badiiy hayotda ishtirok etib, shu davr san'ati rivojiga o'z hissalarini qo'sha boshladilar. Samarqandda tug'ilib o'sgan Lev Burd (1887–1943) Moskva badiiy maktabida ta'lim olib qaytgach (1907), ushbu shaharda o'z faoliyatini boshladi. Shahar ko'rinishi, uning hayoti, yodgorliklari odamlariga bag'ishlab ko'plab asarlar yaratdi. Shaharning badiiy hayotida faol ishtirok etib, ko'rgazmalar tashkil etishda, keyinroq esa badiiy studiya va maktablar ochilishida xizmatlari katta bo'ldi. Lev Burd asarlarining asosiy qismi moybo'yoqda bajarilgan. Uning «Eski shahar», «Registon» va boshqa asarlari bugungi kunda O'zbekistonning qator muzeylari ekspozitsiyasidan o'rin olgan.

XX asr boshlarida san'at olamiga kirib kelgan yana bir yirik rassom Aleksandr Volkovning (1886–1957) asl vatani Farg'onadir. U shu yerda tavallud topdi, Peterburg Badiiy akademiasida taniqli rus rassomlari N. Rerix, I. Gilibin, V. Makovskiylardan saboq oldi (1908–1910). Kievdagi badiiy maktabda bo'lib, mashhur ukrain rassomi F. Krichevskiy huzurida mahoratini oshirdi (1912–1916). Turkistonga

qaytgach, «yangi» uslublarda ko'plab asarlar yaratdi. Uning «Anori qizil choyxona» asari ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholandi.

XX asr boshlariga qadar Turkiston hududida san'atni rivojlantirishda rassomlar P. M. Nikiforov, I. Kazakov, O. Tatevosyan, A. Zommer, A. Yusupov, S. Dudin, P. Kuznesov, S. K. Petrov-Vodkin va boshqalarning ijodi salmoqlidir. Mazkur san'atkorlarning asarlari bugungi O'zbekiston va undan tashqaridagi muzey va shaxsiy galereyalardan o'rin olgan bo'lib, davr ruhini o'zida namoyon etib kelmoqda.

Turkiston general-gubernatorligi hududida me'morlik va amaliy bezak san'atida ham o'zgarishlar yuz berdi. Me'morchilikda mahalliy an'analar asosida ishlangan yodgorliklarga nisbatan (masalan, masjid, madrasa qurilishlari) yevropacha uslubda qurilgan binolar yetakchi o'rinni egalladi. Milliy me'morchilikda xalq ijodiyoti va davr o'zgarishlari zaminida yangi texnologiya va konstruksiyalar bunyod etildi. Jumladan, pishiq g'isht, tunuka tom, temir panjaralar qurilishlari oqibatida taomildagi «eski shahar» ko'rinishi o'zgara boshladi. Xonainter'larini bezashda naqshli tasvirlardan tashqari mavzuli devoriy rasmlar ham urfga kirdi. Xorijdan keltirilgan qandil, chinni, kafel va boshqa buyumlar o'ziga to'q oilalar xonadoni muhitini yangi davr ruhiga mos qilib o'zgartirdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida me'morchilikdagi o'zgarishlar o'lkaning muhim shaharlari Toshkent, Samarqand, Farg'onada ayniqsa ko'zga yaqqol tashlandi¹.

Matbuot. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida general-gubernatorlikning rasmiy organi – «Turkestanskije vedomosti» va uning o'zbekcha ilovasi «Turkiston viloyatining gazetisi» muntazam chiqib turdi. Uning muharriri olim va jurnalist N. P. Ostroumov (1846–1930) edi. U 1877 yildan 1917 yilgacha Toshkentda xizmat qilgan. «Turkestanskije vedomosti» va uning ilovasi «Turkiston viloyatining gazetisi» (1870–1917) o'lka tarixi, madaniyati va xalqning turmushiga oid juda ko'p maqolalar e'lon qilganki, ular bugungi kungacha tarixchilar uchun bebaho manba vazifasini o'tamoqda. Bu gazetalar chorizmning mustamlakachilik siyosati targ'ibotchisi va tashviqotchisi bo'lganini sira unutmagan holda, ularning tarixiy xizmatlarini, ya'ni o'sha istibdod zulmi tarixini yoritishdagi xizmatini alohida ta'kidlash lozim. Bu gazetada shoir Furqat asarlari ham bosilgan, ilg'or ziyolilarning materiallari yoritib borilgan.

¹ N. Abdullaev. Rossiya istilosi davrida Markaziy Osiyo san'ati Toshkent, 1999, 1–16-betlar.

Birinchi rus inqilobi (1905–1907) yillarida o‘zbek jadidlari bir qancha gazetalar chiqarishdi. Ularning orasida Ismoil Obidov muharrir bo‘lgan «Taraqqiy» gazetasi alohida o‘rin tutadi. Bu gazeta o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy tafakkurni rivojlantirishda katta rol o‘ynadi.

Jadidlar «Shuhrat», «Xurshid» gazetalarini ham chiqarganlar. Lekin bu gazetalar chorizm tomonidan tez orada yopib qo‘yilgan. Bu haqda eserlarning yashirin gazetasi «Molot» mana bularni yozgan edi: «Turkiston ellik yildan beri rus hukumati hukmronligi ostida kun kechirmoqda. Ammo Turkiston istilo qilinishi arafasidagi jaholat va nodonlik hanuzgacha saqlanib kelmoqda. Hukumat bo‘ysundirilgan xalqni olg‘a siljitish u yoqda tursin, aksincha, undagi xurofotni saqlab qoldi, chunki bu unga tinchgina hukmronlik qilish va aholini bemalol talashni ta‘minlar edi. Tuzem aholi o‘rtasidagi har bir yangilik hukumat tomonidan dushmanlik bilan qarshilana va shafqatsiz tusda bo‘g‘ib tashlanar edi. Hammaga ma‘lum erkinliklar deb atalmish ozodlik e‘lon qilingach, xususiy tashabbusga yo‘l ochilgach, tuzemeslarning ziyoli kuchlari o‘z bilimlari bilan ona yurtlariga xizmat qilmoqchi bo‘ldilar. Jo‘shqin inqilob tufayli uyg‘ongan rus jamiyati boshidan kechirayotgan jarayonga ularni jalb qilmoqchi bo‘lishdi. Ammo ularning bu istagi boshidanoq bo‘g‘ib tashlandi. Hokimi mutlaq zolimning bir dastxati bilan tuzemeslarning taraqqiyparvar madaniy gazetolari «Taraqqiy», «Xurshid», «Osiyo» yopib qo‘yildi.

Hozirgi kunda har bir davlatning istiqboli uning madaniyati darajasiga bog‘liq bo‘lgan yigirmanchi asrda, o‘z xududida o‘nlab G‘arbiy Yevropa davlatlari bemalol sig‘adigan besh viloyatdan iborat Turkistonda, mahalliy aholi 90 foizni tashkil etuvchi o‘lkada mahalliy tilda chiquvchi bironta ham xususiy gazeta yo‘q. Aholi ataylab zo‘rlilik ila jaholatda saqlanmokda, chunki rus gazetolari ularga etib bormaydi. Rus vatikani umuman ma‘rifatni yoqtirmaydi va har bir ilg‘or organda o‘zining ashaddiy dushmanini ko‘radi. Atigi ikki yil davomida podsho gumashtalari tomonidan «Russkiy Turkestan», «Turkestan», «Vperyod», «Fergana», «Samarkand», «Novsh Samarkand», «Rabotnik», «Tashkentskiy kurer», «Turkestanskaya jizn» gazetalarining yopilgani buning yaqqol dalilidir¹. Eserlarning bu yashirin gazetasi («Molot»)ning 1908 yil 25 dekabrda «Turkistonda rus davlatchiligini o‘rnatishning qisqacha ocherki» deb nomlangan maqolasida nomlari eslatilgan jadidlarning «Taraqqiy», «Xurshid», «Osiyo» va rus inqilobchilarining nashrlari faoliyatiga oid qiziq

¹ O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 31-ro‘yxat, 567-ish, 35-varaq.

fikrlar berilgan. Chunonchi, Toshkent eski shahar polismeysteri podpolkovnik N. N. Karaulshchikov «Tuzem aholi o'rtasidagi ozodlik harakati» nomi bilan yozgan axborotida so'nggi vaqtlarda yerli aholi ancha dadillashib, ijtimoiy hayotda uyg'onganliklari va bu borada ilg'or ziyolilar minbari – jadidlar tashkil qilgan «Taraqiy» gazetasi salmoqli ta'sir ko'rsatishini alohida uqgirib o'tgani bejiz emas¹.

Saltanat markazi vakili, alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi N.A.Vasilev o'zining dastlabki faoliyatini o'zbek ziyolilari – jadidlarning rus inqilobiy firqalari bilan aloqasini aniqlashdan boshladi. U Toshkent shahar hokimidan jadidlarning yetakchilari va ularning ommaviy axborot nashrlari haqida ma'lumot talab qildi. «Menga shuni xabar qilishingizni iltimos qilamanki, – deb yozgan edi N.A.Vasilev, – 1907 yilda Toshkentda sart tilida «Xurshid» sarlavhasi ostida gazeta chiqqanmi? Kim uning muharriri bo'lgan? Qachon chiqqa boshlagan? Qanday sabablarga ko'ra to'xtatilgan? Uning yo'nalishi qanday bo'lgan? Qaysi bosmaxonada chiqqan? Necha nusxada tarqatilgan?» Toshkent shahar boshlig'i tezkorlik bilan unga quyidagi javob yo'llagan: «Xurshid» gazetasi sof sart tilida 1907 yilda chiqqan. Muharriri Shayxovandtaxur dahasining Darxon mahallasida istiqomat qiluvchi Munavvar qori Abdurashidxonov, yordamchisi Fansurollohbek Xudoyorxonov va kotibi «Padarkush» mahallasida yashovchi sart mulla Muhammad Rahimhoji Muhiddinxo'jaev. Gazeta 6–7 oy mobaynida chiqib, hukumatga qarshi maqolalari hamda xalqqa xitobnomalari uchun yopilgan. Gazeta juda so'l yo'nalishda bo'lib, obunachilari soni 300 dan ziyod edi»².

Podpolkovnik Nikolay Vasilev va polisiya maslahatchisi Leonid Kvisinskiy markazning maxfiy ko'rsatmasi asosida o'lka xalqlarining mustamlaka tuzumiga qarshi milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qilishga qodir bo'lgan jadidlar va ularning hukumatga qarshilik ko'rsatuvchi «milliy dasturlari» nimalardan iborat ekanligiga asosiy diqqatlarini qaratishdi. Mahalliy xalqiarga munosabat masalasida rus inqilobiy firqalarining tutgan siyosatini o'rganishga ham e'tibor qaratildi. Sosial-demokratlarning tutgan yo'li eserlardan tubdan farq qilishi ham ularning nazaridan qochmadi. Siyosiy izquvarlar Turkiston o'lkasida marksizm va inqilobiy g'oyalarni targ'ib etuvchi firqalarning tashkil topishi va faoliyati bo'yicha ortig'icha tasavvur hosil qildilarki, Turkiston general-gubernatori Grodekov imperiya Ichki ishlar vaziriga bu haqda 1907 yil 18 aprelida yo'llagan maxfiy

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 32-ro'yxat, 840-a ish, 48-varaq.

² O'zR MDA, 461-jamg'arma, 2-ro'yxat, 1988-ish, 165-varaq.

xatida shunday deb yozgan: «Saroy maslahatchisi (nadvorniy sovetnik) Kvisinskiyni o'lkaga komandirovka qilish tajribasi shuni yaqqol ko'rsatdiki, bu ishdagi (siyosiy qidiruv) eng katta kamchilik mahalliy axborotlarni oladigan, jamlaydigan, uzuq-yuluq ma'lumotlarni yetuk ilmiy va malakali asosda tartibga solib umumlashtiruvchi organing yo'qligidadir. Janob Kvisinskiy shaxsan o'zi hech qanday ma'lumot to'plamagan bo'lsa ham bu boradagi omilkorligi va ulkan tajribasi turli qo'llardagi chalakam-chatti axborotlardan mohirona taxlil asosida o'lkadagi inqilobiy tashkilotlarning umumiy manzarasini yarata oldi. Janob Kvisinskiy tufayli o'lkadagi inqilobiy tashkilotlarning tarkibi va faoliyatining aniq manzarasini yarata oldik»¹. General-gubernator Ichki ishlar vaziriga yo'llagan maktubida quyidagicha g'oyani ilgari suradi: «Ushbu tajriba shunday katta samara berdiki, u o'lkada ana shunday kuzatuv organining doimiy bo'lishi zarur degan fikrga olib keladi»². Grodekovning bu g'oyasi imperiya Ichki ishlar vaziri va Bosh vazir P. A. Stolipin tomonidan qizg'in quvvatlandi. 1907 yilning noyabrida podpolkovnik Vasilev va polisiya maslahatchisi Kvipinskiy yaratgan maxfiy josuslik tarmog'i asosida bevosita markaz – Peterburgga xizmat qiluvchi rus maxfiy siyosiy polisiyasi Turkiston rayon muhofaza bo'limi (TRMB) tashkil qilindi. Peterburgning «ko'z-qulog'i» bo'lmish TRMBni ruslar «oxranka», o'zbeklar esa «siyosiy idora» deb atashdi. Rus siyosiy razvedkasi va kontrrazvedkasi vazifasini ham ado etuvchi maxfiy polisiya Turkistondagi barcha taraqqiyparvar kuchlarni aniqlash, ularning safiga ig'ovog'lar qo'shish, xalqlar, millat-elatlar o'rtasidagi nifoqni kuchaytirish va milliy-ozodlik harakati ko'rinishlarining barcha turlarini zudlik bilan aniqlab, rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, eng asosiysi, o'lkani ruslashtirishga monelik qiluvchi barcha kuchlarni zimdan, pinhon yo' oshkora yo'q qilish uchun xizmat qilishi lozim edi. Ana shunday idoraga rahbarlik qilish mohir, tajribali polisiya mansabdori Leonid Kvisinskiyga topshirildi. Podpolkovnik Vasilev esa general-gubernator mahkamasidagi barcha siyosiy yozishmalarning mutasaddiyisi – maxsus bo'lim boshlig'i vazifasini bajara boshladi.

Kvisinskiy va Vasilev hamkorlikda Turkistondagi milliy-ozodlik harakatini bo'g'ib tashlash, istiqloq uchun kurashga qodir shaxslarni «zararsizlantirish» rejasini ishlab chiqdilar. Bu rejani ijro etishga mustamlaka ma'muriyatining barcha arboblari jalb etildi. Maxsus ko'rsatmaga binoan, Vasilevning buyrug'iga barcha viloyat

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 367-ish, 13-varaq.

² O'sha hujjat, 16-varaq.

ma'murlari bo'ysunishga majbur edilar. General-gubernator buyrug'i bilan barcha viloyatlar, tumanlarga quyidagi savollarni aniqlash haqida yo'riqnoma yuborildi: «Aholi o'zining avvalgi mustaqilligini qanday eslaydi? O'tmishdagi ozodligini qo'msaydimi? Aholi rus ma'nuriyatiga umuman qavday qaraydi? O'tgan davrga nisbatan behurmatlik, norozilik payqaladimi? Tuzemeslarning yosh avlodi o'rtasida taraqqiyparvarlik yo'nalishi bormi? Ehtimollik nazariyasi bo'yicha mana shu yerli yosh avloddan kelajakda nima kutish mumkin? Bosmaxona uskunalari va gektoagraflar bormi? Bo'lsa ular xalqqa axborot, yo xitobnoma chiqarishga xizmat qiladimi?»¹ Yerli aholining kayfiyati, fikriy darajasini o'rganish bo'yicha ma'lumotlarni to'plashga mo'ljallangan mazkur yo'riqnoma 19 savoldan iborat bo'lib, ularga tumanboshilar batafsil javob yuborishga majbur edilar. General-gubernator ko'rsatmasi bo'yicha tumanboshilar, jabha (uchastka) pristavlari «o'zlariga bo'ysundirilgan tuzem aholi ustidan doimiy nazoratni susaytirmasliklari» hamda siyosiy razvedka bo'yicha ma'lumot yig'ishda uning asl maqsadini «bildirmasliklari, bu ishni ehtiyotkorlik bilan, mulohaza idrok ila va eng yaxshisi shaxsan amalga oshirishlari lozim», deb alohida ko'rsatma berildi. Xususan, ularni «josuslikda gumon qilishlariga aslo yo'l qo'ymaslik» uqtirildi².

«Sadoi Turkiston» gazetasi ilg'or g'oyalarni targ'ib qilib, bid'at, xurofot va turmush illatlarini fosh etdi. Uning sahifalarida yetuk ijodkorlar qatori yoshlarga keng o'rin berildi. Gazeta o'zining qisqa umri davomida (1914-1915) Abdulhamid Cho'lpon, Xurshid (Shamsiddin Sharafiddinov), Lutfilla Olimiy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Miskin, Mo'minjon Muhammadjonov, Hamza kabi adib va jurnalistlarni kamolga yetkazdi. Ularning ilk asarlari xuddi shu gazetada e'lon qilingan edi.

Xuddi shu davrda maqolanavislik ham keng rivoj topdi. Birgina muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning e'lon qilgan maqolalari 300 ga borgan. Mirmuhsin Shermuhamedov 1914 yilning o'zidagina 100 ga yaqin maqola yozgan. Cho'lpon, Qodiriy, Hamza, Mirmuhsinlarning hikoya va qissalari, milliy romanlari paydo bo'ldi. Zamonning dolzarb masalalarini aks ettira olgan ijtimoiy-siyosiy she'riyat maydonga keldi. Tavallo va Ajziyning she'rlari, Sidqiy Xondayliqiyning dardga to'la dostonlari dunyo yuzini ko'rdi. Kdrdosh xalqlarning, birinchi navbatda, turkiyazon qardosh xalqlar bilan adabiy-madaniy

¹ O'zR MDA, 468-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 80-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 367-ish, 16-varaq.

hamkorligi kuchaydi. Turkiston jadidlari Munavvar qorining tili bilan «Bizim Turkiston mamlakati tufrogʻ, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan boʻlaturib, na uchun oʻzimiz bundan foydalana olmaymiz?»¹, deb nola qildilar va unga shu arbob tilidan javob berdilar: «...bunday savollarga javob bermak uchun nodonlik va olamdan xabarsizlik, demakdin boshqa chora yoʻqdir. Bu nodonlik va dunyodan xabarsizlik balosidan qutulmoq uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va oʻrganmak kerakdir»².

Jadidlarga Turkiya taʼsiri Abdurauf Fitratda namoyon boʻldi. Uning Turkiyada taʼlim olgani, 1909–1913 yillarda yosh turklar harakati taʼsirida boʻlganligi maʼlum. Kamol Otaturkning soʻzi bilan aytganda, barcha turklarning eʼtibori «Turklarning vatan sevgisida toʻliq boʻlgan koʻksilari dushmanlarning malʼun ehtiroslariga qarshi doimo temirdan bir devor kabi yuksalajak»ligiga qaratilgan edi. Fitrat bu haqda shunday deb yozgan: «...Turkiyaga tahsil uchun bordim. Mana shu vaqtlarda men diniy isloh tarafdori edim: dinni fan bilan kelishtirish, fanga toʻgʻri kelmayturgʻon xurofot qismini dindan chiqarish, dinni tozalash xayollariga ishongan edim. Panislomizmning boʻlmagʻur xayol ekanini anglagach, panturkizm xayoliga berildim. Bu vaqtlarda yozganim asarlarda diniy isloh fikrlar koʻrilib turadir»³.

Fitrat turkchilik gʻoyasini «Sayyohi hindiy», «Sayxa» kabi asarlarida aks ettiradi. U musulmonlarni birlashtirib, Temur va Abdullaxon davlati shavkatini tiklash masalasini qoʻyadi. Xalqni, Vatanni bosqinchilardan ozod qilishga chaqiradi. Shu tariqa, Fayzulla Xoʻjaev soʻzi bilan aytganda, «rus podshosi va amirning ikkiyoqlama zulmi jadidchilik harakatini madaniyat tarqatish bilan shugʻullanish yoʻlidan siyosiy yoʻlga burib yubordi».

1911–1912 yillarda Tavfiqbek al-Aʼzamning risolasi oʻzbek tiliga tarjima qilinib Turkistonda keng tarqatilgani diqqatga sazovordir. Risolada musulmon dinining sosializm, anarxizm va boshqa Gʻarbda tugʻilgan taʼlimotlarga munosabati bayon qilingan edi. Muallif bu risolada Gʻarbda tugʻilgan har bir taʼlimot, shu jumladan, sosializm ham, insoniyatni baxt-saodatga olib kelmasligi va ijtimoiy munosabatlarning birdan-bir kamoloti musulmon dini qonun-qoidalariga

¹ *Sirojiddin Ahmad*. Munavvar qori. «Sharq yulduzi», 1995, 5-son.

² Oʻsha joyda.

³ *Sirojiddin Ahmad*. Vatan uchun tugʻilgan. «Toshkent haqiqati», 1992 yil, 16 may.

rioya qilishda ekanligini ko'rsatgan edi¹. Tavfiqbek «sosiialistlarning asossiz g'oyalari odamlarni baxt-saodatga olib kelmasligini» uqtirgan holda, «moddiy va ma'naviy baxt faqat ilohiy qonunlarga rioya qilgandagina» amalga oshishini yozgan edi. Turkistonda keng tarqalgan «Siroti mustaqim» degan turk jurnalida musulmon dunyosining uyg'onishi Sharq musulmonlarining islom bayrog'i ostida birlashishida namoyon bo'lishi aytilgan edi. Gazeta birdamlik xususida 1911 yil 20 yanvardagi sonida «Musulmon dunyosidagi uyg'onish» maqolasida shunday fikr bildirgan: «Panislomizm to'g'risida gap ketganda biz, musulmonlar, qaerda bo'lishimizdan qat'i nazar, o'zimizning bir butun madaniy xalq ekanligimizni unutmasligimiz lozim»².

TRMB Turkiyada panislomizm targ'iboti uchun «Yangi jomiy» maktabi tashkil etilgani va u Turkiston o'lkasi va Buxoro yoshlaridan iborat targ'ibotchilar tayyorlayotgani haqida axborotlar olgan edi. «Musulmonlar kengashi» deb atalgan tashkilotning 1913 yilda «Musulmonlarga!» xitobnomasida o'sha vaqtda sodir bo'layotgan voqealar ta'riflanib, Gresiya bilan urushayotgan Turkiyaga yordam berish lozirligi uqtirilgan edi: «Ovrupoliklar musulmonlarni o'ldirishmokda va ezishmoqda. Shuning uchun musulmonlar Turkiya atrofiga birlashishlari lozim»³, – deyilgandi o'sha xitobnomada.

TRMB agenturasi jadidlar bilan ilg'or rus demokratlari o'rtasida yaqin hamkorlik yuzaga kelganidan xabar beradi. Bu hamkorlikning bir uchi Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaevga borib taqalgan edi. Toshkent, Saratov va Petrograd eserlari davrasida yaqin kishi hisoblangan Ubaydullaxo'janing «Sadoi Turkiston» muharriri sifatidagi faoliyati ham ma'lum edi. Polkovnik Volkov shu gazetada Lev Tolstoyning Ubaydullaxo'jaga yo'llagan maktubini ham o'qigan edi. Graf Tolstoyning oddiy bir sart ziyolisiga e'tibori butun Turkiston jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb etgani maxfiy polisiyaning diqqatini unga alohida qaratgan edi. «Sadoi Turkiston» yopilgandan keyin Andijonga kelgan Ubaydullaxo'ja mahalliy jadidlar va rus jurnalistlari bilan yaqinlashib, hukumatga qarshi faoliyatini davom ettirdi.

Polkovnik Volkov Toshkent, Qo'qon, Andijonda jadidlar tashkilotlarida, o'zbek burjuaziyasidan tashqari, rus savdo-sanoat doiralari vakillari, shuningdek, inqilobiy firqa a'zolari ham borligi haqida signal

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1168-ish, 146-varaq.

² O'sha hujjat, 294-varaq.

³ O'sha joyda.

olgan edi. Bunday rus inqilobchilaridan biri Georgiy Pavlyuchenko haqida TRMB shunday ma'lumot olgan: kelib chiqishi Dondagi Rostov shahridan. 1905 yil dekabr qurolli qo'zg'alonida qatnashgan. 1909 yil Don sosial-demokratlari, 1914 yili Moskva eserlari tarkibida yashirin ish olib borgan. O'sha yili qamoqqa olinib Turkistonga surgun qilingan. 1915 yili Qo'qonga kelib o'zbek tilida chiqadigan «Sadoi Farg'oni» gazetasida ishlay boshlagan. O'sha yili hukumatga muxolif ruhdagi «Utro Fergani» gazetasi chiqara boshlagan. Rasman uning muharriri Lvov bo'lsa ham, aslida chinakam xo'jayin yahudiy burjuaziyasining moddiy madadigatayanibishko'ruvchi Pavlyuchenko edi. Gazeta noshirlari safida sobiq talabalar – e'tiqodi bo'yicha sosial-demokrat Shoislom Shoahmedov, Bolotin, Zubarev va boshqalar bo'lib, ular Pavlyuchenko boshchiligida «Utro Fergani» gazetasi obunachilari sonini oshirish uchun hokimiyatga qarshi maqolalar bosib chiqara boshladi. Pavlyuchenko boshchiligidagi noshirlar o'z oldiga urushdan keyin bo'ladigan to'ntarishga jamiyatni hozirlash va shunga kadrlarni tayyorlash maqsadini qo'ydi. Xuddi shu maqsadda 1915 yilning kuzida Pavlyuchenko Qo'qon matlubot jamiyati a'zolari o'rtasida targ'ibot o'tkaza boshladi. 1915 yilning dekabrda gazeta muharriri Lvov so'l qarashdagi maqolalarni yoritgani uchun 3 oyga qamal-gach, muharrirlik huquqi Pavlyuchenko qo'liga o'tadi. 1916 yil yanvaridan gazeta nomini «Ferganskaya jizn» deb o'zgartirdi. 4 apreldan esa «Turkestarskiy kray» nomini oldi. Pavlyuchenko bu gazeta yopilgandan so'ng, 1916 yilning yozida Skobelev harbiy boshlig'ining mahkamasiga mirzalikka o'tadi.

«1916 yil 1 iyuldan boshlab Andijon shahrida, – deb xabar qilgan edi agentura, – hukumatga qarshi yo'nalishdagi gazeta chiqqa boshladi. Bu gazeta moddiy mablag'lar yetishmasligi tufayli yolg'iz Chaykin tomonidan emas, balki pay puliga asoslangan noshirlik shirkati tomonidan chop qilinadi. Paychilar mahalliy ziyolilardan tashkil topgan edi. Janob Chaykin tuzem aholi o'rtasida shuhrat qozonish va o'z gazetasi paychilari sonini ko'paytirish uchun aholi manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmasiga olgan. So'nggi vaqtda «Turkestarskiy golos» gazetasining har bir sonida paxtakorlarga atalgan e'lonlar chiqmoqda. Bu e'lonlarda muharririyat paxtadan qarzdor bo'lib qolgan dehqonlarga murojaat qilib, kimning shikoyati bo'lsa tahririyatga xabar qilishini so'raydi. Gazetaning qarzdor dehqonlarga yon bosishi Mirkomil Mirmo'minboev kabi yirik boy-quloqlarga yoqmaydi, ammo bu tadbir aholining o'rtahol va kambag'al sinfi o'rtasida gazetani mashhur qilib, yangi-yangi paychilarni shirkatga jalb etmoqda. Qo'qonda yopilgan «Turkestarskiy kray» gazetasi

xodimlari endilikda shu «Turkestanский golos» gazetasi bilan hamkorlik qilmoqda»¹.

Maxfiy polisiya rahbari «Turkestanский golos» gazetasi xodimlari va faol muxbirlari to'g'risida ham aniq ma'lumotlarga ega edi. «Tahririyat tarkibi, – deb yozgan edi agentura, – bu gazeta yo'nalishini yaqqol ko'rsatadi. Muharrir – noshir Anastasiy Afanasevich Chaykin Andijonda hovli-joyli, yirik asalarichilik xo'jaligiga ega kishi. O'zaro yordam jamiyati raisi, shahar harbiy-sanoat qo'mitasi a'zosidir. Tahririyat xodimlari: 1. Vadim Afanasevich Chaykin (noshirning tug'ishgan ukasi) Ufa gimnaziyasida o'qigan kezlari o'quvchilar o'rtasida siyosiy g'oyalar targ'ibotchisi bo'lgan. Ufa gubernatoriga suiqasdga doir ishga daxldor. 1905 yilda V.Chaykin inqilobiy targ'ibot olib borishda faol qatnashgan. 1908 yilda Kursqda socialist-revolyusioner sifatida qamoqqa olingan. 1916 yilning yozida Andijonga kelgan. Iyul oyida esa Andijon aholisi nomidan Mirkomil Mirmo'minboev uni va Ubaydullaxo'ja Asadulla Xo'jaevni Petrogradga vakil qilib jo'natgan. Ular mardikorlikka safarbarlik ishini tekshirish uchun Davlat Dumasi a'zolarini Andijonga taklif etishga vakil qilingan edilar. 2. Stepan Antonovich Ruyko Xarkov dorilfununining sobiq talabasi, jurnalist, kasbiy taxallusi «Vl. Kachinskiy». Socialist-revolyusioner, maksimalist (o'ng eser). 3. Ubaydulla Asadulla Xo'jaev – Toshkent sartlaridan, qonunshunos, Andijonda yashaydi va ishlaydi. Gazeta xodimi va paychisi. E'tiqodli panislomchi sifatida Turkiston rayon muhofaza bo'limi tomonidan 1913 yili ro'yxatga olingan. O'sha yili Saratovdan Toshkentga qaytgan Ubaydulla qisman advokatlik, asosan esa targ'ibotchilik bilan shug'ullana boshlagan. U «Umid» deb atalgan ilg'or musulmonlar guruhiga bosh bo'ldi. Uning harakatlari tufayli Toshkentning Eski shahar qismida kitob savdosi tashkil qilindi. Mahalliy tilda so'l yo'nalishdagi gazeta nashr qilishga mo'ljallangan shirkat tuzildi. Gazetani nashr qilish bo'yicha Xo'jaev g'ayrati bekor ketmadi. 1913 yil 21 dekabrda unga Toshkentda mahalliy tilda «Sadoi Turkiston» nomida gazeta chiqarishga ruhsatnoma berildi. So'l yo'nalishdagi mahalliy tilda chiqadigan gazetaning keng omma o'rtasidagi ulkan ahamiyatini hisobga olib, general-gubernator davlat bosmaxonalari bu gazetani chiqarish bo'yicha buyurtmalar qabul qilmaslik to'g'risida farmoyish berdi. Natijada gazeta 1914 yil fevralidagina chiqa boshladi. Xuddi o'sha yili Toshkentda Ubaydulla Asadulla Xo'jaev rahbarligida sahnada «Padarkush» pesasi qo'yiddi. 1914

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1963-ish, 13-varaq.

yildan Xo'jaev Toshkent mujohidlari safiga qo'shilib, o'lkada Rossiya hukmronligiga qarshi qaratilgan targ'ibotchilik faoliyatini maxfiy ravishda davom ettirdi. «Sadoi Turkiston» gazetasi yopilgandan so'ng Xo'jaev Andijon shahriga kelib advokatlik bilan shug'ullana boshladi. 1916 yil 1 iyuldan «Turkestanskiy golos» gazetasida hamkorlik qiladi»¹.

Agenturaning bir tarmog'i polkovnik Volkovga shunday axborot yo'llagan: «Chaykinning fikricha, bosh maqsadi mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish bo'lgan «Turkestanskiy golos» gazetasi o'zining paylaridan ko'pini (25 ming rubllik) Qo'qon shahridagi «G'ayrat» deb atalmish mahalliy musulmon ma'rifatchilar jamiyatiga joylashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bu jamiyat Andijon shahridagi 1916 yil oktyabr boshlarida «Turkestanskiy golos» tahririyati rahbarligida sarta matbuot organini nashr qilishga kirishmoqchi. Mazkur masalani uzil-kesil hal qilish uchun 4 oktyabrda «G'ayrat» jamiyati a'zolarining shoshilinch majlisi chaqirildi. Majlisda jamiyat ustaviga ba'zi o'zgarishlar kiritish, pay kapitalini 12500 rubldan 50000 rublga yetkazish, xususiy bosmaxona sotib olish va musulmoncha gazeta chiqarish masalalari muhokama qilindi. «Turkestanskiy golos» gazeta tahririyati «G'ayrat» jamiyatiga o'zining xususiy nashr organini Andijonda emas, balki Ko'qonda «Turkestanskiy kray» gazetasi tahririyati rahbarligida chiqarishni taklif qildi. Agar «G'ayrat» jamiyati bu gazeta paylarining ma'lum qismini oladigan bo'lsa, uning bosmaxonasidan foydalanishi mumkinligi ham aytili. Bu masala hal bo'lish arafasida. «G'ayrat» jamiyati hozircha «Turkestanskiy golos» gazetasining 25 ming rubllik paylarini sotib oldi.

«Turkestanskiy golos» gazetasiga obuna yig'ish uchun Andijondan gazeta kotibi Nikolay Mixaylov Narinskiy (taxallusi Turkkestanskiy, Samatin) Qo'qonga jo'nab ketdi. U Namangan, Skobelevda ham bo'lib, «G'ayrat» jamiyati a'zolaridan tashqari, boshqa ko'plab obunachilarni topdi»².

Agentura ma'lumotlariga ko'ra, «Qo'qonda 9 oktyabrda Obidjon Abduxoliq Mahmudovning uyida «G'ayrat» jamiyati a'zolarining ikkinchi yig'ilishi bo'lib o'tgan. Unda Qo'qonda xususiy bosmaxona ochib, sarta tilida musulmoncha gazeta chiqarish masalasi muhokama qilingan. Boy sartlar bu tadbirga mablag' berish haqida rozilik bildirishgan. Bu ishda 1914 yilda ilg'or yo'nalishdagi «Sadoi Farg'ona» gazetasini nashr qilgan Obidjon Abduxoliq

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 35-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 36-varaq.

Mahmudov salmoqli ta'sirga ega edi. U boy mulkdor, ayyor va tadbirkor kishi bo'lgan. Panislomizm g'oyalari o'ta berilgan. U ko'p marta yig'inlarda Turkiston o'lkasi ruslardan ozod bo'lishi kerakligi haqida gapirgan».

Mulohaza uchun ma'lumotlar

Jadid Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriylarning sa'y-harakati bilan chiqa boshlagan «Sadoi Farg'ona» gazetasi ham tahsinga sazovor faoliyat ko'rsatdi. Uning sahifalaridan butun vodiya kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy hayotga oid ko'plab maqolalar o'rin olgan. Turmushda mavjud bo'lgan xilma-xil kamchilik, nuqsonlarni fosh etish orqali mahalliy aholi milliy ongining o'sishiga xizmat qiluvchi xat va xabarlar ham gazetadan muntazam o'rin olib turgan.

Gazetaning 1914 yil 2 iyul sonida «Andijonda ovmachilik» nomli maqolada jamiyatdagi ayrim nopok, yaramas illatlar ochiq-oshkora fosh qilingan. «Andijonda, – deyilgan edi, jumladan, bu maqolada, – Ollo-qulbek qasrida bir saroy va bir necha do'konlarda ushbu XX asrda Turkistonda mavjud bo'lib turg'on qabixadan, ya'ni bachchabozlik ko'p rivojda ekan. Mazkur mavze'da 13 yoshdan 16 yoshgacha yetgan juvonlardan yetti nafar bor ekan. Har kun va kechalari 500 nafardan bir ming nafargacha odamlar, hattoki madrasalardagi mullabachchalar jam bo'lishib choy ichib o'tirar ekanlar. 7 iyunda mazkur mavze'dan o'tib erdimki, mazkur saroyga ko'zim tushdi. Bir necha nafar o'rislar ko'rindi, ichkari kirib qarasam 4 nafar o'ris starshiyalari xotinlari ilan ikki nafar mehmonlari ilan va boshqa odamlar jam bo'lishib, 4 nafar bachchani o'ying'a solib turibdur.

Ba'zi odamlar bachchalarga 5 rubllik, 3 rubllik qog'ozlarni yopishtirib turib ekanlar. Ajabo! Andijon qozi va ulamolari teatrni harom deb, bul tariqa ma'lum va mashhur joyda bo'lib turgan bachchabozlikni nimaga ko'zlari ko'rmas ekan? Va na uchun amri-ma'rif qilmas ekanlar?»

«Sadoi Farg'ona»ning 1915 yil 2 yanvar sonidagi «Nafsoniyat-qahramoni» sarlavhali maqolada esa Andijonda amalga oshirilayotgan xayrli, ibratli ishlar hikoya qilinadi. Unda Andijondagi mashhur Oftobachi madrasasi binosi eski bo'lib, «talabalarni istiqomat qilmoqlariga yaramay qolinganligi sababli, Andijonning yalang'ochqo'rg'onlik hoji Muhammad eshon janoblari Nasibullo o'zaqchalaridan mazkur madrasa binosini isloh qilib burungi mudarris keltirilib, madrasani avvalgidek obod qilib talabalar o'qumoqda ekanlar» deb yozilgandi.

Gazetaning o'sha yil 25 fevral sonida «Ana mullalarningahvoli!» degan xabar e'lon qilinadi. Unda, jumladan, mana bu satrlar bor edi: «Andijonda Mahmud dasturxonchi madrasasida turg'uvchi bir necha nafar axloqi buzuq yomon mullalar bir yaxshi pok mulloni madrasadan zo'rlik qilib chiqaribdurlar. Bechorani gunohi bachchabozlikdan mone' qilishi ekan. So'ngra bechora to'g'ri mulla janob inspektor to'rag'a arz qilibdur. Inspektor to'ra mazkur ishni haqiqat qilmoqqa madrasaga borib polisiya bilan hujraga kirib kitoblar ko'rib turilg'on holqa bir to'nki yashchinda bachchalarg'a solib o'ynaturgon (kokil) topibdurlar. Bul ishdan ko'p narida bo'lib janob inspektorg'a yuboribdurlar. Ana mullalarning ahvoli!».

Shu gazetaning 15 may sonida Ashurali Zohiriyning «Turkistonda birinchi yurist» maqolasi bosildi. Unda Toshkentdan Qo'qonga kelib qolgan Toshpo'latbek Norbo'tabek o'g'li haqida gap borar edi. O'zbeklardan birinchi bo'lib dunyoviy fanlar bo'yicha yevropacha usuldagi oliy ma'lumotga ega bo'lgan bu ziyolining hayoti va faoliyati o'zgalarga namuna sifatida targ'ib qilingan.

Ana shunday ma'lumotlar asosida TRMB boshlig'i polkovnik Volkov o'z boshliqlariga yuborgan mutlaq maxfiy axborotlarida shunday xulosa chiqargan edi: «Xulosa qilib aytganda, «G'ayrat» shirkat jamiyati hissadorlar jamiyati emas, balki demokratik asosga qurilgan izchil artel sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Bu birodarlik faoliyat doirasi shundayki, u bilan doimo hisoblashishga va unga muhofaza bo'limi doimo ko'z-quloq bo'lib turishiga to'g'ri keladi»¹. Polkovnik Volkov agenturasi yo'llagan yana bir axborotni ham uning boshliqlari diqqat bilan o'rgandi. Bu axborotda Ubaydullaxo'ja bosh bo'lgan Toshkent jadidlari Andijondagi «Taraqqiyparvarlar» firqasi bilan birlashgani va ularda tumanboshi tilmochlari Sulaymon Kelginboev, Akbarboy va Madamin Boytursunovich O'rozaliev hamda Ubaydullaxo'janing ukasi Bashirulla Xo'jaev muhim rol o'ynashi ko'rsatilib, ular bilan maslakdosh rus jurnalisti Vadim Chaykin hokimiyatga qarshi mahalliy yoshlarni uyushtirayotgani ma'lum qilingan edi. Greklar ustidan Turkiyaning g'alabasini tilovchi bu maxfiy jamiyatning maqsadi, agent fikricha, «mahalliy rus hokimiyatini yerga urib qoralash orqali mahalliy xalq o'rtasida obro' qozonishdir». TRMB maxfiy agenti Mirza Ahmad Qushbegiev esa uni to'ldirib «agar bu jamiyat jazosiz qolaversa u holda dahshatli kuchga aylanadi. Xalq ularning qarmog'iga ilinib, jilovini

¹ O'zR MDA, 1-jang'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 35-varaq.

ularga berib qo'yadi»¹, deb o'zbek jadidlari faoliyati to'g'risida batafsil axborot bergan edi.

TRMB boshlig'i jadidlar safida Qushbegiev, rus inqilobchilari qatorida esa «Avgustovskiy» kabi o'z «Azef»lariga ega edi. Yevgeniy Filippovich Azef eserlar firqasi Markaziy Qo'mitasi a'zosi, jangovar terrorchi tashkilot rahbari sifatida 1901-1908 yillarda podshoh amaldorlarini dahshatga solgan. Ichki ishlar vaziri Pleveni o'ldirgan eserlar rahbari. Aslida u rus siyosiy polisiyasi agenti bo'lgan. Uning kimligi 1908 yildagina fosh qilingan va katta shov-shuvga sabab bo'lgan. Avgustovskiy 1912-1917 yillar mobaynida bolsheviklar safiga kirib olgan TRMB maxfiy agenti edi.

Polkovnik Volkov rus hukumati siyosatini belgilashda maxfiy siyosiy razvedkachi sifatida general-gubernatorga zarur yo'riqlarni berib turdi. 1916 yil avgust oyida Kuropatkin bilan o'lka safariga chiqqan Davlat Dumasi a'zolari orqasidan o'z odamlarini qo'yib, ularning har bir harakatini ko'zdan qochirmadi. Uning agentlari Turkiston ma'muriyati ustidan shikoyatlarni qabul qilayotgan Davlat Dumasi a'zolari faoliyati haqida shunday xulosaga kelishgan edi: «Davlat Dumasi a'zolari bilan suhbatdan so'ng tuzemeslar o'z ehtiyojlari va shikoyatlari bilan oliy hokimiyatga murojaat qila olishlari mumkinligini tushunishdi hamda ana shu hokimiyat panohida shikoyatlari asosli bo'lsa mahalliy hokimiyatdan qo'rqmasliklarini angladi»².

Mustamlakachi ma'murlar Toshkent, Andijon va Qo'qon kabi yirik ma'muriy markazlarda tobora kuchayib borayotgan «Taraq-qiyparvarlar» firqasidan hayiqib qolishdi. 1916 yil 16 oktyabrdan 3,5 oy oldin yopib qo'yilgan «Turkestanskiy kray» gazetasi yana nashr qilina boshladi. Uning muharriri o'zbek advokati Shoislom Sulton Shoahmedov bo'lib, muharririya xodimlari ilg'or fikrli rus ziyolilari edilar. Siyosiy razvedka boshlig'i Volkov o'zining 1916 yil 4 noyabrdagi general-gubernator nomiga yuborgan maxfiy axborotida ularga shunday ta'rif beradi: «Gazetada shifokor David Ilich Chernoborodov ishlaydi. U o'zining 1905 yildan beri davom etib kelayotgan jinoiy faoliyati bilan bizga tanish. Kazalinsk shahridan kelgan Zubarev Ivan Yegorovich socialist-revolyusionerlar firqasi bilan 1910 yildan bog'langanligi ma'lum. So'lyo'nalishdagi qarashlari bilan taniqli Berdichevskiy Moisey Markovich Vadyaev shirkati idorasida ham ishlaydi. Gazeta uchun pulni Qo'qon Birja Qo'mitasi

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1902-ish, 65-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 8-varaq.

bermoqda. Kelgusida gazeta muharriri Shoahmedov bizga noma'lum manbadan 100 ming rubl olishni mo'ljallamoqda. Bu mablag' gazeta faoliyatini kengaytirishga sarflanmoqchi. «Turkestanskiy kray» gazetasi «Turkestanskiy golos» gazetasi qiyofasida kuchli raqobatchini ko'rsa-da, bu raqobat g'oyaviy mazmunda bo'lmay, balki sof tijorat jabhasidadir»¹.

General-gubernator mahkamasi maxsus bo'limi, ya'ni siyosiy razvedka, Turkiston rayon muhofaza bo'limi hujjatlari shuni ko'rsatadiki, Turkistonning harbiy-siyosiy doiralari jadidlarning «Taraqqiyparvarlar» firqasi nashrlari ta'siridan talvasaga tushganlar.

Turkiston matbuoti tarixida «Hurriyat» (1917–1918) gazetasining ham o'rni salmoqlidir. Samarqandda haftada ikki marta 4 sahifada chiquvchi bu gazetani taraqqiyparvar ziyolilar tashkil etishgan edi. Gazetani «Zarafshon» kompaniyasi chiqarib, unga jadidlar yetakchilaridan Akobir Shomansurzoda muharrir bo'lgan. Tahririyat tarkibida o'lkaning taniqli ijtimoiy-siyosiy arboblardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Said Ahmadxo'ja Siddiqiy, Mardonqul Shomahmudzodalar bo'lib, ularning materiallari gazetadan keng o'rin olgan.

Jadidlarning jurnallari ham Turkiston xalqlari milliy ongini o'stirish va o'zligini anglashda katta xizmat qilganini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Bu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida 1915 yiddan chiqqan «Oyina» jurnalining faoliyati diqqatga sazovordir. «Oyina» o'zbek tilining sofligini saqlash uchun kurashdi va ruslashtirish jarayonining salbiy ta'siridan saqlanishga chaqirdi. «O'z xalqchilligimizni yo'qotsak, – deb yozgan edi «Oyina», – e'tiqodimiz ham o'z-o'zidan yo'qoladi. Til muhofazasi eng muhim majburiyatdir».

Ulamolar tomonidan 1915–1918 yillarda chiqarilgan «Al-isloh» jurnali faoliyatida ham ma'rifatparvarlik, din, urf-odatlar sofligi va rus ta'siriga qarshi kurash ustivor edi. 1917 yil fevral inqilobidan keyin «Al-izoh», «Ishchilar dunyosi», «Kengash», «Hurriyat» kabi jurnallar chiqa boshladi. 1896 yildan 1917 yilga qadar 18 ta ruscha jurnallar nashr qilinganini ham eslatib o'tish darkor. «Средне-азиатский вестник» (1896), «Туркестанский скорпион» (1907), «Средняя Азия» (1910), «Туркестанский кара-курт» (1911), «Степные миражи» jurnallari shular jumlasidandir².

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 33-varaq.

² Mustamlaka Turkiston matbuoti tarixi tarix fanlari doktori N.Abduazizova tadqiqotlarida to'la o'z aksini topgan. «Milliy jurnalistika tarixi». T., 2008. ikki jildlik.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston matbuoti o'z davrining ovozi vazifasini o'tadi. Mustamlaka istibdodida o'lkaning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy hayotini o'zida yaqqol aks ettirdi.

Fan va san'at. Mustamlakachilar, eng avvalo, mahalliy xalqning o'zligini tanishlariga mone'lik qildilar. Aksincha, turli yo'llar bilan rus madaniyatini targ'ib etishga kirishdilar. Xalqimizning ming yillar davomida tarkib topgan, shakllangan va rivojlangan, ayni paytda, o'zining an'alariga ega bo'lgan qadimiy va boy madaniyatning rivojlanishiga sun'iy to'siqlar qo'yildi. Milliy ruhimizga, milliy ongimizga yot bo'lgan o'zga xalq madaniyatini milliy ehtiyojsiz o'zlashtirib bo'lmagligi nazar-pisand qilinmadi.

Rossiya mustamlakachiligi sharoitida ilm-fan sohasida eski uslublarga yopishib olish hollari davom etdi. An'anaviy ravishda dunyoviy bilimlarni o'rganish, ularni yanada rivojlantirish ustidan davlat g'amxo'rliqi deyarli bo'lmadi. Ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida ularning boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqalari, ijodiy hamkorlik e'tibordan chetda qoldi.

Barcha istilochilar kabi rus mustamlakachilari ham o'zgalari yeriga egalik qilish uchun, eng avvalo, uning madaniyatini yo'q qilish zarur ekanligini yaxshi tushunar edilar. Har holda, madaniyat va milliy istiqlol g'oyasi bir-birini to'ldirsa, ular vatanparvarlik ifodasi sifatida namoyon bo'lishi, aks holda, ular bir-birini inkor etsa, kishilarda, jamiyat a'zolarida ijtimoiy loqaydlik, manqurtlik, hat-toki, Vatan tuyg'usi sofligi va mustaqillik uchun befarqlik yuzaga kelishi rus mustamlakachilari uchun suv bilan havodek zarur bo'lib qoldi.

O'zining yovuz maqsadini amalga oshirish uchun Rossiya davlati o'lkada ko'plab yevropacha ijodiy uyushmalar, birlashmalar tashkil etishga homiylik qildi. Bu narsa, tabiiyki, o'sha ijodiy uyushmalarning tashabbusi bilan emas, aksincha, davlat siyosiy rahnamoligi oqibatida yuz bergan edi.

Rus mustamlakachilarining Turkiston xalqlari fani va madaniyatiga tuban munosabatda bo'lgani haqida rus sharqshunos olimlaridan Ye.F.Kal ustoz baron Rozenga (Sankt-Peterburg) yo'llagan maktubida shunday yozgan: «Bu yerda o'lkani tarixiy, lingvistik o'rganishga juda loqaydlik hukmron. Eng achinarlisi va umuman eng yomoni shuki, mahalliy rus jamiyatining ko'pchiligi tuzemeslarga past nazar bilan qarashadi. Ularning hayoti, turmushi, tarixi, tili va boshqa tomonlariga mutlaqo befarq munosabatda bo'lishadi. O'z vazifalariga ko'ra aholi bilan bevosita muloqotda

bo'lishi lozim ma'muriyat vakillari – tuman boshliqlari va ularning o'rinbosarlari haqida gapirmasa ham bo'ladi»¹. Xuddi shunday fikrni V.V.Bartold ham aytgan edi. U 1914 yili asarlaridan birida mana bunday deb yozdi: «O'rta Osiyoning qadimgi madaniyatini o'rganish va yodgorliklarni qo'riqlash faqat foydasizgina bo'lib qolmay, balki zararli ham deb hisoblangan»².

Turkiston madaniy boyliklari, Rusiya mustamlakachilaridan tashqari, chet ellik sayohatchilar tomonidan ham beayov talangan. 1895 yilda o'lkada bo'lgan shved me'mori Martin bu holatga jahon fan-madaniyati nuqtai nazaridan chek qo'yishni so'rab Rossiya imperiya hukumati boshlig'i graf S.Yu.Vittega murojaat qilgani bejiz emas. Shved me'mori Samarqanddagi me'moriy yodgorliklarning birgina Turkiston, Osiyo uchungina emas, balki umumjahon madaniyati uchun ham ulkan ahamiyatini ta'kidlab, graf Vitte dan Samarqanddagi ulug'vor obidalarni vayronagarchiliqdan saqlab qolish uchun zudlik bilan chora-tadbirlar ko'rishni iltimos qilgan edi³.

Turkiston o'lkasidagi nodir qo'lyozmalar, kamyob kitoblar, ko'hna arxeologik buyumlar, oltin-kumush tangalarni yig'ish va shu maqsadda boylik orttirish bilan shug'ullanayotgan rus amaldorlarining ayrimlari Turkistonning tabiiy boyliklaridan tashqari, o'zining tarixiy o'tmishi bilan ham e'tiborga loyiqligini tushungan. Xuddi shular o'lkadagi ilmiy jamiyatlar faoliyatida bevosita qatnashgan. Moskva va Sankt-Peterburglik sharqshunoslar esa o'lkani astoydil o'rganish fan uchun katta ahamiyat kasb etishini tushunib, bu yerda ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

1870 yilda ommaviy kutubxona, 1876 yilda Toshkent ommaviy muzeyining ochilishi ham ana shu olimlarning sa'y-harakati bilan tashkil topgan edi. Bu muassasalar aslida rus mustamlakachilarining Turkiston ma'naviy boyliklarini ilmiy asosda o'rganish, ularni imperiya manfaatlari yo'lida o'zlashtirishni markazlashtiradigan muassasalar xizmatini o'tishi kerak edi. Ularda Turkiston xalqlarining moddiy va ma'naviy boyliklari to'planib, qiymati aniqlanar va eng noyob, jahon ahamiyatiga moliklari markazga – Sankt-Peterburg va Moskvaga olib ketilgan. Shu tariqa yillar davomida olib borilgan ilmiy-tekshirish va arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ko'plab yodgorliklar Rossiyaga va boshqa chet ellarga olib ketildi.

¹ Sodiqov H. Ko'rsatilgan dissertasiya, 130-bet.

² Бартольд В.В. Задачи русского востоковедения в Туркестане. Петроград, 1915, стр. 17.

³ O'zR MDA, 394-jamg'arma, 1-ro'yxat, 143-ish, 19-varaq.

Turkiston tarixi ko'plab rus olimlari nomini jahonga tanitdi. Masalan, Samarqand viloyat boshqarmasi xodimi V.L. Vyatkin nomini jahonga mashhur etgan narsa ham Samarqand obidalari bo'ldi. Havaskor o'lkashunos V. L. Vyatkin 1908-1909 yillarda Obirahmat arig'i yaqinidagi Poyi rasad tepaligida qazuv ishlarini olib bordi. Unga Shayboniyxon madrasasining mudarrisi Abu Said mahsum yaqindan yordamlashdi. Bu o'zbek olimi, professor N. I. Veselovskiy ta'biri bilan aytganda, «musulmon adabiyotining zo'r bilimdoni» edi. U Qurbonjon dodxoh arxivini tartibga solish vaqtida qiziq bir hujjatga ko'zi tushgan va uni Vyatkinga bergan. Ana shu hujjat unga bevosita qazuv ishlarini boshlashga muhim bir turtki bo'lgani haqida Vyatkinning o'zi bunday degan: «Poytaxt Samarqandda Mirzo Ulug'bek tarafidan bino etilgan rasadxona ko'pgina musulmon adib va muarrixlari tarafidan muttasil zikr etilardi. Xususan, Mirzo Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining mashhur «Boburnoma» kitobida rasadxonaning turish joyini taxmin qilib ko'rsatgan edi. Shunday bo'lsa-da, bunday ahamiyatli va azim bir binoning manzili ushbu vaqtgacha ma'lum emasdi....Rasadxonaning o'rnini topib ochmoqqa maning qo'limga tushgan bir vaqfnoma sabab bo'ldiki, mazkur vaqfnoma bundan 250 yil avval yozilgan». O'zbek ziyolisi Abu Said maxdumning bu kashfiyotdagi xizmatini ruslarning o'zi tan olishgan. O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va etnografik jihatdan o'rganuvchi Rossiya qo'mitasi uni 100 rubl pul bilan taqdirladi¹. Mustamlaka Turkiston sharoitida o'z eli tarixi, madaniyati va fani jonkuyari, vatanparvarlar ham bo'ldi. Ular O'rta Osiyo tarixi, ilm-madaniyati va betakror obidalarini keng jamoatchilikka tanitish va ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish yo'lida fidokorlik ko'rsatdilar. Turkiston, Rossiya va umumjahon ko'rgazmalarida ham o'z kolleksiyalari bilan qatnashdilar. Toshkentda 1890 yilda Turkiston fani, sanoati va qishloq xo'jaligining 25 yillik yubileyi ko'rgazmasi ochilganda ana shunday mahalliy o'lkashunoslardan Akrom polvon Asqarov o'zi to'plagan eksponatlarni namoyish qildi². Ham tijoratchi, ham ilm-fan fidoyisi bo'lganlardan yana biri Mirza Abdulla Buxoriy (1893 yili vafot etgan) kasbkori bo'yicha ikkinchi toifali savdogar va mahalliy ipak, jun hamda ip-gazlama fabrikasining xo'jayini edi. 1878 yili u Toshkentda ko'rgazma tashkil etishda ishtirok etdi. Ko'rgazmaga xonatlas, turli rangdagi ayollar bosh kiyimi va har xil ro'mollardan iborat kolleksiya taqdim qiladi. Mirza Abdulla

¹ Известия Русского Комитета, 1910, №10, стр. 9.

² Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. Toshkent, 1981, 51-bet.

savdogar Muhammad Shokir bilan birga «Ipak buyumlari ishlab chiqarishni ancha takomillashtirgani va kengaytirgani» uchun oltin nishonga sazovor bo'lgan. 1886 yili Turkiston ko'rgazmasida, 1887 yili Xarkov qishloq xo'jalik ko'rgazmasida qatnashdi. U keltirgan ipak mahsulotlar tomoshabinlar diqqatini o'ziga jalb etgan. U tezda sotilib ketgan ana shu gazmollari uchun mukofot olgan edi. Mirza Abdulla N.I.Veselovskiy bilan ham aloqada bo'lgan. N.I.Veselovskiy Mirza Abdulla kolleksiyalarini ko'rib chiqib, undan 1202 buyum, shu jumladan, 11 tilla va 77 kumush tanga, 951 dona chaqa, 18 ta muhr, odamlar, hayvonlar tasviri tushirilgan 6 ta tosh sotib olgan¹.

N.I.Veselovskiy bilan tanishib, hamsuhbat bo'lishi, shuningdek, Afrosiyob qazilmalarini borib ko'rishi Mirza Buxoriyda yodgorliklar to'plash faoliyatini yanada kuchaytirgan. Natijada u qadimgi narsalarning ilmiy ahamiyatini tushunishga harakat qilibgina qolmay, rus fani va madaniyati yutuqlari bilan yaqindan tanishishga ham intildi. O'z tashabbusi bilan Moskva va Peterburgga sayohat qildi: Kremlda bo'ldi, Tretyakov galereyasini borib ko'rdi.

Mirza Abdulla Buxoriy to'plagan moddiy madaniyat yodgorliklaridan ko'pchiligi Sankt-Peterburgdagi Ermitaj va Arxeologiya komissiyasiga yuborilgani hamda qabul qilinganiga doir ma'lumotlar bor. 6 ta maxsus qutiga joylashtirilgan 6300 ta qadimiy osori-atiqalarni Buxoriy hech qanday narx qo'ymay Rossiya foydasiga tekinga sovg'a qilgan².

Tarix va madaniyat jonkuyarlaridan yana biri Turdi Mirg'iyos o'g'li bo'lib, yurtsevarligi bilan ajralib turgan. U 16 yil Davomida yiqqan kolleksiyalari bilan taniqli o'lkashunoslar qatoridan o'rin olgan. Turdi Mirg'iyos o'g'li tarixiy obidalarning jonkuyar targ'ibotchisi ekanligini uning general-gubernator mahkamasi xodimi, sharqshunos Abubakr Divaevga yo'llagan bir maktubi yaqqol ko'rsatadi. Maktubda xususan mana bularni o'qiyimiz: «Bizning To'qmoq rayoni atrofida, hozirda sug'orish ishlari olib borilayotgan joyda qirq chaqirim masofaga qadar cho'zilgan qadim shahar qoldiqlari yotibdi. U yoki bu belgilariga ko'ra bu yerda qachonlardir yuksak madaniyatli xalqlar yashagan. Har qadamda qabr toshlari ko'zga tashlanadi, nestoriancha va musulmoncha yozuvlari bor. Shunisi ajablanarliki, bu ko'hna shahar qoldiqlari haqida hech kim bir nima bilmaydi, na Ovrupo, na Sharq tarixchilariga ham noma'lum bu shahar... Mahalliy qariyalar buni Xitoy shahri deyishadi. Ammo arabcha yozuvlar bu taxminni rad

¹ Sodiqova N. Ko'rsatilgan kitob, 52-bet.

² Sodiqova N. Ko'rsatilgan kitob, 54-bet.

qiladi. Bir qo'rg'onda qazishma qilganimda Vizantiya uslubidagi ikki alebastr ustunchalarni topdim, chuqurroq bir joyda esa arab uslubidagi buyumlarni uchratdim. Bu joylardan topilgan tangalar turk amirlari, xalifalariga tegishli, hijriy 425–426 yillarga oid. Yana shuni ham xabar qilishni lozim ko'raman. Kanal o'tkazilayotgan joydan sharq tomon 18-20 chaqirim narida juda qadim zamonga oid minora turibdi. Bu ko'hna inshootning g'ishtlarini atrofdagi odamlar tashib ketishmoqda. Biz Verniy shahriga uchta telegramma yubordik, ammo hech qanday javob olmadik. Oradan yana uch yil o'tsa, bu nodir minoradan hech narsa qolmaydi. Qisqa qilib aytganda, turkistonlik arxeologlar bu yerdagi qadimiy yodgorliklarni o'z himoyasiga olmasalar, fan va tarix uchun qimmatli hamma narsa ado bo'ladi va biz avlodlar qarg'ishiga uchraymiz»¹.

Samarqad viloyatining Xo'jand tumanida Hoji Yusuf Mirfayozovning ilmiy-madaniy faoliyati ham diqqatga sazovordir. Uning uyi Xo'jand madaniy markaziga aylangan. Falakiyotshunoslik, matematika, geografiya, tabobat, tarix bo'yicha bilimdon Hoji Yusuf rahbarligida yaratilgan Yer shari globusi XIX asr ikkinchi yarmidagi ilmiy kashfiyotlardan biri edi. Globusda 1000 dan ortiq geografik nomlar joylashtirilgan². Turkiston olimlari sinovidan o'tgan bu globus Peterburgda ham namoyish qilingan. Rossiya Imperatori Geografiya jamiyati a'zolari uning ilmiy jihatdan mukammalligiga ishonch hosil qilishgan. Imperator Nikolay II va uning saroy amaldorlari ham globusni keng ommaga namoyish etishga sazovor degan xulosaga kelishgan va uning muallifini taqdirlashgan³.

Xoji Yusuf Mirfayozov (1842–1924) Osiyo va Yevropa mamlakatlarida ta'lim olgan o'z davrining ilg'or kishisi va ma'rifatparvarigina emas, balki butun Turkiston o'lkasi madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan olim sifatida ham o'zidan nom qoldirgan⁴.

Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ma'rifatparvarlarning ma'lum guruhi shakllanganini uqtirib o'tish lozim (Sattorxon Abdug'afforov, Saidrasul Saidazizov, Jo'rabek Qalandar qori o'g'li, Shohimardon Mirg'iyos o'g'li va boshqalar).

¹ O'zR MDA, 394-jamg'arma, 1-ro'yxat, 27-ish.

² X. Xasanov. Памятники Среднеазиаткой картографии. «Известия Узб. Географ. Общества», T.USh, Tashkent, 1964, 62-bet. Shu muallif. «O'zbekcha globus tarixidan». «Sovet makgabi» jurnali, 1962, 9- son, 39–42-betlar.

³ X. Xasanov. Географическое наследие ученых Средней Азии. Автореферат на соиск. уч. ст. доктора геогр. наук. Ташкент, 1967, стр. 37.

⁴ Saidi Sharif Muhammadrofe. (S.Sh. Marofiev) Xodji Yusuf Xudjandi. Xudjand, 1995, 13–17-betlar.

Mustamlaka Turkistonda fan va madaniyat sohasida bir necha ko'rgazmalar uyushtirilgan. «Turkiston fani, sanoat va qishloq xo'jaligining 25 yillik yubileyi ko'rgazmasi» 1909 yilda Toshkentda ochildi. 1911 yili 3 ta, 1912 yili 2 ta, 1915 yili 2 ta, 1916 yilda 1 ta badiiy ko'rgazma uyushtirildi. Turkiston ko'rgazmasi 7 marta Umumrossiya (1870–1913) va 10 marta jahon (1873–1914 yillar) ko'rgazmalarida qatnashgan¹.

Rossiya hukumati turli yo'llar bilan o'z madaniyati, xususan, qo'shiqchilik san'atini Turkiston hududida keng tarqatishga harakat qildi. Shuning uchun ham ular barcha vositalarni ishga soldilar.

XIX asrning 70-yillari boshlaridan havaskorlik badiiy uyushmalari paydo bo'laboshladi. Bunday ish bilan asosan Turkiston general-gubernatorligi shug'ullandi. Aslida, qo'shiqchilar uyushmalarini tashkil etish 1866 yilda dramatik to'garak sifatida, keyinchalik esa, 70-yillarning oxirlarida F. F. Nikitnikov rahbarligida musiqa to'garagi bilan boshlangan edi. 70-yillarning oxirlari – 80-yillarning boshlaridan o'lkaning turli yerlarida rus jamoalari tashkil etilib, ular o'zlarining madaniy-estetik mahoratini oshirishda madad so'rab yuqori tashkilotlarga murojaat qilaboshladilar.

Bularning hammasi keyinchalik Toshkent shahrida musiqa jamiyatini tashkil etishga unday boshladi. 1883 yil 5 fevralda Turkiston general-gubernatorligi bunday jamiyatni tuzishga ruhsat berdi. Shu yilning oktyabr oyida esa jamiyat uchun maxsus bino ajratildi. 1884 yil yanvar oyidan Toshkent musiqa jamiyati o'z faoliyatini boshladi. «Toshkent musiqa jamiyati» o'z safini tobora kengaytira bordi. Buning ijtimoiy sabablari mavjud bo'lib, ular ko'pincha mustamlakachilik ildizlarining mustahkamlanishi, Rossiyadan Turkiston hududiga ko'plab rus fuqarolarining ko'chirib keltirilishi bilan bog'liq edi. 80-yillarning ikkinchi yarmida jamiyat musiqa Havaskorlaridan tashkil topgan orkestr va xorga ega edi. Chunonchi, o'sha yillarning oxirlarida «Toshkent musiqa jamiyati» xorida 80 dan ortiq qo'shiqchilar faoliyat ko'rsatdi. Ayni paytda jamiyat qoshida ofiserlar havaskorlar orkestri ham faoliyat ko'rsatib turdi.

Toshkent rus qo'shiqchilik san'atining jonlana borishi bu yerda ko'plab ijodiy safarlarning uyushtirilishiga sabab bo'ldi. Masalan, 1889 yilda Toshkentga D. Slavyanskiyning xor kapellasi ijodiy safarda bo'lgan bo'lsa, keyinchalik «Малороссийская капелла», 1891 yilda Fransiya operetta truppasi, 1894–1898 yillarda esa Tiflis operasi Turkistonga safar uyushtirdi. Biroq, yevropacha usulda ijro

¹ Sodiqova N. Ko'rsatilgan kitob, 48-bet.

etuvchi gastrolchilar va Turkistondagi mavjud rus qo'shiqchilik guruhlarining konsertlari mahalliy aholi o'rtasida e'tibor topmadi. Xususan, ularning repertuarlaridagi «Галка», «Жизнь за царя», «Кармен» operalariga mahalliy aholi kirmaganligi yuqoridagi fikrlarni isbotlovchi dalil bo'lishi mumkin.

Lekin, Rossiya madaniyat sohasidagi o'z hukmronligini ta'minlash va mustahkamlash maqsadida turli jamiyatlar, uyushmalar, guruhlar tashkil etishda davom etaverdi. Masalan, 1891 yil 4 fevralda Turkiston general-gubernatorligi Samarqand musiqali drama jamiyatining tuzilganligi haqidagi hujjatni imzoladi, uning Nizomini tasdiqladi. 1907 yil mart oyida Sirdaryo viloyati general-gubernatori Toshkentda ham musiqali drama jamiyati Nizomini tasdiqladi. Jamiyatni tuzishdan asosiy maqsad bu yerda san'atning 2 janri – rus musiqasi va dramatik asarlarni kengroq yoyish edi. Ayni paytda Turkistondagi rus ma'muriyati bunday tadbirlarni uzoqni ko'zlagan holda olib bordi. Bosh maqsad ruscha usullarni mustahkamlash asosida Turkistonda Rossiya davlati mustamlakachilik siyosatini kuchaytirish edi. Bu jamiyatlarda mahalliy aholidan bironta odamning yo'qligi ham fikrimizning dalilidir.

Turkiston general-gubernatorligi o'lkada, ayniqsa Toshkent shahrida rus musiqiy markazlarini mustahkamlashga katta e'tibor berdi. Bu paytga kelib, o'quv yurtlarida xorlar tashkil etila boshlandi, yangi havaskorlik musiqiy to'garaklar paydo bo'ldi. Bularning ichida ayniqsa havaskor xor qo'shiqchilari to'garagi bo'lmish «Lira» ajralib turardi. Keyinchalik «Toshkent musiqa jamiyati» va «Lira» faoliyatlari bir-biriga yaqinlasha bordi. 1904 yilda Toshkentda simfonik va kamer musiqasi havaskorlari to'garagi tashkil etildi. 1906 yidda esa musiqa jamiyati tarkibida musiqa-dramatik jamiyat tashkil etildi. Ular o'z konsertlarini keng xalq ommasi to'planadigan joylar, shahar bog'larida ham namoyish eta boshladilar. Keyinchalik «Toshkent musiqa jamiyati»ning joylardagi filial, bo'lim, sho'balari ham tashkil etila boshlandi.

Turkistonga rus qo'shiqchilik san'atining kirib kelishida uning milliy san'at turlariga salbiy ta'sir qilishi bilan birga, ayni paytda, rus olimlari – musiqashunoslar, elshunoslarning o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining tarixini o'rganishda, xalq folklor asarlarini yig'ishda va tartibga solishda hamda nashr etish ishlarida ma'lum darajada ijobiy rol o'ynaganligini ham aytib o'tish lozim. Masalan, XIX asrning 70-yillarida ilg'or fikrlovchi va umuminsoniy qadriyatlarini o'z faoliyatlarida shaxsiy mezon darajasigacha ko'targan qator rus olimlari, musiqashunoslari o'zbek milliy qo'shiqchilik

san'atini (boshqa madaniyat va san'at shakllari kabi) ham chuqur o'rgana boshladilar. Ular ayniqsa qo'shiqchilik san'atida xalq og'zaki ijodi an'analarini qiziqish bilan tahlil qildilar. Ayni paytda, ayrim rus musiqashunoslari, san'atkorlari mahalliy xalq ijodkorlari, bastakorlar, ashulachilar bilan suhbatlashib, ularning og'izlaridan an'anaviy qo'shiqlarni yozib ola boshladilar.

Rus mustamlakachiligining to'siqlariga qaramasdan, O'zbekistonda an'anaviy qo'shiqchilik san'ati taraqqiy eta bordi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida yaratilgan kuylar va qo'shiqlar, tabiiyki, o'sha davrning og'ir kunlarini, ezilgan mehnatkash xalq ommasining orzuumidlarini ifodalaganligi bilan xarakterlanadi. Aslida bunday holat o'sha paytda mustamlakachilik asorati ostida bo'lgan barcha xalqlar, hududlarga taalluqli edi. Hofizlar asosan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Hamza, Xaziniy, Nadimiy, G'aribiy, Yoriy, Miriy kabi shoirlarning g'azalllarini kuylaganlar. Madali hofiz nomi bilan butun Farg'ona vodiysida katta obro'ga ega bo'lgan marg'ilonlik Madalibek Rahmatullaev (1876–1931) Xaziniy, Muqimiy, Rojiiy kabi shoirlar bilan yaqin ijodiy hamkorlikda ijod qildi.

Madali hofiz Rahmatullaevning zamondoshlari, Farg'ona vodiysida o'zlarining yuksak ijrochilik mahorati bilan barchaning hurmatini qozongan san'atkor, hofiz, musiqachi va bastakorlardan Farg'onaga yaqin Arsif qishlog'idan chiqqan Parpi hofiz, namanganlik Abdulla hofiz (Abdulla Fayzullaev), isfaralik Madumar hofiz, beshariqlik Hamroqul qori Qosimov, qo'qonlik Erkaqori Karimov va Maxram hofiz, marg'ilonlik hofizlar Abdurazzoq ota, Boltaboy Rajabov, Hasanqori, oltiariqlik mulla Usmon oxun, Mirzaahmad, mulla Burhon, andijonlik Toshkent hofiz, shahrixonlik Abdullajon mahsum Makayli hofiz, mulla Abduvohid, Solixo'ja hofizlar xonlar va chorizm istibdodi davrlarida yashab samarali ijod qildilar. Ular o'zlarining g'oyat nafis va go'zal san'atlarida jaholat va razolatni fosh etdilar. Marg'ilonlik mashhur doirachi usta Olim Komilov, kamonchi va dutorchi Otaxo'ja eshon, namanganlik dutorchilar Sobiroxun va Ramazonoxun, tanburchilar Jalolxon va Sultonxon, yozyovonlik Mamatxon qori Munakboevlar ham o'zbek san'atining rivojida faol mehnat qildilar.

Mustamlakachilik davrida qo'shiqchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og'ir bo'lgan. Shuning uchun ham ularning ko'pchiligi boshqa kasb bilan shug'ullanishga majbur bo'lganlar. Chunonchi, Madali hofiz Marg'ilonning O'rdadagi mahallasida attorlik qilib kun kechirgan, namanganlik Abdulla Fayzullaev taroqchilik kasbi bilan mashg'ul bo'lgan, shuning uchun uni Abdulla Taroq ham deb ataganlar.

Mazkur davrda turkistonlik ashulachi va sozandalarning ko'pchiligi serqirra san'atkor edilar. Bir kishining o'zi ikki-uch cholg'u asbobida chalishni puxta egallagan sozanda, bastakor, hofiz, qiziqchi, hatto ba'zilar o'zlari uchun doimiy kerak bo'lgan cholg'u sozlarini yasash hunaridan ham xabardor edilar. Ularning noyob iste'dodi yana shu jihatdan qadrliki, ular nota yozuvlarisiz qanchadan-qancha xalq musiqqa boyliklarini, shashmaqomlarni yoddan o'rganganlar va esda saqlab qolib, o'z navbatida shogirdlariga o'tkazganlar, Farg'ona vodiysida o'zbek mumtoz musiqasi janriga kiruvchi «Shashmaqom»ning Farg'ona – Toshkent yo'llari va ayniqsa katta ashula keng tarqalgan.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi murakkab iqtisodiy-siyosiy vaziyatga qaramasdan, o'zbek san'atkorlarining nomi boshqa davlatlarga ham tarqalgan. Masalan, samarqandlik mashhur hofiz Hoji Abdulaziz Rasulov Eron, Afg'oniston, Iroq, Hindiston va Yunoniston mamlakatlarida o'z san'atini namoyish qilgan. Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhamedovning ovozi Yorkent, G'ulja, Chuguchak xalqlari sevib tinglaganlar. To'ychi hofiz 1868 yilda Toshkent shahrida tavallud topdi. 1898 yili Qo'qon safarida mashhur hofizlar Madumar, Abduqahhor hofiz, Said Ahmad, Nazirxonlar bilan yaqindan tanishib, bir umr ular bilan do'stlashib qoldi. Bu hofizlar asosan likopcha bilan katta ashula aytib nom chiqarganlar. To'ychi hofiz soz jo'rligida ashula aytishning asoschilaridan bo'lib, undan ko'rib boshqalar ham asta-sekin soz jo'rligida ashula aytishni mashq qila boshladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay, To'ychi hofiz Muhammad Umar va Abduqahhor hofiz bilan birlashib ko'p vaqt qo'qonlik san'at muxlislarini xursand qilib yurdilar.

To'ychi hofiz o'z san'atining mahoratligi bilan shuxrat qozondi. Shuning uchun ham Riga «Grammofon» jamiyati uning ashulalarini yozib olish uchun taklif etdi. 1905 yilda uning 25 ga yaqin xalq qo'shiqlari va mumtoz ashulalari yozib olindi va tarqatildi. Uning «Bobo Ravshan», «Yoqayotan nabi», «Bevafo dunyosan», «Suvora», «Ilg'or», «Xisrav» kabi qo'shiq va kuylari butun Yevropa davlatlariga tarqaldi. Uning tashabbusi bilan O'rta Osiyoning qator shaharlarida grammofon va plastinka do'konlari ochildi. To'ychi hofiz ayniqsa ma'rifatparvar shoir Furqat bilan juda iliq ijodiy aloqa qildi.

O'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini rivojlantirgan mashhur hofizlardan biri Hoji Abdulazizdir. U 1855 yili Samarqand shahrining Ko'kmachit mahallasida dunyoga kelgan. Abdulaziz o'z ustoz Boborahim tanburchi tarbiyasida bo'lib, uch-to'rt yil ichida soz chalishni yaxshigina o'rganib oldi. U to'y va bazmlarda tanbur chertar, ba'zan soz jo'rligida qo'shiq aytardi. Keyinchalik o'sha vaqtdagi

mashhur hofiz Boruh bilan birgalikda ashula aytib yurdi. Boruh hofiz o'zbek va tojik musiqqa san'atini zo'r havas bilan o'rganigan kishi bo'lib, «Shashmaqom»ni ham yaxshi aytardi. U o'z tengqurlari bilan birgalikda sozandalar, hofizlar, shoirlar ishtirok etadigan o'tirishlarda tez-tez qatnashib turar, Bedil, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlari haqida borgan musohabalarni berilib tinglar edi.

Hoji Abdulaziz «Shashmaqom»ni mukammal o'rganish maqsadida XIX asrning 80–yillarida Buxoroga boradi. U mohir maqomchi Ota Jalol Nazirovga shogird tushadi va bir yil davomida undan ta'lim oladi. Ota Jalol o'z shogirdiga maqom yo'llarini to'la-to'kis o'rgatibgina qolmay, «Shashmaqom»ning tarixi, uning avloddan-avlodga sayqal topib, rivojlanib kelayotgani haqida ham tushuncha beradi.

Hoji Abdulaziz tomonidan «Shashmaqom» kuylarining dutorga ko'chirilishi ham boshqa jihatdan ahamiyatli edi. Birinchidan, maqom ijro etiladigan cholg'ular shu tufayli bittaga ko'paydi. Ikkinchidan, dutor eng sevimli cholg'u hisoblangan Toshkent va uning atroflarida, Farg'ona vodiysida maqomlarning ilgaridan ham keng tarqalishiga imkon yaratdi.

O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik san'ati mazkur davrda ko'p qiyinchilik bilan rivoj topdi. Rossiyaning mustamlakachilik siyosati oqibati o'laroq, o'zbek san'atining kamsitilishi uning ikkinchi darajali san'at deb qaralishi asosida yuz berdi. Chunonchi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekiston hududida tashkil topgan barcha «Musiqqa sevuvchilar jamiyatlari» rus hukumatining o'lka ma'muriyatlarida tasdiqdan o'tar, hattoki jamiyat a'zolarining a'zolik badalini to'lash tartibi, o'ynaladigan spektakllar va konsert repertuarlarini tasdiqlash, tomoshalardan tushgan mablag'larni o'z vaqtida davlatga topshirib turish kabilar ham harbiy gubernatorlik tasarrufida edi.

O'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining rivojlanishi ma'rifat-parvarlarning faoliyati, jadidlar harakati bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunonchi, ular o'zbek qo'shiqchilik san'atini yuksak darajaga ko'tarish bilan birga, rus san'atini ham o'rganish g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Ahmad Donish (1828–1897) o'zining «Buxorodan Sankt-Peterburgga sayohat» nomli kitobida rus madaniyati, ayniqsa qo'shiqchilik san'atidan hayajonlanganligini yozadi. U ayni paytda milliy madaniyat, san'atning ravnaqi uning boshqa millat madaniyati va san'ati bilan o'zaro aloqadorligiga bog'liqligini ham aytadi.

O'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining rivoji Furqat, Muqimiy, Zavqiy va boshqalarning ma'rifatparvarlikkka asoslangan ijtimoiy

– siyosiy qarashlariga ham bog‘liq bo‘ldi. Yuqorida nomlari tilga olingan ma‘rifatparvarlar ayrim masalalarni talqin qilishlari bilan bir-birlaridan ajralib tursalar-da, qarashlariga xos umumiy belgi aniq ko‘zga tashlanadi. Bu ularning mavjud tuzumga qarshi munosabat, xalq ommasi manfaatlarini himoya qilish, taraqqiyot va ma‘rifat g‘oyalari uchun kurashga chaqirishlarida yaqqol ko‘rinadi. Ular jamiyat a‘zolarining har tomonlama kamol topishida musiqa, ayniqsa qo‘shiqchilikning o‘rni katta ekanligini ta‘kidlar, shu bilan birga, o‘z she‘r va g‘azallarida o‘zbek milliy ruhiyatini ko‘rsatishga harakat qilardilar. Ularning asarlari zamonaviy, xalqqa yaqin bo‘lganligi, ayni paytda qadimiy-an‘anaviy usullarga sodikligi uchun ham xalq tomonidan sevib aytilar edi.

O‘zbek milliy qo‘shiqchilik san‘ati, istilochilik siyosatiga qaramasdan, o‘zining umumiy an‘anaviy rivojlanish yo‘lida davom etdi. Xususan, ijrochilikning Buxoro, Xorazm, Qo‘qon yo‘llari to‘lato‘kis saqlab qolindi va bunday usullarni yanada takomillashtirishda o‘sha shaharlardagi mavjud an‘anaviy maktablar muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, Turkistonning barcha xududlarida o‘ziga xoslik mavjud bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchiligi ham ashulada, ham cholg‘u asboblari umumiylikni yo‘qotmadi.

O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik san‘ati o‘zining chuqur milliyligi hamda o‘ziga xos yo‘nalishi, usul va uslublariga ega ekanligi uchun ham mustamlakachilar uni yo‘qotolmadilar. Ayni paytda Rossiyada o‘zbek madaniyati, xususan, an‘anaviy qo‘shiqchilik san‘ati juda ma‘lum edi. Xususan, XIX asrning 70-yillari boshlarida Buxoro amiri 7 kishidan iborat musiqachilar guruhini Rossiyaga jo‘natganligi, ruslar esa ko‘plab o‘zbek musiqiy cholg‘ularini ko‘rib hayratlanganliklari ma‘lum. Mazkur davrda o‘zbek qo‘shiqchilari Rossiyada, chunonchi, Nijniy Novgorodda tashkil etilgan ko‘rgazmada ishtirok etib, tinglovchilarni lol qoldirganliklarini ham ta‘kidlash lozim. Turkistonda uzoq yillar istiqomat qilgan N. Likoshin «tuzem» xalqlari qo‘shiqlarini sevib tinglaganini aytadi.

Rossiya diplomati L. Kostenko o‘zbek cholg‘u musiqasiga qisman qiziqib qarasa-da, biroq matn bilan bog‘liq o‘zbek qo‘shiqlari haqida mutlaqo zid fikrlar bildiradi: «Turon qo‘shiqchilaridek bema‘ni narsani tasavvur qilib bo‘lmaydi; ularda birorta yoqimli tovush yoki to‘g‘ri kuylanadigan nota yo‘q. Eshituvchilarga rahat bag‘ishlamoqchi bo‘lgan sub‘ekt (men ularni ashula deyolmayman) kuylamaydi, ovozining boricha baqiradi, xolos. Uning baqiroq ovozi kuchaygan sari uni eshituvchilarning zavq-shavqi ham kuchayadi»... L. Kostenkoning bunday mulohazasi aksariyat istilochilarning

ruhiyati va maqsadlariga mos edi. Bunday noto‘g‘ri xulosaning paydo bo‘lishi ikki sababga bog‘liq edi: 1) mustamlakachilikni oqlash, unga mahkum etilganlarga «ilg‘or» madaniyat olib kirish «g‘oya»sini isbotlash; 2) an‘anaviy qo‘shiqchilik, ayniqsa she‘r matnidan mutlaqo xabarsizlik.

Bundan farqli o‘laroq, o‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik tarixidan yaxshi xabardor bo‘lgan rus tadqiqotchilari mahalliy aholi orasida hofizlarni, ayniqsa kuchli ovoza ega bo‘lgan ashulachilarni doimo ardoqlaganliklarini ta‘kidlaydilar.

Ayni paytda o‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligi yangi shakllar bilan ham boyib bordi. Xalq ijrochiligi an‘analari asosida yangi, nisbatan murakkab va mukammal, xalq hayotining turli tomonlarini yorituvchi kuy va qo‘shiqlar yaratila boshlandi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doirachi, naychi, surnaychi, g‘ijjakchi, qashqar va afg‘on rubobchilari paydo bo‘ldi. Xalq cholg‘ulari musiqa ixlosmandlari orasida keng yoyildi. Ular «Navro‘z» bayramlarida va boshqa ommaviy xalq sayillari va tomoshalarida, hosil bayramlarida o‘z san‘ati bilan faol ishtirok etdilar.

XX asr Turkiston o‘lkasi madaniy hayotida 1916 yilda Skobelev (hozirgi Farg‘ona) shahrida Muhitdin qori Yoqubov tashkil etgan cholg‘u sozlari ansambli, Namanganda usta Ro‘zimat Isaboev tuzgan dasta, Qo‘qonda Hamza tomonidan tuzilgan duxovoy orkestr katta voqea bo‘ldi. Mazkur jamoalar repertuarlarida o‘zbek xalqining mumtoz, lirik, epik qo‘shiqlari o‘rin oldi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, XX asr boshlarida bo‘lib o‘tgan inqilobiy jarayonlar, chor hukumati mustamlakachiligining kuchaya borib, xalqning ayanchli ahvolga tushib qolishi qo‘shiqchilik san‘ati repertuarlariga ham o‘zgarishlar kirita boshladi. Bir so‘z bilan aytganda, endi qo‘shiqlar ko‘proq siyosiy tus olaboshladi. 1916 yilda mustamlakachilikka, zulmga qarshi va milliy-ozodlik uchun yirik xalq harakatlari bo‘lib o‘tdi. Qo‘zg‘alonlar paytida o‘zbek xalqining «Ming la‘nat», «Ellikboshi» va boshqa yangi zamon bilan barobar tug‘ilgan qo‘shiqlari keng tarqaldi. Bu qo‘shiqlarda podsho, mahalliy amaldorlarning o‘zboshimchaligi g‘azab bilan qoralanadi, xalq ommasining tezroq ozod bo‘lishiga ishonch bildirildi. 1916 yilda front orqasidagi qora ishlar uchun mardikor olinishi munosabati bilan «Poezdingni jildirgan...» misrasi bilan boshlanuvchi «Nikolay qon jallod» yoki «Mardikorlar voqeasi» qo‘shig‘i yaratildi. O‘zbek yigitlari temir yo‘l qurilishiga safarbar etilgan paytda Jarkentda (hozirgi Qozog‘istonning Taldiqo‘rg‘on viloyatida) yaratilgan «Arshillari – naxshillari» xalq qo‘shig‘i ham ana shunday ruhga ega edi.

An'anaviy o'zbek qo'shiqchilik madaniyatining rivojlanishida Hamza Hakimzoda Niyoziyning alohida o'rni bor. U o'z she'rlarini xalq kuylariga solib, tanish ashula yoki qo'shiqlar ohangiga mo'ljallab yozilishini ta'minladi va bu bilan ushbu asarlar tezroq xalq orasida yoyildi. U o'zi to'plagan xalq kuylarining 30 tasiga sodda va ixcham iboralarda she'rlar yozdi. 1915–1917 yillar mobaynida uning «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul», «Yashil gul», «Savsar gul» ashulalar to'plamlari bosilib chiqdi.

Hamzaning o'zi bu to'plamlarning tub mohiyatini va maqsadini «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» kitobining birinchi bo'limiga yozgan so'zboshisida bunday deydi: «Quloq notalari ila eshitib kelmish milliy tabarruk ashulalarimizning o'rni yo'qolmasin uchun ba'zi yaramas she'rlar o'rniga milliy she'rlar tartib berib, hamma ohang va kuylarimizni topib, bir necha bo'limda nashr etmak niyatidamiz. Ushbu niyatimizga muqaddima o'lmoq uzra bu bo'limda 6 dona milliy ashulalarimiz uchun milliy she'rlar tartib berib, muhtaram vatandoshlarimizga taqdim qildik». Hamzaning «Milliy ashulalar» nomi bilan mashhur to'plamida 40 dan ortiq xalq ashulalari bo'lib, ular orasida o'zbek, tojik, uyg'ur, tatar xalqlari qo'shiqlari ham bor edi. Umuman, Hamzaning o'zi 90 dan ortiq qo'shiqlar yaratganini aytadi. Biroq ularning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan.

Turkistonning chor Rossiyasi mustamlakachiligi davridagi an'anaviy qo'shiqchilik san'atining ahvoli o'zbek xalq bayramlari mazmunida ham o'z aksini topgan. Ushbu davrda istilochilik siyosati o'z mohiyati nuqtai nazaridan ma'naviyatdagi milliylikni yo'qotishga qaratilgan. Bunday siyosiy maqsadni amalga oshirish uchun esa mustamlakachilar mahalliy xalqning milliy, an'anaviy madaniyatini kamsitish, ularni cheklash yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramasdan, mahalliy xalq, jumladan, o'zbeklarning o'z an'ana, urf-odatlarini saqlab qolish yo'lidagi harakatlari samara berdi. O'zbek xalqi ma'naviy madaniyatning, uning urf-odatlaridagi mumtozlikning, mohiyatan an'anaviylikka asoslangan san'at turlarining mustahkam ildizi xalq bayramlari hamda uning asosini tashkil etuvchi qo'shiqchilik san'atining saqlab qolinishi bilan izohlandi¹.

Turkiston general-gubernatorligi viloyati maqomidagi Amudaryo bo'limi hududida yashovchi qoraqalpoqlar san'ati ham mustamlaka sharoitida yashovchanligini ko'rsatdi. «Qoraqalpoqlar

¹ *Hojiakbar Hamidov. O'zbekiston ma'naviy madaniyati tarixi: shakllanishi, taraqqiyoti, muammolari. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent, 1996, 168–204-betlar.*

xotirasida, – deb yozgan edi qozoq elshunosi Ch. Valixonov, – minglab hikoyalar, qissalar, qo‘shiqlar saqlangan»¹. Ularning ichida eng mashhuri «Alpomish», «Qoblan», «Edige», «Shariyor», «Ersho‘ro», «Qirq qiz» dostonlari bo‘lgan. Ularning ijrochilari jirovlar, baxshilar va qissaxonlar favqulodda shoirona qobiliyatga ega bo‘lishgan. Ular tufayli uzoq o‘tmishdagi xalq og‘zaki ijodi namunalari avloddan-avlodga o‘tib, bizgacha yetib kelgan.

Jirovlar shajarasining ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. XV asrda Soppasli Sipira jirov katta shuhrat qozondi, XVIII–XIX asrlarda esa Jiyan jirov, Shonqay jirovlar nom chiqardi. Bir necha baxshilar maktablari, shu jumladan, G‘aribniyoz baxshi, Aqimbet baxshi, Qo‘shim baxshi, Musa baxshi va hokazo maktablar faoliyat ko‘rsatgan.

Xalq turmushi, mehnat faoliyati, dasturlari, urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan to‘y qo‘shiqlari, yig‘i ashulalari (yo‘qlash, marsiya, xayrlashish), bolalar va «davolash» (badik) qo‘shiqlari va boshqalar qoraqalpoqlarning she‘riy va musiqiy ijodiyotining tarkibiy qismini tashkil etgan.

Maqol-matallar xalq donishmandligining yig‘indisi, xalq iste‘dodining yorqin namunasi bo‘lib kelgan. Qoraqalpoklarda jumboqlar, zukkolik musobaqalari (javob aytish) va xalq ijodining boshqa ko‘pgina turlari keng tarqalgan.

Qoraqalpoqlar boshqa turkiyzabon xalqlar bilan bir qatorda qadimiy umumturk yozma yodgorliklarini (qadimiy urxun-enisey yozuvlari, VII–VIII asrlar), Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘ati turk» (XI), «Kodeks Kumanikus» (XIII asrdagi qipchoqdar tili lug‘ati), «Og‘uznoma» kabilarni meros qilib olgan².

Qoraqalpoqlarning o‘z hayoti va mustaqilligi uchun sabot-matnat bilan olib borgan kurashi jarayonida Jiyan jirov, Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdax, O‘tesh kabi ajoyib xalq shoirlari yetishib chiqdi.

Qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi, shoir va jirov Jiyan Jung‘or xonining va boshqa xonlarning shafqatsiz siyosatini «Xonavayron xalq» poemasi misolida fosh qildi. XIX asrdagi barcha taraqqiyparvar qoraqalpoq shoirlari Jiyan jirovni qoraqalpoq she‘riyatining otasi deb tan oldilar.

Mashhur shoir Kunxo‘ja (Jiyamurod) ham (1799–1880) o‘z asarlarida («Cho‘ponlar», «O‘roqchilar», «Oq qomish» va boshq.)

¹ *Валихонов Ч.Ч.* Сочинения. Известия русского географического общества по отд. этнографии. Т. XXIX, 1904, стр. 192.

² *Хамидов Х.* Каракалпакский язык XIX – начала XX вв. по данным письменных памятников. Ташкент, «Фан», 1966, стр. 16–17.

zahmatkash xalqning og‘ir ahvolini aks ettirib, qoraqalpoq jamiyatidagi chuqur ijtimoiy qarama-qarshiliklarning mohiyatini ochib berdi. XIX asrda yashab o‘tgan qoraqalpoq shoirlari Ajjiniyoz va Berdax ijodiyoti hozirda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi¹.

Ajjiniyoz Qosiboy o‘g‘li (1824–1878) qoraqalpoq adabiyotining yana bir yirik va o‘ziga xos ijodiy siymosidir. U Xeva madrasasida ta‘lim olgan, tarix va xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan, Sharq lirikasi bilan tanish bo‘lgan. Shoir asarlarida lirik mavzular bilan bir qatorda ijtimoiy mavzular o‘rin tutadi. Uning mashhur «Bo‘zatov» poemasi qoraqalpoq xalqining og‘ir hayotini aks ettirgan ahamiyatli tarixiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Berdax (Berdimurod) Qarg‘aboy o‘g‘li (1827–1900) qoraqalpoq mumtoz adabiyotining eng yorqin namoyandasidir. O‘zining ko‘pgina lirik asarlarida, poemalarida Berdax XIX asrdagi qoraqalpoq xalqining ijtimoiy hayotini har taraflama aks ettirdi. Shoir-demokrat sifatida u o‘z davridagi voqealarga va ijtimoiy munosabatlarga adolat va vatanparvarlik nuqtai nazaridan baho berdi. Berdax o‘z asarlarida jamiyatning ilg‘or kishilarini xalq baxt-saodati uchun kurashga chorladi, ko‘pgina o‘tmish voqealariga jiddiy fikr bildirdi. Shu boisdan ham tarixchilarning birortasi Berdax ijodiyotini chetlab o‘tmaydi.

O‘tesh Alshinboy o‘g‘li (1828–1902) nisbatan unchalik ko‘p bo‘lmagan meros qoldirgan. Lekin uning zolimlarga qarshi, jafokash mazlumlarni himoya qilishga qaratilgan hajviy asarlari («Sharmanda», «O‘xshar» va h. k.) shoirni XIX asr qoraqalpoq she‘riyatining atqli vakillari safiga ko‘tardi.

Adabiyot bilan bir qatorda qoraqalpoq musiqasi ham o‘z tarixiga ega. Xalq og‘zaki ijodi kabi musiqa avlodan-avlodga og‘zaki o‘tib kelgan. Musiqa madaniyatining tarqatuvchilari qo‘shiqchilar, jirov-baxshilar, so‘z ustalari, xalq bastakorlari, sozandalar, oddiy musiqa va qo‘shiq ishqibozlari bo‘lgan.

Asosiy qoraqalpoq musiqa asboblari: qobiz – kamoncha bilan chalinadigan qadimiy musiqa asbobi bo‘lib, u bilan jirovlar qahramonlik dostonlarini ijro etgan; dutor-baxshilar chaladigan ikki torli musiqa asbobi; boshqalardan alohida ajralib turadigan shinqobiz – faqat ayollar chaladigan, takrorlanmas ovozga ega asbobdir. Bularndan boshqa surnay va g‘ijjak ham qo‘llanilgan.

Amaliy san‘at (yog‘och o‘ymakorligi, kashtado‘zlik, gilam to‘qish, zargarlik, ko‘nga bosib naqsh solish, applikasiya va h.k.) qoraqalpoq xalqi ijodiyotining ko‘proq rivojlangan serqirra sohasidir.

¹ Q a r a n g: Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. T., «O‘zbekiston», 1998, 268-bet.

Ayniqsa kashtachilarning rang-barang bo‘lib tovlangan kashtalari xotin-qizlarning bayram kiyimlarini bezagan.

Qoraqalpog‘istonda zargarlik buyumlari (isirg‘a, bilaguzuk, uzuk, ko‘krak taqinchoqlari), mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or anjomlari, shuningdek, qurol-yarog‘ (qilich, sovut, kamar va h. k.) ham keng tarqalgan.

Mustamlaka siyosati qoraqalpoq xalqining nafosat tuyg‘usini so‘ndira olmadi. Uning mehnati va iste‘dodi asrlar osha yashab kelayotgan xalq ijodiyoti namunalarida o‘z aksini topdi¹.

Rus mustamlakachilari o‘zlarining madaniyat sohasidagi siyosatida o‘lka xalqlarining yerlari, tabiiy boyliklarinigina emas, balki ularning qalbini ham zabt etishni ko‘zladilar. Ruslashtirish siyosatida o‘lka madaniyatini ham, xalq ruhiyatini ham ruslarning ta‘siriga olishni nazarda tutgan edilar. General-leytenant Masievskiy Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo‘limi rahbariyatiga yuborgan yo‘riq-nomasida ana shu fikrni harbiylarga xos ochiq bayon qilgan. «Jamiyat, – deb yozgan edi general, – Sharqni fan va Sharq uchun emas, balki uning ellarini Rossiyaga singdirib yuborish – ruslashtirish maqsadida o‘rganishi lozim»².

Xulosa qilib aytganda, Turkiston xalqlarining fan va madaniyati mustamlaka tuzumining biqiq sharoitida ham, ruslashtirish siyosatining barcha zug‘um-sitamlariga qaramay, rivojlanishdan to‘xtamadi. Mustamlakachilar ilm-ma‘rifatga intilish, ilg‘or g‘oyalar va istiqloq istagini bo‘g‘ib tashlay olmadilar.

Chorizmning madaniyat sohasidagi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini qisqacha quyidagicha belgilash mumkin:

1. Chor hukumati Turkistonda turg‘unlik holatini saqlash, o‘zaro nizo-adovatlar urug‘ini sepib turgan holda ulardagi millatparvarlik, yurtsevarlik va jangovarlik tuyg‘ularini o‘ldirish.

2. O‘lka xalqlarini o‘z tarixi va madaniyatidan uzoqlashtirish. Bu sohada chorizm juda izchil ish yuritdi. Olimlar, ilmiy jamiyatlar tomonidan Turkiston tarixiga doir moddiy va ma‘naviy yodgorliklar yig‘ib olindi va Moskva hamda Sankt-Peterburgga jo‘natildi. Shunday qilindiki, endilikda o‘lka tarixini o‘rganish uchun turkistonliklar ana shu markazlarga borishga majbur bo‘lishdi. Sho‘ro tuzumi davrida ham shunday bo‘lib qolaverdi. Ish shu darajaga borib etdiki, O‘rta Osiyo respublikalari yoshlari o‘z tarixlariga ko‘ra Rossiya tarixini yaxshi biladigan bo‘lib qoldilar.

¹ Kamolov S., Sariboev K. Qoraqalpoqlar. Risola qo‘lyozmasi. Nukus, 1999, 36-39-betlar.

² Sodiqov H. XX asr boshida Turkistonda chorizmning mustamlakachilik siyosati va istiqloq uchun kurash. T., 1994, 132-bet.

3. Mustamlaka ma'muriyati o'lkadagi tarixiy obidalarning qarovsiz qolib vayron bo'lishiga ataylab yo'l qo'ydilar. Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov esa Samarqandda bo'lganida jahonga mashxur obidalarning vayron bo'layotgani sababli ularni tiklash zarurligi haqida gap ketganda obidalarni to'pga tutish afzalroq degan. Podshoh generallari jahon afkor ommasi fikridan cho'chibgina bunday rejani amalga oshirmadilar.

4. Chorizm xalq maorifi sohasidagi ruslashtirish siyosatini rus-tuzem maktablari tarmog'ini vujudga keltirish va rus tiliga davlat maqomi berish vositasida amalga oshirdilar.

Farg'ona harbiy gubernatori general-leytenant N.I. Korolkov 1898 yilda imperatorga yo'llagan hisobotida podshoh ma'muriyatining o'lkani ruslashtirish bobidagi dasturini bayon etib, «tuzemeslarning» o'z bolalarini ixtiyoriy ravishda rus-tuzem maktablariga berishiga erishish muhimligiga e'tiborni qaratgan. Buning uchun u mahalliy ma'muriyat amaldorlariga yaqin besh yil ichida ish yuritishni rus tiliga ko'chirish lozimligini uqtirdi. Korolkov bu tadbir «tuzemeslarni» mansabga qiziqib farzandlarini rus-tuzem maktablariga berishga ularda qiziqish uyg'otadi deb hisoblagan. Turkiston general-gubernatori baron A. B. Vrevskiy viloyat harbiy gubernatorlariga yo'llagan maktubida bu masalaga oydinlik kiritdi: «Shunday vaqt keladiki, – deb yozgan edi Vrevskiy, – endi yerlilar rus va faqat rus maktabida har qanday faoliyat uchun zarur bilim va malakalar o'chog'ini ko'rishsin. Ular madrasa va maktablardagi bilim endilikda davlat hamda ijtimoiy tuzumga yaroqsiz ekanligini his qilishsin. Rus tilini biluvchi mahalliy musulmonlardan barcha sohalarda foydalanilsin»¹. Podshoh generallari «rus-tuzem» maktablari va shahar bilim yurtlarini muvaffaqiyatli tugallagan yerlilar bolalariga jiddiy imtiyozlar berilsin»² degan fikrni ham ilgari surdilar va uni amalga oshirdilar.

Rossiya Turkistonda mahalliy aholidan olimlar yetishib chiqishiga butun choralar bilan qarshi ish yuritdi.

Chorizmning Turkiston o'lkasi aholisini ruslashtirish siyosatining riyokorligi shunda ediki, rus amaldorlari o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari orasidan yetishib chiqqan va ruschani mukammal o'rgangan odamlarni xushlamay, ulardan cho'chib turgan va o'rni kelganda ta'qib qilgan. Abay Qo'nanboev, Cho'qon Valixonov, Sattorxon Abdug'afforov, Furqat, To'xtagul Sotilganov, Sharifxo'ja Poshshaxo'jaev, Jo'rabek Qalandarov, Muhiddinxo'ja Hakimxo'jaev va boshqalar shular jumlasidan edi.

¹ Sodiqov H. Ko'rsatilgan dissertasiya, 90-bet.

² O'sha asar, 92-bet

MILLIY DAVLATCHILIKNI TIKLASH VA ISTIQLOL UCHUN KURASH

1. XIX ASR OXIRLARIDAGI XALQ XARAKATLARI

Turkistonda chorizmning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi harakatlar XIX asrning 70-yillaridan boshlandi. 1879 yilda 600 nafarga yaqin olomon Farg'ona viloyat boshqarmasi binosini qurshab olib, harbiy gubernatordan Marg'ilon tumanidan olinayotgan soliqlarni kamaytirishni talab qildi. O'shanda viloyat harbiy gubernatori bevosita qurolli kuch ishlatishdan cho'chigan. Chunki 1875–1876 yillarda ayni shu viloyatda boshlangan Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'alon hamda Mingtepadagi 1871 yilgi Yetimxon boshchiligidagi g'alayon ruslarni chinakamiga tashvishga solgani esdan chiqmagan edi. Olomonning avzoyi buzuqligini anglagan harbiy gubernator bo'lajak katta janjalning oldini olish maqsadida xalqqa yon bosib, ularning talablarini o'rganib chiqishga va'da berdi. Shu maqsadda hay'at tuzilib, ish boshlangan. Hay'at to'plagan ma'lumotlar viloyatda paxta maydonining kengayib ketgani, natijada yashash uchun zarur bo'lgan boshqa ekinlar maydoni keskin kamayganini ko'rsatadi. Oqibatda oziq-ovqat mahsulotlari narxi 2,5 barobar ko'tarilib, chayqovchilik kuchaygan. Andijon, Marg'ilon, Namangan, O'sh, Yangi Marg'ilon, Qo'qon tumanlarini o'z ichiga olgan Farg'ona vodiysida 88 ming 858 tanob yerni egallagan paxta boshqa ekinlarni siqib chiqargan. «Tuzem aholi rus harbiy kuchi panohida, barcha rus fuqarolari huquqlaridan teng foydalangan holda, o'z farovonligini oshirmoqda, – deb yozgan edi general-gubernator. Shu bilan birga u hech qanday asossiz rus fuqaroligi beradigan katta imtiyozlardan ham foydalanmoqda. Shuning uchun ham harbiy soliqning joriy etilishi xalqqa og'ir botmagan holda davlat xazinasiga yiliga yarim million rubl daromad keltiradi»¹. Mustamlakachilar sardori paxtachilik salmog'ining tobora oshib borayotganini qayd etib, 1887 yilda 200 000 pudni tashkil qilgani, «Amerika» navli paxta yetishtirish 1895 yilga kelib 500 000 pudga yetgani, ya'ni Rossiya sanoati iste'mol qiladigan tolaning uchdan bir

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 5-ro'yxat, 939-ish, 12-varaq.

qismini tashkil qilganini yozgan¹. Rossiyaning savdo-sanoat doiralari bu boy o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy o'zlashtirishga ahamiyatni kuchaytirib, kelgindilarning salmog'ini oshirishga intildi. Mustamlakachi ma'murlarni xalqning iqtisodiy chiqishlaridan ko'ra ko'proq siyosiy chiqishlar tashvishga soldi. Bunday chiqishlar mahalliy ma'muriyat-volost boshqaruvchilari – mingboshilar, oqsoqollar va xalq sudyalari – qozilar saylovlarida tobora ochiq-oydin ko'rina boshladi.

Mavzuga doir hujjat

(Qurama tumani hokimi polkovnik Kallaurning 1880 yil 16 iyulda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga yo'llagan axborotidan)

«Men, 10 iyul kuni volost boshqaruvchisi saylovini o'tkazish uchun Xo'rdon qishlog'iga keldim. Mulla Shermuhammad Xudoyberganov, Xolmuhammad Xudoyberganov, Muhammadqul Qoplonov boshchiligidagi olomon men tushgan uyni o'rab oldi. Xalq oldiga chiqqanimda odamlar mulla Shermuhammad nomzodini saylovga qo'yishimni talab qilishdi. Men ularga yig'ilish o'tkaziladigan joyga borishlarini buyurdim. Ammo ular ko'rsatilgan joyga bormasliklarini aytdilar. Shunda men olomonni tarqatib yuborishni buyurdim. Ammo g'alamislar odamlarni qarshilik ko'rsatishga chaqirdilar. Ur-to'polon boshlandi. Mirshablarni kaltaklashdi. Odamlarni to'polonga boshlaganlardan biri Muhammadqul bo'lsa tilmochimning yuziga shapoloq tortdi. Otliq kazaklar yetib kelgandagina olomonni tarqatib yubordik. Hibsga olingan mulla Shermuhammad, Muhammadqul Qoplonov va Xolmuhammad Xudoyberganovlar Qo'yliqqa yuborilgandan keyin yig'ilish mo'ljalangan joyga bordim. Ammo u yerda ellikboshilardan boshqa hech kim yo'qligini ko'rdim. Odamlar ikki chaqirimcha naridagi qo'rg'onchada to'planishib to'polonni davom ettirishayotganini xabar qilishdi. Men tilmoch va mirshablarni ularning oldiga jo'natdim. Ular ko'p o'tmay hovliqib qaytishdi. Odamlar ularni yana kaltaklashibdi. Tilmoch ularga buyrug'imni yetkazganda xaloyiq orasidan bir necha kishi «tuman boshlig'i tilmochi va odamlarini so'yish kerak. Shunda bu ishning dovrug'i uzoqqa ketadi. Bizni hech narsa qilisha olmaydi. Kezi kelganda ularni o'tsa ham bo'laveradi», deb qichqirishibdi. Men ular oldiga jo'nadim. Olomonga ularning

¹ O'sha hujjat, 6-varaq.

tartibsizligi hunuk oqibatlariga olib kelishini tushuntira boshladim. Qonunga ko‘ra bunday ish oqibatsiz qolmasligi va qattiq jazolanishini aytdim. Ammo olomon parvo qilmadi. Saylov joyiga borishdan bosh tortishgani yetmaganidek, do‘q-po‘pisa ham qilishdi:

– Do‘q qilma!

– Sibiringdan ham qo‘rqmaymiz!

Vaziyatni chamalab ko‘rib men saylov o‘tkazmaslikka qaror qildim»¹.

* * *

Viloyat harbiy gubernatori tumanboshining axborotnomasiga jiddiy baho berib, zudlik bilan jazo choralarini kuchaytirishga kirishdi. «To‘polon» boshliqlari mulla Shermuhammad, Xolmuhammad Xudoyberganov va Muhammadqul Qoplonov Yettisuv viloyatining Saripul shahriga badarg‘a qilindilar. Keksa, salomatligi yomon bo‘lishiga qaramay, ularga shafqat qilinmadi. 1881 yil 28 aprelda Yettisuv viloyati harbiy gubernatorining Turkiston general-gubernatoriga yuborgan axborotnomasida, «kasalliklari tufayli Saripulga yetib borisholmay, Lepsinsk shahrida turib qolishgan... uch tuzemesdan ikkitasi – Xudoyberganovlar kekxa, juda qashshoq» ekanliklari va ular shaharda sadaqa so‘rab tirikchilik qilishayotganligi ma‘lum qilingan².

Chor amaldorlarining rahmsiz jazolari ham erksevar Farg‘ona xalqini cho‘chita olmadi. 1885 yilning yozida mustamlakachi amaldorlarni tahlikaga solgan katta xalq harakati boshlandi.

Tadqiqotchilarning ma‘lumotlariga qaraganda, 1887–1897 yillar mobaynida Farg‘ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida aholining mavjud tuzumga qarshi mingga yaqin chiqishlari bo‘lgan. O‘lka general-gubernatori mahkamasi, siyosiy razvedka, polisiya boshqarmalari arxivlarida saqlangan va bizgacha yetib kelgan hujjatlar mahalliy ma‘muriyat – volost boshqaruvchisi – mingboshi, xalq sudyasi – shariat qozilari saylovlarini shunday chiqishlarning bir shakli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tarixdan xolislik nuqtai nazaridan bir fakt ya‘ni hozirgacha tadqiqot ob‘ekti bo‘lmagan hodisani – Turkiston ulamolarining chorizmga qarshi muxolifatni tug‘dirishdagi roli va o‘rni xususida fikr yuritish lozim³.

¹ O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 19-ro‘yxat, 908-ish, 1–3-varaqlar.

² O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 19-ro‘yxat, 908-ish, 2–8-varaqlar.

³ X. To‘ychieva. Ko‘rsatilgan dissertasiya. 60–60 betlar.

Ma'lumki, 1885 yilda Farg'ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi taniqli ulamo va zamindor Darvishxon Eshon To'ra rahbarligida qo'zg'alon ko'targan. Qo'zg'alonchilar Yangi Marg'ilon shahrini Andijon va Qo'qon bilan bog'lovchi aloqa simlarini uzib tashlaydi. Asaka, Qo'rg'ontepa, Shahrixon, Oltinko'l, Jalolquduq O'sh uezdining Novqat, Tutlik qishloqlari, Oqbo'yra volosti va Marg'ilon aholisi ham qo'zg'alon domiga tortiladi.

Mustamlaka ma'muriyati qo'zg'alonni bostirish uchun Andijon uyezdi boshlig'i kapitan Buryanovga katta harbiy kuchlarni yuboradi. Muntazam qo'shin qo'zg'alonchilarni chekintiradi, lekin Darvishxon Namangan tog'lari atrofida yangi kuchlarni to'plab kurashni davom ettiradi. Bu qo'zg'alonga rahbar Darvishxon va uning maslakdoshlari xususida o'lka boshlig'i, Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni N.O.Rozenbax (1882-1889) Peterburgga yo'llagan xat mazmuni diqqatga sazovordir: «Qo'zg'alon viloyatning turli joylarida bir vaqtda boshlanishi va qo'zgonchilarning o'g'rilik va talonchilik qilmasdan, barcha aholining bu harakatga chaqirilishi, bu harakatning to'liq ma'noda amaldagi xukumatga qarshi qaratilganligini ko'rsatadi».

Darvishxon qo'zg'aloni Angliya bilan urush holatida turgan Rossiya xukmdor doiralarini g'oyat bezovta qiladi. Angliyaning ittifoqchisiga aylangan Afg'oniston amiri Abdurahmon chegara masalasida Rossiya bilan jiddiy ixtilofda ekanini hisobga olsak, u Darvishxonga jiddiy yordam ko'rsatishi mumkin edi. Qo'zg'alon mag'lubiyatga uchragandan so'ng Darvishxon Afg'onistonda panoh topgani va o'sha erda 1889 yili vafot etgani ham ana shu fikrning haqiqatga yaqinligidan dalolat beradi. Buxoro amiri o'g'li Abdumalik To'ra bu vaqtda Peshovorda inglizlarda panohida Rossiyaga qarshi harakatlarda faol ishtirok etayotg'ani ham diqqatga sazovordir.

Chor amaldorlari mahalliy xalqning mustamlakachilardan o'ch olishini «talonchilik», «qaroqchilik» deya baholab, qo'zg'alonlarning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini xas-po'shlashga urinishdi.

1891 yil 18 avgustda Namangan tumanining Chandavur qishlog'ida mahalliy sudxo'r Muhammad Jalil Vorisxo'jaevning uyini noma'lum kishilar o'rab olib, undan adolat talab qilishgan. Qurollangan dehqonlar insofsiz sudxo'rning sandig'idan 87600 rubl topishgan va uni mazlumlar foydasiga musodara qilishgan. 1892 yil 18 fevralda esa Qo'qon tumanidagi mahalliy boylardan mulla Muhammad Rajab Hakimboevning uyiga ham noma'lum qurolli kishilar hujum qilishgan. Mingboshi Mirzaqul Sultonboevga ham ana shunday kishilar hujum qilib, uni o'ldirishgan.

Turkiston general-gubernatori mahkamasi maxsus bo'limining maxfiy axborotida 1887–1898 yillar mobaynida Farg'ona, Samarqand va Sirdaryoda ana shunday «qaroqchilik bosqinlari»dan 668 tasi qayd etilgan. General-gubernator mahkamasi maxsus bo'limining boshlig'i Turkiston general-gubernatoriga yozgan ma'lumotida «to'polon va isyonga moyil» bo'lgan Farg'ona aholisi vakillarini harbiy sudga berish va sud chiqarajak o'lim jazosini oshkora ijro etish haqida fikr bildirdi. U xalqni qo'rquv va talvasada tutishigina o'lkada tartib va osoyishtalikni ta'minlashga qodir yagona vositaligini uqtirdi. General-gubernator uning fikrlarini jamlab, 1892 yil 17 martda o'zining bevosita boshlig'i-Harbiy vazirga axborot jo'natdi. Unda u Qo'qon tumaniga qarashli Konibodom qishlog'ida yashovchi Ahmad Azimov, Abdujabbor Mahsumov, Yusufjon Said Oqsoqolov, Toshmuhammad Ashur Muhammedov, mulla Sodiq Olimboev, Muhammad Sobir, mulla Muhammad Rajabov, Muhammad Xoliq Muhammad Yoqubovni hamda Beshariq volostidan Ortiq mirza Raimov, Otajon va Sibirdan qochgan Said «o'g'ri»ni harbiy sudga berish uchun ijozat so'ragan.

Xuddi o'sha yili Farg'onadagi vaziyatdan cho'chigan viloyat harbiy gubernatori aholidan ko'z-quloq bo'lib turish uchun maxfiy siyosiy polisiya xizmatini tashkil etish taklifini ilgari surdi. General-gubernator Vrevskiy markaziy hukumatdan rasman ijozat olguncha bunday xizmat uchun, ya'ni maxfiy ayg'oqchilar tarmog'ini vujudga keltirish uchun, Farg'ona viloyatining har bir tumaniga o'z ixtiyoridagi mablag'dan oyiga 200 rubl ajratdi. O'lkaning oliy harbiy-siyosiy doiralari tobora kuchayib borayotgan norozilik to'lqinini pasaytirish uchun ta'sirchan vosita izlay boshladilar. Qurolli kuchlar va polisiya xizmatini kuchaytirish tadbirlari uchun bir yilning o'zida 5 536 417 rubl sarflandi. Holbuki, undan ham muhim hisoblangan temir yo'l uchun bor-yo'g'i 190 000 rubl ajratilganini hisobga olsak, chor hukumatining xalq harakatidan naqadar xavotirga tushgani aniq bo'ladi. Lekin mustamlakachilar qo'llagan favqulodda jazo choralari baribir xalq harakatlarini to'xtata olmadi. Turli-tuman siyosiy chiqishlar davom etaverdi.

Andijon yaqinidagi Ko'qonqishloq volostida 1893 yil 13 fevralda ro'y bergan voqea chor ma'murlarini g'oyat tahlikaga soladi. Pristav Sharigin mingboshi saylovini o'tkazish uchun Qashqarqishloqqa kelganida xalq ellikboshilar va mingboshi nomzodlarini qayta ko'rib chiqib, adolatli saylov o'tkazishni talab qiladi. Rad javobidan so'ng olomon harakatga kelib, pristav va uning odamlariga tashlanadi. Chor zobiti va uning mirshablari kazaklar yordamga kelguncha kaltaklanadi. Xalq vakillaridan uch kishi hibsga olinib, Andijon

turmasiga jo'natiladi, lekin yo'lda odamlar mirshablarga hujum qilib mahbuslarni ozod qiladilar. Pristav Sharigin qo'ydek yuvosh deb hisoblab kelgan o'zbek dehqonlarini endi tanimay qoladi va vahimaga tushib, o'z jonini saqlash uchun qochib qoladi. Rotmistr Shariginning kiyim va anjomlari qo'zg'alonchilar qo'lida qolib ketadi. Sharigin qo'rqqanidan to'g'ri yo'l qolib, Oyim volosti orqali 60 chaqirim yo'l bosib Andijonga yetib keladi. Tumanboshi podpolkovnik Bryanov, tuman sudyasi Nikiforov voqea yuz bergan joyga borib vaziyatni o'rganadilar, guvohlarni chaqirib so'roq qiladilar. Kelishtiruvchi sudya Nikiforov o'z boshlig'iga bergan axborotida pristav rotmistr Shariginning «quturgan olomon o'rtasidagi ahvoli chindan ham xavfli bo'lganini»¹ aytadi. O'sha kuni Qo'qonqishloqda bo'lgan voqealar O'zgan, Oyim volostlarida ham aks sado berib, Omonchura, Mosi qishloqlarida ham odamlar ko'tarilgani va saylovlar qolib, ochiqdan-ochiq g'alayon tusini ola boshlagani ma'lum bo'ladi.

Farg'ona viloyati harbiy gubernatori general-leytenant N.I.Korolkov zudlik bilan o'zining yordamchisi general-mayor Medinskiyni «isyonchilarni jazolash uchun» Qashqarqishloq va Qo'qonqishloqqa jo'natadi. Generalga 16-batalonning kuchaytirilgan rotasi hamroh bo'ladi. Medinskiyga hukumatga qarshilik qilgan aholiga nisbatan imperiya qonunlar majmuasining II jildi, I qismdagi 542-modda hamda uni to'ldiruvchi Vazirlar Qo'mitasining 1885 yil 3 martdagi Nizomida ko'rsatilgan jazo choralarini ko'rish yuklatildi. Rotaning Qo'qonqishloqqa kelishi, Andijon tumani boshlig'i podpolkovnik Bryanovning kuzatishicha, qishloq ahliga «aytarli ta'sir ko'rsatmadi»². General Medinskiy «isyonchilarga» ma'naviy-ruhiy, jismoniy va moddiy jazo qo'llashga qaror qiladi. Uning buyrug'i bilan 31 nafar o'zbek dehqoni yalang'och holda ochiq maydonga yotqiziladi. Kazaklar ularni darra va qamchi bilan 15 martadan 100 martagacha savalashadi. Ikki yuzdan ortiq askar va zobitlarni boqish uchun aholiga katta pul jarimasi solinadi. Gubernator Turkiston o'lka boshlig'iga rota Qo'qonqishloq va Qashqarqishloqlarda juda qulay joylashgani va ajoyib tarzda oziq-ovqat bilan ta'minlanganini mamnuniyat bilan xabar qilgan³. 1893 yil 16 martdagi axborotda rota zobitlari aholidan undirilgan puldan kunlik maosh bilan ta'minlanganliklari ko'rsatilgan. Ammo harbiy kuch va zo'ravonlik xalqning adolatsiz rus hokimiyatiga qarshi chiqishlariga barham

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 4-ro'yxat, 155-ish, 3-varaq.

² O'sha hujjat, 5-varaq.

³ O'sha hujjat, 6-varaq.

berolmadi. Xuddi shu Andijon tumanining Kengko‘l – Qoraqir volostida ellikboshilar saylovini o‘tkazishga kelgan pristav Sharigin yana olomon qahriga duch keladi. Volost boshqaruvchisi unga odamlar uning buyrug‘ini bajarishdan bo‘yin tovlayotganidan shikoyat qiladi va Mansurxonov degan qirg‘izni javobgar sifatida qozi uzuriga yubora olmayotganini aytadi. Sharigin mirshablardan biriga ana shu qirg‘izni huzuriga olib keltirishni buyuradi. Shundan so‘ng Sharigin o‘tovdan chiqadi va ko‘zi o‘zaro janjallashayotgan katga olomonga tushadi. Pristav ularga tarqalishni buyuradi.

Voqealarning keyingi rivoji Farg‘ona harbiy gubernatori general-leytenant Povalo-Shveykovskiyning Turkiston general-gubernatoriga 1896 yil 13 fevralda yuborgan axborotida shunday bayon qilinadi: «Rotmistr qirg‘izlar qarshiligiga duch keldi. Olomon unga tahdid bilan yaqinlashdi, yonidagi shifokor va feldsher tomon tosh ota boshladi... Toshlardan biri Sharigindan ikki qadamcha narida turgan mirzasi Muhammad Turdining yuzini yorib, qonga bo‘yadi. Lablari yorilib to‘rtta tishi sindi. Boshqa tosh mirshab Sodiq Yoqubovni yerga qulatdi. Atrofidagi xodimlari pristavga zarar tegishidan xavotirlanib uni amallab o‘tovga olib ketishdi. Shunda o‘tovga toshlar yog‘ildi. Muhammad Turdi mirshab va mirza Orziqulning aytishicha, olomon o‘rtasida «Pristav va mirshablarni uringlar!», «Ruslarni do‘pposlang!» degan xitoblar eshitilgan¹.

1896 yilda Namangan tumanining Oqchi-Shahrixon volostidagi Naymancha, Ko‘hna mozor, Langarbobo qishloqlarida mingboshi saylovida ham kuchli norozilik oshkora g‘alayonga aylana boshlagan. Xalqqa zulm o‘tkazgan poraxo‘r mingboshi Eshmuhammadning yana lavozimiga saylanganidan norozi bo‘lgan kishilar tumanboshi yordamchisi rotmistr Bushendan adolat tilashadi, lekin uning rad javobi va dag‘dag‘asidan g‘azablanib, ularga qarshi ko‘tariladilar. Poraxo‘r ellikboshilarni do‘pposlash boshlanganda Bushen «g‘alamislardan biri» Sherboy Ismatullaevni mirshablar yordamida hibsga oladi. Oqsoqol Eshonqul Xolmuhamedovga uni tezda Namangan turmasiga eltishga buyruq beradi. Oqsoqol mahbusni masjid hovlisidan olib chiqayotganda u to‘satdan oqsoqolga musht urib qochadi. Sarosimada qolgan oqsoqol o‘ziga kelar-kelmas g‘azabnok odamlar uni qurshab olishadi. Shu vaqtda masjidga ikki mingdan ortiq dehqonlar kelib ellikboshi, oqsoqol, qozi va mirshablarni do‘pposlab ketishadi. Olomon mingboshilikka nomzod Yo‘ldosh sarkor yashiringan masjid hujrasi eshigini sindiradi. Lekin u mahalliy qozi

¹ O‘sha hujjat, 8-varaq.

Toshxo‘ja yordamida mo‘ri tepasidan tomga chiqib, qochib qolgan edi. Tumanboshi yordamchisi Bushen o‘z vaqtida qochib, boshlig‘iga voqeani xabar qiladi. Qo‘rqib ketgan tumanboshi shaxsan Ko‘hna mozorga kelib, xalqqa adolat qilishga va‘da beradi¹.

Yangiqo‘rg‘on jabha (uchastka) pristavi shtabs-kapitan Yenikeev o‘sha yili Saroy qishlog‘ida dehqonlarning saylovga to‘plangan ellikboshilarni o‘rab olgani va katta to‘polon ko‘tarilganidan saylov o‘tkaza olmaganini xabar qilgan².

Qoraqalpoqlar yashovchi Chimboy uchastkasi Talliq volostining Kopak-ko‘l degan joyda (hozirgi Bo‘zatov tumani hududi) ma‘muriyat vakili-oqsoqolni qayta saylash jarayonida g‘alayon ko‘tarildi. Ammo u kazaklar tomonidan bostirildi. 1899 yil 28 martda tergov, qidirish, qamoqqa olish ishlari boshlandi. Dehqonlar hibsga olinib, Petroaleksandrovska jo‘natildi.

Sho‘raxon uchastkasi Biybozor volostida va Chimboy uchastkasi Nukus volostida mustamlakachilarga qarshi Bobo Ko‘klan boshchiligidagi xalq qo‘zg‘aloni jiddiy tus olib, qariyb o‘n yil (1881–1891) davom etdi.

Dehqonlar tez-tez soliq to‘lashdan bosh tortib turganligi natijasida boqimandalar 1889 yili bo‘lim bo‘yicha 12818 rublni, 1896 yili esa 16723 rublni tashkil etdi. Dehqonlarning qarzlardan ozod etish haqidagi iltijolari qoniqtirilmadi. 1900 yil mart oyida Nukus volostida shu sabab dehqonlar bilan qishloq ma‘muriyati o‘rtasida to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Dehqonlar o‘tov boshiga olinadigan soliqni to‘lashdan bosh tortib, ovul oqsoqoli bilan qozini tutib, ularning lavozimlik belgilarini, muhrlarini tortib olishdi³. Chap qirg‘oqdagi qoraqalpoqlar ham zolimlarga qarshi bosh ko‘tardilar. 1900 yili Qo‘ng‘irot bekligida yashovchi qoraqalpoqlar sug‘orish inshootlarini (Lavzon kanalini) tozalash majburiyatini bajarishdan bosh tortdilar.

2. TOSHKENT QO‘ZG‘ALONI

1892 yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda ham rus mustamlakachilarini talvasaga solgan va tarixga «Vabo isyoni» yoki «Toshotar voqeasi» sifatida kirgan qo‘zg‘alon boshlandi⁴. Rasmiy

¹ O‘sha hujjat, 23-varaq.

² O‘sha hujjat, 16-varaq.

³ Борьба трудящихся Каракалпакии против колониального и социального гнета. Т.: Фан, 1972, стр. 51.

⁴ Mazkur voqea tafsiloti haqida eng so‘nggi ma‘lumotlar ?amid Ziyoevning «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash» hamda Sh.Karimov, R.Shamsutdinovning «Turkiston Rusiya bosqini davrida» kitobida keltirilgan.

doiralar bu qo'zg'alon vaboga qarshi rus amaldorlari qo'llagan tadbirlardan norozilik tufayli kelib chiqqan, deb izohlashga urindilar. Shuning uchun ham uni «Vabo isyoni» deb nomlashdi. Yuzaki qaraganda, chindan ham shunday bo'lgan. 1892 yil may oyida Jizzahda vabo bilan og'rigan kishilar haqidagi xabar butun o'lkaga tarqaldi va Sirdaryo viloyatiga o'tadigan kechuv oldida ehtiyot yuzasidan kuzatish bekati tashkil qilindi. Iyun oyida Toshkentda ham vabo tarqalgani ma'lum bo'ldi. Yangi shaharda 417, Eski shaharda 1462 bemor aniqlandi. 1892 yil 7 iyunda shahar ma'muriyati 12 eski qabristonni yopib, yangi 4 qabriston ochilishini, shahardan chiqish cheklanganini e'lon qildi. Ammo mustamlaka ma'muriyati tibbiyot nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lgan bu tadbirlarni o'tkazishda aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim qonun-qoidalarini hisobga olmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Marhumlarni urf-odatga ko'ra ko'mish g'oyat mushkul yumushga aylandi. Odamlar noiloj o'likni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldilar. Polisiya bundaylarni topib hibsga ola boshladi. Qabrlarni ochib, o'lganlarning ruhi haqorat qilindi. Xaloyiq bosh oqsoqolni qidirib ketdi. Eshonlardan Azizyor, Abulqosimxo'ja, bozor oqsoqoli Ziyomhammad va boshqa taniqli kishilar boshchiligidagi mingga yaqin kishi shahar boshlig'i mahkamasi tomon yo'l oldilar. Ularga O'rda bozori yaqinidagi Voronsov ko'chasida hokim to'ra – shahar boshlig'i polkovnik S. R. Putinsev va oqsoqol Muhammad Yoqub to'qnash kelishdi. Qamchisini o'ynatib kelgan oqsoqol xalqning so'zlarini, arz-dodini tinglash o'rniga unga dag'dag'a qilaboshladi. Ana shunda uning boshiga toshlar yog'ildi. Mashhur «Toshotar voqeasi» boshlanib ketdi. Oqsoqol otdan tushib hokimning idorasiga qochib yashirindi. Polkovnik Putinsev esa o'zining sodiq qulini panohiga olib, xalqni tinchitishga urindi. Xalq undan oqsoqolni tutib berishni talab qildi. Putinsev ham muzokara o'rniga kuch ishlatishni afzal ko'rib, to'pponchasini g'ilofidan chiqarib, dag'dag'aga o'tdi. Sabr kosasi to'lgan xalq, uzoq o'ylab o'tirmay, hokimga hujum boshladi. Putinsev va uning mirshablarini do'pposladi, mahkamani ham ostin-ustin qildi.

Qurollangan soldatlarning yetib kelgani ham qo'zg'alonchilarni cho'chitmadi. Mustamlakachi amaldorlar xalqni ayamay o'qqa tutdi. Natijada ko'p kishi halok bo'ldi va yaralandi. O'lganlar va yaradorlarning miqdori haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki xalqning o'zi jasadlarni va yaradorlarni o'zlari bilan olib

ketishdi. Qo'lga olingan 60 kishidan 8 kishi o'lim jazosiga, qolganlari qamoq va surgunga hukm qilindi¹.

Qo'zg'alonning asl sababini mustamlaka ma'muriyat mansabdorlarining o'zlarini ham yaxshi bilishgan. Jumladan, N.P. Ostroumov: «Ko'p jihatdan ayb o'zimizda, albatta. Ularning fe'l-atvorini va qonun-qoidalarini o'rganganimiz yo'q va hali ham o'rganmayapmiz. Bunda ayb faqat vaboning o'zida emas, u sabr-kosasini to'ldirib-toshirib yuborgan so'nggi tomchidir. Norozilik allaqachon kuchayib, yig'ilib kelmoqda edi, keyin esa boshqa noroziliklar qo'shilishi bilan birdaniga qo'zg'alon boshlanib ketdi»², – deb yozgan edi.

Chor mustamlakachilari qo'zg'alonchilarni jazolashda o'zlariga yoqmagan mahalliy ziyolilarni, xalqni ko'tarishga qodir ma'rifatparvar va millatparvarlarni ham qatag'on qildi. Podshoh generalaridan biri, harbiy gubernator N.I. Grodekovning 1892 yil 1 iyulda Turkiston general-gubernatoriga yuborgan axboroti buni yaqqol tasdiqlaydi: «O'tgan 25 iyun kuni taqdim etganlarimga qo'shimcha ravishda Siz zoti oliylariga yana shu narsani ma'lum qilish sharafiga noilmanki, shaharning osiyoliklar yashaydigan qismi oqsoqoli In'omxo'ja Umarxo'jaevni 24 iyun voqealariga olib kelgan harakatning asosiy rahbari va haqiqiy sababchisi deb hisoblash kerak. U shaxsan o'zi va eng yaqin xodimlari orqali nodon xalq ommasi orasida tashviqot olib borgan, ma'muriyatimizning vaboga qarshi farmonlari va xatti-harakatlari xususida tashvish tug'diradigan xabarlar hamda mish-mishlar tarqatgan. Mazkur tuze-mesning eng yaqin sheriklari unga qarindosh bo'lgan yuzboshi Ahmadxo'ja va qudasi Usmonxo'jadan tashqari, Shayxovandtahir dahasining qozisi Sharifxo'ja, so'ngra Beshyog'och dahasining yerlik fuqarolari Badalmuhammad Xolmuhamedov va Boqijon Dadajonboev bo'lgan. Menga ma'lum bo'lishicha, bu kishilar avvallari ham shaxsan o'zlarini va ko'p tarafdorlari orqali olomonga boshchilik qilganlar, uni hukumatning tadbirlariga qarshi qo'zg'atganlar. Bu barcha shaxslarning xalq orasidagi zararli tashviqi ta'sirini hisobga olib, 24 iyun voqealari sodir bo'lgan kunning o'zidayoq hammalarini qamoqqa olishga farmoyish berdim»³.

¹ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. Andijon, «Meros», 1995, 64-bet.

² O'zR MDA, N. P. Ostroumov jamg'armasi, 1-ro'yxat, 67-ish.

³ Yusupov Sharif. Furqat yo'llarida. Adabiy maqolalar. Toshkent, 1984, 168-170-betlar.

Mulohaza uchun ma'lumot

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori yuqorida tilga olgan kishilar o'z davrining ilg'or va millatparvar kishilari edi. Masalan, In'omxo'ja Umarxo'jaev (1833–1896) asli Qo'qon shahridan bo'lib, savdo ishlari bilan Toshkentga keladi va Shayxovandtahir dahasiga qarashli Zanjirlik mahallasida muqim bo'lib qoladi. O'zining odamshavandaligi, bilimi va ma'rifatparvarligi bilan el e'tiboriga tushadi. Uni daha oqsoqoli lavozimiga saylashganida In'omxo'ja adolat ila ish yuritadi. Chor amaldorlari bilan munosabatda o'zini dadil to'tishi va xalqqa xayrixoh bo'lishi to'fayli mustamlakachi ma'murlarga yoqmaydi va uni 1880 yili lavozimidan chetlatishadi. Ammo xalq e'tiboriga tushgan In'omxo'ja ko'p o'tmay Toshkent shahar bosh oqsoqoli lavozimiga saylanadi. Bu mansabda ishlashi davomida u Mustamlaka tuzumi mohiyatini chuqur anglaydi va xalqni istilochilarga qarshi kurashga tayyorlash zarurligini tushunadi. In'omxo'ja 1892 yilgi qo'zg'alonning asosiy tashkilotchilari qatorida Turkiston harbiy okrugi sudi tomonidan shafqatsiz jazoga mahkum etiladi. 12 yil muddat katorgaga hukm qilingan sobiq bosh oqsoqolning xalq o'rtasidagi obro'-e'tiboridan cho'chigan Turkiston general-gubernatori bu jazoni 4 yil qamoq bilan almashtiradi. Oltmishni qoralab qolgan In'omxo'ja Qo'qon turmasida vafot etadi. Shoir Muqimiyning «Tarixi favti noibi Toshkandiy» marsiyasi uning xotirasiga bag'ishlab yozilgan.

Yuzboshi Ahmadxo'ja Abdurashidxo'jaev ham millatparvar ziyolilardan bo'lib, mustamlakachilarga nisbatan muxolif kishilardan edi. Sud uni osib o'ldirishga hukm qiladi, ammo keyinchalik bu jazo 15 yillik katorga bilan almashtiriladi. Jazo muddatini o'tash davomida Ahmadxo'janing sog'lig'i yomonlashib Toshkentga qaytadi va 1907 yili vafot etadi.

Shariat qozisi Sharifxo'ja Poshshoxo'jaev (1814–1904)ning faoliyati ham ma'rifatparvarlik va elparvarlikning yorqin misoli bo'la oladi. Buxoro madrasasida tahsil ko'rib, Toshkentning Xo'ja Ahror madrasasida mudarris, so'ng shahar qozikaloni lavozimida ishlagan Sharifxo'ja Xudoyorxon davrida o'zining xalqlarvarligi bilan nom qozongan edi. Qo'qon xoni vafot etgan har bir kishining vorislari xonga meros taqsimlashi kerakligi haqida farmon chiqarganda, Sharifxo'ja qozikalon sifatida bu farmonni shariatga zid deya baholab, o'nga imzo chekishdan bosh tortadi. Xudoyorxon bu voqeadan xabardor bo'lgach, Sharifxo'jani mansabidan bekor qilib, o'limga buyuradi. Sharifxo'ja do'stlari yordamida Buxoroga qochib ketadi. Amir uni Vobkentga qozi qilib tayinlaydi. Sharifxo'ja dilkashligi

tufayli bu yerda ham tahdidga duchor bo‘lib, zindonga tashlanadi. Bir yildan so‘ng ozod bo‘lib, Toshkentga qaytadi. Shayxovandtahir dahasi qoziligiga saylanib, 22 yil davomida shu lavozimda xizmat qiladi. O‘sha davr matbuotida Sharifxo‘ja Poshshoxo‘jaev «Toshkent qozilari orasida eng keksasi va eng bilimdoni»¹ va «Xo‘ja Ahror madrasasining eng katta professori»² deb tilga olinadi.

Ana shunday obro‘li kishini podsho ma‘murlari 1892 yilgi qo‘zg‘aloning asosiy tashkilotchisi sifatida to‘rt o‘g‘li bilan birga qamoqqa oladi. Harbiy sud 80 yoshdagi Sharifxo‘jani 3 yil muddatga Ashtarxon guberniyasiga surgun qiladi. Ammo shahar jamoatchiligining ariza-iltimoslari bilan bu jazo muddati bir yilga qisqartiriladi.

Toshkent xalqining ilg‘or ziyolilari xalq dardiga befarq bo‘lmay, uning kurashiga bevosita rahbarlik qilishlari tabiiy hol ekanligini tergov materiallari ham tasdiqladi. 27 noyabrdan 10 dekabrgacha davom etgan Turkiston harbiy okrugi dala sudida Eshonxon, Muhammad Olim, xalqqa zulm etkazgan bosh oqsoqol Muhammad Yoqub guvoh sifatida berishgan bayonotda In‘omxo‘ja oqsoqol, Sharifxo‘ja qozi 20 yil mobaynida hamma ishni bamaslahat qilishgani va «Toshotar voqeasi»dan bir kun avval ikki marta kurishib, uzoq maslahat qilishgani haqida ma‘lumot berishgan. Mustamlakachilarning qo‘zg‘alondan xalqning mustaqil fikrlaydigan kishilarini yo‘q qilish uchun foydalanishga uringanlarini va bunga ancha oldindan tayyorgarlik ko‘rganliklarini N. P. Ostroumovning o‘zi e‘tirof etgan edi. U Sharifxo‘ja Poshshoxo‘jaev haqida 1892 yil 26 yanvarda bunday deb yozgan edi: «Bugun men Sharifxo‘ja qozinikiga bordim. Sharifxo‘ja ayyor chol, uning o‘tmishi shubhali, u Buxoro amirining zindonida yotgan». Ostroumov 10 iyundagi kundaligida esa Sebzor qozisi Muhiddinxo‘janing shahar hokimi tomonidan ta‘qibga olinganini qizg‘in ma‘qulladi. Eski shahar polisiya boshlig‘i N. S. Likoshin ham Muhiddinxo‘janing obro‘-e‘tiboriga tan bergan holda, uning 1892 yilgi qo‘zg‘alonga «jinoyatkorona» munosabatda bo‘lganini yozgan³.

¹ «Туркестанские ведомости», 1890 г. 10 июля.

² O‘sha gazeta, 18 sentyabr.

³ N. S. Likoshin 1916 yili Peterburgda nashr etilgan «Полжизни в Туркестане» kitobida Muhiddinxo‘ja Hakimxo‘jaevning yerlilar orasida g‘oyat o‘qimishli, ilg‘or fikrli va e‘tiborli shaxs bo‘lgani, o‘zi ham u bilan bir necha bor suhbat qurgani haqida yozib, uning faoliyatini yoritishga ancha o‘rin ajratgan.

Mustamlakachi amaldorlar qo'zg'alonning asosiy tashkilotchilari shariat peshvolari ekanini aniqlashdi. Tergov ma'lumotlariga ko'ra xalqni qo'zg'alonga undaganlar Eshon Azizyor, Azimboyvochcha Salimboev, Iskandarbek Chuqurbekov, Usmon Qassob, Muhammadjon Gaynuddinov va boshqalar bo'lgan¹. Qo'zg'alonga daxldor bo'lgan ko'pgina ulamolar ham javobgarlikka tortildi².

Chorizm harbiy-siyosiy doiralari bu qo'zg'alonning asosiy sababi vabo emasligini, asosan u mahalliy muxolifatning ishi ekanligini yaxshi bilishgan.

Mahalliy aholi turli qatlamlarining, – deb yozgan edi general-gubernatorlikning rasmiy organi, – hokimiyat uchun kurashi oqibatida qo'zg'alon kelib chiqdi. Vaboga qarshi ko'rilgan choralar ikkinchi darajali masala edi³.

Toshkent qo'zg'aloni o'lkada kuchli aks-sado berdi. Namangan va Andijonda Toshkent voqeasi munosabati bilan Chorizmga qarshi kayfiyat kuchaydi.

1892 yilgi qo'zg'alondan so'ng Sirdaryo viloyat harbiy gubernatori general-leytenant N. Grodekovning 26 iyundagi buyrug'i bilan Muhiddinxo'ja Sebzor qozisi lavozimidan olib tashlandi. Oradan olti yil o'tgach, daha jamoatchiligi uning nomzodini adolatparvar shariat qozisi sayloviga qo'yishadi. Saylovda u 62 ovoz, uning raqibi Raimxo'ja 12 ovoz oladi. Ammo harbiy gubernator saylovda g'olib chiqqan Muhiddinxo'ja nomzodini tasdiqlamay, yangidan saylov o'tkazish va unda Muhiddinxo'ja nomzodini kiritmaslik haqida farmon chiqaradi. Xuddi o'sha yili Toshkentdagi erlar gimnaziyasida bo'lgan shahar jamoatchiligi yig'inida general-gubernator yordamchisi general Ivanov madrasalarda rus tilini o'qitish taklifini kiritib, mahalliy oliy o'quv yurtlari zamon talabiga javob bermasligi haqida gapirganda va mustamlakachilarning sodiq malayi mulla Olim uni qo'llab-quvvatlab, madrasalardagi amaldagi ta'limni yerga urib tahqirlaganda Muhiddinxo'ja jim turolmaydi. U jahon faniga ulkan hissa qo'shgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy va Ulug'bek kabi allomalar xuddi shu madrasalarda o'qiganini eslatib, bu dargoxlarning ma'rifat maskanlari sifatidagi xizmatlari va xalq maorifida o'ziga xos o'rni borligini aytadi. O'zbek ziyolisi va ulamosining bu chiqishi podshoh amaldorlarining unga bo'lgan adovatini yanada

¹ O'RMDA, 17-TF, 1-ro'yaxat, 1352-ish. 212 sahifa.

² O'RMDA, 1-TF, 31-ro'xat, 1219-ish, 6 sahifa.

³ «Туркестанские ведомости», 1892, 22 декабрь.

kuchaytiradi. Mustamlakachilar xalqlarvar, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, bilimdon ziyolilarni yomon ko'rsalar ham ulardan vaqt kelganda imperiya manfaatlari yo'lida foydalanishgan.

Qishloqlardagi g'alayonlar va ayniqsa Toshkentdagi qo'zg'alon Turkistondagi mustamlakachi ma'muriyatini g'oyat tashvishga soldi. Mustamlakachilar markazdan ma'muriy-polisiya shtatlarini ko'paytirish va ma'muriyatning jazo vakolatlarini yanada kengaytirishni so'radi. Rus imperatori Turkiston general-gubernatorining iltimosini qondirib, o'lkada mirshablik holatini joriy etishga ruhsat berdi. Imperiya Davlat kengashining 1887 yilda tasdiqlagan «Davlat tartibi va jamoat osoyishtaligini muhofaza etishga oid choralar haqidagi Nizom»i Turkiston o'lkasida 1892 yil 18 iyundan e'tiboran qo'llana boshlandi. Bu qoidalar mustamlakachilar uchun vakolatlar eshigini keng ochdi. «Kuchli muhofazada» deb e'lon qilingan joyda Turkiston general-gubernatori majlis-yig'inlarni tarqatish, savdo-sanoat korxonalarini yopish, matbuot organlari faoliyatini taqiqlash, istagan odamini surgun qilish, jarima solish va boshqa huquqlarni oldi. «Favqulodda muhofazada» deb e'lon qilingan joyda butun hokimiyat general-gubernator yoki u tayinlagan bosh noib qo'liga o'tdi. 1892 yil 18 iyunda joriy etilgan «qoidalar» harbiy holat o'rnatib, fuqarolar ishini ham harbiylar qo'liga topshirardi. Ammo xalqning mustamlakachilik tartiblari, idora uslubi va ruslashtirish siyosatidan norozilik to'liqini sira pasaymadi. XIX asrning 90-yillarida mustamlakachilarning Turkistondagi hukmronligi uchun tahlikali vaziyat vujudga keldi. Turkiyaning 1898 yilda Gresiya bilan urushda erishgan g'alabasi butun musulmon olamida turk sultoni obro'sini ko'tarib, yevropaliklar zulmi ostida ezilgan mazlum Sharqning milliy g'ururini uyg'otib, ozodlik kurashini qo'zg'atdi. Ana shunday kayfiyat Turkistonda ham quchayganini rus siyosiy razvedkasi payqadi. Rus maxfiy polisiyasi, okrug shtabi kontrrazvedkasi doimo turklardan xavfsirab, ularning Turkistondagi ta'siridan qo'rqqan. Mustamlakachilar Turkiya bilan Turkistonni birlashtiruvchi qardoshlik iplarini uzishga intilishgan. Turkiston xalqi ozodlik kurashining bu davri Yevropa mustamlakachilari zulmiga qarshi Sharq xalqlari ko'targan milliy-ozodlik qo'zg'alonlarining tarkibiy qismi deb qaralmog'i lozim.

3. ANDIJON QO'ZG'ALONI

Tarixga «Dukchi eshon qo'zg'aloni» nomi bilan kirgan Andijon qo'zg'aloni XIX asr oxiridagi xalq harakatlarining eng katta-

laridandir. U Muhammad Ali eshon (1846–1898) nomi bilan mashhur¹.

Muhammad Ali Marg'ilon shahriga qarashli Shaxidon qishlog'ida o'rtahol dehqon va hunarmand Muhammad Sobir oilasida dunyoga kelgan. Otasi uni bolaligida Buxoroga olib borib, Usmoncha oxund domla maktabiga bergan. Muhammad Ali 16 yoshga to'lganida Samarqand yaqinidagi Karruh qishlog'ida mulla Usmon oxund sudur eshon xizmatiga beradi. To'rt yildan so'ng butun vodiya tanilgan obro'li ulamo Sultonxon to'ra eshon xizmatiga kiradi.

Muhammad Ali o'zining odamoxun, kambag'alparvarligi va ko'ngli ochiqligi hamda chuqur mulohazakorligi bilan ustozlari e'tiborini qozonadi. U Aravondan Asakaga va Asakadan O'shga o'tadigan yo'lda qatnaydigan karvon va yo'lovchilar uchun xayrli ish qiladi. Shahrixonsoyning tepasida Aravon bilan Asaka o'rtasidagi karvon yo'li yonida joylashgan baland suvsiz yerda joy qilib, Shahrixonsoydan ko'zalarda suv tashib kelib katta yo'l yoqasiga o'rnatilgan xumlarni to'ldiradi. Shahrixonsoyning 40-50 sarjinlik baland qurg'oqlikda Muhammad Ali bog' barpo qiladi. Uning mehnati bilan o'sgan daraxtlar soyasida suv to'la xumlar yo'lovchilar chanqog'ini qondirdi. Bu ish unga obro' keltirib, nomini odamlar og'ziga tushiradi. 1882 yilda Sultonxon to'ra eshon agar qazoyu qadar yetsa, o'miga Muhammad Ali pir bo'lishini e'lon qilgani bejiz emasdi. Muhammad Ali 1887–1893 yillarda Makkayu Madinaga borib haj qiladi, Hindiston va Rossiya shaharlarida bo'lib qaytadi. Muxlislari Mingtepa qishlog'idan unga mos hovli-joy olib berishadi. Eshonning yaxshi fe'l-atvori, kamtarona turmush tarzi, boy hayotiy tajribasi va keng dunyoqarashi uning muxlislari sonini tobora oshirib bordi. Mingtepa tezda ko'plarning qutlug' ziyoratgohiga aylandi.

O'sha yillari Mingtepa 450 xonadonlik o'rtacha bir qishloq bo'lib, unda 1200 nafarga yaqin o'zbek, tojik va qirg'izlar istiqomat qilgan. Ular dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Eshon ham ko'plar qatori otasidan qolgan hunar – yigchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Bekor vaqtlarida muridlari olib kelib bergan yog'ochni tarashlab, yig qilib, muridlariga bir-ikkisini sovg'a qiladi.

¹ Bu qo'zg'alon tarixi haqida qarang: Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi. Farg'onada istibdod jallodlari. Nashrga tayyorlovchilar: S.Ahmad, U.Dolimov, Sh.Rizaev. T.: Cho'lpon, 1992; Egamnazarov Alinazar. Siz bilgan Dukchi Eshon (hujjatli qissa). T., «Sharq», 1994; Muso Turkistoniy. Ulug' Turkiston fojiasi. II jild. Madina, 1979. Юсупов Е.Ю., Лунин Б.В. Андижанское восстание в советской исторической литературе. ОНУ, Т., 1987, №1; Hamid Ziyoev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., «Sharq», 1998.

Muridlar esa yig bilan ip eshsalar, biri ming bo'lganidek xayol qilishgan. Agar yig bilan yigirilgan ipdan to'n tikilgan bo'lsa, tabaruk qilib, qariyalar tobutlarining ustiga yopmoq uchun olib qo'yishgan. Zamondoshlarining hikoya qilishlaricha, Muhammad Ali o'rta bo'yli, cho'qqi soqolli, kamsuxan, kulib turuvchi, ovozi mayin bir kishi bo'lgan. U hamma vaqt bo'z kuylak va ishton bilan malla to'n kiyib yurgan. Boshiga kichik salla va quloh qo'yib, bo'z mahsi-kovush kiygan. Muhammad Ali ziyorat uchun kelganlarga, hatto murid va muxlislariga ham, o'zi dasturxon yozgan, non-osh qo'ygan. 1890 yillarga kelib eshonning ziyoratchilari nihoyat ko'payib ketgach, muridlari unga 500 ot sig'adigan otxona qurib berishadi¹, xom g'ishtli 12 gazli minorasini 34 gazga ko'tarib, pishiq g'ishtdan ishlab berishadi².

Muhammad Ali cheklangan, shariat aqidalaridan o'zgani tan olmaydigan ruhoniylarga qarama-qarshi o'laroq, davr talabeh-tiyojlarini anglab yetgan peshqadam ulamo bo'lib, o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan edi. U ana shu maqsad yo'lida barcha vositalarni, hatto turli sehr va «karomat»larni ham ishga solganki, natijada uning muridlari safiga dehqon, chorvador, hunarmandlardan tashqari, mulkdor tabaqalar, hatto mahalliy ma'muriyat vakillari ham qo'shilgan. Eshon ziyoratchilarning ko'z oldida o't-olov yoqmay qozon qaynatgan. Aslida esa bu ishni tabiiy devor ichidan o'tkazilgan maxsus quvurlar orqali keladigan issiqlik bajargan. Bu ishlarda muhandislikdan va Yevropa fan-texnikasi yutuqlaridan xabardorligi, chet ellarda bo'lib, ko'p narsa o'rganganligi ham qo'l kelgan.

Eshonning obro'-e'tibori qanday ko'tarilib ketganini «minora voqeasi» yaqqol ko'rsatadi. Xom g'ishtdan tiklangan minorani 34 gaz ko'targanlaridan so'ng bir qancha vaqt o'tgach, u bolalar o'qiydigan maktab tomon og'adi. Buni ko'rgan hushyor odamlar minorani buzib, qayta qurish haqida gapirganlarida johil so'filar «hazrat eshonning karomatlari bilan bo'lgan narsa yiqilmaydi, qiyomatgacha shu holatda turadi», – deyishadi. Maktabni boshqa tarafga ko'chirishga ham ko'nishmaydi. Minoraning maktab tomon qulashi arafasida ham johil so'filar bu minoraning xom g'isht ustiga qurilganini bir karomat, shuncha yorilib, bir tarafga og'ib yiqilmaganini ikkinchi karomat deb hisoblashgan. 1896 yilda minora qulab, maktabning yarmini bosib qolishi natijasida so'fi va 23 bola halok bo'ladi, 15 bola jarohat oladi. Ammo bu voqeani ovoza qilmay darhol, bosti-

¹ Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 9-bet.

² O'sha asar, 12–13-betlar.

bosti qilishib, o'lgan bolalarning ota-onalarini ovutishadi. Voqeani tekshirgani kelgan pristav va shifokorning eshonga da'vo qilmay «uch kishi o'lganligi» haqida hujjat rasmiylashtirib ketishgani ham ma'muriyatning Muhammad Ali obro'-e'tibori bilan hisoblashishga majbur bo'lganligidan dalolat beradi. Polisiya boshlig'i eshonni sud javobgarligiga tortadi va namoyishkorona tahqir ila shaharga chaqirtiradi. Ammo Marg'ilondagi sudda eshonga da'vogar xun talab kishilar topilmay, sud uni oqlashga majbur bo'ladi. Ushbu sud jarayoni Muhammad Ali muridlarining ulkan namoyishi va jangovar qo'rigiga aylanib ketadi. Eshon tantana bilan o'tgan shahar ko'chalarini to'ldirgan minglab muridlari uni zafar bilan qutlashadi. Mingtepalik eshonning tobora ortib borayotgan obro'-e'tibori va g'oyat ko'tarilib ketgan mavqei mustamlakachilarning xavotirini oshirdi. Bunga ularning asoslari bor edi. 1895 yilda eshon huzuriga Oloy malikasi nomi bilan mashhur bo'lgan Qurbonjon dodxoh tashrif buyurgani va u bilan mustamlakachilarga qarshi qo'zg'alon ko'tarish masalasini muhokama qilgani mustamlakachilarni talvasaga soldi. Qurbonjon dodxohning o'g'li Qamchinbek rus bojxonasi xodimini o'ldirganlikda ayblanib qamalmani va uning osib o'ldirilganligi bu mo'tabar zotning podshoh hokimiyatiga qarshi harakat boshlashiga sabab bo'ldi. Qolaversa, norozilik uning qo'l ostidagi qirg'izlarda ham kuchli ekanligi ma'lum edi. Ketmontepa, Ko'gart taraflardagi qirg'izlar 1896 yili rus mujiklari ustidan shikoyat qilib, Mingtepaga vakil yuborishdi. Taxminan 25 kishi Dukchi eshonning huzuriga kelib, shunday deyishgan: «Agar bizga ijozat bersangiz, hamma qirg'izlar yig'ilib, mujiklar ustiga hujum qilib, hammalarini otimiz to'yog'i ostida bostirib yuboramiz. Jonimizdan tamom to'yidik. Biz qirg'izlarni benihoyat besaranjom qildilar. Bunday yurganimizdan hammamizning o'lganimiz yaxshiroq. G'azotga ijozat bering!»). Eshon bunga javoban bunday degan: «Birodarlar! Hali vaqti emas, andak fursat bor, hammamiz birdan hujum qilamiz, oxiri bu Nikolay zulmi ostida qolmaymiz, bir oz fursat bor, tavaqquf qilib turinglar! Men o'zim bosh bo'lib hamma birodarlarni, balki tamom shahar ahlini o'zimizga yor qilib, keyin ishni bir yo'la boshlaymiz»¹.

1896–1897 yillarda Rossiya ichki guberniyalaridan ko'chib kelgan va hosildor yerlarni egallab olgan rus mujiklari bilan qirg'izlar o'rtasida to'qnashuvlar kuchayadi. 1897 yil oxirida Ketmontepa, Ko'gart vodiylaridagi mingdan ortiq qirg'iz yaqinda vafot etgan bir boyning uyida to'planishadi. Ularning rahbarlari – volost

¹ *Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 22-bet.*

boshqaruvchisi Chibil bo'lis, qozi noibi mulla Rahmatilla mujiklar ustiga hujum qilish rejasini ishlab chiqishadi. Ular eshon huzuriga odam yuborib, undan maslahat so'raydilar. Muhammad Ali zudlik bilan chorvador boy Chibil bo'lis bosh bo'lgan qirg'izlar maskaniga yetib keladi. Qirg'izlar va eshon ishtirokidagi kengashda bo'lg'usi qo'zg'alon rejasini muhokama qilinadi. Muhammad Alining g'azovotga rahbar bo'lishiga kelishiladi. «Shu kundan e'tiboran, – deyilgan edi ularning ahdnomasida, – butun millati islomiyaga maxfiy ravish bilan xabar qilamiz, to eshonimiz taraflaridan qaysi kun rus askarlari ustiga hujum qilmoqni munosib ko'rib, xabar qilsalar, o'sha kuni g'azot uchun tayinlangan joyda hozir bo'lurmiz»¹. Eshon shu ma'noda bir vasiqa va ahdnoma ham yozdirib unga mo'tabar kishilar, volost boshqaruvchilari – mingboshilar hamda qozilarning muhrlarini bosdilar. Ana shu yig'inga yetib kelgan mustamlakachi ma'murlar yig'ilganlarni tergov qilishganda hech kim sir boy bermay «kattalari o'lgani uchun xudoyi»ga to'planganliklarini aytishadi va Muhammad Alini ehtimol bilan Mingtepaga kuzatib qo'yishadi. Mustamlakachi ma'murlar islom dinida bo'lgan Asaka jabhasi (uchastka) pristavi shtabs-kapitan M.Chanishevning Muhammad Ali eshon xususida Marg'ilon tuman boshlig'iga yozgan raporti va axboroti bilan tanishgach, tashvishlari chindan ham kuchayib ketdi. «Maxfiy olgan axborotimga qaraganda, – deb yozgan edi M.Chanishev, – muridlari o'n mingdan oshgan bo'lsa kerak, hammalari eshonga shunday tobe'dirlarki, agar amr qilsa bir kunda jam' bo'ladilar. Agar ahvol shunday davom etaversa, ehtimol Eron eshonlaridek Rusiya davlatiga isyon chiqarsa, loaqal hukumat boshliqlari amr-farmoniga inqiyod qilmasa»².

Mustamlakachilarni pristavning keyingi axborotidagi fikri ham bir qator sergaklantirdi. Chanishev eshon hovlisidagi maktabda 3 muallim 250 bolani o'qitayotgani haqida yozib, «bular tez kunda o'qib chiqsalar, ko'plarini Istanbulga yuborib o'qitmoqchi emish. Bularning har nechik bo'lsa-da, man' qilinmog'i zarur edi»³, deydi.

Rossiya doimo Turkiya bilan urushlar qilgani va undan hamisha xavotir olgani, ayniqsa turklarning Turkistonga intilib o'z qondoshlariga xayrixoh turgani hisobga olinsa, rus mustamlakachilarining qanday tashvishga tushib qolganlari o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

O'sha 1897 yili rus razvedkasi Muhammad Alining chindan ham Turkiya bilan aloqa bog'laganligi haqida ma'lumotlar olgan. Xususan,

¹ O'sha asar, 23-bet.

² O'sha asar, 16-bet.

³ O'sha asar, 17-bet.

uning turk sultoniga maktub bilan murojaat qilganidan xabardor bo'lgan. Bu maktubda eshon ruslar Qo'qon xonligini bosib olib, uni Farg'ona viloyatiga aylantirganidan keyin musulmonlar o'rtasida axloqan buzilish kuchayganligini, shariat qoidalaridan chekinish hollari ro'y berib, buzuqlik, ichkilikbozlik, nashavandlik avjiga chiqqan boshlaganini yozgan edi. Muhammad Ali, bundan tashqari, turk sultoniga ruslar kambag'allar uchun zakot yig'ishni, hajga borishni ta'qiqlaganliklarini, eski vaqflarni bekor qilib, yangilarini joriy etmayotganliklarini eslatib, uning Rossiya imperatoridan xalqning shariat qonun-qoidalari bo'yicha turmush kechirishi uchun sharoit yaratishni talab qilishini so'raydi.

Xalq orasida obrusi va mavqei baland bo'lgan eshonning ana shunday vaziyatda paydo bo'lishi rus mustamlakachilarini bezovta qilishi turgan gap edi. Chunki eshon o'lkadagi ozodlik harakatiga bosh bo'lishi mumkinligi ularning nazaridan qochmagandi.

Mingtepa eshonining ishi bilan shaxsan yarim podshohning, ya'ni general-gubernatorning o'zi shug'ullandi va Toshkent okrug sudining o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi boshchiligida 12 kishidan iborat komissiya tashkil qildi. Komissiya 1897 yil 12 mayda vaziyatni o'rganish va eshon haqida aniq tasavvur hosil qilish maqsadida Mingtepaga tashrif buyurdi. Komissiya rahbari bo'lgan tergovchi bilan Muhammad Ali o'rtasidagi savol-javob mustamlakachilarning nimadan xavfsiraganligi va asl maqsadlaridan dalolat beribgina qolmay, eshonning dunyoqarashi, e'tiqodi hamda kimlarga suyangani haqida ham tasavvur beradi. Mana o'sha savol-javob:

«Tergovchi: Podshohi a'zamga qarashli qaysi mamlakatlarni ko'rgansiz?

Eshon: O'z qishlog'imdan tortib, to Sevastopol, Odes, Qrim, Kafa, Ashxobod, Uzunota, Toshkentlarni ko'rdim.

Tergovchi: Odes, Sevastopollarda podshohi a'zamning dabdabai askariya va shavkatlarini nechuk fahmladingiz?

Eshon: Nihoyat zo'r, katta, askarlari ko'p, obod.

Tergovchi: Boshqa podshohlar, masalan, ingliz va afg'on kabilarning shavkatlari va askarlari qalay? Turk davlati nechuk?

Eshon: Bularning shavkati va askarlari oq podshohnikidek ko'rinmadi. Turk va afg'on bo'lsa nihoyat noobod, mulklari xarob, askarlari Rossiyadek ozoda emas ekan.

Tergovchi: Muncha davlat va imoratlar otangizdan qolganmi, yoki o'zingiz topgansizmi? Eshon bo'lmasdan avval nechuk edingiz, yer-suvlaringiz bor edimi?

Eshon: Otamdan bir kichkina hovlicha qolgan edi. Boshqa davlat qolgan emas. Bu davlatni 26 yil ichida, hajdan kelganimdan so'ng,

avvali xudoyim yetkazdi, ikkinchidan, podshohi a'zamning soyasi davlatlarida, eshon bo'lganimdan keyin topdim. Hali ham chandon davlatli emasman, hamma narsalarim xudovandi olam yo'lida, beva-bechoralarga hadya qilib qo'yanman. Shunday qilib kambag'al-chambag'allar yig'ilib qolganlar. Shular bilan nima topsak, yeb yotibmiz...

Tergovchi: Muridlaringizning hammasi kambag'al odamlarmi, yoki boy va davlatlik odamlarmi, qaysisi ko'p?

Eshon: Har qaysilaridan ham bor. Boy ham bor, kambag'al ham ko'p. Hammalari bizga barobar birodarlardir...

Tergovchi: Sizga qaysilari yaqin, boylarmi yoki kambag'allarmi? Qaysisining tarafdorisiz?

Eshon: Albatta, manga shu oldimda xizmat qilib turgan kambag'allar yaxshidir...

Tergovchi: Podshohi a'zamning kattaligi va askarining ko'pligini o'zingiz bilganingizdek bularga ham aytib tushuntirasizmi? Bular ham biladilarmi?

Eshon: Albatta aytamiz, hammalari biladilar.

Tergovchi: Imperaturi a'zamning xonadonlarini, nomlarini bilasizmi? Bu yurganlar ham biladilarmi?

Eshon: Oq podshohning ismlarini odamlar Nikolay podshoh deb yuritadilar. Shuni eshitamizki, bular ham «oq podshoh» deb biladilar. Biroq xonadonlarining nomlarini chandon bilmaymiz.

Tergovchi:...Man pristavga buyuraman: podshoh bilan xonadonlarining nomlarini tamom musulmoncha yozib beradi. O'zingiz va muridlaringiz, hammalaringiz bilib, yod qilib har namozda duo qilmoqlaringiz kerak. Bundan keyin ham shunday qilinglar! Hatto maktab bolalarigacha bildiring. O'qib yod qilsinlar! Hokimlardan biri so'raganda darhol aytib beradurgan bo'lsinlar¹.

So'roq bobida ustasi farang, o'ta muhim siyosiy ishlarda pishib ketgan tergovchi qanchalik ustalik qilmasin, zukko eshonni chalg'it olmaydi, uning muddaosini va ko'nglidagi pinhoni maqsadini anglay olmaydi. Chor amaldori va o'zbek ulamosi o'rtasidagi savol-javoblar matnining mazmuni ikki tomon o'rtasida o'zaro aqliy-ruhiy olishuv bo'lganidan dalolat beradi. Olishuv esa eshon foydasiga hal bo'ladi. U tergovchi nimaga shama qilayotganini darhol ilg'ab oladi. Undan nima istashganini ham tushunib, shunga yarasha javob qila biladi. Eshon mustamlakachi amaldorning saltanatparastligi, namoyishkorona ochiq tahdidini ham ilg'ay oladi.

¹ Fozilbek Otabek o'g'li. O'sha asar, 17–19-betlar.

Mustamlaka ma'muriyati ham usta tergovchi bosh bo'lgan komissiya hisobotidan eshon haqida ma'lum tasavvur hosil qildi va o'ziga xos xulosa chiqardi. Ellikdan oshgan Mingtepa eshoni jismonan baquvvat, ruhan bardam va ko'pni ko'rgan. Diplomatiya bobida o'ziga xos maktab sabog'ini olgan. Mustahkam diniy e'tiqodi, imoni hushyorlik, mulohazakorlik va tadbirkorlik bilan uyg'unlashgan. Odamlarga favqulodda ta'sir ko'rsatib safarbar etish qobiliyati kuchli. Sharq olami va Yevropa dunyosini yaxshi biladi. O'z oddiga ulkan bir maqsad qo'ygani tabiiy. O'z g'oyasini ro'yobga chiqarishda nozik usullarni ishlatishga qodir. Tabiatan mulqdor sinflarga emas, balki kambag'allarga moyilligi uchun ko'zlagan maqsadi mavjud tuzumni tahlikaga soladi. Shuning uchun ham sertashvish Farg'ona viloyatida Mingtepa eshoniga doimo ko'z-quloq bo'lib turish zarur.

Muhammad Ali ham o'z navbatida komissiya taftishidan tegishli xulosa chiqarib, mustamlakachilar bilan hal qiluvchi kurashga taraddud ko'ra boshladi. Farg'ona muzofotidagi mashhur odamlarni o'z maslagiga ergashtirish maqsadida Muhammadaliboy, Somiy va Xoliqberdi oxundlarga; O'shga – Qurbonjon dodxoh va uning bolalariga; Marg'ilonga – Said Ahmadxo'ja, Muhammad Yusuf eshonga; Namanganga – Yahyoxon to'ra, Qodirxo'ja hoji hamda boshqa tijorat ahli va ulamoga maktublar yo'llaydi. Ulardan olingan javoblar o'zbek sanoatchilarining qo'zg'alonga xayrixoh bo'lsalar ham, uni boshlashga jur'ati yetishmayotganligini ko'rsatdi. Bu narsa, xususan, andijonlik boylardan xalq orasida Mamtaliboy nomi bilan mashhur bo'lgan, Andijonda Jom'e masjidini qurdirib bergan Mahmudalining javobidan yaqqol ko'rinadi: «Rus podshohi katta podshoh, hozir bunga muqobil bo'lmoq nihoyat mushkul bir ishdir. Bizdek faqirlar qo'lidan kelmay qolib, oxiri ko'p besaranjomliklarga bois bo'lurmikin. Xususan, bu kunlarda hamma shaharlarga poezdlar kelib qolgan, yo'l yaqin bo'lgan... Nihoyat o'ylab ish qilinsa, yaxshi bo'latur. Va illo, hech musulmon kishi bu zolimlar qo'lida qolmoqqa roziligi yo'qdir. Shaharlar o'zbeklarga tor bo'lg'ondek, tog'lar qirg'iz, elatiyalarga tor bo'ldi, butun Turkiston musulmonlarga torlik qildi.

Nima qilaylik, noilojimiz. Qo'limizda hech narsa yo'q. Yetarlik asbob va xazina yo'q. Har nechik bo'lsa-da, ishning oqibatini o'ylab, beva-bechoralarning fikrini qilmoqlarini iltijo qilamiz, deb yozilguvchi miskin va g'arib Mahmudali»¹.

1897 yil 15 shavval oyida Mingtepa chaqirilganlarning barchasi ham vaqtida yetib kelmadilar. Ketmontepa, Ko'gart va Koshg'ar

¹ *Fozilbek Otabek o'g'li. O'sha asar, 25-bet.*

dovonidan kelgan ko'plab qirg'izlarning obro'li kishilari (Chibil bo'lis, Muhammadalibek va boshqalar) ikki kun boshqa vakillarni kutishdi. Shundan so'ng eshon boshqa shaharlardan kelgan javob xatlarini tanishish uchun ularga berdi. Turli joylardan o'zbek boylari, savdogarlar va ulamolardan kelgan xatlarda ba'zilar belgilangan muddatda shay chiqishlarini biddirsa, ko'pchiligida kutish zarurligi bayon qilingan edi. Eshon esa xulosa sifatida, qirg'izlarga «shahar xalqi chor xukumati zulmidan qo'rqanlari uchun chiqmaydilar», degan. Yig'ilish qo'zg'alonni yaxshisi kelasi yili taraddud bilan boshlashga qaror qildi.

Eshon qirg'izlarning ishga chindan ham jiddiy kirishganliklarini payqadi. Mustamlakachi ma'murlar Ketmontepa va Ko'gardagi rus mujiklaridan tashvishli xabarlar olaboshladilar. Avvallari ularning yerlarida chorikor bo'lib ishlovchi, ijarachi va boshqa xizmatdagi qirg'izlar kelmay qo'yishgani, ular bilan aloqa birdan uzilganidan xavotirlana boshlagani ma'lum qilindi. Mujiklar ma'murlarni umumqirg'izlar ichida inqilobiy harakat qo'zg'algani va yaqin kunlarda hukumatga qarshi qo'zg'alon bo'lishi mumkinligidan ogoh qilishdi.

Mustamlakachilar kalavaning uchi bevosita Dukchi eshonga borib taqalishini yaxshi bilishgan. Rus ma'murlarining josuslik tarmog'i Mingtepada ham o'z to'rini yoygani ma'lum edi. Ig'vogarlik ilmida butun Yevropaga taniqli rus razvedkasi va kontrrazvedkasining ko'tarilajak qo'zg'alonga qarshi o'z choralari ko'rib qo'ygani haqiqatga yaqin. Mag'lubiyatga mahkum bo'lgan qo'zg'alon ko'tarilishi mustamlaka ma'murlari uzoqni ko'zlab astoydil ishlab chiqqan strategiyaga mos va ma'qul edi.

Muhammad Ali boy tajribasi hamda favqulodda sezish qobiliyati bilan atrofida kimlardir, nima uchundir harakatni tezlashtirishga urinayoganini his qilardi. Ko'z ilg'amas dushman qo'li g'oyat makkorlik bilan ish ko'rardi. Eshon bu kuchni 17 may kuni to'satdan uning hovlisiga bostirib kelgan ikki yuzdan ortiq kishining darhol qo'zg'alon boshlashni talab qilganida yaqqol ko'rdi. Butun rejalar ostin-ustin bo'lib ketdi. Jiyani Abdulazizni emas, balki uni, eshonni 17 may kuni oq kigizga o'tkazib, xon deb ko'targan qo'llarni ham begona kuch boshqardi. Makkor dushman odamlarning eshonga e'tiqodidan ham ustalik bilan foydalandi. Oddiy tayoqlar eshon duosi bilan o'tochar miltiqqa, belbog' esa tig' o'tmas qalqonga aylanadi, deb hayqirganlar ishonchini ham mustahkamlab, oldinga boshladi. Eshon bu noma'lum kuch muddatidan esankirab, voqealar tizginini qo'ldan chiqaribgina qolmay, sandig'ida juda ehtiyotlab saqlangan

muhim hujjatlarni olishni ham unutdi. Muhammad Ali garchand qo'zg'alon tashabbuskori bo'lsa ham, uning borishini idora qilolmay qoldi. Qudratli to'lqin uni o'z domiga tortib, oddiy ishtirokchiga aylantirdi.

Qo'zg'alon stixiyali tarzda boshlandi. Uning borish jarayoni quyidagidek: Bir guruh mahalliy mansabdor shaxslar eshon tayyorlagan murojaatnoma – qasamyodga o'z muhrlarini bosishdi. Murojaatnomada shunday deyilgan edi: «Alloh yo'q joydan o'n sakkiz ming olamni yaratib, insonga mukammal bir qiyofa baxsh etib, uni barcha jonzotlarning sohibi, Odam Atoni esa xalifa qilib ko'tardi. Butun olamni Alloh payg'ambarimiz uchun yaratib, uni eng yaqin kishisiga aylantirdi va ul hazratni taxtga o'tqazdi-da, shunday murojaat qildi: «Ey payg'ambar! G'ayridinlar va imon-e'tiqodidan qaytganlar bilan jang bo'lg'usidir». Bunda o'ziga sodiq qolgan va eng yaqin bo'lganlarga Jannat va'da qildi. Choryorlar xalqqa pandu nasihat qilib dedilarki, «Kimki g'azovot yo'lida o'z mulki va hayotini Alloh va payg'ambar uchun qurbon qilsa, bundaylar biz singari bo'lg'usidir». Ular nomunosib bandalarni tiyish uchun kitob bitdilar va bizga esdalik sifatida qoldirdilar. Shunday ekan, o'zimizni Allohning qullari va payg'ambarning ummatlari hisoblaydigan bizlar albatta g'azovot e'lon qilishimiz joizdir. Birinchidan, Alloh va payg'ambar yo'lidagi bu muqaddas urushda biz g'olib chiqishimiz, ikkinchidan, hayotimizni qurbon qilishimiz lozim.

Biz quyida o'z muhrimizni bosganlar, oldimizga kalomullohni qo'yib, Alloh va payg'ambarga qasamyod qilib, xalifamiz bilan shartnoma tuzdik. Shundan keyin, agar o'zimizga bino qo'yganimizdan, shaytonning vasvasasiga uchib yoki shirin jonimizni saqlashni o'ylab, qo'rqib, va'damizdan qaytib, uni bajarmasak, do'zaxga tushaylik, ikki dunyoda yuzimiz qora bo'lsin, qiyomat kuni sharmandayu sharmisor bo'laylik.

Bu so'zlarning tasdig'i uchun muhrimizni qo'ydik»¹.

Mazkur qasamyodga mahalliy amaldorlar va obro'-e'tiborli kishilardan o'n ikki kishi: Mulla Ahmad Noyib Mirza o'g'li, Hayitboy To'qsabo, Orziqulboy Ponsod, Umarbek Dodxoh, Botir Mingboshi, Sottiboy Mirza, Botir Mingboshi Normat o'g'li, Muhammad Ibrohim To'qsabo, Mulla G'oyibnazar Ortiq o'g'li, Alibek Dodxoh, Mulla Qosim Amin, Ziyoviddin Mahdum Muhammad Sharif o'g'li² o'z muhrini bosgan.

¹ *Muso Turkistoniy*. Ulug' Turkiston fojiasi. Madina, 1979, 107–108-betlar.

² Ayblov xulosasidan. O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 91-ish, 53–61-variantlar.

14 may kuni kechqurun Muhammad Ali xalfaning uyida kengash bo'lib, unda Farg'ona viloyatining turli bo'lislaridan kelgan kishilar qatnashdi. Kengashda eshon ma'lum qilgan rejaga binoan vodiydagi uch shahar – Andijon, Marg'ilon va O'shdagi harbiy lagerga bir kunda hujum qilinishi kerak edi. Bu hujum muvaffaqiyatli tugasa, Qo'qonni ham olib, vodiya xonlik tuzumi tiklanardi. So'ngra mustamlakachilar Samarqand, Toshkent va Chimkentdan ham haydab chiqarilardi.

Oradan ikki kun o'tgach, yana eshon xonadonida kengash bo'lib, unda mingga yaqin odam qatnashdi. Shu kengashda, qo'z-g'alongning qachon boshlanishiga va eshonning o'n to'rt yoshli jiyani Abdulaziz (Musulmonqul) xon qilib ko'tarilajagiga kelishildi.

17 may kuni shom namozida Tojik qishlog'idagi masjidga juda ko'p odam to'plandi. Namoz paytida eshon xalqqa murojaat qildi: Bu murojaat Muso Turkistoniy asarida quyidagicha aks ettiriladi: «Ey muhtaram musulmonlar! Ey birodarlar! Hammangizga ma'lumdirki, yurtimiz musulmon, el musulmon, xalq musulmon, xon musulmon, shariatning hukmi joriy, amri nofiz edi. Hukumatni Alloh taolo o'zi biladur, kofirlarni musallat qildi, yurtimizga o'rus keldi. Xudoyorxon o'rniga Kaufman, Umarxon taxtiga Chernayuf o'ltirdi. Farg'ona xonligi yerida Moskva xonligi – oq podshoh hukmron bo'ldi.

O'rus vatanimizni istilo etdi. So'ng tilimizga istilo qildi. Sekin-asta dinimizga istilo qilmoqga boshladi. Bilasizlarki, musulmonlarning axloqi buzildi. O'risning kelg'oniga o'ttiz yil to'lmay, musulmonlar riboga odatlandi, halol-harom farq qilmas bo'ldi. Qozilarimiz bo'yniga but taqadig'on bo'ldi. Xulosa, shariatimiz xor, musulmonchilik g'arib bo'ldi. Hurriyatimiz g'oib bo'ldi, istiqlolimiz mahv bo'ldi, o'zimiz o'tmas, so'zimiz kesmas bo'ldik. Ey voh!..

Ey musulmonlar! Bunga sabab o'zimiz bo'ldik. Bu holimizga Alloh ham rozi emas, Rasul ham rozi emas. Bu asorat va mahkumiyat-ga kimsa rozi emas, ins ham, jins ham rozi emas. Ey birodarlar, tek turaversak, bu kofir yana battar qiladur. Voy bizning holimizga!

Tarixda o'tgan muazzam bir saltanat qurg'on qahramon pahlavonlar avlodimiz – bu zillatga hech qanday zireh chidamas. Qani bizdagi shijoat, qani ajdodlarimizdagi basolat, Sizlarga nima bo'ldi?

... 400 olimimiz bordir, hammasi musulmon, hammasi turk, hammasining ismi Muhammad. Hammasi hanafiy mazhabdir. Bu ismda, bir mazhabda, bir qabristonda bu qadar olimlarni to'plagan Turkistonni dini taqdimda, din odimlarini yetishtirishda na darajada xizmatlari sabqat etganligi o'quvchilar diqqatiga arz o'rindur.

Jahon tarixida, yer yuzida, ko'k yuzida bu misli ko'rilmog'ondir. Turkistonliklar har qancha iftixor etsa arziydur, bajodur, ey birodarlar! Bizlar shundoq ajdodning nabiralarimiz. O'luk uyqusida uxlaysizmi?!» – deb hazrat eshonning so'zi bu joyga kelg'onda zori boshlandi. Hozir turg'onlar ho'ng-ho'ng yig'lash bilan eshonning amriga omoda ekanliklarini bildirdilar. Alarning hayajonlarini bosish uchun hazrat eshon so'zida davom etdi:

Ey musulmonlar, ey xudoning bandalari, ey payg'ambar ummati! Chin mo'min bo'lsangizlar, sizlarga jihod lozimdur, jihod! E'tiqod Alloh yo'lida jihod qilamiz, o'lsak – shahid, o'ldirsak – g'ozi bo'lamiz. Jihod qilmaguncha yelkamizga mingan bu ro'dapo o'rusdan qutulish yo'q.

Ey mo'minlar, ko'zingizni oching! G'aflatdan bedor bo'ling! Kofirlardan huquqimizni olaylik.

Ey birodarlar, hurriyatimizni olaylik, o'z Vatanimiz, o'z yurtimizda o'zimiz hukumat quraylik. Buning uchun bizdan g'ayrat istaydur, himmat istaydur, xohi jihod istaydur, fiysabililloh jihod vaqti keldi!

Hayyu a'lal jihod!

Hayyu a'lal falah!

Shu holda xonaqohni to'ldirgan musulmonlar «Jihod! Jihod!... Jihodga hozirmiz, molimiz, jonimiz jihodga fido bo'lsin. Hazrat eshon, amringizga hozirmiz!» deb bir ovozdan baqirdilar.

Hazrat eshon yana so'zga og'iz ochdi:

– Borakalloh, borakalloh, shundoq xizmat lozim Alloh yo'lida.

So'ng eshon shahid bo'lganlar o'luk emasdur, alar tirikdur, degan mazmuni ifodalovchi ushbu oyatni o'qidi: «Valatakulu liman yo'qtalu fisabialillohi amvatun bal ay ahysun va laekin la tishuruna». Ey birodarlar, ajal bordur, qirq yil qirongarchilik bo'lsa ham ajali yetgan o'ladur, xudo rizosi uchun jihodga hozir bo'linglar.

Hayyu a'lal g'azo, hayyu a'alal falah, hayyu a'lal jihod! Allohu akbar! Alloxu akbar! Allohu akbar!»¹.

Bu kalimani hamma barobar takrorladi. Hazrat eshon nutqi oxirida:

– Hammangiz hozirlaning, bu kecha huftondan keyin Hujum! – dedi.

Keyin yaqin qishloqlarga chopar yo'lladi, hazrat eshon amrlari bilan jihod fiysabililloh e'lon qilindi. Choparlar kimki musulmon bo'lsa, bu oqshomdan qolmay jihodga hozir bo'lsin!», deb nido qilishdi.

¹ *Muso Turkistoniy*. Ulug' Turkiston fojiasi, 108–109-betlar.

Xufton namoziga odamlar qurollanib kelishdi. Ammo ularning kamdan-kami qilich va miltiq bilan qurollangan, asosiy Qismi so‘yil, cho‘qmor, ketmonsop, panshaxa ko‘tarib olishgan edi. Namoz paytida ular qurollarini masjid devoriga suyab qo‘yishdi. Namoz o‘qib bo‘lingach, hamma baravar «Jihad! Jihad! Jihad!», – deya hayqira boshladi. Qisqa vaqtda bu ovoz butun qishloqni tutib ketdi.

Bir payt eshon hovlisining darvozasi ochilib, undan oq otni yetaklab chiqishdi. Muhammad Ali xalifa: «Bismillohir Rahmonir Rohiym, baniyat jihad!» deb otga mindi. Shundan keyin qo‘zg‘alochilar yo‘lga tushdilar.

To‘plangan odam olti yuz nafarcha edi. Lekin ularning hammasi ham otliq emasdi. Shu bois otliqlar piyodalarni mingashtirib olishdi. Qolganlar piyoda yoki aravada yo‘lga tushishdi. Qo‘zg‘alochilar safi yo‘l-yo‘lakay to‘lib bordi. Olomon ikki bayroq ostiga uyushgandi. Birinchi bayroqqa Mulla Ziyovuddin mahdum boshchilik qilayotgan edi. Ko‘k to‘n kiyib, oq salla o‘ragan otliq eshon esa ikkinchi bayroqqa bosh bo‘lgani holda eng oldinda yoshlar davrasida borardi.

O‘sha voqealar guvohining hikoyasiga ko‘ra, «Mingtepada qiyomat barpo bo‘lib, hamma xotin-xalaj, erkak ko‘chaga chiqib, «Eshon xon ko‘tarildi!», deb shoye qildilar. Xufton vaqti edi, birdan har kim qo‘liga tushgan narsani olib, kimdir pichoq, kimdir shop, kimdir to‘pponcha, qaysilari miltiq, xullas, har kim topgan narsasini olib, taxminan olti yuz chamasi bo‘lgan kishi shaharga qarab jo‘nab qoldilar. Bular kechasi bilan yurib, erta sahar Andijonga, Hakandga keldilar». Qo‘zg‘alon qatnashchilaridan Matmusaning ma‘lumotiga ko‘ra, 17 may kechqurun Tojik qishlog‘ida «g‘azovot, g‘azovot» degan hayqiriqlar yangrab uzoqdan Muhammad Ali bosh bo‘lgan qo‘zg‘alochilar ko‘rinadi. Ilg‘or qismga mulla Ahmad ismli qirg‘iz bosh bo‘lib, u telegraf simlarini qirqishga buyruq oladi. Ular yo‘lda Asakamirshabini uchratib, uni o‘ldirishadi. Mulla Ziyovuddin maxdum bosh bo‘lgan qo‘zg‘alochilar Ko‘nji qishlog‘iga kirishganda ularga yana 200 kishi kelib qo‘shiladi. Qoraqo‘rg‘on va O‘qchidan o‘tib, Ko‘yliga yaqinlashishganlarida ularga mingboshi G‘oyibnazar o‘z yigitlari bilan kelib qo‘shiladi. Mingboshi rus mirzasi Bichkovning kallasini eshonga tortiq qiladi. Eshon G‘oyibnazarga rahmat aytadi, lekin kallani qabul qilmaydi. Shu qishloqda u nopok qozi mulla Yo‘ldosh Xolmat o‘g‘lini tutib kelishni buyuradi. Qo‘zg‘alochilar Andijonga yaqinlashganlarida ularga boy savdogar Aliboy qurollantirib yuborgan 150 yigit qo‘shiladi. Eshonga qo‘shilgan Andijon yigitlariga avval ruslarda xizmatkor bo‘lib, keyin eshonga murid bo‘lgan Muhammad Zulun qo‘mondonlik qiladi.

Voqea guvohi N.Veselovskiy o'z kundaligida, jumladan, mana bularni yozgan: «... Bir mahal, sartlar (o'zbeklar) chekina boshlashdi. Lekin bayroq atrofida bir to'dasi qimirlamay turardi. Mulla ko'k bayroq ostida baland ovozda Qur'on o'qir, chekinishni istamas edi. Uning yonida baland bo'yli yigit bayroq ko'tarib turardi. Shunda askarlar otgan o'q mullani qulatdi. Bayroqdor uning o'ligini qo'ltiq lab oldi, ammo u ham o'ldirildi. Bayroqni podporuchik Karseladze oldi. Muhammad Ali Andijon shahriga kiraverishdagi adirda namoz o'qish uchun to'xtaydi va uch yigitni jarchi sifatida oldindan shaharga yuboradi. Andijon Eski shahar qorovuli mirshablari «g'azot, g'azot!» deya hayqirib kelgan jarchilarni qarshilik ko'rsatmay o'tkazib yuborishadi. Orqadan izma-iz yetib kelgan 163 kishi qorovullardan biri yo'l boshchiligida 20-Turkiston liniya bataloni kazarmasiga bostirib kirishadi. Kazarmaning piramidalarida turgan 30 ga yaqin miltiqni o'lja olib, uxlab yotgan birinchi qatordagi soldatlar ustiga tashlanishadi. Ularni pichoq, xanjar bilan urib kaltaklab turishganda ikkinchi qator ichkaridagi soldatlar uyg'onishib, darhol yonlaridagi miltiqlarni oladilar. Chorak soatcha davom etgan otishmadan so'ng qo'zg'alonchilar to'rt o'lgan sheriklarini tashlab chekinadilar va soat oltilargacha Eski shaharda turib, kengashadilar. Ular tayin qarorga kela olmay, Qorabura tarafi bilan orqaga chekinadilar. Shaharga kirmagan qo'zg'alonchilar esa «Afg'on bog'» degan imtihon bog'ida imtihonchi rus to'rani o'ldirib, tug'larini uning qoniga bo'yashgan edi.

Askarlar sartlarni nayza va qo'ndog'lar bilan urishdi. Ular esa o'z qurollari va bizning qurollar bilan o'zlarini himoya qilishdi, ammo muvaffaqiyat qozonisholmadilar. Tez fursat ichida ularni Do'ng qishlog'iga haydashdi. Faqat patronlar va otlar yetishmaganligi sartlarni to'la qirilib ketishdan saqladi. Jang maydonida 15 sartning o'ligi qoldi. Lekin ko'p o'liklar va yaradorlarni ular o'zlari bilan olib ketishib, qishloqlarga yashirishdi»¹.

Shahardan chuvalashib chiqqan qo'zg'alonchilarni ko'rgan shahar ahli hayron bo'lganicha nima hodisa ro'y berganligini tushunmay qoldi. Guvohlarning eslashicha, «eshon yangi shahardan qochganicha va Hakandga qarab kelayotganda ba'zi so'filar otlarini ko'chaga tashlab, Hakanddagi bog'larga kirib bekinib oldilar. Erta bilan Hakand ahli bog'larida bularni ko'rib, ahvolni bilib,

¹ Bu esdalik «Russkiy invalid» gazetasining 1898 yil 131–132-sonlarida chop etilgan. Undan qisqartirib olindi. Alinazar Egamnazarov. Siz bilgan Dukchi Eshon. T., 1994, 47–58-betlar.

qo'rqqanidan askarlariga eski to'nlar berib, sallalarini kiydirib, mardikorlarga o'xshatib, ishlatib qoladilar. Eski shahardan qochganlari Qoradaryodan kema bilan o'tgancha har qaysilari o'z jonlarini saqlash fikriga tushib, to'g'ri kelgan tomonga qochdilar». Andijonda, ayniqsa ruslar yashaydigan yangi shaharda mustamlakachi amaldorlardan tortib to'oddiy fuqarogacha vahimaga tushib, uylariga berkingan va musulmonlarning yalpi hujumini kutgan edilar. Hatto tumanboshi polkovnik Koishevskiy ham ko'chaga chiqishdan qo'rqib, uyida berkinib yotgan. U oldiga Eski shahar oqsoqoli Xolbotir Ro'zadorbiy o'g'li mingboshi kelgandagina voqeani tinchlik bilan tugaganini bilgan. Guvohlarning yozishicha, agar eshon Eski shaharda soat 8–10 largacha turganda, xalq to'planib milliy muhobara boshlanar edi. «Chunki u vaqtlarda umumiy xalq Rusiya hukumatining zulmidan nihoyat bezor bo'lib, qo'zg'olishga hech fursat topolmay yurar edi. Fuqaro mundan bexabar, soat sakkiz edi, bozorlar har kungidek ochilib, hamma o'z tirikchiligiga mashg'ul bo'ldi. Soat 9 larda shuhrat bo'ldiki, Yikchi eshon shaharga hujum qilib, tamom soldatlarni o'ldirib chiqib ketibdir, deb, bu xabar tarqalg'ondan keyin Eski shaharning katta oqsoqoli Xolbahodir mingboshi Ro'zadorbiy o'g'li Eski shahar ahvolotini yangi shaharga xabar bermoq uchun otlanib, chiqib ko'rdiki, yangi shaharda hech kim yo'q»¹.

Qo'zg'alongning birinchi kunidayoq kuchlarning tarqoqligi ma'lum bo'ldi. Hamma bir vaqtda ko'tarilmadi. Ketmontepa va Ko'gardagi qirg'izlar sardori Chibil bo'lis zudlik bilan eshonga qo'shilish o'rniga «avval shu joydagi mujiklarni saranjom qilib, keyin boramiz», deya rus dehqonlari posyolkalariga yurish qildi. Inoyatxon eshon Marg'ilonga hujumni uyushtirilmay, asosiy kuchlarini Muhammad Ali qo'shini bilan birlashtirishga qaror qildi. Umarbek dodxoh ham O'shga yurishning uddasidan chiqolmadi. Chunki mingboshi Qorabek Hasanov O'sh tumani boshlig'i podpolkovnik Zaysevni oldindan ogohlantirgan edi.

Marg'ilon garnizonida esa o'sha kechasi ataylab soldatlarning uxlab qolmasligi uchun bazm tashkil qilingani ham tasodify bo'lmasa kerak. Qo'zg'alongchilar esa garnizondagilar uyquda emasligini aniqlab, orqaga qaytishgan.

Andijon qo'zg'alongida oid 20 jilddik tergov va so'ro-javob materiallari hamda ko'plab adabiyotlarda bir qancha jumboqlarga javob topa olmaymiz. Chunki chorizmning maxfiy xizmati xodimlari

¹ Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 29-bet.

devor orqasida turib fitna solishga mohirligidan tashqari, iz yo'qotishga qodirlikda ham ustasi farang edilar.

Shunday qilib, Muhammad Ali eshonning qo'zg'alonni atroflicha va puxta tayyorlamay, rejasiz, yaxshi qurollanmagan muridlari bilan 1898 yil 17 mayda chor istabdodiga qarshi kurashga ko'tarilgani rus mustamlakachilari uchun ayni muddao bo'ldi. Endilikda uni hech tap tortmay yo'qotishga, qatliom uyushtirishga zo'r dastak topilgan edi.

Rossiya imperatori Bosh shtab general-leytenanti Korolkovga Turkiston harbiy okrugida yozgi mashqlarni bekor qilish, «ovchi» komanda qo'shinlarini Farg'onaning turli tumanlariga yuborish, shaharlardagi va temir yo'llardagi barcha ruslar va mujiklarni yoppasiga qurollantirish hamda ishonchli yerli amaldorlarga maxsus yorliqlar bilan ov miltiqlarini berishni tayinladi. Musulmonlar qoniga tashna bo'lgan Korolkov zudlik bilan ishga kirishib, 1898 yil 20 may kuni «bo'shanglik qilgan» Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Povalo-Shveykovskiyni, tuman hokimini, Asaka uchastka pristavi kapitan Yenikeevni lavozimidan bo'shatdi. U o'ziga maslakdosh mustamlakachi generallardan Chaykovskiyni Farg'ona gubernatori, general Ionovni Farg'ona qo'shinlari qo'mondoni qilib tayinlab, mahalliy xalqqa qarshi shafqatsiz choralar ko'rishda cheklanmagan vakolatlar berdi'. Korolkov shaxsan o'ziga maxsus dala shtabi tuzib olib, unga mahkama boshqaruvchisi polkovnik Develni, «Turkestanskije vedomosti» gazetasi muharriri, podpolkovnik Romanovichni, harbiy prokuror, general-mayor Dolinskiyni, alohida o'ta muhim ishlar bo'yicha harbiy tergovchi polkovnik Nekrasovni birga olib Farg'onaga jo'nadi. U Toshkentdagi 1-o'qchi batalonini, Ko'qondagi 5-Orenburg kazak polkini, Andijondagi 5-«ovchi» komandadan iborat jazo ekspeditsiyasini tuzdi.

Mustamlakachilar asosiy diqqatni Muhammad Ali eshonni tutishga qaratishdi. Ular eshonni o'zbeklarning o'zi tutib berishlarini maqsad qilib qo'yishdi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun rus amaldorlari «Xoh mingboshi, xoh fuqaro bo'lsin, xoh boshqa bo'lsin, eshonni tutib kelsa, Andijon shahriga istarshiy oqsoqol qilinur», deb e'lon qilishdi. Fozilbek Otabek o'g'lining yozishicha, «rus askarlari Mingtepaga borguncha «kim uchrasa, otib o'ldirib, eshonning hovlisiga yetib, daf'atan atrofni o'rab, tintuv qilaboshladilar... Mingtepada uch soat otishma qildilar. Bu uch soat ichida soldatlar hovlidan hovliga o'tib, kim ko'rinsa otib o'ldirdilar. Muddat bitganda, eshonga qarashli nimaiki bo'lsa olib, shaharga qaytdilar. Ashyo jumlasidan bir

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 323-varaq.

xos sanduqda ko'p xatlar bor ekan, buni ham olib kelib tarjima qilib ko'rsalar, tamomisi har kimdan borgan duoyi salomlar ekan. Duoyi salomlar kimdan bo'lsa, darhol shu odamlarni tutmoqqa amr qilindi. Shuning uchun Andijon shahridan ko'p fuqaro qamaldilar»¹.

Bu vaqtda Muhammad Alining lashkari tevarak-atrofga har yoqqa tarqalib, o'zi ozchilik muriddari bilan tog'larda yashirilib yurgan edi. Eshon tuzoqdan qanday qilib chiqishni bilmay gangib qolgan edi. Muridlari ham sarosimada edilar. Chunki ular kutgan voqea yuz bermadi. Qolaversa, qo'llaridagi darralar eshonning duosi bilan miltiqlarga aylanmadi, belbog'lari esa o'q o'tmas sovut bo'lmadi. Unga ergashgan kishilar esa chor askarlarining nayzalari, o'q va to'plari hamda kazak shamshirlaridan nobud bo'lishdi. Oxir-oqibat, Muhammad Ali parishon holda yonida qolgan uch sodiq muridi bilan Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda pistirmaga duch keldi. Mustamlakachilar va'da qilgan amalga uchgan millatfurushlardan Qo'qonqishloq mingboshisi Qodirqul va bozor sarkori Matyaqub qo'rboshi eshonni tutish uchun to'yo'lni to'sib turishgan edi. Orqalarida esa shtabs-kapitan Og'abekov boshchiligidagi chor askarlari shay turishgandi. Matyaqub qo'rboshi eshonni tanib, uning oldiga chopib chiqdi-da, ta'zim bilan «Ey, taqdir, men sizni kutib turibman, yordam bermoq uchun», deya riyokorlik bilan otdan tushdi va unga yaqinlashdi. Millatdoshidan hech yomonlik kutmagan eshon ochiq ko'ngil bilan qo'lidagi to'pponchasini tushirib, otni to'xtatdi. Matyaqub bilan quchoqlashib yig'lab ko'rishdi. Og'ir damlarda yordamini ayamagan odamga mehri toshib dili to'lib yig'ladi. Matyaqub bo'lsa eshonni ko'tarib yerga bosdi va sheriklarini chaqirdi. Qodirqul mingboshi chor askarlari bilan birga eshon va uning sheriklarini bog'lashdi. U Muhammad Aliga «Xotin taloq! Hammani xonavayron qilding-ku!», – dedi. Bunday xiyonat va haqoratlarini o'z millatdoshlaridan sira kutmagan eshon dili vayron bo'lib, ularni la'natladi: «Ikkoving o'lar vaqtda jinni bo'lib o'lgin! Bizni rusga tutib bergan qo'llaring bilan o'zingni urib, so'kkan og'zing bilan o'zingni tishlab o'lgin!».

Millat sotqinlari mustamlakachilarning siylovlariga uchib, qo'zg'alon rahbarini shu tariqa istilochi jalloddarga tutib berdilar. Qodirqul Andijon Eski shahariga oqsoqol, Matyaqub qo'rboshi esa Qo'qonqishloqqa mingboshi qilib tayinlandi. Bosar-to'sarini bilmay mustamlakachilarga astoydil xizmat qilishdi, ammo laganbardorliklari ham, hushomadgo'yliklari ham ish bermay, oxir-oqibat jazosini topdilar. Xiyonat bilan berilgan amal vafo qilmadi. Qodirqul oradan

¹ Fozilbek Otabek o'g'li. O'sha asar, 31-bet.

ko'p o'tmay bir arman boyini urgani uchun sudga berilib, mansabidan bekor qilindi. U Qo'qonqishloqqa qaytib amal hasratidan kasal bo'lib qoldi. Qodirqul oxiri aqldan ozdi va o'zini o'zi pichoqdab o'ldirdi. Matyaqub ham besh oydan keyin shunday o'limga duchor bo'ldi. Topgani shu bo'ldiki, harbiy vazirning buyrug'i bilan uning oilasiga besh yil muddat bilan oyiga 50 rubldan nafaqa tayinlandi¹.

Mustamlakachilar qo'l-oyog'i kishanlangan Muhammad Alini aravaga solib eski shahardan olib o'tdilar. Hamma eshonni ko'rishga chiqsin, degan farmonga qaramay deyarli hech kim ko'chaga chiqmadi. «Taajjub shundaki, – deya eslashadi guvohlar, – hokim va to'ralar eshondan bir og'iz ham ma'lumot va savollariga javob ololmadilar. Harchand siyosat qildilar va gap so'radilar, «eshon hech kimni ko'rsatmadi, mustabid tergovchilarni dog'i hasratga qo'ydilar».

Qo'zg'alon rahbarining qo'lga olinishi butun o'lkaga yoyilib ketgan keng xalq harakatini to'xtatolmadi. Yangi tayinlangan general-gubernator S.M. Duxovskoy (1898–1901) harbiy vazir general Kuropatkinga yuborgan raportida ana shu fakti tan oladi. «Bu garchand Farg'onada ko'tarilgan bo'lsa ham, – deb yozgan edi Duxovskoy, – uni mutloq mahalliy hodisa yoki qandaydir sinfning ishi deb bo'lmaydi. Farg'onaning barcha aholisi va o'lkaning o'zga hududlarida ham g'azovotga xayrixohlik bildirganlar ko'p. Farg'onadagi g'alayon dastlabki taxminlarda ko'zda tutilgan rayon doirasidan ancha keng tashqariga yoyilib ketdi deyishga to'la asos bor»².

1898 yil 19 mayda Yakkatutda qurollangan dehqonlar jazo otryadiga qarshilik ko'rsatgan. Namangan tumanida qirg'iz qo'zg'alonchilari ruslar bilan to'qnashgan. Bu «shayka»ga qarshi kazaklar jang qilishgan. Qo'qon tumanida telegraf ustuni qirgilib, temir yo'l izlari qo'porilib tashlangan. Bir necha yuz o'zbeklar xuddi shu tumanda Beshariq bo'ylab temir yo'l mintaqasi orqali safar uyushtirib, ma'muriyat kuchlariga hujum qilganlar. 7 iyunda Ko'gart volostidagi qirg'izlar jazo otryadiga hujum qilishga urinishgan. 9 iyunda esa Andijon tumanidagi Susamir volostidagi aholi bosh ko'targan.

Jazo guruhlarining xalqqa ko'rsatayotgan vahshiyliги mehnatkash xalqning g'azabini qo'zg'atib, yangi-yangi isyonlarga sabab bo'ldi.

Muhammad Ali qamal gandan keyin chor askarlari har kuni «eshonga qarashli yordamchilar» deb o'zbek, qirg'iz, qipchoq,

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 3-ro'yxat, 488-ish, 5-19-varaqlar; R.Shamsutdinov. Dukchi Eshon voqeasidan so'ng. «Sharq yulduzi», 1991 yil, 1-son.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 307-varaq.

qoraqalpoqlarni tutib o'ldirdilar. Mustamlakachilar bosh oqsoqolga shunday ko'rsatma berganlar: «Eski shaharni ehtiyot bilan saqlab turasan? Eshonga bordi-keldi qilg'on odamlar bo'lsa, hammasini surishtirib tutib berasan! Umuman fuqarolarni qaysi xil siyosat bilan bo'lsa-bo'lsin, Rusiya podshohiga tobe' va mute' qilasan! Rusiya amaldorlari eski shaharga tushsalar hamma fuqaroni o'rnidan turub, engashib salom qilmoqqa o'rgatasan! Do'kondor va rastadagilar bo'lsa, hammasi bo'lsun, hokim, pristav, qaysi amaldor bo'lsa – bo'lsin, eski shaharga tushsa, hammalari do'konlarining oldig'a tushib qator bo'lub, engashib salom qilib tursinlar. Mullalar va mudarrislar bo'lsa shogirdlariga Yikchi eshondan shikoyat qilib, uni yomonlab tursunlar! Va maktabdorlar bo'lsa, mayda bolalarga «Eshon osiy bo'ldi, boqiy bo'ldi» degan gaplarni o'rgatsunlar! A'lam, muftilar bo'lsa, «Yikchi eshonning osiy, boqiy bo'lg'oni uchun tezda o'lum jazosig'a mustahiq bo'lmog'i shariatda ham durust» deb fatvo bersunlar. Adib va shoirlar Yikchi eshonning qilg'on tamom yomonlig'i va hiylalarini she'r (bayt) qilib gazitga yuborsunlar! Agar har kim bu xususda qilg'on siyosat jabrindan arz qilsa, biz u arizachining o'ziga jazo beramiz»¹.

Qodirqul mingboshi bu ko'rsatmani bajarish borasida shunday zulm qilgan ediki, zamondoshlaridan biri bu haqda quyidagilarni yozadi: «Birov engashib salom qilmasa, tutib to'xtatmoqni bu kishi chiqardi. Bundan o'rganib rus amaldorlari ham xalqni «ruku'» bilan salom va «sajda» qildiradigan bo'ldilar. Bechora xalq shapkalik kishining soyasini ko'rsa ham o'rnidan turib sajda qilishga odatlanib qoldi». Mustamlakachilar qatliomni kuchaytirib, odamlarni dahshatga solish maqsadida hech qanday sud-tergovsiz dorga osishni odat qildilar. Guvohlardan biri shunday manzarani tasvirlaydi: «Bizlarni bozordan va mahalladan katta oqsoqol farmoyishi bilan mirshablar haydab, taxminan 500 kishini yangi shahar devori tagiga olib borib edi; qarasak, adir tarafga 8 ta dor qilib, arg'amchilarni tortib, tayyor qilib qo'yg'on ekan. Bu holda turmaga 50 ga yaqin soldatlar o'lan (ashula) aytib kirib, 5 ta musulmonni haydab chiqdi. Bechoralarning rangi-ro'yiga aslo qarab bo'lmaydi. Bechoralarning ixtiyori o'zida emas, so'zlamogqa majollari ham yo'q edi. Qamalganlariga ancha kun bo'lg'on bo'lsa, ovqat yemaganlari ham ma'lum edi. Darhol 5 ta xom surupdan tikilgan xalta olib keldilar. Bir mutakabbir «to'ra» qo'lga yarim taxta qog'ozni olib nihoyat qovog'ini solib o'qidi: «Sizlarning podshohi a'zam, imperaturi muazzam askari borasida qilg'on hamla, hujumlaringizga va bu isyonga sabab bo'lg'on Muhammad

¹ Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 37-bet.

Ali eshonning imperaturi a'zamning ulug' siyosatidan qo'rqmay qilg'on fe'liga sherik bo'lib yordamda bo'lg'onlaringiz sabab bo'ldi. Sizlarning beshovlaringizni harbiy sud osib o'ldirmoqqa hukm qildi» degan hamono soldatlar birdan qilichlarini sug'urib, peshonalarga tutib, yarim soatga yaqin nog'oralari cholib turdilar... gubernator fuqarolarga qarab: «Bu ko'rilgan siyosatni ko'rmaganlarga bayon qilinglar, har kim isyon qilsa, mundan battar bo'ladilar»¹, – deb murojaat qildi.

Bunday qatag'onlar erksevar Farg'ona yigitlarining shashtini qaytarmadi. Mute' bo'lib, ruslarga bosh egishni istamaganlar tog'u toshlarga chiqib kurashni davom ettirdilar. Sibir harbiy okrugi shtabi boshlig'i general-mayor Zarubaev 1898 yil 28 iyunda harbiy vazirga yuborgan maktubida Jarkent tumanida xalq ko'tarilgani, g'azovotga barcha Iliorti volost boshqaruvchilari ham qo'shilib ketganini yozib, aholida juda ko'p miqdorda qurol, o'q-dori paydo bo'lganidan tashvishlanadi. Ularga qarshi kazak polki qismi yuborganini ma'lum qiladi. Farg'onaning shimolida esa eshonning safdoshlari Chibil bo'lis va Shodibek harakatni davom ettirishgan. Prjevalsk tumanboshisi Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig'iga yo'llagan telegrammasida Yettisuv viloyati chegarasi yaqinida Andijon tumanining o'tib bo'lmas tog'larida mingga yaqin qo'zg'alonchi yashiringanini, 200-300 kishilik guruhlarga bo'linganini va ularni yerlilar oziq-ovqat bilan yashirincha ta'minlab turganini, Pishpek, Susamir, To'qmoq va boshqa yerlarda g'alayonlar davom etayotganini xabar qilgani tasodifiy emas, albatta. Susamir volostida Shodibek boshchiligidagi yerlilar g'azovot qilishgani haqida 5 iyul kuni mingboshi Andijon tumanboshisiga xabar qilgan.

Mustamlakachilar qo'zg'alon rahbarlarining qiynoq-azoblarga mardona chidaganidan g'azablanganliklarini yashirmaganlar. Ular Muhammad Alidan shunday qo'rqan edilarki, u hatto qo'lga olinib hibsga olinganida ham shu odam eshon ekanligiga ishonmay uni taniydigan odamlarni zo'rlab keltirib, qasam ostida mahbusning kim ekanligini tasdiqlashni so'rashgan. Shunday guvohlardan biri Mirzo Ma'sud xotirasi diqqatga sazovor: «Bizlarni 5 ta to'ralar birga boshlab turmaga olib borib edi, qarasak, turmada qadam bosarlik joy yo'q, havoning nihoyat issiqligidan turmaning ichi do'zax bo'lub ketibdur. Bosh-oyoqlarida zanjir bor. Qochmoq u yoqda tursun, turarg'a majoli yo'qlarning oyoqlariga zanjir solibdirlar, bularning ichidan oralab o'tib, bir xonaga kirib edik, Yikchi eshon bilan uch kishi o'ltiribdirlar.

¹ *Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 35-bet.*

Hammalari band, zanjir soling'on. Xususan, eshonni nihoyat mahkam bog'labdirlar. Oyoq-bo'yni, qo'li bog'liqdir. Boshida sallasi bor, ustida malla eski to'ni bor, yerga qarab o'ltiribdir. Salom qilib kirib edik, yonimda turg'on mingboshi salom qilma, degandek ishorat qilib, nuqub qo'ydi. Keyin to'ralar kirib: «Cho'rt eshon!» dedi. Bizlarga qarab: «Eshon shumi?» deb savol qilib edi, bizlar «shu», dedik. «Yana tuzuk ko'ringlar, g'alat qilmanglar, rost aytinglar», deb siyosat qilib edi, bizlar qo'rqib: «Eshon shu, boshqa emas» deganimizda «Qaysi biri, qo'ling bilan ushlab ko'rsat!» dedi. Hammamiz bir-bir ishorat bilan ko'rsatdik. Keyin, «Yaxshi», deb chiqib ketdilar. Eshon aslo bizga qaramadi»¹.

Farg'ona viloyati gubernatori harbiy sud bilan birga eshonni Andijon tumani boshlig'i mahkamasiga olib kelib tergov qilganida qatnashgan mirzaboshi mulla Ismoilning hikoyasi ham diqqatga loyiq: «Uezd (tuman) mahkamasining adabiy tarjimoni Eshmuhammad to'ra Toshmuhamedov deganini chaqirib, harbiy sud raisi buyurdi: «Eshonga ayting, bo'lg'on hodisani so'zlab bersun, kimlar eshonni shu yomon harakatga dalolat va targ'ib qildi?» Eshon o'zim qildim, deb javob berdi.

Rais: Sen bilan kimlar birga edi: amaldor, mingboshi yoki yurt boshi kattalaridan ham ishtirok qildilarmi?

Eshon: Yo'q.

Rais: Oq podshoh va uning amaldor, hokim, pristuflarini do'st tutar edingmi, yoki dushman tutar edingmi?

Eshon: Ko'gart tarafidagi mujiklar bechora fuqaroni ko'b xor qilib, urub, yer-suvlarini tortib olg'onlari uchun xafa bo'lub, dushman tutar edim.

Rais: Mujiklarning zulm qilg'onini o'zing ko'rganmisan yoki odamlar kelib aytdimi?

Eshon sukut qilib javob bermadi. Raisning atrofida ellikka yaqin soldatlar turg'on edi. Ularga qarab: «Ur!» deb buyurdi. To'rttasi yugurib kelib qo'lidagi miltiqning qo'ndog'i bilan 20-30 ni soldilar. Eshon o'ltirg'on kursidan yiqildi. Yana turg'izib qo'yib: «So'zla, mujiklarning zulmini sanga kim xabar qilg'on!», deb savol qilg'onda, eshon:

– Alhamdulillah, alhamdulillah! – deb qo'ydi.

Sud raisi «Nima deydir?» deb tarjimondan savol qilg'onida Toshmatuf, xudoga shukr qiladir, dedi. Sud raisi yana ikki soldatga kaltaklardan olib kel, deb buyurdi. Soldat yugurib chiqib, bir quchoq

¹ Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 42-bet.

kaltak olib keldi. Eshonni yotqizib kaltakladilar. Eshon hech ovoz chiqarmay behush bo‘lib qolg‘ondan keyin soldatlar sudrab, tashqari olib aravaga ko‘tarib tashladilar»¹.

Eshonning so‘rog‘ida jazo ekspedisiyasining boshlig‘i Korolkov ham bevosita ishtirok etdi. U Muhammad Alidan qo‘zg‘alon sababini so‘rab-surishtirganda eshon shunday degan: «Ruslar bizga yaxshi qarashadi. Musulmonlar boyib ketmoqda, ammo bu bizga juda qimmatga tushmoqda, chunki musulmon ruhidan putur ketmoqda. Vujud yayrasa-da, ruh o‘lmoqda. Samovotning o‘zi meni harakatga undadi, musulmonlarni Muhammad alayhissalom podshohligi va uning qonunlarini halokatga yetaklovchi shunday xoinona farovonlikdan xalos etish uchun kurashga qo‘zg‘atdi». Korolkov esa bunday qo‘zg‘aloni «musulmonlarning nasroniylar bilan asriy kurashining oqibati», deb baholadi. Mustamlakachilar o‘sha 1896 yilda Turkiyaning Gresiya ustidan qozongan g‘alabasini qutlayotgan musulmon olamidani o‘ziga xos diniy intiqom olish uchun ham Andijon qo‘zg‘aloni bahonasida dahshatli qatag‘on uyushtirdilar. Eshon va uning yaqin maslakdoshlarini qatl etish marosimi bu intiqomdan birinchi ko‘rinish bo‘ldi.

Chor ma‘murlari Muhammad Ali siyomosida faqat qo‘zg‘alon rahbarinigina emas, balki dini islom ulamosini ham ko‘rardilar. Mustamlakachilar uning mol-mulkini musodara qilishganda 300 dan ortiq nodir Sharq qo‘lyozma kitoblari qatori Muhammad Ali qalamiga mansub «Ibrat ul-g‘ofilin» («G‘ofillar uchun ibrat») asarini ham ko‘rishgan edi. Chor amaldorlari uning siyomosida Turkiston o‘lkasini ruslashtirish siyosatining ashaddiy muxolifi namoyonligini ham his etishgan. Ana shuning uchun ham rus zobitlari va generallari eshonni ruhan hamda jismonan mahv etish jarayoni juda ta‘sirchan bo‘lishi uchun barcha vositalarni ishga solishdi. 1898 yil 12 iyunda bu qonli fojia minglab fuqaro ko‘z o‘ngida ro‘y berdiki, unda qatnashganlar o‘z xotiralarida o‘sha kun tafsilotlarini to‘la tasvirlaganlar. Mustamlakachilar Andijonning Eski shahar aholisini, barcha katta-kichikni Yangi shahardagi Tuproqqo‘rg‘on oldida ertalab soat sakkizda hozir bo‘lishlarini buyurdilar. Maktab bolalarining ham qatnashuvi majburiy ekanligini uqtirib alohida buyruq e‘lon qilishdi. «Yosh bolalar, – degan edi gubernator Chaykovskiy, – katta odamlardan keyin qoladurg‘on odamlar bo‘ladirg‘oni uchun uzun umr ko‘rib, ko‘p yillar Rossiya podshohining siyosatini aytib

¹ *Fozilbek Otabek o‘g‘li. Dukchi Eshon voqeasi, 44–45-betlar.*

yuradilar». Ana shunday bolalardan biri Fozilbek Otabek o'g'li¹ 1927 yilda nashr qilgan «Dukchi eshon voqeasi» kitobida shunday yozadi: «Yangi shaharda taxminan 8000 kishi bo'lsa, 2000 mayda maktab bolalarini olib chiqib, Tuproq qo'rg'on oldida, adirning tagiga qon isi keladigan va tikib, sozlab qo'yilg'on dorlarning atrofiga odamlarni aylantirib qo'ydilar. Hokim chiqib, fuqaroning ko'bligini ko'rib, katta oqsoqolga «rahmat» deb, yosh bolalarni ham dorning bir tarafiga qator qilib qo'yimoqqa buyurdi. Bir tarafdan joy bo'shatib turgan bir kishi: «Yosh bolalar qo'rqarmi ekan?, Odamlar orqasiga qo'ysak qalay bo'lar ekan? – dedi. «Qo'rqqani yaxshiroq. Esidan chiqmaydir. Dorga yaqin qo'yulsun», – deb buyurubdir. Mingboshi kelib, dorning qibla tarafidan odamlarni haydab yuborib, hamma maktab bolalarini qator qilib qo'ydi. Bir vaqt, soat o'nga yaqin ediki, bir to'p, zanjir bilan qo'l-oyog'i bog'langan olti kishini o'rtaga olib, o'lan aytishib keldi va dor tagiga keltirib qator-qator qildi. Bularning oldiga to'rt nog'ora osgan soldatlarni qo'ydi. Ularning ichida eshonni ikki soddat etaklab, yig'inning atrofini aylantirib, «eshon shu odammi?» deb so'rab yurdi... Xalqdan ovoz chiqmaganidan g'azablanib, bir kattakoni oxiri qattiq ovoz bilan: «Albatta hammalarning bilasizlar, bovujud aytmaysizlar, isyon qilmoqni ham sizlar bilgansizlar. Shuni aytmay xiyonat qilib, shuncha qahramon askarlarning nobud bo'lmog'iga sabab bo'ldingizlar. Agarda hech kim tanimasa, shu yig'indagi butun xalqni pulemyotga tutamiz. Biror jon qolmaydir», deb siyosat qilib edi, har tarafdan odamlar o'zini ko'rsatmay turib, «shu kishi eshon!», deb qichqirishdilar... Zolim to'ralar bundan o'z siyosatlari haddu kamoliga yetganini bilib, bir-biriga qarab kular edilar. Xalq bo'lsa, dor tagida mung'ayib, bo'ynini qisib, yig'lab turganlarni ko'rib, toqat qilolmay, sekin-sekin yig'lar edi». Shu vaqt ediki, yig'in tashqarisida voy-voylab, dod-faryod bo'lib ketdi. Qarasak, osiladig'on odamlarning bola-chaqalari, xotin-qiz, o'shoq bolalari ekan. Xotinlar «Tul bo'ldik!» deb, bolalar bo'lsa «Etim bo'ldik!», deb faryod qilar edilar. Bu holni qo'rgan xalqning ko'ngli yana buzilib, xoinlardan qo'rqib o'zlarini yig'idan to'xtatar edilar»². Chunki xalq o'zining buyuk farzandidan judo bo'layotganini, musulmon olami o'zining yetuk allomalaridan birini yo'qotayotganini sezayotgan edi. Bu voqea mustamlakachilarning Muhammad Alidan qanday qo'rqqanini ham

¹ *Fozilbek Otabek o'g'li* Andijonning «Devonaboy» dahasida tug'ilgan, ruscha, musulmoncha ma'lumotga ega bo'lgan, arab va fors tillarini bilgan jurnalist sifatida yaxshi tanilgan, jadidchilik, istiqlolchilik kurashida faol qatnashgan. 1938 yili qatag'on qilingan.

² *Fozilbek Otabek o'g'li*. Dukchi Eshon voqeasi, 49–50-betlar.

ko'rsatadi. Ular dor tagida turgan mahbuslarning xalqqa aytadigan so'zlaridan ham qo'rqib nog'ora bilan tovushlarni bo'g'ishga urinishgan. Chor amaldorlari o'lim oldidagi insonning oxirgi iltimosi bajarilishi shartligi haqidagi umuminsoniy, xalqaro qonun-qoidani ham poymol qilishdi.

«Eshonni dorning tagiga olib kelib, oyog'idagi temir kishanni ochamiz deb urindilar, – yozadi Fozilbek Otabek o'g'li, – iloj bo'lmadi shekilli, bolg'a bilan urub sindirdilar va boshqa rafiqlarining kishanlarini ham urib sindirishdi... Qozi birinchi eshonga, ikkinchi Chibil bo'lisga va boshqalariga bir-bir iymon o'qutdi... Chibil' bo'lis o'zini rostlab, dadillik va baland ovoz bilan: «O musulmonlar! Guvoh bo'linglar, men nohaq ketayotibman, manga bu hokimlar zulm qildilar...» deb so'zlab turib edi, hokim kelib: «Bas, bas!» dedi. Unga quloq solmay yana so'zlab turub edi, ikki soldat kelib miltiqning qo'ndog'i bilan 4–5 marta urdi, shundan keyin indamay qoldi. Bu holda biri kelib dorning arg'amchilarini tushurib, sirtmoqlarini ochib, tuzatib qo'ydi. Keyin ikki soldat yerda turgan xaltalarni olib kelib qator turgan bandi asirlar boshiga kiyim-boshlari ustidan kiydirib qo'ydi. Bechoralarning oq xaltalar ichida nima holga tushgani bizga ma'lum emas... Bularni sudrab, dor tagiga keltirib, uning ostiga qo'yilgan ikki pog'analik kursiga «chiq, chiq» deb eshonni chiqardi. Shu holda kafan ichida bir o'zi qadam qo'yib chiqdi va baland ovoz bilan: «Ey musulmon birodarlar! Guvoh bo'linglar, man nohaq tuhmat bilan ketib turubman. Bola-chaqalarim mayda-chuyda, ko'p edi. Bu hokim va to'ralar yaxshi adolat qilmadi. To'g'ri haqiqat qilmadi. Duo qilinglar, shu zolimlarni...» degan vaqtda to'raning ishorati bilan birdan sirtmoqlarni solib, kursilarni tepib yubordilar. Bu oltita kishidan ikkitasi bir-ikki burilib, oyog'ini urub qimirlamay qoldi. Boshqalari pirillab aylanib, buralib, ikki tomon dorning yog'ochiga urilib, nihoyat qiynalib ko'p ovora bo'ldilar. Buni ko'rib turgan yosh bolalarning ko'blari qo'rqib: «Dod, ota, ona!» deb yig'lab yubordilar. 4–5 tasining hushi ketib qoldi va yiqildi. Bolalar turgan taraf to'polon bo'lib ketdi...»².

Dorni tikar vaqtida dornlarning tagiga odam bo'yi pastroq chuqurlar kavlab ustiga bo'yra yopib qo'yilgan ekan. Sirtmoqni kesish bilan jasadlar chuqur go'rga quladi. Jallodlar bir arava ohak

¹ So'nggi tadqiqotlarga ko'ra Ko'gart bo'lisi boshlig'i Chibil Abdullabiev osib o'ldirilmagan, bir umrlik katorgaga hukm qilingan. Q a r a n g: Alinazar Egamnazarov. Siz bilgan Dukchi Eshon, 20-bet.

² Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 21-bet.

keltirib, ular ustiga tashlashadi. Olti murda ikki chuqurdan so'nggi manzil topadilar. Ular ustiga bir qatlam tuproqdan so'ng yana ohak solib, tuproqni ohak bilan aralash qilib zichlab ko'mib qo'yishdi. Zolimlar shunda ham ko'ngli joyiga tushmay o'sha go'rlar oldiga bir necha kun davomida askarlardan soqchi qo'yishdi.

Jazo ekspeditsiyasining boshlig'i general Korolkovga bu ham yetmagandek rus imperatoridan butun mahalliy xalqni jazolashni iltimos qildi. Korolkov eshon va uning muridlaridan olingan intiqom etarli emasligini ta'kidlab, Mingtepadan Andijongacha bo'lgan yerlardagi barcha aholini imperiyaning ichkari hududlariga surgun qilishni taklif qildi. «Bu tadbir, – deb yozgan edi Korolkov imperatorga, – siyosiy jihatdan foydali ahamiyat kasb etib, Farg'onadagi rus unsurining kuchayishiga olib keladi. Boshqa tomondan esa, sug'orish ishlari olib boriladigan Rossiyaning Yevropa qismiga tabiatan mirob bo'lgan yerlilarni ko'chirib yuborish mazkur sohada salmoqli samara keltiradi»¹.

Farg'ona viloyati harbiy gubernatori xuddi shunday reja asosida ish tutib, xalqqa imperiya ichkarisidan mujiklarni bu yerga ko'chirib keltirish va gunohkorlarning yerlarini ularga taqsimlab berishni rasman e'lon qildi. Mingtepa qishlog'i to'pga tutilib, imoratlari yer bilan yakson qilingandan so'ng rus mujiklari uchun 450 xonalik turarjoy qurilishi loyihasi rejalashtirildi. Qurilish ishlariga mahalliy aholi mardikor sifatida jalb etildi.

Voqealar qatnashchilarining guvohlik berishicha, Mingtepadagi eshon xonaqohining o'rnini tekislab, cherkov qilishga qaror qilingan. «Oradan bir oy o'tganda, ichkari Rusiyadan nihoyat ko'p mujiklar kelib qoldi. Bularning har qaysilariga qarz va yordam puli topib berib, shu Mingtepada tayyor va plan qilib qo'yg'on joylarga xona joy berib o'rmashtirdilar»². Posyolkaga «Marhamat» nomi berildi. Hakanddagi Avg'onbog' degan mashhur ziroat tajribagohidagi agronomni 18 may kuni qo'zg'alonchilar o'ldirgani uchun ana shu joydagi 500 xonadonning imoratlari, bog'-rog'lari ham tekislab tashlandi. Qarshilik qilganlar otib o'ldirildi. Andijon shahrining bog'u bo'stoni bo'lgan Hakan qishlog'i «Duxovskoy maydoni» deb atalgan rus posyolkasiga aylantirildi³. U o'zbeklar o'rtasida «Vayrona-vayrona» nomi ostida yomon otliq bo'lib qoldi.

Bunday vahshiylıklar xalqni qo'rqita olmadi. Xususan, 1898 yil 19 mayda Yakkatutda qurollangan dehqonlar jazo otryadiga

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 339-varaq.

² Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon voqeasi, 57–58-betlar.

³ O'sha asar, 66-bet.

qarshilik ko'rsatgan¹. Namangan tumanida qirg'izlardan iborat qo'zg'alonchilar ruslar bilan to'qnashgan². Bu «shayka»ga qarshi kazaklar jang qilishgan. Qo'qon tumanida telegraf ustuni qirqilib temiryo'l to'shamlari qo'porilgan³. Bir necha yuz o'zbeklar huddi shu tumanda Beshariq bo'ylab temiryo'l mintaqasi orqali safar uyushtirib ma'muriyat kuchlariga hujum qilgan⁴. 3 iyunda Andijon tumanidagi Susamir volostida aholi ko'tarilgan⁵. 7 iyunda esa Ko'chart volostida qirg'izlar jazo otryadiga hujum kilishga urinishgan⁶.

Jazo otryadlarining mustamlakachi amaldorlar boshchiligida xalqqa ko'rsatayotgan vahshiyliigi qo'zgonchilarning g'azabini qo'zg'atib yangi-yangi isyonkorlar guruhini paydo qilardi. General-gubernator harbiy vazirga 1898 yil 5 avgustda yo'llagan raportida «so'nggi g'alayonlarda» Marg'ilon, Andijon tumanlaridagi yerlilar faolliigi haqida yozib Andijon, Marg'ilon va O'sh shaharlari «eng ashaddiy» g'azovotchilarni bergani, Mingtepa, Qo'yli, Asaka, Qoratepa, Naukat, Kuva, Shahrixon, Aravon, Yakkatut, Ichkilik, Yozyovon, Oqbo'ri, Buloqboshi, Ko'chart, Susamir, Kengko'l, Qoraqir kabi volostlar qo'zg'alonchilar uyalari ekanini xabar qiladi⁷. Bu joylardagi yigitlar qo'zg'alon rahbarlari qamalib qatl etilgan bo'lsa ham tarqoq holda guruhlarga bo'linib kurashni davom ettirishgan⁸.

Jazo ekspeditsiyasi boshlig'i general Korolkov o'z hisobotida Muhammad Alidan keyin qo'zg'alonning eng zo'r yetakchilari sifatida quyidagi 14-kishining ismi-shariflarini keltirgan: Mulla Ahmad Noib, Hayitboy to'qsabo, Mulla Qosim Ali Arabboy o'g'li, Orziqulboy ponsod, Muhammad Ibroqim to'qsabo, Mulla G'oyibnazar Ortiq so'fi o'g'li, Alibek dodqho, G'oyib hoji Muhammad, Murod o'g'li, Muhamad Ziyovuddin Mahsum domla Sharif o'g'li, Umarbek dodho, Otaqul ponsod, Rustambek, Mallaboy, Hidoyatxon⁹.

¹ O'MDA, TF-723, 1-ro'yxat, 26-ish, 7-8 varaqlar.

² RF MDHTA, 400-fond, Bosh shtab Osiyo qismi, 261/911-ro'yxat, 83/953-ish, 76-var.

³ MDHTA, 1396-fond, 2-ro'yxat, 35-ish, 40-var.

⁴ MDHTA, 1432-fond, general shtab, 1-ro'yxat, 14-ish, 75-var.

⁵ MDHTA, 1396-fond, Turk VO shtabi, 2-ro'yxat, 35-ish, 288-var.

⁶ O'sha hujjatda.

⁷ RF MDHTA, 1396-fond (Turkiston xdrbiy okrugi shtabi), 2-ro'Yxat, 35-ish, 279-var.

⁸ Ayrim tadqiqotchilarning ilgari surgan farazlariga ko'ra Dukchi Eshon o'r-niga boshqa odam dorga osilgan. Eshon esa o'zga nomda yashagan. Bu munozarali taxmin.

⁹ O'MDA, TF-1, 31-ro'yxat, 91-ish, 8-var.

Korolkov 1898 yil 3 iyun kuni eshonning jiyani, Ko‘qon xoni taxtiga mo‘ljallangan 14 yoshli Abdulaziz ham qo‘lga olinib so‘ng Andijon turmasiga solinganini xabar qiladi¹.

Muhammad Ali eshonning dunyoqarashi, obro‘si va uddaburonligi hisobga olinsa, u boshlagan qo‘zg‘aloning puxta tayryolanmaganligi va bemavrid ko‘tarilgani tadqiqotchilarda asosli shubha uyg‘otadi va bu narsa ig‘vogarlik bobida ustasi farang rus siyosiy polisiyasi ishi edi, deyishga asos bo‘ladi. Mustamlakachilarga xalqni qo‘rqitish va qatag‘on boshlash uchun zo‘r bir dastak kerak edi. Bir necha rus askarini qurbon berish evaziga minglarni qirish hamda ularning yerlarini rus kelgindilarga bo‘lib berish imkoniyati tug‘ilar edi. Amalda ham shunday bo‘ldi.

Fozilbek Otabek o‘g‘lining yozishicha: «kimligidan qat’iy nazar, oq do‘ppi kiygan bo‘lsa, istibdod soldatlari: «Seniki eshon» deb tutib urar edi... Shuning uchun shahar mehnatkashlari va rasmiy fuqarolari sallasini bilan bozorga chiqolmay qoldi. Oq do‘ppi degan narsaning urug‘i qolmadi. Kimda bo‘lsa, kuydirib yo‘qotdi. Mingboshilarning dunyoparastligi qo‘zg‘alib, shaharda kimning joyi bo‘lsa, kechasi chaqirib borib: «Seni tutib beraman, eshonning hovlisiga borgan eding» deb siyosat qilib, bor-yo‘g‘ini sug‘urib oldilar. Poraxo‘rlik amaldorlar ichida nihoyatda avj oldi». Rus amaldorlari ham odamlarni talashda mingboshilardan qolishmagan. «Bir kishini eshonga qarashli deb qamab qo‘ysalar, – yozida F.Otabek o‘g‘li, – yuqoriga raporti chiqqanda, eshon hodisasi zulmga katta bahona bo‘lgani ko‘rinib, ko‘p yillar Sibirga haydalar edi. Bechorani ajratib olmoq payiga tushgan qavm-qarindoshlari tamom bor-yo‘g‘ini sarflab, hatto yer va mulklarni sotib, tergovchilarga pora deb bersalar, natijada yana o‘zlarini osish yo Sibirga yuborishga qaror bo‘lar edi». Bu faktni o‘lkaning nufuzli amaldori V.P.Nalivkin ham tasdiqlaydi: «... 1902 yilda, – javobgarlikka tortilgan bir necha amaldor ishi ommaviy tus olgan qabihliklar yashiringan pardani qiya ochdi, xolos, – deb yozgan edi taniqli sharqshunos. Ma‘muriy beboshlik hech qayerda 90-yillar oxiri va 1900 yillarda Andijon nohiyasidagidek keng avj olmagan».

Turkiston general-gubernatori podshoh Nikolay II ga yo‘llagan maktubida: «Qo‘zg‘alochilar bizning uyquda yotgan 22 soddatimizni o‘ldirganliklari uchun buning xuniga isyonchilardan 22000 kishiga o‘lim jazosi berilib, 300 kishi katorgaga hukm etildi.

Qo‘zg‘alochilar rahbari yashagan joy tep-tekis qilinib, u yerga 200 oilali rus qishlog‘i qurildi. Xuddi shuningdek Andijon shahri

¹ O‘sha joyda.

atrofidagi Hakan, Xartum qishloqlaridan ham yerli aholi ko'chirilib, ularning yerlari rus oilalariga berildi».

Imperiyaning Sankt-Peterburgdagi oliy harbiy-siyosiy doiralari general Korolkovning Andijon qo'zg'aloni bahonasida Turkiston o'lkasini yoppasiga ruslashtirishga doir boshqa g'oyalariga ham zo'r qiziqish bilan qaradilar. Korolkov imperatorning diqqatiga O'rta Osiyoni «tezkor usulda ruslashtirish» bo'yicha butun bir faoliyat dasturini havola qildi. Turkiston aholisining ma'naviy-ruhiy holatiga ta'sir o'tkazish bu dastur mohiyatini tashkil etardi. Korolkov ishni musulmon olamida katta nufuzga ega madrasalardan boshlashni taklif qildi. Oliy o'quv yurtlari bo'lgan madrasalarda rus tilini o'qitish g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oyat nozik va qaltis tadbir zo'ravonlik bilan emas, aksincha, ixtiyoriy, ko'ngilli asosda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligini uqtirdi. Generalning fikricha, buning uchun odamlarda qiziqish uyg'otish lozim. Shu maqsadda rus tiliga davlat maqomi berish, barcha mahalliy amaldorlarga 5 yil muddat ichida davlat tilini o'rganishni, 15 yildan keyin esa mansabga da'vogar kishilardan faqat ruschani biladiganlarni yuzboshi, qozi, oqsoqol va mingboshi kabi lavozimlarga tayinlashni taklif etdi. «Bu tadbir, – deb yozgan edi general Korolkov, – madrasalarning eshiklarini rus o'qituvchilari uchun keng ochadi. Ana shunda biz madrasalar devorlari ortida nimalar bo'layotganidan doimo boxabar bo'lib turamiz»¹. Imperiya markazi Korolkovning g'oyasini qizg'in qo'llab-quvvatladi va uni tezlik bilan ijroga qabul qilishni general-gubernator zimmasiga yukladi.

1898 yil 6 noyabrda yangi tayinlangan Turkiston general-gubernatori S. M. Duxovskoy harbiy gubernatorlarga mahalliy ma'muriyat chor amaldorlari bilan yozishmalarda rus tili davlat tili sifatida amal qilishini bildirishni va bu tadbir muhokamadan o'tkuncha oqsoqol va mingboshilar idoralariga rus mirzalari tayinlanishi lozimligini uqtirdi. General-gubernator viloyatlarning boshliqlariga endiliqda mahalliy boshqaruvdagi mansablarga faqat rus tilini bilganlarni tayinlanajagini keng targ'ib qilishni buyurdi. Mustamlaka ma'muriyati, o'lka aholisi rus tilini tabiiy ravishda va ixtiyoriy tarzda o'rganadi deyish xomxayoldir, buning uchun ham zo'rlik, ham ustamonlik darkor, degan xulosaga keldi. General-gubernator viloyatlarning harbiy gubernatorlariga yuborgan ko'rsatmasida «Endi tuzemeslar rus va faqat rus maktabida har qanday faoliyat uchun zarur bilim va malakalar o'chog'ini ko'rishsin. Ular madrasa va

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 337-bet.

maktablardagi bilim endilikda davlat hamda ijtimoiy tuzumga yaroqsiz ekanligini his qilishsin» deya ruschani o'zlashtirgan musulmonlardan barcha sohalarda keng foydalanishni tavsiya qildi. Ana shu fikrni Toshkentdagi erlar gimnaziyasida 1899 yil fevralda bo'lgan shahar jamoatchiligi yig'inida Turkiston general-gubernatori yordamchisi general-leytenant N. Ivanov ochiq aytdi. U shahar boshliqlari, mingboshi, qozi va boshqa mansabdorlar, mudarrislar uchun tarihdagi birinchi marta tashkil etilgan ilmiy-ommabop ma'ruza kechasida madrasalarda rus tilini predmet sifatida joriy etishni ham taklif qildi. Ivanov va uning kabi jangari shovinistlar Andijon qo'zg'aloni bahonasida o'zlarining dillaridagi yovuz niyatlarini oshkora amalga oshira boshladilar. General Korolkovning imperatorga taqdim etgan bu maktubida o'lka xotin-qizlarini va bolalarni ruscha hayot tarziga o'rgatish alohida o'rin egallagani bejiz emas. «Turkiston o'lkasida tarix tomonidan oliy missiya o'tkazishga chaqirilgan rus xalqining shifokor ayollari», uning fikricha, o'zbek xotin-qizlarining «erksiz, nursiz va huquqsiz turmush tarziga o'zga tushunchalar olib kiradi va boshqacha intilishlar uyg'otadi». «Tuzemkaning, – deb yozadi general, – nasroniy ayol bilan bir joyda yashashi, u bilan doimiy va yaqin aloqasi unda o'z hayot tarzini rus ayollarinikidek yaxshilash fikrini asta-sekin uyg'otadi, nasroniy tasavvurlarni singdirib boradi va bu hol uning o'z farzandlarini tarbiyalash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bunday ayolning o'g'il-qizlari musulmon bo'lmaganlarga nisbatan murosasiz va dushman bo'lmaydi»¹. Shunday ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun Korolkov o'lkada xotin-qizlar ambulatoriyalarini ko'paytirishni taklif qiladi. Bunga yana qo'shimcha tarzda u Rossiyadagi ayollar monastirlarini Turkiston ayollariga «pravoslav rus qarashlarini singdirish uchun» xizmatga jalb etish zaruratini ham ta'kidlab o'tadi.

Andijon qo'zg'alonidan keyin mustamlakachilar o'lkani ruscha o'zlashtirish siyosatida har qanday niqobdan voz kechib, ochiqchasiga zo'ravonlik yo'lga o'tdilar. Musulmonlarni ruslarga majburiy ravishda sajda qildirish odatini rasm qildilar.

Chor amaldorlarining shafqatsizligi va haddidan oshgan zo'ravonligidan maqsad Farg'ona aholisining jangovarligini sindirib, butun o'lkani qo'rquvga solish edi. Marg'ilon tumanboshisi polkovnik Bryanovning ta'biricha, «Farg'onada doimo g'azovot g'oyasi yo'lida o'zini ajabtovur jasorat bilan o'lim bag'riga otuvchi mardimaydonlar qaerdandir paydo bo'lib qoladi. Aholiga rus ta'sirini

¹ O'zR MDA, 1-jang'arma, 31-ro'yxat, 1144-ish, 337-varaq.

o'tkazishda Farg'ona viloyati doimo orqada yuradi. Shuning uchun ham temir yo'lni o'tkazib biz tuzem aholisi o'rtasida qamalga tushib qolishdan xavfsiraymiz».

Mavzuga oid axborot

Safdosh

Qirg'iz qo'zg'alonchi rahbarlarining takdiri haqida bizda ma'lumot yetarli emas edi. Fozilbek Otabek o'g'lining Chibel bo'lis haqida qisqa bo'lsa ham yozganlari maqolanavis Alinazar Egamnazar bergan ma'lumotga («Siz bilgan Dukchi Eshon», hujjatli qissa, Toshkent, 1994) to'g'ri kelmaydi. Masalan, Fozilbek o'z kitobida Chibel bo'lis eshon bilan birga osib o'ldirilgani haqida yozadi. A. Egamnazar esa, osib o'ldirilmagan deydi, ammo Chibel haqida unda ham ma'lumot yo'qligi sababli boshqa biron fikr bildirmaydi.

Bizning Kugart vodiysiga qilgan safarimiz bu voqealar tafsilotini o'rganishda juda muhim bo'ldi. Safar chog'ida yozib olingan xotiralar bilan birga «To'xtaqul zamondoshlarining xotiralari» to'plami ham bizga ancha qo'l keldi. To'plamda atoqli qirg'iz kuychisi To'xtaqul Sotilg'onovning qo'zg'alon tufayli Sibirga surgun qilingani haqida xotira ma'lumotlari bor va uning surgundagi «she'rlari»dan namunalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu to'plamdan joy olgan, Sotqin Sasiqboevning Chibel do'sti Bo'lat Jirtaqov haqidagi maqolasida ham biz uchun muhim xabarlar keltirilgan.

Shunday qilib, ushbu to'plamda keltirilgan hujjatli ma'lumotlar va o'zimiz to'plagan xotiralardan Chibel bo'lis va do'stlarining taqdiri haqida qimmatli dalillar aniqlandi. Ular qo'lga olingach, qo'l-oyoqlariga kishan solingan holda Bozorqo'rg'onda uch kun qamashib so'ngra, Andijonga olib ketishgan. Ayni o'sha kunlari Ketmontepada To'xtaqul ham qamalgan ekan. Qo'lga olinganlarni ikkita aravaga solishib otliq askarlar nazoratida jo'natishgan. Kun issiq, yo'llar chang, chanqoq yomon azob berardi, atrofdan suv tutmoqchi bo'lganlarga hatto qaratmas ham edilar, – deb eslaydi Bo'lat Jirtaqov, – ikkinchi kuni Andijonga yetib kelishdi va ularni Andijon turmasiga qamashdi. Bo'lat xotirasida turmada «bir necha kun bo'ldik», – deyilgan. Ammo Adi og'a va boshqalar xotirasida 33 kun qamoqda bo'lgani aniq aytiladi. Biron haftadan so'ng yon kameraga yana odamlar olib kelishadi. Ana shular orasida To'xtaqul Sotilg'onov ham bor edi. Ular Andijon turmasida bir-birlari bilan tanishdilar. Bu kunlar Fozilbek Otabek o'g'li yozganidek, Chibel bo'lisni so'roq qilgan kunlariga to'g'ri keladi. Bo'lat xotirasiga qaraganda, turma xonasida taxminan

70-80 tadan mahbus bo'lgan, havo issiq va dim, nafas olish og'ir bo'lganidan bir necha odam holdan toygan, o'lganlar ham bo'lgan.

*(Sayfiddin hoji Jalilov.
«Saltanatni titratgan kunlar»)*

Chorizm 90-yillardagi xalq harakatlari, xususan, Andijon qo'zg'alonidan tegishli xulosa chiqarib, 1886 yilda tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ga o'zgartishlar kiritdi. 1886 yilgi qonun Turkiston general-gubernatorligini Turkiston o'lkasiga aylantirib, «harbiy xalq boshqaruvi»ni «ma'muriy-polisiya boshqaruvi»ga aylantirgan edi. Sankt-Peterburg Harbiy vazirligi o'lkada «harbiy xalq boshqaruvi»ni tikladi. Turkistondagi mustamlakachilarga keng vakolatlar berib, ularga «tuzem aholi o'rtasida har qanday norozilikni tag-tugi bilan shafqatsiz bosish, biron-bir dushmanlik holati sezilsa darhol uni harakati kuchaymasdan bo'g'ib tashlash, tartibni buzuvchilar va ularning maslakdoshlariga tegishli saboq berish va ularga qudratimizni ko'rsatib qo'yish uchun har qanday choralardan qaytmaslikni» buyurdi. Ammo Sankt-Peterburg o'lka xalqlarining ozodlik kurashini to'xtata olmadi, xalq yangidan ko'tarilish uchun qulay fursat kelishiga taraddud ko'ra boshladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiridagi xalq harakatlari chorizmning Turkistondagi ruslashtirish siyosati keng omma o'rtasida chuqur ildiz otolmay jiddiy to'siqlarga duch kelganini ko'rsatdi. Saylovlardagi «tartibsizliklar» xalqning rus mustamlaka istibdodi tartiblaridan noroziligini ko'rsatib, ommaning isyonkorlik ruhi so'ndirila olinmaganini namoyish etdi.

Toshkent qo'zg'aloni shahar ommasining, Andijon qo'zg'aloni qishloq ahlining o'rtasida mavjud tuzumga qarshi jiddiy kuchlarning shakllanib borayotganidan dalolat berdi.

Xalq harakatlarida diniy, ijtimoiy-siyosiy va milliy-ozodlik kurashlari o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ldi. Rus mustamlakachilarining qatag'oniga qaramay erksevar kuchlarning Turkiston o'lkasida chuqur zaminga egaligini va ular fursati kelganda yana qo'tarilishga qodir ekanligini keyingi voqealar tasdiqladi.

4. O'ZBEK VA RUS TARAQQIYPARVARLARI HAMKORLIGI

XX asr boshlarida o'lkada xalq harakatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Ana shu holat Peterburgda bezovtalik uyg'otdi. 1906 yil 31 dekabrda imperiya Ichki ishlar vazirligi polisiya departamenti

Turkiston general-gubernatoriga yo‘llagan tavsiyanomasida «So‘nggi yillarda Rossiyadagi inqilobiy harakat Turkiston o‘lkasida ham aks sado berganini» eslatib, Ichki ishlar vazirligida to‘plangan josuslik ma‘lumotlari o‘lkadagi hukumatga qarshi tashkilotlarning faol ish ko‘rayotganidan xabar berayotganini ma‘lum qildi. «Turkiston o‘lkasining tuzem aholisi, – deb yozgan edi polisiya departamenti, – hozircha tinchlik saqlayotgan bo‘lsa-da, bunday kayfiyat kelgusida ham saqlanib qolishiga ishonch yo‘q»¹. Polisiya departamentining bunday gumon qilish uchun yetarli asoslari bo‘lgan. 1906 yil 12 sentyabrda Toshkentning Jome’ masjidida ro‘y bergan voqea bunga dalildir. Bu yerda Toshkent shahar dumasiga noiblar (glasniy) saylovi borayotgan paytda Sebzor dahasida yashovchi Mahdixo‘ja Xorunxojinov degan kishi ma‘ruza qilib, saylovni barbod qilishga chaqirdi. U noiblikka faqat boylar saylanayotganidan noroziligini ochiq aytdi. Saylovchilar uning so‘zlaridan hayajonga tushdilar. Shahar dumasi oqsoqoli va polisiya pristavi Mahdixo‘jani tartibga chaqirishadi. Keyin mirshablar yordamida uni masjiddan chiqarib yuborishga urinishadi. Mahdixo‘ja «dod» solib odamlarni yordamga chaqiradi. Beshyog‘och dahasida yashovchi Sultonxo‘ja Inog‘omxo‘jaev unga yon bosib, odamlarni tarqalmaslikka va Mahdixo‘janing so‘zlarini tinglashga da‘vat qiladi. Polisiya pristavi yordamchisi Mireskiy unga darhol masjiddan chiqib ketishni, aks holda ikkalasini ham qamoqqa olishini aytadi. Shunda Sultonxo‘ja dadillik bilan, polisiya vakili sira kutmagan tarzda, rus tilida javob qaytaradi: «Qamoqqa olsang, olaver! Uch kundan ortig‘iga haqing yo‘q! 7 kunga faqat polismeystergina qamashi mumkin». Dovdirab qolgan Mireskiy Sultonxo‘jadan yana bir qancha gaplarni eshitadiki, ular o‘zbeklarni odam o‘rnida ko‘rmaydigan pristav yordamchisini hayratga soladi. Sultonxo‘ja unga o‘zining dunyo kezganini, chet ellarda bo‘lganini va qonunni undan kam bilmasligini aytadi. Bu yerga yig‘ilgan xalq qiziqish bilan ularning atrofiga to‘plana boshlaydi. Sarosimaga tushgan Mireskiy yonidagi mirshabga bu yerga qo‘shimcha kuchlar chaqirishni buyuradi. Shu vaqtda Mahdixo‘ja xalqqa qarata xitob qiladi: «Musulmonlar! Men general-gubernatorga, shahar boshlig‘i va polismeysterga arizalar yozdim, lekin ulardan birontasi ham shikoyatlarimga quloq solmadi. Men soliqlar ostida ezilib yotgan xalq uchun qayg‘uraman. Bizga Dumaning keragi yo‘q, unga nuqul boylar tushadi. Ular xalq uchun qayg‘urmaydilar, balki mansabga minib boyishni o‘ylashadi. Bizni o‘tin uchun, beda uchun, pichan uchun, qo‘y so‘yganimiz uchun

¹ O‘zR MDA, 2-jamg‘arma, 31-ro‘yxat, 367-ish, 2-varaq.

hamma-hamma narsaga soliqlar solib, chirmab olishgan». Xaloyiq uning gaplarini ma'qullab, hayajonga kela boshlaganini ko'rgan Mireskiy Mahdixo'jani mirshablar yordamida chetga sudray boshlaydi. Shunda Sultonxo'ja chopib ularning oldiga boradi va qandaydir qog'ozni Mahdixo'jaga tutqazadi. Mahdixo'ja qog'ozga imzo chekib, odamlarga o'z nomidan Sultonxo'ja ish yuritishini ma'lum qiladi. Masjidga to'plangan 200 dan ziyod odamlarga qarata Sultonxo'ja otashin ma'ruza qiladi. Polisiya bayonnomasida qayd qilinishicha, u «Musulmonlar! Hech narsadan qo'rqmanglar, hech kimga quloq solmay, tarqalib ketmang. Men sizlarning foydangiz yo'lida o'z boshimni qurbon qilaman. Mayli, mingta kazak kelsa, kela qolsin. Baribir hech narsa qilisha olmaydi», degan va qo'lini fotihaga ochgan: «Alloh taoloning o'zi menga madadkor bo'lsin! O'zi menga kuch-quvvat ato etsin». Olomon unga fotiha bergan: «Parvardigorning o'zi senga madadkor bo'lsin! Aziz avliyolar yor bo'lsin!» Voqeani kuzatib turgan mirshab Mirvali Mirkamolov atrofda mirshablarni yordamga chaqirgan. Shu paytda turgan kishilardan biri uni polisiya pristavi yordamchisi oldidan surib chiqarib, yuziga shapaloq tortadi. Junbushga kelgan odamlar «Itvachcha, nega hushtagingni chalding?», – deya kaltaklasha boshlashadi. Shu vaqtda masjidga polimeyster podpolkovnik N.N.Karaulshchikov katta-kichik amaldorlar va bir to'da mirshablar hamrohligida kirib keladi. U odamlarga xitob qilib turgan Sultonxo'jani qamoqqa olishni buyuradi. Polimeyster buyrug'iga javoban Sultonxo'ja unga qarata dadil javob qiladi: «Meni hech kim hibsga olishga haqi yo'q, polisiyaxonaga boravering, kerak bo'lsa, men ham o'sha yerga boraman»¹.

Podpolkovnik Karaulshchikov xaloyiqni mirshablar yordamida tarqatib, Mahdixo'ja va Sultonxo'jani hibsga oladi va bozor tomon olib ketadi. Shunda kattagina olomon ularni ozod qilish niyatida orqadan ergasha boshlaydi. Qo'rqib ketgan polimeyster to'pponchasini chiqarib, kim qarshilik ko'rsatsa, o'q uzishini aytadi. U shahar boshqarmasi a'zosi Boqijon Dadajonboev va oqsoqollar yordamida xaloyiqni tarqatishga va tinchlantirishga urinadi.

Sultonxo'ja va Mahdixo'jani qamoqxonaga olib ketishgandan so'ng, kechqurun polimeyster polisiya xodimlaridan tashvishli xabar oladi. Qamoqhona boshlig'i Nechaev hibsga olinganlarni ozod qilishga urinish bo'layotganidan xavfsirayotganini ma'lum qilgan edi. Polimeyster Karaulshchikov shahar boshlig'iga yozgan axborotida Sultonxo'ja u bilan ko'rishganda, qo'lida Maksim Gorkiyning

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 4-ro'yxat, 1053-ish, 42–43-varaqlar.

«Muttaham» hikoyasini koʻrganidan ajablanganini yashirmaydi. Sul-tonxoʻja undan qanday sabab bilan qamal-ganini soʻrab, aybi faqat oʻz eshonini qoʻllab gapirganida, boylarga qarshi keskin soʻzlaganida ekanligini aytib, shu boylar xalqni ezayotganligini uqtirgan. U otasi va akasi davlatmandligini, oʻzi esa ruslarning uyida xizmat qilib biri ikki boʻlmayotganini aytgan. Mahdixoʻja esa polismeysterga oʻzining polisiya pristavi yordamchisiga qoʻpollik qilganini tan olgani holda, xalqqa ochiq haqiqatni aytmoqchi boʻlgani, Toshkentdagi toʻrt daha qozisining shariatga xilof ish tutayotganini odamlarga tushuntirmoqchi boʻlganini bildirgan. Ertasi kuni ertalab podpolkovnik Karaulshchikov bu ikki mahbusni polisiya boshqarmasiga olib kelganida Sul-tonxoʻja shu boshqarmada ish yuzasidan kelgan odamlarga qarata nutq soʻzlaydi. «General-gubernator va umuman oliy hukmdorlar xalq pulini olayotgan boʻlsa ham, – deydi Sul-tonxoʻja, – ularni oʻylamaydi, xotirjam uxlayveradi, kambagʻallar esa azobda mehnat qilaveradi». Uning gaplarini boʻlmoqchi boʻlgan Shayxovandtahir va Beshyogʻoch dahasi yuzboshilarini keskin tanqid qiladi.

Podpolkovnik Karaulshchikov bu ikki chiqishga toʻxtalib, shunday xulosaga keladi: «Ularning boshqarmada menga va pristavga munosabati qoʻpol boʻldi... Sul-tonxoʻjaning xalq oldida va boshqarmada oʻzini bunday dadil tutishini oʻta soʻl firqalardan biriga mansub ruslarning taʼsiri natijasi deb hisoblayman. Ular Sul-tonxoʻjani tashviqotchilik ishiga tayyorlashgan. Xurofotga botgan va aqli zaif aholi orasida Mahdixoʻja va Sul-tonxoʻja kabi shaxslarning paydo boʻlishi va ularning goʻyo kambagʻallar manfaati yoʻlida jonkuyar sifatida turlicha vaʼdalar bilan xalq ahvolini yaxshilashga qaratilgan chiqishlari mutlaqo koʻngilsiz holatdir va mulkdor sinflarga nisbatan zoʻravonlik va tartibsizliklar keltirib chiqarishi mumkin»¹.

Saylovlardagi saboqlar

1906 yil 27 aprelda Rossiya parlamentining birinchi majlisi ochilishi butun Yevropaning diqqatini jalb etgan voqea boʻldi. Endi deyarli 300 yil tanho hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining davri tugab, yangi zamon boshlanmoqda edi. Birinchi rus davlat toʻntarishi podshohlik Rossiyasining mutlaq hokimiyatini zaiflashtirib, hokimiyatlab yangi siyosiy kuchlarga imkon yaratgan. Duma ish boshlaganiga besh kun boʻlganda podshoh farmoni Toshkentga yuborildi. U «Ettisuv, Kaspiyorti, Sirdaryo, Samarqand va Fargʻona

¹ OʻzR MDA, 1-jamgʻarma, 4-roʻyxat, 1053-ish, 43-varaq.

viloyatlarida Davlat Dumasiga saylovlar haqidagi holatni va unga qo‘shimcha qonun-qoidalarini qo‘llash haqida qoidalar» deb ataldi.

I Davlat Dumasi saylovida qatnashish uchun xuddi Sankt-Peterburgda bo‘lganidek, Toshkentda ham Duma fraksiyasining «mehnatçilar guruhi» tuzildi. 1906 yil may oyida «Mehnatçilar guruhi Byurosi» tashkil etilib, u o‘z dasturini e‘lon qildi. Byuro kotibi konstitusiyaviy – demokratlar (qisqacha kadet) firqasi a‘zosi advokat N.I.Zakamenniy edi.

RSDRPning Toshkent guruhi, eserlar va «Xalq taraqqiyoti firqasi» saylovda o‘z nomzodlari uchun kurash boshladilar. Saylov 1906 yil avgustda o‘tkazilishi lozim edi, ammo markazda I Duma tarqatib yuborilgach, bu tadbir 1907 yil fevralda – II Davlat Dumasiga saylovlar bilan barobar boshlandi.

Saylovlar mustamlaka istibdodining ustunlari nurab borayotganidan, o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida murakkab davr boshlanib, hokimiyattalab yangi kuchlar tarix sahnasiga chiqayotganidan darak beradi. Muhimi, mazlum xalq uyg‘ona boshladi. Mustamlakachilar tanlagan o‘ta millatchi va mahdud, rusparast nomzodlardan birontasi ham yetarli ovoz ololmay, mag‘lub bo‘ldilar. Saylovda mavjud podshohlik tuzumiga qarshi kayfiyatni ifodalagan sosial-demokratlar (bolshevik va mensheviklar), sosial-inqilobchilar (eserlar) va kadetlarning uyushmasi bo‘lmish «Taraqqiyparvar saylovchilar guruhi» yutib chiqdi. Toshkentdan Duma a‘ziligiga mahalliy aholi o‘rtasida «Jahongir domla» nomi bilan mashhur bo‘lgan V. P. Nalivkin saylandi. O‘lkaning tub aholisi bo‘lmaganlardan 2 sosial-demokrat, 1 sosial-inqilobchi, 2 «mehnatçi» (trudovik), 1 firqasiz saylandi. Toshkentlik tub aholi o‘rtasidan ulamo Abdurauf qori Abduvohid Qoriev, Samarqanddan savdogar Toshpo‘lat Abduxolliqov, Farg‘onadan savdogar Muhammadjonov, Sirdaryodan chorvador boy T. Ollaberganov, Yettisuvdan muhandis Muhammadjon Tinishboev, Kaspiyorti viloyatidan podpolkovnik Maxtumqulixon saylandilar¹. Bu g‘alaba Toshkent shahar oqsoqoli saylovida podshoh generallari emas, balki shahar ziyolilarining vakili N.G.Malliskiyning ko‘p ovoz olishiga zamin yaratdi.

Turkiston general-gubernatori mahkamasining maxsus bo‘lim boshlig‘i lavozimi bilan niqoblangan, aslida esa siyosiy ishlar bo‘yicha markaz irodasini amalga oshiruvchi alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi N.A.Vasilevning va general-gubernatordan mustaqil tarzda ish yurituvchi, imperiya Ichki ishlar vazirligining

¹ O‘zR MDA, 17-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 22655-ish, 374-varaq.

muxtor vakili, rasman Turkiston maxfiy siyosiy polisiyasi boshlig'i lavozimidagi Leonid Kvisinskiyning Turkistondagi saylovlarda rus jamiyatidagi yangi siyosiy kuchlardan tashqari tub aholi o'rtasida salmog'i kuchayib borayotgan o'zbek mulkdorlari va ziyolilarining amaliy nufuziga munosib baho berishdan boshqa chorasi qolmagan edi. Binobarin, ular o'z e'tiborini Turkiston xalqlari milliy-ozodlik harakatining kuchayishiga ta'sir ko'rsatayotgan rus inqilobiy firqalaridan qay birlarining xavfli ekaniga qaratishdi. Shu jihatdan, ularga RSDRPning Turkiston tashkilotlari konferensiyalari hujjatlari boy daliliy manba bo'ldi.

1906 yilning fevralida RSDRP Turkiston tashkilotlarining birinchi konferensiyasi bo'lib, unda Toshkent, Samarqand, Marg'ilon, Ashxobod, Qizil-Arvat, Chorjo'y tashkilotlarining vakillari qatnashdilar. Ta'sis yo'nalishiga ega bo'lgan ushbu konferensiyada bir necha tashkiliy masalalar ko'rildi. Jumladan, mahalliy firqa guruhlarini tashkilotlarga aylantirilib, «RSDRP Turkiston tashkilotlari ittifoqi»ga birlashtirildi. Konferensiyada RSDRP Toshkent guruhi tarkibidan «Ittifoq qo'mitasi» saylanib, unga adabiyotlar nashr etish, tashkilotlarga tashviqotchi kuchlar bilan yordam berish, ishlarni uyg'unlashtirish, markaziy tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish masalalariga rahbarlik qilish vazifasi yuklatildi. Konferensiya RSDRP Toshkent guruhi gazetasi «Rabochiy»ni RSDRP Turkiston tashkilotlari ittifoqi organiga, «Soldatskiy listok – Pravda» gazetasini esa Turkiston o'lkasi barcha harbiy inqilobiy tashkilotlarining organiga aylantirdi. «1-Turkiston konferensiyasi haqida Bildirish» deb nomlangan nashrda konferensiya joylardagi barcha o'rtoqlarga tuzem proletariyatiga alohida e'tibor berish, ular o'rtasida keng yo'sinda sosial-demokratik tashviqot olib borish taklif qilinadi», bu tashviqot og'zaki ham, yozma – varaqa shaklida ham, shart-sharoitga qarab amalga oshirilsin», deyilgan.

Siyosiy polisiya agentlari sosial-demokratlarning bu qarori qog'ozda qolib ketganini va ularning Turkiston musulmon aholisi va ishchilaridan tashqari, hunarmandlar, ayniqsa, ko'pchilikni tashkil etgan dehqonlar o'rtasida deyarli hech qanday tashviqot yuritmaganiga ishonch hosil qilishadi. Ular sosial-demokratlar organi bo'lgan «Soldatskiy listok-Pravda»da bosilgan «Ishchilar nima istaydi?» deb nomlangan maqolada qo'yilgan masalaga alohida diqqat bilan qarashadi. Zotan, bu maqolada sosial-demokratlar milliy masalada millatlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilashlari, milliy davlat tuzib, Rossiyadan mustaqil bo'lishlariga kafolat berishni yoqlaganlari holda, bu erkinlikning faqat Yevropa millatlariga oid

ekanligini uqtirganlar. Xususan, unda polyak, litva, fin, yahudiylar eslatilib, Turkiston xalklari esa mutlaqo tilga olinmagan. «Rus xalqini talagan va ezgan holda, – deb yozilgan edi o‘sha dasturiy maqolada, – hukumat polyaklar, litvaliklar, finlar, yahudiylar, gruzinlar, armanlar va boshqa rus bo‘lmagan millatlarni juda qattiq ezmoqda... Barcha millatlar ishchilarining manfaatlari bir xil: rus, fin, polyak hamda yahudiy ishchilari o‘z manfaatlariga ko‘ra, bir-birlari bilan rus ishchisi va rus kapitalistlariga qaraganda yaqinroqdir»¹. Turkiston sosial-demokratlari o‘lkada yashovchi fin, polyak va boshqa millatlarga nisbatan ham qattiq ezilgan o‘zbek, qirg‘iz, turkmanlarni tilga olmaganliklari ularning hech qachon o‘lka tub joy aholisi manfaatini o‘ylab, jiddiy ish tutmaganligidan, aniqrog‘i, hokimiyatlab bu firqaning ham mustamlakachilikdan voz kechgisi yo‘qligidan dalolat beradi.

Aftidan, mahalliy aholi podshohdan hokimiyatni tortib olishda yordamchi – qora kuch bo‘lishini ko‘zda tutmagan edi. Shunga ko‘ra, Vasilev va Kvisinskiy eserlarning uzoqni ko‘zlab, mahalliy millatlar o‘rtasida keng ko‘lamda ish boshlaganliklaridan voqif bo‘ldilar va aynan shu firqaga nisbatan keskin choralar ko‘ra boshladilar.

1906 yildagi voqealar tadrijida eserlarning nufuzi sosial-demokratlarnikidan qolishmagan. Ular 1 may munosabati bilan bir necha varaqa va xitobnomalar chiqardilar. Toshkent Bosh temir yo‘l ustaxonasidagi ish tashlash va uning g‘alaba bilan tugashida, shubhasiz, shu firqalarning roli katta bo‘lgan. Polisiya, kazaklar, harbiy qismlar tazyiqi temiryo‘lchilar irodasini buka olmagan, ma‘muriyatning ularga to‘la yon berishi butun o‘lkada Toshkent temir yo‘l ustaxonasining obrusini ko‘tarib uni «Ishchilar qal‘asi» nomi bilan mashhur qildi. O‘sha yili ommaviy ish tashlashlar boshqa sanoat korxonalarida ham keng tus oldi. 1906 yil 29 iyunda Toshkent temir yo‘lchilari ishchi noiblari kengashini tashkil qiladilar.

Ularning endigina shakllanib kelayotgan mahalliy ishchilar sinfining jipslashishiga ta‘siri katta bo‘ldi. Masalan, Toshkentdagi Dyurshmidt ichak tozalash zavodida bir ishchining bo‘shatilishiga qarshi norozilik tariqasida 13 o‘zbek ishchisi ish tashlagani ana shundan dalolat beradi. Eserlar 1906 yil 3 iyulda Toshkentdagi sapyorlar qo‘zg‘alonida va ularga qo‘shilgan Turkiston va Kaspiyorti temir yo‘l batalonlari isyonida asosiy rol o‘ynadilar. O‘lkada paydo

¹ *Пясковский А. В.* Революция 1905–1907 гг. в Узбекистане. Ташкент, 1957, стр. 177–178.

bo'lgan kasaba uyushmalarida esa sosial-demokratlar ta'siri salmoqli bo'ldi. Maxsus bo'lim ularni «Yangi ishchi noiblari sho'rosi»¹ deb atadi.

Ichki ishlar vazirligi Polisiya departamentining siyosiy bo'limi boshlig'i Vasilevga shu ishlar yuzasidan maxfiy tergov o'tkazishni buyurgani bejiz emas edi. Markaz Turkiston general-gubernatori D.I. Subbotich (1852–1920)dan noroziligini yashirmay, uni Peterburgga chaqirib olgani Vasilevga ayon edi. Subbotich podsho generallari o'rtasida jangovar o'tmishi bilangina emas, balki ilg'or fikrlari va tabiatan yumshoq ko'ngilligi bilan ham ajralib turardi. U lavozimiga tayinlangan kundan e'tiboran ish tashlagan ishchilar, firqalarning vakillari bilan muzokaralar olib borib, ishni tinchlik, murosayu madora bilan hal etish siyosatini yuritgan edi. Sosial-demokratlar ta'siridagi «Russkiy Turkestan» gazetasi bu haqda shunday yozgan: «General Subbotich porox hidiga to'yingan mundir kiygan. Ablah tuhmatchilarga bu kamlik qildi. Ular general Subbotich o'z mundirini xalq qoni bilan bo'yashini istagan edilar. Agar biror ona uning nomini la'nat bilan tilga olmasa, agar u bironta ham dor qurmagan bo'lsa, qo'llari esa manfur inqilobchilarning qoni bilan bo'yalmagan bo'lsa, u qanday qilib general-gubernator bo'lib qoladi».

Bosh vazir P.A.Stolipinning buyrug'iga ko'ra, O'rta Osiyo istilosida faol ishtirok etgan infanteriya generali N.I.Grodekov general-gubernator lavozimiga tayinlandi (1906–1908). O'rta Osiyo temir yo'li jandarm-polisiya boshqarmasi boshlig'i general Malixin iste'foga chiqarilib, o'rniga polkovnik knyaz Mikeladze tayinlandi. Viloyat harbiy gubernatorlarining takliflari inobatga olinib, o'lkada harbiy mirshablik holati joriy etildi. Yangi general-gubernatorning buyrug'iga muvofiq, O'rta Osiyo temir yo'li tarmog'i unga yondosh shaharlar bilan 3 hududga bo'linib, ularga vaqti general-gubernatorlar tayinlandi. Birinchi hududga Kaspiyorti viloyati boshlig'i, general-leytenant Karsov, ikkinchisiga Turkiston kazak diviziyasi qo'mondoni general-leytenant Grekov, uchinchisiga esa 1-Turkiston armiya korpusi qo'mondoni, general-leytenant Shpisberg vaqti general-gubernator qilib tayinlandi. Markaz Turkiston o'lkasini ruslashtirish jarayonini yanada kuchaytirish borasida keskin o'zgarish yasashni lozim topadi. Bosh vazir va Ichki ishlar vaziri P. A. Stolipinning buyrug'iga muvofiq, rus mujiklarini ommaviy ravishda Turkistonga ko'chirish uchun «Sirdaryo tumani ko'chiruv boshqarmasi» tashkil qilindi.

O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 984-ish, 1-varaq.

Bu davrda mahalliy aholiga tegishli yerlarni zo'rlik bilan tortib olish va ko'chirib keltirilgan rus dehqonlariga taqsimlab berish jarayoni kuchaydi. Mustamlakachilarning beboshligi shu darajaga borib yetdiki, bu, hatto ikkinchi chaqiriq Davlat Dumasida noiblarning norozilik bilan chiqishiga turtki bo'ldi. 1907 yil 17 aprelda Tavriya guberniyasi noibi Duma minbaridan turib, «Ko'chiruvchilik siyosati qayoqqa olib boradi?» degan savolni o'rta tashlab, shunday xitob qildi: «Burchimiz shuni taqozo qiladi: Yetar! Tuyg'ularni junbushga keltirish yetar! O'rta Osiyoda ziddiyatlarni yoqib, alanga oldirish yetar!» Ural viloyati noibi ham uni qo'llab, chorizmning rus mujiklari talablaridan qutulish uchun ularni Ural, Sibir va O'rta Osiyo yerlariga ko'chirish siyosatini keskin tanqid qildi. Ammo Stolipin o'zining yer islohoti siyosatining butun og'irligini mustamlakalarga ko'chirib, o'sha joylarda mulkdor rus tabaqasini shakllantirish yo'lidan qaytmadi. Turkistonda ruslashtirish siyosatini kuchaytirishga alohida e'tibor berdi.

Mavzuga doir mulohaza

Jaholat asoratida

Respublika, viloyat davlat arxivlarida butun-butun qishloq mehnatkashlarining yangi ariq chiqarish, mavjud ariqlarni tartibga solish, daryo, soylarga to'g'onlar qurishni so'rab yozgan ariza, talabnomalari ko'plab saqlangan. Arizalarni qarab chiqish uchun avval ular rus tiliga tarjima qilinar edi. Vaqt esa o'tib borar, masala hal bo'lguncha dehqonlar azob chekardi.

O'lka ehtiyojlari qondirilmay, sekin-asta qashshoqlanish boshlandi. An'anaviy xalq ta'limining eng muhim vositalari hisoblanmish islom dini ta'limotiga asoslangan maktab va madrasalar faoliyati cheklab qo'yildi. Bir vaqtning o'zida yangi ko'chib kelgan o'ris mahalla va qishloqlarida xristian cherkovlari – butxonalar qurildi. Hatto N. Ostroumov degan ashaddiy josus masixiy «Injil» kitobini o'zbekchaga tarjima qilib tarqatdi...

Shahar hokimlari, qozi va boshqa amaldorlar, imomlar va maktabdorlarni chaqirib, masjidlarda namozdan so'ng oq podshohning nomini duo qildirishga buyruq berdilar.

Fozilbek Otabek o'g'lining yozishicha, biron musulmon ko'chada o'tib ketayotgan uezd boshlig'i yoki pristavni ko'rmay qolib o'rnidan turmagani va salom bermagani uchun, oxrankalar qaytib kelib uni kaltaklagan, hatto qamatgan. Andijon hokimi ayrim mo'tabar odamlarni: «Menga salom bermading», deb haqorat qilgan, gap qaytarsa bir necha kunga qamatgan.

Ichki siyosatdagi bu ishlar ikki maqsadni ko'zlab qilinar edi. Biri – mahalliy musulmonlar e'tiqodini susaytirib, diniy ibodatlarni ichdan yemirish va shu yo'l bilan o'lkada xristianlik diniy huquqlarni qaror toptirish. Ikkinchi maqsad – bosqinchi o'ris podshohi va uning oilasiga ehtirom bildirish orqali, keyincha SSSRda to'la g'alaba qilgan g'oya – mahalliy xalqni «ulug' rus» xalqini e'zozlashga o'rgatish va shu yo'l bilan xalqimizning o'zligini unutishga undash.

Bunday siyosat oqibatida o'lkada asta-sekin ma'naviy qashshoqlik boshlandi. Mustamlakachilar xalqni gumrohlikda saqlash uchun islom dini da'vatiga qarshi axloqsizlik, nopoklik odatlarini yoydilar. Elni masixiylikka tortish, o'ta noziklik bilan ruslashtirish siyosatini yurgizmoqchi bo'ldilar. Qadimiy shaharlarimizning chekka joylarida Rossiyada odat bo'lgan razil ishlardan biri – islovatxonalar ochildi. «Yangi shahar» deb atalmish o'rislar yashaydigan obod joylarda ichkilikxonalar tashkil qilindi. Bu kasofat ba'zi imoni zaif musulmonlarni ham o'ziga tortdiki, o'sha davrdan boshlangan ichkilikbozlik sho'rolar hokimiyati yillarida hamma yoqni qamrab oldi. Endi esa bundan qutilishning aslo iloji bo'lmayotir.

Shaharlarda yangi ochilgan ko'chalarga rus podshohlari-yu, o'ris generallarining nomlari qo'yildi.

Keyinchalik o'lkaga temir yo'l tortilgach, barcha bekat nomlari ham ruslashtirildi. Nom qo'yishdagi bu yangilish ishlar mana endi mustaqillikka erishilgandan keyingina tugatila boshlandi.

Bularning barchasi mahalliy xalq ommasining ikki tabaqasiga, ayniqsa, yomon ta'sir ko'rsatadi. Biri – mehnatkash xalq (avominnos) ning o'sha davrdagi piri-ustozlari bo'lmish islom dinimizning oliy tabaqali peshvolariga azob berayotgan edi. Mahalliy mudarrislar, diniy olim-ulamolalar bunday ko'rgilikdan ruhiy azobda qoldilar. Ular yaxshi bilardilarki, Qur'oni Karimning biron so'zi tugul, hatto biron nuqtasi, harfini tushurib qoldirish ham gunohi kabirdir. Axir, qanday qilib uning ma'nosini buzgan holda yangidan nashr qildirib bo'ladi, qanday qilib xalqimiz ongiga singib ketgan So'fi Olloyorning ta'limiy g'azallarini o'zgartirib bo'ladi. Nahotki, juma namozlarida oq podshoh va uning oilasi nomini xutbaga ko'shib o'qitilsa! Ichkilikbozlik, fohishabozlikka, boshqa yangi betartibliklarga qanday chidab bo'ladi! Buning ustiga, madrasalar ixtiyoridagi vaqf yerlarga ham tajovuz boshlandi. Bunday yerlar madrasa xodimlari va talabalarning tirikchilik manbai edi. Bunday yerlarni hukumat tomonidan sotib yuborish haqida ko'rsatma bo'lgan edi. Natijada ulamolalar asosiy daromad manbaidan ham ajralib, iqtisodiy jihatdan kambag'allashishi boshlangan edi.

Chorizm ichki siyosati ruhiy azob berayotgan ikkinchi tabaqa – yangi muallimlar va ko‘zi ochilayotgan yoshlar edilarki, bular XX asrdan boshlab shakllangan bo‘lg‘usi jadidlar toifasining dastlabki vakillari edilar. Ular yangi ochilgan rus-tuzem maktablarining ayrim taraqqiyparvar muallimlari va o‘sha maktabni bitirgan yosh mullabachchalar Rusiya bosqinidan so‘ng hayotda yuz berayotgan salbiy o‘zgarishlarni, mehnatkash xalq ahvoli va kayfiyatini sinchkovlik bilan kuzatishga qodir yoshlar bo‘lib, keyincha ilg‘or fikrli jadidizm harakatining faollari o‘sha yoshlardan yetishib chiqadi. Ular hokim to‘ralarning ko‘zidan yirokda yurishga urinar, ammo ro‘y berayotgan voqealarni ko‘rib, o‘zlarini qo‘ymoqqa joy topa olmas edilar. Ularda hukmron tuzumga qarshi tug‘yon boshlanayotgan edi. Ular faqat bitta narsani – milliy istiqlolni, o‘z xalqining porloq istiqbolini o‘ylar edilar.

*(Sayfiddin Hoji Jalilov.
«Saltanatni titratgan kunlar».
Toshkent, 1998, 16–19-betlar)*

5. DOSTONGA AYLANGAN QAHRAMON

Rus mustamlakachilari orasida «Namoz o‘g‘ri», xalq o‘rtasida esa «Namoz botir» deb shuhrat topgan bu shaxsning faoliyati 1904–1907 yillarni o‘z ichiga oladi. Namoz Pirimqulov hayoti va faoliyati 1907 yildayoq xalq o‘rtasida doston bo‘lib ketgan edi. Xalq baxshisi Nurmon Abduvoy o‘g‘li (1862–1939) «Namoz» dostonida uni afsonaviy Rustam polvonga o‘xshatgan edi. Namoz Pirimqulovning kim, kimlarga qarshi kurashganligini u shunday ta‘riflagan:

*Kecha-kunduz yurgani dala-dasht bo‘ldi,
O‘ttiz yigitlarga o‘zi bosh bo‘ldi,
Nikolayga necha kun kengash bo‘ldi,
To o‘lguncha Nikolay bilan g‘ash bo‘ldi,
Namozdayin bir zo‘r o‘tdi jahonda.*

Nurmon Abduvoy o‘g‘li Namozni ko‘rgan va u bilan suhbatlashgan zamondosh sifatida uning mustamlakachilarga qarshi kurashini shunday satrlarda ifoda etgan:

*Burgutdayin qabog‘ini uygandir,
Bor kuchini bilagiga yiqqandir,
To‘rt hokimga o‘zi yolg‘iz tekkandir,
Namozdayin vallomat o‘tdi jahonda.*

Nurmon baxshi «to'rt hokim» deb Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax va Xo'jand tumanlari boshliqlarini nazarda tutgan.

Namoz Pirimqulov va uning safdoshlari haqida Samarqand va Toshkent okrug sudlari, muhim ishlar bo'yicha tergovchilari to'plagan «jinoiy ishlar» 12 jildni tashkil qilgan.

Mustamlakachi ma'murlarning Namoz botir¹ haqidagi birinchi xujjati 1904 yil 15 oktyabr bilan sanalangan. Unda aytilishicha, Kattaqo'rg'on tumaniga qarashli Dahbed volostining Oqtepa qishlog'ida Qarshiboy Ro'ziboev, G'aybulla Ro'ziboev, Bekaboy Niyozboev, Sayidnazar Sohibnazarov kabi buxorolik yetti savdogar 15 tuyalik karvoni bilan noma'lum kishilar tomonidan to'xtatilgan. Ularning boshlig'i Qarshiboyga qamchi bosib, hamrohlariga karvonni tintuv qilishni buyuradi va 720 tanga, uch to'nni olib savdogarlarni qo'yib yuboradi.

Qarshiboy polisiya pristaviga bergan guvohligida qaroqchilar boshlig'i Namoz Pirimqulov ekanini aytadi. Chunki, bundan bir hafta oldin yo'lda tasodifan uchrashganda Namoz botir undan 500 bog' beda keltirishni iltimos qilgan, lekin Qarshiboy uning bu iltimosini bajarmagan. Namoz botir buni unutmay, undan o'ch olganini aytadi. Namoz botirning odamlari 1905 yil 10 mayda Kattaqo'rg'on bozoridan qaytayotgan savdogarlar, cho'ponlar va dehqonlarni o'rab olishadi, lekin faqat savdogarlarning pul va mollarini musodara qilishadi. Cho'pon va dehqonlarning pullari, otlari va mollariga esa qo'l ham tegizmay, qo'yib yuborishadi.

Namoz botirning tarafdorlaridan biri Hamroqul Do'stboboev qo'lga olinganda tergovchiga bergan iqronomasida u asosan bozorchi savdogar – boylarni talaganligini tan oladi. Ular pullarni safdoshlariga taqsimlab bergan, mollar, buyumlar va kiyim-kechaklarni esa kambag'allarga bo'lib berishgan.

Pristav Pyotr Shirokov Namoz botir tarafdorlari mahalliy ma'muriyat vakillari – volost boshqaruvchilari, mingboshilar, qishloq oqsoqollari, yuzboshilarga doimo tahdid solgani, ularni kaltaklagani, o'ldirgani va mol-mulkini tortib olgani haqida bayonot berib, shunday yozadi: «Qaroqchilar ularni tutib ushlab bermoqchi bo'lgan qishloq ma'murlaridan qattiq o'ch olardilar. Xalq ham ulardan qo'rqardi. Mahalliy ma'muriyat esa ulardan yurak oldirib qo'ygan».

Xo'ja Ahror volosti Otaliq qishlog'ida kuppa-kunduzi otda ketayotgan qishloq oqsoqoli Muhammad Amin Nazar Muhammad-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 1999 yil 9 mayda – Xotira va qadrlash kunida so'zlagan nutqida Namoz Pirimqulovni «Namoz botir» sifatida tilga olgan.

ning oldidan bir necha qurollangan kishi chiqib, otining jilovidan tutgan holda oqsoqolni urib yerga ag'darishadi va uning 40 rubl puli, 100 Buxoro tangasi, ikki tunini olib qo'yishadi. Arabxona qishlog'ida bir necha kishi mingboshi Xidirboevga o'q uzishadi. Qo'qqisidan uzilgan o'q kazaklar bilan qaroqchilarni ushlashga borayotgan mingboshi Lutfulla Xo'jaevni ham otdan qulatadi.

1906 yil iyul oyida ikki kun ichida Namoz botirning yigitlari chorvador boy Xudoy nazarni, Torariq qishlog'ida mingboshi Eshonqul Azimovni, Angren volostida mashhur savdogar Qurbonboyni talashgan. Qo'lga olinganlardan biri xalqning o'zlariga bo'lgan munosabatini so'roq vaqtida shunday izohlagan: «Biz qishloqlarda Namozning o'rtoqlari, yo tanishlarinikida, yoki mutlaqo begona kishilarning uylarida tunab qolardik. Bizga boshpana berish xususida hech kim mone'lik qilmagan, chunki odamlar Namoz botirdan juda hayiqishgan»¹. Kattaqo'rg'on tumanboshisining guvohligi ham shunday: «Namoz o'z hujumlaridan so'ng, xavf-xatar paydo bo'lsa, mahalliy aholi yordamida yashirinib olardi. Ammo hech kimdan uning turgan joyi haqida ma'lumot ololmaganmiz. Ma'lum qilishsa ham, Namoz ketgandan keyin bo'lardi»². Namoz botir va uning tarafdorlarini xalq ommasi qanday hurmat qilgani, ular haqida turli afsonalar to'qigani va hamisha madad berganini Samarqand viloyat harbiy gubernatori general-mayor Gesket ham tan olgan edi: «Namoz doimo chopqir otlari yordamida ta'qibdan qochib qutulardi. Turli tumanlardagi turli qishloqlarning aholisi unga boshpana berardi; odamlariga, otlariga qarashardi. Namozning soqchilik xizmati a'lo darajada yo'lga qo'yilgan. Har yoqda qo'riqchi-darakchilari bor, aholi o'rtasida va hatto Samarqand shahrida ham uning josuslari ko'p»³. Mahalliy ma'muriyatda ham unga xayrixoh kishilar bo'lgani diqqatga sazovordir. Chashmobdan xoji Tursun, Urgutdan Mirza Qobil, Sergelidan mulla Rustam, Dahbeddan mulla Hamid, Angordan Hikmat mahdum Junaydullaev kabi volost boshqaruvchilari – mingboshilar Namozni zarur axborot, qurol-yarog' va o'q-dori bilan ta'minlab turishgan. Namoz 1905 yilda 20 yigiti bilan 200 kishilik qurolli karvonga hujum qilgan. Jom volostida yuz bergan bu voqea Namozning nomini juda mashhur qilib yuborgan. Karvondan 25 miltiq, otlar va anchagina mollar o'lja qilib olingan. O'sha yili chorvador boylar karvoni Jom volostining Gumbaz degan joyida

¹ O'zR MDA, 17-jamg'arma, 1-ro'yxat, 14346-ish, 59-varaq.

² O'sha hujjat.

³ O'zR MDA, 17-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2968-ish, 91-varaq.

Namozning xujumiga uchraydilar. Karvonda borayotgan Chiroqchi hokimining vakili Buxoro amiriga atalgan maktub va buyumlar bilan Namoz botirning qo'liga tushadi. Kitob begi soqchilari bilan 1905 yilning aprelida Namoz tomonidan qurolsizlantiriladi va amir yuborgan jazo eskadroni ham tor-mor qilinadi. Namoz botir va uning yigitlari Buxoro ostonasiga borib, amirga tahdid solganlar. Ular hatto Afg'oniston chegarasigacha borganlar.

Buxoro amiri qushbegi Ostonaqulbiy dodho orqali general-gubernatorga Namoz botir ustidan shikoyat qilgani ham diqqatga sazovordir.

1905 yilning oktyabr oyida Namoz botir Xo'jaariq volosti boshqaruvchisi Lutfulla Xo'jaevning sotqinligi tufayli Qorateri qishlog'ida pristav kapitan Golov tomonidan qo'lga olinadi. Uni so'roq qilish materiallari, guvohlarning ko'rsatmalari va tergovdagi savol-javoblardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'sha 1905 yilda Namoz botirning yoshi 28 da bo'lgan. O'rta bo'yli, qora soqol, qora ko'z va xushbichim yigit bo'lgan. Uylangan, farzandi yo'q. Jar qishlog'ida hovli joyi va yeri bo'lgan. Kasbi-kori dehqonchilik. Ikki marta qozilar sudi tomonidan jazolangan (sababi aytilmagan). Yigitlarining o'rtacha yoshi 20–25 yoshda va turli millatlarga mansub bo'lgan¹. 1906 yil 7 fevralda Samarqand okrug sudi prokurori Toshkent sud palatasining prokuroriga yo'llagan tashvishli xabarida 2 fevral kuni kechqurun viloyat turmasidan lahm orqali Namoz va 50 mahbus qochgani, ularga mahalliy aholi yordam bergani, Xolbek Xo'jayorov, Tojiqul Imomqulov va Abduvohid Abdusodiqovlar esa 2 fevral kuni kechqurun turma devori yoniga otlarni keltirishgani va shu otlar yordamida mahbuslar qochib ketishga muvaffaq bo'lgani ma'lum qilingan.

Namoz Pirimqulovning qamoqdan qochgach, o'z faoliyatini yanada kengroq quloch yoydirishi mustamlaka ma'muriyatini juda cho'chitib yubordi. Imperiyani larzaga solayotgan siyosiy kurashlar sharoitida Turkiston dehqonlarini qo'l ostida birlashtirishga qodir bo'lgan bu shaxs rus ishchilari va inqilobchilaridan ham dahshatliroq edi. Shu sababdan Namoz botirning ishiga shaxsan Turkiston general-gubernatori N.I.Grodekovning o'zi e'tibor berdi. Uning eng yaqin safdoshlari – Rossiya turmalari va Sibir surgunidan qochgan Abduqodir hoji Otaullaxo'jaev, Qobil Toshpo'latov, Xudoynazar Toshmuhamedov, Jo'ra Jiyanov, Jalil Ulug'murotov, Hotam Karimov, Abdunazar Hojinazarov, Tursun va Karim Ustanazarovlar

¹ O'zR MDA, 130-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2968-ish, 209-varaq.

ishi boshqa «qaroqchilar» ishidan ajratib olinib, xavfli jinoyatchilar sifatida Toshkent okrug sudining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisiga topshirildi.

Namoz boshchiligidagi qasoskorlar guruhiga qarshi mustamlaka ma'muriyati o'zining sinalgan ayg'oqchilarini yubordi. Shunday ig'vogar josuslardan biri Shirin Muhamedov bo'lib, u shu darajada «namozchi» bo'lib ketdiki, kazaklar bilan otishmalarda barcha hujumlarda o'rnak ko'rsatgani uchun yuksak ishonch qozondi. U qo'lga olinganida rus ma'murlaridan ba'zilari hatto Shirin Muhamedovning rus josusi ekanligini bilmay, unga qattiq jazo berishni talab qilishgan.

Namoz botirga qarshi Turkiston jangovar kazak diviziyasi qismlari yuborildi. Lekin, Namoz botirning urush ko'rmagan, harb ilmida tajribasiz yigitlari juda ko'p to'qnashuvlarda dovdirab qolmay, partizan urushi uslublarini qo'llab, kazaklarni dog'da qoldirishdi. Xalq qasoskorlariga qarshi 2-Uralsk kazak polki ham tashlandi. Turkiston harbiy okrugi shtabining 1905–1907 yillarga oid hujjatlarida va «Туркестанские ведомости», «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida Namoz botir va safdoshlarining mirshablar, askarlar hamda kazaklar bilan jangu jadallariga oid qiziqarli ma'lumotlar ko'p. 2-Uralsk kazak polki zobiti xorunjiy Kazansevni orden bilan mukofotlash uchun berilgan tavsiyanomada uning jasorat ko'rsatgani ta'kidlanadi. Bu «jasorat» Namoz botir bilan bo'lgan janglarda qatnashgani uchun qayd etilgan edi. 1-Turkiston kazak diviziyasi qo'mondoni Samarqand harbiy gubernatoriga 1907 yil 30 yanvarda yo'llagan axborotida «Namoz ishiga munosabat doirasini ancha kengaytirish lozimligi» uqtirilgani bejiz emas. Kazak generali Namoz botirni butun viloyatning osoyishtaligini ostin-ustun qilgan shaxs sifatida baholaydi.

Turkiston general-gubernatori «o'zbek Dubrovskiyisi» bo'lmish Namoz Pirimqulovni tutish ishini tashkil qilish operatsiyasiga shaxsan Samarqand viloyati harbiy gubernatorining yordamchisi, polkovnik Susaninni javobgar qilib tayinladi. Operatsiya muvaffaqiyatini ta'min etish ishiga o'z navbatida Buxoro amiri, rus armiyasining kavaleriya generali Said Abdulahadxon ham kirishdi. 1907 yil mart oyida general-gubernator mahkamasi polkovnik Susaninga Namoz botir operatsiyasi uchun maxsus qo'shimcha mablag' ajratdi. Samarqand harbiy gubernatori general Gesket 28 mayda 2-Uralsk kazak polki komandiriga operatsiya mutlaqo maxfiy tarzda boshlanishini xabar qilib, kazaklarni podpolkovnik Sokolskiy ixtiyoriga yuborishni buyurdi. Buxoro chegarasida 12 ta pistirma, Samarqand

va Kattaqo'rg'on tumanlarida 10 ta kuzatuv pistirmalari qo'yildi. Buxoro amirining amri bilan barcha yo'llarga kuchaytirilgan sarboz qismlari joylashtirildi. Namozchilar tengsiz janglarda talafot ko'rib, chekinishga urindilar. Lekin qurshov halqasi tobora torayib borardi. Namoz botir bilan yigitlari ta'qibdan qutulib, har yoqqa tarqalib ketgani va yetakchining o'zi xiyonatkorona o'ldirilgani haqida ikki xil taxmin bor.

Jazo otryadlaridan biriga komandir bo'lgan Samarqand tuman-boshisining yordamchisi podpolkovnik Sokolskiy harbiy gubernatorga 1907 yil 3 iyunda Namoz Pirimqulov Turkman, Qobil, Norbobo, Kenja, Aliqul va Berdibek kabi yaqin do'stlari bilan 25 may kuni ta'qibdan qutulgandan so'ng Buxoroning Ziyovuddin bekligiga qarashli Toshquduq ortidagi Qoracha tog'laridan panoh topishdi, deb xabar qilgan edi. Horib tolgan qasoskorlar pinakka ketgach, soqchilikda turgan Qobil mudhish reja tuzadi. Sheriklarini uyg'otib, Namoz botirni o'ldirish va shu bilan qutulib qolish mumkinligini aytadi. Qobil uxlab yotgan Namoz botirning peshonasiga tosh bilan uradi, Kenja va Aliqul uni tomog'idan bo'g'adilar. Boshqalar esa Namozning yaqin safdoshi Turkmanni o'ldirishadi. Qotillar Namoz botirning jasadini palakka o'rab, avval g'orga berkitishadi, keyin esa Toshquduq qishlog'idan olti chaqirim beridagi joyga tashlab qochishadi. Sokolskiy o'z xabarnomasida pristav kapitan Golov Namozning jasadini borib ko'rganini va u chindan qasoskorlar boshlig'i Namoz Pirimqulov ekanligini yozgandi.

Boshqa bir taxminni 1907 yil 1 iyunda Buxoro amirining qushbegisi Ostonaqulbiy dodho bayon etgan. Bunga kura, Ziyovuddin bekligining Enkichik degan yerida Turkman boshchiligidagi 8 qaroqchi Namoz dam olib yotgan joyga kelishadi. O'rtada qandaydir nizo chiqib Turkman Namozni o'ldiradi. Usha zahotiyoq Namozning tarafkashlari Qobil va Juma Turkmanga tashlanib, qonli olishuvda uni o'ldirishadi. Namozning jasadini esa dafn etish uchun Kattaqo'rg'onga olib ketishadi.

Turkiston general-gubernatori Namoz botirning o'limidan behad mamnunligini yashirmay Samarqand viloyat harbiy gubernatori general Gesketga ushbu minnatdorchilik telegrammasini yo'llab, «Xayriyatki, biz sizning g'ayrat va tadbirkorligingiz tufayli Namozdan qutuldik. Juda xursandman, sizlardan minnatdorman. O'zini yaxshi ko'rsatganlarni mukofotga taqdim qiling»¹, deydi. General Gesketning tadbirkorligi esa Namozning yaqin safdoshlarini qo'lga

¹ O'zR MDA, 18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2193-ish, 43-varaq.

olish, ular orasiga nifoq solishdan iborat bo'lgan. 1907 yil 19 dekabrda Namozni o'ldirish ishida «o'rnak ko'rsatganlardan» Samarqand tumani Polvonariq volosti boshqaruvchisi mulla Qulmuhammad Umarbekov kichik oltin nishon, Kalqo'rg'on mingboshisi Mirza Said Murod Mirza Hakimov, Polvonariq qishloq oqsoqoli Abdiqu Abdurahmonov, mirshablardan Karimboy Nazarov, Usta Muhammad Murod Yusufov kichik kumush nishonlar bilan takdirlandilar. Ular millatimiz oldida abadul-abad yuzi qora sotqinlardir. Namoz Pirmqulovning sodiq do'sti Abduqodirxo'ja 1908 yil 12 avgustda Mingariq volostida tuman hokimi askarlari tomonidan otib o'ldirildi. Kattaqo'rg'onlik Qobilning taqdiri fojiali kechdi. Uni ham rus askarlari halok qildilar. Namoz Pirmqulov va do'stlari uchun qattiq qayg'urgan Dovurcha qasos belbog'ini mahkam bog'lab Mitan, Chiroqchi, G'allaorol, Xatirchi va Karmana muzofotlarida mirshablar, mahalliy amaldor va sotqin boylarning dodini berdi. Uni qariyb ikki yil davomida qo'lga ololmadilar. Faqat 1909 yil 29 avgustda chor ma'murlari kazak otryadi bilan bo'lgan jangda Dovurcha qo'lga olinib qamoqqa tashlandi¹.

Mustabid tuzumga qarshi o'ziga xos xaloskorlik yo'lini tutgan Namoz botirning o'limi dehqonlarning mavjud mustabid tartibga va mustamlaka zulmiga qarshi kurashini to'xtata olmadi. Xullas, Namoz Pirmqulov va uning izdoshlarining qasoskorona xalq kurashi vatanimiz tarixining eng yorqin sahifalaridandir.

6. PETERBURGNI GANGITGAN VOQEALAR

1905–1907 yillardagi katta-kichik voqealar Turkiston xalqlarini mustamlakachilar lagerida birlik yo'qolgan va o'rtada o'zaro kurash boshlanganidan darak berdi. Bu haqda mahalliy matbuot shunday yozgan: «Turkiston o'lkasining yerli aholisi Rossiyadagi inqilobiy harakat va bu harakat o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga mutlaq loqayddir, deb fikrlovchilar qattiq yanglishadilar. Rossiyadagi inqilobiy harakatga qiziqish kundan-kunga ortib borayotganiga ishonch hosil qilmoqdamiz. Mahalliy aholi o'rtasidagi ayrim nufuzli guruhlar ularga bu harakatni ataylab qanchalik bo'yab ko'rsatishlaridan qati nazar, so'nggi vaqtlardagi voqealarga doir o'zlarining xolis qarashlarini allaqachon shakllantirganlar»².

Mustamlakachilar Turkiston xalqlari vakillari ozodlik kurashi girdobiga tortilgunday bo'lsa, ularning orasida milliy ong uyg'onib,

¹ Haydarov X. Jizzax tarixidan lavhalar. T., «Mehnat», 1992, 29-bet.

² «Русский Туркестан», 1905 г. 5 декабря.

istiqlol kurashi boshlanishidan g'oyat xavfsirashgan. Shuning uchun ham birinchi rus inqilobi boshlangan oyda – 1905 yilning yanvaridayoq general-gubernator mahkamasining bosmaxonasida o'zbek tilida «davlatpanoh imperator»ga bag'ishlangan duo matni chop etilib, joylarga yuborildi. Xususan, Samarqand viloyatidagi masjid va madrasalardagi imomlar uchun mo'ljallangan 190 duo matni harbiy gubernatorga jo'natilib, mahalliy aholi o'rtasida tegishli tashviqot olib borishda musulmon ruhoniylaridan unumli foydalanishga ko'rsatma berilgani shu maqsadga qaratilgan edi.

15 oktyabrda Toshkent, Qo'qon temir yo'lchilari, 16 oktyabrda Andijon, Chorjo'y, 17 oktyabrda Samarqand temir yo'lchilari stachkaga ko'tarildi. Bu stachkalarda iqtisodiy talablarga qaraganda siyosiy talablar ko'proq edi. Temir yo'lchilar ish tashlashi O'rta Osiyo temir yo'lida joylashgan Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Chernyaev, Kogon va Turkistonning boshqa shaharlarini qamrab oldi.

Podshohning siyosiy erkinliklar va'da qilgan 1905 yil 17 oktyabrdagi manifesti Turkistonda ham miting va namoyishlarga sabab bo'ldi. 18 oktyabr kuni ertalab O'rta Osiyo Bosh Toshkent temir yo'l ustaxonalari oldidagi maydonda o'tgan mitingda manifest haqida RSDRP Toshkent guruhi vakillari tanqidiy fikr bildirishdi va uni «qog'ozdagi qonun» deb atab odamlarni hukumatga qarshi kuch ishlatishga chaqirdilar va birinchi galdagi vazifa qamoqdagi siyosiy mahbuslarni ozod qilish ekanligini uqtirdilar. Shundan so'ng ulkan olomon qo'lida «Yo'qolsin chorizm!», «Yo'qolsin kapitalizm!» degan shiorlarni ko'tarib, turma tomon yo'l oldilar, 10 ming kishilik olomon safida ishchilar, talabalar, hunarmandlar, dehqonlar va mayda savdogarlar, shu jumladan, mahalliy millat vakillari ham bo'lgan.

Toshkent shahar dumasi noiblari 1905 yil 28 iyulda podshohga yozgan petisiyalarida ham ruslar o'rtasidagi ixtilof va to'qnashuvlar o'lka tub joy aholisi o'rtasida «rus ta'sirini bo'shashtirib, rus davlati kuch-qudrati haqida noxush tasavvur uyg'otishi mumkin»¹ deb yozishgan edi.

Ish shu darajaga borib yetdiki, Samarqandda shahar istirohat bog'ida miting uyushtirilganda viloyat harbiy gubernatori bu mitingga rasman ruhsat beribgina qolmay, miting raisi bolshevik M.V. Morozovning shahardagi harbiy muhofazani olish va barcha jamoat, hukumat idoralarini shu kuni yopish haqidagi talabini ham qondirdi. Rus jamoatchiligining hukumatga qarshi kayfiyati kuchini Chorjo'y garnizon boshlig'ining 1905 yil 27 oktyabrdagi axboroti yaqqol ko'rsatgan: «Bu ikkinchi ish tashlash birinchisiga qaraganda

¹ O'zR MDA, 17-jamg'arma, 1-ro'yxat, 22654-ish, 16-varaq.

butkul o'zgacha kechmoqda. Olomon dadilligi juda oshib ketdi. Xalq o'z huquqini kuch bilan olmoqda va u buni tushunadi, o'z kuchini biladi va shu yo'ldan boradi. Xalq bilan gaplashganimda shuni his qildimki, uning talabi hali zamon Parij Kommunasi da'volaridan ham o'tib tushadi»¹.

Turkiston o'lkasida 1905 yil 2 noyabrgacha davom etgan oktyabr siyosiy stachkasi askarlar o'rtasida ham kuchli bezovtalik uyg'otdi. RSDRP Toshkent tashkiloti va eserlarning yashirin xitobnomasi hamda varaqalari bunda katta rol o'ynadi. Sapyorlar va o'qchi batalonlarida «tartibsizlik» va intizom buzish hollari kuchaydi. Ular hatto o'z boshliqlariga zo'ravonlik o'tkazishga ham urinishdi². 1905 yil noyabrida temir yo'l batalonlarida jiddiy voqealar yuz berdi.

Eserlar tashviqoti natijasida 1905 yil noyabrida 1-Turkiston zaxira bataloni (Toshkent qo'rg'oni), Toshkent to'p ombori va ustaxonalari quruqlik qo'zg'aloni ko'tarildi. Bu qo'zg'aloni qo'llab RSDRP Toshkent guruhi ikki xitobnoma chiqardi³.

Askarlar qo'zg'aloni bostirilgandan keyin ham eserlar va bolsheviklarning tashviqoti davom etdi.

O'lkada ish tashlashlar bir-biriga ulanib ketdi. Noyabr va dekabr oylarida Turkistondagi amaliy hokimiyat o'ziga xos ishchi va askar noiblari Sho'rosi vazifasini o'tovchi temir yo'l stachka qo'mitalari qo'lga o'tdi. Bu qo'mitalar temir yo'lda poezdlar qatnovi, oziq-ovqat ta'minoti, jamoat xavfsizligi kabi masalalarni hal qilishgan. Telegraf aloqasi ham stachka qo'mitalari ixtiyorida bo'lgan.

Shunday voqea bo'lganki, Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Saxarov telegramma yuborish uchun qo'mitadan ruhsat so'rashga majbur bo'lgan. Stachka davomida bolshevik M.V. Morozov rahbarlik qilgan Toshkent inqilobiy qo'mitasining ta'siri shunday katta bo'lganki, uni odamlar «Vaqtli hukumat» deb atashgan. O'rta Osiyo temir yo'lidagi ish tashlash 18 kun davom etib 3 dekabrda, Orenburg – Toshkent yo'lida esa 9 dekabrda yakunlandi. 1905 yil oktyabrida paydo bo'lgan stachka qo'mitalari dastlab temiryo'lchilar manfaatini o'zlarida ifodalagan bo'lsalar, 1905 yil noyabridan esa inqilobiy hokimiyat o'zagiga aylanib keng xalq ommasi manfaatlarini himoya qilishga da'vogar kuch sifatida ko'zga tashlandi.

¹ Начало революционного движения в Туркмении в 1900–1905 гг. Сборник документов, кн. 2, Ашхабад, 1946, стр. 155.

² «Новая жизнь», 1905 yil 12 noyabr, 11-son. Bu bolsheviklar ta'siridagi gazeta edi.

³ O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi arxivi. 03N/43, 192-ro'yxat.

Xuddi shu xususda Turkistondagi rus ommasining 1905–1907 yillardagi inqilobiy harakatini sinchiklab oʻrgangan podpolkovnik Vasilev diqqatini ikki telegramma jalb qildi. Toshkentdagi noyabr ish tashlashida Oʻrta Osiyo temir yoʻli boʻylab shahardan quyidagi mazmundagi telegramma yuborilgan: «Bugun mitingga ruscha gapiruvchi yerlilar kelishib, bizning harakatimiz bilan qiziqishdi va nimalar boʻlayotganini tushunish uchun eski shaharga notiq yuborishimizni soʻrashdi. Biz ularga ish tashlaganimiz sabablarini tushuntirib ularni mitinglarimizda qatnashishga taklif qildik»¹. Toshkent stachka qoʻmitasi raisi A. P. Golbert² imzo chekkan yana boshqa telegrammada esa «erli aholi ish tashlashimizga xayrixohlik bilan qarashmoqda»³ deyilgan. Ruslarning ish tashlash harakati tub joy aholini ham «yoʻldan urgan» haqida rasmiy gazetalar ham xabar berishgan. «Umumiy ish tashlash, – deb yozgan edi «Turkestanskije vedomosti» 1905 yil 12 noyabr sonida, – Andijonga ham yoyilib ishchilari nuqul sartlardan tashkil topgan paxta tozalash zavodlarini ham toʻxtatib qoʻydi»⁴.

Maxfiy siyosiy polisiya boshligʻi Vasilevni Samarqanddagi 1905 yil 19 oktyabr kuni boʻlgan miting qabul qilgan rezolyusiyadagi bir band oʻziga jalb qildi. Unda oʻzbeklarni «shafqatsiz ekspluatasiya qiluvchi firmalarga dashnom berish zarur», – deb yozilgan edi. Oʻsha mitingda oʻzbeklar ham qatnashib, oʻz talablarini qoʻygan edi. Bunday ruslarga qoʻshilgan oʻzbek ishchi, ziyoli va hunarmandlaridan Doʻstmuhammad Ustaboev, Barot Ikromov, Otamurod Sher-muhamedov, mulla Malik Abdukarim Ashurov nomlari maʼmurlarga maʼlum edi.

Mustamlakachilar oʻlkaning mahalliy tub aholisi 1905–1907 yillardagi voqealardan oʻziga xos usulda foydalanib, mustamlaka tuzumiga qarshi kayfiyatda boʻlganliklarini payqadilar. Samarqand viloyati harbiy gubernatorining 1907 yil fevral oyida oʻlkada jandarm nazoratini oʻrnatish haqida qilgan axborotnomasida shu fikr yaqqol koʻzga tashlanadi.

Alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi N.A.Vasilev va polisiya maslahatchisi A.Kvisinskiy oʻz faoliyatlarini keng quloch

¹ Пясковский А. В. «К вопросу о прогрессивном значении присоединения Средней Азии к России». «Вопросы истории», 1959 г., № 8, стр. 31.

² Aleksey Pavlovich Golbert (1873–1955) 1906 yilda qamoqqa olingan va keyinchalik Turkistondan chiqib ketgan. Temir yoʻl ustaxonalarida hisobchi boʻlib ishlagan.

³ Пясковский А. В. «К вопросу о прогрессивном значении присоединения Средней Азии к России». «Вопросы истории», 1959 г., № 8, стр. 31.

⁴ «Туркестанские ведомости», 1905 г. 12 ноября.

yoydirdilar. TRMB agenturasi o'lkadagi sosial-demokratik tashkilotlarni tormor qilib, ko'plab odamlarni qamoqqa oldi. 1908 yilda Toshkent turmasining bir o'zida 500, Skobelevda 300 siyosiy mahbus saklangan. Samarqand turmasida esa mahbuslar ko'pligi, sharoit yomonligidan tif epidemiyasi tarqalgan. Siyosiy jihatdan ishonchsiz hisoblangan 400 ishchi O'rta Osiyo temir yo'lidan bo'shatilib, 700 ga yaqin ishchi «qora daftar»ga tirkalgan. Mirshablarga tintuvga kelishganda eshik bir daqiqada ochilmasa uni buzish huquqi berildi¹.

Qisqasi, polisiya shtatlari kengaytirilib, ochiq va yashirin agenturaga ajratiladigan mablag'lar ko'paytirildi. Masalan, imperiya ichki ishlar vazirligi agentura xarajatlari uchun Kaspiyorti viloyatiga 2000, Farg'onaga – 1900, Samarqandga – 1200, Yettisuvga – 1000 rubl ajratdi.

Peterburg Vasilevga siyosiy qidiruv ishlarining to'g'ri olib borilishini tekshirish, Turkistondagi inqilobiy tashkilotlar faoliyatini to'la va atroflicha yoritishga oid cheklanmagan vakolatlar berdiki, ular mirshablarning beboshligini nihoyatda kuchaytirib yubordi. Metropoliya markazi Turkistonda muxolifatga qarshi tashviqot yuritish, podshohga sadoqat ruhida adabiyotlar nashr etishga ham anchagina mablag' ajratdi.

Mustamlaka ma'muriyati idoralarida mirshablik-josuslik ruhi kuchayib ketdi. General-gubernator mahkamasining maxsus bo'limi, TRMB va O'rta Osiyo temir yo'l jandarm-polisiya boshqarmasining agentura tarmog'i butun o'lkani o'rgimchak kabi o'rab oldi. Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari ko'mondoni general-ad'yutant Kondratovich zobitlar siyosat bilan shug'ullanmoqda, degan xabarni eshitib, shunday degan: «Agar kimdir meni fuqaro deb atasa, men buni shaxsiy haqorat deb hisoblayman». J. va T. deb atalgan ikki zobitga dashnom berilgani, ularning aybi hakamlar sifatida maskarad vaqtida turma va ozodlikni aks ettirgan niqoblarga mukofot berishgani bo'ldi. Zobit Plotnikovni TRMB boshlig'i huzuriga olib kelishdi va u o'zining harbiy ekanligini hamda mirshablarga bo'ysunmasligini aytganda, Leonid Kvisinskiy uni haqorat qilib quolsizlantirishni buyurdi va qamoqqa jo'natdi.

Vasilev va Kvisinskiy okrug harbiy qismlaridagi ilg'or fikrli, inqilobchilarga xayrixoh zobitlar va askarlar o'rtasida eserlarning yashirin tashkilotlari ish ko'rayotganini aniqladilar. Z-Kaspiyorti o'qchi bataloni zobitlaridan polkovnik Solodyagin, podpolkovnik Levdikov, kapitan Krushinskiy, harbiy shifokor Lunkovichning

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 567-ish, 36-varaq.

inqilobiy faoliyatiga oid ma'lumotlar aniqlandi. Kvisinskiy markazga yuborgan axborotida (1908 yil 9 dekabr) podpolkovnik Levdikov ishi bo'yicha 44-agenti (filer) ishlagani va unga 5500 rubl sarflaganini yozgan. TRMB maxfiy agenti «Abram» 1909 yil 1 aprelda shunday axborot yo'llagan: «Turkiston o'lkasining turli chekkalaridan 30 zobit – harbiy tashkilot a'zolari kelishdi. Toshkentning Samarqand ko'chasida general Ivanovning uyida istiqomat qiluvchi shtabs-kapitan Aleksey Alekseevich Xlebnikov huzurida ikki yig'ilish o'tkazildi. Bu yig'ilishlarda zaxiradagi batareya shtabs-kapitani Karpovich, Toshkent rezerv bataloni shtabs-kapitani (famiyasi noaniq), qal'adagi siyosiy mahbuslarni qochirishda yordam bergan zobit, avval 2-Turkiston o'qchi bataloni komandiri, polkovnik, so'ng unvoni pasaytirilgan poruchik Nikolay Nikolaevich Solodyagin qatnashdi. Harbiy tashkilot haqida samarqandlik savdogar Subenikov qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lgan. Uning bog'ida nomlari eslatilgan zobitlar qo'p bor bo'lishgan va shu joyda bosmaxona ham bo'lgan»¹.

Siyosiy izquvarlar Turkiston eserlarining Peterburgdagi eserlar bilan yaqin aloqasini ham aniqlashdi. 1908 yilning iyul oyida Peterburg eserlari Toshkentga doktor Moisey Slonim nomiga Rus-Xitoy banki orqali 5 ming rubl yuborganlar².

Turkiston o'lkasida faol ish ko'rayotgan eserlarning jangovar guruhi haqidagi tergov materiallari 7 jildni tashkil etib, bevosita Peterburgning diqqatini o'ziga tortdi. Eserlar safida musulmonlar ham borligi va ular nufuz jihatidan ham katta mavqega egaligi Vasilevni bezovta qildi. Niyozboev – Karimov ishi shular jumlasidandir. Toshkentda Starogospital qo'chasidagi 52-uyda yashovchi savdogar Sobirjon Solixovich Abdullin aslida eserlarning rahbarlaridan biri bo'lib chiqdi. «Spokoyniy» laqabidagi 27 yoshli musulmon yigit «Kum», «Master», «Bogachka» laqabli eserlar bilan aloqada bo'lgan. U «Bogachka» laqabli yigitning bileti bilan Orenburgga jo'naganida orqasidan kuzatuv borligini payqab, yashirinadi. Jandarmlar uni Ufada qo'lga tushirishganda o'zini Gumar Xusainovich Karimov deb atagan. Karimov aslida Niyozboev bo'lib, taniqli eser, Qozon va Orenburgdagi ishlarda qatnashgan. Jandarm tergovini Orenburgda Gabdurauf Hakimboevich Niyozboev nomi ostida yashagani, kasbi o'qituvchiligi, doimiy manzilgohi Toshkent ekanligini aniqladi. U eserlar firqasi Markaziy Qo'mitasida «Qozonlik», «Yahudiy» kabi laqabda alohida hisobda turgan. Podpolkovnik Vasilev «Toshkent

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2027-ish, 52-varaq.

² O'sha arxiv. 1990-ish, 16-varaq.

va Chimkentdagi eserlar guruhlarini» deb nomlagan maxsus ishda quyidagi ma'lumotlarni aniqlagan. 1906 yilda Qozonda eserlar firqasi guruhi tashkil etilib, qo'mita a'ziligiga Gabdurauf Niyozboev, G'iyos Ishoqov, Ishoq Bikchurin, Shokir Muhammadyorov, Fuad To'xtarov saylanadi. Ular yashirin bosmaxona tashkil qilib, 3 marta xitobnoma chiqarishgan. Ufada yashagan Faisxon Usmonov tatar bosmaxonasini Karimov-Niyozboevga topshirgan. Ashxobod harbiy-inqilobiy tashkilot a'zosi Ilya Petrovich Andreev (firqaviy laqabi «O'rtoq Foma») «Polkovnik» bilan aloqada bo'lib, Toshkentdan pul olib turgan. Yashirin bosmaxonada eserlarning «Za narod» va «Molot» degan gazetalari chop etilgan. Niyozboev-Karimov ikki marta Kishinyov shahriga borib, Turkiston eserlari uchun qurol-yarog' sotib olgan va bu haqda Toshkentga telegrammalar jo'natgan. Niyozboev qurol-yarog' transporti bilan Orenburgdan o'tayotib, Toshkentga davlat xizmatidagi advokat yordamchisi Charkovskiy nomiga shartli telegramma yuborgan. Podpolkovnik Vasilev nomi tilga olingan Charkovskiyning o'zbek jadidlari bilan yaqin aloqasidan xabardor bo'lib, uni alohida xavfli shaxslar qatoriga qo'shdi¹.

1908 yil 10 yanvardagi tintuv vaqtida Toshkentda istiqomat qiluvchi eserlardan Pyotr Gordeev va Timofey Nikitinning uyalaridan inqilobiy ruhdagi adabiyotlar bilan birga gektofafda bosilgan «Musulmonlarga!» deb nomlangan xitobnomaning 58 nusxasi chiqqani ham Vasilevni tashvishga soldi. Bu fakt eserlarning mahalliy aholi o'rtasida qandaydir aniq ish yuritayotganidan darak berardi. TRMB boshlig'i Kvisinskiy esa unga eserlar firqasi Turkiston viloyat qo'mitasining taniqli arbobi Viktor Cherniyning aslida Qozon dorilfununining talabasi Abbosali Qadimov bo'lib chiqqani haqidagi xabari ham tashvish uchun asos edi².

Musulmonlarning inqilobiy firqalardagi ishtiroki Peterburgni g'oyat tashvishga solayotgani siyosiy idoraga ma'lum edi. Peterburgda izquvarlarga yordamga kelgan Alohida jandarmlar korpusi rotmistri Korabchakov 1908 yil 26 iyulda Abbosali Qadimovning iziga tushganini yozib, bu eser uch sherigi bilan tijorat idorasi xodimlariga Samarqandda hujum uyushtirib 4150 rubl, oltin buyumlar va hujjatlarini tortib olgani, polisiya ulardan ikkitasini qo'lga tushirganini ma'lum qilgan. 1908 yilning iyulida imperiya Ichki ishlar vazirligi Polisiya departamenti TRMB boshlig'iga mutlaqo maxfiy axborot yo'lladi. Unda eserlar firqasi Markaziy Qo'mitasi topshirig'i bilan

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1488-ish, 12-varaq.

² O'sha arxiv, 125-ish, 11-varaq.

Odessa viloyat qo'mitasi vakili «Sergey» Toshkentda allaqanday vazifani bajarib, Odessaga qaytgani xabar qilinib, eserlar Toshkentda qandaydir muhim tadbirni amalga oshirmoqchi ekanliklari to'g'risida taxmin bildirgan. 22 iyulda «Sergey» Peterburgga borgan va Markaziy Qo'mitadagi maslahatga ko'ra imperatorning joniga suiqasd qilish rejasini tuzgan. Buning uchun u Toshkentdagi davlat xazinasini talab 700 ming rublni qo'lga kiritmoqchi, agar bu ish amalga oshmasa, biron xususiy bank, yo pochmani talab, yuz ming rublga yaqin pul jamg'armoqchi bo'lgan. Mablag' Peterburgda podshohni o'ldirish ishida asqotishi kerak bo'lgan. Aka-uka Valiskiylar pul transportidan 300 ming rublni o'g'irlab eserlar firqasi Turkiston viloyati qo'mitasiga topshirgan. Qo'qon bankidan Timofey Niasov yuz ming rubl olib shu qo'mitaga bergan¹.

Podpolkovnik Vasilev, rotmistr Korabchakov va TRMB boshlig'i Kvisinskiylarning birgalikda ishlashi, hamkorlikda izlanishi natijasida Turkiston eserlari yetakchisi Sergey Ososkov hibsga olingan. Ososkov ishi bo'yicha eserlar jangovar drujinasidan 100 kishi javobgarlikka tortildi. Sud hukmi bilan Sergey Ososkov 29 iyulga o'tar kechasi qatl qilindi. Bu tadbir esa butun o'lkani oyoqqa turg'izgan voqealarga turtki berdi. 1908 yil 22 sentyabrda o'quv mashqlarida 1-Kaspiyorti batalonining 4-rotasi askarlaridan Lavrentiy Kuzmenko, Anisim Xripchenko, Nikifor Malsev va Pyotr Kltun general-gubernator va uning mulozimlariga qaratib o'q uzishgan. General-gubernator Mishchenko va uning soqchi zobiti yaralandi. Bu voqea «TurkVO qo'mondoni joniga suiqasd haqida» deb atalgan tergov materiallarida batafsil bayon etilgan². TRMB boshlig'i general-ad'yutant Mishchenkoning yarador qilinishi inqilobchilarning Ososkov qatliga birinchi javobi ekanligini qayd qilib, «bu sohadagi dahshatli ishlarning birinchi yirik ko'rinishi» ekanligini ta'kidlagan. «Turkiston inqilobchilari, – deb yozgan edi Kvisinskiy 1908 yil 17 dekabrda Peterburgga yuborgan axborotida, – o'lkaning bosh hokimini hech qachon kechirishmaydi va general-gubernator Mishchenkoning o'limi allaqachon hal qilingan»³. Mazkur axborotda maxfiy siyosiy polisiya boshlig'i o'zining eserlar terroridan qo'rquvini ham yashirmagan: «Xuddi shu tarzda mening taqdirim ham hal qilingan. Bu masalada inqilobchilar kuzatuvini yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mening yordamchim rotmistr Kellerning Ashxobodga yashirin borgan ham ularning

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2007-ish, 13-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 567-ish, 40-varaq.

³ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 567-ish, 40-varaq.

nazaridan qochmadi»¹. TRMB maxfiy agenti «Gorniy»ning axboroti ham Kvisinskiy gumonini tasdiqlagan: «Toshkent turmasidagi mahbus Chernishev muhim ko'rsatma berish bahonasida o'zini Turkiston rayon muhofaza bo'limiga olib borilishini, u yerga borgach bo'lim boshlig'i Kvisinskiy bilan uchrashganda esa uni o'ldirishini aytdi»².

Vasilev va Kvisinskiyning mahkamalari Toshkent, Chimkent va Kaspiyortidagi eserlar tashkilotlarini aniqlab eserlarning mashhurlari ustidan «55 lar jarayoni» deb atalgan sudni uyushtirgan bo'lsalar ham, inqilobiy varaqa, xitobnomalar va amaldorlarga suiqasd uyushtirish hamda terror davom etdi. 1909 yil 21 fevralda Toshkent bosh temir yo'l ustaxonalarida «O'rta Osiyo temir yo'li Toshkent rayon qo'mitasi» xitobnomalari paydo bo'ldi. Ular ishchilarni kurashga chorlab, «jandarm, qo'riqchilar va ig'vogarlar bilan o'rab tashlangan og'ir sharoitga qarshi» ko'tarilish zarurligini uqtirgan. Xuddi shu tashkilotda ish ko'rayotgan rus inqilobchilari faoliyati haqida general-gubernator 1909 yil 3 oktyabrda imperiya harbiy vaziriga shunday deb yozgan: «Inqilobiy tashviqot «Butunrossiya temir yo'l ittifoqi O'rta Osiyo bo'limi» deb nomlangan temir yo'l xizmatchilarining jinoiy tashkiloti a'zolari o'rtasida yuqori cho'qqisiga chiqdi. Xuddi shular orasida ko'pdan-ko'p terroristik aktlar, talonchiliklar, faol chiqishlar sodir bo'ldiki, temir yo'l jandarmeriyasi va polisiya mazkur ittifoq oldida o'z bo'lib qoldi»³. General-gubernator shu ittifoq a'zolaridan 200 kishini o'lkadan chiqarib yuborgan bo'lsa ham, tinchlik bo'lmayotganini qo'shimcha qilgan.

Sankt-Peterburgning qat'iy talabi bilan siyosiy idoralar faoliyati kuchaytirilib, yuzlab josuslar, inqilobiy tashkilotlarga joylashib olgan ig'vogarlar Turkistondagi siyosiy firqalarning tayanch nuqtalarini birma-bir yo'q qila boshladilar. TRMB boshlig'i 1909 yil 3 avgustda Polisiya departamenti Maxsus bo'limiga mana bunday axborot yo'lladi: «Toshkent temir yo'l tashkilotini agentura bilan yoritish bu tashkilotning Turkistonga qo'shni Boku shahridan panoh topganini ko'rsatdi. Boku markazi bilan agenturaning aloqalari to'garak ishlarini tashkiliy asosda kuchaytirish haqidagi ko'rsatmalar qaerda kelayotganini ko'rsatmoqda. Imperiyaning qay bir yerida inqilobiy chiqishga taraddud ko'rayotgan firqa markaziy qo'mitasi «tayyor bo'lishga» oid farmoyishlar yo'llamoqda»⁴.

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2007-ish, 40-varaq.

² O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2032-ish, 34-varaq.

³ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat. 567-ish, 5-varaq.

⁴ O'sha arxiv, 621-ish, 15-varaq.

TRMB inqilobiy harakatning yana bir markazi Ashxobod bo'lganini ham aniqladi. Kvisinskiy bu haqda general-gubernatorga yo'llagan maxfiy axborotida eserlar, anarxistlar, «anarxist-spiritidlar federasiyasi Toshkent kommunasi» tashkilotlari tor-mor qilingani, qochib qutilgan jangovar kuchlar Ashxobodga ko'chib o'tganligini yozadi. U Ashxobodni Turkiston o'lkasi «inqilobiy tashkilotlarining ikkinchi tabiiy markazi» deb atab, Kaspiyortida eserlar sosial-demokratlarni chetlatib, maxfiy bosmaxonani qo'lga kiritganini bildiradi. TRMB boshlig'i agenturasiga mahalliy sosial-demokratlar va eserlarning rahbarlari ma'lum ekani va ularni kuzatish maxfiy bosmaxona iziga tushishga imkon berganidan maqtanadi. Kvisinskiy 1908 yil 20 noyabrda podpolkovnik Vasilevga yuborgan maxfiy axborotida eserlar mahalliy guruhini qo'lga olganini aytgan bo'lsa, boshqa bir xabarida eserlar va anarxistlar uni o'ldirish payida izmaiz yurishganini xabar qilgan. TRMB boshlig'i uning agenturasi gektoqrafda yashirin xitobnomalar chiqaruvchi o'quvchi yoshlar to'garagini ham fosh qilganini uqtirib o'tadi¹.

Imperiya siyosiy idoralarining Turkistondagi ishchi va inqilobiy harakatga qarshi izchil kurashi sababi faqat mahalliy aholida ozodlik harakati uyg'onishidan xavotirlikdagina emas. General-gubernator Ichki ishlar vaziriga yuborgan xatida shu haqda gap ochgan. U Turkistondagi inqilobiy harakat metropoliyaga qarshi ish ko'rayotgan firqalarga katta madad bo'lishini uqtiradi. «Chekka o'lkalardagi kuchli tashviqotlarning maqsadi, – deb yozadi u, – qo'zg'alon ko'tarish, hukumatni qiyin ahvolga tushirib, uni Rossiyaning Yevropa qismi inqi-lobchilariga qarshi kurashini kuchsizlantirishdir»². General-gubernator ana shu maxfiy maktubida siyosiy polisiya va razvedka materiallariga tayanib, Turkistondagi ozodilik harakat XIX asrning 80-yillaridan boshlanganini aytadi: «Rus aholisi o'rtasidagi inqilobiy harakat o'lkaga ma'muriy surgun qilingan va hukumatga qarshi shaxslarning paydo bo'lishi, ikki temir yo'l qurilishi va foydalanishga topshirilishi bilan Turkistonga ko'psonli miqdordagi ishchilarning kelishi bilan boshlangan. Xuddi shu odamlar, shuningdek o'quvchi yoshlar va qisman askarlar, inqilobiy tashviqot uchun qulay material bo'ldi». U o'z safiga 8 ming kishini birlashtirgan Butunrossiya temir yo'l ittifoqi O'rta Osiyo bo'limining o'ta xavfli faoliyatiga to'xtaladi: «Inqilobiy tashkilotlar, temir yo'lchi ishchilar guruhi bilan cheklanmay, butun Turkistonni o'z tarmoqlari

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 621-ish, 15-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 1367-ish, 20-varaq.

bilan qamrab, Toshkent, Qo‘qon, Ashxobod viloyatlari qo‘mitalariga uyushdilar. Hali g‘o‘r o‘quvchi yoshlar ichiga ham kirib oldilar. Qo‘mitalar o‘z bosmaxonalari, qurol-yarog‘ omborlari, bomba yasovchi ustaxonalarga, uchar jangovar otryadlarga ega. Ayrim qo‘shin qismlari, ayniqsa temir yo‘l va sapyor batalonlari hamda Qo‘qon, Marv va qisman Ashxobod garnizonlari ham tashviqotga uchdi»¹.

General-gubernator, kavaleriya generali A.V.Samsonov (1909–1913) siyosiy izquvarlar – Turkiston general-gubernatori mahkamasi maxsus bo‘limi boshlig‘i Vasilev va uning xodimlaridan iborat markaz guruhi hamda maxfiy siyosiy polisiya – TRMB boshlig‘i Kvisinskiy kuzatuv va tahlillari asosida rus inqilobchilarining mustamlaka tuzumiga bergan zarbasi va Turkiston xalqlari milliy ongini uyg‘otishdagi ta‘sirini shunday baholadi: «Sobit e‘tiqodli musulmonlarning dunyoqarashida ulkan o‘zgarish yuz berdi va biz ana shu o‘zgarishning amaliy oqibatlarini ko‘rish arafasida turibmiz. Bu oqibatlar noma‘lumligi bilan jumboqli, ayrim belgilariga ko‘ra esa o‘lkadagi hozirgi ahvolimiz uchun juda tahlikalidir»².

General Samsonovning 1909 yilda imperatorga yuborgan maktubidagi fikr metropoliya hukmdor doiralari o‘rtasida keng muhokamaga sabab bo‘ldi. Turkistonda ruslashtirish jarayonini kuchaytirish va qattiqqo‘llik bilan siyosat o‘tkazish tarafdorlari general-gubernatorning o‘lkada jandarmeriya xizmatini joriy etish, polisiya shtatlarini ko‘paytirish, jinoyat-qidiruv idoralarini tuzish taklifini qo‘llab chiqdilar. Ehtiyotkor amaldorlardan tashqi ishlar vaziri graf Lamsdorf «Turkistondagi umumiy ahvol xalqaro ahvol bilan yaqin aloqadorligi, Rossiyaning chegaradosh Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi ta‘siri va nufuzi bilan bog‘liqligi» haqida gapirib, general-gubernatorning taklifiga qo‘shilmaydi. Graf Lamsdorf hamma gap Turkistondagi rus ma‘murlarining «mahalliy aholining tilini bilmasligi, uning turmushi va urf-odatlaridan bexabarligida» ekanligini uqtirib o‘tadi. Tashqi ishlar vaziri Turkistonga o‘z vazifasiga sidqidil yaxshi ma‘muriyat kerakligini ta‘kidladi³. O‘lkada 30 yildan beri xizmat qilib kelayotgan, o‘lkashunos olim sifatida tanilgan general N. S. Likoshin ham uni qo‘llab, o‘lkani ruslashtirishda rus ziyolilaridan samarali foydalanishni taklif qildi.

Ammo Sankt-Peterburgning oliy doiralari qattiqqo‘l siyosatdonlar tarafdorlarining qo‘li baland keldi. Rus dvoryan-pomeshchik-

¹ O‘sha hujjat, 19-varaq.

² O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 12-ro‘yxat, 1367-ish, 20-varaq.

³ O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 12-ro‘yxat, 109-ish, 149-varaq.

lari o'lkani ruslashtirishning iqtisodiy tarafini ko'zlab, Davlat Dumasida Turkiston o'lkasidagi «ortiqcha» yerlarni musodora qilishni yoqlab muxoliflarini siquvga olishdi. 1910 yil 7 aprelda Davlat Dumasida «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ning 270-moddasini «Turkiston ko'chmanchilarining ortiqcha yerlarini kolonizasiya ehtiyojlari uchun» musodora etishga ruhsat beruvchi qo'shimcha band bilan to'ldirish masalasini o'rta qo'ydilar. Shunda Ufa guberniyasidan kelgan, millati boshqird noib Dumada qozoq va qirg'iz noiblari yo'qligidan afsuslanib, o'z so'zida hukumat va Duma O'rta Osiyoni iqtisodiy va madaniy rivojlantirish bo'yicha hech qanday islohot o'tkazmaganini aytdi va «ortiqcha yer» degan gapning tagida ochiq zo'ravonlik yotganini eslatdi. Qozon guberniyasidan kelgan noib esa Turkiston aholisi saylov huquqidan mahrum etilibgina qolmay, endi necha-necha avlodlardan meros qolgan yerlaridan ham mahrum bo'lishi xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ogohlantirdi. Ammo chor mustamlakachilari va shovinistlari ovozi baland kelib, qonun loyihasi qabul qilindi va 1910 yil 19 dekabrda kuchga kirdi. To'qqiz yil ichida, ana shu qonunga ko'ra, Sirdaryo–Farg'ona ko'chiruvchilik rayoni bo'yicha yerli xalqning 744, 9 ming desyatina yeri tortib olinib, ruslarga taqsimlab berildi. Podshohning ziroatchilik bo'yicha vaziri Krivoshein imperatorning diqqatiga Turkistondagi rus kolonizasiyasi istiqboli haqidagi dasturini havola qilib, o'lkada 300 ming baquvvat rus xo'jaligini barpo etish uchun 3 million desyatina sug'oriladigan yerni musodora qilishni taklif qildi. Imperiya oliy doiralari ana shu maqsadni amalga oshirish uchun Turkistonda shafqatsiz ish ko'ruvchi «kuchli va baquvvat» hokimiyat bo'lishga mayl bildirdi. Peterburg Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov va viloyat harbiy gubernatorlarining xuddi shu xususdagi barcha talablarini qondirdi.

Ichki ishlar vazirligi general-gubernatorga «agentura xarajatlari uchun» 3 ming rubl ajratdi. Samarqand harbiy gubernatori general-mayor Gesketning viloyatlarda jinoyiy-siyosiy qidiruv idoralari tashkil etish va ularni gubernatorlarga bo'ysundirish taklifi ham amalga oshirildi. 1911 yilda Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarida shunday idoralar ta'sis etildi¹. Viloyat harbiy gubernatorlariga harbiy dala sudlari joriy etish, mirshablarga esa «tartibsizliklar sodir bo'lganda» osmonga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri olomonga qarata otish huquqidan foydalanishga ijozat berildi. Shuningdek, Turkiston ma'muriyatiga mahalliy aholiga nisbatan

¹ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1990-ish, 16-varaq.

qo'llaniladigan jazo choralarini rus ishchi-dehqonlariga ham qo'llash huquqi berildi. Turkiston o'lka boshqaruvini boshqa asoslarda tubdan qayta qurishga bag'ishlangan Davlat nazoratchisi, stats-sekretar (maxfiy kotib) P. A. Xaritonov raisligida o'tgan oliy amaldorlar kengashida (1911) Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov general-gubernator hokimiyatini «imperator hazrati oliylarining Kavkazdagi noibi hokimiyati» kabi asosga yaqinlashtirishni talab qildi. Bu talabni Turkiston o'lkasini 1908-1910 yillar davomida atroflicha taftish qilib, o'lka yangi nizomi uchun boy material to'plab qaytgan senator graf K.K.Palen ham qo'llab-quvvatladi. Senator Turkiston shaharlarida mustaqil polisiya boshqarmalari, Toshkentda ober-polismeyster lavozimini joriy etish va o'lkadagi mirshab-polisiya xizmatlari sonini ko'paytirishni taklif qildi. U Turkistonda inqilobiy harakatni to'xtatish uchun va «Rossiyaning Yevropa qismida proletariat va agrar g'alayonlar yuz bergan guberniyalar tufayli yopirilib ko'chib kelayotganlarning zararli ta'sirini» kesish uchun Turkiston general-gubernatorligida tuman polisiyasi idorasini tuzish g'oyasini ilgari surdi. Palenning fikrlari imperiya Vazirlar Kengashida va Turkiston o'lkasi ma'muriyati idorasini tubdan o'zgartirish bo'yicha Vazirlar Kengashi a'zosi, Davlat nazoratchisi P. Xaritonov raisligidagi maxsus Kengashda muhokama etildi. Kengash asosiga Turkiston general-gubernatori Samsonovning imperatorga 1909 yil bo'yicha yo'llagan hisoboti, shuningdek, senator Palenning taftishi yakunlari olindi. Kengash Turkiston general-gubernatorining barcha talablarini asosli deb topdi. Turkistonga oid barcha tadbir-choralar uning roziligisiz amalga oshirilmaligi ham ta'kidlandi. Imperator saroyi, moliya, adliya sohasidan tashqari, barcha vazirliklar idoralarini boshqarishda unga imperiya vaziri vakolatlari berildi. Metropoliya hukumati o'z siyosatini faqat shu birgina shaxs – Turkiston general-gubernatori orqali amalga oshiradigan bo'ldi. General-gubernatorga ikkinchi yordamchi lavozimi ham berildi. Kengash ishlab chiqqan Turkiston o'lkasi boshqaruviga oid takliflar 1912 yil 20 noyabrda Vazirlar Kengashida muhokama etilib, ma'qullandi.

Imperiya hukmdor doiralari Turkiston o'lkasi rus va mahalliy aholisi uchun maxsus siyosat dasturini ishlab chiqdi. Rus aholisi o'rtasida inqilobiy harakatni to'xtatish va Turkiston xalqlari o'rtasida milliy-ozodlik harakatining barcha ko'rinishlarini bo'g'ib tashlashga oid bir qator tavsiyalar berildi.

Turkiston general-gubernatori markazdan dasturlar olib va keng vakolatlarga ega bo'lib, o'lkada mirshablik holatini kuchaytirdi. Rus mustamlakachi ma'murlari joylarda josuslik nazoratini ham keng yo'lga qo'ydilar.

Toshkent temir yo‘li jandarm-polisiya boshqarmasi boshlig‘i, Alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi Babkin joylardagi xodimlariga 1910 yil 19 iyunda yuborgan ko‘rsatmasida 1905–1907 yillar inqilobida va ish tashlashlarda qatnashgan barcha shaxslar haqida ma‘lumot to‘plashni buyurdi. «Hech qanday tashviqotga yo‘l qo‘yilmasin, – deb yozgan edi u, – aqllar bezovtaligiga zudlik bilan chora ko‘rilsin, xususan, ish tashlashlardan ogoh bo‘linsin». General-gubernatorning «Ishchilar o‘rtasida jinoiy adabiyotlar tarqalishiga zinhor yo‘l qo‘yilmasin!»¹ degan buyrug‘iga benuqson rioya etish buyurildi.

Siyosiy polisiya tomonidan joylarga maxsus so‘rov-anketa yuborildi. Unda quyidagi savollar qo‘yilgan edi: «1905–1906 yillarda ish tashlashlar qancha bo‘lgan? Ish tashlashning maqsadi va xususiyati qanday? 1907 yilda qancha inqilobiy chiqishlar va terror aktlari sodir bo‘lgan? Sosial-demokratlar va sosial-inqilobchilar tashkilotlarida qancha xodimlaringiz bor?»². Anketada inqilobiy chiqishlar salmog‘i joylarda qanday bo‘lgani va uning ko‘shni qishloq yondosh aholisiga ta‘sirini aniq tasvirlash zarurligi ko‘rsatilib, jandarm-polisiya bo‘limlari o‘z hududlarida yashirin ig‘vogarlik bilan shug‘ullanuvchi xodimlarga ega bo‘lishlari majburiy ekanligi jiddiy tarzda uqtilgan edi.

Imperiya ichki ishlar vazirligi polisiya departamenti Maxsus bo‘lim bo‘yicha yuborgan mutlaqo maxfiy yo‘llanmasida polisiya-jandarmeriya bo‘limlari boshliqpariga aholi o‘rtasida agentura tarmog‘iga ega bo‘lish ishiga shaxsan javobgar ekanliklari alohida ta‘kidlanib, ular ishchi tashkilotlari, inqilobiy firqalarda o‘z josuslarini orttirishlari muhimligi alohida ko‘rsatildi. Bu tadbir, maxsus bo‘limning fikricha, «o‘tgan 1905 yildagi voqealarning oldini oladi»³.

TRMB va maxsus bo‘lim tavsiyalari asosida o‘lkadagi barcha amaldorlarga general-gubernator tomonidan hukumatga qarshi har qanday yo‘nalishdagi, arzimasi ko‘rinishda bo‘lsa ham, harakatlar to‘g‘risida xabar berib turish, ayniqsa, kooperativ harakat, yo ish tashlash hollariga alohida e‘tibor qaratish topshirildi. «Ana shunday hollarni sinchiklab o‘rganish, – deb yozgan edi o‘z ko‘rsatmasida general-gubernator, – juda zarur va maqsadga muvofiq ekanligini tajriba ko‘rsatdi. Ba‘zan arzimasi, samarasiz va befoyda bir kunlik

¹ O‘zR MDA, 461-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 68-ish, 88-varaq.

² O‘zR MDA, 468-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 78-varaq.

³ O‘sha hujjat, 79-varaq.

ish tashlash, yo boshqa hollar ma'lum muhitning, ayrim shaxslarning ichki intizomi, tashkilotchilik qobiliyati va faol chiqishiga layoqati uchun sinov vazifasini o'taydi. Bunday hollarni tadqiq etish orqali dastlab filial bo'limlar, keyin esa jiddiy tashkilotlarning markaziy idoralarini aniqlashga muvaffaq bo'lingan»¹.

Peterburgda ishlangan dastur bo'yicha mustamlakachilarning maxfiy siyosiy idoralari izchil ishlab, Turkiston musulmonlari ongida jiddiy o'zgarish yuz berib, milliy-ozodlik kurashi ko'rtak yozgani va bu holat jadidlar siymosida gavalanganini yaxshi payqashgan. Ular general-gubernatorning maxsus tuzilgan so'rov anketasi bo'yicha mahalliy aholining kayfiyati, dunyoqarashi, rus ma'muriyatiga va tuzumiga munosabati, milliy mustaqillikka intilishi hollarini chuqur o'rganishgan. TRMB o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik yoshlarining dunyoqarashi va xatti-harakatlaridan xabardor bo'lish uchun ularning safiga o'z odamlarini qo'ygani hujjatlardan ma'lum.

7. BIRINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA TURKISTON TARAQQIYOTPARVARLARINING ISTIQLOL UCHUN KURASHI

1910–1914 yillarda Turkiston o'lkasida milliy o'zlikni anglash jarayoni kuchaya boshladi. Mustamlaka ma'muriyati idoralari 1911 yilda Farg'ona viloyatida «idora tartiblariga va jamoat osoyishtaligiga qarshi kurashdan guvohlik beruvchi» 833 ta, 1913 yilda 1220 ta «jinoiy ish» qayd etganlar. Sirdaryo viloyatida esa shunday ayblar bilan 1911 yilda 3487 kishi, 1913 yilda esa 5494 kishi javobgarlikka tortilgan. Bu raqamlar mahalliy xalq o'rtasida mustamlakachilik zulmi va istibdodiga qarshi kurash muttasil o'sib borganligini ko'rsatadi.

1912 yili Toshkent yaqinidagi Troiskiy lagerida turgan sapyorlar qo'zg'alon bostirilgach, general-gubernator uning mahalliy aholiga ta'siridan cho'chib, viloyat harbiy gubernatorlariga «Andijondagiga o'xshash chiqishlarga yo'l qo'ymaslik uchun» keskin choralar ko'rish zarurligini buyurgani ham o'lkadagi ozodlik harakatida ko'tarilish kayfiyatidan darak berar edi. Samsonov 1898 yilgi Andijon qo'zg'alonini eslagani va ana shunday ozodlik chiqishlarining bo'lishidan cho'chiganida katta asos bor edi. Maxfiy polisiya ayg'oqchilari joylarda ishchilar harakatiga yangidan tashkil topayotgan sosial-demokratlar va eserlar bosh-qosh bo'layotgani hamda mahalliy aholi o'rtasidan etishib chiqqan jadidlar faoliyatining «zararli

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 1-ish, 80-varaq.

ta'siri» haqida axborotlar yuborgan. Siyosiy razvedka Turkiston o'lkasida «Yosh sartlar», Buxoroda «Yosh buxoroliklar», Xivada «Yosh xivaliklar» deb atalgan tashkilotlardagi jadidlar rahbarlari bilan astoydil shug'ullana boshladi.

Turkistondagi rus maxfiy siyosiy razvedka va kontrrazvedkasi «Turkiston rayon muhofaza bo'limi» (TRMB) deb bejiz atalmagan. U chindan ham o'lkadagi rus mustamlaka tuzumining muhofazachisi – imperiya hukumatining Turkistondagi sergak qo'riqchisi edi. Uning arxivida o'lkaning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotining barcha sohalari keng qamrab olingan va hamma katta-kichik voqealar o'z aksini topgan hujjatlar to'plangan. Turkiston o'lkasining 1914–1917 yillardagi ahvolini yoritishda TRMB materiallari tadqiqotchi uchun qimmatli manba bo'lishi mumkin.

Mehnatkashlar ahvoli. Birinchi jahon urushi butun Rossiya imperiyasi, shuningdek, Turkiston o'lkasi aholisining ham ahvolini og'irlashtirdi. 1914 yil 26 iyulda Turkiston o'lkasi «favqulodda muhofaza holatida» deb e'lon qilinib, mirshablik nazorati kuchaytirildi. Har qanday tashviqot, targ'ibot ta'qiqlanib, tartib buzganlarga Maxsus qo'mita tomonidan 500 rublgacha jarima solish, yo o'n oy muddatga qamash huquqi belgilandi. Ammo, shunga qaramay, yangidan paydo bo'lgan sosial-demokratlar va eserlar tashkilotlarining yashirin faoliyati davom etib, korxonalarda ish tashlashlar to'xtamadi. TRMB agenturasi 1914 yil iyulida Toshkent Bosh temir yo'l ustaxonalarida ishchilarning urushdan noroziliklari va hukumatga qarshi kayfiyatları haqida xabar berdi.

Mavjud tuzumdan norozilik o'zbek ishchi, hunarmandlari o'rtasida ham kuchaydi. Hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan 425 sanoat korxonasidan 220 tasi paxta tozalash, 76 tasi ko'n-teri ishlab chiqarish, 32 tasi pilla quritish zavodlari bo'lib, ularda 18 ming ishchi kuniga 12–14 soatdan og'ir sharoitda mehnat qilgan. Temir yo'l ishchilari safida tub joy aholidan ishchilar 4,5–5 mingni tashkil qilgan. Xuddi shu temir yo'l sohasidagi qora ishda, qurilishlarda va malakali kasblardagi ishchilar inqilobiy firqalar ta'siri ostida o'z haququqlarini tanib, milliy o'zligini anglay boshlagan edilar. Toshkent Bosh temir yo'l ustaxonalaridagi kurash qozonida qaynagan o'zbek ishchilari ularga yalovbardor bo'lishgan. Shulardan biri Qosim Eshmatov edi. Yetim qolgan bola qo'shni rus temir yo'lchisining yordamida ishga joylashadi va o'zi kabi tengqurlari bilan inqilobiy kurashga tortiladi¹.

¹ O'zbekiston temir yo'llari mashinasozlik ishlab chiqarish birlashmasi (sobiq Toshkent temir yo'l vagon-ta'mir zavodi) arxividan. K. Eshmatov shaxsiy ishidan.

Kelajakda temir yo'lichilarning quni-qo'shnilari va hammahalla-dagilardan ko'p kishi shu ustaxona ishchilari safidan joy oldi. Shu jarayon shohidi bo'lgan N. Muhamedov Mirobod mahallasida yashagani, unda rus temir yo'lichilari ko'p bo'lib, ularning bolalari bilan birga o'sgani, otasi Niyoz Rizamuhamedov va akasi Abdusamad Niyozovlar Toshkent Bosh temir yo'l ustaxonalarida ishlaganliklarini ham eslaydilar. Ustaxonada 1903 yildan beri ishlab kelgan aka-uka Haitboevlar qarindoshlari Yodgor va Olim Rahimovni va uning mahalladoshlarini o'z ishxonalariga kirishlariga yordam berishgan. «Ustaxonadagi ish mobaynida, – deb eslaydi Yodgor Rahimov, – men va boshqa o'zbek ishchilari rus ishchilarining ichki dunyosini o'rgandik. Ular mamlakatdagi voqealar haqida bizga qaraganda ko'proq narsalarni bilisharkan. Kapitalistlar va pomeschchiklar manfaatini himoya qiluvchi jahon imperalistik urushi faqat ruslarga emas, balki o'zbek xalqiga ham ko'p uqubatlar keltirgan. Ishchilar o'rtasida norozilik kuchaya boshladi»¹.

Binokor ishchi Jamol Kamolov ana shu jarayonni shunday eslaydi: «Og'ir mehnat sharoiti o'zbek ishchilarining ongida ham ozodlik uchun kurashish kerak, chinakam kurash olib borish kerak degan tushunchani yuzaga keltirdi va mustahkamladi. O'zbek binokor ishchilari bilan sosial-demokratik tashkilot a'zolari o'rtasida aloqa o'rnatish va uni mustahkamlash borasida Mirzaahmad Mirhodiev katta rol o'ynaganini ham aytib o'tish lozim. Binokor ishchilardan Ochil Bobojonov va boshqalar ham sosial-demokratik tashkilot bilan yaqindan aloqa bog'lab yo'l-yo'riqlar olib turishdi. Bosh temir yo'l ustaxonalaridagi rus ishchilari biz bilan juda mustahkam aloqada edi. Majlis yoki boshqa biror yig'ilish o'tkazish mo'ljallansa, ular bizni M.Mirhodiev orqali ogoxlantirishardi. M.Mirhodiev majlis qaerda va qachon bo'lishini aytgach, O.Bobojonov, usta Bahrom Normuhamedov, Xonxo'ja Ulug'xo'jaev, Akbarxo'ja Qosimxo'jaev va boshqalar bilan birga Bosh ustaxonaga kelar edik. Bunday majlislarda ko'pincha rus ishchilaridan A.Pershin va N.Finkelshteyn, o'zbek ishchilaridan O.Bobojonov va boshqalar chiqib so'zlagani esimda»².

Turkiston hunarmandlarining ahvoli ham og'ir bo'lgan. Rus sanoati mollarning raqobati ularni xonavayron qilib, ko'pchiligini oxiri ishchilar safiga olib borib qo'shgan. O'lkadagi hunarmandlar soni 100 mingdan oshiq edi. Hunarmandchilik sanoati mahsulotining

¹ O'sha arxiv. N.Muhamedov shaxsiy ishidan.

² O'sha joyda. Yo.Rahimov shaxsiy ishidan.

qiymati esa o'lkaning fabrika-zavod mahsulotlari qiymatining 22 foizini tashkil qilgan. Urush o'lkaning qoloq qishloq xo'jaligiga asoslangan iqtisodiyotiga ham katta zarar yetkazdi. Natijada o'lka aholisining 90 foizini tashkil etgan dehqon va chorvadorlarning ahvoli ham mushkullashdi. 1916 yildan o'lkaning asosiy ekini bo'lgan paxtaning ekin maydoni ham, hosildorligi ham kamayib ketdi. Paxtaga ixtisoslashgan rus fabrikantlari, o'z navbatida paxta narxini barqarorlashtirishga intilib, oxiri hukumat yordamida tayyorlangan paxtaning qat'iy narxda bo'lishiga erishdilar. Ahvolni yaxshilash maqsadida Moskva shahrida paxtani qayta ishlash fabrikalarini xom ashyo bilan ta'minlovchi qo'mita ham tashkil etildi. Me'yoriy narxlarning belgilanishi paxtakorlarning noroziligini kuchaytirdi. Paxta topshirishdan ommaviy bosh tortish boshlanib ketdi. Natijada fabrikantlar ikki yil mobaynida belgilangan narxlarga ma'lum darajada qo'shimcha haq to'lashga majbur bo'ldilar.

Dehqonlardan olinadigan rasmiy soliqlarning hajmi ham kun sayin ortib bordi. Turkistonda yer solig'i 1914 yilda 6859021 rubl bo'lgan bo'lsa, 1916 yilga kelib bu raqam 14311771 rublni, ya'ni ikki barobarni tashkil qildi¹. 1915 yilda esa maxsus harbiy soliq solinib, u paxtakorlar uchun har pud paxtadan 2 rubl 50 tiyinni tashkil qildi². O'sha 1915 yili soliqlarning umumiy miqdori 38329000 rublni tashkil qildi. Chor mustamlakachilari imperiya to'qimachilik sanoati manfaatlarini himoya qilib, paxtaga, bozor iqtisodiyoti qonunlariga xilof ravishda, qat'iy narx – pudiga 24 rubl belgiladi. Natijada paxtakorlar bir yil ichida 60 million rubl zarar ko'rdilar. Agar 1913 yilda paxta narxi 50 foiz oshirilgan bo'lsa, boshqa zarur mollar narxi 400–500 foizga ko'tarildi. Non narxi esa 6 barobar oshdi³. Chayqovchilik avj oldi. Sudxo'rlik kuchaydi.

Oziq-ovqat ta'minotining qiyinlashuvi sababli Turkistonda mehnatkashlarning noroziligi kuchaydi. Narx-navoning oshishi yirik yer egalari, kapitalistlar, savdogarlar va chayqovchilarga qo'l keldi. Natijada ular katta foyda ko'ra boshladilar.

Mustamlakachilar Turkistondan urush yillari 59 million pud paxta, 8,5 million pud paxta yog'i, 950 ming pud pilla, 2925 ming pud teri, 300 ming pud go'sht, 229 ming pud sovun, 474 ming pud baliq olib ketishdi. Frontga aholidan 70 ming ot, 12 ming tuya, 38 ming kvadrat metr gilam-namatlar, 2400 ming rubl naqd pul yig'ib oldilar.

¹ *Кастельская З.Д.* Восстание 1916 года в Узбекистане, стр. 30.

² O'sha joyda.

³ O'zR MDA, 461-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1676-ish, 2-varaq.

Xuddi shu davrda guruch, go'sht, qand, poyafzal va gazlama narxi bir necha marta ko'tarilib, dehqonu hunarmand va ishchi ro'zg'orini mushkul holga soldi. Aynan shu sharoitda podshohning bu oilalarni boquvchisiz qoldiradigan mardikorlikka safarbarlik haqidagi farmoni xalq sabr kosasini to'ldirgan so'nggi tomchi bo'ldi.

Chor Rossiyasi qo'mondonligi o'zining Germaniya va Turkiyaga qarshi urushidagi no'noqligi, uquvsizligi tufayli o'rinsiz qurbonlar berib, Rossiyaning urushga taraddudi puxta bo'lmaganini ko'rsatdi. Buning ustiga og'ir iqtisodiy ahvol, qurol-yarog'ning yetishmasligi armiyaning kayfiyatiga yomon ta'sir ko'rsatib, qismlarda inqilobiy firqalar faoliyati kuchaydi. Front orqasi ham armiya uchun tayanch bo'lolmaydigan ahvolda edi. Bu yerda ham urushdan norozilik kuchayib, rus «ayollarining g'alayonlari» ko'payib ketayotgan edi. Do'ppisi tor kelib qolgan qo'mondonlik urush og'irligini mustamlakalar yelkasiga ortib, ularni ayovsiz ezish siyosatiga o'tdi. Oliy Bosh qo'mondon shtabi «armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratish»ni harbiy vazirlikdan zudlik bilan talab qildi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to'plashga qaror qildi. Imperator Nikolay II imzo chekkan va 1916 yil 25 iyun kuni e'lon qilingan «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida»¹ farmonga ko'ra Turkiston, Sibir va Kavkaz xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni safarbor qilishni ko'zlagan edi. Lekin farmonning bunday tarzda Turkiston o'lkasiga mutlaqo tatbiq etib bo'lmasligini tajribali podshoh amaldori, sobiq harbiy vazir A. N. Kuropatkin ham tushungan edi. U vazir yordamchisi general Frolovga Rossiyada ikki yildan beri davom etib, nihoyasi ko'rinmagan bu tadbimi, ya'ni urushga 19–43 yoshli aholini safarbar qilish masalasi hal bo'lmagan holda uni chekka o'lkalarga tatbiq etish noo'rinligini ko'rsatgani bejiz emas.

¹ Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. Сборник архивных документов. М, 1960, с.25. Bu to'plamni bir guruh laganbardor tarixchilar tayyorlab, qo'zg'alongning asl mohiyatini soxtalashtirib, buzib talqin qilishga va unga diniy tus berishga uringanlar. Mazkur to'plamda Turkiston general-gubernatori arxividan olingan 508 ta e'lon qilinmagan hujjatlar berilgan. Ammo bu qo'zg'alongning tub mohiyatini ochib beruvchi bir qator hujjatlar to'plamga atayin kiritilmagan. Bu mavzu H. Ziyoev asarlarida batafsil yoritilgan. Q a r a n g: Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T, «Sharq», 1998; Shu muallif. Istiqloq – ma'naviyat negizi. T., «Ma'naviyat», 1999.

Turkiston general-gubernatoriga Farmonni tezlikda amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 88 ming, Farg'onaga 50 ming mardikor yuborish vazifasi yuklatildi. Farg'ona viloyati boshqalarga qaraganda ancha yengil majburiyat oldi – har besh xonadondan bir mardikor beradigan bo'ldi. Bunday imtiyozning sababi shunda ediki, vodiy rus to'qimachilik sanoati uchun boy xom ashyo makoni bo'lib, u bilan yirik rus sanoatchilari manfaati bog'liq edi. Farg'onadan ko'p ishchi kuchining safarbar qilinishi rus sanoatchilari uchun zarur paxta tolasining kamayib ketishi va mustamlakadan olinuvchi ustama foydaning pasayib ketishi demak edi. Paxta yakkahokimligi o'z kuchini 1916 yil 2 iyuldagi Toshkentda bo'lib o'tgan oliy amaldorlar kengashida ham ko'rsatdi. Gubernatorlar va metropoliya vakillari kengashida Sankt-Peterburgda belgilab qo'yilgan paxta tayyorlash rejasini bajarish uchun zarur ishchi qo'llar miqdorini saqlab qolish masalasi birinchi o'ringa qo'yildi. Paxta ekini maydonlarining 50 foizini tashkil qilgan rayonlarda belgilangan mardikorlarning oltidan bir qismi, 25 foizini tashkil etgan joylarda 50 foizi olinadigan bo'ldi.

Farg'ona viloyatining paxta yetishtiruvchi Qo'qon, Namangan, Andijon va Marg'ilon uездlarining 86 volostidan 54 tasida paxta uchun ajratilgan yer maydoni 50 va undan ko'p foizni tashkil etganligi hisobga olinsa, viloyatning paxta yetishtiruvchi volostlarining yarmidan ko'pi uchun ancha qulay sharoitlar yaratilganligi ma'lum bo'ladi. Bu volostlarda urush orti xizmatiga jalb qilinishi lozim bo'lgan ishchilar soni, bir so'z bilan aytganda, Turkistonning boshqa viloyatlariga nisbatan 6 barobar kamaytirildi va shu haqda qaror chiqarildi. Ammo farmon ijrosi mustamlaka tuzumining oliy bo'g'inidan tortib quyi pog'onasigacha yaramas ekanligini ko'rsatdi. Ellik yil davomida chorizm istibdodining asosi bo'sh ekanligini isbotladi. O'lka ma'muriyati ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot talablariga javob berolmasligi, unga to'g'anoq bo'lib qolganini ro'y-rost namoyish qildi. Mardikorlar ro'yxatini tuzishda quyi ma'muriyatning o'zboshimchaligi va Farg'ona viloyat harbiy gubernatori general Aleksandr Gippiusning vazifasidan chetlatilishi ana shu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. O'lkada 40 yildan ziyod xizmati bilan quyi ma'murlikdan Samarqand harbiy gubernatori lavozimiga ko'tarilgan N.S.Likoshin ham rus hokimiyati vakillarining noqobilligini shunday ta'riflagan: «Norozilik harakati ko'tarila bordi, goh u yer, goh bu yerda ur-yiqitlar va o'ldirishlar sodir bo'ldi. Mahalliy amaldorlarning tushuntirishlari va ogohlantirishlari xalqqa ta'sir qilmadi. Ma'murlarning so'zlariga xalqning mutlaqo ishonchi qolmadi». Podshoh farmoni e'lon

qilinmasdan oldin Andijonda mustamlakachi ma'murlar xalqni aldab, sizlarning o'g'illaringizni frontga olmaymiz, shu bois armiyani qo'llab, unga otlar va boshqa kerakli narsalar bilan yordam bersangiz bo'ladi, deb aldagani va birovg'a ishongan aholi front uchun ko'pdanko'p moddiy sarf-xarajatlar qilgani ham ma'lum bo'ladi¹.

Farg'onada 10 yildan beri gubernatorlik qilib kelayotgan general-leytenant A.Gippiusning esa «xalq ishonchini qozonish» va «podshoh amrini tinch yo'l bilan bajarish» uchun qilgan barcha harakatlari zoe ketdi. Rossiya imperiyasi uchun bu boy mustamlakani saqlab qolishga uringan tadbirkor generalni markaz tushunishga qodir bo'lmadi. Mustamlaka siyosatini nozik qo'llash tarafdori bo'lgan A.Gippius maslaqdoshi general N.Likoshinga 8 iyulda yo'llagan maktubida safarbarlik ishlari «hozircha osoyishta kechmoqda»² deganida Farg'onada chinakam ish boshlanmagan edi. Gippius 15 iyulda «Farg'ona viloyat vedomosti»da podshoh farmoni bilan barobar aholiga o'zining murojaatini ham e'lon qildi. Bu murojaat namoyish tarzida arab imlosida, o'zbek tilida berildi. Unda gubernator mardikorlar davlat tomonidan to'la-to'kis ta'minlanishi, odamlar o'zlari o'rniga boshqa odam yollab yuborishlari ham mumkinligini aytgan. U Toshkentga quyidagicha iltimosnoma yubordi: 1) temir yo'lni qo'riqlash uchun ming askar va rus posyolkalarini har ehtimolga qarshi himoya qilish uchun bir drujina yuborish; 2) jabha, pristavlari ixtiyoriga 600 kazak jo'natish; 3) viloyatni harbiy holatda deb e'lon qilish; 4) harbiy gubernatorga bosh qo'mondon huquqini berish.

Safarbarlik to'g'risidagi farmonning e'lon qilinishi aholi o'rtasida qonli voqealarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. 1916 yil 10 iyulga kelib, Eski Marg'ilon, Qo'qon, Namangan, Andijon, Chust va boshqa joylarda katta g'alayonlar sodir bo'ldi. 11 iyuldan 15 iyulgacha Farg'ona viloyatining turli joylarida safarbarlikka qarshi oshkora talablar bilan chiqishlar bo'lib o'tdi. Gippius joylarda aholining g'alayonlari haqidagi xabarlariga asoslanib, general-gubernatorga «xalq g'alayoni nima sababdan kelib chiqishidan qat'i nazar, u o'z taraqqiyoti davomida diniy va siyosiy zaminga ko'chishi xavfi bor»³, deb uni ogohlantiradi. U 17 iyulda ro'za tugab, 18 iyuldan hayit uch kun davom etilishini eslatgan holda, bu kunlar «to'polon chiqishi uchun juda qulay» ekanligini uqtiradi. Gippius podshoh farmonini aynan Farg'onada qo'llab bo'lmasligini yozadi. U mahalliy shart-

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1100-ish, 84–90-varaqlar.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1135-ish, 285-varaq.

³ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1132-ish, 25-varaq.

sharoitlardan kelib chiqib, podshoh farmoniga «oʻz bilganicha tuzatish va chekinishlar kiritajagini, bundan maqsad yirik tartibsizliklarga yoʻl qoʻymaslikdir», degan mazmundagi telegrammaning bir nusxasini Toshkentga, ikkinchi nusxasini esa Peterburgga, Bosh shtabga yuboradi. Tajribali siyosatchi va tadbirkor general yon bosishlar, qisman chekinishlar va hatto Qurʻoni Karimni ham ishlatish bilan qoʻzgʻalon chiqarmaslikka urinadi. Katta olomonning koʻz oʻngida gubernator boshiga salla oʻrab, yelkasiga toʻn tashlab, Qurʻondan suralar oʻqiydi. Lekin, har qanday urinishlar tugal natijaga olib kelmasligiga koʻzi yetgach, oxirgi chorani qoʻllaydi. Vaqtdan yutish maqsadida u 27 iyulda podshoh farmoni ijrosini toʻxtatib turish haqida koʻrsatma beradi. Bunday dadil va qaltis ishni asoslab, gubernator zoʻravonlik ishlatilsa, «siyonga doim moyil» va «hamisha gʻazovot ruhi ufurib turadigan» Fargʻonada aholi qisman togʻlarga chiqib ketishiga, qisman qaroqchilar toʻdasiga qoʻshilib ketishiga, asosan esa diniy va siyosiy shior ostida ochiqchasiga koʻtarilib ketishiga urgʻu beradi. Gippius oliy qoʻmondonlikka Turkiston rus davlati uchun qudrat manbai boʻlib qolishi maqsadida shunday qilingani maʼqulligini aytadi¹. Ammo markaz uning dalillarini qabul qilmay, hatto farmonni buzishda va musulmonlarga yon bosishda ayblab vazifasidan boʻshatadi². Uning oʻrniga oʻtaketgan shovinist, kaltadum polkovnik P.Ivanov tayinlanadi. U tabiiy ravishda tezlik bilan farmonni bajarish hamda ochiqdan-ochiq harbiy jazolar qoʻllashga kirishadi.

1916 yil 4 iyulda birinchi boʻlib Xoʻjand xalqi qoʻzgʻalon koʻrtardi. 7 ming kishilik olomon polisiya boshqarmasiga hujum qildi, lekin zudlik bilan qalʼadan yetib kelgan chor askarlari hamda polisiyachilar ularni oʻqqa tutdilar. Ikki kishi oʻlib, bir odam yarador boʻldi. Oʻsha kuni Xoʻjand tumaniga qarashli Koʻstakoʻz qishlogʻida odamlar mingboshi hovlisiga bostirib kirib, uni doʻpposladilar. Xoʻjand bilan bir vaqtda Samarqand, Jizzax va Kattaqoʻrgʻon tumanlarida ham gʻalayonlar boshlandi. Ayniqsa, 1905–1907 yillarda dehqonlar harakati koʻtarilgan Dahbed volostida voqealar birmuncha jiddiy tus oldi. Bir necha ming kishilik dehqonlarga ilgʻor oʻzbek ziyolisi Usmon Abdurasulov boshchilik qildi. Ular mingboshi Haydar Qosimjonov va uning mirzasi Qobulovni toshboʻron qilishdi. Millatparvarlik tuygʻusi kuchli boʻlgan jadidlar vakili Usmon Abdurasulov mukammal qurollangan chor askarlari bilan olishuvda 30 ga yaqin maslakdoshlari bilan asir olindi. Qaynar volostiga qarashli

¹ Oʻsha arxiv, 1211-ish, 5–9-varaqlar.

² Oʻsha arxiv, 1132-ish, 206-varaq.

Afg'on qishlog'ida olomon mardikorlar ro'yxatini tuzgan ellikboshi va oqsoqollarni kaltakladi. Qo'zg'alonni bostirishga shaxsan Qo'qon tumani boshlig'i yordamchisi podpolkovnik A.Kitaev yetib keldi. 10 kishi hibsga olinib, qamoqqa jo'natildi. Xuddi o'sha 8 iyul kuni Naymanchada asosan ayollardan iborat olomon podpolkovnik Kitaevni toshbo'ron qildilar. 9 iyuldagi axborotda Aravon bo'lisida mingboshi, uning mirzasi va mirshabi o'ldirilgani, Andijon shahrida esa madrasadan chiqqan talabalar to'planishgani va askarlar bilan to'qnashuvda ulardan 10 kishi yaralangani xabar qilingan¹. Naymanchadagi qo'zg'alonda mingboshi o'ldirilib, askarlar bilan to'qnashuvda 316 kishi hibsga olingan².

Qo'qon tumanboshisi polkovnik K.Medinskiy Ganjiravon qishlog'ida oqsoqolning uyini va mardikorlar ro'yxatini yoqib yuborgan qo'zg'alonchilardan 139 kishini Qo'qon turmasiga jo'natdi³. Xuddi shu 9 iyul kuni Qo'qon madrasasi talabarlari mirshablar bilan to'qnashib, ulardan 22 kishi yaralandi. 11 iyulda esa Choparguzar dahasida aholining polisiya bilan to'qnashuvida 130 kishi qamoqqa olindi. K.Medinskiy Qo'qon shahar noibi IV Davlat Dumasining sobiq a'zosi Solihjon Muhammadjonovni o'z uyiga chaqirib, uni Davlat Dumasida Turkistonni idora etish haqidagi Nizomning 4-bandini oldirib tashlashga erishganlikda ayblab, yomon so'zlar bilan haqoratlab, mana endi senga o'sha 4-bandni ko'rsatib qo'yamiz, deb tazyiq o'tkazdiki, bu ham qo'zg'alonning yangidan avj olishiga sabab bo'ldi⁴. 12–15 iyul kunlari Fayziobod, Hazratsho, Rishton, Kundosh, Yaypan, Bachkir qishloqlarida aholining juda katta g'alayonlari bo'lib o'tdi. Qisqasi, 1916 yilning iyulida Qo'qon tumanining barcha qishloqlarini qamrab olgan qo'zg'alon butun vodiya yoyildi. Mustamlaka ma'muriyati bergan ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona viloyatining 17 joyida aholining harbiy qismlar bilan qonli to'qnashuvi bo'lib o'tgan. 9 iyul kuni Andijonda ham odamlar qo'zg'aldi. Mahalliy amaldorlarni do'pposlagan ulkan olomon eski shahardan yangisiga – Skobelev nomli katta ko'cha orqali yo'l oldi. Andijonliklar 1898 yildagi voqealarni unutmagan, intiqom o'ti endi baralla alanga olgan edi. Ular Gultepa maydonida tumanboshi I. Brjeziskiy bilan uchrashishadi. U kazaklar va polisiyachilar qursho-vida turib, olomonning talablarini eshitib, kazaklarga ularni o'qqa

¹ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1132-ish, 4-varaq.

² O'sha arxiv, 906-ish, 47-varaq.

³ O'sha joyda.

⁴ O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31-ish, 43-varaq.

tutishni buyuradi. Natijada 3 kishi halok bo‘lib, 12 kishi yarador bo‘ladi¹.

Andijon uezdi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi 1916 yil 27 sentyabrda Turkiston rayon muhofaza bo‘limi boshlig‘iga yo‘llagan xatida 9–16 iyul kunlaridagi qo‘zg‘alon tafsilotini bayon qilgan².

9 iyul kuni Andijon shahrining 2-qismida Gultepa maydonidagi «tuzemeslar olomoni» amalga oshirgan tartibsizliklarni bostirish chog‘ida alohida Urol kazak yuzligidan Kuntaev boshiga tosh tegib jarohat ko‘rdi. «..tuzemeslar»dan 3 kishi o‘ldi, 8 kishi yarador bo‘ldi. Qo‘zg‘alon boshliqlaridan 22 kishi ushlandi, tergov organiga topshirildi. 10 iyulda Oltinko‘l bo‘lisiga qarashli Dalvarzin qishlog‘ida qo‘zg‘alonchilar bo‘lis boshlig‘i Mulla Hakimbek Mulla Ro‘zibekov va uning hamrohlari (Temirboy Pamg‘ambarqulov, Karimjon Abdurahob Xo‘jaev)ni o‘ldirdilar. Qo‘zg‘alon boshliklaridan 32 kishi ushlanib qamoqxonaga topshirildi³.

11 iyulda Maygir bo‘lisining Chuvama qishlog‘ida ko‘tarilgan qo‘zg‘alonda xalq Chuvama ellikboshisi Qipchoqboy Boymirzaevni o‘ldirdi. Qo‘zg‘alon rahbarlaridan 16 kishi hibsga olinib, tergovga berildi.

12 iyulda Baliqchi bo‘lisidagi Xolmurod-Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida qishloq oqsoqoli Eson Ali Rahimqulov o‘ldirilib, qo‘zg‘alon tashkilotchilaridan 2 kishi qamoqqa olingan. Xuddi shunday qo‘zg‘alon «tuzemeslar olomoni» tomonidan Yorboshi bo‘lisidagi Bekobod qishlog‘ida, Sultonobod jabhasidagi So‘fi qishloq, Norin bo‘lisidagi Cho‘ja qishlog‘ida bo‘lib o‘tdi⁴. Andijon tumanining Kapa, Hindimozor, Qo‘tarma, Eylaton, Mirobod, Xo‘jaobod (Baliqchi bo‘lisidagi), Urmonbek qishloqlarida qo‘zg‘alonlar ham bo‘lib o‘tdi. Qo‘zg‘alon qatnashchilaridan talaygina qismi hibsga olindi.

10 iyulda Marg‘ilon xalqi kurashga qo‘zg‘aladi. Shahar markazida joylashgan O‘rdada 25 ming kishilik olomon polismeyster P.Paxotin, mingboshilardan Mahmudbek Shaxrixonov, Mavlonbek Badalboevni qurshab oladi. Polismeysterga gapirishga ham imkon bermay, oyog‘i tagidagi taxtani urib sindirishadi. O‘shanda mingboshilar, bosh mirshab va ularning to‘rthamrohi urib o‘ldiriladi. Qo‘zg‘alonchilar kino uyini ostin-ustun qilib, podshoh suratini yerga urib toptaydilar. Chinnixon Ibrohimova bosh bo‘lgan ayollar Iso

¹ O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 31-ish, 42-varaq.

² O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 31-ro‘yxat, 1100-ish, 275–276-varaqlar.

³ O‘sha joyda.

⁴ O‘sha joyda.

ellikboshini o'ldirishadi. Erkaklar dehqon Yo'ldosh Oxunboboev boshchiligida mingboshi idorasini yondirishadi. Qo'zg'alonchilarga qarshiyuborilgan 6-Orenburg polki kazaklari 63 kishini o'ldirib, yuzlab odamlarni hibsga oladilar.

11 iyulda Namanganda ko'tarilgan qo'zg'alon ham jiddiy tus oldi. Shu kuni ertalab Labbaytog'a dahasining Kurashxona maydonida 1500 dan ortiq kishi to'plandi. Pristav V. Dombrovskiy va tuman-uezd boshlig'i vazifasini bajaruvchi kapitan Rumyansev: «Safarbarlikka chaqirish bekor qilingan», deb, xalqni aldamoqchi bo'lganda, ular yozma tilxat berishini talab qilishdi. Ularga qarshi kuchli qurollangan rota tashlandi. Pulemyotlar bilan qurollangan chor askarlari rotasidan qo'rqmay jang qilganlardan 56 odam halok bo'lib, 109 kishi yarador qilindi.

Tadqiqotchilarning hisobiga ko'ra, Farg'ona vodiysida mahalliy ma'muriyat vakillaridan 34 kishi qo'zg'alonchilar tomonidan o'ldirilgan. Milliy-ozodlik qo'zg'aloni alangasi o'lka markazi Toshkentni ham o'z girdobiga tortdi. 11 iyulda shaharda ko'tarilgan qo'zg'alon qatnashchisi Yo'lchi Ibrohimov o'z xotirasida shunday voqeani keltiradi: «Biz Jarariqdagi boylarning zavodlarida kun-tun tinmay ishlar edik. Mardikor olish so'zini eshitib, 19 korxonaning ishchilari qo'zg'alon qilishga tayyorgarlik ko'rishdi. Qo'zg'alon kuni ertalab Olmazordagi polisiya idorasiga to'plana boshladi. Men vaqtiliq borib ahvolni bilmogchi bo'ldim. Eshik oldida 4-daha pristavi Mochalovga tupa-tuzuk kiyingan bir chol ta'zim qilib turibdi. Chol Mochalovga xalq qo'zg'alon qilib kelayotganini aytdi. Bilsam, bu chol mashhur G'iyosqori duma – Ibrohim hojilar tomonidan yuborilgan josus ekan. Shu paytda qo'zg'alon ko'targan olomon ham kelib qoldi». Qo'zg'alonchilar qamchisidan qon tomgan, o'zbek ayollari, bolalarini uning nomi bilan qo'rqitadigan Mochalovdan ham hayiqmay u bosh bo'lgan polisiyachilarga hujum qilgani, yordamga yetib kelgan podpolkovnik Saviskiy qo'mondonligidagi praporshchiklar rotasiga qarshi jang qilgani va ularning safida Ro'zvonbibi Ahmadjonova kabi fidokor ayollar ham bo'lganining o'zi, Toshkent qo'zg'aloni ommaviy tus olganini ko'rsatdi¹. Qo'zg'alonchilar: «Ishchilarimizni bergandan ko'ra, o'lganimiz yaxshiroq!», – degan qiyqiriqlar ostida ro'yxatni yirtib tashlash uchun polisiya binosiga bostirib kirishdi va Boshqarma binosining derazalarini toshbo'ron qilishdi. Shunda pristav Mochalov xalqqa qarata o't ochishga buyruq berdi. Bundan g'azablangan Ro'zvonbibi Ahmadjonova yuzidagi chachvonni olib

¹ Sodiqov H. Arafa. «Guliston», 1976 yil, 7-son, 9-bet.

tashlab: «Nega yoshlarni o'ldiryapsizlar? Meni o'ldiringlar, ammo farzandlarimizni sizlarga bermaymiz», – deb qichqirdi. Pristav Mochalov o'z qo'li bilan bu ayolni ham otib tashladi.

Shu paytda xotinlarning qo'zg'alonda qatnashayotganligini qoralagan Obid usta Azizxo'jaev kaltaklanadi. Bu kishi shahar kasalxonasida o'lgan. Prokuror aybnomasida bu haqda shunday deyilgan: «Marhum Obid usta Azizxo'jaevning ukasi 11 iyul kuni kechqurun kasalxonaga borganda akasi jon berishdan oldin shunday deydi: «Men polisiya boshqarmasining tagida turib, shovqin-suron ko'tarish va toshbo'ron qilish, erkaklar turganda, xotinlarga munosib emas, dedim. Shu ondayoq kishilar va xotinlar meni ko'chaga sudrab olib chiqishdi. Bu yerda kimlardir biqinimga pichoq urdi»¹.

Xalq g'azabining cheki ko'rinmas edi. Qo'zg'alonga rahbarlik qilganlar orasida G'ulom Kamolov va Ochil Bobojonov kabi quruvchi-ustalar alohida ajralib turishdi. Eski Toshkentda yuz bergan qo'zg'alon Toshkent tumani mehnatkashlarining ham chiqishiga turtki bo'ldi. 13 iyulda To'ytepa bo'lisining mingga yaqin aholisi volost yig'inida mardikorlik majburiyatini bajarishdan bosh tortdilar. Toshkent tumaniga yuborilgan podpolkovnik Afanasevning jazo otryadi qishloqlarga o't qo'ydi, isyonchilarni esa sud va tergovsiz otib tashladi.

Mustamlakachilar voqealarning bunday borishidan tashvishga tushib qoldilar. 1916 yil 17 iyulda Nikolay II ning farmoni bilan Turkiston harbiy okrugida harbiy holat joriy etilib, fuqarolik boshqaruvi to'la ravishda harbiy qo'mondonlik ixtiyoriga topshirildi. General-gubernatorga ham bosh qo'mondon sifatida katta vakolatlar berildi. Tezlik bilan jazo otryadlari tuzildi. Joylarda harbiy garnizonlar va mirshablik qismlari ishlarini ko'rib chiqish uchun harbiy-dala sudlari tashkil etildi. Ammo qo'zg'alon alangasini bunday favqulodda choralar ham to'xtata olmadi. Qo'zg'alon 18 iyulda Jizzaxda shu qadar katta bo'ldiki, tarixchilar 1916 yilgi qo'zg'alonni Jizzax qo'zg'aloni deb ataydigan bo'lib qoldilar.

Jizzax xalqi g'azovot bayrog'i ostida Nazirxo'ja eshon boshchiligida yangi shaharga yo'l olishdi. Tumanboshi podpolkovnik Rukin, bosh oqsoqol Yo'ldoshev, pristav, tilmochlar o'ldirildi. Qo'zg'alonchilar jazo otryadi bilan jangga kirishib, talafotlarga qaramay, hujumni davom ettirishdi. Temir yo'l stansiyalaridagi neft zaxiralari yondirildi, aloqa simlari uzib tashlandi. Obruchev, Kuropatkino, Ros-

¹ *Ziyoev Hamid*. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash, 407-bet.

tovsevo stansiyalari, 6-temir yo‘l ko‘prigi buzib tashlandi. 3 mingdan ortiq qo‘zg‘alonchi Samarqand sari yo‘l oldi. Duch kelgan mingboshilar, oqsoqolu mirshablar o‘ldirilib, mardikorlar ro‘yxatlari yoqib yuborildi. Podpolkovnik Afanasevning jazo otryadi tumandagi qo‘zg‘alonni bostira olmadi. Turkiston general-gubernatori Jizzaxga 13 rota askar, 3 rota kazaklar, 3 rota sapyorlar, 6 to‘pli batareya-hammasi bo‘lib, 2,5 ming kishilik jazo otryadini yubordi. O‘lka bo‘ylab, xalqqa qarshi urush tajribasini orttirgan malakali harbiylardan jami 15 batalon, 42 to‘p, 69 pulemyotga ega 32 rota jang boshladi. Bu Antanta ittifoqida Germaniya – Avstro-Vengriya va Turkiyaga qarshi jang qilayotgan rus armiyasi uchun ikkinchi front bo‘ldi. Shuning uchun ham 1916 yil 13 dekabrda IV Davlat Dumasida so‘zga chiqqan noib A.F.Kerenskiy «Urush frontlariga yangi bir front – Turkiston fronti qo‘shildi» deb vaziyatga jiddiy baho bergan edi¹.

1916 yili Jizzax tumanining Qilich qishlog‘ida jazo otryadi va qo‘zg‘alonchilar o‘rtasida so‘nggi bor to‘qnashuv yuz berdi. «Ayovsiz qirish»ga farmoni oliy olgan polkovnik Ivanov odamlarni sud va so‘roqsiz otaboshladi, yuzlab kishilarni dorga osdi.

Eski Jizzax ayovsiz to‘pga tutilib, butunlay yondirib tashlandi. Jizzahda rus askarlarini o‘ldirgani uchun mahalliy aholining 1810 desyatina eng hosildor yeri tortib olindi. Mingdan ortiq kishi qamoqqa olinib, ularning ko‘pi qatl etildi va surgun qilindi. «Qahramonliklari» evaziga polkovnik P.Ivanov Farg‘ona harbiy gubernatori lavozimiga ko‘tarildi.

General-gubernator imperatorga yo‘llagan mutlaqo maxfiy axborotida qo‘zg‘alon paytida 97 rus askari o‘ldirilib, 86 tasi yarador bo‘lgani va 76 askar bedarak ketgani, 7 rus amaldori, rus aholisidan 2326 kishi o‘ldirilib, 1384 kishi bedarak yo‘qolganini yozgan². Ammo general-gubernator Turkistonda ko‘rgan talafotini aniq yozgani holda, vahshiyona o‘ldirilgan o‘n minglab mahalliy aholi hisobini bermaydi. Ammo u bir haqiqatni yashirmaydi. So‘nggi 30 yil mobaynida, ya‘ni «Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom» tasdiqlanib, kuchga kirgan 1886 yildan 1916 yilga qadar ruslar o‘troq mahalliy aholiga yaqinlashish o‘rniga undan uzoqlashib ketganini e‘tirof qildi. Aslida «Mardikorlar qo‘zg‘aloni» deb atalmish 1916 yildagi milliy-ozodlik qo‘zg‘alonida qurbonlar benihoya katta bo‘lgan, milliondan ziyod kishi halok bo‘lgan. Turkiston ahrlisidan 673 ming kishi

¹ Sodiqov H. Arafa. «Guliston», 1976 yil 7-SON, 10- 11-betlar. Bo‘lg‘usi Vaqtlil hukumat raisining bu e‘tirofi 1916 yilgi qo‘zg‘alonning ulkan ko‘lami va tarixiy ahamiyatidan darak beradi.

² Красный архив. Т. XXIV, 1929, стр. 85–86.

o'ldirilgan, 300 mingdan ortiq aholi xorijga chiqib ketgan, 1 million kishining mol-mulki talon-toroj qilingan, aholidagi otlarning 50 foizi, sigirlarning 39 foizi, tuyalarning 55 foizi, qo'y va echkilarning 50 foizi o'lgan va musodara qilingan¹. O'lka aholisi keskin kamayib ketdi. Aholi tarkibida ruslar, rusiy zabonlarning kamayishi ularning frontga olinishi va Rossiyaga ko'chib ketishi bilan ifodalansa, tub joy aholisining kamayishi asosan 1916 yilgi ommaviy qirg'in, ochlik va xorijiy mamlakatlarga chiqib ketganliklari bilan ifodalanadi.

Qo'zg'alonda qoraqalpoqlar ham faol ishtirok etdilar. 1916 yil 24 iyulda Sho'rxon jabhasi To'rtko'l bo'limi Saxtian jamoasi ayollari bo'lis boshqaruvchisi Qozoqboy Abdikarimboevdan front orqasi ishchilarining ro'yxatini va o'z erlarini va o'g'illarini mardikorlikdan ozod qilishni talab qilib chiqdilar. Bunday chiqish 26 iyulda Xo'jaer jamoasida ham yuz berdi. Bo'lisning barcha qishloqlaridan 200–300 ayol o'z bolalari bilan To'rtko'lga kelib, soldatlarga tashlandilar. Kazak soqchi komandasi ayollarni tarqatib yubordi va ulardan bir nechtasini qamoqqa oldi².

1916 yil 29 iyulda Saribiy bo'lisi aholisi (1 ming odam chamasi, ichida ko'pgina ayollar bor) bolta, pichoq, kaltaklar bilan qurollanib, Sho'rxon uchastkasi Saribiy bo'lislik boshqarmasiga yo'l oddi. Aholining talablariga bo'lis boshqaruvchisi qo'rs javob beradi. G'azablangan xalq Saribiy bo'lis boshqaruvchisi Sodiq Boyakov va unga qarashli uchta oqsoqolni o'ldiradi. Shundan so'ng ular Amudaryo bo'limi boshlig'iga o'z talablarini bildirish maqsadida Petroaleksandrovska yo'l oladi, lekin isyonni bostirish uchun soldatlarning kelib yetganini eshitgan qo'zg'alonchilar uylariga tarqalib ketadi. Bo'riboy Salmanov, Olloniyoz Xudoynazarov, Davlet Eshimbetov, Jabbor Qo'shiq, Sulton Jabborberganovlar qo'zg'alonning faol qatnashchilari edi. Avez To'ti Orazbeygamovanning nomi hanuz xalq xotirasida.

Sho'rxon jabhasi boshqa bo'limlarida ham g'alayonlar bo'lib o'tdi. 1916 yil 29 iyulda To'rtko'l bo'lisi Saxtian, Xo'jaer va To'rtko'l jamoalari aholisi bo'lis yig'iniga qatnashishdan bosh tortib, bo'lis boshqaruvchisiga vakillarini jo'natishadi. O'zlarining talablarini qondirishga erisholmagan isyonchilar bo'lis boshqaruvchisi idorasini ag'dar-to'ntar qiladi va otliq askarlar kazarmasidan soldatlar yetib kelgandan so'nggina orqaga qaytadi.

¹ *Yorqin Ibrohim*. Turkistondagi 1916 yil isyoni haqida ba'zi ma'lumotlar. «Turk madaniyati». Anqara, 1968 yil, 68-son.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1137-ish, 201-varaq.

Chimboy jabhasi Beshyab bo'lishi aholisi ham qo'zg'alon domiga tortildi. 1916 yil 27 iyulda ularga Eshim volostining birinchi va ikkinchi ovullari, keyin Yangibozor va Nukus bo'lishlari, 29 iyulda esa Chimboy shahri ham qo'shildi.

1916 yil 29 iyul quni Chimboy isyonchilari qo'liga tushgan narsa bilan qurollanib, pristav idorasiga yo'l oladi. Polisiya pristavi xalq arzlariga rad javobini beradi va vakillardan birini yarador qiladi. Darg'azab chimboyliklar pristav idorasiga hujum qilib, podshoh portretini yoqadilar, pristav Makeljanyasni o'ldiradilar va uning yaqinlarini kaltaklaydilar. Ammo isyonchilar kazaklar tomonidan tarqatib yuboriladi. Bu qo'zg'alonda Jumon Mametqulov, Salima mullo Shalimova, Gulzoda Tongirbergenova, Oygul Mambetova, Shamurod Sagatbaev va boshqa ko'plab kishilar faol ishtirok etdi¹.

Chimboy qo'zg'aloni baliqchilar orasida ham kuchli g'alayonlarga sabab bo'ldi. 1916 yil 4 avgustda Mo'ynoqda g'alayonlar boshlandi. Baliqchilar ovchilik xo'jayiniga hujum qildi, uning mol-mulkini yakson qilib, gidrometrik postni egalladi. Mo'ynoq baliqchilari ketidan O'rga ovchiligi baliqchilari ko'tarildi. Mo'ynoq va O'rga baliq ovchiliklarini qo'riqlash uchun 4-Sibir o'qchi polki jo'natildi.

Chor ma'murlari harbiy kuch ishlatibgina qo'zg'alonni bostirishga erishdilar. 103 nafar qo'zg'alon ishtirokchisi, shu jumladan, 18 ayol qamoqxonaga tashlandi. Harbiy tribunal qo'zg'alon rahbarlarining bir qismini osib o'ldirishga, qolganlarini esa Sibirga surgun qilish bilan turli muddatlarga qamoq jazosiga hukm qildi.

Qoraqalpoq eli 1916 yilgi ozodlik harakatida faol qatnashib chor ma'murlarini jiddiy xavf-xatarga soldi². Ma'muriyat tomonidan ko'rilgan jazo choralari qaramay qoraqalpoqlarning mavjud mustamlaka zulmiga qarshi qat'iy kurashi davom etaverdi.

Taraqqiyparvarlar faoliyati. Turkistonning asl farzandlari bo'lmish taraqqiyparvarlar o'zlari uzoq yillar g'oyaviy jihatdan tayyorlagan milliy-ozodlik qo'zg'aloniga g'oyaviy rahbarlik qildilar. Siyosiy razvedka va maxfiy polisiya idoralari hujjatlari shundan guvohlik beradi.

Taraqqiyparvarlarning yetakchilaridan Munavvar qori Abdurashidxonov va Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev og'zaki ma'ruzalaridan tashqari, amalda ham faol bo'lib, mustamlakachilarning kirdikorlarini fosh qildilar. Shuning uchun ham ular maslaqdoshlari bilan shovinistlar qahriga uchradilar.

¹ *To'reev A.* XIX asr oxiri – XX asr boshida Qoraqalpoq o'lkasida dehqonlar harakati. Nukus, 1991, 131-bet.

² *Kamolov S., Sariboev K.* Qoraqalpoqlar. Qo'lyozma. Nukus, 1999, 25–27-betlar.

Bu borada Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev mustamlaka ma‘muriyatini fosh etishda katta xizmat ko‘rsatdi. 1916 yil iyul oyida Andijon jamoatchiligi tomonidan Petrogradga vakil qilib jo‘natilgan Vadim Chaykin va Ubaydullaxo‘ja IV Davlat Dumasida Turkistonda ro‘y bergan voqealarni izohlab berdilar. Shundan so‘ng Davlat Dumasi a‘zolaridan Raevskiy, Vinogradov, Tavakkalov 21 iyul kuni Oliy Bosh qo‘mondonlik qarorgohiga – harbiy vazir nomiga telegramma jo‘natdilar. Telegrammada Turkiston o‘lkasining rus aholisi harbiy majburiyatdan ozod etilgani holda mahalliy aholidan mardikor olish siyosiy va iqtisodiy jihatdan xatarli ekanligi uqtirildi¹.

Nikolay II Turkiston xususida Davlat Dumasi noiblari talabini hisobga olib, o‘lkadan mardikorlikka odam olish muddatini 1916 yil 15 sentyabrgacha kechiktirish haqida farmon chiqarishga majbur bo‘ldi. Imperator G‘arbiy Front qo‘mondoni A.N.Kuropatkinni Turkiston general-gubernatori qilib Toshkentga jo‘natdi. Bu yerda O‘rta Osiyoni istilo etishda qatnashgan, general M.D.Skobelev diviziyasida shtab boshlig‘i bo‘lib xizmat qilgan general-ad‘yutant Kuropatkinning o‘lka bilan yaqin tanishligi hisobga olingan edi.

Tajribali podshoh amaldori xalqqa o‘zini odil hokim sifatida ko‘rsatish uchun qo‘zg‘alonning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan amaldorlarni jazolash, odamlarning shikoyatlarini diqqat bilan tinglashini e‘lon qildi. U o‘zi bilan birga kelgan IV Davlat Dumasi a‘zolari Kerenskiy va Tavakkalov bilan o‘lkani aylanishga chiqdi. Safar davomida general-gubernator nomiga ko‘plab ariza-shikoyatlar tushdi. Davlat Dumasi a‘zolari bilan yaqindan tanish bo‘lgan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev rus tilini yaxshi bilgani uchun bu arizalarni tarjima qilib, general-gubernatorni haqiqiy ahvol bilan tanishtirdi. Arizalarda bayon etilgan faktlar mustamlakachi ma‘murlarning beboshligini yaqqol ko‘rsatar edi.

Ubaydullaxo‘ja mustamlakachilarning joylardagi zo‘ravonligi, poraxo‘rligi va o‘zboshimchaligi haqida ko‘plab material yig‘ib va tahlil etib, advokatga xos zukkolik bilan general-gubernatorga, Davlat Dumasi vakillariga taqdim qildi. Kuropatkin rad etib bo‘lmaydigan dalillar oldida o‘zini usta siyosatchi va demokrat qilib ko‘rsatish uchun qaltis usulni ishlatishga qaror qildi. U Andijon shahar bosh oqsoqoli Shermet Alimqulov va uning rus homiylari bo‘lgan amaldorlarni lavozimlaridan chetlatdi². 1865 yilda bosqinchilarga qarshi mardona jang qilib halok bo‘lgan sarkarda Alimkulning o‘g‘li Shermet mirza

¹ O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 31-ro‘yxat, 1144-ish, 3-varaq.

² O‘zR MDA, 3-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 31-ish, 8–9-varaqlar.

otasiga zid ravishda mustamlakachilarning sodiq malayiga aylangan edi. Odamlarga behad zulm o'tkazib, hokimi mutloq bo'lib olgan Shermatni ham lavozimidan olib tashlanishi katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Bu yerda Kuropatkin bir kesak bilan ikki quyonna urgan edi. Birinchidan, tub joy aholi vakillarining fikri bilan hisoblashuvchi fuqaroparvar ekanligini ko'z-ko'z qilib, afkor omma irodasini o'zida gavdalandirgan jadidlar siyomosida o'ziga tayanch yaratish uchun ularning talabini ham qondirdi. Ikkinchidan, rus demokratiyasining ham ishonchini qozonish maqsadida o'ta shovinist va kaltafahm chor amaldorlarini dadillik bilan ishdan olib tashladi. U Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev va eser Vadim Chaykin Petrogradga Davlat Dumasida mardikorlikka olish masalasida chor amaldorlari yo'l qo'yan adolatsizliklarni mufassal hikoya qilib, ma'lum fikr tug'dirganini ham hisobga oldi. Ubaydullaxo'ja Dumada hatto mardikorlikka olish haqidagi imperator farmonini bekor qildirish talabini qo'ygani – bu o'zbek advokati orqasida jiddiy kuchlar turganidan darak bergan. Mana shu kuchlar ichida andijonlik millioner Ahmadbek Hoji Temirbekov, Mirkomilboy Mirmo'minboevlardek g'oyat nufuzli milliy burjuaziya vakillari turganini, xuddi shu burjuaziya jadidlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlayotganini yaxshi bilgan. Shuning uchun ham u o'lka bo'ylab qilgan safarida Ubaydullaxo'jani mulozimlari qatorida olib yurdi. O'zbeklar bilan aloqada unga ishonchli vakil sifatida qaradi. Mardikorlikka olish masalasida jadidlar bilan maslahatda ish ko'rishini ma'lum qildi.

A.N.Kuropatkin bilan birga Turkistonga IV Davlat Dumasi a'zolari A.F.Kerenskiy, K.B.Tavakkalov hamda Sh.Z.Muhammadiyurov, Mustaf Cho'qaevlar ham kelishgan edi. Ular o'lka shaharlarida bo'lishib, mahalliy aholini «tinchitish» choralarini ko'rishga kirishdilar. Ularning Andijondagi faoliyati haqida mahalliy matbuot shunday xabar bergan: «Kecha, 24 avgust kuni, Andijonga Davlat Dumasi a'zolari A.F.Kerenskiy va K.B.Tavakkalovlar kelishdi. Kechki poezd kelishi oldidan deputatlarni kutib olish uchun perronga ko'p odam to'plandi. Deputatlar «Slava Rossii» mehmonxonasida to'xtashdi. Deputatlar bilan Sh.Z. Muhammadiyurov va M.Cho'qaev ham kelishdi»¹.

25 avgust kuni ertalab soat 10 da A. F. Kerenskiy, K. B. Tavakkalov kuzatuvchilar bilan birgalikda, «Slava Rossii» mehmonxonasidan ochiq ekipajda Eski shaharga, Jome' masjidiga qarab yo'l oldilar. Bu yerda ular musulmonlarning vakillari va madrasadagi

¹ «Туркестанский голос», 1916 г., 25 августа.

ma'mur shaxslar tomonidan kutib olindi. Hozir bo'lganlarga o'zlarini tanishtirgach, ularga martabali shaxslar sifatida hurmat ko'rsatildi. Tez orada masjidning ichki hovlisida deputatlar atrofida musulmonlar guruhi to'planishdi. Ular bilan to'satdan uyushtirilgan yig'ilish tashkil bo'ldi. Suhbatda mardikorlikka olish muddati kechiktirilgani haqida gap bordi. K. B. Tavakkalov va uning kotibi tilmochlar vositasida ko'plab erli aholi vakillaridan so'rash yo'li bilan Andijonda iyul kunlarida yuz bergan fojiali voqealar, shu oqibatlariga olib kelgan sabablar, mardikorlikka olish «ixtiyoriy» deb yolg'ondan mardikor oldi nomi ostida qilinayotgan nopok ishlar haqida talaygina ma'lumotlar to'plandi. K. B. Tavakkalov yakunlovchi nutqida aholini barcha masalalarning ijobiy hal qilinishiga ishonitirib, buning uchun ular sabr-toqat bilan, osoyishtalik bilan kutib turishlarini iltimos qildi. A. F. Kerenskiy o'z nutqida Turkistonda hamda Rossiyada mahalliy musulmon aholisi taqdiriga befarq qaramaydigan rus kishilari borligini, yerli aholini avom, olomon deb kamsituvchi, past nazar bilan qarovchilar ham bo'lishi mumkinligini, ammo bunday ahvolga barham berilajagini aytib o'tdi.

«Turkestanский голос» gazetasining 26 avgust sonida keltirilgan yana bir xabar diqqatga sazovordir. Gazeta yozadi: «Davlat Dumasi a'zolari Andijonda ikki kun bo'lganlarida ular huzuriga rus, sarta va tatar jamiyatlaridan ko'plab vakillar tashrif buyurishdi. Taxminiy hisoblarga ko'ra shu qisqa vaqt ichida deputatlar Andijondagi barcha millatlar va turli xil jamoat vakillaridan yuzga yaqin kishilarni so'roq qilganlar. So'roqlar qisman shikoyat, arznoma, talablar shaklida bo'lib, ularning eng dolzarb masalalari Toshkent sud palatasi prokuroriga xabar qilindi, ancha murakkab, jiddiy masalalar esa Davlat Dumasi minbaridan turib, shuningdek, Duma byudjet komissiyasida aytiladigan bo'ldi»¹.

Jadidlar va rus demokratlarining bu xayrli ishi keng jamoatchilik tomonidan qizg'in ma'qullandi. Shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy Vadim Chaykin va Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'ja o'g'lining Petrograd safari va Davlat Dumasi a'zolarini Turkistonga olib kelishini tabriklab shunday misralar bitgan edi:

*«Bu Vatandan ikki o'g'lon tugub ozodu o'kinch,
Tiz bukub shoh qoshida qildi bu holatlari hech.
Yasha Chaykin! Yashasin chun Vatan o'g'li Xo'jayuf!
Yashasin soyasiz ila bar avj yoshlarimiz»².*

¹ Shamsutdinov R. Tarixiy merosimizga bir nazar. Andijon, 1994, 9–11-betlar.

² Hamza. To'la asarlar to'plami. 2-jild. Toshkent, 1988, 65-bet.

Mulohaza uchun ma'lumot

1916 yil qo'zg'alonini keltirib chiqargan sabablarni aniqlash masapasida Rossiya Davlat Dumasi musulmonlar fraksiyasi raisi Qutlug' Muhammad Mirzo bilan A.F.Kerenskiy fikr almashinishib, Rossiyadagi bir qator urush frontlari safiga Turkiston fronti ham qo'shilganini e'tirof qilishgan. A.F.Kerenskiy o'z yurtdoshlarining vahshiyliklaridan voqif bo'lib, vayronaga aylantirilgan shahar va qishloqlarni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Shu bois u so'zda bo'lsa-da, turkistonliklarni yoqlab chiqdi. U 1916 yilning noyabr oyida Turkistonda so'zlagan nutqida Rossiya hukumatini shafqatsizlikda ayblab, hatto Turkistonga o'z hukumatini tuzish huquqini berishni talab qilib chiqdi. Shuningdek, u 1916 yil oxirida Peterburgga tashrif buyurgan To'rg'ay viloyati vakilligiga rus hukumatining va'dalariga ishonmaslikni maslahat berdi. Kerenskiy ana shunday faoliyati bilan turkiy xalqlarning ishonchini qozondi. Shuning uchun ham 1917 yil fevral inqilobi haqida o'lkaga xabar kelganda turkistonliklar A.F.Kerenskiyga tabrik telegrammasi yo'llab, uning yordamida ozodlikka chiqishga umid qildilar. A.F.Kerenskiy hukumati Turkistonda jonajon ruslaridan ko'ra turkistonliklar tomonidan ko'proq olqishlandi. Ammo 1917 yil fevral inqilobidan so'ng vazir, keyin Bosh vazir bo'lgan A.F.Kerenskiy turkistonliklar ishonchini oqlamadi. Bunga bir qator hujjatlar guvohlik beradi.

«O'n uch oydan beri Yettisuv viloyatida qonli voqealar davom etmoqda, – deb yozgan edi turkistonlik Shokir Ernoy. – Bir necha o'n ming musulmon qirg'izlarning yostig'i quritildi. Ularning million-million rubllik mol-mulki talon-toroj etildi. Begunoh qirg'iz bolalari ota-onalari bag'ridan o'g'irlanib, xuddi o'rta asrlardagidek qullikka sotib yuborildi. Ayollar zo'ravonlik qurboni bo'lmoqdalar; din e'tiqodi va millati kamsitilmoqda. Avvalgi tuzumda ham bunaqa zo'ravonliklar jamoatchilik nazaridan chetda qolmasdi. Ammo u paytlarda tilimiz bog'langan edi. Norozilik bildirish yoki kimdandir yordam olish to'g'risida o'ylab ham bo'lmasdi. Ammo hozir ozodlik davri boshlangan, hukumat tepasiga socialistlar kelishgan. Tenglik va birodarlik e'lon qilindi. Qirg'izlar va barcha musulmonlar xon davrida odat tusiga kirib qolgan zo'ravonliklarga chek qo'yiladi, deb umid qilgan edilar. Ammo Yettisuv viloyatida hali hech qanday tartib o'rnatilgani yo'q. Qirg'izlarni kamsitish, o'lim jazosi ta'qiqlanishiga qaramasdan, ularni qatletish davom etmoqda. Xalqni mustamlakachilar zulmidan himoya qilish yo'lida biror qadam tashlangani yo'q. Kerenskiy hukumati u yoqda tursin, boshqa socialistik tashkilotlar ham bu dahshatli holatga chek qo'yish to'g'risida o'ylamayaptilar.

Musulmonlarning telegrammalari va arizalariga e'tibor berilmayapti. Xo'sh, biz endi nima qilishimiz kerak? Shu paytgacha hukumatdan najot kutdik, ammo hukumat tashabbusni qo'lga olishdan bosh tortgandan keyin musulmonlarning o'zlari bu ishga jiddiy kirishishga majburdirlar¹.

* * *

General-gubernator Kuropatkin va Davlat Dumasi a'zolarining taraqqiyparvarlar bilan aloqasi sirini ilg'ab olgan va tushungan siyosiy razvedka rahbari polkovnik M. Volkov xalq ko'ziga yomon ko'rinib qolgan rus amaldorlarining ishdan olinishidan norozi kishilarning «tuzemeslar jilovini qo'ldan chiqardik», degan da'volarini tanqid qilib, «bu fikr o'z mansabini suiiste'mol qilganlarga taaluqli», – deydi va quyidagi g'oyani ilgari suradi: «Joylardagi ma'muriyat bo'ysundirilgan xalqning uchinchi avlodi bilan to'qnash kelmoqda. Bu avlod rus fuqaroligi berayotgan barcha afzalliklar qadrini tushunadi. Ulkan O'rta Osiyo mulklaridagi millatlarning o'zaro madaniy yaqinlashuvi oliy hokimiyat irodasiga bo'ysunmas bir jarayondir. Aybdor amaldorlarni lavozimlaridan chetlashtirish ana shu jarayonga to'siqlarni abadul abad yo'qotgay»².

O'tmishdoshlari Vasilev va Kvisinskiyning kuzatuvlarini izchil davom etgiran polkovnik Volkov jadidlarning nufuzi va xalq orasida tobora oshib borayotgan mavqeidan yaxshi xabardor edi. U TRMB boshlig'i sifatida Mirkomil Mirmo'minboevning katta moddiy mablag'i bilan ta'minlanib, uning bevosita tashabbusi bilan Petrogradga jo'nagan Ubaydullaxo'ja va uning maslakdoshi jurnalist Vadim Chaykinlarning markazda podshoh farmonini kechiktirishga muvaffaq bo'lishgani, o'zlari bilan Turkistondagi qonli voqealarni tekshirishga Davlat Dumasi musulmon fraksiyasi a'zolarini olib kelishgani kelajakda o'lkada jiddiy o'zgarishlar yasashini yaxshi angladi. TRMB agenturasi jadidlar bilan ilg'or rus demokratlari o'rtasida yaqin hamkorlik yuzaga kelganidan ham xabar topgan edi. Bu hamkorlikning zanjiri Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaevga borib ulangan edi. Toshkent, Saratov va Petrograd eserlari davrasida yaqin kishi hisoblangan Ubaydullaxo'janing «Sadoyi Turkiston» gazetasi muharriri sifatidagi faoliyati ham ularga ma'lum edi. Polkovnik Volkov shu gazetada Lev Tolstoyning Ubaydullaxo'jaga yo'llagan yuqorida tilga olingan maktubini ham o'qigan edi. Graf Tolstoyning

¹ Yangi Sharq. Berlin, 1917, 2-jild, 124-bet.

² O'zR MDA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31 -ish.

oddiy o'zbek ziyolisiga bo'lgan e'tibori butun Turkiston jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb etgani maxfiy polisiyaning diqqatini qaratgan edi. «Sadoyi Turkiston» yopilgandan keyin Andijonga kelgan Ubaydullaxo'ja mahalliy jadidlar va rus jurnalistlari bilan yaqinlashib, hukumatga qarshi qaratilgan faoliyatini davom ettirdi.

Polkovnik Volkov Toshkent, Qo'qon va Andijondagi jadidlarining tashkilotlarida o'zbek burjuaziyasidan tashqari, rus savdo-sanoat doiralari vakillari, shular qatorida inqilobiy firqa a'zolari ham borligi haqida xabar topgan edi. Volkov o'z agenturasining yana bir axborotini ham diqqat bilan o'rgandi. Bu axborotda Ubaydullaxo'ja bosh bo'lgan Toshkent jadidlari Andijondagi «Taraqqiyparvarlar» firqasi bilan birlashgani va ularning orasida tumanboshining tilmochlari Sulaymon Kelginboev, Akbarali va Madamin O'rozaliev¹ hamda Ubaydullaxo'janing inisi Bashirulla Xo'jaev muhim rol o'ynashi ko'rsatilib, ular bilan maslakdosh bo'lgan rus jurnalisti Vadim Chaykin hokimiyatga qarshi mahalliy yoshlarni uyushtirayotgani ma'lum qilingan edi. Turkiyaning Gresiya ustidan g'alabasini tilovchi bu maxfiy jamiyatning maqsadi, agentning fikricha, «mahalliy rus hokimiyatini yerga urib qoralash orqali mahalliy xalq o'rtasida obro' qozonishdir»². TRMB maxfiy agenti Mirza Ahmad Qushbegiev esa uni to'ldirib «agar bu jamiyat jazosiz qolaversa, u holda u dahshatli kuchga aylanadi. Xalq ularning qarmog'iga ilinib, jilovini ularga berib qo'yadi», deb o'zbek jadidlari faoliyati to'g'risida batafsil axborot bergan edi.

Bu jamiyatning bosh g'oyasi «yosh turklar»ga taqlid etishdan iborat bo'lgan. Uning a'zolari xalqni siyosiy erkinlikka chiqarishni, rus va mahalliy ma'muriyat zulmidan ozodlikka chiqishni maqsad qilib olganlar. Ularga ruscha va musulmoncha ma'lumotga ega bo'lgan yoshlarning ko'pchiligi xayrixoh edi. Andijon uyezdi boshlig'i polkovnik Yu.A.Brjeziskiy Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga 1916 yil 13 sentyabrdagi raportida: «Hozirda aholi ma'muriyat ovozigaga emas, balki janob Chaykin, Ubaydulla Xo'jaev, Ahmadbek Hoji Temirbekov, Poshshoxo'ja Umarxo'jaev va ular to'dasi ovozigaga quloq osmoqda. Odamlar arz-shikoyatlar bilan ma'muriyat oldiga emas, balki o'shalar huzuriga adolat istab bormoqda. Ma'murlar Toshkent, Andijon va Qo'qon kabi yirik ma'muriy markazlarda

¹ A. O'rozaliev Moskvada Xitoyga diplomatik xizmat safariga jo'nash oldidan 1925 yil 6 iyulda to'ldirgan shaxsiy varaqasining «o'tmishda qanday partiyaga mansub edingiz?» degan savoliga «1914 yildan 1917 yilgacha yosh o'zbeklarning «Ittihad va taraqqiy» yashirin tashkilot a'zosi bo'lganman» deb yozgan.

² O'zR MDA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31 -ish, 68-varaq.

tobora kuchayib borayotgan «Taraqqiyparvarlar» firqasidan juda hayiqib qolishdi», deb yozgan edi¹.

1916 yilning avgustida Turkiston general-gubernatori TRMB ma'lumotlari asosida imperatorning mardikorlikka olish haqidagi farmonini bajarish uchun jadidlarning yordamiga suyanish haqidagi xulosasiga qo'shildi. Shu maqsadda u jadidlar yetakchisi Ubaydullaxo'janing talabini qondirib, Andijon tumanboshisini lavozimidan chetlatdi. Mardikorlikka olishda barcha ishlarni jadidlar rahbarlik qiluvchi «tuzem qo'mitasi» ixtiyoriga topshirdi. Toshkentdagi «Tuzem qo'mitasi» raisligiga Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaevni, uning muovinligiga esa Munavvar qori Abdurashidxonovni tayinladi.

Kuropatkinning jadidlarga ko'rsatgan bunday ishonchi tagida yotgan yashirin maqsadni anglamagan shovinistlar nihoyatda darg'azab bo'lishdi. Ularni ayniqsa Ubaydullaxo'janing «Turkestanskiy golos» gazetasida bosilgan «Rus imperator jug'rofiya jamiyati» majlisida qilgan ma'ruzasidagi «rus xalqi bizlarni o'g'irlik va jinoyatga o'rgatdi», degan so'zlari junbushga keltirgan edi. Shunday odamni general-gubernator mas'ul lavozimga tayinlashi shovinistlar g'azabini nihoyatda kuchaytirib yubordi. Polkovnik I.Brjeziskiy maslakdosh do'sti, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori vazifasini bajaruvchi polkovnik Ivanovga yuborgan xatida shunday degan: «Tuzemeslar so'nggi vaqtda juda surbetlashib ketishdi. Janob Xo'jaevlar va Chaykinlar «Kambag'al tuzem aholini ezayotgan ma'muriyat» ustidan yana arzbozlik kampaniyasini boshlamoqda. Fikrimcha, zudlik bilan ularning faoliyatiga chek qo'yish kerak. V. Chaykin, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, ukasi Bashirulla Asadullaxo'jaev, Ahmadbek Temirbekov va Poshshahoji Umarxo'jaevlarni mardikorlikka jo'natish tugaguncha o'lkadan chiqarib yuborish zarur. Shaxsan o'zim ko'rgan-kechirganlarim asosida mahalliy aholiga ishonchimni batamom yo'qotdim. Bu xalq iyul oyida rus qizlari va ayollarini zo'rhladi, ko'priklarni yondirdi, himoyasiz amaldorlarni o'ldirdi. Bunday yovvoyilarga men endi sira ishonmayman. O'lkadagi 27 yillik xizmatimdan kelib chiqib, shunday qat'iy xulosaga keldim: yovvoyi tuzemeslarga bizning insonparvarligimiz mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Faqat miltiq nayzalarigina ularni mardikor berishga majbur qiladi»². 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonini bostirishda faol qatnashgan Brjeziskiyning bu xulosasi polkovnik Ivanovning ham qalbiga yaqin edi.

¹ *Shamsutdinov R.* Tarixiy merosimizga bir nazar, 14–15-betlar.

² O'zR MDA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31-ish, 12-varaq.

Jizzax qo'zg'alonini bostirgan jazo otryadlari qo'mondoni bo'lgan va ko'rsatgan «jasorati» uchun generallik mansabiga ko'tarilgan polkovnik Ivanov chor zobitlari o'rtasida mashhur bo'lib ketgan «Bir rus soldati etigi poshnasi mingta tuzemes ablahdan afzal», degan iboraning muallifi edi. Ivanov o'taketgan shovinist sifatida o'zbek jadidlarini, ayniqsa, Ubaydullaxo'jani juda yomon ko'rardi. U bor vositalarni ishga solib, jadidlar ustidan jinoiy ish qo'zg'adi. Shaxsan o'zi kuzatuv ishlarini olib borib, jadidlarni ayblovchi hujjatlar to'play boshladi. U Toshkentga borib Ubaydullaxo'jani ko'rgani va qanday ishlayotgani haqida shunday deydi: «Xo'jaev Toshkentdagi eng yaxshi mehmonxonada ikki xonani egallagan. Ulardan birida butun o'lkadan kelgan tuzemeslarni qabul qiladi. Shaxsan o'zim uning arizachilarni qabul qilganining guvohi bo'ldim. «Nasional» mehmonxonasi uning qabulini kutayotgan tuzemeslarga to'lib ketgan edi. Xo'jaev o'zini ularning ko'z o'ngida ulkan vakolatga ega amaldordek katta tutadi va tuzemeslar bor arizalarini shaxsan uning nomiga yo'llaydilar. Xo'jaev o'z ta'sirini kengaytirish uchun Andijondagi Kelginboev to'dasi bilan bitim tuzib kelib, tayyor tashkilotga bosh bo'lib oldi»¹. Polkovnik Ivanov sira erinmay 162 varaqni tashkil etgan ma'lumotnomasida jadidlarning rus inqilobchilari bilan hamkorligi xunuk oqibatlariga olib kelishi haqida ma'lumot to'plab general-gubernatorni cho'chitmoqchi bo'ldi. «Kelginboevning Xo'jaev bilan ittifoqiga, – deb yozgan edi Ivanov, – «Turkestanский golos» gazetasi muharriri faxriy fuqaro Anastasiy Afanasevich Chaykinning ukasi Vadim Chaykin o'z xodimi yahudiy Ilya Yakovlevich Shapiro bilan jondili bilan kirishgan va u bilan til biriktirgan»².

TRMB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Rozalion-Soshalskiy 1916 yil 24 sentyabrda yo'llagan dokladiga qo'shimcha tarzda 1916 yil 13 oktyabrda maxfiy xabar yo'llaydi. Unda Andijondagi «Turkestanский golos» gazetasi binosida har kuni oqshomda gazeta muharriri Chaykin raisligida o'zlariga «Taraqqiyparvar» nomini bergan yo'nalishdagi 20 ga yaqin o'zbek yoshlarining yig'ilishlari o'tkazilayotgani, ularda hozirgi ahvol va boshqa masalalar muhokama etilayotgani aytiladi. «Bu o'zbeklar, – deyiladi raportda, – Andijon shahrining eski qismini o'zaro bo'lishib olishgan va har kuni o'z jabhalarini aylanib chiqadilar va aholidan hol-ahvol so'rash ma'nosida qandaydir shikoyatlar yo'qmi degan savollar ham berishadi. Boshqacha qilib aytganda ularning o'zlari aholi vakillariga

¹ O'zR MDA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31 -ish, 66–67-varaqlar.

² O'zR MDA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31-ish, 67-varaqa.

biron narsa bo'yicha shikoyat yozishlikka shama qiladilar. Kechqurun tahririyatda to'planishib Chaykin va uning yordamchilari, jumladan, huquqshunos Shapiro ishtirokida yig'ilish o'tkazadilar¹.

Chaykinning general-gubernatorga yo'llagan telegrammasi bo'yicha Andijon shahrining katta oqsoqoli ishdan olingani vaqtidan beri Chaykinning ahamiyati yanada qo'tarilib ketdi. Shundan beri Chaykin general-gubernator bizning tomonimizda va u, Chaykin ma'muriyatdagi har qanday amaldorlarni xizmatidan haydash mumkin, deb yuribdi. Deyarli har kuni «Turkistanskiy golos» gazetasi tahririyatiga kelib, yig'ilishda qatnashayotgan Taraqqiyparvar»chilardan hozircha quyidagilar ma'lum. Olimjon Hoji Mirza Yusupov, Asaka volost boshqaruvchisining sobiq mirzasi Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jaev, savdogar, Mirkomil passajida o'zining Manufaktura do'koniga ega Muhammadjon Yoqub Sarkarov, ma'lum mashg'ulotga ega emas Mirali Umarboev, shahar noibi, Latifjon Maxdum Qoziev, Olimjon hokimning qarindoshi Qo'chqorboy Miraliev, Mirali Umarboevda prikazchik Otaxon Nazarboev, xususiy kitob do'koniga ega, Mir Haydar, Mirkomil Mirmo'minboev uyi yonidagi gazmol do'koni egasi².

Polkovnik Ivanov shaxsan o'zi va maslakdoshlari nomidan Ubaydulla Asadullaxo'jaev va uning safdoshlarini darhol hibsga olish, butkul Turkiston o'lkasidan chiqarib yuborishni general-gubernatordan qat'iy ravishda talab qilgan. Kuropatkin esa usta siyosatchi sifatida Sirdaryo gubernatoridan bu haqda fikr so'raydi. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori o'zining 1916 yil 6 noyabrda general-gubernatorga yo'llagan axborotida «Toshkent shahar tuzem qo'mitasi raisi Xo'jaevning zararli faoliyati»ga oid unda hech qanday asoslar yo'qligini yozadi: «Aksincha, mardikorlarning bir necha partiyasini muvaffaqiyatli jo'natgan tuzem qo'mitasi ishining butun og'irligi Xo'jaevning yelkasida turibdi. Uning qo'mitadan ketishi bu katta ishning beliga tepadi degan fikrdaman. Bugun huzurimga kelgan qo'mita a'zolari hamda boshqa e'tiborli zotlar menga Xo'jaevga to'la ishonch va hurmat ko'rsatishlarini alohida uqtirib ketishdi»³. General-gubernator Kuropatkin Ubaydullaxo'ja va Munavvar qorining mardikorlarni safarbar qilish xususida xalqqa xayrixoh bo'lib, rus ma'muriyatidan ularga tegishli shart-sharoitlarni yaratishni qat'iy talab qilishlaridan xavfsiray boshladi. General-

¹ Shamsutdinov R., Sodiqov H. Stalinni cho'chitgan yigit. «Turkiston», 1999 yil 18 dekabr.

² O'zR MDA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31-ish, 20–21-varaqlar.

³ O'zR MDA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 31-ish, 68-varaq.

gubernator mahkamasi, Turkiston rayon muhofaza bo'limi hujjatlarida ko'rsatilishicha, Turkistonning harbiy-siyosiy doiralari jadidlarning «Taraqqiyparvarlar» firqasining aholiga ta'siridan xavfsirab, uning faoliyatini to'xtatishga qaror qilishgan.

1917 yil 31 yanvarda TRMB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Rozalion-Soshalskiy Farg'onaga kelib, harbiy gubernator mahkamasidagi hujjatlar bilan tanishdi. Tez orada o'ziga «Taraqqiyparvar» nomini qo'ygan Andijondagi uyushma faoliyati haqida jinoiy ish qo'zg'aldi. Xuddi shu vaqtda inqilobiy mazmundagi o'zbek tilida tarqatilgan varaqalar chor ma'murlarini g'oyat tashvishga solgan edi. Bu varaqalarni yozishda va tarqatishda 50 dan ortiq jadidlar gumon qilindi.

«Taraqqiyparvarlar» asta-sekin inqilobiy harakatga qo'shilib ketayotganliklari endi ravshan bo'lib qolgan edi. TRMB boshlig'i polkovnik M. Volkov 1917 yil fevral oyida general-gubernatorga «Taraqqiyparvarlar» firqasi ishi bo'yicha ishga kirishganini va o'rinbosari podpolkovnik Rozalion-Soshalskiyni 7 fevralda Andijonga yuborganini ma'lum qildi. Shu bilan birga Kuropatkinning Ubaydullaxo'ja va boshqa firqa a'zolari va rahbarlarini jinoiy faoliyatda ayblab o'lkadan surgun qilish haqidagi buyrug'i ijro uchun qabul qilinganini ma'lum qildi¹.

Oxiri, Kuropatkin o'ta shovinist generallar va zobitlarning siquviga dosh berolmay, mardikorlikka safarbarlikni uyushtirishda adolatli ish ko'rgan jadidlarni sudga berdi. Ammo Turkiston o'lkasi tarixida kutilmagan voqea yuz berdi. Toshkent okrug sudi o'z kasbdoshi, ishonchli vakil-advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev va uning safdoshlari ustidan qo'zg'atilgan jinoiy ish va chiqarilgan hukmni bekor qildi. Buning ustiga Petrogradga «Taraqqiyparvarlar» firqasiga xayrixoh Davlat Dumasi musulmon fraksiyasi a'zolari ichki ishlar vazirligidan bu ish uchun maxsus tushuntirish talab qildilar.

Jadidlar xususida, umuman ularning 1916 yilgi qo'zg'alonda ishtirok etganligi xususida sho'rolar davrida noto'g'ri fikrlar yurardi. Ularning 1916 yil qo'zg'alonida ishtiroki yo'q va milliy burjuaziya podshoh Rossiyasi tarafida turganlar, degan fikr mustahkam o'rnatilib qolgan edi. Hatto bir vaqtlar o'zlari jadidchilikka mansub bo'lib, shu harakatdan o'sib-ulg'ayib chiqqan ba'zi bir rahbarlar ham jadidlarni qoralash, ayblash yo'lini tutganlar².

¹ Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. Peterburgni gangitgan yoshlar. «Turkiston» gazetasi, 1999 yil 24 iyul.

² Shamsutdinov R. Jadidchilik: haqiqat va uydirma. «Muloqot», 1991 yil, 11–12 sonlar.

Jadidlarni bu xilda ayblash 30-yillarda ham davom etdi. 1932 yili Toshkent shahar partiya konferensiyasida VKP(b) MK O'rtasi Osiyo byurosi kotibi N. Ya. Bauman o'z ma'ruzasida jadidlar masalasiga to'xtalib, Fayzulla Xo'jaev va Abdujabbor Abdurahmonovlarning O'rtasi Osiyodagi inqilobiy harakat masalasidagi asarlarini tabriklab, F. Xo'jaevning o'z davrida jadidchilikni ideallashtirib, millatchilik xarakteridagi «xatolari»ni ham alohida ta'kidlagan. Shunda F. Xo'jaev mutlaqo rasmiy yo'l tutishga majbur bo'lib, «jadidchilik va uning tutgan rolga kelsak, o'zining sinfiy mohiyatiga ko'ra jadidlar savdo hamda tug'ilib kelayotgan sanoat burjuaziyasi vakillari, shuning uchun ham ular kapitalistik islohotlar doirasidagi talablardan nariga o'ta olmas edilar»¹, deb yozishga majbur bo'ldi.

Lekin, milliy burjuaziya va uning mafkurasini ifodalovchi jadidlar 1916 yil qo'zg'olonida chorizm tarafida turgan, qo'zg'olonchilarga xayrixoh emas edilar, degan fikrlarni rasmiy hujjatlar rad qiladi. O'zbek milliy burjuaziyasining vakili andijonlik Mirkomilboy Mirmo'minboevning Qo'qon va Marg'ilon shaharlari mingboshilarini xalqni qo'zg'alonga da'vat etish zarurligi haqida yozgan xatida shunday satrlar bor: «Shahringizdagi aholi va boylarning mardikorlik siyosatiga qarshi chiqishlarini ayting. Rossiyaning ahvoli juda tang, shuning uchun hech narsadan qo'rqmanglar. Hammangiz bir yoqadan bosh chiqarib ish yuritsangizlar, mardikor olinishiga qarshi qo'zg'olon ko'tarilishi oson. Hozirgi vaziyatda hukumat amaldorlariga pul bersa bas, hamma ishni bitiradilar. Mening xaloyiqni qo'zg'alonga undash harakatim bilinib, tekshiruv o'tkazilganda 150 ming rubl berib o'zimni saqlab qoldim. Shu bois sizlar ham xavotirlanmay harakat qilaveringlar»².

Jadidlar Nikolay II ning 1916 yil 25 iyundagi farmonini bekor qilish va butun o'lkada birdaniga isyon ko'tarish g'oyasini ilgari surganlar. Yosh buxoroliklarning sardorlaridan Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, yosh xivaliklar rahbari Paxlavon Niyozhoji, Turkiston jadidlari peshqadamlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li va boshqalar o'lka xalqini qo'zg'alonga da'vat etganlar, joylarda aholi yig'inlarini o'tkazganlar, o'ta mudhish farmonni bekor qilishni qat'iy talab qilib chiqqanlar.

¹ «Qizil O'zbekiston», 1936 yil 3 avgust, №117 (3634). 20-yillarda boshlanib ketgan jadidlarni tanqid qilish kampaniyasi 30-yillardagi qatag'on davriga ulanib ketdi. 30-yillar va 80-yillar oxirlariga qadar bir O'zbekistonda emas, butun Ittifoqda jadidchilik fanda burjua millatchiligiga sinonim bo'lib keldi. 1916 yilgi qo'zg'olon tarixini tadqiq etgan olimlarning ayrimlari bu qo'zg'alonga «jadidlar xoinligi»ni alohida sarlavha ostida ko'rsatishgacha borib yetdilar.

² Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 422-bet.

Samarqanddan muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiy, Toshkentdan Munavvar qori, Xivadan Pahlavon Niyoz, Buxorodan Usmonxo‘ja, Jizzaxdan qori Komil, Qo‘qondan Obidjon Mahmud o‘g‘li va boshqalarning ishtirokida o‘tgan yig‘inlarda mardikorlikka olish haqidagi farmonga qarshi kurash tadbirlari ishlab chiqilgan. Turkistondan mardikor olish xususidagi farmonning qonuniy tus olishiga mon‘elik qilish uchun tadbir ishlatdilar. Farmon qonuniy tus olgan taqdirda norozilik mohiyatidagi isyonlar chiqarishni ko‘zda tutgan edilar¹.

TRMB boshlig‘i polkovnik Volkov Petrogradga 1917 yil fevral oyida yo‘llagan axborotida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaevga Toshkent va Andijonda yashashga ruhsat berilganini ma‘lum qildi. Jadidlar harakati tufayli metropoliya markazida Davlat Du-masi mustamlakachilarning 1916 yil iyul – avgust oylaridagi qonxo‘rliklarini muhokama qilishga majbur bo‘ldi. A.F. Kerenskiy, Mansurov va Ja‘farov kabi noiblar Turkiston ma‘murlarining barcha kirdikorlarini jadidlar bergan hujjatlar asosida Davlat Dumasining 1916 yil 13 dekabr sessiyasida ochib tashladilar.

1916 yilgi qo‘zg‘alon xorijdan, biron-bir turtkisiz, ichdan yetilgan, Rossiya istibdodiga qarshi ko‘tarilgan va keng ommani o‘z doirasiga qamrab olgan qudratli harakat edi.

Mardikorlikka safarbarlik 1916 yil 18 sentyabrdan oq podshoh ag‘darilgan kungacha davom etdi. Jo‘natilishi kerak bo‘lgan 200470 kishi o‘rniga amalda 123 ming mardikor safarbar qilindi, xolos. Turkistonlik mardikorlar harbiy va sanoat korxonalarida, konlarda, temir yo‘l qurilishida, o‘rmon va ayrim kapitalistlarning xo‘jaliklarida qattiq nazorat ostida ishlatildi. Ular ochlikdan, xo‘rlikdan, mashaqqatli mehnatdan mislsiz aziyat chekdilar. Ko‘plari qattiq sovuqdan, turli kasalliklardan o‘lib ketdilar, yoki bir umrga nogiron bo‘lib qoldilar. Mardikorlikka Andijon tumanidan borgan 200–300 nafar odam Batumi-Suxumi temir yo‘l qurilishida nihoyatda og‘ir sharoitda ishladi. Ular norozilik namoyishi o‘tkazib, ish tashladilar, ochlik e‘lon qildilar. Tiflis hukumati Toshkentga, general-gubernatorga telegramma yo‘llab ularning namoyishlarini tinchitishga majbur bo‘lganini xabar qilgan. Shu maqsadda Turkiston general-gubernatorining buyrug‘i bilan Andijon Eski shahar oqsoqoli Rustam Toshmatov Suxumiga borib, namoyishchilarni xiyla-nayrang, do‘q-po‘pisa bilan «Agar

¹ *Abdulloh Rajab Boysun*. Turkiston milliy harakatlari. Istanbul, 1943, 40–41-betlar; Ali Bodomchi. 1917–1934 yillar Turkiston milliy istiqlol harakati va Anvar poshsho. Birinchi jild. Qo‘rboshilar. Istanbul, 1975, 50-bet.

sizlar ishni davom ettirmasalar, u holda sizlarning Andijonda qolgan ota-onangiz, qavmi-qarindoshlaringiz hibsga olinadi, mol-mulki musodara qilinadi», degan po'pisa bilan aldashga muvaffaq bo'lgan.

Kavkaz frontida rus harbiylari tomonidan asirga olingan turklar ham front orqasidagi ishlarga safarbar qilingan. Ular bilan Turkistondan borgan mardikorlar o'rtasida birodarlashuv yuz beradi. Dini, tili, kelib chiqishi bir bo'lgan bu xalqlarning farzandlari chor hukumati va uning mustamlakachilik zulmiga qarshi birgalikda kurash olib bordilar.

Oq podshoh taxtdan qulatilgach, musulmon asir va mardikorlar Rossiya va Sibir mintaqalaridan o'z ona yurtlariga qayta boshlaydilar. Turkistonliklar bilan birga turk harbiy asirlarining bir qismi ham Turkistonga keldi. Turk harbiy asirlari orasida ko'pgina ziyolilar ham bor edi. Mardikorlar va turk harbiylarining o'lkaga kelishi bilan bu yerdagi jadidchilik harakatida, istiqloq uchun kurashda ma'lum ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Turkiya zobitlari Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Xiva, Buxoro hududlarida mahalliy aholi o'rtasida katta ma'rifiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy ish olib bordilar, jumladan, maktab va madrasalarda muallimlik qildilar.

Sobiq asirlar, ya'ni turk zobitlarining Turkistondagi miqdori haqida aniq ma'lumot yo'q. Chunki bu mavzu mutlaqo o'rganilmagan. Turk askar va zobitlarining 1916 yildagi va undan keyingi milliy-ozodlik harakatlaridagi ishtiroklari ham tadqiq etilmagan.

1916 yilgi milliy-ozodlik qo'zg'aloni, sho'roshunos Richard Pirs ta'biriga ko'ra, faqat chor hukumatinigina emas, balki butun rus xalqining O'rta Osiyo xalqlarining ishonchi va do'stligini qozonish yo'lidagi barcha urinishlarini puchga chiqardi. Bu qo'zg'alon rus sosial-demokratlari (bolshevik va mensheviklar) va sosial-inqilobchilarning (o'ng va so'l eserlar) Turkiston xalqlari o'rtasida mustahkam tayanchga ega emasliklarini ham ro'y-rost isbotladi.

Qo'zg'alon o'lkadagi mustamlakachilik tuzumining hampoydevori bo'sh ekanligi va uning ustunlari chirib qolganligini ham ko'rsatdi. U chorizmning yaqinlashib kelayotgan umumsiyosiy inqirozining yorqin ko'rinishi edi. Lekin, general-gubernator Kuropatkin imperatorga yo'llagan axborotida 1916 yil qo'zg'alonining sabablarini yozganda masalaning ana shu jihatini unutgan edi. U o'lkada sinfiy tabaqalanish jarayonini atroflicha yoritgani holda, mustamlaka tuzumining asosiy illatini davolashning birdan-bir yo'li 1886 yilgi Nizomni qayta ko'rib chiqishdan iborat deb hisobladi. Kuropatkin, aholining kayfiyati va ruhiyatini o'rganishga oid materiallarga suyangan holda, harbiylashgan

qattiqqo‘l hokimiyatni saqlab qolish g‘oyasini ilgari surdi.

Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori vazifasini bajaruvchi polkovnik Ivanov rus amaldorlarining poraxo‘rligini oqlash va hamma aybni Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev kabi «xalqni buzuvchi yashirin advokatlar»ga ag‘darish maqsadida yozgan ma‘ruzanomasida, o‘zi sezmaganda, mustamlaka tizimini fosh etuvchi fikrlarni ham aytib yuboradi. «Hokimiyat, – deb yozadi u, – o‘sha avvalgi xonlar tuzumidagi o‘zboshimchalik va zo‘ravonlikka tayandi, chunki qonunchilik aslida amalda emas, balki nazariyada amalga oshirilgan edi... Mahalliy ma‘muriyat hayotning barcha jabhalari ustidan nazorat o‘rnatgani holda, bebosh va o‘z holicha xonlar zamonidagi tartibni davom ettirdi. Rus hokimiyati esa xalq hayotidan tamoman ko‘z yumib, turmush qa‘riga kirib borolmadi, u okean yuzidagi po‘kakka o‘xshab qoldi»¹. General-gubernator Kuropatkin ana shu po‘kakni okean tubiga tushirish uchun yangi ma‘muriyat tizimi loyihasi ishlab chiqa boshladi. Ammo zamon o‘zgargan, o‘lka hayotida podshoh hokimiyati payqamagan jiddiy voqealar yaqinlashmoqda edi.

General-gubernator boshliq ma‘muriyat o‘lkadagi tanglikni bartaraf qilish xususida hech qanday chora-tadbir ko‘rmadi. Markazdan kerakli oziq-ovqat, birinchi navbatda, g‘alla keltirish masalasini ham diqqat-e‘tibordan chetda qoldirdi. Ma‘lumki, markazdagi savdo-sanoat doiralari talabi bilan o‘lkadagi don ekinlari qisqartirilib, o‘rniga paxta ekila boshlangan edi. Kelishuvga ko‘ra, don-dunni Rossiya guberniyalari Turkistonga yuborishi lozim edi. General-gubernatorning esa bunga e‘tibori bo‘lmay, diqqat butun o‘lkada ommaviy qatag‘onni kuchaytirishga qaratildi. U 1917 yilning fevral oyida milliy-ozodlik qo‘zg‘aloni ishtirokchilari ustidan chiqarilgan hukmni imzoladi. Hukmga ko‘ra, 347 kishi – o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar dorga osildi, yuzlab kishilar katorgaga jo‘natildi.

General-gubernator qo‘zg‘alon ishtirokchilarini jazolash bahonasida ularning yerlarini musodara qilib, rus qishloqlari sonini ko‘paytirish rejalarini ham ishlab chiqdi.

Mustamlakachilar o‘lkada istibdod sirtmog‘ini yanada qattiqroq tortishning yangidan-yangi rejalarini tuzdilarki, ularning amalga oshuviga markazdagi voqealar xalaqit berdi.

1917 yil 2 mart kuni Petrogradga podsho hokimiyati ag‘darilgani haqidagi xabar Toshkentga ham yetib keldi. Uni birinchi bo‘lib

¹ O‘zR MDA, 1-jamg‘arma, 31-ro‘yxat, 1144-ish, 20-varaq.

Kuropolitik Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori general-leytenant Galkin yetkazdi. Generallar o'zaro kelishib, bu sirni hech kimga bildirmaslikka hamda Petrograd va voqealar qanday borishi va nima bilan tamom bo'lishini kutishga qaror qildilar. Ammo Nikolay II taxtdan voz kechganligi haqidagi telegramma telegrafda ko'chirililib va ko'paytirilib allaqachon shaharga tarqalgan edi. Chorizmning ag'darilgani, Rossiya imperiyasi o'rniga respublika paydo bo'lganligi yashin tezligida butun Turkiston o'lkasiga tarqaldi. Turkiston afkor ommasi o'rtasida ham mustamlakachilik tuzumida o'zgarishlar bo'lishi haqida umid uchqunlari paydo bo'ldi.

Lekin Vaqtli hukumat ham Turkistonni mustamlaka deb bilib, u yerda hech qanday o'zgarish qilishni istamadi. O'lka general-gubernatori A.N.Kuropolitkin o'z lavozimida qolaverdi. Joylardagi gubernatorlar, tuman boshliqlari ham, avvalgidek o'z mansablarida xizmatini davom ettiraverdilar. General-gubernator 8 martda chiqargan buyrug'ida Vaqtli hukumatdan yangi farmoyish kelguncha o'lka, viloyat va tumanlardagi amaldorlar o'z vazifalarida qolib, faoliyatlarini davom ettiraverishlari lozimligini uqtirdi¹. U politsiyani milisiya bilan almashtirish lozimligini, mahalliy hokimiyat idoralari qoshida jamoatchilik qo'mitalari tashkil qilish kerakligini ham qistirib o'tdi.

General Kuropolitkin inqilob bayrog'i ostida niqoblanib olib Turkistonda mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi. U Samarqand viloyati harbiy gubernatoriga 13 mart kuni yo'llagan telegrammasida shaharlar boshqaruvini tuzish xususida shahar dumalari a'zolari (glasniylar) safida rus vakillari kamida дума a'zolarining yarmini tashkil etishi zarurligini uqtirdi. Chunki, uning fikricha, Turkistonning mahalliy aholisi ruslarga o'xshab «og'ir majburiy harbiy xizmatni o'tamaydi, shuning uchun huquqda ular bilan teng bo'lmasligi kerak»². Joylardagi idoralarga o'tkazilgan saylovlarda ana shunday siyosat yuritish ko'zda tutildi. Bu esa mahalliy millatlar vakillarining keskin noroziligini uyg'otdi.

Buxorodagi Rossiya rezidenti A. Miller general-gubernatorga yo'llagan telegrammasida Yangi Buxoroda ijroiya qo'mitaga 12 martda bo'lib o'tgan saylovlarga 5 ming ruslar bo'lib musulmonlar esa qatnashtirilmaganligi keskin norozilikka sabab bo'lganini yozgan edi. Boshqa rus fuqarolari bilan teng huquqda musulmonlarning qatnashuviga yo'l qo'yilmagani aholining kayfiyatini buzgani, ular

¹ O'zR MDA, 20-jamg'arma, 2-ro'yxat, 77-ish, 4-varaq.

² O'zR MDA, 1-jamg'arma, 31-ro'yxat, 1175-ish, 3-varaq.

bu saylovlar natijalarini bekor qilishni talab qilib, Rossiya Vazirlar Kengashi raisi, tashqi ishlar, harbiy vazirlarga, shuningdek Davlat Dumasi musulmon fraksiyasi raisi Tavakkalovga telegraf orqali murojnat qilishganini xabar qildi. Turkistondagi rus aholisi ham eskicha idoraga, eskicha boshqaruv uslublariga qarshi ko'tarila boshladi. Bu harakatda ayniqsa rus ishchi va askarlari faollik ko'rsatishdi.

Turkiston general-gubernatori Kuropatkin ham faollikda ulardan qolishmadi. U o'z generallari bilan voqealar rivojini «tinchgina» kutib o'tirmay, yirik bir ig'vogarlik tayyorladi. U o'lkada «musulmonlar qo'zg'alon ko'tarmoqchi» degan ovoza tarqatib, ruslarni musulmonlarga qarshi ko'tarishga, o'rtada o'zaro nifoq chiqarishga urindi. General shu maqsadda qo'zg'alonga qarshi «himoya qismlari» tayyorlash haqida ko'rsatma berdi va bu g'oyaning tadbiri Turkiston harbiy okrugi shtabida tezlik bilan ishlab chiqildi. Kuropatkin markazdagi voqealar rivojini kuzatgan holda, Toshkentda imperiya mustamlakasini «ozod Rossiya» uchun butunicha saqlab qolish yo'lida faol ish olib bordi. O'lka va viloyat idoralari, shuningdek yangi jamoat tashkilotlari, inqilobiy qo'mitalarga joylashib olgan rus shovinistlari, podshohparastlar orasida uning maslakdoshlari ko'p edi. Bu hol ayniqsa Toshkent ishchi va askar deputatlari Sho'rosi ijroiya qo'mitasining 30 martdagi majlisida yaqqol ko'zga tashlandi. General-gubernatorni mansabidan chetlatib, qamoqqa olish masalasi kun tartibiga qo'yilganda Ijroiya qo'mita a'zolari Ivanov, Zakamenniy, Dinin, Bulinskiy, Rusanov kabilar Kuropatkinni qattiq turib himoya qildilar. Majlis bu masalani yarim kechagacha muhokama qilgan bo'lsa-da, biror qarorga kelolmadi.

Ishchi, askar va ziyolilarning keskin talabidan cho'chigan shovinistlar Kuropatkinni o'zlari qamoqqa olib, Petrogradga jo'natishga qaror qildilar. Bu ish general-gubernatorning shaxsiy soqchilari boshlig'i polkovnik Rusanovga topshirildi. Toshkent Soveti ijroiya qo'mitasi a'zosi bo'lgan Rusanov o'z boshlig'ini qamoqqa olganini Sovetdagi ishchilarga ma'lum qildi.

Shu tariqa Turkistonda 50 yil davom etgan general-gubernatorlik idorasi barham topdi. 1917 yil 31 martda o'lkada harbiy hokimiyat fuqarolik hokimiyatidan ajratildi. Bu rus demokratiyasi va istiqloq kurashchilarining ko'p yillik kurashining samarasi edi.

XOTIMA

Ikki asrga yaqin suronli va uqubatli tariximizning bunyodkorlik va parokandalik, qardoshlik va maxdudlik, jasorat va xiyonat, matonat va razolat, ma'rifat va jaholat, ozodlik va yovuzlik kurashi sahifalaridan avlodlar uchun saboqlar, ya'ni qissadan hissa nima? Kitobdan qanday xulosa chiqadi?

XVIII asrdagi parokandalik, uch xonlikdagi o'zaro maxdudlik va mahalliychilik yurtimizni jahongir davlatlar iskanjasiga soldi. Bosqinlar uchun qulay zamin yaratdi. Natijada XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston xalqlarini asoratga soldi. U o'lkani siyosiy-hududiy jihatdan zabt etibgina qolmay, balki erksevar, zahmatkash xalqini ma'naviy-ruhiy bo'ysundirishga ham ahd qildi. Chorizm joriy etgan siyosiy tuzum o'lkada hukmron rus davlatchiligini qaror toptirishga qaratildi. Ana shu maqsadda O'zbek milliy davlatchiligining asos-e'tiborini yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ta'sis etilgan mahalliy boshqaruvdagi saylov tizimi aslida afkor ommani chalg'itishga qaratilgan edi. Volost boshqaruvchilari – mingboshilar, qishloq oqsoqollari hamda mahalliy «xalq sudlari» – qozi va biylar aslida rus ma'muriyatining irodasini ifoda qiluvchi kishilar bo'lib, mustamlaka siyosatini o'tkazishda vositachi bo'lishgan, xolos. «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» rus dvoryanlari va burjuaziyasi manfaatlarini qonunlashtirgan bir qomus edi.

Rossiya hukumatining siyosiy tusga ega bo'lmagan barcha fuqarolik ishlarini qozi va biy sudlariga topshirishi tagida aslida g'arazli maqsad yotgan. Mustamlakachilar shariat qonun-qoidalaridan o'z istibdod tuzumlarini mustahkamlashda foydalanmoqchi bo'lishgan.

Turkiston xalqlariga berilgan «saylov huquqi» ham aslida uzoqqa mo'ljallangan ko'zbo'yamachilik siyosati edi. «Nizom» siyosiy tusga ega bo'lmagan barcha ishlarni mahalliy aholidan saylanuvchi vakillar – o'nboshi, ellikboshi, yuzboshi, oqsoqol va volost boshqaruvchisi – mingboshilarga rasman topshirib qo'ygani afkor omma o'rtasida go'yo Turkistonda o'z-o'zini boshqaruv hukmron degan tasavvurni uyg'otishi lozim edi.

Mustamlakachilar Turkiston xalqlari turmushida nimaiki ularning istiqboliga to'g'anoq bo'lsa, nimaiki ularni ozodlik uchun kurashdan chalg'itsa, hammasini qo'llab-quvvatlagan holda, istiqbolga xizmat qilajak barcha intilishlarning payini qirqdilar.

Rossiya imperiyasi o'lkani Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidan iborat uch qismga bo'lib, tub joy aholi birligi va siyosiy qudratini sindirish yo'lida barcha vositalardan foydalandi. Ming yillardan beri davom etib, avloddan-avlodga o'tib yashayotgan milliy davlatchilik va qadriyatlarni yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishga soldi. «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra shu maqsadga qaratildi. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat bo'ldi:

a) mahalliy boshqaruv, urf-odat va qonun-qoidalardan milliy davlatchilikning barcha asoslarini tag-tugi bilan yo'qotish;

b) o'lka turmushiga butkul yot va begona bo'lgan uezd, uchastka, volost kabi ma'muriy-hududiy birliklarni joriy etish;

v) qishloq yig'ini va volost qurultoyini ta'sis qilib, sun'iy tarzda qishloq boshqaruvini tashkil qilish;

g) siyosiy tusga ega bo'lmagan barcha ichki boshqaruvda saylov tizimini ta'sis etish va bu bilan aholi «o'zini-o'zi boshqaruvini»ni shaklan gavdalandirish;

d) rus va rusiyzabon aholi nufuzini oshirish, shu maqsadda o'lka shaharlarini «eski va yangi» qismlarga ajratib idora qilish;

j) mahalliy boshqaruvga mirshab-josuslik tusini berib, quyi amaldorlarni itoatkor malaylarga aylantirish;

e) o'lkani ruslashtirish va yangi «Rus Turkistoni» ni barpo etish.

Bular mustamlaka idorasining barcha bo'g'inlarida o'z ifodasini topdi.

Rossiyaning Turkistondagi agrar siyosati o'zida metropoliya dvoryan-pomeshchiklari va burjuaziyasining iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini yaqqol gavdalandirdi. Bu siyosatning bosh maqsadi o'lkani imperiya sanoatining xom ashyo makoniga aylantirish edi.

Imperiya ikki hukmron sinf manfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Agrar siyosatda dvoryanlar talabiga ko'ra Turkiston xalqiga tegishli yerlarni zo'rlik bilan tortib oldi va rus posyolkalarini barpo etdi. Burjuaziyaning talabiga ko'ra esa, qishloqlarda paxta yakkahokimligini o'rnatish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Rossiyaning Davlat Kengashi, Vazirlar Qo'mitasi va Davlat Dumasida Turkiston haqida qabul qilingan qonun-qoidalarda dvoryan-pomeshchiklar va burjuaziya manfaatlari o'z aksini topdi.

Sankt-Peterburg o'troq aholining yerlarini qishloq jamoalari va yig'inlariga birlashtirgan holda, soliq bo'yicha doiraviy mas'uliyatlik qoidasini joriy etish bilan sudxo'rlikni avj oldirdi.

Imperiyaning ko'chiruvchilik siyosati, doiraviy javobgarlik singari, o'lkaholisining ersizlanishini kuchaytirdi. Chor Rossiyasining esa moddiy va siyosiy jihatdan nufuzini oshirdi.

Agrar siyosat imperiyaning harbiy, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining uzviy qismiga aylantirildi. Rus posyolkalari va tub joy aholi yashab turgan qishloqlarda rus xo'jaliklarining vujudga keltirilishi ana shu siyosatning amaldagi ijrosi bo'ldi. Turkistondagi har bir rus posyolkasi butun bir batalon xizmatini o'tovchi harbiy kuchga aylantirildi.

Amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat yer-suvni, yaylovlarni va barcha tabiiy boylikni chor hukumati qo'lida jamladi, ular mo'may daromad manbaiga aylandi.

Metropoliya o'lkani xom ashyo makoniga aylantirib, paxtachilik, ipakchilik, qorako'lichilik va boshqa muhim xom ashyo mahsulotlari yetishtirish tarmoqlariga katta e'tibor berdi. Sanoat qurilishi sohasida chorizm metropoliya burjuaziyasi manfaatlariga mos – xom ashyoni dastlabki ishlovchi korxonalar qurilishini quvvatlab, o'lkada qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati rivojiga to'sqinlik qilib keldi.

Rossiyaning mustamlakachilik siyosati Turkistonni rus tovarlari sotiladigan, tayyor mahsulotlar xarid qilinuvchi bozorga aylantirdi. Bu esa mahalliy hunarmandchilikni inqirozga olib kelib, yagona milliy bozorning rivojlanishiga yo'l bermadi.

Imperiyaning mustamlakachilik siyosati xalq maorifi va madaniy hayotida ham o'z aksini topdi. U maktab va madrasalar faoliyatiga deyarli e'tibor bermadi, aksincha ularning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Asosiy e'tibor o'lkada ruslashtirishga xizmat qiluvchi rus-tuzem maktablari tarmog'ini yuzaga keltirishga qaratildi.

Umuman olganda, Rossiya imperiyasi ilm-fan, xalq maorifi, matbuot va madaniyat sohasida Turkiston xalklarining qadimiy tarixi, tili, urf-odatlarini, milliy g'ururi va erksevarlik tuyg'ularini yo'qotishga, qisqasi, ularni o'zligidan judo qilishga qo'lidan kelgancha harakat qildi. Bu siyosatning asosiy maqsadi o'lkadagi milliy davlatchilik, milliy ong, milliy o'zlikni anglashga qaratilgan barcha harakatlarni tag-tugi bilan qo'porib tashlash edi.

Asrimiz boshlarida milliy mulkdorlar, ziyolilar va ulamolarning ilg'or qismi maktab va madrasalarni isloh qilish yo'lidan borib, yangi usul maktablarini ochdilar. Yangi usuddagi maktablar esa rus-tuzem maktablariga qarama-qarshi o'laroq, ma'rifat o'chog'i, yangi ma'naviyat, madaniyat maskani, rus mustamlakachilari zulmi ostida milliy g'ururi, qadr-qimmatini toptalgan, talangan, yuragiga qo'rquv-

dahshat solingan xalqni milliy mustaqillik uchun kurashga hozirlovchi targ'ibotxonalar vazifasini o'tadilar.

Jadidlar yangi usul maktablari tarmog'ini yaratish bilan mustamlaka istibdodi iskanjasiga tushib qolgan milliy ruhni qo'zg'atish va o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirishga intiluvchi kuch sifatida sahnaga chiqdilar. Ular iste'dodli yoshlarni xorijga o'qishga yuborish orqali millat istiqboli ustunlariga tamal toshini qo'ydilar. Jadidlarning «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Sadoyi Turkiston» kabi gazetolari o'zbek milliy matbuotini yaratdi.

XX asr boshlarida Turkiston istiqloli uchun kurashning nazariy asosini Ismoil G'aspiralining ma'rifatparvarlik g'oyalari va ularni amalda rivojlantirgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Fitrat va Toshpo'latbek Norbo'tabekov kabi jadidlar yalovbardorlarining faoliyati tashkil etdi. Rossiya (1905-1907), Turkiya va Eron (1908-1911) inqiloblari Turkistondagi istiqlol kurashiga zo'r turki berib, o'lkada «Taraqqiyparvarlar» nomi ostida tarixga kirgan ziyolilar firqasini vujudga keltirdi. Bu firqa «Turon» va «Sho'roi islom» kabi nufuzli tashkilotlar shaklida kelgusi voqealar rivojida salmoqli rol o'ynadi.

1916 yilgi qo'zg'alon Turkistondagi xalq ommasining istiqlol kurashida eng yuqori bosqich bo'lib, unda iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, siyosiy va milliy-ozodlik g'oyalari o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ldi. Istiqlol kurashining g'oyaviy ilhomchilari bo'lgan taraqqiyparvarlar Petrogradga borib mardikorlikka safarbarlik muddatini kechiktirishga muvaffaq bo'lishgani, Rossiya parlamenti – Davlat Dumasida xalq qo'zg'alonini qonga botirgan mustamlakachilarning beboshligini fosh etishgani hamda ularning jinoyatlarini tekshirish uchun Turkistonga Davlat Dumasi komissiyasini olib kelishgani ularning milliy-ozodlik harakatida o'z o'rinlariga ega bo'lganlaridan dalolat beradi.

Mustamlaka tuzumiga, chorizmga qarshi harakatda taraqqiyparvarlar bilan inqilobchilar o'rtasidagi mushtaraklik fevral inqilobiga qadar davom etdi. Sinfy kurashni maqsad qilgan inqilobchilar hamda tinch rivojlanish va islohotlar yo'lini tanlagan taraqqiyparvarlar o'rtasidagi ziddiyatlar Turkistondagi 1917 yil voqealari rivojida asosiy yo'nalishlarni belgiladi.

Yurtboshimiz Islom Karimov bir guruh tarixchi olimlar bilan qilgan suhbatida (1998) Turkistonda chor Rossiyasi o'tkazgan mustamlakachilik siyosatining oqibatlarini xolisona yoritish vazifasini ilgari surib, shunday savolni ko'ndalang qilib qo'ygan edi: «...har tomonlama mudhish, chetdan qaraganda halqimiz, uning madaniyati,

milliy tafakkuri, urf-odatlari, turmush tarzi, hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, nasl-nasabi yo'q bo'lib ketishi kerak bo'lgan sharoitda baribir, qator yo'qotishlar bilan bo'lsa ham, millatimiz o'zligini saqlab qololdimi yo yo'qmi?»¹.

Davlatimiz boshlig'ining bu savoliga javoban kitob mualliflari tarixiy dalillar asosida chor Rossiyasi mustamlakachilarining og'ir asorati sharoitida ham xalqimiz o'zligini, milliy qadriyatlarini, ma'naviyatini, madaniyatini, urf-odatlari va turmush tarzini saqlab qolganligini baholi qudrat yoritishga intildilar. Darhaqiqat, mustabid tuzum sharoitida ham turkistonliklarning erkinlikka, taraqqiyotga va istiqolga bo'lgan azaliy intiqlik kayfiyati so'nmadi. Xalqimizning yurak-bag'riga teran o'rnashgan mustaqillik va ozodlik tuyg'usi tobora qudratli kuchga aylana bordi va pirovard natijada O'zbekiston istiqloli tantanasi uchun mustahkam zamin hozirladi.

¹ *Islom Karimov*. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, 19-bet.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

I. Kitoblar

Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura. 1-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. T., «O‘zbekiston», 1997.

Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. T., «O‘zbekiston», 1998.

Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., «O‘zbekiston», 1999.

Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O‘zbekiston», 1997.

Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-j. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-j. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-j. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-j. T., «O‘zbekiston», 1996.

Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-j. T., «O‘zbekiston», 1997.

Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan. 6-j. T., «O‘zbekiston». 1998.

Karimov I. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-j. T., «O‘zbekiston». 1999.

Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon qayot – pirovard maqsadimiz. 8-j. T., «O‘zbekiston», 2000.

Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-j. T., «O‘zbekiston», 2001.

Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-j. T., «O‘zbekiston», 2002.

Karimov I. Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-j. T., «O‘zbekiston», 2003.

Karimov I. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat‘iy irodamizga bog‘liq. 12-j. T., «O‘zbekiston», 2004.

Karimov I. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-j. T., «O‘zbekiston», 2005.

Karimov I. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaat-lari – oliy qadriyat. 14-j. T., «O‘zbekiston», 2006.

Karimov I. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashti-rish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va halqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-j. T., «O‘z-bekiston», 2007.

Karimov I. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. 16-j. T., «O‘zbekiston», 2008.

Каримов И. Стабильность и реформы. Статьи и выступления. Палей. Москва, 1996.

Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., «Sharq», 1998.

Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblar. T., «O‘zbekiston», 1998.

Karimov I. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar. T., «O‘zbekiston», 1999.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O‘zbekistonning yangi tarixi Markazini tashkil etish» to‘g‘risida 1996 yil 18 sentyabrdagi Farmoyishi.

«O‘zbekistonning yangi tarixi»ni tayyorlash va nashr etish to‘g‘-risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1996 yil 16 dekabr. «Xalq so‘zi», 1996 yil 17 dekabr.

«O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti fao-lyatini takomillashtirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 iyuldagi qarori. «Xalq so‘zi», 1998 yil 25 iyul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 12 maydagi Far-moyishi. «Xalq so‘zi», 1999 yil 13 may.

Абаса К. Завоевание Туркестана. СПб, 1902.

Abdulla Avloniy. O‘son millat. «Sharq», 1993.

Abduazizova N. Milliy jurnalistika tarixi. (Ikki jildlik). T., «Sharq», 2008.

Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarai turk. T. «Cho‘lpon», 1992.

- Abdullaev O.* Turkistonning qora kunlari. «Sharq yulduzi», 1992 yil, 12-son.
- Abdulloh Rajab Boysun.* Turkiston milliy harakatlari. Istanbul, 1943, 1945.
- Abdumo‘min Abdurahmon.* Turon tarixiga yog‘dular. Istanbul, 1994.
- Azadaev Ф.А.* Ташкент во второй половине XIX в. Очерки социально-экономической и политической истории. Т., 1959.
- Azizxo‘jaev A.* Davlatchilik va ma‘naviyat. Т., «Sharq», 1992.
- Ayniy S.* Asarlar, 1-jild. Т., 1963.
- Ikromov. A* Избр. Произ. В 3-х томах. Т., 1972–1973. \26. Akmal Akrom o‘g‘li. Mirkomilboy qanday odam edi? «Sharq yulduzi», 1992 yil 5-son.
- Алексеевков П.* Кокандская автономия. Т., 1931.
- Ali Bodomchi.* 1917–1934 yillardagi Turkiston milliy istiqlol harakati va Anvar Poshsho. Qo‘rboshilar. II-jild. Istanbul, 1975.
- Egamnazarov A.* Siz bilgan Dukchi Eshon. Hujjatli qissa. Т., «Sharq», 1994.
- Алимова Д., Рашидова Д.* Махмудхожа Бехбудий и его исторические воззрения. Т., «Ma‘naviyat», 1998.
- Аминов А.Н.* Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). Ташкент, 1959.
- Аминов А.Н., Бабаходжаев А.* Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1966.
- Андреевич П.* Очерки по истории колонизации Туркестанского края. Туркестанский курьер. 1908, № 159. Т. сб. т. 469.
- Анненков М.Н.* Закаспийская железная дорога как новый путь для Среднеазиатской торговли. СПб, 1887.
- Антропов И.* Первые социал-демократические организации Туркестана. «За партию». 1928, №7 (11).
- Арандаренко Г.* Досуги в Туркестане. 1874–1889 г.г. Санкт-Петербург, 1889.
- Ahmad Zakiy Validiy.* Rus mustamlaka siyosatining mohiyati va maqsadi. Vena, 1929 (B. Qosimov tarjimasini).
- Ahmad Zakiy Validiy.* Xudoyorxonning so‘nggi kunlari. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, qo‘lyozma, № 15743.
- Ahmad Zakiy Validiy.* Bugungi turk eli (Turkiston va yaqin tarixi) Istanbul, 1981, 2-nashr.
- Ahmad Zakiy Validiy.* Turkiston masalasi. Berlin, 1924 (B. Qosimov tarjimasini).
- Ahmad Zakiy Validiy.* Xotiralar. «Sharq yulduzi», 1993 yil 4–5, 6–7, 8–9-sonlar.

Ahmad S. Solihbek dodxohni taniysizmi? – «Vatan» gazetasi, 1993 yil 31 mart–7 aprel.

Ахмаджонов Г.А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. Т., 1986.

Ахмеджанова З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880–1917 гг). Т., 1965.

Bayoniy Muhammadjon Yusuf. Shajarai Xorazmshohiy. Meros. Toshkent, «Kamalak», 1994.

Bakirov F. Chor Turkistonida sud, shariat va odat. Т., 1967.

Бартольд В. История культурной жизни Туркестана. Т., 1913.

Beyssembiev T.K. «Tarixi – Shahruhi» как исторический источник. Алма-Ата, 1987.

Bobobekov H.N. «Isyon», «Sharq yulduzi», 1989 yil 11-son.

Бобобеков Х.Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки. Ташкент, 1990.

Bobobekov H.N. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olinganmi? «Fan va turmush». 1989 yil 8, 10-sonlari.

Bobobekov H.N. Qo'qon tarixi. Т, «Fan», 1996.

Bobobekov H.N. Po'latxon qo'zg'aloni. Toshkent, 1996.

Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио – Ташкент, 2010.

Божско Ф. Октябрьская революция в Средней Азии. Т., 1932.

Boymirza Hayit. Turkistonning qisqacha tarixi. Berlin, 1941.

Борьба трудящихся каракалпакии против колониального и социального гнета. Т., «Fan», 1972.

Бранов А.И. На память о Фергане 1876–1901 гг. Новый Маргилан, 1901.

Бродовский М. Колониальное значение наших среднеазиатских владений для внутренних губерний. Москва, 1891.

Vamberi Herman. Vuxogo yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent, 1990.

Верещагин В.В. От Петербурга до Ташкента. Санкт-Петербургские ведомости. 1868, №16, 20, 31. Т. sb. t. 7.

Верещагин В.В. Из путешествия по Средней Азии. «Голос», 1869, № 94, 98. Т. sb. t. 24.

Верещагин В.В. Самарканд в 1968 году. Из воспоминаний художника. «Русская старина», СПб, 1888. Кп. 9.

Военные действия против кокандцев в 1875–1876 гг (По официальным донесениям). СПб, 1876, Военный сборник, 1876 № 1–4. Т. сб. т. 117.

Война с кокандцами. «Московские ведомости», 1876, № 318.

Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. Сборник документов и материалов. М., 1960.

Галузо П.Г. Вооружение русских переселенцев. М., 1926.

Галузо П.Г. Туркестан – колония. Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 года. М. 1929.

Галузо П.Г. Туркестан – колония. Т., 1935.

Галузо П.Г. К истории колониальной эксплуатации Казахстана в конце XIX – начало XX вв. (на материале южных районов Казахстана). «Особенности империализма в России». М., 1963.

Гаспринский И. Русское мусульманство. Петербург, 1881.

Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. Т., 1908.

Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. М., 1991.

Гуламов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в., «Фан», 1992.

Гулишамбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района, обслуживаемого Среднеазиатской железной дорогой. Ашхабад, 1913.

Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших эр. Т., «Фан», 1960.

Долинский В. Об отношениях России к среднеазиатским владениям и об устройстве Киргизской степи. СПб, 1865.

Деева Е.А. У истоков социал-демократического движения в Туркестанском крае. Т., 1975.

Джамгерчинов Б.Д. Добровольное вхождение Киргизии в состав России. Фрунзе, 1963.

Добрomyслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем., 1912.

Документы архива Хивинских ханов по истории и этнографии Каракалпаков. М., 1967.

Духовская В. Туркестанские воспоминания. СПб, 1913.

Духовской С.М. Всеподданнейший доклад Туркестанского генерал-губернатора генерала от инфантерии Духовского. Ислам в Туркестане. Т., 1899.

Jalilov O. XIX–XX asr boshlaridagi Qoraqalpoq tarixidan (Xiva davlat hujjatlari asosida). Т., «Fan», 1986.

Желябужский Е. Очерки о завоевании Хиви. СПб, 1905.

Ziyoev H. Chorizm va paxta yakka hokimligi. «Sharq yulduzi», 1991 yil 5-son.

Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Т., «Sharq», 1998.

Ziyoev H. Istiqlol – ma'naviyat negizi. Т., «Ma'naviyat», 1999.

Ibrohim Yorqin. Turkistondagi 1916 yil isyoni haqida ba'zi ma'lumotlar. Turk madaniyati. Anqara, 1968.

Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV–XIX вв. Т., 1987.

Irgashev F., Abdurahimova N. Mustamlakachilik siyosati va Turkistonni ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlari). Т., «Akademiya», 2005.

Irgashev F., Abdurahimova N., Suguralieva F. Turkistonda mustamlaka moliiya-xo'jalik idoralari tizimi. Т., «Akademiya», 2008.

Исакаев Б. 20-летие восстания в Киргизии. Журн. «Революция и национальность». М., 1936, № 9.

История Казахстана с древнейших времен до наших дней (очерк). Алматы, 1993.

История Узбекистана. Том 3, Toshkent, «Fan», 1993.

История Коканда. Т., 1984.

История Ташкента. С древнейших времен до победы февральской буржуазно-демократической революции. Т., 1988.

История и историография национально-освободительных движений второй половины XIX – начало XX вв. Средней Азии и Казахстана. Т., 1989.

История XIX века. Под редакцией профессора Лабисса и Рамбо. В 7 томах. М., 1937

Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867–1917). Т., «Фан», 1997.

Камалов С.К. К вопросу о формировании каракалпакского народа. Вестник ККОАНПУз. Нукус, 1987, № 3

Karimov Sh., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiyo bosqini davrida. Andijon, «Meros», 1995.

Кауфман А.А. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. – СПб, 1903.

Kenensariyev T. Kirgizdar jana Kokon xandigi. Osh, 1997.

Kenensariyev T. Isak Asan uulu Polotxan. Osh. КТК, 1998.

Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства 7 ноября 1867–25 марта 1881 г. СПб, 1885.

Кастельская З. Основные предпосылки восстания 1916 г. в Узбекистане. М., 1972.

Кастельская З. Из истории Туркестанского края (1865–1917). М., 1980.

Ковалев П.А. Революционная ситуация 1915–1917 гг. и её проявления в Туркестане. Т., 1971.

Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. СПб, 1870.

- Kostin B.A.* Skobelev. M., «Patriot», 1992.
- Qosimov B.* Milliy uygʻonish. T., «Maʼnaviyat», 2002
- Qosimov B.* Jadidchilik. «Yoshlik», 1990 yil 7-son.
- Qosimov B.* Ismoilbek Gaspirali. Toshkent, 1992.
- Кравец Л.* Первая мировая война и антивоенные настроения рабочих Туркестана. Материалы по истории Узбекистана. . Т., 1973.
- Красный архив М., 1929.Т., XXXIV.
- Кривошеин А. В.* Записка главноуправляющего землеустройством земледелием и о поездке в Туркестанский край. Полтава, 1912.
- Кун А.Л.* Мусульманские школы. «Туркестанские ведомости», 1876, №37.
- Кунавина Г.С.* Формирование железнодорожного пролетариата в Туркестане (1881–1914). Т., 1967.
- Kurat A.N.* Oltin Oʻrda, Qrim va Turkiston xonliklariga oid Yorliqva yozuvlar. Anqara, 1940.
- Лаврентьев В.* Капитализм в Туркестане. Л., 1930.
- Левтеева Л.Г.* Присоединение Средней Азии к России в мемуарных источниках (историография проблемы). Т., «Fan», 1986.
- Ликошин Н.С.* Полжизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. ПГР, 1916.
- Лунин Б.В.* Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Т., 1966.
- Majid Hasanij.* Yurt boʻynidagi qilich yoki istilo. Т., «Adolat», 1997;
- Mazjub Namanganiy.* Tazkirai Hazrati Mazjub Namangoniyy. OʻzR FA Sharqshunoslik instituti. Qoʻlyozma № 2662/4.
- Маликов М.Г.* Крах Туркестанской партии левых эсеров. Из истории КП Уз. Т., 1966.
- Маллицкий Н.Г.* Городское самоуправление в Туркестанском крае. Т., 1917.
- Манжара Д.И.* Революционное движение в Средней Азии 1905–1920 гг. Воспоминания. Т., 1934.
- Масальский В.И.* Хлопководство, орошение государственных земель и частная предприимчивость. СПб, 1908.
- Масальский В.И.* Хлопковое дело в Средней Азии. СПб, 1892.
- Масальский В.И.* Туркестанский край. – СПб, 1913.
- Maʼnaviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. Т., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
- Мелкумов А.* Материалы революционного движения в Туркмении. М. 1924.
- Mert Oʻ.* Buxoro amirligi elchisi Muhammad Porso Afandining Istambuldagi diplomatik faoliyatlari (1867–1869). Turk kulturi Arashtirmalari, XU/1-2 (1976).

- Mehmet Saray.* Rus ishg'oli davrida Usmonli davlati bilan Turkiston xonliklari orasidagi siyosiy munosabatlar (1775–1875). Istanbul, 1990.
- Mehmet Saray.* Rossiyaning Turk ellariga yoyilishi. Istanbul, 1975.
- Милютин А.Д.* Дневник Милютина. М., 1947–1950, № I-IV.
- Миропиев М.* О положении русских инородцев. СПб, 1901.
- Mirza Olim Toshkandiy.* Ansob as-salotin va tavorix-i al-xavoqin. O'zR FA Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 3753. Mirzo Olim Mushrif Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin. (Qo'qon xonligi tarixi). Nashrga tayyorlovchilar: Akbar Matg'oziev, Muhabbat
- Usmonova. G'.* G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1995.
- Mirza Sodiq Munshi.* Tarix-i Manzum. O'zR FA Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 3686/111.
- Muboshir Kosoniy.* O'rta Osiyo tarixi (uch jildlik). Madina, 1989-1993.
- Mullo Shamsi.* Jangnoma-yi Xudoyorxoniy. O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma №599/1.
- Mullo Vasiyjon.* Tazkira-yi Sultoni (Xudoyorxon). O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma № 592.
- Mulla Olim Maxdum Xo'ja.* Turkiston tarixi. Toshkent, 1915.
- Mulla Yunusxon Munshiy.* Amiri lashkar Alimqul tarixi. Alimqul Jangnomasi. Nashrga tayyorlovchilar. R.Shamsutdinov, P.Ravshanov. T., 1998.
- Mullo Yunusxon Munshiy.* Tarixi Alimqul amiri lashkar. O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma №12136.
- Mullo Xolbek ibn Muso Andijoniy.* Alimqul jangnomasi. O'zR FA Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 8816.
- Муравейский С.* Очерки по истории революционного движения в Средней Азии. Т., 1926.
- Muso Turkistoniy.* Ulug' Turkiston fojiasi. 1-11 jildlar. Madina, 1979.
- Muhammad Aziz Marg'iloniy.* Tarixi Aziziy (Farg'ona chor mustamlakasi davrida). Nashrga tayyorlovchilar. Shodmon Vohidov, Dilorom Sangirova. T., «Ma'naviyat», 1999.
- Muhammad Mahmud.* Bobon To'qsabo. – «Jamiyat va boshqaruv». T., 1998, 3-son.
- Muhammad Solix, Toshkandiy.* Tarixi jadidai Toshkend. O'zR FA Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 5732.
- Muhammad Fozilbek.* Mukammal-i Tarix-i Farg'ona O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma. № 5971.
- Muhammad Hakimxon To'ra.* Muntaxab at-tavorix. O'zR FA Sharqshunoslik institutiga, qo'lyozma № 584.

Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin Toib. To'hfai Toib. Qo'lyozma, 1905.

Muhammad Aziz ibn Muhammad Rizo Marg'iloniy. Tarixi Aziziy (Farg'ona chor mustamlakachiligi davrida). Nashrga tayyorlovchilar, so'zboshi va izohlar mualliflari: Shodmon Vohidov, Dilorom Sangirova.

Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худоярхона). Т., «Fan», 1973.

Набиев Р.Н. Народное восстания в Коканде в 1840–1842 годах. Общественные науки в Узбекистане. Т., 1961, № 7.

Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней Азии.

Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. Казань, 1886.

Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. Т., 1913.

Narshaxiy. Vuxogo tarixi. Meros. Toshkent, «Kamalak», 1991.

Новый источник по истории завоевания Туркестана русским царизмом. Известия АН УзССР, 1941, № 4.

Остроумов Н.П. К истории народного образования в Туркестанском крае. Константин Петрович фон Кауфман – устроитель Туркестанского края. Личные воспоминания Н.П. Остроумова (1877–1881 гг.). – Т., 1899.

Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы (Общий очерк). Т., 1890.

Объединенная научная сессия, посвященная прогрессивному значению присоединения Средней Азии к России. Доклады. Т., 1959.

Павлов С, Рабинович М. Кокандское восстание (1875–1876 гг.). «Борьба классов». М., 1936.

Пален К.К. Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчета о произведенной в 1908–1909 гг. по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К.Паленом ревизии Туркестанского края. СПб, 1910.

Переселение и земелустройства в Азиатский России. Сборник законов и расположений составитель В.П.Вошин. ПТР, 1915.

Покровский М.Н. К вопросу об историческом развитии России. «Под знаменем марксизма», 1924, № 5-6.

Покровский М.Н. Марксизм и особенности исторического развития России. Л. 1925.

Попов А.Л. Из истории завоевания Средней Азии. Исторические записки, 1940, № 9.

Попов М. «Ак-пашша — белый генерал». «Звезда Востока», 1990, № 3.

Пясковский А.В. Революция 1905–1907 годов в Туркестане. М., 1958.

- Ravshanov P.* Qashqadaryo tarixi. Toshkent, «Fan», 1995.
- Ravshanov P., O'roqov R.* Ajdodlarimiz qadri. T., «Sharq», 1999.
- Раджапова Р.Я.* К вопросу о диалектике социалистического, демократического и национального в социальной революции (историографические аспекты проблемы). Сборник «Октябрьская революция в Средней Азии и Казахстане: теория, проблемы, перспективы изучения». Т., 1991.
- Rasulov B.M.* Turkiston madrasalari. «Fan va turmush», 1996 yil 2-son.
- Рожкова М.К.* Экономические связи России со Средней Азией 40—60 годы XIX в. М., 1963.
- Романовский Д.И.* Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. Петербург, 1868.
- Ромодин В.А.* Некоторые источники по истории Ферганы и Кокандского ханства (XVI—XIX вв.). Труды XXV международного конгресса востоковедов. М. М., 1963, Т. III.
- Садыков А.С.* Россия и Хива в конце XIX – начале XX века., 1972.
- Савицкий А.* Поземельный вопрос в Туркестане. Т., 1963.
- Санг-Заде.* К 30-летию Андиганского восстания 1898 г. «Революция в Средней Азии». Сборник 1. Toshkent, 1928.
- Сафаров Г.И.* Колониальная революция (опыт Туркестана). М., 1921.
- Saidov M., Ravshanov P.* Jeynov tarixi. T., 1966.
- Saidi Sharif Muxammadov (S.Sh. Marofiev).* Xodji Yusuf Xudjandi. T., 1995.
- Saidqulov T.* O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
- Sayfiddin Xoji Jalilov.* Saltanatni titratgan kunlar (Andijon qo'zg'olonining 100 yilligiga bag'ishlanadi). T., «Fan», 1998.
- Семёнов А.А.* Покоритель и устроитель Туркестанского края генерал-адъютант К.П. фон Кауфман. Кауфманский сборник. М., 1910.
- Серебренников А.Т.* Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания. Т.Ю. Штаб Туркестанского Военного округа (1914–1915).
- Серебренников А.* Военные действия против Кокандцев (на основе официальных данных). Военный сборник. 1876, № 2.
- Sodiqov H., Bobobekov H.* Qurbonjon – xalq madadkori. «Guliston», 1974 yil, 7-son.
- Соколов Ю.А.* Начало военных действий против Кокандского ханства и вопросы присоединения его к России. Т., 1969.
- Soliev P.* O'zbekiston tarixi. T., 1928.
- Субботин А.П.* Россия и Англия на среднеазиатских рынках. СПб. 1885.

Суворов В. Историко-экономический очерк развития Туркестана (по материалам железнодорожного строительства 1880–1917 гг). Т., 1962.

Сулейманова Х. Вопросы уголовного права узбекских ханств и до-революционного Туркестана. Собр. соч. Т.1 Т., 1967. стр. 76–83.

Султаны Кенисара и Садык. Биографические очерки султана Ахмета Кенисары. Обработано для печати и снабжено примечаниями Е.Р.Смирновым. – Т., 1889.

Tarix-i Alimquli amir-i Lashkar. Shodmon Vohid Husayinzoda soʻz boshi yozib, nashrga tayyorlagan. «Sharq yulduzi», 1961 yil 1-2-sonlar.

Терентьев М. А. История завоевания Средней Азии. Т.1–3, СПб, 1906.

Троицкая А.Л. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. М., 1969.

Туреєв А.Х. XIX asr oxiri – XX asr boshida Qoraqalpogʻistondagi dehqonlar harakati. Nukus, «Qoraqalpogʻiston», 1991.

Туркестанские ведомости. – Т., 1871 – 1914.

Туркестанский сборник статей, заметок и корреспонденций. Т., 6. СПб. Т., 6. SP6, 1907.

Туркестанское сельские хозяйство. – Т., 1906–1908.

Turon tarixi. 1-3 – sonlar. Majmua. Toshkent, 1992, 1993, 1994.

Федченко А.П. В Кокандском ханстве. Тетрадь первая. СПб, Москва, 1875.

Федоров Е. Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии. Т., 1925.

Fozilbek Otabek oʻgʻli. Dukchi eshon voqeasi. Fargʻonada istibdod jallodlari. Nashrga tayyorlovchilar Sirojiddin Ahmad, Ulugʻbek Dolimov, Shuhrat Rizaev. Т., «Choʻlpon», 1991.

Oʻzbekiston tarixi. 8-sinf uchun. Akad. A.Asqarov tahriri ostida. Т., «Oʻqituvchi», 1996.

Oʻzbekiston tarixini oʻrganish va oʻqitishning dolzarb masalalari. Т., «Oʻzbekiston», 1993.

Oʻzbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Т., 1998.

Oʻzbekiston yangi tarixi. Konseptual metodologik muammolar. Т., «Akademiya», 1998.

Oʻzbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy toʻplam. 2-son. Т., «Sharq», 1999.

Haydarov H. Jizzax tarixidan lavhalar. Т., «Mehnat», 1992.

Халфин Н.А. Политика России в Средней Азии (1857–1868). М., 1960.

- Халфин Н.А.* Присоединение Средней Азии к России (60–90-годы XIX в.). М., 1965.
- Халфин Н.А.* Россия и ханства Средней Азии. М., 1974.
- Hamidov H.* O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. Toshkent, «O‘qituvchi», 1996.
- Хасанов А.Х.* Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства. М., 1977.
- Hasanov X.* O‘zbekcha globus tarixidan. «Sovet maktabi», 1962 yil 9-son.
- Хидоятов Г.А.* Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60–70 гг.) Т., 1969.
- Xolboev S.* Munavvar Qori. «Fan va turmush», 1990 yil 4-son.
- Xoroshxin A.P.* Turkiston o‘lkasiga oid maqolalar to‘plami. Sankt-Peterburg, 1876. P.Ravshanov o‘zbek tiliga o‘girgan qo‘lyozma.
- Целькина Э.* Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. М, 1935.
- Choriev Z.* Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari (1916–1917 yillar). Т., «Sharq», 1999.
- Shamsutdinov R.* Jadidchilik: haqiqat va uydirma. «Muloqot», 1991 yil 11-12-sonlar.
- Shamsutdinov R.* Dukchi Eshon voqeasidan so‘ng. – «Sharq yulduzi», 1991 yil 1-son.
- Shamsutdinov R. T., Rasulov B. M.* Istiqlol uchun kurash fidoyilari. Andijon, «Meros», 1993.
- Shamsutdinov R. T., Rasulov B.M.* Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari). Andijon, «Meros», 1995.
- Shamsutdinov R. T.* Tarixiy merosimizga bir nazar. Andijon, «Meros», 1994.
- Rizaev Sh.* Jadid dramasi. Т., «Sharq», 1997.
- Юдин М.* Взятие Ак-мечети в 1853г. как начало завоевания Кокандского ханства. М., 1912.
- Южаков Ю.* Итоги двадцатисемилетнего управления нашего Туркестанским краем. СПб, 1891.
- Юлдашев А. М.* Аграрные отношения в Туркестане. Конец XIX–нач XX вв. Т., 1969.
- Yusupov Sh.* Furqat yo‘llarida. Adabiy maqolalar. Т., 1984.
- Yusupov Sh.* Xudoyorxon va Furqat. Т., «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, 1995.
- Yusupov Sh.* Qozikalonning insofi. «Milliy tiklanish», 1996 yil 26 mart.
- Юсупов Э.Ю., Лунин Б.В.* Андижанское восстание 1898 года в со-

ветской исторической литературе. Общественные науки в Узбекистане. Т., 1987, №1.

Якунин А. Ф. Народы Средней Азии и Россия. М., 1954.

Yaquniy Mahmud Hakim. Tarix-i salotini Fargʻona. Hoʻqand, 1914. II. Dissertasiyalar

Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Т., 1994.

Аюбжанова М. Женский вопрос в Туркестане (1865–1917 гг.) Дисс. на соиск. уч. ст. канд. ист. наук. Т., 1964.

Бобобеков Х. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки. Диссертация на соискание уч. ст. докт. ист. наук. Т., 1990.

Бобомуротов Т.М. Репрессивные органы как инструмент колониальной политики царской России в Туркестане (1865–1917). Дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. Т., 2006.

Voxidov Sh. Avaz Muhammad Attor Xukandi i yego sochinenie «Tarix-i djaxannama-yi» (Tuxfat at-Tavarixi xani). Issledovanie, perevod, primechaniya. Dis. na soisk. uch. st. kand. ist. nauk. Т., 1990.

Vohidov Sh. XIX–XX asr boshlarida Qoʻqon xonligida tarixnavislikning rivoji. Dokt. diss. Toshkent, 1998.

Дворкина Е. Национально-колониальная политика самодержавия в первые годы царского владения в Туркестане (1867–1881 гг.). Диссертация на соиск. уч. ст. канд. ист. наук. Т., 1943.

Ziyaeva D.H. Turkistonda milliy-ozodlik harakati XX asr tarixnavisligida (1916 yil qoʻzgʻaloni va 1918–1924 yillardagi istiqloqlolchilik harakatini oʻrganish muammolari). Dokt. diss. Toshkent, 1999.

Потанова Н.Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX начала XX вв.). Дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук, 1998.

Murodova Sh. XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari tarixi (Samarqand viloyati misolida). Nomzodlik dissertasiyasi. Т., 1999.

Sodiqov H.J. XX asr boshlarida chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va istikdol uchun kurash. Dokt. diss. Т., 1994.

Кененсариев Тошманбет. Политическое развитие Кыргызстана 50—70-е годы XIX века. Т., 1948.

Xoliqova R.E. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixi. Dokt. diss. Т., 2005.

Choriev Z.U. XX asr boshida Turkiston oʻlkasida mustamlakachilik siyosati va milliy zulmning kuchayishi hamda uning oqibatlarini (mardikorlikka safarbarlik misolida). Dokt. diss. Toshkent, 1999. III.

Matbuot

«Taraqiy» (1906), «Shuhrat» (1907), «Xurshid», (1907), «Туркестанские ведомости» (1870–1917), «Russkiy Turkestan» (1905–1906), «Turkestanskiy kur'er» (1910–1917), «Sadoi Turkiston» (1914–1915), «Sadoi Farg'ona» (1914–1915), «Туркестанский край» (Kokand), «Туркестанское слово», «Туркестанский голос» (1916–1917), «Ulug' Turkiston» (1917), «Hurriyat» (1917), «Svobodniy Samarqand» (1917), «Nasha gazeta», «O'zbekiston ovozi», «Turkiston», «Xalq so'zi», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Turkiston», «Muloqot», «Sharq Yulduzi», «Fan va turmush», «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar», «Tafakkur», «Sirli olam», «Jamiyat va boshqaruv».

IV. Arxiv manbalari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi

1-jamg'arma. Turkiston general-gubernatori mahkamasi

2-jamg'arma. General-gubernator diplomatik amaldori

3-jamg'arma. Rossiyaning Buxorodagi siyosiy agentligi

5-jamg'arma. Zarafshon okrugi boshlig'i

17-jamg'arma. Sirdaryo viloyat boshqarmasi

18-jamg'arma. Samarqand viloyat boshqarmasi

19-jamg'arma. Farg'ona viloyat boshqarmasi

717-jamg'arma. General-gubernator kengashi

36-jamg'arma. Toshkent shahar boshlig'i idorasi

37-jamg'arma. Toshkent shahar boshqarmasi

718-jamg'arma. Toshkent shahar dumasi

461-jamg'arma. Turkiston rayon muhofaza bo'limi

462-jamg'arma. Toshkent rus qismi polisiya boshqarmasi

463-jamg'arma. Toshkent eski shahar polisiya boshqarmasi

465-jamg'arma. Skobelev shahar polisiya boshqarmasi

531-jamg'arma. Jizzax shahar polisiya pristavi

590-jamg'arma. Andijon shahar polisiya pristavi

129-jamg'arma. Toshkent sud palatasi

133-jamg'arma. Toshkent sud palatasi prokurori

131 -jamg'arma. Samarqand okrug sudi prokurori

132-jamg'arma. Toshkent okrug sudi prokurori

723-jamg'arma. Turkiston harbiy okrug sudi

24-jamg'arma. Sirdaryo viloyati Toshkent tumani boishig'i boshqar-masi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi

Ilmiy arxiv, mustamlaka davri ekspozitsiyasi materiallari, moddiy yodgorliklar jamg'armasi, ilmiy kutubxona.

MUNDARIJA

| | |
|---|---|
| «O'zbekistonning yangi tarixi» haqida ikki og'iz so'z | 3 |
| Mualliflardan | 6 |

Birinchi bob

TURKISTONNING PARCHALANIB KETISHI VA UCH XONLIKDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIIY VAZIIYAT

| | |
|---|----|
| 1. Buyuk Petrning maxfiy rejasi | 30 |
| 2. XIX asrdagi o'zbek xonliklarida davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot | 53 |
| 3. Rossiya va Angliyaning Markaziy Osiyo uchun olib borgan o'zaro kurashi | 65 |

Ikkinchi bob

O'RTA OSIYO XONLIKLARINING CHOR ROSSIIYASI TOMONIDAN ISTILO ETILISHI

| | |
|---|-----|
| 1. E'lon qilinmagan urush... Qo'qon | 86 |
| 2. E'lon qilinmagan urush... Buxoro | 117 |
| 3. E'lon qilinmagan urush... Xiva | 172 |
| 4. Viloyatga aylantirilgan saltanat | 181 |
| 5. Ko'ktepa mudofaasi | 217 |
| 6. Istilo qiyofasi ijodkorlar nazdida | 221 |
| 7. Turkistonda Chor imperiyasi davlatchiligining joriy etilishi | 229 |

Uchinchi bob

TURKISTONDA CHOR IMPERIYASI SIYOSATINING ASOSIIY YO'NALISHLARI

| | |
|--|-----|
| 1. Turkistonda inson huquqlarining poymol etilishi | 253 |
| 2. Soliq va majburiyatlar. Mehnatkash xalq ahvolining og'irlasha borishi | 268 |
| 3. Xalq turmushi: hunarmandchilik, shirkatlar, sanoat va tijorat | 275 |

| | |
|--|-----|
| 4. Agrar siyosat. | 291 |
| 5. Turkistonni ruslashtirish siyosati. | 298 |
| 6. O'lkani xomashyo bazasiga aylantirilishi. | 306 |
| 7. O'rta Osiyo Temir yo'li. Uning imperiya va o'lka iqtisodida tutgan o'mi. | 319 |

To'rtinchi bob

MILLIY DAVLATCHILIKNI TIKLASH VA OZODLIK UCHUN KURASH

| | |
|---|-----|
| 1. XIX asr oxirlaridagi xalq harakatlari | 426 |
| 2. Toshkent qo'zg'aloni | 433 |
| 3. Andijon qo'zg'aloni | 439 |
| 4. O'zbek va rus taraqqiyparvarlari hamkorligi | 469 |
| 5. Dostonga aylangan qahramon | 473 |
| 6. Peterburgni gangitgan voqealar | 485 |
| 7. Birinchi jahon urushi davrida Turkiston taraqqiyparvarlarining istiqlol uchun kurashi | 499 |
| Xotima | 530 |
| Foydalanilgan manba va adabiyotlar | 535 |

HAMDAM SODIQOV, NARZULLA JO‘RAYEV

O‘ZBEKISTON TARIXI

**Turkiston Chorizm
mustamlakachiligi davrida
(birinchi kitob)**

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2011

Muharrir *Sh. Ergasheva*
Badiiy muharrir *T. Qanoatov*
Texnik muharrir *L. Xijova*
Sahifalovchi *L. Batseva*

Nashr litsenziyasi AI № 078, 18.09.2006 y.

Terishga berildi 03.01.2011. Bosishga ruxsat etildi 18.08.2011. Bichimi 60x90^{1/16}. Ofset bosma. «Times New Roman Uz» garniturası. Shartli bosma tabog‘i 34,25. Nashriyot-hisob tabog‘i 33,12. Adadi 3000 nusxasi. Buyurtma № 1796.

**«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.**